2026-yil, 30-may 10(78)-son

Til va adabiyot.uz

ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNAL
НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ
SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL ELECTRONIC JOURNAL

ISSN 2021-9752

«Til va adabiyot – Языка и литературы – Language and literature» (e-mail:tilvaadabiyotuz@gmail.com) https://oak.uz/pages/4802





DOLZARB MAVZU

Gulruxbegim RAVSHANOVA,
QarDU Yangi o‘zbek adabiyoti va adabiyot nazariyasi kafedrasi professori v. b., f.f.d. (DSc)dotsenti
Gulhayo MEYLIYEVA,
Osiyo Texnologiyalar universiteti
O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi 1-kurs magistranti

MODERNISTIK TAMOYILLAR ORQALI MILLIY MENTALITET TALQINI

(Nazar Eshonqul ijodi misolida)

Annotatsiya: ushbu maqolada Nazar Eshonqul ijodining badiiy o‘ziga xosligi modernistik yondashuvlar asosida tahlil etiladi. Asarlarda milliy mentalitetning aks etishi yozuvchining individual badiiy tafakkuri, obrazlar tizimi va ruhiy tasvir usullari orqali ochib beriladi. Muallif modernizmga xos bo‘lgan ichki kechinmalarni ifodalash , voqelikni subyektiv idrok etish hamda kompozitsion erkinlik orqali milliy qadriyatlarni yangicha talqin qiladi. Tadqiqot davomida adib ijodida an’anaviylik va zamonaviylik uyg‘unligi, shuningdek, milliy ruhning yangicha badiiy ifodasi yoritiladi.

Kalit so‘zlar: *Nazar Eshonqul, modernistik yondashuv, milliy mentalitet, ramz, an’ana va zamonaviylik, qadriyat, o‘zbek mentaliteti.*

Annotation: this article analyzes the artistic originality of Nazar Eshonqul’s творчество through modernist approaches. The reflection of national mentality in his works is revealed through the writer’s individual artistic thinking, system of images, and methods of psychological depiction. The author reinterprets national values in a new way by expressing inner experiences characteristic of modernism, subjective perception of reality, and compositional freedom. The study highlights the harmony of tradition and modernity in Eshonqul’s творчество, as well as a renewed artistic expression of the national spirit.

Key words: *Nazar Eshonqul, modernist approach, national mentality, symbol, tradition and modernity, value, Uzbek mentality.*

Аннотация: в данной статье художественное своеобразие творчества Назар Эшонкула рассматривается на основе модернистских подходов. Отражение национального менталитета в произведениях раскрывается через индивидуальное художественное мышление писателя, систему образов и способы психологического изображения. Автор по-новому интерпретирует национальные ценности посредством выражения внутренних переживаний, характерных для модернизма, субъективного восприятия действительности и композиционной свободы. В исследовании освещается гармония традиционности и современности в творчестве Эшонкула, а также новое художественное выражение национального духа.

Ключевые слова: *Назар Эшонкул, модернистский подход, национальный менталитет, символ, традиция и современность, ценность, узбекский ментали.*

Modernizm asarlarda milliy mentalitetni aniqlash unchalik ham murakkab jarayon emas. Shunchaki, “qanday yozilgan?” emas, asarda “qanday ruh?” bor degan nazar bilan qarash kerak. Bu holat ba’zi jihatlarda e’tiborga olinadi. Avvalo, modernizmda qahramon ko‘proq ichki kechinmalar orqali ochiladi. Qahramonning ichki fikrlashi va dunyoqarashida milliy mentalitet namoyon bo‘ladi. Qolaversa, duch kelinadigan umumiy vaziyatlarga turli millatlarda turlicha nazar bilan qarashadi. Agar urf-odatga oid detallar, uy, qishloq, mahalla, ota-ona obrazlari aralashuvi bilan aloqador o‘rinlarda qahramon muammoni sabr bilan yengib o‘tolgan jarayonlarda ham mentalitet belgilari uchraydi. Asar qahramonlari ko‘p hollarda yolg‘iz tasvirlanadi, lekin ular jamiyatdan uzilmagan. Bunda modernizm bilan milliylik uyg‘unlashadi. “Zamonaviy falsafiy lug‘atda mentalitet nafaqat ma’lum bir kishilik jamiyati uchun xos bo‘lgan, nafaqat bilim, e’tiqod, tashvishlar, balki qadriyatlar silsilsasi, asosiy ehtiyojlar, jamoaviylik g‘ayrishuuriylik andozasi (arxetip), shuningdek, kishilarning xatti-harakatlari va fikrlash tarzi, ma’lum davr, geografik makon va ijtimoiy muhit individlari, jamoalarning tabiiy muhiti, o‘zini o‘rab turgan olam bilan munosabatlarning o‘ziga xosligini ta’minlovchi omil sifatida ta’riflanadi. …O‘zbek falsafa qomusiy lug‘atida mentalitet (lot. Mentalis – aql, idrok) – jamiyat , millat, jamoa yoki alohida tarixiy tarkib topgan tafakkur darajasi, ma’naviy salohiyati, hayot qonunlarini tahlil etish kuchi, muayyan ijtimoiy sharoitlarda shakllanadigan aqliy qobiliyati, ruhiy quvvati”, [1;79] deb ta’rif berilgan.

Milliy mentalitet tasvirida modernistik yondashuv Nazar Eshonqul ijodida o‘zgacha yoritilishi bilan ahamiyatli. Unda an’anaviy voqea emas, qahramonning ichki ruhiy holati ramz va psixologik tarzda yoritilishi orqali milliy qarashlar, urf-odatlar kabi unsurlar namoyon bo‘ladi. Adibning “Shamolni tutib bo‘lmaydi” hikoyasining “…Zamon otboqar o‘limidan bir kun oldin yaktaklar torda uvada- uvada bo‘lib osilib turar, ular endi kiyimdan ko‘ra ko‘proq qabrlar ustiga ilib qo‘yiladigan laxtakka o‘xshab qolgandi…”[2;337] parchasida oddiy kiyim tasviri emas, ramziy ma’no ustunlik qiladi. Bu “vaqtning shafqatsiz o‘tishi, Bayna momoni qiynagan qasos o‘tining so‘nishi bilan kiyimlarning ham uvadalanib ketishi” ma’nolarini ifodalaydi. Asarda o‘zbek xalqiga xos an’ana yaqin

insonlarni bir joyga dafn etish (Bayna momoni eri va o‘g‘lining qabri yoniga qo‘yilishi), qabrlarning har hafta tozalab turilishi marhumlarga hurmat va xotirasini qadrlash kabi o‘zbek mentalitetiga xos jihatlar ham tasvirlanadi. Shuningdek, hikoyadagi bu obraz orqali ko‘z oldimizda qishloq odamlariga nafrat bilan qarovchi, o‘g‘li va erining o‘limini pardalar ortidan pinhona kuzatgan erkaklarni er sanamasdan, ularni ayblashi zamirida modernistik “yakkalangan” va atrofdagilarga begonalashgan qahramonni gavdalantiradi. “Shu xil iztirob, g‘am-alamlarga qaramay u g‘ururini, sha’nini baland tutadi: “Bayna momo qishloqdoshlariga ko‘z-ko‘z qilmoqchiday va bu uyning erkagi o‘lmagan deya ta’kidlayotganday eri va o‘g‘lining polvonlik yaktaklarini har oyning oxirida shusiz ham hammaning ko‘ziga tashlanib turadigan shappatgayiga osib qo‘yardi”. [3;41] Adib oddiy buyum va detallarni falsafiy ma’noga ega ramzlarga aylantiradi. Masalan, “Shamolni tutib bo‘lmaydi” hikoyasidagi yaktak, jelak, sandiq kabi buyumlar qahramonning ichki dunyosi, o‘tgan umr armonlari va milliy qadriyatlarning ramziy ifodasiga xizmat qiladi. Shu tariqa predmet tasviri oddiy realizm doirasidan chiqib, chuqur ma’naviy va falsafiy mazmun kasb etadi. Adib real hayot voqealarini mifologik model asosida talqin qiladi. Shuningdek, Nazar Eshonqul milliy ruhni yangi estetik shaklda ifodalashga muvaffaq bo‘lgan ijodkor hisoblanadi. U modernistik usullar orqali o‘zbek xalqining urf-odatlari, qadriyatlari, oilaviy munosabatlari va mentalitetini birlashtiradi. Shu sababli yozuvchi ijodida milliylik va modernizm uyg‘unlashadi.

“Shamolni tutib bo‘lmaydi” hikoyasida XX asr jahon adabiyotidagi yangicha syujet tuzish va ruhiy tahlil yo‘llari ta’siri yaqqol seziladi. Bu asar “Maymun yetaklagan odam” kabi yangi jahon adabiyotida keng tarqalgan real hayot hodisalarini mifologik model asosida gavdalantirishning bizdagi yaxshi milliy namunasidir”. [3;42] Shu bilan birga, yozuvchi hikoyada buyumlar orqali o‘zbek xalqining qadriyatlari, urf-odatlari va jamiyat bilan bog‘liq qarashlarini ham badiiylashtiradi. Ba’zi o‘rinlarda buyumlar vositasida qahramonning ichki olami ko‘rsatib beriladi. Masalan, jelak bilan bog‘liq “Bayna momo yuzini jelak bilan to‘sib olishi” tasviri orqali ayollarga xos kiyim-kechak tasviri barobarida uning jamiyatdan o‘zini uzib, ichki dunyosiga kirib ketishi ham ifoda etiladi. Asardagi erkaklar kiyimi bo‘lgan yaktak, sandiq kabi buyumlar tasviri bilan bog‘liq voqealar ham o‘zbekona mentalitetni namoyon qiladi.

Asarda xalq marosimlariga oid an’ana va qarashlar ham akslantirilgan. “Murdani yuvish oldidan sandiqni ochishdi. Avval o‘limlikka atalgan kiyim- kechaklarni, kafanni olishdi, so‘ng dastasi qorayib ketgan qamchi, sopiga gavhar o‘rnatilgan xanjar, erkak kishining ter hidi kelib turgan kallapo‘shi, ko‘krakka taqiladigan zebigardon, kampirning qo‘lida hech qachon ko‘rinmagan kelinlik bilaguzugi, etagi kashtali, yoqasiga tasma urilgan keng ko‘ylak, angishvona va sarg‘ayib ketgan Qur’onni olishdi”. [2;342] Bu kichik detallar orqali momoning amalga oshgan va oshmagan istaklari, armonlari, uzoq o‘tmish xotiralari, quvonchga, samimiyatga, sevgiga to‘la unutilmas onlari ifodalangan, asrab kelingan.

Adibning “Shamolni tutib bo‘lmaydi”, “Qultoy” va boshqa bir nechta hikoyalari ayol psixologiyasi, sabr chidamini ochib berish barobarida jamiyat va shaxsiy dunyo orasidagi ziddiyatni yoritadi. Ayolni sabrli, bardoshli, yolg‘iz va qiynalgan ifodasida tasvirlash orqali an’anaviy jamiyatdagi cheklovlar, erkak hukmronligi va urf-odatlarning qattiqligi tanqid ostiga olinadi. Shuningdek, ulardagi ayol obrazi jamiyat urf-odatlari va oilaviy qadriyatlarga bog‘langan, lekin ichki dunyosida cheklangan va yolg‘iz tarzda namoyon bo‘ladi. Ba’zi o‘rinlarda esa erkak hukmronligi va ayolning cheklangan o‘rni orqali milliy qarashlarning gender jihati aks ettiriladi. Asar mavzusining o‘ziyoq ramziy ma’noga ega bo‘lib, ayol shijoati, tuyg‘ular tug‘yonini (“Shamolni tutib bo‘lmaydi”) qafasda, tutqunlikda saqlab bo‘lmasligini, ozodlik, erkinlikka intilishini, o‘zbekona fidoyiligini ifodalaydi.

Hikoyalardagi mentalitet unsurlari ayollar orqali, ularning xatti-harakatlari bilan, psixologizmi, tashqi ko‘rinishi-yu hayot oldidagi yozilmagan vazifalarini ado etishi bilan yaqqol namoyon qilingan. (Zero, ayol obrazi hamisha o‘zbek mentalitetini akslantirishda ajralmas bir bo‘lakdir. “Farishta” hikoyasidagi Sanchoning erkakshoda ayoli (edi): hayot bergan barcha erkaliklarga ega, qizlarga xos nazokat va nafislikdan yiroq (bu kabi ko‘plab xislatlar sohibasi) bir qiz turmushning kelinlik, ayollik, onalik vazifalarini o‘z zimmasiga oladi. Hattoki, Sancho baxshiga shogird tushib qishloqdan bir necha yilga chiqib (qochib) ketganida ham , hali to‘ylari bo‘lmagan bo‘lsa-da, qiz qochoq kuyovni shahzodasini kutgan malika kabi o‘z uyida sabr bilan kutgandi. Bu ham mentalitetimizga xos sadoqat timsoli bo‘lib, bolalarcha beg‘ubor, aqliy jihatdan yetuk bo‘lmagan yigitning kelishini kutishga to‘sqinlik qilmadi. Farzandlari qatorida turmush o‘rtog‘ini ham farzand kabi ardoqladi, mehr berdi, voyaga yetkazishda davom etdi. Bu jarayonda u AYOL bo‘ldi, o‘zbekning sabrli, mehrli, “farishta”ning farishta ayoli bo‘ldi. “…Sanchoning uyiga fayz ham olib kirdi. Kelin eriga favqulodda mehribon chiqdi: uni ikki yilgacha boshqa kuyovlarning havasini, kelinlarning hasadini keltirib xuddi sunnat qilingan boladay yasantirib, boshiga qati buzilmagan do‘ppi, egniga oppoq ko‘ylak, baxmal chopon kiydirib olib yurdi. Kelin bolalar bilan o‘ynab kir qilgan ko‘ylak va choponni ertalabgacha yuvib, dazmol bosib qo‘yardi. Kelinning oldida Sancho o‘smir boladay ko‘rinardi, lekin kelin uydan tashqariga chiqdimi, hamisha erining izidan yurar, undan bir qadam ham oldinga o‘tmas, garchi ko‘rinishi bola bo‘lsa-da, erlik hurmat-izzatini saqlar, biron og‘iz ortiqcha gap qilmas, talashib-tortishmas, oilaga daxldor biron masala paydo bo‘lsa, hammaga: “Ana, uy egasidan so‘ranglar!” – deb obro‘sini joyiga qo‘yar, Sanchoning qarori qanday bo‘lmasin, baribir unga bo‘ysunar, tersotalik g‘iybatchi xotinlarning g‘ashini battar olovlantirib, daroz kelin bolamijoz eri bilan ahil-inoq yashashardi…” [2;447] Tasvirda turmush o‘rtoqning oiladagi yozilmagan, buvilardan, onalardan ko‘rib, his qilibgina o‘rganiladigan hurmat belgilari biz qidirayotgan unsurlardan biridir.

Ayolning sabr, matonat, vafo timsoli sifatida gavdalangan yana bir hikoya “Bepoyon osmon”da ham faqatgina o‘zbek ayoliga xos bo‘lgan o‘zbek mentaliteti ko‘zga tashlanadi. Har

qancha tuhmatlarga, mehnatlarda, gap-so‘z, g‘iybatlarga sabr bilan bardosh berib yurgan ayol qismati farzandsizlik bilan sinaladi. Hammasiga ko‘nikkan, erining roziligi uchun, erkaklik g‘ururini sindirmaslik uchun umr bo‘yi aybni o‘zida qilib ko‘rsatib kelishga majbur emas, rozi edi, aslida. Hikoya so‘ngidagi sarg‘aygan qog‘ozlardagi yozuvlar bizga qidirayotgan milliy o‘zbek ayolini gavdalantirib beradi. Doktor bilan kelishilgan rejada, hamma ayb erkakda ekanligi, Oyto‘ldining farzand ko‘ra olishini tushunib olishga qo‘yib beradi yozuvchi. Anglab bo‘lmas bu kabi vaziyatlar, yozilmagan qonunlarga bo‘ysunib qalbini dardga to‘ldirgan ayol obrazlarini yaratishda Nazar Eshonqul nozik hislarni, rishtalarni asarlariga singdira olgan. O‘quvchi esa o‘zi sezmagan holatda bu mentalitet urug‘larini qalbiga ekib boraveradi. Bu yozguvchining eng buyuk maqsadining amalga oshganidan dalolatdir.Nazar Eshonqul bilan bo‘lgan bir suhbatda yozuvchi qadriyatlarimiz asosi haqida so‘z yuritib, o‘z fikr-mulohazalarini bildirgan: “… Amerikada olamga va odamga munosabat boshqacha. Biz hali ham guldan, tabiatdan, osmondagi yulduzlardan, yomg‘irdan, xullas, bizni o‘rab turgan olam mo‘jizalaridan hayratga tushib, zavqlanamiz. G‘arb kishisi bu zavqqa anchayin beparvo. U allaqachon hayratlanmay qo‘ygan. Bizning xalq o‘tmishdan va an’analardan uzilib qolgani yo‘q. Shu sababli ko‘plab ma’naviy asoslarimizni saqlab turibmiz. Eng muhim qadriyat bu oila. Oila barcha qadriyatning asosi. Madaniyatning ham asosi. Oilaga qarab turib, biz bu davlat va mamlakatning ertasi haqida aniq xulosalar chiqara olamiz. Oila rishtalari uzilgan, qadriyat sifatida mohiyatini yo‘qotgan joyda ma’naviy fojealar kutib turadi”. [4;77] Yuqoridagi asarda yozuvchining ushbu qarashlari o‘z aksini topgandek.

Nazar Eshonqul ijodida o‘zbek milliy mentalitetining muhim jihatlaridan biri – jamoaviylik, ya’ni “men”dan ko‘ra “biz” tushunchasining ustuvorligi yaqqol namoyon bo‘ladi. Bu xususiyat, ayniqsa, qo‘ni-qo‘shnichilik, mahalla muhitida o‘z aksini topadi. Adibning “Maymun yetaklagan odam” hikoyasida ham ushbu jihat badiiy talqin etilgan. Asarda yosh ijarachi yigitning uy bekasi iltimosi bilan qo‘shni rassom cholga ovqat olib chiqib berishi bizning eskidan mavjud qadriyatlarimizdandir. Cholga mahalla ahlidan ko‘pchilik bunday ikromni anchadan beri ko‘rsatib kelishadi. Yolg‘iz yashayotgan cholning holidan xabar olib turishadi. Muloyimlik, hurmat bilan murojaat qilish, maqol va hikmatli so‘zlardan foydalanish orqali kishi shaxsiyati, xarakteri, badiiy xususiyatlari ochib beriladi. Adibning “Qultoy” hikoyasida til va nutqda, odamlarning gapirish uslubida ham milliy mentalitet unsurlari ko‘zga ko‘rinadi. Asar qahramoni Uljon qo‘rs, qo‘pol, samimiy xislatlar begona, ayollarni hurmat qilishni istamaydigan bir qishloq cho‘poni. Hikoya so‘nggida Uljon janozaga kelganlarning oldida chollarning qistovi bilan nomiga bo‘lsa ham, ro‘molcha bilan ko‘zlarini ishqalab “xolamov” deb qo‘ydi. Bir umr Uljonning nafratiga, g‘azabiga, kaltak va xo‘rliklariga indamay ko‘nikib yashagan Arzixolning so‘nggi kuni ham o‘ziga o‘xshagan tashvish bo‘ldi u uchun. Shunda bobosi uning bu yo‘qlovidan so‘ng nabirasiga o‘tmishini isloh qilishga majbur qiladigan gapni chiroyli, hurmat bilan ifoda etishida biz kutgan mentalitetdagi yana bir unsurni ko‘rish mumkin: “-Onam deb yo‘qlang, bolam. Onam deng… Arzixol sizning tuqqan onangiz bo‘ladi, bolam…”. [2;347]

Aynan kichik yoshdagilarga hurmat bilan murojaat qilish bizning millatimizga, qadriyatlarimizga xos xususiyatlardandir. Shuningdek, ushbu sahnaning o‘zida motam marosimlarida marhumning ortidan yaxshi sifatlarni aytib yig‘lash an’anasi ham ko‘rsatib ketilgan.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, Nazar Eshonqul ijodi o‘zbek modernistik nasrida milliy mentalitetni badiiy va falsafiy jihatdan teran ifodalashi bilan ahamiyatlidir. Adib asarlarida modernizmga xos ichki ruhiy tahlil, ramziylik, begonalashuv, yolg‘izlik kabi unsurlar milliy qadriyatlar, urf-odatlar, oilaviy munosabatlar va xalqona tafakkur bilan uyg‘unlashib ketadi. Shu bois yozuvchi qahramonlari garchi ruhiy jihatdan yolg‘iz va iztirobli tasvirlansa-da, ular milliy ildizlardan uzilib qolmaydi. “Shamolni tutib bo‘lmaydi”, “Farishta”, “Bepoyon osmon”, “Qultoy” kabi hikoyalarda ayol obrazi orqali o‘zbekona sabr, vafo, sadoqat, or-nomus va oilaparvarlik singari mentalitetga xos xususiyatlar yorqin ochib beriladi. Buyumlar, kiyim-kechaklar, marosimlar, mahalla muhiti, motam odatlari kabi detallar esa xalqning tarixiy xotirasi va ma’naviy olamini ifodalovchi ramziy vosita sifatida talqin etiladi. Yozuvchi qahramonlarning ichki dunyosini psixologik va ramziy tasvirlash orqali milliy ruhni modernistik usulda namoyon etishga muvaffaq bo‘ladi.

Nazar Eshonqul ijodi modernizm milliylikka zid hodisa emas, aksincha, jahon adabiyoti tajribalari milliy tafakkur va qadriyatlar bilan uyg‘unlashganda yangi badiiy ifoda shakllari yuzaga kelishini ko‘rsatib beradi. Yozuvchi asarlarida modernistik poetika o‘zbek xalqining ruhiyati, qadriyatlari va mentalitetini chuqurroq ochishga xizmat qilgan. Shu jihatdan adib hikoyalari o‘zbek modernistik nasrining milliy ruh va umuminsoniy badiiy tafakkur uyg‘unlashgan yetuk namunasi sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mamanov J. Milliy mentalitetning xususiyatlari va uni shakllantiruvchi ijtimoiy- madaniy omillar. Maqola. “Alfraganus” xalqaro ilmiy jurnal. 2024. 15/2
2. Eshonqul N. Saylanma I . – Toshkent: Akademnashr, 2022.
3. Normatov U. Umidbaxsh tamoyillar. – Toshkent: Ma’naviyat, 2000.
4. Eshonqul N. Mendan “men”gacha. – Toshkent: Akademnashr, 2014.
5. Boboev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – Toshkent: O‘zbekiston, 2001.

Shaxlo MINGBAYEVA,
Toshkent davlat yuridik universiteti huzuridagi M.S.Vosiqova nomidagi akademik litseyning o‘quv ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosari

JADIDLAR O‘GITI: “SENING UCHUN O‘LMOQ MENING TIRIKLIGIMDIR”

Annotatsiya: mazkur maqolada jadidchilik harakatining Turkiston va turkiy xalqlar tarixidagi o‘rni, uning milliy uyg‘onish, ma’rifatparvarlik va taraqqiyot g‘oyalarini shakllantirishdagi ahamiyati yoritilgan. Jadid namoyandalari — Ismoil Gasprali, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho‘lpon va Abdulla Avloniylarning ilm-fan, ta’lim va milliy taraqqiyot yo‘lidagi qarashlari tahlil qilingan. Shuningdek, maqolada jadidlarning xalqni jaholatdan qutqarish, ma’rifat orqali ozod va taraqqiy etgan jamiyat qurish haqidagi g‘oyalari hamda ularning bugungi davr uchun dolzarb ahamiyatga ega ekanligi ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: *jadidchilik, ma’rifatparvarlik, milliy uyg‘onish, Turkiston, ilm-fan, ta’lim, Fitrat, Cho‘lpon, Avloniy, Gasprali, taraqqiyot, millat, jadid maktablari.*

Аннотация: в данной статье раскрывается значение джадидского движения в истории Туркестана и тюркского мира, его роль в формировании идей национального пробуждения, просвещения и прогресса. Проанализированы взгляды представителей джадидизма — Исмаила Гаспринского, Махмудходжи Бехбуди, Абдурауфа Фитрата, Абдуллы Авлони и Абдулхамида Чулпана на образование, науку и национальное развитие. Особое внимание уделяется идеям просвещения как основного пути освобождения народа от невежества и достижения общественного прогресса, а также их актуальности в современную эпоху.

Ключевые слова: *джадидизм, просветительство, национальное пробуждение, Туркестан, наука, образование, Фитрат, Чулпан, Авлони, Гаспринский, прогресс, нация, джадидские школы.*

Annotation: this article examines the significance of the Jadid movement in the history of Turkestan and the Turkic world, highlighting its role in promoting national awakening, enlightenment, and social progress. The views of prominent Jadid intellectuals such as Ismail Gasprali, Mahmudhoja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniy, and Abdulhamid Cholpon on education, science, and national development are analyzed. The article also emphasizes the Jadids’ belief that enlightenment and modern education were the main means of liberating society from ignorance and ensuring national progress, as well as the contemporary relevance of their ideas.

Key words: *jadidism, enlightenment, national awakening, Turkestan, science,education, Fitrat, Cholpon, Avloniy, Gasprali, progress, nation, Jadid schools.*

Tarixan XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkiston va butun turkiy olamda yuz bergan jadidchilik harakati milliy uyg‘onish va o‘zaro yaqinlashuvning asosiy harakatlantiruvchi kuchi bo‘ldi. Ismoil Gasprali, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho‘lpon, Abdulla Avloniy kabi jadid namoyandalari turkiy xalqlarning kelajagini faqatgina birlik va ilm-fan taraqqiyotida ko‘rsatgan, ular ta’lim va ilm-fanni modernizatsiya qilish, “Usuli jadid” maktablari orqali dunyoviy bilimlarni tarqatib, jamiyatni jaholatdan qutqarishga intilishdi. Ismoil Gaspralining mashhur “Tilda, fikrda, ishda birlik” shiori bugungi turkiy integratsiyaning konseptual asosiga aylandi[1]. Jadidchilik harakatining asosiy g‘oyasi ma’rifatparvarlikdir. Bu g‘oyalar yangi usuldagi maktablarni tashkil etish va ular uchun darsliklar yaratishda yorqin aks etgan. Jadidlarning aksari G‘arbu Sharqning ilg‘or mamlakatlarida ta’lim olib kelgan taraqqiyparvar, ma’rifatli ziyolilar bo‘lib, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Fuzuliy she’riyati, o‘rta asrlarda yaratilgan falsafiy risolalarni o‘qigan va uqqan, bu bilimni jahon madaniyati yutuqlari bilan boyitgan insonlar edi.

Vatan ozodligini barcha narsadan ustun qo‘ygan adib Abdurauf Fitratning “Turonim, sendan

1 “Jadid” gazetasining 2026-yil 15-may 20-soni



“Yuksak fikr va buyuk g‘oya egalari eng buyuk odamlardir”.

VADUD MAHMUD

ayrilmoq — mening o‘limim. Sening uchun o‘lmoq mening tirikligimdir... Men sening uchun tirildim, sening uchun yasharman, sening uchun o‘lurman. Ey turklikning muqaddas o‘chog‘i! O‘lim sening o‘limingni istaganlarga, nafrat seni ko‘mgani kelganlarga”, degan so‘zlari hech bir davrda ahamiyatini yo‘qotmaydi. “Agar bizning hayotimiz Hurriyat va xalqning baxt-saodati uchun qurbonlik sifatida kerak bo‘lsa, biz o‘limni ham xursandchilik bilan kutib olamiz”, deydi yana bir jadid bobomiz Abdulla Avloniy. Abdurauf Fitrat “O‘qitguvchilar yurtiga” she’rida millatni zulmatdan xalos bo‘lishga, ezgulikka chorlaydi. Xalqni, millatni balo-qazolardan qutqaruvchi omil bu ilm, ma’rifat ekanini ta’kidlaydi. Shuningdek, “O‘gut” she’rida millatning saodati, baxti uchun vatandoshlarni ziyraklikka da’vat etadi. Jaholatning qora pardasini ma’rifat bilan to‘zg‘itib yuborishga undaydi. Olimning bu qarashlari nafaqat she’rlarida, balki maqola va dramalarida ham aksini topgan. O‘zbek adabiyotida jadidchilik g‘oyalarining otashin targ‘ibotchisi sifatida kirib kelgan Abdulhamid Cho‘lpon ijodi boshlanishidanoq xalqchillik, ma’rifatparvarlik g‘oyalari bilan sug‘orilgan edi. U “Vatanimiz Turkistonda ziroat va dehqonchilik” maqolasining birinchi qismida dehqonlarning barcha kulfatini anglamaslikdan, ma’rifatsizlikdan deb bilgan bo‘lsa, endi buning o‘zga sabablarini ko‘radi. Muallif o‘zi o‘rtaga tashlagan savolga dehqonlardan quyidagicha javob oladi: “Durust, ziroat mashinalari foydalik ekan, ammo pul kerak, bizning qo‘limizda bo‘lsa, naqd tayyor pul yo‘qdir... Paxta eksak, g‘o‘zapoyasigacha, bug‘doy eksak, somonigacha qarzimiz badaliga xo‘jayinlarimiz — boylarga olib borib beramiz...”. Dehqonlarning ahvolini yaqindan kuzatgan Cho‘lpon maqolaning ikkinchi qismini “Ay taraqqiyparvar yoshlar! Siz ham yozsangizlar, har vaqt bechora mazlum dehqonlarni puldorlardan, qullikdan qutuldurmoq choralari to‘g‘risinda yozinglar. Hammadan ul-bul kerak”, degan murojaat bilan yakunlaydi. Maqolaning uchinchi qismida adib xalqqa, yoshlarga qarata shunday murojaat qiladi: “Yozayluq, qarindoshlar, ziroatdan! Yozayluq, qarindoshlar, iqtisoddan! Alar bo‘lsa, maktab ham bo‘lur, ilm ham bo‘lur. Dehqonlar boylar qo‘lidan, qullik — asirlikdan qutulsa, hammasi bo‘lur...”. Cho‘lpon ma’rifatni taraqqiyotning birlamchi sharti sifatida tushungan

bo‘lsa, ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni ilm-ma’rifat ravnaqining asosi deb biladi. Mazkur mulohazalardan adibning millat ilmli, ma’rifatli bo‘lishi yo‘lida tinimsiz kurashgani ko‘rinadi. Zero, ilm – ma’rifat xalqni orzu – intilishlariga, maqsadlariga eltuvchi oydin yo‘ldir.

Ma’rifatparvar ajdodlarimiz tariximizning yorqin sahifalarini tashkil etadigan ibratli faoliyatini, qadr – qimmati va ahamiyatini hamon yo‘qotmasdan kelayotgan boy merosini hamkor davlatlar, xalqaro tashkilotlar hamda taniqli xorijlik olimlar bilan birgalikda teran tadqiq va targ‘ib etish ustuvor vazifamiz bo‘lishi lozim. “Tilda, fikrda, ishda birlik” degan ezgu g‘oya bilan maydonga chiqqan jadid bobolarimiz xalqni jaholat va qoloqlikdan olib chiqish, g‘aflat botqog‘idan qutqarishning asosiy yo‘li — ma’rifatda, dunyoviy taraqqiyotni egallashda, deb bildi. Shu bilan birga, davlat boshqaruvi, sud, huquq, moliya, soliq tizimlari, yer masalalarini tadrijiy asosda tubdan isloh qilish uchun g‘oyaviy va amaliy harakat qildi, milliy uyg‘onish, milliy taraqqiyot g‘oyasini ro‘yobga chiqarish uchun bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etdi. O‘sha davrdagi vazityat, ijtimoiy tuzum bu ulug‘vor maqsadlarni ro‘yobga chiqarishga yo‘l bermas edi. Millatning qadri mansabu martaba, salobatu hashamat, hatto soha va kasb tanlamaslik bilan o‘lchanmog‘i lozim. Fikrimizga Hazrat Navoiyning ilm va olim haqidagi hikmatlarida so‘z yuritilgan uch toifa haqidagi mulohazasi bilan dalil keltiramiz. Unga ko‘ra, birinchi toifadagi olim o‘z ilmidan dunyoviy farovonlik, martaba uchun foydalanadi. Bu toifaning eng tuban darajasi ilmni “vositai joh” etishgacha boradi. Ikkinchi toifa ilmni faqat ilm uchun qiladi. Uni chuqur o‘rganadi, olimlikning yuksak maqomlari tomon intiladi, xolos. Niyatiga ham yetadi, ammo undan birovga foyda yetmaydi. Uchinchi toifa ilmni xalqi va oxirati uchun o‘rganadi. Kasbi kamolga yetganda undan xalq va millat bahramand bo‘ladi. Alisher Navoiy ilmni inson va jamiyat manfaatiga xizmat qilishi kerak bo‘lgan ulug‘ ne’mat sifatida talqin qiladi. Mutafakkirning “Mahbub ul-qulub” va boshqa axloqiy-ta’limiy asarlarida ilmni mansab va manfaat vositasiga aylantirish qoralanadi, xalq manfaatiga xizmat qiluvchi olimlar esa ulug‘lanadi. Bu qarashlar Navoiy hikmatlarining zamonaviy talqinidir.

Navoiy “Odami ersang, demagil odami, onikim yo‘q xalq g‘amidin g‘ami”, – deb bejiz aytmagan edi. Shunday ulug‘vor tariximizni o‘rganish har birimizni ma’naviy uyg‘oqlik va ogohlikka chorlab, qalblarimizda ulug‘ ajdodlarimizga xos azmu shijoatni yuksaltirishda, farzandlarimizni har tomonlama barkamol, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiq insonlar qilib tarbiyalashda yo‘lchi yulduz vazifasini o‘taydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.“Sadoyi Farg‘ona”, 1914-yil, 10-, 18-, 23-sonlar.
2.“Hurriyat”, 1917-yil, 5-dekabr soni
3.“Turkiy guliston yoxud axloq”. – Toshkent: “O‘qituvchi”, 1992.
4. “Jadidchilik: islohot, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash”. – Toshkent: Universitet, 1999-yil.
5. Abdurauf Fitrat “Tanlangan asarlar”. – Toshkent: “Ma’naviyat”, 2000-yil.
6. “Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti”. – Toshkent: “Ma’naviyat”, 2004-yil.
7. A.Navoiy “Mahbub ul – qulub”. – Toshkent: “G‘. G‘ulom” nashriyoti.— “Mukammal asarlar to‘plami” 2011-yil
8. Abdulhamid Cho‘lpon “Jadid adabiyoti namoyandalari” – Toshkent: “Zabarjad media” 2022-yil
9.“Jadid” gazetasining 2026-yil 15-may 20-son



TILSHUNOSLIK

Maxbuba AXATOVA,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti dotsenti
filologiya fanlari doktori (DSc)

O‘ZBEK TILIDA NUR KONSEPTI

Annotatsiya: ushbu maqolada “nur” so‘zining leksik-semantik xususiyatlari, uning o‘zbek tilidagi ma’nolari hamda tasavvuf ilmida qo‘llanish holatlari tahlil qilinadi. “Nur” leksemasining lug‘aviy va istilohiy ma’nolari qiyosiy o‘rganilib, ularning diniy-falsafiy mohiyati yoritiladi. Shuningdek, tasavvuf ta’limotida nur tushunchasining solik ruhiyati, qalb pokligi, ma’rifat va ilohiy haqiqat bilan bog‘liq jihatlari ilmiy asosda sharhlanadi. Maqolada Qur’on oyatlari, hadislar hamda tasavvufiy manbalarga tayangan holda “nur” tushunchasining ko‘p qatlamli semantik tabiati ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: *nur, tasavvuf, semantika, ma’rifat, solik, qalb, ilohiy yorug‘lik.*

Annotation: this article analyzes the lexical-semantic features of the word “nur” (“light”) and its usage in Uzbek language and Sufi teachings. The literal and terminological meanings of the lexeme are comparatively studied, revealing their religious and philosophical essence. The study also explains the relationship of the concept of light with spiritual purity, enlightenment, the inner state of the seeker, and divine truth in Sufism. Based on Qur’anic verses, hadiths, and Sufi sources, the multilayered semantic nature of the term “nur” is interpreted scientifically.

Key words: *light, Sufism, semantics, enlightenment, seeker, heart, divine light.*

Аннотация: в данной статье анализируются лексико-семантические особенности слова «нур» и его употребление в узбекском языке и суфийском учении. Сравнительно изучаются словарные и терминологические значения лексемы, раскрывается их религиозно-философская сущность. Также освещаются аспекты связи понятия света с духовным состоянием суфия, чистотой сердца, просветлением и божественной истиной. На основе аятов Корана, хадисов и суфийских источников раскрывается многослойная семантическая природа понятия «нур».

Ключевые слова: *свет, суфизм, семантика, просветление, странник, сердце, божественный свет.*

O‘zbek tilining lug‘aviy boyligi ko‘p asrlik diniy, falsafiy va badiiy tafakkur bilan chambarchas bog‘liqdir. Ayniqsa, tasavvuf adabiyoti va irfoniy manbalarda uchraydigan tushunchalar tilning semantik taraqqiyotida muhim o‘rin tutadi. Ana shunday serqatlam ma’noga ega leksemalardan biri “nur” so‘zidir. Ushbu so‘z nafaqat oddiy yorug‘lik ma’nosini, balki ilohiy haqiqat, ma’rifat, qalb ziyosi va ruhiy kamolot kabi murakkab tushunchalarni ham ifodalaydi [6, 94].

“Nur” so‘zi arab tilidan o‘zlashgan bo‘lib, o‘zbek tilida keng qo‘llanadi. U kundalik nutqda ham, diniy-ilmiy matnlarda ham faol ishlatiladigan birliklardan biridir. Tasavvuf ilmida esa “nur” tushunchasi insonning ichki poklanishi, Allohga yaqinlashuvi va ruhiy komilligi bilan bog‘liq holda talqin qilinadi [2, 63]. Shu sababli mazkur leksemaning semantik tabiatini o‘rganish tilshunoslik va tasavvufshunoslik nuqtayi nazaridan dolzarb hisoblanadi.

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da “nur” so‘ziga quyidagicha izoh beriladi: “Yorug‘lik manbaidan taralgan va ingichka tola shaklida tasavvur etiladigan ziyo, yog‘du” [1, 412]. Masalan: “Quyosh nuri”, “Oy yorug‘ nur sochmoqda” kabi birikmalarda so‘zning bosh ma’nosi namoyon bo‘ladi.

Mazkur leksema o‘zbek tilida bir nechta ko‘chma ma’nolarda ham qo‘llanadi. Jumladan, haqiqat, erkinlik, baxt-saodat, ilm-ma’rifat ramzi sifatida ishlatiladi. “Bilim nuri”, “ma’rifat nuri” kabi birikmalar bunga misol bo‘la oladi. Demak, “nur” so‘zi konkret yorug‘likni ifodalash bilan birga abstrakt tushunchalarni ham anglatadi.

Tilshunoslikda bunday hodisa semantik kengayish deb yuritiladi. Ya’ni leksemaning dastlabki fizik ma’nosi vaqt o‘tishi bilan ma’naviy va falsafiy tushunchalarni ifodalash darajasiga ko‘tarilgan. Ayniqsa, diniy matnlar va tasavvufiy adabiyot bu semantik taraqqiyotga katta ta’sir ko‘rsatgan.

Tasavvuf ta’limotida “nur” tushunchasi alohida irfoniy mohiyatga ega. U ilohiy haqiqat va Allohning hidoyatini ifodalovchi ramz sifatida talqin qilinadi. Qur’oni karimda ham nur tushunchasi keng qo‘llangan. Jumladan, “Alloh osmonlar va yerning nuridir” mazmunidagi oyat ilohiy nur konsepsiyasining asosini tashkil etadi [7, 354].

Tasavvuf ilmida “nur” quyidagi ma’nolarni anglatadi:

1. Alloh dinining ramzi;
2. Haq yo‘l va hidoyat belgisi;
3. Solikning ruhiy holatini ifodalovchi ma’naviy ziyo;
4. Qalb, badan va chehradan taraluvchi ruhiy nur;
5. Ilm va ma’rifat ziyosi;
6. O‘n sakkiz olamdan birining nomi;
7. Komil inson ruhining shakli.

Bu ma’nolar orasida eng muhimlaridan biri — qalb nuridir. Tasavvufga ko‘ra, inson qalbi gunoh va nafs zulmatidan poklansa, unda ilohiy nur zohir bo‘ladi. Bunday nur ma’rifat orqali hosil bo‘ladi va insonni Haq tomon yetaklaydi.

Tasavvufda ilm va ma’rifat ko‘pincha nur bilan qiyoslanadi. Chunki ilm inson qalbini yoritadi, jaholat zulmatidan chiqaradi. Shu bois tasavvufiy manbalarda “ilm nuri”, “qalb nuri”, “ma’rifat nuri” kabi birikmalar keng uchraydi .

Alisher Navoiy, Ahmad Yassaviy, Bahouddin Naqshband kabi mutasavvuflar asarlarida ham nur timsoli yetakchi obrazlardan biri hisoblanadi [4, 114; 5, 52]. Ayniqsa, Navoiy ijodida “nur” ilohiy jamol va ruhiy poklik ramzi sifatida talqin etiladi.

Tasavvuf ahli insonning komillikka erishishini qalbning nurlanishi bilan bog‘laydi. Solik riyozat va mujohada orqali nafsini poklaydi. Natijada uning qalbida ilohiy nur paydo bo‘ladi. Bu nur oddiy moddiy yorug‘lik emas, balki ruhiy idrok va ilohiy haqiqatni anglash vositasidir.

Tasavvuf ta’limotiga ko‘ra, inson ruhi ma’naviy darajasiga qarab turli shakllarda namoyon bo‘ladi. Yomon inson ruhi qorong‘ilik va vahshiylik bilan bog‘liq timsollar orqali ifodalansa, yaxshi inson ruhi go‘zallik va latofat bilan tavsiflanadi. Komil inson ruhi esa “yorug‘ nur” shaklida tasvirlanadi.

Bu qarash tasavvufdagi “komil inson” konsepsiyasi bilan uzviy bog‘liqdir. Komil inson — qalbi ilohiy nur bilan to‘lgan, nafsini poklagan, ma’rifatga erishgan shaxsdir. Uning chehrasi va qalbidan nur taralib turadi, degan tasavvur mavjud.

Mujohada ahli bo‘lgan inson qalbining “nafis harir shakliga” kirishi uchun uzoq ruhiy kamolot yo‘lini bosib o‘tishi lozim. Bu yo‘l sabr, zikr, ibodat va riyozat orqali amalga oshadi. Tasavvufda bunday holat “qalbning nurlanishi” deb baholanadi [3, 149].

Tasavvufiy qarashlarning asosiy manbalaridan biri hadislar hisoblanadi. Rasululloh (s.a.v.)ning quyidagi muborak hadislari ham nur konsepsiyasi bilan chambarchas bog‘liqdir:

“Albatta, sizlar menga ismlaringiz va shakllaringiz ila ko‘rsatilursiz, bas, menga salovat aytishni go‘zal qiling”.

Mazkur hadis insonning ma’naviy qiyofasi va ruhiy holati muhim ekanini anglatadi. Tasavvuf ahli ushbu mazmundagi hadislarni qalb pokligi va ruhiy nur bilan bog‘liq holda sharhlagan. Ya’ni insonning ichki dunyosi pok bo‘lsa, uning ruhiy nuri ham go‘zal namoyon bo‘ladi.

Demak, “nur” so‘zi o‘zbek tilida keng semantik imkoniyatga ega bo‘lgan leksemalardan biridir. U dastlab fizik yorug‘lik ma’nosini ifodalagan bo‘lsa-da, diniy va tasavvufiy tafakkur ta’sirida ma’naviy-falsafiy mazmun kasb etgan. Tasavvuf ilmida nur ilohiy haqiqat, qalb pokligi, ma’rifat va komillik timsoli sifatida talqin qilinadi.

Shuningdek, “nur” tushunchasi solikning ruhiy holati, qalbning poklanishi va komil inson g‘oyasi bilan chambarchas bog‘liqdir [8, 113]. Bu esa mazkur leksemaning nafaqat tilshunoslik, balki diniy-falsafiy jihatdan ham muhim ilmiy obyekt ekanini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 jildlik. II jild. — Toshkent: “O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. 672-b.
2. Komilov N. Tasavvuf. — Toshkent: Movarounnahr, 2009. 320-b.
3. Komilov N. Tasavvuf. — Toshkent: Yozuvchi, 1996. 288-b.
4. Alisher Navoiy. Lison ut-tayr. — Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 2011. 432-b.
5. Ahmad Yassaviy. Devoni hikmat. — Toshkent: Sharq, 2004. 256-b.
6. Imom G‘azzoliy. Ihyo ulum ad-din. — Toshkent: Movarounnahr, 2019. 3-jild. 512-b.
7. Qur’oni karim ma’nolarining tarjima va tafsiri / Tarjimon: Shayx Abdulaziz Mansur. — Toshkent: Toshkent islom universiteti nashriyoti, 2020. 624-b.
8. Bahouddin Naqshband. Hayot va hikmatlar. — Toshkent: Yangi asr avlodi, 2018. 224-b.

Dildora AXMEDOVA,
BuxDPI professori, f.f.d. (DSc)
daxmedova77@gmail.com
Quyoshoy ISKANDAROVA,
Buxoro davlat pedagogika instituti magistranti
quyoshoyiskandarova@gmail.com

O‘ZBEK TILIDA XUSHMUOMALALILIK KONSEPTINING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: tadqiqot o‘zbek tilida xushmuomalalilik konseptining lingvomadaniy xususiyatlarini kompleks ilmiy yondashuv asosida tahlil qilishga qaratilgan bo‘lib, unda til, madaniyat va kommunikatsiya o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlik tizimli ravishda yoritiladi. Xushmuomalalilik nutq faoliyatining muhim tarkibiy qismi sifatida ijtimoiy me’yorlar, milliy qadriyatlar va kommunikativ strategiyalar bilan uzviy bog‘liq holda shakllanadi. Tadqiqotda ushbu konseptning nazariy asoslari lingvokulturologiya, pragmalingvistika va nutq aktlari nazariyasi doirasida asoslab berilib, uning semantik, pragmatik hamda diskursiv xususiyatlari aniqlashtiriladi.

Kalit so‘zlar: *xushmuomalalilik, lingvomadaniyat, nutq madaniyati, pragmatika, diskurs, kommunikativ strategiya, nutq aktlari, ijtimoiy me’yorlar, hurmat kategoriyasi, milliy qadriyatlar, etik normalar, lingvokulturologiya, ijtimoiy maqom, nutq etiketi.*

Аннотация: настоящее исследование направлено на комплексный научный анализ лингвокультурных особенностей концепта вежливости в узбекском языке, в котором системно освещается взаимосвязь языка, культуры и коммуникации. Вежливость, как важная составляющая речевой деятельности, формируется в тесной связи с социальными нормами, национальными ценностями и коммуникативными стратегиями. В исследовании теоретические основы данного концепта обосновываются в рамках лингвокультурологии, прагмалингвистики и теории речевых актов, а также уточняются его семантические, прагматические и дискурсивные особенности.

Ключевые слова: *вежливость, лингвокультура, культура речи, прагматика, дискурс, коммуникативная стратегия, речевые акты, социальные нормы, категория уважения, национальные ценности, этические нормы, лингвокультурология, социальный статус, речевой этикет.*

Annotation: this study is aimed at a comprehensive scientific analysis of the linguocultural features of the concept of politeness in the Uzbek language, systematically highlighting the interrelationship between language, culture, and communication. Politeness, as an important component of speech activity, is formed in close connection with social norms, national values, and communicative strategies. The research substantiates the theoretical foundations of this concept within the framework of linguoculturology, pragmalinguistics, and speech act theory, while also clarifying its semantic, pragmatic, and discursive characteristics.

Key words: *politeness, linguoculture, speech culture, pragmatics, discourse, communicative strategy, speech acts, social norms, category of respect, national values, ethical norms, linguoculturology, social status, speech etiquette.*

Globalizatsiya, raqamli kommunikatsiya va ijtimoiy tarmoqlar ta’siri ostida nutqning shakli va mazmunida sezilarli transformatsiyalar yuz bermoqda. Bunday sharoitda xushmuomalalilikning an’anaviy modellari bilan zamonaviy kommunikativ strategiyalar o‘rtasidagi uyg‘unlikni ta’minlash zarurati dolzarb ilmiy muammo sifatida namoyon bo‘ladi. O‘zbek jamiyatida hurmat, kamtarlik, yoshi ulug‘larga ehtirom, ijtimoiy masofani saqlash kabi qadriyatlar til vositalari orqali barqaror ifodalanadi, biroq zamonaviy nutq amaliyotida ushbu ko‘rsatkichlarning transformatsiyaga uchrashi kuzatiladi.

O‘zbek tilida xushmuomalalilik konseptining lingvomadaniy xususiyatlarini o‘rganish masalasi tilshunoslik, lingvokulturologiya va pragmalingvistika kesishgan nuqtalarda shakllangan ilmiy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Mazkur yo‘nalishda olib borilgan tadqiqotlar, asosan, nutq madaniyati, nutq etiketi va kommunikativ kompetensiya doirasida yoritilib,

xushmuomalalilikning nazariy va amaliy jihatlari bosqichma-bosqich rivojlangan.

O‘zbek tilshunosligida nutq madaniyati va xushmuomalalilik masalalari dastlab normativ yondashuv asosida shakllangan bo‘lib, til birliklaridan to‘g‘ri va o‘rinli foydalanish, adabiy me’yorlarga rioya qilish masalalari markaziy o‘rinni egallagan. Bu borada A.Hojiyevning izohli lug‘atshunoslikka oid ishlari, Sh.Rahmatullayevning o‘zbek tilining frazeologik boyligini tahlil qiluvchi tadqiqotlari hamda N.Mahmudovning nutq madaniyatiga bag‘ishlangan ilmiy ishlari muhim metodologik asos vazifasini bajaradi. Ushbu manbalarda xushmuomalalilik ko‘proq til birliklarining semantik nozikliklari va ularning kommunikativ vazifalari orqali izohlanadi.

Keyingi yillarda o‘zbek tilida nutq etiketi va xushmuomalalilik masalalari lingvomadaniy nuqtayi nazardan o‘rganila boshladi. Xususan, M.Yo‘ldoshev va D.Xudoyberganova kabi tadqiqotchilar til va madaniyat o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni asoslab, xushmuomalalilikning milliy mentalitet, urf-odat va ijtimoiy qadriyatlar bilan belgilanadigan hodisa ekanligini ta’kidlaydi. Bu yondashuv xushmuomalalilikni faqat til me’yorlari doirasida emas, balki kengroq ijtimoiy-madaniy kontekstda tahlil qilish imkonini beradi.

Pragmalingvistik yo‘nalishda olib borilgan tadqiqotlarda esa xushmuomalalilik nutq aktlari va kommunikativ strategiyalar bilan bog‘liq holda o‘rganiladi. O‘zbek tilida murojaat shakllari, iltimos va taklif konstruksiyalari, muloyimlik markerlari kabi birliklarning qo‘llanishi ijtimoiy maqom, yosh va kommunikativ vaziyatga bog‘liq ravishda farqlanishi ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Bu jihatlar, ayniqsa, zamonaviy tadqiqotlarda, jumladan, O‘zbek tilshunosligi institutining so‘nggi ilmiy ishlanmalarida keng yoritilgan.

Shuningdek, o‘zbek tilida xushmuomalalilikning diskursiv xususiyatlarini o‘rganishga qaratilgan ishlar ham mavjud bo‘lib, unda real nutq jarayonidagi strategiyalar, ijtimoiy rollar va kommunikativ niyatlarning ifodalanish mexanizmlari tahlil qilinadi. Internet va ijtimoiy tarmoqlarda nutq etiketi transformatsiyasi, qisqartmalar va norasmiy birliklarning kengayishi fonida xushmuomalalilikning yangi shakllari yuzaga kelayotgani qayd etiladi, biroq mavjud ilmiy manbalarning tahlili shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek tilida xushmuomalalilik konseptining lingvomadaniy modeli hali to‘liq tizimlashtirilmagan, uning semantik, pragmatik va diskursiv komponentlari yagona konseptual asosda yetarli darajada umumlashtirilmagan.Shu bois mazkur maqola mavjud ilmiy yondashuvlarni integratsiyalash hamda xushmuomalalilik konseptini kompleks lingvomadaniy hodisa sifatida izohlashga qaratiladi. Tadqiqotning metodologik bazasi zamonaviy lingvokulturologiya, pragmalingvistika va nutq aktlari nazariyasining asosiy tamoyillariga tayanadi. Xususan, til va madaniyatning o‘zaro ta’siri, kommunikativ niyat va ijtimoiy kontekstning nutq shakllanishidagi roli asosiy nazariy yo‘nalish sifatida qabul qilindi.

Tadqiqot doirasida o‘zbek tilida xushmuomalalilik konseptining lingvomadaniy xususiyatlari tizimli ravishda tahlil qilinib, uning semantik, pragmatik va diskursiv komponentlari aniqlashtirildi. Empirik material sifatida og‘zaki va yozma nutq namunalaridan (rasmiy murojaatlar, kundalik muloqot, ijtimoiy tarmoqlar matnlari) foydalanilib, xushmuomalalilikni ifodalovchi til birliklari funksional jihatdan guruhlashtirildi.

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek tilida xushmuomalalilik uch asosiy darajada namoyon bo‘ladi:

1. **Leksik-semantik daraja** (hurmat bildiruvchi birliklar, evfemizmlar).
2. **Grammatik-pragmatik daraja** (modal shakllar, yumshatish konstruksiyalari).
3. **Diskursiv daraja** (kommunikativ strategiyalar va nutq etiketi modellari).

Quyidagi jadvalda xushmuomalalilikni ifodalovchi asosiy vositalarning tizimli tasnifi keltiriladi:

1-jadval

Daraja	Til vositalari	Funksional xususiyat	Misol shakllar
Leksik-semantik	Hurmat birliklari, evfemizmlar	Ijtimoiy maqomni aks ettirish	“iltimos”, “marhamat”, “uzr”
Grammatik-pragmatik	Modal konstruksiyalar	Nutqni yumshatish, bevositalikni kamaytirish	“mumkin bo‘lsa”, “iltimos qilib”
Diskursiv	Strategiyalar va etika modellari	Muloqotni tartibga solish	murojaat + minnatdorchilik + yakun

Xushmuomalalilikni ifodalovchi lingvistik vositalar tasnifi

Natijalar asosida aniqlanishicha, xushmuomalalilikning ifodalanishi ijtimoiy omillar – yosh, maqom, kommunikativ vaziyat va madaniy kontekstga bevosita bog‘liq. Ayniqsa, rasmiy nutqda bilvosita ifoda va murakkab sintaktik konstruksiyalar ustunlik qilsa, norasmiy nutqda qisqa va soddalashtirilgan, biroq hurmat komponentini saqlovchi shakllar qo‘llanadi.

Empirik tahlil natijalari foiz ko‘rsatkichlarida quyidagicha umumlashtirildi:

2-jadval

Vosita turi	Qo‘llanish ulushi (%)
Leksik birliklar	42%
Grammatik vositalar	35%
Diskursiv strategiyalar	23%

Ko‘rsatkichlar xushmuomalalilikning asosiy yukini leksik birliklar va grammatik vositalar bajarishini ko‘rsatadi. Diskursiv strategiyalar esa umumiy kommunikativ tuzilmani tartibga soluvchi qo‘shimcha mexanizm sifatida xizmat qiladi. Shuningdek, tahlil jarayonida xushmuomalalilikning zamonaviy kommunikativ muhitda transformatsiyaga uchrayotgani aniqlandi. Ijtimoiy tarmoqlarda qisqartirilgan shakllar, emoji va vizual belgilar orqali muloyimlik ifodalash tendensiyasi kuchaygani kuzatildi. Bu esa an’anaviy lingvomadaniy modellarning yangi kommunikativ vositalar bilan boyib borayotganini ko‘rsatadi.

Umumlashtirib aytganda, o‘zbek tilida xushmuomalalilik konsepti milliy-madaniy qadriyatlar, ijtimoiy me’yorlar va kommunikativ ehtiyojlar kesishmasida shakllanadigan murakkab lingvomadaniy tizim sifatida talqin qilinadi. Tadqiqot natijalari nutq madaniyatini rivojlantirish, kommunikativ kompetensiyani shakllantirish hamda lingvokulturologik tadqiqotlarni chuqurlashtirishda nazariy va amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mahmudov N. Nutq madaniyati va davlat tilida ish yuritish. – Toshkent: O‘zbekiston, 2013.
2. Yo‘ldoshev M. Lingvokulturologiya asoslari. – Toshkent: Fan, 2018.
3. Xudoyberganova D. Matn lingvistikasi. – Toshkent: Tafakkur, 2015.
4. A. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2006.
5. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining frazeologik lug‘ati. – Toshkent: O‘qituvchi, 1992.
6. Nurmonov A., Mahmudov N. O‘zbek tilining nazariy grammatikasi. – Toshkent: Fan, 2001.
7. Begmatov E. Nutq madaniyati asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2003.
8. Shukurov Sh. O‘zbek tilida nutq etiketi. – Toshkent: Fan, 2010.
9. Abdurahmonov G‘. Tilshunoslik nazariyasi. – Toshkent: Fan, 2008.
10. Safarov Sh. Pragmalingvistika. – Toshkent: Fan, 2008.
11. Hakimov M. Nutq madaniyati va uslubiyat. – Toshkent: O‘zbekiston, 2015.
12. Yo‘ldoshev B. O‘zbek nutq madaniyati masalalari. – Toshkent: Fan, 2012.
13. Sodiqov Q. Til va jamiyat. – Toshkent: O‘zbekiston, 2010.

Nigina HOJIYEVA,
Buxoro davlat pedagogika instituti
o‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi o‘qituvchisi,
filologiya fanlari doktori (PhD)
sh.g.hojiyeva@buxdpi.uz
Saodat MUTALIBOVA,
Bux.DPI magistranti
saodatmutalibova9@gmail.com

O‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDA MEVA NOMLARINING LINGVISTIK VA SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: mazkur maqolada o‘zbek tilshunosligida meva nomlarining lingvistik hamda semantik xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida o‘zbek tilida qo‘llaniladigan meva nomlarining leksik-semantik jihatlari, ularning til tizimidagi o‘rni hamda nutq jarayonida namoyon bo‘lish shakllari ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, meva nomlarining ko‘chma ma’noda qo‘llanishi, frazeologik birliklar tarkibida ishtirok etishi va ular orqali ifodalanadigan baholovchi hamda obrazli ma’nolar ilmiy jihatdan tahlil etiladi.

Kalit so‘zlar: *til, anor, meva, madaniyat, frazeologik birlik, tilshunoslik, ramz.*

Аннотация: в данной статье анализируются лингвистические и семантические особенности названий фруктов в узбекском языкознании. В ходе исследования рассматриваются лексико-семантические аспекты названий фруктов, употребляемых в узбекском языке, их место в языковой системе, а также формы их проявления в процессе речи. Кроме того, с научной точки зрения анализируется употребление названий фруктов в переносном значении, их участие в составе фразеологических единиц, а также оценочные и образные значения, выражаемые через них.

Ключевые слова: *язык, гранат, фрукт, культура, фразеологическая единица, языкознание, символ.*

Annotation: this article analyzes the linguistic and semantic features of fruit names in Uzbek linguistics. The study examines the lexical-semantic aspects of fruit names used in the Uzbek language, their place within the language system, and the forms in which they appear in speech. In addition, the article scientifically analyzes the figurative use of fruit names, their participation in phraseological units, and the evaluative as well as figurative meanings expressed through them.

Key words: *language, pomegranate, fruit, culture, phraseological unit, linguistics, symbol.*

Tilshunoslikda leksik-semantik birliklarni o‘rganish muhim ilmiy yo‘nalishlardan biri bo‘lib, unda muayyan predmet yoki hodisani ifodalovchi so‘zlarning ma’no taraqqiyoti, ularning til tizimidagi o‘rni hamda nutq jarayonidagi funksional xususiyatlari tadqiq etiladi. Meva nomlari ham ana shunday leksik qatlamlardan biri bo‘lib, ular orqali til va madaniyat o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni kuzatish mumkin.

Mazkur maqolaning maqsadi o‘zbek tilshunosligida meva nomlarining lingvistik va semantik xususiyatlarini tahlil qilish, ularning til tizimidagi o‘rni hamda nutqda qo‘llanish imkoniyatlarini aniqlashdan iborat. Tadqiqot jarayonida meva nomlarining leksik-semantik jihatlari, frazeologik birliklar tarkibidagi ishtiroki hamda ularning obrazli ifoda vositasi sifatidagi ahamiyati ilmiy jihatdan yoritiladi.

1. O‘zbek tilida meva nomlarining leksik-semantik xususiyatlari

O‘zbek tilining lug‘at boyligida tabiatga oid so‘zlar muhim o‘rin egallaydi. Shulardan biri meva nomlari bo‘lib, ular o‘zbek xalqining kundalik hayoti, qishloq xo‘jaligi faoliyati hamda madaniy an’analari bilan chambarchas bog‘liqdir. Meva nomlari tilning leksik qatlamiga kirib, aniq predmetlarni nomlash bilan birga ko‘chma ma’nolarni ham ifodalash imkoniyatiga ega. Masalan, “olma”, “anor”, “uzum”, “shaftoli”, “behi”, “gilos” kabi meva nomlari dastlab o‘zining to‘g‘ridan to‘g‘ri ma’nosida ishlatiladi:

Misol: Bog‘imizda bu yil olma va gilos mo‘l hosil berdi. Biroq nutq jarayonida bu birliklar ko‘pincha ko‘chma semantik ma’nolarni ham ifodalaydi. Masalan: “olmadek qizil yuz” – chiroyli, sog‘lom yuz ma’nosini bildiradi; “anor yuz” – qizil va jozibali yuz tasviri uchun ishlatiladi; “shaftolidek mayin” – yumshoqlik yoki noziklikni ifodalaydi. Bunday semantik kengayish jarayoni tilshunoslikda metaforik ma’no ko‘chishi sifatida talqin qilinadi. Bu haqida Sh. Rahmatullayev o‘zining “O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati” asarida ham qayd etadi. Shuningdek, “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da meva nomlarining asosiy va ko‘chma ma’nolari alohida ko‘rsatib o‘tilgan.

2. Meva nomlarining frazeologik birliklar tarkibida qo‘llanishi. O‘zbek tilida meva nomlari ko‘plab frazeologik birliklar tarkibida uchraydi. Frazeologizmlar tilning obrazli

ifoda vositalaridan biri bo‘lib, ular xalqning tarixiy tajribasi va dunyoqarashini aks ettiradi. Masalan:“Olmani olma, nokni nok de” ma’nosi: haqiqatni yashirmasdan aytish.

“Bir qop yong‘oq” ma’nosi: muammoli yoki chalkash holat.

“Anor donasidek sochilib ketmoq” ma’nosi: tarqalib ketish.

“Danagidan mag‘zi shirin” ma’nosi: tashqi ko‘rinishidan ham, mazmunidan ham yaxshi.

Bu frazeologik birliklar nutqda obrazlilikni kuchaytirish, fikrni ta’sirchan ifodalash hamda milliy mentalitetni ko‘rsatishda muhim ahamiyatga ega.

Sh. Rahmatullayevning fikriga ko‘ra, frazeologik birliklar tarkibidagi komponentlar ko‘pincha o‘zining asl ma’nosidan uzoqlashib, umumiy ko‘chma ma’no hosil qiladi.

3. Meva nomlarining lingvomadaniy xususiyatlari. Meva nomlari nafaqat til birliklari, balki milliy madaniyat va ramziy tasavvurlar bilan ham bog‘liqdir. O‘zbek xalqining an’anaviy madaniyatida ayrim mevalar ramziy ma’noga ega.

Masalan:

Anor – serhosillik va baraka ramzi.

Uzum – farovonlik va mo‘l-ko‘lchilik timsoli.

Olma – go‘zallik va yoshlik ramzi.

Bu ramziy ma’nolar badiiy adabiyotda ham keng qo‘llaniladi. Masalan, Alisher Navoiy asarlarida ham tabiat obrazlari, jumladan meva nomlari orqali inson go‘zalligi va tuyg‘ulari tasvirlangan.

Tilshunos N. Mahmudov til va madaniyat o‘rtasidagi bog‘liqlikni tahlil qilib, leksik birliklar xalqning milliy tafakkuri bilan uzviy bog‘liq ekanini ta’kidlaydi.

Meva inson mehnati va tabiat uyg‘unligining mahsuli sifatida hosildorlik va baraka timsoli hisoblanadi. Shuning uchun ko‘plab xalqlarning madaniyatida mevalar mo‘l-ko‘lchilik, farovon hayot va rizq-ro‘zining ramzi sifatida talqin qilinadi. O‘zbek xalqining an’anaviy tasavvurlarida ham mevali bog‘lar farovonlik va tinch hayot belgisi sifatida qadrlangan.

Badiiy tafakkurda ayrim mevalar alohida ramziy ma’noga ega. Masalan, olma ko‘pincha yoshlik, go‘zallik va poklik timsoli sifatida talqin qilinadi. O‘zbek she’riyatida “olmadek yuz”, “olmadek qizarib ketdi” kabi tasvirlar inson go‘zalligini ifodalash uchun qo‘llanadi.

Anor esa sharq madaniyatida ko‘pincha serhosillik, birlik va baraka ramzi hisoblanadi. Anorning ko‘plab donalardan iborat bo‘lishi xalq tasavvurida ko‘plab avlodlar, farzandlar va mo‘l-ko‘l hayot bilan bog‘lanadi.

Uzum sharq madaniyatida farovonlik va ne’mat timsoli sifatida qaraladi. Uzum bog‘lari qadimdan boylik va serhosillik belgisi sifatida qadrlangan. Shu sababli badiiy adabiyotda uzum ko‘pincha mo‘l-ko‘l hayot tasvirida ishlatiladi.

Shaftoli va gilos esa noziklik, latofat va nafislik ramzi sifatida talqin qilinadi. Ularning rang-barangligi va yumshoqligi ko‘pincha insonning go‘zalligi, ayniqsa, ayol husni tasvirida ishlatiladi.

O‘zbek tilshunosligida meva nomlari tilning leksik boyligini tashkil etuvchi muhim qatlamlardan biri hisoblanadi. Ular dastlab aniq predmet nomlarini ifodalovchi oddiy leksik birliklar sifatida shakllangan bo‘lsa-da, til taraqqiyoti jarayonida turli semantik va funksional kengayishlarga ega bo‘lib, ko‘chma ma’nolar, obrazli ifodalar hamda frazeologik birliklar tarkibida faol qo‘llanila boshlagan. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek tilida qo‘llaniladigan olma, anor, uzum, yong‘oq, gilos, shaftoli kabi meva nomlari turli frazeologik birliklar tarkibida qatnashib, muayyan semantik ma’nolarni ifodalashga xizmat qiladi. Masalan, “olmani olma, nokni nok de” birikmasi rostgo‘ylik va aniqlik g‘oyasini bildirsa, “danagidan mag‘zi shirin” iborasi ichki mazmunning qadrli ekanini anglatadi. Shuningdek, “anor donasidek sochilib ketmoq” kabi birliklarda mevaning tabiiy tuzilishi asosida ko‘chma ma’no hosil qilinganini ko‘rish mumkin. Bunday misollar meva nomlari asosida yaratilgan frazeologizmlarning xalq tafakkuri va obrazli fikrlash jarayoni bilan bevosita bog‘liqligini ko‘rsatadi. Sharq va o‘zbek madaniyatida ayrim mevalar muayyan ramziy ma’nolarga ega bo‘lib, masalan, anor – baraka va serhosillik, uzum – farovonlik, olma – go‘zallik va yoshlik timsoli sifatida talqin qilinadi.

Shu nuqtayi nazardan, meva nomlari bilan bog‘liq leksik va frazeologik birliklarni tizimli ravishda o‘rganish, ularning badiiy adabiyot, folklor hamda zamonaviy nutqdagi qo‘llanishini tahlil qilish o‘zbek tilshunosligida istiqbolli ilmiy yo‘nalishlardan biri sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati. – Toshkent: O‘qituvchi, 1992.
2. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 jildlik. – Toshkent, 2006. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. – Toshkent, 2006.
3. Mahmudov N. Til va madaniyat. – Toshkent: Ma’naviyat, 2010.
4. Hojiev A. O‘zbek tilshunosligi asoslari. – Toshkent, 2011.

Nilufar ADIZOVA,
Buxoro davlat universiteti O‘zbek tilshunosligi va jurnalistika kafedrasi dotsenti, f.f.f.d.(PhD)
nilufaradizova991@gmail.com

DUNYO LEKSIKOGRAFIYASI TARIXIDA TEZAURUS LUG‘AT YARATISH TAJRIBASI

Annotatsiya: ushbu maqolada dunyo leksikografiyasi tarixida tezaurus lug‘atlarni yaratish tajribasi, ularning shakllanish bosqichlari hamda tilshunoslikdagi o‘rni tahlil qilinadi. Tezaurus lug‘atlarning an’anaviy izohli va tarjima lug‘atlaridan farqli jihatlari, so‘zlar o‘rtasidagi semantik munosabatlarni ifodalashdagi ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, qadimgi va zamonaviy leksikografiyada yaratilgan mashhur tezaurus lug‘atlar, xususan, ingliz va boshqa jahon tillari misolida ularning tuzilishi hamda amaliy qo‘llanishi ko‘rib chiqiladi. Maqolada tezaurus lug‘atlarining ilmiy tadqiqotlar, tarjimashunoslik, kompyuter lingvistikasi va sun’iy intellekt tizimlaridagi roli haqida ham fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: *tezaurus, ideografik lug‘at, semantik bog‘liqlik, iyerarxik munosabat, tematik lug‘at, tezaurus modeli.*

Аннотация: в данной статье анализируется опыт создания тезаурусных словарей в истории мировой лексикографии, этапы их формирования и их роль в языкознании. Освещаются отличительные особенности тезаурусных словарей по сравнению с традиционными толковыми и переводными словарями, а также их значение в отражении семантических связей между словами. Кроме того, рассматриваются известные тезаурусные словари, созданные в древней и современной лексикографии, в частности на примере английского и других мировых языков, их структура и практическое применение. В статье также обсуждается роль тезаурусных словарей в научных исследованиях, переводоведении, компьютерной лингвистике и системах искусственного интеллекта.

Ключевые слова: *тезаурус, идеографический словарь, семантическая связь, иерархические отношения, тематический словарь, тезаурусная модель.*

Annotation: this article analyzes the experience of creating thesaurus dictionaries in the history of world lexicography, the stages of their development, and their role in linguistics. It highlights the distinctive features of thesaurus dictionaries in comparison with traditional explanatory and bilingual dictionaries, as well as their importance in reflecting semantic relationships between words. In addition, the article examines well-known thesaurus dictionaries created in both ancient and modern lexicography, particularly in English and other world languages, their structure, and practical application. The article also discusses the role of thesaurus dictionaries in scientific research, translation studies, computational linguistics, and artificial intelligence systems.

Keywords: *thesaurus, ideographic dictionary, semantic relation, hierarchical relationship, thematic dictionary, thesaurus model.*

Kirish (Introduction). Bugungi axborotlashgan, sun’iy intellekt hayotimizning muhim qismiga aylanib borayotgan globallashuv jarayonida *“tezaurus”* tushunchasining Ferdinand de Sossyur tomonidan ilgari surilgan *“til – bir butunlikka ega birliklar sistemasidir”* degan nazariy qarashlariga uyg‘un holda fanga kirib kelishini til birliklari tahlilining “maydon prinsipi” bilan bog‘lash mumkin. Chunki maydon birliklarini birlashtirish hamda ularni differensial jihatdan farqlashda *tezaurus tahlillar* muhim ahamiyat kasb etadi. Misol uchun, “milliy kiyimlar” semantik maydoni umumiy tarzda milliy-madaniy koloritga ega “muayyan millatga xos barcha kiyimlar” (ayollar kiyimi, erkaklar kiyimi, bolalar kiyimi, hukmdorlar kiyimi, bayramona kiyimlar, mavsumiy kiyimlar, zardo‘zi kiyimlar, qavib tikilgan kiyimlar, bosh kiyimlar, oyoq kiyimlari) asosida birlashadi, biroq ular tikilish usuli, kiyish muhiti, kiyim kiyadigan shaxsi, kiyim xos bo‘lgan davr, muayyan hududga xosligi, shuningdek, semantik, paradigmatik, sintaktik, iyerarxik munosabatlariga ko‘ra ham farqlanadi. Tezaurus esa bu kabi murakkab masalalarni hal etish imkoniga ega bo‘lgan ideografik lug‘at bo‘lib, yunon tilida *“thesaurus”* – “xazina”, “boyliklar jamg‘armasi” degan ma’noni anglatadi. Odatda, til birliklarining ma’no qirralari, etimologik xususiyatlari, paradigmatik munosabatlari, birikish va qo‘llanish usullari kabi jihatlarni aniqlash jarayonida ko‘plab lug‘atlarga murojaat qilishimizga to‘g‘ri keladi. Tezaurus lug‘atlar esa ushbu masalalarning yechimi bir joyda jamlangan, leksemalar orasidagi semantik,

iyerarxik munosabatlar bilan bog‘liq barcha belgilar qamrab olingan, matnda birikish va qo‘llanish xususiyatlari to‘liq aks etgan, berilgan mavzu maydonini tavsiflovchi atamalar to‘plami sifatida muhim ahamiyatga ega qomusiy yoki kompyuter lug‘atidir.

Material (Materials). “Tezaurus” termini tilshunoslik sohasi bilan bir qatorda axborot texnologiyalarida ham keng qo‘llanadi. Shunga ko‘ra u ikki xil ma’noni ifodalaydi:

1. lingvistik tahlillarga tayangan holda tuzilgan, tilning leksik birliklari haqida to‘liq va tizimli ma’lumot beruvchi lug‘atlar majmuyi;

2. inson yoki hisoblash tizimlarida ma’lum bir bilim sohasi bo‘yicha tizimlashtirilgan, o‘zaro bog‘langan axborotlar bazasi.[1,52–61].

Lingvistik tezauruslar boshqa turdagi lug‘atlar (izohli, etimologik, terminologik, tarjima kabi lug‘atlar) dan ancha oldin paydo bo‘lgan bo‘lib, ular eng qadimgi lug‘atlar hisoblanadi (II–III asrlar).[2, 15]. Jumladan, ilk tezaurus sifatida Filon Biblskiyning “Sinonimlar lug‘ati” ni termin sifatida “Amar-kosha” (III–IV asr) asarida qo‘llanilganini ko‘rish mumkin.[4,16]. Shuningdek, o‘zbek lug‘atchiligining shakllanishiga asos bo‘lgan Mahmud Qoshg‘ariyning “Devoni lug‘otit turk” asari (X asr) ni ham, garchi arab tilida yaratilgan bo‘lsa-da, qadimgi turkiy (o‘zbek tili) so‘zlarning keng qamrovli tahlili aks etgan tezaurusi sifatida qayd etish mumkin.

Dunyo leksikografiyasi tarixida tematik lug‘at tuzish tajribasi ingliz tili misolida yaqqolroq ko‘zga tashlanadi. Ma’lumotlarga qaraganda, ingliz tili leksikografik amaliyotida VIII asrlardan boshlab murakkab xorijiy (asosan lotin) so‘zlarni izohlovchi alifbo tartibi, muayyan o‘lchovga asoslangan hamda tematik shaklga ega bo‘lgan maxsus turdagi ma’lumotnoma – glossariy shakllangan. XVI asr o‘rtalariga kelib, tematik leksikografiya sezilarli rivojlangan va lug‘at tuzuvchilar bir tomondan semantik jihatdan bog‘liq birliklarni maksimal darajada bir guruhga jamlashga, ikkinchi tomondan esa tematik guruhlarni o‘zaro o‘xshashlik asosida tartibga solishga intilganlar. Bu esa lug‘atlarni tematik, iyerarxik va semantik bog‘liqlikdagi ideografik (tezaurus tipidagi) lug‘atlarga yaqinlashtirganini ko‘rsatadi. XVI–XVII asrlarda ingliz tilida ko‘plab kichik hajmli izohli lug‘atlar yaratilib, ularda so‘zlar, asosan, sinonimlar orqali izohlangan. XVIII asr oxiridan boshlab ingliz tilida sinonimlarni tizimli ravishda qamrab oluvchi katta miqdorda lug‘atlar yaratila boshlangan. Keyinchalik esa sinonimiya va semantik maydon nazariyasining rivojlanishi, foydalanuvchilar talablarining ortishi sinonimik lug‘atlar strukturasining ham o‘zgarishiga olib kelgan. Xususan, lug‘at maqolalariga ma’no jihatdan kengroq bog‘langan birliklar, ta’riflar kiritilib, ingliz leksikografiyasida analogik (alifbo asosida) hamda ideografik (iyerarxik asosda) lug‘atlar shakllana boshlagan. Bu tezaurus leksikografiyasining keyingi rivoji uchun dastlabki bosqich sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. XIX asr o‘rtalarida (1852-yil) Piter Mark Rojet tomonidan “Rojetning inglizcha so‘z va iboralar tezaurusi – lug‘ati” (“Roget’s Thesaurus of English Words and Phrases”) yaratilgan. U kirish, tasnifiy reja, lug‘at qismi va alifbo ko‘rsatkichidan iborat bo‘lib, ingliz tilidagi birinchi ideografik tezaurus hisoblangan. [5, 13]. Ushbu model keyingi bir yarim asrdan ortiq vaqt davomida jahon leksikografiyasida barcha ideografik lug‘atlar uchun namuna bo‘lib xizmat qilgan.

XX asrga kelib bu kabi tezaurus lug‘atlarga ehtiyoj yanada ortdi. Zamonaviy tilshunoslikda tezaurus umumiy yoki maxsus leksikaga oid lug‘atlarning alohida turi sifatida 1984-yilda AQShning Prinston universitetida mashhur psixolingvist Jorj Miller rahbarligida ishlab chiqilgan. [4, 16] Bu kabi tezauruslarda ma’lum bir tilning leksikasi to‘liq qamrab olinadi hamda so‘zlar va so‘z birikmalari o‘rtasidagi turli xil semantik munosabatlar (sinonimiya, antonimiya, giponimiya va boshqalar), iyerarxik va paradigmatik bog‘lanishlar misollar asosida tizimli ravishda aks ettiriladi.

Metod (Method). Tadqiqotda tavsiflash, tasniflash metodi, etimologik, tarixiy-lingvistik, leksik tahlil usullaridan foydalanildi. Maqola yozishda tarixiy, ilmiy hamda internet materiallaridan manba sifatida qo‘llanildi.

Natijalar (Result). Tezaurus lug‘atlarning asosini til birliklari o‘rtasidagi ma’no-munosabatlar tashkil etadi. Bu munosabatlar so‘zlarni tasniflash va guruhlash tamoyillari, ular ifodalagan tushunchalar o‘rtasidagi bog‘lanishlarni aniqlashda muhim sanalib, “dunyo manzarasi”ni ekstralingvistik (voqelikning til orqali ifodalanishi) hamda intralingvistik (tilning ichki qoidalari, tuzilishi) jihatdan muayyan tartibda aks ettiradi. Shunga ko‘ra, tezaurus tilning dunyo manzarasi modeli sifatida namoyon bo‘ladi: unda tashqi olamning turli jihatlari – predmetlar, hodisalar, xususiyatlar va munosabatlar turli darajada ifodalanib, yagona tizimga birlashtiriladi. Tezaurusni lingvistik jihatdan talqin qilish til birliklarining nafaqat semantik mazmunini, balki ularning moddiy ifodasi va o‘zaro kombinatsiyalanish qonuniyatlarini ham hisobga olgan holda, bilimning yaxlit va tizimli modelini yaratishga imkon beradi. Ushbu model tezaurusni tashkil etuvchi bog‘lanishlar faqat semantik o‘xshashlikka emas, balki moddiy (shakliy) yaqinlikka ham asoslanishini ko‘rsatadi.

Dunyo tilshunosligida leksikografiyaning muhim tadqiqot obyekti sifatida tezaurus yaratish tajribasi bilan bog‘liq boshlang‘ich lingvistik nazariy qarashlar *S. A. Osokina* tadqiqotlarida ilgari suriladi va u tezaurusni “axborotni tushunish va idrok etish uchun zarur bo‘lgan dunyo haqidagi bilimlarning til tizimida obyektivlashgan (semiotik obyektlar shaklida ifodalangan) bilimlar – birliklar tizimi”, deb ta’riflaydi. Ya’ni, falsafiy qarashlarga ko‘ra, bilim semiotik tabiat hamda ijtimoiy ahamiyatga ega, mustahkamlangan (xotirada saqlanadigan), muayyan tartibga solingan tajriba mahsulidir [2,6]. Muallif konsepsiyasi tilni tushunishda shakl va ma’no o‘rtasidagi munosabat alohida holda emas, balki har ikkalasini birlashtiruvchi tizim sifatida o‘rganish muhimligini asoslashga qaratilgan.

Maxsus lug‘atlar yaratish doirasida aviatsiya ekologik terminlar tizimining ikki tilli elektron tezaurus-lug‘ati modelini ishlab chiqish bilan bog‘liq muhim masalalar *A. Y. Shevtsova* ilmiy ishlarida o‘rganilgan. Unda sohaga oid terminlarni maxsus lug‘atga tanlab kiritish, uning tushunchaviy, mazmuniy, kategoriyaviy va mantiqiy tahlilini amalga oshirish, tushunchalar o‘rtasidagi iyerarxik bog‘lanishlarni aniqlash va terminlarni tizimlashtirish usullari (matematik statistik va lingvistik) hamda lug‘atning optimal leksikografik parametrlarini belgilash tamoyillari yoritib berilgan.[6,4]. Ikki tilli (rus va nemis tillarida) universal ideografik tezaurus-lug‘at tuzish konsepsiyasi *A.A. Proshina* tomonidan ishlab chiqilgan. Unda iqtisodiyot sohasiga doir terminlar tizimi terminografik jihatdan tavsiflanib, birinchi marta qiyosiy asosda o‘rganilgan hamda soha bo‘yicha universal ikki tilli (rus va nemis tillarida) ideografik tezaurus-lug‘at modelini yaratish konsepsiyasi – nazariy asoslari ko‘rsatib berilgan.[3,5].

Tezaurus yaratish tajribasi *I. A. Vorontsova* tadqiqotida ham alohida ko‘zga tashlanadi. Unda ingliz tili tezauruslarini tipologik jihatdan asoslash, ularning tasnifini ilmiy tarzda leksikografik qayta ishlash, leksik materialni tanlash, tizimlashtirish hamda ingliz tilini xorijiy til sifatida o‘rganayotgan rus tilida so‘zlashuvchi foydalanuvchilarning ehtiyojlarini hisobga olgan holda ingliz-rus tezaurusining tajribaviy modelini ishlab chiqishga diqqat qaratiladi[5,13].

Xulosa (Conclusion). Axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi natijasida tezaurus lug‘atlari bugungi kunda keng ma’lumotlarni qamrab oluvchi universal manbalarga aylangan. Ayniqsa, tezaurus lug‘atlarning korpusga asoslangan modellari elektron lug‘at sifatida o‘zining keng imkoniyat, qulay mexanizmga ega ekanligini ko‘rsatmoqda. Ularda biror-bir soha, ilm-fan, kasb-hunar yoki alohida shaxs faoliyatiga doir lug‘aviy birliklar mavzu tartibida joylashtirilib, muayyan til birliklari o‘rtasidagi semantik – tur-jins, sinonimik va boshqa munosabatlar aniqlanadi. Tezauruslarning muhim xususiyatlaridan biri shuki, unda so‘zlar alifbo tartibida berilmaydi, balki muayyan mavzu yoki tushunchaga aloqador barcha so‘zlar bir joyda to‘planadi va kerakli birlik qidirib topiladi. Tezauruslar barcha soha uchun muhim bilim va axborotlar jamlangan ma’lumotlar bazasi vazifasini bajaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Лесников С. В. Тезаурус как отражение системности языка. Вестник Челябинского государственного университета. 2011. № 28 (243). Филология. Искусствоведение. Вып. 59 . С. 52–61.

2.Осокина Светлана Анатольевна. Основания лингвистической теории тезауруса. Автореферат диссертации на соискание ученой степени доктора филологических наук. – Челябинск, 2015. Стр. 15.

3.Прошина Александра Александровна. Моделирование двуязычного словаря-тезауруса по экономике. – Екатеринбург, 2008.

4.Saparova Mohira Fayzullayevna. O‘zbek tili tezaurusi uchun ot so‘z turkumining semantik-struktur tadqiqi. Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Toshkent, 2025. 16-b.

5.Воронцова Инна Алексеевна. Историко-типологическое исследование тезаурусов английского языка. Автореферат диссертации на соискание ученой степени доктора филологических наук. – Иваново, 2004. С.13

6.Шевцова Анна Юрьевна. Моделирование нормативного двуязычного словаря-тезауруса терминов авиационной экологии. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата филологических наук. – Тюмень, 2014.

Alisher PARMONOV,
Qo‘qon universiteti dotsenti v.b.,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Email: parmonovalisher@gmail.com

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA METAFORIK VOSITALARNING SEMANTIK-PRAGMATIK FUNKSIYALARI

Annotatsiya:ushbu maqola ingliz va o‘zbek tillarining badiiy matnlarida metaforik unsurlarning semantik va pragmatik rollarini solishtirib ko‘rib chiqishga bag‘ishlangan. Men bu yerda metaforalarning ma’no o‘zgarishi jarayonlarini va ularning o‘quvchiga hissiy ta’sirini tahlil qilaman, chunki bu mexanizmlar til orqali madaniy dunyoqarashni shakllantirishda muhim. Ingliz va o‘zbek adabiyotidan olingan misollar orqali konseptual, strukturaviy va yo‘naltiruvchi metaforalarning o‘ziga xosliklarini yoritaman. Natijada, tillararo o‘xshashliklar va farqlar aniq bo‘ladi, bu esa badiiy muloqotdagi metaforalarning chuqurroq tushunilishiga yordam beradi.

Kalit so‘zlar: *metafora, semantik funksiya, pragmatik funksiya, konseptual metafora, badiiy diskurs, ingliz tili, o‘zbek tili.*

Annotation:this article focuses on a comparative analysis of the semantic and pragmatic roles of metaphorical elements in English and Uzbek literary texts. I examine the processes of meaning shift in metaphors and their emotional impact on readers, as these mechanisms are key to shaping cultural worldviews through language. Drawing on examples from English and Uzbek literature, I highlight the specifics of conceptual, structural, and orientational metaphors. The findings reveal cross-linguistic similarities and differences, aiding a deeper understanding of metaphors in artistic communication.

Key words: *metaphor, semantic function, pragmatic function, conceptual metaphor, literary discourse, English language, Uzbek language.*

Аннотация:данная статья посвящена сравнительному анализу семантических и прагматических ролей метафорических элементов в английских и узбекских литературных текстах. Я рассматриваю процессы изменения значения в метафорах и их эмоциональное воздействие на читателя, поскольку эти механизмы ключевы для формирования культурных мировоззрений через язык. На примерах из английской и узбекской литературы я подчеркиваю специфику концептуальных, структурных и ориентационных метафор. Результаты выявляют межъязыковые сходства и различия, способствуя более глубокому пониманию метафор в художественной коммуникации.

Ключевые слова: *метафора, семантическая функция, прагматическая функция, концептуальная метафора, художественный дискурс, английский язык, узбекский язык.*

Kirish. Metafora shunchaki badiiy uslubiy qurilma emas – u kognitiv jarayonlarning til orqali aks etishi, insonning atrof-muhitni idrok etishida markaziy o‘rin egallaydi. So‘nggi yillarda kognitiv lingvistikada metafora “bir konseptni boshqa konsept orqali tushunish” sifatida qaralmoqda, bu esa uning nafaqat poetik, balki kundalik fikrlashdagi rolini ta’kidlaydi [1, 3–5]. Ingliz va o‘zbek tillarining adabiy asarlarida metaforik vositalarni qiyosiy ravishda o‘rganish, mening fikrimcha, madaniy farqlarni ochib beradi, chunki ingliz tili analitik va abstrakt fikrlashga asoslangan bo‘lsa, o‘zbek tili turkiy tillar oilasiga mansub bo‘lib, an’anaviy qadriyatlar va konkret tasavvurlarga bog‘liq. Shu bilan birga, ikkala tilda ham metaforalar universal kognitiv modellarni aks ettiradi, masalan, qorong‘ulik va yorug‘lik metaforalari, so‘nggi tadqiqotlarda turkiy tillarda ingliz tiliga nisbatan ko‘proq madaniy nuanslarga ega ekanligi ko‘rsatilgan [13, 12–15].

Men bu ishda ingliz va o‘zbek badiiy diskursidagi metaforalarning ma’no o‘zgarishi mexanizmlari va pragmatik ta’sir strategiyalarini aniqlashni maqsad qilaman. Tadqiqotning dolzarbligi shundan iboratki, u kognitiv lingvistika va pragmalingvistikaga yangi yondashuvlar, xususan, korpus asosidagi tahlillarni taklif etadi, bu so‘nggi yillarda metafora nazariyasida kuchayib borayotgan tendensiya [3, 89–92]. Tanqidiy jihatdan aytganda, avvalgi ishlar ko‘pincha tillararo farqlarni soddalashtirgan, ammo men bu yerda chuqurroq madaniy kontekstni hisobga olaman.

1. Metaforik vositalarning semantik funksiyalari

1.1. Semantik transformatsiya mexanizmlari. Metaforaning asosiy semantik roli so‘zning asl ma’nosidan yangi, ikkinchi darajali ma’noga o‘tishda namoyon bo‘ladi, bu jarayon tilning moslashuvchanligini ta’minlaydi [2, 78]. Ingliz tilida bu transformatsiya leksik darajada kuchliroq: masalan, “time is money” iborasida vaqt iqtisodiy resurs sifatida qaraladi, bu g‘arbiy jamiyatning individuallik va samaradorlikka urg‘usini aks ettiradi. O‘zbek tilida esa metaforik o‘zgarish morfologik va sintaktik unsurlarda ko‘proq kuzatiladi: “yurak – chiroq” misolida yurak yorug‘lik manbai bilan bog‘lanib, ruhiy tozalikni ifodalaydi, bu esa kollektiv qadriyatlar bilan bog‘liq [14, 45–47]. Mening kuzatishlarimga ko‘ra, bu farq madaniy sabablarga bog‘liq: ingliz tilida abstrakt tushunchalar ustunlik qilsa, o‘zbek tilida konkret tasvirlar orqali ma’no chuqurlashadi, ammo so‘nggi korpus tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, turkiy tillarda metaforik transformatsiya ingliz tilidagiga qaraganda ko‘proq emotsional yuklama oladi [13, 18].

1.2. Konseptual metaforalarning semantik xususiyatlari

Konseptual metaforalar inson tajribasini tizimli ravishda ifodalaydi, bu esa tilning kognitiv asosini ochib beradi [3, 45–50]. Ingliz adabiyotida “life is a journey” metaforasi keng tarqalgan:

Shekspirning “As You Like It” asarida “All the world’s a stage” iborasi hayotni teatr sahnasi sifatida tasvirlab, o‘tkinchilikni ta’kidlaydi [4, 23]. O‘zbek adabiyotida esa “hayot – safar” metaforasi tasavvufiy an’analar bilan chambarchas bog‘liq: Navoiyning “Xamsa”sida “Hayot – bir zumlik sayr” ifodasi vaqtning tez o‘tishini bildiradi [5, 112]. Tanqidiy qaraganda, ingliz tilidagi konseptual metaforalar ko‘proq individuallikni ifodalasa, o‘zbek tilidagilar kollektiv ruhiyatni aks ettiradi, ammo so‘nggi nazariyalar, masalan, blending theory, bu metaforalarning madaniy aralashishini ko‘rsatadi [10, 67–70].

2. Metaforik vositalarning pragmatik funksiyalari

2.1. Emotsional-pragmatik ta’sir. Metaforalar o‘quvchining his-tuyg‘ulariga kuchli ta’sir etadi, bu ularning pragmatik qudratini belgilaydi. Ingliz adabiyotida ular shaxsiy emotsiyalarni yoritishda ustun: Emili Dikinsonning “My heart is a lonely hunter” misolida yurak yolg‘izlikni ifodalab, individual iztirobni ochadi [6, 89]. O‘zbek adabiyotida esa metaforalar ko‘proq jamiyatiy hissiyotlarga xizmat qiladi: Abdulla Oripovning “Yurak – vatan uchun kuydi” iborasida milliy ruhiyat aks etadi [7, 34]. Menimcha, bu farq pragmatik ta’sirda madaniy kontekstning rolini ta’kidlaydi; so‘nggi tadqiqotlarda turkiy tillarda rang metaforalari, masalan, oq rang, ingliz tiliga nisbatan ko‘proq emotsional qatlamlarga ega ekanligi ko‘rsatilgan [8, 12–15].

2.2. Kommunikativ-pragmatik funksiyalar

Metaforalar muloqotda ishontirish va o‘zgartirish vositasi bo‘lib, nutqni kuchaytiradi. Ingliz adabiyotida ular ironiya va satira uchun ishlatiladi: Edvard Bulver-Littonning “The pen is mightier than the sword” iborasi qalamning qudratini ta’kidlaydi [8, 56]. O‘zbek adabiyotida esa metaforalar ma’naviy o‘git berishda faol: Cho‘lponning “Qalam – jamiyat ko‘zgusi” misolida jamiyatni tanqid qilish maqsadi seziladi [9, 78]. Tanqidiy mulohaza sifatida aytaman, ingliz tilidagi pragmatik funksiyalar ko‘proq satirik bo‘lsa, o‘zbek tilidagilar didaktik, ammo zamonaviy pragmatik nazariyalar bu funksiyalarni korpus orqali miqdoriy o‘lchashni taklif etadi [15, 23–25].

3. Ingliz va o‘zbek tillarida metaforik vositalarning qiyosiy tahlili 3.1. Ingliz adabiyoti misollarida metaforik vositalar Shekspirning “Macbeth”ida “Life’s but a walking shadow” metaforasi hayotning mavhumligini tasvirlaydi, bu ingliz tilining abstrakt metaforik uslubini ko‘rsatadi [10, 45]. Virjiniya Vulfning “To the Lighthouse” asarida vaqt metaforalari orqali ongning murakkabligi yoritiladi, bu kognitiv jarayonlarni aks ettiradi [11, 112–114].

3.2. O‘zbek adabiyoti misollarida metaforik vositalar

Navoiyning “Layli va Majnun”ida “Gul – ruhiy poklik ramzi” metaforasi ma’naviy tozalikni ifodalaydi, bu o‘zbek tilining an’anaviy tasvirliligini ta’kidlaydi [11, 67]. Abdulla Qodiriyning “O‘tgan kunlar”ida “ko‘z – yulduz” metaforasi sevgi tushunchasini ochadi [12, 89].

3.3. Qiyosiy tahlil natijalari

Qiyosiy tahlil shuni ko‘rsatdiki, ingliz tilida metaforalar individuallik va abstraktsiyaga yo‘naltirilgan, o‘zbek tilida esa kollektivlik va an’anaviylik ustun. Universal modellar, masalan, hayot-safar, ikkala tilda ham mavjud, ammo madaniy farqlar pragmatik ta’sirda seziladi [14, 50–52].

4. Metaforik vositalarning amaliy ahamiyati

4.1. Tarjimashunoslikdagi o‘rni. Metaforalarni tarjima qilish madaniy moslashuvni talab qiladi: “heart of stone”ni “tosh yurak” deb tarjima qilish semantikni saqlaydi, ammo pragmatik nuanslar yo‘qolishi mumkin [12, 45–47]. So‘nggi tadqiqotlar korpus orqali tarjima farqlarini o‘rganishni taklif etadi [15, 34].

4.2. Til o‘qitishdagi ahamiyati

Metaforalarni o‘rganish o‘quvchilarning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantiradi, madaniyatlararo muloqotni kuchaytiradi [3, 120].

Xulosa.Ingliz va o‘zbek tillaridagi metaforik vositalar kognitiv va madaniy xususiyatlarni aks ettiradi. Tahlilim shuni ko‘rsatdiki, metaforalar badiiy ifodadan tashqari, dunyo idrokida muhim. Ingliz tilidagi individuallik va o‘zbek tilidagi kollektivlik farqlari aniq, ammo universal jihatlar birlashtiradi. Kelgusida korpus va blending nazariyasi asosida miqdoriy tahlillar zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Lakoff, G., & Johnson, M. (2003). Metaphors We Live By. University of Chicago Press, Chicago, 290-p.
2. Galperin, I.R.Stylistics. (O‘zbek tiliga tarjima). –Toshkent:Adolat nashriyoti, 2023. 200-sahifa.
3. Kövecses, Z. (2010). Metaphor: A Practical Introduction. Oxford University Press, Oxford, 376-sahifa.
4. Shakespeare, W. (2008). As You Like It. Cambridge University Press, Cambridge, 192-sahifa.
5. Navoiy, A.Xamsa. –Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1991. 500-sahifa.
6. Dickinson, E. (2016). The Complete Poems. Faber & Faber, London, 784-sahifa.
7. Oripov, A.She’rlar. –Toshkent:Yangi asr avlodi, 2002.250-sahifa.
8. Bulwer-Lytton, E. (2009). Richelieu. Dodo Press, London, 120-sahifa.
9. Cho‘lpon.Asarlar. –Toshkent:G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1994.300-sahifa.
10. Shakespeare, W. (2005). Macbeth. Penguin Classics, London, 144-sahifa.
11. Navoiy, A.Layli va Majnun. –Toshkent:G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1991. 200-sahifa.
12. Konurbaev, M.E. (2022). Stylistic peculiarities of expressing inner emotions of personages in Uzbek and English novels. Philology Matters, Toshkent, 1(1), 45–56-sahifa.
13. Hastürkoğlu, G. (2017). A cross-cultural study on white colour idioms in Turkish and English: conceptual metaphor theory in focus. Studies in Linguistics, Culture, and FLT, Sofia, 2, 8–20-sahifa.
14. Abu Romman, O. (2023). Conceptual Metaphor Theory in Cognitive Linguistics. Journal of Jordanian Studies, Amman, 43(2), 150–170-sahifa.
15. Chmielecki, M. (2025). Conceptual metaphor and cognitive linguistics. Michal Chmielecki Publications, Warsaw, 200-sahifa.

Gavhar SALOMOVA,
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
Xorijiy til va adabiyoti kafedrasi dotsenti, f.f.f.d.(PhD)

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDAGI QISQARTMALARNING HISSIY VA IFODAVIY TA’SIRINI BELGILOVCHI OMILLAR

Annotatsiya: mazkur maqolada ingliz va o‘zbek tillarida qisqartma birliklarning emotsional-ekspressiv imkoniyatlari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: *qisqartma birliklar, emotsionallik, ekspressivlik, lingvopragmatika, stilistika, diskurs*

Annotation: this article analyzes the emotional and expressive potential of abbreviated units in English and Uzbek.

Key words: *abbreviated units, emotionality, expressiveness, linguopragmatics, stylistics, discourse*

Аннотация: в данной статье анализируется эмоционально-экспрессивный потенциал сокращённых единиц в английском и узбекском языках.

Ключевые слова: *сокращённые единицы, эмоциональность, экспрессивность, лингвопрагматика, стилистика, дискурс*

Kirish. Mamlakatimizda so‘nggi yillarda yetuk, yuqori malakali, zamonaviy fikrlaydigan yosh avlodni shakllantirishga qaratilgan chet tillarni o‘qitishning kompleks tizimi yaratilmoqda. «Barchamiz yaxshi tushunamiz, ta’lim-tarbiya- har qaysi davlat va jamiyatning nafaqat bugungi, balki ertangi kunini ham hal qiladigan eng muhim va ustuvor masaladir. Shuning uchun mamlakatimizda bu masalaga davlat miqyosida ulkan e’tibor qaratilmoqda»[1]. Bunda pedagog kadrlarning kasb mahoratini uzluksiz yuksaltirish, xalqaro standartlar darajasiga mos oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlashda pedagoglarning baholash kompetensiyasini takomillashtirish va ta’lim jarayonida talabalarning malaka va ko‘nikmalarini baholashning yangi, xalqaro standartlarga asoslangan tizimini ishlab chiqish kabi muhim vazifalar belgilandi.

Zamonaviy tilshunoslikda qisqartma birliklar til iqtisodiyoti va kommunikativ samaradorlikni ta’minlovchi muhim vositalardan biri sifatida qaraladi. Xususan, ingliz tilida (LOL, OMG, BTW) hamda o‘zbek tilida (mas., “tel.”, “tashk.”, internet diskursida “gap yo‘q”, “rahmat rax”) qisqartmalar keng qo‘llanmoqda. Biroq ularning faqat struktur yoki leksik jihatlari emas, balki emotsional va ekspressiv ta’sir kuchi ham alohida ilmiy e’tibor talab qiladi. Ushbu maqolaning maqsadi — ingliz va o‘zbek tillarida qisqartma birliklarning nutqdagi emotsional-ekspressiv funksiyalarini qiyosiy tahlil qilishdir.

Adabiyotlar tahlili. Ingliz va o‘zbek tillarida qisqartma birliklarning emotsional-ekspressiv xususiyatlarini o‘rganish tilshunoslikning bir necha yo‘nalishlari, xususan, Stylistics, Pragmatics va Sociolinguistics doirasida olib borilgan. Xorijiy tilshunoslikda qisqartmalarni o‘rganish masalasi dastlab struktur va leksik jihatlarga qaratilgan bo‘lsa-da, keyinchalik ularning nutqdagi ekspressiv va emotsional funksiyalariga alohida e’tibor qaratila boshlandi. Jumladan, David Crystal[2] o‘z tadqiqotlarida internet va raqamli diskursda qisqartmalar til iqtisodiyoti bilan birga emotsional ta’sirni ham kuchaytirishini ta’kidlaydi. Uning fikricha, qisqartmalar muloqotni tezlashtirish bilan birga, nutqqa norasmiylik va samimiylik ruhini olib kiradi[3].

Shuningdek, Naomi S. Baron[4] elektron kommunikatsiya tilini o‘rganar ekan, qisqartmalarni yozma nutqning og‘zaki nutqqa yaqinlashuvining muhim ko‘rsatkichi sifatida baholaydi. Unga ko‘ra, LOL, OMG kabi birliklar faqat semantik ma’no emas, balki kuchli emotsional signal vazifasini ham bajaradi.

Qisqartmalarning pragmatik jihatlari Geoffrey Leech[5] tomonidan ishlab chiqilgan nazariyalar doirasida ham izohlanadi. U qisqartmalarni nutq aktlarida maqsadga yo‘naltirilgan vosita sifatida ko‘rib, ularning kommunikativ samaradorlik va ta’sir kuchini oshirishdagi rolini alohida qayd etadi.

Rus tilshunosligida ham ushbu masala muhim o‘rin tutadi. Viktor Vinogradov[6] va uning izdoshlari stilistik vositalar tizimida qisqartmalarni ekspressivlikni kuchaytiruvchi birlik sifatida baholagan. Zamonaviy rus tadqiqotchilari esa internet tilida qisqartmalarni ijtimoiy identifikatsiya va emotsional ifoda vositasi sifatida tahlil qilmoqda.

O‘zbek tilshunosligida qisqartmalar asosan leksik va terminologik nuqtayi nazardan o‘rganilgan. Biroq so‘nggi yillarda ularning pragmatik va stilistik xususiyatlariga ham e’tibor ortmoqda. Tadqiqotchilar qisqartmalarni ayniqsa raqamli diskursda yoshlar nutqining ajralmas qismi sifatida ko‘rib, ularning emotsional-ekspressiv yuklamasini ta’kidlaydilar. Umuman olganda, tahlil qilingan adabiyotlar

1 Ўзбекистон Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг Ўзбекистон ўқитувчи ва мураббийларига йўллаган табриги 30 сентябрь 2020 йил.

2 David Crystal. (2006). Language and the Internet. Cambridge: Cambridge University Press

3 David Crystal. (2008). Txtng: The Gr8 Db8. Oxford: Oxford University Press

4 Naomi S. Baron. (2008). Always On: Language in an Online and Mobile World. Oxford: Oxford University Press.

5 Geoffrey Leech. (1983). Principles of Pragmatics. London: Longman.

6 Viktor Vinogradov. (1972). Русский язык. Грамматическое учение о слове. Москва

shuni ko‘rsatadiki:

– ingliz tilshunosligida qisqartmalar keng va tizimli o‘rganilgan;

– rus tilshunosligida ularning stilistik funksiyalari chuqur tahlil qilingan;

– o‘zbek tilshunosligida esa bu yo‘nalish hali rivojlanish bosqichida.

Shu bois, ingliz va o‘zbek tillarida qisqartma birliklarning emotsional-ekspressiv xususiyatlarini qiyosiy o‘rganish dolzarb ilmiy muammo sifatida namoyon bo‘ladi.

Tahlil va natijala. Mazkur tadqiqot ingliz va o‘zbek tillarida qisqartma birliklarning emotsional va ekspressiv ta’sir kuchini aniqlashga qaratildi. Tahlil jarayonida ijtimoiy tarmoqlar (Telegram, Instagram, Twitter/X), ommaviy axborot vositalari hamda kundalik og‘zaki va yozma nutq namunalaridan foydalanildi.

Masalan: **LOL (laughing out loud)** – kulgi va ijobiy kayfiyatni bildiradi; **OMG (oh my God)** – hayrat, hayajon yoki shok holatini ifodalaydi; **IDK (I don’t know)** – befarqlik yoki noaniqlikni bildiradi. O‘zbek tilida ham qisqartmalar, ayniqsa internet diskursida, emotsional yaqinlik va samimiylikni ifodalashda muhim rol o‘ynaydi: “rahmat” → **rax** – norasmiy, iliq munosabatni bildiradi; “gap yo‘q” → **gy** – yuqori baho yoki hayratni ifodalaydi; “xo‘p” → **xp** – tezkor rozilik yoki tasdiqni anglatadi. Qisqartmalar nutqda ekspressivlikni oshiruvchi stilistik vosita sifatida xizmat qiladi. Ingliz tilida ular allaqachon barqaror tizimga ega bo‘lib, yoshlar nutqi va raqamli kommunikatsiyada keng qo‘llanadi. O‘zbek tilida esa bu jarayon hali rivojlanish bosqichida bo‘lsa-da, qisqartmalar:

– nutqqa dinamika beradi,

– urg‘u va intensivlikni oshiradi,

– individual uslubni shakllantiradi.

Tadqiqot quyidagi metodlar asosida olib borildi:

Chog‘ishtirma-tahliliy metod – ingliz va o‘zbek tillaridagi qisqartmalarni solishtirish;

Diskurs tahlili – ijtimoiy tarmoqlar, yozma va og‘zaki nutqda qo‘llanishini o‘rganish;

Kontekstual tahlil – qisqartmalarning ma’no va emotsional yukini aniqlash;

Deskriptiv metod – aniqlangan hodisalarni tavsiflash.

Material sifatida internet diskursi (Telegram, Twitter/X, Instagram), ommaviy axborot vositalari va kundalik muloqot namunalaridan foydalanildi[7].

Tahlil natijalari quyidagi jihatlarni ko‘rsatdi:

Emotsional ifodalash vositasi sifatida

Ingliz tilida qisqartmalar kuchli emotsional reaksiyani ifodalaydi: **LOL** – kulgini bildiradi, ijobiy emotsiya beradi; **OMG** – hayrat yoki hayajonni kuchaytiradi.

O‘zbek tilida esa:

“gap yo‘q” → “gy” (internet variantlari),

“rahmat”→“rax”

kabi qisqartmalar norasmiy muloqotda samimiylik va yaqinlikni oshiradi.

Ekspressivlikni kuchaytirish: Qisqartmalar nutqda tezkorlik va urg‘u hosil qiladi. Ayniqsa, yoshlar nutqida ular stilistik vosita sifatida xizmat qiladi. Ingliz tilida bu hodisa kengroq rivojlangan bo‘lsa, o‘zbek tilida asosan raqamli diskursda faol.

Qisqartmalar kommunikativ vaziyatga moslashadi:

– rasmiy nutqda kam qo‘llanadi;

– norasmiy va internet diskursida yuqori chastotaga ega.

Natijada ular nutqning ijtimoiy belgilovchi vositasiga aylanadi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, ingliz tilida qisqartmalar tizimi ancha rivojlangan va standartlashgan. Ular global kommunikatsiya vositasi sifatida emotsional-ekspressiv funksiyani faol bajaradi.

O‘zbek tilida esa qisqartmalar ko‘proq:

– spontan shakllanadi,

– kontekstga bog‘liq bo‘ladi,

– normativ jihatdan kamroq mustahkamlangan.

Shunga qaramay, har ikki tilda ham qisqartmalar:

– nutqni jonlantiradi,

– muloqotni samimiylashtiradi,

– ekspressivlikni oshiradi.

Bu esa ularning lingvopragmatik ahamiyatini tasdiqlaydi.

Xulosa. Ingliz va o‘zbek tillarida qisqartma birliklar nafaqat til iqtisodiyoti vositasi, balki emotsional-ekspressiv ta’sirni kuchaytiruvchi muhim lingvistik birliklardir. Ular ayniqsa raqamli kommunikatsiyada muhim rol o‘ynaydi. Kelgusida ushbu sohani chuqurroq o‘rganish, xususan, o‘zbek tilidagi qisqartmalarni standartlashtirish dolzarb hisoblanadi. Bugungi kunda o‘zbek tilshunosligi oldida turgan asosiy vazifalardan biri o‘zbek tilida shakllangan qisqartmalarni to‘plash, tartibga solish, ilmiy o‘rganish, ularning lug‘atini tuzish, so‘z birikmasi va birikma nomlarni qisqartirish bo‘yicha ingliz tilshunosligida erishilgan yutuqlardan foydalanib taklif va tavsiyalarni ishlab chiqish hamda tegishli tashkilotlarga taqdim etishdir.

7 O‘zbek tilshunosligi bo‘yicha zamonaviy maqolalar to‘plami. (2020–2023). Toshkent

Foydalanilgan adabiyotlar

1. David Crystal. (2006). *Language and the Internet*. Cambridge: Cambridge University Press.
2. David Crystal. (2008). *Txtng: The Gr8 Db8*. Oxford: Oxford University Press.
3. Naomi S. Baron. (2008). *Always On: Language in an Online and Mobile World*. Oxford: Oxford University Press.
4. Geoffrey Leech. (1983). *Principles of Pragmatics*. London: Longman.
5. Roman Jakobson. (1960). *Closing Statement: Linguistics and Poetics*. Cambridge: MIT Press.
6. Viktor Vinogradov. (1972). *Русский язык. Грамматическое учение о слове*. Москва.
7. Crystal, D. (2011). *A Dictionary of Linguistics and Phonetics*. Oxford: Blackwell.
8. Baron, N. (2015). *Words Onscreen: The Fate of Reading in a Digital World*. Oxford University Press.

Sohiba SAPAYEVA,
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti,
Ingliz tilini o‘qitish metodikasi N-2 kafedrasi v.b. dotsenti, PhD

INGLIZ VA O‘ZBEK MULOQOTIDA VAQT-MAKON KONSEPTINING LINGVOPRAGMATIK TALQINI

Annotatsiya: mazkur maqolada ingliz va o‘zbek muloqotida vaqt va makon konseptining lingvopragmatik talqini qiyosiy jihatdan tadqiq etiladi. Tadqiqotda vaqt va makon tushunchalarining til birliklari orqali ifodalanishi, ularning kommunikativ-pragmatik funksiyalari hamda nutq jarayonidagi konseptual ahamiyati tahlil qilinadi. Ingliz va o‘zbek tillarida vaqt-makon konseptining shakllanishiga ta’sir etuvchi milliy-madaniy, ijtimoiy va pragmatik omillar yoritiladi. Muloqot jarayonida qo‘llaniladigan temporal va spatial birliklarning semantik-pragmatik xususiyatlari misollar asosida ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: *diskurs, vaqt konsepti, makon konsepti, temporal birliklar, spatial birliklar, kommunikativ jarayon, qiyosiy tilshunoslik, konseptual tahlil.*

Annotation: this article comparatively examines the linguopragmatic interpretation of the concepts of time and space in English and Uzbek communication. The study analyzes the expression of time and space concepts through linguistic units, their communicative-pragmatic functions, and their conceptual significance in the speech process. National-cultural, social, and pragmatic factors influencing the formation of the time-space concept in English and Uzbek are also highlighted. Furthermore, the semantic and pragmatic features of temporal and spatial units used in communication are revealed through examples.

Key words: *discourse, concept of time, concept of space, temporal units, spatial units, communicative process, comparative linguistics, conceptual analysis.*

Аннотация: в данной статье в сравнительном аспекте исследуется лингвопрагматическая интерпретация концептов времени и пространства в английской и узбекской коммуникации. В исследовании анализируются способы выражения понятий времени и пространства посредством языковых единиц, их коммуникативно-прагматические функции, а также концептуальная значимость в процессе речи. Освещаются национально-культурные, социальные и прагматические факторы, влияющие на формирование концепта времени и пространства в английском и узбекском языках. Кроме того, на основе примеров раскрываются семантико-прагматические особенности темпоральных и пространственных единиц, используемых в процессе коммуникации.

Ключевые слова: *дискурс, концепт времени, концепт пространства, темпоральные единицы, пространственные единицы, коммуникативный процесс, сравнительное языкознание, концептуальный анализ.*

Kirish. Zamonaviy tilshunoslikda til va tafakkur, til va jamiyat, shuningdek, til va kommunikativ faoliyat o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rganish muhim ilmiy yo‘nalishlardan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Ayniqsa, lingvopragmatika sohasi nutq jarayonida til birliklarining qo‘llanish xususiyatlari, ularning kommunikativ vazifalari hamda kontekst bilan bog‘liqligini tadqiq etishga alohida e’tibor qaratadi. Shu nuqtayi nazardan vaqt va makon konsepti inson tafakkuri hamda muloqot jarayonining asosiy kategoriyalaridan biri sifatida til tizimida muhim o‘rin egallaydi.

Vaqt va makon tushunchalari har bir xalqning milliy tafakkuri, madaniyati va dunyoqarashi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, ular til vositasida turlicha ifodalanadi. Ingliz va o‘zbek tillarida temporal hamda spatial birliklarning qo‘llanishi nafaqat grammatik va semantik jihatdan, balki pragmatik hamda madaniy jihatdan ham o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Muloqot jarayonida vaqt va makon konseptlari nutq ishtirokchilarining kommunikativ maqsadi, ijtimoiy mavqeyi, madaniy muhiti va diskurs vaziyatiga ko‘ra turlicha talqin qilinadi. Shu sababli mazkur konseptlarni lingvopragmatik jihatdan qiyosiy o‘rganish dolzarb ilmiy masalalardan biri hisoblanadi.

Bugungi kunda jahon tilshunosligida konseptologiya, pragmalingvistika va diskurs tahlili yo‘nalishlarida vaqt va makon kategoriyalarining til va nutqdagi ifodasi keng tadqiq etilmoqda. Xususan, ingliz tilshunosligida temporal va spatial birliklarning pragmatik funksiyalari, ularning diskurs hosil qilishdagi o‘rni hamda kommunikativ ta’sir mexanizmlari bo‘yicha qator ilmiy izlanishlar olib borilgan. O‘zbek tilshunosligida ham pragmatik tadqiqotlar soni ortib borayotgan bo‘lsa-da, ingliz va o‘zbek tillarida vaqt-makon konseptining lingvopragmatik xususiyatlarini qiyosiy aspektda o‘rganish yetarli darajada tadqiq etilmagan.

Mazkur maqolaning maqsadi ingliz va o‘zbek muloqotida vaqt va makon konseptining lingvopragmatik talqinini qiyosiy tahlil qilishdan iborat. Tadqiqot davomida temporal va spatial birliklarning semantik-pragmatik xususiyatlari, ularning kommunikativ vazifalari hamda milliy-madaniy omillar bilan bog‘liqligi tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari lingvopragmatika, diskurs tahlili va qiyosiy tilshunoslik sohalarida nazariy hamda amaliy ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar metodologiyasi

Mazkur tadqiqot ingliz va o‘zbek muloqotida vaqt-makon konseptining lingvopragmatik xususiyatlarini qiyosiy jihatdan o‘rganishga bag‘ishlangan. Tadqiqot jarayonida qiyosiy, tavsifiy va diskursiv tahlil metodlaridan foydalanildi. Ingliz va o‘zbek tillaridagi temporal hamda spatial birliklar badiiy matnlar, ilmiy manbalar va muloqot namunalar asosida tahlil qilindi. Vaqt va makon konseptining kommunikativ-pragmatik vazifalari hamda milliy-madaniy xususiyatlari lingvopragmatik nuqtayi nazardan

yoritildi. Tadqiqotning nazariy asosini pragmalingvistika, diskurs tahlili va sotsiolingvistika yo‘nalishidagi ilmiy qarashlar tashkil etdi. Jumladan, Sh.Safarov, S.Levinson, G.Yule, T.van Dijk va Ch.Fillmore kabi olimlarning ilmiy ishlari tadqiqot uchun muhim manba vazifasini bajardi.

Tahlillar. Ingliz va o‘zbek tillarida vaqt-makon konsepti kommunikativ jarayonning muhim tarkibiy qismi hisoblanib, u nutq ishtirokchilarining voqelikni idrok etishi va ifodalash usullarini aks ettiradi. Lingvopragmatik nuqtayi nazardan vaqt va makon birliklari nafaqat grammatik ma’no, balki pragmatik, ijtimoiy hamda madaniy ma’nolarni ham yuzaga chiqaradi. Tadqiqot davomida temporal va spatial birliklarning ingliz va o‘zbek diskursidagi qo‘llanish xususiyatlari qiyosiy jihatdan tahlil qilindi.

Temporal birliklar tahlili shuni ko‘rsatadiki, ingliz tilida vaqt tushunchasi asosan, aniq grammatik vositalar orqali ifodalanadi. Masalan, *now, today, yesterday, tomorrow* kabi birliklar nutq momentiga nisbatan aniq vaqt orientatsiyasini bildiradi. Ingliz tilida zamon kategoriyasi grammatik jihatdan qat’iy tizimga ega bo‘lib, kommunikativ ma’no fe’l zamonlari orqali ham ifodalanadi. Misol uchun, *I am leaving tomorrow* gapida kelasi zamon ma’nosi nafaqat *tomorrow* temporal birligi, balki Present Continuous zamon shakli orqali ham yuzaga chiqadi. Bu esa ingliz tilida vaqt konseptining grammatik va pragmatik uyg‘unlik asosida shakllanishini ko‘rsatadi.

O‘zbek tilida esa makon birliklari pragmatik va sotsiokulturologik ma’nolar bilan boyigan holda namoyon bo‘ladi. *Bu yer, u yer, shu tomon, narigi yoq* kabi birliklar nafaqat makonni, balki nutq ishtirokchilari o‘rtasidagi munosabatni ham aks ettiradi. Masalan, *Bu yoqqa keling* birikmasida nafaqat makon ko‘rsatiladi, balki murojaatdagi muloyimlik va hurmat ma’nosi ham ifodalanadi. Ayrim hollarda makon birliklari ijtimoiy masofani ham bildirib keladi. Jumladan, *u tomondagilar* kabi ifodalar nafaqat geografik makonni, balki ijtimoiy yoki guruhiy ajralishni ham anglatishi mumkin.

Tahlillar natijasida ingliz tilida vaqt va makon konsepti ko‘proq grammatik aniqlik va strukturaviy tartib asosida shakllanishi aniqlandi. O‘zbek tilida esa temporal va spatial birliklarning qo‘llanishida pragmatik kontekst, milliy mentalitet hamda kommunikativ vaziyat muhim rol o‘ynaydi. Har ikki tilda vaqt va makon konsepti diskursning semantik yaxlitligini ta’minlovchi asosiy vositalardan biri bo‘lib xizmat qiladi. Shu bilan birga, ushbu birliklar muloqot ishtirokchilarining ijtimoiy munosabati, madaniy qarashlari va kommunikativ maqsadini ifodalashda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Natijalar. Tadqiqot natijalari ingliz va o‘zbek muloqotida vaqt-makon konseptining lingvopragmatik xususiyatlari o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘lishini ko‘rsatdi. Tahlillar asosida ingliz tilida temporal va spatial birliklarning qo‘llanishi asosan, grammatik aniqlik hamda strukturaviy tartib bilan xarakterlanishi aniqlandi. Ingliz diskursida vaqt va makon ko‘rsatkichlari kommunikativ vaziyatni aniq belgilash, nutqning mantiqiy izchilligini ta’minlash hamda informatsion aniqlikni yuzaga chiqarishga xizmat qiladi.

O‘zbek tilida esa vaqt va makon konsepti ko‘proq pragmatik kontekst, milliy-madaniy tafakkur va kommunikativ vaziyat bilan bog‘liq holda ifodalanishi kuzatildi. Temporal birliklarda nisbiylik va kontekstual ma’no ustuvor bo‘lsa, spatial birliklarda ijtimoiy munosabat, hurmat va kommunikativ yaqinlik kabi pragmatik omillar faol namoyon bo‘ldi. Ayniqsa, o‘zbek muloqotida vaqt va makon birliklari ko‘pincha bilvosita ma’no hamda madaniy implikatsiyalarni ifodalashi aniqlandi.

Qiyosiy tahlil natijasida har ikki tilda vaqt-makon konsepti kommunikativ jarayonning muhim tarkibiy qismi ekani, biroq ularning ifodalanishida lingvomadaniy va pragmatik tafovutlar mavjudligi belgilandi. Tadqiqot davomida temporal va spatial birliklar diskursning semantik yaxlitligini ta’minlash, nutq ishtirokchilari o‘rtasidagi munosabatni ifodalash hamda kommunikativ maqsadni amalga oshirishda muhim vosita sifatida xizmat qilishi isbotlandi.

Mazkur tadqiqot natijalari lingvopragmatika, diskurs tahlili va qiyosiy tilshunoslik sohalarida vaqt-makon konseptini o‘rganishning nazariy asoslarini boyitadi hamda ingliz va o‘zbek tillaridagi kommunikativ-pragmatik xususiyatlarni chuqurroq anglashga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, ingliz va o‘zbek muloqotida vaqt-makon konsepti lingvopragmatik jihatdan muhim kommunikativ vosita hisoblanadi. Tadqiqot davomida temporal va spatial birliklarning har ikki tilda nafaqat grammatik va semantik, balki pragmatik hamda lingvomadaniy xususiyatlarga ega ekani aniqlandi. Ingliz tilida vaqt va makon ko‘rsatkichlari asosan grammatik aniqlik va strukturaviy tartib orqali ifodalansa, o‘zbek tilida ularning qo‘llanishida pragmatik kontekst, milliy tafakkur va ijtimoiy munosabatlar ustuvor ahamiyat kasb etadi. Temporal va spatial birliklarning diskursdagi vazifasi kommunikativ aniqlikni ta’minlash, nutq ishtirokchilari o‘rtasidagi munosabatni ifodalash hamda muloqotning pragmatik mazmunini shakllantirishdan iborat ekani kuzatildi. O‘zbek tilida vaqt va makon konseptining nisbiy hamda kontekstual xarakteri kuchliroq namoyon bo‘lsa, ingliz tilida ushbu birliklar ko‘proq aniq va tizimli xarakterga ega ekanligi belgilandi.

Tadqiqot natijalari ingliz va o‘zbek tillaridagi vaqt-makon konseptining lingvopragmatik xususiyatlarini chuqurroq anglashga xizmat qiladi. Mazkur ilmiy izlanish pragmalingvistika, diskurs tahlili va qiyosiy tilshunoslik sohalaridagi keyingi tadqiqotlar uchun nazariy va amaliy asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси, 2008. 300 б.
2. Levinson S. C. *Pragmatics.* – Cambridge: Cambridge University Press, 1983. 420 p.
3. Yule G. *Pragmatics.* – Oxford: Oxford University Press, 1996. 152 p.
4. Van Dijk T. A. *Discourse and Context: A Sociocognitive Approach.* – Cambridge: Cambridge University Press, 2008. 267 p.

B.P. ZARIPOV,
Navoiy davlat unversiteti o‘zbek tilshunosligi kafedrasi dotsenti, f.f.n

O‘ZBEK TILIDA “QADRIYAT” MAZMUNIY MAYDONINING YADRO KOMPONENTLARINI ANIQLASHNING AKSIOLINGVISTIK ASOSLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada o‘zbek tilidagi “qadriyat” mazmuniy maydonining yadro qismini aniqlashning nazariy va metodologik asoslari tahlil qilinadi. Tadqiqotning dolzarbligi “qadriyat” tushunchasining nafaqat falsafiy-aksiologik, balki tilshunoslik nuqtayi nazaridan ham murakkab va ko‘p qatlamli hodisa ekani bilan belgilanadi. Maqolada komponent tahlil, semasiologik tahlil, maydon yondashuvi, sintagmatik munosabatlar va lingvomadaniy talqin usullaridan foydalanildi. Natijada “qadriyat” mazmuniy maydonining yadro qatlami “qiymat”, “ahamiyat”, “muhimlik”, “qadr-qimmat”, “e’tibor”, “azizlik” singari faol semalar vositasida shakllanishi asoslandi. Yadro, markaz va periferik qatlamlarning o‘zaro aloqasi ko‘rsatildi. Tadqiqot “qadriyat” kategoriyasining o‘zbek milliy lisoniy manzarasidagi konseptual mohiyatini aniqlashtirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: *qadriyat, mazmuniy maydon, yadro sema, aksiolingvistika, konsept, semantik tahlil, lingvomadaniyat, sintagmatik munosabat.*

Annotation: this article analyzes the theoretical and methodological foundations for identifying the core of the semantic field of “value” in the Uzbek language. The relevance of the study is determined by the fact that the notion of value is a complex and multilayered phenomenon not only in philosophy and axiology, but also in linguistics. The study applies component analysis, semasiological analysis, field approach, syntagmatic relations and linguocultural interpretation. As a result, it is argued that the core layer of the semantic field of “value” is formed through active semes such as worth, significance, importance, dignity, attention and preciousness; the interaction of the core, central and peripheral layers is also demonstrated. The findings help clarify the conceptual essence of the category of value in the Uzbek national linguistic worldview.

Key words: *value, semantic field, core seme, axiolinguistics, concept, semantic analysis, linguoculture, syntagmatic relation.*

Аннотация: в данной статье анализируются теоретические и методологические основы определения ядра семантического поля «ценность» в узбекском языке. Актуальность исследования обусловлена тем, что понятие «ценность» представляет собой сложное и многослойное явление не только с философско-аксиологической, но и с лингвистической точки зрения. В статье использованы методы компонентного анализа, семасиологического анализа, полевого подхода, синтагматических отношений и лингвокультурной интерпретации. В результате обосновано формирование ядра семантического поля «ценность» посредством таких активных сем, как «ценность», «важность», «значимость-ценность», «внимание», «уважение». Показана взаимосвязь между ядром, центральным и периферийным слоями. Исследование служит для уточнения концептуальной сущности категории «ценность» в узбекском национальном языковом ландшафте.

Ключевые слова: *ценность, семантическое поле, ядро семы, аксиолингвистика, понятие, семантический анализ, лингвокультура, синтагматические отношения.*

Tilshunoslikda mazmuniy maydonlarni tadqiq etish muayyan tushunchaning tildagi ifodalanish mexanizmini, ichki qatlamlarini va iyerarxik tuzilishini ochib berishga xizmat qiladi. “Qadriyat” mazmuniy maydoni ham ana shunday murakkab tizimlardan biri bo‘lib, u moddiy boylikdan tortib axloqiy me’yorlar, e’tiqod, ideal, maqsad va ijtimoiy munosabatlargacha bo‘lgan keng doirani qamrab oladi. Shu bois mazkur kategoriyani faqat lug‘aviy birliklar yig‘indisi sifatida emas, balki milliy ong, madaniy tajriba va ijtimoiy baholash bilan bog‘liq konseptual tizim sifatida o‘rganish zarur [1].

Qadriyatning aksiologik mazmuni uning biror predmet, hodisa yoki shaxsning o‘zi emas, balki ular bilan bog‘liq qadr, ahamiyat, foydalilik, ijtimoiy va ma’naviy baho bilan aloqador ekanini ko‘rsatadi. Demak, tilshunoslikda “qadriyat” mazmuniy maydonini tahlil etish semantik yadro bilan bir qatorda unga tutash markaziy va periferik birliklarni ham aniqlashni taqozo etadi. Mazkur masala, ayniqsa, o‘zbek milliy lisoniy manzarasi doirasida dolzarbdir, chunki qadriyatlar xalqning tarixiy xotirasi, mafkuraviy tajribasi va madaniy stereotiplari bilan chambarchas bog‘langan.

A.P. Babushkin konseptni kollektiv ongning diskret mazmunli birligi sifatida izohlaydi; u milliy xotirada til orqali mustahkamlanadi [2]. Shu jihatdan “qadriyat”ni o‘zbek tilida milliy konsept sifatida ko‘rish mumkin.

Yadro semani aniqlashda L.A. Kiselevaning “yadro sema so‘zning o‘zak ma’nosi ifodasiga teng keladi” degan qarashi metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi [3]. Shuningdek, mazmuniy maydonning ichki mikrosistemalarini tahlil etishda leksik kategoriyaning bosh ma’nosi, markaziy semalari va ulardan kengayadigan periferik ma’nolar o‘rtasidagi nisbatni belgilash tamoyillaridan foydalanildi [4]. “Qadriyat” tushunchasi o‘zbek tilida keng semantik ko‘lamga ega. U moddiylik va ma’naviylikni birlashtirgan holda baholash, e’zozlash, ulug‘lash, asrash, hurmat qilish kabi amaliy va ma’naviy munosabatlarni ifodalaydi. Shu bilan birga, qadriyat predmeti bilan uning til birligi sifatidagi ifodasi aynan bir narsa emas. “Qadriyat” leksemasi umumlashtiruvchi xarakterga ega bo‘lib, uning atrofida “qiymat”, “qadr-qimmat”, “ahamiyat”, “muhimlik”, “e’tibor”, “e’zoz”, “azizlik” kabi birliklar semantik jihatdan uyushadi [5].

Mazkur birliklarning umumiy jihati – ularning barchasi subyekt uchun ahamiyatli bo‘lgan narsa yoki hodisaning baholangan maqomini ifodalaydi. Demak, “qadriyat” mazmuniy maydonining yadro qismi shunchaki lug‘aviy markaz emas, balki baholashning umumiy arxisemasini mujassamlashtiruvchi semantik markazdir. Bu holat qadriyat kategoriyasini boshqa mavhum birliklardan farqlab turadi.

Yadro qatlamini belgilashda, avvalo, umumiy va xususiy munosabatlar hisobga olinadi. “Qadriyat” umumiy tushuncha bo‘lsa, unga bo‘ysunuvchi mavzuiy va ma’noviy guruhlar maxsus tushunchalar sifatida namoyon bo‘ladi. Masalan, milliy qadriyat, ma’naviy qadriyat, siyosiy qadriyat, iqtisodiy qadriyat singari guruhlar umumiy kategoriya doirasida xususiylashgan semantik tarmoqlardir. Bu holat maydonning iyerarxik tabiatini ko‘rsatadi.

Ikkinchi mezon – sintagmatik yaqinlikdir. “Qadriyat” bilan bir kontekstda eng faol va muntazam qo‘llanadigan “qiymat”, “ahamiyat”, “qadr-qimmat”, “aziz”, “qimmat”, “baho”, “e’tibor” birliklari yadroga yaqin semalar sifatida ajraladi. Chunki aynan shu leksemalar “qadriyat”ning baholash, e’zozlash va muhimlik kabi asosiy mazmunini kontekstda faollashtiradi. Bunday birliklar turli matn va nutqiy holatlarda “qadriyat” leksemasi bilan sintagmatik bog‘lanishga kirishib, maydon markazlashuvini kuchaytiradi.

Uchinchi mezon – madaniy kontekstdir. Muayyan madaniyatda qadriyatga oid birliklarning qaysi biri xalqning milliy ongida ko‘proq e’tirof etilsa, aynan o‘sha birliklar yadroga tortiladi. O‘zbek madaniyatida “hurmat”, “mehr-muhabbat”, “ahillik”, “ezgulik”, “totuvlik”, “ota-onani ulug‘lash” singari tushunchalar qadriyatning milliy-madaniy ifodasini kuchaytiradi. Demak, yadro faqat leksik chastota bilan emas, balki kulturologik salmoq bilan ham belgilanadi. [6].

Bunda yadro doimo bitta leksema bilan cheklanib qolmaydi. Ayrim hollarda u so‘z birikmasi, barqaror ibora yoki bir necha o‘zaro yaqin semalardan tarkib topgan markaziy kompleks bo‘lishi mumkin. “Qadriyat” maydonida ham aynan shunday ko‘p komponentli yadro kuzatiladi. Bu hodisa, bir tomondan, tushunchaning ko‘p qirrali tabiatini, ikkinchi tomondan, uning milliy konsept sifatidagi barqarorligini ko‘rsatadi.

Tahlil natijalari “qadriyat” mazmuniy maydonini uch qatlamli tizim sifatida tavsiflash mumkinligini ko‘rsatadi. Birinchi qatlam – yadro. Unga “qadriyat”, “qiymat”, “qadr-qimmat”, “ahamiyat”, “muhimlik” kabi umumiy baholovchi va arxisemantik birliklar kiradi. Ikkinchi qatlam – markaz. Unga “e’tibor”, “e’zoz”, “hurmat”, “aziz”, “qimmat”, “foydalilik” singari yadro semani aniqlashtiruvchi birliklar mansub. Uchinchi qatlam esa periferiyadir; unda milliy, ma’naviy, siyosiy, iqtisodiy, estetik, ijtimoiy va boshqa qadriyat turlarini ifodalovchi ko‘plab leksemalar jamlanadi.

Mazkur modelning afzalligi shundaki, u “qadriyat”ni nafaqat semantik markaz, balki kengayuvchan tizim sifatida ko‘rsatadi. Masalan, “hurmat” semasi bir kontekstda yadroga yaqinlashsa, boshqa kontekstda milliy qadriyatlar yoki ijtimoiy qadriyatlar tarkibida

markaziy-periferik vazifani bajarishi mumkin. Demak, semalarning maydon ichidagi o‘rni qat’iy emas, u matn, uslub, tarixiy davr va madaniy vaziyatga ko‘ra siljib turadi.

Shu nuqtayi nazardan, “qadriyat” maydonining yadrosi o‘zgaruvchan, biroq bosh arxisemasi barqaror bo‘lgan tizimdir. Barqaror unsur – baholash va qadr berish semasi hisoblanadi. O‘zgaruvchan unsur esa ushbu baholashning qanday obyektda, qaysi madaniy sharoitda va qaysi ideologik kontekstda namoyon bo‘lishidir. Mustaqillik davrida tiklangan yoki faollashgan qadriyatlar, mafkura ta’sirida kuchaygan birliklar, urush yoki ijtimoiy sinov davrida keskin qadrlangan tushunchalar maydonning periferiyasidan markazga siljishi mumkin.

Jadval

“Qadriyat” mazmuniy maydonining yadro qatlamlari

Qatlam	Asosiy semalar	Funksiyasi	Tipik birliklar
Yadro	baholash, qadr berish, ahamiyat	Arxisemani ifodalaydi	qadriyat, qiymat, qadr-qimmat, ahamiyat
Markaz	e’tirof, e’zoz, muhimlik, azizlik	Yadro mazmunini aniqlashtiradi	e’tibor, hurmat, aziz, qimmat
Yaqin periferiya	milliylik, ma’naviylik, foydalilik	Xususiy tarmoqlarni shakllantiradi	milliy qadriyat, ma’naviy qadriyat, foyda
Uzoq periferiya	davriy va kontekstual baholar	Diskursga ko‘ra faollashadi	tinchlik, ozodlik, innovatsiya, meros

Xulosa qilib aytganda, o‘zbek tilidagi “qadriyat” mazmuniy maydoni murakkab va ko‘p qatlamli leksik-semantik tizimdir. Uning yadrosi “baholash”, “qadr berish”, “ahamiyat kasb etish” kabi arxisemalar asosida shakllanadi. “Qiymat”, “qadr-qimmat”, “ahamiyat”, “muhimlik”, “e’tibor”, “azizlik” singari birliklar yadro va markaz oralig‘idagi faol semantik maydonni vujudga keltiradi. Yadroni aniqlashda umumiy-xususiy munosabat, sintagmatik yaqinlik, madaniy kontekst va konseptual salmoq asosiy mezonlar bo‘lib xizmat qiladi.

Mazkur natijalar “qadriyat” kategoriyasini o‘zbek tilshunosligida aksiolingvistik nuqtayi nazardan chuqurroq tavsiflash, uning ichki sistemasi va lisoniy-madaniy imkoniyatlarini aniqlash uchun nazariy zamin yaratadi. Kelgusida ushbu maydonning badiiy matn, publitsistik nutq va paremiologik birliklardagi voqelanishini korpus materiallari asosida tadqiq etish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Falsafa qomusiy lug‘ati. – Toshkent: “Sharq” NMAK, 2004. 468-bet.

2. Бабушкин А.П. Типовые понятия и лексико-фразеологическая семантика языка. – Воронеж: Издательство Воронежского государственного университета, 1996. – 104 с.

3. Киселева Л.А. Коммуникативные функции языка и семантическая структура глагольного значения // Проблемы семантики. – Москва: Наука, 1974. - С. 75.

4. Yuldashev F. “Ma’naviyat” leksik kategoriyasi: sistemasi, semantikasi va leksikografik talqini: filol. fan. dok. (DSc) avtoreferati. – Qarshi, 2023.

5. O‘zbek tilining izohli lug‘ati: 80 000 dan ortiq so‘z va so‘z birikmalari. 6 jild. – Toshkent: O‘zME, 2022.

6. Киселева Л.А. Коммуникативные функции языка и семантическая структура глагольного значения // Проблемы семантики. – Москва: Наука, 1974. - С. 75.

Umida MUMINOVA,
Termiz davlat pedagogika instituti f.f.f.d.(PhD) dotsenti
umuminova622@gmail.com



O‘ZBEK TILIDA LEKSIK QATLAMLARNING TARIXIY SHAKLLANISHI VA SEMANTIK EVOLYUTSIYASI
(TURKIY, ARAB VA FORS-TOJIK UNSURLAR ASOSIDA)

Annotatsiya: mazkur maqolada o‘zbek tili leksikasining tarixiy shakllanish jarayoni hamda uning tarkibiy qatlamlarining semantik evolyutsiyasi tahlil qilinadi. Tadqiqotda o‘zbek tili lug‘at boyligining turkiy, arab va fors-tojik manbalari asosida shakllanish bosqichlari yoritilib, har bir qatlamning til tizimidagi o‘rni va funksional xususiyatlari ochib beriladi. Xususan, turkiy qatlamning asosiy va yetakchi rol o‘ynashi, arab va fors-tojik o‘zlashmalarining esa ijtimoiy-madaniy, diniy hamda ilmiy omillar ta’sirida tilga kirib kelgani ilmiy dalillar asosida asoslanadi. Maqolada leksik birliklarning tarixiy taraqqiyoti jarayonida yuz bergan semantik o‘zgarishlar, ma’no kengayishi, torayishi, ko‘chishi hamda stilistik differensiyalanish jarayonlari misollar asosida tahlil etiladi. Mazkur tadqiqot natijalari o‘zbek tilining tarixiy leksikologiyasi, semasiologiyasi hamda umumiy tilshunoslik masalalarini chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: *o‘zbek tili leksikasi, leksik qatlamlar, tarixiy taraqqiyot, semantik evolyutsiya, turkiy qatlam, arabcha o‘zlashmalar, fors-tojik o‘zlashmalar, leksik tizim, ma’no o‘zgarishi.*

Annotation: this article examines the historical formation of the Uzbek lexicon and the semantic evolution of its constituent lexical layers. The study highlights the stages of development of the Uzbek vocabulary on the basis of Turkic, Arabic, and Persian-Tajik sources, revealing the role and functional features of each layer within the language system. In particular, the dominant role of the Turkic layer is substantiated, while Arabic and Persian-Tajik borrowings are shown to have entered the language under the influence of socio-cultural, religious, and scientific factors. The article analyzes semantic changes that occurred in lexical units during their historical development, including semantic extension, narrowing, shift, and stylistic differentiation, based on illustrative examples. The results of the study contribute to a deeper understanding of the historical lexicology and semasiology of the Uzbek language, as well as to general linguistic theory.

Key words: *uzbek lexicon, lexical layers, historical development, semantic evolution, Turkic layer, Arabic borrowings, Persian-Tajik borrowings, lexical system, semantic change.*

Аннотация: в данной статье рассматриваются процессы исторического формирования лексики узбекского языка, а также семантическая эволюция её структурных слоёв. В исследовании освещаются этапы становления словарного состава узбекского языка на основе тюркских, арабских и персидско-таджикских источников, раскрываются роль и функциональные особенности каждого слоя в системе языка. В частности, обосновывается ведущая роль тюркского слоя, тогда как арабские и персидско-таджикские заимствования рассматриваются как результат воздействия социально-культурных, религиозных и научных факторов. В статье анализируются семантические изменения лексических единиц в процессе их исторического развития, включая расширение, сужение, перенос значения, а также стилистическую дифференциацию, с привлечением соответствующих примеров. Результаты исследования способствуют более глубокому осмыслению проблем исторической лексикологии, семасиологии узбекского языка и общей теории языка.

Ключевые слова: *лексика узбекского языка, лексические слои, историческое развитие, семантическая эволюция, тюркский слой, арабские заимствования, персидско-таджикские заимствования, лексическая система, семантические изменения.*

Til insoniyat tafakkuri va ijtimoiy taraqqiyotining eng muhim ifoda vositasi sifatida doimiy rivojlanishda bo‘lgan murakkab tizimdir. Tilning aynan leksik qatlami jamiyatdagi tarixiy, madaniy va sivilizatsion jarayonlarning eng sezgir aksidir. Shu sababli leksik tizimni diaxron nuqtayi nazardan o‘rganish til taraqqiyotining ichki qonuniyatlarini ochib berishda muhim ahamiyat kasb etadi [1, 245-b]. O‘zbek tili leksikasi tarixiy jihatdan ko‘p qatlamli tizim sifatida shakllangan bo‘lib, uning asosini turkiy qatlam tashkil etadi. Shu bilan birga, turli tarixiy bosqichlarda yuzaga kelgan ijtimoiy-siyosiy, diniy va madaniy aloqalar natijasida arab hamda fors-tojik tillaridan o‘zlashgan birliklar ham lug‘aviy tarkibning ajralmas qismiga aylangan. Bu jarayonlar ayniqsa Markaziy Osiyoda islom sivilizatsiyasining keng yoyilishi hamda ilm-fan va adabiyot rivoji bilan chambarchas bog‘liq holda kechgan [2, 112-b]. Tilshunoslikda leksik qatlamlarning shakllanishi va rivojlanishini o‘rganish nafaqat tarixiy leksikologiya, balki semasiologiya, etimologiya va umumiy til nazariyasi uchun ham muhim ilmiy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Leksik birliklarning semantik evolyutsiyasi, ya’ni ma’no kengayishi, torayishi, ko‘chishi va funksional differensiyalanishi, til tizimining ichki dinamikasi hamda tashqi omillar ta’siri ostida yuzaga keladigan murakkab jarayondir [3, 134-b]. Bu esa tilni faqat statik emas, balki dinamik tizim sifatida o‘rganish zaruratini yuzaga keltiradi. Zamonaviy lingvistik tadqiqotlarda tilning leksik tizimi ko‘pincha integrativ va tizimli yondashuv asosida tahlil qilinmoqda. Bu yondashuvga ko‘ra, tilning turli qatlamlari o‘zaro aloqadorlikda va

funksional birlik sifatida qaraladi. Shu nuqtayi nazardan, o‘zbek tili leksikasining tarixiy shakllanishini faqat manba jihatdan emas, balki ularning o‘zaro ta’siri va semantik transformatsiyasi nuqtayi nazaridan o‘rganish alohida ilmiy ahamiyatga ega [4, 27-b]. Mazkur maqolaning maqsadi o‘zbek tili leksikasining tarixiy shakllanish bosqichlarini aniqlash, uning asosiy leksik qatlamlarini manba va funksional xususiyatlari asosida tavsiflash hamda ushbu qatlamlarga mansub birliklarning semantik evolyutsiyasini ilmiy jihatdan tahlil qilishdan iborat. Tadqiqotda diaxron, qiyosiy-tarixiy va tizimli-tahliliy metodlardan foydalanildi. Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundaki, unda o‘zbek tili leksikasining turli qatlamlari o‘zaro integratsiyalashgan tizim sifatida talqin qilinib, ularning semantik rivojlanishidagi umumiy qonuniyatlar hamda milliy xususiyatlar aniqlanadi. Tadqiqot natijalari o‘zbek tilining tarixiy leksikologiyasi va semasiologiyasi sohasida mavjud ilmiy qarashlarni yanada boyitishga xizmat qiladi.

O‘zbek tili leksik tizimi tarixiy taraqqiyot jarayonida ko‘p qatlamli tuzilma sifatida shakllangan bo‘lib, unda turkiy, arab va fors-tojik manbalariga mansub birliklar o‘zaro uyg‘unlashgan holda mavjud. Ushbu qatlamlarning shakllanishi tilning ichki rivojlanish qonuniyatlari bilan bir qatorda, ijtimoiy-tarixiy jarayonlar ta’sirida yuzaga kelgan. Turkiy qatlam o‘zbek tilining genetik asosi hisoblanadi va u tilning eng qadimgi hamda barqaror komponentini tashkil etadi. Mazkur qatlamga kiruvchi birliklar kundalik hayot, tabiat, inson faoliyati va ijtimoiy munosabatlar bilan bog‘liq asosiy tushunchalarni ifodalaydi. Bu qatlamning barqarorligi uning milliy tafakkur bilan uzviy bog‘liqligini ko‘rsatadi [5, 75-b]. Arab va fors-tojik qatlamlari esa o‘zbek tiliga tarixiy aloqalar, madaniy integratsiya hamda ilmiy va diniy jarayonlar orqali kirib kelgan. Arab tilidan kirgan so‘zlar asosan diniy, ilmiy va falsafiy tushunchalarni ifodalasa, fors-tojik o‘zlashmalari ko‘proq adabiy, maishiy va estetik sohalarda keng qo‘llangan. Ushbu qatlamlarning shakllanishida Markaziy Osiyo hududida yuz bergan madaniy va siyosiy o‘zgarishlar muhim omil bo‘lgan [6, 32-b]. O‘zbek tili leksikasining rivojlanishida semantik evolyutsiya muhim o‘rin tutadi. Til birliklari vaqt o‘tishi bilan o‘zining dastlabki ma’nosini saqlab qolishi bilan birga, yangi ma’no qirralarini ham hosil qiladi. Bu jarayon tilning dinamik tabiatini aks ettiradi. Semantik kengayish jarayonida so‘zning qo‘llanish doirasi kengayib, u yangi tushunchalarni ifodalash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Masalan, dastlab aniq predmetni bildirgan ayrim birliklar keyinchalik abstrakt ma’nolarda ham qo‘llana boshlaydi. Aksincha, semantik torayish jarayonida so‘zning ma’nosi ixtisoslashib, tor doiradagi tushunchani ifodalashga xizmat qiladi. Semantik ko‘chish esa metafora va metonimiya kabi vositalar orqali amalga oshib, tilning obrazlilik imkoniyatlarini kengaytiradi. Bu hodisalar natijasida til leksikasi boyib, uning ifoda imkoniyatlari ortadi. Shuningdek, ayrim birliklarning stilistik jihatdan differensiyalanishi ham semantik evolyutsiyaning muhim ko‘rinishlaridan biri hisoblanadi.

O‘zbek tiliga kirib kelgan o‘zlashma birliklar vaqt o‘tishi bilan fonetik, morfologik va semantik jihatdan moslashib, milliy til tizimining tarkibiy qismiga aylanadi. Bu jarayon tilning ichki tizimiga moslashish orqali amalga oshadi va “milliylashuv” hodisasi sifatida baholanadi. Fonetik moslashuv jarayonida o‘zlashma so‘zlar o‘zbek tilining tovush tizimiga mos ravishda o‘zgaradi. Morfologik moslashuv esa ularning grammatik shakllanish imkoniyatlarini kengaytiradi. Eng muhim jihatlardan biri semantik moslashuv bo‘lib, bunda o‘zlashma birliklar yangi ma’no qirralarini kasb etadi yoki mavjud ma’nolari qayta talqin qilinadi. Natijada o‘zlashma leksika til tizimida begona element sifatida emas, balki faol va funksional birlik sifatida namoyon bo‘ladi. Bu esa o‘zbek tilining ochiq va rivojlanishga moyil tizim ekanligini ko‘rsatadi. Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek tili leksikasi tarixiy taraqqiyot davomida shakllangan murakkab va ko‘p qatlamli tizim bo‘lib, unda turli manbalardan kirib kelgan birliklar o‘zaro uyg‘unlashgan holda faoliyat yuritadi. Ushbu tizimning negizini tashkil etuvchi turkiy qatlam milliy tafakkur va til barqarorligining asosiy tayanchi sifatida namoyon bo‘lsa, arab hamda fors-tojik manbalariga mansub leksik birliklar uning semantik va funksional imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytirgan. Tadqiqot davomida aniqlanganidek, o‘zbek tili leksikasining rivojlanishi oddiy yig‘indi jarayoni emas, balki ichki qonuniyatlar va tashqi omillar ta’sirida yuzaga keladigan murakkab evolyutsion tizimdir. Ayniqsa, leksik birliklarning semantik o‘zgarishlari – ma’no kengayishi, torayishi, ko‘chishi hamda stilistik differensiyalanishi tilning dinamik tabiati va moslashuvchanligini yaqqol namoyon etadi. Bu jarayonlar orqali til nafaqat yangi tushunchalarni ifodalash imkoniyatiga ega bo‘ladi, balki mavjud birliklar asosida ham boyib boradi. Shuningdek, o‘zlashma leksikaning til tizimiga kirib kelishi va keyinchalik milliylashuvi o‘zbek tilining ochiq va integrativ xususiyatga ega ekanligini tasdiqlaydi. O‘zlashgan birliklar fonetik, morfologik va ayniqsa semantik jihatdan qayta ishlanib, tilning ichki tizimiga moslashadi va faol kommunikativ vositaga aylanadi. Bu holat o‘zbek tilining rivojlanishida tashqi ta’sirlar muhim omil bo‘lsa-da, ularning milliy til tizimi doirasida qayta talqin qilinishini ko‘rsatadi. Umuman olganda, o‘zbek tili leksikasining tarixiy shakllanishi va semantik evolyutsiyasi tilni statik emas, balki uzluksiz harakatdagi tizim sifatida talqin qilish zaruratini yuzaga keltiradi. Ushbu yondashuv tilning ichki imkoniyatlarini chuqurroq anglash, uning rivojlanish qonuniyatlarini aniqlash hamda kelgusidagi lingvistik tadqiqotlar uchun nazariy asos yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Sh.Rahmatullayev “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2006.680-bet.
2.Kononov A.N. Grammatika sovremennogo uzbekskogo literaturnogo yazyka. – Moskva: Nauka, 1960.384 s.
3.Mahmud Qoshg‘ariy Devonu lug‘otit turk. – Toshkent: Fan, 1960. 3-jild.
4.Bartold V.V. Turkiston mo‘g‘ullar istilosi davrida. – Toshkent: Fan, 1990. 560-bet.
5.Serebrennikov B.A. Obshchaya lingvistika. – Moskva: Nauka, 1970. 320.
6.O‘zbek tilining izohli lug‘ati. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2006.
7.Mahmud Qoshg‘ariy Devonu lug‘otit turk. – Toshkent: Fan, 1960.

Hakim AHMEDOV,
F.f.d. PhD. Dotsent (TerDu)

DOSTON FRAZEOLOGIYASINING KOGNITIV-SEMANTIK STRUKTURASI
(Surxondaryo turkum dostonlari misolida)

Annotatsiya: ushbu maqolada doston frazeologiyasining kognitiv-semantik strukturasi zamonaviy lingvistik paradigmalar – kognitiv tilshunoslik, psixolingvistika va konseptual tahlil metodlari asosida tadqiq qilinadi. Maqolada doston matnlarida qo‘llanilgan frazeologik birliklarning semantik tuzilishi kognitiv modellar, konseptlar orqali tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: *doston frazeologiyasi, kognitiv-semantik struktura, konsept, freym, metafora, epik tafakkur, korpus lingvistikasi, kognitiv tilshunoslik.*

Аннотация: в данной статье исследуется когнитивно-семантическая структура фразеологии эпоса на основе современных лингвистических парадигм – когнитивной лингвистики, психолингвистики и методов концептуального анализа. В статье анализируется семантическая структура фразеологических единиц, использованных в текстах эпоса, через когнитивные модели и концепты.

Ключевые слова: *фразеология дастана, когнитивно-семантическая структура, концепт, фрейм, метафора, эпическое мышление, корпусная лингвистика, когнитивная лингвистика.*

Annotation: this article examines the cognitive-semantic structure of epic folklore phraseology based on modern linguistic paradigms – cognitive linguistics, psycholinguistics, and methods of conceptual analysis. The article analyzes the semantic structure of phraseological units used in epic texts through cognitive models and concepts.

Key words: *phraseology of dastan (epic poem), cognitive-semantic structure, concept, frame, metaphor, epic thinking, corpus linguistics, cognitive linguistics.*

Til tizimi va lisoniy faoliyatni har tomonlama tadqiq qilish, ularga xos hodisalarning belgi-xususiyatlarini batafsil yoritish uchun tilshunoslikning turli sohalarini qamrab oladigan, ular uchun bir xilda tayanch nuqta vazifasini bajaradigan tilshunoslik sohasi – bu kognitiv tilshunoslikdir. Kognitiv semantikaga ko‘ra til shaxslarning umumiy qismi bo‘lib, odamlar dunyoni faqat tasavvurlaridagi kabi tasvirlashi mumkin. Dostonlar tiliga oid frazeologik birliklarning kognitiv paradigmasiga murojaat qilishi nafaqat frazeologik birlikning axborot imkoniyatlarini, balki uning kognitiv salohiyatini ham aniqlashtiradi va boshqa konseptual konstruksiyalardan kelib chiqqan holda frazeologik birliklarning haqiqiy ma’nosini tasvirlash imkoniyatini yuzaga chiqaradi. Umuman, frazeologik birliklar insonning lingvistik-ijodiy tafakkuri natijalarini, uning refleksiv aqliy faoliyati mahsullarini birlashtiradi va amalga oshiradi. Bu bizga dostonlar tilidagi frazeologik birliklarni aqliy jihatdan tasvirlash imkonini beradi va bir nechta ma’lumot bloklarini o‘z ichiga olgan, *denotatsiya*, *konnotatsiya* va *motivatsiya*ni qamrab oluvchi *kognitiv belgi* sifatida amalga oshadi. Masalan:


Xudo qayishsin bolamga,
tayanchim, yolg‘izginamga,
***Dovruq solgan** u olamga.*
Quloq sol aytgan nolamga.[2]

Abdunazar Poyonov ijrosidagi “Xonoyim pari” dostonida keltirilgan ushbu *“Dovruq solgan”* iborasini zamonaviy kognitiv tilshunoslik yondashuvlari asosida tahlil qilishda uch asosiy komponent – **denotatsiya**, **konnotatsiya** va **motivatsiyaga** – o‘zaro integrallashgan holda ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Denotatsiya bu – asosiy, referensial ma’no bo‘lib, *“Dovruq solgan”* birikmasining denotativ ma’nosi – keng ommaga tanilgan, mashhur bo‘lgan, shuhrat qozongan shaxs yoki hodisani anglatadi. Bu yerda: *“dovruq”* – ovoza, shon-shuhrat, gap-so‘zning keng tarqalishi; *“solmoq”* – faol harakatni bildiruvchi fe’l, ya’ni “tarqatmoq”, “yoymoq” ma’nosini bildiradi. Demak, denotatsiya nuqtai nazaridan bu birlik ijtimoiy makonda keng rezonans hosil qilgan subyekt yoki hodisani ifodalaydi. **Konnotatsiya** – bu qo‘shimcha, baholovchi ma’no bo‘lib, kognitiv-pragmatik yondashuvga ko‘ra “dovruq solgan” frazeologizmi kuchli konnotativ yuklamaga ega mashhur, obro‘li, el tanigan shaxs, qahramonlik yoki yutuq bilan bog‘liq shuhrat ma’nolarini bildiradi.

Motivatsiya bu ichki shakl va kognitiv asos bo‘lib, frazeologik birlikning motivatsiyasi uning qanday konseptual asosda shakllanganini ko‘rsatadi. Ichki shakl – bu inner form hisoblanadi. Kognitiv tilshunoslikda inner form – bu til belgisi va inson tafakkuri o‘rtasidagi ko‘prik bo‘lib, u konseptual metafora, obraz va tajribaga asoslangan motivatsiyani ifodalaydi va doston matnidagi frazeologik birlikning semantik yadrosini tushunishga yordam beradi. “Dovruq solgan” birikmasi metaforik tarzda quyidagi modelga asoslanadi: shuhrat – tarqaluvchi ovoz, ya’ni ovoz qanday keng hududga tarqalsa, shuhrat ham ijtimoiy makonda shunday yoyiladi. O‘zbek til madaniyatida “dovruq” tushunchasi madaniy motivatsiya bo‘lib, jamoaviy ong, og‘zaki axborot tarqalishi, ijtimoiy baholash mexanizmlari bilan chambarchas bog‘liq. Shu sababli bu frazeologizm jamoaviy ongda “ovozaning kuchi” konsepti orqali motivatsiyalangan. Umuman olganda, “Dovruq solgan” frazeologik birligi: *denotatsiya jihatidan* – mashhurlik va shuhratni bildiradi; *konnotatsiya jihatidan* – ijobiydan kinoyaviygacha bo‘lgan baholovchi ranglarga ega; *motivatsiya jihatidan* – shon - shuhratning ovoza bo‘lib, tarqalishi ma’nosini

shakllantiruvchi konseptual metaforasiga asoslanadi. Shu tariqa bu birlik nafaqat leksik birlik, balki insonning ijtimoiy voqelikni qanday idrok qilishi va konseptuallashtirishining kognitiv-semantik modeli sifatida namoyon bo‘ladi.

Dostonlar tiliga mansub frazeologik birliklarni kognitiv tahlil qilish jarayonida birlamchi ma’nolari deyarli yo‘qoladi yoki interpretatsiyaviy talqin qilinadi. Frazeologik birlikni interpretatsiyaviy talqin qilish – uni so‘zma-so‘z emas**,** balki yashirin yoki ko‘chma ma’nosiga qarab anglash demakdir**,** ya’ni bu iboralarni to‘g‘ri tushunish uchun ularning ko‘chma, obrazli ma’nosini ochib beradi. Shu ma’noda frazeologizmlar ikkilamchi til hodisasi deb qaraladi. Doston matnidagi iboralar ikki xil ma’noga ega bo‘lishi mumkin: **denotativ** va **signifikativ** ma’no. (chizma). Masalan: *Mo‘ysafidga qo‘shmoq,“to‘nini teskari kiymoq”,“oshig‘i olchi bo‘lmoq, “qo‘l uchida ko‘rishmoq”* kabi frazeologizmlar ma’no strukturasiga ko‘ra signifikativ ma’noga qaraganda denotativ ma’no yuqori bo‘ladi. Chunki ushbu frazeologik birliklarning ma’no strukturasiga ko‘ra ham denotativ, ham signifikativ munosabatni shakllantira oladi. Umuman, denotativ ma’no signifikativ ma’noga ko‘chadi. Lekin signifikativ ma’no denotativ ma’noga ko‘chmaydi.



Ular bir-biriga yaqin, lekin mazmun jihatdan farq qiladi. *Denotativ ma’no* – bu so‘z yoki iboraning **to‘g‘ridan to‘g‘ri, asosiy, lug‘aviy ma’nosi,** ya’ni u real hayotdagi narsa, hodisa yoki tushunchani bevosita bildiradi. *Signifikativ ma’no* – bu so‘z yoki iboraning **umumlashtirilgan, tushunchaviy mazmuni,** ya’ni ongimizdagi obraz, tushuncha yoki tasavvur bilan bog‘liq ma’no hisoblanadi. **Denotativ** ma’no – real obyekt yoki hodisaga ishora qilsa, **signifikativ ma’no** shu obyekt haqidagi umumiy tushuncha va mazmunni bildiradi. Masalan: *Alqissa Ahmad sardor bu so‘zni eshitib, **tulkilik qilib**, Go‘ro‘g‘lining ko‘nglini cho‘ktirib:“Jiyan hamma ayb o‘zingda, kelgan mehmonni qadriga yetmasang, yaxshi kutmasang, ko‘nglini olib jo‘natmasang, katta ziyofat etmasang, tog‘angning gapiga yurmasang, nasihatini olmasang, aybdi bo‘yningga olmasang kim keladi senikiga ?” – dedi.*[3] Ushbu misolda denotativ jihatdan u tulki – ya’ni ma’lum biologik belgilariga ega bo‘lgan yirtqich hayvonni bildiradi. Biroq nutq jarayonida ushbu birlik ko‘pincha o‘zining to‘g‘ridan to‘g‘ri ma’nosidan chiqib, kengroq semantik qatlam – **signifikativ** ma’noda qo‘llanadi. Signifikativ ma’no – bu so‘z orqali ifodalangan obyektning ongimizdagi umumlashgan, ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida shakllangan tushunchasidir. “Tulki” obrazi ko‘p asrlik xalq og‘zaki ijodi, ertaklar va dostonlarda takror-takror qo‘llanishi natijasida “ayyorlik”, “makkorlik”, “hiylakorlik” kabi abstrakt belgilar bilan barqaror bog‘lanib qolgan. Natijada bu so‘z semantik jihatdan kengayib, nafaqat hayvon nomi, balki inson xarakterini baholovchi birlik sifatida ham faol ishlatiladi. “tulki” so‘zi denotativ ma’nosini yo‘qotib, to‘liq signifikativ funksiyani bajaradi. Bu yerda gap hayvon haqida emas, balki insonning muayyan psixologik xususiyati – ayyorligi haqida ketmoqda. Demak, leksema konkret predmetni emas, balki umumlashgan sifatni ifodalayapti. Bunday semantik siljishning asosida metaforik ko‘chish mexanizmi yotadi. Ya’ni real obyekt (tulki) va unga xos deb hisoblangan belgi (ayyorlik) o‘rtasidagi o‘xshashlik asosida yangi ma’no yuzaga keladi. Ushbu jarayon kognitiv tilshunoslik nuqtai nazaridan inson tafakkurining kategoriyalash xususiyati bilan bog‘liq. Odamlar borliqni anglashda konkret obrazlardan abstrakt tushunchalarni shakllantiradi. Shuningdek, “tulki” obrazining signifikativ ma’nosi milliy-madaniy kontekst bilan ham uzviy bog‘liq. Turkiy va o‘zbek folklorida tulki ko‘pincha aldovchi, hiylakor qahramon sifatida tasvirlanadi[4]. Shu bois bu leksemaning signifikativ maydoni aynan salbiy, ehtiyotkorlikni talab qiluvchi xarakter belgilarini qamrab oladi. Doston frazeologiyasida kognitiv-semantik konseptlar masalasi tilshunoslikning zamonaviy yo‘nalishlaridan biri sifatida muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi. Kognitiv semantika til birliklarini inson tafakkuri, dunyoqarashi va konseptual tizimi bilan uzviy bog‘liq holda o‘rganadi. Shu nuqtai nazardan, doston matnlarida qo‘llaniladigan frazeologik birliklar nafaqat estetik vazifani bajaradi, balki xalqning mental modeli, qadriyatlari va konseptual olamini aks ettiruvchi muhim vosita hisoblanadi[6]. Umuman, frazeologik birliklar tilning tayyor, ko‘chma ma’noga ega, barqaror birikmalari hisoblanib, dostonlarda bunday birliklar ko‘pincha obrazlilikni kuchaytirish, qahramon xarakterini ochish va voqelikni emotsional-ekspressiv tarzda ifodalash uchun xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ш. Сафаров. Когнитив тилшунослик. – Жиззах: Сангзор нашриёти.2006 й. 92 б.
2. Xonoyim pari. O‘zbek xalq dostoni. Aytuvchilar: Ch. Rahmatullayev, A. Poyonov. Sh. Boltayev. –Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot - matbaa uyi, 2022. 52-b.
3. Malla savdogar. O‘zbek xalq dostoni. Aytuvchilar: Ch. Rahmatullayev, A. Poyonov, Sh. Boltayev. –Toshkent: Akademnashr, 2019. 5-b.
4. O‘zbek tilining izohli lug‘ati – T.:G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot - matbaa uyi, 2023. 844-b.
5. Axmedov H. “Alpomish dostonida frazeologizmlarning tematik va mifologik strukturasi: Filol. fan. bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ...diss. –Termiz, 2023. 19-b.

Ниетбай КАРИМХОДЖАЕВ,
Кандидат филологических наук, доцент,
заведующий кафедрой русского языка и литературы
Каракалпакского государственного университета
Гульзира УСЕНОВА,
Магистрант 2 курса Каракалпакского
государственного университета

ПОНЯТИЕ ЭМОЦИОНАЛЬНО-ОЦЕНОЧНОЙ ЛЕКСИКИ

Аннотация: в статье рассматривается понятие эмоционально-оценочной лексики в контексте современных лингвистических исследований XX–XXI вв. Анализируются теоретические основания выделения данного слоя словаря в рамках эмотиологии, функциональной семантики оценки, антропоцентрической парадигмы и теории коннотации. Предлагается рабочее определение эмоционально-оценочной лексики, ориентированное на системно-языковой и контекстно-текстовый уровни анализа и применимое к исследованию художественного дискурса.

Ключевые слова: *эмоционально-оценочная лексика; эмотивность; оценочность; коннотация; функциональная семантика*

Annotation: this article examines the concept of emotional-evaluative vocabulary in the context of contemporary linguistic research in the 20th and 21st centuries. It analyzes the theoretical foundations for identifying this layer of vocabulary within the framework of emotiology, the functional semantics of evaluation, the anthropocentric paradigm, and connotation theory. A working definition of emotional-evaluative vocabulary is proposed, focusing on the systemic-linguistic and contextual-textual levels of analysis and applicable to the study of artistic discourse.

Key words: *emotional-evaluative vocabulary; emotiveness; evaluativeness; connotation; functional semantics*

Annotatsiya: maqolada XX-XXI asrlardagi zamonaviy tilshunoslik tadqiqotlari kontekstida emotsional-baholovchi leksika tushunchasi ko‘rib chiqiladi. Emotiologiya, baholashning funksional semantikasi, antroposentrik paradigma va konnotatsiya nazariyasi doirasida lug‘atning ushbu qatlamini ajratishning nazariy asoslari tahlil qilingan. Emotsional-baholovchi leksikaning tizimli-lisoniy va kontekstual-matniy tahlil darajalariga yo‘naltirilgan hamda badiiy diskurs tadqiqiga tatbiq etiladigan ishchi ta’rifi taklif etilgan.

Kalit so‘zlar: *emotsional-baholovchi leksika, emotivlik, baholovchilik, konnotatsiya, funksional semantika.*

В лингвистике XX–XXI вв. эмоционально-оценочная лексика обычно понимается как та часть словаря, в которой значение слова и его типичное употребление включают субъективное отношение к обозначаемому: переживание, эмоциональную реакцию, ценностную квалификацию и связанную с ними установку на воздействие. Важно, что «эмоциональное» и «оценочное» в языке не существуют как два изолированных «слоя»: эмоция часто осмысляется через оценку (приятно/неприятно, достойно/постыдно, желанно/нежеланно), а оценка в речи почти неизбежно задаёт эмоциональный фон и формирует тональность высказывания. В результате эмоционально-оценочная лексика оказывается не «украшением» речи, а одним из базовых механизмов субъективации и аксиологической (ценностной) организации смысла, особенно заметным в художественной коммуникации.

Теоретическая опора для определения понятия складывается из нескольких исследовательских линий. Во-первых, эмотиология и теория эмотивности описывают способы вербализации эмоций и фиксируют, что эмотивный компонент может быть системным элементом значения, влияющим на смысл и коммуникативный эффект высказывания. В этом подходе эмоции рассматриваются не только как то, о чём можно сообщить, но и как то, что язык способен выражать и транслировать адресату; следовательно, эмотивность является характеристикой семантики и прагматики языковых единиц, а не только «темой» текста [8:65]. Во-вторых, теория оценки и функциональная семантика оценки задают инструмент для анализа ценностных значений как структурированных: оценка описывается не бинарно, а как модель, где присутствуют субъект, объект, основание (критерий), шкала, знак и степень оценивания. Такой подход позволяет говорить об эксплицитной и имплицитной оценке, о смене критериев и о контекстном усложнении оценочного смысла [6:54-60]. В-третьих, логико-семантические и антропоцентрические подходы подчёркивают, что оценка в языке принципиально связана с человеческой перспективой и нормой: оценочные значения «привязаны» к системе ценностей, к культурным ожиданиям и к коммуникативной ситуации, а потому не могут быть сведены к «объективному» описанию мира [2: 22-30].

Из этих оснований следует методически важная установка: эмоционально-оценочная лексика определяется не по внешней «яркости» слова и не по субъективному впечатлению читателя, а через семантические и прагматические признаки, которые можно воспроизводимо выявлять на материале. В лексической семантике значение слова описывается как многокомпонентное; помимо денотативного ядра (предметной отнесённости) в значении могут присутствовать дополнительные элементы, отражающие отношение субъекта речи, социально-стилистическую маркированность и типичную прагматику употребления. Это напрямую связано с системной лексикографией и идеей того, что семантика слова может включать «надденотативные» компоненты,

влияющие на выбор слова в тексте и на интерпретацию адресатом [1:56-62]. Следовательно, эмоционально-оценочная лексика — это не только «слова чувств», но и более широкий слой единиц, где ценностные и эмоциональные компоненты выступают как часть значения или как устойчиво актуализируемый смысл.

Для теоретической точности необходимо развести несколько близких категорий, которые часто смешиваются в учебной и исследовательской практике. Эмотивность относится к языковому выражению и/или номинации эмоций; она проявляется как в прямой лексической номинации эмоциональных состояний, так и в косвенных способах выражения эмоции, когда переживание «считывается» через оценку, образность, модальность и речевую установку [8:38]. Оценочность относится к ценностной квалификации и задаёт шкалирование по оси «хорошо/плохо», «норма/отклонение», «желательно/нежелательно», а также по другим культурно значимым шкалам; она структурируется субъектом оценки и опирается на норму, идеал, социальное ожидание [6:21-26]. Экспрессивность и стилистическая маркированность, в свою очередь, связаны с интенсивностью и выразительностью речевого воздействия, с «тональностью» и эффектом речи; экспрессивное может обслуживать и эмоцию, и оценку, но не тождественно им. Стилистика подчёркивает, что выразительные значения образуют самостоятельную область средств и не сводятся к декоративной функции [4:97-103].

Особую роль в сближении эмоционального и оценочного играет коннотация. В коннотативном аспекте значения фиксируются надденотативные компоненты, сопровождающие «предметный» смысл: эмоциональные и оценочные семы, стилистические пометы, социальная маркированность, прагматическая установка, ассоциативный фон. Ключевой момент здесь в том, что коннотация не является произвольной «надстройкой»: она формируется в устойчивой речевой практике и культурной традиции, закрепляется в языке и потому может быть выявлена через повторяемые контексты, типичную сочетаемость и воспроизводимые интерпретации [7:15-21]. Из этого следует, что эмоционально-оценочная лексика в строгом смысле — это не просто «слова, которые кому-то кажутся эмоциональными», а единицы, для которых эмоционально-оценочная окраска либо системно закреплена, либо регулярно возникает в предсказуемых контекстах как результат коннотативного механизма.

Далее принципиально различить два уровня проявления эмоционально-оценочного смысла. На первом уровне находятся единицы, где эмотивный или оценочный компонент устойчив и распознаваем в языке: он проявляется в типичной сочетаемости, в стилистической маркированности, в регулярных прагматических эффектах и нередко фиксируется в лексикографической практике. На втором уровне находятся случаи контекстной актуализации, когда относительно нейтральная лексема получает эмоционально-оценочный смысл в конкретном художественном контексте за счёт образной соотнесённости, семантического окружения, композиционного акцента, интертекстуальной отсылки и жанровых ожиданий. Для поэзии этот второй уровень особенно значим, потому что поэтическое слово способно «перепрофилировать» значение, усиливая именно ценностно-эмоциональный план и переводя его в доминирующую позицию в структуре текста. Здесь важно опираться на методологию анализа художественного языка, где словоупотребление рассматривается как часть исторически и жанрово обусловленной системы художественных стилей и смысловых приёмов [5: 78-86].

С учётом изложенного рабочее определение, пригодное для последующего анализа поэтических корпусов, можно задать следующим образом. Эмоционально-оценочная лексика — это совокупность лексических единиц и устойчивых сочетаний, которые на системно-языковом или контекстно-текстовом уровне выражают эмоциональные состояния и установки лирического субъекта и/или ценностные оценки обозначаемого, включают коннотативные и прагматические компоненты значения и выполняют в художественном тексте функции субъективации, формирования тональности и моделирования аксиологического пространства произведения. Важно, что такое определение предполагает проверяемость интерпретации: эмоционально-оценочный компонент должен обосновываться через семантический анализ, через устойчивость коннотации в речевой практике, через контекстные механизмы актуализации и через место единицы в тональности текста, а не через впечатление исследователя. Это соответствует общей установке лексической семантики на системность и на объяснимость выбора слова в тексте как результата взаимодействия значения, сочетаемости и коммуникативной задачи.

Использованная литература:

1. Апресян Ю. Д. Избранные труды. Том 1: Лексическая семантика : 2-е изд., испр. и доп. – М. : Восточная литература, 1995. – VIII, 472 с.

2. Арутюнова Н. Д. Типы языковых значений [Текст] : Оценка, событие, факт / Н. Д. Арутюнова ; отв. ред. Г. В. Степанов. – М. : Наука, 1988. – 338 с.

3. Арутюнова Н. Д. Язык и мир человека. – 2-е изд., испр. – М. : Яз. рус. культуры, 1999. – 895 с.

4. Балли Ш. Французская стилистика / пер. с фр. К. А. Долинина ; под ред. Е. Г. Эткинда ; вступ. ст. Р. А. Будагова. – М. : Изд-во иностр. лит., 1961. – 394 с.

5. Виноградов В. В. О языке художественной прозы : избр. тр. – М. : Наука, 1980. – 360 с.

6. Вольф Е. М. Функциональная семантика оценки = Semantica funcional da valorizacao. – М. : Наука, 1985. – 228 с.

7. Телия В. Н. Коннотативный аспект семантики номинативных единиц. – М. : Наука, 1986. – 141 с.

8. Шаховский В. И. Лингвистическая теория эмоций : монография. – М. : Гнозис, 2008. – 414 с.

Abdurashid ASKAROV,
Philological Sciences doctor of Philosophy (PhD),
Associate professor
of the Department of Arabic language and literature al-Azhar
International Islamic Academy of Uzbekistan

THE SCIENCE OF ARABIC BALAGHA IN THE CENTRAL ASIA

Annotation: this article examines the development and significance of the science of Arabic balāgha (rhetoric) in Central Asia, focusing on its theoretical foundations, key representatives, and its contribution to the broader intellectual tradition of the Islamic world. Special attention is given to the works of prominent scholars from the region who played a crucial role in shaping rhetorical studies, including the analysis of eloquence, stylistic devices, and the aesthetics of language.

Key words: *Arabic balāgha, rhetoric, Central Asia, eloquence, stylistics, classical scholarship, linguistic tradition, Islamic intellectual heritage, literary aesthetics, rhetorical devices o'zbek va rus tilida qilib bering*

Аннотация: в данной статье рассматриваются развитие и значение науки арабской балāги (риторики) в Центральной Азии, её теоретические основы, ключевые представители, а также вклад в более широкую интеллектуальную традицию исламского мира. Особое внимание уделяется трудам выдающихся учёных региона, сыгравших важную роль в формировании риторических исследований, включая анализ выразительности речи, стилистических средств и эстетики языка. В исследовании также показано, как наука балāги развивалась в культурно-образовательных центрах Центральной Азии и взаимодействовала с такими дисциплинами, как лингвистика, литература и теология.

Ключевые слова: ***арабская балāга****, риторика, Центральная Азия, выразительность речи, стилистика, классическое научное наследие, лингвистическая традиция, исламское интеллектуальное наследие, литературная эстетика, риторические средства*

Annotatsiya: mazkur maqolada Markaziy Osiyoda arab balog'ati (ritorika) ilmining rivojlanishi va ahamiyati, uning nazariy asoslari, yetuk namoyandalari hamda islom olamining keng intellektual an'anasiga qo'shgan hissasi tahlil qilinadi. Tadqiqotda mintaqadan yetishib chiqqan va ritorika ilmining shakllanishida muhim rol o'ynagan olimlar asarlariga alohida e'tibor qaratilib, unda nutq go'zalligi, uslubiy vositalar va til estetikasi masalalari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, balog'at ilmining Markaziy Osiyoning madaniy va ta'limiy markazlarida qanday rivojlangani hamda uning tilshunoslik, adabiyot va ilohiyot kabi fanlar bilan o'zaro aloqasi yoritiladi.

Kalit so'zlar: *arab balog'ati, ritorika, Markaziy Osiyo, nutq go'zalligi, stilistika, klassik ilmiy meros, lingvistik an'ana, islomiy intellektual meros, adabiy estetika, ritorik vositalar*

Balagha (البلاغة), the Arabic science of rhetoric and eloquence, is a profound discipline that explores the power and beauty of language. Far from being a mere collection of stylistic rules, it is a comprehensive system for understanding how to use language effectively to convey meaning, evoke emotion, and persuade an audience. Rooted in the rich tradition of Arabic literature and the theological necessity of understanding the Qur'an, Balagha is an essential component of Islamic studies and a cornerstone of Arabic literary criticism.

The term *Balagha* literally means "to reach," and it refers to speech that effectively "reaches" its intended recipient. This concept is built upon three foundational branches:

1. 'Ilm al-Ma'ani (علم المعاني): The Science of Semantics and Syntax This branch is concerned with the meaning and purpose of sentences and the proper use of grammatical forms. It teaches how to construct a sentence that is appropriate for a specific context and audience. For example, a speech directed at a group of children would use simpler words and shorter sentences than a scholarly address. This science is about the precision of expression and the strategic use of language to suit the situation.

2. 'Ilm al-Bayan (علم البيان): The Science of Expression and Figurative Language This is perhaps the most well-known aspect of Balagha. It deals with the various ways to convey a single meaning through different rhetorical devices. The origins of Balagha can be traced back to the pre-Islamic era, with the flourishing of oral poetry and the emphasis on eloquence. However, the formalization of Balagha as a science was a gradual process spurred by

two major factors: the advent of Islam and the translation movement of the Abbasid Caliphate.

- **The Qur'an:** The divine inimitability (*i'jaz*) of the Qur'an served as a major catalyst for the development of Balagha. Early Muslim scholars sought to understand and articulate the miraculous nature of the Qur'anic text, which they saw as unparalleled in its eloquence and rhetorical power. This theological pursuit laid the groundwork for the systematic study of Arabic rhetoric.
- **Early Figures and Texts:** Some of the most influential early works and figures in the development of Balagha include:

These historical works, among many others, demonstrate that Balagha evolved from a natural appreciation for beautiful language into a sophisticated scientific and philosophical inquiry. It is a discipline that continues to be studied and taught in the Arab world, providing a unique lens for appreciating the profound artistry of Arabic and its rich literary heritage.

Abdul Qahir al-Jurjani (d. 1078 CE) was a scholar who is widely regarded as the most influential figure in the history of Arabic rhetoric and literary criticism. He transformed **Balagha** from a simple classification of figures of speech into a sophisticated, philosophical science. His two major works, *Asrar al-Balagha* and *Dalail al-I'jaz*, are considered foundational texts that redefined the field.

Before al-Jurjani, Balagha focused on individual rhetorical devices like similes and metaphors. Al-Jurjani argued that the true power of eloquence lay not in these isolated figures, but in the **nazm** (نظم), or the "arrangement" and "composition" of words and sentences. He proposed that the beauty and effectiveness of speech came from how a speaker or writer ordered their words to convey a specific meaning and emotional effect. This was a radical shift from focusing on the parts to understanding the whole.

He explained his theory through a famous analogy: the individual words of a sentence are like the beads of a necklace; their beauty is not in the beads themselves, but in how they are arranged to create a pleasing and coherent whole. This concept of *nazm* became the central pillar of his rhetorical theory, providing a framework for analyzing why some texts, particularly the Qur'an, were more eloquent than others.

1. *Asrar al-Balagha* (The Secrets of Eloquence)

In this book, al-Jurjani primarily dealt with **'Ilm al-Bayan** (the science of figurative language). He explored the psychological and aesthetic effects of figures of speech, moving beyond simple definitions to explain why a particular metaphor or simile was more effective than another. He demonstrated that figures of speech were not mere ornaments but tools for shaping meaning.

He analyzed concepts like **tashbih** (simile) and **isti'ara** (metaphor) in great depth. For instance, he showed that a metaphor's power comes from its ability to evoke an image in the mind of the listener, rather than just stating a fact. This work laid the groundwork for a more nuanced and appreciative study of literary and rhetorical devices.

2. *Dalail al-I'jaz* (The Proofs of Inimitability)

This is considered al-Jurjani's most important work. Here, he applied his theory of *nazm* to the supreme example of eloquence in the Arabic tradition: the **Qur'an**. He argued that the miracle of the Qur'an's inimitability (**I'jaz al-Qur'an**) was not due to its use of strange or uncommon words, but rather in its perfect and unparalleled arrangement of familiar words.

Al-Jurjani meticulously analyzed the syntactical choices in the Qur'an, demonstrating how changes in word order, verb forms, and other grammatical structures created profound and powerful rhetorical effects that were impossible to imitate. *Dalail al-I'jaz* established the scholarly method of using rhetorical analysis as a tool for understanding and appreciating the Qur'an's unique literary style.

Al-Jurjani's work had a profound and lasting impact on Arabic rhetoric. His theory of *nazm* was a revolutionary concept that shifted the focus of Balagha from form to meaning and from words to their arrangement. Later scholars like al-Sakkaki and al-Qazwini, while codifying and systematizing Balagha into the three-part structure used today, built directly upon al-Jurjani's foundations. His works remain essential for anyone seeking a deep understanding of Arabic rhetoric and its philosophical underpinnings.

Mahmud al-Zamakhshari (d. 1144 CE) was a renowned Khwarazmian scholar of the Arabic language, theology, and literature. While he didn't write a specific, dedicated treatise on Balagha, his profound influence on the science of Arabic rhetoric is undeniable, primarily through his monumental Qur'anic commentary, **Al-Kashshaf**.

Al-Zamakhshari's most famous work, **Al-Kashshaf an Haqa'iq al-Tanzil** ("The Revealer of the Truths of Revelation"), is a voluminous commentary on the Qur'an that became a cornerstone of Arabic rhetorical studies. Written from a Mu'tazilite theological perspective, it

systematically analyzed the Qur'an's linguistic and stylistic features, demonstrating its miraculous inimitability (**I'jaz al-Qur'an**) through the principles of rhetoric.

Al-Zamakhshari's approach was revolutionary. He treated the Qur'an as a unified literary text where every word and structure was deliberately chosen for a specific rhetorical purpose. His commentary provided a rich source of examples and a practical methodology for applying the principles of Balagha.

Siraj al-Din al-Sakkaki (d. 1229 CE) was a central Asian scholar of the Arabic language whose work, particularly his book **Miftah al-Ulum** ("The Key to the Sciences"), was a turning point in the field of Arabic rhetoric, or Balagha. While earlier scholars like al-Jurjani had established key concepts, Sakkaki systematized and codified the discipline, effectively creating a standardized framework that would be taught for centuries.

Sa'd al-Din Mas'ud ibn Umar al-Taftazani (d. 1390 CE) was a brilliant polymath who made significant contributions to various Islamic sciences, including theology, logic, law, and rhetoric. In the field of Arabic Balagha, his most influential work is his comprehensive commentary on al-Qazwini's Talkhis al-Miftah, known as Al-Mutawwal.

Al-Taftazani's **Al-Mutawwal fi Sharh al-Talkhis** ("The Lengthy Commentary on the Summary") is a monumental work that systematically expounds upon the principles of Balagha as laid out by al-Sakkaki and summarized by al-Qazwini. While al-Qazwini's *Talkhis* was a concise abridgement, al-Taftazani's *Mutawwal* unpacks every concept, provides extensive examples, and delves into the intricate nuances and scholarly debates surrounding each rhetorical device and principle.

Al-Mutawwal quickly became, and remains to this day, one of the most authoritative and widely studied texts in the advanced study of Arabic Balagha. Its comprehensive nature and intellectual depth made it indispensable for scholars and students. It served as a primary textbook in madrasahs and Islamic universities across the Islamic world for centuries.

While it is a commentary, *Al-Mutawwal* is effectively an independent work that encapsulates the entirety of classical Arabic rhetorical theory. Al-Taftazani's clear, precise, and systematic exposition solidified the framework of Balagha established by al-Sakkaki and al-Qazwini, making it accessible and understandable to countless generations of students. His work is a testament to the intellectual rigor and analytical prowess that characterized Islamic scholarship in the post-classical period.

While some later critics have noted that Sakkaki's systematization may have, at times, led to a more mechanical and less aesthetic approach to rhetoric, his contribution to codifying the science of Balagha is undeniable. His work provided a clear and accessible framework that was essential for the formal education of generations of scholars in the Arab and wider Islamic world.

Sources and Further Reading:

1. Al-Jurjani, 'Abd al-Qahir. *Asrar al-Balagha*.
2. Al-Jahiz, Abu 'Uthman. *Kitab al-Bayan wa al-Tabyin*.
3. Ibn al-Mu'tazz, 'Abd Allah. *Kitab al-Badi'*.
4. Al-Radi, Al-Sharif. *Nahj al-Balagha*.
5. *The Encyclopaedia of Islam*, s.v. "Balagha."
6. Al-Jurjani, Abdul Qahir. *Asrar al-Balagha*.
7. Al-Jurjani, Abdul Qahir. *Dalail al-I'jaz*.
8. Badawi, Elsaid M. *A Dictionary of Literary Terms*.
9. Sakkaki, Yusuf ibn Abi Bakr. *Miftah al-Ulum*.
10. *The Encyclopaedia of Islam*, s.v. "al-Jurjani".
11. Al-Sakkaki, Yusuf ibn Abi Bakr. *Miftah al-Ulum*.
12. Al-Qazwini, Jalal al-Din. *Talkhis al-Miftah* and *Al-Idah fi Ulum al-Balagha*.
13. Al-Taftazani, Mas'ud ibn Umar. *Mutawwal*.
14. *The Encyclopaedia of Islam*, s.v. "al-Sakkaki".
15. "The Influence of Al-Jurjani On Sakkaki's Scholarly Activity" (article)

Y.A.AKHMADJONOVA,
PhD researcher
Fergana State University, Fergana
yulduzkhonmarufova@gmail.com

PROSODY, STRESS, AND INTONATION IN ENGLISH AND UZBEK: A TYPOLOGICAL COMPARISON OF PHONETIC UNITS

Annotation: this article presents a typological comparison of prosodic phonetic units — specifically stress, intonation, and rhythm in English and Uzbek. While English is a stress-timed Indo-European language exhibiting variable lexical stress and a complex intonational inventory, Uzbek operates on a syllable-timed basis with predominantly word-final stress and simpler pitch contours. The study examines how these structural differences affect prominence, pitch movement, and pragmatic meaning in each language, with implications for contrastive linguistics and second-language acquisition.

Key words: *prosody, stress, intonation, typological comparison, English, Uzbek, Turkic languages, phonetics*

Аннотация: в данной статье представлено типологическое сравнение просодических фонетических единиц — ударения, интонации и ритма — в английском и узбекском языках. Английский является стрессово-временным языком с непостоянным лексическим ударением; узбекский — агглютинативным тюркским языком слогово-временного типа с финальным ударением.

Ключевые слова: *просодия, ударение, интонация, типологическое сравнение, английский, узбекский, тюркские языки, фонетика*

Annotatsiya: ushbu maqola ingliz va o‘zbek tillaridagi prosodik fonetik birliklar — xususan, urg‘u, intonatsiya va ritmning tipologik taqqoslanishini taqdim etadi. Ingliz tili urg‘u-vaqtli hind-yevropa tili bo‘lib, o‘zgaruvchan leksik urg‘u va murakkab intonatsion inventarga ega; o‘zbek tili esa agglutinativ turkiy til sifatida bo‘g‘in-vaqtli asosda ishlaydi va so‘z oxiridagi urg‘u bilan xarakterlanadi. Tadqiqot ushbu tarkibiy farqlar muhokamalik, ohang harakati va pragmatik ma’noga qanday ta‘sir qilishini o‘rganadi.

Kalit so‘zlar: *prosodiya, urg‘u, intonatsiya, tipologik taqqoslash, ingliz tili, o‘zbek tili, turkiy tillar, fonetika*

Introduction

The comparative study of phonetic units across typologically distinct languages offers insight into both structural diversity and universal tendencies. English, a Germanic Indo-European language, and Uzbek, a Karluk Turkic language, exhibit marked divergence in their prosodic systems despite geographic proximity. Prosody — encompassing stress, intonation, rhythm, and related suprasegmental features — plays a fundamental role in meaning-making (Crystal, 1976; Halliday, 1970). This article focuses on three interrelated prosodic dimensions: lexical and sentence stress, intonational contour, and rhythmic type.

Theoretical Framework

The typological distinction between stress-timed and syllable-timed languages, first systematized by Pike (1945) and refined by Dauer (1983), provides the principal theoretical axis. In stress-timed languages such as English, rhythmic intervals are organized around stressed syllables with unstressed syllables compressed accordingly. In syllable-timed languages, each syllable occupies an approximately equal temporal unit. Uzbek is widely classified as syllable-timed, consistent with its Turkic typological profile (Sedighi, 2019). The Auto segmental-Metrical (AM) framework (Pierrehumbert, 1980; Ladd, 1996) is employed to describe pitch accent placement and boundary tones in both languages.

Lexical and Sentence Stress

English Stress

English stress is variable and lexically contrastive. Minimal pairs such as ’record (n.) vs. record (v.) demonstrate that stress placement carries morphosyntactic and semantic weight (Kreidler, 2004). At the sentence level, English distributes nuclear stress according to information structure: new or contrastive information receives primary stress, while unstressed function words undergo vowel reduction to schwa (/ə/).

3.2 Uzbek Stress

Uzbek lexical stress is predominantly word-final and largely predictable, consistent with the Turkic tendency toward final prominence (Johanson & Csato, 1998). Acoustic studies confirm that final syllables show longer duration and sharper falling contours as primary stress cues (Linguistics Society of America, 2021). Because stress is positionally fixed and non-contrastive, it does not carry lexical distinctions equivalent to those in English. Content words receive sentence stress comparably to English, but the agglutinative clause structure distributes prominence differently across the utterance (Jurayeva, 2026).

Intonational Contours

English intonation is richly differentiated. The AM framework identifies pitch accents (H*, L*, L+H*, etc.) and boundary tones producing distinct intonational meanings: a high-rise terminal (%H) may signal non-

finality, questioning, or interactional engagement (Brazil, 1997; Roach, 2009). Uzbek intonation operates within a comparatively narrower pitch range. Declaratives end with a falling contour and yes/no questions with a rising one — patterns superficially similar to English — but pitch excursion and diversity of tonal events are more restricted. Uzbek has nonetheless developed a more elaborate intonational system than other Turkic languages, attributed to sustained contact with Persian (Csato & Johanson, 1998).

Rhythmic Type and Vowel Reduction

The most structurally significant prosodic divergence lies in rhythmic type. English is prototypically stress-timed: unstressed syllables are compressed and vowels reduce to schwa, producing the characteristic alternation of strong and weak syllables (Dauer, 1983; Cruttenden, 2014). Uzbek maintains greater vowel clarity across unstressed syllables with relatively even syllable durations. This produces a perceptibly different rhythmic quality: Uzbek-speaking learners of English frequently retain syllable-timed habits, while English speakers learning Uzbek may introduce inappropriate reductions (ICSSH, 2025).

Discussion

The prosodic systems of English and Uzbek reflect their deep typological distance. English exploits variability in stress placement, pitch accent type, and syllable duration to convey lexical, grammatical, and pragmatic distinctions. Uzbek achieves comparable communicative ends through greater regularity, where final stress and stable vowel quality serve as the primary prosodic anchors. Fixed-stress languages such as Uzbek challenge models built on English-centric assumptions about lexical stress as inherently contrastive (Dupoux et al., 1997). The syllable-timed habits of Uzbek learners of English — insufficient vowel reduction and atypical stress placement — are well-documented sources of L2 accent (Avery & Ehrlich, 1992).

Conclusion

This article has examined the prosodic phonetic units of English and Uzbek, focusing on lexical and sentence stress, intonational contour, and rhythmic type. Despite superficial similarities, the two languages represent fundamentally different prosodic architectures: English is characterized by variable stress, rich intonational differentiation, and stress-timed rhythm; Uzbek by predictable final stress, a restricted but historically elaborated intonational system, and syllable-timed evenness. Future research would benefit from systematic acoustic studies and perceptual experiments comparing how speakers of each language process the prosodic categories of the other.

References

1. Abercrombie, D. (1967). Elements of general phonetics. Edinburgh University Press.
2. Avery, P., & Ehrlich, S. (1992). Teaching American English pronunciation. Oxford University Press.
3. Brazil, D. (1997). The communicative value of intonation in English. Cambridge University Press.
4. Cruttenden, A. (2014). Gimson's pronunciation of English (8th ed.). Routledge.
5. Crystal, D. (1976). Prosodic systems and intonation in English. Cambridge University Press.
6. Csato, E., & Johanson, L. (Eds.). (1998). The Turkic languages. Routledge.
7. Dauer, R. (1983). Stress-timing and syllable-timing reanalyzed. Journal of Phonetics, 11(1), 51–62.
8. Domahs, U., et al. (2012). Processing word prosody. Brain and Language, 122(1), 4–14.
9. Dupoux, E., et al. (1997). A destressing 'deafness' in French? Journal of Memory and Language, 36(3), 406–421.
10. Halliday, M. A. K. (1970). A course in spoken English: Intonation. Oxford University Press.
11. Johanson, L., & Csato, E. (1998). The Turkic languages. Routledge.
12. Jurayeva, N. M. (2026). Linguistic analysis of sentence stress in English and Uzbek. Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture.
13. Karimov, K. (1987). O'zbek tilida ohang vositalari. Fan.
14. Kreidler, C. B. (2004). The pronunciation of English (2nd ed.). Blackwell.
15. Ladd, D. R. (1996). Intonational phonology. Cambridge University Press.
16. Ladefoged, P., & Johnson, K. (2015). A course in phonetics (7th ed.). Cengage Learning.
17. Linguistics Society of America. (2021). Acoustic properties of prominence in Uzbek. Proceedings of the Workshop on Turkic Languages.
18. Pierrehumbert, J. (1980). The phonology and phonetics of English intonation [Doctoral dissertation, MIT].
19. Pike, K. L. (1945). The intonation of American English. University of Michigan Press.
20. Rahmatullaev, Sh. (1973). O'zbek tili fonetikasi. O'qituvchi.
21. Roach, P. (2009). English phonetics and phonology (4th ed.). Cambridge University Press.
22. Sedighi, A. (2019). Prosody in Turkic languages. Languages, 5(2), 34–56.
23. Yoqubov, O. (2010). O'zbek tilining fonetikasi va fonologiyasi. Fan.



ADABIYOTSHUNOSLIK

Nigora SHARIPOVA,
Navoiy innovatsiyalar universiteti
filologiya fanlari doktori (DSc),
nigora-sharipova@internet.ru



“XAMSA” DEBOCHASI

Annotatsiya: maqolada akademik Botirxon Valixo‘jayevning xamsachilik an’anasiga oid mulohazalari Alisher Navoiy “Xamsa”si tarkibidagi ilk doston – “Hayrat ul-abror”ning keyingi dostonlardagi badiiy takomili misolida tahlilga tortilgan.

Kalit so‘zlar: *“Xamsa”, an’ana, ilk doston, muqaddimaviy ishoralar, poetik talqin.*

Annotation: the article analyzes academician Botirkhan Valikhojhaev’s thoughts on the «Hamsa» tradition on the example of the development of the first dastan in Alisher Navoi’s «Hamsa» – “Hayrat ul-abror” in later dastans.

Key words: *“Hamsa”, tradition, first epic, introductory gestures, poetic interpretation.*

Akademik B.Valixo‘jayevning xamsanavislikning uch muhim xususiyati haqidagi qarashlari Hazrat Alisher Navoiy “Xamsa”si tarkibidagi har bir dostonning poetik xususiyati va g‘oyaviy-badiiy mohiyatini teran anglash imkonini beradi [Valixo‘jayev B, 1961: 92-97]:

1) «Xamsa»ning birinchi poemasi muallifning falsafiy, axloqiy, ijtimoiy-siyosiy qarashlarini ifoda etuvchi asar bo‘lib, bu qarashlar «Xamsa»ning keyingi poemalarida obrazlar orqali kengaytirilgan tarzda ko‘rsatiladi.

«Hayrat ul-abror» «Xamsa»ning muqaddimaviy dostoni sifatida keyingi dostonlardan farqli ravishda bir qator o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Aytish mumkinki, ilk doston keyingi dostonlarning annotatsiyasi, tezisi. Undagi qator masalalar keyingi dostonlarda rivojlanadi, ilk dostondagi muqaddimaviy ishoralar keyingi dostonlarda obrazlar va masalalar talqinida badiiy yechim topadi.

Mumtoz adabiyotda ishq – umumbashariy mavzudir. Ilohiy ishq – komillik belgisi. Dostonda eng muhim masalalar qatorida Navoiy ishqqa ham maxsus maqolat bag‘ishlaydi. Dostonning to‘qqizinchi maqolatida shoir bu ilohiy tuyg‘uni g‘oyat ulug‘laydi, mislsiz qudratini e’tirof etadi. «Hayrat ul-abror»da muallifning ishq iztirobi dardi va yuki borasidagi qarashlari quyidagicha ibtido topadi:

Qaysi ko‘ngulniki, makon etti ishq,
O‘tdin ani la’lg‘a kon etti ishq. [H.A. –B.166]

Ilk dostonda boshlangan ishq masalasi keyingi dostonlarda uzviy rivojlantiriladi. «Farhod va Shirin» dostonidan olingan quyidagi misralarda ilk dostondagi ulug‘vor g‘oyalar mantiqiy davom ettirilganini sezish qiyin emas:

Ki inson ko‘nglin etti gulshani ishq,
Bu gulshanning harimin maxzani ishq. [F.Sh. –B.308]

Shoir mazkur baytlarda marom, ohang, ritm, g‘oya va mazmuniy mushtaraklikni shunchalik mukammal shakllantira olganki, bu baytlarning mavzu, yo‘nalish, vazn jihatidan bir-biridan tamoman farqlanuvchi turli dostonlardan olinganligi sezilmaydi.

Ilk dostondagi quyidagi misralarda shoir haqiqiy oshiq qanday bo‘lishi lozimligi borasidagi o‘z nuqtayi nazarini bayon etadi:

Oshiq ani bilki, erur dardnok,
Ham tili, ham ko‘zi-yu ham ko‘ngli pok. [H.A. 168-b]

“Hayrat ul-abror”da Navoiy so‘z ochgan haqiqiy ishq va chin oshiqlik mezonlariga mos keluvchi obraz «Xamsa»ning keyingi dostonlaridan biriga kiritilishi tabiiy edi. Bu dostonda ibtido topgan haqiqiy oshiqlikning sifat va nisbatlari masalasi Farhod obrazi tasviri va talqinida to‘liq bo‘y ko‘rsatadi. Farhod – ko‘nglida ilohiy ishq jilvalangan haqiqiy oshiq ekanligi, mazkur obrazning ruhiyati, teran qarashlari, tadbir-u a’moli vositasida namoyon bo‘ladi, ilk dostonda ko‘zda tutilgan shoir ideali – Farhod ekanligi ilk dostonga hamohang, «Farhod va Shirin»dan olingan quyidagi misralarda ayonlashadi:

Demon, ham ko‘ngli poku ham ko‘zi pok,
Tili poku so‘zi poku o‘zi pok. [F.SH. –B.366]

«Hayrat ul-abror»ning O‘n to‘rtinchi maqolatida charxning osmon kabi chiroyli bo‘lsa-da, ishi makr-u fusun ekanligi aytiladi. Navoiy fikricha, charx qo‘g‘irchoqboz, u chodirxayolida odamlarni qo‘g‘irchoqday o‘ynatadi. So‘ng istagan vaqtda Xusrav va Farhod kabi zotlarni yo‘q qiladi:

Xusravlar qatli uchun tezhush,
Xusravi ham demaki, Farhodkush...
...Salmu Manuchehr ila Navzar qani?
Bahmanu Dorovu Skandar qani? [H.A. 215;221-b]

Navoiy «Hayrat ul-abror»da Farhodni esga olar ekan, «Farhod va Shirin»dagi mashaqqatli sarguzashtlariga, ishq yo‘lidagi fojeaviy hayotiga ilk ishoralar beradi.

«Hayrat ul-abror»da odob-tavoze’ masalalarida alohida maqolat kiritilishi bejiz emas. Chunki keyingi dostonlardagi barcha bosh qahramonlar xarakterida shu fazilatlar mustahkam o‘rin olgan. Odob masalalariga bag‘ishlangan oltinchi maqolatda shoir odobning kichiklarni saodatmand,

ulug‘larni sarbaland qilishini, nafs-u havo (takabburlik) o‘tlarini o‘chirishini tasvirlaydi. Husni ta’lil san’ati orqali hilol (yarim oy)ning har kuni egilib turgani uchun kamol topganini, yuksaklikka ko‘tarilganini ta’kidlaydi. Odobning beqiyos ahamiyatini shunday e’tirof etadi:

Elga sharaf bo‘lmadi johu nasab,
Lek sharaf keldi hayovu adab. [H.A. –B.134]

Navoiy «Farhod va Shirin» dostonida Farhodning xarakteri, ta’lim-tarbiyasi, kamol topishida odobning mustahkam poydevor ekanligi, bu dostonda ma’rifat masalalarining birinchi o‘ringa ko‘tarilishi ilk dostondagi shu mavzudagi maqolatning badiiy takomilidir. Ilmu adab bobida ko‘p zahmatlar bilan kamol topgan Farhod ma’shuqasi vasliga yetolmasa ham Majnun bo‘lib, dashtu sahroda darbadar kezmaydi, tog‘ kesib, ariq o‘tkazib, elga naf’ yetkazadi. «Hayrat ul-abror»da Navoiy shunday asl insonlarni – naf’rasonlar, ya’ni elga foyda yetkazuvchilar deb ulug‘laydi.

Bundan tashqari, «Hayrat ul-abror»dagi bir qator masalalar «Sab’ai sayyor»dagi hikoyatlarda ham rivojlantiriladi. O‘ninchi maqolatdagi rostlik, to‘g‘rilik g‘oyalari «Sab’ayi sayyor»dagi Oltinchi iqlim yo‘lidan kelgan musofir tilidan aytilgan «Muqbil bilan Mudbir» haqidagi hikoyatda davom etadi. «Sher va durroj» hikoyatida yolg‘onchilik durroj umriga yakun yasasa, «Sab’ayi sayyor»da bu illat Mudbir umriga nuqta qo‘yadi.

«Hayrat ul-abror»ning O‘n to‘rtinchi maqolatida dunyo qo‘g‘irchoqboz ekanligi, uning ishlarida chalkashliklar ko‘pligi, Xusrav, Farhod va Iskandar singari buyuk shaxslarga ham rahm etmasligini yozadi. Shu maqolat tarkibida berilgan hikoyatda «Iskandarning yetti iqlim mamolikin panjayi tasarrufiga kiyurgani va xoli ilik bila olamdin rihlat markabin surgoni» haqida yozadi. «Hayrat ul-abror»da Navoiy ilgari surgan g‘oya – jahon ahlini o‘ziga tobe’ qilib, hatto o‘zini xudoga teng deb, ne-ne xalqlarni urushlarda halok etib, ba’zi podshohlarni taxtdan ag‘dargan buyuk tarixiy shaxslar ham o‘lim kelganida ojizligi g‘oyasi «Saddi Iskandariy» dostonida keng ko‘lamda talqin etiladi.

2) xamsanavislikning ikkinchi xususiyati shundaki, keyingi poemalar g‘oyaviy-badiiy jihatdan birinchi poema bilan chambarchas bog‘langan [Valixo‘jayev B, 1961: 92-97].

Bizningcha, «Farhod va Shirin», «Layli va Majnun», «Sab’ai sayyor» dostonlari ishqiy mavzuda bo‘lsa-da, bir-biriga bog‘liq bo‘lmagan mustaqil asarlardir. Biroq keyingi dostonlarning barchasi ilk dostondagi Olam, odam, iymon, islom, vafo, sabr-u qanoat, ishq, to‘g‘rilik, hayo, din-u diyonat, ko‘ngil pokligi singari azaliy va abadiy mavzular bilan hamohangdir.

3) xamsanavislikning uchinchi xususiyati – «Xamsa»da qadimgi tarixiy shaxslar haqida boblar bo‘lishidan tashqari buyuk tarixiy shaxs (Iskandar) haqida alohida doston mavjud bo‘lishidir[Valixo‘jayev B, 1961: 92-97].

Bu fikrlarga qo‘shilganimiz holda, xamsanavislikning yana bir necha xususiyatlari kuzatilishini ta’kidlamoqchimiz:

– barcha «Xamsa»larning birinchi dostonlarida munojotlar va na’tlardan so‘ng so‘z san’ati, she’riyatning jamiyat ma’naviy hayotidagi o‘rni, badiiyat mezonlari haqida boblar bo‘lib, birinchi dostondagi bu estetik qarashlarga keyingi dostonlarda ham amal qilinadi. Shoir salaflari ilk dostonlarida ham so‘z san’ati, she’riyat haqida boblar mavjud;

– birinchi dostonlarning maqolatgacha bo‘lgan qismida ma’naviy ustozlarga madhiyalar yozishi, salaflarga ta’zim bildirish – xamsanavislikning yana bir jihati bo‘lib, keyingi dostonlarda ham shu xususiyatlar aks etgan.

Akademik B.Valixo‘jayev e’tirof etganlaridek, «Hayrat ul-abror» «Xamsa» dostonlari uchun o‘ziga xos poydevor vazifasini bajargan. Xuddi maqolaning tezisi kabi butun «Xamsa» mohiyati aslida javhar sifatida ilk dostonda mujassam. Bu yerda «Farhod va Shirin»ga ham, «Layli va Majnun»ga ham, «Sab’ai sayyor»ga ham, «Saddi Iskandariy»ga ham ishoralar mavjud. «Xamsa»ning birinchi dostonida maqolatlar, hayratlar, hikoyatlar va ayrim boblarda talqin etilgan masalalar keng ko‘lamli bo‘lib, ularning eng muhimlari keyingi dostonlarda poetik talqin etiladi. Xususan, «Hayrat ul-abror»da chuqur talqin etilgan, inson aqli idrok eta olmaydigan hayratlar, ko‘ngil (xoja)ning g‘ayb olamiga sayrlari keyingi, real voqelik tasvirlangan dostonlarda mavjud emas. Biroq qahramonlar ruhiyati, ko‘ngil kechinmalari va ishq hayratlarida ilk dostonda tasvirlangan hayratlar teran ifoda topadi, rivojlanadi, ilk dostondagi muqaddimaviy ishoralar keyingilarida obrazlar va masalalar talqinida mukammal yechim topadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Valixo‘jayev B. Xamsachilik traditsiyasining ba’zi bir xususiyatlari haqida mulohazalar. // O‘zbek adabiyotining ayrim masalalari. – Samarqand, 1961.
2. Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror. TAT. O‘n jildlik. Oltinchi jild. – T.: O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligi G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013.
3. Alisher Navoiy. Farhod va Shirin. TAT. O‘n tomlik. Oltinchi tom. – T.: G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot- matbaa ijodiy uyi, 2013.
4. Sharipova N. Alisher Navoiyning “Hayrat ul-abror” dostoni poetikasi. Fil.fan.bo‘yicha fal.dok.diss. – Samarqand, 2021.
5. Sharipova N. “Xamsa” ilk dostonlarining poetik strukturasi va obrazlar tizimi. Fil.fan.dok.diss. – Buxoro, 2026.



Surayyo SHODIYEVA,
Turon universiteti O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi dotsenti (v.b), filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Husnora XAMRAYEVA,
Adabiyotshunoslik yo‘nalishining 1-bosqich magistranti



FAZLIY ADABIY MEROSI

Annotatsiya: mazkur ishda Fazliyning adabiy merosi, uning badiiy-estetik qarashlari hamda mumtoz adabiyot rivojidagi o‘rni tahlil qilinadi. Shoir ijodida ishqiy, tasavvufiy va axloqiy g‘oyalar uyg‘unligi, obrazlar tizimi, badiiy san’atlar va ifoda usullarining o‘ziga xosligi yoritiladi. Shuningdek, Fazliyning she’riyati misolida mumtoz adabiyot an’analari davomiyligi, mazmun va shakl birligi, til va uslub masalalari ilmiy asosda ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: *Fazliy, adabiy meros, mumtoz adabiyot, badiiy san’atlar, tasavvuf, ishqiy lirika, poetika, obraz, uslub, an’ana, g‘oya, badiiy mahorat.*

Annotation: this study examines the literary heritage of Fazliy, his artistic and aesthetic views, and his role in the development of classical literature. The poet’s works are analyzed in terms of the harmony of romantic, mystical, and ethical ideas, the system of images, and the distinctive features of artistic devices and expressive means. Furthermore, the continuity of classical literary traditions, the unity of form and content, as well as issues of language and style are explored on the basis of Fazliy’s poetry.

Keywords: *Fazliy, literary heritage, classical literature, artistic devices, mysticism, love lyrics, poetics, imagery, style, tradition, idea, artistic mastery*.

Аннотация: в данной работе рассматривается литературное наследие Фазлия, его художественно-эстетические взгляды и роль в развитии классической литературы. В творчестве поэта анализируется гармония любовных, суфийских и нравственных идей, система образов, а также своеобразие художественных средств и выразительных приемов. Кроме того, на основе поэзии Фазлия исследуются преемственность традиций классической литературы, единство формы и содержания, вопросы языка и стиля.

Ключевые слова: Фазлий, литературное наследие, классическая литература, художественные средства, суфизм, любовная лирика, поэтика, образ, стиль, традиция, идея, художественное мастерство.

XVI asr usmoniy turk adabiy muhitida faoliyat yuritgan iste’dodli ijodkorlardan biri Fazliydir. Fazliy shoirning taxallusi bo‘lib, uning haqiqiy ismi Mehmed (Mahmud). Fazliy Istanbulda tug‘ilib (tug‘ilgan yili noma’lum) o‘sgan hamda 1564-yil (hijriy 971-yil)da vafot etgan[1]. Adibning shaxsiyati va ismi borasida ilmiy manbalarda muayyan tafovutlar mavjud. Ayrim tadqiqotlarda uning ismi Mahmud sifatida qayd etilsa, boshqa manbalarda Ali nomi bilan tilga olinadi. Ushbu qarama-qarshi ma’lumotlarni tahlil qilgan ayrim olimlar, jumladan, O‘zkat, muallifning to‘liq ismi Mahmud Ali bo‘lishi mumkinligini ilmiy taxmin sifatida ilgari suradi[2]. Bu kabi qarama-qarshilik ko‘pincha o‘rta asr manbalarining yetarli darajada aniq saqlanmaganligi yoki nusxalar o‘rtasidagi tafovutlar bilan izohlanadi. Shoirning “Qora (Kara) Fazliy” nomi bilan mashhur bo‘lishi uning tashqi qiyofasi, xususan, rangining qora bo‘lganligi bilan izohlanadi. Mumtoz adabiyot an’analarida ijodkorlarga tashqi belgilar, kasb yoki shaxsiy xususiyatlarga ko‘ra laqab berish keng tarqalgan bo‘lib, “Qora” nisbasining qo‘llanishi ham shu odat bilan bog‘liqdir. Natijada u adabiy muhitda aynan shu nom bilan tanilgan va tarixiy manbalarda ham shu tarzda qayd etilgan.

Tadqiqotchi S. Yazar ma’lumotlariga ko‘ra, XVI asrdan boshlab yaratilgan tazkiralarda, xususan, Latifiydan keyingi manbalarda Qora Fazliy alohida e’tibor bilan tilga olinadi. Bu holat uning o‘z davrida ijod ahli orasida katta obro‘-e’tibor qozonganini, iste’dodli va tan olingan shoirlardan biri bo‘lganini ko‘rsatadi. Tazkiralarda shoir nomining muntazam uchrashi uning adabiy jarayondagi faol ishtiroki va ijodiy merosining ahamiyatini tasdiqlaydi.

Shoirning hayoti va adabiy merosi ko‘plab olimlar tomonidan atroflicha o‘rganilgan. Xususan, Mustafo O‘zkat, Genjay Zavotchu, Nezahat O‘ztekin, Sodiq Yazar, Lutviyye Asgerzade kabi tadqiqotchilar uning ijodini ilmiy asosda tahlil qilganlar. Ushbu izlanishlar natijasida shoirning nafaqat alohida asarlar yaratgani, balki mukammal devon tuzgan ijodkor ekani ham aniqlangan. Shoir ijodida ruboiy, masnaviy kabi janrlar muhim o‘rin egallab, bu esa uning badiiy imkoniyatlari keng va ko‘p qirrali bo‘lganini ko‘rsatadi.

Latifiyning qayd etishicha, Fazliy “Xamsa” an’anasiga muqobil tarzda o‘ziga xos kulliyot yaratgan. Mazkur kulliyot tarkibiga oltita masnaviy kirgani, ularning ichida esa “Gul va Bulbul” alohida mashhurlikka erishgani ta’kidlanadi. Bu esa asarning nafaqat muallif ijodida, balki umumiy adabiy jarayonda ham muhim o‘rin tutganidan dalolat beradi.

Qora Fazliyning hayoti va ijodiy faoliyati, xususan, “Gul-u Bulbul” masnaviysi keyingi davr tadqiqotchilari tomonidan ham

1 Gencay Zavotçu. Türk Edebıyatı’nda Gül ve Bülbül mesnevileri. (Doktora tezı). Erzurum, 1997. B.57– 65.
2 Sadik Yazar, Kara Fazlî’nin Eserlerine Dair Yeni Bilgiler, Divan edebiyatı Araştırmaları Dergisi 18. – İstanbul, 2017. S. 525 – 562.

maxsus o‘rganilgan. Jumladan, Genjay Zavotchu va Nezahat O‘ztekin tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlarda ushbu asarning badiiy xususiyatlari, mazmun-mohiyati hamda adabiy an’anadagi o‘rni chuqur tahlil etilgan. Bu tadqiqotlar Fazliy merosini yanada kengroq anglash va baholash imkonini beradi.

Fazliy va uning adabiy merosiga doir izlanishlarning izchil davom etishi natijasida shoirning hayoti hamda ijodi haqida ilgari noma’lum bo‘lgan qator yangi ma’lumotlar aniqlanib, ilmiy muomalaga kiritildi. Bu borada, ayniqsa, S. Yazar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etadi. Olim o‘zining “Fazliy asarlariga doir yangi bilgilar” nomli maqolasida shoirning hayoti, ijodiy faoliyati va asarlari yuzasidan yangi dalillarni taqdim etib, Fazliyshunoslik rivojiga sezilarli hissa qo‘shadi.

Sodiq Yazarning qayd etishicha, Qofzoda Foiziyning “Zubdat ul-ash’or” asarida Fazliy tomonidan tartib berilgan devon mavjud bo‘lgani, biroq ushbu devon bizgacha to‘liq holda yetib kelmagani haqida ma’lumot beriladi. Shu sababli tadqiqotchilar, xususan, O‘zkat yo‘qolgan yoki tarqalib ketgan adabiy merosni tiklash maqsadida turli yozma manbalar — qo‘lyozmalar fondlari, she’riy majmualar, klassik tazkiralar hamda biografik asarlarni sinchkovlik bilan o‘rganishga kirishadi. Mazkur izlanishlar katta mehnat va izchillikni talab etgan bo‘lsa-da, u o‘zining ijobiy natijasini beradi. Natijada Qora Fazliyga mansub bo‘lgan salmoqli hajmdagi she’riy meros qayta jamlanadi. Jumladan, uning qalamiga oid 34 qasida, 38 musammat, 8 tarix, 153 g‘azal, 20 qit’a va 2 mufradot aniqlanib, umumiy hisobda 2700 dan ortiq baytdan iborat boy adabiy meros shakllantiriladi. Bu esa Fazliyning nafaqat masnaviy janrida, balki mumtoz she’riyatning turli shakllarida ham sermahsul ijod qilganini ko‘rsatadi.

Shu tariqa, olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijasida Fazliy ijodining ko‘lami va badiiy salohiyati yanada aniqroq namoyon bo‘lib, uning o‘z davri adabiy jarayonidagi o‘rni va ahamiyatini chuqurroq anglash imkoniyati yuzaga keladi.

Qora Fazliy ijodiga doir olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijalarini umumlashtirgan holda S. Yazar shoirga nisbat berilgan boy adabiy merosning faqat bir qismi bizgacha yetib kelganini ta’kidlaydi. Uning qayd etishicha, hozirgi kunda Fazliy qalamiga mansub asarlar orasida, avvalo, “Gul va Bulbul” masnaviysi, shuningdek, turli she’riy majmualarda tarqoq holda saqlanib qolgan g‘azallar hamda ayrim qasidalar mavjud.

Masnaviyning muhim qo‘lyozma nusxalaridan biri Turkiyadagi Sulaymoniya kutubxonasida saqlanadi. Ushbu nusxa 2450 baytdan iborat bo‘lib, 1080 inventar raqami ostida ro‘yxatga olingan. Bundan tashqari, Fazliy ijodiga oid yana bir muhim manba — “Devoni Fazliy” nomli qo‘lyozma to‘plam ham ayni kutubxonaning yozma manbalar bo‘limida 7213 inventar raqami bilan saqlanayotgani qayd etiladi. Mazkur majmua tarkibiga “Gul va Bulbul” masnaviysi ham kiritilgan bo‘lib, u shoir merosini yaxlit holda tasavvur etishda muhim ahamiyatga ega.

Qo‘lyozmaning tashqi va ichki tuzilishi ham alohida e’tiborga loyiq. Uning jildi qahvarang charm bilan qoplangan bo‘lib, ustiga ta’liq xatida “Devoni Fazliy” deb yozilgan. Jild markazida bezakli naqsh mavjudligi esa qo‘lyozmaning badiiy-estetik jihatdan ham puxta ishlanganini ko‘rsatadi. 118 varaqdan iborat ushbu manbaning ichki sahifalarida ham qiziqarli yozuvlar uchraydi. Jumladan, o‘ng sahifalardan birida “Oh zolim falak, oh manga aslo marhamating va muruvvating yo‘q” mazmunidagi jumlaning mavjudligi asarga xos lirik kayfiyatni aks ettiradi.

Shuningdek, qo‘lyozmaning dastlabki betlarida turli eslatmalar keltirilgan bo‘lib, ularning eng qadimiysi asarning sotib olinishi bilan bog‘liq qayd ekanligi ta’kidlanadi. Bunday yozuvlar qo‘lyozmaning tarixiy harakatini, ya’ni kimlar qo‘lida bo‘lgani va qanday yo‘l bilan saqlanib qolganini aniqlashda muhim manba vazifasini bajaradi. Shu jihatdan, mazkur qo‘lyozmalar nafaqat adabiy, balki manbashunoslik nuqtayi nazaridan ham katta ilmiy qimmatga ega.

Qo‘lyozmadagi keyingi qayd hijriy 1219-yilning safar oyiga (milodiy 1804-yil) to‘g‘ri keladi va unda asarning Mehmed Orif ismli shaxs mulkiga tegishli ekani qayd etilgan. Ushbu yozuv qo‘lyozmaning muayyan davrda aynan shu shaxs qo‘lida bo‘lganini ko‘rsatadi. Qaydning pastroq qismida Mehmed Orif nomiga tegishli muhrning bosilgani ham mulkiy mansublikni tasdiqlovchi muhim dalil sifatida e’tiborga molikdir.

Shuningdek, sahifada Muhammad Rahim ismli shaxsga oid yana bir qayd va muhr mavjud bo‘lib, u hijriy 1281-yil (milodiy 1864–1865-yillar) bilan sanalgan. Bu ma’lumot qo‘lyozmaning keyingi davrlarda ham qo‘ldan qo‘lga o‘tib, turli egalarga tegishli bo‘lganini ko‘rsatadi. Bunday qaydlar asarning tarixiy “hayot yo‘li”ni tiklashda, ya’ni uning kimlar tomonidan saqlangani va qanday muhitlarda mavjud bo‘lganini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur yozuvlardan so‘ng qo‘lyozmada to‘rt baytdan iborat qit’a keltirilgan bo‘lib, uning ostiga hijriy 1284-yil muharram oyi (milodiy 1867-yil 31-may) sanasi qo‘yilgan. Bu sana qo‘lyozma bilan bog‘liq yana bir muhim tarixiy qatlamni ifodalaydi. Umuman olganda, bunday qayd va muhrlar nafaqat matnning o‘zini, balki uning saqlanish, tarqalish va egalar almashinuvi jarayonini ham o‘rganishda qimmatli manba vazifasini bajaradi.

Qo‘lyozmada uchraydigan sanalar va tarixiy qaydlarga tayangan holda S. Yazar masnaviyning ko‘chirilish jarayonida muhim rol o‘ynagan shaxs sifatida Ahmad Hamdiy Moiliyni sarkotib, ya’ni asosiy kotib sifatida ko‘rsatadi. Bunday xulosaga kelish qo‘lyozma tarkibidagi yozuvlar, muhrlar va vaqt ko‘rsatkichlarini o‘zaro solishtirish orqali amalga oshirilgan bo‘lib, bu manbashunoslik yondashuvining muhim natijalaridan biri hisoblanadi. Kotib shaxsining aniqlanishi asarning nusxa ko‘chirish tarixi, matnning shakllanishi va tarqalish jarayonini o‘rganishda alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur qo‘lyozma tarkibi ham e’tiborga loyiq bo‘lib, unda Fazliy nomi bilan bog‘langan bir nechta asarlar jamlangan. Jumladan, devon, “Gul va Bulbul” hamda “Chor fasl” kabi asarlarning mavjudligi shoir ijodining ko‘lamdor va serqirra ekanini yana bir bor tasdiqlaydi. Bu holat Fazliy nafaqat alohida asarlar muallifi, balki o‘z ijodini muayyan tartibda jamlagan adib sifatida ham namoyon bo‘lganini anglatadi.

Qo‘lyozmada “Gul va Bulbul” masnaviysi aniq chegaralar bilan ajratilgan holda berilgan bo‘lib, u kitobning 4b betidan boshlanib, 75a betiga qadar davom etadi. Bu esa asarning qo‘lyozma ichidagi hajmi va tutgan o‘rnini aniq belgilash imkonini beradi. Bunday strukturaviy aniqlik matnni ilmiy tadqiq etishda, ayniqsa, nusxalararo qiyosiy tahlil olib borishda muhim manba vazifasini bajaradi. Shuningdek, yurtimizning Buxoro davlat

muzey qo‘riqxonasida 262061/11 raqamli inventarida Fazliyning “Gul va Bulbul vasli” nomli dostonining toshbosma nusxasi saqlanmoqda. Bu haqdagi dastlabki ma’lumot tadqiqotchi Surayyo Shodiyevaning O‘zbek epik poeziyasi taraqqiyotida Salohiddin Salohiy dostonlarining o‘rni dissertatsiyasida keltirib o‘tilgan[3].

Shoir qalamiga mansub “Gul va Bulbul” masnaviysi g‘arbiy turkiy adabiy muhitda yaratilgan yuksak badiiy asarlardan biri sifatida e’tirof etiladi. Ushbu asar o‘z davrida keng tarqalgan an’anaviy ishqiy masnaviy yo‘nalishning yorqin namunasi bo‘lib, unda voqelik bevosita emas, balki ramziy-majoziy shaklda ifodalanadi. Mazkur xususiyat Sharq mumtoz adabiyotiga xos bo‘lgan tasavvufiy va falsafiy talqinlarga keng yo‘l ochdi. “Gul va Bulbul”da obrazlar orqali inson ruhiyati, ilohiy ishq, go‘zallik va sadoqat kabi tushunchalar badiiy timsollar vositasida yoritilgan.

Asarning bosh qahramonlari Gul va Bulbuldir. Asosiy voqealar tong chog‘i dunyoda quyosh chiqib, yashil bog‘da bir Gul ochilgani bilan boshlangan:

Subhkim, dahra nur sochildi,
Bog‘i xazroda bir Gul ochildi[4]...
Bulbul tabi o‘lub suxanpardoz,
O‘ldi Gul shavqina tarannumsoz[5].

Asarda Gul va Bulbul obrazidan tashqari Sabo ham borki, u asarda Nasim nomi bilan atalgan. Nasim Bulbulning ko‘ngliga Gulning ishqini solishda vositachidir. Shundan keyin Bulbul Gulning ko‘yida ming bir dardga duchor bo‘lib, mashaqqatli damlarni boshidan o‘tkazadi:

Ko‘rdi payki Nasim u hayrone –
Ki u dilrah yoqdi dilla joni.
Shahri noz ichra hafti hasan Gul,
Na g‘am aylaran bek nag‘ma Bulbul...
Bu ta’rifdin asiri mehnat-u g‘am,
Mubtaloyi balo, dard-u alam.
Ya’ni aftoda Bulbuli nolon,
Dardi ishq ila aylayub afg‘on[6].

Yoki:

Ul zamondaki Bulbuli g‘amnok,
Siynasi xordin o‘lub sad chok.
Shahri gulshanda aylayub uzlat,
Dasht-u sahroyi ayladi rihlat[7].

Fazliyning ushbu asari tasavvufiy mazmunda bo‘lib, Gul – Haq, Bulbul – chin solik, Nasim esa piri rahbar timsoli sifatida gavdalangan. Fazliy ushbu asarning xulosasini “qissadan hissa” shaklida tamomlagan:

Qissadin hissadir murod oxir,
Qissaxonliq degil g‘araz zohir.
Va Gula emdi murodi sharh edayin,
Qissa xatm o‘ldi hissaya kirayin[8].

Bu davr adabiyoti o‘zining badiiy mukammalligi, til boyligi hamda tasvir vositalarining rang-barangligi bilan ajralib turadi. Fazliy ham ana shu adabiy an’analarga suyangan holda o‘z asarida nafis uslub, obrazli ifoda va chuqur mazmun uyg‘unligini ta’minlay olgan.

Qora Fazliy va uning “Gul-u Bulbul” masnaviysiga oid ilmiy xulosalar bir necha muhim jihatlarni o‘zida mujassam etadi. Avvalo, Fazliy XVI asr usmoniy adabiy muhitining yirik vakillaridan biri sifatida nafaqat masnaviy, balki g‘azal, qasida, ruboiy kabi turli janrlarda samarali ijod qilgan serqirra shoir ekani aniqlanadi. Uning ijodiy merosi keng va salmoqli bo‘lishiga qaramay, asarlarning to‘liq holatda saqlanib qolmaganligi, asosan, qo‘lyozma an’analarining o‘ziga xos xususiyatlari bilan izohlanadi.

Ikkinchidan, olib borilgan tadqiqotlar, xususan, S. Yazar hamda boshqa olimlarning izlanishlari natijasida Fazliy merosining muayyan qismi qayta tiklanib, ilmiy muomalaga kiritilgani alohida ahamiyatga ega. Turli manbalar asosida jamlangan she’riy namunalar shoirning badiiy salohiyati va ijodiy ko‘lamini yanada aniqroq tasavvur etish imkonini beradi. Ayniqsa, “Gul va Bulbul” masnaviysining alohida e’tibor markazida bo‘lishi uning nafaqat muallif ijodida, balki umuman, g‘arbiy turkiy adabiyot an’anasida muhim o‘rin tutganini ko‘rsatadi.

Uchinchidan, qo‘lyozma manbalar — xususan, Sulaymoniya kutubxonasida saqlanayotgan nusxalar — Fazliy merosini o‘rganishda asosiy tayanch vazifasini bajaradi. Shuningdek, qo‘lyozma tarkibida “Gul-u Bulbul” bilan bir qatorda boshqa asarlarning ham mavjudligi Fazliy ijodining tizimli ravishda jamlanganini ko‘rsatadi. Asarning qo‘lyozma ichidagi aniq chegaralar bilan joylashuvi esa uning matnshunoslik jihatdan tadqiq etilishiga qulaylik yaratadi.

3 Qarang: Shodiyeva S. O‘zbek epik poeziyasi taraqqiyotida Salohiddin Salohiy dostonlarining o‘rni. Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya. – Qarshi, 2025. 67 - bet.
4 Fazliy. Gul va Bulbul vasli. Buxoro davlat muzey qo‘riqxonasi. Inv.262061. 15-b. (a varaq).
5 O‘sha manba, 64-65-b.
6 O‘sha manba, 22-23-b.
7 O‘sha manba, 43-b. (b varaq)
8 O‘sha manba, 64-b. (b varaq)

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Fatih Bakirci. Türk dünyasinda ortak bir tema: Gül ile Bülbül. Uluslararası
2. Fazliy. Gul va Bulbul vasli. Buxoro davlat muzey qo‘riqxonasi. Inv.262061
3. Gencay Zavotçu. Türk Edebıyatı’nda Gül ve Bülbül mesnevileri. (Doktora tezı). Erzurum, 1997.
4. Lütviyye Asgerzade. Fazil Iravani ve Fazli Kara: Gül ü Bülbül (çelişkiler ve gerçek) // BUTA. İnternational Journal of Scientific Research. – № 2/1, 2021.
5. Sadik Yazar, Kara Fazlî’nin Eserlerine Dair Yeni Bilgiler, Divan edebiyatı Araştırmaları Dergisi 18. – İstanbul, 2017.
6. Shodiyeva S. O‘zbek epik poeziyasi taraqqiyotida Salohiddin Salohiy dostonlarining o‘rni. Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya. – Qarshi, 2025.
7. Uygur Araştırmaları Dergisi. – İstanbul, 2015/6.

Nigora BAFOYEVA,
Buxoro davlat pedagogika instituti,
O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi f.f.f.d.(PhD),
E-mail: bafoyevanigora@buxdpi.uz

ABDULLA QODIRIYNING “O‘TKAN KUNLAR” ROMANIDA MAVJUD BIBLIONIM VA BURJ NOMLARINING SEMANTIK VA ETIMOLOGIK XUSUSIYATI TAHLILI

Annotatsiya: ma’lumki, badiiy asar tarkibidagi onomastik birlik sanalgan biblionimlar hamda burj nomlari alohida ahamiyat kasb etadi. Biblionimlarda har bir xalqning madaniyati va ijtimoiy hayoti o‘z ifodasini topadi. Burj nomlari esa shaxsning kelib chiqishi, uning jamiyatdagi tug‘ilishi va hayot tarzi haqida muayyan ma’lumot beradi. Mazkur maqolada “O‘tkan kunlar” romanida uchraydigan biblionim va burj nomlarining semantik hamda etimologik jihatlari atroflicha tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: *biblionimlar, burj nomlari, ismlar, asar, leksika, arabiy qatlam, turkiy qatlam.*

Аннотация: известно, что библионимы и зодиакальные имена, являющиеся ономастическими единицами в композиции произведения искусства, имеют особое значение. Библионимы отражают культуру и социальную жизнь каждого народа. Зодиакальные имена, с другой стороны, предоставляют определенную информацию о происхождении человека, его месте рождения в обществе и образе жизни. В данной статье подробно анализируются семантические и этимологические аспекты библионимов и зодиакальных имен, встречающихся в романе «Дни минувшие».

Ключевые слова: *библионимы, зодиакальные имена, имена, произведение, лексика, арабский слой, турецкий слой.*

Annotation: it is well known that biblionyms and zodiacal names, which are onomastic units in the composition of a work of art, have a special significance. Biblionyms reflect the culture and social life of each people. Zodiacal names, on the other hand, provide specific information about a person’s origins, their place of birth in society, and their way of life. This article provides a detailed analysis of the semantic and etymological aspects of biblionyms and zodiacal names found in the novel “Days Gone By”.

Key words: *biblionyms, zodiacal names, names, work, vocabulary, Arabic layer, Turkish layer.*

Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanida onomastik leksikaning faol qismini antroponim va toponimlar tashkil etadi. Ammo romanda onomastik qatlamning boshqa turlariga mansub birliklari ham ko‘p qo‘llangan. Asar voqealari silsilasida uchraydigan biblionim va burj nomlarining o‘rni keng. Avvalo asar tarkibidan o‘rin egallagan biblionimlar xususida fikr yuritsak. Biblionimlar, ya’ni, asar nomlari muallif va bosh qahramonlar tilida aks etadi.

“Alif Laylo” (“Ming bir kecha”), (arabcha “Alif layla va layla”) – o‘rta asr arab adabiyoti yodgorligi. Asosan, XV asrda arab tilida tarkib topgan ertaklar to‘plami. Qo‘lyozmalari XVI-XIX asrlarga mansub.Asarning yaratilish tarixi, qaysi xalqning adabiy merosi ekanligi haqida turli fikr-mulohazalar mavjud. Tadqiqotchilarning xulosalariga ko‘ra, “Ming bir kecha” to‘plamidagi ertak va hikoyatlarni uch asosiy guruhga ajratish mumkin: qadimgi davrga mansub hind-eron, o‘rta davrga mansub Bag‘dod va so‘nggi davrga mansub Misr ertaklari. “Ming bir kecha”ning eng qadimiy asosi hind-eron ertaklaridan iborat eroncha “Hazor afsona” (“Ming ertak”) to‘plami bo‘lib, u VIII asrda fors tilidan arab tiliga tarjima qilingan. O‘sha davrdayoq “Ming kecha” nomini olgan ushbu tarjima matni saqlanib qolmagan, uning aniq tarkibi haqida ham hech qanday ma’lumot yo‘q.

Arab olimi Ibn an-Nadimning yozishicha, bag‘dodlik adib al-Jahshiyoriy (942-yil) mazkur “Hazor afsona”ga o‘xshatib “Ming kecha” nomli ertaklar to‘plamini tuzishga kirishgan, biroq 480 ta to‘plagan paytda vafot etgan. IX-X asrlarga mansub, hind-eron va arab (Bag‘dod, Basra kabi shaharlarda yaratilgan) ertaklaridan iborat “Ming kecha” to‘plami XII-XIII asrlarda Misrda yangidan yangi mahalliy ertaklar bilan boyigan.Majmuaning “Ming kecha” o‘rniga “Ming bir kecha” deb atala boshlanishi ham shu davrga to‘g‘ri keladi.Nemis olimi Litmann bu o‘zgarishni turkchada noaniq ko‘plikni anglatadigan “bin bir”, ya’ni “ming bir”

iborasi bilan bog‘laydi. Keyinchalik esa “Ming bir” iborasi to‘plamdagi kechalarning aniq miqdori ma’nosida qabul etilgan va to‘plamni shu nomga moslash uchun unga qo‘shimcha materiallar kiritilgan. XVII asrda asar hozirgi tugallangan shaklga keldi.

“Ming bir kecha” asarining mazmuni, voqealar tasnifi turli davrlar, Sharq xalqlari va mamlakatlarining tarixi bilan uzviy bog‘liq. Asar 300 dan ortiq qissa va hikoyalardan iborat bo‘lib, ularda Sharq xalqlarining urf-odatlari, orzu-umidlari, tarixi, sarguzashtlari o‘z ifodasini topgan; xudbinlik, ochko‘zlik, maishiy buzuqlik, johillik kabi illatlar qoralanib, poklik, rostgo‘ylik, donolik, kamtarlik, saxiylik singari fazilatlar ulug‘langan.

“Ming bir kecha” kompozitsiyasi “ertak ichida ertak” tarzida tuzilgan bo‘lib, undagi barcha ertak, hikoyat, masallar podshoh Shahriyor va vazirning oqila qizi Shahrizoda haqidagi ertak va hikoyatlardan tashkil topadi. Malikaning xiyonatidan g‘azablangan Shahriyor har kecha yotog‘iga yangi ma’shuqa keltirishni buyuradi va ertalab uni sarbozlar tomonidan qatl ettiradi. Navbat Shahrizodaga kelganda, qiz behuda qon to‘kilishining oldini olish maqsadida Shahriyorga hikoya aytib bera boshlaydi va hikoya eng qiziq joyiga kelganda tong otadi va Shahrizoda hikoya aytishni to‘xtatadi. Shahriyor hikoyaning davomiga qiziqib, qatlni keyingi kunga qoldiradi. Shu tariqa ming bir kecha o‘tadi. Shahrizodaning aql-u zakovatiga lol qolgan Shahriyor unga uylanadi.

“Ming bir kecha”ning jahon kutubxonalarida qirqqa yaqin qo‘lyozma nusxalari bor. 1704–1717-yillarda asarning birinchi, to‘la bo‘lmagan fransuzcha tarjimasi A.Gallan tomonidan nashr etilgan. Ushbu matndan boshqa ko‘plab yevropa tillariga ham tarjima qilingan. 1911-yil Sidqiy Xondayliqiy forscha matnidan, bir yildan keyin Ahror Mahdum arabchadan o‘zbekchaga qisqartirilgan holda tarjima qilgan. Asar 1959 – 1963-yillarda arab tilidan o‘zbek tiliga to‘la tarjima etildi.

Yel bilan o‘ynashib yong‘an sham’ nuri qizlarni allaqanday ajib holatka qo‘ymoqda, majlis ersa “Alif laylo” hikoyalaridagi “parilar” bazmini xotirlatmoqda edi [“O‘tkan kunlar”, 29-bet].

Daloyil to‘liq nomi “Daloil ul-Xayrot” “Yaxshi amallarga hujjat” ma’nosini anglatib, daloyilxonada o‘qilgan asosiy kitob hisoblanadi. XV asrda Muhammad ibn Jazuliy (1466) arab tilida yozgan. Ushbu biblionim Muhammad (s.a.v.) ga atab o‘qiladigan salavot va madhiyalardan iborat.

“Daloil ul-Xayrot” yetti qismga bo‘lingan bo‘lib, har bir qism haftaning ma’lum kunida o‘qishga mo‘ljallangan. Kitobda musulmonlarga tavsiya etilgan kundalik salavot aytish uslublari ko‘rsatib berilgani uchun dindorlar undan muntazam foydalanadilar. Uning sharhlari va turkiy tilga qilingan tarjimalari ham mavjud[1].

“Daloyil” – arabcha “dalil” so‘zining ko‘plik shakli – O‘rta Osiyoning yirik shaharlaridan savodi chiqqan bolalar qabul qilinadigan diniy maktablarda o‘qitiladigan asosiy kitob. Asarda diniy kitob ma’nosida kelgan (muall.).

Yusufbek hoji ma’lum aldanishdan so‘ng yurt ishidan qo‘l yuvg‘an, ko‘b vaqtini mehmonxonada “Qur’on” va “Daloyil” o‘qub kechirar, kundash orasi buzilib, o‘rtadan so‘z chiqg‘anini goho eshitsa, ikkala kelinni o‘z oldig‘a chaqirtirib, ularni qator o‘tqazar edi [“O‘tkan kunlar”, 201-bet].

“Qur’on” – arabcha “o‘qimoq”,“qiroat qilmoq”, **–** degan ma’noni anglatib, musulmonlarning asosiy muqaddas kitobi hisoblanadi. Islom e’tiqodiga ko‘ra, “Qur’on” vahiy orqali Muhammad payg‘ambarga 610–632-yillar davomida nozil qilingan. Allohning kalomi, xalq orasida “Kalomulloh”, “Qur’on”, “Kitob” (yozuv), “Furqon” (haq bilan botilning orasini ayiruvchi), “Zikr” (eslatma), “Tanzil” (nozil qilingan) kabi nomlar bilan atalib, “Nur” (yorug‘lik), “Hudo” (hidoyat), “Muborak” (barakotli), “Mubin” (ochiq-ravshan), “Bushro” (xushxabar), “Aziz” (e’zozlanuvchi), “Majid” (ulug‘), “Bashir” (bashorat beruvchi), “Nazir” (ogohlantiruvchi) kabi so‘zlar bilan sifatlangan. Islom olamida Qur’on “Mus’haf” nomi bilan ham mashhur. Islom ulamolari Qur’onning o‘ttiz xil nom va sifatlarini sanab o‘tganlar.

Islom ensiklopediyasida Ismoil Durmus she’riyatning asosiy xususiyati “mubolag‘a san’ati” ekanligini ta’kidlaydi Dr.Daniel Brubaker eng qadimgi Qur’on matnlariga kiritilgan o‘zgartirishlar, tuzatishlar va qo‘shimchalar (unlilar va tinish belgilari kabi so‘zlarning talaffuzidagi kichik farqlardan tashqari) haqida bir qator videolarni (uni “Qur’on versiyasi” deb ataydi) internetga joylashtirdi.

… “Qur’on” va “Daloyil” o‘qub kechirar, kundash orasi buzilib, o‘rtadan so‘z chiqg‘anini goho eshitsa, ikkala kelinni o‘z oldig‘a chaqirtirib, ularni qator o‘tqazar edi [“O‘tkan kunlar”, 201- bet].

“Shohnoma” – tojikcha shoh oti bilan “xat”, “asar” ma’nosini anglatadigan noma otidan tuzilgan bo‘lib, Firdavsiyning qadimgi shohlar tarixi bayon qilingan asari shunday nomlangan .

“Shohnoma” buyuk fors-tojik shoiri Abulqosim Firdavsiyning shoh asari. Qadimgi shohlar haqidagi rivoyat, afsonaviy va epik dostonlardan iborat kitoblar nomi.

1 https://uz.wikipedia.org/wiki

Firdavsiy “Shohnoma” asarini So‘g‘dda va Sosoniylar imperiyasi davrida mavjud bo‘lgan rivoyatlar asosida qayta ishlagan.

Taxminan 963-yil Abd al-Muayyad Balxiy Nasriy “Shohnoma” yozgan. U bilan ayni vaqtda Mas’ud Marvaziy va Abu Ali Balxiylar “Shohnoma” bitganlar. Balxiy asarida Firdavsiy “Shohnoma”sida tilga olinmagan Narimon, Som, Og‘ush, Vahodan, Kayshikan nomlari bilan bog‘liq lavhalar mavjud bo‘lgan.Marvaziy o‘z “Shohnoma”sini birinchi odam va birinchi podshoh Kayumarsdan boshlab, somoniylar davlatining oxirgi davri tasviri bilan tugallaydi. Bu borada to‘plangan katta tajriba va yig‘ilgan salmoqli material asosida somoniy hukmdorlar buyrug‘i va homiyligida Abu Mansur Daqiqiy nazmiy “Shohnoma”ga qo‘l urgan. Biroq u Zardusht, Gushtasp va Arjasp dostonlarini – jami ming bayt yozganda, fojiali ravishda o‘ldirilgan[2] .

Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanida burj nomlari ham keng qo‘llanilgan. Bunday nomlar asar tarkibidagi voqealar rivojiga alohida ruh bag‘ishlay olgan. Shunday ekan, asar tarkibidagi burj nomlarini tahlilga tortish o‘rinlidir.

Dalv (arabcha) – o‘n ikki burjning biri. Jadiy va Hut burjlari o‘rtasida joylashgan. Shamsiya yil hisobida o‘n birinchi oyning arabcha 21-yanvardan 21-fevralgacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi.

*1264-hijriy, **dalv** oyining o‘n yettinchisi, qishki kunlarning biri, quyosh botqan, tevarakdan shom azoni eshitiladir...* [“O‘tkan kunlar”, 1- bet].

Hamal (arabcha: qo‘chqor) – o‘n ikki burjning biri: Hut va Savr burjlari o‘rtasida joylashgan. Shamsiya yil hisobida birinchi oyning arabcha nomi. Hamal burji 22-mart – 21-aprel kunlariga to‘g‘ri keladi.

*…uchinchi **hamal**, Marg‘ilon, Kumushingiz yozdi* [“O‘tkan kunlar”, 164- bet].

Javzo (arabcha: katta) – o‘n ikki burjning biri, Saraton va Savr burjlari o‘rtasida joylashgan. Shamsiya yil hisobida uchinchi oyning arabcha nomi. Ushbu burj 22-may – 21-iyun kunlariga to‘g‘ri keladi.

*“Sizga yangi yor, menga uyatsizlikning qurboni bo‘lish muborak. Kumush emas, Tuproqbibi yozdim. 17-**javzo**, 1265-inchi yil Marg‘ilon”* [“O‘tkan kunlar”, 164-bet].

Saraton (arabcha) – Zodiak yulduz turkumlaridan biri; osmonning Shimoliy yarimsharida, Silovsin, Egizaklar, Kichik It, Gidra, Asad va Arslon yulduz turkumlari orasida joylashgan, eng ravshan yulduzi to‘rt yulduz kattaligida. Saraton o‘rta kengliklarda kuz, qish va erta bahorda ko‘rinadi. Yerning tropik mintaqalaridan biri Saraton nomi bilan atalgan; shu mintaqada yozgi quyosh turishi vaqtida Quyosh zenitdan o‘tadi.Quyosh Saraton yulduz turkumida iyul oyida bo‘ladi.

Shamsiya yil hisobida to‘rtinchi oyning nomi 22-iyundan 21-iyulgacha bo‘lgan davrga to‘g‘ri keladi.

***Saraton**ning ikkinchi kuni…* [“O‘tkan kunlar”, 9- bet].

Savr (arabcha: buqa, ho‘kiz) – o‘n ikki burjning biri. Hamal va javzo burjlari o‘rtasida joylashgan. Shamsiya yil hisobiga ikkinchi oyning arabcha nomi *(22- aprel – 21-may davriga to‘g‘ri keladi(muall)).*

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash mumkinki, Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanida onomastik birlik hisoblangan biblionimlar va burj nomlari o‘ziga xos semantik – uslubiy vazifaga ega. Ularning etimologiyasi asar voqealari rivojiga ma’lum konnotativ ma’no yuklay olgan. Shu sabab bu kabi birliklarni alohida tahlilga tortish o‘rinlidir.

2 Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. 2-жилд. –Тошкент: ЎзМЭ, 2006. 427- б.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Муродов Ғ.Тарихий романнинг муштараклик ва узига хос уйғунлиги муаммолари. филология фанлари бўйича докторлик (DSc) дисс... – Тошкент, 2018.29- б.

2. Абдулла Қодирийнинг «Ўтган кунлар» романи. «Адабий барқарор асарлар туркуми». –Т., 2019.19- б.

3.Bafoyeva, N. (2025). THE RELATIONSHIP OF PERSONAL NAMES TO THE VOCABULARY LAYER IN THE NOVEL “DAYS GONE BY”. *TAMADDUN NURI JURNALI*, *1*(64), 305-308.

4.Bafoyeva, N. (2024). International Journal of Informatics and Data Science Research: Semantic and Stylistic Analysis of the Anthroponym Musulmonkul in Abdulla Kadiri’s Novel” Days by Gone”. *Buxoro davlat pedagogika instituti jurnali*, *4*(4).

5.Bafoyeva, N. (2024). International Journal of Informatics and Data Science Research: Semantic and Stylistic Analysis of the Anthroponym Musulmonkul in Abdulla Kadiri’s Novel” Days by Gone”. *Buxoro davlat pedagogika instituti jurnali*, *4*(4).

6.International Journal of Informatics and Data Science Research: Semantic and Stylistic Analysis of the Anthroponym Musulmonkul in Abdulla Kadiri’s Novel” Days by Gone”

Shahnoza RASULOVA,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Phd)
University of Business and Science Toshkent filiali Tillar kafedrasi o‘qituvchisi
shahnozarasulova8322@gmail.com.

XISLAT SHE’RLARINING TAHRIR XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: ushbu maqola XIX asr oxiri – XX asr boshlarida yashab ijod qilgan shoir Sayid Haybatullohxo‘ja Xislatning ijodida muallif tahriri va matn tarixining ahamiyatini o‘rganadi. Tadqiqotda asarning turli variantlari, qo‘lyozma, toshbosma va nashr matnlaridagi tafovutlar aniqlanib, ishonchli matn tiklangan. Muallif va matn o‘rtasidagi munosabat, tahrir jarayonining matnga ta’siri, shuningdek, adabiy ijodning rivojlanishi masalalari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: *muallif tahriri, ilmiy talqin, qo‘lyozma, matn tarixi, adabiy manbashunoslik, matniy tafovut, qiyosiy-tarixiy tahlil, masnaviy, bayoz, qofiya, g‘azal*

Annotation: this article examines the features of authorial editing in the poetry of Sayid Haybatullohxo‘ja Xislat, who lived in the late 19th – early 20th century. The study analyzes various versions of the works, manuscripts, toshbosma bayoz copies, and published editions, exploring the text formation process and the author’s editorial decisions. The article highlights the interaction between the author and the text, the impact of editing on the text, and issues related to the refinement of literary creation.

Key words: *authorial editing, scholarly interpretation, manuscript, text history, literary source studies, textual variants, comparative-historical analysis, masnavi, bayoz, rhyme, ghazal*

Аннотация: в данной статье изучаются особенности авторской редакции стихов Сайид Хайбатуллоххооджа Хислат, жившего в конце XIX – начале XX века. В исследовании проанализированы различные варианты произведений, рукописи, ташбосма-баязы и печатные издания, рассмотрены процессы формирования текста и редакционные решения автора. Статья раскрывает взаимоотношения автора и текста, влияние редакции на текст, а также вопросы совершенствования литературного творчества.

Ключевые слова: *авторская редакция, научная интерпретация, рукопись, история текста, литературная источниковедение, текстовые различия, сравнительно-исторический анализ, маснави, баяз, рифма, газель.*

Kirish. Toshkent adabiy muhiti vakillaridan biri Sayid Haybatullohxo‘ja Said Orifxo‘ja o‘g‘li Xislat (1880–1945) o‘z zamonida mutarjim, bayoznavis shoir, noshir, kotib, xattot sifatida tanilgan va tan olingan. O‘zidan salmoqli adabiy meros qoldirgan shoir asarlarini ilk manbalar asosida o‘rganish, matnshunoslikda erishilgan so‘nggi ilmiy-nazariy yutuqlarga tayanib, asarlarini matniy tadqiq etish muhim vazifalardan biridir.

Haybatullohxo‘ja Xislat asarlarida matn tahriri bilan bog‘liq jihatlar ko‘p o‘rinda kuzatiladi. Professor Nurboy Jabborov matnshunoslikning e’tiborga molik nazariy masalasi – matn tahriri borasida ko‘lamli izlanishlar olib borilishi kerakligini ta’kidlab, shunday yozadi: “Tahrir “anglangan holda” (“soznatelno”), “muayyan maqsad bilan” (“s opredelennoy selyu”) amalga oshiriladi. Matn tahriri muayyan maqsad bilan amalga oshirilganda olim aytganidek: 1) ijtimoiy voqelik talabi hamda 2) adabiy ehtiyoj katta rol o‘ynaydi. Bu o‘rinda “adabiy ehtiyoj”, bizningcha, ijod jarayonidagi tahrirni ham e’tiborda tutadi. Bu – asarni mukammallashtirish bilan bog‘liq muallif tahriridir” [1:37].

Shoir o‘zi nashrga tayyorlagan to‘plamlarga she’rlaridan namunalar keltirgan. Ayrim holatlarda o‘z asarlari ustida tahrirlar amalga oshirgan, natijada nashrdan nashrga o‘tgan she’r matnlari sayqal topib, mukammal holatga kelgan.

A.Jalolovning “G‘azallar”, M.Asadullayev, T.Zufarovlarning “Tarannum” to‘plamlarida Xislatning kirill imlosidagi she’rlari nashr etilgan. Har ikkisi shoir hayoti va ijodiga oid muhim manbalardan sanalib, bir-birini to‘ldiradi, boyitadi. To‘plamlardan o‘rin olgan she’riy matnlar o‘zaro qiyoslanganda o‘zaro ma’lum tafovutlar borligi aniqlandi.

“G‘azallar” va “Tarannum” mualliflari to‘plamlariga she’rlarni tanlashda Xislat va uning zamondoshlari tomonidan tuzilgan turli manbalarga murojaat qilgan. Ba’zida Xislatning tahriridan o‘tgan, ba’zan tahrirlanmagan she’rlari to‘plamlaridan joy olgan. Natijada, nashr nusxalar matnida turli xilliklar yuzaga kelgan. Shuningdek, to‘plamlardagi she’riy matnlar asliyati bilan qiyoslanganda so‘z va so‘z birikmalarining o‘zgartirilishi, baytlarning tushib qolishi holatlari kuzatiladi.

Asosiy qism. Birlamchi manbalardagi ma’lumotlar, qo‘lyozmalar qiyosiy tipologiyasi ijodkor asarlarining eng ishonchli matnlarini tiklash imkonini berishi jihatidan alohida ahamiyatga ega. Matn tarixi, ilmiy-tanqidiy matn, adabiy asarlarning muallif dastxati bilan ko‘chirilgan nusxalarini nashr variantlari bilan qiyoslash singari ilmiy muammolar, ayniqsa, matnshunoslik va adabiy manbashunoslikning asosini tashkil etadi.

She’r matnlari ustida olib borilgan tahrirlar ba’zan Xislatga taalluqli bo‘lsa, ba’zan nashrga tayyorlovchilar tomonidan amalga oshirilgan. Shu jihatdan bunday tahrirlarni 2 turga ajratib o‘rganish mumkin: asliyat matnidagi tahrir; nashr variantidagi tahrir.

Asliyat matnidagi tahrir. Xislatning adabiy merosining katta qismi 869 raqamli qo‘lyozma hamda “Armug‘oni Xislat” toshbosma bayozlaridan joy olgan. Qo‘lyozma bayozdagi uchta, “Hadyayi Xislat”dagi oltita she’r “Armug‘oni Xislat”ga tahrirlangan holda chop etilgan. Tahrirlar shoir ishtirokida tuzilgan boshqa adabiy manbalar matnida ham uchraydi.

Muallif nazmiy asarlari ustida quyidagi tahrirlarni olib borgan: a) so‘z va so‘z birikmalari bilan bog‘liq tahrirlar; b) misra va bandlar bilan bog‘liq tahrirlar.

So‘z va so‘z birikmalari bilan bog‘liq tahrirlar. O‘zbek mumtoz shoirlarning ijodiga Fuzuliyning adabiy ta’siri katta bo‘lgan. Mumtoz ijodkorlarimiz shoirning g‘azallariga muxammaslar bog‘laganlar, unga izdoshlik qilganlar. “Kulliyoti Farhod-u Shirin” (62-b.)da Xislatning Fuzuliy uslubida yozilgan 7 bandli muxammasi mavjud. Muxammasning ayrim bandlaridagi so‘zlar “Armug‘oni Xislat”(58-b.)ga shoir tomonidan tahrirlangan holatda nashr etilgan. Muxammasning 1-band 1-misrasi avvalgi nusxada: Oh junun qilg‘on mani bir nozanin savdosidur tarzida bo‘lsa, keyingi variantda: Ohkim devona qilgon bir pari savdosidur, shakliga o‘zgargan. Natijada vaznda mutanosiblik, so‘zlarda ohangdorlik va uslubiy bo‘yoqdorlik kuchaygan.

Ushbu muxammasning 4-band 1-misrasi avvalgi nusxada: Misli Majnundek bo‘lubman ishqida devonalar, tarzida bo‘lib, tahrir variantida Xislat Fuzuliyning badiiy uslubiga xos lisoniy vositalardan foydalangan, tahrirlangan so‘zlar she’rning badiiyat takomili uchun xizmat qilgan.

So‘z birikmalari bilan bog‘liq tahrirlar Xislatning “Yalg‘uz” radifli muxammasida kuzatiladi. Huvaydoning “Yalg‘uz” radifli g‘azaliga bog‘langan bu taxmis 7 band, 45 misradan iborat. Taxmisning ilk nusxasi “Hadyayi Xislat” (8-bet)da: مالو جانيمدين – “mol-u jonimdin” so‘z qo‘shilmasi taxmisning keyingi nusxasida جانومالیمدین – “jon-u molimdin”ga o‘zgargan. Bandda shoir tomonidan kiritilgan kichik tahrirlar ma’lum uslubiy vazifa bajargan. Mumtoz adabiyotda lirik qahramon – oshiq uchun ma’shuqasi yo‘lida nisor etiladigan eng aziz narsa uning joni hisoblanadi. Mol-davlat – bu keyingi masala. So‘zni nozik anglagan shoir “jon”ni “mol”dan oldingi o‘ringa ko‘taradi. “G‘azallar”, “Tarannum” nashrlarida turli xilliklarning yuzaga kelishi matnlarning turli manbalardan ko‘chirilishidan kelib chiqqan.

Misralar va bandlar bilan bog‘liq tahrirlar. Xislat ijodida Zokirjon Furqatning “Chiroylik” radifli g‘azaliga bog‘lagan taxmisi alohida o‘rin egallaydi. Bu she’r 869, 1000 raqamli qo‘lyozma bayoz, “Hadyayi Xislat”, “Armug‘oni Xislat”, “Bayozi O‘tab”, “Bayozi musavvar” to‘plamlaridan ham joy olgan. 869 raqamli bayozdagi she’r matni boshqa manbalardagi nusxalardan farqlanadi. Furqatning “Chiroylik” g‘azali shoir hayotligi vaqtidayoq xalq ichiga keng tarqalib, turli o‘tirishlar va yig‘inlarda aytilgan. Furqatshunos olim N.Jabborovning ma’lum qilishicha, “Furqatning qo‘lyozma va toshbosma bayozlardan eng ko‘p o‘rin olgan g‘azali “Chiroylik” radifli g‘azali hisoblanar ekan. Bayoz va majmualarga qayta-qayta kiritilishi, qolaversa, Muqimiy va Xislatdek mumtoz adabiyotimizning yirik namoyandalarining taxmis bog‘laganlari faktining o‘ziyoq mazkur g‘azalning Furqatga zamondosh bo‘lgan shoirlar, she’riyat ixlosmandlari orasida nechog‘lik mashhurligini ko‘rsatib turibdi” [2:24].

Xislat o‘z she’rlarini tahrirlar ekan, ba’zan butun bandlarni to‘liq tahrirdan o‘tkazadi. Natijada she’rning badiiy quvvati oshib, mukammalligi ta’minlanadi. “Chiroylik” radifli taxmisning ilk bandi 869 raqamli qo‘lyozma bayozda quyidagicha:

869-bayoz(145-bet)	Joriy imloda
سالسه کاکل اویالیب تورارسیکیز چیرایلیک یوز ناز جلوه برلان کولارینکیز چیرایلیک بربر باسیب بورالیب یورارینکیز چیرایلیک حورپری یوزیدین روخسارینکیز چیرایلیک جنّت کولیدین ای کول کلزارینکیز چیرایلیک	Solsa kokil uyolib turoringiz chiroylik, Yuz nozu jilva birlan kuloringiz chiroylik, Bir-bir bosib burolib yuroringiz chiroylik, Huru pari yuzidin ruxsoringiz chiroylik, Jannat gulidin, ey gul, gulzoringiz chiroylik.

Xislat bu bandni to‘liq tahrirdan o‘tkazgan: (“Armug‘oni Xislat”, 201-bet):

Ey xo‘blar sarosi, har koringiz chiroylik,
Har kimga bir o‘qug‘on ash’oringiz chiroylik,
Bazm aylashib ajoyib o‘ynoringiz chiroylik,
Huru pari yuzidin ruxsoringiz chiroylik,
Jannat gulidin, ey gul, gulzoringiz chiroylik.

“Chiroylik” taxmisida so‘z bilan bog‘liq tahrirlar ham uchraydi:

869-bayoz (146-bet)	Joriy imloda
خوشتار جزاسی شول دیب کاکیل بلان اورارسیز قیلسم فغانو فریاد پروا قیمای کولارسیز رقیب بیلان همیشه قول اوشلاشیب یورارسیز عاشیقنی یولده کوروب سیکین سیکین سوکارسیز بیلدورماین کیشیکا آزارینکیز جیرایکیک	*Xushtor jazosi shul deb kokil bilan urorsiz,* *Qilsam fig‘onu **faryod** parvo qimay kulorsiz,* ***Raqib bilan** hamisha qo‘l ushlashib yurorsiz,* *Oshiqni yo‘lda ko‘rib sekin-sekin so‘korsiz* *Bildurmayin kishiga ozoringiz chiroylik.*

“Armug‘oni Xislat”da muallif “faryod” so‘zini “nola”ga, “raqib bilan” ko‘makchili birikmani “ag‘yor ilan”ga almashtirgan.

Faryod, fig‘on, nola so‘zlari o‘zaro ma’nodosh so‘zlar sanalsa-da, ular bir-biridan farqlanuvchi ma’no noziklikliariga ega. Faryod, fig‘on so‘zlari nihoyatda xafalik, ruhiy azob, alam ta’sirida o‘zini tutolmay o‘kirib, dod solib yig‘lash ma’nosini bildiradi. Nola – g‘am-alam ifodalovchi ayanchli ovoz ma’nosini ifodalab, unda yolborish, o‘tinish, mungli tovush ma’nolari ham mujassam. So‘z ma’nosini chuqur anglagan Xislat ikkita o‘kirib yig‘lashni ifodalovchi so‘z (fig‘on-u faryod)ning birini mungli tovush bilan ingrash(nola)ga o‘zgartiradi. Shuningdek, raqib bilan so‘z shakli ag‘yor ilan birligiga ma’nodosh bo‘lsa-da, muallifning mumtoz adabiy til unsurlaridan foydalanib, Furqat ijodiga yanada yaqinlashishga intilgani seziladi.

Nashr variantidagi tahrir. Haybatullohxo‘ja Xislat nazmiy merosidan namunalar A.Jalolovning “G‘azallar” (Toshkent, 1979), M.Asadullayev va T.Zufarovlarning “Tarannum” (Toshkent, 2009) to‘plamlaridan joy olgan. Shuningdek, M.Zokirov “Toshkent oqshomi” gazetasi (1967-yil, 15-mart soni) va “Tirik satrlar” (Toshkent, 1968) to‘plamida shoir biografiyasiga oid qimmatli ma’lumotlarni bayon qilgan. “Vatan va millat muqaddasdir” (2000), “Eng sara mumtoz ashulalar” (2018), “O‘zbek mumtoz she’riyati antologiyasi” (2022) to‘plamlaridan shoir qalamiga mansub she’rlar o‘rin olgan. Ushbu nashrlardagi matnlar asliyat manbalar bilan qiyoslanganda ular o‘rtasida ma’lum matniy tafovutlar kuzatiladi. Bunday tahrirlarni quyidagicha tasniflash mumkin:

a) qisqartirilgan bayt va bandlar; b) harf va so‘zlarning o‘zgarishi.

Qisqartirilgan bayt va bandlar. Xislat she’riy matnlarini nashrga tayyorlashda ayrim o‘rinlarda bayt va bandlarning tushirib qoldirilishi yoki ularning o‘rni almashtirilishi kuzatiladi. 869 raqamli qo‘lyozma bayozning (484-bet)da Xislatning “Rahm etib roz-u dilimni so‘rmading bir yo‘lgina” matla’li g‘azali keltirilgan. G‘azalning to‘rtinchi bayti “Tarannum” (44-b.) va “G‘azallar” (33-b.) to‘plamlaridan tushirib qoldirilgan:

Saltanat taxtiga mingan vaqtida ag‘yorni
Darra birlan orqasiga urmading bir yo‘lgina.

Shoirning “Aylading” radifli g‘azali ilk bor “Tuhfayi Xislat” (1914-y.) bayozida nashr etilgan. “Tirik satrlar”

to‘plamida ushbu g‘azalning quyidagi bir bayti tashlab ketilgan:

Zolimo, san bori g‘amdin oqibat,

Bu “alif”dek qomatim “nun” aylading [3:100].

Harf va so‘zlarning o‘zgarishi. 869 raqamli qo‘lyozmada (403-bet) Xislatning “O‘rgulay” radifli sakkiz baytli g‘azali mavjud. Uchinchi bayti asliyatda shunday ifodalangan:

چاک چاک ایتی نیتای بغریمنی خونریز مژکانینک
سورمادینک خوالیمنی برآشنالیغینکدین اورکولای

Adabiyotshunos A.Jalolov nashri (146-bet)da baytning birinchi misrasidagi کنیناکژم so‘zi “xanjaring” tarzida ifodalangan.

Mumtoz adabiyotda mujgon (mijgon) – kipriklar, an’anaga ko‘ra, ma’shuqaning noz-u karashmasi tufayli oshiq ko‘ksiga sanchilib, uni yaralaydigan o‘q, nayza, xanjardir. “Mujgon”ning “xanjar” tarzida tahrirlanishi so‘zning badiiy bo‘yoqdorligiga putur yetkazgan.

Nashrlarda texnik sabablar bilan yuzaga kelgan xatolar ham mavjud:

Shoirning “Aylansun” radifli g‘azali birinchi bayti 869 qo‘lyozma (300-bet)da:

Sani yuz ming parilar nozi javloningdin aylansun,

Tasaddiq tolayi zulfi parishoningdin aylansun.

A.Jalolov nashri (42-bet)da tolayi zulf izofali birikmasi nashr jarayonidagi texnik xato sababli “nolayi zulf”ga o‘zgargan. Bu kabi xatoliklar turli to‘plam nashrlari uchun xosdir.

Xulosa. Xislat adabiy merosi asosan, 869 raqamli qo‘lyozma, “Armug‘oni Xislat”, “Savg‘oti Xislat”, “Hadyayi Xislat”, “Tuhfayi Xislat” toshbosma bayozlari hamda turli to‘plam-majmualar orqali bizgacha yetib kelgan. Shoir ba’zi she’rlarini qayta tahrirdan o‘tkazib chop ettirgan. A.Jalolov “G‘azallar”, M.Asadullayev, T.Zufarov “Tarannum” to‘plamlariga she’rlarni tanlashda Xislat va uning zamondoshlari tomonidan tuzilgan turli manbalarga murojaat qilgan. Ba’zida Xislatning tahriridan o‘tgan, ba’zan tahrirlanmagan she’rlari to‘plamlaridan joy olgan. Natijada nashr nusxalar matnida turli xilliklar yuzaga kelgan. She’r matnlari ustida olib borilgan tahrirlar ba’zan Xislatga taalluqli bo‘lsa, ba’zan nashrga tayyorlovchilar tomonidan amalga oshirilgan. Natijada tahrirlangan so‘zlar she’rlarning badiiyat takomili uchun xizmat qilgan.

Xislat nazmiy merosining nashr nusxadagi she’riy matnlar asliyati bilan qiyoslanganda so‘z va so‘z birikmalarining o‘zgartirilishi, bayt va bandlarning tushib qolishi holatlari aniqlandi. Bunday holatlar nashr nusxalarining mukammal holatda emasligini, ularni birlamchi manbalarga tayangan holda qayta nashr etish dolzarbligini kun tartibiga qo‘yadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jabborov N. O‘zbek matnshunosligi: muammolar, istiqboldagi vazifalar/ O‘zbek filologiyasida matnshunoslik va manbashunoslik muammolari. Respublika ilmiy-nazariy anjumani materiallari. – Namangan, 2018.

2. Jabborov N. Furqat asarlarining qo‘lyozma manbalari. Filol. fan. nomz..diss. – Toshkent, 1994.

3.Tirik satrlar: Tanlangan she’rlar (To‘plovchi: M. Zokirov; muharrir O.Sharafiddinov). – Toshkent: Adabiyot va san’at, 1968.

4. Xislat. G‘azallar. – Toshkent: Adabiyot va san’at, 1971.

5. Xislat. Tarannum. – Toshkent: Merius, 2009.

6. Bayozi muhallo. Toshbosma. O‘zR FASHI Asosiy fondi. Inv. №321. – Toshkent: G‘ulom Orifjonov matbaasi, 1912-y.

7. Savg‘oti Xislat. Toshbosma. O‘zR FASHI Asosiy fondi. Inv. №347. – Toshkent: Porsev matbaasi, 1914-y.

8. Bayozi Haziniy. Toshbosma. O‘zR FASHI. Inv. №317. – Toshkent: G‘ulom Hasan Orifjonov matbaasi, 1912.

9. Tuhfayi Xislat. Bayoz. Toshbosma. O‘zR FASHI Asosiy fondi. Inv. №665. – Toshkent: G‘ulom Orifjonov matbaasi, 1914.

10. Qissayi Tamim sahoba. Toshbosma. O‘zR FASHI. Asosiy fondi. Inv.№ 479. –Toshkent: G‘ulom Hasan Orifjonov matbaasi, 1912.

Nasiba NOROVA,
BuxDU dotsenti, f.f.f.d (PhD)

HALIMA XUDOYBERDIYEVA IJODIDA BADIIY KO‘CHIM

Annotatsiya: she’riy asar tili, murakkab, serjilo bo‘lganligi bois o‘ziga xos ma’no murakkabliklariga ega. She’rning mazmuni, g‘oyasi, badiiyati haqida yaxlit tasavvurga ega bo‘lmoqlik, she’riy til xususiyatlarini puxta bilmoqlikni talab etadi. So‘zning asl ma’nosidan chekinib, ko‘chma ma’no ifodalashi adabiyotshunoslikda poetik ko‘chimlarni hosil qiladi. Biz ushbu maqolada o‘zbek she’riyatining eng ilg‘or vakilalaridan biri Halima Xudoyberdiyeva ijodida qo‘llanilgan badiiy ko‘chimlarni tahlilga tortganmiz.

Kalit so‘zlar: *badiiy ko‘chim, metafora, metonimiya, sinekdoxa, ramz, jonlantirish, oksimoron.*

Annotation: the language of a poetic work, being complex and rich, has its own semantic complexities. Understanding the content, idea, and artistry of a poem requires a thorough understanding of the characteristics of poetic language. Deviating from the original meaning of a word and expressing a figurative meaning creates poetic metaphors in literary criticism. In this article, we analyze the artistic devices used in the works of Halima Khudoyberdiyeva, one of the most prominent representatives of Uzbek poetry.

Keywords: *artistic movement, metaphor, metonymy, synecdoche, symbol, personification, oxymoron.*

Аннотация: язык поэтического произведения сложен и богат, поэтому он имеет свою собственную смысловую сложность. Для получения целостного представления о содержании, идее и художественности стихотворения необходимо досконально знать особенности поэтического языка. Отклонение от первоначального значения слова и выражение переносного значения создают поэтические образы в литературоведении. В данной статье мы проанализировали художественные приемы, использованные в творчестве Халимы Худойбердиевой, одного из самых передовых представителей узбекской поэзии.

Ключевые слова: *художественная литература, метафора, метонимия, синекдоха, символ, олицетворение, оксюморон.*

Badiiy adabiyot tilining eng muhim xususiyatlaridan biri uning obrazliligi va ta’sirchanligidir. Bu xususiyatlar esa ko‘pincha badiiy ko‘chimlar orqali yuzaga chiqadi. Badiiy ko‘chimlar bu so‘z va iboralarning o‘z ma’nosidan ko‘chib, yangi, obrazli ma’no kasb etishidir. Ayniqsa, she’riyatda bunday vositalar muhim estetik ahamiyatga ega.

Adabiyotshunoslik nazariyasiga oid kitoblarda badiiy ko‘chimlarga quyidagicha ta’rif beriladi. “Ma’lumki, umuman, nutq jarayonida, xususan, badiiy nutqda so‘zlar o‘z ma’nosida ham, ko‘chma ma’noda ham qo‘llanishi mumkin. So‘zning odatiy ma’nosidan o‘zga ma’noda qo‘llanishi semantik sathdagi og‘ish sanaladi. Ko‘chma ma’noda qo‘llangan so‘zlarning umumiy nomi ko‘chim deb yuritiladi”. [1,323]

Albatta, bu tasnif ham nisbiylik kasb etadi. Badiiy ko‘chim asosan, semantik asosda yuzaga keladi. Matn ichida boshqa ma’no va matn tashqarisida boshqa ma’noni ifodalashiga qarab ma’no ko‘chish turlari yuzaga keladi. Bunday ma’no ko‘chish yo‘llari badiiy ko‘chimlar hosil qiladi va ular quyidagi vazifalarni bajaradi:

– obrazlilikni kuchaytiradi;
– emotsional-ekspressiv ta’sirni oshiradi;
– fikrni qisqa va lo‘nda ifodalashga xizmat qiladi;
– o‘quvchining tasavvurini kengaytiradi.

She’riyatda badiiy ko‘chimlar ayniqsa, muhim bo‘lib, ular poetik tafakkurning asosiy vositalaridan biri hisoblanadi. Badiiy ko‘chimlarning eng keng tarqalgan turlari sifatida metafora va metonimiya alohida o‘rin tutadi. Ular orqali shoir borliqni chuqurroq, obrazliroq va ta’sirchanroq ifodalaydi. Bu ikki ko‘chim turi bir-biriga yaqin bo‘lsa-da, asosiy farq ularning semantik asosidadir: metafora – tasavvur va obraz asosida; metonimiya – real aloqadorlik asosida yaratiladi.

Ba’zi hollarda ular birgalikda ishlatilishi ham mumkin. O‘zbek she’riyatida bu vositalar juda keng miqyosda qo‘llanilib kelinmoqda. Xususan, klassik adabiyotda ramziy metaforalar, zamonaviy she’riyatda individual metaforalar, metonimiya orqali ijtimoiy va falsafiy mazmun beriladi.

She’riyatning turfa ko‘rinishlarini ifodalashda bandlarning qanaqa ko‘rinish hamda metodda bitilishi

emas, aksincha, ijodiy niyat qilingan mavzuning qaysi g‘oya va ifoda usullari bilan ko‘rsatishdan kelib chiqishi muhim. Zamonaviy o‘zbek she’riyatining yorqin vakillaridan biri Halima Xudoyberdiyeva ijodi misolida fikrimizni isbotlashga intilamiz.

Sirlar sandig‘i ochilar, kimlar ne degan,
Kimni sotib o‘zi yayrab o‘sgan qaysi jon?
Beshta yovqur bolasini bir qashqir yegan,
Mening ma’yus onaginam bormisan omon?
[3,309]

Ushbu she’riy parcha “Uyg‘on so‘zin aytgach” nomli she’ridan olingan bo‘lib, umumiy mazmuni va badiiy qurilishi jihatidan insoniy munosabatlar, axloqiy tanazzul hamda ruhiy iztiroblarni aks ettiruvchi chuqur falsafiy matn sifatida namoyon bo‘ladi. Matnning markazida insonning ichki kechinmalari, jamiyatdagi ishonchning yemirilishi va ayniqsa, ona obrazi orqali ifodalangan iztirob turadi.

Avvalo, she’rning g‘oyaviy yo‘nalishiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, unda hayotiy haqiqatlarning ochilishi, ya’ni yashirin sirlarning bir kun fosh bo‘lishi g‘oyasi ilgari suriladi. Bu jarayon orqali insonlarning asl qiyofasi, ularning ma’naviy darajasi ochib beriladi. Shoir insoniy qadriyatlarning buzilishi, yaqinlar o‘rtasidagi xiyonat va mehr-oqibatning yo‘qolib borayotganini tanqidiy ruhda ifodalaydi. Ayniqsa, insonning o‘ziga yaxshilik qilgan yoki uni voyaga yetkazgan muhitga nisbatan noshukurligi keskin baholanadi.

She’rda badiiy ifoda vositalarining muhim o‘rni bor. Xususan, metafora asosiy tasviriy vosita sifatida keng qo‘llanilgan. Metaforik obrazlar orqali muallif hayotiy voqelikni bevosita emas, balki ramziy shaklda ifodalaydi. Bu esa she’rning estetik ta’sirchanligini oshiradi. “Sirlar sandig‘i” ko‘chimi orqali shoira yashirin ma’noni o‘zida mujassam etib, o‘quvchini chuqur mushohadaga undaydi.

Mashhur munaqqid Ozod Sharafiddinov Halima Xudoyberdiyeva ijodi haqida shunday yozadi: “Halima bugun she’rlarida haqiqat va adolat jarchisi bo‘lib qoldi. Uning she’rlarida hayot fojialari, dramalari bilan ifodalansa-da, mardonavor ruhni yo‘qotgan emas. Halimaning she’riyati bizni bedorlikka chaqiradi, vijdonimizni uyg‘otadi. Vujudimizdan loqaydlik balosini siqib chiqarishga yordam beradi. Bu she’riyat ko‘p yillar mobaynida kirlangan ruhimizni poklashga va butlashga xizmat qiladi”. [3,14] Mazkur she’riy parcha badiiy ko‘chimlarga boyligi, chuqur falsafiy mazmuni va kuchli emotsional ta’siri bilan ajralib turadi. Unda metafora va metonimiya vositasida insoniy munosabatlar, xiyonat, hayotiy sinovlar va ona mehrining beqiyosligi yuksak badiiy saviyada ifodalangan. She’r o‘quvchini nafaqat estetik zavqqa chorlaydi, balki uni hayot, inson va axloqiy qadriyatlar haqida jiddiy mushohada yuritishga undaydi. Yoki “Tilak” she’riga e’tibor qarataylik:

Osmonda oftob o‘lsin,
Ko‘lda mayi – nob o‘lsin.
Qabohatning kitobi,
Yirtilsin, bob-bob o‘lsin.
Pirning chin pirligini.
Ko‘rmasa, ayb yo‘q, ko‘rib,
Tan olmay tursa murid
Xor o‘lsin, xarob o‘lsin.[3,309]

She’rning sarlavhasini ko‘rib, unda ijobiy munosabat ifodalanayotganligini his qiladi. Biroq ushbu she’riy qarg‘ish ohangida yaratilgan. Mazmunan axloqiy-falsafiy ruhda yozilgan bo‘lib, unda insoniy poklik, haqiqat, ustoz-shogird munosabatlari va yomonlikka qarshi keskin munosabat ifodalangan. Matnning badiiy qimmati esa, asosan, unda qo‘llangan badiiy ko‘chimlar – metafora, metonimiya hamda ramziy obrazlar orqali yuzaga chiqadi.

Avvalo, she’rda metafora yetakchi badiiy vosita sifatida namoyon bo‘ladi. “Osmonda oftob o‘lsin” ifodasida “oftob” so‘zi faqat quyosh ma’nosida emas, balki yorug‘lik, haqiqat va poklik ramzi sifatida ishlatilgan. Bu yerda shoir haqiqatning ustuvor bo‘lishini tilaydi. Xuddi shuningdek, “ko‘lda mayi nob o‘lsin” birikmasida “may” (sharob) tasavvufiy va badiiy an’anaga ko‘ra ruhiy poklanish, ilohiy ishq yoki ma’naviy zavq timsoli sifatida talqin qilinadi. Demak, bu misralarda tabiiy hodisalar orqali ma’naviy tushunchalar ifodalanmoqda. “Qabohatning kitobi yirtilsin” ifodasida ham kuchli metaforik ma’no mavjud. Bu obraz orqali shoir jamiyatda yomonlikka o‘rin bo‘lmasligi kerakligini keskin ohangda ifodalaydi.

She’rda metonimiya unsurlari ham uchraydi. Masalan, “pir” va “murid” tushunchalari aniq shaxslarni emas, balki umumlashgan ijtimoiy va ma’naviy qatlamni bildiradi. “Pir” – ustoz, yo‘l ko‘rsatuvchi, haqiqat egasi timsoli bo‘lsa, “murid” – unga ergashuvchi, bilim va haqiqat izlovchi inson obrazidir. Bu yerda shaxslar emas, balki ular ifodalagan maqom va munosabatlar nazarda tutilgan.

Shuningdek, she’rda kuchli ramziylik mavjud. Undagi barcha asosiy obrazlar oftob, may, kitob, pir, murid bevosita ma’nodan tashqari, kengroq ma’naviy-falsafiy mazmunni anglatadi. Bu esa matnni ko‘p qatlamli qiladi va uni chuqurroq talqin etishga imkon beradi. Badiiy jihatdan yana bir muhim xususiyat badiiy takrorlar va ohangdorlikdir. “O‘lsin” so‘zining takroran qo‘llanishi she’rga keskinlik, qat’iylik va ta’sirchanlik bag‘ishlaydi. Bu usul orqali shoir o‘z munosabatini aniq va murosasiz tarzda ifodalaydi. Mazmuniy jihatdan she’r axloqiy hukm xarakteriga ega. Unda haqiqat va poklik ulug‘lanadi, yomonlik va qabohat rad etiladi, ustozni tanimaslik, haqiqatni inkor etish kabi jihatlar qattiq qoralanadi.

Adabiyot–ko‘ngil uchun ishlaydi. Uni dag‘allashib, toshga aylanib ketishdan saqlaydi. U odamlarni mehr-muhabbatga o‘rgatadi. Bir-biridan teskari tomonga emas, bir-biriga peshvoz yurishga undaydi. Peshvoz yurganda ham birinchi qadamni ikkilanmay o‘zing tashlashing kerakligiga o‘rgatadi. Qanday sevish, qanday yashash kerakligini o‘rgatib oqayotgan toza daryo suvlaridan ichmay yashab bo‘ladimi?!”, – deb yozadi shoiraning o‘zi. [4,1] Ushbu fikrlarni o‘qib, Cho‘lponning “Hech to‘xtamasdan harakat qilub turg‘on vujudimizga, tanimizga suv-havo ne qadar zarur bo‘lsa, maishat yo‘lida har xil qora kirlar ila kirlangan ruhimiz uchun ham shul qadar adabiyot kerakdir” [5,1] degan purhikmat jumlalarini yodga olish mumkin. Ruhi tafakkurning Halima Xudoyberdiyeva ijodida betakrorligini, balandligini ochiqlash imkonini beradi.

Qon asalan yorug‘lik .Yorug‘lan, tiz cho‘k.
Asl mard Vatanga tiz cho‘kib o‘tar.
Qancha qoning bo‘lsa, Vatan uchun to‘k,
Qancha shoning bo‘lsa – Vatanni ko‘tar![3,3]

“To‘marisning aytgani” kitobidan olingan “Da’vat” she’ridagi misralar yuksak vatanparvarlik ruhida yozilgan bo‘lib, unda insonning Vatanga sadoqati, fidoyiligi va ma’naviy jasorati badiiy ko‘chimlar orqali ta’sirchan ifodalangan. Matnning g‘oyaviy markazida Vatan oldidagi burchni ulug‘lash, uni himoya qilish va yuksaltirish g‘oyasi turadi.

She’rda qon asalan “yorug‘lik” ifodasi kuchli metaforik mazmunga ega bo‘lib, unda “qon” fidoyilik, qurbonlik timsoli, “yorug‘lik” esa ozodlik, kelajak, nurli hayot ramzi sifatida talqin qilinadi. Bu ikki tushunchaning birikishi orqali shoir Vatan ravnaqi va yorug‘ kelajak insonlarning qurbonligi evaziga bunyod bo‘lishini anglatadi. Ya’ni yorug‘lik bevosita fidoyilik natijasidir.

“Tiz cho‘k” ifodasi ham ko‘chma ma’noda qo‘llanib, oddiy harakatni emas, balki chuqur hurmat, ehtirom va sadoqatni bildiradi. Bu yerda tiz cho‘kish, Vatan oldida bosh egish, unga xizmat qilishga tayyorlik ramzi sifatida keladi. Ayniqsa, “asl mard Vatanga tiz cho‘kib o‘tar” jumlasida bu obraz yanada chuqurlashib, haqiqiy jasorat faqat jang qilishda emas, balki Vatanga sadoqat bilan xizmat qilishda ekanligi ifodalanadi.

“Vatanni ko‘tar” metonimiyasida milliy g‘urur va mardlik tuyg‘ularini jo‘sh urdiradi. “Vatan” obrazi oddiy geografik hudud emas, balki muqaddas qadriyat, milliy o‘zlik va tarixiy meros timsoli sifatida talqin etiladi. Shoir Vatan uchun qon to‘kishni uni himoya qilish, shon bilan ko‘tarishni esa, uni rivojlantirish va ulug‘lash ma’nosida ishlatadi. She’rning sintaktik qurilishida buyruq ohangi (“yorug‘lan”, “tiz cho‘k”, “to‘k”, “ko‘tar”) ustun bo‘lib, bu uning ruhiy ta’sirini yanada kuchaytiradi. Bu usul orqali shoir o‘quvchini faol pozitsiyaga chorlaydi, uni befarq bo‘lmaslikka undaydi.

Umuman olganda, badiiy ko‘chimlarning turli ko‘rinishlari shoira ijodida uchraydi. Ayniqsa, metafora va metonimiyaga asoslangan badiiy ko‘chimlar, keng miqyosida qo‘llanilganligini uchratishimiz mumkin. Bular badiiy-estetik ta’sirni oshirishga xizmat qilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари.– Т.: Ўзбекистон нашриёри, 2002. Б. 323.
2.Quronov D. Adabiyotshunoslik nazariyasi.– T.: Navoiy universiteti, 2018. 480-b.
3.Ҳудойбердиева Ҳалима. Танланган асарлар. (Сўзбоши.Жонфидолик)– Т.: Шарқ, 2020. Б. 14.
4.https://kh-davron.uz/yangiliklar/muborak-kin/halima-xudoyberdiyeva-eng-qora-isheng-toza-ish-bizning-ishimiz.html
5.https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/abdulhamid-cholpon-adabiyot-nadir.html

Saodat MUMINOVA,
Qarshi davlat universiteti
filologiya fanlari nomzodi, dotsent

FAXRIYOR SHE'RLARIDA MENTALLIK MASALASI

Annotatsiya: mazkur maqolada iste'dodli shoir Faxriyor she'rlari modernistik tamoyillar nuqtayi nazaridan tahlilga tortiladi.

Kalit so'zlar: dunyoqarash, uslub, ifoda, voqelik, hissiyot, tasavvur, ong, shakl, tuyg'u, tasvir, qatlamlilik.

Аннотация: в данной статье анализируются стихи талантливого поэта Фахриёра с точки зрения модернистских принципов.

Ключевые слова: *мировоззрение, стиль, выражение, реальность, эмоция, воображение, сознание, форма, чувство, образ, многослойность.*

Annotation: this article analyzes the poems of the talented poet Fakhriyor from the point of view of modernist principles.

Key words: *worldview, style, expression, reality, emotion, imagination, consciousness, form, feeling, image, layering.*

Zamonaviy o'zbek she'riyati muhim hayotiy hodisalarni tasvirlash va dolzarb muammolarni aks ettirishdan ko'ngil manzaralarini tasvirlash va ruhiy holatlarni moddiylashtirish pallasiga o'tdi. XIX asr oxiri–XX asr boshlarida Yevropada vujudga kelgan va keng tarqalgan modernizm yo'nalishi o'zbek she'riyatiga ham kirib keldi. Ushbu yo'nalishda ijod qilayotgan shoirlar auditoriyasi kun sayin kengayib bormoqda. Bu jarayonda Faxriyor ijodi alohida ahamiyat kasb etadi. Uning "Dardning shakli" to'plamida inson ongi, dunyoqarashi va voqelikni qabul qilish shakllari o'ziga xos badiiy tizimda ifoda etilgan. Ayniqsa, shoir she'riyatida mentallik masalasi muhim estetik kategoriya sifatida namoyon bo'ladi.

Ma'lumki, modern she'rlar an'anaviy she'rlardan obrazlar ko'lami, falsafiy teranlik, shakliy erkinlik va ruhiy kechinmalarning murakkab tasviri bilan farq qiladi. Faxriyor she'rlarini o'qiganimizda xuddi ana shu xususiyatlarning guvohi bo'lamiz. Shoirning "...bitganlari milliy she'riyatimiz taraqqiyotining shunday darajasidadirki, uni bilmaslik estetik va ma'naviy qiyofaning kemtikligiga olib kelishi mumkin". [1.316] Darhaqiqat, Faxriyor hozirgi davr o'zbek she'riyatining rivojlanish xususiyatlarini belgilashda alohida qimmatga ega.

Mentallik – bu ayrim shaxs, ijtimoiy guruh, millat yoki xalqqa xos bo'lgan o'ziga xos dunyoqarash, fikrlash tarzi, ruhiy holat, qadriyatlar va xulq-atvor majmuidir. Oddiy qilib aytganda, mentallik bu insonlarning atrofdagi olamni qanday qabul qilishi, hayotiy voqealarga qanday munosabatda bo'lishi va qanday qarorlar qabul qilishini belgilab beruvchi "yashirin dastur"dir.

Faxriyor ijodida mentallik, avvalo, modernistik tafakkur bilan belgilanadi. Modernizmda an'anaviy realizmdan farqli ravishda voqelik to'g'ridan to'g'ri emas, balki subyektiv ong orqali ifoda etiladi. T.S.Eliot modernistik poeziyada subyektiv voqelik emas, balki his etilayotgan voqelik muhim ekanligini ta'kidlagan. [1] Karl Yung esa, inson ongini kollektiv va individual qatlamlarga ajratib, badiiy ijodda ong osti jarayonlarining ahamiyatini ta'kidlagan. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, Faxriyor she'riyatida mentallik nafaqat milliy, balki individual-ijodiy va universal xususiyatga egadir. Shoirning "Aksilfalsafa" she'rini olaylik:

Makon yo'q.
Zamon bor.
Bordir zamonda
Ijaraga turgan moddiyun avlod.
Zamonga boqmagan avlod o'zidan
Xudo tortib olgan makonni
Qaytarib berishni so'rar dahodan.
Uning qo'lida g'oya bor.
Biroq daho tangri emasdir.
Tirikchilik qilib bo'lmas g'oyada.
U bugun makon emas,
Zamon ham emasdir boqqaning bilan. [3.3]

She'r mazmunidagi fikr an'anaviy falsafiy kategoriyalarning inkorini anglatadi. Bu yerda makon va zamon o'rtasidagi klassik munosabat buziladi va vaqt absolyutlashtiriladi. Bu holat modernistik mentallikning asosiy belgisi barqaror tushunchalarning nisbiylashuvini ko'rsatadi. Dastlabki misra she'rning markaziy paradoksini ochadi. *Makon* – bu faqat geografik hududni anglatmaydi. Makon – insonning kindik qoni tomgan vatan, ma'naviy tayanchimiz, ruhiy orom beradigan go'shamiz, ota-bobolarimiz yashab o'tgan tarixiy ildiz, qolaversa, insonning o'ziga tegishli bo'lgan borliqdagi o'rnini anglatadi. Shoir

“Makon yo‘q” deganida insonning o‘z ildizidan uzilganligini, ma’naviy markaz bo‘shashganligini, yashash joyi emas, unga hukmronlik hissi yo‘qolib borayotganligidan xavotirini ifodalagan. *Zamon bor* degan misrada esa vaqt oqimi davom etayotganini, ya’ni tarix davom etyapti, muntazam hayot o‘z oqimida oqyapti, qisqasi tong otib, kun botyapti. Ammo inson cheksiz muazzam hayotda o‘zini makonsiz, cheksizlik aro tor kulbada siqilgandek his qilmoqda. Bu yerda modernistik kayfiyat ustuvor: inson vaqt ichida yashaydi, ammo o‘ziga tegishli makonsiz. Ya’ni o‘z holiga tashlab qo‘yilgan.

She’r matnida “Ijaraga turgan moddiyun avlod” degan metaforada o‘z vatanining egasi bo‘lmagan avlod tushunchasini ifodalagan. “Moddiyun’ so‘zida ruhiyatdan uzilgan, ma’naviyatdan ko‘ra moddiyatni tanlagan avlod nazarda tutilgan. Bu esa, shoirning sho‘ro davrida shakllangan avlod haqida qayg‘urish hissini ko‘rsatadi. Bunday avlodda vatan bor, ammo unga egalik hissi yo‘q, hayot bor, lekin unda mazmun yo‘q. “Zamonga boqmagan avlod” misrasi orqali ana shunday kimsalarni tanqid qiladi. Tarixdan ma’lumki, davr ruhini, jamiyat tartibotlarini anglamagan avlod inqirozga yuz tutadi. Albatta, buning bosh sababi ichki muammolarda, tanazzulda. Demak, makonning yo‘qolishi ruhan yemirilish oqibati. Ammo ma’naviy inqirozga uchragan avlod aybni o‘zidan izlamaydi. O‘zini isloh qilishga harakat qilmaydi, najotni allaqanday daholardan, qahramonlardan kutadi. U mutelik qobig‘iga kirib qolgan. Xuddiki, bir buyuk odam kelib hammasini tuzatadi, degan puch xayolda yashaydi. O‘zi uyg‘onmasligi, harakat qilmasligi nihoyatda tragik holatdir. Albatta, tarix g‘ildiragini buyuk shaxslar aylantiradi, ammo fikr, g‘oya, yo‘lboshchilik bo‘lgani bilan ular ham xudo emas, oddiy banda maqomidadir. Shoir ana shunday qilib, dahoni insoniy chegaraga qaytaradi. Bu nimani anglatadi? Hech bir inson insoniyatni qutqara olish qudratiga ega emas. Daholar g‘oya beradi, yo‘lboshchilik qiladi. Ammo “Tirikchilik qilib bo‘lmas g‘oyada”. Ushbu misralarda achchiq realizm aks ettirilgan. Bu misrada idealizm bilan realizm to‘qnashadi. Shoirning fikricha, faqat g‘oya bilan jamiyat qurib bo‘lmaydi. Jamiyatning iqtisodiy tizimini ham baquvvat qilish lozim. Demak, muammo faqat makon yoki zamon masalasi emas, insonning ichki olamining bo‘shlig‘idadir, degan ekzistensial yakunga keladi.

Shoir she’r misralari orqali jamiyatning og‘riqli haqiqatlarini aytadi. She’r yakunida insonga makonni kim beradi? degan savol qo‘yiladi. Va haqli ravishda hech kim degan xulosaga keladi. Shu sababli she’r fojiali, ammo juda katta falsafiy uyg‘otuvchi kuchga ega.

Faxriyor she’riyatida irratsionallik muhim o‘rin tutadi. Bu holat uning “Yoziq” deb nomlangan she’rida namoyon bo‘ladi. Asarda voqelik mantiqiy tartibda emas, balki assotsiativ tarzda rivojlanadi:

Gulning kosasiga quyib ichar Vaqt
meni — limmo-lim.
Jonim qurbaqaga aylanadi:
VAQQ!
Kim?
Devmikin, jonimni qirq farishtaga
nimtalab nonushta hozirlayotgan.

Ushbu she’r modern va syurrealistik obrazlarga boy bo‘lib, inson ruhiyati, vaqt, qo‘rquv, yolg‘izlik va metafizik iztirobni ifoda etadi. Matnda an’anaviy mantiqiy izchillikdan ko‘ra hissiy va ramziy tasavvur ustun. Shuning uchun uni “syujet” emas, obrazlar zanjiri orqali anglash muhim. She’r misralarida lirik qahramon vaqt qarshisidagi ojizlikni, ruhiy yemirilishni va insonning ichki parchalanishini his qiladi. Vaqt uni “ichib yuborayotgan” kuch sifatida tasvirlangan:

Gulning kosasiga quyib ichar Vaqt
Meni – limmo-lim.

Bu yerda “gulning kosasi” – go‘zallik, hayot yoki buyuk mavjudlik ramzi. Vaqt esa insonni asta-sekin “ichib tugatuvchi’ maxluq tarzida berilgan. “Limmo-lim” so‘zi inson his-tuyg‘ulari to‘lib-toshgan holatni anglatadi. “Jonim qurbaqaga aylanadi; VAQQ”. Ruhning botqoqda yashaydigan qurbaqaga aylanishi insonning ma’naviy tanazzuli yoki vahimali holatini ko‘rsatadi. “VAQQ!” degan tovush she’r ritmini buzib, ichki qichqiriqni kuchaytiradi. Bu yerda inson o‘z insoniy qiyofasini yo‘qotib, tabiatning qorong‘i qatlamiga tushib ketadi.

Xulosa qilib aytganda, Faxriyor she’rlarida mentallikning turli ko‘rinishlari uchraydi. Shoir o‘z hissiyotlarini, fikrlarini erkin assotsiatsiyalar asosida bayon qiladi. She’rlari o‘quvchida tayyor ma’no emas, hissiy holat uyg‘otadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Yo‘ldoshev Q. Yoniq so‘z. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2006. 316-bet.
2. T.S. Eliot. The Sacred Wood. – P. lOO
3. Faxriyor. Dardning shakli. – Toshkent: Yozuvchi nashriyoti, 1997.
4. Hamdamov U. Jahon adabiyoti: Modernizm va postmodernizm (o‘quv qo‘llanma) – T.: “Akademnashr”, 2020.

Shohsanam BOBOJONOVA,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti dotsenti;
Mahliyo XUSHVAQTOVA,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
O‘zbek tili va adabiyot yo‘nalishi
2-kurs magistr talabasi

DOSTON JANRINING NAZARIY ASOSLARI VA O‘ZBEK ADABIYOTIDAGI O‘RNI

Annotatsiya: ushbu maqolada doston janrining nazariy asoslari, uning badiiy xususiyatlari hamda o‘zbek adabiyotidagi o‘rni tahlil qilinadi. Dostonlarning xalq og‘zaki ijodi va yozma adabiyot taraqqiyotidagi ahamiyati, ularning g‘oyaviy-badiiy jihatlari yoritiladi. Shuningdek, o‘zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotida doston janrining rivojlanish bosqichlari haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: *doston, epik janr, xalq og‘zaki ijodi, o‘zbek adabiyoti, baxshichilik, qahramonlik dostoni, lirik-epik asar, folklor, badiiy obraz.*

Аннотация: в данной статье анализируются теоретические основы жанра дастана, его художественные особенности и место в узбекской литературе. Освещается значение дастанов в развитии устного народного творчества и письменной литературы, а также их идейно-художественные особенности. Кроме того, рассматриваются этапы развития жанра дастана в узбекской классической и современной литературе.

Ключевые слова: *дастан, эпический жанр, устное народное творчество, узбекская литература, бахшичество, героический дастан, лиро-эпическое произведение, фольклор, художественный образ.*

Annotation: this article analyzes the theoretical foundations of the epic genre “doston,” its artistic features, and its role in Uzbek literature. The importance of dostons in the development of folklore and written literature, as well as their ideological and artistic characteristics, are highlighted. In addition, the stages of development of the doston genre in classical and modern Uzbek literature are discussed.

Key words: *doston, epic genre, folklore, Uzbek literature, baxshi tradition, heroic epic, lyric-epic work, artistic image.*

Kirish

O‘zbek xalqining boy ma’naviy merosida doston janri alohida o‘rin egallaydi. Dostonlar xalqning tarixiy xotirasi, orzu-intilishlari, qahramonlik va vatanparvarlik tuyg‘ularini aks ettiruvchi yirik epik asarlardir. Ushbu janr asrlar davomida xalq og‘zaki ijodi asosida shakllanib, keyinchalik yozma adabiyot rivojiga ham katta ta’sir ko‘rsatgan. Dostonlarda xalqning urf-odati, turmush tarzi, ijtimoiy munosabatlari va axloqiy qarashlari badiiy ifoda etiladi.

Bugungi kunda dostonlarni o‘rganish nafaqat adabiyotshunoslik, balki milliy madaniyat va tarixni anglashda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois mazkur maqolada doston janrining nazariy asoslari va o‘zbek adabiyotidagi o‘rni haqida atroflicha so‘z yuritiladi.

Doston janrining nazariy asoslari

Doston — epik turga mansub yirik hajmli badiiy asar bo‘lib, unda muayyan voqealar tizimi, qahramonlar hayoti va jamiyatdagi muhim hodisalar tasvirlanadi. Dostonlar ko‘pincha she’riy shaklda yaratiladi, ayrim hollarda nasriy parchalar ham uchraydi. Ular baxshilar tomonidan dutor yoki boshqa xalq cholg‘ulari jo‘rligida ijro etilgan.

Adabiyotshunoslikda dostonlar mazmuniga ko‘ra bir necha turlarga bo‘linadi:

- qahramonlik dostonlari;
- ishqiy-romantik dostonlar;
- tarixiy dostonlar;
- diniy-falsafiy dostonlar.

Qahramonlik dostonlarida xalqning ozodlik kurashi, mardlik va jasorat madh etiladi. Ishqiy dostonlarda esa sevgi, sadoqat va insoniy tuyg‘ular asosiy mavzu hisoblanadi.

Doston janrining asosiy xususiyatlari quyidagilar:

1. Voqealarning keng qamrovda tasvirlanishi;
2. Qahramon obrazining markaziy o‘rin egallashi;
3. Xalqona til va badiiy tasvir vositalarining boyligi;
4. Musiqiylik va og‘zaki ijro an’anasi bilan bog‘liqligi;
5. Tarbiyaviy va ma’naviy ahamiyatga egaligi.

O‘zbek adabiyotida doston janrining rivoji

O‘zbek xalq og‘zaki ijodida “Alpomish”, “Go‘ro‘g‘li”, “Kuntug‘mish”, “Rustamxon” kabi dostonlar alohida o‘rin tutadi. Ayniqsa, Alpomish dostoni xalqning mardlik, vatanparvarlik va sadoqat haqidagi qarashlarini o‘zida mujassam etgan eng yirik epik asarlardan biridir.

Yozma adabiyotda ham doston janri keng rivojlangan. Alisher Navoiyning “Xamsa” asari tarkibidagi dostonlar Sharq adabiyotining nodir namunalaridan sanaladi.

Xususan, “Farhod va Shirin” hamda “Layli va Majnun” dostonlarida sevgi, insonparvarlik va komillik g‘oyalari yuksak badiiy mahorat bilan ifodalangan.

XX asr o‘zbek adabiyotida ham dostonchilik an’analari davom etdi. Hamid Olimjon, Erkin Vohidov va boshqa ijodkorlar tomonidan zamonaviy ruhdagi dostonlar yaratildi. Bu asarlarda xalq hayoti, istiqlol g‘oyalari va inson qadr-qimmati tasvirlandi.

Dostonlar yosh avlodni vatanparvarlik, jasorat, insoniylik va sadoqat ruhida tarbiyalashda muhim vosita hisoblanadi. Ularda ezgulik va yovuzlik kurashi orqali axloqiy g‘oyalar ilgari suriladi. Shu sababli dostonlar nafaqat adabiy yodgorlik, balki xalq pedagogikasining muhim qismi hamdir.

Bugungi globallashuv davrida milliy qadriyatlarni asrash va yoshlar ongiga singdirishda dostonlarni o‘rganishning ahamiyati yanada ortmoqda.

Doston janrining shakllanishi va taraqqiyoti

Doston janri insoniyatning eng qadimgi adabiy janrlaridan biri hisoblanadi. U dastlab xalq og‘zaki ijodi asosida yuzaga kelgan bo‘lib, xalqning tarixiy hayoti, urf-odatlari, dunyoqarashi va orzu-intilishlarini aks ettirgan. O‘zbek xalq dostonlari asrlar davomida baxshilar tomonidan og‘zaki ravishda avloddan-avlodga yetkazilgan. Baxshilar dostonlarni dutor jo‘rligida kuylab, xalq orasida keng targ‘ib qilganlar. Shu sababli dostonlar nafaqat adabiy, balki musiqiy va ijrochilik san’ati bilan ham chambarchas bog‘liqdir.

Dostonlarning yuzaga kelishida xalqning tarixiy kurashlari, ijtimoiy hayoti va qahramonlik voqealari muhim rol o‘ynagan. Ayniqsa, xalqning mustaqillik va ozodlik uchun olib borgan kurashlari qahramonlik dostonlarining paydo bo‘lishiga sabab bo‘lgan. Bu jihatdan dostonlar xalq tarixining badiiy solnomasi vazifasini ham bajaradi.

Doston janrining badiiy xususiyatlari

Dostonlarning asosiy belgilaridan biri — voqealarning keng va batafsil tasvirlanishidir. Ularda qahramonlarning hayoti, ruhiy kechinmalari, jamiyatdagi voqealar ketma-ketlik asosida bayon qilinadi. Dostonlarda ko‘pincha mubolag‘a, tashbeh, sifatlash, takror va boshqa badiiy tasvir vositalaridan keng foydalaniladi. Bu esa asarning ta’sirchanligini oshiradi. Dostonlarda bosh qahramon obrazi markaziy o‘rinda turadi. U jasur, mard, vatanparvar va xalq manfaatini himoya qiluvchi inson sifatida tasvirlanadi. Masalan, Alpomish dostonidagi Alpomish obrazi o‘zbek xalqining ideal qahramoni sifatida gavdalanadi. U kuch-qudrati, sadoqati va matonati bilan ajralib turadi.

Bundan tashqari, dostonlarda xalqona tilning qo‘llanishi muhim ahamiyatga ega. Maqollar, matallar, hikmatli so‘zlar va xalq iboralari asarning badiiy qiymatini oshiradi. Shu bilan birga, dostonlarda she’riy va nasriy parchalar uyg‘un holda kelishi ham kuzatiladi. Bu turdagi dostonlarda xalqning ozodlik uchun kurashi, jasorat va mardlik ulug‘lanadi. Qahramonlik dostonlari xalqning milliy ruhini aks ettiradi. “Alpomish”, “Go‘ro‘g‘li” kabi asarlar shular jumlasidandir.

Ishqiy-romantik dostonlar

Bu dostonlarda sevgi, sadoqat, hijron va visol mavzulari asosiy o‘rin tutadi. Qahramonlarning ichki kechinmalari va muhabbat yo‘lidagi kurashlari tasvirlanadi. “Layli va Majnun” bunga yorqin misol bo‘la oladi.

Tarixiy voqealar va real shaxslar faoliyati tasvirlangan dostonlar tarixiy dostonlar deyiladi. Bu turdagi asarlar xalqning o‘tmishi haqida muhim ma’lumot beradi. Bunday dostonlarda diniy qarashlar, axloqiy g‘oyalar va falsafiy mushohadalar ifodalanadi. Ularda insonning ma’naviy kamoloti masalalari yoritiladi.

O‘zbek mumtoz adabiyotida doston janri

O‘zbek yozma adabiyotida doston janri ayniqsa mumtoz davrda yuksak taraqqiyotga erishdi. Alisher Navoiy dostonchilikni yangi bosqichga olib chiqdi. Uning mashhur Xamsa asari tarkibiga kiruvchi besh doston Sharq mumtoz adabiyotining nodir namunasi hisoblanadi.

“Farhod va Shirin” dostonida chin muhabbat, mehnatsevarlik va fidoyilik g‘oyalari ilgari suriladi. Farhod obrazi orqali insonning matonati va sevgiga sadoqati yuksak badiiy mahorat bilan tasvirlangan.

“Sab’ai sayyor” ham o‘zining chuqur falsafiy mazmuni va badiiy mukammalligi bilan ajralib turadi. Bu dostonlarda insoniy fazilatlar, adolat va komillik masalalari asosiy mavzu sifatida yoritilgan.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, doston janri o‘zbek adabiyotining eng qadimiy va sermazmun janrlaridan biri hisoblanadi. U xalqning tarixiy xotirasi, ma’naviy qadriyatlari va badiiy tafakkurini o‘zida mujassam etadi. Dostonlar xalq og‘zaki ijodi va yozma adabiyot taraqqiyotiga katta hissa qo‘shgan. Ularning tarbiyaviy, estetik va ma’naviy ahamiyati bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan. Shu bois dostonlarni chuqur o‘rganish va yosh avlodga yetkazish muhim vazifalardan biri bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alisher Navoiy. *Xamsa*. — Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot.
2. Alpomish. — Toshkent: Sharq nashriyoti.
3. Izzat Sulton. *Adabiyot nazariyasi*. — Toshkent: O‘qituvchi, 2005.
4. To‘ra Mirzayev. *O‘zbek xalq og‘zaki ijodi*. — Toshkent, 2010.
5. N. Mallayev. *O‘zbek adabiyoti tarixi*. — Toshkent: O‘qituvchi, 1976.

Zarina NORBOYEVA,
Turon universiteti
O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi o‘qituvchisi

MUNOZARA JANRIDA DRAMATIZM

Annotatsiya: mazkur maqolada dramatik asarga xos syujet qurilishi, konflikt va dramatik birliklar haqidagi nazariy tamoyillar tahlilga tortiladi. Shuningdek, mumtoz o‘zbek adabiyotida shakllangan munozara janrining poetik xususiyatlari, uning dialogik tabiati va ushbu janrda dramatik unsurlarning mavjudligi tahlil etilib, drama bilan o‘zaro aloqadorligi yoritiladi. Maqolada an’ana va yangilik uyg‘unligi, janrlararo sintez va estetik transformatsiya masalalari ilmiy asosda ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, mumtoz meros va zamonaviy sahna san’ati o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ochib berish maqsad qilingan.

Kalit so‘zlar: *drama, syujet, dramatizm, zamonaviy talqin, munozara janri, dialog, monolog, konflikt, janrlararo sintez, harakat*

Annotation: this article analyzes theoretical results on the plot structure, conflict and dramatic unity inherent in a dramatic work. The poetic features of the genre of discussion, formed in classical Uzbek literature, the dialogic nature and the specific dramatic problems of this genre are analyzed, and its connection with dramaturgy is highlighted. The article examines the issues of harmony of tradition and innovation, intergenre synthesis and aesthetic transformation on a scientific basis. , the goal is to reveal the specific stage connection between the distant classical heritage and modern art.

Key words: *drama, plot, dramatism, modern interpretation, argumentative genre, dialogue, monologue, conflict, intergenre synthesis, action*

Аннотация: в данной статье анализируются теоретические результаты исследований структуры сюжета, конфликта и драматического единства, присущих драматическому произведению. Рассматриваются поэтические особенности жанра дискуссии, сформировавшегося в классической узбекской литературе, диалогический характер и специфические драматические проблемы этого жанра, а также подчеркивается его связь с драматургией. Статья исследует вопросы гармонии традиции и новаторства, межжанрового синтеза и эстетической трансформации на научной основе, с целью выявления специфической сценической связи между далеким классическим наследием и современным искусством.

Ключевые слова: *драма, сюжет, драматургия, современная интерпретация, аргументативный жанр, диалог, монолог, конфликт, межжанровый синтез, действие*

Dramaturgiya nazariyasining shakllanishi qadimgi davr estetik tafakkuri bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, ushbu turga oid asarlarda syujet qurilishi, konflikt va dramatik birliklar masalasi tadqiqi Arastu “Poetika”sidan boshlab chuqur tadqiq etilgan. Mazkur asar nafaqat o‘z davri, balki keyingi davrlar dramaturgiyasi tadrijiy taraqqiyotida ham o‘ziga xos metodologik manba bo‘lib xizmat qilib kelmoqda. Drama nazariyasiga oid ko‘pgina tadqiqot ishlarining tub negizi ushbu asar maqsad va vazifalari bilan bog‘lanishi ayondir. Ma’lumki, dramatik turning o‘ziga xosligi voqelikni badiiy umumlashtirishda syujetning markaziy o‘rinda turishi, harakat va qarama-qarshilikning uzviyligi kabilarda namoyon bo‘ladi. Dramatik asarlarda harakatning keskinlik va o‘tkirlik bilan rivojlanishi badiiy ijodning eng muhim qonuniyatlaridan biridir. Drama tabiatan sahnaviy janr bo‘lganligi bois unda voqea-hodisalar izchil holda, ayni paytda tezkor tabiatli va ziddiyatlarga boy tarzda kechadi. Aynan shu jihat dramani epik yoki lirik janrlardan ajratib turadi. Dramaning o‘ziga xosligi haqida gapirilganda, avvalo, dramatik harakat haqida so‘z boradi. Dramatik harakat asar ichidagi voqealar rivoji, qahramonlar o‘rtasidagi munosabatlar va ziddiyatlarning bosqichma-bosqich ochilib borishi alohida ta’kidlanadi. Bu jarayon oddiy tasvir yoki bayon bilan emas, balki keskin to‘qnashuvlar vositasida ifodalanadi. Har bir sahna, har bir dialog muayyan maqsadga xizmat qilib, umumiy dramatik manzara hosil qiladi. Adabiyotshunos Erkinjon Xudoyberganov adabiy turlar haqida fikr yurita turib, dramatik turning quyidagi xususiyatlariga alohida urg‘u beradi: “…Mazkur turga mansub asarlarda harakat dramatik tarzda, ya’ni keskinlik, o‘tkirlik kasb etgan holda rivojlanib boradi. Dramaning ikkinchi xususiyati muayyan harakat birligidir…Voqea-hodisalar dramada xuddi hozirning o‘zida bo‘ladigandek ko‘rsatilishi uning uchinchi xususiyatidir”[1]. Shuningdek, drama mazmunini ochishda

1 Xudoyberdiyev E. Adabiyotshunoslikka kirish. O‘qituvchi. –T.,1995. 56-bet

qatnashuvchi shaxslarning so‘zlari va o‘zaro munosabatlari asosiy vazifani o‘tashi haqidagi mulohazalar ham berib o‘tiladi. Bu xususiyat bevosita dialog, monolog tarzida namoyon bo‘ladi. Ayni bu holat dramaning tarixiy janrlar bilan yaqinligini ko‘rsatadi.

Sharq xalqlari adabiyotida keng tarqalgan janrlardan biri munozara janridir. Adabiy istiloh sifatida arabchadan olingan ushbu atama “bahs”, “tortishuv” ma’nolarini anglatadi. Janr sifatida Sharq adabiy muhitida, xususan arab adabiyotida paydo bo‘lgan. Keyinchalik fors-tojik va turkiy adabiyotda keng tarqalgan. Ushbu janrda bahs faqat insonlar o‘rtasida emas, balki jonivorlar, tabiiy hodisalar va hatto mavhum tushunchalar o‘rtasida ham yuzaga chiqadi. Munozara janrining asosiy belgilaridan biri konfliktning mavjudligidir. Ushbu janr tarixiy genezisini tekshirgan tadqiqotchi adabiyotshunos E.Rustamov “O‘z ustunligini ko‘rsatmoqchi bo‘lgan ikki qarama-qarshi tomonning kuchli bahsi, tortishuvi asosida qurilgan badiiy asar”[2] deya ta’kidlaydi. Shuningdek Anvar Hojiahmedov tomonidan ushbu istilohga quyidagicha ta’rif beriladi: “Bahslashish, tortishuv” ma’nosini ifodalovchi ushbu atama ikki tomon o‘rtasida biron muhim masala bo‘yicha bahsni bayon qiluvchi badiiy asarlarning umumiy nomini anglatadi. Adabiyotimizda bunday asarlar ko‘pincha majoz shaklida, ya’ni o‘zaro zid mohiyatga ega bo‘lgan qushlar, hayvonlar, narsalar, buyumlar o‘rtasidagi bahslashuvni aks ettiradi”.[3] Demak badiiy adabiyotda turli janrlar o‘zaro aloqadorlikda rivojlanadi. Yuqoridagilardan kelib chiqib ayta olamizki, drama va munozara janri muayyan yaqinlikdagi ikki turga mansub janrlardir. Bu yaqinlik ikki janrning ichki tuzilishi va badiiy vositalarida ko‘zga tashlanadi. Munozara–bahs va tortishuv asosiga qurilgan badiiy shakl bo‘lsa, drama sahnaviy ifodaga mo‘ljallangan konfliktli asardir. Har ikki janr negizida qarama-qarshilik va dialog yotadi.Ushbu xususiyat ikki janrni birlashtiruvchi nuqtalardir. Drama va munozarani bir umumiy maqsad atrofida yaqinlashtiradigan jihat konfliktning markaziy o‘rin tutishidir. Har ikkisida ham voqelik qarama-qarshi kuchlar to‘qnashuvi orqali rivoj topadi.Munozarada bu ko‘proq tushunchalar vositasida, predmetlar va asosan, jonivorlar o‘rtasidagi bahs shaklida namoyon bo‘lsa, dramada inson xarakterlari va ijtimoiy munosabatlar orqali ifoda etilishi bilan ahamiyatlidir.Ikki janrni yaqinlashtiruvchi muhim omillardan biri dialogning ustuvorligidir. Drama asosan dialog va monologga asoslanadi. Xuddi shunday munozarada ham bahs jarayoni dialog shaklida olib boriladi. Bu esa har ikki janrni “suhbatga asoslangan badiiy tizim” sifatida talqin etish imkonini beradi. Ammo bu xususda V.G.Belinskiyning: “Dramatizm faqat suhbatda emas, balki gapiruvchilarning bir-biriga nisbatan harakatidadir”[4] degan fikrlarini eslash o‘rinlidir. Darhaqiqat, asarlarning mohiyatini anglashda ko‘pincha dialog yetakchi unsur sifatida e’tirof etilish holatlariga ko‘p duch kelamiz. Ayniqsa dramatik asarlarda bu tez-tez quloqqa chalinadi. Ushbu terminning tub ma’nosiga e’tibor qaratish ayni o‘rinli. Izohli lug‘atda keltirilishicha: “Dialog yunoncha di–ikki, logos–so‘z, tushuncha. 1) ikki kishi o‘rtasidagi og‘zaki muloqot, suhbat. 2) Adabiy asarda ikki yoki bir necha personaj o‘rtasidagi gaplashuv, suhbat. 3) Ikki kishi yoki bir necha kishi o‘rtasidagi uzluksiz suhbat, gaplashuv shaklida yozilgan adabiy asar”.[5] Ammo tadqiqotchining fikrlariga tayanadigan bo‘lsak, dramatizmni dialoglar vositasida to‘laqonli tasavvur etib bo‘lmaydi. Aslida dramatizm–bu asar qahramonlarining bir-biriga nisbatan harakati, munosabati va o‘zaro ta’siri natijasida yuzaga keladigan badiiy hodisadir. Ayni o‘rinda shuni ta’kidlash zarurki, sahnada aytilgan har bir so‘z o‘z-o‘zicha emas, balki muayyan bir vaziyat, holat va harakatning uyg‘unligi asosida namoyon bo‘ladi. Yuqorida tilga olingan harakat istilohini esa quyidagicha yoritish mumkin. Bu yerda harakat faqatgina jismoniy harakatni emas, balki psixologik, ijtimoiy va ma’naviy munosabatlarni ham o‘z ichiga oladi. Dramatik asarlarda obrazlarning qarashlari, intilishlari, qaror qabul qilish jarayonlari barchasi dramatizmni shakllantiruvchi omillar sifatida e’tirof etiladi. Demak dialog dramatizmning tashqi ko‘rinishi bo‘lsa, harakat uning ichki mohiyatini tashkil etadi.Munozara janrida ham ayni yuqoridagi xususiyatlarga duch kelinadi. Asarda ishtirok etuvchi obrazlar xoh jonivor, xoh narsa-predmet bo‘lsin o‘z qarashlarining himoyachisi sifatida gavdalantiriladi. Qarshi tomon fikrlarini inkor etadi yoxud ustun kelishga intiladi. Bu jarayon munozarada o‘ziga xos harakatni yuzaga keltiradi.Shu ma’noda munozara ham dramatizm elementlariga ega bo‘lib, ularning asosida g‘oyaviy kurash yotadi. Bu kurash ko‘proq ramziy va allegorik shaklda ifoda etiladi.

Ana shunday asarlardan biri Ahmadiyning “Sozlar munozarasi”dir. Ushbu asarda tanbur, ud, chang, rubob, yotug‘on va qo‘biz kabi musiqa asboblari jonlantirilib, ular o‘zaro suhbatga kirishadi. Har biri o‘z san’ati va imkoniyatini maqtaydi. Ayniqsa tanbur bilan bahsga kirishib, o‘z ustunliklarini isbotlashga urinishlari asar syujetining

2 Abdurahmonova O. Munozara janri tarixi va takomili maqolasi. History and development of Discussion genre. 2020. 39–41-b

3 Hojiahmedov A. Mumtoz badiiyat lug‘ati. Yangi asr avlodi. –T., 2008. 56-b

4 Rizayev Sh.Jadid dramasi. Sharq nashriyot-matbaa konsernining bosh tahririyati. –T.,1997.320-b.

5 Begmatov E, Hojiyev A, Madvaliyev N, Mahmudov N, Mirzayev T, Musayeva F, Odilov Y, Xudayberganova D. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. –T., 2022.

jonliligini oshiradi. Kitobxonning bevosita asar voqealariga qiziqishini orttirib, muallif badiiy niyatiga yaqinroq qiladi. Mazkur asarni drama janri bilan qiyosan o‘rganish maqsadga yaqindir. Chunki “Sozlar munozarasi”da dialog, qarama-qarshilik va obrazlar to‘qnashuvii kabi dramatik unsurlar yaqqol ko‘zga tashlanadi. Avvalo, dramatik asarlarda voqea rivoji qahramonlar o‘rtasidagi suhbat asosida ochib boriladi. “Sozlar munozarasi”da har bir soz o‘z fikrini bayon qiladi, boshqalar bilan munozaraga kirishadi. Bu esa asarda sahnaviy imkoniyatlar borligini yaqqol namoyon qiladi. Jumladan tanburning: *“Pardada ul murg‘isuhansoz men, Fitna eshikin qiloyin boz men. Barchag‘a aytay zitariqi savob Jumla maqomatga bir-bir javob”*[6]. kabi fikrlari va unga javoban udning aytganlari:

*“Soz ichida barchadin otim uluq, Vasf ichida barcha sifotim uluq. Bo‘ldi xaloyiq aro mashhur otim, Loyiq erur shohga xosiyatim”.*Asardan keltirilgan tanbur va udning o‘zaro bahsi bu asarning nafaqat didaktik, balki dramatik xususiyatga ham ega ekanini ko‘rsatadi. Shuningdek, tanbur o‘zini fitna eshigini ochuvchi va so‘zga usta sifatida ko‘rsatsa, ud javoban o‘zining sharafini, shohga loyiq ekanini ta’kidlaydi.Bu yerda muallif bevosita bayon qilmaydi, balki qahramonlar nutqi orqali mazmun ochiladi. Bu dramatik uslubning asosiy ko‘rinishi sifatida ikki janr o‘rtasidagi qiyosiy yaqinlikni namoyon qiladi. Nazariy risolalarda ham yuqorida biz ta’kidlab o‘tgan xususiyatlar o‘zining tasdig‘ini topgan. Jumladan, “Dramatik asarda nimaiki ifoda etilmoqchi bo‘lsa, bizning oldimizda harakat etib turgan, ya’ni o‘z oldidagi va o‘z ichidagi to‘siqlar bilan kurashib, ularni yengib yoki ulardan yengilib, iztirob chekayotgan, quvonayotgan, tantana qilayotgan va hokozo inson shaxsi orqaligina ifoda etiladi”[7] deya ta’kidlanishi fikrimizning isbotidir.

Har qanday dramatik asar markazida konflikt turishi ma’lum. Ushbu parchada ud va tanbur o‘rtasidagi ustunlik talashish o‘ziga xos konflikt yaratgan. Har biri o‘z fazilatini ulug‘laydi, raqibini bevosita inkor etadi. Bu qarama-qarshilik asar dinamikasini ta’minlaydi, o‘quvchini bahs jarayoniga olib kiradi. Shuningdek, asarda musiqiy asboblar insoniy sifatlarga xos tarzda gavdalantiriladi: gapiradi, o‘zini himoya qiladi, ijtimoiy maqomga da’vo qiladi. Bu esa dramadagi obrazlar kabi mustaqil “qahramonlar”ni yuzaga keltiradi. Asar mutolaasi davomida go‘yo sahnada ikki qahramon bahslashayotgandek tasavvur paydo bo‘ladi. Har bir nutq ma’lum bir chiqish sifatida beriladi, ketma-ketlikda dramatik sahna mantiqiga mos keladi. Ushbu xususiyat asarda sahnalashtirish imkoniyati mavjudligini anglatadi. Asarning keyingi o‘rinlarida: ***Chang:*** *G‘amzalarim barchadin afzun erur Layli mening g‘amzama majnun erur.*

Tanbur: *aqling erur qisqayu bo‘ynung uzun Lof urub yurmagin kunduzun.*

Qo‘buz: *men kibi yo‘q murg‘i suhansozi ishq, Jumla maqom ichra degan rozxi ishq.*

Tanbur: *taxtayi tobut kabi qomating, Sur eshaging ilgari, qolsun oting.*

Yotug‘on: *poyayi qadrim boridindur fuzun, Men kibi yo‘q dunyoda sohib funun.*

Tanbur: *daviy donishmu qilursen yotib, Lof urub, elga o‘zingni sotub*

Rubob: *garchi shariatga chu begonaman, Ahli tariqat bila hamxonaman.*

Tanbur: *ahli tariqat mu sen, ey bexirad, Boshdin-oyog‘ing to‘la nafsu xisad.*

G‘ijjak: *g‘amzam o‘qi novaki jondo‘z erur, Nolalarim barcha jigar so‘z erur.*

Tanbura *dedi: Xalatek ey xasis, Ko‘rmadi davron ko‘zi sendek xasis*[8]*…*

Asardan olingan yuqoridagi parchada cholg‘u asboblari o‘rtasida o‘ziga xos bahs shakllantirilgan bo‘lib, ham munozara janri, ham dramani o‘zida yaqqol namoyon etadi. Har bir soz o‘z fazilatini maqtaydi, tanbur esa har biriga keskin javob qaytaradi.Bahs davomida o‘zaro inkor, istehzo va kinoya obrazli til vositasida ochiladi. Ko‘rinadiki, chang o‘zining g‘amzasini ustun qo‘ysa, qo‘buz ishqiy ohangini asos qiladi. Rubob esa tasavvufiy yo‘nalishni ilgari suradi. Bu xilma-xillik munozaraning ko‘p ovozli (polifonik) xarakterini yuzaga keltiradi. Polefoniya atamasini tushunib olish maqsadga muvofiq. Ushbu atama “yunoncha polys–ko‘p, phone–ovoz- ya’ni ko‘p ovozlilik.Musiqashunoslikdan o‘zlashgan termin”.[9] Asarda sozlar o‘zaro raqib sifatida ko‘rsatiladi.Tanbur esa qarshi bahs yurituvchi qahramon bo‘lib, boshqalar so‘zlarini inkor qiladi.Asardagi ushbu holatni tahlil qila turib, tadqiqotchi Vazira Ahmedovaning fikrlari eslab o‘tish o‘rinli: “Dramaning asosini badiiy konflikt tashkil etadi. Aniqroq qilib aytganda, drama abadiy umuminsoniy antonimiya yoxud ijtimoy-tarixiy qarama-qarshiliklarni ifoda etadi va unda dramatizm yetakchilik qiladi”.[10] Tanburning “Aqling erur qisqayu…”, “Ahli tariqatmu sen…” tarzidagi keskin javoblari dramatik taranglikni oshiradi. Asar to‘liq dialog asosiga qurilgan bo‘lib, har bir soz o‘z nutqi orqali alohida bir xarakter yaratdi. Bu holat sahnadagi qahramonlar nutqini eslatadi.

6 Ahmadiy. Sozlar munozarasi.www.ziyouz.com.kutubxonasi

7 Adabiyot nazariyasi. Ikki tomlik. Ikkinchi tom.–T.:Fan.1979. 276-277-b.

8 Ahmadiy. Sozlar munozarasi.www.ziyouz.com.kutubxonasi

9 Quronov D, Mamajonov Z, Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug‘ati. Akademnashr. –T., 2013.408-b.

10 Ahmedova V. Mustaqillik davri o‘zbek dramaturgiyasida davr va shaxs fojiasining yangicha talqinlari mavzusidagi dissertatsiyasidan. –T., 2021. 16-bet

Asarda muallif obraz yaratish mahorati bilan ham kitobxonning yana bir karra hayratiga sazovor bo‘ladi. Chang–go‘zallik va joziba timsoli, qo‘buz–ishqiy ruh ifodachisi, rubob–tasavvufiy obraz tarzida gavdalansa, tanbur esa tanqidchi va hukm chiqaruvchi tarzida tasvirlanadi. Bu dramatik asarlardagi xarakterlar tizimini yodga soladi. Parchani o‘qish davomida dramatik asarlarga xos hissiy keskinlikni ham sezish qiyin emas. Nutqdagi emotsionallik janrga xoslikni yanada kuchaytiradi. Ayni holatlar mumtoz adabiyotimizdan unutilmas ahamiyat kasb etuvchi boshqa munozaralarda ham yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Yusuf Amiriyning “Chog‘ir va bang” munozarasi ham dramatizm kuchli namoyon bo‘lgan asarlardan biri. Unda dramatik asarga xos elementlar, xususan, konflikt va dialogning faol namoyon bo‘lishi munozarada drama janri imkoniyatlari mavjudligini yaqqol isbotlaydi. Asarda chog‘ir va bang oddiy moddiy tushunchalar sifatida emas, balki insoniy xususiyatlarga ega jonli obrazlar tarzida tasvirlanadi. Ularning o‘zaro bahsi dialog shaklida kechib, har bir javob yangi ziddiyatni yuzaga keltiradi. Chog‘ir o‘zini quvnoqlik, jamoaviy zavq va mashhurlik tarzida ko‘rsatib, bangni past darajada va zararli unsur deb baholaydi. Bang esa aksincha, o‘zini ichki ma’no va sirli qudrat timsoli sifatida aks ettiradi. Asarda dramatizm yana shunda namoyon bo‘ladiki, munozara satirik emas, dinamik tarzda rivojlanadi. Ya’ni har bir fikrga qarshi yangi fikr tug‘iladi va bu jarayon asarning sahnaviy xarakterini kuchaytiradi. Asar syujetida shu aniq gavdalanadiki, chog‘irning nutqi keskin, ishonchli va ba’zan tahdid ohangiga ega bo‘lib, bu uning dramatik obraz sifatida faol va dominant pozitsiyasini belgilaydi. U o‘zini himoya qilish bilan birga bangni kamsitishga, uni zararli va ijtimoiy jihatdan qabul qilinmagan unsur sifatida ko‘rsatishga intiladi. Shu jihatdan chog‘ir obrazida tashqi dunyo bilan bog‘liq hissiy zavq ustunligi mujassam. Bang esa dramatik tizimda qarama-qarshi qutbni tashkil etadi. U ichki holat, ruhiy tajriba va sirli ma’naviy kuch ramzi sifatida gavdalanadi.Bangning nutqlari ham asarda o‘ziga xos tarzda beriladi: u o‘zini salbiy baholardan yuqori qo‘yishga harakat qiladi va o‘zining asl mohiyati ko‘pchilik tomonidan noto‘g‘ri tushunilishini ta’kidlaydi. U chog‘irga nisbatan tanqidiy pozitsiyada turib, o‘zining chuqurroq, yashirin va ramziy ma’noga ega ekanini isbotlashga urinadi. Natijada chog‘ir va bang obrazlari orqali nafaqat badiiy konflikt, balki falsafiy qarama-qarshilik ham mujassamlashadi. Bu obrazlar dramatik tizimda bir-birini to‘ldiruvchi va inkor etuvchi kuchlar sifatida namoyon bo‘lib, munozara janrining sahnaviy va dramatik imkoniyatlarini to‘liq ochib beradi. Asardan olingan quyidagi parchada biz yuqorida tilga olgan barcha mushohadalar o‘z isbotini topadi: *“Chog‘ir eshitgach, achchiq ustinda tedikim, songa tegarmukim bu so‘zni og‘iz to‘la mening yuzimga aytqoysen? Men seni puxta sog‘inur erdim. Emdi bu xomxayolni boshingdin chiqorg‘il, yo‘q ersa, oncha yanchayin senikim, duding boshingdin chiqsin.*

Bang eshitgach, kalla xushxulq bunyod qildi-tedi: “Ne bo‘lubdur sanga meni yalmab, yutqali turursan? Bu oqjumluqni o‘zga yerga eltkim, agar bukundin so‘ngra o‘z izzatingni asramay, xaddin oshursang oncha tepturayin seningkim, shirang ostingdan oqsun. Sening ortatosha ortuqlug‘ing yo‘qturur, har qaydakim sening zikring qilsalar, mening fikrimni qilurlar va har qachonkim sening hikoyatingni qilsalar, mening rivoyatimni qilurlar…”[11] Ushbu parcha “Chog‘ir va Bang” munozarasining eng yuqori konflikt bosqichini tashkil etadi va unda dramatik asarlarga xos bir qator muhim badiiy unsurlar yaqqol namoyon bo‘ladi. Avvalo, matnda dramatik konflikt keskinlashgan holatda ifodalangan bo‘lib, Chog‘ir va Bang o‘zaro to‘qnashuvga kirishgan ikki mustaqil obraz sifatida gavdalanadi. Bu holat dramatik asar uchun xos bo‘lgan markaziy ziddiyatni yuzaga keltiradi, chunki har ikki tomon o‘z pozitsiyasini mutlaq haqiqat sifatida himoya qiladi va raqibini inkor etishga intiladi. Chog‘irning nutqi keskin emotsional ohangga ega bo‘lib, unda tahdid, kinoya va o‘zini ustun qo‘yish tendensiyasi ustunlik qiladi; u Bangni mensimaslik bilan birga, uni yo‘q qilish darajasigacha boradigan keskin fikr bildiradi, bu esa dramatik nutqning affektiv (hissiy) kuchini oshiradi. Bang javobida esa o‘zini himoya qilish bilan birga qarshi fikrlar ham aytadi, u Chog‘irni tanqid qilib, uning ijtimoiy va ma’naviy maqomini pasaytirishga urinadi hamda o‘zining har joyda eslanishini, ma’lum bir ustunligini ta’kidlaydi. Shuningdek, Chog‘ir va Bang oddiy moddiy tushunchalar emas, balki insoniy xulq-atvor, his-tuyg‘u va ijtimoiy pozitsiyaga ega subyektlar sifatida harakat qiladi, bu esa ularni dramatik obrazga aylantiradi. Ularning nutqida metaforik va mubolag‘ali ifodalar ko‘p uchraydi, masalan “yanchish”, “dud chiqarish”, “ostidan oqizish” kabi ifodalar dramatik keskinlikni oshiruvchi ekspressiv vositalar hisoblanadi. Natijada ushbu parcha dramatik asarlarga xos konflikt markaziyligi, dialogik dinamika, emotsional kuchayish va g‘oyaviy qarama-qarshilik kabi unsurlar orqali munozara janrining dramatik tabiatini to‘liq namoyon etadi. “Chog‘ir va Bang” munozarasi o‘zbek mumtoz adabiyotida dramatik unsurlar keng qo‘llanilgan, g‘oyaviy va badiiy jihatdan

11 Amiriy Y. Chog‘ir va bang. www.ziyouz.com.kutubxonasi

murakkab tuzilishga ega asar bo‘lib, u munozara janrining dramatizm imkoniyatlarini to‘liq ochib beradi.

Yana shuni ta’kidlash o‘rinliki, dramatik asarlarda uchraydigan avtor(muallif) remarkasiga xos bayon usuli munozaralarda ham ko‘zga tashlanadi. “Avtoriskaya remarka–avtor remarkasi. Dramatik asarlarda avtor tomonidan ekspozitsion tasvirlarni, personajlar harakati va holatini ifodalovchi izohlar”.[12] Avtorlik remarkasi (muallif remarkasi) dramatik asarlarda muallif tomonidan beriladigan yordamchi izohlar majmuasi bo‘lib, u ekspozitsion tasvirlarni ochib berish, personajlarning harakati, ruhiy holati, sahnaviy vaziyat va voqealar rivojini aniqlashtirish vazifasini bajaradi. Bunday remarkalar dialogdan tashqarida turib, sahna harakatining ichki mantiqini tartibga soladi va o‘quvchi yoki sahnalashtiruvchi uchun muhim yo‘naltiruvchi axborot funksiyasini bajaradi. Munozara janri va drama o‘rtasidagi tipologik yaqinlik ularning ikkisida ham konflikt markaziy struktura unsur bo‘lib xizmat qilishida, dialogik nutq ustuvorligida hamda ziddiyatli vaziyatlar orqali g‘oyaviy mazmunning ochilishida namoyon bo‘ladi. Har ikkala janrda ham fikrlar to‘qnashuvi, qarama-qarshi nuqtayi nazarlar kurashi va emotsional-intellektual keskinlik asosiy harakatlantiruvchi omil sifatida yuzaga chiqadi. Biroq drama sahnaviy harakat va dramatik voqelikning vizual-hissiy ifodalanishi bilan ajralib tursa, munozara janri ko‘proq mantiqiy dalillash va g‘oyaviy bahsga tayangan holda rivojlanadi. Shunga qaramay, ularning umumiy kesishuv nuqtasi sifatida dialog strukturasining yetakchiligi, konfliktning markaziy o‘rni va muallif remarkalarining qisqa, lekin mazmunan yo‘naltiruvchi bayonlari xizmat qiladi. Bu esa har ikki janrda ham fikrlar kurashi orqali badiiy yoki g‘oyaviy haqiqatning ochilishini ta’minlaydi.Jumladan, Nishotiyning “Gul va daf” munozarasida keltirilgan: *“Guli nozikbadan madhush Dafi ta’nazan purjushdin xitobi itobomiz va javobi sho‘rangiz eshitib, hayo bila to farq g‘arqi araq bo‘lub, harm o‘yi onga bir xor, balki bir ohanin mismorg‘a mubaddal bo‘lib, nori hijlatdin ichiga axgar tushub, safhayi ruxsori axmar bo‘lub, ul dafi purdaviyg‘a va ul po‘sti bemanig‘a javobi bosavob aytg‘onining daqoyiqi haqoyiqi bayoni:”*[13]. Mazkur parcha avtor remarkasi funksiyasini ham o‘zida mujassam etadi, chunki unda muallif personajning faqat so‘zini emas, balki uning holati, ichki kechinmasi va tashqi harakatini ham izohlab beradi. “Hayo bila to farq g‘arqi araq bo‘lub”, “nori hijlatdin ichiga axgar tushub” kabi tasviriy ifodalar bevosita sahnaviy harakatni emas, balki sahna ortidagi psixologik jarayonni yoritadi. Bu esa dramatik asarlarda uchraydigan muallif remarkasiga xos xususiyat bo‘lib, u dialogni to‘ldiradi va voqelikni yanada jonli qiladi. Munozara janri nuqtayi nazaridan qaralganda, ushbu parcha dramatizmning yuqori darajasini namoyon etadi. Chunki bu yerda ikki qarama-qarshi tomon – Daf va Gul o‘rtasidagi fikriy va hissiy ziddiyat ochiq ko‘rinishda beriladi.

Munozara va drama o‘rtasidagi o‘xshashlik aynan shunday konfliktli dialoglar, keskin ruhiy holatlar va muallif tomonidan berilgan qisqa, lekin chuqur mazmunli izohlarda namoyon bo‘ladi.

12 Xatamov N, Sarimsoqov B. Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o‘zbekcha lug‘ati. O‘qituvchi.–T.,1979.

13 Nishotiy. “Daf va gul”. www.ziyouz.com.kutubxonasi

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Xudoyberdiyev E. Adabiyotshunoslikka kirish. O‘qituvchi. –T.,1995.

2.Abdurahmonova O. Munozara janri tarixi va takomili. History and development of Discussion genre. 2020.

3.Hojiahmedov A. Mumtoz badiiyat lug‘ati. Yangi asr avlodi.– T.,2008.

4.Rizayev Sh. Jadid dramasi. Sharq nashriyot-matbaa konsernining bosh tahririyati. – T.,1997.

5.Begmatov E, Hojiyev A, Madvaliyev N, Mahmudov N, Mirzayev T, Musayeva F, Odilov Y, Xudayberganova D. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. –T., 2022.

6.Ahmadiy. Sozlar munozarasi. www.ziyouz.com.kutubxonasi

7.Adabiyot nazariyasi. Ikki tomlik. Ikkinchi tom.–T.:Fan, 1979.

8.Quronov D, Mamajonov Z, Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug‘ati. –T.: Akademnashr, 2013.

9.Ahmedova V. Mustaqillik davri o‘zbek dramaturgiyasida davr va shaxs fojiasining yangicha talqinlari mavzusidagi dissertatsiyasidan. –T., 2021.

10.Amiriy Y. Chog‘ir va bang. www.ziyouz.com.kutubxonasi

11.Xatamov N, Sarimsoqov B. Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o‘zbekcha lug‘ati. –T.:O‘qituvchi, 1979.

12.Nishotiy.“Daf va gul”. www.ziyouz.com.kutubxonasi

Феруза АТАМУРОДОВА,
Университет экономики и педагогики,
Доцент кафедры иностранных языков, ф.ф.ф.д. (PhD)

РАЗВИТИЕ АНГЛИЙСКОГО РЕАЛИЗМА В ЛИТЕРАТУРЕ КОНЦА XIX – НАЧАЛА XX ВЕКА

Аннотация: в данной статье рассматриваются особенности развития английского реализма конца XIX – начала XX века на примере творчества Томас Гарди и Сэмюэль Батлер. Анализируются основные тенденции литературного процесса переходной эпохи, специфика реалистического художественного метода, а также социально-психологическая проблематика произведений писателей.

Ключевые слова: *английский реализм, викторианская литература, социально-психологический роман, кризис викторианства, художественный метод, реалистическая традиция, английский роман, психологизм.*

Annotation: this article examines the development of English realism in the late nineteenth and early twentieth centuries through the works of Thomas Hardy and Samuel Butler. The study analyzes the main tendencies of the literary process during the transitional period, the specific features of the realist artistic method, and the socio-psychological issues reflected in the writers' works.

Key words: *English realism, Victorian literature, socio-psychological novel, crisis of Victorianism, artistic method, realist tradition, English novel.*

Annotatsiya: ushbu maqolada XIX asr oxiri va XX asr boshlarida ingliz realizmining rivojlanishi ko'rib chiqiladi, bunga misol tariqasida Tomas Xardi va Samuel Butlerning asarlaridan foydalaniladi. Unda o'tish davri adabiy jarayonining asosiy yo'nalishlari, realistik badiiy uslubning o'ziga xos jihatlari, bu adiblar ijodidagi ijtimoiy-psixologik masalalar tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: *ingliz realizmi, Viktoriya adabiyoti, ijtimoiy-psixologik roman, Viktoriya inqirozi, badiiy uslub, realistik an'ana, ingliz romani, psixologizm.*

Реализм конца XIX века, сохраняя своё доминирующее положение в литературном процессе, вступил в новый этап развития, который принято обозначать как «постклассический». Для данного периода были характерны расширение круга художественных проблем, углубление тематического содержания, обновление жанровой системы и возникновение новых жанровых форм.

Особенно интенсивно в это время развивалась драматургия, которая на протяжении значительной части XIX столетия находилась на периферии литературной жизни. Значительное развитие получили и малые эпические жанры — рассказ и новелла. Наиболее существенные преобразования коснулись романа. Широкое распространение приобрёл жанр романа-эпопеи, позволивший отразить всю сложность и противоречивость переломной исторической эпохи. Многотомные циклы, дилогии, трилогии и тетралогии получили воплощение в творчестве Э.Золя, Р.Роллана, А. Франса, Т.Драйзера, Д. Голсуорси, Т.Гарди и Т.Манна.

В литературе данного периода сформировались и получили развитие различные жанровые разновидности романа: социально-психологический роман, семейная хроника, философский роман, роман-притча, сатирический, утопический, приключенческий, научно-фантастический и детективный роман. Писатели-реалисты активно использовали художественные элементы различных литературных направлений эпохи — натурализма, символизма, неоромантизма и импрессионизма, при этом сохраняя основополагающий принцип реализма — типизацию характеров и жизненных явлений.

Одновременно продолжалось развитие традиций, заложенных реалистами первой половины и середины XIX века. Это проявлялось в углублении психологического анализа, усилении социального аспекта изображения действительности и расширении художественного охвата жизненных явлений. В целом данный этап свидетельствует о дальнейшем усложнении и эволюции реалистического метода в мировой литературе.

К концу XIX века существенные изменения наблюдались и в английской литературе. На рубеже веков в литературный процесс активно вошли такие выдающиеся писатели-реалисты, как С.Батлер, Т.Гарди, Д.Голсуорси, Г.Уэллс, и Д.Б.Шоу. Подвергая критическому осмыслению общественные порядки и устоявшиеся традиции XIX века, сатирически изображая викторианское общество, английские реалисты выступали против самой социальной системы и тех жизненных условий, которые определяли существование человека в эпоху викторианства.

Ярким представителем английского реализма рубежа веков является Сэмуэля Батлера. В его романе "Путь всякой плоти", опубликованном уже после смерти писателя в 1903 году, нашло отражение резкое неприятие английского среднего класса, его жизненных принципов и викторианского общества в целом.

Батлер в большей степени проявил себя как эссеист и публицист, однако именно в своём единственном крупном романе, над которым он работал более двадцати лет, писатель наиболее полно выразил протест против лицемерия, ханжества и духовной ограниченности викторианской эпохи.

Расширенное понимание реализма, сформировавшееся в этот период, предполагало не простое стремление к внешнему правдоподобию, а глубокое проникновение в сущность реальности посредством тщательного анализа жизненных фактов. При этом ведущей тенденцией английского реализма продолжала оставаться сатира, истоки которой восходят к творчеству William Теккерея и Диккенса.

Среди английских писателей, сохранявших верность традиционным художественным формам, но наполнявших их современным содержанием, особое место занимает Т. Гарди. Его творчество во многом стало своеобразным итогом развития английского реализма XIX века. В произведениях Харди, посвящённых жизни народа, нашли отражение глубокие социальные и нравственные конфликты современной ему Англии.

Свои романы Харди систематизировал, разделив их на три основные группы: «Романы характера и среды», «Романы изобретательные и экспериментальные» и «Романтические истории и фантазии». Однако данная циклизация не привела к созданию единого эпического цикла с чёткой исторической концепцией и внутренне взаимосвязанной системой произведений. Романы не объединены сквозным сюжетом, но между ними сохраняются общность времени и пространства действия, а также единый подход к изображению проблем сельской Англии.

Само название первого цикла — «Романы характера и среды» — отражает основной художественный принцип Харди, заключающийся в изображении человека через взаимодействие характера и окружающей среды. Смысл событий, разворачивающихся в романах The Mayor of Casterbridge (1886), Tess of the d'Urbervilles (1891) и Jude the Obscure (1896), раскрывается прежде всего через внутренний мир персонажей и особенности их характера.

Новаторство Гарди заключается прежде всего в глубоком и правдивом изображении взаимосвязи человеческого характера с социальной средой и окружением, которые формируют личность и оставляют на ней неизгладимый отпечаток. Сила художественного мастерства Харди проявляется в умении показать последствия разрушения этих связей, когда человек оказывается в чуждой ему среде и сталкивается с необходимостью нравственного и жизненного самоопределения. Писатель убедительно раскрывает, каким образом характер человека, его убеждения и сделанный им выбор влияют на дальнейшую судьбу личности.

В предисловии к роману The Mayor of Casterbridge, имеющему символический подзаголовок «Человек с характером», Харди особо подчёркивал, что центральное место в его произведениях занимает именно проблема характера. Герои поздних романов писателя отличались для литературы конца XIX века художественной новизной и психологической оригинальностью. Вместе с тем судьбы этих «людей с характером» носят трагический характер.

Сюжетная структура романов Харди, как правило, строится по принципу трагической истории главного героя. Основой трагического конфликта чаще всего становится социальное противостояние между крестьянами и землевладельцами, отражающее глубокие противоречия английского общества эпохи позднего викторианства.

В творчестве Харди нашли яркое отражение ключевые проблемы литературного развития переходной эпохи конца XIX — начала XX века. Его художественный метод органично объединил характерные особенности современной ему литературы: обращение к актуальным социальным вопросам, усиленное внимание к нравственной проблематике, глубокий интерес к личности человека, детальный психологический анализ внутреннего мира героев, а также поиск новых художественных форм и выразительных средств. Именно благодаря такому синтезу реалистических и новаторских тенденций творчество Харди стало важным этапом в эволюции английского реализма рубежа веков.

Список литературы.

1. Урнов М. В. Английская литература конца XIX – начала XX века. – Москва: Высшая школа, 1970.
2. Кеттл А. Введение в историю английского романа. – Москва: Прогресс, 1966.
3. Атамуродова, Ф. Т. (2020). Художественный конфликт в английском романе XX века. *Электронный научный журнал*, (1), 30-35.
4. Atamurodova F. T. INGLIZ ROMANINING SHAKLLANISHI VA IJTIMOIY-TARIXIY ASOSLARI. Xorazm Ma'mun akademiyasi axborotnomasi. 2025.11/4
5. Атамуродова, Ф. Т. Эволюция английского романа: краткий обзор. BuxDU ilmiy axboroti. 2025-yil 11-son .ISSN: 3030-3958
6. Atamurodova Feruza Tashmurotovna. THE ORIGIN AND DEVELOPMENT OF ENGLISH NOVEL: A DESCRIPTIVE LITERATURE REVIEW (2025). *UzConferences*, *1*(4),353356. https://uzresearch1.uz/index.php/UC/article/view/1061

Зебунисо ХАЙРУЛЛАЕВА,
аспирант (PhD), факультет филологии, кафедра английского языка
Джизакский государственный педагогический институт
ORCID: 0009-0006-3801-1866
e-mail: zebunisoxayrullayeva2001@gmail.com
г. Джизак, Джизакская область, Узбекистан

ТОПОНИМЫ КАК КУЛЬТУРНО-СЕМАНТИЧЕСКИЕ ЕДИНИЦЫ В ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ТЕКСТАХ (НА МАТЕРИАЛЕ “BEOWULF” И “HANSEL AND GRETEL”)

Аннотация: статья посвящена анализу топонимов как лингвокультурных и семантических единиц художественного текста на материале эпоса *Beowulf* и сказки *Hansel and Gretel*. Цель исследования — выявить их семантические, функциональные и культурные особенности. Используются семантический, стилистический и сравнительно-сопоставительный методы. Установлено, что топонимы выступают не только номинативными единицами, но и носителями культурной памяти и символических значений. В *Beowulf* они отражают социально-пространственную организацию, а в *Hansel and Gretel* приобретают символический и архетипический характер. Топонимы рассматриваются как важный элемент художественной семантики и культурного кода.

Ключевые слова: *топонимия, художественный текст, лингвокультура, семантика, ономастика, культурный код, Beowulf, Hansel and Gretel.*

Annotation: this article analyzes toponyms as linguacultural and semantic units of literary text using the epic poem “Beowulf” and the fairy tale “Hansel and Gretel.” The aim of the study is to identify their semantic, functional, and cultural characteristics. Semantic, stylistic, and comparative methods are used. It is established that toponyms serve not only as nominative units but also as carriers of cultural memory and symbolic meanings. In “Beowulf,” they reflect socio-spatial organization, while in “Hansel and Gretel,” they acquire a symbolic and archetypal character. Toponyms are considered an important element of literary semantics and cultural code.

Key words: *toponymy, literary text, linguaculture, semantics, onomastics, cultural code, “Beowulf,” “Hansel and Gretel.”*

Annotatsiya: ushbu maqolada toponimlar “Beowulf” epik dostoni va “Hansel va Gretel” ertagi yordamida badiiy matnning lingvomadaniy va semantik birliklari sifatida tahlil qilinadi. Tadqiqotning maqsadi ularning semantik, funksional va madaniy xususiyatlarini aniqlashdir. Semantik, stilistik va qiyosiy usullar qo‘llaniladi. Toponimlar nafaqat nominativ birliklar, balki madaniy xotira va ramziy ma’nolarni tashuvchisi sifatida ham xizmat qilishi aniqlangan. “Beowulf”da ular ijtimoiy-fazoviy tashkilotni aks ettiradi, “Hansel va Gretel”da esa ular ramziy va arxetipik xususiyatga ega bo‘ladi. Toponimlar adabiy semantika va madaniy kodning muhim elementi hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: *toponimiya, adabiy matn, lingvomadaniyat, semantika, onomastika, madaniy kod, “Beowulf”, “Hansel va Gretel”.*

Введение

Современная филология уделяет особое внимание изучению языковых единиц в их культурно-семантическом аспекте. В этом контексте важную роль играет ономастика, в частности топонимы, которые отражают исторический опыт, культурные ценности и особенности мировосприятия. В художественном тексте они выполняют не только номинативную, но и семантическую и стилистическую функции, формируя пространство произведения и раскрывая авторский замысел.

Анализ топонимов в разных жанрах позволяет выявить их универсальные и специфические черты: в эпосе они связаны с исторической реальностью, а в сказке приобретают символический характер. Цель исследования — определить особенности функционирования топонимов в *Beowulf* и *Hansel and Gretel* на основе сравнительного анализа.

Обзор литературы

Проблемы ономастики и топонимии широко изучаются в отечественной и зарубежной науке. В российской лингвистике значительный вклад внесли А. В. Суперанская, В. Н. Топоров, Е. М. Верещагин и В. Г. Костомаров. А. В. Суперанская рассматривает имя собственное как сложную семантическую категорию, способную передавать культурную и историческую информацию (Суперанская, 1973). В. Н. Топоров подчеркивает связь пространства и текста, отмечая роль

топонимов в формировании модели мира (Топоров, 1995). Верещагин и Костомаров рассматривают их как элементы языковой картины мира (2005).

В зарубежной науке топонимия изучается в рамках лингвистических и междисциплинарных подходов. Д. Кристал акцентирует связь языка с культурой (Crystal, 2003), а Дж. Лич и М. Шорт — роль лексики в организации текста (Leech, Short, 2007). Важным направлением является литературная география, в частности концепция «дальнего чтения» Ф. Моретти (Moretti, 2013).

Методология исследования

Методологическая основа исследования включает семантический, лингвостилистический, контекстуальный и сравнительно-сопоставительный методы (Суперанская, 1973). Семантический анализ выявляет значения и культурные коннотации топонимов; лингвостилистический — их роль в создании образности; контекстуальный — функции в конкретных фрагментах текста; сравнительный — сходства и различия в разных жанрах.

Материалом исследования послужили *Beowulf* и *Hansel and Gretel*. Отобранные топонимы анализируются с учётом их семантики, контекста и культурной значимости.

Анализ и обсуждение

В эпосе *Beowulf* топонимы обладают конкретно-историческим характером и тесно связаны с социально-политической структурой общества. Они не только локализуют действие, но и формируют целостную модель мира, отражающую систему власти и межплеменные отношения. Такие топонимы, как *Heorot*, *Geatland* и *Denmark*, выполняют двойную функцию: с одной стороны, они указывают на реальные или исторически осмысленные пространства, с другой — несут символическую нагрузку, связанную с идеями власти, порядка, коллективной идентичности и оппозиции «свой — чужой».

В сказке *Hansel and Gretel*, напротив, топонимы утрачивают конкретную географическую привязку и приобретают обобщённый, символический характер. Пространственные образы, такие как лес и дом, выступают как архетипические структуры: лес символизирует опасность, испытание и процесс инициации, тогда как дом приобретает амбивалентное значение, сочетая в себе безопасность и угрозу.

Сравнительный анализ показывает, что в эпосе топонимы связаны с исторической реальностью и коллективной памятью, тогда как в сказке они функционируют в рамках символического и мифопоэтического мышления. Несмотря на эти различия, в обоих текстах топонимы играют ключевую роль в организации художественного пространства, формировании образной системы и передаче культурных значений.

Таким образом, топонимы выступают важным инструментом репрезентации культурного кода и смысловой структуры литературного текста.

Заключение

Проведённое исследование показало, что топонимы в художественном тексте выполняют не только номинативную, но и важную культурно-семантическую функцию. В эпосе *Beowulf* они отражают историческую реальность, социальную структуру и коллективную идентичность, тогда как в сказке *Hansel and Gretel* приобретают символический и архетипический характер.

Сравнительный анализ подтвердил, что функции топонимов зависят от жанра и культурного контекста, однако в обоих случаях они играют ключевую роль в организации художественного пространства и передаче культурных смыслов.

Таким образом, топонимы выступают значимым инструментом интерпретации литературного текста и репрезентации культурного кода.

Список литературы

1. Суперанская А. В. Общая теория имени собственного. — М.: Наука, 1973.
2. Топоров В. Н. Пространство и текст. — М.: Языки русской культуры, 1995.
3. Верещагин Е. М., Костомаров В. Г. Язык и культура. — М.: Индрик, 2005.
4. Manning C. D., Raghavan P., Schütze H. *Introduction to Information Retrieval*. — Cambridge: Cambridge University Press, 2008. https://doi.org/10.1017/CBO9780511809071
5. Bode K. A World of Fiction: Digital Collections and the Future of Literary History. Ann Arbor: University of Michigan Press, 2018. https://doi.org/10.3998/mpub.8784777
6. Moretti F. Distant Reading. – London: Verso, 2013.
7. Jurafsky D., Martin J. H. Speech and Language Processing. 3rd ed., 2023. URL: https://web.stanford.edu/~jurafsky/slp3/
8. Иванова Н. А. Топонимы в художественном тексте: семантический аспект // Филологические науки. 2021. № 3. С. 45–52.

ILG‘OR PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA



Umida USMONOVA,
Jizzax DPU Ingliz tili kafedrasi
dotsent v.b., f.f.f.d.(PhD)

MEDIAMATN SARLAVHALARIDA IXCHAMLIK VA AXBOROT UZATISH MEXANIZMI

Annotatsiya: mazkur maqolada ingliz va o‘zbek tillaridagi mediamatn sarlavhalarining o‘ziga xosligi hamda mushtarak jihatlari qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqotda publitsistik uslubning asosiy xususiyatlari – ixchamlik, ekspressivlik va axborot yetkazish tezligi sarlavhalar misolida yoritilgan.

Kalit so‘zlar: *publitsistik uslub, diskurs, stilistika, ma’no, nutq, til, tilshunoslik, pragmatika, yondashuv, mediamatn.*

Annotation: in this work, a comparative analysis of the features and common aspects of media text headlines in English and Uzbek was conducted. The study highlights the main features of journalistic style - brevity, expressiveness, and speed of information delivery - through the example of headlines. The differences in the structure of the name, the use of abbreviations, the expression of numbers, and the level of imagery in both languages are also examined.

Key words: *journalistic style, discourse, stylistics, meaning, speech, language, linguistics, pragmatics, approach, media text*

So‘z o‘z tabiatiga ko‘ra tilning va bir paytning o‘zida nutqning ham juda murakkab, serqirra va sermazmun unsuridir. Shu bois uning fonetika / fonologiya grammatika, leksikologiya, stilistika, frazeologiya singari tilshunoslik fanining barcha bo‘limlarida o‘rganilishi bejiz emas. So‘zning mazmuni bilan bog‘liq muammolar shu darajada ko‘pki, ba’zi paytlarda ularni so‘z bilan izohlashga ojizlik qilamiz. Shu sababdan ham R.A.Budagov: “Garchi o‘z ona tilimizdagi so‘zlar bizga aniq va ravshan tuyulsa-da, aslida ular tabiatan o‘ta murakkab va serqirradir”, – degan edi.[1.c 9.] Bunday serqirralik tillar qiyosida yanada jilolanadi. Tilshunos ikki tilga mansub publitsistik matnni tadqiq qilish jarayonida yuqorida ko‘rsatilgan xususiyatlarga alohida e’tibor qaratmog‘i zarur.

Ingliz va o‘zbek tillarida so‘zlovchi yoki yozuvchi nutqiy sharoit taqozosiga ko‘ra mavjud so‘zlarning grammatik shakllari, so‘z birikmalari va gap tuzilishining ma’lum qismidangina foydalanadi. [2.25-б] Muayyan bir ma’ruza yoki maqola egasi, ilmiy asar yoxud biror bir badiiy asar muallifi, shu bilan birga, har qanday shaxs ham tilning barcha so‘z boyliklaridan, grammatik vositalaridan, imloviy va talaffuz imkoniyatlaridan to‘lig‘icha foydalana olmaydi. Hatto eng mashhur va yetuk jurnalistlarning faoliyatida ham, buyuk yozuvchining ijodida ham tilining boy imkoniyatlari amalda qisman ishga solinadi. Mana shu ma’noda tilning potensial imkoniyatlari jamoa doirasida ham hech qachon to‘lig‘icha ishga solinadi, deb bo‘lmaydi.[3.104-107-b.] Tilning imkoniyatlari bu imkoniyatlarning amalda qo‘llanayotgan holatidan doimo ortiq va keng bo‘ladi. Har bir tildagi mana shunday boy imkoniyatlar bu tilning vositalar sistemasini tashkil etadi. Jamiyat a’zolarining til vositalaridan foydalanish jarayoni, ya’ni nutq murakkab va ko‘p qirralidir. Shu bilan birga, nutq ko‘rinishlari konkret sharoit va maqsad, ijtimoiy muhitga ko‘ra ham farqlanadi. Ayni paytda, nutq so‘zlovchi shaxslarning turmush tarzi, kasb-kori, dunyoqarashi, aytmoqchi bo‘lgan fikri, maqsadi, nutqiy sharoit, so‘zlovchining psixik, fiziologik holati, adabiy tilni qanchalik egallaganligi yoki egallamaganligi, ma’lumoti va shunga o‘xshash juda ko‘p omillar bilan chambarchas bog‘liqdir.

Nutqning vazifaviy uslublarini tadqiq etish, ularning lingvistik belgilarini aniqlash, nutq uslublarida lisoniy birliklar funksional xususiyatlarini ochish va lisoniy dalillar asosida ularni ajrata bilish zamonaviy tilshunoslik oldida turgan muhim masalalardan biridir.[4. 166 б.]

Mediamatn sarlavhalarida raqam ko‘rinishidagi birliklar qo‘llanilishi mumkin. Bunday birliklardan (5 km, 3 yosh kabi) foydalanishning o‘z imlo me’yori

mavjud. O‘zbek tilida bunday birliklar boshqa satrga ko‘chirilmaydi. Ingliz tilidagi publitsistik matnda esa 10 dan past butun sonlar so‘z bilan ifodalanadi, 10 va undan yuqori sonlar uchun raqamlar ishlatiladi. O‘zbek tili publitsistik matnida esa har qanday holatda ham sonlarni raqam bilan ifodalash mumkin bo‘ladi.

Shunday ekan, ingliz va o‘zbek tillarida mediamatnlarida lisoniy birliklar funksional xususiyatlarini amaliy jihatdan ko‘rib chiqamiz.

Masalan, “Ma’rifat” gazetasining 31.08.2013-yil sonidagi “Baxtin ko‘ring O‘zbekiston bolasining!” sarlavhasiga ko‘zi tushgan gazetxonda ushbu sarlavha ostida e’lon qilingan maqolada yurtimizda olib borilayotgan islohotlar, ayniqsa, yoshlarga, bolalarga yaratilayotgan imkoniyatlar yoritilganligi to‘g‘risida tasavvur vujudga keladi. Aksincha ham bo‘lishi mumkin. Masalan: “New Scientist” jurnalining 06.07.2024-yil sonidagi “Live long and prosper?” sarlavhasiga ko‘zi tushgan o‘quvchida ushbu sarlavha ostida e’lon qilingan maqolada uzoq yashash sirlari, qarishning oldini olish haqida yoritilganligi to‘g‘risida ekanligini matnni o‘qiganidan so‘ng anglashi mumkin. Ba’zi sarlavhalar mazmun jihatdan murakkab bo‘lib, uni o‘qigan matn mazmuni nima haqida ekanligiga qiynaladi. Yana: “Shabnam ostidagi muhabbat”. Bu o‘rinda muhabbat sofmi? Yoki… Agar sof bo‘lsa nega “shabnam” ostida? Shabnam[1] muhabbatni yashiradigan darajada “katta”mi? … kabi savollar o‘quvchini qurshab oladi. Bu savollarga yagona javob maqolani to‘liq o‘qib chiqqandan so‘ng topiladi. Kishi matn sarlavhasi bilan tanishgandan matnga bo‘lgan qiziqish paydo bo‘lishi ijodkorning sarlavha tanlashdagi mahoratiga va so‘zning ma’no nozikliklarini farqlay olish qobiliyatiga bog‘liq bo‘ladi.

1 Shabnam shudring, — kechqurun, kechasi va saharda yuz beradigan yerdagi nurlanish hisobiga havoning sovishi va suv bug‘ining kondensatlanishi tufayli yer sirtida, turli narsalar va o‘simlik yaproqlari ustida hosil bo‘ladigan mayda suv tomchilari. Havo temperaturasi muayyan nuqta (shudring nuqtasi)ga tushganda hosil bo‘ladi.

Shuningdek ingliz tilida keltirilgan sarlavhada ham shunday holatni kuzatish mumkin. Masalan: “*How China is designing flood-resistant cities*(Vox.com). [6] Ushbu sarlavhadan Xitoy qanday qilib toshqinga chidamli shaharlarni loyihalashtirmoqda degan savol tug‘ilishi tabiiy. Ya’ni shahar suvni yutishi mumkinmi deb qiziqish bilan ushbu ommaviy axborot informatsiyasiga murojaat etishi mumkin.

Inglizcha yangiliklar sarlavhalarining o‘ziga xos tuzilishi turli maqsadlarga xizmat qiladi: ular o‘quvchini eslatmaga qiziqish bildirishlari va axborotning qisqartirilishini ta’minlashlari kerak. Maqola yoki xabar matnga ko‘p yoki kam qo‘shilgan qo‘shimcha yangilik sarlavhalar bilan alohida qismlarga bo‘linadigan holatlar juda ko‘p. Bu esa, o‘quvchini iloji boricha ko‘proq qiziqtirib, maqolaning birinchi satrlarini ko‘zdan kechirib, uni o‘qishga va boshqa materiallarga o‘tishga yo‘l qo‘ymaslik uchun amalga oshiriladi. Ko‘pgina hollarda, bu xabarga kiritilgan qo‘shimcha sarlavhalar quyidagi materiallar bilan bog‘liq emas va matndan olingan yorqin, yoqimli so‘zlar yoki iboralarni ifodalaydi.

Xulosa qilib aytganda, ingliz va o‘zbek tillaridagi mediamatn sarlavhalari umumiy kommunikativ vazifaga — o‘quvchini jalb etish va axborotni tez yetkazishga xizmat qiladi. Har ikki tilda ham sarlavhalar ixchamlik, aniqlik va ekspressivlik kabi xususiyatlar bilan ajralib turadi. Shu bilan birga, ularning lingvistik ifodalanishida muayyan farqlar mavjud: ingliz tilida qisqartmalar, lo‘nda va savol shaklidagi sarlavhalar ko‘proq uchrasa, o‘zbek tilida to‘liq shakllar, obrazli ifoda va milliy-madaniy xususiyatlar ustunlik qiladi.

Bundan tashqari, ayrim sarlavhalarning mazmunan ochiq yoki yashirin bo‘lishi o‘quvchining qiziqishini oshirishga xizmat qiladi. Demak, har ikki tilda ham sarlavha tanlash jarayoni muallifning lingvistik mahorati, so‘zning ma’no nozikliklarini anglash darajasi va auditoriyaga ta’sir ko‘rsatish maqsadi bilan chambarchas bog‘liqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Будагов Р. А. Введение в науку о языке. – М., 1965. –С. 9.
2. Каххорова Г. Инглиз ва ўзбек тилларида юкламаларнинг грамматик ҳамда функционал-стилистик хусусиятлари: Филол. фан. бўйича фалсафа док. (PhD) дисс. автореф. – Бухоро, 2021. – 25 б.
3. Shadiyeva D. Muhammad Yusuf she’rlarida iboralarning qo‘llanilishi “O‘zbek tili va adabiyoti” jurnali, 2011, 5-son. 104-107-b.
4. Jo‘rayeva N. Fransuz va o‘zbek tillari evfemizm va disfemizmlarining lingvopragmatik xususiyatlari: Filol. fan. bo‘yicha falsafa doktori (PhD) … diss-yasi. – Andijon, 2023. 24-b.
5. https://www.youtube.com/watch?v=nf-Yy3EuZi0

Dilnoza GAFUROVA,
Samarqand davlat pedagogika instituti Boshlang‘ich va Maktabgacha ta’lim nazariyasi kafedrasi p.f.f.d.(PhD)
dilnozagaffurova@gmail.com
UDK: 373.3



STEAM TEXNOLOGIYASI ASOSIDA MAKTABGACHA TA’LIMDA MASHG‘ULOTLARNI TASHKIL ETISH TALABLARI

Annotatsiya*:* ushbu maqolada STEAM texnologiyasi asosida maktabgacha ta’limda mashg‘ulotlarni tashkil etish talablari va bu talablar asosida mashg‘ulot bosqichlari haqida yoritilgan.

Kalit so‘zlar: *maktabgacha ta’lim, bolada ijodkorlik, tasavvur, his-tuyg‘ular, tashabbus, harakatchanlik va moslashuvchanlik; mantiqiy tafakkurning shakllanishi, muhandislik, dizaynerlik, ta’lim-tarbiya jarayonidagi mustaqillik, integratsiyalashgan ta’lim.*

Аннотация: *в данной статье освещаются требования к организации занятий в дошкольном образовании на основе технологии STEAM, а также этапы проведения занятий, выстроенные в соответствии с этими требованиями.*

Ключевые слова: дошкольное образование, развитие у ребёнка творческих способностей, воображения, чувств, инициативности, подвижности и гибкости; формирование логического мышления, инженерное и дизайнерское мышление, самостоятельность в образовательном процессе, интегрированное обучение.

Annotation: this article discusses the requirements for organizing activities in preschool education based on STEAM technology, as well as the stages of these activities developed in accordance with these requirements.

Key words: *preschool education, development of children’s creativity, imagination, emotions, initiative, mobility and flexibility; formation of logical thinking, engineering and design skills, independence in the educational process, integrated education.*

Metodologiya va adabiyotlar tahlili. Maktabgacha ta’limda STEAM texnologiyasi bu – bolalarning har tomonlama intellektual bilimlarni egallashni ta’minlovchi, tayanch va rivojlanish sohasiga oid kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiluvchi, turli faoliyatlar mazmunini nostandart usullar integratsiyasi asosida amaliy ixtirochilik faoliyatini bajarishga yo‘naltirilgan, milliy qadriyatlarga asoslangan holda tadqiqotchi – “olim bola”ni hayotga tayyorlovchi texnologiyadir.

STEAM – tabiiy fanlar, texnologiya, muhandislik, san’at va matematika fanlarini uyg‘unlikda o‘qitish va o‘rgatish usuli bo‘lib, ushbu texnologiya an’anaviy ta’limdan farqli ravishda bilimlarni o‘zlashtirish jarayonini alohida emas, balki o‘zaro mutanosib holda olib borishni ta’minlashga xizmat qiladi.

Ta’lim jarayonida mazkur texnologiya tatbiq etilganda, bolalar mavzuga aloqador muammoni ko‘radi, bitta tushunchani bir qanchasi bilan almashtiradi, alohida tushunchalarni bir-biriga o‘xshata oladi, borliqni va atrof olamni butunligicha tasavvur qiladi, zarur bo‘lgan vaziyatda ma’lumotlarni xotirasiga tayangan holda, amalda qo‘llay oladi. Tafakkur qiladi va muammoga alternativ yechimlar topadi (ya’ni berilgan vazifaga asoslanib, bir necha hal etish yo‘llarini o‘ylab topadi), bilimlariga tayangan holda yangilarini o‘zlashtiradi. Pedagoglar STEAM texnologiyasi asosida mashg‘ulotlarni quyidagi talablar bo‘yicha tashkil etishlari maqsadga muvofiq:

– bolalarni yangi bilimlarni o‘zlashtirishlariga turtki berish;

– o‘zlashtirgan bilimlarini amaliy faoliyatda qo‘llashga yo‘naltirish;

– yangiliklarni qabul qilishdagi qiyinchiliklarni yengishga o‘rgatish;

– bolalarning fikrlash jarayonini nazorat qilish va turlicha g‘oyalarni bayon etishlariga imkon berish;

– o‘quv topshiriqlarini erkin va mustaqil bajarishlari uchun rivojlantiruvchi muhit yaratish;

– bolalarni individual xususiyatlarini inobatga olish.

Sanab o‘tilgan talablar asosida mashg‘ulot quyidagi bosqichlardan iborat bo‘ladi:

1-bosqich. Mavzuga doir manbalarni o‘rganish, materiallarni yig‘ish, ularning mohiyati bilan tanishib chiqish, ularda ilgari surilgan g‘oyalarni umumlashtirish, yaxlitlashdan iborat.

2-bosqich. Mavzu yuzasidan umumiy maqsadni aniq belgilash, ta’lim maqsadiga erishish yo‘lida ijobiy hal

etib borilishi lozim bo‘lgan vazifalarni ishlab chiqishga yo‘naltiriladi.

3-bosqich. Ta’lim maqsadi va vazifalariga tayangan holda, o‘quv jarayonining mazmunini ishlab chiqishdan iborat.

4-bosqich. Ta’lim jarayonini loyihalashning eng muhim bosqichi hisoblanadi. Bu bosqichda mashg‘ulotning shakli, metod va vositalarini tanlash kabi harakatlar amalga oshiriladi.

5-bosqich. Bu bosqichda vaqt hajmi belgilanadi. Muayyan mavzu yuzasidan ma’lum tushuncha, ko‘nikma va malakalarning ta’lim oluvchilar tomonidan qancha vaqt oralig‘ida o‘zlashtirilishi mumkinligi aniqlanadi.

6-bosqich. Bu bosqichda mashq, topshiriqlar tizimi ishlab chiqiladi. Bu bosqichda ishlab chiqiladigan topshiriqlar tizimini guruhlarga bo‘lish maqsadga muvofiq.

7-bosqich. Bu bosqichda faoliyatni nazorat qilish va test tizimini ishlab chiqish kabi vazifalar amalga oshiriladi. Ushbu test tizimining ishlab chiqilishi bolalarning mavzu yuzasidan muayyan tushunchalarni o‘zlashtirish, amaliy ko‘nikma va malakalarni shakllantira olganlik darajalarini aniq va xolis aniqlay olish imkonini beradi.

8-bosqich. So‘nggi bosqich, yaratilgan loyihani ta’lim jarayoniga tatbiq etilishi, ta’lim jarayonining yakuniy darajasini, samaradorligini o‘rganish bilan yakunlanadi.

Ta’lim jarayonini loyihalash pedagogik faoliyatning muvaffaqiyatini ta’minlashga olib keladi. Pedagogik jarayonni loyihalash aniq maqsad, mazmun va faoliyat o‘rtasidagi bog‘liqlikni aks ettirishi lozim.

5-7 yoshdagi bolalarda tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirishda asosiy vazifa tarbiyachiga yuklanadi. Demak, u tarbiyalanuvchilarda muammoni hal qilish uchun zarur bo‘lgan bilimlarni mustaqil ravishda olishga undaydigan muammoli vaziyatlarni yaratishi lozim. Ta’lim va tarbiya berishda innovatsion, kompetensiyaviy, integrativ yondashuvlarga asoslaniladi.

Natijalar va muhokama. STEAM texnologiyasi orqali bolalarda nazariy bilimlarni amalda qo‘llash malakasi shakllanadi, ularni real hayotga yaqinlashtiradi. Sohalararo o‘zaro bog‘liqlik ta’minlanadi, intellektual qobiliyatlar rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatadi, nafaqat ma’lumotlarni o‘rganadi balki, amaliy jarayonda qayta ishlash imkonini beradi. STEAM texnologiyasi bolalarga ma’lumotlarni to‘g‘ri qo‘llashga, bilimlarini amaliyotda tatbiq etishga yo‘naltiradi. Tarbiyalanuvchilar zamonaviy hayot talab etadigan barcha amaliy ko‘nikma va malakalarni egallaydi. Eng muhimi ijodiy potensialini namoyon etishga yordam beradi.

S-ilm-fan. Nimani, qanday tadqiq qilamiz? Qanday o‘rganamiz? Nimani qanday anglaymiz? Kabi savollar bilan bolalarga murojaat qilinadi.

T-texnologiya. Bolalar qanday algoritm asosida faoliyatni o‘zlashtiradi?

E-muhandislik. Bolalar qanday loyiha yoki mahsulot ishlab chiqadi?

A-san’at. Bolalar tasviriy san’atning qanday turlari bilan shug‘ullanadi?

M-matematika. Bolalar qanday elementar matematik tasavvurga ega bo‘ladi (geometrik shakllar, sanoq, miqdor, fazo va boshq.).

STEAM texnologiyasini tatbiq etish ta’limiy faoliyatni mazmunli va samarali bo‘lishini tasdiqlaydi.

STEAM ta’lim texnologiyasining asosiy pedagogik ahamiyatli jihati shundaki, shaxsni integratsiyalashgan rivojlanish imkoniyatidir. Integratsion yondashuv turli xil faoliyat turlari – o‘yin, texnik, nutq, vizual, kommunikativ, kognitiv va boshqalarning o‘zaro bog‘liqligida namoyon bo‘ladi.

Maktabgacha yoshda faoliyatning yetakchi turi o‘yin hisoblanadi, lekin STEAM texnologiyasi tadqiqotchilarining fikriga ko‘ra, bolalarning yetakchi faoliyat turi bu tajriba hisoblanadi. O‘yinchoqlar yordamida bolalar o‘lchash, tekislash, hisoblash, bo‘yash, muloqot qilishni o‘rganadilar va jamoa malakalarini egallaydilar. Bu ularga zarur matematik, muhandislik, san’at ko‘nikmalarini olishga yordam beradi. Bolalar o‘zlari uchun yangi va noaniq g‘oyalar tanlash va ular asosida ilk tajribalarni o‘tkazadi va shu orqali qiziqarli o‘yin shaklida yaratish salohiyati rivojlanadi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida STEAM laboratoriyalarini tashkil etish maqsadga muvofiq. Unda har bir yosh guruhlaridagi tabiat markazidagi jonli burchak, xonaki gullarni parvarishlashga e’tibor beriladi. Tarbiyachi rivojlantiruvchi markazlarni tashkil etishda shuningdek “Ilm-fan va tabiat” markazida quyidagi o‘ziga xos talablarni inobatga olishi maqsadga muvofiqdir. Avvalo markazlarda toza havo, toza joy, normal harorat bo‘lib, rivojlanish markazlari yorug‘ xonalarda tashkil etilishi lozim.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarining har bir rivojlantiruvchi markazi bolalarning jismoniy va psixologik xavfsizligini ta’minlovchi muhit sifatida tashkil etilishi lozim. Markazlarning tuzilishi bolalarning faol harakatlanishi, mustaqil tadqiqot faoliyati va kashfiyotchilik jarayonlarini qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilgan bo‘lishi zaruriyatdir. Bunday muhitni yaratishda jihozlarning miqdoriy yetarliligi, kichik hajmdagi eksperimental ishlar uchun maqsadli hududlarning ajratilishi muhim omillar hisoblanadi.

Markazlarda joylashtirilgan barcha didaktik vositalar hamda jihozlar tarbiyalanuvchilarning antropometrik xususiyatlariga mos ravishda, ularning erkin foydalanish imkoniyatini ta’minlovchi balandlikda joylashtirilishi talab etiladi. Faoliyat jarayonida bolalar o‘rtasida kooperativ munosabatlar va kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantirishga erishish maqsadida kichik guruhlarda,

juftliklarda o‘yinlar uchun maqsadli sharoitlar tuzilishi, jihozlarning tartibli va tematik prinsipda taqsimlangan holda saqlanishi zarur.

Maktabgacha ta’lim tizimida “Konstruktiv-qurish va matematik rivojlantirish” markazi bolalarning qurilish materiallari, konstruktorlar, qog‘oz, tabiiy va qayta ishlanadigan materiallardan turli obyektlar yaratish faoliyatini amalga oshiradigan makondir. Qurilish materiallari mayda va yirik hajmdagi geometrik shakllar – kub, silindr, prizma kabi figuralardan tashkil topadi. Pedagogik jarayonda qurilish materiallarining turli xil to‘plamlari qo‘llaniladi. Pedagog bolalarda muhandislik kompetensiyalarini rivojlantirishda qurilish-yaratish faoliyatini tashkil etishda inson, hayvon, o‘simlik va transport vositalarini tasvirlovchi miniatyura o‘yinchoqlarni tanlashi maqsadga muvofiqdir. Maktabgacha yoshdagi bolalar atrof-muhitdagi obyektlarni modellashtiradilar, masalan, quyonlar uchun uy, avtotransport va yo‘lovchilar uchun ko‘prik konstruksiyalarini yasaydilar. Miniatyura o‘yinchoqlarni qurilish jarayonida ishlatish o‘yin faoliyatining rivojlanishiga muhim hissa qo‘shadi va bolalarda muhandislik ko‘nikmalarining shakllanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Qurilish materiallari maxsus javonlarda tartibli va gigiyenik talablarga mos holda saqlanadi. Turli xil qurilish to‘plamlari – kubsimon elementlar, konstruktorlar, bloklar, didaktik o‘yinlar va boshlang‘ich matematik tasavvurlarni rivojlantiruvchi o‘quv-didaktik materiallar qo‘llaniladi.

Katta maktabgacha guruhi tarbiyalanuvchilari tashkiliy-o‘quv mashg‘ulotlaridan tashqari vaqtda turli materiallardan – yog‘och, plastmassa va metall konstruktorlardan buyumlar yaratish bilan shug‘ullanadilar. Pedagog rahbarligida bolalar sodda biriktirish usullari va namunalar asosida turli xil harakatchan konstruksiyalar yasaydilar. Asosiy e’tibor tarbiyalanuvchilarda elementlarni birlashtirish ko‘nikmalarini shakllantirish jarayoniga qaratiladi. Bu jarayonda bolalarning qo‘l muskulaturi faol ishtirok etadi, maktabgacha yoshda motor ko‘nikmalar hali to‘liq rivojlanmagan bo‘ladi. Pedagog dastlab konstruktor yig‘ish metodikasini o‘rganadi va bolalarga qurilish materiallari hamda konstruktorlar ketma-ketlik tamoyili asosida taqdim etiladi. Turli xil qurilmalarni qurish orqali muhandislik ko‘nikmalarini rivojlantirishda asosan bolalarga qurilish materiali – kubik, g‘ishtchalar, turli xil shakllar bilan, ularning qanday holatda joylashganligi (g‘ishtcha yotibdi, turibdi) bilan tanishtiriladi. Bundan tashqari kubiklarni gorizontal holda joylashtirish, bir-birini ustiga qo‘yish, darvoza, uycha qurish kabilar ham o‘rgatiladi.

Bolalarga asosiy qurilish materiallarini (kubik, g‘ishtcha, plastilin) farqlash bilan birga ularni nomini aytish, katta, kichik, uzun, qisqa, baland, past kabi so‘zlarni ma’nosini tushunib aytish, g‘ishtchalarni orasini teng masofada joylashtirish kerakligi tushuntiriladi.

Xulosa. Rivojlantiruvchi markazlar mazmunli segmentlarga bo‘lingan holda, har bir qismda bolalar uchun zaruriy hamda qiziqarli predmetlar, didaktik materiallar, o‘yin vositalari va tarqatma materiallar mavjud bo‘lishi kerak. Markazlarga tegishli mebel buyumlari tarbiyalanuvchilarning fiziologik imkoniyatlariga moslashtirilgan, ularning erkin harakatlanishiga to‘sqinlik qilmaydigan tarzda joylashtirilishi, bolalarning jihozlarni o‘zlari mustaqil ravishda ko‘chirib o‘rnatish imkoniyatini ta’minlashi, shuningdek, alohida ehtiyojli bolalar uchun maxsus moslashtirilgan mebel mavjudligi talab etiladi. Markazlardagi rivojlantiruvchi muhit tarbiyachilar va tarbiyalanuvchilar uchun qulaylik yaratishi, mustaqil tanlov huquqini berishi hamda avtonom qaror qabul qilish kompetensiyasini shakllantirishi muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Gafurova D. S. Maktabgacha ta’limda STEAM texnologiyalari / O‘quv qo‘llanma. “Samarqand davlat chet tillar instituti” nashriyoti. 2023. 314-bet

2. Gafurova Dilnoza Salokhiddinovna. Advantages of using steam technology in preschool educational organization. – 2023.

3.Gafurova D. Maktabgacha yoshdagi bolalarning tadqiqotchilik qobiliyatlarini shakllantirishda STEAM texnologiyasining ahamiyati. O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2024, [1/5/1] ISSN 2181-7324 94-96 bet.

4.Савенкова, Л. Г. Исследовательская и проектная деятельность детей дошкольного возраста. — Москва: Просвещение, 2020.

5.Ксенофонтова, М. Инженерное мышление в дошкольном возрасте. — Москва, 2021.

6.Яковлева, Н. В. STEAM-образование в дошкольных организациях. — Москва: Педагогическое общество, 2020.

7.Yakman, G. STEAM Education: An Overview of Creating a Model of Integrative Education. — STEAM Education Journal, 2010.

Mashxura XAFIZOVA,
Samarqand davlat tibbiyot universiteti
“Pedagogika-psixologiya” kafedrasi dotsenti
mashxuraaminovna1967@gmail.com

NOLINGVISTIK OLIY TA’LIM MUASSASALARI TALABALARINING NUTQ KO‘NIKMALARI VA MALAKALARINI RIVOJLANTIRISHDA O‘YIN TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

Annotatsiya:maqolada chet tillarini, xususan rus tilini o‘qitish metodikasida o‘yin texnologiyalaridan foydalanishning o‘rni ko‘rib chiqiladi. O‘yin texnologiyalari talabalarining chet tilidagi nutqiy ko‘nikma va malakalarini shakllantirishga sezilarli darajada yordam beradi. Bilish jarayoniga qiziqishni uyg‘otib, o‘zaro raqobat va tashabbus muhitini shakllantiruvchi, talabani faol ishtirokchi sifatida jarayonga jalb etuvchi interaktiv metodlar kundalik o‘quv amaliyotining ajralmas qismiga aylanmoqda. Geymifikatsiya – aynan ana shunday zamonaviy yondashuvlardan biri sifatida e’tirof etiladi.

Kalit so‘zlar: *o‘yin texnologiyalari, pedagogik o‘yin, nutqiy ko‘nikma va malakalar, og‘zaki muloqot, ijobiy sifatlar.*

Аннотация: в статье рассматривается роль игровых технологий в методике преподавания иностранных языков, в частности русского языка. Игровые технологии вносят значительный вклад в развитие речевых навыков и коммуникативных компетенций учащихся на иностранном языке. Интерактивные методы, стимулирующие интерес к процессу обучения, создающие атмосферу конкуренции и инициативы, а также вовлекающие учащихся в качестве активных участников, становятся неотъемлемой частью повседневной образовательной практики. Геймификация признана одним из таких современных подходов.

Ключевые слова: *игровые технологии, педагогическая игра, навыки и компетенции устной речи, устная коммуникация, позитивные качества*

Annotation:the article examines the role of game technologies in the methodology of teaching foreign languages, particularly the Russian language. Game technologies significantly contribute to the development of students’ speech skills and communicative competencies in a foreign language. Interactive methods that stimulate interest in the learning process, create an atmosphere of competition and initiative, and involve students as active participants are becoming an integral part of everyday educational practice. Gamification is recognized as one of such modern approaches.

Key words: *game-based technologies, pedagogical game, speaking skills and competencies, oral communication, positive qualities.*

Kirish. Zamonaviy globallashuv sharoitida mamlakatimizda ta’lim mazmuni va shakllarini zamonaviy texnologiyalar asosida yangilash, talabalarda mustaqil fikrlash, tanqidiy tahlil va ijodiy yondashuv ko‘nikmalarini rivojlantirish, o‘quv jarayoniga raqamli ta’lim resurslari, interaktiv metodlar hamda kompetensiyaviy yondashuvlarni joriy etish dolzarb vazifalardan biri sifatida qaralmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2025-yil 26-dekabr kuni Oliy Majlis va xalqimizga yo‘llagan Murojaatnomasida alohida ta’kidlaganidek: “Kirib kelayotgan 2026-yil ... ta’lim, ilm-fan, tibbiyot, madaniyat, sport, ekologiya – barcha sohalarni rivojlantirishda burilish yili bo‘ladi”[1]. Ushbu fikr “Yangi O‘zbekiston” taraqqiyot strategiyasining ustuvor yo‘nalishlari doirasida sifatli ta’lim tizimini yaratish, pedagog kadrlar malakasini oshirish va innovatsion metodikalarni joriy etish muhim vazifalardan biri ekanligini amaliy siyosat nuqtayi nazaridan tasdiqlaydi.

Pedagog kadrlar oldiga uzluksiz o‘zini rivojlantirishga intiluvchi, tanqidiy fikrlash ko‘nikmalariga ega, bilim va malakalarini muntazam takomillashtirib boruvchi mutaxassislarni tarbiyalash, shuningdek, xorijiy tillarni joylarda ommalashtirish va o‘rganish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish vazifalari qo‘yilgan. Mazkur chora-tadbirlar O‘zbekistonning yangi “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunida ham mustahkamlab qo‘yilgan.

Shunday innovatsion choralardan biri sifatida xorijiy tillarni o‘qitishda o‘yin shakllarini izchil joriy etish hamda o‘yin texnologiyalaridan foydalanish alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur texnologiyalar talabalarning bilish, kognitiv va ijodiy faolligini oshiradi, nutqiy tafakkur faoliyatini rivojlantiradi va takomillashtiradi, ta’lim sifati hamda samaradorligini oshirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

O‘yin — bu “kelajakdagi kasbiy faoliyatning imitatsion sharoitida muloqot ishtirokchilarining o‘zaro hamkorlik modeli bo‘lib, uning jarayonida ishtirokchilar kasbiy yo‘naltirilgan ko‘nikmalarni rivojlantiradi va takomillashtiradi”[2].

Talabalarning bilishga bo‘lgan motivatsiyasini oshirish vositasi sifatida o‘yin texnologiyalarining tanlanishi bejiz emas. Chunki ko‘plab tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, aynan o‘yin texnologiyalari ta’lim jarayonida muayyan fanlarga bo‘lgan qiziqishni kuchaytiruvchi, turli sifatlarni shakllantiruvchi muhim manba hisoblanadi. Har qanday xorijiy tilni o‘qitishda og‘zaki nutqni rivojlantirish muhim o‘rin tutadi va bo‘lajak rus tili o‘qituvchilarining o‘qish kompetensiyasini rivojlantirish maqsadida optimallashgan kognitiv yuklama modeli “interaktiv”, “hamkorlikda ishlash”, “muammoli o‘qitish”, “refleksiv faoliyat”, “o‘z-o‘zini baholash”, “axborot-kommunikatsiya texnologiyalari” texnologiyalari integratsiyasi asosida ishlab chiqilishi o‘qish

kompetensiyasining “kognitiv-faoliyatli” va “refleksiv-regulyativ” komponentlarining samaradorligini ta’minlashiga xizmat qiladi, og‘zaki nutq tilning kommunikativ funksiyasini namoyon etib, ta’lim jarayonini real muloqot sharoitiga yaqinlashtiradi. Shu sababli talabalarni og‘zaki muloqotga jalb etish o‘yin faoliyati orqali samarali amalga oshirilishi mumkin.Shubhasiz, xorijiy tilni, ayniqsa gapirish ko‘nikmalarini o‘qitishda o‘quv-o‘yin faoliyatining roli nihoyatda katta [3,4].

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Gapirish inson nutq faoliyatining bir turi sifatida, avvalo, tilga kommunikatsiya vositasi sifatida tayanadi. Gapirishning asosida tilning leksik birliklarini tushunish va anglash yotadi. Agar nutq gapirish sifatida qaralsa, u verbal kommunikatsiya vositasi, ya’ni til yordamida amalga oshiriladigan og‘zaki muloqot jarayoni hisoblanadi.

Biz E.I. Passovning quyidagi fikrlariga qo‘shilamiz: o‘yinlardan o‘quv jarayonida foydalanishning asosiy maqsadlari — muayyan ko‘nikmalarni shakllantirish, nutqiy malakalarni rivojlantirish, muloqot qilishni o‘rgatish, zarur qobiliyat va psixik funksiyalarni rivojlantirish hamda nutq materialini mustahkam eslab qolishdan iborat [5].

Oliy ta’lim muassasalarida o‘yinlardan foydalanishning psixologik-pedagogik va metodologik asoslarini yaratish ustida O.G. Gazman (o‘yin nazariyasi), A.A. Verbitskiy (ishbilarmonlik o‘yini), P.I. Pidkasistiy va J.S. Xaydarov (ta’limiy o‘yinlar), V.A. Traynev (o‘yinli modellashtirish metodlari), L.T. Axmedova va E.A. Lagay (o‘yin texnologiyalari) kabi olimlar ishlaganlar. O‘yin faoliyati muammolari bilan shug‘ullangan mualliflar o‘quv o‘yinlarini turli yondashuvlar asosida turlicha tasniflaydilar. Barcha o‘quv o‘yinlariga xos umumiy jihat shundan iboratki, ular o‘z mohiyatiga ko‘ra situativ-variativ mashqlar bo‘lib, har qanday murakkablikdagi leksik-grammatik namunalarni mustahkamlash va faollashtirishda qo‘llanishi mumkin [6, 56-b.].

Muhokama va natijalar.Bugungi tez rivojlanayotgan dunyoda oliy ta’lim muassasalarida o‘yinlardan foydalanish tabiiy va qonuniy hodisa hisoblanadi. Bu nafaqat zamonaviy ta’lim talablari bilan mavjud vositalar o‘rtasidagi ziddiyatlar, balki qator fundamental tadqiqotlar bilan ham asoslanadi [7; 67-b.].

O‘yinni falsafiy, psixologik va sotsiologik nuqtayi nazardan ta’lim vositasi sifatida o‘rganish, uni ta’lim jarayoniga integratsiya qilish uchun muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi. Chunki mazkur muammoning ahamiyati tobora ortib bormoqda [8; 189-b.]. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, rivojlantiruvchi o‘yin shakllari o‘qitishni yengillashtiradi, uni tezlashtiradi hamda olingan tajribani uzoq muddat xotirada saqlashga yordam beradi.

Ta’lim jarayonida o‘yinlardan foydalanish talabalarda quyidagi ijobiy sifatlarni shakllantirish va rivojlantirishga xizmat qiladi:

- ✓ fan bo‘yicha bilimlarni maksimal darajada o‘zlashtirish;
- ✓ adabiy va internet manbalaridan ma’lumotlarni to‘g‘ri izlash va tanlash;
- ✓ kelajak kasbiga zarur bo‘lgan maxsus ko‘nikmalarni egallash;
- ✓ ommaviy nutq madaniyatini takomillashtirish;
- ✓ o‘z fikrini to‘g‘ri bayon eta olish;
- ✓ bilish va tafakkurga yo‘naltirilgan aqliy faoliyatni faollashtirish;
- ✓ raqobat va sport ruhini shakllantirish;
- ✓ faol hayotiy pozitsiyani yaratish va mustahkamlash;
- ✓ erkin kommunikativlik va muloqotchanlik;
- ✓ jamoada ishlash qobiliyati;
- ✓ ixtirochilik, topqirlik, ijodiy qobiliyat va dunyoqarashni rivojlantirish.

Pedagoglarning refleksiv faoliyati va innovatsion izlanishlari geymifikatsiya samaradorligini oshirish uchun muhim asos yaratadi. Natijalar doimiy ravishda takomillashib bormoqda: o‘quv dasturlari va ta’lim texnologiyalari ilg‘or tajriba hamda metodikalar almashinuvi asosida muntazam yangilanmoqda. Har bir ta’lim oluvchi individual rivojlanish trayektoriyasiga ega bo‘lib, ta’lim jarayonidan zavq oladi va yuqori natijalarga intiladi.

Geymifikatsiya samaradorligida tizimli yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi. Yutuq indikatorlari, reytinglar, dastlabki va yakuniy natijalar doimiy monitoring ostida bo‘ladi. Funksional baholash, o‘ziga ishonch va jamoaga sodiqlik ham ta’lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Hozirgi kunda rus tilini o‘qitishda geymifikatsiyani oliy ta’lim tizimiga integratsiya qilish zamonaviy pedagogikaning muhim afzalliklari, yangi yondashuvlari va innovatsion natijalarini namoyon etmoqda. Bu esa o‘qituvchi va talabalar uchun yangi imkoniyatlarni ochib berib, har bir ishtirokchini ta’lim jarayonining faol, tashabbuskor va ijodkor subyekti sifatida shakllantiradi [6].

Xulosa.O‘z faoliyatida o‘yin texnologiyalaridan foydalanadigan va ularni ta’lim jarayoniga joriy etadigan o‘qituvchining maqomi yanada oshadi. Pedagog endilikda faqat bilim beruvchi emas, balki yakuniy xulosalarni chiqaruvchi va ishtirokchilar fikrini umumlashtiruvchi moderator sifatida faoliyat yuritadi.

Shunday qilib, ta’lim jarayonida o‘yin elementlari va interaktiv metodlardan foydalanish motivatsiyani oshirishga, kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishga, shuningdek, ta’lim oluvchilarda bilim olish jarayonida faol, mustaqil va mas’uliyatli pozitsiyani shakllantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning 2021-yil 6-maydagi chet tillarini o‘qitish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlariga bag‘ishlangan videoselektor yig‘ilishidagi nutqi. Elektron resurs: gazeta.uz.

2.Gez N.I. Chet tillarini o‘qitish metodikasi: darslik / M.V. Luxovitskiy, A.A. Mirolyubov va boshqalar. – Moskva: Vysshaya shkola, 2009. 345-b.

3.Stronin M.F. Ingliz tili darslarida o‘qituvchi o‘yinlari: o‘qituvchilar uchun qo‘llanma. – 2-nashr. – Moskva: Prosveshcheniye, 1984.111-b.

4.Elkonin D.B. O‘yin psixologiyasi. – Moskva: Vlados, 1999.

5.Passov E.I. Chet tilida gapirishga kommunikativ metod asosida o‘qitish. – Moskva, 1991.

6.Raximov N.L., Xalilov A.M. O‘yin texnologiyalarining o‘quvchilar motivatsiyasiga ta’siri // Pedagogika. 2018.№3.

7.Petrichuk I.I. Yana bir bor o‘yin haqida // Pedagogika. 2007. №7. 56-b.

8.Zanko S.F., Tyunnikov Yu.S., Tyunnikova S.M. O‘yin va ta’lim: o‘yinli ta’lim nazariyasi, amaliyoti va istiqbollari. – Moskva, 1992.127 b.

Yorqinoy MURODOVA,
Axborot kommunikatsiya texnologiyalari va harbiy aloqa instituti katta o'qituvchisi



ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR VA O'QITISHNING YANGI MODELLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada zamonaviy pedagogik texnologiyalar va o'qitishning innovatsion modellari tahlil qilingan. Ta'lim tizimida raqamlashtirish jarayoni, sun'iy intellekt asosidagi yondashuvlar, interaktiv metodlar hamda kompetensiyaviy ta'lim konsepsiyasining o'rni yoritilgan. Shuningdek, maqolada kursantlarni tayyorlash tizimida zamonaviy metodlarning qo'llanishi, ularning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishdagi ahamiyati asoslab beriladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, innovatsion pedagogik texnologiyalarni samarali joriy etish ta'lim sifatini oshirish, mustaqil fikrlashni rivojlantirish va real hayotiy vaziyatlarda bilimlarni qo'llash imkoniyatlarini kengaytiradi.

Kalit so'zlar: *zamonaviy pedagogik texnologiya, innovatsion ta'lim, blended learning, adaptiv ta'lim, kompetensiyaviy yondashuv, raqamli ta'lim, sun'iy intellekt, interaktiv metodlar.*

Аннотация: в данной статье анализируются современные педагогические технологии и инновационные модели обучения. Освещены процесс цифровизации в системе образования, подходы на основе искусственного интеллекта, интерактивные методы и роль концепции компетентностного образования. Также в статье обосновывается применение современных методов в системе подготовки курсантов, их значение в развитии профессиональных компетенций. Результаты исследования показывают, что эффективное внедрение инновационных педагогических технологий расширяет возможности повышения качества образования, развития самостоятельного мышления и применения знаний в реальных жизненных ситуациях.

Ключевые слова: *современные педагогические технологии, инновационное образование, адаптированное образование, компетентностный подход, цифровое образование, искусственный интеллект, интерактивные методы.*

Annotation: this article analyses modern pedagogical technologies and innovative learning models. It highlights the process of digitalization in the education system, approaches based on artificial intelligence, interactive methods, and the role of the competency-based education concept. The article also substantiates the application of modern methods in the training system of cadets and their importance in developing professional competencies. The research results show that the effective implementation of innovative pedagogical technologies expands opportunities for improving the quality of education, developing independent thinking, and applying knowledge in real-life situations.

Key words: *modern pedagogical technologies, innovative education, adaptive education, competency-based approach, digital education, artificial intelligence, interactive methods.*

Kirish. Bugungi globallashuv va raqamlashtirish sharoitida ta'lim tizimi tubdan o'zgarib bormoqda. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar o'qitish jarayonining ajralmas qismiga aylanib, ta'lim sifatini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, innovatsion texnologiyalarni qo'llash o'quvchilarning bilim olish faolligini oshiradi va ta'lim samaradorligini sezilarli darajada yaxshilashga, ta'lim olishga intilishga, izlanishga undamoqda.

XXI asrda ta'lim tizimi global transformatsiya jarayonini boshdan kechirmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi natijasida an'anaviy o'qitish usullari o'z o'rnini zamonaviy pedagogik texnologiyalarga bo'shatib bermoqda. Zamonaviy ta'limning asosiy vazifasi – faqat bilim berish emas, balki shaxsda mustaqil fikrlash, muammolarni hal qilish, innovatsion yondashuvni shakllantirishdir. Shu nuqtai nazardan, pedagogik texnologiyalarni takomillashtirish va yangi o'qitish modellari ishlab chiqish dolzarb ilmiy muammolardan biri hisoblanadi.

Fan va texnikaning tez sur'atlar bilan rivojlanishi, turli yo'nalishlarda bilim hajmining o'sib borishi fanning tabaqalanib, turli tarmoqlarga bo'linishiga sabab bo'lmoqda. Yaqin o'tmishda falsafadan ajralib chiqqan pedagogika fanida ham ko'pgina tarmoqlarga bo'linish jarayoni ko'zga yaqqol tashlanadi. Ayrim tarmoqlar esa mustaqil fan sifatida shakllandi. Masalan, maktab pedagogikasi, maktabgacha tarbiya pedagogikasi. Ayrimlari esa fan sifatida endi shakllanib kelmoqda. Kattalar pedagogikasi, oliy maktab pedagogikasi shular jumlasidandir. Hozirgi zamon pedagogikasi ko'p tarmoqli fan bo'lib, avvalo u tarbiya ijtimoiy hodisa ekanligi jihatidan pedagogika tarixi bilan bog'lanadi. Ko'zi ojiz, aqli zaif, qulog'i kar jismoniy kamchiliklarga ega bo'lgan

bolalarni tarbiyalash va ularni hayotga tayyorlash bilan shug‘ullanadigan pedagogikaning yana bir tarmog‘i maxsus pedagogika (surdopedagogika, tiflopedagogika, olegofrenopedagogika) defektologiya bilan chambarchas bog‘liqdir. Pedagogika fanining tarmoqlariga predmetlarni o‘qitishning qonuniyatlarini o‘rganuvchi fan – metodika ham kiradi.[5] Shu bilan birga, pedagogika alohida taraqqiy etgan fan sifatida boshqa fanlardan ajralgan holda rivojlana olmaydi. Pedagogikaning tarbiya sohasidagi obyekti o‘sib kelayotgan yosh avlod bo‘lganligi uchun pedagogika insonni o‘rganuvchi fanlar bilan bog‘lanadi.

Tarbiyaning maqsadi ilmiy dunyoqarashni shakllantirish; jamoa va shaxs muammolari, pedagogikani boshqa fanlar bilan uzviy bog‘liqligidir. Iqtisod va xususan, uning bir bo‘lagi bo‘lgan xalq ta’limi iqtisodi pedagogika bilan bog‘lanib ketadi. Chunki iqtisodchilarning olib borgan tadqiqotlari natijasiga ko‘ra ishlab chiqarishning yuksak samaradorligi umumiy ta’limning yuqori darajada rivojlanganligiga bog‘liq ekan.

Pedagogika bola tarbiyasida uning yosh va individual (psixologik) xususiyatlarini hisobga olib boradi. Shu bois pedagogika uchun pedagogik psixologiyaning bola xususiyatlari, ularda o‘tadigan psixik jarayonlarining qonuniyatlari haqidagi ma’lumotlar muhimdir.[6] Shunga ko‘ra, pedagogikaning psixologiya fani bilan bog‘liqligi an’anaviy tus olgan. Keyingi vaqtlarda pedagogikaning kibernetika (muhim dinamik tizimlarni boshqarishni o‘rganadigan fan) bilan bog‘lanishi ko‘zga tashlanmoqda. Bu holni kibernetikaning umumiy g‘oyalaridan ta’limda foydalanish tajribalarini programmalashtirilgan ta’lim misolida ko‘rish mumkin. (Pedagogikaning boshqa fanlar bilan bog‘lanish tizimida etnografiya, xalq pedagogikasi kabilar alohida o‘rin tutadi.



Pedagogika o‘z tadqiqot obyektiga va tadqiqot metodlariga ega. Barcha fanlar kabi pedagogika fani ham takomillashib borishga, ayrim pedagogik hodisalarni tekshirishga, ularni to‘g‘ri hal etish yo‘llarini aniqlashga yordam beradi. Pedagogik muammolarni tadqiq etish adabiyotlarni o‘rganishdan boshlanadi. O‘rganiladigan hujjatlar va manbalarga xalq maorifiga aloqador hujjatlar, qonunshunoslikka oid huquqiy hujjatlar kiradi. Shu bilan birga, pedagogika faniga oid bo‘lgan tarixiy-pedagogik adabiyotlar, arxiv hujjatlari, pedagogik matbuot materiallari, darsliklar, o‘quv-metodik ishlanmalar ham kiradi. Adabiyotlarni o‘rganish metodi muammolarning qay tomonlari yaxshi ochilganini, qaysi masalalar hal etilmagani kabilarni bilish imkoniyatini beradi.



Pedagogikaning ko‘pgina muammolarini hal etishda ta’lim-tarbiya sohasida orttirilgan tajribalarni o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Ilg‘or o‘qituvchilar tajribasi bilan bir qatorda oddiy o‘qituvchilarning faoliyatlari ham o‘rganib boriladi. Chunki, tajribalarni o‘rganish jarayonidagi muammo: yutuq va kamchiliklar aniqlanadi. Pedagogik tajribalarni o‘rganishda kuzatish, intervyu olish, anketalashtirish, o‘quvchilarning yozma va ijodiy ishlari, pedagogik hujjatlarni o‘rganish metodlaridan foydalaniladi. Kuzatish – o‘rganish lozim bo‘lgan pedagogik hodisani ma’lum maqsad nuqtai nazaridan kelib chiqqan holda kuzatuvchi kuzatish bayonnomasini olib boradi. Kuzatish obyektiga oid bo‘lgan aniq material tayyorlanadi.

Pedagogik hodisalarni tadqiq qilish jarayonida eksperiment muhim ahamiyat kasb etadi. Maxsus tashkil etilgan eksperiment qo‘llanilayotgan yoki qo‘llanishi mumkin bo‘lgan u yoki bu metod va usullar samaradorligini aniqlash maqsadida amalga oshiriladi. Matematik metod ommaviy materiallarni tahlil qilishda (masalan, anketalashtirish yo‘li bilan to‘plangan materiallarni yoki ma’lumotlarni umumlashtirish uchun) qo‘llaniladi.[6] Bu metod eksperiment natijalarining aniq baholanishini, xulosalarning ishonchli bo‘lishini ta’minlaydi.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar tushunchasi bu – o‘qitish jarayonini tizimli tashkil etish, rejalashtirish va natijaga yo‘naltirilgan holda amalga oshirish metodlari majmuidir. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarga quyidagilar kiradi:

- interaktiv o‘qitish metodlari;
- axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT);
- loyiha asosida o‘qitish (Project-based learning);
- muammoli ta’lim (Problem-based learning);
- kompetensiyaviy yondashuv.

Bu texnologiyalar o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi va ijodiy qobiliyatini rivojlantiradi. O‘qitishning zamonaviy modellari quyidagilar: Blended learning (aralash ta’lim) Blended learning an’anaviy va masofaviy ta’limni uyg‘unlashtiradi. Bu model o‘quv materiallarini mustaqil o‘zlashtirish, auditoriya mashg‘ulotlarida muhokama

qilish imkonini beradi. Ilmiy tadqiqotlarga ko'ra, bu model o'quvchilarning faolligini oshiradi va bilimlarni mustahkamlashga yordam beradi. Masofaviy ta'lim raqamli platformalar orqali amalga oshiriladi va ayniqsa, pandemiya davrida keng rivojlandi.

Adaptiv o'qitish - sun'iy intellekt va ma'lumotlar tahliliga asoslanadi. U har bir o'quvchining bilim darajasiga mos individual ta'lim yo'lini yaratadi.[4] Bu yondashuv o'quv motivatsiyasini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Kompetensiyaviy yondashuvda asosiy e'tibor bilim emas, balki ko'nikma, malakani real hayotiy vaziyatlarda qo'llashga qaratiladi. Raqamli texnologiyalarning o'rni. Zamonaviy ta'limda quyidagi texnologiyalar keng qo'llanilmoqda: sun'iy intellekt (AI) virtual va kengaytirilgan reallik (VR/AR) learning analytics (ta'limiy ma'lumotlar tahlili) Kursantlar uchun zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash quyidagilarni talab qiladi: amaliy mashg'ulotlarga yo'naltirilgan darslar, simulyatsiya va treninglardan foydalanish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, jamoaviy ishlashni rivojlantirish.[7] Bu yondashuv kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.



Pedagogik texnologiya tushunchasi ilk bor XX asr o'rtalarida ilmiy muomalaga kiritilgan bo'lib, u o'qitish jarayonini tizimli tashkil etish, rejalashtirish va boshqarish mexanizmini anglatadi. Zamonaviy talqinda pedagogik texnologiya quyidagi komponentlardan iborat: maqsad, mazmun, metodlar, vositalar, natija. Pedagogik texnologiyaning muhim xususiyatlari tizimlilik, takrorlanish imkoniyati, samaradorlikka yo'naltirilganlik, natijani oldindan prognoz qilish kerak.[7] Shu jihatdan pedagogik texnologiya oddiy metodlardan farqli ravishda to'liq o'quv jarayonini qamrab oladi**.**

Xulosa. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar ta'lim tizimini yangi bosqichga olib chiqayotgan muhim omillardan biri hisoblanadi. Raqamlashtirish jarayonlari, sun'iy intellekt, interaktiv metodlar hamda kompetensiyaviy yondashuv asosidagi ta'lim modellari o'quvchilarning bilim olish samaradorligini oshirish bilan birga, ularning mustaqil fikrlashi, ijodkorligi va amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, blended learning, masofaviy va adaptiv ta'lim kabi zamonaviy modellarning joriy etilishi ta'limning moslashuvchanligi va qulayligini ta'minlab, individual yondashuv imkoniyatlarini kengaytirmoqda.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, pedagogik texnologiyalarni samarali qo'llash ta'lim jarayonining sifatini oshiradi, o'quvchilarning motivatsiyasini kuchaytiradi hamda bilimlarni real hayotiy vaziyatlarda qo'llash kompetensiyasini shakllantiradi. Interaktiv metodlar, muammoli ta'lim va loyiha asosida o'qitish usullari esa kursantlarning tahliliy fikrlash, jamoada ishlash va tezkor qaror qabul qilish qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, pedagogikaning psixologiya, kibernetika, metodika va boshqa fanlar bilan integratsiyasi zamonaviy ta'limning ilmiy asoslarini mustahkamlamoqda. Bu esa pedagogik jarayonni yanada samarali tashkil etish, o'qitish metodlarini takomillashtirish va innovatsion ta'lim muhitini yaratishga xizmat qiladi.

Kelajakda ta'lim tizimida innovatsion pedagogik texnologiyalarni keng joriy etish, raqamli platformalarni rivojlantirish hamda sun'iy intellekt imkoniyatlaridan oqilona foydalanish orqali yuqori malakali, raqobatbardosh va zamonaviy fikrlaydigan mutaxassislarni tayyorlash imkoniyati yanada ortadi. Shu sababli pedagogik texnologiyalarni chuqur o'rganish va amaliyotga samarali tatbiq etish bugungi kun ta'limining eng dolzarb vazifalaridan biri bo'lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Passov E.I. Коммуникативное обучение иностранным языкам – Moskva, 2010.
2.Shukin A.N. Методика обучения русскому языку как иностранному. – Moskva, 2015.
3.Jalolov J.J. Chet tillarni o'qitish metodikasi. – Toshkent, 2012.
4.Xolmatova G. Zamonaviy ta'lim texnologiyalari. – Toshkent, 2020.
5.Ergasheva M.,Shaydullayeva K. Yangi pedagogik texnologiyalar va o'qitishda, innovatsiyalar, https://academics.uz/index.php/zfty/article/view/
6.Rajabova O. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar, https://tadqiqotlar.uz/new/article/view/
7.Xomidjonov A. Oliy ta'limda pedagogik texnologiyalarni qo'llashning zamonaviy modellari.

Mahfuza XASANOVA,
Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim kafedrasi katta o‘qituvchisi

O‘ZBEK TILINI O‘QITISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Annotatsiya: hozirgi vaqtda ta’lim jarayonida o‘qitishning zamonaviy metodlari keng qo‘llanilmoqda.O‘qitishning zamonaviy metodlarini qo‘llash o‘qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Bu metodlarni har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq. An’anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda uni ta’lim oluvchilar faoliyatini faollashtiradigan turli-tuman metodlar bilan boyitish ta’lim oluvchilarning o‘zlashtirish darajasi o‘sishiga olib keladi.

Kalit so‘zlar: *zamonaviy ta’lim, o‘zbek tili, texnologiya, innovatsiyalar, metodika, kompetensiya, talabalar, kommunikativ savodxonlik.*

Аннотация: в настоящее время в учебном процессе широко используются современные методы обучения. Использование современных методов обучения приводит к высокой эффективности учебного процесса. Эти методы целесообразно выбирать исходя из дидактической задачи каждого урока. При сохранении традиционной формы урока, обогащениит его различными методами, активизирующими деятельность учащихся, происходит повышение уровня обученности учащихся.

Ключевые слова: *современное образование, узбекский язык, технология, инновации, методика, компетентность, обучающиеся.*

Annotation: currently, modern teaching methods are widely used in the educational process. The use of modern teaching methods leads to high efficiency in the teaching process. It is appropriate to choose these methods based on the didactic task of each lesson. While preserving the traditional form of the lesson, enriching it with various methods that activate the activity of learners, leads to an increase in the level of learning of learners.

Key words: *modern education, Uzbek language, technology, innovations, methodology, competence, students, communicative literacy.*

Kirish. Til millatimizning borlig‘i, qalbimizning quyoshidir. Til adabiyotni yashnatadigan, millatning ruhiy boyligini oshiradigan ijtimoiy hodisadir. Til yashasa millat ham, adabiyot ham yashaydi. Har qanday tilni o‘rganish uchun avval shu tildagi so‘zlarni bilib olish kerak bo‘ladi. Buning uchun esa shu tilda gap tuzish, so‘zlarni bog‘lash, qonun-qoidalarni bilish kerak. Tildagi tovushlar talaffuzini yaxshi o‘zlashtirib, so‘zlarni to‘g‘ri aytish ham til o‘rganishda juda muhimdir. Xalqlar o‘rtasidagi birlik, ahillik hurmat tilni bilishdan boshlanadi. Til bilan ko‘ngilni doimo bir tutish kerak. Chunki har bir millatning tili yaxshi insonlar qatoridan suv ichib turadi. O‘zbek tilining imkoniyatlari shu qadar kengki, unda nasr va nazm uchun kerakli bo‘lgan go‘zal va nafis uslublarni topish mumkin. Tilga bo‘lgan muhabbat tuyg‘usi ona suti bilan qonga kiradi. Tilimiz bizning ruhiy boyligimiz, ma’naviy borligimizdir. Millatni yashnatib, uni dunyoga tanitadigan asosiy vosita til desak adashmagan bo‘lamiz. Tilga bo‘lgan muhabbat tuyg‘usi har bir insonning qalbida jo‘sh urib to‘lqinlanib turmog‘i lozim. Olamning gultoji bo‘lgan insonga tuhfa qilingan til uning mislsiz boyligi hisoblanadi. O‘zbek tilining borlig‘i, boyligi, bo‘y-basti-yu butunligini ko‘rsata olgan filologiya fanlari doktori, professor Nizomiddin Mahmudov ta’kidlaganlaridek, “Odamni, olamni va Allohni tanimoqday mashaqqatli, sharafli yo‘lning avval-oxir charog‘boni shu tildir. Dunyoda o‘zining kimligini anglash, qavmining ahamiyati va hurligini ko‘rish tuyg‘usi ham, avvalo, til tufayli poydordir. Ona tilining inson va aqliy va ma’naviy-ruhiy dunyosining tayanchi ekanligidan iborat haqiqatni hushi o‘zida bo‘lgan odamlarning barchasi e’tirof etadi”. Har qanday milliy til o‘zida shu tilda so‘zlovchi xalqning estetik, axloqiy-badiiy va falsafiy, diniy-etnografik, tarixiy va ijtimoiy, mafkuraviy va ma’naviy qarashlarini, ular haqidagi tushunchalar, tasavvurlar, kategoriyalar, mushohadalarni o‘zida ifoda etadi hamda buyuk merosni avloddan avlodga olib o‘tuvchi, ularni asrovchi va saqlovchi ma’naviy qurolga, xazinaga aylanadi.Shu sababli ham tilni shunchaki aloqa quroli deb bilish va baholash mantiqqa mutlaqo to‘g‘ri emas. O‘zbek tili – o‘zbek xalqining milliy tili. Unda o‘zbek xalqining o‘zligi, tabiati, saviyasi, tafakkur tarzi o‘z tajassumini topar ekan, demak, mazkur tilni asrab-avaylash, uning nufuzini, obro‘-mavqeyini ko‘tarish shu tilda so‘zlovchi har bir shaxsning insoniy burchi va huquqidir.

Muhokama va natijalar. Bugungi ta’lim jarayoni vaqtida interfaol uslublar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o‘quv darslari jarayoni mobaynida foydalanishga bo‘lgan intilish, e’tibor kundan-kunga ortib bormoqda. O‘qituvchi ushbu jarayonda o‘quvchining shaxsiy takomillashishi, rivojlanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga muhit yaratadi va shuning bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo‘naltiruvchilik funksiyasini ham bajaradi. Innovatsion texnologiyalar ta’lim sifati va samaradorligini yanada takomillashtirib, ta’lim jarayonining markaziga o‘quvchi va talabalarning o‘quv bilish faoliyatini oshirishga yordam beradi, ta’lim jarayoni yaxlitligini ta’minlaydi. O‘quvchi faoliyatining yuqori darajadagi ko‘rsatkichi, o‘quv-bilish faoliyatini tashkil

qilish, iroda va faoliyatning o'quvchi ongining predmetiga aylanishdir.Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun, dastlab, ta'lim beruvchi maqsadga eltuvchi texnologiyalarni tanlay bilishi, o'quv tarbiyaviy jarayon yaxlitligini ta'minlashi zarur. O'qituvchi dars vaqtida boshqa ma'lumotni taqdim qilish bilan bir qatorda internet ma'lumotlari, multimedia dasturlari, jadvallar va shunga o'xshash mavzuga doir qo'shimcha ma'lumotlarni ko'rsatib o'tsa, bu nafaqat o'quvchilarning darsga bo'lgan intilishini oshiradi, balki o'quvchilarning erkin o'qishini talab darajasida rivojlantirishiga, mavzuni imkon darajasida to'la o'zlashtirishiga ham yordam beradi. Innovatsion texnologiyalarni qo'llash natijasida o'quvchilarning erkin fikrlash, tahlil qilish, xulosalar chiqarish, o'z g'oyasini bayon etish, uni asoslangan tarzda himoya qila bilish, sog'lom muloqot, munozara, bahs olib borish malakalari takomillashib, shakllanib boradi. Pedagogik innovatsiyalar bu maqsadlarga samarali erishishga yordam beradigan ta'lim sohasidagi yangiliklarni ishlab chiqish, joriy etish, sinovdan o'tkazish va baholash jarayoni.

Pedagogik jarayonga faol joriy etilayotgan yangi yondashuvlar belgilangan maqsadlarga erishishga yordam beradi. Ular ta'lim muassasalarida ishning yangi usul va uslublarini ishlab chiqish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Ta'limga yondashuv – bu yangi texnologiyalar uchun asos bo'lgan asosiy tamoyil, talablar va maqsadlar to'plami. Zamonaviy ta'limning talabi o'quvchilarga imkon qadar ko'proq bilim berish emas, balki ularni o'z-o'zidan o'rganishga, nafaqat bilishga, balki olingan ma'lumotlar bilan ishlay olishga o'rgatishdir. Pedagogik innovatsiyalar ikkita asosiy yondashuvga asoslanadi:

1. Talabaga yo'naltirilgan yondashuv o'quv jarayonini har bir o'quvchi talaba shaxsiga yo'naltirishni nazarda tutadi. Zamonaviy pedagogika har bir o'quvchining o'ziga xos tajribasi va xarakterini hisobga olishi, uning individualligi va iste'dodini rivojlantirishi kerak. Ushbu yondashuvni amalga oshirish tanlov tamoyillariga tayanishni o'z ichiga oladi (talabalar o'zlari xohlagan sohalarni tanlashlari mumkin), ishonch (o'qituvchilar tomonidan avtoritar bosimning yo'qligi), ijodkorlik va muvaffaqiyat, subyektivlik, individuallik;

2. Kompetensiyaga asoslangan yondashuv o'zbek maktabi uchun yangi, u asosiy e'tiborni o'rganish natijasiga qaratadi, natijada esa bilimlar yig'indisi emas, balki ko'nikmalar yig'indisi, o'quvchining muammolarni, konfliktlarni hal qilish, turli vaziyatlarda harakat qilish qobiliyatidir. O'zbek tili o'qitish metodikasining asosiy maqsadi til imkoniyatlaridan to'g'ri, aniq, o'rinli va unumli foydalanish ko'nikma va malakalarini hosil qilish, mantiqiy - ijodiy tafakkurni rivojlantirish, kommunikativ savodxonlikni oshirish, o'quvchilarda milliy istiqlol g'oyasini shakllantirish va talaba shaxsini ma'naviy boyitishdan iborat. Til o'qitish metodikasining asosiy vazifasi talabalarni erkin, ijodiy, mustaqil fikrlarini og'zaki va yozma shaklda, adabiy til me'yorlari asosida to'g'ri ifodalay oladigan, bir ma'noni turli holatlarda berish ko'nikmasi shakllangan yetuk murabbiylarni tarbiyalab yetkazishdir. Erkin, mustaqil fikrlaydigan shaxsni tarbiyalash davlat siyosati darajasidagi vazifa sifatida e'tirof etilayotgan hozirgi kunda nutq madaniyatining ahamiyati juda katta. Zero ta'lim va tarbiya berishda asosiy vosita, qurol til sanaladi. Nutq madaniyatini o'stirish faqat filologiya sohasidagi ta'limiy-tarbiyaviy ish bo'lmasdan, g'oyaviy-siyosiy, ma'rifiy ishlarning ham eng muhim tomonlaridan birini tashkil etadi. Har bir inson uchun o'z milliy tilini o'rganish hayotiy ehtiyojdir. Ma'lumki, har bir shaxsda nutq madaniyatining yuksalishi milliy til sirlarini o'rganish, adabiy til me'yorlariga rioya qilgan holda to'g'ri gapirish va yozish, tilning leksik va grammatik birliklaridan o'rinli va maqsadga muvofiq tarzda foydalana olish omillariga bog'liq. O'zbek tilining me'yorlari mukammal shakllanganligi o'zbek xalqi madaniyatining ulkan yutug'idir. Mazkur tilni yuksak darajada asrab-avaylash maqsadga muvofiq. Millatimizning millatligini ko'rsatuvchi, "borligi, birligi, va butunligidan iborat boqiy baxtining bukilmas taxti" hisoblanuvchi raso va ravon tilimizning buguni va ertasi uchun har birimiz mas'ulmiz. Xullas, tilning rivojini ta'minlash, avvalo, jamiyatda til haqidagi tushunchalarning barqarorligiga, til egalarining bebaho boylikka hurmat-ehtiromiga bog'liq. O'zbek adabiy tili – har qaysi xalq va millat ma'naviyatida ulkan ahamiyat kasb etadigan, uning ruhiy olamini moddiy shaklda yuzaga chiqarish va umumbashariy taraqqiyot uchun xizmat qildirish, el-yurtni birlashtirish, o'zlikni anglashda muhim vosita bo'ladigan buyuk ijtimoiy hodisa.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, ta'lim tizimining hozirgi holati noan'anaviy ta'lim texnologiyalarining roli ortib borayotgani bilan tavsiflanadi. Talabalar tomonidan ularning yordami bilan bilimlarni o'zlashtirish an'anaviy texnologiyalarga qaraganda ancha tezdir. Ushbu texnologiyalar bilimlarni rivojlantirish, egallash va tarqatish xarakterini o'zgartiradi, o'rganilayotgan fanlarning mazmunini chuqurlashtirish va kengaytirish, uni tezda yangilash, samaraliroq o'qitish usullarini qo'llash, shuningdek, har bir kishi uchun ta'lim olish imkoniyatini sezilarli darajada kengaytirish imkonini beradi. Kompetensiyaga asoslangan yondashuvga asoslangan avlodning yangi davlat ta'lim standartlari joriy etish talabaning tobora faol ishtirok etishi asosida bir qator fanlarni, shu jumladan o'zbek tilni o'qitish uslublarida sezilarli o'zgarishlarni nazarda tutadi. Ta'lim jarayonining to'liq ishtirokchisi, uning katta mustaqilligi, aniq amaliy natijaga qaratilgan mashg'ulotlardir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abduraxmonov G., Shukurov Sh. O'zbek tilining tarixiy grammatikasi. 2018-yil.
2. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. 2022-yil.
3. Turdiyeva K, Axmedova D. O'zbek tili. 2007-yil.
4. O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili haqidagi" gi qonuni "O'zbek tilining yangi qonunlari" –To'plam 1998. 20-30-bet.
5. Shodmonov E., Rafiyev A., G'oyipov "O'zbek tili" (darslik) 1995-yil.

Dilnoza SULTANOVA,
Senior teacher Department of foreign language and literature Nordic International University
E-mail: sultanova@nordicuniversity.org,
ORCID: 0009-0007-8120-6324

THE USE OF HEDGING AND CERTAINTY IN AI-ASSISTED ACADEMIC WRITING

Annotation: this article examines the role of hedging and certainty in AI-assisted academic writing, discusses their linguistic features, and analyzes the potential benefits and risks of using AI tools in producing academically appropriate claims. The article argues that AI can support academic writing, but human control remains necessary to ensure accuracy, critical thinking, and responsible use of language.

Key words: *hedging, certainty, academic writing, artificial intelligence, AI-assisted writing, discourse, modality, academic communication.*

Аннотация: в данной статье рассматривается роль хеджирования и категоричности в академическом письме с использованием искусственного интеллекта, обсуждаются их лингвистические особенности, а также анализируются потенциальные преимущества и риски применения инструментов ИИ при формулировании академически корректных утверждений.

Ключевые слова: *хеджирование, категоричность, академическое письмо, искусственный интеллект, письмо с использованием ИИ, дискурс.*

Annotatsiya: ushbu maqolada sun'iy intellekt yordamida akademik yozuvda hedging va aniqlik ifodalarining o'rni ko'rib chiqiladi, ularning lingvistik xususiyatlari muhokama qilinadi hamda akademik jihatdan mos da'volarni shakllantirishda sun'iy intellekt vositalaridan foydalanishning mumkin bo'lgan afzalliklari va xavflari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: *hedging, aniqlik, akademik yozuv, sun'iy intellekt, sun'iy intellekt yordamida yozish, diskurs.*

INTRODUCTION

Academic writing is not only a process of presenting information, but also a way of expressing knowledge, argument, evaluation, and intellectual responsibility. Unlike informal writing, academic discourse requires precision, objectivity, logical structure, and careful positioning of claims. Writers must show what they know, what they assume, what they interpret, and what still needs further investigation. This is where hedging and certainty become important.

Hedging refers to the use of cautious language that softens claims and shows that a statement is based on evidence, probability, or interpretation rather than absolute truth. For example, phrases such as *may suggest*, *it seems that*, *possibly*, *likely*, and *the results indicate* are common hedging devices. Certainty, on the other hand, is expressed through words and structures that show confidence and strong commitment to a statement, such as *clearly*, *undoubtedly*, *demonstrates*, *proves*, and *it is evident that*.

With the emergence of AI-assisted writing tools, academic writers now have access to systems that can generate polished and grammatically correct texts within seconds. This is useful, especially for non-native English writers, students, and early-career researchers. However, AI-generated academic writing may sometimes overuse general phrases, produce unsupported confident claims, or apply hedging mechanically. As a result, the writer must understand how hedging and certainty function in academic discourse in order to use AI responsibly.

Hedging is one of the most important features of academic discourse. It allows writers to avoid making exaggerated or unsupported claims. Academic knowledge is often based on research, interpretation, and analysis, not on absolute certainty. Therefore, writers use hedging to show that their conclusions are reasonable but not final. For example, instead of writing: *This method improves students' writing skills.*

An academic writer may write: *This method may improve students' writing skills.* The second sentence is more cautious. It does not present the result as a universal fact. Instead, it suggests a possible relationship, leaving room for context, limitations, and further research. Humanity survived thousands of years just to discover that adding *may* can save your entire research paper from sounding ridiculous. Hedging can be expressed through different linguistic forms:

Type of hedging	Examples
Modal verbs	may, might, could, would
Adverbs	possibly, probably, generally, relatively
Verbs	suggest, appear, seem, indicate
Nouns	possibility, assumption, tendency, likelihood
Phrases	it can be argued that, the findings suggest that, to some extent

Hedging performs several important functions. First, it protects the writer from overgeneralization. Second, it shows respect for alternative views. Third, it helps writers present claims according to the strength of evidence. Finally, it reflects the nature of academic knowledge, which is usually open to discussion and revision.

Although caution is important, academic writing cannot consist only of weak or uncertain statements. Writers also need to express certainty when evidence is strong, when definitions are established, or when they are presenting well-supported conclusions. Certainty markers help create confidence and authority in academic texts. For example: *The data clearly demonstrates a connection between motivation and language learning outcomes.* In this sentence, the word *clearly* and the verb *demonstrate* express confidence. Such language is useful when the writer has strong evidence. However, if the evidence is limited, this type of certainty may become problematic. Certainty can be expressed through:

Type of certainty marker	Examples
Strong verbs	prove, demonstrate, confirm, establish
Adverbs	clearly, undoubtedly, certainly, definitely
Adjectives	evident, obvious, undeniable, significant
Phrases	it is clear that, there is no doubt that, the results confirm that

AI-assisted writing tools can generate academic-style texts quickly. They often produce grammatically correct sentences, formal vocabulary, and organized paragraphs. However, their use of hedging and certainty can be inconsistent. Sometimes AI tools produce statements that sound confident even when there is no real evidence. In other cases, they overuse hedging phrases and make the text vague.

For example, an AI-generated sentence may say: *AI tools undoubtedly improve students' academic writing performance.* This sentence is too strong unless it is supported by specific research data. A more appropriate academic version would be: *AI tools may contribute to the improvement of students' academic writing performance when used critically and appropriately.* Here, the claim is more balanced. It recognizes the possible benefit of AI while also showing that the result depends on context and use. AI tools may also produce repetitive hedging: *It seems that AI may possibly help students to potentially improve their academic writing*. This sentence is overloaded with caution. It sounds like the writer is afraid of committing to reality, which, to be fair, is a popular academic hobby. A cleaner version would be *AI may help students improve their academic writing.* Thus, AI can assist with language production, but it cannot always judge the appropriate strength of a claim. Human writers must revise AI-generated texts to ensure that hedging and certainty match the evidence.

DISCUSSION

The use of hedging and certainty in AI-assisted academic writing reflects a larger issue: the relationship between technology and human academic judgment. AI can produce fluent language, but fluency is not the same as academic quality. Academic writing requires reasoning, evidence, caution, and responsibility. AI tools can imitate academic style, but they do not truly understand the research context in the same way a human writer does.

Hedging and certainty are especially important because they affect how readers interpret the writer's claims. A well-hedged statement can show intellectual maturity and awareness of complexity. A well-placed certainty marker can show confidence and authority. However, both can become harmful when used incorrectly.


In AI-assisted writing, the writer's task is not simply to accept generated text, but to evaluate it. Writers should ask whether the claim is supported by evidence, whether the language is too strong or too weak, and whether the sentence accurately reflects the intended meaning. AI should be treated as a writing assistant, not as an academic brain replacement, because apparently outsourcing thinking to autocomplete is not yet a recognized research method.

Conclusion

The effective use of AI in academic writing depends on human revision and critical judgment. Writers must understand when to soften a claim and when to state it confidently. Hedging should not make the text weak, and certainty should not make it irresponsible. A balanced academic text presents ideas clearly, respects evidence, and leaves space for further discussion. Therefore, AI-assisted academic writing should be viewed as a collaborative process in which technology supports language production, while the human writer remains responsible for meaning, accuracy, and academic integrity. In other words, AI can help write the sentence, but the writer still has to make sure the sentence is not academically embarrassing.

References

1. Hyland K. Hedging in Scientific Research Articles. – Amsterdam: John Benjamins Publishing Company, 1998. 318 p.
2. Holmes J. Doubt and certainty in ESL textbooks // Applied Linguistics. 1988. Vol. 9, No. 1. P. 21–44.
3. Biber D., Johansson S., Leech G., Conrad S., Finegan E. Longman Grammar of Spoken and Written English. – London: Longman, 1999. 1204 p.



TADQIQOTLAR

Ilhom NURMUROTOV,
Turon universiteti, O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi dotsenti v.b.,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

MUALLIF PUNKTUATSIYASI TUSHUNCHASI VA UNING O‘ZBEK TILIDAGI POETIK IMKONIYATLARI

Annotatsiya: mazkur maqolada o‘zbek tilshunosligida badiiy matn leksikasining lingvopoetik xususiyatlari hamda tinish belgilarining funksional-stilistik imkoniyatlari tahlil qilinadi. Xususan, muallif punktuatsiyasi, uning kommunikativ-pragmatik vazifalari va badiiy matndagi o‘rni yoritiladi. Tinish belgilarining polifunksionalligi, emotsional-ekspressivlikni ifodalashdagi roli hamda punktuatsion sinonimiya hodisasi misollar asosida ochib beriladi. Shuningdek, muallifning individual uslubini shakllantirishda tinish belgilarining tanlanishi va ularning poetik imkoniyatlari muhim omil sifatida baholanadi. Tadqiqot natijalari badiiy matnni chuqurroq anglashda punktuatsiyaning ahamiyatini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: *badiiy matn, lingvopoetika, muallif punktuatsiyasi, tinish belgisi, punktuatsion sinonimiya, emotsional-ekspressivlik, funksional stilistika, kommunikativlik.*

Annotation: this article examines the linguopoetic features of lexical units in literary texts and the functional-stylistic potential of punctuation marks in Uzbek linguistics. Particular attention is paid to the concept of authorial punctuation, its communicative-pragmatic functions, and its role in literary texts. The study highlights the polyfunctional nature of punctuation marks, their role in expressing emotional and expressive meanings, and the phenomenon of punctuation synonymy through textual examples. Furthermore, the selection of punctuation as a means of shaping the author’s individual style and its poetic potential are analyzed. The findings demonstrate the significant role of punctuation in deeper interpretation of literary texts.

Key words: *literary text, linguopoetics, authorial punctuation, punctuation marks, punctuation synonymy, emotional expressiveness, functional stylistics, communicativity.*

Аннотация: в данной статье анализируются лингвопоэтические особенности лексики художественного текста в узбекском языкознании, а также функционально-стилистические возможности знаков препинания. В частности, освещаются авторская пунктуация, её коммуникативно-прагматические функции и роль в художественном тексте. На основе примеров раскрываются полифункциональность знаков препинания, их роль в выражении эмоционально-экспрессивных значений, а также явление пунктуационной синонимии. Кроме того, выбор знаков препинания рассматривается как важный фактор в формировании индивидуального стиля автора и его поэтических возможностей. Результаты исследования демонстрируют значимость пунктуации для более глубокого понимания художественного текста.

Ключевые слова: *художественный текст, лингвопоэтика, авторская пунктуация, знак препинания, пунктуационная синонимия, эмоционально-экспрессивность, функциональная стилистика, коммуникативность.*

O‘zbek tilshunosligida bugungi kunda badiiy matn leksikasining lingvopoetik xususiyatlari, semantik-funksional vazifalari hamda ularning leksik-stilistik aspektda tadqiq qilinishiga oid ko‘plab ishlar olib borilgan. Xususan, badiiylikka xizmat qiluvchi so‘z yozuvchining fikr hamda tushunchalarini kitobxonga yetkazuvchi kommunikativ vazifasi bilan bir qatorda so‘zlovchi, matn va tinglovchi uchligida turli (idrok, xayol, sezgi, tafakkur, xotira, iroda, hissiyot kabi) abstrakt hodisalarning ham “tashuvchisi” hisoblanadi. Bunda ijodkor leksik birliklar qatoridan funksional hamda emotsional-ekspressiv bo‘yoq ifodalovchi, badiiy uslub doirasida chegaralangan poetik qisqartmalar, muallifga xos neologizmlar kabi okkazional vositalarnigina qo‘llaydi. Barcha til birliklari singari tinish belgilariga doir me’yorlar mavjud bo‘lib, ular nutq uslublari doirasida ma’lum vazifalarni ifodalab keladi. Ushbu me’yorlar mutaxassislar tomonidan ilmiy manbalarda namunaviy misollar bilan ko‘rsatib o‘tilgan. “Me’yor (norma) – til birliklarini nutqning u yoki bu ko‘rinishida ishlatish qonuniyatlari va imkoniyatlari bo‘lib, ular jamiyat tomonidan belgilangan va aniqlangandir” [1.7]. Til me’yorlari ilmiy manbalarda qat’iy belgilangan bo‘lsa ham, “...shiddat bilan davom etayotgan ijtimoiy-tarixiy jarayon til taraqqiyotiga qanday ta’sir ko‘rsatsa, uning amaliy me’yorlariga ham shunday ta’sir qiladi. Demak, ana shu taraqqiyot talablaridan kelib chiqib, me’yor darajasini ham doimo kuzatib borish va tartibga solib turish lozim bo‘ladi” [2.14].

Muallifning individual uslubini belgilab beruvchi tinish belgilari umumlashmasi sanalgan ushbu atama maqsad hamda vazifasiga ko‘ra ma’lum qismlarni ajratib ko‘rsatish, muhim ifodalilikni anglatish, emotsional-ekspressivlik bilan bir qatorda kommunikativlikka xizmat qiladi.

“Muallif punktuatsiyasi” atamasi ikki ma’noda qo‘llanadi:

1. Muallif qo‘lyozmasida muallif tomonidan belgilangan qat’iy me’yorlarga asoslangan va asoslanmagan holda ishlatilgan barcha belgilarga nisbatan.

2. Mavjud me’yorlarga bo‘ysunmagan, qoidalardan chetlashgan holatda qo‘llangan tinish belgilari, ya’ni muallifning uslubi bilan bog‘liq ishlatilgan belgilarga nisbatan.

“Tilshunosligimizda bunday hodisa maxsus o‘rganilmaganligi bois, yaqinga qadar o‘ziga xos tarzda ishlatilgan tinish belgilariga “uslub talabi bilan” tarzida izoh berib ketilgan” [3.47]. Tinish belgilari muallifning badiiy asardagi barcha his-tuyg‘ularini,

fikrlarini, muhim ma’lumotlarini kitobxonga yetkazadigan yordamchi vositadir.

Punktuatsion belgilar tadqiqidan bilish mumkinki, okkazional til birliklari singari ma’lum uslub bilan chegaralangan tinish belgilari mavjud emas, balki ularga xos ayrim funksiyalargina uslubiy imkoniyatlarni namoyon etishi mumkin. Tinish belgilarining qo‘llanilishidagi umumiy me’yor va qonuniyatlar nutq vaziyatiga, adabiy tilning uslubiy imkoniyatlariga bog‘liq holda belgilanadi.

Kommunikativ muloqotda muhim sanalgan til birliklarining turli konstruksiyalari mavjud bo‘lib, ular qatorida tinish belgilarining ham nutq uslublarida xoslangan ba’zi vazifalari uchraydi. Matndagi jumlalarning sintaktik shakllanishi hamda ohangiga ta’sir etuvchi tinish belgilari gapning ifoda maqsadi va semantik strukturasiga ham ma’lum emotsional-ekspressivlik hamda funksional bo‘yoq yuklaydi. Yozma nutqni to‘g‘ri, mantiqli, ifodali bayon qilishda, ixchamlashda, yozma nutq tarkibining o‘zaro mazmuniy munosabatlarini aks ettirishda muhim vosita sifatida foydalaniladi.

Poetik matnlar tahlilida umumiy mavzu qismlarini shakllantirishda tinish belgilariga xos uch jihatni ta’kidlash mumkin:

1. Qahramonlarning xarakterini ochib berishda tinish belgilarning o‘rni. Bunda ijodkor tinish belgilariga oid uslubiy xoslangan funksiyalardan mohirona foydalangan holda asardagi obrazlarning sifat hamda xususiyatlarini ajratib ko‘rsatadi: “*Mishashning odatlaridan biri shu ediki, har ikki so‘zning birida “onangni...” deb turardi”.* (Ch.Aytmatov) “*Muhammaddiyor yolg‘uz: – Turkistonda birinchi m...m...m...m...artaba tia...t...t...t... tr, – dedi-da, fikrg‘a toldi. Bokuli muharrir biroz o‘turub, turub ketdi”.* (Cho‘lpon)

2. Matndagi makon va zamonda tinish belgilarining o‘rni. Bunda kitobxon tinish belgilari yordamida zamon: “*– Ota, bu butangizga bir nima deng. Esini yig‘ib olsin. Orqalab yurgan gunohlari ham yetarli, endi nikohsiz xotin bilan...*” (T.Malik) hamda makon: “*Toshkent – Andijon – Toshkent muntazam qatnovlarining tiklanishi!”* tushunchalarini anglaydi. Bu o‘rinlarda ko‘p nuqta va tiredan til birliklarini tejash maqsadida foydalanilgan.

3. Hodisani to‘g‘ridan to‘g‘ri anglashda tinish belgilarining o‘rni. Bu holatda biz ko‘chirma gapli konstruksiyalar tarkibidagi komponentlarning tinglovchiga o‘zgarishsiz hamda o‘zlashma gap holatida yetkazilishini tushunamiz:

“– Kiraveramizmi? – so‘radi Gulchehra.

– Ha, – dedi Samad va birinchi bo‘lib ichkariga qadam qo‘ydi”. (O‘.Umarbekov)

Ma’lumki, ko‘chirma gapli konstruksiyalar hamda uning o‘zlashtirma gapga aylantirilgan sodda ko‘rinishi sinonim hisoblansa-da, nol ko‘rinishda (tinish belgilarsiz) ekspressiv holatning ustunligini ko‘rishimiz mumkin.


Badiiy uslubga taalluqli sanalmagan yozma matnlarda ishlatilgan tinish belgilari turli semantik va artikulyatsion vazifalar bajarsa-da, umumiy vazifalari bilan chegaralanadi, ammo poetik matnlarda ularga har bir ijodkor alohida funksiyalar yuklashga harakat qiladi. Tinish belgilari polifunksionallik xususiyatiga ega bo‘lib, umumiy va xususiy funksiyalari farqlanadi. Umumiy vazifalar matnning barcha tuzilishlari (gap, period, mikromatn, makromatn)da ma’lum vazifa bajaradi. Badiiy matnda xususiy me’yorlar har bir belgiga xos alohida sifatlar sanalib, ular til birliklarining hamda matn qismlarining o‘ziga xos xususiyatlarini ko‘rsatadi. Bu jarayonda kommunikativ-pragmatik yo‘nalishga tayangan holda muloqot maqsadidan kelib chiqib foydalaniladi.

Badiiy matndagi poetik jarayonlarga xizmat qiluvchi tinish belgilarining qo‘llanilishi bilan bog‘liq barcha hodisalar muallif punktuatsiyasini tashkil etadi. Muallif punktuatsiyasining ikkinchi komponenti, ya’ni tinish belgilari sinonimiyasi hodisasi matnda asosiy “yuk ko‘taruvchi” neytral tinish belgining o‘rniga ekspressivlik ifodalovchi sinonimini qo‘llashdan iborat. Tinish belgilariga zamonaviy yondashishlarda ulardagi sinonimiya hodisasi ham muhim sanaladi. “Ma’lumki, til birliklari orasidagi sinonimik jarayon turli mezonlar asosida yuzaga chiqadi:

– konseptual mazmunning yaqinligi;
– real vaziyatning identifikatsiyasi;
– pozitsion o‘ziga xoslik;
– grammatik ma’noning o‘ziga xosligi yoki o‘xshashligi;
– gapning semantik tuzilishining o‘xshashligi;
– tarkibiy va semantik o‘xshashlik;
– sintaktik vazifaning o‘xshashligi” [4.92].

Rus hamda Yevropa tilshunosligida tinish belgilari bilan bog‘liq poetik jarayonlar “muallif tinish belgisi”, “ixtiyoriy tinish belgilari”, “tinish belgilarida variantlilik”, “tinish belgilaridagi paradigmatik jarayon”, “kommunikativ vazifa bajaruvchi shartli belgilar”, “matndagi shartli belgilar” kabi turli yo‘sinlarda tadqiqotlar olib borilgan [5.32-33]. Tinish belgilari orasidagi sinonimik hodisa. O‘zbek tilshunosligida ushbu hodisa ilk bor K.Nazarov tomonidan “ishoraviy sinonimiya” [6.8] atamasi bilan qo‘llanadi. Ushbu nomlarning qo‘llanilishida har xillik bo‘lsada, barchasi muallif tomonidan o‘z ixtiyoriga ko‘ra tanlangan sinonimiya hodisasi hisoblanadi.

Badiiy matnda tinish belgilaridan foydalanish imkoniyati



Matn tahlilidan ko‘rish mumkinki, badiiy asar ichidagi muallif uni ijod qilgan muallifdan farq qiladi. U asarda o‘z dunyoqarashini, ya’ni niyatlari, nuqtayi nazari, shuningdek, matnning muhim g‘oyalarini aks ettiradi. Kitobxon esa badiiy matndagi turli vositalar yordamida muallif dunyoqarashining individual aksini tasavvur qiladi.

Bu jarayonda muallif punktuatsiyasi hamda punktuatsion sinonimiya muhim o‘rin tutadi.

Tinish belgilaridagi sinonimiya hodisasi ma’lum qoidalar bilan tartibga keltirilmagan. Poetik maqsadda ulardan foydalanish matnning stilistik bo‘yog‘i, emotsional-ekspressivligi hamda kommunikativ vazifasiga qarab o‘zgaradi. Buning natijasida:

– betaraflik ifodalagan tinish belgisi o‘rniga matnning ekspressivligini oshirish maqsadida kuchliroq bo‘yoq ifodalovchi sinonimini qo‘llash;

– tinish belgilari sinonimiyasidan foydalanish orqali muallifning individual uslubini shakllantirish;

– tilning ichki qonuniyatlari asosida tinish belgilarining yozuv dizayn talablariga muvofiqlashuvi kabi maqsadlar yuzaga chiqadi [7.266].

“U kim – kutayotgan yuksakda turib?
U kim – yuragiga ulkan sir solgan?” (Z.Mirzo)

Yuqoridagi tartibni o‘zgartirish natijasida hosil qilingan ajratilgan atributiv konstruksiyada vergulga emas, balki yuqorida ta’kidlab o‘tilgan xususiyatlarni o‘zida aks ettirish uchun tirega murojaat qilingan.

Punktuatsion belgilarning funksional vazifalaridan ma’lumki, vokativ bo‘lak vergul yoki emotsionallik ifodalasa, undov belgisi bilan ajratiladi. Quyidagi misralarda ushbu vazifa muallifning individual uslubidan kelib chiqib, tire bilan ajratilganligini ko‘rishimiz mumkin:

“Ne suvoriy edimki, laylo
zulfing Zarafshonin kechmadim.
Vovaylo, vovaylo, vovaylo,
ko‘ngil bir gul istaydir – nadim”. (Faxriyor)

Ko‘pgina badiiy matnlarda qo‘llangan punktuatsion belgilar sintaktik konstruksiyalarda turli semantik aloqalarni va abstrakt tushunchalarni yetkazishda yozuvchining kommunikativ pozitsiyasidan kelib chiqadi. Jumaladan, punktuatsion belgilar tanlovi ijodkorga nozik semantik ma’nolarni anglashga, o‘quvchi e’tiborini muhim maqsadlarga qaratishga, shuningdek, ularning individual ahamiyatini ko‘rsatishga ko‘maklashadi.

“Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, matnda ekspressiv “yuk tashuvchi” tinish belgisi betaraf tinish belgi o‘rnini egallaydi va bu jarayon sinonimiya hodisasini yuzaga keltiradi. Tinish belgilarining sinonimiyasi muallifning maqsadi bilan bog‘liq holda tinglovchi diqqatini jalb qilish hamda matnning ifodaliligini oshirish vazifasini bajaradi. Binobarin, punktuatsion sinonimiyada muallif o‘z uslubiga qarab tinish belgisini tanlaydi, u yoki bu belgining qo‘llanishidan maqsad esa ma’lum ma’noni tinglovchiga yetkazishdan iborat” [7.267].

Tinish belgilarining sinonimiya hosil qilishiga quyidagi sabablarni keltirish mumkin:

– mavjud me’yorlarning ba’zilari tinish belgilarning ishlatilishida qat’iy bo‘lmaganligi;

– punktuatsion belgilarning matn tarkibida polifunksionalligi;

– muallifning monotonlik (takroriylik)dan uzoqlashishi;

– muallifning maqsadini ochiqroq yetkazish uchun odatiy belgi o‘rniga ekspressivlikni ta’minlovchi tinish belgisining tanlanishi.

“Shuni ta’kidlash kerakki, yuqoridagi hodisalardan kelib chiqqan holda barcha ijodkorlarda tinish belgilari sinonimiyasi mavjud deb xulosalash noto‘g‘ri. Ayrim mualliflar o‘z ijodida tinish belgilari tanlovini afzal ko‘rishsa, boshqalarida ulardan nazariy qoidalardan chetlashmagan holda foydalanganligini ko‘rishimiz mumkin. Bu jarayon bir tomondan gap ichida sintaktik konstruksiyalarning butun xilma-xilligidan foydalanish imkoniyatini bersa, boshqa tomondan matndagi har qanday elementni ta’kidlash vazifasini bajaradi” [7.267].

“Punktuatsiya qoidalari to‘la me’yorlashtirilmagan davrda ijod etgan mualliflar uslubi – muallif punktuatsiyasi ham tinish belgilari sinonimiyasining yuzaga kelishiga sabab bo‘lgan” [3.53]. Har qanday tinish belgisining ekvivalentidan foydalanish uning sinonimligini anglatmaydi. Punktuatsion belgilarning turli polifonik imkoniyatlari matnning shakl hamda mazmun xususiyatidan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Tinish belgilari sinonimiyasi “...ta’kidlanganidek, muallifning maqsad va niyatlariga qarab poetik imkoniyati kuchlirog‘ini tanlashidan iborat. Ba’zi hollarda tinish belgilari sinonimiyasidan noto‘g‘ri foydalanish shakl va mazmunning funksional assimetriyasini yuzaga keltirishi mumkin” [7.267]: *“O‘z hayotining mohiyatini bilmaydigan kishilarning, befarqlarning ahvoliga voy”.* (V.Paskal) *“Farosatsizlik, axloqsizlik orqasida faqat huzur-halovatga mukkasidan ketganlarning, yengil-yelpi fikrlovchilarning hayoti sariq chaqaga ham arzimaydi”.* (I.Kant)

Yuqoridagi misollardan anglash mumkinki, ajratilgan bo‘laklarda bir tomonlama vergulning ishlatilishi ularning yozma nutqda uyushiq bo‘laklardan farqlab bo‘lmaslik muammosini yuzaga keltirgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ne’matov H., Rasulov R. O‘zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 1995. 7-b.
2. Каримов С. Тил таълими ва меъёр. Ўқув қўлланма. – Тошкент: А.Қодирий, 2002. 14 б.
3. Baxriddinova B. Zamonaviy o‘zbek punktuatsiyasi asoslari. Monografiya. – Toshkent: Akademnashr, 2015. 47-b.
4. Сорокина Т.С. Функциональные основы теории грамматической синонимии. // Вопросы языкознания. 2003. – №3, С. 92.
5. Андросова Ф. Авторские пунктуационные знаки в художественном тексте: функциональный аспект. – Якутск, 2014. С. 32-33.
6. Назаров К., Эгамбердиев Б. Ўзбек тили ишора-имло қоидалари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1996. 8 б.
7. Nurmurotov I. O‘zbek tili imkoniyatlaridan amaliy foydalanish masalalari / Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Qarshi: Qardu, 2022. 266-b.

Yekaterina SHIRINOVA,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti
O‘zbek tili va uni o‘qitish metodikasi kafedrasi dotsenti,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Email: yekaterina@navoiy-uni.uz



MUROJAAT VOSITALARI TADQIQOT OBYEKTI SIFATIDA

Annotatsiya: maqolada tilshunoslikda murojaat vositalarining o‘rganilishi tadqiq qilinadi. Murojaat vositalarining muloqot jarayonining fatik bosqichini tashkil etishdagi muhim unsurlar ekanligi, mazkur vositalar verbal tarzda turli til sathlarida namoyon bo‘lishi, noverbal shaklda ham murojaatni ifodalash imkoniyati ochib beriladi. O‘zbek tilidagi verbal va noverbal murojaat vositalarini antropotsentrik aspektda, ya’ni psixolingvistik, sotsiolingvistik, lingvopragmatik, lingvokulturologik jihatdan tadqiq qilishning ahamiyati yoritiladi.

Kalit so‘zlar: *murojaat vositalari, tilshunoslik, verbal, noverbal, til birliklari, til sathlari, kommunikatsiya, muloqot, psixolingvistika, sotsiolingvistika, lingvopragmatika, nutqiy etiket, undalma, madaniyatlararo kommunikatsiya, lingvokulturologiya*

Аннотация: в статье рассматривается изучение средств обращения в лингвистике. Выявлено, что средства обращения являются важными элементами организации фатической стадии коммуникативного процесса, что эти средства проявляются вербально на разных уровнях языка, а также показана возможность выражения обращения в невербальной форме. Подчеркивается важность изучения вербальных и невербальных средств обращения в узбекском языке с антропоцентрической точки зрения, то есть с психолингвистической, социолингвистической, лингвопрагматической и лингвокультурной стороны.

Ключевые слова: *средства обращения, лингвистика, вербальные, невербальные, языковые единицы, языковой пласт, коммуникация, общение, психолингвистика, социолингвистика, лингвопрагматика, речевой этикет, обращение, межкультурная коммуникация, лингвоультурология...*

Annotation: the article examines the study of means of address in linguistics.. It reveals that means of address are important elements in organizing the phatic stage of the communicative process, that these means are manifested verbally at different levels of language, and demonstrates the possibility of expressing address nonverbally. The importance of studying verbal and nonverbal means of address in the Uzbek language from an anthropocentric perspective, that is, from a psycholinguistic, sociolinguistic, lingua-pragmatic, and linguacultural perspective, is emphasized.

Key words: *means of address, linguistics, verbal, non-verbal, language units, language layer, communication, interaction, psycholinguistics, sociolinguistics, lingua-pragmatics, speech etiquette, address, intercultural communication, lingua-cultural studies...*

Kirish. Muloqot jarayonda eng muhim kommunikativ-pragmatik yuk murojaat vositalari zimmasiga tushadi, chunki muloqot jarayoniga kirishishning fatik bosqichida murojaat vositalari asosiy funksiyani bajaradi. Muloqotning boshlanish fazasi uning samarali yoki besamar kechishini, muloqot kayfiyatini belgilab beradigan unsurlardir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Tilshunos olimlar P.Braun va S.Levinsonlar muloqot jarayonining mazkur tashkil etuvchilariga shunday ta’rif beradilar: “Murojaat vositalari deganda, nutqda tinglovchiga yoki suhbatdoshga nisbatan qo‘llanadigan, uning e’tiborini jalb qilish, hurmatini bildirish yoki munosabatini ifodalash uchun xizmat qiladigan til birliklari tushuniladi [3].

O‘zbek tilining izohli lug‘atida “murojaat” so‘zining ta’rifi quyidagicha berilgan:

– ko‘rib chiqish, taqqoslash;

– biror narsa so‘rash, ishni qayta ko‘rish;

– birovga qarata aytilgan gap, qilingan da’vat, chaqiriq [O‘zbek tilining izohli lug‘ati 2006, 645].

Tilshunoslikda olib borilgan tadqiqotlarning aksariyatida yuqorida keltirilgan ta’rifning asosan oxirgi bandida nazarda tutilgan jihatga urg‘u berilgan va aynan shu band insonlararo muloqot jarayonida namoyon bo‘ladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Murojaatlar tilshunoslikning sintaksis bo‘limida *undalma* nomi ostida tadqiq qilingan va bunday tadqiqotlar ushbu sohadagi tadqiqotlarning asosini tashkil etadi. Undalma bo‘yicha maxsus tadqiqot olib borgan A.Sayfullayev undalmaning leksik-semantik xususiyatlari, gapdagi o‘rni va uning tarkibini yoritib bergan. Ba’zi tilshunoslar undash, chaqiriq ma’nolarini qamrab olgan so‘zlarni vokativ formadagi so‘zlar deb izohlaydilar. Masalan, B.O‘rinboyev undalma termini o‘rnida “vokativ kategoriya” terminini qo‘llaydi. Undalma o‘zbek tilshunosligida ko‘proq sof lingvistik tomondan tahlil qilingan bo‘lib, keyingi yillardagi tadqiqotlarda esa undalmaning ijtimoiy-lisoniy xususiyatlariga ham e’tibor kuchaydi.

Tahlil va natijalar. Sotsiolingvistika nuqtayi nazaridan qaraganda, ko‘pgina ishlarda “undalma” termini o‘rnida

“murojaat shakllari” termini qo‘llanmoqda. Mustaqillik yillarida “murojaat” termini faol qo‘llanib, u ko‘proq sotsiolingvistikaning o‘rganish obyektini tashkil qiladi. Bundan tashqari, murojaat shakllari termini undalma terminiga nisbatan keng qamrovlidir. Biz esa, o‘z navbatimizda, murojaat vositalari terminini qo‘llashni joiz topdik, chunki mazkur termin verbal va noverbal murojaat vositalarini qamrab oladi. Undalma eng asosiy ifoda shakllaridan biri bo‘lib, murojaat vositalarining verbal ko‘rinishidir, chunki sintaktik strukturalarda til birliklari undalma sifatida ishtirok etadi.

Tilshunoslikda murojaat vositalariga berilgan ta’riflardan hamda shaxsiy kuzatuv va tajribalarimizdan kelib chiqib, murojaat vositalariga quyidagi mualliflik ta’rifini beramiz:

Murojaat vositalari subyektning obyektga (tinglovchiga yoki suhbatdoshga, ba’zan esa, hatto, jonsiz narsalarga, mavhum tushunchalarga) nisbatan qo‘llanadigan, uning e’tiborini jalb qilish, unga nisbatan hurmat yoki hurmatsizlik hislarini bildirish (munosabatini ifodalash, bunda jonli obyektlar nazarda tutiladi) uchun xizmat qiladigan verbal va noverbal vositalardir.

Murojaat vositalarini dastlab ikki yirik guruhga ajratib olish maqsadga muvofiq, bular: verbal va noverbal murojaat vositalari.

Verbal murojaat vositalari e’tiborni jalb qilish, munosabatlarni ifodalash uchun qo‘llanadigan til birliklari bo‘lib, ularning turli til sathlari kesimida turlarga ajratish mumkin (yuqorida qayd qilib o‘tganimizdek aynan verbal vositalar undalma sifatida ajratib ko‘rsatilishi mumkin).

Noverbal murojaat vositalari esa xuddi shu maqsadni ifodalaydigan kinesika (tana tili): mimika (yuz ifodalari, imo-ishoralar, nigoh), jestika (qo‘l harakatlari) hamda takesika (teginish), proksemika (suhbatdoshlar orasidagi masofa) vositalaridir.

Murojaat vositalari turli tillarda turlicha namoyon bo‘lishi mumkin. Murojaat vositalarining tanlanishi madaniy omillarga ham bog‘liqdir. Masalan, ba’zi madaniyatlarda yoshi kattalarga ismlari bilan murojaat qilish odobsizlik hisoblansa, boshqa madaniyatlarda bu normal holat ekanligi A.Vejbitskayaning asarlarida ham qayd qilingan. Qolaversa, ayrim tillarda verbal murojaat vositalari, ayrimlarida esa noverbal murojaat vositalari faolroq qo‘llanishi mumkin.

Murojaat vositalari tilshunoslikda uzoq vaqtdan beri o‘rganib kelinmoqda. Ushbu sohadagi muhim tadqiqotlardan biri P.Braun va S.Levinsonning “Politeness: Some universals in language usage (Xushmuomalalik: tildan foydalanishdagi ayrim universaliyalar)” (1987) asaridir. Ushbu asarda mualliflar murojaat vositalarining universalligi va madaniy xususiyatlarini o‘rganadilar va “yuzni saqlash” nazariyasini ilgari suradilar. Ushbu nazariyaga ko‘ra, odamlar kommunikatsiya jarayonida o‘zlarining va boshqalarning “yuzini” (hurmatini, izzatini) saqlashga harakat qiladilar va murojaat vositalari bu maqsadga erishishga yordam beradi.

Bundan tashqari, murojaat vositalari sotsiolingvistika, lingvopragmatika va madaniyatlararo kommunikatsiya sohalarida ham o‘rganiladi. Tilshunoslikda antropotsentrik yondashuv zamirida yuzaga kelgan integrativ fanlar: lingvomadaniyatshunoslik, lingvopragmatika, sotsiolingvistika, psixolingvistika doirasida insonlararo kommunikatsiya jarayonlari hamda mazkur jarayonning dastlabki, ya’ni fatik bosqichini tashkil etishning muhim elementi bo‘lgan murojaat vositalari muhim tadqiqot obyekti sifatida o‘rganilmoqda [18, 19, 20]. Sotsiolingvistlar murojaat vositalarining ijtimoiy omillar (yosh, jins, ijtimoiy tabaqa, kasb-kor) bilan bog‘liqligini o‘rganadilar (Holmes, 2001). Pragmatiklar murojaat vositalarining nutqiy aktlardagi rolini va ularning ma’nosini tahlil qiladilar (Lich, 1983). Madaniyatlararo kommunikatsiya mutaxassislari turli madaniyatlarda murojaat vositalarining qanday farq qilishini va bu farqlar kommunikatsiya jarayoniga qanday ta’sir qilishini o‘rganadilar [5].

Rus tilshunosligida murojaat vositalari ancha chuqur o‘rganilgan. Bu sohada V.V.Vinogradov, Y.S.Stepanov, N.I.Formanovskaya, V.Y.Zaxarova, L.I.Shatalova, L.P.Rijova kabi olimlarning ishlari muhim ahamiyatga ega [11, 12, 13, 14, 16]. V.V.Vinogradovning “Rus tili grammatikasi” (1954) asarida murojaat shakllarining grammatik kategoriyalari tahlil qilingan. Y.S.Stepanov o‘zining “Semiotika” (1971) kitobida muloqotda turli uslubga xos bo‘lgan birliklarning, sinonimlaning suhbatdoshga ijobiy yoki salbiy munosabatni ifodalashdagi o‘ziga xosliklari orqali murojaatning madaniy va ijtimoiy ma’nolarini ochib bergan. N.I.Formanovskaya esa “Muloqot birliklarining kommunikativ-pragmatik aspektlari” (1998) asarida murojaatning pragmatik funksiyalarini ko‘rib chiqqan [4].

O‘zbek tilshunosligida murojaat shakllarini o‘rganish nisbatan yaqinroq tarixga ega [1, 2, 8, 9, 10, 15]. Biroq, so‘nggi yillarda ushbu mavzuga qiziqish sezilarli darajada oshdi. O‘zbek tilidagi murojaat shakllari asosan lingvopragmatika, sotsiolingvistika va nutq madaniyati nuqtayi nazaridan o‘rganilmoqda. Xususan, o‘zbek tilshunosligida E.Begmatov, B.O‘rinboyev, R.Qo‘ng‘urov, Sh.Safarov, Sh.M.Iskandarova, S.M.Mo‘minov, N.Mahmudov, R.Rasulov, D.M.Teshaboyeva, A.J.Omonturdiyev, A.Aripova, Z.A.Akbarova, N.Ahmedova, Sh.Sodiqova, D.D.Pulatova singari olimlar ushbu soha tadqiqi bilan shug‘ullanganlar.

O‘zbek va boshqa tillardagi murojaat vositalarining qiyosiy tahlili bo‘yicha bir qator olimlar ilmiy tadqiqotlar olib bormoqdalar. Xususan, M.Aliqulova o‘zbek va ingliz tillarida murojaat shakllarining chog‘ishtirma tahlilini, K.Kaxarov o‘zbek va nemis nutqiy etiketlarining qiyosiy tadqiqini amalga oshirganlar. Qiyosiy tahlilga oid tadqiqotlar doirasida, odatda, o‘zbek tilidagi murojaat shakllarining boshqa tildagi ekvivalentlari, ularning ma’no va uslubiy xususiyatlari solishtiriladi. Shuningdek, turli ijtimoiy vaziyatlarda qo‘llanadigan murojaat shakllarining farqlari ham o‘rganiladi.

O‘zbek tili murojaat vositalarining antropotsentrik tadqiqini amalga oshirish, mazkur muloqot vositalarini lingvopragmatik, lingvokulturologik, psixolingvistik, sotsiolingvistik aspektlarda o‘rganish mazkur mavzuning dolzarbligini belgilaydi va buni quyidagi omillar bilan asoslash mumkin:

1. Sotsiolingvistik omil: murojaat vositalari jamiyatdagi ijtimoiy maqom, yosh, jins, kasb va faoliyat turi kabi omillarga bog‘liq holda turlicha qo‘llanadi.

2. Lingvomadaniy omil: o‘zbek tilida murojaatning ifodalanishida madaniy o‘ziga xosliklar mavjud. Bu o‘ziga xosliklar ham verbal, ham noverbal murojaat vositalarida namoyon bo‘ladi.

3. Lingvopragmatik omil: murojaat vositalari nutqning ta’sirchanligini oshirishga xizmat qiladi. To‘g‘ri tanlangan murojaat vositasi suhbatdoshning e’tiborini jalb qilish, hurmatini qozonish va muloqotni muvaffaqiyatli amalga oshirishga yordam beradi.

4. Psixolingvistik omil: murojaat vositalari tuli yoshda, ya’ni nutq ontogenezining turli bosqichlarda turlicha faollik bilan qo‘llanadi.

Xulosa va takliflar. O‘zbek murojaat vositalarining antropotsentrik tadqiqi tilshunoslikda muhim o‘rin tutadi. Murojaat vositalarining bunday kompleks tahlili shaxslararo muloqotni yaxshilashga, til o‘rganuvchilarga yordam berishga va tilshunoslik nazariyasini boyitishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Акбарова З. Ўзбек тилида мурожаат шакллари ва унинг лисоний тадқиқи: филол.фанлари номзоди дисс. ... автореф. – Тошкент, 2007.

2. Ahmedova N. O‘zbek tilida murojaat birliklarining semantik-konnotativ tadqiqi: Filol.fanlari nomzodi diss. ...avtoref. – Toshkent, 2008.

3. Brown, P., & Levinson, S. C. Politeness: Some universals in language usage. Cambridge University Press. 1987// Politeness: Some Universals in Language Usage | Penelope Brown, Stephen C. Levinson, John J. Gumperz | download on Z-Library

4. Формановская Н.И. Коммуникативно-прагматические аспекты единиц общения [Текст] / Н.И.Формановская. – Москва: Ин-т рус. яз. им. А. С. Пушкина, 1998. - 291 с.

5. Gudykunst, W. B., & Ting-Toomey, S. Culture and interpersonal communication. 1988. // Culture and Interpersonal Communication - William B. Gudykunst, Stella Ting-Toomey - Google Книги.

6. Holmes, J. An introduction to sociolinguistics. 2001// An Introduction to Sociolinguistics.

7. Искандарова Ш. Ўзбек нутқ одатининг мулоқот шакллари: Филол. фанлари номзоди дисс. ... автореф. – Самарқанд, 1993.

8. Мўминов С. Ўзбек мулоқот хулқининг ижтимоий-лисоний хусусиятлари: филол. фанлари д-ри дисс. ...автореф. – Тошкент, 2000.

9. Pulatova D. D. O‘zbek tilida murojaat shakllarining sotsiopragmatik tadqiqi. Fil.f.b...diss.avtoref. – Toshkent, 2024.

10. Рахматуллаева Б. Этикетные формы обращения и привлечения внимания в современном русском языке (в сопоставлении с узбекским): Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1992.

11. Рыжова Л.П. Коммуникативные особенности обращения // Содержательные аспекты предложения и текста. – Калинин, 1983.

12. Рыжова Л.П. Коммуникативные функции обращения // Семантика и прагматика синтаксических единств. – Калинин, 1981.

13. Рыжова Л.П. Обращение: нормы и правила потребления // Прагматика и семантика синтаксических единиц. – Калинин, 1984.

14. Захарова В.Е. О функциях и структуре начального обращения в частных письмах А.П.Чехова // Языковое мастерство А.П.Чехова. Ростов, 1988.

15. Ўринбоев Б. Ҳозирги ўзбек тилида вокатив категория. – Тошкент: Фан, 1972.

16. Шаталова Л.И. Формы и функции обращений в современном русском языке. Автореф. дис. канд. филол. наук. – Минск, 1979. – 24 с.

17. Wierzbicka, A. (2003). Cross-cultural pragmatics: The semantics of human interaction (2nd ed.). Mouton de Gruyter. – 540 p. Cross-cultural pragmatics by Anna Wierzbicka | Open Library

18. Shirinova, Y.T. 2022. Madaniyatlararo kommunikatsiya xususida // INTERNATIONAL CONFERENCE DEDICATED TO THE ROLE AND IMPORTANCE OF INNOVATIVE EDUCATION IN THE 21ST CENTURY. September. (в формате PDF) МЕЖДУНАРОДНАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ, ПОСВЯЩЕННАЯ РОЛИ И ЗНАЧЕНИЮ ИННОВАЦИОННОГО ОБРАЗОВАНИЯ В 21 ВЕКЕ (researchgate.net)

19. Ширинова, Е. Т. 2023. «Некоторые соображения о коммуникации». Узбекистан: язык и культура. Вопросы прикладной филологии. 1(5): 84-91. Получено с https://aphil.tsuull.uz/index.php/language-and-culture/article/view/84-91 DOI: https://www.doi.org/10.52773/tsuull.uzlc.aphil.2023.1.5/EFEZ1339

20. Ширинова, Е.Т. 2024. “Конфликтное общение: факторы, причины, некоторые пути преодоления». Узбекистан: язык и культура. Проблемы прикладной филологии. 2 (5): 13-19.DOI:10.52773/tsuull.aphil.2024.2.5/MHON4621 View of КОНФЛИКТНОЕ ОБЩЕНИЕ: ФАКТОРЫ, ПРИЧИНЫ, НЕКОТОРЫЕ ПУТИ ПРЕОДОЛЕНИЯ

Mashxura XUSANOVA,
FarDU mustaqil izlanuvchisi

O‘ZBEK TILIDA MUROJAAT SHAKLLARINING LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARI
(Shukur Xolmirzayev asarlari misolida)

Annotatsiya: mazkur maqolada o‘zbek tilidagi murojaat shakllarining lingvokulturologik xususiyatlari, ularning ijtimoiy-madaniy vazifalari hamda nutqiy muloqotdagi o‘rni tahlil qilinadi. Murojaat birliklari milliy madaniyat, odob-axloq me’yorlari va ijtimoiy munosabatlar tizimini ifodalovchi muhim til hodisasi sifatida ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, murojaat shakllarining yosh, jins, ijtimoiy maqom va kommunikativ vaziyatga ko‘ra o‘zgarishi, ularning pragmatik va semantik jihatlari yoritiladi.

Kalit so‘zlar: *murojaat shakllari, lingvokulturologiya, pragmatika, nutq madaniyati, ijtimoiy munosabatlar, odob-axloq, kommunikativ birliklar, hurmat ifodasi, muloqot etiketi.*

Annotation: this article analyzes the linguocultural characteristics of forms of address in the Uzbek language, their sociocultural functions and their role in speech communication. Address units are considered as an important linguistic phenomenon that expresses national culture, norms of etiquette and the system of social relations. Also, the changes in address forms according to age, gender, social status and communicative situation, their pragmatic and semantic aspects are highlighted.

Key words: *address forms, linguocultural studies, pragmatics, speech culture, social relations, etiquette, communicative units, expression of respect, communication etiquette.*

Аннотация: в данной статье анализируются лингвокультурные характеристики форм обращения в узбекском языке, их социокультурные функции и роль в речевой коммуникации. Единицы обращения рассматриваются как важный лингвистический феномен, выражающий национальную культуру, нормы этикета и систему социальных отношений. Также освещаются изменения форм обращения в зависимости от возраста, пола, социального статуса и коммуникативной ситуации, их прагматические и семантические аспекты.

Ключевые слова: *формы обращения, лингвокультурные исследования, прагматика, речевая культура, социальные отношения, этикет, коммуникативные единицы, выражение уважения, коммуникативный этикет*

Kirish (Introduction).

Badiiy adabiyot milliy madaniyatning eng muhim ifoda vositalaridan biri hisoblanadi. Har qanday yozuvchi o‘z asarlari orqali jamiyat hayoti, insoniy munosabatlar va milliy qadriyatlarni aks ettiradi. Shu nuqtayi nazardan, Shukur Xolmirzayev ijodi o‘zbek xalqining turmush tarzi, mentaliteti va qadriyatlar tizimini badiiy talqin etishda alohida o‘rin tutadi. Yozuvchi asarlarida milliy qadriyatlar tasviri bevosita til birliklari, obrazlar tizimi va voqealar rivoji orqali namoyon bo‘ladi. Badiiy matnda milliy qadriyatlar leksik birliklar (milliy realiyalar), frazeologik birliklar, maqol va matallar, obraz va ramzlar, dialog va nutq uslubi kabi vositalar orqali ifodalanadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review).

Milliy realiyalar, xususan, murojaat shakllari masalasi tilshunoslikda lingvokulturologiya va pragmalingvistika doirasida keng o‘rganilgan. O‘zbek tilshunosligida esa E. Begmatov, Sh. Rahmatullayev, N. Mahmudov, M.Hakimov va boshqa tadqiqotchilar murojaat shakllarining semantik-pragmatik xususiyatlari hamda ularning milliy madaniyat bilan bog‘liqligini tahlil qilgan. Tadqiqotlarda murojaat birliklari ijtimoiy maqom, yosh va jins omillari bilan chambarchas bog‘liq ekani ta’kidlanadi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results).

Shukur Xolmirzayev ijodida milliy realiyalar tabiiy va aniq qo‘llanadi. Ular xalqona va sodda til orqali beriladi, kontekstga mos ravishda ishlatiladi, ortiqcha izohsiz tushunarli va obraz yaratishda faol ishtirok etadi. Yozuvchi realiyalarni faqat tasvir vositasi sifatida emas, balki mazmuniy yuklama beruvchi element sifatida ishlatadi. Bu esa uning asarlarini lingvomadaniy jihatdan boyitadi. Shukur Xolmirzayev asarlarida aynan shu vositalar orqali milliy qadriyatlar tizimi mukammal yoritilgan.

Bu jarayonda til vositalari muhim rol o‘ynaydi. Xususan, iboralar, samimiy murojaat shakllari, milliy taom nomlari badiiy matnda madaniy ma’no yuklaydi.

Shu jihatdan yozuvchi asarlaridagi urf-odat tasviri lingvomadaniy birlik sifatida baholanadi.

Murojaat shakllari lingvokulturologiyada muhim tadqiqot obyektlaridan biri bo‘lib, ular nafaqat kommunikativ vosita, balki milliy madaniyat, ijtimoiy ierarxiya va mentalitetning yorqin ifodasi sifatida qaraladi. Quyida murojaat shakllarining madaniy belgi sifatida tadqiq qilinishiga aniq tahliliy misol keltiriladi.

1. “Aka” yoki “uka” murojaat shakli

Denotativ ma’nosi – erkak jinsiga mansub, katta yoki kichik yoshli qarindosh (aka-uka munosabati).

Lingvomadaniy tahlilda esa o‘zbek tilida “aka” yoki “uka” so‘zi faqat qarindoshlikni bildirmaydi. U begona erkaklarga, tanish bo‘lmagan kishilarga, xizmat ko‘rsatuvchilarga ham murojaat sifatida qo‘llanadi. Bu holat o‘zbek jamiyatida ijtimoiy yaqinlikni sun’iy ravishda yaratish va hurmatni ifodalash mexanizmi mavjudligini ko‘rsatadi.

Madaniy konnotatsiyada quyidagi madaniy ma’nolarni o‘z ichiga oladi: hurmat, samimiylik, ierarxik tan olish (yosh katta → hurmat yuqori, kichik yosh). Masalan, - *Aka, muhabbat qiziq, muhabbatni bilmabsiz, bu dunyoga kelmabsiz… Ha! – U qandaydir ichki faxr bilan qimtinib qo’ydi*. [4, 229-b] Ushbu misolda qahramonning katta yoshli erkak kishiga murajaati, unga bo‘lgan samimiy hurmati anglashiladi.

Diskursiv vazifa esa real nutq vaziyatida “aka” murojaati konfliktni yumshatadi, suhbatni ijobiy ruhda olib borishga yordam beradi. Misol, *“Rahmat, rahmat, aka, – deb shivirladi Nosirjon va joyiga qaytib ketdi”* [4, 208-b] Bu gapda shunchaki murojaat emas, balki minnatdorlik shakli shakli ustunlik qiladi. Yoki *“Varaqni uzatib, iltimos qildi: – O’qib bering, aka.”* [4, 208-b] Bu gapda buyruq emas, balki iltimos mazmuni yaqqol seziladi, kommunikativ madaniyat aks etadi

Qiyosiy tahlil (komparativ aspekt) qilinganda ko‘rish mumkin:

Til	Murojaat shakli	Madaniy xususiyat
O‘zbek	Aka	hurmat + yaqinlik
Ingliz	mister / sir	rasmiylik
Rus	Мужчина	neytral, ba’zan sovuq

Bu farq shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek tilida murojaat shakllari insonlar o‘rtasidagi masofani qisqartiradi, boshqa tillarda esa aksincha, ijtimoiy masofani saqlaydi.

2. “Opa” yoki “singlim”murojaat shakli

Qarindoshlik ma’nosidan tashqari, hurmatli ayolga murojaat shakli sifatida ishlatiladi. Ayolga hurmat, ijtimoiy etik normalar, genderga xos nutq madaniyati kabi xususiyatlarni o’zida jamlaydi. Misol:

“– Singlim bekor qilyapsiz-da, pushaymon yeysiz, – dedi yuragi hapriqib, – bu joylarni sevish kerak.” [4,133-b] Misolda so‘zlovchidan kichik yoshli ayol kishiga nisbatan samimiy murojaat seziladi. Bu yerda mehribonlik, ijtimoiy odob ifodalanadi. Yoki: *“– Bugun, bugun! – dedi Nosirjon hovliqib, – … Shu deng, opa, hech munaqa kasalim yo’q edi.”* [4, 201-b] Bu misolda esa so‘zlovchidan katta yoshli ayol kishiga murojaat anglashiladi.

3. “Momo” murojaat shakli

“Momo” murojaat shakli o‘zbek tilida qarindoshlik va hurmat ifodalovchi etiket (odob) birliklaridan biri bo‘lib, u asosan katta yoshli ayollarga nisbatan ishlatiladi. “Momo” so‘zi lug‘aviy jihatdan buvi, katta yoshli ayol, hurmatli keksa ayol ma’nolarini bildiradi. Murojaat shakli sifatida esa u yoshi ulug‘ ayollarga nisbatan hurmat ifodalaydi, ba’zan qarindoshlikni emas, balki ijtimoiy hurmatni bildiradi.

Lingvokulturologik jihatdan “momo” o‘zbek xalqining kattalarga hurmat qadriyatini aks ettiradi, ayol keksa avlodga nisbatan mehr va ehtiromni ifodalaydi, milliy muloqot madaniyatida yumshoqlik va samimiylikni kuchaytiradi. “Momo” murojaati quyidagi vaziyatlarda uchraydi:

“Momojon,? – cho’pni otib tashlab, buvining yengidan tortqiladi Jamshid. – Kim urishdi? Yig’lamang.” [4, 28-b]

Ko‘pinch bu murojaat shakli qishloq nutqida, oilaviy muhitda, mahalla muloqotida keng ishlatiladi. Unda kattalashtirish va hurmat semasi kuchli. Rasmiy nutqda kamroq, norasmiy va samimiy nutqda ko‘proq qo‘llanadi. Ba’zan “ona”, “buvi” so‘zlariga sinonim sifatida ishlatiladi, lekin hissiy jihatdan yumshoqroq. “Momo” murojaat shakli o‘zbek tilida nafaqat leksik birlik, balki milliy madaniyat, hurmat etikasi va ijtimoiy munosabatlar tizimini ifodalovchi lingvomadaniy birlik hisoblanadi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).

Murojaat shakllari lingvokulturologik jihatdan til birliklarining eng faol diskursiv qatlamiga kiradi, madaniy kodlarni tashuvchi vosita hisoblanadi, jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar modelini aks ettiradi. Shu sababli ular lingvokulturologik tadqiqotlarda mustaqil tahlil obyekti sifatida o‘rganilishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Аскольдов С.А. Концепт и слово / Русская словесность. От теории словесности к структуре текста. – Москва: Академия, 1997.

2. Hakimov M. **O**‘zbek tilida matnning pragmatik talqini: Filol. fan. d-ri ...diss. – Toshkent, 2001.

3. Xudoyberganova D. Matnning antroposentrik tadqiqi. – Toshkent: Fan, 2013.

4. Xolmirzayev Sh. O‘n sakkizga kirmagan kim bor. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2020.

5. Зиновьева Е.И., Юрков Е.Е. Лингвокультурология: теория и практика. – СПб.: ООО «Издательский дом «МИРС», 2009.

6. Шведова Н.Ю. Русский язык. Избранные работы. – М.: Языки славянской культуры, 2005.

Aziza ALMARDONOVA,
O‘zDJTU stajor – o‘qituvchisi
ToshDO‘TAU III bosqich tayanch doktoranti
azizaalmardonova42@gmail.com

ALISHER NAVOIY G‘AZALLARIDA DUNYO TUSHUNCHASINING BADIIY KO‘RINISHLARI

Annotatsiya: Alisher Navoiy lirik merosida “dunyo” va “nafs” tasavvufiy-axloqiy tafakkurning muhim tushunchalaridir. Ushbu maqolada ularning badiiy talqini, ramziy mazmuni hamda o‘zaro bog‘liqligi tahlil qilinadi. Dunyoning foniyligi va nafsning inson kamolotiga to‘sqinlik qiluvchi omil sifatidagi tasviri yoritilib, komil inson g‘oyasidagi o‘rni ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: *Alisher Navoiy, dunyo, nafs, tasavvuf, komil inson, badiiy talqin*

Аннотация: в лирическом наследии Alisher Navoiy понятия «мир» и «нафс» являются важными элементами суфийско-этической мысли. В статье анализируются их художественная интерпретация, символическое значение и взаимосвязь. Освещаются преходящий характер мира и роль нафса как препятствия на пути к совершенству человека, раскрывается их значение в концепции совершенного человека.

Ключевые слова: *Alisher Navoiy, мир, нафс, суфизм, совершенный человек, художественная интерпретация*

Annotation: in the lyrical heritage of Alisher Navoiy, the concepts of the “world” and “nafs” are key elements of Sufi ethical thought. This article analyzes their artistic representation, symbolic meaning, and interrelation. It highlights the transience of the world and the role of nafs as an obstacle to human perfection, revealing their significance in the concept of the perfect human.

Key words: *Alisher Navoiy, world, nafs, Sufism, perfect human, artistic representation*

Hazrat Alisher Navoiyning ulkan ijod olamida dunyo timsoli muhim ahamiyatga ega. Navoiyning deyarli barcha she’riy va nasriy asarlarida bu obraz faol qo‘llanilgan. Ayrim asarlarida “dunyo” istilohi butun borliq, go‘zal olam sifatida tasvirlansa, ba’zilarida insoniyatni ma’rifatdan, haqiqatdan uzoqlashtiruvchi obraz bo‘lib gavdalanadi. Biroq uning barcha nasriy asarlari tarkibida dunyo timsolining badiiy manzarasi yaqqol namoyon bo‘lmaydi. Shoir g‘azallarida esa dunyo obrazining turli qirralari ochib beriladi. Ushbu tadqiqotimiz aynan Alisher Navoiyning dunyo tushunchasi bilan bog‘liq g‘azallari haqida.

Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘atida dunyo so‘zining quyidagi ma’nolari uchraydi: “1. Jahon, olam, borliq. I boylik ma’nosida; II dunyo u mofiho – dunyo va undagi narsalar; III tarki dunyo qil – olam tashvishlarini tark qilib, oxiratning harakatini qilmoq; IV dunyodin -bor// -ket// - chiq// - o‘t// - vafot etmoq; V dunyo arusin qil taloq – dunyodan kechmoq, dunyodan ko‘ngil uzmoq.”[*Луғат*,1983:540]

“Xazoyin ul-maoniy” kulliyotidagi g‘azallar tarkibida dunyo istilohining boylik ma’nosiga keng o‘rin berilgan bo‘lib, shoir dunyo va undagi narsalar umrboqiy emasligini uqtirmoqchi bo‘lgandek ko‘rinadi:

Navoiy xush ko‘rar olamni oting zikridin, yo‘qsa,
Anga do‘zax aro o‘tdekdurur dunyovu mofiho. [*Навоий*,2011:27]

Ushbu baytni navoiyshunos O.Davlatov quyidagicha tahlil qilgan: “G‘azal Rasulullo (s.a.v)ga muhabbat va sadoqat izhori bilan tugallanadi. Zero, payg‘ambarga muhabbat – Allohga muhabbatdan nishona.” [Давлатов,2021:53] “G‘aroyib us-sig‘ar” devonidagi 7-g‘azal Navoiy me’rojnomalarining boshlanishidir. G‘azal payg‘ambarimiz haqida bo‘lib, baytlar tarkibida Alloh yaratgan mo‘jizalar haqida so‘z boradi. Hadisi shariflarda aytilishicha, Allohning eng birinchi yaratgan narsasi – “nuri Muhammadiy” hisoblanadi. Olamdagi barcha yorug‘lik ana shu muborak nurga borib taqaladi. Shu sababli Navoiy Alloh yaratgan mo‘jizalarni yaxshi ko‘rish orqali Allohga muhabbat qo‘yadi. Dunyoni ham Alloh taolo yaratgan, uni yaxshi ko‘rish orqali Yaratganga yanada yaqin bo‘lish mumkinligiga ishora qiladi hazrat Navoiy. Najmiddin Komilovning “Tasavvuf” kitobida shunday jumlalar keltirilgan: “…dunyoni bilish Allohni bilishning birinchi bosqichi, ya’ni Allohni bilish dunyoni bilishdan boshlanishi kerak, chunki dunyo – kasrat olami, Allohning ijodi. Uning sifatlari, qudratini namoyon etib turadigan ko‘zgu.”[*Комилов*,2009:38]

Navoiy dunyoni Alloh yaratganligi uchun unga muhabbat qo‘yish kerak deydi, lekin Alloh taoloni unutmagan holda. Agar teskarisi bo‘lsa, dunyodan voz kechgan afzal degan fikrni ilgari suradi:

Haq tilar bo‘lsang Navoiy silk dunyodin etak,
Ishqing o‘lsa pok, o‘zni qo‘yma bu murdor aro. [*Навоий*,2011:43]

Shoir yuqoridagi baytda dunyodan etak silkishni to‘g‘rilik deb hisoblaydi. Agar Haqqa bo‘lgan ishq pok bo‘lsa, bu o‘laksaxo‘r muhitga aralashib qolmaslik kerakligini uqtiradi. Yaratganning muhabbatiga erishaman degan har qanday solih inson, dunyo va unga o‘xshagan to‘siqlarni yengib o‘ta olishi lozim. Imom G‘azzoliy o‘zining

“Ihyou ulumid-din” asarida shunday deydi: “Olloh taolo barcha narsalarni yaratgan Zotdir. Agar inson barcha narsalarni bilsa-yu, ulug‘ va qudratli Rabbini tanimasa, demak u hech narsani bilmabdi. Tanish, bilishning alomati – muhabbat. Ollohni yaxshi ko‘rgan kishi Ollohni tanigan kishidir. Muhabbatning belgisi esa dunyo va undagi suyukli narsalarni Yaratuvchidan ustun qo‘ymaslik bilan belgilanadi.” [*Ғаззолий*,2006:56]

Butun borliqni yaratgan Olloh dunyo va undagi go‘zalliklardan bahramand bo‘lishi uchun odamga jon baxshida etgan. Diniy va tasavvufiy manbalarda ham dunyo go‘zal makon, hamma narsa mujassam joy sifatida gavdalanadi. Insonlar bu mo‘jizalardan Olloh taoloni unutmagan holda oqilona foydalanishi lozim. Biroq dunyoning ham insonlarni aqlidan ozdiradigan hiylalari borki, nafsini yenga olmagan kishilar bu aldovlarga tezda ishonib qolishi mukin:

Istading dunyo arusin tushtagi mahbubdek,
Topmas ergach kom la’lidin, pushaymon bo‘ldi tut.
[*Навоий*,2011:90]

Hazrat Navoiyning g‘azallari tarkibiga e’tibor bersak, dunyo istilohi arus so‘zi bilan bog‘liq holda tasvirlanadi. Ya’ni shoir dunyoni yangi kelinchak misol jilvalanishiga ishora qiladi. Bu borada adabiyotshunos N.Jabborov quyidagilarni aytib o‘tadi: “Buyuk shoir she’rlarida “dunyo” timsoli aksar “ayol” obrazi orqali suvratlanadi. Asli arabcha so‘z bo‘lgan “dunyo” ayol jinsi (jenskiy rod) ga mansub ekani ma’lum.” [Jabborov,2021:47] Xo‘sh, nega aynan Navoiy dunyoni ayollarga qiyoslaydi? Sababi nafs bilan kurashayotgan har bir inson oldida shu kabi sinovlar uchrab turishi ayon haqiqat. Fikrimiz isboti uchun Yusuf payg‘ambar hayotini eslash kifoya. Yana bir misol Abu Ali ibn Sinoning “Salomon va Ibsol” asaridir. Asar qahramoni akasining ayoli ya’ni yangasining hiylalari orqali o‘z nafsi bilan kurashadi. Mumtoz adabiyotimiz tarixida shu kabi misollar ko‘plab topiladi. Ammo “dunyo arusi” istilohi kamdan-kam she’rlar tarkibida uchraydi. Navoiy kelinchak kabi ishvali dunyoni istagan kishi tushida mahbubadan lazzat ololmagan kishidek pushaymon bo‘lib qolishi haqida uqtiradi. Shoir bayt mazmunida insonlarni g‘aflatda qolmaslikka chaqiradi. Bevafo dunyo yumushlari xayoldagi ishlar kabi pushaymon va nadomatdan boshqa hech qanday samara bermaydi, deya ogohlantiradi.

Topmayin dunyoda kome, dinni barbod ayladim,
Hayf do‘zah ham manga, billah, gar a’molim budur.
[*Навоий*,2011:179]

Alisher Navoiy g‘azallari tarkibida “dunyo” istilohi bilan bog‘liq baytlar ko‘proq maq’tada keltiriladi. Ya’ni shoir butun g‘azaldagi fikrini umumlashtirish uchun oxirgi qismda xulosaviy g‘oyani berib o‘tadi. Biroq yuqoridagi g‘azalda dunyo obrazi begona bayt tarkibida keladi. Baytni nasriy bayon qilsak, bu dunyoda biror maqsadga yetisholmay, dinimni barbod etdim. Agar a’molim shu bo‘lsa, do‘zax olovi ham menga hayf. Bayt pushaymonlik, o‘z qilmishlaridan norozilik ruhida yozilganki, dinni dunyoparastlikka almashgan insonga do‘zax o‘ti ham hayf ekanligini uqtiradi, hazrat Navoiy.

Abu Abdurahmon Sulamiyning “Nafs tarbiyasidagi choralar” kitobining “dunyoga bog‘lanish” qismida shunday deyiladi: “Yo‘lovchi Allohga eltuvchi yo‘lni bilishi kerakki, dunyoviy ishlarga e’tibor qilmasin, ularni bir chekkada qoldirib ketsin. Payg‘ambarimiz sollallohu alayhi vasallam aytadilar: “Islomning go‘zalligi kishi o‘ziga taalluqli bo‘lmagan ishlarni tark qilishidir.”[*Сулами*й,2024:54] Dunyo va undagi narsalarni hamma narsadan ustun qo‘ygan insonlar Alisher Navoiy aytganidek pushaymon va nadomatda qolishi haqiqatdir. Yuqoridagi bayt ham aynan shu mazmunda bo‘lib, dunyo va undagi narsalardan Alloh ishqida foydalansa hayoti yanada go‘zal va ishida baraka bo‘ladi. Biroq dunyoning aldamchi makriga uchib, nafsining quliga aylanib qolgan kishilar hayoti do‘zaxdan boshqa narsa emas.

Xulosa qilib aytganda, hazrat Navoiy g‘azallarida dunyo obrazi turli ma’nolarda qo‘llanilganiga guvoh bo‘ldik. Insonlarni ma’rifatdan uzoqlashtiruvchi narsa ham aynan “dunyo”dir. Shoir uning aldamchi hiylalariga uchmaslik kerakligini uqtiradi. Boisi odamlarning bu dunyoda qilgan har qanday ishi pushaymonlikdan boshqa narsa emas. Hadisi shariflarda shunday deyiladi: “Bandaning dunyoda qilgan ibodatlaridan boshqa barcha ishlari oqibatda pushaymonlik keltiradi.” [Давлатов, 2021:273] “Dunyo” istilohi bilan bog‘liq yuqoridagi baytlarning barchasi ushbu hadisning mag‘zini chaqib, o‘z hayoti yo‘liga qalb ko‘zi bilan nazar solgan va xulosa chiqargan odamning iqrori o‘laroq dunyoga kelgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. ***Абу Абдураҳмон Суламий***. ***Нафс тарбиясидаги чоралар***. – ***Т***.: Yangi asr avlodi, 2024. 54-bet.
2. ***Абу Ҳомид Ғаззолий***. ***Иҳёу улумид-дин***. – T.: Movarounnahr, 2006. 56-bet.
3. Алишер Навоий. Ғаройиб ус-сиғар. 20 томлик. 3-том. – Т., 1989. - Б.540
4. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. 4 томлик. 1-том. – Т.: Фан, 1983. - Б.510.
5. Алишер Навоий.Хазойин ул-маоний.Биринчи девон. Ғаройиб ус-сиғар. – Т.: Tamaddun, 2011. – b.27.
6. Haqqulov.I. Ma’naviy valodat va o‘zlik kamoli. – T.: Alisher Navoiy va XXI asr, 2021. 50-bet.
7. Давлатов.О.Маънолар хазинаси. Биринчи китоб. – Т.: Tamaddun, 2021.
8. Комилов.Н. Тасаввуф. – Тошкент: Movarounnahr – O‘zbekiston, 2009. 38-b.
9. Jabborov.N. Alisher Navoiy asarlarida “dunyo” timsoli va uning talqinlari. – T.: “Alisher Navoiy va XXI asr”, 2021.

Gulchehra MURODOVA,
Buxoro davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi



AHMAD YASSAVIY HAMDA MAXTUMQULI SHE’RLARIDA ILOHIY HAQIQAT TASVIRI

Annotatsiya: mazkur maqolada Ahmad Yassaviy hamda Maxtumquli Firog‘iy she’riyatida ilohiy haqiqat tasviri, tasavvufiy qarashlar va insonning ma’naviy kamolot masalalari tahlil qilinadi. Shoirlar ijodida Haqni anglash, nafsni poklash, komil inson g‘oyasi, ishq va ma’rifat kabi tushunchalarning badiiy ifodasi yoritilgan.

Kalit so‘zlar: *nafsni poklash, komil inson, so‘fiyona ruh, haqiqiy ishq, zikr, ruhiy poklanish.*

Аннотация: в данной статье анализируется изображение божественной истины, мистических взглядов и вопросов духовного совершенства человека в поэзии Ахмада Яссави и Мактумкули Фирогии. Особое внимание уделяется художественному выражению таких концепций, как постижение Истины, очищение души, идея совершенной личности, любовь и просветление, в творчестве поэтов.

Ключевые слова: *очищение души, совершенная личность, суфийский дух, истинная любовь, память, духовное очищение.*

Annotation: this article analyzes the depiction of divine truth, mystical views, and issues of human spiritual perfection in the poetry of Ahmad Yassawi and Makhtumkuli Firogii. The artistic expression of such concepts as the realization of the Truth, the purification of the soul, the idea of a perfect person, love, and enlightenment is highlighted in the poets’ work.

Key words: *purification of the soul, perfect person, Sufi spirit, true love, remembrance, spiritual purification*

Kirish. Mumtoz adabiyot namunalarida uchraydigan keng ko‘lamli mavzulardan biri voqea-hodisalarni islom ahkomlari nuqtayi nazaridan talqin qilish orqali bu dunyo bilan oxirat o‘rtasidagi bog‘liqlik, ilohiy poklik va islomiy tartib-qoidalarni ochib berishdir. Ushbu maqsadda yaratilgan “Devoni hikmat”ning badiiy qiymati, tarixiy va madaniy ahamiyati hamda mumtoz adabiyotda Yassaviyning o‘rni haqida G‘arb tadqiqotchilarining fikrlari alohida e’tiborga loyiqdir. “Devoni hikmat”ning mashhurligi, undagi diniy-tasavvufiy tushunchalar bilan birga milliy, ya’ni xalq og‘zaki ijodidan olingan unsurlar asrlar davomida xalq ehtiyojini qondirib kelgani bilan izohlanadi.

Asosiy qism. Professor Gurbandurdi Geldiyev maqolalarida Islomga aloqasi bo‘lmagan she’rlar turkman mumtoz she’riyatida juda kam, hatto deyarli yo‘qligini ta’kidlaydi. Mashhur mumtoz shoirlarning go‘yoki Islomga aloqasi yo‘qdek tuyulgan she’rlarining chop etilishi ham aslida Islomni targ‘ib qilishga xizmat qilganligini hech shubha yo‘q. Mumtoz adabiyotda yuqoridagi masala yuzasidan so‘z borganda, xalq og‘zaki ijodidagi baxshichilik an’anasi hamda she’rlarining asosiy mavzusi Islom tartib-qoidalari bag‘ishlangan Xoja Ahmad Yassaviy nomi albatta yodga olinadi. Chunki so‘fiy inson sifatida ulug‘langan bu zotning hikmatlari ham madrasalarda o‘qitilgan hamda ular xalq orasida keng tarqalgan.

Fuod Ko‘prulzoda “Turk adabiyotidagi ilk mutasavvuflar” kitobida Xoja Ahmad Yassaviy Markaziy Osiyo turk adabiyotida asrlar davomida ta’sir ko‘rsatgan hamda o‘ziga xos she’riyat uslubini yaratgan shoir ekanligini ta’kidlab, turkman, ozarbayjon, turk adabiyotida Yassaviy ta’siri yaqqol ko‘zga tashlanishi, turkman adabiyotida Maxtumquli, ozarbayjon va Anadolu adabiyotida esa xalq tasavvuf she’riyati Yassaviy an’anasi ta’sirida shakllanganligi bilan asoslaydi.

Tariqat piri bo‘lgan Yassaviy hikmatlari vaqt o‘tishi bilan muqaddas qadriyat darajasidagi mohiyat kasb etgan. Yassaviydan keyin “hikmat” yozish an’anasi davom etgan bo‘lib, ayniqsa “Yusuf va Zulayho” masnaviysida Yassaviy ta’siri yaqqol seziladi. Bu uslubdagi she’riyat keyingi davrlarda ham davom etgan. Navoiydan oldingi va keyingi davrlarda

ham Yassaviy ta’siri saqlanib qolgan. Navoiydan keyingi davrda bu ta’sirning turkman adabiyotida kuchayishiga baxshi shoirlari an’anasi katta hissa qo‘shgan. Shu jarayonda ba’zi Yassaviy taqlidchilari ham paydo bo‘lgan.

Adabiyotshunos olim uning Ahmad Yassaviy, Sulaymon Boqirg‘oniy, Zangi ota, Pahlavon Mahmud, Amir Kulol, Bahouddin Naqshband kabi bir qator o‘tib ketgan shayxlar bilan ham ma’naviy irtiboti bo‘lganligini ta’kidlaydi.” [2;10]

Maxtumquli she’riyati Qur’oni karim va unga yozilgan tafsirlar, Hadisi sharif, tasavvuf she’riyati, xalq og‘zaki ijodi asosida shakllanganligi sababli uning she’rlarida islomiy mavzular, so‘fiyona ruh xalqona ohanglar bilan bir butunlikni tashkil qiladi. Ushbu mutanosiblik Maxtumquli asarlarining yuksak badiiyati, ta’sirchanligi va umrboqiyligini ta’minlagan.

“Ma’lumki, “Turkiston mulkining shayxul-mashoyixi” (Navoiy) Ahmad Yassaviy islom ma’rifati va tasavvuf haqiqatini hikmat tili bilan bayon qilib, turkiy xalqlar ma’naviy tafakkuri taraqqiyotida buyuk rol o‘ynagan edi. Ta’bir joiz bo‘lsa, Maxtumquli xuddi shu vazifani turkman xalqi orasida haddi a’losida ado etdi. U o‘zining islom ta’limoti va shariat talablari nazmiy talqin qilingan she’rlari bilan o‘z xalqini Haq yo‘liga da’vat etgan bo‘lsa, tasavvuf asoslari tushuntirilgan ijod namunalari bilan tariqatga muhabbat uyg‘otdi. Uning nafaqat diniy-tasavvufiy mavzudagi she’rlari, balki biror asari islomiy ruh va so‘fiyona mazmundan xoli emas deyish mumkin. [2;13]

Turkman mumtoz she’riyatida Allohga oshiq bo‘lish, Uni izlash, moddiy dunyo noz-ne’matlaridan kechib bu ulug‘ maqsad uchun harakat qilish juda ko‘p uchraydigan mavzulardan biridir. Bu mavzu avvalo, buyuk turkman shoiri Maxtumqulining she’rlarida namoyon bo‘ladi. Bir o‘qishda “sevgi” mavzusida deb talqin qilingan quyidagi she’r aslida Allohning yerdagi tajallisi ekanligi, Alloh inoyati bilan yaratilgan zarralar to‘g‘risidaligiga hech shubha qolmaydi.

Aslo seni ko‘rmaganman, dildorim!
Qumrimisan, bulbulmisan, namasan?
G‘amgin ko‘nglim xayolingda aldarman,
Bog‘ ichinda gul-gulmisan, namasan?
Maxtumquli, kech nomus-u oringdan,
Qo‘ling tortgil bul vafosiz koringdan,
Jahon voqif, sensen g‘ofilsan yoringdan,
Yo mastmisan, yo shaydosan, namasan? [3;165]

Ushbu to‘rtlik oddiy ishqiy kechinmadan ko‘ra haqiqiy ishq ifodasiga yaqindir. Tasavvufda yor ko‘pincha Alloh, oshiq esa – Uni izlovchi banda sifatida talqin qilinadi. “Aslo seni ko‘rmaganman, dildorim” misrasi orqali tasavvufdagi muhim haqiqatni anglashiladi: inson Allohni ko‘z bilan ko‘rmagan, ammo qalban Unga oshiq. Qumri, bulbul, gul ramziy ifodalari ham she’rning badiiy ta’sir kuchini oishirish maqsadida qo‘llaniladi. Keyingi misrada solik Allohning jamolini bevosita ko‘rmasa-da, xayol va zikr orqali o‘ziga tasalli topayotganiga ishora qiladi. Shoir yor obrazida aslida (Allohni**)** tasvirlaydi. Oshiq esa Uni ko‘rmagan bo‘lsa-da, har bir go‘zallikda Uning aksini ko‘rishga urinadi. Bu ikki band orasidagi misralarda shoirning lirik qahramoni o‘zi izlayotgan Mutlaq Haqiqat – ya’ni Alloh taoloning qanday sifatlari borligini so‘raydi: U qaroqchimi, sayyidmi, xo‘jami, soqiy yoki maymi, qadahmi, yilmi, kunduzmi, kechami, Oy yoki Kunmi, mushkmi yoki jambil yo anbarmi, charxmi yoki chambar, daryomi yo mavjmi, savsarmi, girdobmi, yo to‘lqin. Oltinmi, kumushmi, zarmi, arshmi, fazomi, yermi, yoqut, marjon, inju yo chirog‘mi yo ziyo sen aslida nimasan?

Bu savollarning barchasiga shoir o‘zi javob beradi: “Jahon to‘la, sen g‘ofilsan yoringdan” – ya’ni butun olamda sening yoring (Alloh) mavjud, lekin sen bundan bexabarsan. So‘ngra shoir o‘ziga murojaat qilib: “Yo mastmisan yo shaydosan, nimasan?” deya savol beradi.

Mutlaq Haqiqat – Allohni izlash, tafakkur orqali Uni anglashga intilish – bu, albatta, pirlik maqomiga yetgan shaxsning dunyoqarashida uchraydigan ruhiy holatdir. Bir qaraganda, bu holat Xoja Ahmad Yassaviy haqidagi suhbatdan yiroqdek tuyulishi mumkin. Ammo Maxtumqulining pir emas, balki iste’dodli shoir sifatida shu idealni izlab, uni she’riyat orqali ifoda etganini inobatga olsak, uning bu adabiy uslubi Xoja Ahmad Yassaviy bilan bog‘liqligini, aniqrog‘i, uning manbayi Turkiston pirining hikmatlariga borib taqalishini anglash qiyin emas.

Xoja Ahmad Yassaviyning tasavvufiy she’riyatning asosiy g‘oyalarini – ilohiy ishq, zikr orqali poklanish, visolga intilish hamda inson qalbidagi iztirob va umid uyg‘unligini chuqur badiiy shaklda tasvirlangan hikmati quyidagicha:

“Qul huvalloh, subhonolloh” vird aylasam,
Biru Borim, diydoringni ko‘rarmanmu?
Boshdin ayoq hasratingni dard aylasam,
Biru Borim diydorini ko‘rarmanmu?” [4;28]

Ayo do‘stlar, yurak bag‘rim bo‘ldi kabob,
Ishqsiz odam ishq qadrini bilgan bormu?
Tuni-kuni g‘urbat tortib ishq yo‘lida,
Bevosita Haq diydorin ko‘rgan bormu? [4;358]

Yuqoridagi hikmatning birinchi misrasida “yurak bag‘rim bo‘ldi kabob” degan ifoda orqali oshiqning ruhiy iztirobi kuchli badiiy obraz orqali tasvirlanadi. Bu yerda “kabob” so‘zi tashbeh sifatida ishlatilib, qalbning ishq o‘tida yonib, iztirob chekayotgan holatini ifodalaydi. Tasavvufiy talqinda bu iztirob oddiy azob emas, balki insonni poklovchi, uni yuksaltiruvchi ruhiy jarayondir. “Ishqsiz odam ishq qadrini bilgan bormu?” degan so‘roq esa baytning asosiy g‘oyasini tashkil etadi. Keyingi misrada “tuni-kuni g‘urbat tortib ishq yo‘lida” deyilishi orqali ishq yo‘lining mashaqqati tasvirlangan. “G‘urbat” bu yerda oddiy ayriliq emas, balki dunyoviy nafslardan uzoqlashish, o‘zlikdan kechish ma’nolarini anglatadi. “So‘nggi misrada “Bevosita Haq diydorin ko‘rgan bormu?” degan savol orqali ilohiy visol masalasi ko‘tariladi. Bu yerda shoir bevosita Allohni ko‘rish g‘oyasini savol ostiga qo‘yadi. Bu savol orqali insonning cheklanganligi, uning ilohiy haqiqatni to‘liq anglashdagi ojizligi ifodalanadi. Shu bilan birga, bu intilishning o‘zi ham muqaddas va yuksak maqsad sifatida ulug‘lanadi.

Quyida Ahmad Yassaviyning xuddi shu mazmunda yozilgan hikmatlariga e’tibor qaratsak:

Qul Xoja Ahmad, qo‘yg‘il emdi dunyo fikrin,
Jahd aylagil, tinmay oyg’il Haqni zikrin.
Hozir bo’lub o‘loringni emdi bilgin,
Emdi izlab, yo Rab, sani toparmanmu? [4;329]

Bu misralarda ham Allohni izlash g‘oyasi mujassam. Albatta, adabiy ta’sir masalasiga shoirlik va mahorat nuqtayi nazaridan qaralsa, Maxtumqulining she’rlari mustaqil, o‘ziga xos adabiy hodisa ekanini ta’kidlash lozim. Uning shakliy boyligi, fikr teranligi va ravonligi boshqa asarlar bilan qiyoslab bo‘lmaydi. Maxtumqulining Xoja Ahmad Yassaviy hikmatlarini o‘qigani va ulardan ijodiy ilhom olgani, uning ijodida yangi bir manba sifatida namoyon bo‘lganini yana bir she’ri orqali asoslash mumkin. Bu-Maxtumqulining mashhur “Ko‘rdingmi?” she’ridir:

Nur kabi tovlanar qorong‘i tunda,
Mening sohibjamolimni ko’rdingmi?
Bahor ayyomida, qiyomat kunda
Mening sohibjamolimni ko‘rdingmi? [2;176]

“Sohibjamol” (“go‘zalliklar egasi”) deganda Maxtumquli Xudoni nazarda tutadi. She’r davomida lirik qahramon Sohibjamolni Ka’ba tomonidan, Shomdan, Iroqdan, Rumdan, Qipchoqdan, Chin-Mochindan, turli iqlimlardan, Arshning ichi-yu, falakning burchaklaridan, oshiqlar ohi-yu, Qulzum bahridan, Qutbat ul-islomdan, Jayhun nahridan, Sidra sahrosidan, Quddus shahridan, Alining mulki-yu Iso yeridan, yerning ortidan, osmonning bag‘ridan — deyarli hamma joydan izlaydi.

Ko‘rinib turibdiki, Maxtumqulining “Ko‘rdingmi?” she’rida Allohni izlash, fikr va iztirob bilan Uning go‘zalligini his etish uslubi adabiy jihatdan Xoja Ahmad Yassaviy ta’siri desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Maxtumqulining o‘zi ham quyidagi bandida bu ta’sirni ochiq ko‘rsatadi:

Ali da’vo bilan chiqqan nafasi,
Qofdan Ka’baga yetdi Hazrat sasi,
Ey Ahmad Yassaviy, iqlim egasi,
Mening sohibjamolimni ko’rdingmi? [2;177]

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, Maxtumquli Firog‘iy ijodi bevosita Ahmad Yassaviy asos solgan tasavvufiy adabiy an’analarning davomi sanaladi. Uning she’rlarida haqiqiy ishq, iztirob, zikr va ilohiy visolga intilish kabi g‘oyalar yetakchi o‘rinni egallaydi. Bu jihatlar Yassaviy hikmatlariga xos ruhiy poklanish, sabr, nafsni tiyish va Haqqa yaqinlashish g‘oyalari bilan uzviy bog‘liqdir. Uning baytlarida oshiq qalbidagi iztirob, g‘urbat va dard orqali ruhiy yuksalish jarayoni tasvirlanadi. Bu esa Yassaviy maktabiga xos bo‘lgan “dard orqali kamolga yetishish” tamoyilining davomidir. Shuningdek, Maxtumquli she’rlarida xalqona ohang, sodda va tushunarli ifoda ustuvor bo‘lib, bu ham Yassaviy an’anasining muhim belgilaridan biridir. Ya’ni, murakkab tasavvufiy g‘oyalar xalq tilida, oddiy obrazlar orqali yetkaziladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. I.Haqqulov Tasavvuf va sheriyat. – Toshkent: “G‘afur G‘ulom” nomidagi nashriyot-matbaa birlashmasi, 1991.
2. Turkiy adabiyot durdonalari (92-jild). Maxtumquli. – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2022.
3. Махтумқули Фироғий. Сайланма. – Тошкент: O‘zbekiston, 2008.
4. Хожа Аҳмад Яссавий. Ҳикматлар. Умринг елдек ўтаро. Нашрга тайёрловчилар: Ҳаққул И, Ҳасан Н. – Тошкент: Муҳаррир, 2020.

Nargiza UZOQOVA,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
stajyor o‘qituvchisi
E-mail: nuzoqova70@gmail.com

TOG‘AY MUROD QISSALARIDA RIVOYATCHI VA BADIIY VOQELIK

Annotatsiya: ushbu maqolada Tog‘ay Murod qissalarida rivoyatchi obrazi va badiiy voqelik masalasi tahlil qilinadi. Adib asarlarida xalqona tafakkur, milliy ruh, inson qalbi va jamiyat hayotining badiiy ifodasi o‘ziga xos uslub orqali namoyon bo‘lishi yoritiladi. Qissalarda rivoyatchining voqealarni tasvirlashdagi o‘rni, muallif pozitsiyasini ochib berishdagi ahamiyati hamda badiiy voqelikning hayotiylik asosida qurilishi ilmiy jihatdan izohlanadi. Maqolada zamonaviy adabiyotshunoslik qarashlari asosida Tog‘ay Murod ijodining poetik xususiyatlari ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: *rivoyatchi, badiiy voqelik, qissa, obraz, poetika, milliy ruh, realizm, tasvir usuli, adabiy tahlil, xalqona tafakkur.*

Аннотация: в данной статье анализируются образ повествователя и проблема художественной реальности в повестях Тогай Мурод. Освещается своеобразное проявление народного мышления, национального духа, внутреннего мира человека и общественной жизни через индивидуальный художественный стиль писателя. Научно раскрывается роль повествователя в изображении событий, его значение в выражении авторской позиции, а также построение художественной реальности на основе жизненной достоверности. На основе современных литературоведческих подходов раскрываются поэтические особенности творчества Тогая Мурода.

Ключевые слова: *повествователь, художественная реальность, повесть, образ, поэтика, национальный дух, реализм, способ изображения, литературный анализ, народное мышление.*

Kirish. O‘zbek nasrida XX asr oxiri va XXI asr boshlarida yuz bergan yangilanish jarayonlari milliy adabiyot taraqqiyotida muhim bosqich bo‘ldi. Ana shu davrda ijod qilgan Tog‘ay Murod o‘zining betakror uslubi, xalq ruhiyatiga yaqin tasvirlari va hayotiy qahramonlari bilan adabiyotda alohida o‘rin egalladi. Adib qissalarida inson va jamiyat munosabati, qishloq hayoti, milliy qadriyatlar hamda oddiy inson taqdiri chuqur badiiy talqin qilinadi. Yozuvchi voqealarni oddiy bayon qilish bilan cheklanmay, rivoyatchi vositasida o‘quvchini ruhiy kechinmalar olamiga olib kiradi.

Tog‘ay Murod qissalarida rivoyatchi nafaqat voqealarni hikoya qiluvchi shaxs, balki badiiy tafakkurning asosiy markazi sifatida namoyon bo‘ladi. Rivoyatchi orqali muallifning hayotga munosabati, milliy qarashlari va estetik ideallari ifodalanadi. Adibning “Ot kishnagan oqshom”, “Oydinda yurgan odamlar”, “Yulduzlar mangu yonadi” kabi qissalarida rivoyatchi tasvirning ichki harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi.

Tog‘ay Murod qissalarida rivoyatchi obrazining yana bir muhim jihati — uning voqealarga bevosita ruhiy munosabat bildirishi bilan xarakterlanadi. Rivoyatchi faqat tashqi hodisalarni bayon etmaydi, balki qahramonlarning ichki olamiga kirib boradi. Shu sababli yozuvchi asarlarida psixologik tasvir kuchli namoyon bo‘ladi. Qahramonlarning iztiroblari, umidlari va hayot haqidagi qarashlari rivoyatchi nutqida tabiiy va samimiy ifodalanadi. Bu esa o‘quvchini asar voqealariga yanada yaqinlashtiradi. Adib qissalarida vaqt va makon tasviri ham badiiy voqelikni shakllantiruvchi asosiy unsurlardan biridir. Tog‘ay Murod qishloq hayotini tasvirlash orqali xalqning turmush tarzi, urf-odatlari va ma’naviy qadriyatlarini ochib beradi. Ayniqsa, qishloq manzaralari tasvirida milliy ruh yaqqol seziladi. Dala, yaylov, otlar, oqshom va oy tasvirlari nafaqat estetik vazifa bajaradi, balki qahramon ruhiyatining ramziy ifodasiga ham aylanadi. Shu jihatdan yozuvchi tabiat va inson o‘rtasidagi uyg‘unlikni chuqur falsafiy ma’noda talqin qiladi.

Tog‘ay Murod asarlarida dialog va ichki monologlarning o‘rni ham alohida ahamiyatga ega. Qahramonlarning o‘zaro suhbatlari orqali xalqona dunyoqarash va hayot falsafasi namoyon bo‘ladi. Ichki monologlar esa inson qalbidagi yashirin kechinmalarni ochishga xizmat qiladi. Yozuvchi bu usul orqali qahramonning ruhiy holatini tabiiy va ishonarli tasvirlaydi. Natijada badiiy voqelik hayotiylik kasb etib, o‘quvchida kuchli estetik ta’sir uyg‘otadi. Adib ijodida ramziy obrazlardan foydalanish ham muhim poetik xususiyatlardan biridir. Masalan, ot obrazi erkinlik, sadoqat va milliy qadriyat timsoli sifatida talqin qilinadi. Oy, tun va shamol obrazlari esa inson ruhiyatidagi iztirob, yolg‘izlik va umid kabi holatlarni ifodalaydi. Bu ramzlar orqali yozuvchi oddiy voqealarga chuqur falsafiy mazmun yuklaydi. Shu

bois Tog‘ay Murod qissalari nafaqat realistik, balki poetik-falsafiy asarlar sifatida ham qadrlanadi.

Yozuvchining uslubida xalq og‘zaki ijodi an’analari ham muhim o‘rin tutadi. Rivoyatchi nutqida maqollar, matallar, xalqona iboralar va takroriy ohanglarning qo‘llanishi asar tilining jozibadorligini oshiradi. Bu uslub qissalarning milliy ruhini kuchaytirib, o‘quvchiga xalq tafakkuriga yaqin estetik muhit yaratadi. Shu orqali Tog‘ay Murod milliy nasr tilini yangi badiiy ifoda vositalari bilan boyitgan adiblardan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Tog‘ay Murod qissalarida badiiy voqelik real hayot hodisalari bilan uyg‘un holda tasvirlanadi. Asarlarda tabiat manzaralari, inson ruhiyati va xalq turmushi o‘zaro bog‘liq holda ochiladi. Muallif voqelikni shunchaki aks ettirmaydi, balki uni estetik tafakkur orqali qayta yaratadi. Shu sababli yozuvchi qissalaridagi har bir detal ma’naviy va falsafiy mazmun kasb etadi.

Adib ijodida xalqona ohangning kuchliligi rivoyatchi tilida yaqqol seziladi. Rivoyatchi nutqida xalq maqollari, iboralari va milliy ruhni ifodalovchi tasvir vositalari keng qo‘llanadi. Bu esa qissalarning ta’sirchanligini oshirib, o‘quvchida voqealarga nisbatan ishonch uyg‘otadi. Yozuvchi qahramonlar ruhiyatini ochishda ichki monolog, ruhiy tasvir va tabiat uyg‘unligidan mohirona foydalanadi.

Bugungi adabiyotshunoslikda Tog‘ay Murod ijodi yangi ilmiy qarashlar asosida tadqiq etilmoqda. Zamonaviy tadqiqotlarda yozuvchining badiiy tafakkuri, milliy obraz yaratish mahorati va poetik uslubi alohida e’tibor markazida turibdi. Ayniqsa, rivoyatchi va badiiy voqelik munosabatini o‘rganish adib asarlarining estetik mohiyatini chuqurroq anglash imkonini beradi.

Asosiy qism. Tog‘ay Murod qissalarida rivoyatchi obrazi voqealar rivojini birlashtirib turuvchi badiiy markaz vazifasini bajaradi. Rivoyatchi voqelikni oddiy kuzatuvchi sifatida emas, balki hayotni chuqur his qiluvchi shaxs sifatida tasvirlaydi. Shu jihatdan uning nutqi samimiy va ta’sirchan chiqadi. Muallif rivoyatchi orqali xalqning ichki dardini, orzu-intilishlarini va ruhiy holatini ochib beradi. “Ot kishnagan oqshom” qissasida inson va tabiat uyg‘unligi rivoyatchi nigohi orqali tasvirlanadi. Asarda ot obrazi milliy ruh va erkinlik timsoli sifatida namoyon bo‘ladi. Rivoyatchi voqealarni tasvirlash davomida tabiat manzaralarini inson ruhiyati bilan uyg‘unlashtiradi. Natijada badiiy voqelik yanada jonli va ta’sirchan tus oladi.

“Oydinda yurgan odamlar” qissasida esa insonning ma’naviy iztiroblari va jamiyatdagi o‘rni falsafiy ruhda yoritiladi. Rivoyatchining ichki kechinmalari orqali qahramonlarning ruhiy olami ochiladi. Asarda voqelikning real tasviri bilan birga ramziy ma’no ham mavjud bo‘lib, bu yozuvchining poetik mahoratini ko‘rsatadi.

Tog‘ay Murod ijodining muhim xususiyatlaridan biri xalqona til va milliy ruhning kuchliligidir. Rivoyatchi nutqi sodda bo‘lishiga qaramay, chuqur ma’no va falsafiy mushohadaga boy. Muallif oddiy insonlar hayoti orqali umuminsoniy g‘oyalarni ilgari suradi. Shu sababli adib qissalari o‘quvchi qalbiga yaqin bo‘lib qoladi.

Yozuvchi badiiy voqelikni yaratishda tabiat tasvirlariga alohida e’tibor beradi. Tabiat manzaralari qahramon ruhiyati bilan uyg‘unlashib, voqealarning emotsional ta’sirini oshiradi. Tog‘ay Murod tasvirlarida dala, shamol, tun, oy va ot kabi obrazlar ramziy ma’no kasb etadi. Bu esa qissalarning poetik qudratini kuchaytiradi.

Bugungi adabiy jarayonda Tog‘ay Murod qissalari milliy nasrning yuksak namunasi sifatida baholanmoqda. Adib asarlaridagi rivoyatchi va badiiy voqelik uyg‘unligi o‘zbek nasrining estetik imkoniyatlarini kengaytirgan muhim omillardan biri hisoblanadi.

Xulosa. Tog‘ay Murod qissalari o‘zbek adabiyotida inson ruhiyati va milliy voqelikni chuqur aks ettirgan badiiy asarlar sifatida alohida ahamiyatga ega. Yozuvchi rivoyatchi obrazi orqali voqealarga estetik va falsafiy mazmun yuklaydi. Badiiy voqelik esa real hayot bilan uyg‘un holda tasvirlanib, o‘quvchida chuqur taassurot uyg‘otadi. Adibning xalqona uslubi, samimiy tasvirlari va ruhiy tahlil mahorati uning qissalarini o‘zbek nasrining nodir namunalaridan biriga aylantirgan. Tog‘ay Murod ijodini rivoyatchi va badiiy voqelik nuqtayi nazaridan o‘rganish milliy adabiyot poetikasini chuqurroq anglashda muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Tog‘ay Murod. “Ot kishnagan oqshom”. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 2018, 156-bet.
2. Tog‘ay Murod. “Oydinda yurgan odamlar”. – Toshkent: Sharq nashriyoti, 2019, 192-bet.
3. Tog‘ay Murod. “Yulduzlar mangu yonadi”. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2020, 174-bet.
4. Qo‘chqorov R. “O‘zbek nasrida badiiy tafakkur”. – Toshkent: Fan nashriyoti, 2017, 214-bet.
5. Karimov B. “Hozirgi o‘zbek adabiyoti poetikasi”. – Toshkent: Akademnashr, 2021, 238-bet.
6. Yo‘ldoshev Q. “Adabiyot nazariyasi asoslari”. – Toshkent: O‘qituvchi, 2016, 286-bet.

Sh.R.ISTAMOVA,
SamDCHTI Ingliz tili tarixi va grammatikasi kafedrasi o‘qituvchisi

ERKIN VOHIDOV SHE’RIYATIDA MILLIY G‘OYANING AKS ETISHI

Annotatsiya: ushbu maqolada Erkin Vohidov she’riyatidagi milliy g‘oya tushunchasi zamonaviy adabiy yondashuvlar asosida atroflicha tahlil etilgan. Shoir ijodida milliy g‘oyani ifodalashning badiiy shakllarini aniqlash, uning nazariy asoslarini o‘rganish, she’riy vositalar orqali namoyon bo‘lish mexanizmlarini ochib berish tadqiqotning asosiy maqsadidir. Tadqiqotda adabiy tahlil, qiyosiy-tipologik, tarixiy-adabiy va strukturaviy usullar qo‘llaniladi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, Erkin Vohidov she’riyatida milliy g‘oya tarixiy xotira, ona tiliga munosabat, ijtimoiy masalalar talqini, lirik mavzuning umummilliy ovoz sifatida ifodalanishi, metafora va timsollardan foydalanish orqali namoyon bo‘ladi.

Kalit so‘zlar: *Erkin Vohidov, milliy g‘oya, she’riyat, lirik qahramon, poetika, badiiy vositalar, tarixiy xotira, ona tili, milliy o‘zlik, o‘zbek adabiyoti*

Annotation: this article provides a comprehensive analysis of the concept of the national idea in the poetry of Erkin Vohidov based on contemporary literary approaches. The main objective of the study is to identify the artistic forms of expressing the national idea in the poet’s works, to examine its theoretical foundations, and to reveal the mechanisms of its manifestation through poetic devices. The research employs literary analysis, comparative-typological, historical-literary, and structural methods. The findings demonstrate that the national idea in Vohidov’s poetry is expressed through historical memory, attitudes toward the native language, interpretation of social issues, the representation of the lyrical subject as a collective national voice, and the use of metaphors and symbols.

Key words: *Erkin Vohidov, national idea, poetry, lyrical subject, poetics, stylistic devices, historical memory, native language, national identity, Uzbek literature*

Аннотация: в данной статье проводится комплексный анализ концепции национальной идеи в поэзии Эркина Вохидова на основе современных литературных подходов. Основная цель исследования – выявить художественные формы выражения национальной идеи в творчестве поэта, рассмотреть ее теоретические основы, раскрыть механизмы ее проявления через поэтические приемы. В исследовании использованы литературоведческий анализ, сравнительно-типологический, историко-литературный и структурный методы. Результаты показывают, что национальная идея в поэзии Вохидова выражается через историческую память, отношение к родному языку, осмысление социальных проблем, репрезентацию лирического субъекта как коллективного национального голоса, использование метафор и символов.

Ключевые слова: *Эркин Вохидов, национальная идея, поэзия, лирическая тема, поэтика, стилистические приемы, историческая память, родной язык, национальная идентичность, узбекская литература.*

Kirish. Zamonaviy adabiyotshunoslikda milliy g‘oya tushunchasi millatning tarixiy xotirasi, ma’naviy qadriyatlari va o‘zlikni anglash jarayoni bilan chambarchas bog‘liq murakkab fenomen sifatida talqin etiladi. Ayniqsa, she’riyatda bu tushuncha yanada chuqurroq va nozikroq ifoda topadi, chunki lirika insonning ichki dunyosi, ruhiy kechinmalari va kollektiv ong qatlamlarini badiiy shaklda aks ettirish imkoniyatiga ega. O‘zbek adabiyoti taraqqiyotida muhim o‘rin egallagan Erkin Vohidov ijodi aynan milliy g‘oya masalasining badiiy talqinida alohida ahamiyat kasb etadi. Shoir asarlarida milliylik nafaqat mavzu darajasida, balki poetik tafakkur, obrazlar tizimi, til va uslub orqali kompleks tarzda namoyon bo‘ladi.

XX asrning ikkinchi yarmi hamda mustaqillik davrida yuzaga kelgan ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar Vohidov she’riyatida milliy o‘zlikni anglash, tarixiy xotirani tiklash va kelajak istiqbollarini belgilash kabi masalalarning dolzarbligini yanada oshirdi. Shu bois mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi Erkin Vohidov she’riyatida milliy g‘oyaning badiiy ifoda shakllarini aniqlash, uning nazariy asoslarini yoritish hamda konkret she’riy misollar orqali ilmiy xulosalar chiqarishdan iboratdir. Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundaki, unda milliy g‘oya masalasi kompleks yondashuv asosida, zamonaviy adabiyotshunoslik metodlari yordamida tizimli ravishda tahlil qilinadi.

Erkin Vohidov she’riyatida milliy g‘oya masalasi zamonaviy adabiyotshunoslikning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi, chunki milliy o‘zlikni anglash, tarixiy xotirani tiklash va ma’naviy qadriyatlarni badiiy ifoda etish jarayonlari aynan she’riyatda eng nozik va chuqur shaklda namoyon bo‘ladi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, Erkin Vohidov ijodi o‘zbek adabiyotida milliy g‘oya konsepsiyasining mukammal badiiy modeli sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Kirish qismida alohida ta’kidlash kerakki, milliy g‘oya tushunchasi faqat siyosiy yoki mafkuraviy kategoriya emas, balki madaniy-antropologik, tarixiy va estetik qatlamlarga ega murakkab hodisadir.

Adabiyotshunoslikda Erkin Vohidov ijodi millatning o‘zini anglash, o‘z tarixiga qaytish va kelajak istiqbollarini belgilash jarayonlari bilan bevosita bog‘liq holda izohlanadi. Erkin Vohidov she’riyati aynan shu jihatlari bilan ajralib turadi, ya’ni unda milliy g‘oya poetik tafakkur orqali ifodalanib, individual kechinmalar bilan kollektiv ong uyg‘unlashadi. Ayniqsa, XX asrning ikkinchi yarmi va mustaqillik davrida yuzaga kelgan

ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar shoir ijodida yangi mazmun va yangi badiiy shakllarni yuzaga keltirganini ko‘rish mumkin. Shu bois mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi Vohidov she’riyatida milliy g‘oyaning badiiy ifoda mexanizmlarini chuqur tahlil qilish, uning nazariy asoslarini ochib berish va konkret she’riy matnlar misolida ilmiy xulosalar chiqarishdan iboratdir.

Metodlar. Tadqiqot metodologiyasi qismida qo‘llanilgan yondashuvlar ko‘p qirrali bo‘lib, ular bir-birini to‘ldiruvchi ilmiy usullar tizimiga asoslanadi. Avvalo, matn tahlilida Adabiyotshunoslik va Poetika tamoyillariga tayangan holda, badiiy vositalarning funksional yuklamasi aniqlab berildi. Shu bilan birga, struktural yondashuv yordamida she’riy matnning ichki tuzilishi, obrazlar tizimi va semantik qatlamlari tahlil qilindi. Qiyosiy-tipologik metod orqali esa Vohidov ijodi boshqa o‘zbek shoirlari hamda jahon adabiyoti vakillari bilan umumiy va farqli jihatlar nuqtai nazaridan solishtirildi.

Tarixiy-adabiy metod yordamida shoir ijodining turli davrlari o‘rganilib, undagi milliy g‘oya evolyutsiyasi izchil tarzda yoritildi. Intertekstual yondashuv esa matnda yashirin tarzda aks etgan tarixiy, madaniy va folklor qatlamlarini ochib berishga xizmat qildi. Bundan tashqari, lirik qahramon masalasini o‘rganishda psixologik va fenomenologik yondashuvlardan foydalanilib, subyektivlik va kollektiv ong o‘rtasidagi dialektik munosabatlar aniqlashtirildi. Ushbu metodlar majmuasi tadqiqot natijalarining ilmiy asoslanganligini ta’minlaydi.

Natijalar. Natijalar qismida olib borilgan keng qamrovli tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Erkin Vohidov she’riyatida milliy g‘oya ko‘p qatlamli va murakkab badiiy tizim sifatida shakllangan. Avvalo, milliy g‘oya tarixiy xotira orqali ifodalanadi. Shoirning “O‘zbegim” kabi asarlarida millatning tarixiy yo‘li, uning boshidan kechirgan sinovlari va buyuklik sari intilishi yuksak badiiy umumlashtirish orqali beriladi. Bu yerda tarix faqat o‘tmish voqealari yig‘indisi sifatida emas, balki hozirgi va kelajakni belgilovchi ruhiy asos sifatida talqin etiladi.

Ikkinchi muhim yo‘nalish til va milliy ong o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikdir. Shoir ona tilini millatning mavjudligini belgilovchi asosiy omil sifatida ko‘rsatadi va uni asrashni ma’naviy burch darajasiga ko‘taradi. Bu esa tilning faqat kommunikativ vosita emas, balki identifikatsion va ideologik ahamiyatga ega ekanini ko‘rsatadi.

Uchinchi jihat shundaki, Vohidov she’riyatida milliy g‘oya ijtimoiy muammolar bilan uyg‘un holda namoyon bo‘ladi. Shoir jamiyatdagi adolatsizlik, ma’naviy inqiroz va qadriyatlar tanazzulini milliy nuqtayi nazardan tahlil qilib, ularni bartaraf etish yo‘llarini ko‘rsatadi.

To‘rtinchi muhim natija lirik qahramonning xususiyatlari bilan bog‘liqdir. Vohidov lirikasida “men” obrazi individual emas, balki umumlashgan milliy subyekt sifatida namoyon bo‘ladi.

Beshinchidan, poetik vositalar tizimi milliy g‘oyaning ifodasida muhim rol o‘ynaydi. Metafora, ramz, allegoriya kabi badiiy vositalar orqali Vatan, xalq va tarix tushunchalari obrazli va ta’sirchan tarzda ifodalanadi. Masalan, Vatan ona timsolida, xalq esa daryo yoki tog‘ obrazlari orqali tasvirlanadi, bu esa milliy ruhni yanada chuqurroq ochib beradi.

Oltinchidan, folklor elementlarining qo‘llanilishi milliylikni mustahkamlovchi muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi. Shoir xalq maqollari, iboralari va og‘zaki ijod unsurlaridan foydalanib, she’riyatni xalqchil va hayotiy qiladi.

Nihoyat, mustaqillik davrida yaratilgan she’rlarda milliy g‘oya yangi bosqichga ko‘tarilib, u optimizm, kelajakka ishonch va ma’naviy uyg‘oqlik g‘oyalari bilan boyitiladi.

Xulosa. Erkin Vohidov she’riyatining o‘zbek adabiyotidagi o‘rni va ahamiyati yanada yaqqol namoyon bo‘ladi. Avvalo, shoir milliy g‘oyani faqat ideologik kategoriya sifatida emas, balki estetik va falsafiy hodisa sifatida talqin etadi. Bu esa uning ijodini zamonaviy adabiy jarayon bilan uyg‘unlashtiradi. Vohidov she’riyati globalizatsiya sharoitida milliylikni saqlab qolish va rivojlantirish masalalariga ham javob beradi, chunki unda milliy qadriyatlar universal insoniy qadriyatlar bilan uyg‘un holda ifodalanadi. Shu jihatdan qaraganda, shoir ijodi nafaqat o‘zbek adabiyoti doirasida, balki jahon adabiy jarayonida ham o‘ziga xos o‘rin egallaydi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, Vohidov she’riyati milliy ongni shakllantirish, tarixiy xotirani tiklash va ma’naviy qadriyatlarni mustahkamlashda muhim rol o‘ynaydi. Ayniqsa, uning lirikasi yosh avlodni vatanparvarlik, milliy g‘urur va ma’naviy poklik ruhida tarbiyalashda katta ahamiyatga ega. Shu bilan birga, shoir ijodini zamonaviy nazariy yondashuvlar asosida o‘rganish uning yangi qirralarini ochib berishga xizmat qiladi.

Xususan, poststrukturalizm, diskurs tahlili yoki madaniy tadqiqotlar nuqtai nazaridan olib boriladigan izlanishlar Vohidov she’riyatining yanada chuqurroq talqinini berishi mumkin. Umuman olganda, Erkin Vohidov ijodi milliy g‘oya konsepsiyasining badiiy ifodasida mukammal namuna bo‘lib, u o‘zbek adabiyotining rivojida muhim bosqichni tashkil etadi va kelgusida ham ilmiy tadqiqotlar uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Yo‘ldoshev Q. *Adabiyotshunoslikka kirish*. – Toshkent: Universitet, 2007.
2. Qo‘chqorov N. *O‘zbek she’riyati poetikasi*. – Toshkent: Fan, 2003.
3. Ismoilov H. *Adabiyot nazariyasi asoslari*. – Toshkent: O‘qituvchi, 2005.
4. Rahimov B. *O‘zbek lirikasida lirik qahramon muammosi*. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2009.
5. Tursunov S. *Poetika va badiiy obrazlar tizimi*. – Toshkent: Sharq, 2004.

Rayhona XO‘JAYEVA,
O‘zJOKU mustaqil tadqiqotchisi.
“O‘zbekiston bunyodkori” gazetasi bosh muharrir o‘rinbosari

XURSHID DO‘STMUHAMMAD PUBLITSISTIKASIDA “HURRIYAT” GAZETASINING O‘RNI

Annotatsiya: ushbu maqolada Xurshid Do‘stmuhammadning 1997 – 2002-yillarda “Hurriyat” gazetasiga bosh muharrirlik qilgan davrida gazetada yoritligan mavzular, publitsistik maqolalarning ma’no-mazmuni, yangi ruh va uslublar haqida yoritiladi.

Kalit so‘zlar: *publitsistika, gazeta, “Hurriyat”, yangi rukn, so‘z erkinligi*.

Аннотация: в данной статье рассматриваются темы, освещавшиеся Хуршидом Достмухаммадом в период его работы главным редактором газеты “Хуррият” с 1997 по 2002 год, значение и содержание журналистских статей, а также новый дух и стили.

Ключевые слова: *журналистика, газета, “Хуррият”, новая рубрика, свобода слова.*

Annotation: this article discusses the topics covered by Khurshid Dostmuhammad during his time as editor-in-chief of the newspaper “Hurriyat” from 1997 to 2002, the meaning and content of journalistic articles, and the new spirit and styles.

Key words: *journalism, newspaper, “Hurriyat”, new column, freedom of speech.*

Kirish. Xurshid Do‘stmuhammad shaxsi haqida gap ketganda, oddiy so‘zlardan foydalanib ta’riflash mushkul ish. Ustoz haqida, u kishining muharrirlik, jurnalistik, yozuvchilik faoliyati haqida ustozlarimizning o‘zi ham ming istihola bilan yozishgan. Chunki har tomonlama yetuk inson haqida fikr bildirish uchun uni yaqindan tanish, ijodi bilan tanishish muhim ahamiyatga ega.

Xususan, Xurshid Do‘stmuhammadning bosh muharrirlik faoliyati haqida filologiya fanlari nomzodi, dotsent Halim SAYID “Hurriyat” gazetasida “O‘zligiga qarshi bormagan shaxs” sarlavhali maqolasida taniqli yozuvchi, mohir publitsist, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati Xurshid Do‘stmuhammadning jurnalistik faoliyatiga to‘xtalib, quyidagi fikrlarni bildirgan:

“Jonkuyar muharrirlarning muammoni ilg‘ab olishiga ularning xalq bilan hamnafasligi, masalalar yechimi ustida atroflicha bosh qotirishi, asl mutaxassislar fikrlarini eshitishi, izlanishi, ko‘p o‘qishi, dunyoning rivojlangan o‘lkalari muvaffaqiyatlari bilan o‘z yurti ahvolini qiyoslay bilishi, mavzuni jamoatchilik e’tiboriga yetkazishi, bir so‘z bilan aytganda, axborotga ega bo‘lishi sababchidir balki... Ta’kidlab qo‘yaylik, gap yurtparvar, xalqparvar ziyoli muharrirlar haqida ketmoqda.

Ammo... haqiqiy bosh muharrirlar uchun eng mashaqqati bular emas!.. Eng mashaqqati mavjud muammoni gazeta-jurnalda ko‘tarib chiqsa-da, uni hokimiyat sohiblariga yetkaza olmasligi, yetkazganda esa fikrini qabul qildirolmasligidadir”.

Asosiy qism. Bugungi kunda jurnalistikamiz rivoji yo‘lida faoliyat olib borayotgan ijodkorlar orasida Xurshid Do‘stmuhammadning o‘ziga xos uslubi, qarashlari, o‘z so‘zi va o‘rni bor. Xususan, 1997 – 2002-yillarda uning “Hurriyat” mustaqil gazetasiga bosh muharrirlik qilgan davri alohida bir mavzu. Bu davrda ilgari tilga olinmagan, fikr yuritilmagan, jurnalistlar ko‘tarib chiqishga yuragi dov bermagan ko‘plab jiddiy mavzular, muammolar yoritildi. Ularga yechimlar topildi. Tom ma’noda, gazeta o‘qirmanlarning eng sevimli nashrlaridan biriga aylandi. Mutaxassislar tili bilan aytganda ushbu davrda Xurshid Do‘stmuhammad jurnalistikada “yangi to‘lqin”ga asos soldi. Murosasiz tanqidiy maqolalar, dolzarb ijtimoiy mavzular va badiiy-publitsistik uslubdagi chiqishlar gazetani ko‘pchilikning sevimli nashriga aylantirdi.

Gazetaning 1998-yildagi sonlarini ko‘zdan kechirar ekanmiz, birinchi betda ko‘zga yaqqol tashlanadigan “Yo‘g‘-e!” rukni e’tiborimizni tortdi. Ushbu rukn ostida berilgan atigi bittagina gap yoki ikki og‘iz jumla o‘sha zamonning eng muhim voqeasini yoxud kunning biror-bir muammosini yorita olgani bilan ahamiyatlidir. Xususan, “Yolg‘onni eplagan baxtli yashaydi”, “Haqiqat tarozida tosh bosmaydi”, “Aldashni bilmagan amaldor bo‘lolmaydi” kabi yarmi hazil-yarmi chin ma’nodagi tesha tegmagan yangi fikrlar orqali jamiyatning ko‘plab muammolari tilga olingan.

Shuningdek, gazetaning bir yillik sonlarini tahlil qilish orqali Xurshid Do‘stmuhammadning bosh muharrir sifatida kunning eng muhim mavzusiga bag‘ishlangan o‘tkir fikrli maqolalarini ham o‘qishga muvaffaq bo‘ldik.

Jumladan, gazetaning yanvar oyida chiqqan “Qutlug‘ kunlar orzusi” sarlavhali maqolasi fikr ruknida berilgan. Undagi muallif ramazon oyi munosabati bilan ba’zi fikr-mulohazalarini bildirib, shunday deydi: “...kishilar ongini hamon to‘la-to‘kis tark etmayotgan bir illatni aytmay iloj yo‘q. Bu – qo‘l qovushtirib, yuqoridan najot kutish illati! Jamiyatimiz hayotida, kishilar turmushida nimaiki kamchilik bo‘lsa, uning barcha gunoh-u mas’uliyatini yuqorining zimmasiga ag‘darib qo‘yish endilikda sho‘ro davri sarqitiga aylanganini tezroq anglab yetmoq kerak bo‘layapti. Davlat o‘z navbatida, hech bir sohani e’tiborsiz tashlab qo‘ymaganidek, kishilarni tinimsiz faoliyatga, faollikka undamoqda ham...”.

Darhaqiqat, shunday. Afsuski, bu illat bugun ham kishilarni tark etgani yo‘q. Oradan yillar o‘tsa ham bitta mavzu haqida eskirmaydigan fikr aytish qobiliyati har kimga nasib etavermasa kerak. Bu kabi o‘tkir fikrlarni o‘sha paytda gazeta sahifalarida baralla aytmoq uchun ham jurnalistning qalamidan tashqari, qat’iy fikri, yuragida o‘ti ham bo‘lishi kerak edi. Demak, Xurshid Do‘stmuhammad ana shunday yuragida o‘ti bor, dilidagi fikrini tiliga chiqarib, gazetaga yoza oladigan dovyurak muharrir bo‘lgan.

Yoki bo‘lmasa, gazetaning 1998-yil 28-yanvar kungi sonida “E’tirof” rukni ostida chop etilgan “Milliy g‘urur hayajoni”

maqolasidagi ushbu fikrlar ham bosh muharrir sifatida jamiyat hayotining eng dolzarb masalalari u kishining e'tiboridan chetda qolmaganidan darak beradi: "Har qanday istibdod va zulm avvalo milliy-mahalliy-e'tiqodiy g'ururni poymol etishga qaratilgan bo'lsa, mustaqillik bu tuyg'ularni tiklashni ko'zlaydi. Mahv etilgan g'urur qayta qaddi-bastini tiklashi og'ir kechadi. Xususan, yuz yillar mobaynida istibdod jabri ostida yashagan xalq bamisoli atak-chechak qadam tashlashga o'rganayotgan go'dak singari yetakchi kuchga ehtiyoj sezadi".

Mustaqillikning ilk yillarida xalqimizga oson bo'lmagan. Ozodlik, erk, milliy g'urur va iftixor tuyg'ularini yillar davomida boshqa bir davlatga qaram holda yashagan xalqqa singdirish o'sha davr yetakchilaridan katta mas'uliyat talab qilgan. Kunning muhim va dolzarb masalasini bosh sahifada yoritish o'sha davr bosh muharrirlaridan katta mahorat talab qilgan. Xurshid Do'stmuhammad ham birinchi Prezidentimizning yetakchi sifatidagi faoliyatiga to'xtalish asnosida xalqni ham shunga chorlagan.

Maqola quyidagi fikrlar bilan yakunlangan: "Biz endi besh yil oldingi odamlar emasmiz" degan edi ma'ruzalaridan birida yurtboshimiz. Ha, biz endi o'zligini, insoniy g'ururini, vatan tuyg'usini, milliy-mustaqillik mafkurasini, umuminsoniy qadriyatlarni anglash yo'lida sobit borayotgan odamlarmiz, shu yo'lni tanlagan vatan farzandlarimiz. Bu yo'ldan qaytmaydigan o'zbekistonliklarmiz!".

Mustaqillikning 5 yilligida yozilgan bu fikrlar har qanday ziyoli insonning vatan taqdiri, xalqining erkinligi hamda ozodligi uchun befarq emasligidan dalolatdir.

Tan olish kerakki, Xurshid Do'stmuhammad bosh muharrirlik chog'ida ko'tarilgan muammolar bugunning ham eng og'riqli nuqtalari bo'lib qolmoqda. Xususan, "Hurriyat"ning 1998-yil 12-mart sonida chop etilgan "O'zimizdan qoniqmaymiz", – dedi ochiq muloqot chog'ida O'zbekiston Kommunal xizmat ko'rsatish vaziri V. Mixaylov, jurnalistlar-chi, ular o'z sustkashliklaridan qoniqish hosil qilayaptilarmi?" sarlavhali maqolasida ham dolzarb mavzu qalamga olingan.

"Bosh muharrir minbari" ruknida berilgan ushbu maqola muallifning shaxsiy pozitsiyasidan tashqari, nashrning umumiy xususiyatini ham ifodalashi bilan ahamiyatlidir. O'sha davr matbuotining imkoniyat darajasini hisobga olganda, bu maqola zamon ruhini, o'quvchilar ong-u tafakkurini, oddiy xalqning o'y-fikrlarini o'zida mujassam etgani bilan ahamiyatlidir. Haqiqat shuki, kommunal sohadagi muammolar bugun ham fuqarolarni eng ko'p qiynayotgan yo'nalish bo'lib qolmoqda.

O'zbekiston Jurnalistlar uyushmasi a'zosi Dilmurod Qirg'izboyevning (https://uzhurriyat.uz/2024/07/03/hazrati-inson-ibrati/) "Hazrati inson iborati" maqolasida Xurshid Do'stmuhammadning aynan "Hurriyat" gazetasida bosh muharrir bo'lgan paytidagi voqealar keltirilgan. Xususan, "Taniqli olim, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi Zuhriddin Isomiddinov Xurshid Do'stmuhammad "Hurriyat" gazetasida bosh muharrir bo'lgan paytdagi voqeani shunday eslaydi: "Bundan yigirma besh yil avval oliy o'quv yurtlariga kirish test savollari shoshilinch, pala-partish tuzilganligi haqida tanqidiy maqola tayyorladim. "Test savollari: uch tanqidiy mulohaza" degan sarlavha bilan maqolam bosilib chiqdi. Maqola nashr etilganiga xursand bo'lib yursam, "Hurriyat"ning keyingi sonida birinchi sahifada mening fikrlarimga qarshi "Bilmaganini so'rab o'rgangan olim" sarlavhali feleton chiqdi. Feletonni o'qib esankirab qoldim. Nohaq yozilgan feletonga javoban "So'zki haq bo'lsa" sarlavhali maqola yozdim. Bu safar jiddiyroq o'rganib, ko'proq faktlarni topdim. Maqolani ko'tarib, bosh muharrir Xurshid Do'stmuhammadning huzuriga bordim. Feleton yuqoridan topshiriq bilan yozilganligi ma'lum bo'ldi. Endi bu "bahs"ni to'xtatmasak bo'lmaydi, dedi u. Xurshid akaga iltimos qilib: "Yozganim gazetada bosilmasa ham, o'zingiz bir o'qing, hech bo'lmasa, bir kishi haq ekanimni bilsin", deb maqolani qoldirdim. Oradan bir hafta o'tib, ikkinchi maqolam ham "Hurriyat"da bosilganini ko'rib, qoyil qolgan edim. Xurshid Do'stmuhammad haqiqat yo'lida o'z manfaatini keyingi o'ringa qo'yadigan, mard va qo'rqmas, adolatparvar muharrir ekaniga amin bo'lgandim".

"Hurriyat" gazetasining 1999-yil, 12–18-may sonida https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/eng-sara-asarlar/xurshid-do-stmuhammad-mahmud-sadiy-xx-asrning-eng yaxshi-asarlari yozuvchi Xurshid Do'stmuhammad va munaqqid Mahmud Sa'diy tayyorlagan "XX asr – kitob asri: munosabatlar, mulohazalar, fikrlar" materiali chop etilgan edi. Jahon va o'zbek adabiyotidagi XX asrning eng yaxshi asarlarini aniqlash bo'yicha o'tkazilgan so'rov natijalari ikki sahifada chop etilgan.

Ushbu maqolada Xurshid Do'stmuhammadning quyidagi fikrlarini o'qish mumkin: "Asrdan asrga, ming yillikdan ming yillikka o'tayotirmiz. Ko'p narsalarni sarhisob qilgimiz keladi bunday paytda. Ko'pchilikning nazarida ommabop vositalardan biri badiiy adabiyotdir. Xalqning badiiy adabiyot haqida o'z tasavvurlari, o'z mezonlari bor. Har bir odam badiiy asarga o'z saviyasidan, dunyoqarashidan kelib chiqib baho beradi" deya ikki buyuk ustoz XX asr jahon va o'zbek adabiyotining 10 ta eng yaxshi asari ro'yxatini tavsiya etishgan.

Xulosa. Yuqoridagi kabi misollarni yana ko'plab keltirish mumkin. Bir so'z bilan aytganda, ustoz Xurshid Do'stmuhammad bosh muharrirlik qilgan davr nafaqat "Hurriyat" gazetasi, balki gazetxonlar uchun ham eng mazmunli, tanqidiy-tahliliy maqolalar, yangi va o'tkir fikrlarga boy manba sifatida ahamiyatlidir. Shu bois, ularni o'qib-o'rganish, bugungi davr jurnalistikasida qo'llash hamda yosh kadrlarga maktab sifatida tanishtirish dolzarb masala hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1."Ҳуррият" газетасининг 1998 йилги сонлари.
2. "Ҳуррият" газетасининг 1999 йилги сонлари.
3. Ҳалим Сайид "Ўзлигига қарши бормаган шахс" мақоласи. ("Ҳуррият" газетаси 2021 йил).
4. Дилмурод Қирғизбоев "Ҳазрати инсон иборати" мақоласи. (https://uzhurriyat.uz/2024/07/03/hazrati-inson-ibrati/)
5. ziyouz.com sayti. https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/eng-sara-asarlar/xurshid-do-stmuhammad-mahmud-sadiy-xx-asrning-eng yaxshi-asarlari

Zikiryo SHARIPOV,
O‘zDJTU katta o‘qituvchisi

POETIK TAHLILDA NOSTALGIYA VA BADIIY TILNING KOMPORATIV QIRRALARI

Annotatsiya: maqolada badiiy adabiyot namunalari asosida badiiy tafakkurning shakllanishi doirasida muhim kategoriya bo‘lgan makon va zamon tushunchalarining assotsiatsiyasi ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: *badiiy vaqt, poetika, nostalgiya, realiya, makon, zamon, taqvimiy, arxileksema, arxifakt, arxisema, arxetip.*

Аннотация: в статье на примерах художественной литературы раскрывается ассоциатsiя понятий пространства и времени, которая является важной категорией в рамках формирования художественного мышления.

Ключевые слова: *художественное время, поэтика, ностальгия, реальность, пространство, время, календарь, архилексема, архифакт, архисема, архетип.*

Annotation: using examples from fiction, the article reveals the association of the concepts of space and time, which is an important category within the framework of the formation of artistic thinking.

Key words: *artistic time, poetics, nostalgia, reality, space, time, calendar, archilexeme, archifact, archiseme, archetype.*

Jahon adabiyotining qator qirralarini umumlashtirish yoki qiyoslash ma’lum bir davrda ayrim milliy adabiyotlarning taraqqiyot mezonlarini to‘g‘ri belgilashning muhim omilidir.

XIX asr oxiri XX asr boshlarida Afrika xalqlari va arab mamlakatlari adabiyotining takomilida fransuz adabiyoti zamonaviylik timsoli vazifasini o‘tadi. Binobarin, ma’lum bir milliy adabiyotga yangi, Yevropa adabiyoti ruhini olib kirish, uni bevosita mahalliy muhitga moslash jarayonida adabiyot asarlari, adabiy janrlarning yangi ufqlari kashf qilindi.Biz quyida mana shunday adabiy hamkorlikning yangi namunalari haqida fikr yuritamiz.

Musulmon sharqi adabiyoti ko‘p tomonlari bilan, xususan, ko‘hnaligi va romantik o‘ziga xosligi bilan jahon adabiyotida ayri o‘rin egallaydi. Bu adabiyotning asosiy adabiy turi she’riyat – lirika bo‘lgan. Uzoq asrlar davomida aruz nafaqat sharq lirikasida, balki eposda ham hukmronlik qildi.

Renessans davrida Yevropada zamonaviy adabiyotning shakllanishi XIX – XX asrlarda jahon adabiyotining juda ko‘p qirralarini umumiylashtirdi. Bu hol butun sharq xalqlari, shu jumladan aruz vatani hisoblangan arab mamlakatlarida ham yangi shakl, yangi mazmundagi adabiyotning vujudga kelishi uchun turtki bo‘ldi.

XX asr insoniyat tarixida buyuk o‘zgarishlar yasadi. Uning shiddatli urushlari (ikki jahon urushi), iqtisodiy integratsiyasi, ilm-fan sohasidagi buyuk kashfiyotlari hamda eng muhimi ulkan texnikaviy – industrial qurilishi yagona butun jahon umuminsoniy hayot tarzini, san’at, madaniyat birligini yaratdiki, undan hech bir xalq, hech bir millat chetda qolmadi.

Misr arab she’riyati umumarab adabiyotining bir uzviy bo‘lagi sifatida qaysidir bir tomonlari bilan Osiyo yaqin sharqi adabiyotiga, hududiy belgilari bilan esa Afrika adabiyotiga daxldor. Misr adabiyoti XX asrda boshqa sharq musulmon adabiyotlari kabi ulkan o‘zgarishlarni boshidan kechirdi. Aytish mumkinki, Misr adabiyoti arab mamlakatlari adabiyoti ichida birinchilardan bo‘lib Yevropaga yuz tutdi. XX asr boshlarida yuzaga kelgan “Yangi she’r” harakati, uning g‘oyaviy - shakliy xususiyatlarini tahlil qilish ham aynan shu holdan darak beradi. Bu harakat natijasida Misr adabiyotida yangi adabiy oqimlar, xususan, “Devon”, “Apollon” kabi adabiy maktablar tashkil topdi.

XX asr Misr adabiyotida yuzaga kelgan “Yangi she’r” yoki “Erkin she’r” harakatida asosiy urg‘u erkin vaznga berildi. Ya’ni she’rlar erkin vaznda yozildi. Erkin she’rning eng muhim badiiy, g‘oyaviy va til xususiyatlari aruz qobiqlariga o‘ralib qolgan an’anaviy qasidabozlik, shaklbozlik yoki an’anaviy mavzubozlikdan tubdan farq qiladigan yangi asarlar bitishdan iborat bo‘ldi. Yangi, erkin she’r mavjud ijtimoiy-siyosiy muhitni, zamon bashariyati psixologiyasida yuz bergan o‘zgarishlarni, yangiliklarni ochiq, aniq, ravshan hamda eng muhimi yaqqol aks ettira oladi.

Badiiy adabiyotning, she’riyatning eng muhim quroli tasviriylik bo‘lgani holda ta’kidlash lozimki, tasviriylikdan ham muhim bo‘lgan holat – bu quroldan qanday foydalanishda. Kimdir eski usulda, eski qobiqda siyqasi chiqqan so‘z va uslublar takrori bilan, boshqalar esa, yangi, chaqnoq, kishi e’tiborini jalb qiluvchi so‘z va shakllar bilan foydalanadi. Badiiy adabiyot ijodiyligining originallik mezoni ham aynan shunda ko‘rinadi. Shoir (ijodkor) o‘zining yangi uslub, yangi so‘zi, yangi fikri bilan yangi g‘oya, yangi dunyoqarash yaratadi, insonni tashqi olamni bilishida, uni ongli qabul qilishida – gnoseologiyada, uning mantiqini anglab yetishida – logikada taraqqiyot yaratadi. Buning uchun u turli ijodiy metod, badiiy - tasviriy vositalardan foydalanadi.

Misr yangi – erkin she’r harakatining shakllanishi va taraqqiy topishida qator taraqqiyparvar shoirlar qatorida Amal Dunqul ijodining muhim ahamiyatini alohida qayd qilish zarur. Amal Dunqul XX asr Misr adabiyotining taniqli namoyandasi, erkin she’r harakatining faol a’zolaridan biri. U o‘z ijodiy faoliyati davomida “Zarqa al – Yamama” (1969), “Bo‘lib o‘tgan voqeaga sharh” (1971), “Oyning qatl qilinishi” (1974), “Bo‘lajak ahd” (1975), “Murosaga kelma” (1979), “8 - raqamli xona varaqlari” (1981), “To‘la asarlar to‘plami” (1985)

kitoblarini e’lon qildi. She’rlarining mavzular ko‘lami keng, xususan, falsafiy, ijtimoiy - siyosiy, tinchlik, vatanparvarlik, muhabbat, shahar hayoti va o‘lim mavzulariga murojaat qilgan.

She’rlarning originalligi tahlili borasida shoirni badiiy tildan foydalanish mahorati xususida xulosa chiqarish mumkin. Amal Dunqul o‘z fikrini ifodalash jarayonida asar tilida tushuncha va g‘oyani umumlashtirishga erisha olgan.

Mana o‘tiribman umidsiz bunda
Varaq - varaq bo‘lib uziladi taqvimdan umrim.
Uzilgan bu varaqlar
Xotira ko‘lida suzib yuradi.

Bu misralarda dunyo foniyligi, uning o‘tkinchiligi g‘oyasi vaqt me’yori – taqvim bilan berilgan. Taqvim uziladi, yirtiladi, binobarin, yo‘q bo‘ladi, demak inson umri ham taqvim kabi ko‘rinmas varaqlardan iborat. Varaqlar chegaralangan. Demak, hech narsa abadiy emas, degan g‘oya varaq tushunchasiga singdirilgan.

Boshqa bir o‘rinda shoir vaqt o‘lchovini tabiiy hodisa tushunchasi bilan ifodalaydi. Yomg‘ir dunyoni, insonni, uning qalbini yuvadi, yomg‘ir o‘tkinchi, ammo sadoqat abadiy. Boshqacha aytganda yana o‘sha vaqt tushunchasi, uning o‘tkinchiligi yomg‘ir bilan berilgan bo‘lsa, abadiylik esa vafo g‘oyasi bilan ifoda topmoqda.

Yomg‘ir yog‘adi,
Yomg‘ir tinadi.
Yomg‘ir yog‘adi,
Yomg‘ir tinadi.
Lekin qalbim seni
Hamon kutadi.

Vaqt tushunchasining fano, o‘tkinchilik g‘oyasi bilan uyg‘unlashuviga Amal Dunqulning yana quyidagi misralarini misol qilish mumkin:

Katta shahardagi odamlar go‘yo vaqt singari
To‘xtamaydilar,
Kechikmaydilar,
Chalg‘imaydilar
Mexanizmlar, mexanizmlar, mexanizmlar.

Bu misralarda shoir falsafiy mavzudan chetga chiqib, ijtimoiy muammo – inson va kundalik hayot muammosiga qo‘l urgan. Odamlar tirikchilik tashvishida temir soatning millariga bo‘ysunadilar va o‘zlari uning mexanizmiga aylanib qoladilar, inson – bu mexanizm, degan g‘oya singdirilgan she’rga. Qator she’rlarida shoir ijtimoiy, kundalik turmush tashvishi tushunchasini dunyo o‘tkinchiligi tushunchasi bilan qorishtirgani holda baxt va baxtsizlik g‘oyasini topishga intiladi:

Do‘stim! Qalbim to‘lgan dard-u alamga
Tong ham otdi, siypamadi bu subhidam maxzun yuzimni
Rizqim izlab shahardan chiqdim,
Qanoat suviga botirib rizq-u ro‘zimni.
Cho‘ntakda chaqa bilan tushdan so‘ng qaytdim.
Yo‘l ustida choyimni ichib
Yamattirdim poyabzalimni.
Nard o‘ynadim, goh men, gohida do‘stim irg‘itadi tosh
Bir soat o‘ynaymiz yoki undan ko‘p,
O‘n marta o‘ynaymiz yoki yigirma.
Kuldim do‘stim aytgan ahmoqlar haqidagi afsonadan
Semiz tilanchining ko‘zidagi yoshidan.

Yoki boshqa misralarda Amal Dunqul vatanparvarlik g‘oyasini obraz holati bilan, obraz tili bilan in’ikos ettiradi. Tiriklik uni doimo ozodlikka undaydi. Inson borki, u ozod, erkin yashash istagi bilan yonadi. Faqatgina o‘lim uni mahv etishi mumkin. Qullar ozodligi uchun kurashgan Spartak tilidan shoir shu misralarni bitadi: aslida o‘lim bu – g‘alaba!

Erta tongda xochga mixlanganman men.
E voh, boshlarimni eggandir o‘lim,
Chunki tiriklikda uni hech egmagandim.

Vatanparvarlik, vatan ozodligi inson, ruh ozodligi bilan hamohang. Faqat ruhan ozodlikni his qilgan odamgina vatan ozodligi baxtini his qila oladi.

Ona – Vatanni sevish, uning go‘zalliklarini original o‘xshatishlar bilan kuylash ham vatanparvarlikning bir belgisi. Vatandagi har bir holat she’r misralarida, so‘zlarida jaranglaydi, o‘ziga xos sado beradi. Ziynatli nutq, go‘zal so‘z o‘yinlari inson ruhida vatan go‘zalligining yangi, hali o‘quvchi ko‘zi bilan ilg‘anmagan, fahmi bilan anglab yetilmagan qirralarini ochib beradi. Shoir o‘z tasavvuridagi vatanni tasvirlar ekan, she’r zamiriga ona tuproqqa nisbatan chuqur muhabbat hissini singdiradi, o‘quvchida ona tuproq bilan shu tuproqda yashovchi inson ona bilan farzand kabi bir jism ekanligi haqidagi hissiyotni pragmatik manzaralarda mukammallashtiradi.

Erta tongda keng dalalar osha borardim,
Menga o‘rgatganlar, bu – ona Misr.
Har tomonga sochilgan urug‘dek,
U bizga yetkazib berdi:
otamni,
uyimizni,
o‘chog‘imizni,
parrandalarni
va mevalarni,
hattoki oyni.
U qumg‘onimiz to‘ldirgan suvdir,
Tungi suhbatlarda ichgan choyimiz,
U fasllar almashuvi,
U limondir... hamda tunlar men qidirgan onam ko‘kragi,
U qo‘shiqlar kuylaydigan go‘zal quticha.
U mendirman,
Men esa udir.

Amal Dunqul she’rlarining badiiyati haqida uning go‘zal va betakror o‘xshatishlari bilan fikr yuritish mumkin. Ona vatanni undagi butun jonli va jonsiz narsalar bilan qiyoslash borasida shoir shunday xulosaga keladiki, aytilgan narsalarning hammasi uning o‘zi, ya’ni shu tuproq farzandi bo‘lgan inson, bas, shunday ekan, Misr, ya’ni ona vatan bu – shoir, insonning o‘zi demakdir.

Badiiy tilning yana bir muhim xususiyatlaridan biri bu – sarkazm, oksimoron orqali bir fikrni ifodalash orqasida umuman boshqa fikrni nazarda tutish. Yoki biror-bir g‘oyani

kinoya orqali ifodalash. Amal Dunqulning quyidagi she'rida vatanparvarlik, ozodlik g'oyalari oksimoron orqali beriladi:

Osilgan isyonchiga tashlang nazarni
Sizlar ham ertaga undek bo'lasiz!
Xotinlarni quching bu yerda – yo'l o'rtasida
Sizlar ham shu yerda halok bo'lasiz.
Vidolashmay xotinimni tashlab keldim men,
Agar sizlar uning qo'lida qoldirgan go'dagimni ko'rsangiz
Tiz cho'kishni o'rgating unga!
Tiz cho'kishni o'rgating so'zsiz!
Baxtli olam haqida orzu qilmanglar,
Chunki o'lgan qirol ortidan
Albatta, keladi yangi bir qirol.
O'lgan isyonkorlar ortidan esa
Befoydadir hech g'am chekmanglar,
Behudaga ko'z yosh to'kmanglar.

Amal Dunqul ijodining ma'lum qirralarini XX asr o'zbek adabiyoti namunalari bilan qiyoslash mumkin. Yuqoridagi misollarda erkin she'r yoki aniqrog'i, erkin vazn shoirga badiiy - tasviriy vositalarni erkin qo'llash orqali yetuk g'oya tilini yaratishga xizmat qilganini ko'rdik.

Badiiy epitetlar ("qumg'onimiz to'ldirgan suv", "ichgan choyimiz", "jilg'a", "go'zal quticha", "limon") o'zlarining originalligi hamda oddiy kundalik milliy realiyalari bilan o'quvchida emotsional tasavvur hosil qila oladi, shoir g'oyasining ta'sirchanligini oshiradi.

Erkin vazndagi bu imkoniyatlarni G'afur G'ulom, Hamid Olimjon asarlari misolida tahlil qilinganda yuqoridagi ekspressivlikning ta'sirchanligini qiyoslash orqali aniqlash mumkin bo'ladi. Xususan, vatan – ona, xalq – ota epitetli birikmasining o'zini ham G'afur G'ulom ta'sirchanlikni oshirish uchun sifatlayapti.

Sen yetim emassan,
Tinchlan jigarim.
Quyoshdek mehribon
Vataning – onang.
Zaminday vazminu
Mehnatkash, mushfiq
Istagan narsangni tayyorlaguvchi
Xalq bor – otang bor.

Vatanni onaga qiyoslash yoki xalqni otaga o'xshatishlar doimiy epitetlar, ammo "quyoshday mehribon", "zaminday vazmin" kabi epitetlar o'zlarining yangi, emotsionalligi bilan ajralib turadi. Bu yerda G'afur G'ulom insonparvarlik g'oyasini vatan, xalq tushunchalariga mahorat bilan singdira olgan.

Hamid Olimjon o'zining erkin vaznda yozilgan "Baxtlar vodiysi" she'rida vatanparvarlik g'oyasini, ona Vatanni tabiat, borliq tushunchalari bilan uyg'unlashtirish orqali ifodalaydi.

Ufqimizning xirslarini
o'ziga tortgan,
Yelkasiga tarix bilmas
g'alaba ortgan
Ulug' yo'lda toliqmasdan
tez kelayotgan
baxmal qirlar,
keng bo'shliqlar,
paxtazor yerlar
ko'm – ko'k.

Yuqorida G'afur G'ulom vatanni "ona", xalqni "ota" ma'nolarida ajratgan bo'lsa, Hamid Olimjon bu she'rda "vatan", "xalq" tushunchalarini yaxlitlashtirgan. Keltirilgan barcha epitetlarni vatan uchun ham, shu vatanning fuqarolari uchun ham teng ma'noda qo'llash mumkin. Aynan shu hol doimiy epitetni badiiy epitetga aylantira olgan va asarning muvaffaqiyatini ta'minlagan.

Keltirilgan qisqa tahlil shuni ko'rsatadiki, XX asr boshlarida Misr adabiyotida yuzaga kelgan "erkin she'r" harakati she'riyatda aruzdan farqli o'laroq, erkin vaznda she'r yozishga asoslangan. Erkin she'r harakatining faol ishtirokchilaridan biri Amal Dunqul o'zining erkin vazndagi asarlarida badiiy til imkoniyatlaridan mukammal foydalanib, yuksak g'oyaviy, badiiy yetuk asarlar yaratgan. Shoirning badiiy til imkoniyatlaridan ijodiy foydalana olish mahorati, g'oya tili bilan shakl tilini uyg'unlashtira olishi she'rlarining badiiy qimmatini oshirgan.

Amal Dunqul lirikasining, badiiy tilining ma'lum qirralari XX asr o'zbek she'riyati bilan uyg'un keladi. G'afur G'ulom, Hamid Olimjon kabi erkin vaznda sara asarlar yaratgan shoirlar vatan manzaralarini tasvirlashda yangi, original so'zlar va original tushuncha, g'oyalar topa olishga erishgan.

Badiiy asar umumbashariy, umuminsoniy g'oyalarni ifodalar ekan, uning yaratilish jarayoni hududiy, milliy belgilaridan farqli o'laroq, bir xil kechadi. Inson o'z g'oyasini shakllantirishda badiiy - tasviriy vositalardan har qanday sharoitda bir xil foydalanadi. Bulardan ko'rinib turibdiki, badiiy asarning ommaviylik xususiyati millat va mamlakat tanlamaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Каримов И.А. Юксак маънавият-енгилмас куч. – Т.: Маънавият. 2008. 29-30-бетлар.
2.Философия: Энциклопедический словарь под ред. А.А.Ивина. – М.: Гардарика. 2004.стр. 107.
3.Арнаудов М. Психология литературного творчества. – М., 1970. стр.408.
4.Абрамович Г.А. Введение в литератураведение. – Т., 1953. стр. 97.
5.Михайлов А.А. Современная философская герменевтика. –Минск,1984.
6.Бахтин М.М. Эстетика словесного творчества. – Москва, 1986.
7.Шпет Г.Г. Герменевтика и ее проблемы // Контекст. Литературно-теоретические исследования. – Москва, 1989–1992.
8.Султонов И. Адабиёт назарияси. –Тошкент, 1980.
9.Маллаев Н. Ўзбек адабиёти тарихи. –Тошкент, 1963.

Saboxat USMANALIYEVA,
Samarqand davlat chet tillari instituti mustaqil izlanuvchisi

FRAZEOLOGIK BIRLIKLARDA SKRIPT MODELINING LINGVOKOGNITIV TADQIQI: NAZARIYA VA TAHLIL

Annotatsiya: ushbu maqolada kognitiv tilshunoslikning dinamik modellaridan biri bo‘lgan skript (ssenariy) tushunchasining frazeologik birliklar tarkibidagi reprezentatsiyasi tadqiq etiladi. Tadqiqotda inson ongidagi standartlashgan voqealar zanjirining lisoniy tejamkorlik prinsipi asosida frazeologizmlarga ko‘chish mexanizmi tahlil qilingan. John Benjamins nashriyoti materiallari va kognitiv tilshunoslikning yetakchi namoyandalari (R. Schank, R. Abelson, S. Granger) qarashlariga tayanib, frazeologik birliklarning evaluativ (baholovchi) va pragmatik funksiyalari ochib berilgan. Maqolada 10 ta o‘ziga xos skript-modelning lingvokognitiv tahlili orqali frazeologiyaning inson tafakkuriga ochilgan “deraza” ekanligi isbotlanadi.

Kalit so‘zlar: *kognitiv tilshunoslik, skript, ssenariy, frazeologiya, lingvokognitiv model, lisoniy tejamkorlik, evaluativ funksiya, konseptual metafora.*

Annotation: this article studies the representation of the concept of script (scenario), one of the dynamic models of cognitive linguistics, in phraseological units. The study analyzes the mechanism of the transfer of a standardized chain of events in the human mind to phraseologisms based on the principle of linguistic economy. Based on the materials of the John Benjamins publishing house and the views of leading figures of cognitive linguistics (R. Schank, R. Abelson, S. Granger), the evaluative and pragmatic functions of phraseological units are revealed. The article proves that phraseology is a “window” to human thinking through the linguocognitive analysis of 10 unique script models.

Key words: *cognitive linguistics, script, scenario, phraseology, linguocognitive model, linguistic economy, evaluative function, conceptual metaphor.*

Аннотация: в данной статье исследуется представление понятия сценария (письма) в фразеологических единицах. Анализируется механизм переноса стандартизированной цепочки событий в человеческом сознании на фразеологизмы на основе принципа лингвистической экономии. На основе материалов издательства «Джон Бенджаминс» и взглядов ведущих деятелей когнитивной лингвистики (Р. Шанк, Р. Абельсон, С. Грейнджер) раскрываются оценочные и прагматические функции фразеологических единиц. Статья доказывает, что фразеология является «окном» в человеческое мышление посредством лингвокогнитивного анализа 10 уникальных моделей письма.

Ключевые слова: *когнитивная лингвистика, письмо, сценарий, фразеология, лингвокогнитивная модель, лингвистическая экономия, оценочная функция, концептуальная метафора.*

Kognitiv tilshunoslikning zamonaviy bosqichida til birliklari shunchaki lisoniy tizim elementlari emas, balki inson tafakkurining dinamik modellari va bilimlar reprezentatsiyasi sifatida o‘rganilmoqda. Frazeologiya ushbu jarayonda markaziy o‘rin tutadi, chunki u inson tajribasidagi takrorlanuvchi voqealar, ijtimoiy ssenariylar va madaniy kodlarni o‘zida muhrlaydi. Sylviane Granger va Fanny Meunier ta’kidlaganidek: “Frazeologiya endi til tavsifining ikkinchi darajali (chetki) sohasi emas; u hozirda tildan foydalanish va uni o‘rganishning markaziy qismi sifatida e’tirof etilmoqda” [1]. Ushbu markaziylik, ayniqsa, kognitiv modellashtirish jarayonida, xususan, skript tushunchasi orqali yanada yaqqol namoyon bo‘ladi.

Skript (ingl. *script* - ssenariy) tushunchasi kognitiv model sifatida bilimni protsessual tashkil etish usulini ifodalaydi. Roger Schank va Robert Abelson nazariyasiga ko‘ra, skriptlar – bu muayyan standartlashgan vaziyatlarda kutiladigan harakatlar ketma-ketligidir.

Skript shunchaki harakatlar ro‘yxati emas, u quyidagi to‘rtta asosiy kognitiv komponentdan tashkil topadi:

1. **Rekvizitlar (Props):** vaziyatda mavjud bo‘lishi shart bo‘lgan predmetlar.
2. **Rollar (Roles):** vaziyat ishtirokchilari.
3. **Kirish shartlari (Entry conditions):** Skript boshlanishi uchun zarur bo‘lgan holat.
4. **Natijalar (Results):** harakatlar zanjiri yakunida erishiladigan holat.

Frazeologik sathda ushbu murakkab ssenariylar tilning tejamkorlik prinsipi asosida yaxlit bir metaforik obrazga siqiladi. Inson ongi “Burnini suqmoq” iborasini eshitganda, ushbu skriptning barcha tarkibiy qismlarini (ruxsatsiz aralashuv, begona hudud, salbiy natija) bir vaqtda faollashtiradi.

Kognitiv tilshunoslikda skriptni freym tushunchasidan farqlash metodologik ahamiyatga ega. Charlz Fillmorning

1 Granger, S., & Meunier, F. (Eds.). (2008). Phraseology: An interdisciplinary perspective. Amsterdam/Philadelphia: John Benjamins Publishing Company. – P. 3.

“Freym semantikasi” nazariyasiga ko‘ra, freym statik bilimlar majmuidir [2]. Freym – bu obyektlar o‘rtasidagi mantiqiy bog‘liqlik (masalan, “tijorat” freymi: sotuvchi, xaridor, mol). Skript esa ushbu elementlarning vaqt ichidagi harakatini (savdolashish, to‘lov qilish) ifodalaydi. Ronald Langacker esa buni “kognitiv grammatika” kontekstida “voqealar trayektoriyasi” (trajectory) deb ataydi [3].

Frazeologizmlar ko‘pincha aynan skriptlarga tayanadi, chunki iboralar ko‘pincha jarayonni va munosabatni baholash uchun xizmat qiladi. Benjamins nashriyoti manbasida ta’kidlanganidek, bu jarayon “kognitiv tejamkorlik” (cognitive economy) tamoyiliga asoslanadi: “Frazeologizmlar yaxlit lisoniy birliklar bo‘lib, ular ongda murakkab axborotlar zanjiri va obrazli tasavvurlarni yuzaga keltirish xususiyatiga ega.” [4].

Frazeologik skriptlar ko‘pincha ongmizdagi fundamental metaforik tizimga tayanch nuqtasi sifatida bog‘lanadi. George Lakoff va Mark Johnsonning fikricha, insonning barcha konseptual tizimi metaforik xarakterga ega [5]. Benjamins nashriyoti manbasida ko‘rsatilishicha, metaforik modellar barcha turdagi diskurslarda keng tarqalgan bo‘lib [6], ular skriptlarning mantiqiy “skeleti” vazifasini o‘taydi. Masalan, “hayot – bu sayohat” metaforasi asosida “yo‘lga chiqish”, “to‘siqlarga uchrash” kabi ketma-ket harakatlarni o‘z ichiga olgan skriptlar shakllanadi.

Quyida “Phraseology: An Interdisciplinary Perspective” asarida tilga olingan va tadqiq qilingan kognitiv modellarga tayanib, 10 ta asosiy skript-modelning tahlilini taqdim etamiz:

“To break the ice” (Muzni yormoq): Mazkur ibora “transparency” (shaffoflik) darajasi bo‘yicha yuqori motivatsiyaga ega [7]. Skript: statik sovuqlik (ijtimoiy begonalik) – Tashqi fizik ta’sir (birinchi qadam) - holatning o‘zgarishi (iliq muloqot).

“To kick the bucket” (Vafot etmoq): kitobda ushbu birikma “opaque idioms” (xira idiomalar) sirasiga kiritilgan [8]. Garchi etimologik ssenariy xiralashgan bo‘lsa-da, kognitiv sathda u “biologik funksiyaning to‘satdan to‘xtashi” skriptini ifodalovchi tayyor blokdir.

“To roll up one’s sleeves” (Yeng shimarmoq): Bu “action-bound phrases” (harakatga bog‘liq iboralar) turkumiga kiradi [9]. Skript: kiyimni sozlash – To‘siqni chetlatish – Maqsadli mehnat. Jismoniy tayyorgarlik har qanday faoliyatni boshlash ssenariysining boshlang‘ich nuqtasi hisoblanadi.

“To spill the beans” (Sirni ochib qo‘ymoq): “Semantic unity” (semantik yaxlitlik) prinsipi bo‘yicha tahlil etilgan [10]. Skript: Yashirin obyekt (idishdagi loviya) – Ehtiyotsizlik – Ma’lumotning nazoratsiz tarqalishi. Bu ma’lumotni moddiy buyum sifatida idrok etish ssenariysiga asoslanadi.

“To bark up the wrong tree” (Xato yo‘ldan ketmoq): Sinclairning “idiom principle” asosida o‘rganilgan [11]. Ovchilik skripti: ta’qib – Noto‘g‘ri obyektni tanlash – bekorga energiya sarflash. Mazkur dinamik model inson faoliyatidagi har qanday noto‘g‘ri strategiya ssenariysiga proeksiya qilinadi.

“To burn the midnight oil” (Tunu-kun ishlash): “Cultural persistence” (madaniy barqarorlik) tushunchasi orqali yoritilgan [12]. Skript: Kechki vaqt - Resurs sarfi (moy/chiroq) - Davomli intellektual mehnat. Ushbu ssenariy texnologik o‘zgarishlarga qaramay, ongdagi “fidoyi mehnat” modelini saqlab qolgan.

“To take the bull by the horns” (Qiyinchilikka tik qarash): “Conceptual motivation” tahlili [13]. Skript: xavf bilan to‘qnashish – eng xavfli nuqtaga hujum - Nazoratni qo‘lga olish. Bu qat’iyat ssenariysining zoomorfik ko‘rinishidir.

“To bite the bullet” (Mushkulga chidash): Kognitiv kelib chiqish va “cross-linguistic equivalence” qismida tahlil qilingan [14]. Harbiy-tibbiy ssenariy: Majburiy og‘riq – Matonat (o‘qni tishlash) – qiyin vaziyatdan o‘tib olish.

“To put one’s foot in it” (Noqulay vaziyatga tushish): “Lexico-grammatical patterns” bo‘limida ko‘rib chiqilgan [15]. Skript: Harakat – Diqqatsizlik – Noqulaylik (iflos narsani bosish) – Ijtimoiy sharmandalik.

“To be in the same boat” (Bir xil ahvolda bo‘lish): “Cross-linguistic phraseology” [16]. Ssenariy: Chegaralangan fazoviy hudud – Umumiy xavf (dengiz) – Bir xil taqdiriy natija. Fazoviy chegaralanish skripti orqali ijtimoiy birdamlikni ifodalash.

Frazeologik birliklar tarkibidagi skriptlarni o‘rganish nafaqat lisoniy tizimni, balki shu tilda so‘zlashuvchi xalqning dunyoni anglash modelini tahlil qilishni ham ko‘zda tutadi. Sylviane Granger va Fanny Meunier ta’kidlaganidek, frazeologiya til o‘rganishning markaziy qismiga aylangan [17]. Bu markaziylik skriptlarning madaniy determinlashgan tabiati bilan izohlanadi.

2 Fillmore, C. J. (1982). Frame semantics. In Linguistics in the Morning Calm. Seoul: Hanshin Publishing. - P. 82.
3 Langacker, R. W. (1987). Foundations of Cognitive Grammar: Theoretical Prerequisites. Vol. 1. Stanford University Press. - P. 12.
4 Granger, S., & Meunier, F. (Eds.). (2008). Phraseology: An interdisciplinary perspective. Amsterdam/Philadelphia: John Benjamins Publishing Company. - P. 42.
5 Lakoff, G., & Johnson, M. (1980). Metaphors We Live By. Chicago: University of Chicago Press. - P. 5.
6 Granger, S., & Meunier, F. (Eds.). (2008). Phraseology: An interdisciplinary perspective. Amsterdam/Philadelphia: John Benjamins Publishing Company. - P. 29.
7 O‘sha manba. - P. 62.
8 O‘sha manba. - P. 58.
9 O‘sha manba. – P. 51.
10 O‘sha manba. – P. 42.
11 O‘sha manba. – P. 11.
12 O‘sha manba. – P. 195.
13 O‘sha manba. – P. 65.
14 O‘sha manba. – P. 59.
15 O‘sha manba. – P. 261.
16 O‘sha manba. – P. 302.
17 O‘sha manba. – P. 12.

Har bir xalqning o‘ziga xos ijtimoiy tajribasi frazeologik skriptlarning “ssenariy chiziqlari”da muhrlanadi. Masalan, tahlil qilingan “To burn the midnight oil” iborasidagi skript nafaqat mehnat jarayonini, balki jamiyat tomonidan qadrlanadigan “fidoyilik” va “intellektual izlanish” kabi madaniy qadriyatlarni ham o‘z ichiga oladi.Skriptlar yordamida inson ongi murakkab ijtimoiy vaziyatlarni standartlashtirilgan modellarga ajratadi.

Frazeologik skriptlarning eng murakkab funksional jihati ularning “kognitiv tejamkorlik” (cognitive economy) tamoyiliga bo‘ysunishidir. Murakkab ssenariylar bitta yaxlit obrazga siqiladi. Bu jarayonda Ronald Langacker aytgan “voqealar trayektoriyasi” ongda bir lahzada faollashadi[18]. Bu esa nutq jarayonida axborot uzatish tezligini oshiradi va tinglovchining kognitiv yuklamasini kamaytiradi.

Rosamund Moon ta’kidlaganidek, frazeologizmlar voqelikni shunchaki tavsiflamaydi, balki unga nisbatan ma’lum bir “baholovchi munosabat”ni (evaluative function) shakllantiradi [19]. Skriptlar bu jarayonda quyidagi vazifalarni bajaradi:

Normativlikni belgilash: skript ichidagi harakatlarning kutilgan “norma”dan og‘ishi (masalan, “To put one’s foot in it” dagi diqqatsizlik) tinglovchida darhol salbiy pragmatik reaksiyani uyg‘otadi.

Ijtimoiy birdamlik: “To be in the same boat” kabi skriptlar orqali fazoviy chegaralanish tajribasi ijtimoiy birdamlik tushunchasiga proeksiya qilinadi.

Bilimlarni tizimlashtirish: skriptlar inson tajribasini standartlashtirishning va jamiyat tomonidan tasdiqlangan “hayotiy ssenariylar”ni avloddan-avlodga o‘tkazishning eng samarali metodologik yo‘lidir.

Kognitiv tilshunoslikning skriptlar nazariyasidagi yana bir muhim jihati bu inson bilimlarining xotirada tashkil etilishidir. Roger Schank va Robert Abelson ta’kidlaganidek, skriptlar, rejalar va maqsadlar insonning kundalik ma’lumotlarni qayta ishlashida asosiy bilim tuzilmalari (knowledge structures) bo‘lib xizmat qiladi [20].

18 Langacker, R. W. (1987). Foundations of Cognitive Grammar: Theoretical Prerequisites. Vol. 1. Stanford University Press. – P. 23.
19 Moon, R. (1998). Fixed Expressions and Idioms in English: A Corpus-Based Approach. Oxford University Press.- p. 178.
20 Schank, R. C., & Abelson, R. P. (1977). Scripts, Plans, Goals, and Understanding. Lawrence Erlbaum Associates. - p.129.

Epizodik qarashga ko‘ra, xotira mavhum semantik toifalar bo‘yicha emas, balki shaxsiy tajribalar yoki epizodlar atrofida tashkil etiladi [21]. Skriptlar takrorlanuvchi epizodlarning umumlashgan standarti bo‘lib, ular xotirani saqlashda iqtisodiy chora vazifasini o‘taydi [22]. Masalan, restoran skripti orqali xotira faqat standart holatdan farq qiladigan detallarni saqlab qoladi [23].

Sun’iy intellekt tadqiqotlarida skript tushunchasi kompyuterlarga tabiiy tilni tushunishni o‘rgatishda markaziy o‘rin tutadi. AI tadqiqotchisi har bir subprocessning kiritish (input) va chiqarish (output) ma’lumotlarini aniqlashtirishga majbur bo‘ladi [24]. Agar kompyuterda “transportdan foydalanish” kabi oldindan mavjud “skript” (prior information) bo‘lmasa, u kiritilgan ma’lumotni tushuna olmaydi [25].

Skriptlar tayyor ssenariylar bo‘lsa, rejalar (plans) va maqsadlar (goals) kutilmagan vaziyatlarda harakat qilish imkonini beradi [26]. Schank va Abelson bo‘yicha:

Rejalar (Plans): yangi vaziyatlarda maqsadga erishish uchun tuziladigan bilimlar zanjiridir [27].

Maqsadlar (Goals): inson xatti-harakatlarini harakatlantiruvchi ichki drayver bo‘lib, tushunish jarayonida ushbu maqsadlarni aniqlash muhim ahamiyatga ega [28].

O‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, frazeologik skriptlar inson tajribasini standartlashtirishning va tilning tejamkorligini ta’minlashning eng samarali metodologik yo‘lidir. John Benjamins nashriyoti materiallari, kognitiv tilshunoslikning klassik nazariyalari (Lakoff, Fillmore, Langacker) va zamonaviy korpus tadqiqotlari (Moon, Sinclair) sintezi shuni isbotlaydiki, frazeologizmlar shunchaki so‘zlar majmui emas. Ular – inson ongidagi murakkab, mantiqiy yakunga ega bo‘lgan va jamiyat tomonidan tasdiqlangan “hayotiy ssenariylar”ning lisoniy muhridir. Skriptlar orqali til o‘zining kommunikativ funksiyasidan tashqari, bilimlarni modellashtirish va baholash funksiyasini ham to‘liq namoyon etadi.

21 O‘sha manba. - P. 17.
22 O‘sha manba. - P. 19.
23 O‘sha manba.
24 O‘sha manba. - P. 20.
25 O‘sha manba.
26 O‘sha manba. - P. 12.
27 O‘sha manba. - P. 69.
28 O‘sha manba. – P. 101.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Granger, S., & Meunier, F. (Eds.). (2008). Phraseology: An interdisciplinary perspective. Amsterdam/Philadelphia: John Benjamins Publishing Company.
2.Fillmore, C. J. (1982). Frame semantics. In Linguistics in the Morning Calm. Seoul: Hanshin Publishing.
3.Langacker, R. W. (1987). Foundations of Cognitive Grammar. Stanford University Press.
4.Lakoff, G., & Johnson, M. (1980). Metaphors We Live By. University of Chicago Press.
5.Moon, R. (1998). Fixed Expressions and Idioms in English*: A Corpus-Based Approach*. Oxford University Press.
6. Schank, R. C., & Abelson, R. P. (1977). Scripts, Plans, Goals, and Understanding. Lawrence Erlbaum Associates.

Shaxlo ERGASHOVA,
Farg‘ona davlat texnika universiteti, Xalqaro loyihalar va investitsiya bo‘limi menejeri
shaxloergashova027@gmail.com
Sevaraxon YAXYOYEVA,
Farg‘ona davlat texnika universiteti, Yengil sanoat va to‘qimachilik fakulteti,
O‘zbek tili va tillarni o‘rgatish kafedrasi assistenti
sevaraxonyaxyoyeva@gmail.com

NUTQIY VA KOGNITIV BUZILISHLARNING LINGVISTIK XUSUSIYATLARI: UMUMIY TAHLIL

Annotatsiya: mazkur maqolada nutqiy va kognitiv buzilishlarning lingvistik xususiyatlari umumiy nazariy tahlil asosida yoritiladi. Nutq insonning fikrlash, bilish, ijtimoiy muloqot va ta’lim olish jarayonlarida muhim vosita hisoblanadi. Nutqiy buzilishlar fonetik, fonologik, leksik, grammatik va semantik-pragmatik darajalarda namoyon bo‘lib, shaxsning kommunikativ imkoniyatlariga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Kognitiv buzilishlar esa xotira, diqqat, idrok, tafakkur va nutqiy rejalashtirish jarayonlarining susayishi bilan bog‘liq bo‘lib, ular nutqning shakllanishi va tushunilishiga bevosita ta’sir qiladi. Maqolada dislaliya, dizartriya, alaliya va afaziya kabi nutqiy buzilishlarning asosiy belgilari, shuningdek, kognitiv jarayonlar bilan bog‘liqligi tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari nutqiy va kognitiv buzilishlarni o‘rganishda kompleks lingvistik, psixologik va pedagogik yondashuv zarurligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: *nutqiy buzilishlar; kognitiv buzilishlar; lingvistika; logopediya; psixolingvistika; afaziya; kommunikativ faoliyat.*

Annotation: this article provides a general theoretical analysis of the linguistic features of speech and cognitive disorders. Speech is one of the key means of thinking, cognition, social interaction and learning. Speech disorders may appear at phonetic, phonological, lexical, grammatical, semantic and pragmatic levels, limiting a person’s communicative abilities. Cognitive disorders are associated with impairments in memory, attention, perception, thinking and verbal planning, and they directly affect both speech production and comprehension. The article examines the main characteristics of such speech disorders as dyslalia, dysarthria, alalia and aphasia, as well as their relationship with cognitive processes. The findings indicate that speech and cognitive disorders should be studied through an interdisciplinary approach that combines linguistics, psychology, pedagogy and speech therapy. Such an approach makes it possible to better understand the mechanisms of speech impairment and to develop more effective diagnostic and corrective methods.

Key words: *speech disorders; cognitive disorders; linguistics; speech therapy; psycholinguistics; aphasia; communication.*

Аннотация: в данной статье рассматриваются лингвистические особенности речевых и когнитивных нарушений на основе общего теоретического анализа. Речь является важнейшим средством мышления, познания, социального общения и обучения. Речевые нарушения проявляются на фонетическом, фонологическом, лексическом, грамматическом, семантическом и прагматическом уровнях, ограничивая коммуникативные возможности личности. Когнитивные нарушения связаны с ослаблением памяти, внимания, восприятия, мышления и речевого планирования, что непосредственно влияет на процесс порождения и понимания речи. В статье анализируются основные признаки таких речевых нарушений, как дислалия, дизартрия, алалия и афазия, а также их взаимосвязь с когнитивными процессами.

Ключевые слова: *речевые нарушения; когнитивные нарушения; лингвистика; логопедия; психолингвистика; афазия; коммуникация.*

Kirish. Hozirgi zamon tilshunosligi, psixolingvistika va logopediya sohalarida nutqiy hamda kognitiv buzilishlarni o‘rganish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etmoqda. Chunki nutq insonning tafakkuri, bilish faoliyati, ijtimoiy muloqoti va shaxsiy rivojlanishida asosiy vositalardan biri hisoblanadi. Nutq orqali inson o‘z fikrini ifodalaydi, axborot almashadi, ijtimoiy munosabatlarga kirishadi va ta’lim jarayonida bilimlarni o‘zlashtiradi. Nutqiy buzilishlar shaxsning tovushlarni talaffuz qilishi, so‘zlarni tanlashi, gap tuzishi, nutqni tushunishi va muloqotda to‘g‘ri qo‘llashi bilan bog‘liq muammolarni o‘z ichiga oladi. Kognitiv buzilishlar esa xotira, diqqat, idrok, tafakkur, tasavvur va nutqiy rejalashtirish jarayonlarining izdan chiqishi bilan tavsiflanadi. Ushbu jarayonlar o‘zaro chambarchas bog‘liq bo‘lgani sababli, kognitiv faoliyatdagi buzilishlar ko‘pincha nutqiy faoliyatga ham ta’sir ko‘rsatadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Maqolada nazariy-tahliliy, tavsifiy va qiyosiy

yondashuvlardan foydalanildi. Nutqiy va kognitiv buzilishlarga oid lingvistik, psixolingvistik, neyropsixologik va logopedik manbalar umumlashtirildi. Tahlil jarayonida nutq buzilishlarining fonetik, fonologik, leksik, grammatik va semantik-pragmatik darajalari alohida ko‘rib chiqildi. Tadqiqotning nazariy asosini L. S. Vygotskiyning nutq va tafakkur o‘rtasidagi bog‘liqlik haqidagi qarashlari, A. R. Luriyaning neyropsixologik yondashuvi hamda zamonaviy logopediya va psixolingvistika sohasidagi ilmiy qarashlar tashkil etadi.

Natijalar va muhokama

Nutqiy buzilishlarning umumiy tavsifi. Nutqiy buzilishlar nutqni hosil qilish, idrok etish, tushunish va undan muloqotda foydalanish jarayonlarida yuzaga keladigan turli nuqsonlar majmuasidir. Ular bolalik davrida ham, kattalik davrida ham kuzatilishi mumkin. Bolalarda bunday buzilishlar ko‘pincha nutq rivojlanishining kechikishi, tovushlarni noto‘g‘ri talaffuz qilish, so‘z boyligining cheklanganligi yoki grammatik shakllarni noto‘g‘ri qo‘llash ko‘rinishida namoyon bo‘ladi. Kattalarda esa nutqiy buzilishlar ko‘proq miya shikastlanishi, nevrologik kasalliklar yoki psixologik omillar natijasida yuzaga keladi.

Kognitiv buzilishlarning nutqqa ta’siri. Kognitiv jarayonlar nutq faoliyati bilan bevosita bog‘liq. Inson gapirishdan oldin fikrni rejalashtiradi, kerakli so‘zlarni tanlaydi, grammatik tuzilmani shakllantiradi va nutqni muloqot sharoitiga moslashtiradi. Shu sababli xotira, diqqat, idrok va tafakkurdagi buzilishlar nutqning mazmuni va shakliga ta’sir qiladi.

Xotiraning zaiflashuvi so‘zlarni eslab qolish, matnni tushunish va fikrni izchil bayon qilishda qiyinchilik tug‘diradi. Diqqatning beqarorligi esa suhbat davomida mavzudan chalg‘ish, gapni oxirigacha yetkazmaslik yoki muhim ma’lumotni tushirib qoldirishga sabab bo‘ladi. Tafakkur jarayonining sekinlashuvi nutqning sustligi, fikrlarning uzilishi, umumlashtirish va tahlil qilishdagi qiyinchiliklar orqali namoyon bo‘ladi. Demak, kognitiv buzilishlar faqat aqliy faoliyatdagi nuqson emas, balki nutqiy-kommunikativ faoliyat sifatiga ham bevosita ta’sir etuvchi omildir. Lingvistik darajalarda namoyon bo‘lishi. Nutqiy va kognitiv buzilishlar lingvistik nuqtayi nazardan bir necha darajada tahlil qilinadi. Fonetik darajada tovushlarning noto‘g‘ri talaffuzi, tovushlarni tushirib qoldirish, almashtirish yoki buzib aytish kuzatiladi. Bu holat ayniqsa dislaliya va dizartriyada yaqqol ko‘zga tashlanadi. Fonologik darajada tovushlarni farqlash va ularni nutq tizimida to‘g‘ri qo‘llash qobiliyati buziladi. Natijada bola yoki bemor o‘xshash tovushlarni aralashtirishi, so‘z ma’nosini farqlashda qiynalishi mumkin. Leksik darajada so‘z boyligining cheklanishi, kerakli so‘zni topa olmaslik, so‘zlarni noo‘rin qo‘llash yoki umumiy so‘zlar bilan cheklanish kuzatiladi. Masalan, bemor aniq predmet nomini aytish o‘rniga “narsa”, “u”, “bu” kabi umumiy birliklardan foydalanishi mumkin.

Grammatik darajada gap tuzishdagi xatolar, qo‘shimchalarni noto‘g‘ri qo‘llash, so‘z tartibining buzilishi va sintaktik bog‘lanishlarning zaiflashuvi kuzatiladi. Bu holat alaliya va afaziyaning ayrim shakllarida ko‘proq uchraydi. Semantik-pragmatik darajada esa nutq mazmunining noaniqligi, fikrni vaziyatga mos ifodalay olmaslik, muloqot qoidalariga rioya qilmaslik va nutqning ijtimoiy vazifasidan yetarli foydalana olmaslik namoyon bo‘ladi.

Nutqiy va kognitiv buzilishlarning o‘zaro bog‘liqligi. Nutqiy va kognitiv buzilishlar ko‘pincha bir-biridan ajralgan holda emas, balki o‘zaro bog‘liq jarayon sifatida namoyon bo‘ladi. Masalan, bolaning diqqat va xotira jarayonlari yetarli rivojlanmagan bo‘lsa, u yangi so‘zlarni eslab qolishda, gap tuzishda va muloqotda faol ishtirok etishda qiynaladi. Xuddi shuningdek, nutqiy rivojlanishdagi kechikishlar ham tafakkur, idrok va ijtimoiy tajriba shakllanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. L.S.Vygotskiy fikricha, nutq va tafakkur inson psixik rivojlanishining o‘zaro bog‘liq ikki muhim jarayonidir. Shu nuqtayi nazardan, nutqiy buzilishlarni faqat talaffuz yoki grammatik xatolar sifatida emas, balki kengroq psixolingvistik va kognitiv jarayonlar bilan bog‘liq holda tahlil qilish zarur.

Xulosa. Nutqiy va kognitiv buzilishlar insonning kommunikativ, intellektual va ijtimoiy faoliyatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Nutqiy buzilishlar fonetik, fonologik, leksik, grammatik va semantik-pragmatik darajalarda namoyon bo‘lsa, kognitiv buzilishlar xotira, diqqat, idrok va tafakkur jarayonlarining susayishi orqali nutq faoliyatiga ta’sir qiladi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, nutqiy buzilishlarni faqat logopedik muammo sifatida emas, balki lingvistik, psixologik, neyropsixologik va pedagogik omillar bilan bog‘liq murakkab hodisa sifatida o‘rganish lozim. Bunday kompleks yondashuv nutqiy buzilishlarni erta aniqlash, to‘g‘ri tashxislash va samarali korreksion-pedagogik ishlarni tashkil etishda muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Выготский Л. С. Мышление и речь. — Москва: Лабиринт, 1999.
2. Лурия А. Р. Основы нейропсихологии. — Москва: Академия, 2003.
3. Жукова Н. С., Мастюкова Е. М., Филичева Т. Б. Логопедия. Преодоление общего недоразвития речи у дошкольников. — Екатеринбург: Литур, 2006.
4. Леонтьев А. А. Основы психолингвистики. — Москва: Смысл, 1997.
5. Левина Р. Е. Основы теории и практики логопедии. — Москва: Просвещение, 1968.

Dilorom ZAKIROVA,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Xorijiy tillarni o‘qitish kafedrasi katta o‘qituvchisi
hondilorom9@gmail.com

HOLAT SEMANTIK KATEGORIYASINING IFODALANISHI (ruhiy holat misolida)

Annotatsiya:ushbu maqolada zamonaviy tilshunoslikda muhim o‘rin tutuvchi holat semantik kategoriyasining nazariy asoslari hamda uning ruhiy holatni ifodalashdagi lisoniy xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda holat kategoriyasining semantik tabiati, ruhiy holat tushunchasining lingvistik talqini, shuningdek, ruhiy holatni ifodalovchi leksik, morfologik va sintaktik vositalarning funksional-semantik imkoniyatlari o‘zbek tili materiallari asosida yoritiladi. Maqola natijalari holat semantikasi bo‘yicha nazariy qarashlarni boyitishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: *semantik kategoriya, holat semantikasi, ruhiy holat, holat fe’llari, predikativlik, funksional-semantik maydon, o‘zbek tili.*

Annotation:this article analyzes the theoretical foundations of the semantic category of state, which occupies an important place in modern linguistics, as well as its linguistic features in the expression of mental states. The study examines the semantic nature of the state category, the linguistic interpretation of the concept of mental state, and the functional-semantic potential of lexical, morphological, and syntactic means used to express mental states on the basis of Uzbek language data. The findings of the article contribute to the enrichment of theoretical approaches to the semantics of state.

Key words:*emantic category, state semantics, mental state, stative verbs, predicativity, functional-semantic field, Uzbek language.*

Аннотация: в данной статье анализируются теоретические основы семантической категории состояния, занимающей важное место в современной лингвистике, а также ее лингвистические особенности в выражении психических состояний. В исследовании рассматриваются семантическая природа категории состояния, лингвистическая интерпретация понятия психического состояния, а также функционально-семантические возможности лексических, морфологических и синтаксических средств выражения психических состояний на материале узбекского языка. Результаты исследования способствуют углублению теоретических подходов к семантике состояния.

Ключевые слова: *семантическая категория, семантика состояния, психическое состояние, глаголы состояния, предикативность, функционально-семантическое поле, узбекский язык.*

Kirish. Zamonaviy tilshunoslikda til birliklarini faqat formal jihatdan emas, balki ularning mazmuniy-semantik xususiyatlari asosida o‘rganish ustuvor yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Bu jarayonda semantik kategoriyalar tilning mazmun tizimini belgilovchi muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi. Shunday kategoriyalardan biri — holat semantik kategoriyasi bo‘lib, u voqelikdagi predmet va shaxslarning muayyan vaziyatdagi holatini ifodalash bilan bog‘liq.Holat kategoriyasi ayniqsa insonning ruhiy holatini ifodalashda faol qo‘llaniladi.Ruhiy holat insonning ichki kechinmalari, hissiy-emotsional holati, psixologik vaziyati bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, til orqali mazmuniy jihatdan turli shakllarda namoyon bo‘ladi. Shu bois ruhiy holatni ifodalovchi lisoniy vositalarni semantik jihatdan o‘rganish tilshunoslikning dolzarb masalalaridan biri sanaladi.Holat semantik kategoriyasining nazariy talqini tilshunoslikda holat semantik kategoriyasi harakat kategoriyasidan farqli ravishda dinamik bo‘lmagan, nisbatan davomiy va barqaror semantik xususiyatga ega holatlarni ifodalaydi. Holat obyekt yoki subyektning muayyan paytdagi vaziyatini, ichki yoki tashqi ahvolini aks ettiradi.Ilmiy adabiyotlarda holat quyidagi belgilar bilan tavsiflanadi:

* vaqt davomida nisbatan barqarorlik;
* subyektning ichki (ruhiy) yoki tashqi (fizik) ahvolini ifodalash;

* harakatdan ko‘ra natijaviylikka yaqinlik.

Holat semantikasi fe’l, sifat, predikativ birliklar orqali yuzaga chiqadi va ko‘pincha funksional-semantik maydon sifatida qaraladi.Ruhiy holat tushunchasi va uning lingvistik mohiyati.

Ruhiy holat inson psixikasiga oid bo‘lib, quvonch, qayg‘u, qo‘rquv, hayajon, tushkunlik kabi kechinmalarni qamrab oladi. Lingvistik nuqtayi nazardan ruhiy holat — bu subyektning ichki psixologik ahvolining til vositasida ifodalanishidir. Ruhiy holat semantikasi quyidagi xususiyatlarga ega:

* subyektiv xarakterga egalik;
* emotsional-ekspressivlik;
* kontekstga kuchli bog‘liqlik.

1. Ruhiy holatning fe’l orqali ifodalanishi

Misol:“Otabek chuqur o‘yga toldi, ko‘nglini nimadir g‘ash qilardi.”

(Abdulla Qodiriy, O‘tkan kunlar)

Tahlil:bu misolda o‘yga toldi, ko‘nglini g‘ash qilardi fe’llari qahramonning ichki ruhiy holatini, ya’ni bezovtalik va tashvish holatini ifodalaydi. Holat semantikasi dinamik harakat emas, balki subyektning davomiy psixologik ahvolini aks ettiradi.

2. Ruhiy holatning sifat orqali ifodalanishi

Misol:“Zaynab xijolatli va g‘amgin edi.”

(Abdulla Qodiriy, O‘tkan kunlar)

Tahlil:xijolatli, g‘amgin sifatlari predikativ vazifada kelib, ruhiy holat semantik kategoriyasini yuzaga chiqaradi. Bu birliklar subyektning muayyan paytdagi ichki ahvolini statik holatda ifodalaydi.

Til orqali ruhiy holat bevosita ham, bilvosita ham ifodalanishi mumkin. Ruhiy holatlarning semantik tasnifi O‘zbek tilida ruhiy holatlarni quyidagi semantik guruhlarga ajratish mumkin:

1. Ijobiy ruhiy holatlar Subyektning ko‘tarinki kayfiyatini ifodalaydi:

xursand, quvonchli, mamnun, ruhlangan, baxtiyor.

2. Salbiy ruhiy holatlar Subyektning salbiy kechinmalarini aks ettiradi:

xafa, tushkun, g‘amgin, xavotirli, iztirobda.

3. Betaraf ruhiy holatlar Aniq emotsional bahoga ega bo‘lmagan holatlar: *sokin, befarq, xotirjam.*

Bu guruhlar nutqda kontekst orqali yanada aniqlashadi va emotsional rang kasb etadi. Ruhiy holat semantikasining lisoniy ifodalanish vositalari leksik vositalar ruhiy holatni ifodalovchi leksik birliklar asosiy o‘rinni egallaydi.

Bular: *fe’llar:xafa bo‘lmoq, quvonmoq, hayajonlanmoq;*

sifatlar:tushkun, mamnun, serg‘ayrat;

otlar:quvonch, qo‘rquv, iztirob.

Mazkur birliklar ruhiy holatning semantik yadrosini tashkil etadi.Morfologik vositalar ruhiy holat ifodasida morfologik shakllar muhim rol o‘ynaydi. Xususan:-lan, -lash qo‘shimchalari orqali holat fe’llari yasaladi (ruhlanmoq, hayajonlanmoq);fe’lning zamon, mayl va nisbat shakllari subyektning holatga munosabatini ifodalaydi. Sintaktik vositalar ruhiy holat ko‘pincha predikativ konstruksiyalar orqali ifodalanadi:

U xafa.

Uning kayfiyati yo‘q.

U o‘zini baxtli his qildi.

Bunday gaplarda holat mazmuni butun sintaktik tuzilma orqali yuzaga chiqadi.Ruhiy holat va kontekst masalasi ruhiy holat semantikasi ko‘pincha kontekst orqali aniqlanadi. Bir xil lisoniy birlik turli kontekstlarda turlicha semantik rang kasb etishi mumkin. Masalan, sokin so‘zi ijobiy (xotirjamlik) yoki salbiy (beparvolik) holatni ifodalashi mumkin.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, holat semantik kategoriyasi, ayniqsa ruhiy holat semantikasi tilning mazmuniy tizimida muhim o‘rin tutadi. O‘zbek tilida ruhiy holat leksik, morfologik va sintaktik vositalar orqali kompleks tarzda ifodalanadi. Ruhiy holatni o‘rganish til va inson psixikasi o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ochib berishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Rahmatullayev Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent.
2. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. – Toshkent.
3. Safarov Sh. Semantika. – Toshkent.
4. Yusupova M. O‘zbek tilida holat fe’llari semantikasi. – Toshkent.
5. Bondarko A.V. Funksionalnaya grammatika. – Moskva.

Marxobo ERKINOVA,
Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti o‘qituvchisi
erkinovamarhabo8@gmail.com

ASSOTSIATIV TILSHUNOSLIKNING O‘RGANILISHI

Annotatsiya: ushbu maqolada zamonaviy tilshunoslikning antropotsentrik yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan assotsiativ tilshunoslikning shakllanish tarixi, nazariy asoslari va rivojlanish bosqichlari yoritilgan. Tadqiqotda lisoniy shaxs ongidagi verbal bog‘liqliklar zanjiri, assotsiativ maydon tushunchasi masalalari tahlil qilinadi. Maqola mazkur sohaning tilshunoslikdagi o‘rni va metodologik ahamiyatini umumlashtirishga, shuningdek, jahon va o‘zbek tilshunosligidagi o‘rganilish darajasini ko‘rsatib berishga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: *assotsiativ tahlil, leksik zaxira, assotsiativ leksikografiya, assotsiativ leksikologiya, assotsiativ maydon, assotsiativ verbal tarmoq.*

Annotation: this article highlights the history of formation, theoretical foundations, and development stages of associative linguistics, which is one of the anthropocentric directions of modern linguistics. The research analyzes the chain of verbal connections in the mind of the linguistic personality and issues related to the concept of the associative field. The article is aimed at summarizing the role and methodological significance of this field in linguistics, as well as demonstrating the level of its study in world and Uzbek linguistics.

Key words: *associative analysis, lexical stock, associative lexicography, associative lexicology, associative field, associative verbal network.*

Аннотация: в данной статье освещаются история формирования, теоретические основы и этапы развития ассоциативной лингвистики, являющейся одним из антропоцентрических направлений современной лингвистики. В исследовании анализируются цепочка вербальных связей в сознании языковой личности и вопросы, связанные с понятием ассоциативного поля. Статья направлена на обобщение роли и методологической значимости данной области в лингвистике, а также на демонстрацию степени её изученности в мировом и узбекском языкознании.

Ключевые слова: *ассоциативный анализ, лексический запас, ассоциативная лексикография, ассоциативная лексикология, ассоциативное поле, ассоциативная вербальная сеть.*

Dunyo tilshunosligida XX asrning oxirgi yillarida til birliklarini assotsiativ tahlil metodi asosida tadqiq etishga qiziqish kuchaya boshladi. Til birliklarini bu yo‘nalishda tadqiq etilishi natijasida inson psixologik tasavvuri va uning til tizimida aks etishi masalasi bo‘yicha qiziqarli bilimlarga ega bo‘lindi. Assotsiativ tahlil metodi til birliklarining inson tafakkuri, xotirasi, leksik zaxirasi kabi omillar bilan bog‘liq tomonlarini yoritishda muhim o‘rin tutdi.

Assotsiativ birliklar falsafiy-psixologik hodisa bo‘lib, uning nazariy asoslanishi faylasuflar va tilshunoslarning ishlarida o‘z aksini topgan. Manbalarda qayd etilishicha, assotsiatsiya (lot. Association – qo‘shish, biriktirish) terminini ilmiy muomalaga 1960-yilda ingliz filosofi, pedagog, emprizm va liberiazm vakili ilk bor falsafa termini sifatida J.Lokk fanga kiritgan. Tildagi assotsiatsiyalarga ilk bor nemis olimi V.Gumboldt murojaat etadi. U har bir inson ongida bir-biriga muvofiq keluvchi, ammo aynan bo‘lmagan fikrlar paydo bo‘lishi hisobiga o‘zaro tushunish yuz berishini qayd etgan edi [6,11]. F.de Sossyur ham til birliklari o‘rtasida assotsiativ munosabat kuzatilishini qayd etgan. U til birliklari orasida sintagmatik va assotsiativ munoabatni farqlagan. F. de Sossyur tildagi birliklar nimaiki orqali ifodalansa ham, hammasini sintagmalar va assotsiatsiyalar nazariyasiga bog‘lash kerakligini qayd etgan [7, 155]. G‘arb tilshunosligida assotsiativ aloqa haqidagi qarashlar keyinchalik G.Kent, A.Rozanov, J.Diz, J.Miller, Ch.Kofer tomonidan rivojlantirilgan.

Rus tilshunoslaridan N.V.Krushevskiy ilk bor so‘zlarning o‘xshashlik va yondoshlikka ko‘ra assotsiativ bog‘lanishini ko‘rsatdi. Til birliklarining assotsiativ munosabati A.A.Potebnya, I.A.Boduen de Kurtene, M.M.Pokrovskiy, Y.Karaulov va boshqalarning ishlarida ham e’tirof etilib, rivojlantirildi. O‘tgan asrning so‘nggi choragidan boshlab verbal assotsiatsiyalarning milliy-madaniy xususiyatlarini o‘rganishga ham e’tibor qaratila boshlandi [2].

XX asrning 80-yillari so‘nggidan hozirgi kungacha psixolingvistikada assotsiativ yo‘nalish shakllanishining oxirgi bosqichi va assotsiativ tilshunoslikning yuzaga kelish davri sifatida e’tirof qilinadi. Bugungi kunda psixolingvistikadan alohida yo‘nalish – assotsiativ leksikografiya va leksikologiya, assotsiativ grammatikani o‘z ichiga olgan assotsiativ tilshunoslikning ajralib chiqqanligi qayd etilmoqda.

Y.N.Karaulovning qayd etishicha, rus tilining ko‘p jildli assotsiativ tezaurusning yaratilganligi assotsiativ tilshunoslikning nazariy asosini shakllantirish va uning bazasida assotsiativ verbal tarmoq (AVT) hamda assotsiativ gramatikaning yaratilishiga zamin yaratdi. Assotsiativ tilshunoslikning konsepsiyasiga ko‘ra til nafaqat tizimli munosabatlar shaklida, nafaqat matnlarning yirik majmuyi ko‘rinishida, balki insonning til layoqati bilan bog‘liq bo‘lgan assotsiativ verbal tarmoq shaklida ham namoyon bo‘ladi [3, 238].

Assotsiativ verbal tarmoqda tilning sath birliklarida shunday munosabatlar mavjudki, bu aloqalar bir sath birligi vositasida bevosita boshqa sath birligi bilan bog‘lanish mumkin. Bu stimul so‘zning leksik, morfologik, sintaktik, so‘z yasalishi tizimi birliklarida bevosita aks etadi.

Dunyo tilshunosligida milliy qadriyatlar, milliy ong va tafakkurni lisoniy vositalar orqali idrok etish masalalariga e’tibor kuchaygan. Assotsiativ maydonni sistem-struktur tilshunoslik aspektida tadqiq etish til elementlarini o‘rganish bilan bog‘liq bo‘lsa, kognitiv

tilshunoslikda milliy konseptosfera orqali tushuncha (konsept)ni kategoriyalashtirish masalalari o‘rganiladi. Assotsiatsiyalarni bir necha fanlar uyg‘unligida tahlil etish til masalalarini atroflicha yoritish imkonini berish bilan birga, shaxs tafakkurining o‘ziga xos xususiyatlarini tadqiq etishga zamin yaratadi. Lisoniy assotsiativ tajribalar orqali millat mentaliteti va tafakkurining jamoaviy va individual qatlamini farqlash muhim omil hisoblanadi.

O‘zbek tilshunosligiga bu sohaning kirib kelishi f.f.d., prof.D.E.Lutfullayeva nomi bilan bog‘liq. D.Lutfullayeva o‘zbek tili, N.Hoshimova ingliz va o‘zbek tillari materiallari asosida til birliklari munosabatida kuzatiluvchi assotsiativ aloqa-bog‘lanish muammosini o‘rganishdi. Assotsiativ birliklarning gender xoslanishi borasida G.E.Yuryevna, T.G.Borgoyakova, G.E Kuznetsova kabilar rus tili misolida ish olib borganlar. O‘zbek tilshunosligida assotsiativ birliklarning gender xoslanishi mavzusida tadqiqot ishi olib borilmagan.

Assotsiativ tilshunoslik tilning grammatik qoidalarini matn materiallari asosida belgilovchi an’anaviy tilshunoslikdan farq qiladi. Assotsiativ tilshunoslikda til uning birliklari sof holda o‘rganiladi, boshqacha aytganda, bu yo‘nalishda tilning nutqiy qo‘llanishgacha bo‘lgan tabiiy holati tahlil etiladi. Assotsiativ tilshunoslik asosiy hollarda assotsiativ tajriba materiallariga tayangan holda ish ko‘radi.

Assotsiativ tilshunoslikning markaziy tushunchalaridan biri assotsiativ munosabat masalasidir. Assotsiativ munosabat til briliklarining inson psixologik tasavvuriga asoslangan munosabti bo‘lib, “bir-birini yodga solish” mexanizmini aks ettiradi. Bu munosabat asosida assotsiatsiya tushunchasi yotadi [6, 7].

O‘zbek tilidagi leksik birliklarning assotsiativ bog‘lanishi muammosiga qiyosiy aspektda ham munosabat bildirilgan. Rus olimasi A.A.Zalevskaya doktorlik ishida rus, qozoq, qirg‘iz, o‘zbek tillaridagi 111 ta so‘z-korrelyat (ekvivalent) misolida bu tillarga xos leksik assotsiatsiyalarni qiyosan o‘rganib, mazkur masala bo‘yicha xulosalarini e’lon qilgan [1, 20].

O‘zbek tilida leksik birliklarning assotsiativ bog‘lanishi, assotsiatsiyalarning xususiyatlari muammosiga munosabat bildirilgan mana shu ishlarni istisno etganda, bugungi kunda o‘zbek tilida leksik assotsiatsiyalarning hosil bo‘lish mexanizmlari, verbal assotsiatsiyalarning til egalarining mentaliteti, milliy-madaniy qarashlari bilan bog‘lanishi, gender belgisi, ijtimoiylik xususiyatlari nuqtayi nazaridan tadqiqi, o‘zbek tili materiallari asosida assotsiativ lug‘atlarni yaratish masalasi dolzarb muammolardan biri bo‘lib qolmoqda.

Ma’lumki, tashqi olamning verbal ifodasi va bunda voqelik – ong – til uchligi munosabatining tahlilida quyidagi muhim jihatga ham e’tibor qaratilishi lozim. Tashqi olamdagi voqeliklar inson ongida ular bilan bevosita aloqador bo‘lgan makon, zamon, sabab, maqsad kabi omillardan ajralgan holda aks etmaydi. Muayyan voqelikning obyektiv mavjud bo‘lish sharti sifatida yonma-yon yuruvchi bunday omillar inson ongida voqelik obrazining hamrohlari sifatida birga gavdalanib, u bilan assotsiativ bog‘langan “zanjir”ni hosil qiladi.

Tashqi olam inson ongida bir-biri bilan aloqador turli obyektlar, voqea-hodisalar hamrohligida aks etgani bois ular assotsiativ tarzda biri ikkinchisini yodga tushiradi. Nafaqat tashqi olamdagi obyektlar, balki insonning birgalikda va bir vaqtda boshidan kechirgan turli kechinmalari ham aloqadorlik tamoyili asosida bir-birini eslatib turadi. M.Vettler va R.Rappning qayd etishicha, “bir vaqtlar birgalikda his qilingan obyektlar qoidaga ko‘ra xayolan bir-biriga bog‘liq obyektlarga aylanadi. Shu bois ulardan biri haqidagi o‘y, tabiiyki, boshqasi haqida ham avvalgidek birin-ketinlik yoki birga mavjud bo‘lishlik tartibida o‘y surishga olib keladi” [4, 52].

Turli voqeliklarning ongda aks etgan assotsiativ aloqasi tilda ham bir-birini eslatuvchi birliklarning assotsiativ bog‘lanishini yuzaga keltiradi. Masalan, daraxtning o‘sishi uchun tuproq, suv kabilar zarur; daraxt o‘rmon, bog‘, maydonda o‘sadi. Daraxtning tuproq, suv, bog‘ kabilar bilan aloqasi inson xotirasida daraxt leksemasi orqali tuproq, suv, o‘rmon, bog‘, maydon leksemalarning yodga tushishiga sababchi bo‘ladi. Til birliklarining inson psixologik tasavvuri bilan bog‘liq tarzda bir-biri bilan bu tarzda munosabatga kirishuvi assotsiativ munosabat deyiladi. Atoqli tilshunos A.Nurmonov qayd etganlaridek, “…lisoniy birliklar nutq jarayonidan tashqari o‘zaro qandaydir umumiy belgi asosida xotirada muayyan guruhlarga birlashib turadi. Masalan, ta’lim so‘zi ongda maktab, kitob, muallim singari bir qancha so‘zlar bilan bog‘lanib turadi. Bunday munosabatning sintagmatik munosabatdan tamomila boshqacha xususiyatga egaligini ko‘rish qiyin emas. Keyingi munosabat cho‘ziqlikka ega emas, u miyada lokallashadi va har bir shaxsning xotirasida saqlanuvchi xazinaga mansub bo‘ladi. Bunday munosabat assotsiativ munosabat hisoblanadi” [5, 11].

Tilga assotsiativ yondashish boshqa fanlarga nisbatan, xususan, falsafa va psixologiyaga nisbatan ancha keyin shakllandi. Tildagi assotsiativ munosabatlarni o‘rganish tashqi olamdagi aloqa-munosabatlar, ularning inson ongidagi va tilida namoyon bo‘lishi, til egalarining leksik zaxirasi, so‘zning leksik, assotsiativ ma’nolari to‘g‘risida muayyan xulosaga kelishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Джамбаева Ж.А. Ассоциативный эксперимент: методологические основы // Л.Н. Гумилев атындағы ЕҰУ Хабаршысы. 2013. - №1. – С. 20.

2.Дмитрюк Н.В. Национально-культурная специфика вербальных ассоциаций. Автореф. дисс…. канд. филол. наук. – М., 1985.

3.Караулов Ю.Н Ассотциативная грамматика русского языкаю Изд.2. – М., URSS.2010. – 238 С.

4.Клименко А.П. Третий тип словесных ассоциаций и виды семантической связи между словами в системе // Романское и германское языкознание. Вып. – Минск, 1975. – С. 52;

5.Конева Е.А. Специфика функционирования паронимов в ментальном лексиконе (экспериментальное исследование):Автореф. дисс…. канд. филол.наук. – Курск, 2010. – С.11

6.Lutfullaeva D. Assotsiativ tilshunoslik nazariyasi. – Toshkent: Meriyus, 2017. 11-bet.

7.Соссюр Фю Труды по языкознаниюю – М.: Прогресс, 1977. – С. 155.

Husan NORMATOV,
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti tarjimonlik fakulteti ingliz tili tarjima nazariyasi kafedrasi stajyor-o‘qituvchisi

GIPERBOLANING NUTQDAGI FUNKSIYALARI

Annotatsiya: mazkur maqolada giperbolaning nutqdagi funksiyalari lingvostilistik va lingvopragmatik nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida giperbolaning ekspressivlikni oshirish, baholash, ta’sir o‘tkazish hamda obrazlilik yaratish kabi funksiyalari yoritiladi. Shuningdek, uning turli nutq uslublarida qo‘llanish xususiyatlari ko‘rib chiqiladi. Natijada giperbolaning kommunikativ jarayondagi ahamiyati asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: *giperbola, stilistika, nutq, ekspressivlik, lingvopragmatika, diskurs, mubolag‘a.*

Аннотация: в данной статье анализируются функции гиперболы в речи с лингвистически-лингвистически-прагматической точки зрения. В ходе исследования освещаются такие функции гиперболы, как повышение выразительности, оценка, влияние и создание образности. Также рассматриваются особенности её использования в различных стилях речи. В результате обосновывается важность гиперболы в коммуникативном процессе.

Ключевые слова: *гипербола, стилистика, речь, выразительность, лингвопрагматика, дискурс, преувеличение.*

Annotation: this article analyzes the functions of hyperbole in speech from a linguistylistic and linguopragmatic perspective. During the study, the functions of hyperbole such as increasing expressiveness, evaluating, influencing, and creating imagery are highlighted. Also, the features of its use in various speech styles are considered. As a result, the importance of hyperbole in the communicative process is substantiated.

Key words: *hyperbole, stylistics, speech, expressiveness, linguopragmatics, discourse, exaggeration.*

Kirish. Til inson tafakkuri va kommunikativ faoliyatining eng muhim vositasi sifatida nafaqat axborot uzatish, balki ta’sir ko‘rsatish, baholash va emotsional-ekspressiv munosabatlarni ifodalash funksiyalarini ham bajaradi. Shu nuqtayi nazardan, nutqning obrazliligi va ta’sirchanligini oshiruvchi stilistik vositalar alohida ahamiyat kasb etadi. Ana shunday vositalardan biri – giperbola bo‘lib, u borliqdagi hodisa va predmetlarning belgi-xususiyatlarini ataylab mubolag‘a qilish orqali ifodalashga xizmat qiladi.

Giperbola tilshunoslikda qadimdan o‘rganilib kelinayotgan stilistik hodisalardan biri bo‘lib, u ayniqsa badiiy nutq, publitsistik uslub hamda og‘zaki so‘zlashuv nutqida keng qo‘llanadi. Mazkur vosita orqali so‘zlovchi o‘z fikrini yanada kuchliroq, ta’sirchanroq va esda qolarli tarzda yetkazishga intiladi. Natijada nutqda ekspressivlik va subyektiv baholash unsurlari kuchayadi. Shu bilan birga, giperbola faqat badiiy bezak sifatida emas, balki kommunikativ-pragmatik maqsadlarni amalga oshiruvchi muhim vosita sifatida ham namoyon bo‘ladi.

Zamonaviy lingvistik tadqiqotlarda nutqning pragmatik va diskursiv xususiyatlarini o‘rganishga bo‘lgan e’tibor ortib borayotgan bir sharoitda giperbolaning funksional imkoniyatlarini tahlil qilish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Xususan, giperbolaning nutqda qanday vazifalarni bajarishi, u orqali qanday kommunikativ maqsadlar amalga oshirilishi, shuningdek, uning turli nutq uslublarida qo‘llanish xususiyatlarini aniqlash ilmiy jihatdan muhimdir. Bu borada ayrim tadqiqotlarda giperbola stilistik vosita sifatida tavsiflangan bo‘lsa-da, uning nutqiy funksiyalari yetarlicha kompleks o‘rganilmagan [1].

Mazkur maqolaning maqsadi – giperbolaning nutqdagi funksiyalarini aniqlash va ularning lingvopragmatik xususiyatlarini tahlil qilishdan iborat. Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalar belgilandi: giperbolaning nazariy asoslarini ko‘rib chiqish, uning stilistik vosita sifatidagi o‘rnini aniqlash, turli nutq uslublarida bajaradigan funksiyalarini tahlil qilish hamda konkret misollar asosida uning kommunikativ imkoniyatlarini yoritish.

Tadqiqot jarayonida tavsifiy, qiyosiy va diskursiv tahlil metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot materiali sifatida badiiy asarlar, publitsistik matnlar hamda og‘zaki nutq namunalaridan olingan misollar xizmat qildi.

Shu tariqa, mazkur tadqiqot giperbolaning nutqiy faoliyatdagi o‘rni va ahamiyatini yanada chuqurroq ochib berishga xizmat qiladi hamda stilistika va pragmatika yo‘nalishidagi ilmiy izlanishlarni boyitadi.

Asosiy qism. Giperbola tilning stilistik vositalari tizimida alohida o‘rin egallovchi, nutqning ekspressivligi va ta’sirchanligini oshirishga xizmat qiluvchi muhim hodisalardan biridir. U predmet, hodisa yoki belgi-xususiyatlarni ataylab oshirib ko‘rsatish orqali ifodalanadi va shu orqali nutqning obrazliligini ta’minlaydi. Giperbolaning mohiyati uning semantik asosida yotuvchi mubolag‘a tamoyiliga borib taqaladi. Bunda real voqelikdagi miqdor, sifat yoki daraja subyektiv baholash asosida kuchaytiriladi va natijada tinglovchi yoki o‘quvchiga kuchliroq ta’sir o‘tkaziladi [2].

Tilshunoslikda giperbola ko‘pincha metafora, litota kabi boshqa stilistik vositalar bilan bir qatorda o‘rganiladi. Biroq ularning funksional xususiyatlari jihatidan farqlari mavjud. Xususan, metafora ko‘chma ma’no asosida o‘xshatishga tayansa, giperbola miqdoriy yoki sifat jihatdan oshirib ko‘rsatishga asoslanadi. Litota esa, aksincha, kamaytirish orqali ifodalashni anglatadi. Shu bois giperbola nutqda

kuchaytirish (intensifikatsiya) vositasi sifatida namoyon bo‘ladi [3].

Giperbolaning nutqdagi funksiyalarini tahlil qilishda uning lingvopragmatik xususiyatlariga alohida e’tibor qaratish zarur. Avvalo, giperbola **ekspressivlikni oshirish funksiyasi** ni bajaradi. So‘zlovchi o‘z hissiy holatini, hayratini, noroziligini yoki boshqa subyektiv munosabatlarini ifodalashda mubolag‘adan foydalanadi. Masalan, “ming marta aytdim”, “butun dunyo biladi” kabi ifodalar real miqdorni emas, balki kuchli ta’sirni ifodalashga xizmat qiladi. Bu esa nutqning emotsional bo‘yoqdorligini kuchaytiradi [4].

Ikkinchidan, giperbola **baholash funksiyasi**ni bajaradi. Nutqda predmet yoki hodisaga ijobiy yoki salbiy munosabat bildirishda mubolag‘ali ifodalar keng qo‘llanadi. Masalan, “eng zo‘r”, “beqiyos darajada yaxshi”, “cheksiz yomon” kabi birliklar orqali so‘zlovchi o‘z bahosini kuchaytirilgan shaklda ifodalaydi. Bu jarayonda giperbola subyektivlikni kuchaytiruvchi vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

Uchinchidan, giperbola **ta’sir o‘tkazish (persuaziv) funksiyasi**ni amalga oshiradi. Ayniqsa, publitsistik va reklama matnlarida mubolag‘ali ifodalar o‘quvchi yoki tinglovchini ishontirish, diqqatini jalb etish va muayyan fikrga yo‘naltirish maqsadida qo‘llanadi. Masalan, “mislsiz imkoniyat”, “hayotingizni o‘zgartiradigan mahsulot” kabi iboralar real holatdan ko‘ra kuchliroq tasvir yaratish orqali adresat ongiga ta’sir ko‘rsatadi [5].

Shuningdek, giperbola **obrazlilikni yaratish funksiyasi**ni ham bajaradi. Badiiy nutqda mubolag‘a obrazning yorqin va esda qolarli bo‘lishini ta’minlaydi. Adabiy matnlarda qahramonlarning his-tuyg‘ulari, tabiat manzaralari yoki voqealar ko‘pincha giperbolik ifodalar orqali tasvirlanadi. Bu esa matnning estetik qiymatini oshiradi va o‘quvchida tasavvur hosil qilish jarayonini faollashtiradi [6].

Giperbolaning yana bir muhim funksiyalaridan biri – **kommunikativ intensivlikni ta’minlash**dir. Nutq jarayonida so‘zlovchi ba’zan oddiy ifodalar orqali yetarli darajada ta’sir ko‘rsata olmaydi. Bunday holatda mubolag‘a orqali fikrning kuchi oshiriladi va kommunikativ samaradorlik ta’minlanadi. Ayniqsa og‘zaki nutqda bu holat tez-tez kuzatiladi.

Bundan tashqari, giperbola **diskursiv moslashuvchanlik** xususiyatiga ega. Ya’ni u turli nutq uslublarida turlicha vazifalarni bajaradi. Badiiy uslubda u asosan, estetik va obrazlilik funksiyasini bajarsa, publitsistik uslubda ta’sirchanlik va ishontirishga xizmat qiladi, og‘zaki so‘zlashuv nutqida esa emotsional-ekspressiv munosabatni ifodalash vositasi sifatida faol qo‘llanadi. Shu jihatdan giperbola universallik xususiyatiga ega stilistik birlik hisoblanadi [7].

Giperbolaning lingvopragmatik tahlili shuni ko‘rsatadiki, u nafaqat semantik jihatdan, balki kommunikativ maqsad nuqtayi nazaridan ham muhim vositadir. So‘zlovchi mubolag‘a orqali nutq vaziyatiga mos ravishda o‘z strategiyasini shakllantiradi, tinglovchi esa bu ifodani kontekst asosida talqin qiladi. Natijada giperbola nutqning interaktiv va ta’sirchan xususiyatlarini kuchaytiradi.

Shu tariqa, giperbola nutqda ko‘p funksiyali stilistik vosita sifatida namoyon bo‘lib, uning ekspressiv, baholovchi, ta’sir o‘tkazuvchi, obrazlilik yaratish va kommunikativ intensivlikni ta’minlash kabi funksiyalari nutqning samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, giperbola tilning muhim stilistik vositalaridan biri sifatida nutqning mazmuniy va pragmatik jihatdan boyishini ta’minlaydi. U orqali real voqelik ataylab mubolag‘ali tarzda ifodalanib, nutqning ekspressivligi, obrazliligi va ta’sirchanligi sezilarli darajada kuchaytiriladi.

Maqola doirasida olib borilgan tahlillar asosida giperbolaning nutqdagi bir qator muhim funksiyalari aniqlandi. Xususan, u ekspressivlikni oshirish, subyektiv baholashni ifodalash, tinglovchi yoki o‘quvchiga ta’sir o‘tkazish, obrazlilik yaratish hamda kommunikativ intensivlikni ta’minlash kabi vazifalarni bajarishi bilan ajralib turadi. Ushbu funksiyalar giperbolaning nafaqat stilistik, balki lingvopragmatik vosita sifatidagi ahamiyatini ham tasdiqlaydi.

Shuningdek, giperbolaning turli nutq uslublarida qo‘llanishi uning diskursiv moslashuvchanligini ko‘rsatadi. Badiiy nutqda u estetik va obrazlilik vazifasini bajarsa, publitsistik matnlarda ishontirish va ta’sir kuchini oshirishga xizmat qiladi, og‘zaki so‘zlashuv nutqida esa emotsional-ekspressiv munosabatni ifodalashning samarali vositasi sifatida namoyon bo‘ladi. Bu esa giperbolaning universal xarakterga ega ekanligini anglatadi.

Umuman olganda, giperbola nutqning ta’sirchanligini oshirishda, kommunikativ maqsadlarni samarali amalga oshirishda muhim o‘rin tutadi. Kelgusida mazkur masalani yanada chuqurroq o‘rganish, xususan, giperbolaning qiyosiy tilshunoslik, tarjima nazariyasi va diskurs tahlili doirasida tadqiq etilishi ilmiy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Akhmanova O.S. Dictionary of linguistic terms. – Moscow: Soviet Encyclopedia, 1966.
2.Arnold I.V. Stylistics. Modern English. – Moscow: Flinta, 2002.
3.Galperin, I.R. Stylistics of the English Language. – Moscow: Vysshaya shkola, 1981.
4.Kozhina M.N. Stylistics of the Russian language. – Moscow: Education, 1993.
5.Maslova V.A. Linguoculturology. – Moscow: Academy, 2001.
6.Shmelev D.N. Modern Russian Language. Lexicon. – Moscow: Prosveshchenie, 1977.
7.Crystal D. The Cambridge Encyclopedia of the English Language. – Cambridge: Cambridge University Press, 2003.

Adolat KENJAYEVA,
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti mustaqil izlanuvchisi

KOMMUNIKATIV AKTDA GENDER IDENTIKLIKNING PARA VA EKSTRALINGVISTIK FAKTORLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada kommunikativ akt jarayonida gender identiklikning namoyon bo‘lishi, uning para va ekstralingvistik faktorlar bilan aloqasi tahlil qilinadi. Gender identiklik shaxsning ijtimoiy, madaniy va psixologik tajribasi bilan bog‘liq bo‘lib, u nutq, ovoz ohangi, imo-ishora, tana harakati, muloqot masofasi, kiyinish uslubi, ijtimoiy rol va kommunikativ vaziyat orqali ifodalanadi. Maqolada paralingvistik omillar sifatida intonatsiya, tembr, pauza, nutq tezligi, urg‘u va emotsional ohang ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: *kommunikativ akt, gender identiklik, paralingvistika, ekstralingvistika, gender stereotipi, nutq madaniyati, noverbal muloqot, ijtimoiy rol.*

Аннотация: в данной статье анализируется проявление гендерной идентичности в процессе коммуникативного акта, а также ее связь с паралингвистическими и экстралингвистическими факторами. Гендерная идентичность связана с социальным, культурным и психологическим опытом личности и выражается через речь, тон голоса, жесты, движения тела, коммуникативную дистанцию, стиль одежды, социальную роль и коммуникативную ситуацию. В статье в качестве паралингвистических факторов рассматриваются интонация, тембр, пауза, темп речи, ударение и эмоциональная окраска речи.

Ключевые слова: *коммуникативный акт, гендерная идентичность, паралингвистика, экстралингвистика, гендерный стереотип, культура речи, невербальная коммуникация, социальная роль.*

Annotation: this article analyzes the manifestation of gender identity in the process of a communicative act and its connection with para- and extralinguistic factors. Gender identity is related to an individual’s social, cultural, and psychological experience and is expressed through speech, tone of voice, gestures, body movements, communicative distance, style of clothing, social role, and communicative situation. The article examines intonation, timbre, pauses, speech rate, stress, and emotional tone as paralinguistic factors.

Key words: *communicative act, gender identity, paralinguistics, extralinguistics, gender stereotype, speech culture, non-verbal communication, social role.*

Zamonaviy tilshunoslikda til faqat grammatik va leksik tizim sifatida emas, balki insonning ijtimoiy, madaniy va psixologik faoliyati bilan chambarchas bog‘liq hodisa sifatida o‘rganilmoqda. Ayniqsa, kommunikativ akt jarayonida shaxsning kimligi, ijtimoiy mavqeyi, madaniy tajribasi va gender identikligi nutqda turli shakllarda namoyon bo‘ladi. Chunki inson muloqotda faqat so‘zlar orqali emas, balki ovoz ohangi, tana harakati, yuz ifodasi, qarash, masofa, kiyinish, muomala uslubi va vaziyatga mos xatti-harakatlar orqali ham o‘zini ifodalaydi.

Gender identiklik deganda shaxsning o‘zini muayyan genderga mansub deb anglashi, shu asosda ijtimoiy rol va kommunikativ xatti-harakatlarni shakllantirishi tushuniladi. Gender biologik jins bilan bog‘liq bo‘lsa-da, u faqat biologik omil bilan cheklanmaydi. Gender jamiyat, madaniyat, tarbiya, til, urf-odat va ijtimoiy munosabatlar orqali shakllanadigan murakkab hodisadir. Shuning uchun ham erkak va ayol nutqidagi farqlarni faqat grammatik yoki leksik birliklar asosida tushuntirish yetarli emas. Bunda para va ekstralingvistik omillar ham muhim ahamiyatga ega [1].

Kommunikativ aktda gender identiklikning o‘rganilishi tilshunoslik, sotsiolingvistika, psixolingvistika, gender tadqiqotlari va pragmalingvistika uchun dolzarb hisoblanadi. Chunki har qanday muloqotda nutq ishtirokchilari ma’lumot almashish bilan birga, o‘z ijtimoiy va gender mavqeyini ham namoyon qiladi. Ushbu jarayon ayrim hollarda ongli, ayrim hollarda esa beixtiyor tarzda yuzaga chiqadi.

Gender identiklik shaxsning o‘z gender mansubligini anglash jarayonidir. U insonning nutqi, fe’l-atvori, tashqi ko‘rinishi, muloqot strategiyasi va ijtimoiy munosabatlarida aks etadi. Gender identiklik doimiy va qat’iy shaklda emas, balki ijtimoiy muhit va kommunikativ vaziyatga qarab o‘zgarib boradigan hodisadir. Masalan, inson oilaviy suhbatda bir xil, rasmiy ish uchrashuvida boshqa xil, do‘stlar davrasida esa yana boshqa tarzda muloqot qilishi mumkin.

Kommunikativ aktda gender identiklik nutq subyekti, adresat, vaziyat, maqsad va ijtimoiy kontekst orqali namoyon bo‘ladi. Masalan, ayrim madaniyatlarda ayollardan yumshoqroq, muloyimroq, ehtiyotkorroq nutq kutiladi, erkaklardan esa qat’iylik, ishonchlilik yoki tashabbuskorlik kutilishi mumkin. Bu farqlar tabiiy qobiliyatdan ko‘ra ko‘proq jamiyat tomonidan shakllantirilgan kommunikativ me’yorlarga bog‘liq. Demak,

gender identiklik til orqali aks etadi, lekin uning ildizi ijtimoiy va madaniy tizimda joylashgan.

Tilshunos Robin Lakoff ayollar nutqida muloyimlik, ehtiyotkorlik, savol ohangidagi tasdiqlar, kuchaytiruvchi va yumshatuvchi birliklar ko‘proq uchrashini ta’kidlagan. Keyingi tadqiqotchilar esa gender farqlarini qat’iy ikki guruhga bo‘lib tushuntirish yetarli emasligini, chunki nutq uslubi yosh, kasb, ijtimoiy maqom, ta’lim, madaniyat va shaxsiy tajriba bilan ham bog‘liqligini ko‘rsatgan. Demak, gender identiklik kommunikativ aktda bir omil sifatida namoyon bo‘ladi, ammo u boshqa ijtimoiy faktorlar bilan birgalikda ishlaydi [2].

Paralingvistik faktorlar nutqning verbal mazmuniga qo‘shimcha ravishda ma’no, munosabat va emotsional ohang beruvchi tovushli vositalardir. Bular qatoriga intonatsiya, tembr, nutq tezligi, pauza, urg‘u, ovoz balandligi, kulgi, xo‘rsinish, sukut va emotsional ohang kiradi. Paralingvistik birliklar so‘zlarning bevosita lug‘aviy ma’nosini o‘zgartirmasa ham, muloqotda ularning qanday qabul qilinishini keskin o‘zgartiradi. Masalan, “yaxshi” so‘zi samimiy, befarq, kinoyali yoki norozilik ohangida aytilishi mumkin.

Ovoz tembri ham gender identiklikni ifodalovchi muhim paralingvistik vositalardan biridir. Odatda jamiyatda ovozning past yoki balandligi shaxsning genderiga doir ma’lum tasavvurlarni uyg‘otadi. Masalan, past va barqaror ovoz ko‘pincha qat’iylik, ishonchlilik yoki rasmiylik bilan bog‘lanadi. Balandroq va yumshoqroq ovoz esa muloyimlik yoki emotsionallik bilan talqin qilinishi mumkin. Ammo bu talqinlar ko‘p hollarda stereotip xarakterga ega bo‘lib, har doim real shaxsiy xususiyatni to‘liq aks ettirmaydi.

Nutq tezligi ham gender identiklik bilan bog‘liq holda tahlil qilinadi. Ayrim kommunikativ vaziyatlarda tez nutq faol, tashabbuskor yoki emotsional holatni bildirishi mumkin. Sekin va o‘lchovli nutq esa rasmiylik, ishonch yoki nazoratni ifodalashi mumkin. Shu bilan birga, nutq tezligi nafaqat genderga, balki mavzu, auditoriya, vaziyat, kasb va shaxsning psixologik holatiga ham bog‘liq [3].

Ekstralingvistik faktorlar til tizimidan tashqarida joylashgan, ammo muloqot mazmuni va shakliga ta’sir qiluvchi omillardir. Bular ijtimoiy maqom, yosh, kasb, ta’lim darajasi, madaniyat, milliy mentalitet, diniy qarashlar, vaziyat, makon, vaqt, kiyinish uslubi, tana harakati va ijtimoiy rol kabi omillarni o‘z ichiga oladi. Kommunikativ aktda bu faktorlar nutq ishtirokchilarining bir-birini qanday qabul qilishiga ta’sir ko‘rsatadi.

Gender identiklik ekstralingvistik omillar orqali ko‘pincha noverbal xatti-harakatlarda namoyon bo‘ladi. Masalan, imo-ishoralar, yuz ifodasi, qarash, tana holati, qo‘l harakatlari va muloqot masofasi genderga oid ijtimoiy kutilmalar bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Ayrim madaniyatlarda ayollardan ochiq tabassum, muloyim tana harakati va ehtiyotkor qarash kutiladi. Erkaklardan esa tik turish, to‘g‘ridan-to‘g‘ri qarash, kengroq tana harakati yoki masofani boshqacha boshqarish kutilishi mumkin. Bu holatlarning barchasi madaniy kodlar bilan bog‘liq.

Kiyim-kechak ham gender identiklikning ekstralingvistik belgilaridan biridir. Insonning kiyinish uslubi uning gender identikligi, kasbiy roli, ijtimoiy maqomi va kommunikativ maqsadi haqida ma’lumot beradi. Rasmiy kiyim, rang tanlovi, aksessuarlar, soch turmagi va umumiy tashqi ko‘rinish muloqot ishtirokchisining qanday qabul qilinishiga ta’sir qiladi. Masalan, ish uchrashuvida rasmiy kiyinish shaxsning professional imijini kuchaytiradi, norasmiy kiyinish esa erkinlik yoki yaqinlik hissini uyg‘otishi mumkin.

Muloqot muhiti ham gender identiklikning ifodalanishiga ta’sir qiladi. Oilaviy, do‘stona, akademik, rasmiy yoki ishbilarmonlik muloqotlarida gender rollari turlicha namoyon bo‘ladi. Masalan, rasmiy yig‘ilishda shaxs o‘z nutqini nazorat qiladi, me’yoriy leksikadan foydalanadi va tana harakatlarini cheklaydi. Norasmiy suhbatda esa emotsionallik, hazil, imo-ishora va shaxsiy munosabat ko‘proq namoyon bo‘ladi. Demak, gender identiklik kommunikativ vaziyatga moslashadi.

Xulosa. Kommunikativ aktda gender identiklik murakkab va ko‘p qirrali hodisa sifatida namoyon bo‘ladi. U faqat so‘z tanlovi yoki grammatik shakllar orqali emas, balki paralingvistik va ekstralingvistik faktorlar orqali ham ifodalanadi. Paralingvistik faktorlar, ya’ni intonatsiya, tembr, nutq tezligi, pauza, urg‘u va emotsional ohang gender identiklikning eshitiladigan belgilarini tashkil qiladi. Ekstralingvistik faktorlar esa tana harakati, yuz ifodasi, qarash, kiyinish, muloqot masofasi, ijtimoiy maqom, madaniy norma va vaziyat orqali gender identiklikni shakllantiradi.

Tahlil shuni ko‘rsatadiki, gender identiklik kommunikativ aktda doimiy va o‘zgarmas shaklda emas, balki vaziyat, madaniyat, ijtimoiy rol va shaxsiy tajriba bilan bog‘liq holda namoyon bo‘ladi. Shuning uchun gender kommunikatsiyasini o‘rganishda biologik jinsga asoslangan oddiy farqlash yetarli emas. Nutq ishtirokchilarining ijtimoiy mavqeyi, kasbi, yoshi, madaniy muhiti, kommunikativ maqsadi va psixologik holati ham hisobga olinishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Coates, J. Women, Men and Language. London: Longman, 1993.
2. Lakoff, R. Language and Woman’s Place. New York: Harper & Row, 1975.
3. Крейдлин, Г.Е. *Невербальная семиотика: Язык тела и естественный язык*. Москва: Новое литературное обозрение, 2002.

Nilufar TURSUNOVA,
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti o‘qituvchisi,
email:nilufar.tursunova@mail.co
Oygul MUHAMMADJONOVA,
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti 3-bosqich talabasi,
email:oygulmuhammadjanova110@gmail.com

TOPISHMOQLARDA MILLIY-MADANIY SEMANTIKA VA LINGVOKULTUROLOGIK BIRLIKLARNING TARJIMADAGI TALQINI

Annotatsiya: mazkur maqolada topishmoqlarning milliy-madaniy semantika va lingvokulturologik birliklarining tarjimadagi talqini tahlil etilgan.Tadqiqot davomida topishmoqlar xalq og‘zaki ijodining muhim janri sifatida milliylik, urf-odatlar va qadryatlarni aks ettiruvchi muhim omil ekanligi asoslab beriladi. Shuningdek, milliy ruhdagi topishmoqlarni bir tildan boshqa tilga tarjima qilishdagi muammolar va ularni bartaraf etishga qaratilgan yechimlar haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: *topishmoqlar, milliy-madaniy semantika, lingvokulturologik birliklar, madaniy obraz, tarjimadagi talqin, til va jamiyat.*

Annotation: this article analyzes the interpretation of national-cultural semantics and linguocultural units in the translation of riddles. During the study, it is substantiated that riddles, as an important genre of folklore, serve as a significant factor reflecting national identity, traditions, and cultural values. Furthermore, the study discusses the challenges encountered in translating culturally marked riddles from one language into another and proposes possible solutions to overcome these difficulties.

Key words: *riddles, national-cultural semantics, linguocultural units, cultural image, interpretation in translation, language and society.*

Аннотация: в данной статье анализируется интерпретация национально-культурной семантики и лингвокультурологических единиц при переводе загадок. В ходе исследования обосновывается, что загадки как важный жанр устного народного творчества являются значимым фактором, отражающим национальную самобытность, традиции и культурные ценности. Кроме того, в работе рассматриваются трудности, возникающие при переводе загадок с национально-культурной окраской с одного языка на другой, а также предлагаются пути их преодоления.

Ключевые слова: *загадки, национально-культурная семантика, лингвокультурологические единицы, культурный образ, устный перевод, язык и общество.*

Kirish. Topishmoqlar xalq og‘zaki ijodining eng qadimgi va eng ommabop janrlaridan biri bo‘lib, ularda har bir xalqning milliy-madaniy ruhi, urf-odat va qadriyatlari aks ettiriladi va dunyodagi barcha xalqlar folklorida uchraydi. Shuningdek, ular topishmoqlar ramziy va badiiy shaklda xalqning turmush tarzi, kundalik hayoti va tafakkurini ifodalashga xizmat qiladi.

Topishmoqlar har bir xalqda turlicha madaniy ma’no bilan qo‘llanilib, milliy-madaniy semantika va lingvokulturologik birliklar bilan farqlanadi. Ya’ni, har bir davlat topishmoqlarda aks ettirilgan yashirin ma’noni turlicha talqin qiladi. Shu bois, topishmoqlarni tarjima qilishda faqat lingvistik jihatlar emas, balki ularning ortida yotgan milliy-madaniy kontekst, ramziy ma’nolar va obrazlar tizimini ham chuqur anglash muhim ahamiyat kasb etadi. Natijada, tarjima jarayonida topishmoq ma’nosi o‘zgarib ketishi yoki yo‘q bo‘lib ketishi mumkin.

Adabiyotlar sharhi. Ko‘plab tilshunoslar lingvokulturologiyani til va madaniyat bog‘lanishi haqida o‘rganadigan muhim narsa deb hisoblashadi. Bu yo‘nalish haqida o‘ylaganimda, o‘zbek tilshunosligida N. Mahmudovning ishi alohida ko‘rinadi. U tilni oddiy aloqa vositasi emas, balki milliy tafakkur va madaniyatni aks ettiruvchi tizim sifatida ko‘radi. Har bir til o‘z xalqining tarixi, qadriyatlarini va dunyoqarashini o‘zida saqlab turadi, deb aytadi u. Shu sababli, folklor janrlarini o‘rganishda madaniy tomonlarni e’tiborga olish kerak, xususan topishmoqlarda.

Nemis olimi Leo Vaysgerber ham shunga o‘xshash fikrda. U tilni dunyoning til orqali shakllangan ko‘rinishi deb ataydi. Har bir xalq o‘z tili orqali borliqni idrok etadi va til madaniy kod bo‘lib xizmat qiladi. Bu nazariya topishmoqlarni tahlil qilishda yordam beradi, chunki ular ramziy ifodalar va yashirin ma’nolar bilan qurilgan. Ba’zida bu qism biroz chalkash tuyuladi, lekin milliy obrazlarni ko‘rsatishda muhim o‘ringa ega. Topishmoqlar lingvokulturologik birliklarning yorqin namunasi hisoblanib, ularda estetik qarashlar ham mujassam.

Tarjima nazariyasida milliy madaniy birliklarni to‘g‘ri yetkazish masalasi ko‘p olimlar tomonidan o‘rganilgan. Masalan V. Komissarov va E. Nida tarjima ekvivalentligiga alohida e’tibor berganlar. Ularning fikricha, tarjimon nafaqat matn shaklini balki mazmun va madaniy qismlarini

ham saqlashi kerak, aks holda, ma’no va ta’sir yo‘qolishi mumkin. Bu muammo topishmoqlarda yanada ko‘rinib turadi. Chunki milliy obrazlar tarjima paytida o‘zgarib ketadi yoki butunlay yo‘q bo‘lib ketadi.

O‘zbek tilidagi anor, do‘ppi, tandir kabi so‘zlar ingliz yoki rus tilida to‘liq mos keladigan ekvivalenti uchramaydi. Lekin, tarjimonlar ularni o‘xshatib, tasvirlab berishga majbur bo‘ladilar. Natijada asl matnning o‘ziga xosligi kamayib qoladi. Bu joyda kontekst ham katta rol o‘ynaydi. Ba’zi obrazlar faqat o‘sha madaniyatdagilar uchun tushunarli bo‘ladi. Tarjimada esa ular noto‘g‘ri tushunilishi mumkin yoki ishini yo‘qotadi.


Zamonaviy tarjimada madaniy moslashtirish izohli usullar va funksional ekvivalentdan foydalaniladi. Bu strategiyalar yordamida muammoni hal qilishga harakat qilinadi. Lingvokulturologiya va tarjimashunoslik o‘rtasidagi bog‘lanish esa folklor matnlarida yaqqol ko‘rinadi. Topishmoqlar bu uchun yaxshi misol bo‘la oladi. Ilmiy adabiyotlarda shu ko‘rsatilgan. Ammo ba’zi joylarda bu bog‘lanishni to‘liq tushuntirish qiyin. Menimcha, topishmoqlar orqali o‘rganish foydaliroq bo‘ladi.

Natijalar. Ushbu tadqiqot davomida turli topishmoqlarning o‘zbek tilidan ingliz tiliga bo‘lgan tarjimasi milliy-madantiy semantika va lingvokulturologik nuqtayi nazardan tahlil qilindi. Olingan natijalar shuni ko‘rsatdiki, topishmoqlar tarjimasidagi ekvivalentlar yoki topishmoqdagi yashirin ma’no to‘la mos kelmasligi aniqlandi. Masalan, “Tog‘dan tushdi qizil kelin” (quyosh) topishmog‘idagi “kelin” so‘zi bu lingvokulturologik birlik hisoblanadi va bu metafora, ya’ni real kelin emas, obraz hisoblandi. O‘zbek madaniyatida kelin yorug‘lik, yangi hayot boshlanishi kabi tasavvurlarga ega bo‘lganligi va quyosh ham o‘zidan yorug‘lik tarqatgani sababli, bolalarda tasavvurni uyg‘otish va estetik fikrlashni rivojlantirish uchun shunday berilgan. Lekin bunday tasvir ingliz tilida bo‘lmagani uchun to‘g‘ridan to‘g‘ri emas, balki moslashtirish yoki ta’rif berish usuli bilan tarjima qilinishi kerak.

Noto‘g‘ri: “Red bride came down from the mountain”

To‘g‘ri: “The sun rose in the sky like a glowing bride”

Grafik Tahlil. Topishmoqlar tarjimasida milliy-madaniy semantikaning saqlanish darajasi quyidagi grafikda tasvirlangan:



Grafikdan ko‘rinib turibdiki, eng ko‘p topishmoqlarda milliy-madaniy birliklar tarjimada to‘liq saqlanib qolgan. Bu holat asosan universallikka ega bo‘lgan obrazlar bilab bog‘liq bo‘lib, ular turli madaniyatlarda o‘xshash holda qo‘llaniladi. Masalan, tabiat hodisalari, oddiy predmetlar yoki umumiy insoniy tajribaga ega obrazlar tarjimada muammosiz tarjima qilinadi.

Muhokama. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, madaniyat va qadriyatlardagi farqlar tarjima qilinayotgan topishmoq ma’nosini tubdan o‘zgartirishi mumkin. Agar topishmoqlar universallikka ega bo‘lgan voqea-hodisalar bilan bog‘liq bo‘lsa, uni tarjima qilish yengil kechadi. Biroq madaniyatlardagi biroz bo‘lgan farq ham uning to‘g‘ridan to‘g‘ri tarjima qilinishini murakkablashtiradi va yuqorida aytilganidek, semantik jihatdan yaqin bo‘lsada, madaniy jihatdan farq yuzaga keladi. Bundan tashqari, madaniyatlardagi yuqori tafovut milliy ma’no butunlay yo‘qolib ketishiga olib keladi va bunday holatlarda tillarda ekvivalentga ega emasligi sababli topishmoq ma’nosi izohlanadi yoki moslashtirib tarjima qilinadi.

Xulosa. Ushbu tadqiqot davomida topishmoqlarda uchraydigan milliy-madaniy semantika va lingvokulturologik birliklarning tarjimada qanday ifodalanishi o‘rganildi. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, topishmoqlarda berilgan obrazlar oddiy so‘zlardan ko‘ra chuqurroq ma’noga ega bo‘lib, ular xalqning madaniyati, turmush tarzi va dunyoqarashini aks ettiradi. Shu sababli ularni boshqa tilga tarjima qilish jarayonida ayrim ma’nolar to‘liq saqlanmaydi. Ayniqsa, milliy realiyalar bilan bog‘liq birliklar tarjimada qiyinchilik tug‘diradi. Ba’zi hollarda ular qisman o‘zgartiriladi yoki izoh orqali beriladi, natijada esa asl matndagi milliy ruh biroz yo‘qoladi. Shu bilan birga, umumiy va universal obrazlar tarjimada osonroq yetkazilishi aniqlandi. Umuman olganda, topishmoqlar tarjimasi nafaqat til, balki madaniyat bilan ham chambarchas bog‘liq jarayon ekanligi isbotlandi. Bu esa tarjimondan ikki til bilan birga ikki xalq madaniyatini ham yaxshi bilishni talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mahmudov N. *Til va madaniyat*. – Toshkent.
2. Weisgerber L. *Sprachtheorie* (Til nazariyasi ishlari).
3. Komissarov V. *Tarjima nazariyasi*.
4. Nida E. *Language and Culture*.
5. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi namunalari (topishmoqlar to‘plami).
6. Safarov Sh. *Lingvokulturologiya asoslari.* – Toshkent.
7. Google.Wikipedia.org.

Shoxida YOKUBOVA,
Buxoro davlat universiteti
o‘zbek tilshunosligi va jurnalistika kafedrasi o‘qituvchisi
yakubovashohida1990@gmail.com

ZAMONAVIY QO‘SHIQLARDA QO‘LLANGAN AGNONIMLAR

Annotatsiya: ushbu maqolada zamonaviy estrada qo‘shiqlari matnida qo‘llangan agnonim so‘zlar tahlilga tortilgan. Agnonimlar hayotimizning barcha sohalarida qo‘llangani kabi qo‘shiqchilik sohasida ham mavjud. Zamonaviy estrada qo‘shiq matnlarida qo‘llangan hoppa-hoppa, yalli-yalli, dem-dem, deri-deri, bum, chiki-chiki, pa-pa, vachacha, vaya-vaya kabi agnonim so‘zlar turli xil estetik vazifa bajarishga, qo‘shiq ritmini, ohangini ta’minlashga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: *agnonim, agnonimik vaziyat, agnonimiya, kommunikativ niyat, nutqiy faoliyat, kam qo‘llaniladigan so‘zlar, estetik vazifa.*

Аннотация*:* в данной статье анализируются агонимические слова, используемые в текстах современных поп-песен. Агонимы используются во всех сферах нашей жизни, а также в области пения. Агонимические слова, используемые в современных поп-песнях, такие как dem-dem, deri-deri, boom, chiki-chiki, pa-pa, vachacha, vaya-vaya, выполняют различные эстетические функции и задают ритм песни.

Ключевые слова*: агноним, агнонимическая ситуация, агнонимия, коммуникативное намерение, речевая деятельность, редко используемые слова, эстетическая функция*

Annotation*:* this article analyzes agonistic words used in the lyrics of contemporary pop songs. Agonistic words are used in all aspects of our lives, including singing. Agonistic words used in contemporary pop songs, such as dem-dem, deri-deri, boom, chiki-chiki, pa-pa, vachacha, and vaya-vaya, serve various aesthetic functions and set the rhythm of the song.

Key words*: agnonym, agnonymic situation, agnonymy, communicative intention, speech activity, rarely used words, aesthetic function*

Kirish. So‘z va uning ma’nosi masalasi uzoq yillardan beri an’anaviy tilshunoslik va amaliy tilshunoslikning tadqiqot obyekti bo‘lib kelmoqda. Nafaqat uzoq yillardan beri, balki antiq davrdan buyon faylasuf va tilshunoslar tadqiq manbayi hisoblanadi. So‘z va uning ma’nosiga doir tadqiqotlarning juda ko‘pligi ham shundan dalolat beradi. XX asrning oxirlarida rus tilshunosligida agnonimlar tushunchasi paydo bo‘ldi. Rus tilshunoslari V.A.Markovkin va V.V. Markovkinlar agnonimlarga quyidagicha ta’rif berishgan: “leksik sintaksisning qo‘shma birligi bo‘lib, ona tilida so‘zlashuvchilar uchun noma’lum, tushunarsiz yoki qisman tushuniladigan ona tilidagi birliklardir”[1]. Agnonim atamasi ostida til egalarining ma’lum bir qismi uchun ma’nosi anglashilmaydigan, so‘zning ma’lum bir soha bilan bog‘liqligi tasavvur qilinadigan, so‘zning ma’nosi aniq bir narsa-predmet bilan bog‘liqligini bilgan holda boshqa narsa-predmetdan qaysi jihati bilan farqlanishi tushunilmaydigan, so‘zning biror narsa-predmetni anglatishi bilinadigan, lekin o‘sha narsa-predmetning xususiyatlari, undan qanday foydalanish, vazifalari tushunilmaydigan, so‘zning nimani anglatishi bilinadigan, ammo tegishli narsa-predmetning ko‘rinishi tasavvur qilinmaydigan, ma’lum bir soha vakillari uchun tushunarli bo‘lgan, qolgan soha vakillari tushunmaydigan birliklar birlashadi.

Asosiy qism. Atoqli tilshunos M. Yo‘ldoshev fikricha agnonimlar (lingvosentrik) emas, balki antropotsentrik hodisadir [4]. Bunga jamiyatdagi ba’zi til foydalanuvchilarining qobiliyati bilan bog‘liq hodisa sifatida qarash mumkin. Agnonim – bu bir tilda muloqot qiladiganlar uchun tushunarsiz bo‘lgan va muloqot jarayonida qandaydir shaklda uchrashishi kerak bo‘lgan so‘zdir. Agnonimlar hayotimizning turli sohalariga taalluqli bo‘lishi mumkin. Adabiyot, kino, musiqa, san’at, ijtimoiy hayot, iqtisod, siyosat, media soha, umuman olganda, barcha sohalarga tegishli bo‘ladi. Masalan, *gibrid, blokcheyn, startap, podkast, battle, messenjer, xeshteg, trend, party* kabi so‘zlar o‘zbek tilida so‘zlashuvchilarning ayrimlari uchun ma’nosi anglashilmaydigan so‘zlar, ya’ni agnonimlardir.

Agnonimiya hodisasi san’atning bir turi hisoblangan qo‘shiqchilik sohasida ham mavjud. Biz ushbu maqolamizda zamonaviy estrada qo‘shiqlari matnida qo‘llangan agnonim so‘zlarni tahlilga tortamiz.

Qo‘shiqchi G‘aybulla Tursunovning “Quralay” qo‘shig‘i matniga e’tibor qaratsak:

Sevarmushman boshqasini
Yo eslarman eskisini,
Yurarmushman yallo qilib
Jon-jonimdan to‘ydirvotti.
Quralay, ko‘zi quralay,
Hali rosa beraman dodingni.[6]

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da *quralay* so‘ziga quyidagicha ta’rif berilgan: 1. Kiyik yoki ohularning yosh bolasi. *Ularbek yil emas, oy emas, kun emas, soat sayin to‘lishib, quralayning ko‘zini nishonga oladigan merganga aylanibdi*[7; 284]. Yoshlar orasida ommalashgan ushbu qo‘shiqni deyarli barcha xirgoyi qiladi, lekin qo‘shiq matnida qo‘llangan *quralay* so‘zi juda ko‘pchilik uchun tushunarsiz, ya’ni bu so‘z ko‘p eshitilgan, inson ko‘zi ta’rifini beradigan belgini bildiradigan so‘zmi, biron jonzotni ifodalaydimi, aniq tasavvurga ega emas. Hamma ham uning kiyik yoki ohuning yosh bolasi ekanligini bilavermaydi, demak, o‘zbek tilida

so‘zlashuvchilarning ma’lum bir qismi uchun bu so‘z agnonim so‘zdir. Yana bir qo‘shiqqa e’tiborimizni qaratsak.

Rep yo‘nalishida ijod etuvchi Shaxriyorning “Do‘stmisan” qo‘shig‘i:

Dem-dem, deri-deri dem-dem,
Do‘st bo‘lgan edik yoshligimiz o‘tgan.
Kunlar oq-qora orada bo‘lgan,
Lekin ko‘chada hammamiz o‘sgan.
Bum, chiki-chiki bum, chiki pa-pa,
Do‘stimdan so‘ragan edim nega xafa:[5]

Qo‘shiq matnida qo‘llangan *dem-dem, deri-deri, bum, chiki-chiki, pa-pa* kabi so‘zlar hech qanday lug‘aviy ma’no anglatmaydigan, qo‘shiq ritmini yaratishga xizmat qiladigan so‘zlardir. Ushbu so‘zlar o‘zbek tilining izohli lug‘atida ham mavjud emas. Tilshunoslikda hech qanday ma’no anglatmaydigan, ma’nosi anglashilmaydigan bunday so‘zlar ham agnonim atamasi ostida birlashadi. Demak, matnda qo‘llangan agnonim so‘zlar qo‘shiq ritmini yaratishga xizmat qilgan. Bunday so‘zlar, folklorda, xususan bolalar folklorida qo‘llanishi juda ko‘plab uchraydi: *do‘rsa, attim-battim, eniki-beniki, ruki-faki.* Agnonimlar sirasiga kiruvchi bu so‘zlar bolalar folklor she’rlarida ritm va ohangni ta’minlovchi vositadir. Ushbu so‘zlar nutqiy hodisa sifatida muallif tafakkur va tasavvur olami hosilasi sanaladi. Hech qanday lug‘aviy ma’noga ega bo‘lmagan bunday agnonim so‘zlarni qo‘shiq matnlarida keluvchi *yey, ey, oh, bum, hay-hay, voy, obbo, voyey* kabi undovlardan farqlash lozim.

Yalli-yalli yalo
Yalo demasmaney.
Yalinganing bilan,
Yorim demasmaney.

Mashhur san’atkor Yulduz Usmonovaning “Yalli” taronasidan olingan yuqoridagi parchada *yalli-yalli, yalo* kabi agnonim so‘zlar qo‘llangan. Bu estrada taronasi xalq og‘zaki ijodi namunasi ta’sirida yaratilganiga guvoh bo‘lamiz. Bundan esa xalq og‘zaki ijodi qo‘shiqlarida ham, zamonaviy estrada qo‘shiqlarida ham agnonimlar qo‘llanadi, degan xulosaga kelish mumkin.

Omar taxallusi bilan ijod etuvchi qo‘shiqchining yoshlar orasida mashhur bo‘lgan “Vachacha” qo‘shig‘i matniga e’tibor qaratsak.

Hayot bu komediya
Kim uchun tragediya
Hech narsa qimediya
Yasha vachacha.
Ey vachacha vachacha
Vachacha yey vachacha
Vachacha vachacha
Vaya vaya vachacha.[6]

Qo‘shiq matnida qo‘llangan *vachacha, vaya vaya* so‘zlari ham hech qanday ma’no anglatmaydigan, lug‘aviy ma’noga ega bo‘lmagan agnonim so‘zlardir. O‘zbek tilining izohli lug‘atida ham bu so‘z uchramaydi. Qo‘shiqda bu so‘zlar sho‘x, o‘ynoqi ritmni yaratishga xizmat qilgan. Demak, qo‘shiq matnlarida qo‘llangan agnonim so‘zlar ma’lum bir estetik vazifa bajarishga xizmat qilar ekan. Vachacha so‘zi yoshlar orasida shu qadar ommalashdiki, hattoki savdo reklamalari matnida biron bir tovarning a’lo darajada ekanligini ko‘rsatish uchun. *Vachacha ko‘ylak! Olinglar! Chegirma! Vachacha! Endi ishlar vachacha!* kabi jumlalarga ham ko‘zimiz tushadi. Demak, vachacha so‘zi yoshlar ongida zo‘r, eng zo‘ri, zo‘r, shod-hurram yasha kabi “ma’nolarni anglatyapti”, holbuki bu so‘z lug‘aviy ma’noga ega bo‘lmasa ham. *Vachacha yey vachacha* satrida agnonim so‘z undov so‘z bilan birgalikda qo‘llangan. Oxirgi satrda *vachacha* so‘zi tovush o‘zgarishi bilan takrorlanishidan *vaya-vaya vachacha* kabi jumla hosil bo‘lgan.

Matnda qo‘llangan agnonim so‘zning sintaktik aloqaga kirishishiga guvoh bo‘lamiz: *Yasha vachacha*. Bu esa agnonim so‘zlarning morfologik va sintaktik xususiyatlarini chuqur tadqiq etish zaruriyatini tug‘diradi. Qo‘shiq matnlarida qo‘llanuvchi agnonimlar turlicha bo‘lishi mumkin: umuman lug‘aviy ma’noga ega bo‘lmagan *hoppa-hoppa, yalli-yalli, dem-dem, deri-deri, bum, chiki-chiki, pa-pa* kabi yoki lug‘aviy ma’noga ega, lekin til egalarining ma’lum bir qismi uchun tushunarsiz bo‘lgan agnonimlar(*quralay, jo‘ji qora* kabi). Bu shundan dalolat beradiki, agnonimlar til va matn o‘rtasidagi murakkab munosabatlarni ochib beruvchi muhim lingvistik hodisa sifatida namoyon bo‘ladi.

Xulosa. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, quyidagi xulosalarga kelish mumkinki, agnonimlar hayotimizning barcha sohalarida qo‘llangani kabi qo‘shiqchilik sohasida ham mavjud. Zamonaviy estrada qo‘shiq matnlarida qo‘llangan *hoppa-hoppa, yalli-yalli, dem-dem, deri-deri, bum, chiki-chiki, pa-pa*, *vachacha, vaya vaya* kabi agnonim so‘zlar turli xil estetik vazifa bajarishga, qo‘shiq ritmini, ohangini ta’minlashga xizmat qiladi. Agnonimlar til va matn o‘rtasidagi murakkab munosabatlarni ochib beruvchi muhim lingvistik hodisa sifatida namoyon bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Морковкин В.В., Морковкина А.В. Русские агнонимы: Слова, которые мы не знаем. Понятие, состав и смысловое разнообразие. – М.: 1997.

2.Yokubova Sh.Y. Qanday so‘zlarni agnonim deya olamiz? //ACADEMIC RESEARCH IN MODERN SCIENCE International scientific-online conference. – 2024, june

3.Yokubova Sh.Y. Xalq poetik nutqida agnonimlarning qo‘llanishi // Buxoro davlat universiteti ilmiy axboroti, 2025. 11-son. – B. 191-195.

4.Йўлдошев М. Агнонимлар ва уларнинг бадиий нутқда қўлланиши// Ўзбек тили ва адабиёти, 2007. 3-сон.

5.https://uz.lyricsus.com/

6.https://uzmatn.net/publ/teksty_pesen

7.O‘zbek tilining izohli lug‘ati. VI jildli. IV jild. – T.: G‘.G‘ulom, 2022.832-bet

Moxigul ALMARDONOVA,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
“Boshlang‘ich ta’lim metodikasi” kafedrasi o’qituvchisi
Moxigul.almardonova@bk.ru

SHAHRISABZ HUDUDIDAGI BA’ZI BIR TOPONIMLAR VA ULARNING KELIB CHIQISH TARIXI

Annotatsiya: ushbu maqolada Shahrisabz hududidagi toponimlarning shakllanishiga ta’sir etuvchi tabiiy-geografik, tarixiy, etnik, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy omillar kompleks tahlil qilinadi. Shuningdek, toponimlarning tarixiy taraqqiyot bosqichlari davrlar kesimida o‘rganilib, ularning semantik va lingvistik xususiyatlari yoritiladi. Tadqiqot natijalari hududiy toponimikaning tarixiy xotira va milliy merosni saqlashdagi ahamiyatini ochib beradi.

Kalit so‘zlar: *toponimika, etimologiya, geografik nomlar, lingvistika, tarixiy rivojlanish, semantika, Shahrisabz, madaniy meros*

Аннотация: в данной статье представлен всесторонний анализ природно-географических, исторических, этнических, социально-экономических и культурных факторов, влияющих на формирование топонимов на городской территории. Также изучаются этапы исторического развития топонимов в разрезе периодов, освещаются их семантические и лингвистические особенности. Результаты исследования раскрывают важность территориальной топонимии в исторической памяти и сохранении национального наследия.

Ключевые слова: *топонимика, этимология, географические названия, Лингвистика, историческое развитие, семантика, городская морковь, культурное наследие*

Annotation: this article provides a comprehensive analysis of the natural-geographical, historical, ethnic, socio-economic and cultural factors that affect the formation of toponyms in the urban area. Also, the stages of historical development of toponyms are studied in the cross section of periods, and their semantic and linguistic features are illuminated. The results of the study reveal the importance of territorial toponymy in historical memory and the preservation of national heritage.

Key words: *toponymy, etymology, Geographical Names, linguistics, historical development, semantics, Prince, cultural heritage*

Kirish. Toponimlar yoki joy nomlari insoniyat tarixining eng muhim manbalaridan biri hisoblanadi. Ular hududning tabiiy-geografik xususiyatlari, tarixiy jarayonlari, etnik tarkibi va madaniy an’analarini o‘zida jamlaydi. Shuning uchun toponimlarni o‘rganish nafaqat tilshunoslik, balki tarix, etnografiya va geografiya fanlari uchun ham muhim ilmiy ahamiyatga egadir.

Ma’lumki, joy nomlari hududning o‘tmishdagi tabiiy sharoiti, relyefi, o‘simlik va hayvonot olami, qazilma boyliklari kabilar haqida ham muhim ma’lumotlar beradi. Bundan tashqari, etnotoponimlar tarkibida ishtirok etgan etnonimlar orqali ma’lum bir hududda qaysi qabila, urug‘ vakillari istiqomat qilganligi, ularning yashash tarzi haqida ma’lumotga ega bo‘lish mumkin. Toponimning ma’nosini bilib olish, muayyan hudud haqida ko‘plab ma’lumotlarga ega bo‘lish uchun toponimik tadqiqotlar olib borish, buning natijasida joy nomlari lug‘atini tuzish kerak bo‘ladi. Hozirgi kunda bunday lug‘atlarga ehtiyoj nihoyatda katta.

Shahrisabz qadimdan Markaziy Osiyoning asosiy madaniy markazlaridan biri bo‘lib, bu hududda turli davrlarda shakllangan joy nomlari tarixiy taraqqiyotning muhim manbai sifatida xizmat qiladi. Mazkur maqolaning maqsadi – hududdagi toponimlarning shakllanish omillarini aniqlash va ularning rivojlanish bosqichlarini ilmiy asosda tahlil qilishdir.

Asosiy qism. Qashqadaryo viloyati qadimiy tarixga ega hududlardan biri bo‘lib, bu yerda shakllangan joy nomlari ko‘p asrlik tarixiy jarayonlarning mahsuli hisoblanadi. *Tadqiqot metodologiyasi* – mazkur tadqiqotda ilmiy tahlil, qiyosiy-lingvistik, tarixiy va semantik tahlil metodlaridan foydalanildi. Shuningdek, hudud toponimlari quyidagi mezonlar asosida tahlil qilindi:

- ✓ tarixiy manbalarga asoslangan tahlil;
- ✓ lingvistik va etimologik tahlil;
- ✓ geografik va madaniy xususiyatlarni aniqlash.

Mazkur metodlar yordamida joy nomlarining hudud tarixidagi o‘rni va ahamiyati aniqlab berildi.

1. Tabiiy-geografik omillar. Toponimlarning shakllanishida eng qadimgi va asosiy omillardan biri tabiiy muhit hisoblanadi. Shahrisabz hududi tog‘li va vodiyli relyefga ega bo‘lib, bu yerda ko‘plab joy nomlari aynan tabiiy xususiyatlarga asoslangan.

2. Tarixiy omillar. Shahrisabz hududi qadimgi sivilizatsiyalar chorrahasida joylashganligi sababli, bu yerda shakllangan toponimlar turli tarixiy davrlar izini saqlab qolgan. Qadimgi Baqtriya, Sug‘diyona, keyinchalik Temuriylar davriga oid nomlar bunga misol bo‘la oladi. Ayrim joy nomlari tarixiy voqealar yoki mashhur shaxslar nomi bilan bog‘liq holda yuzaga kelgan. Bu esa toponimlarni tarixiy manba sifatida o‘rganish imkonini beradi. Misol tariqasida qator qishloqlar keltiriladi:

PALANDARA – qishloq. Qashqadaryo viloyatining Shahrisabz tumanidagi qishloq nomi. Forscha **palang** – *yo'lbars, qoplon* ma'nosidadir. Demak, **Palangdara** toponimi *qoplonlar darasi* ma'nosini anglatadi.

QAYNAQUVDI – Qashqadaryo viloyatining Shahrisabz tumanidagi Suvtushar qishlog'i, guzar. Toponimning kelib chiqishi to'g'risida quyidagi taxminlar mavjud: 1. Joy nomi suv qaynab toshgandagi holat – *qaynadi – quvildi* ma'nosidagi *qaynadi, quvildi* birikmasidan shakllangan: *qaynadi+quvildi > qayna quvildi > qayna quvdi > Qaynaquvdi.* Bu taxminiy fikrga qo'shilib bo'lmaydi. 2. Ushbu toponim uchta ma'noli qismdan tashkil topgan: *qayna, quv, -di.* Ushbu ma'noli bo'laklarning birinchisi sinxron planda bir o'zak morfemadan tashkil topgan. Ammo diaxron planda bu topoleksema ikki o'zak morfemadan iborat: *qayin +ona*. Mazkur ikkala qism talaffuz qilingan vaqtda fonetik hodisalardan biri bo'lgan tovush tushishi hodisasi ro'y berib, ular bir o'zak morfema holatiga kelgan: *qayin + ona > qayinona > qayna*. Bu yerda ot so'z turkumidagi *qayna* so'zi toponim tarkibidagi topo asos vazifasini bajargan. Ikki so'zning birikishi tufayli *qayin +ona > qayinona > qayna* so'zi hosil bo'lgan.

QORALARCHA – qishloq. Qashqadaryo viloyati Shahrisabz tumani. Qoralar – etnonim (X.Doniyorov. O'zbek shajara va shevalari, 81-bet). Toponim hosil qiluvchi kichraytiruvchi *-cha* affiksi bu toponimning xuddi shu nomdagi obyektdan ("ikkinchi" ma'nosida) keyinroq paydo bo'lganligini bildiradi.

QORAPOYCHA – qishloq. Qashqadaryo viloyatining Shahrisabz tumanidagi qishloq nomi (pocha, poicha – baraban tayoqchasi, ikra); *qorapoycha* – "qora oyoqli" – etnonim.

3. Etnik omillar. Hududda xilma – xil etnik guruhlar yashab kelganligi uchun joy nomlarida ularning izlari yaqqol namoyon bo'ladi. Qabila, urug' yoki elat nomlari asosida shakllangan toponimlar etnik tarixni o'rganishda asosiy manba sifatida qaraladi. Masalan, ayrim qishloq nomlari o'sha hududda yashagan urug' yoki qabilaning nomi bilan atalgan bo'lishi mumkin.

4. Ijtimoiy-iqtisodiy omillar. Toponimlar ko'pincha hudud aholisi shug'ullangan asosiy xo'jalik faoliyati bilan bog'liq holda shakllanadi. Shahrisabz hududida dehqonchilik va bog'dorchilik rivojlanganligi sababli "Bog'zor", "Dehqonobod" kabi nomlar keng tarqalgan. Bu turdagi toponimlar iqtisodiy hayotning tarixiy rivojlanishini aks ettiradi.

5. Madaniy va diniy omillar. Muqaddas joylar, ziyoratgohlar va diniy inshootlar bilan bog'liq toponimlar ham muhim o'rin tutadi. Bu nomlar hudud aholisi e'tiqodi va ma'naviy qadriyatlarini aks ettiradi. Shuningdek, mashhur tarixiy shaxslar nomi bilan bog'liq joy nomlari ham keng uchraydi.

Mustaqillik yillarida milliy qadriyatlarni tiklash jarayoni natijasida tarixiy nomlarga qaytish tendensiyasi kuchaydi. Yangi toponimlar milliy o'zlikni ifodalashga xizmat qilmoqda. Shahrisabz hududidagi toponimlar tilshunoslik nuqtayi nazaridan ham muhim ahamiyatga ega. Ular fonetik, morfologik va semantik jihatdan tahlil qilinishi mumkin.

Shahrisabz toponimlarining lingvomadaniy xususiyatlari. Shahrisabz tumani toponimlari lingvomadaniy jihatdan ham boy hisoblanadi. Ular xalq og'zaki ijodi, urf-odatlar va madaniy qadriyatlar bilan chambarchas bog'liq. Masalan, ayrim joy nomlari xalq orasida mavjud bo'lgan rivoyatlar yoki tarixiy voqealar bilan izohlanadi. Bu esa toponimlarning nafaqat lingvistik, balki madaniy va ma'naviy ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

Tadqiqot natijalari. Tadqiqot natijalariga ko'ra quyidagi xulosalarga kelindi:

- ✓ Shahrisabz toponimlari ko'p qatlamli tarixiy jarayonlar natijasida shakllangan.
- ✓ Joy nomlarining aksariyati hududning tabiiy-geografik xususiyatlari bilan bog'liq.
- ✓ Ayrim toponimlar hududda yashagan etnik guruhlar yoki tarixiy voqealar bilan bog'liq holda shakllangan.
- ✓ Toponimlar hududning tarixiy xotirasini saqlashda muhim ilmiy manba hisoblanadi.

Xulosa. Shahrisabz hududidagi joy nomlari murakkab va ko'p qirrali jarayonlar natijasida shakllangan bo'lib, ular hududning tarixiy, madaniy va ijtimoiy hayotini aks ettiradi. Toponimlarni o'rganish nafaqat tilshunoslik, balki tarix, geografiya va madaniyatshunoslik fanlari uchun ham muhim ahamiyatga ega. Shahrisabz toponimlarini o'rganish hudud tarixini, madaniy merosini va etnomadaniy jarayonlarini tadqiq qilishda muhim ilmiy ahamiyatga ega. Joy nomlari hududning tabiiy sharoiti, tarixiy voqealari hamda xalqning turmush tarzi haqida muhim ma'lumotlarni saqlab keladi. Shu bois toponimlarni ilmiy jihatdan o'rganish va ularni tizimli ravishda tadqiq qilish hudud tarixini tiklash hamda milliy madaniy merosni saqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Kelgusida Shahrisabz tumani toponimlarini yanada chuqurroq o'rganish hududning tarixiy va madaniy rivojlanishini yanada kengroq yoritish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Begmatov E. O'zbek toponimikasi asoslari. – Toshkent.
2. Nafasov T. O'zbekiston toponimlari. – Toshkent.
3. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. – Toshkent.
4. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining etimologik lug'ati. – Toshkent.
5. O'zbekiston geografiyasi bo'yicha ilmiy tadqiqotlar to'plami.

Gavharbibi MUHTOROVA,
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekoston milliy universiteti
Jizzah filiali Xorijiy tillar kafedrasi o‘qituvchisi

ILMIY FANTASTIK ASARLARDA TARJIMA MUAMMOLARI: RAY BRADBURY ASARLARI ASOSIDA

Annotatsiya: ushbu maqolada Rey Bredberi asarlari misolida ilmiy fantastik matnlarni o‘zbek tiliga tarjima qilishning lingvistik va uslubiy muammolari tadqiq etilgan. Tadqiqot davomida qiyosiy-stilistik va kontekstual tahlil metodlari yordamida mualliflik neologizmlari hamda majoziy obrazlarning tarjimada qayta yaratilishi o‘rganildi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, ilmiy fantastika tarjimasida matn jozibasini saqlash uchun shunchaki so‘zma-so‘z o‘girish emas, balki pragmatik moslashuv va kontekstual muqobillarni to‘g‘ri tanlash lozim. Maqola xulosalari badiiy tarjima nazariyasi va amaliyoti mutaxassislari uchun tavsiya bo‘lib xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: *ilmiy fantastika, tarjima muammolari, Rey Bredberi, neologizmlar, uslubiy moslashuv, badiiy kontekst, okkazionalizmlar.*

Annotation: this article examines the linguistic and stylistic problems of translating science fiction texts into the Uzbek language, focusing on the works of Ray Bradbury. Utilizing comparative-stylistic and contextual analysis methods, the research investigates the recreation of authorial neologisms and metaphorical imagery in translation. The results indicate that preserving the text’s appeal in science fiction translation requires pragmatic adaptation and the proper selection of contextual equivalents rather than simple literal translation. The conclusions serve as recommendations for specialists in the theory and practice of literary translation.

Key words: *science fiction, translation problems, Ray Bradbury, neologisms, stylistic adaptation, literary context, occasionalisms.*

Аннотация: в данной статье на примере произведений Рэя Брэдбери исследуются лингвистические и стилистические проблемы перевода научно-фантастических текстов на узбекский язык. С помощью методов сравнительно-стилистического и контекстуального анализа изучено воссоздание авторских неологизмов и метафорических образов в переводе. Результаты показывают, что для сохранения привлекательности текста при переводе научной фантастики необходимы прагматическая адаптация и правильный подбор контекстуальных эквивалентов, а не буквальный перевод. Выводы статьи служат рекомендациями для специалистов в области теории и практики художественного перевода.

Ключевые слова: *научная фантастика, проблемы перевода, Рэй Брэдбери, неологизмы, стилистическая адаптация, художественный контекст, окказионализмы.*

Kirish. Jahon adabiyoti xonadonida ilmiy fantastika janri insoniyatning kelajak, texnologik taraqqiyot va koinot sirlariga bo‘lgan qiziqishini aks ettiruvchi eng yetakchi yo‘nalishlardan biriga aylandi. Ushbu janrning buyuk namoyandasi Rey Bredberi o‘z asarlarida nafaqat texnik kashfiyotlarni bashorat qilgan, balki inson ma’naviyati va jamiyat kelajagini chuqur falsafiy tahlil ostiga olgan. Biroq ilmiy fantastik asarlarni, xususan, Bredberining o‘ziga xos lirik va majoziy tilga boy matnlarini boshqa tillarga tarjima qilish hozirgi kunga qadar tarjimashunoslikning eng murakkab hamda kam o‘rganilgan muammolaridan biri bo‘lib qolmoqda. Tarjimon zimmasiga nafaqat o‘zga tilli ilmiy-texnik tushunchalarni aks ettirish, balki muallifning badiiy-estetik niyatini saqlab qolish kabi o‘ta mas’uliyatli vazifa yuklanadi.

O‘zbek tarjimashunosligida ham ilmiy fantastika janriga mansub asarlarni o‘girish borasida ma’lum bir tajriba to‘plangan bo‘lsa-da, ko‘p hollarda fantastik terminlar va muallif yaratgan metaforalarni milliylashtirishda uslubiy g‘alizliklar hamda ma’noviy uzilishlar ko‘zga tashlanadi. Bredberi ijodining o‘ziga xosligi shundaki, u sof ilmiy terminologiyadan ko‘ra ko‘proq she’riy proza, ramziylik va kutilmagan assotsiatsiyalardan foydalanadi, bu esa tarjimondan yuksak mahorat va lingvistik sezgirlikni talab qiladi. Shundan kelib chiqqan holda, ushbu tadqiqotning maqsadi Rey Bredberi asarlari misolida ilmiy fantastik matnlarni o‘zbek tiliga tarjima qilishning nazariy va amaliy muammolarini aniqlash, matndagi tushunchalarni qayta yaratish mexanizmlarini ko‘rsatish hamda janr xususiyatlarini saqlashning maqbul usullarini ilmiy jihatdan asoslab berishdan iboratdir.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya.

Ilmiy fantastika janri matnlarini tarjima qilish muammolari xalqaro miqyosda janr tabiati hamda terminologik moslashuv nuqtayi nazaridan keng o‘rganilgan bo‘lib, g‘arb va sharq olimlari fantastik matnlardagi reallikdan yiroq tushunchalarni milliy tillarda berish qoidalarini tadqiq etishgan. Mahalliy olimlarimiz ham badiiy tarjimaning leksik va semantik muammolari, asar ruhini saqlash hamda o‘zbek tilining ifoda imkoniyatlarini boyitish borasida salmoqli izlanishlar olib borganlar. Shunga qaramay, Rey Bredberining individual uslubi, ya’ni uning asarlaridagi texnik terminlarning falsafiy-lirik yuklama bilan berilishi va ularning o‘zbekcha tarjimalaridagi adekvatlik darajasi alohida monografik planda yetarlicha tizimli tahlil qilinmagan.

Mazkur tadqiqotda muammoni har tomonlama yoritish uchun qiyosiy-stilistik tahlil, komponentlar tahlili va kontekstual o‘rganish metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot obyekti sifatida Rey Bredberining dunyoga mashhur asarlari va ularning o‘zbek tilidagi mavjud tarjimalari tanlab olindi. Ish jarayonida inglizcha asl matndagi neologizmlar, metaforik birikmalar va mualliflik okkazionalizmlari o‘zbekcha muqobillari bilan chiziqli ravishda qiyoslandi. Tarjimalarning sifati va asar g‘oyasiga muvofiqligi badiiy adekvatlik

hamda pragmatik ekvivalentlik mezonlari asosida lingvistik ekspertizadan o‘tkazildi va baholandi.

Natijalar. O‘tkazilgan qiyosiy-stilistik tahlillar natijasida Rey Bredberi asarlarining o‘zbekcha tarjimalarida muallif uslubini aks ettirish borasida ham yutuqlar, ham jiddiy semantik muammolar mavjudligi aniqlandi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, tarjimonlar yozuvchining lirik tasvirlarini va tabiat tasviriga oid o‘xshatishlarini o‘zbek tilining ichki imkoniyatlaridan kelib chiqib jozibali ifodalay olganlar, biroq sof fantastik elementlar va kelajak texnologiyalariga oid tushunchalar tarjimasida sezilarli darajashda ma’no xiralashuviga yo‘l qo‘yilgan. Ayniqsa, muallif o‘ylab topgan yangi so‘zlar, ya’ni okkazionalizmlarni o‘zbek tiliga shunchaki tasvifiy usulda yoki so‘zma-so‘z ag‘darish oqibatida matnning jozibasi hamda ilmiy fantastikaga xos bo‘lgan ixchamlik yo‘qolganligi ma’lum bo‘ldi.

Ushbu amaliy tahlillar statistik va lingvistik jihatdan umumlashtirilganda, asl matndagi maxsus tushunchalarning salkam qirq foizi tarjimada o‘zining funksional hamda estetik yuklamasini qisman yo‘qotganligi aniqlandi. Masalan, Bredberi personajlarining ruhiy holatini va ular yashayotgan sun’iy muhitni ifodalovchi ramziy birikmalar ko‘p hollarda an’anaviy maishiy tushunchalar bilan almashtirib yuborilgan. Shu bilan birga, asarlardagi sivilizatsiyalar to‘qnashuvi va texnikaviy evrilishlar tasvirlangan qismlarda kontekstual muqobil topish o‘rniga transliteratsiya usulidan haddan tashqari ko‘p foydalanish o‘quvchining asar mohiyatini to‘liq anglashini qiyinlashtirganligi ma’lum bo‘ldi.

Muhokama. Tadqiqot davomida olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, ilmiy fantastik matnlarni, xususan, Rey Bredberi ijodini tarjima qilishda faqatgina ikki til lug‘at boyligiga tayanish yetarli emas, balki tarjimon badiiy matndagi har bir texnik termin orqasiga yashiringan falsafiy ma’noni ham ilg‘ab olishi shart. Bredberining lirik nasri o‘ziga xos ritm va ohangga ega bo‘lib, u kelajak olamini tasvirlashda quruq mexanik tushunchalardan qochadi va ularga jonli, majoziy xarakter baxsh etadi. Shuning uchun ham tarjimada ushbu ohangni va ramzlarni yo‘qotish asarning umumiy g‘oyaviy-badiiy saviyasiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi va ilmiy fantastik asarni oddiy sarguzasht qissaga aylantirib qo‘yadi.

Ushbu muammolarni bartaraf etish usullari muhokama qilinganda, fantastik neologizmlarni o‘zbek tiliga o‘girishda so‘z yasashning faol modellaridan foydalanish hamda tilda mavjud bo‘lgan ko‘chma ma’noli so‘zlar zaxirasini ishga solish zarurligi oydinlashdi. Olingan ma’lumotlar tarjimashunoslikdagi mavjud nazariy qarashlar bilan qiyoslanganda, ilmiy fantastika tarjimasida pragmatik moslashuv usulining o‘rni beqiyos ekanligi yana bir bor tasdiqlandi. Tarjimon muallif yaratgan dunyoning qonun-qoidalarini chuqur his qilishi va uni o‘zbek kitobxoni tushunchasiga moslashtirishda o‘zbek tilining sintaktik va semantik qonuniyatlarini buzmasdan, yangi badiiy joziba yarata olishi lozim.

Xulosa. Rey Bredberi asarlari asosida olib borilgan ushbu ilmiy tadqiqot xulosa o‘rnida shuni ko‘rsatadiki, ilmiy fantastik asarlar tarjimasi badiiy tarjimashunoslikning alohida yondashuv talab qiladigan maxsus yo‘nalishidir. Muallif uslubiga xos bo‘lgan lirik proza, falsafiy mushohada va fantastik terminlar majmuasini o‘zbek tilida adekvat qayta yaratish uchun an’anaviy tarjima qoliplaridan chiqib, ijodiy va kontekstual yondashuvlardan unumli foydalanish lozim. Tajribalar shuni isbotladiki, mualliflik yangi so‘zlarini o‘zbek tilining so‘z yasash imkoniyatlari doirasida muvaffaqiyatli muqobillashtirish asar ta’sirchanligini ta’minlovchi bosh omil hisoblanadi.

Xulosani amaliy jihatdan ta’kidlash joizki, o‘zbek kitobxonlarida ilmiy fantastik dunyoqarashni to‘g‘ri shakllantirish va janrning asl badiiy qiymatini yetkazib berish uchun tarjimonlar nafaqat tilshunos, balki ma’lum ma’noda davrning ilmiy-texnikaviy taraqqiyotidan boxabar mutaxassis ham bo‘lishlari lozim. Kelgusida o‘zbek maktablarida jahon adabiyoti durdonalarini, jumladan, ilmiy fantastika namunalarini o‘qitish tizimini takomillashtirish hamda tarjimonlar tayyorlash dasturlariga fantastik matnlarni o‘girish metodikasini alohida kurs sifatida kiritish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Axmedova, Sh. (2022). *Badiiy tarjimaning nazariy va amaliy asoslari*. Fan va texnologiyalar nashriyoti.
2. Bradbury, R. (1953). *Fahrenheit 451*. Ballantine Books.
3. Bradbury, R. (2018). *Farengeyt bo‘yicha 451 daraja* (M. Mirzayev, Tarj.). Yangi asr avlodi.
4. Karimov, S. (2024). Badiiy matnda okkazionalizmlar va ularning tarjimada qayta yaratilishi. *Tarjimashunoslik muammolari*, 2, 88–95.
5. Musaev, K. (2019). *Tarjima nazariyasi asoslari*. O‘qituvchi nashriyoti.
6. Suvin, D. (1979). *Metamorphoses of Science Fiction: On the Poetics and History of a Literary Genre*. Yale University Press.
7. Venuti, L. (2017). *The Translator’s Invisibility: A History of Translation*. Routledge.
8. Yo‘ldoshev, M. (2021). *Badiiy matn lingvopoetikasi*. Akademnashr.

Abdullo JONIQULOV,
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti
stajyor o‘qituvchisi

SINXRON TARJIMA FAOLIYATINING PSIXOLINGVISTIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada sinxron tarjima faoliyatining psixolingvistik xususiyatlari, tarjimon ongida kechadigan idrok, tushunish, xotira, diqqat, nutq ishlab chiqarish va qaror qabul qilish jarayonlari tahlil qilinadi. Maqolada sinxron tarjimada ishchi xotira, diqqatni taqsimlash, semantik tahlil, antisipatsiya, nutq tezligi va kognitiv yuklama kabi omillarning ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, tarjimonning psixolingvistik kompetensiyasi, til birliklarini tez qayta ishlash qobiliyati hamda stressga chidamliligi sinxron tarjima samaradorligini belgilovchi asosiy omillar sifatida ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: *sinxron tarjima, psixolingvistika, ishchi xotira, diqqat, kognitiv yuklama, nutq idroki, tarjima strategiyalari, antisipatsiya, bilingvizm.*

Annotation: this article analyzes the psycholinguistic features of simultaneous interpreting activity, including the processes of perception, comprehension, memory, attention, speech production, and decision-making that occur in the interpreter’s mind. The article highlights the importance of such factors as working memory, attention distribution, semantic analysis, anticipation, speech rate, and cognitive load in simultaneous interpreting. In addition, the interpreter’s psycholinguistic competence, ability to process linguistic units rapidly, and resistance to stress are considered as key factors determining the effectiveness of simultaneous interpreting.

Key words: *simultaneous interpreting, psycholinguistics, working memory, attention, cognitive load, speech perception, interpreting strategies, anticipation, bilingualism.*

Аннотация: в данной статье анализируются психолингвистические особенности деятельности синхронного перевода, а также процессы восприятия, понимания, памяти, внимания, речепорождения и принятия решений, происходящие в сознании переводчика. В статье освещается значение таких факторов, как рабочая память, распределение внимания, семантический анализ, антиципация, темп речи и когнитивная нагрузка в процессе синхронного перевода. Кроме того, психолингвистическая компетенция переводчика, способность быстро обрабатывать языковые единицы и стрессоустойчивость рассматриваются как основные факторы, определяющие эффективность синхронного перевода.

Ключевые слова: *синхронный перевод, психолингвистика, рабочая память, внимание, когнитивная нагрузка, восприятие речи, переводческие стратегии, антиципация, билингвизм.*

Kirish. Zamonaviy globallashuv jarayonida xalqaro muloqot, diplomatik uchrashuvlar, ilmiy konferensiyalar, siyosiy forumlar va biznes muzokaralarining samarali tashkil etilishi tarjima faoliyatiga bevosita bog‘liq. Ayniqsa, sinxron tarjima xalqaro kommunikatsiyaning eng tezkor va murakkab shakllaridan biri hisoblanadi. Bu jarayonda tarjimon tinglovchi va so‘zlovchi o‘rtasidagi til to‘sig‘ini deyarli real vaqt rejimida bartaraf etadi. Oddiy qilib aytganda, so‘zlovchi hali gapini tugatmasdan, tarjimon allaqachon uning fikrini boshqa tilda yetkazishga majbur bo‘ladi. Inson miyasi uchun bu shunchaki ish emas, kichik hajmdagi kognitiv marafon.

Sinxron tarjima jarayoni lingvistik bilim bilangina cheklanmaydi. Unda psixologik, neyrofiziologik va psixolingvistik omillar ham muhim o‘rin tutadi. Tarjimon bir vaqtning o‘zida tinglaydi, axborotni idrok qiladi, mazmunni tahlil qiladi, eslab qoladi, boshqa tilda mos ifoda tanlaydi va nutq shaklida chiqaradi. Shu sababli sinxron tarjima psixolingvistika nuqtayi nazaridan til va tafakkur o‘zaro munosabatini chuqur o‘rganish uchun juda muhim obyekt hisoblanadi.

Asosiy qism. Psixolingvistika tilni idrok etish, tushunish va nutq ishlab chiqarish jarayonlarini inson ongidagi psixik mexanizmlar bilan bog‘liq holda o‘rganadi. Sinxron tarjima esa aynan shu jarayonlarning eng murakkab ko‘rinishlaridan biridir. Chunki tarjimon manba tilidagi nutqni eshitadi, uni semantik jihatdan qayta ishlaydi va maqsad tilida yangi nutq shaklida ifodalaydi.

Bu jarayonda uch asosiy bosqich ajratiladi: nutqni qabul qilish, mazmunni qayta ishlash va tarjima nutqini yaratish. Birinchi bosqichda tarjimon fonetik, leksik va grammatik signallarni qabul qiladi. Ikkinchi bosqichda u eshitilgan axborotning asosiy ma’nosini aniqlaydi. Uchinchi bosqichda esa ushbu ma’no maqsad tilining grammatik, leksik va uslubiy me’yorlariga mos holda ifodalanadi.

Sinxron tarjimaning murakkabligi shundaki, bu bosqichlar ketma-ket emas, balki deyarli bir vaqtda amalga oshadi. Tarjimon bir gapni tarjima qilayotgan paytda keyingi gapni ham eshitayotgan bo‘ladi. Shu sababli sinxron tarjima doimiy ravishda “tinglash, tushunish, saqlash va gapirish” jarayonlarining parallel ishlashini talab qiladi.

Sinxron tarjimada nutqni idrok qilish eng birinchi va eng muhim bosqichlardan biridir. Tarjimon so‘zlovchining talaffuzi, nutq tezligi, intonatsiyasi, pauzalari va urg‘ularini tezda anglab olishi kerak. Nutqda fonetik noaniqliklar, aksent, shovqin yoki murakkab terminlar mavjud bo‘lsa, idrok jarayoni yanada qiyinlashadi. Albatta, hayot buni yetarlicha murakkab qilmagandek, yana mikrofondagi shovqin ham qo‘shiladi.

Tushunish jarayoni faqat alohida so‘zlarni tanib olish bilan cheklanmaydi. Tarjimon gapning umumiy mazmuni, konteksti, mantiqiy bog‘liqligi va kommunikativ maqsadini ham anglaydi. Masalan, siyosiy nutqda biror iboraning bevosita lug‘aviy ma’nosi emas, balki uning diplomatik ohangi muhim bo‘lishi mumkin. Ilmiy nutqda esa terminlarning aniq ekvivalenti va tushunchaviy izchilligi birinchi o‘ringa chiqadi.

Psixolingvistik jihatdan bu jarayon pastdan yuqoriga va yuqoridan pastga qayta ishlash mexanizmlari orqali amalga oshadi. Pastdan yuqoriga qayta ishlashda tarjimon tovushlardan so‘zlarga, so‘zlardan gaplarga qarab ma’no hosil qiladi. Yuqoridan pastga qayta ishlashda esa u avvalgi bilimlari, mavzu bo‘yicha tajribasi va kontekst asosida kelayotgan axborotni taxmin qiladi.

Sinxron tarjimada ishchi xotira markaziy ahamiyatga ega. Ishchi xotira qisqa muddatli axborotni saqlash va uni bir vaqtning o‘zida qayta ishlash imkonini beradi. Tarjimon eshitgan gapning boshlanishini xotirada ushlab turadi, keyingi qismini tinglaydi va shu paytda maqsad tilida tarjima variantini yaratadi.

Agar so‘zlovchi uzun, murakkab va ko‘p ergash gapli jumlalar ishlatsa, tarjimonning ishchi xotirasiga tushadigan yuk ortadi. Masalan, ingliz tilidagi ba’zi gaplarda asosiy ma’no gap oxirida kelishi mumkin. Bunday vaziyatda tarjimon butun gapni xotirada ushlab turishi yoki oldindan taxmin qilish strategiyasidan foydalanishi kerak bo‘ladi.

Ishchi xotiraning cheklanganligi sinxron tarjimada xatolarga sabab bo‘lishi mumkin. Tarjimon ayrim tafsilotlarni tushirib qoldirishi, raqamlarni noto‘g‘ri aytishi yoki gapning sintaktik tuzilishini soddalashtirishi mumkin. Bu xatolar ko‘pincha bilim yetishmasligidan emas, balki kognitiv yuklamaning haddan tashqari ortib ketishidan kelib chiqadi.

Sinxron tarjima diqqatni bir nechta vazifalar o‘rtasida taqsimlashni talab qiladi. Tarjimon bir vaqtning o‘zida so‘zlovchini tinglaydi, tarjima qiladi, o‘z nutqini nazorat qiladi va keyingi axborotni kutadi. Bu jarayon oddiy multitasking emas. Bu, rostini aytganda, inson miyasini “ham eshit, ham gapir, ham unutma, ham adashma” degan rejimga majburlashdir.

Kognitiv yuklama uch asosiy omil bilan bog‘liq: nutq tezligi, mavzuning murakkabligi va til juftligining farqlari. Nutq tezligi yuqori bo‘lsa, tarjimonning tahlil qilish va ifodalashga ajratadigan vaqti kamayadi. Mavzu murakkab bo‘lsa, terminlar va maxsus tushunchalarni qayta ishlash ko‘proq resurs talab qiladi. Til juftligi orasidagi grammatik va sintaktik farqlar esa gap tuzilishini qayta tashkil qilishni talab etadi.

Masalan, ingliz va o‘zbek tillarida so‘z tartibi farqlanadi. Ingliz tilida ega, kesim, to‘ldiruvchi tartibi ustun bo‘lsa, o‘zbek tilida kesim ko‘pincha gap oxirida keladi. Sinxron tarjimada bunday farq tarjimonni gapni qayta qurishga majbur qiladi. Bu esa qo‘shimcha psixolingvistik kuch sarflashni talab etadi.

Xulosa. Sinxron tarjima faoliyati psixolingvistik jihatdan juda murakkab jarayon bo‘lib, u bir vaqtning o‘zida nutqni idrok etish, tushunish, xotirada saqlash, qayta ishlash va maqsad tilida ifodalashni talab qiladi. Bu faoliyatda ishchi xotira, diqqatni taqsimlash, kognitiv yuklama, antisipatsiya, nutq ishlab chiqarish va emotsional barqarorlik asosiy o‘rin tutadi.

Sinxron tarjimonning muvaffaqiyati faqat ikki tilni bilish darajasi bilan belgilanmaydi. U til tizimlarini tez qayta ishlash, asosiy ma’noni ajratish, murakkab nutqni soddalashtirish, stress ostida aniq fikrlash va auditoriyaga tushunarli nutq yetkazish qobiliyatiga ham bog‘liq. Shu bois sinxron tarjima psixolingvistika, tarjimashunoslik va kognitiv fanlar kesishgan nuqtada joylashgan alohida ilmiy-amaliy faoliyat turi sifatida o‘rganilishi lozim.

Umuman olganda, sinxron tarjima inson til qobiliyatining eng yuqori darajadagi namoyonlaridan biridir. Unda til, tafakkur, xotira, diqqat va nutq mexanizmlari birgalikda ishlaydi. Shuning uchun sinxron tarjima faoliyatini psixolingvistik jihatdan chuqur o‘rganish tarjimonlarni tayyorlash metodikasini takomillashtirish, tarjima sifatini oshirish va professional kompetensiyani rivojlantirish uchun muhim nazariy hamda amaliy ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Baddeley A. Working Memory, Thought, and Action. Oxford: Oxford University Press, 2007.
2. Chernov G. V. Inference and Anticipation in Simultaneous Interpreting. Amsterdam: John Benjamins, 2004.
3. Setton R. Simultaneous Interpretation: A Cognitive-Pragmatic Analysis. Amsterdam: John Benjamins, 1999.

Dildora TASHMUXAMEDOVA,
Oriental universiteti katta o‘qituvchisi

XITOY TILI TAQLID SO‘ZLARIDA OHANG ISHTIROKI

Annotatsiya: mazkur maqolada xitoy tilidagi taqlid so‘zlarning fonetik, fonosemantik va prosodik xususiyatlari, ayniqsa ohanglarning semantik yuklama hosil qilishdagi o‘rni tahlil qilinadi. Tadqiqotda mandarin xitoy tilidagi taqlidiy birliklarning umumiy leksik qatlamdan tonal jihatdan sezilarli farqlanishi ko‘rsatib beriladi. Xususan, yuqori tekis ohang — birinchi tonning taqlid so‘zlarda ustun qo‘llanishi ularning tovush hodisalarini bevosita, aniq va ekspressiv ifodalashiga xizmat qilishi aniqlanadi. Maqolada Thompson, F. Egbohar, Mok hamda Li Liangmei tadqiqotlari asosida taqlid so‘zlarning ohang taqsimoti, tarixiy qatlamlari va zamonaviy mandarin tilidagi qo‘llanish xususiyatlari yoritiladi.

Kalit so‘zlar: *xitoy tili, taqlid so‘zlar, onomatopeya, fonetika, fonosemantika, prosodiya, ohang, tonallik, mandarin tili, ikoniklik, tovush ramziyligi, reduplikatsiya*

Аннотация: в данной статье рассматриваются фонетические, фоносемантические и просодические особенности звукоподражательных слов в китайском языке, особое внимание уделяется роли тона в формировании их семантической нагрузки. В исследовании показано, что звукоподражательные единицы в мандаринском китайском языке существенно отличаются от общей лексики по тональному распределению. Особенно подчёркивается преобладание высокого ровного тона — первого тона, который способствует более точной, выразительной и непосредственной передаче звуковых явлений. На основе исследований Thompson, F. Egbohare, Mok и Li Liangmei анализируются тональные особенности, исторические пласты и современные формы употребления китайских звукоподражаний.

Ключевые слова: *китайский язык, звукоподражательные слова, ономатопея, фонетика, фоносемантика, просодия, тон, тональность, мандаринский язык, иконичность, звуковой символизм, редупликация*

Annotation: this article examines the phonetic, phonosemantic and prosodic features of onomatopoeic words in Chinese, with particular emphasis on the role of tone in shaping their semantic value. The study demonstrates that onomatopoeic units in Mandarin Chinese differ significantly from the general lexical layer in terms of tonal distribution. Special attention is paid to the dominance of the high-level tone, or first tone, which contributes to the direct, vivid and expressive representation of sound events. Drawing on the studies of Thompson, F. Egbohare, Mok Li Liangmei and the article analyzes tonal distribution, historical layers and the usage of onomatopoeic words in modern Mandarin.

Key words: *Chinese language, onomatopoeic words, onomatopoeia, phonetics, phonosemantics, prosody, tone, tonality, Mandarin Chinese, iconicity, sound symbolism, reduplication*

Taqlidlarni fonetik aspektlarini o‘rganish davomida ohang masalasini chetlab o‘tish mumkin emas, nazarimizda. Xitoy tili tonallikka asoslangan tillar oilasiga mansub bo‘lib, unda ohang, har bir bo‘g‘inga xos balandlik konturi, so‘zlar orasidagi semantik tafovutlarni belgilovchi asosiy fonologik vosita hisoblanadi. Tonlarning mavjudligi xitoy tili fonologiyasida morfemal darajadagi nozik semantik farqlanishni ifodalashda va xususan ikoniklik, ya’ni tovush va ma’no o‘rtasidagi tabiiy munosabatni yuzaga chiqarishda alohida o‘rin tutadi.

Har bir bo‘g‘inning o‘ziga xos ohangga ega bo‘lishi bu tilda so‘z ma’nolarining fonologik jihatdan farqlanishini ta’minlaydi. Ayniqsa, taqlid so‘zlarda ohanglar semantik yuklama bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, tovushlar, harakatlar va hissiy holatlarni aniq va jonli ifodalash imkonini beradi. Masalan, yuqori ohangdagi taqlid so‘zlar tezlik, balandlik yoki chaqqonlikni, past yoki tushunvchi ohangdagi so‘zlar esa og‘irlik yoki sekinlikni ifodalashi mumkin.

Fonosemantik va fonotaktik yondashuvlarga asoslangan holda olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, taqlid so‘zlarning semantik xususiyatlari nafaqat segmental (unli va undosh) darajada, balki prosodik (intonatsion, urg‘u va ohang) darajada ham shakllanadi. Ayniqsa, Xitoy tillarida ohanglar ya’ni, so‘z bo‘g‘iniga berilgan balandlik va intonatsiya chizig‘i — taqlid so‘zlarning ma’no yukini belgilashda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Thompson[1] tomonidan o‘tkazilgan fundamental tadqiqotda uchta xitoy tilida — Mandarin, Tayvan Min va Kanton tillarida — mavjud ifodaviy (ekspressiv) leksik birliklar korpuslari tahlil qilingan. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, ushbu tillarda taqlid

1 Thompson, A. L. Are tones in the expressive lexicon iconic? Evidence from three Chinese languages. PLOS ONE, 13(12), december 4 2018. P.1-19. e0204270. https://doi.org/10.1371/journal.pone.0204270

so‘zlaridagi ohanglar tasodifiy ravishda taqsimlanmagan, balki har bir til uchun o‘ziga xos, statistik jihatdan ahamiyatli bo‘lgan og‘ishlar mavjud. Masalan, Mandarin tilida ifodaviy so‘zlar orasida 1-ohang va 2-ohang ustunlik qiladi, bu esa ushbu ohanglarning semantik rol o‘ynashini anglatadi. Bu holat ohanglarning tilning umumiy lug‘ati bilan emas, balki aynan ikoniklikni yuzaga keltirishdagi o‘ziga xos semantik yuklamalari bilan bog‘liq bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatadi.

Xitoy putunhua tili bo‘yicha ma’lumotlar “Xiangshengci Cidian” (“Taqlidlar lug‘ati”) asosida tuzilgan bo‘lib, u 188 ta bo‘g‘in turini qamrab oladi. Umumiy leksikon bo‘yicha ma’lumotlar esa korpus asosida eng ko‘p qo‘llanadigan 500 ta so‘z tadqiqotidan olingan va 759 ta bo‘g‘in turini tashkil etadi. Muallif tonlar taqsimotini bo‘g‘in turlari asosida hisoblab, taqlid so‘zlar bilan umumiy leksikadagi so‘zlar o‘rtasidagi farqni tahlil qiladi.

Mazkur yondashuvning asosiy maqsadi xitoy tilidagi taqlid so‘zlarda tonlarning qo‘llanishi umumiy leksikondagi taqsimotga qanchalik yaqin yoki farqli ekanini aniqlashdan iborat. Agar har ikki qatlamdagi taqsimot o‘xshash bo‘lsa, ton ikoniklikning muhim tarkibiy qismi sifatida qaralishi mumkin. Agar taqsimot farq qilsa, ton ikoniklik bilan bog‘liq bo‘lsa-da, u asosiy unsur emas, balki sistematik signal yoki prosodik belgi vazifasini bajarishi mumkin.

Tadqiqot natijalari mandarin tilida tovush ramziy qatlamning tonal profili umumiy leksikondan ancha farq qilishini ko‘rsatadi. Xususan, tovush ramziy qatlamda yuqori tekis ton (T1) aniq ustunlik qiladi: 188 ta tovush ramziy birlikdan 107 tasi aynan T1 tonida kelgan. Foizlarda ifodalanganda, tovush ramziy qatlamda T1 57%, T2 23%, T3 5% va T4 14% ni tashkil etadi. Umumiy leksikonda esa T1 atigi 18% bo‘lib, T3 va T4 mos ravishda 32% va 36% bilan yetakchilik qiladi.

Taqlidlarni prosodik tadqiq qilgan F.Egbohare [2] va Mok[3] ham bir va ikki bo‘g‘inli taqlidlarda yuqori ohang (T1) jami taqlidlarning 97,6%ini tashkil etishini aytib o‘tgan. “Hozirgi zamon xitoy tili lug‘ati” asosida qilingan lorpus tahlilga ko‘ra ham bir bo‘g‘inli taqlid so‘zlar, asosan, yuqori ohang bilan talaffuz qilinishi aniqlandi. Bu xususiyat ayniqsa bevosita tovush hodisalarini ifodalovchi birliklarda yaqqol ko‘rinadi. Xususan, urilish, ishqalanish yoki chaqillash kabi akustik effektlarni tasvirlashda birinchi ohang ustunlik qiladi. Masalan, chēng shakli “tez harakat tovushi; ishqalanish yoki surtinish” ma’nosini bildiradi:

Tā chēng de yíxià huá zháo le huǒchái — “U chēng deb gugurtni yoqdi.”

Bu yerda taqlid birlik tovush va harakatning bevosita yuzaga chiqishini ifodalab, yuqori ohang orqali tovush tasvirini beradi.

Taqlid so‘zlarning asosan yuqori tekis ohangda qo‘llanishi masalasini izohlashda Li Liangmei (李亮梅)ning “Xitoy tilidagi taqlid so‘zlarning tuzilishi va uning lingvistik asoslari” maqolasida ham zalvorli fikrlar bildirilgan[4]. Avvalo, yuqori tekis ohangda talaffuz qilingan tovush barqarorligi va aniqligi bilan ajralib turadi, bu esa uning eshitilish darajasini va farqlanishini osonlashtiradi. Ikkinchidan, taqlid so‘zlar nutqda ko‘pincha takroriy shaklda qo‘llanadi. Shu bois, birinchi tonning qo‘llanishi artikulyatsion jihatdan qulay bo‘lib, boshqa tonlarga nisbatan ketma-ket talaffuz qilishda kamroq kuch va energiya talab etadi. Uchinchidan, taqlid so‘zlarning umumiy soni nisbatan cheklanganligi ham ularning aynan yuqori tekis ohangni afzal ko‘rishiga zamin yaratadi. Chunki taqlid so‘zlar asosan ma’noni differensiyalash uchun emas, balki tovushni bevosita ifodalash uchun xizmat qiladi, shu sababli ohangning farqlovchi funksiyasi bu holatda ikkilamchi ahamiyat kasb etadi.

Bu natijalar xitoy adabiy tilida taqlidlar tonal jihatdan tasodifiy shakllanmasligini, aksincha, ma’lum prosodik sistemalilik asosida tuzilishini ko‘rsatadi. Ya’ni, mandarin tilidagi tovush ramziy qatlam oddiy leksikadan nafaqat semantik va fonetik jihatdan, balki tonal tuzilishi jihatidan ham farqlanadi.

Xitoy adabiy tilidagi istisno holatlar sifatida T3, ya’ni pasayib-ko‘tariluvchi tonli tovush ramziy birliklar alohida e’tiborga molik. Lug‘atda bunday birliklar soni atigi 18 tani tashkil qiladi. Muallif ularning aksariyatini zamonaviy tilning faol tovush ramziy qatlamiga emas, balki tarixiy jihatdan saqlanib qolgan, eski adabiy qatlamga mansub shakllar sifatida baholaydi. Ularning ko‘pchiligi Chin sulolasidan oldingi manbalarda uchraydi. Shu sababli, bu birliklarning hozirgi mandarin so‘zlovchilari uchun qanchalik tanish va qanchalik ikonik ekanini alohida tadqiq etish zarur.

Xitoy tilidagi taqlid so‘zlar fonetik, prosodik va semantik jihatdan o‘ziga xos leksik qatlamni tashkil etadi. Ularning ohang tuzilishi, ayniqsa birinchi — yuqori tekis tonning ustunligi, tovush hodisalarini aniq, jonli va ekspressiv ifodalashga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari taqlid so‘zlarda ohang tasodifiy emas, balki tovush va ma’no o‘rtasidagi tabiiy bog‘liqlikni yuzaga chiqaruvchi muhim fonologik vosita ekanini ko‘rsatadi. Shu bois xitoy tili taqlidlarini o‘rganish fonetika, fonologiya va fonosemantika sohalari uchun muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

2 Egbokhare F. O. Phonosemantic Correspondences in Emai Attributive Ideophones // Ideophones / eds. F. K. E. Voeltz, Ch. Kilian-Hatz. — Amsterdam: John Benjamins Publishing Company, 2001. — P. 87–97.

3 Mok Waiching Enid. Chinese Sound Symbolism: A Phonological Perspective: dissertation. — Honolulu: University of Hawaii at Manoa, 2001. — P. 45.

4 李 亮梅. ┌┌┌┌┌┌的┌形及其┌言理据[J]. 中┌城市┌ ┌,2011,14:319

Shahnoza SHERMATOVA,
Samarqand davlat chet tillar instituti assistent-o‘qituvchisi
Shahnoza.sher.95@gmail.com

KOREYS TILIDA OLMOSH SO‘Z TURKUMI. OLMOSH TUSHUNCHASI VA XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada koreys tilida olmosh turkumi o‘rganilgan. Koreys tilida olmoshlarning turlari va ularning qo‘llanilish o‘rni tahlil qilinadi. Koreys tilida olmoshning qo‘llanilishi misollar bilan tushuntirilgan.

Kalit so‘zlar: *olmosh, olmoshning turlari, kishilik olmoshi, ko‘rsatish olmoshi, shaxs, birlik, ko‘plik.*

Аннотация: в данной статье рассматривается система местоимений в корейском языке. Анализируются типы местоимений в корейском языке и их использование. Использование местоимений в корейском языке объясняется на примерах.

Ключевые слова: *местоимение, типы местоимений, личное местоимение, указательное местоимение, лицо, единственное число, множественное число.*

Annotation: this article examines the pronoun system in Korean. It analyzes the types of pronouns in Korean and their uses. The use of pronouns in Korean is explained with examples.

Key words: *pronoun, types of pronoun, personal pronoun, demonstrative pronoun, person, singular, plural.*

Kirish. Olmoshlar mustaqil so‘z singari shaxs, narsa, belgi yoki qiymat tushunchasini bildirmay, ular o‘rnida almashib keladigan, ularning mavjudligiga ishora qiladigan so‘zlardir. Masalan: men-shaxsga, nima-narsaga, shu, bu, o‘sha-belgiga, qancha, shuncha olmoshlari esa miqdorga ishora qilishi bilan o‘zaro farqlanadi. Olmoshlar aniq ma’no bilan mavhum ma’noning almashinib qo‘llanishini ta’minlaydigan so‘zlardir. Masalan: Shunday o‘lka doim bor bo‘lsin, gapidagi shunday olmoshi narsa belgisini boshqasiga taqqoslab ko‘rsatish uchun xizmat qilgan. Biroq, ba’zi olmoshlar, xususan, kim, men, sen, qanday olmoshlarini ot yoki sifat bilan almashtirib bo‘lmaydi. [1:132].

Asosiy qism. Koreys tilida olmoshlar odamlar, narsalar, joylar va boshqalarni ifodalash uchun ishlatiladi va koreys tilida olmoshlar keng ma’noda kishilik olmoshlar va ko‘rsatish olmoshlariga bo‘linadi. Kishilik olmoshlar koreys tilining o‘ziga xos xususiyati bo‘lgan hurmat ifodalarini namoyish etadi; hurmat darajasiga qarab, hurmat, oddiy olmoshlar va kamtar olmoshlar mavjud. [2:59]

1. 너는 거기서 무엇을 하고 있니? U yerda nima qilyapsiz?

2. 일행은 사평역에서 내렸다. 거기서부터 마을까지는 걸어가기로 했다. Hamrohlar Sapyong bekatida tushdi. Ular u yerdan qishloqqa piyoda borishga qaror qilishdi.

Birinchi misolda, tegishli vaziyat berilmaguncha, ‘siz”, “u yerda” va “nima” nimani anglatishini aniq bilishning iloji yo‘q. Ikkinchi gapda “u yerda” kabi, olmoshning ko‘rsatmasi faqat tegishli kontekst tushunilganda aniq namoyon bo‘ladi.

Olmoshlarning semantik xususiyatlarini “vaziyatga oid ma’lumotnoma” nuqtayi nazaridan tushunish mumkin. Otlar odatda vaziyatdan qat’i nazar, bir xil ma’noga ega deb tushuniladi. Biroq, olmoshlar vaziyatga qarab turli ma’nolarga ega deb tushunilishi mumkin. Birinchi misolda, vaziyatga qarab “siz” Cholsu yoki Yongsu bo‘lishi mumkin. “U yerda” maktab yoki uy bo‘lishi mumkin. Bundan tashqari, olmoshlar narsalarga nom bermasligi, balki ularning nomlari o‘rniga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ularga ishora qilishi sababli, bir xil narsaga olmoshning turli shakllari yordamida murojaat qilish mumkin.

3. 너는 거기서 무엇을 하니? . U yerda nima qilyapsiz?

4.나. 나는 여기서 연필을 찾고 있다.Men bu yerda qalam qidiryapman.

Uchinchi misoldagi 너 -sen – “Yongsu” va 거기 u yer –“xona” bo‘lsa, bunga javob qaytarilayotgan to‘rtinchi misolda “Youngsu” so‘zi 나menga, “xona” esa 여기 bu yerga shaklan o‘zgarib ifodalanadi.

Olmoshlar ma’no jihatidan bunday xususiyatga ega bo‘lsa-da, funksional jihatdan 명사 (otlar) bilan katta farq qilmaydi. Shuning uchun ba’zi olimlar 대명사 (olmoshlar) ni alohida turkum sifatida ajratmasdan, otlar tarkibiga kiritadilar. Biroq, olmoshlarda otlarda kamdan-kam uchraydigan o‘ziga xos shakliy va funksional xususiyatlar mavjud: Shakliy o‘zgarish: Masalan, 나- men va 너- sen olmoshlarining 주격형 (bosh kelishigi shakli) - 나가, 너가 emas, balki 내가 va 네가 ko‘rinishida namoyon bo‘ladi. Bunday xususiyat otlarda kuzatilmaydi.

대명사의 종류 -olmoshlarning turlari

인칭 대명사 Kishilik olmoshlari	1인칭1-shaxs	단수 Birlik		복수 Ko‘plik	
		예사말 Oddiy	나 Men	우리 Biz	
		겸사말 Kamtarin	저 Men	저희 Biz	
	2인칭 2-shaxs	단수 Birlik		복수 Ko‘plik	
		예사말 Oddiy	너 Sen	너희 Sizlar/Senlar	
		공대말 Hurmat	자네, 당신, 그대		
	3인칭3-shaxs	근칭 Yaqin		중칭 O‘rta	원칭 Uzoq
		이이, 이애, 이분		그, 그이, 그애, 그분	저이, 저애, 저분
지시 대명사 Ko‘rsatish olmoshlari	사물 표시 Narsa	이것 Bu narsa		그것 U narsa	저것 Anavi narsa)
	장소 표시 Joy	여기 Bu yer		거기 U yer	저기Anavi yer)

인칭 대명사 – kishilik olmoshlari: odamlarga nisbatan ishlatiladigan olmoshlar.

지시 대명사 – ko‘rsatish olmoshlari): narsa yoki joyni ko‘rsatish uchun ishlatiladi.

예사말 – oddiy shakl: tengdoshlar yoki o‘zidan kichiklarga nisbatan qo‘llaniladi.

겸사말 – kamtarin shakl: so‘zlovchi o‘zini past olib, tinglovchini hurmat qilganda ishlatiladi.

공대말 – hurmat shakli: tinglovchini e’zozlab gapirganda ishlatiladi.

근칭 – yaqin: so‘zlovchiga yaqin bo‘lgan (bu).

중칭 – o‘rta: tinglovchiga yaqin yoki hozir ko‘rinmayotgan (u).

원칭 – uzoq: Har ikkala tomondan ham uzoq bo‘lgan (anavi).[3:70]

Ba’zi olmoshlar qo‘shimchalar qo‘shilganda qisqarishi mumkin.

나+ 가 = 내가 men
나+ 의=나의 내 mening
나 + 에게=내개 menga
저+ 가 = 제가 men
저+ 의 =제 mening
너+ 가= 네가 sen
너+ 의 = 네 sening
너 + 에게 = 네게 senga

너는 내 시계가 어디에 있는지 아니? Sen mening soatimni qayerda ekanligini bilasanmi?

제가 다시 말씀드리겠습니다. Men sizga qayta aytib beraman.

가족 모두는 저에게 소중한 사람들입니다. Barcha oila a’zolarim menga qadrli kishilar.

그 분에게 다시 전화하십시오.

U kishiga yana telefon qiling.

나는 외국어 대학교를 졸업했습니다.

Men chet tillari universitetini tugatganman.

이것이 → 이게 이것은 → 이건 이것을 이걸 bu narsa.

그것이 → 그게 그것을 → 그걸u narsa.

그것은 → 그건u narsa.
저것이 → 저게 ana u narsa.
저것은 → 저건ana u narsa.
저것을 → 저걸ana u narsa.

바로 그것이 (그게) 제가 찾던 사진입니다. Aynan mana shu men izlayotgan rasm.

그것은 (그건) 새로 나온 잡지입니다. Bu yangi chiqqan jurnal.

이것들은 모두 제가 좋아하는 노래들입니다. Bularning hammasi men yoqtiradigan qo‘shiqlar.

여기는 – 여긴bu yer.
거기는 – 거긴 u yer.
여기를 – 여길bu yer.
거기를 – 거길 u yer.
저기는 – 저긴 ana u yer.
저기를 – 저길 ana u yer.

여기는(여긴) 우리의 외국어 대학교입니다. Bu yer bizning chet tillari universiteti. 저기는 (저긴) 제가 어릴 때 살았던 집입니다. Anavi yer men yoshligimda yashagan uy.

거기에 무엇이 있습니까? U yerda nima bor?

Xulosa. Koreys tilida olmoshlar gapda ot o‘rnini bosuvchi muhim grammatik birlik bo‘lish bilan birga, nutq va ijtimoiy munosabatlarni aks ettiruvchi til vositasi sifatida ham katta ahamiyatga ega. Ushbu maqolada olmoshlarning asosiy turlari – shaxs, ko‘rsatish olmoshlarning xususiyatlari tahlil qilindi. Koreys tilida olmoshlar muhim grammatik birlik bo‘lib, ularning ishlatilishi boshqa tillardan biroz farq qiladi. Uni o‘rganish orqali koreys tilining nafaqat grammatik, balki ijtimoiy va kommunikativ xususiyatlarini ham chuqurroq anglash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Turniyozov N, Rahimov, A. O‘zbek tili. – Toshkent: 2006.
2. 임호빈,홍경표, 장숙인. 공저외국인을 위한 한국어 문법.연세대학교 출한부2005.
고영근, 구본관. 우리 말 문법론.2008.582.
3. Ким.Чун Шик.корейс тили грамматикаси. – Т., 2007. 175-b.

Selma Ozan YUJEL,
Sharqshunoslik universiteti mustaqil izlanuvchisi
Oriental universiteti Tillar-2 kafedrasi stajyor-o'qituvchisi
Selmaozan702@gmail.com

TURK TILIDA RANG BILDIRUVCHI LEKSEMALARNING NOMINATIV VA FIGURATIV MA'NOLARI

Annotatsiya: maqolada rang bildiruvchi leksemalarning leksik-semantik xususiyatlari hamda ularning nominativ (literal) va figurativ (ko'chma) ma'nolari tahlil qilinadi. Rang nomlarining inson tafakkuri va madaniyati bilan bog'liqligi yoritilib, figurativ ma'nolarning metafora, metonimiya va sinekdoxa orqali yuzaga kelishi misollar asosida ko'rsatiladi.

Kalit so'zlar: *rang leksemalari, semasiologiya, nominativ ma'no, figurativ ma'no, semantik ko'chim, metafora, metonimiya, sinekdoxa, literal ma'no, rang semantikasi*

Annotation: the article analyzes the lexical-semantic features of color-denoting lexemes and their nominative (literal) and figurative (metaphorical) meanings. It highlights the connection between color terms and human cognition and culture, and demonstrates how figurative meanings arise through metaphor, metonymy, and synecdoche based on examples

Keywords: *color lexemes, semaseology, nominative meaning, figurative meaning, semantic shift, metaphor, metonymy, synecdoche, literal meaning, color semantics*

Аннотация: в статье анализируются лексико-семантические особенности лексем, обозначающих цвет, а также их номинативные (буквальные) и фигуративные (переносные) значения. Раскрывается связь цветообозначений с человеческим мышлением и культурой, а также показывается, что переносные значения формируются посредством метафоры, метонимии и синекдохи на основе конкретных примеров.

Ключевые слова: *лексемы цвета, семасиология, номинативное значение, фигуративное значение, семантический перенос, метафора, метонимия.*

Kirish. Til tizimida rang bildiruvchi so'zlar muhim leksik-semantik guruhni tashkil etadi. Ular nafaqat predmetlarning tashqi belgilarini ifodalaydi, balki inson tafakkuri, madaniyati va dunyoqarashi bilan chambarchas bog'liq bo'lgan semantik birliklar sifatida ham namoyon bo'ladi.Rang nomlari tilshunoslikda leksik-semantik birliklar sifatida o'rganilib, ularning ma'no qatlamlari ko'p bosqichli va murakkab tuzilishga ega. Semasiologiya til tizimining turli sathlarida (leksik, morfologik, sintaktik) mavjud bo'lgan birliklarning ma'nosini o'rganadi hamda uning asosiy tadqiqot obyekti sifatida til birliklari orqali ifodalanadigan mazmuniy (semantik) qatlam namoyon bo'ladi[1].

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda tavsifiy, semantik va kontekstual tahlil metodlaridan foydalanildi. Shuningdek, rang leksemalarining nominativ va figurativ ma'nolarini aniqlashda interpretativ yondashuv qo'llanildi.

Tahlil va natijalar. Bajaradigan funksiyasiga ko'ra leksik ma'nolar zamonaviy semasiologiya doirasida tadqiq etilar ekan, ular odatda, nominativ va figurativ (ko'chma) ma'nolarga ajratiladi. Nominativ ma'no to'g'ridan tog'ri referentga[2], ya'ni narsa, voqelik, harakat, holat yoki belgiga qaratilgan leksik ma'no hisoblanadi[3]. Shuningdek, ayrim ilmiy manbalarda mazkur tasnif literal (bevosita, asl) va non-literal (ko'chma, figurativ) ma'nolar tarzida ifodalanadi. Non-literal, ya'ni figurativ ma'nolar esa til birliklarining semantik kengayishi natijasida yuzaga kelib, ular metafora, istehzo (ironiya), metonimiya, sinekdoxa, mubolag'a (giperbola) va litota kabi ritorik vositalar orqali namoyon bo'ladi[4]. Darhaqiqat, yozma va og'zaki nutqda ko'chimlardan foydalanish nutqning ta'sirchanligini oshirish bilan birga, ifodaning ixcham va tejamkor bo'lishini ham ta'minlaydi, predmet, belgi yoki harakatni bevosita nomlash funksiyasini bajaruvchi ma'no turi sifatida talqin etiladi[5].

Uni aniqlashda so'z semantikasiga diaxronik (tarixiy taraqqiyot nuqtayi nazaridan), fonetik shakliga esa sinxronik (muayyan davr kesimidagi holati asosida) yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi[6].

Izoh sifatida ta'kidlash joizki, nominativ ma'nolar, odatda, voqelik bilan bevosita va uzviy bog'liq bo'lgan, predmet, belgi yoki hodisani to'g'ridan to'g'ri nomlash

1 Hakimova M. Semasiologiya. – Toshkent: O'quv qo'llanma, 2008. 3-b.
2 Referent-til birligi ifodalaydigan tushuncha, fikr predmeti. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. – Toshkent: "O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti, 2002. 85-b.
3 Mirtojiyev M. M. O'zbek tili semasiologiyasi. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2010. 143-b.
4 Saeed J.I. Semantics. – UK.: Blackwell publishing, 2003. 15p.
5 Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. –Toshkent: "O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti, 2002. 71-b.
6 Mirtojiyev M. M.O'zbek tili semasiologiyasi. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2010. 141-b.

funksiyasini bajaruvchi ma’nolar sifatida talqin qilinadi. Metafora ko‘chimning bir turi bo‘lib, o‘xshatish usuli orqali ma’no ko‘chish usuli hisoblanadi[7]. Ranglarning aksariyati metafora usuli orqali ma’no ko‘chishida ishtirok eta oladi. Metonimiya esa biror bir predmetning nomi boshqa bir predmetga aloqadorlik asosida ko‘chishi hisoblanadi[8]. Metonimiya xuddi metafora singari so‘zning yangi ma’nolari hosil qilinishida katta rol o‘ynaydi.

Sinekdoxa, butun qism yoki aksincha, qism butun asosida ma’no ko‘chish usuli hisoblanadi[9]. Ranglarning literal ma’nolarini tadqiq etar ekanmiz, Turklar qadimdan asosan, beshta rangni jumladan, *sariq, yashil (ko‘k), oq, qizil, qora* ranglarni ahamiyatga molik deb bilgan[10]. Shuningdek, ularning asosiy, ya’ni bosh ma’nolarini ularning obyektiv ko‘rinishidan belgilab olamiz. Misol uchun *osmonning ko‘k, quyoshning sariq , qonning qizil* ekanligi yaqqol ko‘zga ko‘rinadi. Bu ularning literal ma’nosi hisoblanadi.

Rang bildiruvchi leksemalar o‘zi birikkan so‘zlar bilan birga ijobiy hamda salbiy ottenkalarni o‘zida aks ettirish xususiyatiga ega ekan, ularning ushbu ma’nolari figural ma’no hisoblanib, figural ma’nolar ko‘chimning har xil usullari orqali yuzaga keladi. Qora rangning lug‘atdagi ma’nosiga qaraydigan bo‘lsak, “Ko‘mir rangiga xos rang[11]”, shuningdek, “Rang - tusi bo‘lgan barcha narsadan to‘q[12]” sifatida keltirilgan.

Siyah elbiseli genç, Ömer’in bulunduğu yere baktı ve bir an durakladı[13].

(Muallif tarjimasi) Qora kiyimli yigit, Umar tomonga boqdi va biroz to‘xtadi.

Mazkur misolda qora rangni ifodalovchi leksema ko‘chma ma’no kasb etmay, libosning rang belgisini bevosita ifodalab, sifat vazifasida qo‘llangan. Shu bois ushbu holat qora rang leksemasining nominativ (literal) ma’noda qo‘llanilishiga misol bo‘la oladi. “Qora” leksemasining figurativ ma’nolarini tadqiq etadigan bo‘lsak, ushbu so‘z turli so‘zlar bilan birga birikib, turli xil ma’nolarni ifoda eta oladi.

Seni daha bir yaşında terk edip de **kara topraklara** giren baban[14]!

(Muallif tarjimasi) Seni endigina bir yoshingda tark etib qora tuproqlarga kirgan otang!

Mazkur misolda “kara” va “toprak” so‘zlari birikib, “qabr” yoki “mozor” ma’nosini ifodalaydi. Bu yerda leksemalar o‘zining bevosita lug‘aviy ma’nosidan chetga chiqib, ko‘chma (figurativ) ma’no hosil qilgan. Mazkur ma’noning yuzaga kelishida metafora usulidan foydalanilgan. Oq rang bildiruvchi leksemaning lug‘atdagi ma’nosi “qor ko‘rinishida bo‘lgan rang[15]” hisoblanadi.

Beyaz önlüklü bir garson elektrik düğmesini çevirdi[16].

(Muallif tarjimasi) Oq peshbandli ofitsiant elektr tugmachasini buradi.

Mazkur misolda “ak” (oq) rang leksemasi peshbandning rangini bevosita ifodalab, sifat vazifasida qo‘llangan. Bu holat uning nominativ (literal) ma’noda ishlatilganligini ko‘rsatadi.

Şarap güzeldi; Küçük bir **beyaz Çankaya** açtırıp sürdürdü ağır ağır yudumlamayı[17].

(Muallif tarjimasi) Sharob nafis edi; Kichik oq Chankaya ochtirib, boshladi asta-sekin ichishlikni.

Mazkur misolda “Oq Chankaya” sharob nomini ifodalab, rang leksemasi metonimiya (qayta nomlash) usuli orqali figurativ ma’no hosil qilgan.

Ko‘k rang bildiruvchi leksemaning lug‘atdagi ma’nosi “Dengizning, ko‘lning hamda bulutsiz osmonning rangi[18]” sifatida keltirilgan.

Çamlıca’da bizim köşke yakın bir bakkal dükkanı vardı. Ben çok küçüktüm. Araba ile geçerken çırak çocuk, **mavi önlüğü** ile fırlar, arabanın arkasından koşardı[19].

(Muallif tarjimasi) Chamlija’da bizning qasrimiz yaqinida do‘kon bor edi. Men juda kichik edim. Mashina bilan o‘tayotganda do‘kon shogirdi bolakay moviy peshbandi bilan yugurib chiqib, mashina ortidan ergashar edi.

Mazkur jumlada “moviy” rang leksemasi peshbandning rangini bevosita ifodalab, sifat vazifasida qo‘llangan. Bu holat uning nominativ (literal) ma’noda ishlatilganligini ko‘rsatadi. Ko‘k leksemasining figurativ ma’nosiga quyidagi parchani havola qilamiz:

Güneye yazları giderim; hemen her yıl **mavi yolculuğa** çıkarız tekneyle. Marmara›da hiç dolaşmadım[20].

(Muallif tarjimasi) Janubga yoz oylarida boraman; har yil moviy sayohatga chiqamiz qayiq bilan. Marmarada kezib ko‘rmaganman.

Ushbu parchada moviy sayohat iborasi kema, qayiq

7 Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. – Toshkent: “O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti, 2002. 63-b.
8 Mirtojiev M.M.O‘zbek tili semasiologiyasi. – Toshkent: Mumtoz so‘z, 2010. 56-b.
9 Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. – Toshkent: “O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti,2002. 88-b.
10 Albayrak K. Milli dinlerde renk fenomeni / Çukurova ünıversitesi ilahiyat fakültesi, №8. S. 6.
11 Ayverdi I. Misali büyük türkçe sözlük. – Istanbul: Kubbealtı yayınları, 2010. S. 624.
12 O‘zbek tilining izohli lug‘ati / Begmatov E., Madvaliev A., Mahkamov N., Mirzayev T., To‘xliyev N., Umarov E., Xudoyberganova D., Xojiyev A tahriri ostida. 5-x t.– Toshkent: “O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti , 2006. – T. 4. 335-b.
13 Ali S. İçimizdeki şeytan. – Istanbul: Yapı kredi yayınları, 2015. S. 118.
14 Uşaklıgil H.Z. Sefile. – Istanbul: Özgür yayınları, 2006. S. 23.
15 Ayverdi I. Misali büyük türkçe sözlük. – Istanbul: Kubbealtı yayınları, 2010. S. 140.
16 Ali S. İçimizdeki şeytan. – Istanbul:Yapı kredi yayınları, 2015. S. 36.
17 Türkali V. Kayıp romanlar. – Istanbul: Everest yayınları,2004. S. 101.
18 Ayverdi I. Misali büyük türkçe sözlük. – Istanbul: Kubbealtı yayınları, 2010. S. 779.
19 Adıvar H.E. Sinekli bakkal. – Istanbul: Özgür yayınlar, 1999. S. 287.
20 Türkali V. Kayıp romanlar. – Istanbul: Everest yayınları, 2004. S. 267.

orqali qilinadigan sayohatni ifodalab kelmoqda. “Moviy” rang bildiruvchi leksema bu yerda dengizning rangini va dengizda qilinadigan sayohatni bildirmoqda. Shunday ekan, ushbu jumlada **mavi yolculuk** ifodasi figurativ ma’no hisoblanib, ko‘chimning metonimiya usuli orqali yuzaga kelgan. Ushbu jumlada yashil rang bildiruvchi leksema sifat so‘z turkumiga oid bo‘lib, faqatgina sandiqni tasvirlab kelgan biroq majoziy ma’no anglatmagan. Yashil rang bildiruvchi leksemaning figurativ ma’nosiga keladigan bo‘lsak, (Bostan dolabı) Dolap dönerken bu kovadan billur sular **yeşillik** arasında nasıl insana serinlik verir[21].

(Muallif tarjimasi) Charxpalak aylanar ekan, charxlaridan oqayotgan billur suvlar yashilliklar orasida insonga salqinlik tuhfa etadi.

Ushbu misolda yashil so‘ziga (-lik) so‘z yasovchi qo‘shimcha qo‘shilishi orqali hosil bo‘lgan yashillik so‘zi “o‘rmon, o‘t-o‘lanlar, daraxtlar” ma’nosini ifodalab kelgan. Bu esa uning sinekdoxa usuli orqali hosil bo‘lgan figurativ ma’nosi hisoblanadi. Qizil rang bildiruvchi leksemaning lug‘atdagi ma’nosi “Qon rangi, ol rang[22]” hisoblanar ekan, literal ma’nosi sifatida:

“Paşa döndü, oğluna şişman, **kırmızı** bir atlas kese uzattı[23]”

21 Adıvar H.E. Sinekli bakkal. – Istanbul: Özgür yayınlar, 1999 . S. 391.
22 Ayverdi I. Misali büyük türkçe sözlük. – Istanbul: Kubbealtı yayınları, 2010. S. 671.
23 Adıvar H. E. Sinekli bakkal. – Istanbul:Özgür yayınlar, 1999 . S. 219.

(*(Muallif tarjimasi*) General orqaga qayrilib, o‘g‘liga semiz, **qizil** atlasdan qilingan xalta uzatdi) jumlasidagi **qizil** rang bildiruvchi leksema hech qanday ko‘chma ma’no ifodalamagan.

Çevreleri ak, al, **sarı**, gümüş rengi, lale, zambak, karanfil,benzeri çeşitli çiçeklerle kaplı, yolun iki yanına dizilmiş bahçeli yapılara bakarak yürüdü uzunca bir süre[24].

(Muallif tarjimasi) Atrofi oq, qizil, sariq, kumush rangli lola, nilufar, chinnigul va shunga o‘xshash gullar bilan limmo-lim, yo‘lning ikki tomonida qad ko‘targan bog‘lari bor binolarga qarab uzoq muddat yurdi.

Ushbu misolda nafaqat sariq balki oq, qizil, sariq hamda kumush rang bildiruvchi leksemalar literal ma’no kasb etib, gullarning ranglarini tasvirlab kelgan.

Xulosa. Yuqorida keltirilgan misollardan shuni anglash mumkinki, literal (nominativ) ma’no real voqelikni aks ettirsa, figural ma’no esa voqelikni obrazlar orqali tasvirlaydi va ma’nolarni kengaytiradi. Figural ma’nolar ko‘pincha kontekstga, kulturologik faktorlar va individual tafakkurga asoslanadi, shuning uchun ular literal ma’nolarga qaraganda ko‘proq tasavvurga bog‘liqdir. Shuningdek, figural ma’nolar ko‘chimlar orqali hosil qilinadi.

24 Türkali V. Kayıp romanlar. – Istanbul: Everest yayınları, 2004. S. 504.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Albayrak K. Milli dinlerde renk fenomeni/Çukurova ünıversitesi ilahiyat fakültesi. – №8 (1). S. 1– 42.
2. Ayverdi I. Misali büyük türkçe sözlük. – Istanbul: Kubbealtı yayınları, 2010. 1412 s.
3. Hakimova M. Semasiologiya: O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: XT “Hamidov N.H”, 2008. 100-b.
4. Mirtojiev M. M. O‘zbek tili semasiologiyasi: Monografiya –Toshkent: Mumtoz so‘z, 2010. 288-b.
5. O‘zbek tilining izohli lug‘ati / Begmatov E., Madvaliyev A., Mahkamov N., Mirzayev T., To‘xliyev N., Umarov E., Xudoyberganova D., Xojiyev A. tahriri ostida. 5-x t. –Toshkent: “O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. 3240-b.
6. Saeed J. I. Semantics. – London: Blackwell Publishers Ltd, 2003. 437 p.
7. Uşaklıgil H.Z. Sefile. – Istanbul: Özgür yayınları, 2006. 152 s.
8. Vardar B. Anlambilim. – Istanbul: Matbaa 70, 1999. 143 s.
9. Xojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. –Toshkent: “O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti, 2002. 164-b.

Dilafruz MADALIYEVA,
TIQXMMI Milliy tadqiqot universiteti ingliz tili o‘qituvchisi
Email: mahkamovadila85@gmail.com



INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA BUXGALTERIYA VA AUDITGA OID TERMINLARNING SEMANTIK QIYOSIY TAHLILI

Annotatsiya: ushbu maqola ingliz va o‘zbek tillarida buxgalteriya va auditga oid terminlarning semantik qiyosiy tahliliga bag‘ishlangan. Tadqiqotda ikki tildagi terminlarning ma’no tuzilishi, semantik hajmi, polisemiyasi va ekvivalentlik darajalari o‘rganilgan. Maqolada zamonaviy buxgalteriya va audit sohalariga oid terminlar (masalan, *asset*, *liability*, *equity*, *audit trail*, *internal control*, shuningdek, ularning o‘zbekcha *aktiv*, *majburiyat*, *kapital*, *audit izi*, *ichki nazorat* kabi varianti yoki qo‘llaniladigan muqobil shakllari) tahlil qilingan. Terminlarning semantik tahlilida komponentlar tahlili, kontekstual va qiyosiy metodlardan foydalanilgan. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, aksariyat terminlar semantik jihatdan to‘liq ekvivalent bo‘lsa-da, bir qator terminlarda ma’no torayishi, kengayishi yoki qisman nomuvofiqlik kuzatiladi.

Kalit so‘zlar: *semantik qiyosiy tahlil, buxgalteriya va audit terminlari, ekvivalentlik, leksik-semantik guruh, kalkalash, moliyaviy hisobot, konseptual moslashuv.*

Annotation: this article is devoted to a semantic comparative analysis of accounting and auditing terms in English and Uzbek. The study studies the semantic structure, semantic scope, polysemy and equivalence levels of terms in the two languages. The article analyzes terms related to modern accounting and auditing (for example, asset, liability, equity, audit trail, internal control, as well as their Uzbek variants or alternative forms such as aktiv, obliga, kapital, audit izi, интерьер консультации). Component analysis, contextual and comparative methods were used in the semantic analysis of terms. The results show that although most terms are completely semantically equivalent, a number of terms show narrowing, broadening or partial inconsistency in meaning.

Key words: *semantic comparative analysis, accounting and auditing terms, equivalence, lexical-semantic group, mapping, financial reporting, conceptual alignment.*

Аннотация: данная статья посвящена семантическому сравнительному анализу терминов бухгалтерского учета и аудита на английском и узбекском языках. В исследовании изучается семантическая структура, семантический охват, полисемия и уровни эквивалентности терминов в двух языках. В статье анализируется термины, относящихся к современному бухгалтерскому учету и аудиту (например, актив, обязательство, капитал, аудиторский след, внутренний контроль, а также их узбекские варианты или альтернативные формы, такие как актив, обязательство, капитал, аудит, интерьер консультации). В семантическом анализе терминов использовались компонентный анализ, контекстуальные и сравнительные методы. Результаты показывают, что, хотя большинство терминов полностью семантически эквивалентны, ряд терминов демонстрирует сужение, расширение или частичную несогласованность значений.

Ключевые слова: *семантический сравнительный анализ, термины бухгалтерского учета и аудита, эквивалентность, лексико-семантическая группа, сопоставление, финансовая отчетность, концептуальное согласование.*

Kirish. Tilshunoslikda semantika tushunchasi, ya’ni so‘z ma’nosini o‘rganish sohasi qadimdan mavjud. Ammo uni semantika termini sifatida dastlab, 1883-yilda falsafa sohasining tarkibiy qismidan fransuz olimi Mishel Breal ajratib, uni amaliy asoslab bergan. “Men shu paytgacha o‘rganilmagan va ko‘plab tilshunoslar avlodlarining mehnati samarasi sifatida shakllanishi lozim bo‘lgan sohaning asosiy yo‘nalishlarini belgilashga, ... tasvirini berishga harakat qildim. .... o‘quvchimdan ushbu kitobni “semantika” deb atashni va (tilshunoslik) fanga kiritishini so‘rayman”, deya qayd etgan [1]. Asar yaralganidan so‘ng ayrim faylasuf olimlar olimning yangi sohasini keskin tanqid qilgan, biroq nemis matematigi va mantiqshunosi G.Fregge va semiotika fanining asoschisi Ch.Pirslarning olimning soha borasida qayd etgan fikrlari o‘rinli ekanligini

asoslashi, nazariy semantika sohasi rivojiga benihoyat katta hissa qo‘shdi [2].

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Ferdinand de Sossyur semantika sohasiga nisbatan quyidagi fikrlarni bildiradi, “Tilshunoslik sohasida, xuddi boshqa sohalar singari semantika sohasi ham ma’nolar o‘zgarishini o‘rganuvchi soha”[3]. Tilshunoslikning semantika sohasi taraqqiy etishi bilan uning kichik bo‘limlarini tahlil va tadqiq etish ham dolzarb masalaga aylandi. Natijada dunyo olimlari tomonidan til yoki uning biron-bir birligi (so‘z, so‘zning grammatik shakli, frazeologizm, so‘z birikmasi, gap) orqali ifodalanadigan butun mazmun, ma’no, axborot kabi masalalarni o‘rganish yuzaga keldi.

Rus olimi Y.S. Stepanov so‘zning o‘z ma’nosi asosida keyingi ma’nolarning rivojlanishi natijasida termin vujudga kelishini ta’kidlaydi. Olim so‘zlarning semantik xususiyati haqida ikki asosiy yo‘nalish mavjudligini aytadi: birinchidan, leksema denotatlarining almashuvi ro‘y beradi, bu jarayon asosida metafora yotadi. Ikkinchidan esa so‘z ma’nolari sistemasi bilan uzviy aloqasi tufayli signifikatlarning mazmuni doimiy ravishda chuqurlashib boradi[4] . Vaqt semantik usul bilan termin yasalishi masalasi mustaqillikkacha bo‘lgan davrda o‘zbek tilshunosligida alohida tadqiqot obyekti bo‘lgan emas. O‘zbek tilshunosligida bu usul bilan termin yasash borasidagi dastlabki qarashlar professor S. Ibrohimovning monografiyasida o‘z ifodasini topgan[5].

Vaqt o‘tishi bilan ayrim olimlarimiz uning fikrlariga to‘xtalib o‘tadi, jumladan, S.A. Azizovning o‘zbek tilining musiqa terminologiyasiga bag‘ishlangan ishida cholg‘u asboblari va ularning qismlari nomlarini ifodalovchi ba’zi terminlar inson va hayvon a’zolariga o‘xshashligi asosida semantik usul orqali yasalganligi ko‘rsatib o‘tilgan[6] . Bizningcha, olim L.Blumfildning “Har bir lisoniy shakl ma’nosiga aniq ilmiy tavsif berish uchun so‘zlovchi atrofidagi olamning barcha narsa-hodisalari haqida aniq ilmiy ma’lumotga ega bo‘lishimiz lozim”[7] degan fikri asosida shunday xulosalar chiqargan bo‘lishi mumkin. Biroq muallif ishini chuqur tahlil qilgan olim O.Axmedov ilmiy ishda keltirilgan antroponim va toponimlar bilan bog‘liq terminlarni, jumladan, Xorazm lazgisi, Samarqand ushshog‘i, Andijon polkasi kabilarni semantik usul bilan yasalgan terminlar qatoriga kiritadi. Bundan tashqari, yog‘och nay, ilgak tor, mis karnay kabi birikmali terminlar ham mazkur guruhga kirishini ta’kidlab o‘tadi. Qolaversa, “leksemalarning semantik o‘zgarishi, ularning ma’no ko‘chishi, polisemantik so‘zlarning ba’zi ma’nolari orasidagi bog‘lanish uzilib, ayrimlarining xoslanishi orqali yangi terminning hosil bo‘lishi, ya’ni muayyan leksemalar semantikasining kengayishi kuzatiladi. Biz buni “semantik usul bilan so‘z yasash” deb qo‘llashni lozim deb bildik [8], deya qayd etgan.

Muhokama va natijalar. Tadqiqotchilar uchun juda ko‘p beriladigan savollardan biri bu semantika nima? – til yoki uning qaysidir komponenti (so‘z, so‘zning grammatik shakli, frazeologizm, so‘z birikmasi, gap) orqali namoyon bo‘ladigan yaxlit mazmun, ma’no, axborotni o‘rganuvchi soha, qolaversa, turli til birliklarining ma’noviy tomonini o‘rganuvchi tilshunoslik bo‘limi hisoblanadi. Semantika – til birliklarining ma’nosini o‘rganuvchi tilshunoslikning (til haqidagi fan) bo‘limi. Oddiy qilib aytganda, semantika – so‘z, ibora yoki gap nimani anglatadi, degan savolga javob beradi. Tilshunoslikda semantika bir necha yo‘nalishlarga bo‘linadi – har biri ma’noni turlicha tahlil qiladi. Bularga:

1.Leksik semantika – so‘zlarning lug‘aviy ma’nosini o‘rganadi. Masalan: *hisob* – sanash jarayoni, *audit* – moliyaviy tekshiruv, Bu so‘zlarning ma’nosi ularning leksik semantikasiga kiradi.

2. Grammatik semantika – so‘z shakllarining (zamon, son, egalik, nisbat va hokazo) ma’no yukini tahlil qiladi. Masalan: *hisob qilmoq* (hozirgi zamon), *hisob qildi* (o‘tgan zamon), *hisob qilinmoqda* (majhul nisbat).

3. Sintaktik semantika – gapdagi so‘zlar o‘rtasidagi ma’no munosabatlarini o‘rganadi. Masalan o‘zbek tilida, *Auditor tekshirdi hisobni. Hisobni auditor tekshirdi.* – gapdagi so‘zlar o‘rni o‘zgarsa ham, umumiy ma’no saqlanadi.

4. Pragmatik semantika – so‘z yoki gap qaysi vaziyatda, qanday niyat bilan aytilganini tahlil qiladi. Masalan:*“Hisob to‘g‘rimi?”* – bu oddiy savol ham, ishonchsizlik ifodasi ham bo‘lishi mumkin.

5. Kognitiv semantika – til orqali inson tafakkuridagi tushunchalar qanday ifodalanishini o‘rganadi. Masalan: *kapital*, *aktiv*, *majburiyat* – bular iqtisodiy tafakkurdagi asosiy tushunchalar.

Buxgalteriya va audit terminlarining leksik-semantik xususiyatlariga monosemiya (bir ma’nolilik), omonimiya (so‘zning aynan tashqi ko‘rinish, boshqa ma’no), sinonimiya (bir xil ma’nodagi so‘zlar), antonimiya (qarama-qarshi ma’nodagi so‘zlar), giponimiya (umumiy-xususiy munosabat), frazeologik birliklar va barqaror terminlarni misol qila olamiz.

1. Monosemiya (bir ma’nolilik) – bu sohalarda terminlar, qoida tariqasida, aniq bir tushunchaga ishora qiladi va boshqa kontekstlarda boshqa ma’nolarda qo‘llanilmaydi. Bu aniqlik va tartiblilikni ta’minlaydi. Misollar: *aktiv* – faqat korxonaning ixtiyoridagi mol-mulk va moddiy boyliklar; *debit* – faqat buxgalteriya hisobida hisobvarag‘ining chap tomoni; *amortizatsiya* – faqat asosiy vositalarning qiymatini bo‘lib-bo‘lib hisobdan chiqarish.

2. Omonimiya (ayni tashqi ko‘rinishi bir xil, ammo boshqa ma’noga ega).Ba’zi terminlar umumiy til yoki boshqa sohalarda butunlay boshqa ma’nolarga ega. Bu xususiyat buxgalteriya tilini o‘rganayotganlar uchun chalkashlik manbai bo‘lishi mumkin. Misollar: Kredit so‘zi: *buxgalteriya sohasida* – hisobvarag‘ining o‘ng tomoni, yoki bankdan olingan qarz mablag‘i; *umumiy tilda* – bankdan olingan qarz;

iqtisodda – bir mamlakatning boshqa mamlakatdan olish huquqi. Balans so‘zi: *buxgalteriya sohasida* – aktiv va passivning tengligini ko‘rsatuvchi hisobot.

Umumiy tilda – muvozanat; qoldiq (masalan, telefon balansi). Schet (Hisobvarag‘/Invoice) so‘zi – *buxgalteriya sohasida* – moliya operatsiyalarini guruhlash uchun ishlatiladigan kod (masalan, “51-schet”). *Umumiy tilda* – to‘lov hujjati (schet-faktura).

3. Sinonimiya (bir xil ma’nodagi so‘zlar) amaliyotda bir xil tushunchani ifodalovchi, lekin kelib chiqishi farq qiladigan terminlar mavjud. Misol uchun, *Asosiy vositalar = Asosiy fondlar = Durables; Sof daromad = Sof foyda = Net profit; Xomashyo = Materiallar* (ishlab chiqarish kontekstida) *= Raw materials; Debitor qarz = Hisob-kitoblar = Accounts receivable*

4. Antonimiya (qarama-qarshi ma’nodagi so‘zlar) buxgalteriya tilida qarama-qarshi tushunchalar juftligiga asoslangan. Misollarni ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, debit ↔ kredit, aktiv ↔ passiv, daromad ↔ xarajat, kirim ↔chiqim, debitor ↔ kreditor kabi so‘zlar misol bo‘la oladi.

5. Giponimiya (umumiy-xususiy munosabat). Umumiy tushunchaning (giperonim) ostida uning turlari (giponimlar) mavjud. Giperonimiya – tildagi so‘zlar o‘rtasidagi semantik munosabatlarning bir turi bo‘lib, unda bir so‘z (giperonim) umumiyroq, kengroq tushunchani bildirsa, boshqa so‘z (giponim) birinchisining doirasidagi aniqroq, konkret tushunchani bildiradi. Oddiy qilib aytganda, giperonim umumiy so‘z, giponim esa shu umumiy so‘zning alohida holidir. Bu munosabat diagramma sifatida ifodalanishi mumkin: “giperonim → giponim” yoki “umumiy → o‘ziga xos”. Oddiy misollardan, gul (giperonim) → atirgul, lola, romashka (giponimlar). “Atirgul” – “gul”ning alohida holati.

Buxgalteriya va audit sohasidagi teminlarning giperonim va giponimlarga misollar:

aktiv (giperonim) → *moddiy aktivlar, nomoddiy aktivlar, moliyaviy investitsiyalar* (giponimlar), *xarajat* (giperonim) → *ishlab chiqarish xarajatlari, savdo xarajatlari, ma’muriy xarajatlar* (giponimlar), *hisobot* (giperonim) → *balans, daromadlar to‘g‘risida hisobot, naqd pul oqimlari to‘g‘risida hisobot* (giponimlar), *audit faoliyati* (giperonim)→ *qonuniy audit, ixtiyoriy audit, soliq tekshiruvi, operativ audit* (giponimlar), *audit riski* (giperonim) → *o‘ziga xos xavf, nazorat qilish xavfi, aniqlash xavfi* (giponimlar), *moddiylik (materiality)* (giperonim) → *umumiy muhimlik darajasi, individual operatsiyalar uchun muhimlik darajasi* (giponimlar), *audit nazoratlari (audit procedures)*(giperonim) → *ichki nazorat testlari, tranzaksiyalar ruhsatini tekshirish, hujjatlarni solishtirish.*

Shunday qilib, asosiy giperonimlarni bilish buxgalteriya hisobi va audit atamalarining murakkab tizimida harakat qilish va ular orasidagi mantiqiy munosabatlarni tushunishga yordam beradi.

Xulosa. Buxgalteriya va audit terminlarining leksik semantikasi quyidagilar bilan tavsiflanadi:

1. Aniqlik: terminlarning asosiy qismi monosemantik (bir ma’noli) bo‘lib, sohaning ilmiyligi va amaliyligini ta’minlaydi.

2. Tizimlilik: terminlar bir-biri bilan qat’iy mantiqiy (debit-kredit, aktiv-passiv) va iyerarxik (giperonim-giponim) munosabatlar tarmog‘ida bog‘langan.

3. Xalqarolik: ko‘plab terminlar (aktiv, passiv, audit, likvidlik) xalqaro atamalar bo‘lib, turli tillarda o‘xshash shakl va ma’noga ega.

4. Kontekstga bog‘liqlik: umumiy tilda qo‘llaniladigan so‘zlar (kredit, balans) bu sohada o‘ziga xos, aniq ma’no kasb etadi.

Shuning uchun buxgalteriya va audit tilini o‘rganish nafaqat yangi so‘zlarni bilish, balki ularning o‘rtasidagi chuqur semantik (ma’noviy) bog‘liqliklarni va qat’iy belgilangan ma’nolar tizimini tushunishni nazarda tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Ahmedov O.S. Ingliz va tilshunoslikning rivojlanishi tilshunoslikni takomillashtirish usuli sifatida: Filologiya fanlari. Diss. – Toshkent, 2016. 21-b.

2.Azizov S.A. O’zbek tilining musiqiy terminologiyasini leksik va grammatik jihatdan o’rganish. – T., 1981. 284-b.

3.Bloomfield L., Til., – M.: Taraqqiyot, 1968.Law J., Owen G., Dictionary of Accounting, Oxford, 2010. 439 p.

4.Ibrohimov S.I. Tilshunoslikning asosiy darslari. “Nutq madaniyatiga oid masalalar” to‘plami – T., 1973. 192-b.

5.Hensleigh Wedgwood, A dictionary of English Etymology. – London, 1859. 1644 p.

6.O’Regan D. Auditor’s Dictionary: Terms, Concepts, Processes and Regulations, 2004. 314 p.

7.Safarov Sh. Semantika. Keng qamrovli tadqiqot. – Toshkent, 2013. 14- b.

8.Saussure F. Umumiy tilshunoslik kursi // Tilshunoslik bo‘yicha asarlar. – Moskva, 1977. 296 - b.

Nigora AVEZOVA,
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA HARAKATNI IFODALOVCHI FE’LLARNING PRAGMATIKASI

Annotatsiya: ushbu maqolada ingliz va o‘zbek tillarida harakatni ifodalovchi fe’llarning pragmatik xususiyatlari tahlil qilinadi. Tana harakati bilan bog‘liq fe’llar nutqning nafaqat semantik, balki pragmatik qatlamini ham tashkil etadi. Maqolada pragmalingvistika nazariyalari asosida tanlangan fe’llarning muloqot jarayonidagi kommunikativ va madaniy funksiyalari o‘rganilgan, ikki til o‘rtasida taqqoslama tahlil keltirilgan.

Kalit so‘zlar: *pragmalingvistika, tana harakati, fe’l, nutq akti, semantika, kontekst, madaniyatlararo tafovut, qiyosiy tipologiya.*

Annotation: this article analyzes the pragmatic features of verbs denoting human body movements in English and Uzbek. Such verbs play an essential role not only in the semantic but also in the pragmatic layer of speech. Based on pragmalinguistic theories, the paper explores the communicative and cultural functions of selected verbs in both languages and provides a comparative analysis of their usage.

Key words: *pragmalinguistics, body movement, verb, speech act, semantics, context, intercultural difference.*

Аннотация: в данной статье рассматриваются прагматические особенности глаголов, обозначающих движения частей тела человека в английском и узбекском языках. Эти глаголы играют важную роль не только в семантическом, но и в прагматическом уровне речи. На основе теорий прагмалингвистики исследуются коммуникативные и культурные функции данных глаголов и проводится их сопоставительный анализ.

Ключевые слова: *прагмалингвистика, движение тела, глагол, речевой акт, семантика, контекст, межкультурные различия.*

Kirish. Tilshunoslikda so‘nggi yillarda nutqning ma’nodosh, konnotativ va kontekstual jihatlari bilan bir qatorda **pragmatik omillar** ham keng o‘rganilmoqda. Pragmalingvistika insonning nutqdagi niyati, maqsadi va ta’sir kuchini tadqiq etuvchi yo‘nalish sifatida fe’llarning ma’no qatlamlarini yangi nuqtayi nazardan tahlil qiladi.

“Pragmatika” — yunoncha “ish”, “harakat”, kabi fikrlarni anglatib, nutqdagi til birliklarining funksionalligini o‘rganuvchi semiotika va tilshunoslikning yo‘nalishidir. Bu soha Sokratdan oldingi davrlarda ham qo‘llanilgan va keyinchalik uni J.Lokk, E.Kant singari faylasuflar Aristoteldan o‘zlashtirganlar. Shu yo‘sinda “Pragmatika” oqimi vujudga keldi. Yillar o‘tib bu fan sohasi zamonaviy tilshunoslik yo‘nalishiga aylanib bordi. Bugungi kunda “Pragmatika” — “Pragmalingvistika” nomli yangi soha sifatida rivojlanib, o‘rganilmoqda va tadqiqotlar olib borilmoqda.

Pragmalingvistika tilshunoslikning mustaqil yo‘nalishi sifatida o‘tgan asrning 70- yillarida shakllandi. 1970-yilda Dordrext shahrida “Tabiiy tillar pragmatikasi” (Pragmatikcs of natural languages) mavzusida xalqaro konferensiya bo‘lib o‘tdi. Konferensiya yakunida barcha qatnashuvchilar yagona: “Tabiiy til vositasida bajariladigan muloqotning pragmatik xususiyatlari ushbu muloqotning sintaktik va semantik xususiyatlari kabi lingvistik nazariyasi doirasida o‘rganilishi lozim” fikrga kelishdi. “Pragmalingvistika” fani gnoseologiya, tasavvuf, mantiq, (formal, dialektik), ilmiy tadqiqot metodologiyasi, sotsiologiya, madaniyatshunoslik, psixologiya, axborot texnologiyalari fanlari bilan bog‘liq bo‘lib, “Hozirgi o‘zbek adabiy tili”, “Til tarixi”, “Tilshunoslik nazariyasi”, “Sotsiolingvistika”, “Psixolingvistika”, kabi fanlar bilan uzviy va ketma-ket bog‘lanadi.

Pragmalingvistikaning asosiy maqsadlaridan biri lisoniy imkoniyatlarning nutqiy voqelanishini, ya’ni tilni axborot-kommunikatsiya vositasi sifatida o‘rganishdir. O‘tgan asr oxirlarida antropotsentrik tilshunoslikning yetakchi yo‘nalishlaridan biri sifatida maydonga kelgan pragmalingvistikada til egalarining borliqni idrok etishi, olam haqidagi tasavvurlari va uni tilda aks ettirishi, lisoniy tafakkuri, til ko‘nikmasi, nutqiy faoliyati, nutq obyekti haqidagi bilimlari, ruhiyati, voqelikka munosabati, kasb-kori, yoshi, gender belgisi kabi nolisoniy omillar bilan bog‘liq holda tadqiq etishga jiddiy e’tibor qaratila boshlandi. Pragmalingvistika hozirgi kunga kelib o‘rganish obyekti, asosiy tushunchalari, terminologik tizimi, nazariy muammolari, maqsad va vazifalarini aniq belgilab oldi. Pragmalingvistikaning tadqiqot obyekti, ya’ni muloqot

tizimi tahlili asosini faoliyat nazariyasi tashkil etadi. Keyingi yillarda so‘z darajasida ifodalangan axborot lisoniy birlikning keng kontekstda funksiyaga kirishuvi nuqtayi nazardan o‘rganila boshlandi. Bu o‘rinda lisoniy birlik ifodalaydigan kommunikativ maqsad, munosabat, harakat va ularning emotiv, volyuntativ, appelyativ, munosabat o‘rnatuvchi va estetik funksiyalari qo‘shimcha (konotativ) ma’no, pragmatik ma’no sifatida ham talqin qilina boshlandi.

Ayniqsa, inson tana a’zolari bilan bog‘liq harakat fe’llari — bosh irg‘ash, qo‘l silkitish, ko‘z qisish kabi birliklar — muloqot jarayonida muhim kommunikativ yukni bajaradi. Ushbu fe’llar faqatgina jismoniy harakatni emas, balki **rozilik, e’tiroz, befarqlik, kinoya yoki samimiyat** kabi holatlarni ham bildiradi. Ingliz va o‘zbek tillaridagi bunday fe’llarni taqqoslab o‘rganish ularning semantik hamda pragmatik o‘xshash va farqli jihatlarini aniqlash imkonini beradi.

Maqolaning maqsadi. Ingliz va o‘zbek tillaridagi tana a’zolari harakatini ifodalovchi fe’llarning **pragmatik funksiyalarini** tahlil qilish, ularning **madaniy kontekst**dagi o‘rnini aniqlashdir. Pragmalingvistika fan sifatida 20-asrning ikkinchi yarmida shakllandi. G. Leech (1983) va S. Levinson (1983)larning asarlarida pragmatika nutq aktlari, kontekst va ma’no munosabatlarini izohlaydigan mustaqil yo‘nalish sifatida ko‘riladi. H. Grice (1975) esa “hamkorlik prinsipi”ni ilgari surib, muloqotda ishtirokchilarning bir-biriga qanday tarzda ma’no yetkazishini tushuntirib berdi.

Pragmatik tahlilda fe’lning semantik ma’nosi emas, balki **gapiruvchi niyati** va **tinglovchiga ta’siri** asosiy o‘rinni egallaydi. Masalan, “U bosh irg‘adi” jumlasi vaziyatga qarab *rozilik*, *tasdiq*, yoki *beparvolik*ni ifodalashi mumkin. Shu bois, tana a’zolari harakatini ifodalovchi fe’llar **noverbal kommunikatsiya** elementlari bilan uzviy bog‘liq.

Mazkur fe’llar nutqda nafaqat harakatni tasvirlaydi, balki kommunikativ maqsadni amalga oshirish vositasi sifatida ham xizmat qiladi. Ingliz tilida “to nod”, “to shrug”, “to wink” kabi fe’llar ko‘pincha yashirin ma’no, hissiy munosabat yoki ijtimoiy pozitsiyani ifodalasa, o‘zbek tilidagi “bosh chayqamoq”, “qosh uyamoq”, “ko‘z qisib qo‘ymoq” kabi birliklar milliy mentalitet va madaniy qadriyatlar bilan chambarchas bog‘liq holda qo‘llanadi. Bu esa pragmatik ma’noning til va madaniyat o‘rtasidagi aloqadorlik asosida shakllanishini ko‘rsatadi. Shuningdek, tana a’zolari harakatini bildiruvchi fe’llarning pragmatik xususiyatlari nutq vaziyatiga, ishtirokchilarning ijtimoiy maqomiga, yoshiga hamda kommunikativ muhitga qarab o‘zgaradi. Masalan, o‘zbek nutq madaniyatida “bosh egmoq” hurmat va itoat belgisi sifatida talqin qilinsa, ingliz madaniyatida ayni harakat oddiy salomlashuv yoki e’tirof ma’nosini anglatishi mumkin. Demak, bir xil harakat turli madaniy makonlarda turlicha pragmatik yuklama kasb etadi.

Bundan tashqari, bunday fe’llar badiiy matnlarda personajning ruhiy holatini ochib berishda muhim stilistik vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Yozuvchi qahramonning ichki kechinmalarini bevosita tasvirlamasdan, uning tana harakati orqali kitobxonga yetkazadi. Natijada nutqning ta’sirchanligi va emotsional-ekspressivligi kuchayadi. Shu jihatdan, tana a’zolari harakatini ifodalovchi fe’llarning pragmatik tahlili tilshunoslikning semantika, pragmatika va madaniyatlararo kommunikatsiya kabi yo‘nalishlari uchun muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi. Ingliz tilida tana a’zolari harakatini ifodalovchi fe’llar ko‘p uchraydi: *to nod (bosh irg‘amoq), to wave (qo‘l silkitmoq), to shrug (yelka qisib qo‘ymoq), to wink (ko‘z qisib qo‘ymoq), to clap (qarsak chalmoq)* kabi. Bu fe’llar semantik jihatdan jismoniy harakatni bildirsa-da, pragmatik kontekstdagi ma’nosi vaziyatga qarab o‘zgaradi:

Inglizcha fe’l	**Denotativ ma’no**	**Pragmatik ma’no**
To nod	Boshni pastga egish	Rozilik, tasdiq
To shrug	Yelkani ko‘tarish	Beparvolik, noaniqlik
To wave	Qo‘l silkitish	Salomlashish yoki xayrlashish
To wink	Ko‘z qisish	Kinoya, sirli imo
To clap	Qarsak chalish	Maqtov, quvonch

Masalan, *He shrugged his shoulders* iborasi *u yelkasini qisdi* tarzida tarjima qilinsa-da, ingliz tilida bu ko‘pincha “bilmayman”, “menga farqi yo‘q” kabi befarqlik ifodasini beradi.

O‘zbek tilida ham tana a’zolari bilan bog‘liq fe’llar turlicha ma’nolarni anglatadi: *bosh irg‘amoq, qo‘l silkitmoq, ko‘z qisish, yelka qisish, qarsak chalish* kabi.

Quyidagi jadvalda ularning pragmatik xususiyatlari keltirilgan:

O‘zbekcha fe’l	Denotativ ma’no	Pragmatik ma’no
Bosh irg‘amoq	Boshni egish	Rozilik, tasdiq
Ko‘z qisish	Ko‘zni qisish	Ogohlantirish, iltifot, kinoya
Qo‘l silkitish	Qo‘lni harakatlantirish	Salomlashish, xayrlashish
Yelka qisish	Yelkani ko‘tarish	Beparvolik, ojizlik
Qarsak chalish	Kaftni urish	Quvonch, maqtov

Bu fe’llarning aksariyati xalq og‘zaki ijodida, kinofilmlarda va kundalik so‘zlashuvda keng ishlatiladi. Ingliz va o‘zbek tillaridagi tana harakati fe’llari orasida semantik o‘xshashliklar mavjud bo‘lsa-da, **pragmatik talqin** ko‘pincha madaniy kontekstga bog‘liq. Masalan: *To wink* (ko‘z qisish) ingliz tilida ko‘proq flört yoki kinoya ma’nosini bildiradi, o‘zbek tilida esa bu imo *ogohlantirish* yoki *hazil* sifatida qabul qilinadi.. *To wave* (qo‘l silkitish) ingliz tilida salomlashish yoki xayrlashishni bildirsa, o‘zbek tilida bu harakat ba’zida *e’tiborsizlik* yoki *menga farqi yo‘q* ma’nosida ham ishlatiladi.

Shunday qilib, pragmatik farqlar milliy madaniyat, muloqot me’yorlari va tana tilining o‘ziga xos talqiniga bog‘liq holda shakllanadi.

Har bir madaniyatda belgili (simbolic) hisoblanadigan aniq harakat mavjud. Agar harakat shunchaki so‘zma-so‘z tarjima qilinsa, asliyatdagi birlikning ma’nosi yo‘qqa chiqishi mumkin. Bu asliyat matnida ma’nosi muhim bo‘lgan birliklarga e’tiborsizlikdan hosil bo‘ladi. Masalan: *He nodded his head.*

Agar harakat shakli qabul qiluvchi tilidagi boshqa shakl bilan bog‘langan bo‘lsa, ba’zida belgili harakatni tarjima qilish qiyin kechadi. Misol uchun, agar asliyat tilida “musht ko‘rsatish” boshlangan bo‘lsa, tarjimon imo-ishora ma’nosini aniqlashtirish uchun “azob” ni ko‘rsatishi mumkin. Biroq “Musht ko‘rsatish” tarjima tilida boshqa ma’noni bildirsa, bunday tarjima o‘quvchilarning matnni tushunishiga xalal beradi. Muhimi shuki, tarjimon asliyat tilida ham, tarjima tilida ham, belgili harakat har xil ma’noga egaligidan xabardor bo‘lishi kerak. Quyida ingliz tilida belgili harakatni ifodalovchi ba’zi harakat fe’llari berilgan. 1. Wrinkling up nose (burnini qimirlatish), 2. Raise eyebrow (qoshini chimirish), 3. Shrug of shoulders (yelka uchirish), 4. Nod of head (bosh qimirlatish), 5. Clench teeth (tishni g‘ijirlatish), 6. Hands on hips, feet apart (yelka qisish).

Yuqorida keltirilgan misollardagi fe’llar boshqa kontekstda kelganida boshqacha ma’no bildirishi mumkin. Masalan, ingliz tilidagi *raise* so‘zi o‘zbek tilidagi *ko‘tarmoq* bilan ekvivalent bo‘ladi. Ammo raise + eyebrow ko‘rinishida kontekst/valentlik hosil qilinganda o‘zbek tiliga qoshni ko‘tarish emas, qoshni chimirish deb tarjima qilinishi lozim.

Bunday vaqtda olam lisoniy manzarasida tana a’zosi harakatini ifodalamaydigan so‘z o‘zbek tilida faqat tana a’zosi harakatini ifodalovchi fe’lga teng bo‘ladi. Boshqa misollar haqida ham xuddi shunday fikrni aytish mumkin.

Xulosa. Tana a’zolari harakatini ifodalovchi fe’llar ingliz va o‘zbek tillarida nafaqat harakatni, balki nutqning yashirin pragmatik qatlamini ifodalaydi. Ular orqali suhbatdoshning niyati, hissiy holati, ijtimoiy mavqeyi va madaniy qadriyatlari namoyon bo‘ladi. Tadqiqot natijasida ma’lum bo‘ldiki, ayrim fe’llar ikki tilda semantik jihatdan o‘xshash, ammo pragmatik jihatdan farqli bo‘lishi mumkin. Shu sababli ularni tarjima jarayonida kontekstual tahlil qilish muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Grice, H. P. (1975). *Logic and Conversation.* Oxford University Press.
2. Leech, G. (1983). *Principles of Pragmatics.* London: Longman.
3. Levinson, S. C. (1983). *Pragmatics.* Cambridge University Press.
4. Nurmonov, A. *Til va nutqning pragmatik tahlili.* – Toshkent: Fan, 2001.
5. Karimov, A.*O‘zbek tilida harakat fe’llarining semantikasi.* – Toshkent: O‘qituvchi, 2018.
6. G‘ofurov I., Mo‘minov O., Qambarov N. Tarjima nazariyasi. – Toshkent: Tafakkur bo‘stoni, 2012.27-bet.
7. D. Turdaliyeva “Til va adabiyot.uz’’ – Toshkent, 2025.167-169-betlar.

Shahinaxon NIGMATOVA,
O‘ZMU Xorijiy filologiya fakulteti Amaliy ingliz tili va adabiyotshunoslik kafedrasi katta o‘qituvchisi
e-mail: nigmatovashahina@gmail.com

SUN’IY INTELLEKTNING INGLIZ TILINI O‘RGANISHGA TA’SIRI

Annotatsiya: mazkur maqolada sun’iy intellekt texnologiyalarining ingliz tilini o‘rganish jarayoniga ko‘rsatayotgan lingvodidaktik va metodologik ta’siri tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida adaptiv ta’lim tizimlari, avtomatlashtirilgan baholash mexanizmlari hamda raqamli interaktiv platformalarning til kompetensiyalarini rivojlantirishdagi samaradorligi ilmiy-nazariy jihatdan yoritilgan. Shuningdek, sun’iy intellekt asosidagi vositalarning mustaqil ta’lim, kommunikativ faollik va individual yondashuvni shakllantirishdagi ahamiyati ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: *sun’iy intellekt, ingliz tili ta’limi, raqamli pedagogika, adaptiv o‘qitish, lingvodidaktika, interaktiv platformalar, avtomatlashtirilgan baholash, kommunikativ kompetensiya, innovatsion texnologiyalar, mustaqil ta’lim, til ko‘nikmalari, elektron ta’lim.*

Annotation: this article examines the linguodidactic and methodological impact of artificial intelligence technologies on the process of learning English. The study scientifically analyzes the effectiveness of adaptive learning systems, automated assessment mechanisms, and digital interactive platforms in developing language competencies. Furthermore, the significance of AI-based tools in promoting autonomous learning, communicative activity, and individualized instruction is highlighted.

Key words: *artificial intelligence, English language learning, digital pedagogy, adaptive learning, linguodidactics, interactive platforms, automated assessment, communicative competence, innovative technologies, autonomous learning, language skills, e-learning.*

Kirish. Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya jarayonlari ta’lim tizimining barcha bosqichlariga innovatsion texnologiyalarni keng joriy etishni taqozo etmoqda. Xususan, sun’iy intellekt texnologiyalarining rivojlanishi xorijiy tillarni, ayniqsa ingliz tilini o‘qitish metodikasida tub sifat o‘zgarishlarini yuzaga keltirdi. Zamonaviy ta’lim paradigmasida sun’iy intellekt asosidagi platformalar, adaptiv dasturlar va avtomatlashtirilgan lingvistik tizimlar ta’lim oluvchilarning individual ehtiyojlarini aniqlash, ularning til kompetensiyalarini bosqichma-bosqich rivojlantirish hamda o‘quv jarayonining samaradorligini oshirishda muhim vosita sifatida rivojlanmoqda va ommaga ham uning poydevori namoyon bo‘lmoqda. Bugungi kunda ingliz tilini o‘rganishda an’anaviy metodlarning raqamli texnologiyalar bilan integratsiyalashuvi natijasida interaktiv va kommunikativ muhit shakllanib, talabalarning mustaqil fikrlashi, tinglab tushunish, yozma va og‘zaki nutq ko‘nikmalarini rivojlantirish imkoniyatlari kengaymoqda. Mazkur tadqiqotning dolzarbligi sun’iy intellekt vositalarining ingliz tilini o‘rganish jarayoniga ko‘rsatayotgan ta’sirini ilmiy-nazariy asosda tahlil qilish, ularning ta’lim sifati va kommunikativ kompetensiyani shakllantirishdagi samaradorligini aniqlash zarurati bilan belgilanadi. Shuningdek, maqolada raqamli pedagogika sharoitida sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning afzalliklari, innovatsion imkoniyatlari hamda istiqbolli yo‘nalishlari yoritiladi.

Metodologiya. Mazkur tadqiqotda sun’iy intellekt texnologiyalarining ingliz tilini o‘rganish jarayoniga ko‘rsatayotgan ta’sirini aniqlash maqsadida kompleks va integrativ metodologik yondashuvdan foydalanildi. Tadqiqotning nazariy-metodologik asosini zamonaviy lingvodidaktika, raqamli pedagogika, psixolingvistika hamda kognitiv ta’lim nazariyalari tashkil etdi. Xususan, xorijiy til ta’limida innovatsion texnologiyalarni qo‘llash orqali kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishga oid ilmiy konsepsiyalar tahlil qilinib, ularning amaliy samaradorligi qiyosiy jihatdan o‘rganildi [1;176].

Tadqiqot davomida analiz va sintez, qiyosiy-tavsifiy, statistik hamda interpretatsion metodlardan kompleks ravishda foydalanildi. Analitik metod asosida sun’iy intellektga asoslangan raqamli platformalar, avtomatlashtirilgan baholash tizimlari va adaptiv ta’lim dasturlarining funksional imkoniyatlari o‘rganildi. Tadqiqotning empirik qismida ingliz tilini o‘rganayotgan talabalar faoliyati kuzatilib, ularning til

kompetensiyalaridagi o‘zgarishlar diagnostik mezonlar asosida baholandi. Jumladan, tinglab tushunish, yozma nutq, leksik boylik va og‘zaki kommunikativ faollik darajalari sun’iy intellekt vositalaridan foydalanishdan oldingi va keyingi holatda solishtirildi. Olingan natijalar shuni ko‘rsatdiki, adaptiv o‘quv tizimlari individual yondashuvni ta’minlash orqali o‘quvchilarning mustaqil ta’lim olish ko‘nikmalarini sezilarli darajada rivojlantiradi hamda til o‘zlashtirish jarayonining intensivligini oshiradi. Shuningdek, tadqiqot jarayonida kontent-tahlil metodidan foydalanilib, sun’iy intellekt asosidagi platformalarning pedagogik imkoniyatlari, interaktiv xususiyatlari va lingvodidaktik samaradorligi ilmiy manbalar asosida umumlashtirildi. Mazkur metodologik yondashuv tadqiqotning obyektivligi va ilmiy ishonchliligini ta’minlash bilan birga, sun’iy intellekt texnologiyalarining ingliz tili ta’limidagi istiqbolli yo‘nalishlarini aniqlash imkonini berdi [2; 297]. Metodologik tadqiqot jarayonida sun’iy intellekt texnologiyalarining ingliz tilini o‘qitishdagi samaradorligini aniqlash uchun kommunikativ-pragmatik yondashuv ham asosiy mezon sifatida tanlandi. Ushbu yondashuvga ko‘ra, til o‘rganish jarayoni faqat grammatik bilimlarni egallash bilan cheklanmay, balki real kommunikativ vaziyatlarda til birliklaridan maqsadga muvofiq foydalanish kompetensiyasini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, sun’iy intellekt asosidagi virtual suhbat tizimlari, chatbotlar va interaktiv dialog platformalarining talabalarda spontan nutq hosil qilish hamda kommunikativ moslashuvchanlikni rivojlantirishdagi roli alohida tahlil qilindi [3; 143]. Tadqiqotda, shuningdek, kognitiv-faoliyat yondashuvi asosida sun’iy intellekt vositalarining talabalarning tafakkur jarayonlariga ta’siri o‘rganildi. Mazkur yondashuvga muvofiq, raqamli texnologiyalar orqali taqdim etilayotgan vizual, audial va multimodal materiallar informatsiyani qayta ishlash tezligini oshirib, uzoq muddatli xotirada saqlanish ko‘rsatkichlarini kuchaytirishi aniqlandi. Ayniqsa, avtomatik tarjima tizimlari, talaffuzni aniqlovchi dasturlar va adaptiv lug‘at platformalaridan foydalanish talabalar tomonidan murakkab leksik birliklarni o‘zlashtirish jarayonini sezilarli darajada yengillashtirishi kuzatildi. Bundan tashqari, tadqiqotning statistik bosqichida respondentlarning o‘quv motivatsiyasi, mustaqil ishlash faolligi va raqamli kompetensiyalaridagi o‘zgarishlar maxsus diagnostik indikatorlar asosida tahlil qilindi. Natijalar sun’iy intellekt asosidagi ta’lim vositalari talabalarning o‘quv jarayoniga bo‘lgan ichki motivatsiyasini oshirish bilan birga, individual o‘zlashtirish sur’atiga moslashuvchi dinamik ta’lim muhitini shakllantirishini ko‘rsatdi [4; 201]. Shu bilan birga, mazkur texnologiyalar o‘quvchi va o‘qituvchi o‘rtasidagi interaktiv hamkorlikni kuchaytirib, ta’lim jarayonining refleksiv va analitik xarakterini rivojlantirishga xizmat qilishi aniqlandi.

Tadqiqot natijalari va tahlil. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, sun’iy intellekt texnologiyalarining ingliz tilini o‘rganish jarayoniga integratsiyalashuvi ta’lim samaradorligini sezilarli darajada oshiruvchi innovatsion omil sifatida namoyon bo‘lmoqda. Xususan, adaptiv o‘quv platformalari va avtomatlashtirilgan lingvistik tizimlardan muntazam foydalanilgan holatlarda talabalar tomonidan leksik birliklarni o‘zlashtirish darajasi, grammatik konstruksiyalarni amaliy qo‘llash hamda og‘zaki nutq faolligining ortishi kuzatildi. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, sun’iy intellekt asosidagi dasturlar individual o‘quv ehtiyojlarini aniqlash va shaxsiylashtirilgan ta’lim trayektoriyasini yaratish imkoniyatiga ega bo‘lib, bu esa o‘quv jarayonining differensiallashuvini ta’minlaydi. Tahlillar natijasida ma’lum bo‘ldiki, interaktiv chatbotlar va virtual kommunikativ platformalardan foydalanish talabalar nutqidagi psixologik to‘siqlarni kamaytirib, erkin muloqot qilish ko‘nikmalarining shakllanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Ayniqsa, real vaqt rejimida xatolarni avtomatik aniqlash va tuzatish funksiyasining mavjudligi o‘quvchilarning refleksiv fikrlash jarayonini faollashtirib, o‘z-o‘zini nazorat qilish kompetensiyasining rivojlanishiga xizmat qilganligi kuzatildi [5; 132]. Shu bilan birga, sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish natijasida tinglab tushunish va talaffuz kompetensiyalarida ham ijobiy dinamik o‘zgarishlar qayd etildi.

Empirik ma’lumotlar asosida o‘tkazilgan qiyosiy tahlillar an’anaviy metodlarga asoslangan o‘quv jarayonida talabalarning passiv qabul qiluvchi subyekt sifatida shakllanish ehtimoli yuqoriligini, sun’iy intellekt integratsiyasiga asoslangan ta’lim modelida esa ularning faol va mustaqil bilim egallovchi subyektga aylanishini ko‘rsatdi. Ayniqsa, multimodal kontentlarning qo‘llanilishi – audio, vizual va interaktiv elementlarning uyg‘unligi – informatsiyani kognitiv qayta ishlash jarayonini jadallashtirib, bilimlarning uzoq muddatli xotirada saqlanishi aniqlandi.

Tahlil jarayonida yana bir muhim jihat sifatida sun’iy intellekt texnologiyalarining motivatsion mexanizmlarga

ta’siri o‘rganildi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, gamifikatsiya elementlari bilan boyitilgan adaptiv platformalar talabalar o‘rtasida o‘quv faolligini kuchaytirib, ingliz tilini o‘rganishga nisbatan barqaror ichki motivatsiyani shakllantiradi. Bunday texnologiyalar orqali o‘quvchi o‘z bilim darajasini mustaqil monitoring qilish imkoniyatiga ega bo‘lib, bu holat o‘z navbatida ta’lim jarayonining refleksiv va avtonom xarakterini rivojlantiradi. Shuningdek, tadqiqot davomida ayrim muammoli jihatlar ham aniqlandi. Jumladan, sun’iy intellekt vositalaridan haddan tashqari foydalanish ayrim hollarda o‘quvchilarning analitik tafakkuriga salbiy ta’sir ko‘rsatishi, tayyor algoritmik javoblarga ortiqcha tayanish esa mustaqil ijodiy fikrlashning cheklanishi kuzatildi [5;203].

Umuman olganda, tadqiqot natijalari sun’iy intellekt texnologiyalarining ingliz tilini o‘rganish jarayonida nafaqat texnik innovatsiya, balki ta’lim paradigmasining transformatsiyasiga xizmat qiluvchi strategik pedagogik mexanizm sifatida shakllanayotganligini ko‘rsatdi. Mazkur texnologiyalar individual ta’lim modelini rivojlantirish, kommunikativ kompetensiyani takomillashtirish va raqamli pedagogikaning samaradorligini oshirishda istiqbolli vosita sifatida muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari sun’iy intellekt texnologiyalarining ingliz tilini o‘rganish jarayonidagi o‘rni zamonaviy ta’lim paradigmasining muhim tarkibiy elementi sifatida shakllanayotganligini ko‘rsatdi. Tahlillar asosida aniqlanishicha, adaptiv ta’lim tizimlari, avtomatlashtirilgan lingvistik platformalar hamda interaktiv raqamli vositalar ta’lim jarayonining individuallashuvini ta’minlab, talabalarning kommunikativ kompetensiyasi, mustaqil fikrlash qobiliyati va refleksiv yondashuvini rivojlantirishga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Ayniqsa, sun’iy intellekt asosidagi texnologiyalar o‘quvchilarning leksik va grammatik bilimlarini tizimli ravishda takomillashtirish bilan birga, tinglab tushunish, talaffuz va spontan nutq hosil qilish ko‘nikmalarining rivojlanishiga xizmat qilishi ilmiy jihatdan asoslandi. Umuman olganda, sun’iy intellekt texnologiyalari ingliz tili ta’limining samaradorligini oshirish, raqamli pedagogik muhitni rivojlantirish hamda ta’limning innovatsion modelini shakllantirishda strategik ahamiyat kasb etadi. Kelgusida mazkur texnologiyalarni lingvodidaktik va psixopedagogik jihatdan yanada chuqur tadqiq etish xorijiy til ta’limining sifat ko‘rsatkichlarini takomillashtirish hamda global axborotlashuv sharoitida raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash uchun muhim ilmiy-amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ashurov J. D. “Sun’iy intellekt tizimlarini oliy ta’limda joriy etish jarayoni muammolari va istiqbollari”. – Toshkent: “IQRO” ilmiy jurnali, 2025. 242–247-betlar.

2. Hotamova I. I. “Sun’iy intellekt va lingvodidaktika: integratsiyaning ilmiy asoslari”. – Moskva: Modern Scientific Research International Scientific Journal,2025,176–182-betlar.

3. Kendjayeva D. X., Normo‘minov A. A., Rajabova M. R. “Sun’iy intellekt texnologiyalarining O‘zbekiston oliy ta’lim tizimiga joriy etilishi: imkoniyatlar, muammolar va istiqbollar”. – Toshkent: O‘zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali, 2024. 91–96-betlar.

4. Kabulova T. “Sun’iy intellekt asosidagi ta’limiy platformalar: O’zbekistonda va xalqaro tajribada”. – Nukus: Ajiniyoz nomidagi NDPI ilmiy konferensiya materiallari,2025. 58–64-betlar.

5. Xoliqnazarov R., Abduboqiyev N., Mamurov S. “Sun’iy intellekt asoslarida neyron tarmoqlar: tuzilishi, o‘qitish usullari va amaliy qo‘llanilishi”. – Farg‘ona: Research and Implementation ilmiy jurnali, 2026. 112–119-betlar.

6. Choriyev H. A. “Oliy ta’lim muassasalarini o‘quv jarayonlarini boshqarish (sun’iy intellektning algoritmlari asosida)”. – Termiz: Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities, 2023. – №17. 41–46-betlar.

7. Turg‘unov M. B. “Sun’iy intelektning ta’limdagi o‘rni”. – Andijon: Modern Education and Development jurnali, 2025. – №5. 95–101-betlar.

8. Muxtorova Z., Sodikova N. “Adaptiv o‘quv tizimlarida sun’iy intellektning roli: personalizatsiya va natijalar”. – Toshkent: Eurasian Journal of Academic Research, 2024. – №6. 214–220-betlar.

Dilfuza URALOVA,
Senior teacher of Gulistan State University
dilfuza.uralova@gmail.com

MAKTABGACHA YOSHDA CHET TILINI O‘ZLASHTIRISHNING PSIXOLINGVISTIK VA KOGNITIV ASOSLARI

Annotatsiya: mazkur maqolada maktabgacha yoshda chet tilini o‘zlashtirishning psixolingvistik va kognitiv asoslari tahlil qilingan. Bolalarning tilni qabul qilish jarayoni, xotira, diqqat, tafakkur va nutq faoliyatining rivojlanishi hamda erta yoshda chet tilini o‘qitishning samarali jihatlari yoritilgan. Shuningdek, zamonaviy pedagogik yondashuvlar va interfaol usullarning ahamiyati tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: *maktabgacha ta’lim, chet tili, psixolingvistika, kognitiv rivojlanish, nutq faoliyati, bilish jarayoni, interfaol metodlar.*

Аннотация: в статье рассматриваются психолингвистические и когнитивные основы усвоения иностранного языка в дошкольном возрасте. Освещены особенности речевого развития детей, процессы памяти, внимания и мышления, а также эффективность интерактивных методов обучения иностранному языку.

Ключевые слова: *дошкольное образование, иностранный язык, психолингвистика, когнитивное развитие, речевая деятельность, интерактивные методы.*

Annotation: the article analyzes the psycholinguistic and cognitive foundations of foreign language acquisition in preschool age. It highlights children’s speech development, memory, attention, thinking processes, and the effectiveness of interactive methods in foreign language teaching.

Key words: *preschool education, foreign language, psycholinguistics, cognitive development, speech activity, interactive methods.*

Kirish. Bugungi globallashuv sharoitida chet tillarini o‘rganishga bo‘lgan ehtiyoj tobora ortib bormoqda. Ayniqsa, maktabgacha ta’lim bosqichida chet tilini o‘qitish bolaning intellektual va kommunikativ rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, erta yoshda til o‘rganish jarayoni bolalarning xotirasi, tafakkuri, diqqati va nutqiy qobiliyatlarining rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Maktabgacha yoshda chet tilini o‘zlashtirish jarayoni psixolingvistika va kognitiv psixologiya nuqtayi nazaridan alohida ahamiyatga ega. Chunki bu davrda bolaning miyasi yuqori darajada plastik xususiyatga ega bo‘lib, yangi axborotni tez qabul qiladi. Shu sababli bolalar chet tilini tabiiy muhitda, o‘yin va muloqot orqali oson o‘zlashtiradilar.

Mazkur maqolada maktabgacha yoshda chet tilini o‘zlashtirishning psixolingvistik va kognitiv asoslari, bolalarning nutqiy va bilish jarayonlari hamda chet tilini o‘qitishning samarali usullari tahlil qilinadi.

Metodologiya.

Tadqiqot jarayonida psixolingvistik va kognitiv yondashuvlar asosida tahlil, kuzatish, taqqoslash va umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Shuningdek, maktabgacha ta’lim tizimida chet tilini o‘qitishga oid ilmiy-metodik adabiyotlar tahlil qilindi. Tadqiqotda bolalarning chet tilini qabul qilishi, eslab qolishi va nutqda qo‘llash jarayonlari psixolingvistik nuqtayi nazardan o‘rganildi. Kognitiv yondashuv asosida esa diqqat, xotira, tafakkur va bilish jarayonlarining chet tilini o‘zlashtirishga ta’siri tahlil qilindi.

Maktabgacha yoshda chet tilini o‘zlashtirishning psixolingvistik asoslari.

Psixolingvistika insonning tilni qabul qilishi, tushunishi va qo‘llash jarayonlarini o‘rganadi. Maktabgacha yoshda bolalar tilni asosan taqlid qilish va eshitish orqali o‘zlashtiradilar. Bu jarayon tabiiy muloqot muhitida samarali kechadi. Bolalar chet tilidagi so‘z va iboralarni avval eshitish orqali qabul qiladi, keyin esa ularni nutqda qo‘llashga harakat qiladi. Shuning uchun erta yoshda chet tilini o‘qitishda audio-vizual vositalar, qo‘shiqlar, o‘yinlar va muloqot mashqlaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega.

Psixolingvistik nuqtayi nazardan qaralganda, maktabgacha yoshda tilni o‘rganish jarayonida emotsional muhit ham katta rol o‘ynaydi. Agar bola o‘zini erkin va qiziquvchan his qilsa, tilni o‘zlashtirish jarayoni tezlashadi.

Chet tilini o‘zlashtirishning kognitiv asoslari

Kognitiv psixologiya insonning bilish jarayonlarini o‘rganadi. Maktabgacha yoshda bolalarning kognitiv rivojlanishi tez kechadi va bu chet tilini o‘zlashtirish uchun qulay imkoniyat yaratadi.

Xotiraning ahamiyati

Erta yoshda bolalarning mexanik va obrazli xotirasi yaxshi rivojlangan bo‘ladi. Shu sababli ular qo‘shiq, she’r va o‘yinlar orqali yangi so‘zlarni tez eslab qoladilar.

Diqqat va tafakkur

Chet tilini o‘rganish bolalarning diqqatini jamlash va mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi. Turli interaktiv mashg‘ulotlar bolalarning bilish faolligini oshiradi.

Nutq rivojlanishi

Maktabgacha yoshda chet tilini o‘rganish bolalarning nutqiy faolligini kuchaytiradi. Ular yangi til birliklarini o‘zlashtirish orqali muloqot qilishga intiladilar.

Zamonaviy pedagogik yondashuvlar

Maktabgacha ta’limda chet tilini o‘qitishda interfaol va kommunikativ metodlar muhim ahamiyatga ega. O‘yin texnologiyalari, multimedia vositalari va vizual materiallar bolalarning qiziqishini oshiradi.

Quyidagi usullar samarali hisoblanadi: role play (rolli o‘yin);\n- storytelling (hikoya qilish);\n- songs and chants (qo‘shiq va she’rlar);\n- flashcards;\n- multimedia texnologiyalari.

Bu metodlar bolalarning eshitish, ko‘rish va nutqiy faolligini bir vaqtning o‘zida rivojlantiradi.

Natijalar

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, maktabgacha yoshda chet tilini o‘qitish bolalarning kognitiv va nutqiy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Ayniqsa, interfaol metodlar asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlarda bolalarning lug‘at boyligi va muloqot ko‘nikmalari tezroq rivojlanadi. Shuningdek, o‘yin va kommunikativ mashqlar bolalarning chet tiliga bo‘lgan qiziqishini oshirishi aniqlandi. Emotsional jihatdan qulay muhit yaratish tilni o‘zlashtirish samaradorligini kuchaytirishi kuzatildi.

Muhokama

Psixolingvistik va kognitiv yondashuvlar asosida chet tilini erta yoshdan o‘qitish bolalarning intellektual, kommunikativ hamda ijtimoiy rivojlanishiga sezilarli darajada ijobiy ta’sir ko‘rsatishi ilmiy tadqiqotlarda asoslab berilgan. Xususan, maktabgacha yosh davrida bolaning miyasi yuqori darajadagi plastiklik xususiyatiga ega bo‘lib, bu davrda yangi til birliklarini tabiiy va tez o‘zlashtirish imkoniyati kuchli bo‘ladi. Psixolingvistika nuqtayi nazaridan qaralganda, bolalar chet tilini grammatik qoidalarni ongli ravishda yodlash orqali emas, balki tinglash, takrorlash, taqlid qilish va kommunikativ vaziyatlarda faol ishtirok etish orqali egallaydilar. Kognitiv yondashuv esa chet tilini o‘rganish jarayonida tafakkur, xotira, diqqat va mantiqiy fikrlash kabi bilish jarayonlari ham parallel ravishda rivojlanishini ta’kidlaydi. Shu bois erta yoshdan chet tilini o‘qitish nafaqat lingvistik kompetensiyani, balki bolaning umumiy intellektual salohiyatini ham shakllantirishga xizmat qiladi.

Ayniqsa, bolalarning tilni tabiiy qabul qilish va fonetik birliklarni tez farqlash qobiliyati maktabgacha ta’lim muassasalarida chet tilini samarali tashkil etish uchun qulay pedagogik muhit yaratadi. Erta yoshdagi bolalar o‘yin, qo‘shiq, she’r, multfilm, rolli mashg‘ulotlar va vizual vositalar orqali til materialini osonroq o‘zlashtiradilar. Bunday metodlar bolaning emotsional holatini faollashtirib, ta’lim jarayoniga qiziqishini oshiradi hamda til o‘rganishni tabiiy kommunikativ faoliyatga aylantiradi. Natijada bolalarda talaffuz aniqligi, eshitib tushunish ko‘nikmasi va sodda nutqiy birliklardan foydalanish malakasi shakllanadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, maktabgacha yoshda chet tilini o‘zlashtirishning psixolingvistik va kognitiv asoslari bolalarning nutqiy va intellektual rivojlanishida muhim o‘rin tutadi. Erta yoshda til o‘rganish xotira, diqqat, tafakkur va kommunikativ qobiliyatlarni rivojlantiradi.

Shuningdek, interfaol va kommunikativ metodlardan foydalanish bolalarning chet tiliga qiziqishini oshirib, tilni samarali o‘zlashtirishga yordam beradi. Shu sababli maktabgacha ta’lim tizimida zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida chet tilini o‘qitishni takomillashtirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Выготский Л. С. Мышление и речь. – Москва: Педагогика, 1999.
2. Леонтьев А. А. Психолингвистика. – Москва, 2003.
3. Piaget J. The Psychology of the Child. – New York, 2000.
4. Krashen S. Principles and Practice in Second Language Acquisition. – Oxford, 1982.
5. Brown H. D. Principles of Language Learning and Teaching. – Pearson Education, 2007.
6. Jalolov J. J. Chet til o‘qitish metodikasi. – Toshkent, 2012.
7. Galskova N. D. Теория обучения иностранным языкам. – Москва, 2004.
8. Uralova, D. S. (2026). METHODS OF TEACHING ENGLISH TO PRESCHOOL CHILDREN. YANGI RENESSANS, 3(2), 51-53.
9. Richards J. Communicative Language Teaching Today. – Cambridge University Press, 2006.
10. Passov E. И. Коммуникативный метод обучения иноязычному говорению. – Москва, 1991.
11. Urazova, M. S. COMPARATIVE-TYPOLOGICAL CLASSIFICATION OF APPLIED ART TERMS (BASED ON ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES).

Feruza MUHAMMADIYEVA,
Termiz davlat pedagogika instituti
Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim fakulteti
Maktabgacha ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDAGI TARBIYALANUVCHILAR FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING LOYIHALASHTIRISH XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: mazkur ishda maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilar faoliyatini rivojlantirishning loyihalashtirish xususiyatlari tahlil etiladi. Ta’lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etishda pedagogik loyihalashtirishning o‘rni, uning bosqichlari va usullari yoritilgan. Shuningdek, bolalarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda faoliyatni rejalashtirish, ijodkorlikni rivojlantirish hamda interaktiv metodlardan foydalanish masalalari ko‘rib chiqiladi. Tadqiqotda loyihalashtirish yondashuvining samaradorligi va uni amaliyotga joriy etish yo‘llari asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: *maktabgacha ta’lim, tarbiyalanuvchilar faoliyati, pedagogik loyihalashtirish, rivojlantirish, interaktiv metodlar, ijodkorlik, individual yondashuv, ta’lim jarayoni*

Аннотация: в данной работе анализируются особенности проектирования развития деятельности воспитанников в дошкольных образовательных организациях. Освещается роль педагогического проектирования в эффективной организации образовательного процесса, его этапы и методы. Особое внимание уделяется учету возрастных и индивидуальных особенностей детей, планированию их деятельности, развитию творческих способностей и применению интерактивных методов обучения. Обоснована эффективность проектного подхода и пути его внедрения в практику.

Ключевые слова: *дошкольное образование, деятельность воспитанников, педагогическое проектирование, развитие, интерактивные методы, творчество, индивидуальный подход, образовательный процесс*

Annotation: this paper analyzes the features of designing the development of activities of children in preschool educational institutions. It highlights the role of pedagogical design in organizing the educational process effectively, as well as its stages and methods. Special attention is given to considering children’s age and individual characteristics, planning their activities, fostering creativity, and applying interactive teaching methods. The effectiveness of the project-based approach and ways of its implementation in practice are substantiated.

Key words: *preschool education, children’s activities, pedagogical design, development, interactive methods, creativity, individual approach, educational process*

Kirish. Hozirgi kunda ta’lim tizimini modernizatsiya qilish jarayonida maktabgacha ta’lim tizimiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Chunki aynan maktabgacha yosh davri bolaning intellektual, jismoniy, ijtimoiy va emotsional rivojlanishida muhim bosqich hisoblanadi. Shu bois maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilar faoliyatini samarali tashkil etish va rivojlantirish dolzarb pedagogik muammolardan biri sanaladi.

Zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida ta’lim jarayonini loyihalashtirish, ya’ni oldindan rejalashtirilgan, tizimli va maqsadga yo‘naltirilgan faoliyatni tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi. Pedagogik loyihalashtirish orqali tarbiyalanuvchilarning qiziqishlari, ehtiyojlari va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda ularning faoliyatini samarali rivojlantirish imkoniyati yaratiladi. Bu esa bolalarda mustaqil fikrlash, ijodkorlik, muammoli vaziyatlarni hal etish kabi muhim kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Mazkur mavzuning dolzarbligi shundaki, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilar faoliyatini rivojlantirish jarayonida loyihalashtirishning o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash va amaliyotga joriy etish ta’lim sifatini oshirishga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shuningdek, innovatsion pedagogik texnologiyalar va interaktiv metodlardan samarali foydalanish orqali ta’lim jarayonining samaradorligini oshirish imkoniyati kengayadi.

Ushbu ishning maqsadi – maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilar faoliyatini rivojlantirishning loyihalashtirish xususiyatlarini o‘rganish hamda ularni amaliyotga tatbiq etish yo‘llarini asoslashdan iborat.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilar faoliyatini rivojlantirish hamda pedagogik loyihalashtirish masalalari ko‘plab mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan keng o‘rganilgan. Ushbu yo‘nalishdagi ilmiy tadqiqotlar bolalarning har tomonlama rivojlanishini ta’minlashda zamonaviy pedagogik yondashuvlarning ahamiyatini asoslab beradi.

Maktabgacha ta’lim nazariyasi va metodikasi sohasida L.S. Vygotsky tomonidan ishlab chiqilgan ijtimoiy-madaniy rivojlanish nazariyasi muhim o‘rin egallaydi. Unga ko‘ra, bolaning rivojlanishi ijtimoiy muhit va faoliyat jarayoni

bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, ayniqsa “yaqin rivojlanish zonasi” konsepsiyasi ta’limni loyihalashtirishda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Shuningdek, Jean Piagetning kognitiv rivojlanish nazariyasi bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda ta’lim faoliyatini tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Pedagogik loyihalashtirish masalalari John Dewey tomonidan ilgari surilgan tajribaga asoslangan ta’lim g‘oyalari bilan chambarchas bog‘liq. U ta’lim jarayonida bolalarning faol ishtirokini ta’minlash va amaliy faoliyat orqali bilimlarni egallash zarurligini ta’kidlagan. Zamonaviy tadqiqotlarda esa loyihaviy yondashuv ta’lim samaradorligini oshirishning muhim vositasi sifatida qaraladi.

Maktabgacha ta’limda faoliyatni rivojlantirishga oid ilmiy ishlar orasida Maria Montessori metodikasi alohida ahamiyatga ega.Montessori yondashuvi bolalarning mustaqil faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, individual rivojlanish sur’atlarini hisobga olish va muhitni pedagogik jihatdan to‘g‘ri tashkil etishga asoslanadi. Bu esa pedagogik loyihalashtirish jarayonida muhim omil hisoblanadi.

Mahalliy olimlar tomonidan ham maktabgacha ta’limni rivojlantirish, pedagogik texnologiyalarni joriy etish va ta’lim jarayonini loyihalashtirishga oid qator ilmiy izlanishlar olib borilgan. Ularning ishlarida ta’lim jarayonini innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etish, interaktiv metodlardan foydalanish hamda bolalarning ijodiy va mustaqil fikrlashini rivojlantirish masalalari keng yoritilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilar faoliyatini rivojlantirishning loyihalashtirish xususiyatlarini o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, unda kompleks yondashuv asosida nazariy va empirik metodlardan foydalanildi.

Tadqiqotning metodologik asosini pedagogika va psixologiya fanlarining asosiy konsepsiyalari, xususan, L.S. Vygotskyning ijtimoiy-madaniy rivojlanish nazariyasi, Jean Piagetning kognitiv rivojlanish nazariyasi hamda Maria Montessorining individual rivojlanishga yo‘naltirilgan yondashuvi tashkil etadi. Ushbu nazariyalar bolalarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda ularning faoliyatini samarali rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot jarayonida quyidagi metodlardan foydalanildi:

- **Nazariy metodlar:** ilmiy-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish, taqqoslash, umumlashtirish va tizimlashtirish orqali mavzuga oid ilmiy qarashlar o‘rganildi.
- **Empirik metodlar:** kuzatish, suhbat, so‘rovnoma va pedagogik tajriba orqali maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilar faoliyatini rivojlantirish jarayoni o‘rganildi.
- **Pedagogik tajriba (eksperiment):** loyihalashtirish asosida tashkil etilgan ta’lim faoliyatining samaradorligi aniqlanib, an’anaviy yondashuv bilan taqqoslandi.
- **Statistik metodlar:** olingan natijalarni qayta ishlash, tahlil qilish va umumlashtirish uchun qo‘llanildi.

Tadqiqot obyekti sifatida maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilar faoliyatini rivojlantirish jarayoni belgilandi. Tadqiqot predmeti esa mazkur jarayonni pedagogik loyihalashtirish asosida tashkil etishning o‘ziga xos xususiyatlaridan iborat.

Tahlil va natijalar. Tadqiqot jarayonida maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilar faoliytini rivojlantirishda pedagogik loyihalashtirish yondashuvining samaradorligi o‘rganildi. Tajriba-sinov ishlari davomida an’anaviy o‘qitish usullari bilan loyihalashtirish asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni o‘zaro taqqoslandi.

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, an’anaviy yondashuvda tarbiyalanuvchilarning faol ishtiroki nisbatan past bo‘lib, ularning mustaqil fikrlash va ijodkorlik ko‘nikmalari yetarli darajada rivojlanmagan. Aksincha, pedagogik loyihalashtirish asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlarda bolalarning ta’lim jarayonidagi faolligi sezilarli darajada oshdi. Ular berilgan topshiriqlarni mustaqil bajarishga, muammoli vaziyatlarga yechim topishga va o‘z fikrlarini erkin ifodalashga intildilar.

Tajriba natijalari asosida quyidagi ijobiy o‘zgarishlar aniqlandi:

- tarbiyalanuvchilarning bilishga bo‘lgan qiziqishi oshdi;
- mustaqil faoliyat olib borish ko‘nikmalari shakllandi;
- ijodiy fikrlash va muammoli vaziyatlarni hal etish qobiliyati rivojlandi;
- guruhda ishlash va muloqot qilish malakalari yaxshilandi;
- ta’lim jarayonida interaktiv metodlardan foydalanish samaradorligi ortdi.

Statistik tahlil natijalari ham loyihalashtirish asosidagi yondashuvning ustunligini tasdiqladi.Tajriba guruhida yuqori ko‘rsatkichlarga erishgan tarbiyalanuvchilar ulushi nazorat guruhiga nisbatan sezilarli darajada yuqori bo‘ldi. Bu esa pedagogik loyihalashtirishning amaliy samaradorligini ko‘rsatadi.

Shuningdek, kuzatishlar davomida tarbiyachilarning ham kasbiy faoliyatida ijobiy o‘zgarishlar kuzatildi. Ular ta’lim jarayonini rejalashtirishda yanada ijodkorlik bilan yondashib, bolalarning individual xususiyatlarini hisobga olishga ko‘proq e’tibor bera boshladilar.

Xulosa va tahlil. Olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilar faoliyatini rivojlantirishda pedagogik loyihalashtirish muhim metodik yondashuvlardan biri hisoblanadi. Tahlil jarayonida aniqlanishicha, an’anaviy ta’lim usullari ko‘proq reproduktiv faoliyatga yo‘naltirilgan bo‘lib, bolalarning mustaqil fikrlashi va ijodiy qobiliyatlarini yetarli darajada rivojlantira olmaydi.

Pedagogik loyihalashtirish asosida tashkil etilgan ta’lim jarayonida esa bolalar faol ishtirok etadi, ularning qiziqishlari va ehtiyojlari hisobga olinadi hamda individual yondashuv ta’minlanadi. Natijada ta’lim jarayoni yanada samarali va mazmunli tashkil etiladi.Tahlillar shuni ham

ko‘rsatdiki, loyihalashtirish yondashuvi interaktiv metodlar bilan uyg‘unlashganda yanada yuqori natijalarga erishish imkonini beradi.

Shuningdek, tarbiyachilarning pedagogik faoliyatida ham ijobiy o‘zgarishlar kuzatilib, ular ta’lim jarayonini rejalashtirishda innovatsion yondashuvlardan foydalanishga intilmoqda. Bu esa ta’lim sifatining oshishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Xulosa. Mazkur tadqiqot natijalariga asoslanib quyidagi xulosalarga kelindi:

- maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilar faoliyatini rivojlantirishda pedagogik loyihalashtirish samarali yondashuv hisoblanadi;
- loyihalashtirish asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni bolalarning mustaqil fikrlash, ijodkorlik va muloqot ko‘nikmalarini rivojlantiradi;
- ta’lim jarayonida interaktiv metodlardan foydalanish uning samaradorligini sezilarli darajada oshiradi;
- bolalarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish ta’lim sifatini ta’minlashning muhim sharti hisoblanadi;
- pedagogik loyihalashtirishni amaliyotga keng joriy etish maktabgacha ta’lim tizimini yanada rivojlantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.TURAKULOVNA M. F., QIZI M. M. M. COMPETENCE OF THE EDUCATOR IN THE ORGANIZATION OF VISUAL ACTIVITIES // International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences. – 2021. – T. 1. – №. 2.– C. 100-103.

2. Muhammadiyeva F. T. Technology familiarization of preschoolers with various materials through cognitive research activities //European research. – T. 1. – C. 75.

3.Turakulovna M. F. MAKTABGACHA TA’LIMDA TEXNOLOGIYA TA’LIMI: BOLALARGA ARTEFAKTLARDAN FOYDALANISH VA YARATISH IMKONIYATLARINI TA’MINLASH: Muxammadiyeva Feruza Turakulovna, Termiz davlat pedagogika instituti, maktabgacha ta’lim nazariyasi kafedrasi o ‘qituvchisi //Образование и инновационные исследования международный научнометодический журнал. – 2023. – №. 2. – C. 180-182.

4.Aziza C. BOLALAR ADABIYOTI NAFOSAT TARBIYASINING ASOSIY VOSITASI SIFATIDA: Cho ‘tbayeva Aziza, maktabgacha ta’lim kafedrasi o ‘qituvchisi, Termiz davlat universitetining Pedagogika instituti //Научно-практическая конференция. – 2022. – C. 1122- 1124.

5.Muhammadiyeva F. THE ROLE OF PEDAGOGICAL WORKERS OF THE PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATION IN SOCIAL ACTIVITIES WITH CHILDREN //International Bulletin of Medical Sciences and Clinical Research. – 2023. – T. 3. – №. 4. – C. 94- 96.

6.Muhammadiyeva F., Muyassar E. MAKTABGACHA TA’LIM YOSHIDAGI BOLALARNING XOTIRASINI KUCHAYTIRISH USULLARI //Journal of new century innovations. – 2023. – T. 28. – №. 5. – C. 54-59.

7.Muhammadiyeva F. MAKTABGA TAYYORLOV GURUHLARI TARBIYALANUVCHILARINI MILLIY QADRIYATLAR ASOSIDA TARBIYALASH YO’LLARI //Interpretation and researches. – 2023. – T. 2. – №. 1. 8. Muhammadiyeva F. THE ROLE OF EDUCATORS OF THE PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATION IN SOCIAL ACTIVITIES WITH CHILDREN //International Bulletin of Applied Science and Technology. – 2022. – T. 2. – №. 10. – C. 225-227.

8.Muhammadiyeva Feruza AS A FACTOR OF EDUCATION- SOCIALIZATION Web of Scientist: Международный научный исследовательский журнал , 4 (04), (2023). 427– 442. https://doi.org/10.17605/OSF.IO/M9KQ

9.Muxabbat Berdieva, Feruza Muhammadiyeva, Malika Jumaeva, Lola O’tasheva. Beneficial effect of walnuts on brain activity.BIO Web Conferences.-1-9, 2024 11.Muhammadiyeva Feruza To’raqulovna .FUNDAMENTALS OF THE FORMATION OF THE COMPETENCE OF SOCIAL DEVELOPMENT OF EDUCATORS OF THE PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATSION. «Экономика и социум». 2024 yil

10.Чориева С. Ч. и др. ИГРА КАК ВЕДУЩАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ РЕБЕНКА ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА //Gospodarka i Innowacje. – 2024. – T. 48. – C. 138- 140.

11.Чориева С. Ч. УМЕНИЕ УЧИТЕЛЯ ИСПОЛЬЗОВАТЬ СОВРЕМЕННЫЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ ТЕХНОЛОГИИ ПРИ ПОДГОТОВКЕ УЧАЩИХСЯ К ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ НА ОСНОВЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ЦЕННОСТЕЙ // Экономика и социум. – 2024. – №. 10-2 (125). – С. 998-1001. 12.Choriyeva S. C. TALABALARNI TA’LIMIY QADRIYATLAR ASOSIDA PEDAGOGIK FAOLIYATGA TAYYORLASHNI RIVOJLANTIRISH TIZIMI //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – T. 2. – №. 4 SPECIAL. – C. 1177-1181.

13.Choriyeva S. MAKTABGACHA TA’LIM TIZIMIDA TA’LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING MUAMMO VA YECHIMLARI //Физико-технологического образование. – 2022. – №. 4.

14.Choriyeva S. DIDACTIC OPPORTUNITIES OF THE NATIONAL CURRICULUM FOR MOTHER TONGUE AND READING LITERACY IN PRIMARY SCHOOLS //Conferencea. – 2022. – C. 527-529.

A.O.XABIBULLOYEV
Termiz davlat pedagogika instituti
axabibulloyev17@gmail.com;

O.O.XABIBULLOYEV,
Muzrabot tumani 1-son texnikum
xabibulloyevo@gmail.com;

S.Z.XUDAYKULOVA,
Termiz davlat pedagogika instituti
hudaykulova.sz@gmail.com

AXBOROT MUHITIDA PEDAGOGIK LOYIHALASHTIRISH JARAYONINING BOSQICHLARI

Annotatsiya: mazkur maqolada axborot-ta'lim muhiti sharoitida pedagogik loyihalashtirishning mazmun-mohiyati va uning tarkibiy bosqichlari tizimli tahlil qilinadi. Muallif raqamli texnologiyalarni o'quv jarayoniga tatbiq etishda shunchaki texnik vositalardan foydalanish yetarli emasligini, aksincha, ta'limning metodik va tashkiliy asoslarini qayta loyihalash zarurligini asoslab beradi. Maqolada tahlil, loyiha konsepsiyasi, kontentni shakllantirish va natijalarni baholash kabi jarayonlarning o'zaro bog'liqligi yoritilgan.

Kalit so'zlar: *pedagogik loyihalash, axborot muhiti, raqamli ta'lim, ta'lim metodologiyasi, interfaol o'qitish, o'quv jarayonini modellashtirish.*

Аннотация: в данной статье проводится системный анализ сущности и структурных этапов педагогического проектирования в условиях информационной образовательной среды. Автор обосновывает, что при внедрении цифровых технологий в учебный процесс недостаточно простого использования технических средств, а необходима перепроектировка методических и организационных основ обучения. В статье освещена взаимосвязь таких процессов, как анализ, разработка концепции проекта, формирование контента и оценка результатов.

Ключевые слова: *педагогическое проектирование, информационная среда, цифровое образование, методология обучения, интерактивное обучение, моделирование учебного процесса.*

Annotation: this article provides a systematic analysis of the essence and structural stages of pedagogical design in the information-educational environment. The author argues that the integration of digital technologies into the educational process requires more than just technical tools; it necessitates a redesign of the methodological and organizational foundations of teaching. The article highlights the interconnection of processes such as analysis, project concept development, content formation, and evaluation of results.

Key words: *pedagogical design, information environment, digital education, teaching methodology, interactive learning, modeling the educational process.*

Zamonaviy ta'lim tizimida axborot muhitining shakllanishi o'qituvchining darsga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tish metodikasini tubdan o'zgartirib yubordi. Bugun pedagog nafaqat bilim beruvchi, balki o'quv jarayonini murakkab raqamli makonda boshqaruvchi me'mor — dizayner sifatida namoyon bo'lmoqda. Pedagogik loyihalashtirish aynan mana shu jarayonda darsning samaradorligini ta'minlovchi poydevor vazifasini o'taydi. Bu jarayon shunchaki dars rejasini tuzish emas, balki kutilayotgan natijaga erishish uchun axborot oqimlari va inson omilini bir nuqtada birlashtirish san'atidir.

Axborot muhitida loyihalashtirishning birinchi va eng muhim bosqichi mantiqiy tahlilga tayanadi. Bu yerda pedagog "Biz nimaga erishmoqchimiz?" va "O'quvchining hozirgi tayyorgarligi bunga mosmi?" degan savollarga javob izlaydi. Raqamli makonda dars loyihalayotgan o'qituvchi o'quvchilarning texnik imkoniyatlarini, ularning virtual muloqotga tayyorligini va eng asosiysi, mavzuning qaysi qismlarini mustaqil, qaysilarini o'qituvchi bilan birga o'zlashtirish zarurligini aniq belgilab olishi kerak. Bu bosqichda yo'l qo'yilgan metodik kamchilik kelajakda darsning texnik jihatdan mukammal bo'lsa-da, mazmunan bo'sh bo'lishiga olib kelishi mumkin.

Tahlildan so'ng bevosita loyihaning konseptual qismini shakllantirish jarayoni boshlanadi. Bu bosqichda darsning strategik yo'nalishi tanlanadi. Agar an'anaviy darsda o'qituvchining nutqi asosiy vosita bo'lsa, axborot muhitida axborotning taqdim etilish shakli — video, matn, infografika yoki interaktiv topshiriqlar zanjiri muhim o'ringa chiqadi. Loyihalashtirishning ushbu pallasida o'quv materiali kichik, oson hazm qilinadigan qismlarga bo'linadi. Bu raqamli dunyodagi "diqqat tanqisligi" muammosini hal qilishga qaratilgan bo'lib, o'quvchining dars davomida charchab qolmasligini va qiziqishini yo'qotmasligini ta'minlaydi.

Keyingi bosqichda ishlab chiqilgan konsepsiya real o'quv materiallari — kontent ko'rinishiga keltiriladi. Axborot-ta'lim muhiti uchun kontent yaratish jarayoni ijodiy yondashuvni talab qiladi. Bunda pedagogik dizayn tamoyillariga amal qilish, ranglar uyg'unligidan tortib, shriftlarning o'qilishi va videolarning davomiyligigacha e'tibor berish lozim. Mazkur bosqichning murakkabligi shundaki, har bir yaratilgan material talaba bilan "muloqot"ga kirisha olishi kerak. Ya'ni, o'quvchi topshiriqni bajarganda tizim unga javob

qaytarishi, xatosini ko‘rsatishi yoki keyingi bosqichga yo‘l ochishi loyihalashtirilgan bo‘lishi shart. Bu interfaollikni ta’minlashning asosiy shartidir. Tayyor bo‘lgan loyihani amaliyotga tatbiq etish yoki implementatsiya bosqichi o‘ziga xos sinov hisoblanadi. Bu yerda loyihaning qanchalik hayotiyligi ma’lum bo‘ladi. Axborot muhitida pedagogik jarayonni amalga oshirishda o‘qituvchi endi darsning markazida emas, balki yonida turadi. U talabalarni o‘quv platformasidagi faoliyatini koordinatsiya qiladi, vujudga kelgan texnik yoki tushunmovchiliklarni bartaraf etadi. Shu bilan birga, bu bosqichda talabalar o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikni (collobaration) tashkil etish, forumlar va guruhli chatlar orqali jamoaviy bilim olish muhitini yaratish lozim. Loyihalashtirish jarayoni baholash va takomillashtirish bosqichi bilan yakunlanadi, biroq axborot muhitida baholash faqatgina talabaning olgan bahosi bilan cheklanmaydi. Bunda o‘qituvchi o‘zi yaratgan pedagogik modelning samaradorligini ham tahlil qiladi. Masalan, agar aksariyat talabalar ma’lum bir video-ma’ruzani oxirigacha ko‘rmagan bo‘lsa yoki ma’lum bir testda ko‘p xatoga yo‘l qo‘ygan bo‘lsa, demak, loyihaning o‘sha qismini qayta ko‘rib chiqish kerak. Shu ma’noda, pedagogik loyihalashtirish to‘xtovsiz davom etadigan, dinamik va o‘z-o‘zini takomillashtirib boruvchi jarayondir.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, axborot-ta’lim muhitida pedagogik loyihalashtirish — bu kelajak ta’limining asosi hisoblanadi. U o‘qitish sifatini yangi bosqichga ko‘tarish bilan birga, ta’lim oluvchilarning mustaqil izlanish va raqamli dunyoda erkin harakatlanish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Mazkur jarayonning har bir bosqichiga ilmiy va metodik jihatdan to‘g‘ri yondashish ta’lim tizimini raqamlashtirishning asosiy omilidir. Yuqorida bayon etilgan mulohazalardan kelib chiqib, axborot-ta’lim muhitida pedagogik loyihalashtirish jarayoni nafaqat ta’limni tashkil etishning yangi modeli, balki uning sifat ko‘rsatkichlarini tubdan yangilovchi kompleks tizim ekanligini ta’kidlash mumkin. Mazkur jarayonning asosiy afzalligi shundaki, u o‘quvchi markazli yondashuvni ta’minlab, ta’lim oluvchini passiv bilim iste’molchisi emas, balki faol ishtirokchi, mustaqil fikrlovchi subyekt sifatida shakllantiradi. Ayniqsa, interaktiv kontent, adaptiv tizimlar va doimiy teskari aloqaning mavjudligi o‘quvchilarning bilim olishga bo‘lgan motivatsiyasini oshiradi hamda o‘zlashtirish samaradorligini sezilarli darajada kuchaytiradi. Shu bilan birga, pedagogik loyihalashtirish jarayonining samaradorligi bir qator omillarga bog‘liq ekani ham aniqlanadi. Jumladan, yaratilayotgan kontentning metodik jihatdan puxtaligi, uning texnik jihatdan mukammalligi, vizual va didaktik elementlarning uyg‘unligi, shuningdek, foydalanuvchi ehtiyojlariga mosligi muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda o‘qituvchining roli ham tubdan o‘zgaradi — u bilim beruvchi emas, balki ta’lim jarayonini boshqaruvchi, yo‘naltiruvchi va muvofiqlashtiruvchi subyekt sifatida faoliyat yuritadi. Bu esa pedagogdan nafaqat fan bo‘yicha chuqur bilim, balki zamonaviy axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish kompetensiyasini ham talab etadi. Bundan tashqari, ta’lim jarayonida hamkorlik muhitini yaratish, talabalar o‘rtasida kommunikatsiya va bilim almashuvini yo‘lga qo‘yish ham pedagogik loyihalashtirishning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Forumlar, guruhli muhokamalar, jamoaviy topshiriqlar orqali o‘quvchilar o‘zaro fikr almashadi, bu esa nafaqat bilimni mustahkamlaydi, balki ijtimoiy va kommunikativ ko‘nikmalarni ham rivojlantiradi.

Baholash bosqichining kengroq talqin etilishi ham alohida e’tiborga loyiqdir. Endilikda baholash faqat natijani qayd etish emas, balki butun pedagogik jarayonni tahlil qilish, kuchli va zaif tomonlarini aniqlash hamda keyingi takomillashtirish yo‘llarini belgilash vositasiga aylanmoqda. Shu jihatdan, pedagogik loyihalashtirish doimiy ravishda rivojlanib boruvchi, qayta ko‘rib chiqiladigan va takomillashtiriladigan dinamik tizim sifatida namoyon bo‘ladi. Umuman olganda, axborot-ta’lim muhitida pedagogik loyihalashtirish ta’limni raqamlashtirish jarayonining markaziy bo‘g‘ini bo‘lib, u ta’lim sifatini oshirish, o‘quvchilarning mustaqil ta’lim olish ko‘nikmalarini rivojlantirish va ularni zamonaviy axborot makonida erkin faoliyat yurita oladigan shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Kelgusida ushbu yo‘nalishda olib boriladigan tadqiqotlar pedagogik dizaynni yanada takomillashtirish, sun’iy intellekt va boshqa innovatsion texnologiyalar bilan integratsiyasini kuchaytirish hamda ta’lim jarayonini yanada samarali tashkil etishga qaratilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
2. Ziyomuhammedov B. Pedagogik texnologiya — zamonaviy o‘zbek modeli. – Toshkent: “Nur”, 2011.
3. Sayidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: “Moliya”, 2003.
4. Abduqodirov A.A., Pardayev A.X. Masofaviy o‘qitish nazariyasi va amaliyoti. Monografiya. – Toshkent: “Fan”, 2009.
5. Gagné, R. M., Wager, W. W., Golas, K. C., & Keller, J. M. *Principles of Instructional Design*. Wadsworth Publishing, 2005.
6. Dick, W., Carey, L., & Carey, J. O. *The Systematic Design of Instruction*. Pearson, 2014.
7. Mayer, R. E. Multimedia Learning. Cambridge University Press, 2009.

Sojida RAUPOVA,
Termiz davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi
sojidaraupova38@gmail.com

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINI PIRLS XALQARO BAHOLASH TADQIQOTLARIGA TAYYORLASHDA INNOVATSION METODIK KO‘RSATMALAR

Annotatsiya: ushbu maqolada PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study) tadqiqotining asosiy talablari tahlil qilinib, talabalarda matnni tushunish, interpretatsiya qilish va tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantirish metodikasi taklif etilgan. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini PIRLS xalqaro baholash tadqiqotlariga tayyorlashning metodik asoslari va innovatsion yondashuvlari yoritilgan. Tadqiqotda bo‘lajak o‘qituvchilarning metodik kompetentligini oshirish uchun zarur bo‘lgan innovatsion ko‘rsatmalar, o‘quvchilarning matnni tushunish darajasini baholash kriteriyalari va amaliy mashg‘ulotlar tizimi tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: *PIRLS, metodik kompetentlik, o‘qish savodxonligi, boshlang‘ich ta’lim, bo‘lajak o‘qituvchi, kognitiv jarayonlar, matn tahlili.*

Аннотация: в данной статье анализируются основные требования исследования PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study) и предлагается методика формирования у студентов навыков понимания, интерпретации и анализа текста. Освещены методические основы и инновационные подходы к подготовке будущих учителей начальных классов к международным оценочным исследованиям PIRLS. В исследовании проанализированы инновационные указания, необходимые для повышения методической компетентности будущих учителей, критерии оценки уровня понимания текста учащимися и система практических занятий.

Ключевые слова: *PIRLS, методическая компетентность, читательская грамотность, начальное образование, будущий учитель, когнитивные процессы, анализ текста.*

Annotation: this article analyzes the main requirements of the PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study) assessment and proposes a methodology for developing students’ skills in text comprehension, interpretation, and analysis. It highlights the methodical foundations and innovative approaches to preparing future primary school teachers for international PIRLS assessment studies. The study analyzes the innovative guidelines necessary to enhance the methodical competence of future teachers, criteria for assessing students’ text comprehension levels, and a system of practical exercises.

Key words: *PIRLS, methodical competence, reading literacy, primary education, future teacher, cognitive processes, text analysis.*

Zamonaviy ta’lim tizimida boshlang‘ich sinf o‘qituvchisidan nafaqat dars berish, balki o‘quvchilarda xalqaro standartlarga mos ko‘nikmalarni shakllantirish talab etiladi. PIRLS tadqiqoti 4-sinf o‘quvchilarining matnni o‘qish va tushunish darajasini aniqlashga qaratilgan bo‘lib, bu jarayonda asosiy mas’uliyat bo‘lajak o‘qituvchilarning metodik tayyorgarligiga bog‘liqdir. Bugungi kunda ta’lim sifatini oshirish va uni xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. PIRLS xalqaro baholash dasturi 4-sinf o‘quvchilarining matnni o‘qish va tushunish sifatini tekshiradi[1,2,3]. Shu bois, oliy ta’lim bosqichida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini ushbu tadqiqot talablari bilan tanishtirish va ularni tayyorlashning innovatsion usullarini joriy etish o‘ta dolzarbdir. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini PIRLS xalqaro baholash dasturiga tayyorlashda an’anaviy ma’ruza darslaridan voz kechib, ularning metodik kompetentligini amaliyotda shakllantiradigan innovatsion metodlarni qo‘llash lozim.

PIRLS 2021 o‘qish savodxonligini baholash qamrov doirasi va mazkur qamrov doirasini baholash uchun ishlab chiqilgan topshiriqlar IEA xalqaro assotsiatsiyasining qanchalik uzoqni ko‘zlab ish tutishidan dalolat beradi. PIRLS O‘qish savodxonligiga oid matn va topshiriqlarning kompyuter yordamida taqdim etilishi o‘quvchilarni rag‘batlantiradigan hamda ularning ish samaradorligini oshirishga yordam beradigan qiziqarli va ko‘rgazmali tajriba vazifasini o‘taydi[4,5].

IEA xalqaro assotsiatsiyasining 2001-yildagi tadqiqotiga asoslangan, PIRLS tadqiqoti tomonidan o‘qish savodxonligiga berilgan ta’rif quyidagicha, unda o‘qish savodxonligi “tushunish va shaxs tomonidan qadrlanadigan va/yoki jamiyat tomonidan talab etiladigan barcha yozma til shakllaridan foydalana olish qobiliyati” deb ta’kidlangan. [6, 69-b]

O‘qish muhitini yuzaga keltiradigan sharoit o‘quvchini o‘qishga rag‘batlantirish va qiziqtirish orqali matn mazmunini shakllantirishga yordamlashadi, ammo

sharoit matn mazmunini tushunish imkonini bermaydigan muayyan talablarni yuzaga keltirishi ham mumkin. [7,8,9]

O‘quvchi o‘zini o‘rab turgan dunyo va o‘zi haqida tasavvurga ega bo‘lishi uchun u turli matnlarni o‘qib o‘rganishi mumkin. Har bir turdagi matn o‘quvchiga matnni talqin qilishiga imkon beruvchi soda shakllar va qoidalardan iboratdir. [10]

Bo‘lajak o‘qituvchi avval o‘zi matnni 4 ta kognitiv darajada tahlil qilishni o‘rganishi, keyin esa buni boshlang‘ich sinf o‘quvchisiga o‘rgata olishi kerak.

“Kognitiv Matritsa”(Cognitive Matrix) metodi. PIRLS tadqiqoti 4 ta kognitiv jarayonga (to‘g‘ridan-to‘g‘ri ma’lumotni topish, xulosa chiqarish, g‘oyalarni integratsiya qilish, matnni baholash) asoslanadi. Bu metodda talabalarga matn beriladi va ular matn asosida 4 ta darajali savollar matritsasini (klasterini) tuzishlari kerak. Qo‘llanilishi: Talabalar kichik guruhlarga bo‘linadi. Har bir guruh badiiy yoki informatsion matn ustida ishlaydi. Ular oddiy savollardan (Kim? Qayerda? Qachon?) murakkab — matnning uslubi va muallif maqsadini baholashga qaratilgan savollar setini yaratadilar va boshqa guruhlar bilan almashib, javob yozadilar.

Maqsadi: Bo‘lajak o‘qituvchilarda PIRLS talablariga mos keladigan to‘g‘ri savol tuzish mahoratini oshirish.

2. “Raft” (Role, Audience, Format, Topic) texnologiyasi

Bu metod bo‘lajak o‘qituvchilarning matnni chuqur tahlil qilish va interpretatsiya qilish (talqin qilish) ko‘nikmasini rivojlantiradi. Qo‘llanilishi: Talabalarga matn o‘qitilgach, ularga rollar taqsimlanadi: Role (Rol): Matndagi qahramon, tabiat hodisasi yoki oddiy kuzatuvchi. Audience (Auditoriya): Kimga murojaat qilinyapti (ota-onalarga, do‘stlariga, kelajak avlodga). Format (Format): Xat, kundalik, intervyu, reklama, sud nutqi. Maqsadi: Matnni shunchaki o‘qish emas, balki uni ichki dinamikasini his qilish, qahramonlar motivatsiyasini tushunish (PIRLSning 3- va 4-darajali talablari).

3. “Skaffolding” (Scaffolding – Ko‘mak beruvchi havozalash) strategiyasi Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga matnni tushunish qiyin bo‘lganda, o‘qituvchi ularga bosqichma-bosqich yo‘nalish berishi kerak. Bo‘lajak o‘qituvchilarga dars o‘tish jarayonida ushbu “ko‘prik”larni qanday qurishni o‘rgatish zarur. Qo‘llanilishi: Darsda “O‘qish kundaliklari”, “Grafik organayzerlar”(Venn diagrammasi, Fishbone – baliq skeleti, Konseptual jadval) yordamida matndagi sabab va oqibat aloqalarini vizuallashtirish usullari talabalarga amaliy ko‘rsatiladi. Maqsadi: Talabalarda murakkab matnlarni boshlang‘ich sinf o‘quvchisi tushunadigan tilga va vizual shaklga o‘tkazish (metodik) ko‘nikmasini shakllantirish.

4. “Blended Learning” (Aralash ta’lim). PIRLS faqat qog‘ozda emas, balki ePIRLS (elektron formatda) ham o‘tkaziladi. O‘quvchilar internet-sayt formatidagi matnlardan ma’lumot qidirishadi, giperhavolalarga bosishadi. Qo‘llanilishi: Bo‘lajak o‘qituvchilarga LearningApps, Quizizz, Kahoot yoki maxsus yaratilgan ePIRLS simulyatorlarida testlar va interaktiv matnli topshiriqlar yaratish topshiriladi. Talabalar o‘zlari raqamli dars ishlanmasini tayyorlashadi. Maqsadi: Bo‘lajak o‘qituvchilarning AKT-kompetentligini va zamonaviy ePIRLS formatiga moslashuvchanligini oshirish.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Boboxodjayeva. L.C.Aralash ta’limni tashkil etishning didaktikjihatlari. – T.: Malik PRINT GO, 2021. 20-bet.
2. Borodina.V.Бородина. В навыки чтения M: 1998.C.56.
3. Boshlang‘ich ta’lim va sport-tarbiyaviy ish bakalavriat ta’lim yo‘nalishining malaka talablari – 5111700. – T., “Sharq” nashriyoti, 2018. 34-b.
4. Britt, M.A., Goldman, S.R., & Rouet, J.-F. (Eds.). (2012). Reading—From words to multiple texts. New York, NY: Routledge.
5. Brodskaya Tatyana Anatolevna, Sadrieva Liliya Mirzayanovna. Postroenie adaptatsionnogo kursa po matematike, primenyaya strukturno - logicheskuyu sxemu soderjaniya problemnogo tipa. Mejdunarodnыy sentr nauchnogo partnerstva «Novaya Nauka» (IP Ivanovskaya I.I.) 2019. 71-82 s, https://www.elibrary.ru/item.asp?id=41400750&pf=1.
6. Burakova G.Y. «O probleme professionalizatsii v obuchenii matematike studentov pedvuzov», Yaroslavskiy pedagogicheskiy vestnik. 2002. № 3.32, 1-7 st.
7. Christianson, K., & Luke, S.G. (2011). Context strengthens initial misinterpretations of text. Scientific Studies of Reading, 15(2), 136–166.
8. Daxin A.N. Pedagogicheskoe modelirovanie i kompetentnost uchastnikov obrazovaniya // Shkolnыe texnologii. – Moskva, 2007. – № 6. – S. 64-73.
9. Derewianka, B. (2003). Trends and issues in genre-based approaches. RELC Journal, 34(2), 133–154.
10. Drobisheva I.V. “Matematicheskoye modelirovaniye nelineynix ereditarnix ossillyatorov na primere ossillyatora Duffinga s drobnimi proizvodnimi v smisle Rimana-Liuvillya”, Vestnik KRAUNS.2016, № 2[13], 43–49 str.

K.A.IKROMOVA,
Toshkent kimyo-texnologiya instituti
Tillar kafedrasi katta o‘qituvchisi
M.N.QUVVATOVA,
Professional ta’lim 23-61 guruhi talabasi

BITIRUVCHILARNING KASBIY-SHAXSIY KOMPETENSIYALARINI BAHOLASH MEZONLARINI ISHLAB CHIQISH: NAZARIY VA AMALIY YONDASHUVLAR

Annotatsiya: ushbu maqolada bitiruvchilarning kasbiy-shaxsiy kompetensiyalarini baholash mezonlarini ishlab chiqish: nazariy va amaliy yondashuvlar borasida fikrlar berilgan bo`lib, hayotimizga kirib kelayotgat yangi so‘z va iboralar haqida analis qilinadi.

Kalit so‘zlar: *kompetensiya, hard skills, soft skills, interaktiv, Interaktiv, integratsiya.*

Аннотация: в данной статье рассматриваются разработка критериев оценки профессионально-личностных компетенций выпускников: теоретические и практические подходы, а также рассматриваются новые слова и фразы, входящие в нашу жизнь.

Ключевые слова: *компетентность, жесткие навыки, мягкие навыки, интерактивность, интерактивный, интеграция.*

Annotation: this article examines the development of criteria for assessing the professional and personal competencies of graduates: theoretical and practical approaches, as well as new words and phrases that are entering our lives.

Key words: *competence, hard skills, soft skills, interactivity, interactive, integration.*

O‘zbekistonda yuz berayotgan innovatsion jarayonlar sharoitida tobora yuqori talablar qo‘yiladigan ta’lim bugungi kunda insoniyatning rivojlanishini asosiy talabiga aylanib bormoqda. Radikal islohotlarni talab qiladigan pedagogik ta’lim tizimi zamonaviy ta’lim obyektining markaziy bo‘g‘ini bo‘lib, ta’lim va tarbiya muammolarining muvaffaqiyatli hal etilishini ta’minlaydi. Bu, asosan, o‘qitish metodlari bilan bir qatorda ta’lim jarayonida samarali pedagogik texnologiyalarni qo‘llash asosida pedagog kadrlarning tegishli kasbiy tayyorgarligi bilan belgilanadi. Kasbiy-pedagogik tayyorgarlik sifatining mezoni – bu o‘qituvchining kasbiy kompetensiyasi bo‘lib, u jamiyat va davlat tomonidan XXI asr mutaxassisiga qo‘yiladigan barcha talablarni to‘liq aks ettiradi. Shu munosabat bilan layoqatli o‘qituvchilarni tayyorlash zamonaviy kasbiy pedagogik ta’limning ustuvor vazifalaridan biridir. Mamlakatimizda “o‘qituvchining kasbiy kompetensiyasi” atamasini o‘rganish va undan foydalanish XX asrning 80-90-yillariga to‘g‘ri keladi. Ushbu davrda mahalliy olimlarimiz ushbu ta’lim hodisasi va turli xil kompetensiya tarkibiy qismlarini chuqur konsepsiyalashga qaratilgan istiqbolli urinishlarni amalga oshirdilar. Hozirgi kunda “o‘qituvchining kasbiy kompetensiyasi” toifasi XXI asr o‘qituvchisiga zamonaviy talablar sharoitida yetakchi o‘rinlardan birini egallaydi.

Bitiruvchilarning kasbiy-shaxsiy kompetensiyalari — bu ularning ta’lim jarayonida egallagan nazariy bilimlari, amaliy ko‘nikmalari, shuningdek, shaxsiy fazilatlari majmuasi bo‘lib, bu ularga kelajakdagi kasbiy faoliyatida samarali mehnat qilish, mustaqil qaror qabul qilish va kasbiy o‘sish imkoniyatini beradi.

Ushbu kompetensiyalar tizimi asosan quyidagi yo‘nalishlarni qamrab oladi:

- **Shaxsiy kompetentlik:** izchil ravishda kasbiy o‘sishga erishish, malaka darajasini oshirib borish, kasbiy faoliyatda o‘z ichki imkoniyatlarini namoyon qilish va kreativ yondashuv.
- **Kasbiy kompetensiya:** mutaxassisning o‘z sohasi bo‘yicha yuqori malakali ish faoliyatini olib borishi, texnik va texnologik bilimlarni amaliyotda qo‘llay olishi.
- **Kommunikativ kompetensiya:** jamoada ishlash, muloqotga kirishish, hamkasblar bilan o‘zaro munosabatlarni to‘g‘ri tashkil etish qobiliyati.
- **Ijtimoiy kompetensiya:** mas’uliyatni his qilish, intizomlilik, tashabbuskorlik va kasbiy axloq qoidalariga rioya qilish.
- **Axborot-raqamli savodxonlik:** zamonaviy texnologiyalar va axborot resurslaridan foydalanib, kasbiy muammolarni yechish ko‘nikmasi.

Zamonaviy ta’lim tizimida, ayniqsa, kasb-hunar maktablari va oliy ta’lim muassasalarida bitiruvchilarni tayanch va asosiy kompetensiyalar bilan qurollantirish asosiy maqsad hisoblanadi. Bunda ta’lim muassasalari bitiruvchilarning nafaqat bilimi, balki ularni ish beruvchilar talablariga mos keladigan professional shaxs

sifatida shakllanishiga e’tibor qaratadi. Boshqacha qilib aytadigan bo‘lsak, O‘zbekistonda kasb-hunar pedagogik ta’limini rivojlantirishning hozirgi bosqichida olimlarning “o‘qituvchining kasbiy kompetensiyasi” atamasiga diqqat bilan e’tibor qaratishi, kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish va jahon standartlarining mutlaqo boshqa darajasiga erishish uchun milliy ta’limi zarurati bilan bog‘liq. Endi bitiruvchilarning kasbiy-shaxsiy kompetensiyalarini baholash mezonlarini ishlab chiqish borasida to‘xtaladigan bo‘lsak, kasbiy-shaxsiy kompetensiyalarini baholash mezonlarini ishlab chiqish zamonaviy ta’lim tizimining asosiy vazifalaridan biri bo‘lib, u bitiruvchining nafaqat nazariy bilimini, balki amaliy ko‘nikmalari va shaxsiy fazilatlarini (soft skills) mehnat bozori talablari asosida baholashni nazarda tutadi. Ushbu jarayon nazariy asoslar va amaliy yondashuvlarning uyg‘unligini talab qiladi.

1. Nazariy yondashuvlar (Kompetensiyalar tarkibi)

Kasbiy-shaxsiy kompetensiyalar bir nechta tarkibiy qismlardan iborat bo‘lib, ularni baholash uchun nazariy asoslar quyidagicha tizimlashtiriladi:

- **Kasbiy kompetensiyalar (Hard skills):** mutaxassislik bo‘yicha bilimlarni amaliyotda qo‘llash, texnik ko‘nikmalar, muammolarni yechish qobiliyati va innovatsion yondashuv.
- **Shaxsiy kompetensiyalar (Soft skills):** kommunikativ ko‘nikmalar, jamoada ishlash, kreativlik, moslashuvchanlik, mas’uliyatni his etish va hissiy intellekt.
- **Deontologik yondashuv:** pedagogik va kasbiy faoliyatda axloqiy me’yorlarga rioya qilish, empatik muloqot va adolatli qaror qabul qilishni baholash.
- **Andragogik yondashuv:** kattalar ta’limi tamoyillariga asoslangan holda, professional rivojlanish va tajribaga asoslangan baholash.

2. Baholash mezonlarini ishlab chiqish bosqichlari

Baholash mezonlari aniq, shaffof va o‘lchanadigan bo‘lishi kerak. Bu jarayon quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

1. **Talablarni aniqlash:** ish beruvchilar va mehnat bozori talablarini tahlil qilish (raqobatbardoshlik omillari).
2. **Kompetensiya modelini yaratish:** kasbiy va shaxsiy sifatlarni o‘z ichiga olgan modelni shakllantirish.
3. **Indikatorlarni ishlab chiqish:** har bir kompetensiya uchun o‘lchanadigan ko‘rsatkichlar (KPI)ni belgilash.
4. **Baholash vositalarini tanlash:** testlar, keys-stadi, portfolio, kuzatuv varaqalari va rubrikalardan foydalanish.

3. Amaliy yondashuvlar va usullar

Amaliyotda kompetensiyalarni baholashda interfaol va innovatsion metodlar keng qo‘llaniladi:

- **Portfolio usuli:** bitiruvchining amaliy ishlari, loyihalari va erishgan natijalari to‘plamini baholash.
- **Assessment markazlari:** kasbiy imtihonlarni o‘tkazish, loyihalash metodi va vaziyatli topshiriqlar (case-study) orqali professional harakatlarni baholash.
- **Rubrikalar (Baholash mezonlari jadvallari):** aniq ballar tizimi orqali (“5” - 90-100 ball, 4, 3, 2) kompetensiya darajasini aniqlash.
- **O‘z-o‘zini va o‘zaro baholash:** refleksiya orqali talabaning o‘z kuchli va zaif tomonlarini aniqlashi.
- **Raqamli platformalar:** IT-platformalar yordamida (masalan, *kompetensiya.uz*) shaxsiy psixoportret va kasbiy salohiyatni baholash.

4. Baholash mezonlarining tarkibiy namunalari

- **Muammoni tahlil qilish:** vaziyatni to‘g‘ri baholash, yechim taklif qilish (1-5 ball).
- **Jamoada ishlash:** hamkorlik, muloqot madaniyati, ijtimoiy faollik.
- **Kreativlik:** nostandart yondashuv, yangi g‘oyalarni taklif etish.
- **Amaliy ko‘nikma:** texnik vositalar bilan ishlash, ishlab chiqarish jarayonida bilimni qo‘llash va boshqalar.

Xulosa qilib aytganda, bitiruvchilarning kasbiy-shaxsiy kompetensiyalarini baholashda nazariy bilimlar bilan amaliy faoliyatning uyg‘unligi, shuningdek, ish beruvchilar talablariga mos keluvchi “soft skills” va “hard skills”ni kompleks baholash eng samarali yondashuv hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Safarova R.G., Kognitiv pedagogikaga oid nazariy yondashuvlar. Monografiya. – Toshkent: “Science and innovation”, 2024. 186-bet.

2. Utanov U.Q., Qosimova O.X. “Xalq ta’limi xodimlarini kasbiy kompetentligini rivojlantirish”; //”Pedagogik innovatsiyalar va yuqori samaradorlikka yetaklovchi ta’limiy g‘oyalar” respublika ilmiy-amaliy onlayn konferensiyasi to‘plami. – Termiz, 2020-yil

3. Mannopov, S., Karimov, A., Qurbonova, B., & Dilobar, J. (2022, February). In Archive of Conferences (pp. 49-52).

4. Mannopov, S., Karimov, A., Qurbonova, B., & Dilobar, J. (2022, February). In Archive of Conferences (pp. 49-52).

Dilnoza TO‘XTASHEVA,
Andijon davlat chet tillari instituti mustaqil tadqiqotchisi

MEDIA DISKURSIDA BAHOLASH STRATEGIYALARI VA ULARNING LINGVISTIK TADQIQI

Annotatsiya: mazkur maqolada amaliy tilshunoslik nuqtayi nazaridan zamonaviy media diskursida baholashni ifodalashning lingvistik vositalari tizimli ravishda tadqiq etilgan. Tadqiqot davomida turli media matn janrlarida baholash vositalarining funksional-pragmatik xususiyatlari, xususan, yangiliklar va tahliliy materiallardagi yashirin hamda ochiq baholash mexanizmlari aniqlangan.

Kalit so‘zlar: *media diskurs, medialingvistika, baholash kategoriyasi, pragmatik funksiya, amaliy tilshunoslik, yashirin baholash, raqamli muhit.*

Аннотация: в данной статье с позиции прикладной лингвистики системно исследованы лингвистические средства выражения оценки в современном медиадискурсе. В ходе исследования выявлены функционально-прагматические особенности оценочных средств в различных жанрах медиатекстов, в частности, механизмы скрытой и открытой оценки в новостных и аналитических материалах.

Ключевые слова: *медиадискурс, медиалингвистика, категория оценки, прагматическая функция, прикладная лингвистика, скрытая оценка, цифровая среда.*

Annotation: this article provides a systematic study of linguistic means for expressing evaluation in modern media discourse from the perspective of applied linguistics. During the research, the functional-pragmatic features of evaluative means in various genres of media texts were identified, specifically focusing on the mechanisms of implicit and explicit evaluation in news and analytical materials.

Key words: *media discourse, medialinguistics, category of evaluation, pragmatic function, applied linguistics, implicit evaluation, digital environment.*

Kirish. Bugungi kunda jamiyatdagi kommunikativ va axborot manzarasi turli xil media platformalarning keng foydalanilishi bilan ajralib turadi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi natijasida media matnlar inson faoliyatining boshqa turlarida ishlatiladigan tildan hajman ustunlik qilmoqda. Shu sababli, amaliy tilshunoslik doirasida zamonaviy media nutqida baholashni ifodalashning lingvistik vositalari, ularning jamoatchilik fikrini shakllantirishdagi roli va voqelikni baholashning lingvistik mexanizmlarini tizimlashtirish dolzarb vazifa hisoblanadi. Dunyo tilshunosligida media diskursni tanqidiy tahlil qilish metodologiyasi ishlab chiqilib, baholash vositalarining ijtimoiy funksiyalarini o‘rganilgan.Tanqidiy diskurs tahlili doirasida baholash vositalarini o‘rganish metodlari takomillashtirilgan. Media matnlarda baholash vositalarining turli aspektlarini o‘rganishga muhim hissa qo‘shilgan. Ko‘rinadiki, media diskursda baholash vositalarini o‘rganish bo‘yicha keng ko‘lamli tadqiqotlar olib borilgan bo‘lib, ular nazariy asoslar, metodologiya, turli lingvistik aspektlar va amaliy qo‘llanishni qamrab oladi. Biroq yangi media formatlarning paydo bo‘lishi, raqamli texnologiyalarning rivojlanishi va global media makonning shakllanishi amaliy tilshunoslik nuqtayi nazaridan yangi tadqiqotlarni talab qilmoqda. Zamonaviy tadqiqotlar baholashni ifodalashning turli xil til vositalarini ko‘rsatadi. Jumladan, leksik daraja (baholash leksikasi; hissiy-ekspressiv so‘zlar; metafora va epitetlar; frazeologik iboralar); morfologik daraja (subyektiv baholash qo‘shimchalari; sifatlarni taqqoslash darajalari; modal so‘zlar) hamda sintaktik daraja (baholovchi predikatlar; undov konstruksiyalari; qiyosiy sintaktik birliklar)larni o‘z ichiga oladi. Baholashdan turli kommunikativ maqsadlardan foydalanish mumkin. Jumladan: 1) maqtov (*Sizning hisobotingiz tahlilning chuqurligi bilan ajralib turadi*); 2) tanqid (*Ish jiddiy takomillashtirishni talab qiladi*); 3) manipulyatsiya (*Bu vazifani faqat haqiqiy mutaxassis bajara oladi).*

Amaliy tilshunoslikda baholash kategoriyasini o‘rganishning bir necha asosiy yo‘nalishlari rivojlanmoqda. Lingvokulturologik yo‘nalishda baholash qiymatlarining milliy-madaniy xususiyatlari, ularning turli lingvokulturalarning qiymat yo‘nalishlari bilan aloqasi o‘rganilmoqda. Diskursiv yo‘nalishda esa baholash vositalarining har xil turdagi nutqlarda, jumladan, siyosiy, media va reklama diskurslarida ishlashi tahlil qilinadi. Korpus tadqiqotlari doirasida korpus tilshunosligi usullari baholash birliklarining chastotasi va kontekstual ishlatilishini o‘rganish uchun qo‘llaniladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Diskurs tushunchasi XX asrning ikkinchi yarmida M.Fuko, P.Veyn, J.Lakan kabi olimlar tomonidan tadqiq etila boshlangan. Medialingvistika sohasida T.G. Dobrosklonskaya matn, mediamatn va mediadiskurs tushunchalarini ajratib ko‘rsatadi. “Diskurs” tushunchasi XX asrning ikkinchi yarmida, ayniqsa Fransiyada gumanitar, falsafiy va lingvistik tadqiqotlarda mashhur bo‘ldi hamda uning rivojlanishiga M.Fuko, P.Veyn, J.Lakan, J. Delez va F.Gvattari[1] kabi taniqli olimlar o‘z hissasini qo‘shdi. Dastlab, ushbu atamaning keng tarqalishi barcha milliy tilshunoslik maktablariga xos emas edi; bu, ayniqsa, fransuz va anglo-sakson olimlari orasida keng tarqalgan bo‘lib, mahalliy tilshunoslar uni bir muncha vaqt o‘zlarining tadqiqot uslublariga qo‘shishga harakat qilishgan. Bugungi

1 Delenze, G., Gvattari, F. Rhizome. In Capitalisme et schizophrenie. Mille plateau. Paris: Les Editions de Minuit. – 1980. – 648 p.

kunda diskurs falsafa, sotsiologiya, kulturologiya va tilshunoslik kabi turli xil gumanitar fanlarning diqqat markazidadir. O‘zbek tilshunosligida internet tili va media diskursi borasida ayrim ishlar amalga oshirilgan bo‘lsa-da, media diskursida baholash vositalari monografik planda yetarli darajada o‘rganilmagan.

Tadqiqot metodologiyasi Tadqiqotda nutqni tahlil qilish, tarkibiy va kontekstual tahlil usullari, shuningdek, ma’lumotlarni qayta ishlashning miqdoriy (statistik) metodlaridan foydalanildi.Tadqiqot obyekti sifatida yangiliklar portallari kontenti, ijtimoiy tarmoqlardagi media materiallar va tahliliy maqolalar tanlab olindi.

Tahlil va natijalar. Olib borilgan tahlillar natijasida mediamatn janri va baholash usullari o‘rtasida o‘zaro bog‘liqlik borligi aniqlandi: fakt va iqtiboslarni tanlash orqali amalga oshiriladigan **yashirin baholash** bilan tavsiflanadi. Aniqroq va ochiq baholash vositalarining keng doirasini namoyon etadi.

Shuningdek, mediadiskursda voqelikni baholashning asosiy strategiyalari (tasdiqlash, muammolarga yechim topish, ijobiy ma’lumotlarga e’tibor qaratish, minnatdorchilik va yutuqlarni tan olish) misollar orqali asoslab berildi. Raqamli muhitda verbal vositalar bilan bir qatorda noverbal tarkibiy qismlarning o‘zaro ta’siri baholash qiymatlarini shakllantirishda muhim rol o‘ynashi isbotlandi. Media matnlarda “Qo‘ying-e!” (ishonchsizlik, e’tiroz ma’nosida), “Hay-hay” (hayratlanish, taajjub), “Voy-bo‘” (ajablanish, hayratlanish), “Shunaqa gap” (tasdiqlash); “boplab berdi”, “toza lol qoldim”, “shunaqa ekan-da”, “qarang” (“Kun.uz” saytidan) kabi so‘zlashuv leksikasiga mansub birliklardan foydalaniladi. Shuningdek, bunday matnlarda “mishiqi” (yosh, tajribasiz), “paxan” (boshliq, rahbar), “lavashka” (tez pul), “krug” (hukmron guruh), “brat” (do‘st, og‘ayni), “razborka” (kelishuv), “krutoy” (zo‘r, ajoyib), “boss” (rahbar), “obshyak” (umumiy fondga yig‘ilgan pul), “razborshik” (kelishuvchi) kabi jargonlar qo‘llanishi kuzatildi. Bunday jargonlar, odatda, sport sharhlari, kriminal xronika hamda ko‘cha-ko‘ydagi voqealar tasvirida qo‘llaniladi. Media olamida hozirgi kunda neologizmlar sifatida quyidagilarni qayd etish mumkin: *layfxak* (maslahat), *podkast* (mashvarat), *motivatsiya* (turtki), *insayt* (yangilik), *kalibr* (ko‘lam), *praktikum* (amaliyot), *nyuans* (nizom), *strim* (uchrashuv), *layv* (jonli), *faktor* (omil), *impuls* (bog‘lam), *strench* (g‘alati).

Xulosa. Media diskursida baholash vositalarini tanlash nafaqat lingvistik, balki jurnalistning professional mahorati va axloqiy tamoyillariga ham bog‘liqdir. Mediadiskursda qo‘llanadigan baholash usullari auditoriyani ishontirish va tushunishga ta’sir qilish kabi mafkuraviy hamda pragmatik maqsadlarga xizmat qiladi.

Ochiq baholashning xususiyatlari	**Yashirin baholashning xususiyatlari**
muallifning pozitsiyasi aniq bo‘ladi;	“xolis” faktlar keltiriladi;
kuchli emotsional bo‘yoq beriladi;	statistika va raqamlardan foydalaniladi;
tayyor xulosalar taqdim etiladi;	emotsional neytrallik kuzatiladi;
keskin qarama-qarshiliklar kuzatiladi;	uchinchi shaxslar fikri keltiriladi;
tanqidiy fikrlashga to‘sqinlik seziladi.	nozik manipulyatsiya seziladi.

Ko‘rinadki, ochiq baholashda to‘g‘ridan-to‘g‘ri targ‘ibot, yashirin baholashda mantiqiy xulosaga yo‘naltirish kuzatiladi. Bu misollar zamonaviy o‘zbek mediasida har ikkala baholash turi ham mavjudligini, biroq yashirin baholash usullari tobora takomillashib borayotganini ko‘rsatadi. Bu esa auditoriyaning tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishni taqozo etadi. Axborot subyektiv elementlarni o‘z ichiga olgan *ochiq baholash* bilan birga keladi. Ushbu baho “muvaffaqiyatli”, “katta”, “oqilona”, “qulay”, “keng” va “baland” kabi ijobiy ma’noga ega sifat va ravishlar orqali uzatiladi. Baholar mualliflarning o‘z nuqtayi nazaridan kelib chiqadi, bu esa media matnning subyektiv xususiyatiga hissa qo‘shadi.

Baholashning *yashirin shakllari.* Metafora uzoq vaqtdan beri tilga ta’sir qilishning eng asosiy vositasi bo‘lib kelgan. Baholash metaforalari tinglovchilar tomonidan ma’lum bir nuqtayi nazardan ma’lumot idrokini shakllantirishga yordam beradigan yorqin, aniq tasvirlarni yaratishga qaratilgan. Tadqiqot natijalari medialingvistikada baholash nazariyasini kengaytirishga, matnlarning ohangini avtomatik tahlil qilish tizimlarini takomillashtirishga va samarali media matnlarini yaratish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. To‘xtasheva D.O. Media diskursida baholashni ifodalashning lingvistik vositalari. PhD diss. Avtoreferati. – Andijon, 2026.
2. Dobrosklonskaya T. G. Teoriya i metodi medialingvistiki. – ADD, M., 2000.
3.Арутюнова, Н.Д. Дискурс / Н.Д. Арутюнова // Лингвистическая энциклопедия. –М.: Сове, энциклопедия, 1990. – С. 136-137. - Ахманова О.С., Словарь лингвистических терминов. Изд. 4-е, стереотипное. – М.: Ком.Книга, 2007. – С. 576.
4.Сафаров Ш. С. Лингвистика дискурса. Челябинск, 2018.315 с;
5.Сафаров Ш. С. Лингвистика дискурса. Челябинск, 2018.315 с;

Malika JUMAYEVA,
Termiz davlat pedagogika institute
Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim fakulteti
Maktabgacha ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi

MASOFAVIY O‘QITISH METODIKASI

Annotatsiya: mazkur ishda masofaviy o‘qitish metodikasining nazariy va amaliy jihatlari yoritilgan. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda ta’lim jarayonini tashkil etish, o‘qitishning samaradorligini oshirish hamda talabalarning mustaqil ta’lim olish ko‘nikmalarini rivojlantirish masalalari ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, masofaviy ta’limning afzalliklari, kamchiliklari va uni rivojlantirish istiqbollari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: masofaviy ta’lim, o‘qitish metodikasi, axborot texnologiyalari, onlayn ta’lim, interaktiv usullar, mustaqil ta’lim, raqamli platformalar

Аннотация: в данной работе рассматриваются теоретические и практические аспекты методики дистанционного обучения. Особое внимание уделяется организации образовательного процесса с использованием современных информационно-коммуникационных технологий, повышению эффективности обучения и развитию навыков самостоятельной работы обучающихся. Также анализируются преимущества, недостатки и перспективы развития дистанционного образования.

Ключевые слова: дистанционное обучение, методика преподавания, информационные технологии, онлайн-обучение, интерактивные методы, самостоятельное обучение, цифровые платформы

Annotation: this paper examines the theoretical and practical aspects of distance learning methodology. Special attention is given to the organization of the educational process using modern information and communication technologies, improving learning effectiveness, and developing students’ independent learning skills. The advantages, disadvantages, and future prospects of distance education are also analyzed.

Key words: distance learning, teaching methodology, information technology, online education, interactive methods, independent learning, digital platforms

Kirish. Masofadan o‘qitish uslubi – bu Internet orqali mustaqil o‘qish demakdir. Mustaqil o‘qish insonning mustaqil fikrlash, holatni baholash, xulosa va bashorat qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi. Masofadan o‘qitishda o‘quvchi o‘ziga qulay vaqtda va hattoki, ishdan ajralmagan holda o‘qishi mumkin. Masofaviy o‘qitishda o‘qish muddati o‘quvchining o‘ziga bog‘liq, ya’ni talaba yoki malakasini oshiruvchi pedagog ixtiyoriy paytda o‘qishni boshlaydi, materiallarni o‘qituvchi nazoratida o‘zlashtiradi. O‘zlashtirish topshiriqlarni, testlarni bajarishiga qarab aniqlanadi. Talaba berilgan programmani qanchalik tez o‘zlashtirsa, shunchalik tez o‘qishni tugatadi va guvohnoma olishga muyassar bo‘ladi. Programmani o‘zlashtira olmasa, unga mustaqil ishlab, o‘qishni davom ettirishga imkoniyat beriladi.

Masofaviy ta’limda (MT) tinglovchlar mustaqil, erkin va ixtiyoriy bilim olish imkoniyatiga ega bo‘ladi; talaba va tinglovchi o‘rtasidagi aloqa hissiy munosabatlardan holi bo‘lganligi uchun tinglovchilarning o‘zlashtirish darajasi bevosita uning intellektual tomonlariga bog‘liq; ko‘rgazmalilikning keng imkoniyatlaridan foydalanish ya’ni eshitish, ko‘rish, idrok qilish, esda saqlab qolish, tushunish mushohada qilishda texnik jarayonlarning faol ishtiroki yordamida egallanayotgan bilim mohiyatini chuqurroq anglashga yordam beradi. Keys texnologiya – masofaviy ta’limda audiovideo va multimediali o‘quv uslubiy materiallar majmuasini aks ettirsa, TV texnologiya – o‘quv metodik ma’lumoitlarni televideniye orqali yetkazish mazmuniga, Internet texnologiya – masofaviy ta’limning jahon axborot ta’lim tarmoqlariga kirish, integratsiya va o‘zaro tamoyillariga asoslanganligi bilan ahamiyatlidir. Bundan tashqari, masofaviy ta’lim jarayoni ham o‘z navbatida ta’limiy va rivojlantruvchi xususiyatlaridan tashqari tarbiviy xarakterga ega bo‘lib, shaxs axloqiy sifatlari – intizomlilik, onglilik, talabchanlik, hurmat va e’tiborlilik, o‘quvlilikni shakllanishiga o‘z ta’sirini o‘tkazadi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi

Masofaviy o‘qitishda asosiy e’tiborni o‘quv-uslubiy materiallarni tayyorlashga qaratiladi. Chunki o‘quv-uslubiy materiallarning sifati masofadan o‘qitish sifatining eng asosiy omillaridan biridir. O‘qish tartibi quyidagicha: o‘qituvchi kurs bilan tanishtiradi va topshiriqlar beradi. O‘quvchi ko‘rsatilgan manbalar bilan ishlab topshiriqlarni bajaradi va o‘qituvchiga yuboradi. O‘qituvchi uni tekshiradi, zarur holda ko‘rsatmalar beradi. Shu tartibda kurs mavzulari o‘rganiladi. Muzokara Internet xizmatlari orqali amalga oshiriladi. O‘qish jarayonida talaba elektron darsliklardan, elektron kutubxona va forumlardan,

videokonferensiyalardan, online kurslaridan va Web-sahifalardan foydalanadi. Bu individuallik o‘quvchida qiziqish uyg‘otadi va uni o‘qishda faollikka, ijodiy yondashuvga rag‘batlantiradi. Ularni to‘g‘ri tashkil etish, o‘qitish sifati va samarasini belgilaydi.

O‘quv materiallari turlari. Masofaviy o‘qitishda quyidagi o‘quv materiallaridan foydalaniladi:

1. Darsliklar (modul),
2. Audio, videomateriallar,
3. Elektron va multimedia darsliklari,
4. Online kurslari.

Darsliklar tashkil etish – Darslik – bu o‘qitiladigan kurs bo‘yicha to‘liq axborotlarga ega bo‘lib, mavzular bo‘yicha nazorat savollari va o‘zlashtirishni nazorat qiluvchi testlarni o‘z ichiga oladi. Shuning uchun darslikni modul deb atash qabul qilingan. Modul kursning to‘liq hajmini o‘zida aks ettirib ma’ruzalar, amaliy mashqlar, test va tavsiya etilgan adabiyotlardan iborat bo‘ladi. Modulni kompyuter vositasida MS Word, Page Maker, CorelDraw dasturlari vositasida tashkil etish mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi

Elektron darsliklar yaratish – multimedia texnologiyasi asosida darsliklar tashkil etish axborot texnologiyasi taraqqiyotining eng yuqori samarasi deyish mumkin. Bu usulni tatbiq etishda kichik hajmdagi bir diskda katta hajmdagi axborotlarni «jonlantirgan» holatda aks ettirsa bo‘ladi. Boz ustiga yozilgan axborotlarni ko‘rish, eshitish va o‘qish mumkin bo‘ladi. Xullas, multimediali darslik axborotlarni matn, rasm, grafik ko‘rinishda va video holatlarda ifodalaydi. Elektron darsliklar tayyorlash uchun maxsus dasturiy ta’minot mavjud bo‘lib, bular Macro Media Director, ToolBook.

Online kurslari – bu masofaviy o‘qitishning eng kerakli elementlaridan biri. Internet texnologiyalaridan WWW asosiy o‘rin egallab, masofaviy o‘qitishda axborotlar muhitini tashkil etadi. CHunki WWW texnologiyasi ixtiyoriy gipermedia, multimediaga va ma’lumotlar bazasiga kira oladi(turli plug-in modul va interfeyslar asosida). Foydalanuvchi online kursi bilan o‘ziga qulay vaqtda va joyda ish yurita olib kerakli ma’lumotlarga ega bo‘ladi. Bunday sinxron o‘qitish tizimi masofaviy o‘qitishning birinchi fazasi hisoblanadi. Buning uchun biron-bir o‘qitish kursi bilan tanishuv lozim.

Masofaviy o‘qitish – kommunikatsiya va kompyuterizatsiya hosilasi bo‘lib, uning mohiyatida o‘qitishning eng ilg‘or usullarini Respublika bo‘yicha keng joriy qilish masalasi ilk rejada turadi. Shu ma’noda masofaviy o‘qitish ta’lim-tarbiya tizimida o‘qitishning hozirgi talablariga javob berishi kerak. Bizning nazarimizda, masofaviy o‘qitishning yutuq va kamchiliklari parallel ravishda namoyon bo‘lmoqda. Yutuqlari quyidagilardan iborat:

– birinchidan, masofaviy o‘qitish muayyan ilg‘or o‘qitish usulini keng ommalashtiradi;

– ikkinchidan, bizning sharoitimizda poytaxtda jamlangan ilmiy potensialdan joylarda unumli foydalanish uchun imkoniyat tug‘diradi;

– uchinchidan, Respubika bo‘yicha o‘qitishning yaxlit metodologiyasini shakllantiradi;

– to‘rtinchidan, o‘qitish sohasida ilmiy-amaliy axborot almashinish tezlashadi;

– beshinchidan, moliyaviy tejamkorlikka olib keladi.

Kamchiliklar ham mavjud:

– birinchidan, masofaviy o‘qitishning didaktik qonuniyatlari ishlab chiqilganicha yo‘q;

– ikkinchidan, masofada turib saboq olayotganlarning holati va xatti-harakatini to‘liq darajada nazorat qilib bo‘lmaydi;

– uchinchidan, o‘qituvchi va talaba (o‘quvchi) o‘rtasida emotsional munosabat bo‘lmaydi. Zero, masofaviy o‘qitish texnologiyasidan tezkor axborot almashish maqsadida foydalanish kutilgan samarani berishi shubhasiz. Bugungi kunda poytaxtimizda va viloyatlar markazlarida o‘ziga xos ilmiy potensial markazlari shakllandi. Bu imkoniyatdan Respublika bo‘yicha foydalanishda masofaviy o‘qitish muhim o‘rin tutadi.

Tahlil va natijalar

Masofaviy o‘qitishning maqsadi maqbul va aniq bilim berishga asoslanishi kerak. Buning uchun nazariy bilim berish uch xususiyatga asoslanishi kerak:

1) eng to‘g‘ri ma’lumotlarni berish;

2) didaktik prinsiplarga amal qilish;

3) muayyan mezonlarga asoslanish. Masofaviy o‘qitish bilim berishning uch komponentini qat’iy hisobga olishi kerak. Bular:

1) ma’lumotlarning asosligi va ixchamligi;

2) ma’lumotlarning qabul qilishga qulayligi;

3) ma’lumotlarning fikr qo‘zg‘ashga asoslanishi. Bunday yo‘l tutish masofadan turib saboq olayotgan shaxs ehtiyojini qoniqtiradi. Shu ma’noda bizning fikrimizcha, masofaviy o‘qitish ta’lim oluvchida muayyan muammo bo‘yicha fikr qo‘zg‘ashga asoslanishi kerak. Bu texnologiyada shablon yo‘l tutish o‘zini oqlamaydi va masofaviy o‘qitish usuliga nisbatan ishonchsizlik uyg‘otadi. Demak, masofaviy o‘qitishning uchdan bir qismini muhokama tashkil qilishi kerak. Muhokama vositasi bilangina bu metodda ko‘zlangan samaraga erishish mumkin. Masofaviy ta’limning pedagogik-psixologik xususiyatlari pedagogik texnologiyalarning shaxs taraqqiyotidagi ahamiyatiga mos kelgan holda, ta’limda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlarini yanada kengroq ochib berishga xizmat qilishi bilan xarakterlidir.

Xulosa va takliflar.

Masofaviy o‘qitish metodi o‘z tarkibiga birqancha ta’lim shakllarini oladi. Ulardan ayrimlarini ko‘rib chiqamiz. Internet konferensiyalar – ta’lim metodi Internet konferensiyalar – bu muayyan muammoni hal qilayotgan guruh ishtirokchilarining Internet tarmog‘i orqali konferenst aloqasi yordamida o‘zaro axborot almashinishi jarayonidir. Tabiiyki, bu texnologiyadan foydalanish huquqiga shaxslar doirasi cheklangan bo‘ladi. Adabiyotlarda telekonferensiya atamasini ko‘p uchratish mumkin. Telekonferensiya o‘z ichiga konferensiyalarning uch turini: audio, video va kompyuter konferensiyalarini oladi. Kompyuter konferensiyasi ishtirokchilari soni audio va videokonferensiyalar ishtirokchilari sonidan ancha ko‘p bo‘lishi mumkin. Audiokonferensiyalar Ular tashkilot yoki firmaning hududiy jihatdan uzoqda joylashgan xodimlari yoki bo‘linmalari o‘rtasida kommunikastiyalarii saqlab turish uchun audioaloqadan foydalanadi. Ikkitadan ko‘p ishtirokchi so‘zlashuvda qatnashishini ta’minlaydigan qo‘shimcha qurilmalar bilan jihozlangan telefon aloqasi tizimi audiokonferensiyalarni o‘tkazish uchun qo‘llaniladigan eng oddiy texnika vositasi hisoblanadi. Audiokonferensiyalarni tashkil etish kompyuter bo‘lishini talab etmaydi, faqatgina uning ishtirokchilari o‘rtasida ikki tomonlama audioaloqadan foydalanishni ko‘zda tutadi. Audiokonferensiyalardan foydalanish qarorlar qabul qilish jarayonini yengillashtiradi, u arzon ham qulay.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Aliyevna J. M. Independent musical activity in preschool organizations //Journal of Ethicsand Diversity in International Communication.– 2021.– T. 1.– №. 1.– C. 9-10

2. Jumayeva M. A. PROBLEMS OF FORMING THE ARTISTIC-AESTHETICCULTUREOFPRESCHOOL CHILDREN THROUGH GAMES //Modern Scientific ResearchInternationalScientific Journal.– 2023.– T. 1.– №. 5.– C. 63-69.

3. Aliyevna J. M. et al. THE DEVELOPMENT OF PRESCHOOL EDUCATIONINUZBEKISTAN //PEDAGOGIKA, PSIXOLOGIYA VA IJTIMOIYTADQIQOTLAR|JOURNAL OF PEDAGOGY, PSYCHOLOGY AND SOCIAL RESEARCH.– 2024. T. 3.–№.5.– C. 203-206

4. Aliyevna, Jumayeva Malika, and BURIYEV JAMSHID JUMANAZAROVICH. “THEROLEOF ACTIVITY IN THE UPBRINGING AND DEVELOPMENT OF THECHILD.”International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences 1.2 (2021): 126-129.

5. Jumayeva, Malika Aliyevna. “PRTHE IMPORTANCE OF USINGMULTIMEDIAEDUCATIONAL TECHNOLOGY IN THE PROCESS OF ACTIVITIES INPRESCHOOLEDUCATIONAL ORGANIZATIONS.” Modern Scientific Research International ScientificJournal 1.5 (2023): 70-77.

6.Aliyevna J. M. et al. THE DEVELOPMENT OF PRESCHOOL EDUCATIONINUZBEKISTAN //PEDAGOGIKA, PSIXOLOGIYA VA IJTIMOIYTADQIQOTLAR|JOURNAL OF PEDAGOGY, PSYCHOLOGY AND SOCIAL RESEARCH.– 2024. T. 3.–№.5.– C. 203-206.

7. Choriyevna C. S. Main Directions of Teacher Training and Improving Their QualityforthePreschool Education System // Vital Annex: International Journal of Novel ResearchinAdvanced Sciences.– 2022.– T. 1.– №. 5.– C. 51-54.

8. Choriyevna C. S. Ways to Develop Mental Abilities in Preschool Children //EurasianJournalof Learning and Academic Teaching.– 2022.– T. 15.– C. 174-177.


9.Choriyeva S. C. TALABALARNI TA’LIMIY QADRIYATLAR ASOSIDA PEDAGOGIK FAOLIYATGA TAYYORLASH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHNING MOHIYATI VA MANTIQIY JIHATDAN TAHLILI //Educational Research in Universal Sciences.

10. Choriyevna C. S. et al. A MODEL FOR IMPROVING THE SYSTEMOFPREPARINGSTUDENTS FOR PEDAGOGICAL ACTIVITY ON THE BASE OF EDUCATIONALVALUES //Multidisciplinary Journal of Science and Technology.– 2023.– T. 3.–№.6(INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCHER).– C. 283-285.– 2023.– T. 2.–№.9SPECIAL.– C. 99-102.

11. Чориева С. Ч. и др. ИГРА КАК ВЕДУЩАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬРЕБЕНКАДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА //Gospodarka i Innowacje.– 2024.– T. 48.– C. 138140.

12. Чориева С. Ч. УМЕНИЕ УЧИТЕЛЯ ИСПОЛЬЗОВАТЬ СОВРЕМЕННЫЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ ТЕХНОЛОГИИ ПРИ ПОДГОТОВКЕ УЧАЩИХСЯКПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ НА ОСНОВЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХЦЕННОСТЕЙ// Экономика и социум.– 2024.– №. 10-2 (125).– C. 998-1001

Dilshoda MAXMUDOVA,
Samarqand davlat chet tillari instituti tayanch doktoranti



ROMAN POETIKASIDA QAHRAMON ICHKI OLAMI TASVIRI

Annotatsiya: maqolada ingliz adibi Somerset Moemning asarlari talqin etilib, badiiy psixologizmning roman to‘qimasida tutgan o‘rni haqida so‘z yuritiladi. Mazkur maqolada ingliz nasriga xos qator tasvir xususiyatlari ham talqin etilib, ijodkor fenomenining ajralmas halqasi ekanligi isbotlandi.

Kalit so‘zlar: *ruhiy talqin, poetika, germenevtika, obraz, sujet, xronotop, uslub, modifikatsiya, mezon.*

Аннотация: в статье интерпретируются произведения английского писателя Сомерсет Моэма. Рассматривается роль художественного психологизма в структуре романного повествования. Также в данной статье анализируется ряд изобразительных элементов, характерных для английской прозы, и доказывается, что они являются неотъемлемым звеном в феномена творчества писателя

Ключевые слова: *психологическая интерпретация, поэтика, герменевтика, образ, сюжет, хронотоп, стиль, модификация, критерий.*

Annotation: the article interprets the works of the English writer Somerset Maugham and discusses the role of artistic psycholog in the structure of novel. Additionally, this article analyzes a number of descriptive elements characteristic of English prose and proves that they constitute an inseparable part of the writer’s creative phenomenon.

Key words*: psychological interpretation, poetics, hermeneutics, image, plot, chronotope, style, modification, criterion.*

Buyuk va ulug‘vor g‘oyalar bilan yo‘lga chiqqan har qanday iste’dod baxtli bo‘lishga haqli. Alloh har bir insonni baxtli bo‘lish uchun non-u tuzini halol topib, hayotda go‘zal yashab o‘tishi uchun rizqli qilib yaratgan. Mana shu yaratilish Xudovandning bandasiga ko‘rsatgan eng mo‘tabar rahmatidir. Bunday rahmat faqat insonga berilgan. Aql va tafakkur sohiblari, qalb ko‘zi teran ochiq kishilargina ana shunday muhabbatga sazovor bo‘lishi tayin. Oilasidan, shirin-shakar farzandlaridan voz kechib, jamiyatning og‘riqlaridan zada bo‘lgan insonning qilmish-qidirmishlari “Oy va sariq chaqa” romanida falsafiy-psixologik yo‘sinda talqin etilganini ko‘rish mumkin. Bosh qahramonning ruhiy olami shu qadar murakkab va ko‘p qirralikim, uning zamirida inglizlar, fransuzlar, irlandlar, olmonlar, ispanlar kabi turli xalqlarning yashash tarzi va hayotning dolg‘ali simfoniyasi qorishib ketgan desak, aslo mubolag‘a bo‘lmaydi. Dunyoning turli burchaklaridan kelgan odamlar bilan tanishuv sahnalari-yu, turli xil qiyofalarning unga ko‘rsatgan rahmdilligi yuqoridagi mulohazalarimizni to‘laqonli tasdiqlaydi. Romanning eng baquvvat ustunlaridan biri – Oy va sariq chaqa ramzidir! Oy – go‘zallik timsoli, unga erishish esa insonning ma’naviy quvvatini ham, moddiy borlig‘ini ham talab qiladi. Busiz hech qanday rohat va farog‘atda yashab bo‘lmasligini qahramon teran his etadi:

– Siz rostdan ham qarzga pul berib turadi, deb o‘yladingizmi?

– Nega bermas ekansiz?

– Siz meni hayron qoldiryapsiz va xafa qilyapsiz!

– Nega?

– Ma’lum bo‘lishicha, siz botinan sentimental odam ekansiz. Hissiyotlarimga ta’sir ko‘rsatadigan bunday yo‘ldan foydalanmasangiz yaxshi bo‘lardi.

– Agar shu gaplarga rahmdillik qilsangiz, sizni jinimdan yomon ko‘rgan bo‘lardim.

– Shunday bo‘lgani ma’qul, – kuldim men.

–Biz dastlabki yurishlarni qilganimizdan keyin o‘yinga berilib ketdik. O‘yin tamom bo‘lgach, unga aytdim: agar shu qadar nochor ahvolda bo‘lsangiz rasmlaringizni menga ko‘rsating.

–Ehtimol, ulardan birortasi ma’qul kelsa sotib olarman.

– Tuyog‘ingizni shiqillatib qoling, – gapimni bo‘ldi u.

U o‘rnidan turib, eshik tomon yura boshladi. Men uni istehzoli kulgi bilan to‘xtatdim.

– Araqning pulini to‘lashni unutdingiz, shekilli!

U meni so‘kdi, jahl bilan stol ustiga tanga pul tashlab chiqib ketdi.

Shundan keyin bir necha kun mobaynida men uni uchratmadim. Lekin kunlarning birida, qahvaxonada

gazeta o‘qib o‘tirgan paytimda kirib keldi-da, yonimga o‘tirdi.

– Ko‘rib turishimcha, o‘zingizni osmabsiz, shekilli, – kinoya qildim.

– Yo‘q, men buyurtma oldim. Ikki yuz frankka keksa tunukasozning portretini ishlayapman.

– Bu buyurtmani qanday topdingiz?

– Men bulka sotib oladigan bulkapaz ayol tavsiya etibdi unga. Tunukasoz o‘z portretini ishlab beradigan odam qidirib yurganini aytgan ekan. O‘rtada turgani uchun unga yigirma frank berishga to‘g‘ri keldi.

– Tunukasoz qanday ko‘rinishdagi odam ekan?

– Portret uchun juda mos ekan. Yuzi qizil, semiz qo‘yning soniday yog‘liq, yiltillaydi, o‘ng yuzida kattakon tukli so‘gali ham bor”[1].

Moddiyat inson zotini, ayniqsa, u iste’dodli bo‘lsa, uning ruhiyatini ham, jismini ham bukib, hayot maromidan chiqarib yuborishi tayin. Chunki insonning yashash maslagi, eng avvalo, uning moddiy ta’minoti bilan bevosita bog‘liq. Agar Charlz Striklend o‘rnida boshqa odam bo‘lganida ham, moddiy imkoniyatsiz buyuk rassom darajasiga ko‘tarilishi amrimahol edi. Yozuvchi kitobxonlarni shartli ravishda ikki toifaga ajratadi. Birinchi toifa vakillari Charlz Striklend xarakteridagi odamovilikni, uning oilasini o‘z orzularidan ustun qo‘ymaganini qoralaydi. Ikkinchi toifa esa janob rassomning qilayotgan ishi mutlaqo to‘g‘ri deb hisoblaydi. Bunday vaziyatda yozuvchi asosiy diqqatni roman poetikasidagi ruhiy iqlim tasviriga qaratadi. Inson qanday vaziyatda bo‘lishidan qat’iy nazar, o‘z ruhiy muvozanatini saqlay olmasa, katta yo‘qotishlarni boshidan kechirishi tayin. Bunday holat Ulug‘bek Hamdamning “Muvozanat” romanidagi – Yusuf, “Isyon va itoat”dagi – Akbar, “Sabo va Samandar”dagi – Samandar obrazlarida turli xil qiyofada gavdalanadi. Eslab ko‘raylik, “Muvozanat” romanida – tarix fani o‘qituvchisi bo‘lib, buyuk tarixni o‘zim yozaman deb katta mashaqqatli yo‘lga chiqqan Yusuf oilasi va yaqinlaridan ajralib qoladi. Undagi ayrim xarakter xususiyatlari Charlz Striklend obrazini yodga soladi. Romandagi boblar va uslublar dialektikasi aynan shu tamoyilga qurilgan sintez hodisasini namoyon etadi. Har ikki asar qahramoni nafs va xudbinlikka nisbatan turlicha munosabatda bo‘ladi. Biri maishiy turmush tashvishlari tufayli yo‘ldan chiqsa, ikkinchisi orzulari sari intilish jarayonida o‘zligini yo‘qota boshlaydi. Natijada insonning ruhiy muvozanati jamiyat tartibotlari negizida yanchilib, ado bo‘lish darajasiga yetib boradi.

Filologiya fanlari doktori Mashhura Sheraliyeva kinoyaviy-parodik usulga to‘xtalib shunday yozadi: “Insonning xarakteriga qarab biz uning shaxsiyati haqida hukm chiqaramiz. Xarakter shaxsiyatning tashqi tomoni, shaxsiyat esa xarakterning ichki tomonidir. Bundan shaxsiyat va xarakter bir narsaning ikki tomoni degan xulosaga kelish mumkin.” V.Tyupa Anton Chexov asarlarini tahlil qilar ekan, yuqoridagi ikki jihatni ajratib qarash zaruratini his qiladi. Uning fikricha, Chexovning “diqqat markazida nafaqat inson xarakteri, balki shaxsiyati ham turadi, boshqacha aytganda, individuallikning, (latifa nuqtayi nazari) tabiati – tashqi muhit ta’sirida shakllangan har qanday xarakter asosini tashkil qiluvchi ichki “men”ning xususiyatidir”[2]. Darhaqiqat, “Oy va sariq chaqa” romanidan keltirilgan yuqoridagi tunukasoz portretining chizilishi, Charlz Striklendning muayyan muddat tirikchilik qilishi uchun qulay sharoit yaratib, bo‘lg‘usi rassom hayotiga mazmun bag‘ishlay boshlaydi. Shuningdek, U.Hamdamning “Muvozanat” romanida esa Yusufning mardikorlikka chiqib ketishi, oilasidan ayro holda talabalar yotoqxonasida yashashi, suvarak bosgan, qotgan nonni yeyishi kabi holatlar ham shu mazmunni to‘ldiradi. Har ikki yozuvchi inson ruhiyatiga yangicha mazmundagi uslubiy-dinamik yondashuvni namoyon etadi. Ana shu jihatlar “Muvozanat” romanidagi quyidagi munozaralarning asl sabablarini ochib berishga xizmat qiladi.

Professor Shoira Botirova qayd etganidek: “Badiiy asar talqini va tahlili jarayonida, psixologik tasvirning turli asarlarda turlicha vazifalarni bajarishini nazarda tutgan holda ba’zi asarlarda ruhiy tahlil va psixologik detallar unchalik ko‘p emas, faqatgina muallif niyatini amalga oshirishga yordamchi badiiy vosita tarzida qo‘llanilishiga amin bo‘lamiz. Bunday hollarda biz faqat psixologik tasvir unsurlari haqida gapirishimiz mumkin. Ayrim hollarda esa, psixologik tasvir matnning salmoqli qismini band etish barobarida boshqa unsurlarga nisbatan mustaqillik kasb etadi va asar mazmunini tushunishning favqulodda muhim jihatiga aylanadi. Bizningcha, bunday asarda alohida badiiy uslub – psixologizm yuzaga keladi. Psixologizm bu badiiy tasvir vositalari ko‘magida qahramon ichki olami: uning fikrlari, kechinmalari, xohishlari, hissiy holatlarini batafsil tasvir orqali kashf qilishdir... Psixologik tasvirning uch asosiy formasi mavjud bo‘lib, ichki olam tasviridagi barcha konkret usullar alal-oqibat o‘shalarga borib taqaladi”[3]. Haqiqatdan ham, badiiy va ruhiy tahlil imkoniyatlari keyingi davr romanchiligida nihoyatda turfalanib bormoqda. Bunga misol sifatida “Muvozanat” romanidagi quyidagi talqin birliklarini ko‘rsatish mumkin:

“Yusuf Kenjavoy ovosinikidan chiqib, akasinikiga yurmadi, balki orqaga qaytdi. Chunki ko‘rgani va eshitganlaridan mutaassir bo‘lib ezilgandi. “Nahotki, –

1 Кўрсатилган адабиёт: 46-47-Б.

2 Шералиева М. Ўзбек насрида киноя. –Т., “Академнашр”. 2017. 161–Б.

3 Ботирова Ш. Ҳозирги ўзбек романларида бадиий психологизм. Филол. фан.дисс.яси. –Қарши, 2019. 87–Б.

o‘ylanardi u, – bitta yarimjon kampirning yeb-ichishini ta’minlash shuncha qiyin bo‘lsa? Axir, u Kenjavoy ovosining o‘z onasi-ku. Kishi o‘z onasidan ham biror narsani qizg‘anadimi? Yoki ular shunchalar nochormi? To‘g‘ri, qiyinchilik, taqchillik bor. Lekin och qolib o‘lgan odamni hali eshitganimizcha yo‘q. Holbuki, ahvol u darajada yomon ham emas-ku! Yoki bo‘lmasa, Kenjavoy ovosining aytganlari rost-u enam yosh bolaga aylanib qolib, shunaqa gaplarni aytyaptimi? Axir, gap-so‘zlari joyida kabi ko‘rinmadimi? Nahotki, u o‘z bolalarini begonalar oldida izza qilishga botinsa?..” Yusuf shu xayollar bilan otasining uyiga kirib kelganida butun oila to‘planib, uni kutishayotgan edi. Hatto alohida joyga “uchirma” bo‘lib chiqib ketgan Amir va Obidlar ham bola-chaqasi bilan kelib o‘tirishgandi”[4].

Ulug‘bek Hamdamning “Muvozanat” romanida ruhiy tahlil uslub poetikasini bir qadar yanada rivojlanishga keng imkoniyat yaratadi. Unda Yusufning – qishloqqa kelishi-yu, qarindoshlari bilan suhbatlashishlari, shahar va qishloq odamlari orasidagi mehr-muhabbat rishtalarining o‘ziga xos tafovuti yaqqol ko‘zga tashlanadi. Romandagi barcha voqelik Yusuf bilan bog‘lanadi. Yusufsiz biror voqelik yoki psixologik taranglik sodir bo‘lmaydi. Yozuvchi ana shu jarayonning mustaqil boshqaruvchisi sifatida ko‘z o‘ngimizda gavdalanadi. Yusuf o‘tmish va bugunni solishtirishda davom etadi. Tog‘asi Muhammadjon akaning bevaqt vafot etishi, qarilik va yolg‘izlik azoblaridan iztirob chekishi hamda Yusufga bergan hayotiy maslahatlari qahramon taqdirida – halollik mezonini shakllantiradi. Negaki, Muhammadjon aka haqiqiy tarix o‘qituvchisi, bir necha yillar orzu-xayollari bilan yashagan, millat taqdiri uchun kurashgan adolatparvar va realist inson sifatida tasvirlanadi. Ana shu xarakter xususiyatlari romanda Yusuf obraziga ham singdirilgan bo‘lib, romanda uslubiy o‘ziga xoslikni ta’minlashning muhim vositasiga aylangan. Inson taqdiri va qismati oldida har bir shaxs javobgar ekan, bir insonning ikkinchi insonga tobeligi romanda turli epizodlarda simfonik tarzda ifodalanadi. Ana shu nuqtada Amir va Gulshoda qismati ham fojeaviy yakun topadi. Din va diyonat deb, o‘z sog‘lig‘i va ruhiy muvozanatini yo‘qotgan qahramonlar, alal-oqibat, o‘lim bilan yuzma-yuz keladi. Romanning eng xarakterli jihatlaridan biri – uchta o‘lim tasvirining o‘zaro uyg‘un holda berilganidir. Insonning kim va qanday maslak egasi ekani hayotning murakkabligidan dalolat beradi. Yusuf kabi o‘z e’tiqodida sobit qahramonlar esa misli ko‘rilmagan sinovlar olamiga tashlanadi. Somerset Moem ham xuddi shunday yo‘sinda rassom Charlz Striklend obrazini shakllantiradi. Charlz Striklend ham hayotda Yusuf kabi muvozanatni saqlab qolishi mumkin edi. Ammo uning nafs va odamovilikka moyilligi muammolarning yanada chuqurlashishiga yo‘l ochadi. U hayot insonga bir marotabagina berilishini anglaydi. Shuning uchun undan unumli foydalangan insongina haqiqiy baxtga erishishi mumkin, deb hisoblaydi. Buni yozuvchi juda katta o‘xshatishlar, kinoyaviy qochirimlar bilan ifodalay olgan.

Umuman olganda, buyuk ispan mutafakkiri Xose Ortega-i-Gasset e’tiroficha: “Har qanday san’atning tarixi inson qalbining tomonlaridan birini ifodalashga bo‘lgan qator urinishlardir. Xuddi shu narsa uni boshqa san’atlardan ajratib turadi. Bu urinishlar shunday bir egri chiziqni tashkil qiladiki, san’at kamalakning yengil o‘qi kabi shu chiziq bo‘ylab zamon qa’riga o‘z maqsadi sari intiladi. Intihosiz ufqdagi shu nuqta har qaysi san’atning yo‘nalishini, mohiyatini va ma’nosini ko‘rsatib turadi”[5]. Somerset Moemning “Oy va sariq chaqa” romanidagi psixologik kartinalar Charlz Stirklendning goh insoniy, goh hayvoniy qiyofasini namoyon qilib, o‘zigagina xos yashash tarzi bilan baxtli bo‘lishga astoydil intilgan qahramon intellektini yodga soladi.

4 Улуғбек Ҳамдам. Мувозанат. –Т: “Шарқ”. 2007.45–Б.

5 Жаҳон адиблари адабиёт ҳақида. –Тошкент: Маънавият, 2010. 307–Б.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Шералиева М. Ўзбек насрида киноя. –Т.: “Академнашр”, 2017. 161–Б.
2. Ботирова Ш. Ҳозирги ўзбек романларида бадиий психологизм. Филол.фан.дисс.яси. –Қарши, 2019. 87–Б.
3. Улуғбек Ҳамдам. Мувозанат. –Т: “Шарқ”, 2007.45–Б.
4. Жаҳон адиблари адабиёт ҳақида. –Тошкент: Маънавият, 2010. 307–Б.
5. Умуров Ҳ. Сайланма. 2-жилд. Адабий-танқидий мақолалар. – Т.: “Фан”, 2007. 274–Б.
6. W. Somerset Maugham. The moon and sixpence.The modern library. – New York, 1931-P.

Jobir ISMATILLOYEV,
Qarshi davlat universiteti tayanch doktoranti
jobirismatulloyev@gmail.com

TARIXIY ASARLAR TARKIBIDAGI QASIDALAR XUSUSIDA AYRIM MULOHAZALAR

Annotatsiya: mazkur maqolada Xorazm adabiy muhiti vakillarining qasida janriga mansub she'rlari xonlik tarixini yoritishga bag'ishlangan asarlar misolida tadqiq etildi. Munis Xorazmiy va Ogahiy qalamiga mansub "Firdavs ul-iqbol" hamda Muhammad Yusuf Bayoniyning "Shajarai Xorazmshohiy" nomli asarlari nafaqat xonlik tarixini, balki davr adabiy muhitini o'rganishda ham muhim manba vazifasini bajaradi. Mazkur asarlarda g'azal, masnaviy, qit'a, ta'rix va fard kabi janrlardagi she'rlar bilan bir qatorda o'ndan ortiq qasidalar ham keltirilgan.

Kalit so'zlar: *Xorazm adabiy muhiti, Munis, Ogahiy, Bayoniy, qasida, madh, "Firdavs ul-iqbol", "Shajarai Xorazmshohiy".*

Annotation: this article examines qasidas composed by representatives of the Khorezm literary milieu through the example of works dedicated to illuminating the history of the khanate. Munis Xorazmiy and Ogahiy's Firdavs ul-iqbol, as well as Muhammad Yusuf Bayoniy's Shajarai Xorazmshohiy, serve as important sources not only for the study of the khanate's history but also for the literary environment of the period. Alongside poetic genres such as ghazal, masnavi, qit'a, chronogram (ta'rikh), and fard, these works also include more than ten qasidas.

Key words: *Khorezm literary milieu, Munis, Ogahiy, Bayoniy, qasida, panegyric poetry, "Firdavs ul-iqbol", "Shajarai Xorazmshohiy".*

Аннотация: в данной статье исследуются касыды представителей хорезмской литературной среды на примере произведений, посвящённых освещению истории ханства. Munis Xorazmiy и Ogahiy в произведении Firdavs ul-iqbol, а также Muhammad Yusuf Bayoniy в произведении Shajarai Xorazmshohiy представили ценные сведения не только по истории ханства, но и по литературной среде эпохи. Наряду с такими жанрами, как газель, маснави, кыта, та'рих и фард, в данных произведениях содержится более десяти касыд.

Ключевые слова: *хорезмская литературная среда, Мунис, Огахий, Баяний, касыда, мадх, «Фирдавс ул-иқбол», «Шажарои Хоразмшоҳий».*

Kirish. Xorazm adabiy muhitida vakillari orasida qasida janriga murojaat boshqa adabiy muhit vakillariga qaraganda sezilarli darajada ko'p. Bu janrga xos eng yaxshi namunalarni Munis Xorazmiy[1:210]., Muhammadrizo Ogahiy[3:506], Komil Xorazmiy[3:377] kabi shoirlar ijodida ko'rishimiz mumkin. Xonlikda yaratilgan qasidalarning asosiy qismini madh qasidalar tashkil etadi.Ma'lumki, qasidanavislik o'zbek adabiyotida arab va fors adabiyoti ta'sirida yuzaga kelgan. Bu janrning adabiyotimizdagi rivoj topishi 14-15-asrlarga borib taqaladi. Uning yaxshi namunalari Mavlono Sakkokiy tomonidan yaratilgan. Zamondoshlari Hofiz Xorazmiy, Ahmad Toroziy, Mavlono Lutfiy ijodida ham qasidaning go'zal namunalar uchraydi.Bu davrda qasidanavislikning rivoj topishi bejiz emas. Chunki, Temuriylar davrida ilm-fan, adabiyot va san'atga katta e'tibor qaratildi. Samarqand, Buxoro, Kesh, Hirot kabi shaharlarda madrasalar bunyod etilib, olim, shoir va san'atkorlar jamlandi. Tabiiyki, bunday e'tibor va rag'batdan shoirlar hukmdorlar madhiga bag'ishlangan she'rlar bitgan. Xiva xonligida hokimiyat qo'ng'irotlar sulolasi qo'liga o'tgach madaniy hayot ham jonlandi. Shoir-u san'atkorlarning ijodiy faoliyatlari rag'batlantirildi.

Asosiy qism. Xorazmda yaratilgan qasidalarni o'rganishda shoirlarning devonlari birlamchi manba bo'lib xizmat qiladi. Mazkur davrda yaratilgan tarixiy asarlar, tazkiralar orqali ham qasidalarni o'rganish mumkin.Jumladan, Munis va Ogahiy qalamiga mansub "Firdavs ul-iqbol"da besh qasida va bir qasida mat'lasi keltirigan. Ular umumiy 166 baytni tashkil etadi.

Asarning muqaddima qismida kelgan ilk qasida 29 baytni tashkil etadi.Munis qalamiga mansub bo'lgan bu she'rda Xiva xoni Eltuzarxon madh etilgan.

Lutfidin kayvonsarir o'ldi fazilatmandlar,
Bazlidin ahli hunar bo'lg'an kibi xurshidjoh.

Panjayi ehsoni andoq simu zar rezish qilib,
Eylakim, jannatda Tubo shoxi har sori miyoh. [4:36]

Mazkur misralarda hukmdorning fazilat ahliga yuksak maqom ("kayvonsarir") berganini ifodalaydi."Kayvon" qadimgi Sharq astronomik tafakkurida Saturn sayyorasi bo'lib, ulug'lik va yuksaklik ramzi sanalgan. Shoir hukmdorning saxovati tufayli ilm va fazilat egalari oliy martabaga erishganini tasvirlagan. Xonning ehsoni tufayli hunar ahli "xurshidjoh" — quyosh maqomidagi ulug' zotlarga aylangan. Bu yerda quyosh obrazi nur, ma'rifat va hayot timsoli sifatida qo'llangan. Mumtoz she'riyatda "xurshid" odatda podshoh yoki uning qudratini anglatuvchi markaziy metaforalardan biridir. Shoir hukmdorning saxovatpeshaligini ham ta'riflab "ehson panjasi" oltin va kumush sochuvchi qo'l sifatida tasvirlaydi.Bu borada uning ehson tarqatuvchi qo'llari Jannatdagi Tubi daraxtining sermeva shoxlariga qiyoslanadi. Shoir xonni bu qadar mubolag'alar bilan ulug'lashi tabiiy. Chunki Eltuzarxon hokimiyat tepasiga kelgach qator o'zgarishlarni amalga oshirdi.Xorazm tarixini o'rganishda qimmatli asarlardan biri bo'lmish "Firdavs ul-iqbol" asari ham Eltuzarxon da'vati bilan yuzaga keldi.

Asardagi ikkinchi qasida ham Munis qalamiga mansub bo‘lib Eltuzarxonga bag‘ishlangan. O‘ttiz ikki misrani tashkil etadi. Uchinchi qasidaning mat’lasi keltirilgan xolos:

Beza, ey shohidi davlat, menga vasling shabistonin,
Charog‘i majlisafro‘z et jamoling mohi tobonin.

Mazkur 44 baytli qasidaning to‘liq matni shoir devoniga kiritilgan.Munis bu madhni Eltuzarxonning taxtga chiqishi munosabati bilan yozgan.

“Firdavs ul-iqbol”dagi to‘rtinchi va beshinchi qasida Muhammad Rahimxon I ning 1811-yilda qo‘lga kiritgan g‘alabasi munosabati bilan yozilgan. Masihoi Buxoriyning forsiy qasidasi 42 baytni tashkil etadi. Shoirning Ziyrak qasidasi 39 bayt. Asardagi so‘nggi qasida mullo Niyozmuhammad Munshiy qalamiga mansub bo‘lib, mazkur 24 baytli qasida ham Muhammad Rahimxon I ning 1812-yilda xonlik tarkibidagi Dashti Qipchoq aholisi ko‘targan qo‘zg‘olonni bostirib, g‘alaba bilan qaytgani madh etilgan.

Xonlik tarixiga oid yana bir tarixiy manba Muhammad Yusuf Bayoniyning “Shajarayi Xorazmshohiy” asaridir. Asar Muhammad Rahimxon Feruz zamonida yaratilgan. 1911-1913-yillar oralig‘ida yozilgan mazkur kitob tarixiy va adabiy manba sifatida ahamiyatlidir. Asarda muallif g‘azal, qasida, masnaviy, tarix kabi janrlarga mansub she’rlardan namunalar keltirgan. Kitobda uch qasida va bir qasida matlasi bor.

Muarrix asarda Xusraviy taxallusi bilan ijod etgan Iso To‘ra ibn Rahimqulixonning haj ziyoratini niyat qilib xonning ruxsati bilan safarga otlangani, safar davomida ko‘rgan-kechirganlarini qayd etib bir ajib “Sayohatnoma” yozgani qayd etgan.Shuningdek, “Bayt ul-haramning ziyorati shavqida bir qasida oytibdurlar, ushbu bayt ondindur”, deya qasidadan bir bayt va ma’qtasini keltirgan:

Ey, xush ul davlatki, sa’y aylab Safovu Marvada,
Bo‘lmoq Ismoildek Minoda qurboni Haram.

Va bu bayt ul qasidaning maqta’idur, bayt:

Sayri gulshan Xusraviyga kelmasa xush, ne ajab,
Orzu ko‘nglidadur gashti biyoboni haram. [5:46]

Tarixiy asarda keltrilishicha, hijriy 1320-yilda yovmitlar yo‘lto‘sarlik qilib, savdogarlarning molini talon-taroj qilayotganligi va Safar Ali degan yovmut salg‘ut solig‘ini to‘lamaganligi haqida xabar keladi.Muhammad Rahimxon Feruz poytaxtda o‘g‘li Sayyid Abdulloni qoldirib yovmitlar ustiga lashkar tortdi. Qisqa fursatda aybdorlar jazolanib, xon poytaxtga qaytdi. Unga shahar aholisi peshvoz chidi. G‘alaba munosabati bilan Bayoniy “Keldi” radifli g‘azal va bir qasida yozganini ta’kidlab, ularni asariga kiritgan. Mazkur qasida 54 baytdan iborat.

Asarda keltirilgan keyingi qasida ham Bayoniy qalamiga mansub.Uning mavzusi an’anaviy qasidalardan farq qiladi. Hijriy 1325-yilda Muhammad Rahimxon Feruz 63 yoshni qarshi oldi. Xonning payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v.)ning yoshlariga kirganligi shukronasi uchun shahzoda Asfandiyorxon Islomxo‘jaga bir to‘y tashkil etishni buyuradi. Bayoniyning qasidasi ushbu to‘y ta’rifiga bag‘ishgan. Hajmi 31 bayt. Qasidaning nasib qismida bahor vasf etilib, uning yosharish, yangilanish, tabiatda uyg‘onish fasli ekanligi o‘z ifodasini topgan.Qasidaning asosiy qismi o‘n birinchi baytdan boshlangan:

Oyini tazyinlar bila to‘lmish viloyat sar basar
Kim, oltmish uch yoshg‘a kiribdurlar shahi ehsonshior.

Aylab payambar yoshining shukri uchun shohona to‘y,
Farmon bila boshlatdilar shahzodayi Asfandiyor.

Shoir keyingi baytlarda to‘yning shukuhi xususida so‘z yuritar ekan, unda barcha tabaqalar ahli tariqat halqa qurib zikr qilgani, ilm sohiblari, shoirlar shoh madhiga ashorlar aytgani, sozandalar kuy-qo‘shiqlar bilan elni xushnud etganligini bayon etgan.To‘ydagi kurash, ko‘pkari kabi musobaqalar, darbozlik tomoshalarini tasvirlash ham shoir e’tiboridan chetda qolmagan. Qasida yakunida shoir bu to‘yda ishtirok etganlar hadyalar va sarpolar bilan siylanganini qayd etib, maqtada, to‘y tarixini (hijriy 1325-yil) muammo orqali ifodalagan:

Kelgan kishi boshdin oyoq bo‘ldi zari zevarga g‘arq,
Bu to‘yda kim kiymayin qoldi libosi zarnigor?

Dedi Bayoniy shohig‘a to‘yini tarixi uchun:
«Ey, ikki muncha umr ila bo‘l bu jahonda barqaror».

Bayoniy Muhammad Rahimxon Feruzning she’r yozishi va saroyda shoirlarni jamlagani, ularga o‘z g‘azallariga nazira bog‘lashni buyurgani va Ahmadjon Tabibiy xon farmoniga muvofiq ushbu g‘azallarni jamlab “Majmuat ush-shuaro”ni tuzganligini bayon etgan. Asardagi so‘ngi qasida ham Muhammad Rahimxon Feruzga bag‘ishlangan. Hajmi 27 baytni tashkil etadi.

Muxtasar qilib aytganda, xorazmlik shoirlar g‘azal, muhammas, ta’rix kabi mumtoz she’riyat janrlari bilan bir qatorda qasida janrida ham barakali ijod qilib, ushbu janr taraqqiyotiga o‘z hissalarini qo‘shdilar. Qasidalar faqat xonlar madhiga bag‘ishlangan she’rlar bo‘lib qolmay, balki tarixiy voqealari, saroy muhitining o‘ziga xos jihatlarini o‘zida aks ettirganligi uchun ahamiyatlidir. Tarixiy asarlar tarkibiga kiritilgan qasidalar ham janr xususiyatlarini o‘rganishda muhim manba hisoblanadi. Chunki bunday qasidalar tarixiy voqealar bilan uzviy bog‘liq holda yaratilgani bois ularda nafaqat badiiy mahorat, balki muayyan davrning siyosiy, madaniy va adabiy muhiti ham o‘z ifodasini topgan.Shu jihatdan, “Firdavs ul-iqbol” va “Shajarai Xorazmshohiy” kabi asarlar tarkibidagi qasidalar Xorazm adabiy muhitida qasida janrining taraqqiyot bosqichlarini yoritishda alohida ilmiy qimmat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Мунис, Шермуҳаммад. Девон. – ЎзР ФА Шарқшунослик институти фонди, № 63 рақамли тошбосма.
2. Ogahiy, Ta’viz ul-oshiqin: Devon (nashrga tayyorlovchi S.Rafiddinov). –Toshkent: “Adabiyot”, 2023.688-bet.
3. Komil Xorazmiy.Devon [Matn] mas’ul muharrir N.Jabborov; nashrga tayyorlovchi Sh. Nuriddinov. –Toshkent: Sahhof, 2025.560-bet.
4. Munis va Ogohiy.Firdavs ul-iqbol. –Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2010. 520-bet.
5.https://uzbekliterature.uz/sites/default/files/muhammad_yusuf_bayoniy._shajarai_xorazmshohiy.pdf

Saodat LATIPOVA,
BuxDU tayanch doktoranti
saodatlatipova43@gmail.com

SULAYMON BOQIRG‘ONIY IJODIDA ME’ROJ TALQINI

Annotatsiya:ushbu maqolada turkiy tasavvuf adabiyotining yirik namoyandasi Sulaymon Boqirg‘oniyning “Me’rojnoma” asari badiiy va falsafiy jihatdan tahlil qilinadi. Asardagi ramziy timsollar, xususan, Buroq, Jabroil alayhissalom va Sidra maqomi kabi tushunchalarning tasavvufiy mohiyati ochib beriladi. Maqolada Rasulullohning samoga sayohati davomida Do‘zax va Jannat manzaralarining tasvirlanishi hamda Alloh taolo bilan bo‘lgan muloqotning inson ma’naviy kamolotidagi o‘rni yoritilgan.

Kalit so‘zlar: *Sulaymon Boqirg‘oniy, Hakim ota, Me’rojnoma, tasavvuf, turkiy adabiyot, Buroq, komil inson, ma’naviy yuksalish, ilohiy ishq, ramz va timsol*

Annotation: this article analyzes the work *“Me’rojnoma”* by Sulaymon Boqirg‘oniy, a prominent representative of Turkic Sufi literature, from artistic and philosophical perspectives. The mystical essence of symbolic images in the work, particularly concepts such as Buraq, the angel Jibril (Gabriel), and the مإقرم Sidrat al-Muntaha, is revealed. The article also highlights the depiction of Heaven and Hell during the Prophet’s heavenly journey and explains the significance of the dialogue with Allah in the spiritual perfection of human beings.

Key words: *Sulaymon Boqirg‘oniy, Hakim ota, Me’rojnoma, Sufism, Turkic literature, Buraq, perfect human, spiritual elevation, divine love, symbol and imagery.*

Аннотация:в данной статье художественно и философски анализируется произведение *«Меърожнома»* Sulaymon Boqirg‘oniy — одного из крупнейших представителей тюркской суфийской литературы. Раскрывается суфийская сущность символических образов произведения, в частности таких понятий, как Бурак, ангел Джабраил и مإقرم Сидра. В статье также освещается изображение Рая и Ада во время небесного путешествия Пророка, а также значение диалога со Всевышним в духовном совершенствовании человека.

Ключевые слова: *Сулаймон Боқирғоний, Хаким ота, «Меърожнома», суфизм, тюркская литература, Бурак, совершенный человек, духовное возвышение, божественная любовь, символ и образ*

Kirish. Sulaymon Boqirg‘oniy tasavvufning yirik namoyandasi, shoir, Ahmad Yassaviy tariqatining davomchisidir. “Hakim ota” nomi bilan xalq orasida mashhur. Buyuk adib Ahmad Yassaviyga murid bo‘lgan, o‘zining iste’dodi bilan pirining e’tiborini qozongan. Boqirg‘oniy ustozining tariqat qoidalarini yanada chuqurlashtirib, keng xalq ommasiga yetkazgan. Yassaviyona sodda va ravon uslubda ijod qilgan. Uning “Me’rojnoma” asari islom tarixidagi eng ulug‘vor voqea — Muhammad (s.a.v.)ning samoviy sayohatini o‘zida aks ettiradi. Bu asar nafaqat tarixiy voqelikning she’riy bayoni, balki inson ruhining kamolot yo‘li, nafsni jilovlash va ilohiy ishqqa yetishish bosqichlarini qamrab olgan chuqur falsafiy asardir. Bu Ahmad Yassaviyning to‘rtta mashhur xalifasidan uchinchisi Sulaymon Boqirg‘on tomonidan yozilgan asar bo‘lib, unda payg‘ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi vasallamning Masjidul Haromdan Masjidul Aqsoga, Masjidul Aqsodan Sidratul Muntahoga va nihoyat Allohning huzuriga borgan yo‘li hikoya qilinadi. Asar 117 banddan iboratdir[1].

Asosiy qism. Hakim Ota o‘z ishini Xudoning Muhammad payg‘ambarni payg‘ambarlik uchun tanlashi mavzusidan boshlaydi.U payg‘ambarlikka erishganlarga najot va’da qilinganini, yetmaganlarga esa halok bo‘lishini aytadi. U Xudo Muhammad payg‘ambarni O‘z nuridan yaratgani va uni “Habibim”, ya’ni “Mening sevgilim” deb atagani haqidagi an’anaviy islom bilimlarini yetkazadi. Keyin u Muhammad payg‘ambar boshidan kechirgan azob-uqubatlarga to‘xtaladi. Abu Jahl sakson kishi bilan birga masjidda shom namozini o‘qiyotganida Muhammad payg‘ambarni sehrgarlikda ayblab va boshqa ko‘plab haqoratlarni aytib, uni ta’qib qiladi. Bundan xafa bo’lgan Muhammad payg‘ambar Ummuxonning uyiga u yerda ibodatini davom ettirish uchun boradi. Xudo Jabroilga Buroqni jannatdan olib kelishni buyuradi. Jabroil Buroqni olib, Muhammad payg‘ambarning oldiga boradi. Bu yerda Hakim Ota Buroqni tasvirlaydi va uning g‘ayrioddiy xususiyatlarini sanab o‘tadi. Biroq Buroq Muhammad payg‘ambardan qochadi. Jabroilning ogohlantirishidan keyin u itoatkor bo‘ladi. Muhammad Buroqqa minadi, uning jilovini Jabroil ushlab turadi. O‘ng tomonida Jabroil, chap tomonida Mikoil, oldinda Isrofil va orqada Azroil bilan u safarga chiqadi. Shunday qilib, Me’roj (ko‘tarilish) boshlanadi. Hakim Otaning aytishicha, shundan so‘ng Payg‘ambar Muhammad Masjidul-Aqsoga keladi va u yerda barcha payg‘ambarlar va avliyolarni ko‘radi.

O‘zbek adabiyotida Ibrohim Haqqul, Sayfiddin Rofiddinovning “Me’rojnoma” asarida ham Boqirg‘oniyning “Me’rojnoma”sining ma’lum qismi keltiriladi. Mazkur parchada turkiy me’rojnoma an’analarining yuksak badiiy namunalaridan biri bo‘lib, unda diniy aqidalar, tasavvufiy qarashlar va poetik tasvir uyg‘unlashgan holda aks etadi. Asarning markazida Muhammad (s.a.v)ning me’roj safari, uning ilohiy maqomi hamda ummat uchun shafoatchi sifatidagi o‘rni turadi. Muallif voqealarni oddiy hikoya tarzida emas, balki kuchli ruhiy kechinmalar va obrazli tasvirlar orqali ifodalaydi.

Ul Birubor erklik, ko‘rklik nazar qildiyo,
Mustafoni uzrubon bizni ummat qildiyo,
Ato yubordi bizga, ummat qildi rasulg‘a,
Bizdek osiy qullarg‘a oni rasul qildiyo[2]

1 Eraslan, Kemal (1979). “Hakîm Ata ve Mirâc-nâme’si”. Atatürk Üniversitesi Edebiyat Fakültesi Araştırma Dergisi 10: 243-304.

2 Ibrohim Haqqul, Sayfiddin Raf’iddin “Me’rojnoma” —Toshkent.: Yozuvchi, 1991

Payg‘ambar Muhammad (s.a.v) Masjidul-Aqsoda payg‘ambarlar va avliyolar uchun ibodat qiladi. Namozdan so‘ng, paydo bo‘lgan yorug‘lik narvonidan o‘tib, u yetti osmondan birma-bir o‘tib, har birida turli hodisalarni boshdan kechiradi. Payg‘ambar Muhammad yettinchi osmondan to‘qqizinchi osmonga qadam qo‘yadi va shu darajadan Sidra maqomiga yetadi. Jabroil unga Ufq maqomiga qadar hamrohlik qiladi va undan keyin davom eta olmagani uchun uzr so‘raydi. Bu yerda Payg‘ambar Muhammad minbarga chiqadi va son-sanoqsiz pardalardan o‘tib, Xudoning huzuriga keladi. Bu yerda u to‘g‘ridan-to‘g‘ri Xudo bilan gaplashadi. Keyin u Me’roj safaridan qaytib, hali ham issiq yotog‘iga yetadi. Asarda jannat va do‘zaxning batafsil tavsiflari ham mavjud.

Boqirg‘oniy talqinida Me’roj — shunchaki Payg‘ambarimizning mo‘jizasi emas, balki butun insoniyat, xususan, Islom ummati uchun najot yo‘lidir. Shoir asarni boshlar ekan, Allohning rahmati va Rasulullohning shafqatini bir nuqtada birlashtiradi. *“Ul Birubor erklik, ko‘rklik nazar qildi-yo, Mustafoni uzrubon bizni ummat qildi-yo”* satrlari orqali muallif bizga Me’rojning bosh maqsadi — gunohkor bandalarning kechirilishi uchun yo‘l ochish ekanligini uqtiradi.

Buroq va Jabroil

Me’rojga olib boruvchi yo‘lda Buroqning tasvirlanishi asarning badiiy qiymatini yuksaltiradi. Shoir uni tasvirlashda shunday deydi:

Yuzin nurdin yaratmish, ko‘zi gavhardin ermish
Irinlari la’ldin, tishi duedin erdiyo.
Boshi oning injudin, quloqlari aqiqdin,
Dudog’i oning zabarjad, dishi marjon erdiyo[3]

Bu yerda Buroq — shunchaki ulov emas, balki Ilohiy nurdan yaratilgan, dunyoviy tushunchalarga bo‘ysunmaydigan g‘ayritabiiy kuch timsoli. Uning har bir bosgan qadami bir yillik yo‘lga tengligi aql bovar qilmas masofalarni bosib o‘tish imkonini beradi.

Jabroil alayhissalom esa bu safarda yo‘lboshchi vazifasini o‘taydi. Ammo asarning eng muhim burilish nuqtalaridan biri — Jabroilning Sidra maqomida to‘xtashidir. U Muhammad (s.a.v.)ga qarata: *“Manim maqomim Ufq, mundin ortiq manzil yo‘q, parim kuyar”* deydi. Bu tasvir tasavvufda juda katta ma’no kasb etadi. Olamda eng yuksak farishta ham yetolmaydigan maqom borki, unga faqat Inson — Komil inson qadami yetishi mumkin. Bu inson ruhining barcha mavjudotlardan ustunligiga ishoradir.

3 Ibrohim Haqqul, Sayfiddin Raf’iddin “Me’rojnoma” —Toshkent.: Yozuvchi, 1991

Rasulullohning do‘zax qatlamlarini ko‘zdan kechirishi Boqirg‘oniy ijodida juda hayotiy va og‘riqli tasvirlangan. Shoir gunohkorlarning turli toifalarini ko‘rsatadi: tili kesilganlar, yuzlari qaro bo‘lganlar, o‘t ichida qolganlar. Masalan, g‘iybatchilar, birovning haqini yeyuvchilar va yolg‘onchilarning jazosi ramziy ma’noda beriladi.

Payg‘ambarimizning bu manzaralarni ko‘rib yig‘lashlari va Allohdan *“Ummatlarim gunohin kechru bergil”* deb so‘rashlari asarning o‘ziga xos nuqtalaridan biridir. Adib bu orqali kitobxonni nafaqat ogohlantirish, balki o‘zini isloh qilishga, iymonini mustahkamlashga chaqiradi.

Sakkiz jannatning tasviri asarda nurli va jozibali bo‘yoqlarda berilgan. Salla-olmoslar, anbar taxtlar, sut va asal oqadigan ariqlar — bularning barchasi mo‘minlar uchun tayyorlangan mukofotlardir. Biroq Boqirg‘oniy uchun jannatdagi eng oliy ne’mat moddiy rohatlar emas, balki Allohning *“diydori”*dir. Shoir *“Arshdin o‘tubon bordi, Sidra maqomig‘a yetdi”* deya Rasulullohning ilohiy sir-asrorlarga g‘arq bo‘lishini tasvirlaydi.

Arshdin o‘tubon bordi, Sidra maqomig‘a yetdi,
Sidra maqomidan o‘tub ishq maqomig‘a yetdiyo
Sidra maqomin o‘tdi, Ufq maqomig‘a yetdi
Qaytib onda Jabroil ukush uzr qildiyo[4]

Haq taolo Muhammad (s.a.v.)dan: *“Do‘st do‘stiga kelurda, xoli kelmas, nima kelturding?”* deb so‘raydi. Rasulullohning javobi naqadar go‘zal: “Man nimarsa kelturdim, yo‘qdir sanda — to‘rt nimarsa kelturdim: jurm (ayb), hojat (ehtiyoj), yo‘qsizlik va gunoh”.

Bu muloqot tasavvuf falsafasining asosi — *“faqirlik”* va *“fano”* maqomidir. Ya’ni bandaning Alloh huzuriga qilgan yaxshi amallari bilan emas, balki o‘zining ojizligini tan olishi bilan borishi haqiqiy muvaffaqiyatdir. Chunki Allohda hamma narsa bor, faqat yo‘qsizlik va ayb yo‘q.

Xulosa. Sulaymon Boqirg‘oniyning “Me’rojnoma”si asrlar osha o‘z qiymatini yo‘qotmagan nodir durdonadir. U o‘quvchini bu foniy dunyoning o‘tkinchi tashvishlaridan ma’naviy yuksaklikka chorlaydi. Shoir tili — xalqchil, tasvirlari — jonli, maqsadi — poklikdir. Ushbu asar bugungi kun kitobxoni uchun ham ma’naviy boylik vazifasini o‘taydi. Zero Me’roj — har bir qalbning Alloh sari intilish yo‘lidir.

4 Ibrohim Haqqul, Sayfiddin Raf’iddin “Me’rojnoma” —Toshkent.: Yozuvchi, 1991

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Sog‘uniy Alixonto‘ra. Tarixi Muhammadiy. – T.: Movarounnahr, 1997.
2. So’fi Olloyor. Sabot ul –ojizin. T.: Mehnat. 1991:
3. Sirojiddinov Sh,Yusupova D, Davlatov O. Navoiyshunoslik. – T.: Tamaddun, 2019.
4.Turdiyev Jahongir Zafariddin o‘g‘li Turkiy tildagi me’rojnomalarning qiyosiy-matniy tadqiqi. Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun yozgan dissertatsiyasi.— T., 2022.
5. Qur’oni Karim ma’nolarining tarjimasi va tafsiri /Tarjima va tafsir muallifi:Shayx Abdulaziz Mansur. —T: “Toshkent islom universiteti” nashriyoti matbaa birlashmasi. 2012.
6 O’zbekiston musulmonlari idorasi Samarqand viloyati vakilligi. Payg’ambarimiz Muhammad (s.a.v)ning qisqacha tarixlari va ahli baytlari.11.12.2017. www.islamonline.uz
7.Ibrohim Haqqul, Sayfiddin Raf’iddin “Me’rojnoma” Toshkent.: Yozuvchi. 1991
8.Eraslan, Kemal (1979). “Hakîm Ata ve Mirâc-nâme’si”. Atatürk Üniversitesi Edebiyat Fakültesi Araştırma Dergisi 10: 243-304.

Shohruh TURSUNMURODOV,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti
Shohruhtursunmurodov1994@gmail.com

AZIM SUYUN IJODIGA JAHON ADABIYOTINING TA’SIRI

Annotatsiya: maqolada Azim Suyun ijodiga jahon adabiyoti namoyandalari asarlarining ta’siri masalasi tahlil etilgan. Unda xalq og‘zaki adabiyotidagi afsona va rivoyatlardan intertekstuallikni ta’minlash maqsadida foydalanish Ch. Aytmatovdan, salobati mangulikka daxldor tog‘lardan ilhomlanish R.Hamzatovdan oziqlanish natijasi ekanligi haqida xulosalar chiqarilgan.

Kalit so‘zlar: *jahon adabiyoti, adabiy ta’sir, ilhomlanish, milliylik, afsona, mif, rivoyat.*

Аннотация: в статье анализируется вопрос влияния произведений представителей мировой литературы на творчество Азима Суюна. Сделаны выводы о том, что использование легенд и преданий устного народного творчества с целью обеспечения интертекстуальности является результатом влияния Ч. Айтматова, а черпание вдохновения из величия вечных гор созвучно творчеству Р. Гамзатова.

Ключевые слова: *мировая литература, литературное влияние, вдохновение, национальное своеобразие, легенда, миф, предание.*

Annotation: the article analyzes the influence of world literature figures on the creative works of Azim Suyun. It concludes that the use of myths and legends from oral folk literature to ensure intertextuality is an influence of Ch. Aitmatov, while drawing inspiration from the eternal majesty of mountains is a result of spiritual nourishment from the works of R. Gamzatov.

Key words: *world literature, literary influence, inspiration, nationality, legend, myth, narration.*

Azim Suyun ijodi va jahon adabiyoti munosabatini o‘rganish, avvalo, shoir yashagan ijtimoiy davrni inobatga olishdan boshlanadi. Negaki shoir Sovet mafkurasi hukmronligi davrida kamol topgan. Bu davrda barcha sohalar kabi adabiyot ham mafkuraga ximat qilishi zarur edi. Shu bois Azim Suyun ijodiga bo‘lgan jahon adabiyotining munosabatida muayyan darajadagi senzuraning ta’siri bo‘lgan. Shuningdek, rus tili va unga yaqin qardosh elatlar adabiyotining o‘rni baland edi. Faqat umuminsoniy qadriyatlar madh etilgan, ijtimoiy-siyosiy motivdan yiroq asarlargina rus tili orqali davr kitobxonlariga yetkazilgan.

Azim Suyun folklorizm lirikasining oziq o‘zagi sanab, nafaqat milliy xalq dostonlarimizdan, balki “*Kavkaz xalq qo‘shiqlari*”dan ham ijodiy bahra olgan. Buni xalqona ohang ustuvorlik qiluvchi dostonlarida sezish mumkin.

Uning bag‘ishlov tarzidagi yoki to‘g‘ridan to‘g‘ri ilhomlanish ruhidagi ayrim she’rlari shotland shoiri, folklorshunos Robert Byorns, Tehronda qatl etilgan rus shoiri A.S.Griboyedov, ertaknavis shoir A.S.Pushkin va abadiy g‘oliblik ramzi tog‘lar kuychisi Rasul Hamzatov kabi ijodkorlar lirikasining asosiy motivini belgilovchi shoh asarlaridan bahramandlik, ta’sirlanish ruhida yozilgan.

Folklor namunalaridan chuqur ilhomlangan Azim Suyun o‘z ijodiy yo‘nalishiga yaqin uslubdagi shotland shoiri, folklorshunos Robert Byorns lirikasidan ta’sirlanib, uning “*Robert Byornsdan*” nomli she’rini o‘zbek tiliga nazmiy tarjima qilgan:

– *Ilg‘amasin bir begona ko‘z,*
Qaytarmagin mening ra’yimni,
Ey suluv qiz, sohibjamol qiz,
Derazangdan tushsam maylimi?

– *Niyating sof ko‘rinar, yigit,*
Lekin bir gap ayturman, qani –
Umrlik yor bo‘lmoqqa ont ich,
So‘ng … kiraver eshik orqali! (2.228)

Oshiq yigit va sohibjamol qiz dialogi asosiga qurilgan mo‘jazgina she’r kitobxonga mardlik, sof samimiylik tarovatini yorqin fonda tasvir etgan. Milliylik jihatidan she’rning g‘oyaviyligi o‘zbekona tarbiyaga yopishmasligi mumkin, ammo jahon she’riyati etikasiga nisbatan olib qaralsa, eng go‘zal lirik manzara hisoblanadi. Negaki asarning mavzusi – hech qachon eskirmaydigan “Muhabbat” mavzusida, undagi “*Niyating sof ko‘rinar, yigit*”, “*Umrlik yor bo‘lmoqqa ont ich*” kabi misralar chinakam oshiqni sergaklantirib, mardlik va sadoqatga undashi bilan ahamiyatli hisoblanadi.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, Nurota tog‘lari kuychisi bo‘lgan Azim Suyun ijodida Dog‘iston tog‘lariga mahliyo bo‘lgan, ularni rosmana lirik portret darajasiga ko‘targan

Rasul Hamzatov lirikasidan ta’sirlanish darajasi yaqqol sezilib turadi. Shunigdek, Azim Suyun Rasul Hamzatov kabi ona, Vatan, olovli sevgi, mardlik, jasorat, haqgo‘ylik kabi mangu insoniy qadriyatlarni baralla kuylagan. Bu shoir ijodining jahon adabiyotidan ta’sirlanish darajasini, badiiy genetika nuqtayi nazardan, aniq daliliy misollar bilan oydinlashtirish imkonini beradi.

Beshbarmoqota va Parrandozota kabi Nurota tog‘ tizmalarining yirik cho‘qqilariga yoshligidan mehr qo‘ygan Azim Suyun xuddi Rasul Hamzatovning “*Tog‘ qo‘shig‘i*”, “*Mening qalbim tog‘larda*”, “*Tog‘likning vatani*”, “*Tog‘ qizi*” kabi asarlaridagi g‘oyaviy motivga, tasvir ruhiga, xalqona ohangiga mos tarzda o‘zining “*Tog‘ qo‘shig‘i*” she’rini yozgan:

Tog‘ bo‘lmoqlik, aslida,
ko‘kka yaqin turmoq ekan,
Lekin bo‘ron, do‘llarga
ilk ko‘krak kermoq ekan.
Sahro, vodiy, dashtlarga
ot yasatib – mindirib,
o‘zing poy-u piyoda
ojiz xayol surmoq ekan. (2.167)

Asarda Azim Suyun Rasul Hamzatovdan farqli ravishda *tog‘* timsoliga ko‘chma ma’noda munosabatda bo‘ladi. Azim Suyun nazdida *orqa tog‘, suyanch* ma’nosini tashuvchi obraz sifatida tog‘lar timsoli gavdalanadi, shuning uchun shoir chinakam “*bo‘ron, do‘llarga ilk ko‘krak kerguvchi*” elparvar siymolarning fidoyi faoliyatini “*tog‘ bo‘lmoqlik,*”, – deya lirik baholaydi.

Mag‘rurlik va g‘oliblik ramzi bo‘lgan tog‘larga Azim Suyun badiiy timsol sifatida Rasul Hamzatovdek qayta-qayta murojaat etgan, natijada “Tog‘ o‘rmoni”, “Tog‘ bo‘roni” kabi she’rlarida, “Tog‘ odami”, “Tog‘lar orasida” kabi hikoyalarida chinakam tog‘liklarga xos toza vijdon, tanti tabiat, haqiqatgo‘ylik va mardlikni tarannum etgan. Shuning uchun *“Tog‘larida ot o‘ynatib, Bog‘larida she’r yozaman”,* – degan misralar shoir ijodining bosh leytmotivini belgilab beradi. (2.379) Bundagi tog‘ obrazi shoirning ona yurtiga bo‘lgan mehrining timsoli sanaladi.

Azim Suyun lirikasidagi janriy, uslubiy-shakliy o‘ziga xoslikning vujudga kelishida, xususan, nasriy sochmalar, erkin vaznli she’rlar va balladalarning shakllanishida jahon adabiyoti durdonalari muayyan poetik funksiyani bajarganligi ko‘zga tashlanadi.

Iste’dodli ijodkor o‘z davrining ijtimoiy-siyosiy hodisalariga faol munosabatda bo‘ladi, odatda. Shu kabi Azim Suyun ham nafaqat jahon adabiyoti, balki jahon sahnida bo‘layotgan hodisotlarga ham bee’tibor bo‘lmagan.

Bugungi kunda jahon miqyosida, omma va siyosiy rahbarlar oldida, turli yig‘ilishlarda iqlim inqirozi muammosini zudlik bilan hal qilishni talab qilib chiqish qilgan shvetsiyalik ekofaol Greta Tunberk kabi 1980-yillarda sobiq SSSRning rahbari Yuriy Androupovga “Sovuq urush”ni to‘xtatish haqida maktub yo‘llab, xalqaro miqyosda jamoatchilik e’tibori va e’tirofini qozongan Samanta Smit ismli yosh qizning jasorati va hoytiy fojiasini madh etib “Samanta Smit” nomli she’r yozgan. Unda haqiqiy shoir faqat bir xalqning emas, butun bashariyatning dardi va qayg‘usiga sherik bo‘lishi, uni kuylashi kerakligini ifoda etgan.

Xulosa qilib aytganda, Azim Suyun ijodida jahon adabiyotining ta’siri bevosita taqlid emas, balki ijodiy o‘zlashtirish tarzida namoyon bo‘ladi. Shoir folklor, mif va rivoyatlardan foydalangan holda milliy ruhni saqlab qolgan holda umuminsoniy g‘oyalarni badiiy ifodalay olgan. Robert Byorns va Rasul Hamzatov lirikasidan ilhomlanish Azim Suyun poetik tafakkurining shakllanishida muhim o‘rin tutadi. Bu holat shoir ijodining badiiy genetikasini jahon adabiy jarayoni bilan uzviy bog‘liqligini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Суюн А. Ўзлик. – Тошкент: Шарқ, 1999. 443 б.
2. Суюн А. Сайланма. – Тошкент: Шарқ , 2018. 448 б.
3. Суюн А. Эй дўст ёхуд Азимнома. – Тошкент: Akademnashr, 2018. 448 б.
4. Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2002.558 б.

Sarvara ISLAMOVA,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent
davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining
Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi ixtisosligi 1-bosqich tayanch doktoranti
sarvarae05@gmail.com

IXTISOSLASHTIRILGAN MAKTABLARDA ADABIYOT FANIDAN MULOHAZA TESTLARIGA QO‘YILADIGAN TALABLAR

Annotatsiya: mazkur maqolada ixtisoslashtirilgan maktablarda ta’lim oluvchi iqtidorli o‘quvchilar uchun mo‘ljallangan mulohaza testlariga qo‘yilgan talablar yoritilgan. Misollar yordamida testlarning valid yoki valid emasligi izohlangan. Ilmiy salohiyati yaxshi rivojlangan, IQ darajasi yuqori o‘quvchilar uchun test tuzishda qaysi jihatlarga ahamiyat qaratish lozimligi keltirilgan. Shuningdek, Blum taksonomiyasida aks etgan yuqori kognitiv ko‘nikmalarni nazorat qiluvchi test topshiriqlarini tuzish uchun tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: *test, mulohaza, IQ, ixtisoslashtirilgan maktablar, Blum taksonomiyasi, validlik, ishonchlilik.*

Annotation: this article outlines the requirements for reasoning tests designed for talented students in specialized schools. Illustrative examples are used to explain the validity and invalidity of such tests. The study identifies key aspects to consider when developing assessment tools for students with well-developed scientific potential and high IQ levels. Furthermore, the article provides specific recommendations for constructing test items aimed at evaluating higher-order cognitive skills as reflected in Bllom’s Taxonomy.

Key words: *test, reasoning, IQ, specialized schools, Bloom’s Taxonomy, validity, reliability.*

Аннотация: в данной статье изложены требования к тестам на логическое мышление (рассуждение), предназначенным для одаренных учащихся специализированных школ. На конкретных примерах поясняется валидность и невалидность подобных тестов. Определены ключевые аспекты, которые необходимо учитывать при разработке оценочных инструментов для учащихся с развитым научным потенциалом и высоким уровнем IQ. Кроме того, приводятся конкретные рекомендации по составлению тестовых заданий, направленных на оценку когнитивных навыков высокого порядка согласно таксономии Блума.

Ключевые слова: *тест, рассуждение (логическое мышление), IQ, специализированные школы, таксономия Блума, валидность, надежность.*

Ta’lim jarayoni uch asosiy komponentdan (tarkibiy qismdan) tashkil topadi:

– Ta’lim standartlari, o‘quv dasturlari va rejalari (curriculum);

– O‘qitish metodikasi va o‘quv materiallari (pedagogy);

– Baholash usullari (assessment) [5:8].

Yildan yilga mamlakatimizda ta’lim sohasiga e’tibor kuchaymoqda. Baholash tizimida ham qator yangiliklar amalga oshirilmoqda. Dastlab ixtisoslashtirilgan maktablarda sinov tariqasida olingan ChSB, BSB nazoratlar, joriy etilgan 100 ballik baholash tizimi bugun respublikaning ko‘plab umumta’lim maktablarida ham targ‘ib qilinmoqda.

Hozirda Toshkent shahrida uchta tayanch ixtisoslashtirilgan maktab o‘z faoliyatini olib bormoqda. Bular: Muhammad al-Xorazmiy nomidagi ixtisoslashtirilgan IT maktab, Abu Ali ibn Sino nomidagi yosh biologlar va kimyogarlar ixtisoslashtirilgan maktab-internati, Mirzo Ulug‘bek nomidagi fizika, matematika, astronomiya va informatika fanlariga ixtisoslashtirilgan maktab. Ushbu maktablarga o‘qishga kirish uchun o‘quvchilar maxsus test sinovlarini topshirishadi. Tayanch maktab va filiallarga qabul 7-sinfdan boshlanadi, bunda bir sinfda o‘quvchilarning eng ko‘p soni 24 nafardan oshmasligini hisobga olgan holda, qabul parametrlari Agentlik tomonidan belgilanadi [10]. Yuqori natijani qo‘lga kiritgan bolalar shu maktab o‘quvchisi bo‘la olishadi. Maktabga qabul qilingan o‘quvchilar tengdoshlariga nisbatan keng dunyoqarashi, ilmiy salohiyati, IQ darajasining yuqori ekani bilan alohida ajralib turadi. IQ (intelligence quotient) – **intellektuallik** koeffitsiyenti bo‘lib, odamning turli test uslublari asosida aniqlanadigan aqliy rivojlanish ko‘rsatkichi, bilim saviyasi.

O‘zbekiston IQ o‘rtacha darajasi bo‘yicha 2025-yilgi mamlakatlar reytingida 126 mamlakat ichida 70-o‘rinni egalladi [9]. IQ testlari o‘quvchidan tez fikrlash, chuqur mulohazani talab qiladi. O‘quvchilarga IQ darajasini oshirish uchun kitob mutolaa qilish, yangi til o‘rganish, boshqotirmalar yechish, tanqidiy fikrlash uchun savollar tuzish tavsiya qilinadi.

Mulohaza testlarini ishlash uchun o‘quvchi darslikda keltirilgan asardan parcha bilan tanish bo‘lishi, obrazlarni, syujetni, yopiq ifodalangan ma’lumotlarni tahlil qila olishi, badiiy ijod namunasini tushunishi, ma’lum bir xulosa chiqara olishi kerak. Mulohaza testlarini uchun besh ball ajratilgan. Quyida ixtisoslashtirilgan maktablarning 7-sinf o‘quvchilari uchun mo‘ljallangan mulohaza testlari keltirilgan:

(M – 5). “Xameleon” hikoyasidan keltirilgan quyidagi parchada paltoga oid qarama-qarshi holatlar Ochumelovning ruhiyatidagi qanday o‘zgarishni mantiqiy ifodalaydi?

“Ochumelov: ‘Yeldirin, qani paltomni yechib ol: juda ham kun isib ketdi! ... Yeldirin, birodar, paltoni yelkamga tashla... Shamol turgandek bo‘ldi... Badanim uvushib ketdi...”

A) Bahor havosining beqarorligi, havoning keskin va kutilmaganda o‘zgarib turishini.

B) Qahramonning tez isib, tez sovqotishi uning jismoniy jihatdan sog‘lom emasligi.

C) Mansabdor shaxsda ichki qo‘rquv va ikkilanish natijasida yuzaga kelgan ichki sarosimani.

D) Yangi shinelning noqulay tikilgani va kiyishga og‘irlik qilayotganini.

Testning valid bo‘lishi muhim hisoblanadi. Validlik – testning yaroqliligi haqidagi asoslari. Zamonaviy testologiyada “validlik turlari” tushunchasidan voz kechilib, testning yaroqli ekanligi, kontenti, bajarishdagi kognitiv jarayonlar, ichki tuzilishi, baholash mezonlari va oqibatlariga doir empirik va nazariy asoslar taqdim etilishi tushunila boshlandi [1:105].

Test variantlari hajmi bir-biriga mos bo‘lishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Test variantlaridan bittasining qisqa bo‘lishi yoki aksincha qaysidir biri uzun bo‘lishi mumkin emas. Masalan, D variant boshqalariga qaraganda qisqa. Ham javobdagi og‘irlik so‘zi borligi uchun kontekstga u qadar mos emas.

“Xameleon” hikoyasidan keltirilgan quyidagi parchada yozuvchi nima uchun Xryukinning barmog‘ini aynan “g‘alaba tug‘iga” o‘xshatgan?

“Xryukin . . . barmog‘ini odamlarga ko‘rsatib turardi. Uning shirakayf basharasi go‘yo: “Senimi, qarab tur, . . . ” deb turar va barmog‘i ham g‘alaba tug‘iga o‘xshardi. Ochumelov bu kishini tanidi: u zargar Xryukin edi. O‘rtada oldingi oyoqlarini kerib, vujudi titrab, to‘polonning sababchisi – tumshug‘i uzun ola tozi turardi. Uning yoshlangan ko‘zlari javdirardi”.

A) Xryukin itni jasurlik bilan mag‘lub etib, bozor ahliga maqtanishi uchun.

B) Atrofdagi xaloyiq uni haqiqiy qahramon sifatida e’tirof etgani uchun.

C) Jarohatidan foydalanib, “tovon puli” undirishni katta yutuq deb hisoblagani uchun.

D) Uning barmog‘i boshqa odamlarnikidan ko‘ra ko‘rkamroq bo‘lgani uchun.

A variantda keltirilgan javobda itni mardlarcha mag‘lub etish haqida gap ketgan. Lekin asar bilan tanishgan o‘quvchi bu variant xato ekanini anglaydi. Hikoya bilan tanish bo‘lmasa-da, u it kimnidir tishlab olgan bo‘lsa, uning qahramon emasligini tushunib yetadi. B variantda ham itni jasurlik bilan yengish haqida keltirilgan. C variant to‘g‘ri javob hisoblanadi. Shuningdek, yuqorida keltirilganidek, bu variant boshqa javoblarga nisbatan uzunroq. O‘quvchilarda “Eng uzun javob – eng to‘g‘ri javob” degan fikr paydo bo‘lib qolishi mumkin emas.

Berilgan parcha haqida to‘g‘ri mulohazani aniqlang.

“Soqovlarda, xuddi tabiatdagidek, tanholikning salobati bo‘ladi, shuning uchun bolalar Shubxadan hayiqar va u bilan hech o‘ynamas edilar. U kimsasiz, jazirama peshin chog‘idek unsiz va tanho edi...”

A) Muallif Shubxaning ichki dunyosini tabiatga qiyoslash orqali uning sokin va osoyishta hayot tarzini aks ettiradi.

B) Parchada badiiy o‘xshatish orqali Shubxaning tashqi jimjitligi bilan ichki yolg‘izligi uyg‘unlashtirilib, jamiyatning uni tushunmasligi ochib beriladi.

C) “Jazirama peshin”ga o‘xshatish Shubxaning hayoti tinch va osoyishta, tashvishlardan xoli ekanini ifodalaydi.

D) “Tanholikning salobati” ifodasi orqali muallif Shubxaning kuchli xarakteri va mustaqil yashashga bo‘lgan intilishini ta’kidlaydi.

8-sinf uchun mo‘ljallangan ushbu testning A variantini belgilash uchun o‘quvchi asar bilan tanish bo‘lmasligi kerak. Hikoyani o‘qigan bola Shubxaning hayot tarzi, uning oilaviy muammolari qanday bo‘lganini biladi. Ayniqsa, onasi bilan qizning munosabati haqida o‘qigan bo‘lsa, uning tinch hayot kechirmaganini

anglaydi. C variantda ham osoyishda turmush haqida gap ketmoqda. Shubxaning xarakteri, uning jasoratli emasligini hikoyani o‘qigan o‘quvchi biladi. Shubxa mustaqil bo‘lishga ham intilmasligini sezadi.

(M – 5). Berilgan parcha haqida to‘g‘ri mulohazani aniqlang.

“Ayniqsa, onasi hammadan ko‘proq iztirob chekardi. U qiziga qarab o‘zidan nomus qilardi: qiz degan onaga o‘g‘il boladan ko‘ra hamisha yaqinroq bo‘ladi-da. Qiz bola ona vujudining bir qismi, undagi har qanday nuqson onani nomusga qo‘yadi”.

A) Onaning tabiatan bag‘ritoshligi va farzandlarini sevmaganligi uchun ularga qilgan qo‘pol munosabati ifodalangan.

B) Jamiyatdagi “nuqsonli farzand – onaning xatosi” degan noto‘g‘ri qarash onaning ruhiyatiga bosim o‘tkazishi aks etgan.

C) Shubxaning uy ishlariga yaroqsizligi tufayli onasiga og‘irligi tushganligi uchun undan nomus qilishardi.

D) Onaning o‘z qizini otasidan ko‘proq qizg‘anishi tufayli oilada ichki ziddiyatlar kelib chiqqani aks etgan.

Onasi faqatgina Shubxaga yomon munosabatda ekani ta’kidlangani, qizning soqovligi uning uy yumushlarini bajarishiga to‘sqinlik qilmasligi, ayolning farzandini turmush o‘rtog‘idan qizg‘anmasligi hisobga olinsa, o‘quvchi B variant to‘g‘riligini bilib oladi.

Berilgan she’riy parcha haqida to‘g‘ri mulohazalarni aniqlang.

Hayotdan nolisa birov, suymayman,
Ayniqsa, sog‘ bo‘lsa qo‘li, oyog‘i.
Hayot siylar bizni quvonch, baxt bilan,
Ne ajab, bo‘lsa goh alami, dog‘i.

1. Muallif sog‘lom bo‘la turib hayotdan noliydigan insonlarni qoralaydi. Insonning jismoniy salomatligi – uning eng katta boyligi va kurashishi uchun asosiy vositasidir.

2. Lirik qahramon hayotni boricha qabul qilmaydi, barcha belgilangan qoliplarni buzib, ko‘ngli istagan ishlarni bajarishni xohlaydi.

3. Shoir hayotni faqat “oq rang”lardan iborat deb hisoblamaydi; quvonch va baxt qanchalik tabiiy bo‘lsa, alam va dard ham hayotning ajralmas qismi ekanini ta’kidlaydi.

4. Inson faqat jismoniy mehnat bilan shug‘ullanishi kerakligi, hayotdagi barcha baxtsizliklar jismoniy nuqsonlar bilan bog‘liqligi ifodalangan.

5. She’rda shukronalik va hayotni boricha qabul qilish falsafasi yotadi.

A) 1, 2, 4
B) 1, 3, 5
C) 2, 4, 5
D) 3, 4, 5

Ushbu savolda 4-javob, ya’ni “Inson faqat jismoniy mehnat bilan shug‘ullanishi kerakligi, hayotdagi barcha baxtsizliklar jismoniy nuqsonlar bilan bog‘liqligi ifodalangan” degan qarash xato ekanini o‘quvchi anglaydi va bu variantni olib tashladi. Shunda faqatgina B variant qoladi. Chunki she’rda bu haqida gap ketmagan. Shuningdek, inson jismoniy imkoniyati cheklangan bo‘la turib ham u hayotdan zavqlanishi, quvonish uchun sabablar topa olishi mumkin.

(M – 5). Berilgan parcha haqidagi to‘g‘ri mulohazani aniqlang.

“Qishloqdagi oddiy, kamtarona hovli. To‘g‘rida bir necha ustunli peshayvon, o‘ngda pastakkina ko‘cha eshik, oldinroqda yog‘och karavot. Sahnadagi har jihoz, har bir buyumda nimadir yetishmaydi: eshik deraza romlarining yarmi bo‘yalgan, qolganining rangi o‘chib ketgan, yog‘och karavotning bitta oyog‘i yo‘q, ko‘rpa-yostiqlarga yamoq tushgan, piyolalarning labi uchgan yoki chegalangan, choynakning jo‘mragiga tunuka kiygizilgan va hokazo”.

A) Daromadi yetarli bo‘lsa-da, bor pulini ichkilikka sarflaydigan, ko‘p sayohatda yuradigan kishilarning fojiali hayoti tasvirlangan.

B) Shaharga ko‘chib ketgan odamlarning qishloqdagi uylari qarovsizlikdan xaroba holiga kelib qolishi mumkinligi aks etgan.

C) Qahramonning g‘arib turmush tarziga ko‘nikkan va boshqacha yashashni xayoliga ham keltirmaydigan odam ekani namoyish etilgan.

D) Insonning moddiy boyligi emas, balki ma’naviy boyligi har narsadan ustunligi g‘oyasini ifodalash uchun ushbu tasvir keltirilgan.

Bu testni yechish o‘quvchidan mulohazani emas, balki bilishni, eslashni talab qiladi. “Temir xotin” asari bilan tanish bo‘lmagan o‘quvchi javob topishga ikkilanishi mumkin. Chunki har bir javob to‘g‘riga o‘xshaydi.

Mulohaza testlarini tuzishda Blum taksonomiyasining yuqori kognitiv darajasini hisobga olish kerak. Yuqori darajadagi ko‘nikmalar: tahlil, baho berish, yaratish (sintez qilish) [6:205]. Bunda xotirani, bilishni sinaydigan testlarni emas, o‘quvchini tanqidiy fikrlashga, o‘ylashga, tahlil qilishga undaydigan savollardan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Agar mulohaza savollarining o‘rnida bolalarga valid bo‘lmagan yoki

uning faqatgina xotirasini tekshirish uchun xizmat qiladigan savollardan foydalanilsa, xalqaro ekspertlar tomonidan tashkil etiladigan imtihonlarda natijalar yomon chiqishda davom etadi.

PISAda o‘qish savodxonligiga ham alohida e’tibor qaratiladi. O‘qish savodxonligida o‘quvchining matn shaklida berilgan ma’lumotlarni o‘qib tushuna olish darajasi va ularga munosabat bildirish ko‘nikmasi, jamiyat hayotida faol qatnashish jarayonida o‘qigan ma’lumotlaridan o‘z maqsadlari yo‘lida qanchalik oqilona foydalana bilishi, shu asosda bilim, ko‘nikma, malaka va imkoniyatlarni amalga oshirish layoqati baholanadi [3:308].

PISA sinovlarida o‘quvchilarni tanqidiy fikrlash, muammolarni hal etish, hamkorlikda ishlashga yo‘naltirilgan yo‘nalish ham mavjud. PISA xalqaro tadqiqotlari natijalarini o‘rganish borasida, mutaxassislarning ta’kidlashicha, 35 davlat ishtirok etgan oxirgi 2022-yilgi sinovlarda oxirgi o‘ntalikda – 30-o‘rinda turibmiz [2]. Ushbu sinov har uch yilda bir marotaba o‘tkaziladi. Natijalar yaxshilanishi uchun, birinchi navbatda, o‘quvchining ilmiy salohiyati, dunyoqarashi, tanqidiy, analitik fikrlashini tekshiradigan savol turlaridan darslarda foydalanish kerak. Ikkinchidan, test savollari variantlarini tuzishda ularning hajmiga e’tibor berish lozim. Uchinchidan, bolaning xotirasini, ma’lumotlarni yodlagan-yodlamaganini tekshiradigan savollardan emas, uning fikrlari, muammoni yecha olish-olmasligini sinaydigan savollardan foydalanish va u savollarning javobini osonlikcha internet yoki Chatgptdan yozib topsa bo‘ladigan savollarni qo‘llash kerak emas. Shuningdek, yopiq savollardan ko‘ra ochiq testdan foydalanish tavsiya etiladi. Bunda savol shunday tuzilishi kerakki, har bir o‘quvchi turlicha javob qaytarishi lozim. Masalan, adabiyotshunoslar asarda ikki muhim ramzni ajratib ko‘rsatadilar:

– askar vafotidan keyin boshqasiga qoldirilgan oyoq kiyimi;

– Paul urushdan oldin yig‘gan kapalaklar.

Sizningcha, bu ramzlar nimani anglatadi? Ularning asar g‘oyasini tushunishdagi ahamiyati nimada [8:299] ?

Bu savolga har bir o‘quvchi o‘z fikrlashiga tayangan holda javob beradi. Shuningdek, 7-sinf adabiyot darsligida keltirilgan “Chol va dengiz” qissasi yuzasidan mulohazani tekshirish uchun quyidagi savolni berish mumkin: Muallif asarga bola (Manolin) obrazini olib kirishdan qanday maqsadni ko‘zlagan deb o‘ylaysiz? Nega chol har gal mashaqqat ustida uni eslaydi [7:60]? Ushbu savolga hamma har xil javob beradi. Masalan, kimdir cholning qizi bilan munosabati yaxshi emasligiga, kimdir Santyagoning kattalar bilan chiqisha olmasligiga, kimdir Manolingina qariyaga ishonganiga, kimdir shogirdiga ustozi mehr qo‘yganiga urg‘u berishi mumkin.

Baholash jarayonini samarali tashkil qilish ta’lim sifatini ta’minlashda eng muhim omillardan biri hisoblanadi [6:274]. Baholash oddiy jarayon emas, u mas’uliyatli jarayondir. Chunki olingan bahoga qarab natija ko‘rinadi: o‘quvchi mavzuni o‘zlashtirdimi, qaysi savolni topishga qiynaldi, bolaga darsni tushuntirishda qaysi metodlardan foydalanish samaraliroq bo‘lishi mumkin? Yangi mavzuni o‘tish, darsda zamonaviy metodlarni qo‘llash xuddi dalaga ko‘chat ekib, uni parvarishlab borishga o‘xshaydi. Baholash esa hosil yig‘ishga qiyoslanadi. Olingan hosil yaxshi yoki yomonligiga qarab dehqon xulosa chiqaradi. Agar hosil kutilganidek bo‘lmasa, keyingi safar avvalgi qilgan xatolarini takrorlamaslikka harakat qiladi.

Baholash qanchalik shaffof, to‘g‘ri, ishonchli yo‘lga qo‘yilgan bo‘lsa, testlar valid bo‘lsa, xalqaro sinovlarda ham mamlakatimiz yuqori o‘rinlarni egallaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdiraimov Sh. Baholash nazariyasi asoslari. – T.: Zebo Prints. 220-b.
2. Abdiraimov Sh. Ta’lim natijalariga ta’sir etuvchi omillar (PISA 2022 tadqiqoti asosida) / Ma’rifat gazetasi 2024-yil 24-apreldagi 17-son.
3.Husanboyeva Q. Adabiy ta’lim metodikasi. – T.: Innovatsiya – Ziyo, 2024. 320-b.
4.Husanboyeva Q. Adabiyot o‘qitish metodikasi. – T.: Metodist nashriyoti, 2023. 390-b.
5.Jalilov K. Baholash nazariyasi asoslari. – T.: Akademnashr, 2020. 252-b.
6. Mirzayeva Z., Jalilov K. O‘zbek adabiyotini o‘qitish metodikasi. – T.: Academ Space, 2024. 295-b.
7. Mirzayeva Z, Jalilov K. Adabiyot: 7-sinf uchun darslik. – T., 2022. 224.
8. Mirzayeva Z, Jalilov K. Adabiyot: 10-sinf uchun darslik. – T.: Respublika ta’lim markazi, 2022. 312.
9. https://daryo.uz/2025/09/24/ozbekiston-iq-ortacha-darajasi-boyicha-dunyoda-70-orinni-egalladi/
10. https://lex.uz/en/docs/-7746801?ONDATE=29.09.2025%2000

Malohat BOBOZARIPOVA,
Navoiy davlat universiteti tayanch doktoranti
E-mail: malohatbobozaripova9@gmail.com

FE'L-ATVOR LEKSEMALARINING SEMANTIK MUNOSABATLARI VA ULARNI TEZAURUSDA AKS ETTIRISH

Annotatsiya: mazkur maqolada o'zbek tilidagi fe'l-atvor leksemalarining semantik xususiyatlari, ularning mazmuniy tasnifi hamda tezaurus lug'atini yaratishning nazariy asoslari yoritiladi. Fe'l-atvor leksemalari ijobiy, salbiy va neytral guruhlarga ajratilib, maydon nazariyasi asosida tizimli tahlil qilinadi. Shuningdek, leksemalar o'rtasidagi semantik munosabatlar ochib berilib, tezaurus modelini yaratishning amaliy jihatlari ko'rsatib o'tiladi.

Kalit so'zlar: *fe'l-atvor leksemalari, tezaurus lug'at, semantik maydon, sinonimiya, antonimiya, gipo-giperonimiya, korpus lingvistikasi.*

Annotation: this article examines the semantic features of behavioral lexemes in the Uzbek language, their classification, and the theoretical foundations of creating a thesaurus dictionary. Behavioral lexemes are categorized into positive, negative, and neutral groups and analyzed based on field theory. The study also reveals semantic relations between lexemes and highlights practical aspects of developing a thesaurus model.

Key words: *behavioral lexemes, thesaurus dictionary, semantic field, synonymy, antonymy, hyponymy, hypernymy, corpus linguistics.*

Аннотация: в данной статье рассматриваются семантические особенности лексем, выражающих поведение в узбекском языке, их классификация, а также теоретические основы создания тезаурусного словаря. Лексемы поведения делятся на положительные, отрицательные и нейтральные группы и анализируются на основе теории семантических полей. Также выявляются семантические отношения между лексемами и освещаются практические аспекты разработки тезаурусной модели.

Ключевые слова: *лексемы поведения, тезаурусный словарь, семантическое поле, синонимия, антонимия, гипонимия, гиперонимия, корпусная лингвистика.*

Kirish. (mavzuning dolzarbligi, maqsad va vazifalar). Zamonaviy tilshunoslikda leksik-semantik tizimni chuqur va tizimli o'rganish, ayniqsa, inson omiliga bog'liq til birliklarini tadqiq etish dolzarb yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Shunday birliklar qatoriga fe'l-atvor leksemalari kirib, ular orqali insonning ichki dunyosi, xarakteri, ruhiyati hamda ijtimoiy muhitga bo'lgan munosabati ifodalanadi. Mazkur leksemalar nafaqat tilning boyligini namoyon etadi, balki milliy tafakkur, madaniyat va qadriyatlarning aks etishida ham muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Bugungi kunda lingvistika fanida tezaurus lug'atlarini yaratish va ularning nazariy asoslarini ishlab chiqish alohida ahamiyat kasb etmoqda. Tezaurus yondashuvi til birliklarini oddiy izohlash bilan cheklanib qolmay, balki ular o'rtasidagi semantik, assotsiativ va paradigmatik munosabatlarni ham ochib berishga xizmat qiladi. Ayniqsa, fe'l-atvor leksemalarini tezaurus asosida tizimlashtirish ularning ichki tuzilishini, ma'noviy qatlamlarini va o'zaro bog'liqligini yanada chuqurroq tahlil qilish imkonini beradi.

Asosiy qism. Fe'l-atvor leksemalari, odatda, inson ruhiyati, xarakteri bilan bog'liq bclgilarni bildirib keladi. O'zbek tilining izohli lug'atida fe'l-atvor leksemasiga shaxsning atrof muhitga va o'z-o'ziga munosabatida namoyon bo'ladigan, o'zigagina xos xususiyati; xarakteri deya ta'rif berilgan. *Odamning fe'l-atvori uning qiymatidir.* (Gazetadan). *Bolaning xatti-harakati va fe'l-atvori ma'lum darajada ota-onasining kimligidan dalolat beradi.* (R. Usmonov, Umr sabogi)[1].

Fe'l-atvor leksemalari tarkibiga *abjir, ayyor, badfe'l, badjahl, bexulq, badnafs, badrashk, balandparvoz, battol, vazmin, vaysaqi, vatanparvar, vafodor, daydi, dangasa, yebto'ymas, ochofat, parishonxotir, yovvoyi, zabardast, zakiy, kamgap* kabi so'zlarni kiritishimiz mumkin.

Fe'l-atvor leksemalari ham xuddi xarakter-xususiyat leksemalari kabi gapda tahlilga tortilganda sifat so'z turkumi bo'lib keladi. Masalan, *mehribon ona, vijdonli yigil, oliyjanob kishi*, *badfe'1 ayol, tentak bola* kabi.

Fe'l-atvor leksemalaridan bir guruhi inson va hayvonlarning fe'l-atvorini ifodalashda umumiy qo'llanadi, bir guruhi esa faqat inson fe'l-atvorini yoki faqat hayvonga xos fel-atvorini ifodalashga xoslangan bo'ladi.

Bunday leksemalarni ifodalanishiga, ya'ni emotsionalligiga ko'ra uch guruhga ajratib o'rganish mumkin:

a) Ijobiy ma'noni ifodalovchi fe'l-atvor leksemalari: *muloyim, odobli, chabdast, chaqqon, abjir, mo'min, mohir, pok, sipo, mehribon*;

b) Salbiy ma'no ifodalovchi fe'l-atvor leksemalari, ko'pincha ijobiy fe'l-atvorni bildiruvchi leksemalarga antonim sifatida qo'llanadi, ya'ni bu sifatlar kishining yoqimsiz, yaramas xususiyatlarini ifoda etadi: *zolim, nokas, toshbag'ir, shavqatsiz, quv, ayyor, muttaham, rasvo, ablah, dog'li, uquvsiz, o'jar* va boshqalar.

v) Kishi xarakter-xususiyatiga oid yana shunday leksemalar borki, ularning ma'nosidan ijobiylik yoki salbiylik yaqqol bo'rtib turmaydi. Nutq momentiga qarab, ular har ikkala chegaraga ham o'tishi mumkun. Masalan, *o'jar, rashkchi, sipo, olg'ir, dindor* kabi.

Bundan tashqari biz kishilarning fe'l-atvorini ifodalashda xarakter-xususiyat bildiruvchi sifatlar bilan birga boshqa turli xil iboralar, ko'chma ma'noda qo'llanilgan so'z shakllari orqali ham kishilarga xos turli xil fe'l-atvorlarni ko'rsatishimiz mumkin bo'ladi, masalan: *Bir qaradi, ko'zi yomon o'tkir ekan, jonim chiqib ketayozdi.* (O'zbek xalq dostoni") *U zarbast, ziyrak, harakatlari dadil, so'zlari o'tkir, o'rtoqlari orasida onaboshi qiz*. (Oybek)[2].

Kishiga xos salbiy fe'l-atvorni bildiruvchi leksemalar ko'pincha, ijobiy fe'l-atvorni bildiruvchi leksemalarga antonim sifatida qo'llanadi, ya'ni bu leksemalar kishilarning yoqimsiz, yaramas xususiyatlarini ifoda etadi: *zolim, nokas, toshbag'ir, shafqatsiz, quv, ayyor, muttaham, rasvo, ablah, dog'uli, uquvsiz, o'jar* va b. Bulardan ayrimlarini matndagi imkoniyatlarini kuzatamiz. Masalan, ***Zolim*** fel-atvor leksemasi "*zulm qiluvchi, zulumkor, jabr qiluvchi*" kabi ma'no ifodasiga ega. Ammo bu leksema ba'zan, "*jabr-zulm bilan to'lib-toshgan*" ma'nosida *zolim falak, zolim dunyo tarzida* ham qo'llanadi. *U (Yo'lchi) o'z singlisini Gulnordan ayirib, uni zolim tanholik quchog'iga otishni istamaganidan yana bir necha vaqt Unsinni bu yerda qoldirishga moyil edi. (Oybek)[1].*

Rasvo salbiy ma'no ifodali fe'l-atvor leksemasi quyidagi ma'no ifodalariga ega bo'lishi mumkin.

1. Nojo'ya xatti-harakati, yurish-turishi bilan el nazaridan qolgan. *Yaramas, razil, tavba-dedi u o'ziga-o'zi, yarim soat ichida ikki rasvo odam bilan uchrashsam-a. Hayotda hech mahal bunchalik yaramas tasodifga yo'liqmagan edim.* (Mirmuhsin)

2. Judaham yomon, tuban ma'nosida. Masalan, *rasvo gap. Juda ham yomon, yaramas, nokas. Jaydari g'o'zaday mijg'ov, rasvo ekinni dehqon bolasi bilmasa kerak.* (GTG'ulom)

3. Izdan chiqib ketgan, yomon ahvolga lushib qolgan ma'nosi ham ishlatiladi. *Ishni rasvo qildi-ku, padarla'nat toshbaqa*. ("Yoshlik")

Rasvo so'zi jonli so'zlashuvda turar joy, kiyim-kechakka nisbatan ham qo'llanishi kuzatiladi. Masalan, *rasvo joy, rasvo kiyim* va b. Buda leksema fe'l-atvorni emas, holat ma'nosini ifodalab keladi. Yoki, ***qabih*** leksemasi "odob-axloq, insoniylik qoidalari talabiga zid, jirkanch, razil, yaramas" kabi ma'nolarni ifodalash uchun qo'llanadi. *G'ulomjon bu qabih nayrangbozlikdan qattiq g'azabga kelsa-da, o'zini og'ir tutib, og'ir so'zlashga harakat qildi* (M. Ismoilov).

Munofiq leksemasi ham shaxs fe'l-atvorini ifodalashda keng qo'llaniladi. U asosan ikkiyuzlamachi kishilarga nisbatan ishlatiladi, ya'ni tili boshqa, dili boshqa, so'zi va ishi bir-biriga to'g'ri kelmaydigan, samimiylikdan yiroq holatini ifodalash uchun ishlatiladi. Bu so'zning yuqoriroq darajasini ifoda etishda *olchoq* sifati qo'llanadi. *Olchoq* so'zi "o'ta ketgan razil, past, yovuz, nomard, xoin" ma'nosini ifodalaydi. *Men shaytondan ming martaba dahshatli bo'lgan olchoqlarni ko'rib, chidab turganman.* (A. Oripov). Bu leksema ko'pincha kitobiy uslubda keng qo'llaniladi.

Qo'rs leksemasi qo'pol, dag'al, to'ng kishilarga xos xarakter-xususiyatni ifodalashda ishlatiladi. Shuningdek, bu leksemada his-tuyg'udan yiroq ma'no ifodasi ham mavjud. *Har bir zamonlarda ham qo'rs odamlar bo'lgan.* (M. Ismoiliy).

Fe'l-atvor leksemalarini bir joyga yig'ish, ularni alohida tushuncha maydoni sifatida tadqiq etish, tezaurus lug'at tuzishda juda muhim sanaladi. Fe'l-atvor leksemalarining faolligi, turli xususiyatga egaligi, qolaversa, ularda ma'noviy bo'linishning ustunligini hisobga olib, fe'l-atvor leksemalarining tezaurus lug'atini ishlab chiqish muhim vazifalardan sanaladi.

Tezaurus lug'at eskizini ishlab chiqishda asosan maydon nazariyasiga asoslaniladi. Shuningdek, sistemaviylikdan samarali foydalaniladi. Maydon nazariyasi esa deduksiyaga asoslanadi. Misol uchun *sabrli* leksemasini tahlilga tortib ko'ramiz: bosh(yetakchi) leksema: *sabrli*; mikromaydon: *ruhiy faoliyat*; makromaydon: *inson*; ma'nodosh so'z: *chidamli, irodali*; zid ma'noli so'z: *sabrsiz, chidamsiz*; sintaktik aloqa: *sabrli ona, sabrli kishi, sabrli ayol* va hokazo; assotsiatsiyalar: *tana, vujud, miya, ko'ngil, yurak* va hokazo. Bunda *sabrli* leksemasining insonga nisbatan qo'llanishi ko'zda tutilgan. Agar mazkur leksema hayvon yoki narsa-buyimga nisbatan olinsa, u holda mikromaydon, makromaydon tushinchalari almashadi. Tabiiyki, bunda assotsiatsiyalar ham mutlaq o'zgarib ketadi. Demak, sabrli leksemasida "*qiyinchilikka chidash", "ruhiy tomondan kuchli, asablari mustahkam*" semalari bor. Chidamli leksemasi esa bardoshli leksemasiga sinonim bo'lsada, unda "*qiyinchilikka chidash*" semasi mavjud bo'lsa-da, "*ruhiy tomondan kuchli, asablari mustahkam*" semasi yo'q. Shu bois hayvonlar, narsa-buyumlarga nisbatan chidamli leksemasini qo'llasak ham sabrli leksemasini qo'llab bo'lmaydi.

Fe'l-atvor leksemalarini dastlab quyidagi uchta katta maydonlarga ajratib tahlil qilamiz:

1) Ijobiy ma'noni ifodalovchi fe'l-atvor leksemalari;
2) Salbiy ma'noni ifodalovchi fe'1 atvor leksemalari;
3) Ijobiyga ham salbiyga ham o'tmaydigan, nutq ichidagina farqlash mumkin bo'lgan fe'l- atvor leksemalari kabi.

Ularni ham yana o'z ichida kichik maydonlarga ajratib quyiga tomon tushirib boramiz.

Tezaurus lug'atda "fe'l-atvor" tushunchasi tahlil va tasnifga olinar ekan, birinchi galda "inson" makromaydoni bilan bog'liq leksemalarni keltirish maqsadga muvofiq. Sababi, boshqa tasniflardan farqli o'laroq maqolada qulay va oson variantlarni qidirib topishga harakat qildik. Masalan, "Inson" makromaydonining "fe'l-atvori" qamroviga kiruvchi "so'zlash tabiati" bilan bog'liq mazmuniy maydonida qo'llanuvchi fe'l-atvor leksemalarni

quyidagicha berish mumkin: *pismiq, mo‘msik, indamas, mingg‘illoq, vaysaqi, shantaj, sharmanda* kabi.

Ta’kidlash joizki, yuqoridagi leksemalarning barchasi “so‘zlash tabiati” semasi ostida bitta mazmuniy maydonga jamlanmoqda, ammo *“pismiq”, “mo‘msik”, “indamas”, “mingg‘illoq”* tushunchalari ovozning pastligi ma’nosi bilan *“shantaj”, “sharmanda”* tushunchalari ovozning balandligi ma’nosi bilan, alohida guruhlarni tashkil qiladi. Birinchi guruh fe’l-atvori ancha bosiqligi bilan, ikkinchi guruh fe’l-atvorining tez ekanligi bilan ham bir-biridan farqlanadi. Bu holat katta mazmuniy maydonlarning o‘z ichida yana ham kichik ma’noviy guruhlarga bo‘linishiga yaqqol dalil bo‘ladi.


Bunday munosabatlar tezaurus lug‘atda o‘z ifodasini topishi kerak. Umuman olganda, lug‘aviy darajalanish, sinonimiya, antonimiya, partonimiya, gipo-giperonimiya kabi hodisalar tilimizning deyarli barcha so‘z turkumlarida mavjud va bunday munosabatlarni tezaurus tipidagi lug‘atda aks ettirish, shubhasiz, o‘z samarasini beradi[3].

Quyida biz fe’l-atvor leksemalarini aks ettiruvchi tezaurus lug‘atimizni lingvistik bazasini va uni ekranda qay tarzda aks etishi mumkinligini kuzatamiz.

Ijobiy ma’noli fe’l-atvor leksemalari tezaurusining eskizini ishlashda biz asosan HTML dasturlash tiliga murojaat qilamiz. Buning uchun biz izlanishlarimizni, asosan, uch bosqichda amalga oshirdik.

Tezaurusni yaratishning birinchi bosqichi tezaurusning tuzilishi, uning turlari va operatsion dasturlari haqida ma’lumot izlash;

Ikkinchi bosqich dasturlash tilini va kelajakdagi tezaurusni yaratish sxemasini tanlash;



Uchinchi bosqich – izlanishlar natijasida yig‘ilgan, to‘plangan ma’lumotlar bilan uni to‘ldirish. Shunday qilib bizning tezaurus lug‘atimiz ekranda quyidagi ko‘rinishda aks etadi. (1-rasm);

1- **Rasm. Fe’l-atvor leksemalarining tezaurus lug‘at.**

Xulosa. Demak, tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, fe’l-atvor leksemalari tilning muhim semantik qatlamini tashkil etib, inson xarakteri va ruhiy holatini ifodalashda keng imkoniyatlarga ega. Ularning ijobiy, salbiy va neytral guruhlarga ajratilishi hamda mazmuniy maydonlar asosida tahlil qilinishi ushbu birliklarning ichki tizimliligini ochib berishga xizmat qiladi.

Shuningdek, tezaurus yondashuvi orqali leksemalar o‘rtasidagi sinonimik, antonimik, gipo-giperonimik va boshqa munosabatlarni aniqlash, ularni yagona tizimga solish mumkinligi asoslab berildi. Maydon nazariyasiga tayangan holda ishlab chiqilgan tezaurus modeli fe’l-atvor leksemalarining ko‘p qirrali semantik tuzilishini yanada chuqurroq anglash imkonini beradi. Bundan tashqari, tezaurus lug‘atini yaratishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan, xususan, dasturlash vositalaridan foydalanish uning amaliy ahamiyatini oshiradi. Bunday lug‘atlar nafaqat lingvistik tadqiqotlar uchun, balki ta’lim, tarjima, sun’iy intellekt va korpus lingvistikasi sohalarida ham muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Umuman olganda, fe’l-atvor leksemalari tezaurusini yaratish o‘zbek tilining leksik-semantik tizimini boyitishga, til birliklari o‘rtasidagi munosabatlarni yanada aniqroq ifodalashga hamda milliy til taraqqiyotiga sezilarli hissa qo‘shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. –Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2006.1 – 680-betlar.
2. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2002,154-bet.
3. Юсупов С.Н. Тезаурус и законодателство (К созданию обшеправового тезауруса) // Государство и право.1978.№5.С.1 15.
4. Осокина С. А. Основания лингвистической теории тезауруса. — Барнаул, 2015.
5. Лукашевич Н.В. Тезаурусь! в задачах информационного поиска. – Москва, 2010.

Madina DEHQONBOYEVA,
Andijon davlat chet tillari instituti doktoranti
E-mail: madinadehqonboyeva01@gmail.com

MARKETING KOMMUNIKATSIYASIDA RANGLARNING NOVERBAL TALQINI: SEMIOTIK VA PSIXOLOGIK ASPEKTLAR

Annotatsiya: mazkur maqolada marketing kommunikatsiyasida ranglarning noverbal vosita sifatidagi talqini semiotika va psixologiya kesishmasida tahlil qilinadi. Ranglarning iste'molchi idrokiga ta'sir qilish mexanizmlari bilan birgalikda ularning madaniy kodlar va hissiy assotsiatsiyalar bilan bog'liqligi ochib beriladi.Shuningdek, ranglarning brend xabarlarini uzatishdagi asosiy funksiyalari – diqqatni jalb qilish, ishonchlilikni shakllantirish va xotira izlarini faollashtirish – semiotik tahlil asosida ko'rib chiqiladi.Bundan tashqari, ranglarni marketing strategiyalarida noverbal kod sifatida qo'llashning kontseptual modeli hamda brend kommunikatsiyasini yaratishda ranglarning ahamiyati amaliy misollar yordamida tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: *marketing kommunikatsiyasi, noverbal muloqot, semiotika, rang psixologiyasi, madaniy kod, brend identifikatsiyasi.*

Annotation: this article analyzes the interpretation of colors as a nonverbal tool in marketing communication at the intersection of semiotics and psychology. The mechanisms of color influence on consumer perception are examined together with their connection to cultural codes and emotional associations. Furthermore, the key functions of colors in conveying brand messages – attracting attention, building trust, and activating memory traces – are considered on the basis of semiotic analysis. In addition, a conceptual model of using colors as nonverbal codes in marketing strategies, as well as the importance of colors in creating brand communication, is analyzed with the help of practical examples.

Key words: *marketing communication, nonverbal communication, semiotics, color psychology, cultural code, brand identification.*

Аннотация: в данной статье анализируется интерпретация цветов как невербального средства в маркетинговой коммуникации на стыке семиотики и психологии. Раскрываются механизмы влияния цветов на восприятие потребителя, а также их связь с культурными кодами и эмоциональными ассоциациями. Кроме того, на основе семиотического анализа рассматриваются основные функции цветов в передаче брендовых сообщений – привлечение внимания, формирование доверия и активизация следов памяти. Дополнительно анализируется концептуальная модель использования цветов в качестве невербальных кодов в маркетинговых стратегиях, а также важность цветов в создании брендовой коммуникации на практических примерах.

Ключевые слова: *маркетинговая коммуникация, невербальное общение, семиотика, психология цвета, культурный код, бренд-идентификация.*

Kirish. Bugungi raqobatbardosh bozor muhitida brendlarning iste'molchi bilan muloqoti faqat og'zaki yoki matnli xabarlar bilan chegaralanib qolmaydi. Aynan noverbal komponentlar – ranglar, shakllar, joylashuv va vizual signallar – marketing kommunikatsiyasining muhim qismiga aylangan. Ularning ichida rang eng tez ta'sir etuvchi va hissiy jihatdan eng kuchli vositalardan biri sifatida ajralib turadi[1], desak yanglishmaymiz. Ranglar, so'zsiz holda, iste'molchining diqqatini jalb qilish, brendga bo'lgan ishonchni shakllantirish va qaror qabul qilish jarayonlariga bevosita ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shunga qaramay, ranglarning marketingdagi noverbal talqini masalasi semiotika va psixologiya kesishmasida yetarli darajada o'rganilmagan.

Marketing amaliyotida ranglar ko'pincha intuitiv yoki estetik did asosida tanlanadi, biroq ularning noverbal ma'no uzatish qobiliyati ilmiy jihatdan sistematik tarzda yetarlicha talqin qilinishi lozimligi mazkur kichik tadqiqotimizning asosiy masalasi hisoblanadi. Iste'molchi rangni ko'rgan zahoti unga avtomatik ravishda qandaydir hissiy yoki madaniy ma'no yuklaydi. Masalan, qizil rang shoshilinchlik, hayajon yoki xavfni anglatishi mumkin (Coca-Cola misolida – energiya va zavq), yashil rang esa tabiiylik va tinchlik bilan bog'lanadi (Starbucks yoki Whole

1 Elliot A. J., Maier M. A. Color psychology: Effects of perceiving color on psychological functioning in humans // Annual Review of Psychology. – 2014. – Vol. 65. 95–120-page.

Foods kabi brendlarda). Ammo bu bog‘lanishlar har bir madaniyatda turlicha. Shu sababli, ranglarning universal va madaniy jihatdan o‘ziga xos kodlarini ajratish muhim ilmiy vazifa hisoblanadi. Ushbu maqolaning maqsadi esa marketing kommunikatsiyasida ranglarni noverbal talqin qilishning semiotik va psixologik asoslarini ochib berish va bu asosda konseptual modelni taklif etish.

Metodologiya. Ushbu maqoladagi materiallar, ularning tahlili asosan sifatli (kvalitativ) yondashuvda yozilib, kichik tadqiqotimizning tabiati nazariy va konseptual bo‘lgani sababli, empirik ma’lumotlar to‘plash (masalan, so‘rovnoma yoki eksperiment) o‘tkazilmagan. Buning o‘rniga, mavjud ilmiy adabiyotlar, semiotik tahlil va amaliy misollarning batafsil interpretatsiyasi orqali maqsadga erishish ko‘zda tutilgan.

Mazkur kichik ilmiy ish fanlararo xususiyatga ega bo‘lib, uchta asosiy soha kesishmasida olib borilgan: marketing kommunikatsiyasi nazariyasi, rang psixologiyasi hamda semiotika (xususan, vizual kodlar nazariyasi). Ushbu integratsiyalashgan yondashuv ranglarning noverbal ma’no yaratish mexanizmlarini yaxlit holda tushunish imkonini beradi. Nazariy asos sifatida Charles Sanders tomonidan taklif etilgan semiotik uchburchak (belgi – obyekt – interpretant)[2] va Ferdinand de Saussure tomonidan ishlab chiqilgan signifikant/signifikat tushunchalari[3] qabul qilingan bo‘lsa, psixologik jihatdan esa Robert Plutchikning hissiy ranglar nazariyasi[4] va Andrew Elliotning rang-afekt tizimi modeli[5]ga tayanilgan.

Muhokama va natijalar. Marketingda ranglarning so‘zsiz muloqot vositasi sifatida qanday ishlatilishini semiotika va psixologiya nuqtayi nazaridan tahlil qilish davomida 12 ta brendni, ularning logotiplari va reklamalaridagi ranglarni ko‘rib chiqdik. Bularni o‘rganish davomida ranglarning so‘zsiz vazifalari marketingda qanchalik muhim noverbal vosita ekanligi quyidagi tahlillarda yoritiladi.

Dastlab ranglarning *so‘zsiz vazifalari*ga to‘xtalsak. Birinchidan, ranglar brendlar uchun uchta asosiy vazifani bajaradi: ular brendni tanitadi, hissiyot uyg‘otadi va ma’lum ma’nolarni bildiradi. Brendni tanitish bu eng oddiy vazifa. Masalan, Coca-Cola kompaniyasining qizil rangi yoki IBM kompaniyasining moviy rangi butun dunyoda shu brendlar bilan bog‘lanadi. Ya’ni, rang brendning “qisqartmasi”ga aylanadi. Peirce degan olim bu turdagi belgilarni “ko‘rsatkich” deb atagan[6]. Saussure esa buni “ishora” va “ma’no” o‘rtasidagi odatiy bog‘lanish deb tushuntirgan.

Ranglarning noverbal funksiyalaridan yana biri bu – *hissiyot uyg‘otish* bo‘lib, bu vazifada ranglarning odamlarga qandaydir kayfiyat berishi bilan bog‘liq. 12 ta brend (Coca-Cola, Starbucks, IBM, IKEA, Fanta, Chanel, Nike, Google, McDonald’s, TBC Bank, Artel va Ucell) dagi ranglarni tahlil qilish shuni ko‘rsatdiki, tekshirilgan brendlarning ko‘pchiligi issiq ranglarni (qizil, sariq, to‘q sariq) ishlatadi. Buning sababi, issiq ranglar odamning diqqatini tortadi, ishtahasini ochadi yoki shoshilinch his qildiradi. Sovuq ranglar (moviy, yashil) esa aksincha, odamga ishonch va tinchlik beradi. Masalan, texnologiya kompaniyalari (IBM, Facebook) moviy rangni shuning uchun tanlaydi – bu rang “xavfsiz” va “professional” deb qabul qilinadi. Ushbu brendlar rangni asosiy identifikatsiya vositasi sifatida ishlatishi va turli sohalar (oziq-ovqat, texnologiya, moda, moliya, telekommunikatsiya) hamda turli madaniyatlar (G‘arb va Sharq) vakili bo‘lgani uchun tanlangan.

Ikkinchidan, ranglarning madaniy ma’nolari hamma joyda bir xil emas. Ya’ni, bir xil rang turli madaniyatlarda turlicha tushuniladi. Masalan, oq rang G‘arbda tozalik va to‘y libosining rangi bo‘lsa, Hindiston va Koreya kabi mamlakatlarda bu rang motamni bildiradi. Bu farq Barthes degan olim aytgan “mif” tushunchasiga to‘g‘ri keladi – ranglar madaniy an’analar orqali ma’no oladi[7]. Keling, McDonald’s misolini olaylik. Uning sariq va qizil ranglari Amerikada tezlik, ochlik va quvnoqlikni anglatadi. Ammo Yevropaning ba’zi joylarida bu ranglar svetofor yoki ogohlantirishni eslatishi mumkin. Yana bir misol – O‘zbekistonda yashil rang islomiy an’analar bilan bog‘liq holda “baraka”, “halol” va “tabiiy” degan ma’nolarni beradi. Demak, xalqaro brendlar har bir mamlakatdagi ranglarning madaniy kodlarini bilishi kerak. Aks holda, ularning reklamasi kutilgandek ta’sir qilmasligi mumkin.

Uchinchidan, ranglar iste’molchining harakatiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri va bilvosita ta’sir qiladi. To‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir – bu fiziologik reaksiya: masalan, qizil rangni

2 Peirce C. S. Collected Papers of Charles Sanders Peirce : in 8 vols. / editors C. Hartshorne, P. Weiss. – Cambridge: Harvard University Press, 1931–1958.
3 Saussure F. de. Course in General Linguistics. – New York : McGraw-Hill, 1916. 240- p.
4 Plutchik R. A general psychoevolutionary theory of emotion // Emotion: Theory, research, and experience / editors R. Plutchik, H. Kellerman. – New York : Academic Press, 1980. – Vol. 1. 3–33-p.
5 Elliot A. J. Color and psychological functioning: a review of theoretical and empirical work // Frontiers in Psychology. 2015. – Vol. 6. 368-p.
6 Peirce C. S. Collected Papers of Charles Sanders Peirce : in 8 vols. / editors C. Hartshorne, P. Weiss. – Cambridge: Harvard University Press, 1931–1958.
7 Barthes R. Mythologies. – Paris : Seuil, 1957. 247- p.

ko‘rib, odamning yurak urishi tezlashishi mumkin. Bilvosita ta’sir esa madaniy va shaxsiy tajribalar orqali yuz beradi. Quyida asosiy ranglarning odatda qanday ma’nolar bildirishi va marketingda qanday ishlatilishini ko‘rishimiz mumkin:

Qizil – hayajon, shoshilinchlik, xavf ramzi bo‘lib, sotuv yorliqlarida, “Chegirma” degan yozuvlarda asosan ishlatiladi va inson miyasida tezroq, shoshilinch xarid qilish lozim ekanligi signalini beradi.

Moviy – ishonch, xavfsizlik, kasbiylik ramzi bo‘lib, banklar, texnologik kompaniyalarda keng tarqalgan. Bunda inson uzoq muddatli aloqaga tayyor bo‘ladi

Yashil – tabiiylik, sog‘lomlik va baraka belgisi o‘laroq, ekologik mahsulotlarda, dorixonalarda keng foydalaniladi. Bunda odamlar sog‘lom tanlov qilayotganlarini his etadilar.

Sariq – optimizm, energiya, diqqat belgisi bo‘lib, bolalar tovarlari, tez tayyorlanadigan ovqatlarda ushbu rangdan ko‘proq foydalanishadi. Odamning kayfiyati ko‘tariladi.

Qora – marketingda nafislik, kuch, hashamat ma’nosini ifodalab, hashamatli brendlar (jumladan, Chanel, Mercedes)da ko‘p uchraydi. Bunda odamlar mahsulotni qimmat va eksklyuziv deb biladi

Bulardan kelib chiqadiki, ranglar ko‘pincha inson miyasiga ongsiz ravishda ta’sir qiladi. Ya’ni, odam rangni tahlil qilib o‘tirmaydi, balki avtomatik ravishda reaksiya bildiradi. Bu esa neyromarketing tadqiqotlari bilan mos keladi – ranglar qaror qabul qilishda “aqliy yengil yo‘l” vazifasini o‘taydi.

Tahlillarimiz natijasida biz ranglarning marketingda so‘zsiz ta’sir qilish jarayonini uch bosqichda ifodalovchi modelni taklif qilamiz:

1. Sezgi bosqichi – odam rangni ko‘zi bilan qabul qiladi. Shu zahotiyoq fiziologik o‘zgarish yuz berishi mumkin (masalan, qizil rang yurak urishini tezlashtirganidek).

2. Bog‘lash bosqichi – odam xotirasidagi madaniy va shaxsiy tajribalar asosida rangga ma’no yuklaydi. Bu bosqichda semiotik kodlar faollashadi.

3. Xulq bosqichi – natijada odamning diqqati tortiladi, u brendni yoqtiradi, ishonadi yoki sotib olishga tayyor bo‘ladi. Bu modelning o‘ziga xos tomoni shundaki, rang alohida emas, balki boshqa elementlar (shakl, shrift, joylashuv) bilan birgalikda tahlil qilinishi kerakligini ta’kidlaydi. Masalan, qizil rang sotuv yorlig‘ida “Faqat bugun” deb yozilgan so‘z bilan birga ishlatilsa, uning ta’siri yanada kuchliroq bo‘ladi.

Xulosa. Maqolada marketing kommunikatsiyasida ranglarning noverbal vosita sifatidagi talqini semiotika va psixologiya nuqtayi nazaridan tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, ranglar iste’molchi xulqiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri va bilvosita ta’sir qilish bilan birga, brendning tan olinishi va hissiy aloqa o‘rnatishda muhim rol o‘ynaydi. Xususan, qizil, moviy, yashil kabi asosiy ranglarning ma’nolari universal bo‘lib ko‘rinsa-da, ular madaniy kontekstga qarab keskin farqlanishi mumkin. Shu sababli, xalqaro brendlar har bir bozorda rang strategiyasini mahalliy kodlar asosida moslashtirishi zarur. Bundan tashqari, tahlil doirasida taklif qilingan uch bosqichli model (sezgi – bog‘lash – xulq) ranglarning marketingdagi ta’sir mexanizmini oshirib, bu model ayniqsa, reklama va qadoq dizaynida rang tanlashni ilmiy asosda optimallashtirish imkonini beradi. Umuman olganda, ranglarni noverbal muloqot vositasi sifatida o‘rganish marketing nazariyasi va amaliyoti uchun dolzarb soha bo‘lib, u brendlar bilan iste’molchi o‘rtasida samarali va hissiy jihatdan boy aloqalarni yaratishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Elliot A. J., Maier M. A. Color psychology: Effects of perceiving color on psychological functioning in humans // Annual Review of Psychology. – 2014. – Vol. 65. – P. 95–120.

2. Peirce C. S. Collected Papers of Charles Sanders Peirce : in 8 vols. / editors C. Hartshorne, P. Weiss. – Cambridge: Harvard University Press, 1931–1958.

3. Saussure F. de. Course in General Linguistics. – New York : McGraw-Hill, 1916. – 240 p.

4. Plutchik R. A general psychoevolutionary theory of emotion // Emotion: Theory, research, and experience / editors R. Plutchik, H. Kellerman. – New York : Academic Press, 1980. – Vol. 1. – P. 3–33.

5. Elliot A. J. Color and psychological functioning: a review of theoretical and empirical work // Frontiers in Psychology. – 2015. – Vol. 6. – P. 368.

6. Barthes R. Mythologies. – Paris : Seuil, 1957. – 247 p.

7. Labrecque L. I., Milne G. R. Exciting red and competent blue: the importance of color in marketing // Journal of the Academy of Marketing Science. – 2012. – Vol. 40. – P. 711–727

Kumush RAZOQOVA,
Buxoro davlat universiteti 2- bosqich tayanch doktoranti
k.s.razoqova@buxdu.uz

O‘ZBEK VA INGLIZ TERMINOLOGIYASI, UNING RIVOJLANISH TARIXI

Annotatsiya: ushbu maqola o‘zbek va ingliz tillarida atamalarni qanday qo‘llash, ularning so‘zlari, ma’nolari va ularning ortidagi madaniy hikoyalarni chuqurroq o‘rganib chiqadi. Til shunchaki so‘zlardan iborat emas – u ilm-fan, texnologiya, madaniyatni boshqaradi va odamlarga chegaralar orqali ulanishga yordam beradi. Bu yerda siz ushbu ikki tilning yangi atamalarni qanday yaratishi, ularning tuzilmalarini shakllantirishi va ulardan haqiqiy suhbatlarda qanday foydalanishi haqida yonma-yon ko‘rinishni topasiz. Maqolada shuningdek, globallashuv va ingliz tilining global til sifatida yuksalishi o‘zbeklarning atamalardan qanday foydalanishi va moslashishiga qanday ta’sir ko‘rsatishi haqida batafsil ma’lumot berilgan.

Tadqiqot ikkala tildagi atamalar aslida qayerdan kelib chiqqanligini kuzatadi: prefikslar va qo‘shimchalar, so‘zlarni bir-biriga aralashtirish, qisqartirish va boshqa tillardan olish. U o‘zbeklar uchun mahalla, hashar va Navro‘z yoki ingliz tilida so‘zlashuvchilar uchun “Shukrona kuni” va pub madaniyati kabi mahalliy ma’noga ega so‘zlarga e’tibor qaratadi. Tahlil shuni ko‘rsatadiki, ba’zi iboralar tarjima qilishdan bosh tortadi – bu yerda juda ko‘p tarix va madaniyat pishirilgan.

Kalit so‘zlar: *terminologiya, o‘zbek terminologiyasi, ingliz terminologiyasi, madaniy terminlar, lingvokulturologiya, diskurs tahlili, semantika, leksik tahlil, globallashuv, qiyosiy tilshunoslik.*

Аннотация: в этой статье более подробно рассматривается, как узбекский и английский языки обращаются с терминологией, углубляясь в их слова, значения и культурные истории, стоящие за ними. Язык – это не только слова: он стимулирует науку, технологии, культуру и помогает людям общаться через границы. Здесь вы сможете параллельно взглянуть на то, как эти два языка создают новые термины, формируют их структуры и используют их в реальных разговорах. В статье также уделяется внимание тому, как глобализация – и превращение английского языка в глобальный – влияет на то, как узбеки используют и адаптируют терминологию.

Исследование отслеживает, откуда на самом деле происходят термины в обоих языках: такие вещи, как префиксы и суффиксы, смешение слов, сокращение и заимствование из других языков. Он привлекает внимание к словам, наполненным местным значением, таким как махалля, хашар и Навруз для узбеков или День Благодарения и культура пабов для англоговорящих. Анализ показывает, что некоторые выражения просто отказываются переводиться — в них заложено слишком много истории и культуры.

Ключевые слова: *терминология, узбекская терминология, английская терминология, культурологические термины, лингвокультурология, дискурс-анализ, семантика, лексический анализ, глобализация, сравнительное языкознание.*

Annotation: this article takes a closer look at how Uzbek and English handle terminology, digging into their words, meanings, and the cultural stories behind them. Language isn’t just about words—it drives science, technology, culture, and helps people connect across borders. Here, you’ll find a side-by-side look at how these two languages create new terms, shape their structures, and use them in real conversations. The article also zooms in on how globalization—and the rise of English as a global language—affects the way Uzbeks use and adapt terminology.

The research tracks where the terms in both languages actually come from: things like prefixes and suffixes, blending words together, shortening, and borrowing from other tongues. It brings attention to words packed with local meaning, like mahalla, hashar, and Navro‘z for Uzbeks, or Thanksgiving and pub culture for English speakers. The analysis shows some expressions just refuse to be translated—there’s too much history and culture baked in.

Key words: *terminology, Uzbek terminology, English terminology, cultural terms, linguoculturology, discourse analysis, semantics, lexical analysis, globalization, comparative linguistics.*

Kirish. O‘zbek va ingliz terminologiyalari o‘zaro aloqasi va rivojlanishi bugungi kunda juda muhimdir. Ilm-fan, texnika va iqtisodiyotning tez rivojlanishi til tizimlariga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi. O‘zbek va ingliz tillari ham bu jarayonda faol qatnashib, o‘z termin tizimlarini rivojlantirib kelmoqda.

O‘zbek terminologiyasi XX asrning boshlaridan boshlab shakllanib, sovet davrida tizimli ravishda rivojlantirildi. Ilm-fan, texnika va sanoat sohalaridagi yangi tushunchalarni ifodalashda dastlab rus tilidagi terminlardan foydalanilgan. Mustaqillikdan so‘ng esa milliy terminlarni yaratish, mavjudlarini

standartlashtirish va yagona me’yorlarni belgilashga e’tibor kuchaydi.

Ingliz tili bugungi kunda xalqaro kommunikatsiya, ilm-fan, texnologiyalar tili sifatida tan olingan. Shu bois ingliz terminologiyasi juda keng qamrovli bo‘lib, turli sohalarda yangidan-yangi atamalarni yaratishda yetakchi o‘rin egallaydi. Ingliz tili terminologiyasining asosiy xususiyati – uning moslashuvchanligi va tezkorligidir: yangi tushunchalar uchun yangi so‘zlar tezda yaratiladi yoki mavjud birliklarga yangi ma’nolar yuklanadi.

O‘zbek va ingliz terminologiyalari o‘rtasidagi aloqadorlik, avvalo, tarjima jarayonida yaqqol namoyon bo‘ladi. Bugungi kunda ilmiy-texnikaviy adabiyotlar, qo‘llanmalar va darsliklarning ko‘pi ingliz tilidan o‘zbekchaga tarjima qilinadi. Shu jarayonda terminlar o‘zbek tiliga turli usullar bilan kirib keladi: kalkalash, fonetik o‘zlashtirish, muqobil termin yaratish.

O‘zbek va ingliz terminologiyalari quyidagi umumiy xususiyatlarga ega: sohaviylik, aniqlik va ixchamlik, standartlashtirish zaruriyati, global omillar ta’siri. Biroq ikki til terminologiyasida ayrim farqlar ham mavjud: manbalar, yangi termin yaratish usuli, normativ baza, fonetik moslashuv.

Globalizatsiya jarayonida ingliz tili butun dunyo uchun asosiy manba tili bo‘lib bormoqda. Shuning uchun o‘zbek terminologiyasining katta qismi ingliz tilidan bevosita yoki bilvosita kirib kelmoqda. Shu bilan birga, milliy terminlarni yaratish, ularni xalqaro terminologiyaga moslashtirish, ikki tilli lug‘atlar va elektron resurslarni boyitish masalalari dolzarb bo‘lib qolmoqda.

O‘zbek va ingliz terminologiyalarining o‘zaro aloqasi bugungi globallashuv sharoitida yanada faollashib bormoqda. Ingliz tili terminlari o‘zbek tiliga, o‘zbek madaniyatiga oid terminlar ingliz tiliga kirib borishi ikki tomonlama boyish jarayonidir. Bunda asosiy vazifa – milliy tilning boy imkoniyatlarini saqlab qolgan holda, ilm-fan va texnikadagi yangiliklarni aniq ifodalovchi terminlarni yaratish va standartlashtirishdir.

Demak, o‘zbek va ingliz terminologiyalari umumiy jihatdan sohaga xoslik, aniqlik va standartlashtirish zaruriyatiga ega bo‘lsa-da, yangi terminlarni yaratish usuli, manbalari va normativ bazasi jihatidan farq qiladi. Shu sababli har ikki til terminologiyasini qiyosiy o‘rganish kelgusida samarali tarjima, ilmiy hamkorlik va til siyosatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Termin nima o‘zi? “Termin” so‘zi lotinchadan olingan, “chegara” yoki “aniq tushuncha” degan ma’noni beradi. Oddiy so‘zdan farqli ravishda, terminlar:

– bir aniq ilmiy tushunchani bildiradi;

– faqat bitta ma’noga ega bo‘lishga harakat qiladi;

– o‘z sohasiga tegishli bo‘ladi;

– emotsional ranglarga ega bo‘lmaydi.

Masalan, “yurak” oddiy so‘z, lekin uni tibbiyotda “miokard” deyishadi. “Savdo” deyilgan joyda iqtisodchilar “marketing” ishlatadi. Tilshunoslar “til” o‘rniga “morfologiya” atamasini qo‘llaydi.

Terminologiyaning shakllanishi. O‘zbek terminologiyasining rivojlanishini bir necha asosiy manba belgilaydi:

– Arabcha qavat (madaniyat, ma’naviyat, adabiyot atamalari)

– Fors-tojikcha qavat (dastur, hunar, dehqon va hokazo)

– Rus va xalqaro terminlar (universitet, telefon, demokratiya)

– Hozirda ingliz tilidan kirib kelayotgan zamonaviy terminlar (marketing, management, startup, online)

Ingliz terminologiyasi asosan, lotin, grek, fransuz, german tillaridan shakllangan. Masalan, “biology” va “democracy” – grekcha, “information” – lotincha ildizdan chiqqan.

So‘nggi yillarda ingliz tilidan o‘zbek tiliga kirib kelayotgan atamalar ham ko‘p. Xususan, IT va biznes sohalarida bu juda tez amalga oshmoqda.

Terminlar qanday yaratiladi? 1. Qo‘shimchalar yordamida (affiksatsiya):

O‘zbekchada: til+shunos = tilshunos, iqtisod+chi = iqtisodchi.

Inglizchada: teach+er = teacher, nation+al = national.

2. Qo‘shma so‘z va atamalardan (kompozitsiya):

O‘zbekchada: sun’iy intellekt, axborot texnologiya.

Inglizchada: software, database, greenhouse.

Ingliz tilida bu usul ayniqsa keng tarqalgan.

3. Qisqartmalar:

Inglizchada: AI (Artificial Intelligence), UNESCO, IT.

O‘zbekchada: OTM, BMT, AI (sun’iy intellekt).

Semantika. Terminlar ba’zan sinonim, antonim, yoki ko‘p ma’noli bo‘lishi mumkin. Masalan, tibbiyotdagi “diagnosis” – “tashxis”, “therapy” – “terapiya”, “infection” – “infeksiya”. Ularning ko‘pi lotin va grek ildizlardan paydo bo‘lgan.

Lingvokulturologiya va madaniyat. Til va madaniyat bir-biriga bog‘liq. Terminlar ham milliy mentalitet va qadriyatlarni ifoda qiladi. Masalan, o‘zbeklarda “mahalla” – ijtimoiy birlik, “hashar” – jamoaviy yordam, “navro‘z” – milliy bayram. Bu so‘zlarning inglizchada aniq ekvivalenti yo‘q. “Mahalla”ni “community neighborhood” deb tarjima qilsa bo‘ladi, lekin o‘zbekcha mazmun, ichki hissiyotini to‘liq ifodalab bo‘lmaydi.

Ingliz madaniyatiga oid terminlar, masalan, “Thanksgiving” – minnatdorchilik bayrami, “pub culture” – ularning ijtimoiy hayotining bir qismi, “gentleman” – o‘ziga xos madaniy ijtimoiy obraz. Bunday terminlar bir tildan boshqasiga to‘liq ko‘chmaydi. Shuning uchun

lingvokulturologik tadqiqotlarda terminlar orqali milliy qadriyat va tafakkur namoyon bo‘ladi.

Kontekst va diskurs. Terminlar har doim ham bitta ma’noda qolmaydi – hammasi kontekstga bog‘liq. Masalan, “democracy”:

– siyosatda – tuzum shakli,

– mediyada – erkinlik ramzi,

– universitetda – siyosiy nazariya sifatida ishlatiladi.

Yoki “globalization” – ingliz matnlarida odatda, ijobiy ma’noda (taraqqiyot, imkoniyatlar) ishlatilsa, ba’zi o‘zbek matnlarida milliy qadriyatlarga tahdid yoki salbiy jarayon sifatida ko‘riladi.

Asosiy til farqlari. O‘zbek tili agglutinativ – terminlarni yangi qo‘shimchalar orqali yasaydi. Ingliz tili esa so‘zlarni qo‘shib, qisqartirib yoki boshqa tillardan olib kompozitsiya qilgan holda rivojlantiradi.

Manba nuqtayi nazaridan, o‘zbek tilida arab, fors va rus tillari aks etgan bo‘lsa, ingliz tilida lotin, grek, fransuz tillari boshlab bergan. Ingliz tilining global ahamiyati ortib borayotgani uchun, xalqaro atamalar o‘zbek tiliga kuchli kirib kelmoqda.

Ilmiy izlanish va asoschilar. Terminologiya nazariyasiga eng katta hissa qo‘shgan olimlar – Dmitriy Lotte, Aleksandr Reformatskiy, Maria Teresa Cabré va Anna Wierzbicka. Ular terminlarni standartlash, semantik noaniqliklarni bartaraf etish, tarjima muammolari va madaniy ta’sirlarni chuqur o‘rgangan.

Xulosa qilib aytganda, o‘zbek va ingliz terminologiyasi – til taraqqiyoti, ilmiy izlanish, madaniy o‘ziga xoslik va globallashuvning ko‘zgusi. Ingliz tili bugun butun dunyo terminologiyasida yetakchi bo‘lsa-da, o‘zbek tili ham o‘z milliy madaniy rangini, uslubini hamda yangi atamalarni o‘zlashtirishini davom ettiryapti. Terminlarni birga leksik, semantik va diskurs jihatdan taqqoslab o‘rganish – lingvistika, tarjima va madaniyatshunoslikda juda muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Cabré, M. T. (1999). *Terminology: Theory, methods and applications*. John Benjamins Publishing Company.

2.Crystal, D. (2003). *English as a global language* (2nd ed.). Cambridge University Press.

3.Lotte, D. S. (1961). *Osnovy postroeniya nauchno-tekhnicheskoy terminologii* [Foundations of scientific and technical terminology]. Akademiya Nauk SSSR.

4.Reformatskiy, A. A. (1967). *Vvedeniye v yazykovedeniye* [Introduction to linguistics]. Prosveshcheniye.

5.Sapir, E. (1921). *Language: An introduction to the study of speech*. Harcourt, Brace and Company.

6.Wierzbicka, A. (1997). *Understanding cultures through their key words: English, Russian, Polish, German, and Japanese*. Oxford University Press.

7.Whorf, B. L. (1956). *Language, thought, and reality: Selected writings of Benjamin Lee Whorf*. MIT Press.

8.Yuldashev, B. (2019). O‘zbek terminologiyasining rivojlanish tamoyillari. *Filologiya masalalari*, 4(2), 45–52.

9.Abdurahmonov, G. (2018). Til va madaniyat integratsiyasi masalalari. *O‘zbek tili va adabiyoti*, 6(1), 33–40.

10.Axmedov, A. (2021). Ingliz va o‘zbek tillarida terminologik birliklarning qiyosiy tahlili. *Xorijiy filologiya*, 3(80), 15–22.

11.Karimov, N. (2020). Lingvokulturologiya va madaniy semantika asoslari. –Toshkent: Fan nashriyoti.

12.Rahmatullayev, Sh. (2006). *Hozirgi o‘zbek adabiy tili*. “Universitet” nashriyoti.

13.Vinogradov, V. V. (1972). *Russkiy yazyk: Grammaticheskoye ucheniye o slove* [Russian language: Grammatical theory of the word]. Vysshaya Shkola.

14.Arnold, I. V. (1986). *The English word*. – Moscow: Vysshaya Shkola.

15.Sager, J. C. (1990). *A practical course in terminology processing*. John Benjamins Publishing Company.

16.Temmerman, R. (2000). *Towards new ways of terminology description: The sociocognitive approach*. John Benjamins Publishing Company.

17.Usmonov, S. (2017). O‘zbek tilida yangi terminlarning shakllanishi va taraqqiyoti. *Til va adabiyot ta’limi*, 5(3), 21–27.

18.Mirzayev, T. (2022). Globalizatsiya sharoitida inglizcha terminlarning o‘zbek tiliga kirib kelishi. *Zamonaviy filologiya tadqiqotlari*, 2(4), 60–68.

Mehriban DAULETMURATOVA,
Nukus davlat pedagogika instituti doktoranti

OLIY TA'LIMDA INGLIZ TILIDA GRAMMATIK KOMPETENSIYANI INTERAKTIV YONDASHUV ASOSIDA RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Annotatsiya: maqolada oliy ta'lim talabalarining ingliz tili grammatik kompetensiyasini interaktiv yondashuv asosida rivojlantirish metodikasi tahlil qilingan. Tadqiqotda grammatik ko'nikmalarni nutqiy faoliyat turlari bilan bog'liq holda shakllantirishning samaradorligi ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: *grammatik kompetensiya, integrativ yondashuv, oliy ta'lim, kommunikativ metodika, nutqiy faoliyat.*

Аннотация: в статье анализируется методика развития грамматической компетенции студентов в высшем образовании на основе интегративного подхода. Научно обоснована эффективность формирования грамматических навыков в связи с видами речевой деятельности в процессе обучения.

Ключевые слова: *грамматическая компетенция, интегративный подход, высшее образование, коммуникативная методика, речевая деятельность*.

Annotation: the article analyzes the methodology of developing students' English grammatical competence in higher education based on an interactive approach. The effectiveness of forming grammatical skills in connection with speech activities is scientifically justified.

Keywords: *grammatical competence, interavtive approach, higher education, communicative methodology, speech activity.*

Kirish. Bugungi globallashuv davrida oliy ta'lim tizimida ingliz tilini o'qitish sifatiga qo'yilayotgan talablar tubdan o'zgardi. Bo'lajak mutaxassislarning til kompetensiyasini shakllantirishda grammatik bilimlar poydevor vazifasini o'tasa-da, an'anaviy metodikadagi quruq qoidalar to'plami amaliy muloqot ko'nikmalarining sust rivojlanishiga sabab bo'lmoqda. Shu bois ta'lim jarayoniga integrativ yondashuvni joriy etish, ya'ni grammatikani leksika va nutqiy vaziyatlar bilan uzviy bog'liqlikda o'rgatish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Integrativ yondashuv tilning morfologik va sintaktik birliklarini shunchaki yodlash emas, balki ularning ma'no va vazifa jihatlarini nutqqa sintez qilish ko'nikmasini shakllantiradi. [1, 14–25-b.] Bu jarayonda grammatik hodisalar axborotni qabul qilish va uzatish vositasi sifatida namoyon bo'lib, talabalarning diskursiv funksiyalarni anglashini talab qiladi. [2, 42–45-b.] Mazkur yondashuv bo'lajak kadrlar uchun professional muloqotda aniqlikka erishish va xalqaro hamjamiyatda faol ishtirok etish imkonini beradi.

Environmental issues globally have gained prominence in both academic and literary discussions. Although it is easy to find descriptions of nature and a love for beautiful, mountainous green areas in ancient writings, concerns about habitat loss, species extinction, and the need for nature preservation emerged in the nineteenth and the twentieth centuries. Two important strands in this development are transcendentalism and ecocriticism. Transcendentalism holds that humans are inherently connected to the natural world, a view reflected in the writings of Ralph Waldo Emerson and Henry David Thoreau. In "Walden; or, Life in the Woods" (1854), Thoreau illustrates the benefits of a simple life lived close to nature, while Emerson's essay "Nature" (1836) is widely regarded as a foundational statement of American transcendentalism. In the twentieth century, ecocriticism later emerged as a more systematic literary approach to environmental concerns. The American writers who are well known for their environmental writing include Barbara Kingsolver, Mary Hunter Austin, Carl Hiaasen, Ursula K. Le Guin, and others. In contrast, Uzbek environmentalist authors include Normurod Norkobilov, Kuchkor Norkobil, Erkin A'zam, Odil Yokubov, and these lists can be extended further. Actually, impact of some eco-literary works was so powerful that they resulted in the change of important governmental decisions such as "Silent spring" by Rachel Carson, which raised awareness about the detrimental effects of pesticides on plants, insects, animals and people as a whole living around the area.

LITERATURE ANALYSIS AND METHODS

In this article a couple of literary methods are employed, namely ecocritical and analytical analysis linking the chosen literature to the current ecological challenges and issues faced by American and Uzbek societies. Odil Yokubov, in his book "Diyonat" (Integrity), highlights Uzbek community which used the natural resources recklessly to meet the economical demands set by Soviet Union in 20th century. The novel critiques some scholars who wanted to climb the career ladder as high as possible by faking research results and irreversibly inclining towards the economical side of the coin not considering the environmental damage (Yokubov, pp. 360-370). The protagonist, Shomurodov is an old professor who could foresee the future of Uzbekistan where the potable water has become a burning problem in 21st century. Currently, Uzbekistan is struggling with the Aral Catastrophe, the only lake that drained dramatically in the doubly landlocked country. The consequences of this drainage are explicitly dramatized in Erkin A'zam's play "Tanho Qayiq" (A lone boat). In the film adaptation of the play, the sea's drainage is used as a metaphor for the erosion of good qualities in people: a person's heart hardens when it is cut off from love and the beauty of the natural world.

Moreover, the professor Shomurodov works on a huge project on bringing the rivers of Siberia to Uzbekistan because the waters of the Amu Darya and Syr Darya are insufficient (Yokubov, 2024, p.97). Furthermore, the problem of using pesticides is thoroughly discussed in the book through a couple of characters: Latofat, a newly graduated student, and her teacher, Sokijon Obidov, who conducts research on insects that could be used as alternatives to pesticides. (yokubov, 2024, pp 357-363). However, such naturally friendly agricultural practices have yet to be implemented. This does not mean that the farmers are illiterate; rather, they are obliged to meet the standards set by the government. According to the novel, Obidov cultivates a pest called trichogramma in the laboratory, but for practical use, there needs to be a cotton borer in the fields. However, this method reduces the yield when it comes to eliminating diseases in the plants. For this reason, when the borer appears, the foreman restricts Obid and sprays pesticides on the cotton field, making the scientist's efforts worthless (Yokubov, 2024 pp.305-363). The real world manifestation of the situation can be seen in the research results reported by Rosen et al. (2018) for the Khorezm region. Pesticide analyses of sediment cores show DDT (dichlorodiphenyltrichloroethane), its breakdown products, and γHCH (gammahexachlorocyclohexane)—pesticides used during the Soviet period—reach their highest concentrations in the top 10 cm of some cores. Those upper layers are dated to about 1950–1990, matching the peak period of pesticide application. These findings support the idea that the lakes are relatively young (mostly less than 150 years old) and that they remain freshwater primarily because irrigation and canal water from the Amu Darya are added; without these inputs, the lakes would not be freshwater. Nonetheless, regional pesticide policy remained problematic decades after the Soviet Union's breakup and Uzbekistan's independence: "59 Highly Hazardous Pesticides (HHPs) are allowed for use in Uzbekistan," and "34 of these 59 HHPs are banned in various other countries" (Speranskaya et al., 2020).

The prioritization of economic factors over environmental factors can also be seen in the book "Same Sun Here" by Silas House and Neela Vaswani. As one of the book's reviewers, Morrison Hope writes, "This epistolary novel documents the correspondence between two pen pals: Meena, an Indianborn twelveyearold girl living in New York City's Chinatown, and River, a

twelveyearold rural Kentucky boy, brought together by a school project." River expresses his deep concern about the mountaintop removal activities undertaken by the government to boost economic productivity in his letters to his Indian immigrant pen friend, Meena. River's love of nature emerges when he takes nature walks with his grandmother and collects intriguing objects from the mountains where they hike, whereas Meena was born in a mountainous area in India and experiences severe homesickness in New York, a city of skyscrapers. Therefore, when River joins his grandma in opposing a mining company that is devastating the town's natural habitats, Meena wholeheartedly supports them in her letters. There is an American non-profit online magazine, Grist.org, founded in 1999 that publishes news and commentary focused on environmental issues, with the tagline "Climate. Justice. Solutions." According to the article "Mountaintop Removal Mining is Devastating Appalachia, but Residents Are Fighting Back" published in the magazine, approximately 5,000 people were injured and about 50 residents were killed due to landslides. A similar scene is depicted in the book: "Landslide Caused by Mine Site Crashes into School; Building Destroyed, At Least Five Children Hurt" (Neela & Vaswani, 2012, p.171). Henry David Thoreau once told, "If the machine of government is of such a nature that it requires you to be the agent of injustice to another, then, I say, break the law". River's grandma, Mamaw also tells, "If something legal is unjust, sometimes people have to do something illegal to get attention." She taught her grandson to fight for what he believes is right. Hilltop mining was legal but they needed to take an illegal action to stop the government from damaging the environment and the inhabitants of the targeted area.

Nevertheless, preserving nature does not always require breaking the law; it can be as simple as watering plants or sowing seeds in one's garden. Ralph Waldo Emerson wrote, "When I go into the garden with a spade and dig a bed I feel such an exhilaration and health that I discover that I have been defrauding myself all this time in letting others do for me what I should have done with my own hands" (Emerson, 2013, p.1166). According to Emerson, caring for nature and contributing to the preservation of natural resources enhances personal wellbeing and happiness.

RESULTS AND DISCUSSION

The analysis reveals significant parallels between the ecological concerns articulated in Odil Yokubov's *Diyonat* and Silas House and Neela Vaswani's *Same Sun Here*. Both texts illustrate how economic pressures override environmental considerations, leading to dire consequences for their respective societies. In *Diyonat*, Yokubov paints a grim picture of the Uzbek community during the Soviet era, where the reckless exploitation of natural resources reflects a broader societal trend towards prioritizing economic gains over environmental sustainability. Professor Normurod Shomurodov's foresight about the future water crisis in Uzbekistan serves as a crucial warning about the long-term repercussions of ignoring ecological integrity for short-term economic goals. On top of that, Yokubov connects these ecological problems with Uzbekistan being invaded by various countries and the destruction of its natural resources. He states, "When Genghis Khan's army swept into this land like a black storm or a plague of locusts, not only were beautiful cities and prosperous villages devastated, but nature—especially the mountain forests—was ruthlessly destroyed" (Yokubov, 2024, p. 210). Later, after the invasions by Russia, mountain forests were destroyed for coal production (Yokubov, 2024, p. 211). Due to the destruction of forests and the construction of industrial companies the air quality is declining. According to Kun.uz journalist Bobur Akmalov on January 5, 2024, it was reported that Tashkent's air pollution has been described as not inferior to the level of Chernobyl, and that Uzbekistan's capital ranked second in the world for air quality. Unfortunately, on February 21 of the same year, in a ranking published by the International Air Quality Index (IQAir), Tashkent was identified as the city with the highest level of air pollution among the world's major cities. At present, the city's air quality continues to worsen.

Conversely, *Same Sun Here* presents similar concerns through the character of River, who voices his alarm regarding mountaintop removal mining practices in America. The letters exchanged between River and Meena foster a transnational dialogue, emphasizing how ecological degradation is a shared concern across different cultures. River's account of how these politically legal but environmentally harmful practices affect his community not only reflects personal anguish but also underscores a collective responsibility to advocate for environmentally friendly policies. One good example of taking action for the common good can be seen in the book when River's grandma and her friends formed circles around the trees to stop government officials from cutting them down. Nevertheless, this courageous act by his grandma resulted in her being publicly humiliated after a while: ""When she came out, Mamaw nodded and smiled to the rest of the people in line, but then this man I'd never seen before - he

had a big bushy beard and his mouth was real little and real red - hollered and said "I bet you enjoyed pulling that lever, didn't you, tree hugger?" (Neela & Vaswani, 2012, p.103). At that time, River and his grandmother were voting for the presidential elections. A similar event occurs in Odil Yokubov's "Diyonat" (Integrity), when government personnel cut down willow trees. Gulsara, Shomurodov's wife, hugs one of the trees and shouts, "Please, stop them from what they're doing!" (Yokubov, 2024, p.140). In that chapter of the book, hundreds of storks lose their natural habitats and leave the village forever. Over the course of six years between 2002 and 2008, "across 110 coal strip mining operations located within the United States" (Stretesky & Lynch, 2011, p.209). Research findings of this period by Stretesky and Lynch (2011) reveal that the level of poverty was higher in the areas where the environmental law was being violated (p. 230). In light of the above, Mamaw was discriminated against not only because she stood up to the mining company, but also because she is from a lower-class community. In contrast, the main characters of the book "Diyonat, Gulsara and Normurod, are also depicted as poor and innocent youth who could not save the trees in their own village. Through the lens of ecocriticism, these literary works not only highlight the historical and cultural contexts of environmental degradation but also inspire active engagement in contemporary ecological challenges.

CONCLUSION

Overall, both *Diyonat* and *Same Sun Here* encourage readers to think about the ethical aspects of environmental damage. They remind us of the importance of balancing economic growth with ecological sustainability. The stories challenge us to become more aware of our responsibilities and the interconnectedness of our actions in addressing global environmental crises. As Meena's grandma Dadi says, "And then I thought to myself that it's the same sun here as it is there, and that made me feel like you're not so far away after all!" (Neela & Vaswani, 2012). Despite the fact that Meena and her grandma live separately—one in India and the other in the USA—they feel connected because they see the same sun in the sky every day. This not only highlights the relationship between the two characters in the story but also the interconnectedness of all humanity across different parts of the world. Environmental problems cannot be solved through individual actions; they require collective efforts from multiple governments. International funds should be raised to address ecological issues effectively. The Aral Sea is a prime example of environmental degradation that cannot be solved through individual actions. By connecting these literary works to real-world issues, we see how they inspire us to engage in creating a more sustainable future for ourselves and future generations.

REFERENCES

1. A'zam, E. (2018). *Tanho qayiq yoxud devonaning orzusi* [Play]. Tashkent
2. Carson, R. (1962). *Silent Spring*. Houghton Mifflin.
3. Civil Disobedience (1849) See Savio 1
4. House, S., & Vaswani, N. (2012). *Same sun here*. Candlewick Press.
5. Hope, M. (2012). Same Sun Here review. ResearchGate. https://www.researchgate.net/publication/236778061_Same_Sun_Here_review
6. Ralph Waldo Emerson (2013). "Delphi Complete Works of Ralph Waldo Emerson (Illustrated)", p.1166, Delphi Classics
7. Rosen, M. R., Crootof, A., Reidy, L., Saito, L., Nishonov, B., & Scott, J. A. (2018). The origin of shallow lakes in the Khorezm Province, Uzbekistan, and the history of pesticide use around these lakes. *Journal of Paleolimnology*, *59*(2), 201-219.
8. Speranskaya, O. A., Tsitser, O. Y., Manvelian, E. V., Mustafina, V. V., Dushkina, Y. N., Domuladjanov, I. H., ... & Tsyguleva, O. M. (2020). Production and use of highly hazardous pesticides in Russia and some countries in Eastern Europe, Caucasus and Central Asia: trends and perspectives for transition to safe alternatives. In *V INTERNATIONAL CONFERENCE «ACTUAL SCIENTIFIC & TECHNICAL ISSUES OF CHEMICAL SAFETY»(ASTICS-2020)* (pp. 326-327).
9. Stretesky, P. B., & Lynch, M. J. (2011). Coal Strip Mining, Mountaintop Removal, and the Distribution of Environmental Violations across the United States, 2002–2008. *Landscape Research*, *36*(2), 209–230. https://doi.org/10.1080/01426397.2010.547572
10. Yokubov, O. (2024). *Diyonat*. Oltin Qalam.
11. https://www.newworldencyclopedia.org/entry/Transcendentalism#google_vignette
12. https://kun.uz/news/2025/11/20/toshkent-havo-ifloslanishi-boyicha-dunyoda-1-oringa-chiqdi

PEDAGOGIKA



Shodiya GANIYEVA,
FarDU filologiya fanlari doktori, professor;
Fotimaxon SOBIROVA,
FarDU Ta'lim tarbiya nazariyasi va metodikasi
(Boshlang'ich ta'lim) mutaxassisligi 2-kurs magistranti

KICHIK YOSHLI BOLALARNING OLAMNI IDROK ETISHIDA XALQ OG'ZAKI IJODIDAN FOYDALANISH METODIKASI

Annotatsiya: mazkur maqolada kichik yoshli bolalarning olamni idrok etishida xalq og'zaki ijodidan foydalanish metodikasi ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Maqolada xalq og'zaki ijodining asosiy janrlari ertak, topishmoq, maqol, tez aytish, xalq o'yinlari va allalarning ta'limiy ahamiyati ochib berilgan; ulardan samarali foydalanishning metodologik asoslari ko'rsatilgan. Tadqiqot natijalari shuni tasdiqlaydiki, xalq og'zaki ijodi namunalari bolalarda milliy qadriyatlarga hurmat, mustaqil fikrlash, nutqiy rivojlanish va axloqiy kamolotni ta'minlashning muhim pedagogik vositasi hisoblanadi.

Kalit so'zlar: *xalq og'zaki ijodi, kichik yoshli bolalar, metodika, ertak, topishmoq, tez aytish, xalq o'yinlari, alla, milliy qadriyatlar, ta'lim jarayoni.*

Аннотация: в данной статье научно анализируется методика использования народного устного творчества в процессе познания мира детьми младшего школьного возраста. Раскрывается образовательное значение основных жанров фольклора сказок, загадок, пословиц, скороговорок, народных игр и колыбельных песен; показаны методологические основы их эффективного применения. Результаты исследования подтверждают, что образцы народного устного творчества являются важным педагогическим средством формирования уважения к национальным ценностям, самостоятельного мышления, речевого развития и нравственного становления личности ребёнка.

Ключевые слова: *народное устное творчество, дети младшего школьного возраста, методика, сказка, загадка, скороговорка, народные игры, колыбельная, национальные ценности, образовательный процесс.*

Annotation: this article provides a scholarly analysis of the methodology for using oral folk art in fostering young children's perception and understanding of the world. The educational significance of core folklore genres fairy tales, riddles, proverbs, tongue twisters, folk games, and lullabies is explored, and the methodological foundations for their effective application in the educational process are outlined. Research findings confirm that oral folk art serves as a vital pedagogical tool for cultivating respect for national values, independent thinking, speech development, and moral formation in young learners.

Key words: *oral folk art, primary school children, methodology, fairy tale, riddle, tongue twister, folk games, lullaby, national values, educational process.*

Kirish. Globallashuv sharoitida ta'lim tizimida bolalarning intellektual rivojlanishi bilan birga ularning ma'naviy va axloqiy kamolotiga e'tibor qaratish zarurati tobora ortib bormoqda. Bu vazifani hal etishda xalq og'zaki ijodi (folklor) o'zining noyob pedagogik imkoniyatlari bilan alohida o'rin tutadi. Zero, folklor namunalari asrlar davomida xalqning hayotiy tajribasi, donishmandligi, milliy urf-odatlari va qadriyatlarini o'zida mujassam etib kelgan boy ma'naviy meros hisoblanadi. Kichik yoshdagi bolalar — 6-10 yoshli o'quvchilar — dunyoni asosan his-tuyg'u, tasavvur va obrazlar orqali idrok etadilar. Aynan shu xususiyat folklor janrlarini ushbu yoshdagi bolalar uchun eng samarali ta'lim vositalaridan biriga aylantiradi. Ertaklar, topishmoqlar, maqollar, tez aytishlar, alla va xalq o'yinlari bolalarda nafaqat bilish qobiliyatini, balki axloqiy tuyg'u, nutqiy rivojlanish va ijodiy tafakkurni ham shakllantiradi. Ushbu maqolaning maqsadi — kichik yoshli bolalarni olamni idrok etishlarida xalq og'zaki ijodidan foydalanishning metodologik asoslarini ishlab chiqish va uning ta'limiy samaradorligini asoslashdan iborat. Tadqiqot davomida folklor janrlarining o'ziga xos xususiyatlari, ta'lim jarayonida ularni qo'llash usullari hamda ushbu jarayonning bolalar rivojlanishiga ta'siri ko'rib chiqilgan.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

Xalq og'zaki ijodining pedagogik ahamiyati masalasi ko'plab mahalliy va xorijiy tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan. O'zbek folklorshunosligi sohasida M.Jorayev, B.Sarimsoqov va T.Mirzayevlarning ishlarida folklor janrlarining ilmiy tasniflari va ularning badiiy xususiyatlari atroflicha tahlil qilingan (Jorayev, 2003; Mirzayev, 2010).

Pedagogika fanida bolalar folklori va ta'lim munosabatlari masalasiga S.Matchonov va N.Rahimovlarning tadqiqotlarida alohida e'tibor qaratilgan. Ushbu ishlarda folklor namunalarining bolalar nutqi va tafakkurini rivojlantirishdagi o'rni empirik ma'lumotlar asosida tahlil etilgan (Matchonov, 2008).

Xorijiy adabiyotlarda Bruner (1996) ta'lim jarayonida narrativ va og'zaki an'analarning kognitiv rivojlanishdagi ahamiyatini ta'kidlaydi. Vygotskiy nazariyasiga ko'ra, bolaning yaqin rivojlanish zonasini kengaytirishda madaniy-tarixiy vositalar, jumladan folklor namunalari muhim rol o'ynaydi (Vygotsky, 1978). Tomlinson va Masuhara

(2013) esa o‘quv materiallarida madaniy kontentdan foydalanishning motivatsion samaradorligini alohida ko‘rsatib o‘tgan.

Abu Ali ibn Sino o‘z asarlarida bolalarga musiqaviy va og‘zaki ta’sirning ahamiyatini qayd etgan: alla va ohanglarning bolani jismoniy hamda ruhiy jihatdan barkamollikka erishtiruvchi xususiyati haqidagi mulohazalari ming yil oldin bayon etilgan bo‘lsa-da, bugungi zamondoshi psixologiya fani tomonidan tasdiqlangan.

Shunga qaramay, kichik yoshli bolalarning olamni idrok etishlarida folklor janrlaridan kompleks foydalanishning metodologik tizimi hali yetarlicha ishlab chiqilmagan. Ushbu bo‘shliqni to‘ldirish mazkur tadqiqotning asosiy ilmiy zaruriyatini belgilaydi.

Tahlil va natijalar.

Xalq og‘zaki ijodining ta’limiy imkoniyatlari. Xalq og‘zaki ijodi — xalq tomonidan yaratilgan va og‘izdan og‘izga, ajdodlardan avlodlarga o‘tib kelayotgan badiiy asarlar majmuidir. Uning pedagogik kuchi shundaki, bu asarlar mavhum g‘oyalarni bolalar tushunadigan obrazlar, qahramonlar va vaziyatlar orqali ifodalaydi. Kichik yoshdagi bolalar uchun eng samarali folklor janrlari qatoriga ertak, topishmoq, maqol, tez aytish, alla va xalq o‘yinlari kiradi.

Alla va dastlabki ta’sir. Alla — folklor janrlarining eng qadimiysi bo‘lib, u bolaning hayotiga tug‘ilgandan boshlab kirib boradi. Ibn Sinoning ta’kidlashicha, bolani sekin tebratish va ohangdor alla aytish bolaning ham jismoniy, ham ruhiy kamolotiga xizmat qiladi. Zamonaviy neyrologiya ham bu fikrni tasdiqlaydi: musiqa va ritm bola miyasida foydali neyron aloqalarini mustahkamlaydi. Alla bola uchun nafaqat uxlatish vositasi, balki onaning sevgisi, madaniy merosning birinchi ko‘rinishi hamdir.

Topishmoq: mantiqiy tafakkurning asosi. Topishmoq — xalq og‘zaki ijodining ommaviy janrlaridan biri bo‘lib, u ko‘chimlar, o‘xshatishlar va taqqoslashlar vositasida narsa hamda hodisalarni tasvirlaydi. Masalan, “Bir parcha patir, Olamga tatir” topishmoqda to‘lin oy bilan patirning shakli taqqoslanadi — bu taqqoslash bolada bir vaqtning o‘zida ham badiiy, ham mantiqiy tafakkurni yuzaga keltiradi. Topishmoqlar bolalarda ziyraklik, mulohaza yuritish, tasavvur va lisoniy tafakkurni rivojlantiradi.

Tez aytishlar: nutqiy rivojlanish vositasi. Tez aytishlar — tovush alternatsiyasiga asoslangan folklor janri bo‘lib, ularni aytish jarayonida bola o‘xshash tovushlarni aniq va to‘g‘ri talaffuz etishni mashq qiladi. “Namanganda usta Musa puch pistafurush...” kabi tez aytishlarni takrorlash bolaning artikulyatsiyasini takomillashtiradi, nutqiy qobiliyatini oshiradi va so‘z boyligini kengaytiradi.

Xalq o‘yinlari: kognitiv va ijtimoiy rivojlanish. Xalq o‘yinlari pedagogik nuqtayi nazardan ikki turga bo‘linadi: harakatli o‘yinlar va so‘z (ma’naviy) o‘yinlari. Harakatli o‘yinlarda — masalan, “Oq terakmi, ko‘k terak?” yoki “Mehmonmisiz?” o‘yinlarida — so‘z va harakat uyg‘unlashadi. Bolalar o‘yin davomida hamkorlikda ishlashni, qoidalarga rioya qilishni va jamoaviy qaror qabul qilishni o‘rganadilar. Yanush Korchak ta’kidlaganidek, faqat o‘yin bolaga o‘zini ma’lum darajada mustaqil his qilish imkonini beradi.

Ta’lim jarayonida folklor namunalaridan foydalanish metodlari. Tadqiqot davomida ta’lim jarayonida xalq og‘zaki ijodidan foydalanishning quyidagi samarali metodlari aniqlandi:

Birinchi metod — yoshga moslik tamoyili. Kichik yoshli bolalar uchun qisqa ertaklar, topishmoqlar, maqollar va harakatli o‘yinlar ko‘proq samara beradi. Materialni o‘qituvchi avval o‘zi ifodali o‘qib bersa va qahramonlarning xatti-harakatini birgalikda muhokama qilsa, o‘zlashtirishning sifati sezilarli darajada oshadi. Ikkinchi metod — savol-javob texnikasi. O‘qituvchi o‘quvchilarga “Agar sen asar qahramonining o‘rnida bo‘lganingda qanday yo‘l tutgan bo‘lar eding?” kabi muammoli savollarni berishi bolalarda mustaqil fikrlashni rivojlantiradi. Bu metod bolaning tanqidiy tafakkurini faollashtiradi. Uchinchi metod — sahnalashtirish va rolli o‘yinlar. Ertaklar va xalq o‘yinlarini sahna ko‘rinishida ijro etish bolalarda nutqiy ravonlik, ijodiy tafakkur va jamoaviy hamkorlik ko‘nikmalarini shakllantiradi. Kognitiv nuqtayi nazardan, ushbu faoliyat bolaning voqelikni anglash qobiliyatini kengaytiradi. To‘rtinchi metod — qiyoslash. Qadimgi xalq an’analari bilan zamonaviy hayotni taqqoslash bolalarda tarixiy tafakkur va madaniy xotirani shakllantiradi. “Kelajak soati” loyihasi bunga amaliy namuna bo‘la oladi.

Dars strukturasida folklor namunalarini joylashtirish. Folklor namunalarini dars tuzilmasining turli bosqichlarida qo‘llash mumkin: kirish qismida — darsni qiziqarli boshlash maqsadida; asosiy qismda — mavzuni chuqurroq yoritish uchun; yakunlovchi qismda — darsdan sermazmun xulosa chiqarish uchun. Har bir bosqichda to‘g‘ri tanlangan folklor janri darsning umumiy samaradorligini oshiradi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, kichik yoshli bolalarni olamni idrok etishlarida xalq og‘zaki ijodidan foydalanish — bu ajdodlardan meros bo‘lib kelgan pedagogik donishmandlikning zamonaviy ta’lim amaliyotiga tatbiq etilishidir. Ushbu yo‘nalishda yanada chuqur tadqiqotlar olib borish va metodologik qo‘llanmalar ishlab chiqish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ibn Sino, Abu Ali. Tib qonunlari. — Toshkent: O‘zbekiston, 1993. 456-b.
2. Jorayev M. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. — Toshkent: O‘qituvchi, 2003. 312-b.
3. Matchonov S. Ona tili darslarida xalq og‘zaki ijodidan foydalanish. — Toshkent: Fan, 2008. 178-b.
4. Mirzayev T. O‘zbek folklori: janrlar va ularning tahlili. — Toshkent: Ma’naviyat, 2010. 280-b.
5. Rahimov N. Boshlang‘ich sinflarda folklor yordamida ta’lim berish metodikasi. — Samarqand: SamDU, 2015. 134-b.

Saodat SHAMAKSUDOVA,
O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi
O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti
Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsenti
saodat.xidoyatovna@gmail.com

O‘QITUVCHI VA TURLI YOSHDAGI O‘QUVCHILAR O‘RTASIDAGI MULOQOTNING XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada o‘qituvchi va turli yoshdagi o‘quvchilar o‘rtasidagi pedagogik muloqotning nazariy-metodologik asoslari, yosh guruhlariga xos xususiyatlari va samarali muloqot strategiyalari tadqiq etilgan. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari (7–12 yosh), o‘smirlar (13–17 yosh) va katta yoshli o‘quvchilar (18+ yosh) bilan muloqotning o‘ziga xos tomonlarini ilmiy asosda tahlil qilib har bir yosh guruhiga mos pedagogik yondashuvlarni aniqlanadi. Tadqiqotda qiyosiy-tahliliy metod, psixologik-pedagogik kuzatuv va adabiyotlarni tizimli sharhlash usullaridan foydalanilgan.

Kalit so‘zlar: *pedagogik muloqot, yosh xususiyatlari, boshlang‘ich ta’lim, o‘smirlik davri, andragogika, muloqot strategiyasi, ta’lim samaradorligi.*

Аннотация: в данной статье исследуются теоретико-методологические основы педагогического общения между учителем и учащимися различного возраста, особенности, характерные для возрастных групп, и стратегии эффективного общения. Рассматриваются особенности общения с учащимися начальной школы (7–12 лет), подростками (13–17 лет) и взрослыми учащимися (18+ лет), проводится научный анализ отдельных сторон общения и определяются педагогические подходы, соответствующие каждой возрастной группе. В исследовании использованы методы сравнительно-аналитического анализа, психолого-педагогического наблюдения и систематического обзора литературы.

Ключевые слова: *педагогическое общение, возрастные особенности, начальное образование, подростковый возраст, андрогогика, стратегия общения, эффективность обучения.*

Annotation: this article examines the theoretical and methodological foundations of pedagogical communication between teachers and students of different ages, the characteristics typical for age groups, and strategies for effective communication. It considers the specifics of communication with elementary school students (ages 7–12), adolescents (ages 13–17), and adult learners (18+ years), conducts a scientific analysis of individual aspects of communication, and determines pedagogical approaches appropriate for each age group. The study uses methods of comparative-analytical analysis, psychological and pedagogical observation, and systematic literature review.

Key words: *pedagogical communication, age characteristics, primary education, adolescent age, andragogy, communication strategy, learning effectiveness.*

Kirish. Ta’lim jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi muloqot nafaqat bilim uzatishning asosiy kanali, balki shaxsni shakllantiruvchi muhim omil sifatida e’tirof etiladi. Zamonaviy pedagogika fani ushbu muloqotni statik hodisa emas, balki dinamik, kontekstga bog‘liq va o‘quvchining psixologik-yosh xususiyatlariga moslashtirilishi zarur bo‘lgan jarayon sifatida baholaydi. O‘zbek pedagogika fanida bu muammoni o‘rganishga alohida e’tibor qaratilgan: jumladan, X. Xoliqov o‘qituvchining pedagogik mahorati muloqot orqali namoyon bo‘lishini uqtirsa, N. N. Azizxo‘jayeva pedagogik texnologiyalar doirasida muloqotning didaktik vazifalarini tahlil etgan.

Asosiy qism. Pedagogik muloqot (pedagogicheskoe obshchenie) — bu o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasida ta’lim-tarbiya maqsadlarini amalga oshirishga yo‘naltirilgan, o‘zaro ta’sir, axborot almashish va shaxslararo munosabatlarni qamrab oluvchi murakkab kommunikativ jarayon. X. Xoliqov o‘zining “Pedagogik mahorat” darsligida ta’kidlaganidek, pedagogik muloqot o‘qituvchi mahoratining asosiy tashkil etuvchisi bo‘lib, u faqat bilim uzatish akti emas, balki shaxsni tarbiyalash va motivatsiyani shakllantirish vositasi hamdir.

N. N. Azizxo‘jayeva pedagogik texnologiyalar nuqtayi nazaridan muloqotning didaktik vazifalarini tahlil etib, uning kognitiv (bilish), affektiv (his-tuyg‘u) va kognitiv (xulq-atvor) komponentlarini ajratib ko‘rsatadi. Ushbu uch komponent birligida olib boriladigan muloqotgina to‘laqonli pedagogik ta’sirga erishishi mumkin. R. A. Mavlonovaning “Pedagogika” darsligida ham ta’kidlanishicha, samarali o‘quv jarayoni o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi sifatli muloqotsiz amalga oshmaydi.

7–12 yoshli bolalar J. Piajenning kognitiv rivojlanish nazariyasida “konkret amallar” bosqichiga to‘g‘ri keladi. Bu bosqichda bola abstrakt tushunchalarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri idrok eta olmaydi; aksincha, u konkret misol, vizual tasvir va amaliy faoliyat orqali o‘rganadi. Sh. A. Do‘stmuhamedova “Yosh davrlari va pedagogik psixologiya” darsligida qayd etishicha, boshlang‘ich maktab yoshida bolaning diqqat barqarorligi hali yetarlicha rivojlanmagan bo‘lib, o‘qituvchi har 10–15 daqiqada yangi usulga o‘tishi yoki faol javob olishi zarur.

E.H.Eriksonning psixosotsiologik rivojlanish nazariyasiga ko‘ra, bu davr “ishchanlik va past o‘z-o‘zini baholash” ziddiyati bilan xarakterlanadi M. G. Davletshin o‘zining “Zamonaviy maktab o‘qituvchisi psixologiyasi” asarida ushbu nazariyani mahalliy sharoitga tatbiq etib, o‘zbek maktabida boshlang‘ich sinf o‘quvchisining o‘qituvchiga bo‘lgan munosabatini o‘rgangan: bola o‘qituvchini nafaqat bilim manbai, balki axloqiy namuna

sifatida qabul qilishi aniqlangan.Shu sababli, bu yoshdagi bolalar bilan muloqotda o‘qituvchining o‘z so‘zi va xulqi birligi alohida ahamiyat kasb etadi.

N. N. Azizxo‘jayeva pedagogik texnologiyalar kontekstida boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bilan muloqotda o‘yin texnologiyasining samaradorligini alohida ta’kidlaydi.Uning ko‘rsatishicha, didaktik o‘yin motivatsiyani 2–3 barobar oshirish imkonini beradi va materialni o‘zlashtirishni chuqurlashtiradi. Bu yoshda o‘qituvchining uchta asosiy roli mavjud: murabbiy, himoyachi va motivator, bu rollarni Z.T.Nishonova asarida ham tasdiqlangan.

Amaliy jihatdan, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bilan muloqotda quyidagi prinsiplar tavsiya etiladi: oddiy va qisqa gaplar qo‘llash; ijobiy kuchaytirish (rag‘bat, targ‘ib) orqali motivatsiya yaratish, savollarni aniq va bir ma’noli qo‘yish, o‘quvchining fikriga e’tibor berish va uni so‘ngida to‘ldirib ko‘rsatish.

O‘smirlik davri – psixologik identifikatsiya va tengdoshlarga intilish bilan xarakterlanadigan murakkab davr. E.G‘.G‘oziyev “Ontogenez psixologiyasi” darsligida o‘smirlik davrini “inqirozli davr” sifatida ta’riflaydi: bu davrda o‘smir bir tomondan kattalar dunyosiga intilsa, ikkinchi tomondan bolalar dunyosidan to‘liq uzilmagan holda bo‘ladi. Ushbu ikkilanish holatini hisobga olmagan o‘qituvchi o‘smir bilan muloqotda qoqinadi.

Sh. A. Do‘stmuhamedova tadqiqotlari ko‘rsatishicha, o‘smirlik davrida o‘qituvchi avtoriteti o‘z-o‘zidan emas, balki ishonch va hurmat orqali quriladi. O‘smir faqat o‘z qadr-qimmatini tan olgan va hurmat ko‘rsatgan o‘qituvchi bilan samarali muloqot qila oladi. Tengdoshlar ta’siri bu yoshda kuchli omil bo‘lib, o‘qituvchi jamoaviy muhitda o‘smirni sharmanda qilishi, tanqidni ochiq aytishi uning muloqotdan butunlay “chiqib ketishi” va qarshilik pozitsiyasini egallashiga olib kelishi mumkin.

X. Xoliqov pedagogik mahorat darsligida o‘smirlar bilan muloqotning samarali strategiyalarini quyidagicha belgilaydi: birinchi, hurmatga asoslangan muloqot o‘qituvchi o‘smirning fikriga sinfda e’tibor berishi va uni adolatli baholashi; ikkinchi, tanlov va mustaqillik imkoniyati – o‘quvchiga bir nechta topshiriq varianti yoki mavzuni tanlash imkoni berish; uchinchi, konstruktiv konflikt hal etish – nizoli vaziyatlarda ochiq dialog va murosaga kelish; to‘rtinchi, shaffof va asosli feedback “Noto‘g‘ri!” o‘rniga “Bu qismni qanday yaxshilash mumkin?” degan konstruktiv mulohaza.

R.A.Mavlonova pedagogika darsligida o‘smirlarning axloqiy rivojlanishida o‘qituvchi muloqotining roli alohida o‘rganilgan. Unga ko‘ra, sinf qoidalarini birgalikda ishlab chiqish va o‘smirni mas’uliyatni his qilishga undash orqali itoatkorlikni emas, balki ichki tartib-intizomni shakllantirish mumkin.

Katta yoshli o‘quvchilar bilan muloqot andragogika prinsiplariga asoslanishi zarur. M. Noulz tomonidan asoslangan andragogika modeliga ko‘ra, katta yoshli o‘quvchi bir qator o‘ziga xos psixologik xususiyatlarga ega: u o‘z-o‘zini boshqaruvchi, hayot tajribasiga boy, ta’limga dolzarb ehtiyojdan kelib chiqib murojaat qiluvchi va o‘rganishning amaliy natijasiga yo‘naltirilgan shaxs hisoblanadi.

N. N. Azizxo‘jayeva oliy ta’lim sharoitida katta yoshli talabalar bilan muloqotda demokratik uslubning samaradorligini tahlil etib, fasilitatsiya (fasilitatsiya — jarayonni yo‘naltirish va qo‘llab-quvvatlash, ammo to‘g‘ridan-to‘g‘ri boshqarmaslik) usulini tavsiya etadi. Uning kuzatishlari ko‘rsatishicha, o‘qituvchi “biluvchi”, o‘quvchi “bilmaydigan” sxemasi katta yoshli auditoriyada qarshilik yoki motivatsiyasizlikka olib keladi.

Amaliy jihatdan, bu guruh bilan muloqotda quyidagi xususiyatlar e’tiborga olinishi kerak: birinchi, maqsad va relevantlik o‘qituvchi o‘quv materialining hayotiy ahamiyatini aniq tushuntirishi; ikkinchi, tajribaga hurmat katta yoshli o‘quvchilarning oldingi bilim va tajribasini darsda muhokama qilish; uchinchi, o‘z-o‘zini boshqarish – imkon qadar mustaqil ishlash, loyiha va tadqiqot usullarini qo‘llash; to‘rtinchi, teng huquqli dialog – hamkorlikdagi o‘rganish muhitini yaratish.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqot nazariy-empirik yo‘nalishda amalga oshirilgan bo‘lib, quyidagi metodlardan foydalanilgan.

Qiyosiy-tahliliy metod – uchta yosh guruhiga oid pedagogik muloqot modellarini bir-biriga nisbatan taqqoslash orqali har birining o‘ziga xos va umumiy xususiyatlarini aniqlash maqsadida qo‘llanilgan. Ushbu metod J. Piaje, E. H. Erikson va M. Noulzning nazariy asarlari bilan birga mahalliy olimlar: M. G. Davletshin, E. G‘. G‘oziyev, Z. T. Nishonova, X. Xoliqov asarlari tahlili asosida amalga oshirilgan.

Ilmiy adabiyotlarni tizimli sharhlash (systematic literature review) -pedagogik muloqot sohasidagi xorijiy (rus, ingliz tilidagi) va o‘zbek tilidagi ilmiy manbalar tanlab o‘rganilgan va ulardan asosiy nazariy xulosalar sintezlangan. Manbalar sifatiga quyidagi mezonlar qo‘llanilgan: nashr etilgan muassasa obro‘si, davlat ta’lim standartlari tomonidan tasdiqlanganlik va metodologik mustahkamlik.

Psixologik-pedagogik kuzatuv ma’lumotlari – adabiyotlarda keltirilgan kuzatuv va eksperimental tadqiqot natijalaridan ikkilamchi tahlil usulida foydalanilgan. Jumladan, M.G.Davletshin tomonidan o‘zbek maktablarida olib borilgan kuzatuv tadqiqotlari, shuningdek Sh. A. Do‘stmuhamedova tomonidan yosh psixologiyasi bo‘yicha to‘plangan ma’lumotlar asosida jadval va xulosalar tuzilgan.

Tadqiqotning ilmiy manbalar bazasi 15 dan ortiq asardan iborat bo‘lib, ular 1950–2020 yillar oralig‘ida nashr etilgan. Manbalar orasida O‘zbekistonda rasmiy tasdiqdan o‘tgan darsliklar, monografiyalar va xorijda e’tirof etilgan klassik nazariy asarlar mavjud. Tadqiqotning cheklovi shundaki, u nazariy tahlil ustuvorligi bilan amalga oshirilgan bo‘lib, keng ko‘lamli original empirik ma’lumotlar to‘plash tadqiqotning kelajakdagi bosqichi uchun rejalashtirilgan.

Natijalar va muhokama. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, pedagogik muloqot samara dorligi nafaqat o‘qituvchining predmet bilimlari yoki pedagogik mahoratiga, balki birinchi navbatda, uning o‘quvchi yosh guruhining psixologik-ijtimoiy xususiyatlarini qanchalik chuqur tushunishiga bog‘liq. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga nisbatan qo‘llab-quvvatlovchi, vizual va o‘yin elementlarini o‘z ichiga olgan muloqot modelining samaradorligi bir qator tadqiqotlarda tasdiqlangan. M. G. Davletshin va N. N. Azizxo‘jayevaning tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, bunday muloqot muhiti bolaning kognitiv rivojlanishini tezlashtiradi, sinfda xavfsizlik his-tuyg‘usini shakllantiradi va uzoq muddatli o‘rganish motivatsiyasining poydevorini qo‘yadi. Aksincha, qattiq avtoritar va sovuq muloqot bu yoshda maktabga nisbatan

salbiy munosabat va o‘quv qo‘rquvini keltirib chiqarishi mumkin. O‘smirlar guruhida hurmatga asoslangan, mustaqillikni qadrlagan va shaffof feedback bilan birga keladigan muloqot eng yuqori natijalarni ko‘rsatmoqda. E. G‘. G‘oziyev va Sh. A. Do‘stmuhamedovaning asarlarida bu guruhda o‘qituvchining “bitta to‘g‘ri javob” sxemasidan uzoqlashib, munozara va tanqidiy fikrlashni rag‘batlantiruvchi muloqot uslubiga o‘tishi o‘quvchida intellektual mustaqillik va ichki motivatsiyani rivojlantirishini tasdiqlagan. Katta yoshli o‘quvchilar guruhida andragogik model-demokratik dialog, tajribaga hurmat va amaliy yo‘naltirilgan feedback — ta’lim natijalarini sezilarli darajada oshirishini ko‘rsatadi. N. N. Azizxo‘jayeva oliy ta’lim muassasasidagi kuzatuvlarda an’anaviy pedagogik modelning katta yoshli talabalarda qarshilik yoki befarqlik uyg‘otishini qayd etgan. Z. T. Nishonova yetuklik davri psixologiyasi tahlilida ham ushbu xulosa tasdiqlangan.

Pedagogik muhitga ta’siri nuqtayi nazaridan, yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda qurilgan muloqot butun sinfda ijobiy psixologik iqlim (psixologik iqlim guruh a’zolarining emotsional holati va munosabatlar sifatini aks ettiruvchi muhit) yaratadi.R.A.Mavlonovaning pedagogika darsligida ta’kidlanishicha, psixologik xavfsizlik muhiti o‘quvchilarning ijodiy tafakkuri, muammolarni hal qilish ko‘nikmasi va o‘zaro hamkorligi uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Quyidagi jadvalda uchta yosh guruhiga oid pedagogik muloqotning asosiy xususiyatlari qiyosiy tarzda keltirilgan:

Mezon	Boshlang‘ich sinf (7–12 yosh)	O‘smirlar (13–17 yosh)	Katta yoshlilar (18+ yosh)
Muloqot toni	Mehribon, qo‘llab-quvvatlovchi	Hurmatga asoslangan, teng huquqli	Sherik, demokratik
Usul va yondashuv	O‘yin, vizual, hikoya	Munozara, tanlov, mustaqillik	Tajriba integratsiyasi, andragogika
O‘qituvchi roli	Murabbiy, himoyachi, motivator	Yo‘l-yo‘riq beruvchi, hamkor	Fasilitator, maslahatchi
Feedback shakli	Darhol, rag‘batlantiruvchi	Asosli, sababli	Tahliliy, kengashma asosida
Asosiy ehtiyoj	Xavfsizlik, hurmat, maqtov	Tan olinish, mustaqillik	Amaliy foyda, o‘z-o‘zini rivojlantirish

1-jadval. Yosh guruhlariga ko‘ra pedagogik muloqot xususiyatlarining qiyosiy tahlili (M. G. Davletshin, 2002; E. G‘. G‘oziyev, 2020; Z. T. Nishonova va boshq., 2019; X. Xoliqov, 2011 asarlari asosida tuzilgan).

Jadval natijalaridan ko‘rinib turibdiki, o‘qituvchi o‘z muloqot strategiyasini o‘quvchi yoshiga qarab moslashtirib borishi zarur. Bir xil uslubni barcha yosh guruhlarga tatbiq etish ta’lim samaradorligini pasaytiradi va pedagogik munosabatlarda keskinlik yaratadi. X. Xoliqov bu masalaga oid amaliy tavsiyalarida o‘qituvchiga “muloqot pasporti” tuzishni – har bir yosh guruhi uchun alohida muloqot strategiyasini oldindan rejalashtirish va uni darsga tayyorlanish jarayoniga kiritishni taklif etadi.

Xulosa. Ushbu tadqiqot pedagogik muloqotning samaradorligi yosh guruhlariga differensial yondashuv talab etishini ilmiy asosda tasdiqladi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bilan muloqotda qo‘llab-quvvatlovchi, vizual va o‘yin uslubidagi munosabat, o‘smirlar bilan hurmat va mustaqillikka asoslangan teng huquqli dialog, katta yoshlilar bilan andragogik fasilitatsiya modeli eng yuqori pedagogik natijalarni ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Azizxo‘jayeva, N. N.*Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat.* O‘quv qo‘llanma. — Toshkent: O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, 2006.174-bet.

2. Davletshin, M. G.*Zamonaviy maktab o‘qituvchisi psixologiyasi.* — Toshkent: O‘qituvchi nashriyoti, 2002. 208-bet.

3. Do‘stmuhamedova, Sh. A., Nishonova, Z. T., Jalilova, S. X., Karimova, Sh. K., Alimbaeva, Sh. T.*Yosh davrlari va pedagogik psixologiya.* Darslik. — Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU nashriyoti, 2013.343-bet.

4. G‘oziyev, E. G‘.*Umumiy psixologiya.* 1–2-kitob. — Toshkent: Universitet nashriyoti, 2002.320-bet.

5. G‘oziyev, E. G‘.*Ontogenez psixologiyasi.* Darslik. — Toshkent: NIF-MSH nashriyoti, 2020.280-bet.

6. Mavlonova, R. A., Ro‘ziyeva, D. I., Holiqova, N. Q.*Pedagogika.* Darslik. — Toshkent: O‘qituvchi nashriyoti, 2010.366-bet.

7. Nishonova, Z. T., Kamilova, N. G‘., Abdullayeva, D. U., Xolnazarova, M. X.*Rivojlanish psixologiyasi. Pedagogik psixologiya.* Darslik. — Toshkent: TDPU nashriyoti, 2019. 312-bet.

8. Tolipov, O‘., Ro‘ziyeva, D.*Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat.* O‘quv qo‘llanma. — Toshkent: baxt-saodatimiz nashriyoti, 2009.192-bet.

9. Xoliqov, A. A.*Pedagogik mahorat.* Kasb-hunar kolleji o‘quvchilari uchun darslik. — Toshkent: Iqtisod-Moliya nashriyoti, 2011.424-bet.



Sanobar KULDASHEVA,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti O‘zbek tili va uni o‘qitish metodikasi kafedrasi dotsenti, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Email: kuldasheva1777@gmail.com

Gulnoza ABDURAXIMOVA,
Toshkent viloyati pedagogik mahorat markazi ona tili katta o‘qituvchisi
maqsadazimbaev@gmail.com



ONA TILI O‘QITUVCHILARNING KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA AKMEOLOGIK YONDASHUV

Annotatsiya: ushbu maqolada akmeologiya, kasbiy kompetensiya tushunchalari, uning tarkibiy qismlari, zamonaviy ta’limda qanday o‘rni borligi tahlil qilingan. Akmeologiyaning pedagogika bilan bog‘liqligi, bugungi o‘qituvchi o‘z sohasini yaxshi bilishi, pedagogik mahorati, o‘qituvchining o‘zini kasbda namoyon qilish darajasi, kasbdagi ijodkorlik darajasi tahlilga tortilgan.

Kalit so‘zlar: *maktab ta’limi, interfaol yondashuv, o‘quvchi, tadqiqot, sifat, kompetensiya, akmeologiya, texnologiya.*

Annotation: this article analyzes the concepts of acmeology and professional competence, their components, and their role in modern education. It explores the connection between acmeology and pedagogy, emphasizing the importance of today’s teacher having deep subject knowledge, pedagogical mastery, the ability to manifest themselves in the profession, and the level of creativity in their work.

Key words: *school education, interactive approach, student, research, quality, competence, acmeology, technolog*

Аннотация: в данной статье рассматриваются понятия акмеологии и профессиональной компетентности, их составляющие и роль в современном образовании. Анализируется связь акмеологии с педагогикой, подчеркивается важность глубоких знаний современного учителя в своей области, его педагогического мастерства, уровня самореализации в профессии и творческого подхода в работе.

Ключевые слова: *школьное образование, интерактивный подход, ученик, исследование, качество, компетентность, акмеология, технология*

Kirish. Zamonaviy ta’lim muassasalarida ona tili va adabiyot darslarini kuzatish jarayoni o‘qituvchi faoliyatining nafaqat pedagogik, balki funksional-kommunikativ yo‘nalishdagi murakkab jihatlarini ham namoyon etadi. U shunchaki qoidalarni tushuntirmaydi yoki asar mazmunini so‘zlab bermaydi — u bolalarning fikrlashini, nutqini, dunyoqarashini, hatto qalbini shakllantiradi. Shuning uchun ham ona tili va adabiyot o‘qituvchisining kasbiy kompetensiyasi masalasi oddiy metodik muammo emas, balki ta’lim va tarbiyaning yuragiga borib taqaladigan masaladir.

Hozirgi zamon o‘qituvchisidan faqat darslikni bilish talab qilinmaydi. U zamonaviy pedagogik texnologiyalarni tushunishi, o‘quvchini qiziqtira olishi, erkin fikrlashga o‘rgatishi, bahs-munozara muhitini yarata olishi kerak. Eng muhimi u o‘zi ham doimiy o‘sishda bo‘lishi lozim. Chunki o‘zi o‘smagan o‘qituvchi o‘quvchini o‘stira olmaydi. Shu nuqtai nazardan, akmeologik yondashuv alohida ahamiyat kasb etadi.

Akmeologik paradigma doirasida ona tili va adabiyot o‘qituvchisi nafaqat didaktik axborot yetkazuvchi, balki doimiy refleksiyaga moyil, o‘z kasbiy kompetensiyalarini transformatsiya qilib boruvchi subyekt sifatida namoyon bo‘ladi. Uning faoliyati lingvistik qoidalarni o‘rgatish bilan cheklanib qolmay, matnning konseptual mazmunini, so‘zning estetik-semantik quvvatini va badiiy obrazlarning ontologik mohiyatini ochib berishga yo‘naltirilgan intellektual jarayondir. U o‘quvchiga “to‘g‘ri gapirish”ni emas, “to‘g‘ri fikrlash”ni o‘rgatadi. Bu esa o‘qituvchining o‘zi chuqur tafakkurga, boy ma’naviyatga va keng dunyoqarashga ega bo‘lishini talab qiladi.

Bugungi kunda ta’lim tizimida o‘qituvchilarning malakasini oshirishga katta e’tibor qaratilmoqda. Turli kurslar, seminarlar, treninglar tashkil etilmoqda. Ammo ba’zan bu jarayonlar tizimli ichki o‘sishga emas, faqat hujjatli natijaga xizmat qilib qoladi. Akmeologik yondashuv esa masalaga boshqacha qaraydi: u o‘qituvchining ichki motivatsiyasini uyg‘otishga, kasbidan zavq olishiga, o‘zini kasbiy jihatdan to‘liq namoyon etishiga yordam berishni maqsad qiladi. Shu sababli, ona tili va adabiyot o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini aynan akmeologik yondashuv asosida rivojlantirish bugungi ta’lim tizimi uchun zarur va dolzarb masaladir. Bu nafaqat o‘qituvchining shaxsiy muvaffaqiyati, balki o‘quvchining ma’naviy kamoloti, jamiyatning kelajak taraqqiyoti bilan ham bevosita bog‘liqdir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 16-fevraldagi “Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’limni yanada

takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-4958-son Farmoni, 2017-yil 20-apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-son qarori, 2016-yil 13-maydagi “Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to‘g‘risida”gi PF-4797-son Farmoni hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu ilmiy ishimiz muayyan darajada xizmat qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. Avvalo, akmeologiya fanining shakllanishi va rivojlanishi Boris Ananyev nomi bilan bog‘lanadi[1]. U insonning yetuklik davrini kompleks o‘rganish zarurligini asoslab bergan. Keyinchalik Nikolai Kuzmina[2] pedagogik akmeologiya yo‘nalishini rivojlantirib, o‘qituvchining professional mahoratini baholash mezonlarini ishlab chiqqan. Shuningdek, Alexander Derkach[3] va Anatoly Bodalev[4] akmeologik yondashuvning shaxsiy va kasbiy rivojlanish bilan bog‘liq nazariy asoslarini chuqurlashtirgan. Kasbiy kompetensiya tushunchasining pedagogik mazmunini ishlab chiqishda esa Irina Zimnyaya[5], Aleksei Markova[6], Vladimir Slastenin kabi olimlarning ishlari muhim ahamiyat kasb etadi. Ular kompetensiyani shaxsning bilim, ko‘nikma va qadriyatlar tizimi bilan bog‘liq integrativ sifat sifatida talqin qilganlar. G‘arb pedagogikasida kompetensiyaviy yondashuv haqida gap ketganda, avvalo Noam Chomsky nomi tilga olinadi. U tilshunoslikka “competence” va “performance” tushunchalarini kiritib, tilni bilish bilan uni amalda qo‘llash o‘rtasidagi farqni aniq ko‘rsatib berdi. Ya’ni inson ongida mavjud bo‘lgan ichki til tizimi — bu kompetensiya, real nutq jarayonidagi qo‘llanish esa performans hisoblanadi. Bu qarash o‘sha davr uchun yangicha edi, chunki tilni faqat tashqi nutqiy faoliyat orqali baholash yetarli emasligi ayon bo‘ldi. Keyinchalik Dell Hymes bu fikrni yanada kengaytirib, “kommunikativ kompetensiya” tushunchasini ilgari surdi. Unga ko‘ra, tilni bilish faqat grammatik qoidalarni egallash bilangina cheklanmaydi; inson qachon, qayerda, kim bilan va qanday vaziyatda gapirishni ham bilishi kerak. Ya’ni til – bu ijtimoiy hodisa, u muloqot jarayonida yashaydi. Hymes aynan shu jihatni asoslab berdi va til o‘rgatishda real kommunikativ vaziyatlarni hisobga olish zarurligini ko‘rsatdi. Bu ikki olimning qarashlari til o‘qitish metodikasini sezilarli darajada o‘zgartirdi. Bugungi kunda jamiyatimizda, jumladan ta’lim tizimida ham global ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar umuminsoniy vazifaga, ma’naviy dolzarblikka aylanib bormoqda. Kasbiy kompetensiya tushunchasi olimlar tomonidan keng miqyosda o‘rganilmoqda. Xususan, M.X Babayeva M.M.Mo‘minova (2022) tomonidan yaratilgan darslikda bilim, ko‘nikma shaxsiy fazilatlar va rag‘batdan iborat integratsiyalashgan tizim sifatida baholaydilar. Bunda mualliflar pedagogik kompetensiyaning rivojlanish bosqichlari va ularni baholash mezonlari ilmiy jihatdan tahlilga tortilgan. N.S. Mirsagatovaning “Pedagogik mahorat” (2025) darsligida pedagogning shaxsiy va kasbiy o‘sish jarayonida kasbiy kompetensiyaning muhimligini ta’kidlaganlar. Rossiya davlat kasbiy-pedagogik universitetining umumiy va kasbiy ta’lim akmeologiyasi kafedrasi Akimova jamoasi “Pedagogik akmeologiya” nomli kollektiv monografiya ishlab chiqqan bo‘lib, unda pedagogik akmeologiyaning madaniy jihatlari, identifikatsiya qilish muammosi, pedagogik muloqot – akmeologik muammo, muloqotda tolerantlik, akmeologik loyihalash: kattalar ta’limi makoni, pedagogik akmeologiyaning integrativ aloqalari ilmiy jihatdan yoritilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda nazariy-tahliliy yondashuv asosida kontent tahlil usuli qo‘llanildi. Asosiy e’tibor kasbiy kompetensiya tushunchasi va akmeologik yondashuvning ilmiy-nazariy asoslarini o‘rganish, uning tarkibiy qismlarini aniqlash hamda O‘zbekistonda maktab ta’lim tizimidagi zamonaviy pedagoglarning kompetensiyasini rivojlantirishda akmeologik yondashuvga qaratildi.Tadqiqot quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

– Ilmiy adabiyotlar va normativ-huquqiy hujjatlar tahlili – O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli farmon va qarorlari asosida maktab ta’limidagi kompetensiyasini o‘rganishda akmeologik yondashuvning me’yoriy-huquqiy asoslari o‘rganildi.

– Ilmiy-nazariy manbalarni solishtirma tahlili – pedagogik kompetensiya, akmeologiya haqida turli mualliflarning ta’riflari va yondashuvlari o‘zaro solishtiriladi, umumiylik va tafovutlar aniqlab chiqiladi.

– Komponentlar tahlili – kasbiy kompetensiyaning turlari, akmeologiyaning bog‘liqligi va pedagogik faoliyatdagi o‘rni tizimli tarzda umumlashtiriladi.

– Maktab o‘qituvchisi uchun zarur bo‘lgan kompetensiyalarni aniqlashda akmeologiyaning pedagogika bilan uyg‘unligini aniqlash orqali amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Tahlil va natijalar. Kasbiy kompetensiya – bu shaxsning ma’lum bir sohada samarali va sifatli faoliyat olib borishi uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma, malakasi va shaxsiy fazilatlar majmuidir Bu tushuncha zamonaviy pedagogikada keng qo‘llanilmoqda.Ta’limda kasbiy kompetensiya o‘qituvchining nafaqat o‘z fanini chuqur bilishini, balki pedagogik mahorati, innovatsion texnologiyalardan samarali foydalana olish ko‘nikmalarini, kommunikatsion qobiliyatini ham o‘z ichiga oladi. Pedagogik kompetensiya bu darslarni samarali tashkil etish, o‘quvchilarning bilim olishini tizimli yo‘lga qo‘yish bo‘lsa, fanning nazariy va amaliy asoslarini bilish esa o‘z sohasida chuqur bilimga ega bo‘lishini talab etadi. Madaniy va etik kompetensiya muloqot madaniyati, kasbiy odob va halollik bilan belgilanadi. Axborot-kommunikatsion kompetensiya – bu o‘qituvchining AKT bilan ishlash madaniyati, onlayn ta’lim platformalaridan foydalanishni anglatadi. Innovatsion kompetensiya kreativ

1 Ананьев Б. Г. Человек как предмет познания. – Л.: ЛГУ, 1968.
2 Кузьмина Н. В. Профессионализм деятельности преподавателя и мастера производственного обучения. – М.: Высшая школа, 1990.
3 Деркач А. А. Акмеология: личностно-профессиональное развитие человека. – М.: РАГС, 2004.
4 Бодалев А. А. Психология общения. – М.: Институт практической психологии, 1996.
5 Зимняя И. А. Ключевые компетенции – новая парадигма результата образования. – М.: Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов, 2004.
6 Маркова А. К. Психология профессионализма. – М.: Знание, 1996.

g‘oyalarni ilgari surish va amaliyotda qo‘llash qobiliyatidir. Kasbiy kompetensiya faqat nazariy bilim emas, balki amaliyotda ularni qo‘llay olish, moslashuvchan va tanqidiy fikrlash, samarali muloqotga kirishish ko‘nikmalarini o‘z ichiga oladi. Kasbiy kompetensiya pedagogning ish faoliyatida muvaffaqiyatli faoliyat yuritishini ta’minlaydi, ta’lim sifatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Maktab o‘qituvchisining kasbiy kompetensiyasi – bu ta’lim muassasalarida ish yurituvchi pedagogning o‘z sohasiga oid bilim, ko‘nikma va malaka hamda shaxsiy fazilatlar yig‘indisidir. Bu kompetensiyalar o‘quvchi bilan madaniyatli va mazmunli muloqotni yo‘lga qo‘yish, ta’lim sifatining samaradorligini ta’minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Kasbiy faoliyatdagi “akme” – bu mutaxassisning o‘z sohasida barqaror va yuqori natijalarga erishgan darajasi. Akmeologiya faqatgina turli kasblardagi “akme”ni tasniflash bilan cheklanmaydi, balki yuqori darajadagi mutaxassislarni shakllantirish strategiya va texnologiyalarini ishlab chiqadi. Pedagogik akmeologiya insonning individ, shaxs va faoliyat subyekti sifatida – eng avvalo, mutaxassis sifatida cho‘qqiga erishishini o‘rganadi. Pedagogik akmeologiya – bu pedagogning kasbiy mahorat va kompetentligiga erishish yo‘llarini o‘rganuvchi fan. Zamonaviy kasbiy ta’lim tizimida akmeologik yondashuv – bu pedagogning kasbiy motivatsiyasini kuchaytirish, ijodiy salohiyatini ro‘yobga chiqarish, shaxsiy resurslarini aniqlash va ularni samarali ishlatish orqali kasbiy faoliyatda muvaffaqiyatga erishishni ta’minlashdir. Pedagogik mahorat – bu o‘qituvchining professionallik ifodasi, shaxsiy o‘sish vositasi “akme”ga erishish sharti. Ya’ni o‘zini rivojlantiruvchi shaxsning kasbda mahorat cho‘qqisiga intilish xususiyatidir. Bizning ishimizda ona tili o‘qituvchilarining kasbda yetuklikka intilish bosqichlar o‘rganiladi. Bunda pedagog bir necha bosqichlarni bosib o‘tishi kerak bo‘ladi.

1. O‘zining sohasini yaxshi bilishi: kasbiga moslashishi, muhim normalar, usullar va texnologiyalarni o‘zlashtirishi

2. Pedagogik mahorat darajasi: o‘zining sohasida to‘plagan tajribalarni qo‘llay olishi, shaxsiy yondashuv usullarini egallash, bilimlarni o‘quvchilarga yetkazish metodlarini, shaxsga yo‘naltirilgan ta’limni amalga oshirishi kerak

3. O‘qituvchining o‘zini kasbda namoyon qilish darajasi: mutaxassisning shaxsiy rivojlanish imkoniyatlari kasb orqali o‘zini rivojlantirishi, yaxshi sifatlarini kuchaytirish, salbiylarini bartaraf etish, shaxsiy uslubni yaratish

4. Kasbdagi ijodkorlik darajasi: kasbidagi tajribalari orqali shaxsiy ijodiy hissa bilan boyitish, yangi usullar, metodlar yaratish.

Kasbda yuqori darajadagi yetuklikka erishish uchun pedagogik qobiliyat muhim. Ular o‘qituvchining shaxsiy-psixologik xususiyatlari bo‘lib, kasbiy faoliyat talablariga javob beradi. Pedagogik qobiliyat bilan insonning shaxsiy qobiliyati bir-biriga bog‘liq. Shaxsiy qobiliyatlar kasbiy bilimlarni egallash va pedagogik kompetensiyalarni amalga oshirishni yengillashtiradi. Akmeologiyada pedagogik qobiliyat muhimdir. Ya’ni unda pedagogik kuzatuvchanlik, pedagogik xarakter, pedagogik tasavvur, pedagogik takt, tashkilotchilik, nutqning ravonligi, ishonarliligi, ta’sirchanligi bo‘lishi kerak.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda ona tili o‘qituvchisining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda akmeologik yondashuv muhim o‘rin tutadi. O‘qituvchi nafaqat ma’lumot yetkazuvchi, balki o‘rgatuvchi, ilhomlantiruvchi, yo‘naltiruvchi va o‘quvchining intellektual salohiyatini ochuvchi shaxsdir. Ushbu yondashuv ta’lim sifatini ta’minlash, o‘quvchilarning ijodiy yondashuv, mustaqil fikrlash, jamoada ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Shu sababli har bir pedagog o‘z salohiyatini doimiy ravishda oshirib borishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlashda to‘g‘risida”gi PF-5847-son Farmoni.:https://lex.uz/docs/-4545884

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 20-apreldagi “Ilmiy-metodik tadqiqot ishlari sifatini oshirish orqali ta’lim tizimini kompleks rivojlantirishni jadallashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ 128-sonli qarori: https://lex.uz/docs/-6438903

3. Ананьев Б. Г. Человек как предмет познания. – Л.: ЛГУ, 1968.

4. Кузьмина Н. В. Профессионализм деятельности преподавателя и мастера производственного обучения. – М.: Высшая школа, 1990.

5. Деркач А. А. Акмеология: личностно-профессиональное развитие человека. – М.: РАГС, 2004.

6. Бодалев А. А. Психология общения. – М.: Институт практической психологии, 1996.

7. Зимняя И. А. Ключевые компетенции – новая парадигма результата образования. – М.: Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов, 2004.

8. Маркова А. К. Психология профессионализма. – М.: Знание, 1996.

9. M.X. Babayeva, M.M. Mo‘minova Pedagogik kompetentlik.Darslik. – T.: Innovatsiya, 2023.

10. Mirsagatova. Pedagogik mahorat. Darslik. – T.: Fan va texnologiyalar, 2025.

11. **Педагогическая акмеология**: коллективная монография / под. ред. О. Б. Акимовой; ФГАОУ ВПО «Рос. гос. проф.-пед. ун-т». Екатеринбург, 2012.

Zaynab ABDUNAZAROVA,
Termiz davlat pedagogika instituti
p.f.f.d. (PhD)
zaynababdunazarova615@mail.com

YOZUVGA O‘RGATISHNING AMALIY ASOSLARI

Annotatsiya: mazkur maqolada boshlang‘ich ta’lim tizimida yozuvga o‘rgatishning amaliy va ilmiy-nazariy asoslari yoritilgan. Yozuv faoliyatining psixologik, pedagogik va metodik jihatlari tahlil qilinib, o‘quvchilarda grafomotor ko‘nikmalarni shakllantirish jarayoni izohlangan.

Kalit so‘zlar: *kichik harflar, bosh harflar, unsurli harflar, bir xil element, yozilish usuli, harf bog‘lanishi, husnixat qoidalari, grafik o‘xshashlik, harf shakli.*

Аннотация: в данной статье рассматриваются практические и теоретико-научные основы обучения письму в системе начального образования. Анализируются психологические, педагогические и методические аспекты письменной деятельности, а также научно обосновывается процесс формирования графомоторных навыков у учащихся. Также рассматриваются особенности написания строчных и заглавных букв, их графическое сходство и взаимосвязь элементов букв.

Ключевые слова: *малые буквы, заглавные буквы, составные элементы букв, одинаковые элементы, способ написания, соединение букв, правила каллиграфии, графическое сходство, форма буквы.*

Annotation: this article examines the practical and theoretical foundations of teaching writing in the primary education system. It analyzes the psychological, pedagogical, and methodological aspects of writing activity and provides a scientific explanation of the process of developing graphomotor skills in students. It also discusses the features of lowercase and uppercase letters, their graphic similarity, and the interrelation of letter components.

Key words: *lowercase letters, uppercase letters, letter components, identical elements, writing method, letter connection, handwriting rules, graphic similarity, letter shape.*

Kirish. Yozuv — inson tafakkurining tashqi shakli, nutqning grafik ifodasi bo‘lib, u madaniy, bilish va kommunikativ faoliyatning ajralmas tarkibiy qismidir. Boshlang‘ich ta’limda yozuvga o‘rgatishning bosh maqsadi o‘quvchilarda fikrni aniq, izchil va estetik tarzda yozma shaklda ifoda etish ko‘nikmasini shakllantirish, ularni yozma nutq madaniyatiga tayyorlashdan iboratdir. Bu jarayon bolaning nafaqat qo‘l harakati, balki uning tafakkuri, idroki, sezgi va nutqiy faolligini ham rivojlantiruvchi murakkab psixopedagogik tizim sifatida qaraladi.

Yozuvga o‘rgatish murakkab jarayon bo‘lib, u o‘quvchining xarakteriga, kayfiy genik imkoniyatiga bog‘liq bo‘lgan psixolinistik jarayon sanaladi. Maktabga endigina kelgan bolalarni yozuvga o‘rgatish nihoyatda qiyin kechadi. Shuningdek, bolalarni yozuvga o‘rgatish bevosita o‘qishga o‘rgatish bevosita o‘qishga o‘rgatish jarayoni bilan bog‘lab olib boriladi.

Yozuvga o‘rgatish jismoniy va aqliy mehnat talab etadigan og‘ir jarayon hisoblanadi. Yozuvga o‘rgatish jarayoni o‘qituvchilar zimmasiga qator mas’uliyat yuklaydi. Texnik shartlarga quyidagilar kiradi: o‘qituvchi bu jarayonda o‘quvchilarning grafik va orfografik ko‘nikmalarini yaxshi rivojlantirishga harakat qilmog‘i lozim. Grafik malakalari yaxshi rivojlanmagan o‘quvchilar yozuv jarayonida tovushni harfga aylantirish, harfni yozish, ularni bir-biriga ulashda keragidan ortiq vaqt sarflaydilar. Grafik malakalarsiz to‘g‘ri yozuvlar bo‘lishi mumkin emas. Bola qanchalik chiroyli yozsa, undagi yangi narsalarni o‘zlashtirishga qiziqish ortadi. O‘z ichiga sinchkovlik va diqqat bilan qaraydi, yozuvini kuzatib boradi. Yozuvni dastlabki vaqtlarda grafik jihatdangina kuzatsa, keyinchalik orfografik jihatdan ham kuzata boshlaydi.

O‘quvchilarni yozuvga o‘rgatishning muvaffaqiyatli natijasi bir qancha vositalarga bog‘liq bo‘lib, ularni shartli ravishda 2 turga ajratish mumkin.

1. Texnik shartlar
2. Ta’limiy shartlar

1-sinfga qabul qilingan o‘quvchilarda o‘qish va yozishga bo‘lgan qiziqish dastlabki haftalardanoq juda yuqori bo‘ladi. O‘qituvchining muhim vazifasi ushbu tabiiy qiziqishni susaytirmasdan, uni to‘g‘ri pedagogik yo‘naltirishdan iboratdir. Buning uchun bolalarning yoshga xos fiziologik va psixologik xususiyatlarini chuqur o‘rganish zarur hisoblanadi. Birinchi sinf o‘quvchisi harfni yozish jarayonida uning tarkibiy elementlarini, ya’ni chiziqlar yo‘nalishi, elementlarning boshlanish va tugash nuqtalari, shuningdek ularning yozuv chiziqlari orasida joylashuvi va harf o‘lchamini ongli ravishda tasavvur qiladi. Shu sababli boshlang‘ich ta’limda yozuvga o‘rgatish jarayoni bosqichma-bosqich, izchil va tushunarli usullarda tashkil etilishi muhimdir. Boshlang‘ich sinflarda yozuvga o‘rgatishning eng samarali usullaridan biri — harflarni ularning tuzilishiga ko‘ra guruhlarga ajratishdir. Bunda harflarning o‘xshash grafik elementlari asosida tasniflash o‘quvchilarda yozuv malakasining tezroq shakllanishiga yordam beradi hamda yozuvdagi xatoliklarning kamayishiga xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar

Yozuv malakasini shakllantirishda muntazam bajariladigan mashqlar ham muhim rol o‘ynaydi. Xususan, barmoq muskullarining harakatchanligini rivojlantiruvchi mashqlarni tizimli ravishda tashkil etish yozuvning chiroyli va ravon bo‘lishiga yordam beradi. Bundan tashqari, yozuvga o‘rgatishda ko‘rgazmalilik tamoyilidan foydalanish ta’lim

samaradorligini oshiruvchi asosiy didaktik vositalardan biri hisoblanadi.

Ilmiy jihatdan yozuv insonning sensor-motorik, idrokiy va aqliy faoliyati integratsiyasi asosida shakllanadi. L.S. Vygotskiy ta'kidlaganidek, yozma nutq – bu "fikrni belgilarga kodlash", ya'ni tafakkurni belgilar tizimi orqali modellashtirishdir. A.N. Leontyev fikricha, yozuv faoliyati – bu murakkab psixik harakat bo'lib, unda idrok, xotira, diqqat va motorika bir-biriga chambarchas bog'langan. Shu bois, yozuvga o'rgatishning muvaffaqiyati o'quvchining psixologik yetukligi, nerv-mushak tizimining rivojlanganligi va til kompetensiyasining darajasi bilan belgilanadi.

Yozuv faoliyati, birinchi navbatda, psixomotor jarayon hisoblanadi. Bolaning qo'l mushaklarining chiniqishi, barmoqlar harakatining moslashuvi, ko'rish-idrok va harakatning muvofiqlashuvi grafomotor tizimni shakllantiradi. A.R. Luriya bu jarayonni "miya faoliyatining murakkab koordinatsiyasi" sifatida tavsiflab, yozuvni neyropsixologik faoliyatning mahsuli deb bilgan. Yozuv jarayonida ko'z orqali harf shakli idrok etiladi, miya uni qayta ishlaydi, mushaklar esa shu signalga muvofiq harakat qiladi – bu "sensor-motor zanjiri"ning ishlashi demakdir.

Didaktik nuqtayi nazardan, yozuvga o'rgatish onglilik, izchillik, ko'rsatmalilik va takroriylik tamoyillariga asoslanadi. Onglilik tamoyili o'quvchining har bir harf shaklini, chizig'ini va yo'nalishini anglab yozishini talab etadi. Izchillik esa o'quv jarayonining bosqichma-bosqich tashkil etilishini ta'minlaydi – dastlab shakllarni idrok etish, so'ng ularni motorik jihatdan bajarish va keyin avtomatlashtirish. Ko'rsatmalilik tamoyili esa o'quvchini ko'rish orqali o'rganishga tayyorlaydi, chunki vizual idrok yozuv harakatining poydevori hisoblanadi.

Natijalar va muhokama

Yozuv o'rgatishning ilmiy-nazariy asoslaridan yana biri – grafomotor kompetensiya tushunchasidir. Bu, o'quvchining harflarni aniq, muvozanatli, ritmik va estetik shaklda yozish malakasini anglatadi. Grafomotor kompetensiya uch darajada rivojlanadi:

1. Sensor-motor bosqich – bola chiziq, shakl, yo'nalishni tanish orqali qo'l harakatini boshqarishni o'rganadi;

2. Grafik bosqich – bola harflarni idrok etadi, ularni qismlarga ajratadi, chizadi va takrorlaydi;

3. Yozma nutq bosqichi – bola yozuv orqali fikrni tuzadi va ifoda etadi.

Zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda yozuvga o'rgatishning asosiy ilmiy yondashuvlari quyidagilar:

Psixolingvistik yondashuv (Vygotskiy, Luriya) – yozuvni nutq va tafakkur o'rtasidagi ko'prik sifatida o'rganadi;

Kognitiv yondashuv (Bruner, Gardner) – yozuvni fikrlashni tashkil etuvchi mantiqiy faoliyat deb qaraydi;

Aksiologik yondashuv – yozuvni madaniy qadriyat, estetik didni tarbiyalovchi vosita sifatida baholaydi;

Texnopedagogik yondashuv – raqamli texnologiyalar, interfaol va multimodal vositalar orqali yozuvni o'rganish samaradorligini oshirishga qaratilgan.

Yozuvga o'rgatishning maqsadi faqat harflarni to'g'ri chizish emas, balki bola tafakkurida fikrni izchil tuzish, nutqni me'yorlash, estetik ifoda va tafakkur madaniyatini shakllantirishdir. Chunki yozuv – bu shunchaki texnik faoliyat emas, balki insonning intellektual, ruhiy va ma'naviy dunyosini shakllantiruvchi ijtimoiy hodisadir. Yozuvga o'rgatishning ilmiy-nazariy asoslari o'quvchi shaxsining bilish, sezish, harakat va nutq faoliyatini uyg'un rivojlantirishga yo'naltirilgan tizimli pedagogik faoliyatdir. Yozuv orqali o'quvchi nafaqat fikrni ifoda etadi, balki tartib, diqqat, sabr va estetik tuyg'u kabi fazilatlarni o'zlashtiradi. Shu bois yozuv o'rgatish boshlang'ich ta'limda nafaqat nutqiy kompetensiyani, balki shaxsning intellektual va madaniy yetukligini shakllantiruvchi jarayon sifatida baholanadi.

Ko'rgazmalilik 2 xil bo'ladi:

1. Ko'rgazmali tasvir.
2. Ko'rgazmali harakat.

Ko'rgazmali tasvir – bu o'qituvchi tomonidan birorta harfning yozma shakli ifodalangan bo'lsa, shu shakl kichik hajmda, har bir o'quvchining partasiga beriladi. O'quvchilarning o'zlari harfning yozma shaklini ko'rib, daftarlariga yozadilar. Ammo bunday ko'rgazmalarni tayyorlashda ortiqcha bezaklarga o'rin bermaslik lozim. Bu ularni diqqatini chalg'itishi mumkin.

Xulosa. Yuqori sinflarga o'tilgach, o'quvchilar asta-sekin bir chiziqli daftarda yozishga o'rgatiladi. Bu jarayonda harflarning balandligi, eni va satrga nisbatan joylashuvi metodik talablar asosida nazorat qilinadi. Daftardagi hoshiyaning saqlanishi ham yozuv madaniyatining muhim elementi hisoblanadi. Yozuv malakasini shakllantirishda daftarni to'g'ri tutish qoidalariga rioya qilish ham katta ahamiyatga ega. Ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchilariga daftarni parta ustiga to'g'ri qo'yish, yozuv vaqtida gavdani erkin tutish va qo'l harakatlarini muvofiqlashtirish o'rgatilishi kerak. Ushbu qoidalarga amal qilinmasa, yozuv sifati pasayishi, harflarning noto'g'ri shakllanishi va o'quvchining tez charchashi kuzatiladi. Shuningdek, o'quvchilarning daftarlarini bir xil tartibda yuritishga odatlantirish muhim pedagogik talab sanaladi. Daftarlarning ozoda saqlanishi, yozuvlarning saranjomligi va xatolarni to'g'ri tuzatish o'quvchilarda mas'uliyat, tartiblilik va estetik didni shakllantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbek tilining izohli lug'ati. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006–2008.
2. Tilshunoslikka kirish / N. Mahmudov va boshqalar. – Toshkent: O'qituvchi, 2013.
3. Jahon yozuvlari tarixi / A. Nurmonov. – Toshkent: Akademnashr, 2010.
4. Arab yozuvi va xattotlik san'ati / M. Is'hoqov. – Toshkent: Sharq, 2005.
5. Sug'd yozuvi yodgorliklari / M. Is'hoqov. – Toshkent: Fan, 1992.
6. The World's Writing Systems / P. Daniels, W. Bright. – Oxford University Press, 1996.
7. Calligraphy and Islamic Culture / S. Blair. – Edinburgh University Press, 2006.
8. Yunus Azimov, Rustambek Qo'ldoshev. Husnixatga o'rgatishning amaliy asoslari. – Buxoro, 2020.

To‘lqin G‘OZIBEKOV,
Maxsus kasbiy fanlar kafedrasi dotsenti,
podpolkovnik

TA’LIM TARBIYADA OTA-ONALAR, MAKTAB VA KENG JAMOATCHILIKNING HAMKORLIGINING HUQUQIY ASOSLARI

Annotatsiya: maqolada ta’lim-tarbiya jarayonida shaxsning bir qator axloqiy jihatlari shakllanadi va maktabgacha ta’lim muassasasi, umumta’lim maktab va ota-onalarning hamkorligini qanday yo‘lga qo‘yilishi bilan bog‘liq ma’lumotlar, tavsiyalar va yo‘l-yo‘riqlar keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: *oilani mustahkamlash, bola tarbiyasi, davlat va jamiyat, bolaning ijobiy fazilatlari, metod, qadriyat, estetik tarbiya, onalik va bolalik, ota-onalar burchagi, kun tartibi.*

Annotation: this article presents information, recommendations, and guidelines for fostering collaboration between preschool educational institutions, comprehensive schools, and parents in developing a range of moral aspects of personality.

Key words: *strengthening the family, raising a child, state and society, positive child qualities, method, values, aesthetic education, motherhood and childhood, parenting corner, agenda.*

Аннотация: в данной статье представлена информация, рекомендации и руководства по развитию сотрудничества между дошкольными образовательными учреждениями, общеобразовательными школами и родителями в формировании различных моральных аспектов личности.

Ключевые слова: *укрепление семьи, воспитание ребенка, государство и общество, позитивные качества ребенка, метод, ценности, эстетическое воспитание, материнство и детство, родительский уголок, повестка дня.*

Ta’lim-tarbiya jarayonida shaxsning bir qator axloqiy jihatlari shakllanadi-ki, boshqa hech qaysi tarbiya obyekti oiladagidek yuqori natija bermaydi. Ularga insonparvarlik, mehr-muruvvat, rahm-shafqat, hamdardlik, muomala madaniyati, burch va sadoqat, minnatdorchilik kabi insoniy fazilatlar turadi.

Bola tarbiyasida oilaning barcha a’zolaridan nafaqat bolalarga nisbatan to‘g‘ri munosabatni, balki ularning taqdiri uchun yuksak ma’suliyat hissini ham talab qiluvchi qiyin va murakkab ishdir. Oilada tarbiyani har tomonlama, jumladan ma’naviy, axloqiy, aqliy, estetik, jismoniy va mehnat tarbiyalarini birgalikda olib borish yaxshi samara beradi.

Milliy va ma’naviy tarbiyani bolaga o‘tmishda Vatan ravnaqi, el-yurt tinchligi va farovonligi yo‘lida kurashgan xalq qahramonlari haqida gapirib berish, davlatimizning ramziy belgilari bilan tanishtirish, mustaqillik, Vatan haqidagi she’r va qo‘shiqlarni yod oldirish, qadriyat va an’analarimizni orgatish orqali singdirish mumkin.

Har-bir ota-onalar voyaga yetayotgan farzandlarining jismoniy barkamolligiga o‘ta ma’suliyat bilan qarashlari lozim. Masalan: ertalabki badantarbiya mashqlarini bolalar bilan birgalikda bajarish, to‘g‘ri va vitaminlashtirilgan ovqat berish, dam olishni, uyquni to‘g‘ri tashkil etish, vaqtida shifokor nazoratidan o‘tkazishlari zarur[1]. Farzand tarbiyasida, mehnat tarbiyasi muhim sanaladi. Bolalarni mehnatga muhabbat ruhida tarbiyalash, ularda mehnat qilish odobini shakllantirish va ko‘nikmalar hosil qilishda, ularning qiziqishlari hisobga olingandagina erishiladi. Ota-onalar bolani maktabga tayyorlashda unda mehnat ko‘nikma va malakalarini hosil qilishga, mehnatga ehtiyojni tarbiyalashga, boshqalarning mehnatini qadrlashga, mehnat natijalarini ehtiyot qilishga o‘rgatishga jiddiy e’tibor berishlari lozim. Mehnat bolalarda uyushqoqlik, diqqat, saranjom-sarishtalikni tarbiyalash, shuningdek, maqsadga erishishda sabot va matonat kabi iroda xususiyatlarini rivojlantirish vositasidir.

Mamlakatimizda tarbiyani maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalar bilan boshlash bilan birga ota-onalar oilada tarbiyalashni, ota-onalar bilan hamkorlikni bundan keyin yanada takomillashtirish yo‘llarini izlab topish oilaviy tarbiyaning ijtimoiy tarbiya bilan aloqasini mustahkamlash maktabgacha ta’lim tashkilotlari xodimlari pedagogik omillar, bu sohada ilmiy ish olib boruvchi tadqiqotchilar va uslubchilarning muhim vazifasidir. Bolalarni tarbiyalash davlat ahamiyatidagi vazifadir. Uning to‘g‘ri hal qilinishi

1 Sh. Do‘stmuhamedova, M. Mavlonov, S. To‘ychiyeva. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya (o‘quv-metodik qo‘llanma). TDPU, — T., 2004.

tarbiya ishining qo‘yilishiga kompleks yondashishga tarbiyaviy muassasalarning, oila va jamiyatchilikning to‘liq o‘zaro ta’siri va harakatlarning birligiga bog‘liq.

Har-bir tarbiyachi o‘z tarbiyaviy faoliyati jarayonida yangi pedagogik texnologiya materiallaridan va tarbiyaning samarali metod va usullaridan foydalana, bolaning yosh, ruhiy-fiziologik xususiyatlari inobatga olinsa, tarbiya berishning samaradorligi yanada takomillashib boradi

Tarbiyachi har bir bolaning imkoniyatlarini aniqlab olishi kerak, bolalar o‘zi yashayotgan jamoaga munosabatiga qarab bir necha guruhlarga bo‘linadi:

1-guruh: Ijobiy xulqli bolalar bo‘lib, ular tez do‘stlashadilar. Ularni jamoa a’zolari hurmat qiladi. Bu toifadagi bolalar jamoaning faollari bo‘lib, tarbiyachi jamoa munosabatlarini o‘rnatishda ularga suyanadi.

2-guruh: faol tashabbusga qo‘shiladi, ammo beqaror bo‘ladi.

3-guruh: tortinchoq bo‘lib o‘yinda qatnashmaydilar, ta’limiy faoliyatlarda sust bo‘ladilar. Bunday bolalarga alohida e’tibor zarur.

Tarbiyachi har bir guruh bolalari bilan individual yondashib, ularni bir-biri

bilan o‘zaro munosabatga kirishib, do‘stlashishga yordam beradi.

MTTning asosiy pedagogik vazifasi – bolalarni yuksak ma’naviy-axloqiy ruhda tarbiyalash va ularni maktabda o‘qishga har tomonlama tayyorlashda ota- onalarga muntazam ravishda yordam ko‘rsatishdan iborat.

Oilada tarbiyani har tomonlama, jumladan mafkuraviy, axloqiy, estetik, jismoniy va mehnat tarbiyasini birgalikda olib borish yaxshi samara beradi. Masalan:

Mafkuraviy tarbiyani bolaga o‘tmishimizda vatan ravnaqi, el-yurt tinchligi, va farovonligi yo‘lida kurashgan xalq qahramonlari haqida gapirib berish, davlatimizning ramziy belgilari bilan tanishtirish, mustaqillik, vatan haqidagi she’r va qo‘shiqlarni yod oldirish orqali singdirish mumkin. Shuningdek farzandlarimizda Vatan himoyasiga har doim tayyorlik tuyg‘usini shakllantirishimiz lozim.

Masalan, ota-onalarni maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabga tayyorlash masalasi qiziqtiradi. Bu tushunarli, chunki o‘quv mehnati zo‘r berishni, harakatni, qat’iylikni, natijaga erisha bilishni talab qiladi. Maktabgacha yoshdagi bola mehnatning bu yangi turiga faqat ta’limiy faoliyatlar jarayonidagina emas, balki istalgan mehnat topshiriqlarini bajarish vaqtida tayyorlanadi. MTTlarning oila bilan ishlash tizimida aniq maqsad, mazmun bo‘lishi kerak. MTTning ota-onalar bilan ishlashidan jamoa tarzida va yakkama-yakka holda ishlash shakllarini mohirlik bilan qo‘shib olib borish, keng aholi ommasi orasida pedagogik tashviqot ishlarini tashkil qilish tufayli bolalarni tarbiyalashda ijobiy natijalarga erishish mumkin. MTT xodimlaridan ota- onalar va oila bilan hamkorlikdagi ishlaridan eng keng tarqalgan shakl va usullarini keltiramiz.

Ota-ona va maktab bilan yakkama-yakka ishlash. Bunda oilaga tarbiyachining

borishi, ota-onalar uchun suhbat o‘tkazish, ularga maslahat berish, ota-onalarni bolaning MTTdagi hayoti bilan tanishtirish kabilar kiradi.

Mahallalarda Ota-onalar bilan jamoatchilik vakillari bilan hamkorlikda tashkil qilinadigan ishlar. Bular ota-onalarning guruhiy va umumiy majlislari, ota-onalar maktabi, anjumanlar, shanbaliklar, savol-javob kechalari tashkil etish.

Ota-onalar majlisiga maktabgacha ta’lim muassasalarida hamma guruh bolalarining ota-onalari, parallel guruhlar ota-onalari va bitta guruh bolalarining ota-onalari taklif etilishi mumkin. Umumiy majlisda ota-onalarni maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarni har tomonlama rivojlantirish va tarbiyalash vazifalari, shu yilgi rejalar, ota-onalar qo‘mitasining faoliyati, oila tarbiyasidagi ilg‘or tajribalar bilan tanishtiriladi. Bunda majlisda mudira yoki metodist-tarbiyachi ma’ruza qiladi, ota-onalar so‘zga chiqishadi, bolalar gapirishadi. Bular ta’lim-tarbiya ishidagi yutuq va kamchiliklarni aniqlab olishga imkon beradi, oila va jamoatchilik aloqasini mustahkamlaydi, ota-onalarning o‘z bolasining tarbiyasi uchun javobgarligini oshiradi, ularda Maktabgacha ta’lim tashkilotiga qiziqish uyg‘onadi. Guruhdagi ota-onalar majlisida mazkur yoshdagi bolalarning ota-onalari uchun dolzarb bo‘lgan masalalar muhokama qilinadi. Masalan, umumiy majlis mavzusi «Bolalarga axloqiy tarbiya berishda oilaning roli» bo‘lsa, o‘rta guruhda o‘tkaziladigan majlisda bu mavzu murakkablashtirilib, «Bolalarda mehnatsevarlikni tarbiyalashda Maktabgacha ta’lim muasasalari va oilaning birgalikdagi ishlari», «Bolalarda kattalarga hurmatni tarbiyalash» va hokazo bo‘lishi mumkin. Ota-onalar uchun tayyorlangan ma’ruzani bolalar ishini, tegishli mavzudagi kinofilm, diapozitivlar ko‘rish bilan qo‘shib olib boorish mumkin.

Voyaga yetmaganlarning hayotiy faoliyati to‘g‘risidagi misollardan foydalanganda ijobiy materiallar ko‘proq bo‘lishi kerak, salbiy faktlarni gapirishda ehtiyotkorlik va odob doirasidan chetga chiqmaslik,tanqid qilinuvchilarning nomlari ko‘rsatilmasligi lozim. Tanqidiy

mulohazalar majlisdan keyin yakka tartibdagi suhbat orqali ota-onalarga yetkazilishi, bola tarbiyasidagi xato va kamchiliklarni bartaraf etish bo‘yicha aniq tavsiyalar taklif etilishi mumkin. Yilning oxirida o‘tkaziladigan guruh majlisida ota-onalarga bir yil mobaynida amalga oshirilgan ta’lim-tarbiya ishlari va kelgusi yilning rejalari, haqida gapirib beriladi. Bu majlisda faol ota-onalar ham hisob beradilar va faollarning yangi tarkibi saylanadi.

Kelajak avlodni maktabga tayyorlashda maktab bilan hamkorlikning ahamiyati o‘rinlidir. Bolalar maktabgacha ta’lim muassasasida ularni maktabga tayyorlash jarayonida bolalarning ruhiyatida kelajakka va ta’limga e’tiborni shakllantirish katta ahamiyat kasb etadi.

Chunki ta’lim muasasalari o‘rtasidagi o‘rnatiladigan hamkorlikning har tomonlamaligi bolalarni maktab ta’limiga tayyorlash vazifasini muvaffaqiyatli amalga oshirishning asosiy shartidir. Bolalar maktabgacha ta’lim muasasalari va maktab o‘rtasidagi bog‘liqlik bir tomondan bolalarni maktab ta’limi talablariga javob beradigan darajada umumiy rivojlantirib va odobli qilib tarbiyalagan holda maktabga o‘tkazishni, ikkinchi tomondan, o‘qituvchining katta maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarning egallagan bilim, malaka sifatlariga va tajribalariga tayanib, o‘quv tarbiyaviy jarayonda foydalanishni taqozo etadi. Bolalar maktabgacha ta’lim muassasalari va maktab o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik katta maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalar va maktabning boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga ta’lim-tarbiya berish sharoitini yaqinlashtirishga yordam beradi. Maktabgacha ta’lim tashkilot xodimlari birinchi sinfda bolalar oldiga qo‘yiladigan talablarni yaxshi bilishlari, maktabga tayyorlov guruhidagi bolalarni shunga muvofiq ravishda ta’lim olishga tayyorlashlari kerak. Maktab va maktabgacha ta’lim muassasalari o‘rtasidagi uzviy aloqa murakkab va ko‘p tomonlama tuzilishga ega. Unda ta’lim-tarbiyaviy ishlarning mazmuni, metod va usullari, tashkiliy shakllari, shuningdek bolalarni tarbiyalash shart-sharoitlari va pedagogik talab kabi yetakchi tomonlarini ajratib ko‘rsatish mumkin. Bunda quyidagilarga e’tibor berish kerak:

1. Maktab talabi nuqtayi nazaridan bolalar bilimlarni chuqurroq egallab olishlari lozim.

2. Maktabgacha ta’lim muassasalari nuqtayi nazaridan bolalarni maktab talabi darajasidagi bilim, malaka, ko‘nikmalar bilan qurollantirish zarur.

3. Bolalarni maktabga ruhiy tayyorligi.

Bu yerda vazifa bolalar mehnatning har qanday turiga tayyor turishlari, ularda aqliy mehnat – bilishga qiziqishni o‘stirish, ularni kelajakdagi mustaqil hayotga tayyorlashdan iborat. Maktab bilan maktabgacha ta’lim muassasalari o‘rtasida uzviy aloqa asosini bolalar maktabgacha ta’lim muassasalari va maktabda amalga oshiriladigan ta’lim-tarbiya ishlari mazmunini belgilovchi dasturlar o‘rtasidagi bog‘liqlik tashkil etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sh. Do‘stmuhamedova, M. Mavlonov, S. To‘ychiyeva. Yosh Davrlari va pedagogic psixologiya (o‘quv-me- todik qo‘llanma). — T.: TDPU, 2004.

2. Z. Nishanova. Bolalar psixodiagnostikasi. Toshkent: TDPU nashriyoti, 1998.

3. M. Rasulova, D. Abdullayeva, S. Oxunjonova. Bolalarning maktabga psixologik Tayyorligi. — Toshkent, 2003.

4. S.X. Jalilova va boshqalar. Shaxsning psixik taraqqiyoti diagnostikasi. — Toshkent, 2009.

5. Melikboboyevich, S. U. (2024). Bolalarning psixik rivojlanishiga o‘yinchoqlarning ta’siri. samarali ta’lim va barqaror innovatsiyalar jurnali, 2(2), 172-179.

6. Abdukarimovich, T. Y. L., Melikboboyevich, S. U., & Isokovich, U. F. (2024). Xotira haqidagi qarashlar va xotirani rivojlantirish. samarali ta’lim va barqaror innovatsiyalar jurnali, 2(2), 109-117.

7. Melikboboyevich, S. U. (2024). maktabgacha yoshdagi BOLALARDA o‘yin faoliyatining xususiyatlari. bola hayotida o‘yinning ahamiyati. nazariy va amaliy fanlardagi ustuvor islohotlar va zamonaviy ta’limning innovatsion yo‘nalishlari, 1(2), 85-92.

8. Melikboboyevich, S. U., Davrbek o‘g‘li, m. d., & Azamat Jo‘rakul o‘g, x. (2024). Shaxsda salbiy tuzilmalarning paydo bo‘lishi. Samarali ta’lim va barqaror innovatsiyalar jurnali, 2(2), 218-228.

Ranohon AZIMBAYEVA,
Xorijiy tillar ta'limi kafedrasi dotsenti, TDIU

AKADEMIK LITSEY O'QUVCHILARIDA INGLIZ TILIDAGI MATNLARNI O'QIB TUSHUNISHNI RIVOJLANTIRISHDA KLASTER TEXNOLOGIYASINING DIDAKTIK IMKONIYATLARI

Annotatsiya: mazkur maqolada akademik litsey o'quvchilarida ingliz tilidagi matnlarni o'qib tushunish ko'nikmalarini rivojlantirishda klaster texnologiyasining didaktik imkoniyatlari tahlil qilinadi. Klaster texnologiyasining o'quvchilarning matn mazmunini anglash, asosiy g'oya va tushunchalarni ajratib olish, mantiqiy fikrlash hamda mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishdagi o'rni yoritiladi. Mazkur texnologiyaning o'qish jarayonini interfaol tashkil etish, o'quvchilarning faolligini oshirish va ingliz tilidagi matnlar bilan ishlash samaradorligini ta'minlashdagi ahamiyati asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: *ingliz tili, o'qib tushunish, matn, klaster texnologiyasi, didaktik imkoniyatlar, interfaol metodlar, o'qish ko'nikmasi, ta'lim samaradorligi.*

Аннотация: в данной статье анализируются дидактические возможности кластерной технологии в развитии навыков понимания английских текстов у учащихся академических лицеев. Освещается роль кластерной технологии в формировании у учащихся умений понимать содержание текста, выделять основную идею и ключевые понятия, развивать логическое мышление и навыки самостоятельной работы. Также обосновывается значение данной технологии в интерактивной организации процесса чтения, повышении познавательной активности учащихся и обеспечении эффективности работы с английскими текстами.

Ключевые слова: *английский язык, понимание прочитанного, текст, кластерная технология, дидактические возможности, интерактивные методы, навыки чтения, эффективность обучения.*

Annotation: this article analyzes the didactic potential of cluster technology in developing English reading comprehension skills among academic lyceum students. It highlights the role of cluster technology in improving students' ability to understand text content, identify the main idea and key concepts, as well as develop logical thinking and independent learning skills. The article also substantiates the importance of this technology in organizing the reading process interactively, increasing students' learning activity, and ensuring the effectiveness of working with English texts.

Key words: *English language, reading comprehension, text, cluster technology, didactic potential, interactive methods, reading skills, learning effectiveness.*

Kirish. Bugungi kunda xorijiy tillarni o'qitish tizimida o'quvchilarning o'qib tushunish ko'nikmalarini rivojlantirish muhim metodik masalalardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Ayniqsa, akademik litsey o'quvchilarining ingliz tilidagi matnlar bilan mustaqil ishlashi, matn mazmunini anglab yetishi, asosiy va ikkilamchi g'oyalarni farqlashi zamonaviy ta'limning dolzarb vazifalaridan hisoblanadi. Chunki o'qib tushunish nafaqat til materialini o'zlashtirishga, balki o'quvchilarning mantiqiy, tahliliy va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishga ham xizmat qiladi.

Ta'lim jarayonida an'anaviy usullar bilan bir qatorda interfaol pedagogik texnologiyalardan foydalanish o'quvchilarning darsdagi faolligini oshirish, ularni erkin fikrlashga undash hamda bilimlarni tizimli ravishda o'zlashtirishga yordam beradi. Shunday texnologiyalardan biri klaster texnologiyasi bo'lib, u muayyan mavzu yuzasidan tushunchalar, g'oyalar va bog'lanishlarni vizual tarzda ifodalash imkonini beradi. Mazkur texnologiya o'quvchilarning matnni yaxlit idrok etishi, undagi muhim tushunchalarni aniqlashi hamda o'zaro aloqador fikrlarni tizimlashtirishida samarali vosita bo'lib xizmat qiladi.

Ingliz tilidagi matnlarni o'qib tushunish jarayonida klaster texnologiyasidan foydalanish o'quvchilarning oldingi bilimlarini faollashtirish, yangi ma'lumotlarni mavjud bilimlar bilan bog'lash va matn mazmunini chuqurroq anglashga ko'maklashadi. Ayniqsa, bu texnologiya matnni o'qishdan oldingi, o'qish jarayonidagi va o'qib bo'lgandan keyingi bosqichlarda qo'llanilganda yuqori samaradorlikni namoyon etadi. Natijada o'quvchilar matnni shunchaki o'qib chiqish bilan cheklanmay, balki uning mazmun-mohiyatini tahlil qilish, umumlashtirish va xulosa chiqarish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot akademik litsey o'quvchilarida ingliz tilidagi matnlarni o'qib tushunishni rivojlantirishda klaster texnologiyasining didaktik imkoniyatlarini aniqlashga qaratildi. Tadqiqotning metodologik asosi sifatida kompetensiyaviy, kommunikativ va faoliyatga yo'naltirilgan yondashuvlar tanlandi. Buning sababi shundaki, zamonaviy o'qish nazariyalarida o'qib tushunish jarayoni faqat matndagi axborotni qabul qilish emas, balki o'quvchining avvalgi bilimlari, lug'aviy zaxirasi, kontekstni anglash va fikriy faoliyatining o'zaro integratsiyasi sifatida talqin etiladi. Xususan, interaktiv o'qish modeli o'qish jarayonida turli darajadagi ko'nikmalar birgalikda ishlashini, bunda yuqoridan pastga va pastdan yuqoriga strategiyalar uyg'unlashishini asoslaydi [3]. Shuningdek, Grabe [4] o'qib tushunishni tushuntirishda turli nazariy modellar va ularning ta'lim amaliyotiga ta'sirini alohida ko'rsatadi.

Tadqiqotda klaster texnologiyasi o'quvchilarning matn mazmunini anglashiga xizmat qiluvchi vizual-kognitiv vosita sifatida qaraldi. Novak va Cañas [8] konseptual xaritalarni bilimni tashkil etish va ifodalashga xizmat qiluvchi grafik vosita deb tavsiflaydi; ular tushunchalar orasidagi bog'lanishlarni ko'rsatish, mazmunni iyerarxik tartibda joylashtirish hamda yangi aloqalarni ko'rish imkonini beradi. Shu jihatdan klaster texnologiyasi ham o'quvchiga matndagi asosiy tushunchalar, tayanch g'oyalar va ular o'rtasidagi mantiqiy bog'lanishlarni aniqlashga yordam beradi

[5]. Ayniqsa, klasterning vizual tabiatga ega bo‘lishi o‘quvchining tafakkurini faollashtiradi, matnni yaxlit ko‘rish va uni qismlarga ajratib tahlil qilishga sharoit yaratadi.

Tadqiqot jarayonida nazariy va empirik metodlar uyg‘un holda qo‘llanildi. Nazariy bosqichda o‘qib tushunish, interfaol ta’lim, grafik organayzerlar va klaster texnologiyasiga oid ilmiy adabiyotlar tahlil qilindi, qiyoslandi va umumlashtirildi. Empirik bosqichda esa pedagogik kuzatish, suhbat, savolnoma, tajriba-sinov ishlari hamda o‘quvchilar faoliyati natijalarini qiyosiy tahlil qilish usullaridan foydalanildi. Klasterlar matnni o‘qishdan oldingi bosqichda mavzu bo‘yicha mavjud bilimlarni faollashtirish, o‘qish jarayonida asosiy g‘oyalarni ajratish, o‘qib bo‘lgach esa mazmunni umumlashtirish va tizimlashtirish uchun tatbiq etildi. Grafik organayzerlardan to‘g‘ri va maqsadli foydalanish matnni tushunishga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi haqidagi ilmiy xulosalar ham aynan shu yondashuvni tanlashga asos bo‘ldi.

Tadqiqot natijalarini aniqlashda sifat va miqdoriy tahlil usullaridan foydalanildi. Bunda o‘quvchilarning matn mazmunini anglash darajasi, asosiy g‘oyani topish, tayanch tushunchalarni ajratish, matn asosida xulosa chiqarish va mazmunni qayta ifodalash ko‘rsatkichlari tahlil qilindi. Metodologik jihatdan klaster texnologiyasining qo‘llanishi o‘quvchilarning matn bilan faol ishlashini ta’minlovchi, ularning mustaqil va mantiqiy fikrlashini rivojlantiruvchi didaktik vosita sifatida baholandi. Shu asosda tadqiqotda klaster texnologiyasi ingliz tilidagi matnlarni o‘qib tushunishni rivojlantirishga xizmat qiluvchi samarali metodik yechim sifatida talqin qilindi.

Natijalar va muhokama. Tadqiqot jarayonida olingan natijalar shuni ko‘rsatdiki, ingliz tilidagi matnlar bilan ishlashda klaster texnologiyasidan foydalanish akademik litsey o‘quvchilarining o‘qib tushunish ko‘nikmalarini rivojlantirishda samarali didaktik vosita bo‘lib xizmat qiladi. Xususan, klaster asosida tashkil etilgan topshiriqlar o‘quvchilarga matndagi asosiy g‘oya, tayanch tushunchalar va ikkilamchi ma’lumotlarni ajratib olishda yengillik yaratdi. Natijada o‘quvchilar matn mazmunini yaxlit anglash, axborotni tartibga solish va mazmuniy bog‘lanishlarni aniqlashda nisbatan faolroq ishtirok etdilar. Bu esa o‘qish jarayonining faqat matnni ovoz chiqarib yoki ichda o‘qish bilan cheklanmay, balki uni tahlil qilish, guruhlash va umumlashtirish bilan boyitilganini ko‘rsatdi.

Muhokama jarayonida aniqlanishicha, klaster texnologiyasining eng muhim afzalliklaridan biri o‘quvchilarning fikrlash faoliyatini vizual asosda faollashtirishidir. Ayniqsa, matnni o‘qishdan oldingi bosqichda klasterdan foydalanish o‘quvchilarning mavzu bo‘yicha avvalgi bilimlarini yuzaga chiqarishga, taxminlar ilgari surishga va matn mazmunini oldindan bashorat qilishga yordam berdi. O‘qish jarayonida esa klasterlar matndagi asosiy va qo‘shimcha g‘oyalar o‘rtasidagi munosabatlarni ko‘rsatishda samarali vosita bo‘ldi. O‘qib bo‘lgandan keyin klaster tuzish orqali o‘quvchilar matn mazmunini qisqa, mantiqiy va tizimli ifodalash imkoniga ega bo‘ldilar. Shu jihatdan mazkur texnologiya nafaqat o‘qib tushunishni, balki mantiqiy fikrlash, umumlashtirish va mustaqil xulosa chiqarish ko‘nikmalarini ham rivojlantiradi.

Tadqiqot natijalari klaster texnologiyasining ta’lim jarayonini interfaol tashkil etishga xizmat qilishini ham ko‘rsatdi. Dars davomida o‘quvchilarning faol ishtiroki, fikr almashuvi va hamkorlikda ishlashi kuchaydi, bu esa ularning matnga nisbatan qiziqishini oshirdi. Muhokama natijalariga ko‘ra, klaster texnologiyasidan muntazam foydalanish o‘quvchilarda ingliz tilidagi matnlar bilan ishlashga nisbatan ishonchni mustahkamlaydi va o‘qish faoliyatining samaradorligini oshiradi.

Xulosa. Mazkur tadqiqot natijalari akademik litsey o‘quvchilarida ingliz tilidagi matnlarni o‘qib tushunishni rivojlantirishda klaster texnologiyasi muhim didaktik imkoniyatlarga ega ekanini ko‘rsatdi. Ushbu texnologiya o‘quvchilarga matn mazmunini chuqurroq anglash, asosiy va ikkilamchi g‘oyalarni ajratish, tushunchalar o‘rtasidagi bog‘lanishlarni aniqlash hamda axborotni mantiqiy tartibga solishda samarali yordam beradi. Klaster texnologiyasi asosida tashkil etilgan o‘qish faoliyati o‘quvchilarning bilish faolligini oshiradi, mustaqil va tanqidiy fikrlashini rivojlantiradi, shuningdek, matn bilan ishlash jarayonini interfaol va mazmunli tusga kiritadi.

Shu bilan birga, klaster texnologiyasidan foydalanish o‘qish darslarini metodik jihatdan takomillashtirish, o‘quvchilarning ingliz tilidagi matnlar bilan ishlashga bo‘lgan qiziqishi va ishonchini mustahkamlashga xizmat qiladi. Ayniqsa, mazkur texnologiyani o‘qishning turli bosqichlarida maqsadli qo‘llash o‘quvchilarning o‘qib tushunish ko‘nikmalarini izchil shakllantirish imkonini beradi. Demak, klaster texnologiyasi akademik litsey sharoitida ingliz tilini o‘qitishda samarali pedagogik vosita sifatida amaliy ahamiyat kasb etadi va uni ta’lim jarayoniga kengroq joriy etish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Anderson, N. J. (2003). Teaching reading. In D. Nunan (Ed.), Practical English Language Teaching (pp. 67–86). – New York: McGraw-Hill.

2.Azimbayeva, Ranohon Yuldashevna. MODERN METHODS IN LEARNING ENGLISH // ORIENSS. 2022. №7. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/modern-methods-in-learning-english-1

3.Azimbayeva, Ranohon MOTIVATION AS A TOOL OF LEARNING FOREIGN LANGUAGES. (2023). Modern Science and Research, 2(5), 583-587. https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/20321

4.Azimbayeva, Ranohon Yuldashevna. Using different methods in teaching English. (2024). Eurasian Scientific Herald, 31, 11-14. https://geniusjournals.org/index.php/esh/article/view/5848

5.Pang, E. S., Muaka, A., Bernhardt, E. B., & Kamil, M. L. (2003). Teaching Reading. Brussels and Geneva: International Academy of Education; International Bureau of Education.

6.Ben-David, R. (2002). Enhancing Comprehension through Graphic Organizers. Kean University.

7.Anvarova, F. THE ROLE OF TEACHING LISTENING AT SCHOOL // ORIENSS. 2022. №10. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/the-role-of-teaching-listening-at-school (дата обращения: 02.05.2026).

Madina MIRKASIMOVA,
Nizomiy nomidagi O‘zbekiston Milliy pedagogika universiteti PhD, dotsenti

INGLIZ TILINI O‘QITISHDA KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYANI INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Annotatsiya: mazkur maqolada ingliz tilini o‘qitishda kommunikativ kompetensiyani integrativ yondashuv asosida rivojlantirish metodikasi tahlil qilinadi. Unda kommunikativ kompetensiyaning tarkibiy komponentlari, ingliz tili darslarida nutqiy faoliyat turlarini uyg‘unlashtirish, talabalarning amaliy muloqotga tayyorgarligini kuchaytirish va ta’lim jarayonida interaktiv metodlardan foydalanish masalalari yoritiladi.

Kalit so‘zlar: *ingliz tili, kommunikativ kompetensiya, integrativ yondashuv, nutqiy faoliyat, metodika, interaktiv ta’lim, kasbiy tayyorgarlik.*

Аннотация: в данной статье анализируется методика развития коммуникативной компетенции в преподавании английского языка на основе интегративного подхода. Рассматриваются структурные компоненты коммуникативной компетенции, вопросы взаимосвязанного развития видов речевой деятельности, усиления готовности студентов к практическому общению и использования интерактивных методов в образовательном процессе.

Ключевые слова: *английский язык, коммуникативная компетенция, интегративный подход, речевая деятельность, методика, интерактивное обучение, профессиональная подготовка.*

Annotation: this article analyzes the methodology for developing communicative competence in English language teaching based on an integrative approach. It discusses the structural components of communicative competence, the interconnected development of speech activities, strengthening students’ readiness for practical communication, and the use of interactive methods in the educational process.

Key words: *English language, communicative competence, integrative approach, speech activity, methodology, interactive learning, professional training.*

Kirish. Bugungi kunda ingliz tilini o‘qitish jarayoni ta’lim tizimida muhim ilmiy-amaliy yo‘nalishlardan biri sifatida qaralmoqda. Ingliz tili xalqaro muloqot, ilmiy axborot almashinuvi, akademik harakatchanlik, kasbiy hamkorlik va madaniyatlararo munosabatlarning asosiy vositalaridan biriga aylangan. Shu sababli ingliz tilini o‘rgatish jarayonida talabalarning grammatik bilimini rivojlantirish bilan cheklanib qolmasdan, ularni real kommunikativ vaziyatlarda erkin, aniq va maqsadga muvofiq fikr bildirishga tayyorlash zarur.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-son Farmoni bilan tasdiqlangan “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”da ta’lim sifatini oshirish, yoshlarning zamonaviy bilim va ko‘nikmalarni egallashi uchun shart-sharoit yaratish, inson kapitalini rivojlantirish kabi muhim vazifalar belgilangan [1]. Mazkur vazifalar chet tillarni, xususan ingliz tilini o‘qitish metodikasini zamonaviy talablar asosida takomillashtirishni taqozo etadi.

Ingliz tilini samarali o‘qitish talabaning tinglab tushunish, gapirish, o‘qish va yozish ko‘nikmalarini o‘zaro bog‘liq holda rivojlantirishga asoslanadi. Amaliyotda ayrim hollarda ushbu ko‘nikmalar alohida mashqlar orqali shakllantiriladi. Bunday yondashuv tilni real muloqot vositasi sifatida egallash imkoniyatini cheklashi mumkin. Chunki tabiiy kommunikativ jarayonda inson tinglaydi, fikrni qayta ishlaydi, javob beradi, matnni o‘qiydi, xulosa chiqaradi va yozma yoki og‘zaki shaklda munosabat bildiradi.

Mazkur maqolaning maqsadi ingliz tilini o‘qitishda kommunikativ kompetensiyani integrativ yondashuv asosida rivojlantirishning metodik imkoniyatlarini tahlil qilishdan iborat. Shuningdek, maqolada kommunikativ kompetensiyaning tarkibiy jihatlari, nutqiy faoliyat turlarini uyg‘unlashtirish yo‘llari, interaktiv metodlarning o‘rni va ta’lim jarayonida qo‘llash mumkin bo‘lgan metodik tavsiyalar yoritiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot ingliz tilini o‘qitishda kommunikativ kompetensiyani integrativ yondashuv asosida rivojlantirish metodikasini ilmiy-nazariy jihatdan asoslashga qaratilgan. Tadqiqotning metodologik asosini kommunikativ, kompetensiyaviy, integrativ, shaxsga yo‘naltirilgan va faoliyatga asoslangan yondashuvlar tashkil etadi.

Kompetensiyaviy yondashuv ingliz tilini o‘qitish natijasini aniq bilimlar majmuasi bilan cheklamaydi. U talabaning tilni vaziyatga mos qo‘llashi, muloqot jarayonida strategik qaror qabul qilishi, nutqiy xatolarni tuzatishi va kommunikativ maqsadga erishish qobiliyatini ham qamrab oladi. L.F. Bachman kommunikativ til qobiliyatini til kompetensiyasi, strategik kompetensiya va psixofiziologik mexanizmlar bilan bog‘liq holda tahlil qiladi [4]. Bu fikr ingliz tili ta’limida talabaning til imkoniyatlari va amaliy nutqiy harakatlarini birgalikda rivojlantirish zarurligini ko‘rsatadi.

Tadqiqotda nazariy tahlil, sintez, umumlashtirish, qiyoslash va tizimlashtirish metodlaridan foydalanildi. Nazariy tahlil orqali kommunikativ kompetensiyaga oid ilmiy qarashlar o‘rganildi. Sintez metodi yordamida ingliz tilini o‘qitishda nutqiy faoliyat turlarini bog‘lashning metodik imkoniyatlari aniqlashtirildi. Umumlashtirish asosida integrativ yondashuvga tayanadigan dars tuzilmasi, topshiriqlar tizimi va baholash mezonlari bo‘yicha ilmiy xulosalar ishlab chiqildi.

Tadqiqotda D. Hymes [2], M. Canale va M. Swain [3], L.F. Bachman [4], J.C. Richards va T.S. Rodgers [5], H.D. Brown [6],

D. Nunan [7], J. Harmer [8], J.J. Jalolov [9] hamda N.D. Galskova [10] kabi olimlarning chet til o‘qitish metodikasiga oid qarashlari nazariy manba sifatida olindi. Ularning ilmiy qarashlari ingliz tilini o‘qitishda kommunikativlik, faoliyatlilik, talaba shaxsiga yo‘naltirilganlik va metodik izchillik tamoyillarini asoslashga xizmat qiladi.

Natijalar va muhokama. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ingliz tilini o‘qitishda kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish darsning maqsadi, mazmuni, metodlari, topshiriqlari va baholash mezonlari o‘rtasidagi izchil bog‘liqlikni talab etadi. Agar darsda asosiy maqsad kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish deb belgilansa, unda mashqlar ham real muloqotga yaqin bo‘lishi, talabani nutqiy faollikka undashi, fikrni mustaqil ifodalashga yo‘naltirishi kerak.

Kommunikativ kompetensiya grammatik, sotsiolingvistik, diskursiv va strategik kompetensiyalardan tashkil topadi. Ular talabaning grammatik jihatdan to‘g‘ri, vaziyatga mos, mantiqiy va samarali muloqot olib borishini ta’minlaydi [3]. D. Nunan topshiriqqa asoslangan ta’limni ingliz tilini amaliy maqsadlarda o‘rganishning samarali usuli sifatida baholaydi [7]. Bu yondashuvda til qoidalar majmui emas, balki amaliy faoliyat vositasi sifatida qo‘llanadi. Masalan, taqdimot tayyorlash, muhokama qilish yoki email yozish kabi topshiriqlar bir vaqtning o‘zida bir nechta ko‘nikmani rivojlantiradi. J.C. Richards va T.S. Rodgers yondashuv, metod va texnikaning o‘zaro bog‘liqligini ta’kidlaydi [5]. Shu sababli darsdagi har bir topshiriq umumiy maqsadga xizmat qilishi, o‘qish, muhokama va yozma faoliyatlar esa o‘zaro metodik bog‘liqlikda tashkil etilishi muhimdir.H.D. Brown ingliz tilini o‘qitishda motivatsiya, shaxsiy faollik, interaktivlik va madaniy kontekstni muhim omillar sifatida ko‘rsatadi [6]. Talaba o‘z fikrini bildirishga ehtiyoj sezsa, til birliklarini faolroq o‘zlashtiradi. Shu sababli ingliz tili darslarida talabaning shaxsiy tajribasi, qiziqishi, kasbiy ehtiyoji va kommunikativ maqsadini hisobga olish zarur. J.Harmer ingliz tili darslarida o‘qituvchining tashkilotchi, yo‘naltiruvchi, kuzatuvchi va baholovchi vazifalarini tahlil qiladi [8]. Integrativ yondashuvda o‘qituvchi darsning barcha bosqichlarini metodik jihatdan bog‘laydi. U talabalarga tayyor javob bermaydi. Ularni savol berish, tahlil qilish, muhokama qilish va mustaqil xulosa chiqarishga yo‘naltiradi.

Integrativ yondashuv asosida tashkil etilgan ingliz tili darslarida quyidagi metodik bosqichlar muhim ahamiyatga ega. Birinchi bosqich – motivatsion-tayyorlov bosqichi. Bu bosqichda mavzuga kirish, talabalarning avvalgi bilimlarini faollashtirish, asosiy muammo yoki kommunikativ vazifani belgilash amalga oshiriladi. Masalan, “Why is English important for professional development?” savoli orqali talabalar mavzuga jalb qilinadi. Ikkinchi bosqich – axborot bilan ishlash bosqichi. Talabalar matn, audio yoki video material asosida asosiy ma’lumotni aniqlaydi. Bu jarayonda o‘qib tushunish yoki tinglab tushunish ko‘nikmasi rivojlanadi. O‘qituvchi matnni oddiy tarjima qilishga emas, mazmunni anglash, asosiy fikrni ajratish va dalillarni topishga yo‘naltiradi. Uchinchi bosqich – kommunikativ amaliyot bosqichi. Bu bosqichda talabalar juftlikda yoki guruhda fikr almashadi. Savol-javob, rolli o‘yin, munozara, intervyu, vaziyatli dialog, loyiha topshirig‘i kabi metodlardan foydalaniladi. Bu jarayon gapirish ko‘nikmasini rivojlantiradi. To‘rtinchi bosqich – yozma mustahkamlash bosqichi. Talabalar o‘rganilgan mavzu asosida qisqa xulosa, esse, elektron xat, izoh, reja yoki taqdimot matnini yozadi. Bu bosqich yozma nutqni rivojlantirishga xizmat qiladi. Beshinchi bosqich – refleksiv baholash bosqichi. Talabalar o‘z faoliyatini baholaydi. Ular qaysi so‘z va iboralardan foydalangani, fikrni qanday ifodalagani, qaysi jihatda qiynalgani va keyingi darsda nimalarga e’tibor qaratishi kerakligini tahlil qiladi.

Integrativ yondashuv asosidagi dars talabalarning mustaqil fikrlashi, kommunikativ faolligi va amaliy nutqiy tajribasini oshiradi. Bunday darsda ingliz tili grammatik tizim sifatida emas, balki ijtimoiy muloqot, akademik faoliyat va kasbiy rivojlanish vositasi sifatida o‘zlashtiriladi.

Kommunikativ kompetensiyani baholashda ham integrativ mezonlardan foydalanish zarur. Talabaning faqat grammatik to‘g‘riligi emas, balki fikr izchilligi, leksik boyligi, talaffuzi, vaziyatga mosligi, suhbatni davom ettirish qobiliyati, savol bera olishi va munosabat bildira olishi ham baholanishi kerak. Bu baholash talabaning haqiqiy kommunikativ tayyorgarligini aniqlashga yordam beradi.

Xulosa. Mazkur tadqiqot natijalari ingliz tilini o‘qitishda kommunikativ kompetensiyani integrativ yondashuv asosida rivojlantirish metodik jihatdan dolzarb ekanini ko‘rsatadi. Zamonaviy ingliz tili ta’limida talabaning til birliklarini bilishi yetarli natija sifatida qaralmaydi. Asosiy e’tibor uning real kommunikativ vaziyatda ingliz tilidan maqsadga muvofiq, aniq va izchil foydalana olishiga qaratiladi.

Kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishda interaktiv metodlar, topshiriqqa asoslangan ta’lim, autentik materiallar, refleksiv tahlil va raqamli vositalardan maqsadli foydalanish muhim o‘rin tutadi. Bu vositalar talabalarning nutqiy faolligini oshiradi, mustaqil fikrlashini kuchaytiradi va ingliz tilini amaliy faoliyat vositasi sifatida egallashga yordam beradi.

Umuman olganda, ingliz tilini o‘qitishda kommunikativ kompetensiyani integrativ yondashuv asosida rivojlantirish ta’lim sifatini oshirish, talabalarning amaliy muloqotga tayyorgarligini kuchaytirish va ularni zamonaviy kasbiy muhitga mos mutaxassis sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bois ingliz tili darslarida nutqiy faoliyat turlarini o‘zaro bog‘liq holda tashkil etish, kommunikativ topshiriqlar tizimini takomillashtirish va baholash mezonlarini kompetensiyaviy asosda ishlab chiqish muhim ilmiy-amaliy vazifa sifatida e’tirof etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Richards J.C., Rodgers T.S. Approaches and Methods in Language Teaching. – Cambridge: Cambridge University Press, 2001. 270 p.
2.Brown H.D. Principles of Language Learning and Teaching. – New York: Pearson Education, 2014. 416 p.
3.Nunan D. Task-Based Language Teaching. – Cambridge: Cambridge University Press, 2004. 222 p.
4.Harmer J. The Practice of English Language Teaching. – Harlow: Pearson Longman, 2007. 448 p.
5.Jalolov J.J. Chet til o‘qitish metodikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2012. 432- b.
6.Гальскова Н.Д. Современная методика обучения иностранным языкам. – Москва: АРКТИ, 2003. 192 с.

Nodira SHABBAZOVA,
Termiz davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi
nodirashabbozova@gmail.com

PEDAGOGIK TA’LIM KLASTERIDA KREATIV-DIDAKTIK TRANSFORMATSIYA MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya: mazkur maqolada pedagogik ta’lim klasteri muhitida bo‘lajak pedagoglarning kreativ-didaktik faoliyatini rivojlantirishga xizmat qiluvchi innovatsion transformatsion mexanizmlar ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy e’tibori talabalarning metodik moslashuvchanligi, refleksiv tafakkuri hamda kreativ pedagogik qaror qabul qilish kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan integrativ metodik tizimni ishlab chiqishga yo‘naltirilgan. Zamonaviy pedagogik tayyorgarlik tizimida reproduktiv metodlarning ustunligi talabalarni real pedagogik vaziyatlarga innovatsion yondashuv asosida tayyorlash imkoniyatlarini cheklayotgani aniqlangan.

Kalit so‘zlar: *pedagogik ta’lim klasteri, kreativ pedagogika, didaktik transformatsiya, refleksiv integratsiya, metodik moslashuvchanlik*

Аннотация: в данной статье с научно-педагогической точки зрения анализируются инновационные механизмы развития креативно-дидактической трансформации будущих педагогов в условиях педагогического образовательного кластера. Основное внимание исследования направлено на разработку интегративной методической системы, ориентированной на развитие методической гибкости, рефлексивного мышления и компетенций принятия инновационных педагогических решений у студентов. Установлено, что доминирование репродуктивных методов в современной системе педагогической подготовки ограничивает возможности формирования у студентов инновационного подхода к решению реальных педагогических ситуаций.

Ключевые слова: *педагогический образовательный кластер, креативная педагогика, дидактическая трансформация, рефлексивная интеграция, методическая гибкость, виртуальная педагогическая симуляция*

Annotation: this article scientifically analyzes innovative mechanisms for developing creative-didactic transformation of future teachers within the framework of a pedagogical education cluster. The study focuses on designing an integrative methodological system aimed at developing students’ methodological flexibility, reflective thinking, and competencies for making innovative pedagogical decisions. It was found that the dominance of reproductive methods in the modern system of teacher education limits students’ ability to apply innovative approaches to solving real pedagogical situations. During the research, experimental observations were conducted based on creative-reflective monitoring, pedagogical modeling, virtual simulations, and micro-innovative lesson projects.

Key words: *pedagogical education cluster, creative pedagogy, didactic transformation, reflective integration, methodological flexibility*

Zamonaviy ta’lim tizimida pedagogik faoliyatning mazmuni keskin o‘zgarib, bo‘lajak o‘qituvchidan faqat nazariy tayyorgarlik emas, balki murakkab pedagogik vaziyatlarni kreativ asosda tahlil qilish, ta’lim muhitini moslashtirish hamda innovatsion metodik yechim ishlab chiqish kompetensiyasi talab qilinmoqda [1, 52-b]. Shu sababli didaktik ijodkorlik pedagogik faoliyatning qo‘shimcha komponenti emas, balki kasbiy tayyorgarlikning strategik yadrosi sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim tizimida o‘quvchilarning individual ehtiyojlari va emotsional faolligiga mos metodik konstruktsiyalar yaratish pedagogning kreativ moslashuvchanligini talab etadi [2, 58-b]. Pedagogik oliy ta’lim tizimi tahlili shuni ko‘rsatadiki, talabalarning metodik faoliyati ko‘p hollarda reproduktiv xarakter kasb etmoqda. Dars ishlanmalari tayyor qoliplar asosida tuziladi, mavjud metodik sxemalar takrorlanadi, biroq yangi pedagogik model yaratishga yo‘naltirilgan kreativ faoliyat yetarli shakllanmayapti [3, 84-b]. Natijada bo‘lajak pedagoglarda innovatsion pedagogik qaror qabul qilish, metodik improvizatsiya va refleksiv tahlil ko‘nikmalari sust rivojlanmoqda. Bu holat pedagogik ta’lim tizimida kreativ-didaktik transformatsiyani ta’minlaydigan yangi metodik mexanizmlarni ishlab chiqishni dolzarb ilmiy muammo sifatida yuzaga chiqarmoqda. Pedagogik ta’lim klasteri mazkur muammoni bartaraf etishga xizmat qiluvchi integrativ model sifatida alohida pedagogik imkoniyatlarga ega [4, 76-b]. Klaster muhiti universitet, umumta’lim maktablari, metodik markazlar va amaliyot subyektlarini yagona kreativ maydonga birlashtirib, talabalarning nazariy bilimlarini real pedagogik faoliyat bilan integratsiyalash imkonini yaratadi. Ayniqsa, pedagogik modellashtirish, refleksiv monitoring va metodik transformatsiya jarayonlari didaktik ijodkorlik rivojining funksional mexanizmi sifatida namoyon bo‘ladi [5, 304-b].

Tadqiqotning metodologik asosini kreativ pedagogika, refleksiv faoliyat nazariyasi, adaptiv didaktika hamda integrativ klaster yondashuvi tashkil etdi. Mazkur yondashuvlar pedagogik faoliyatni qat’iy metodik qoliplar asosida emas, balki o‘zgaruvchan ta’lim muhiti va individual pedagogik

vaziyatlarga moslashuvchi dinamik tizim sifatida talqin qilish imkonini beradi. Tadqiqotda didaktik ijodkorlik talabaning tayyor metodik konstruksiyalarni takrorlash qobiliyati emas, balki yangi pedagogik model yaratish, mavjud metodlarni transformatsiya qilish hamda o‘quv vaziyatlariga kreativ moslashish kompetensiyasi sifatida izohlandi [6, 328-p]. Shu asosda pedagogik ta’lim klasterida tahsil olayotgan talabalarning kreativ faoliyati ko‘p bosqichli refleksiv monitoring orqali o‘rganildi. Monitoring jarayonida metodik moslashuvchanlik, didaktik transformatsiya, refleksiv faollik, innovatsion pedagogik qaror qabul qilish va kreativ kommunikativ faoliyat ko‘rsatkichlari asosiy diagnostik indikatorlar sifatida belgilandi. Tadqiqot davomida pedagogik ta’lim klasteri uchun “kreativ-refleksiv integratsiya modeli” ishlab chiqildi. Mazkur model diagnostik-faollashtirish, kreativ-modellashtirish, integrativ-amaliyot va refleksiv-transformatsion bosqichlarni o‘z ichiga olib, talabalarning didaktik ijodkorligini bosqichma-bosqich rivojlantirishga yo‘naltirildi. Diagnostik-faollashtirish bosqichida talabalar kreativ faoliyatga psixologik va metodik jihatdan tayyorlandi, ulardagi mavjud metodik stereotiplar aniqlashtirildi. Kreativ-modellashtirish bosqichida esa talabalar an’anaviy metodlarni qayta transformatsiya qilish, yangi pedagogik konstruksiyalar ishlab chiqish va o‘quv vaziyatlarini kreativ asosda modellashtirish faoliyatiga jalb qilindi. Integrativ-amaliyot bosqichi real pedagogik muhit bilan uzviy bog‘lanib, talabalarning amaliyot maktablarida innovatsion metodik faoliyat olib borishiga yo‘naltirildi. Refleksiv-transformatsion bosqichda esa talabalar o‘z metodik faoliyatini tahlil qilish, pedagogik xatolarni aniqlash va didaktik faoliyatni takomillashtirish strategiyalarini ishlab chiqishga o‘rgatildi [7, 214-b]. Ayniqsa, “mikroinnovatsion dars modeli” texnologiyasi asosida qisqa formatdagi kreativ mashg‘ulotlarni loyihalash, pedagogik vaziyatlarni qayta konstruktsiyalash va interaktiv metodlarni kombinatsiyalash jarayoni didaktik ijodkorlikni rivojlantirishning samarali mexanizmi sifatida sinovdan o‘tkazildi.

Tadqiqot natijalari pedagogik ta’lim klasteri doirasida shakllantirilgan kreativ-integrativ muhit talabalarning didaktik faoliyatiga sezilarli transformatsion ta’sir ko‘rsatganini namoyon etdi. Kuzatuv va diagnostik tahlillar davomida talabalar faoliyatida metodik stereotiplardan chiqish, pedagogik vaziyatlarga mos kreativ yechim ishlab chiqish hamda refleksiv tahlil asosida didaktik qaror qabul qilish ko‘rsatkichlari sezilarli darajada kuchaygani aniqlandi [8, 53-b]. Ayniqsa, an’anaviy mashg‘ulotlardan farqli ravishda pedagogik modellashtirish asosida tashkil etilgan interaktiv faoliyat talabalarning metodik moslashuvchanligini rivojlantirishda yuqori samaradorlik ko‘rsatdi. Tadqiqot davomida talabalar tomonidan ishlab chiqilgan kreativ dars konstruksiyalarida muammoli vaziyatlarni integratsiyalash, o‘quvchilar emotsional faolligini hisobga olish hamda pedagogik kommunikatsiyani interaktiv tashkil etishga alohida e’tibor qaratilgani kuzatildi. Bu esa didaktik ijodkorlikning faqat nazariy tushuncha emas, balki amaliy pedagogik faoliyatning funksional elementi sifatida shakllanayotganini ko‘rsatdi.

Integrativ-amaliyot bosqichida ishlab chiqilgan kreativ dars konstruksiyalari amaliyot maktablarida sinovdan o‘tkazildi va ular orqali talabalarning real pedagogik muhitga moslashuvchanligi baholandi. Mashg‘ulotlar davomida “mikroloyihaviy refleksiya” texnologiyasi qo‘llanilib, talabalar o‘z metodik faoliyatidagi kuchli va zaif jihatlarni mustaqil ravishda tahlil qilish imkoniyatiga ega bo‘ldilar. Jarayon davomida talabalar pedagogik vaziyatlarni qayta konstruksiyalash, mavjud metodlarni transformatsiya qilish hamda yangi didaktik kombinatsiyalar yaratishga faol jalb qilindi [9, 37-p]. Natijada ularda pedagogik improvizatsiya, kreativ metodik transfer va adaptiv qaror qabul qilish kompetensiyalarining rivojlanish dinamikasi kuzatildi. Ayniqsa, o‘quvchilarning individual xususiyatlariga mos metodik strategiyalar ishlab chiqishda talabalarning mustaqil pedagogik tafakkuri sezilarli faollashgani aniqlandi.

Pedagogik ta’lim klasterida kreativ-didaktik transformatsiya mexanizmlarini rivojlantirish bo‘lajak pedagoglarni zamonaviy innovatsion faoliyatga tayyorlashning strategik metodik yo‘nalishlaridan biri sifatida namoyon bo‘ldi. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, pedagogik tayyorgarlikni faqat nazariy bilimlarni o‘zlashtirish asosida tashkil etish bo‘lajak o‘qituvchilarning real pedagogik vaziyatlarga moslashuvchanligini to‘liq ta’minlamaydi. Shu sababli pedagogik ta’lim jarayonida kreativ modellashtirish, refleksiv monitoring va metodik transformatsiyaga asoslangan integrativ yondashuvlarni qo‘llash zarurati kuchaydi. Ishlab chiqilgan “kreativ-refleksiv integratsiya modeli” talabalarning metodik moslashuvchanligi, pedagogik improvizatsiyasi, refleksiv tafakkuri va innovatsion pedagogik qaror qabul qilish kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qildi. Mazkur model pedagogik faoliyatni reproduktiv metodik sxemalardan kreativ-faoliyat tizimiga transformatsiyalash imkonini berdi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Азизхўжаева Н.Н. Педагогик технология ва педагогик маҳорат. – Т.: Fan va texnologiya, 2020. – 348 б.
2. Выготский Л.С. Мышление и речь. – М.: Лабиринт, 2005. – 352 с.
3. Давыдов В.В. Теория развивающего обучения. – М.: Интор, 1996. – 544 с.
4. Жўраев Р.Х., Толипов Ў.Қ. Педагогик технологиялар ва инновatsion таълим. – Т.: O‘qituvchi, 2019. – 276 б.
5. Ишмухамедов Р., Йўлдошев М. Таълим ва тарбияда инновatsion педагогик технологиялар. – Т.: Nihol, 2021. – 312 б.
6. Robinson K. Creative Schools: The Grassroots Revolution That’s Transforming Education. – London: Penguin Books, 2015. – 320 p.
7. Леонтьев А.Н. Деятельность. Сознание. Личность. – М.: Политиздат, 1977. – 304 с.
8. Муслимов Н.А. Касбий таълим педагогикаси. – Т.: Fan, 2017. – 368 б.
9. Очилов М. Янги педагогик технологиялар. – Т.: Aloqachi, 2018. – 256 б.
10. Robinson K. Out of Our Minds: Learning to be Creative. – Oxford: Capstone Publishing, 2011. – 328 p.

Zuhra TO‘RAYEVA,
Nizomiy nomidagi O‘zbekiston Milliy pedagogika universiteti mustaqil izlanuvchisi

O‘QUVCHILARDA DISKURSIV KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISHGA TA’SIR ETUVCHI OMILLAR

Annotatsiya: o‘quvchilarning diskursiv kompetensiyasini rivojlantirish zamonaviy ta’limning muhim maqsadi hisoblanadi, chunki u o‘quvchilarga turli ijtimoiy va akademik sharoitlarda samarali, mantiqiy va o‘rinli muloqot qilish imkonini beradi. Diskursiv kompetensiya izchil og‘zaki va yozma matnlar tuzish, muloqotni davom ettirish, ma’nolarni talqin qilish va vaziyat va o‘zaro ta’sir maqsadiga muvofiq tildan foydalanish qobiliyatini o‘z ichiga oladi. O‘quvchilarda ushbu kompetensiyaning shakllanishi va takomillashishiga ko‘plab omillar ta’sir qiladi.

Kalit so‘zlar: *diskursiv kompetensiya, kommunikativ kompetensiyasi modellari, kommunikativ qobiliyat, pedagogik strategiyalar, til o‘rganish metodologiyasi.*

Annotation: the development of students’ discursive competence is an important goal of modern education, as it allows students to communicate effectively, logically and appropriately in various social and academic situations. Discursive competence includes the ability to construct coherent oral and written texts, to maintain communication, to interpret meanings and to use language in accordance with the situation and purpose of interaction. Many factors influence the formation and improvement of this competence in students.

Key words: *discursive competence, communicative competence models, communicative ability, pedagogical strategies, language learning methodology.*

Аннотация: развитие дискурсивной компетенции учащихся является важной целью современного образования, поскольку позволяет им эффективно, логично и уместно общаться в различных социальных и академических ситуациях. Дискурсивная компетенция включает в себя способность строить связные устные и письменные тексты, поддерживать коммуникацию, интерпретировать смыслы и использовать язык в соответствии с ситуацией и целью взаимодействия. На формирование и совершенствование этой компетенции у учащихся влияет множество факторов.

Ключевые слова: *дискурсивная компетенция, модели коммуникативной компетенции, коммуникативные способности, педагогические стратегии, методика изучения языка.*

Kirish. Hozirgi jadal rivojlanayotgan zamonimizda ilm-fan, texnika ham shiddat bilan o‘sib bormoqda. Har bir sohanning taraqqiy etishida keng ko‘lamli qadamlar tashlanmoqda. Ha, albatta, o‘tgan yillarga qaraganda, hozirgi yillarda ingliz tilini o‘rganishga bo‘lgan ishtiyoq ortdi. O‘zbekistonimizda ham bu borada ko‘p ishlar olib borildi. Bu imkoniyatdan o‘quvchi, talabalar oqilona foydalansa maqsadga muvofiq bo‘lardi. Yoshlarimizda bugungi kunda chet tilini o‘rganishga bo‘lgan ishtiyoq va maqsad ustun chunki o‘quvchilarimiz biladiki hozirgi olgan bilimlari albatta kelajakda maqsadli tarzda o‘z samarasini ko‘rsatadi. Albatta, qiziqish bilan o‘rganayotgan yoshlarda aniq bir maqsad bo‘lmasa bu qiziqishlari so‘nishi mumkin. Inson o‘z maqsadi sari olg‘a intilishi kerak. Maqsadni to‘g‘ri qo‘ya bilgan o‘quvchi ishonamizki o‘ylagan rejasiga qarab boradi. Albatta, xorijiy tilni o‘rganmasdan qanday qilib ilm olish mumkin?!

Yoshlarimizning bilim darajasi yuqori bo‘lishi uchun kelajakda O‘zbekistonimizda yetuk kadrlarni tayyorlab berish uchun hozirdan maktab o‘quvchilarimizni tilga qiziqtirish kerak. Ularni zamonaviy texnologiyalardan foydalanib bilim darajasini oshirib borshimiz kerak. Shu munosabat bilan keyingi yillarda universitetda nafaqat zamonaviy texnik vositalar, balki o‘quv jarayoniga yangicha yondashuvlar bo‘lgan axborot texnologiyalaridan foydalanish ko‘lami tobora kengaymoqda. Bu chet tillarini o‘qitishning asosiy maqsadi: talabalarning kommunikativ madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish, ularning chet tilini amaliy o‘zlashtirishi bilan bog‘liq. Universitet o‘qituvchisining vazifasi har bir talabaning tilni amaliy o‘zlashtirishi uchun barcha sharoitlarni yaratishdan iborat. Bu uning faolligi va ijodkorligini ko‘rsatishga imkon beradigan o‘qitish usullarini tanlashni o‘z ichiga oladi. Bu turli axborot texnologiyalari va internet resurslaridan foydalanish bilan bog‘liq zamonaviy innovatsion texnologiyalarning maqsadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ingliz tilini o‘qitishda diskursiv kompetensiyani rivojlantirish talabalar nutqiy kompetensiyasini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Kollej va litsey o‘quvchilarida chet til kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish asosiy maqsadlardan biri bo‘lib, u grammatik, sotsiolingvistik, strategik va diskursiv subkompetensiyalardan tashkil topadi [1–6]. M. Canale va M. Swain dastlab uchta komponentni ajratgan bo‘lsa, keyinchalik M. Canale modelni diskursiv kompetensiya bilan boyitdi [5; 6]. Diskursiv kompetensiya nutqning uyg‘unligi va izchilligini ta’minlaydi, ya’ni fikrlarning grammatik, mantiqiy hamda semantik jihatdan yaxlit ifodalanishiga xizmat qiladi.

Chet tilini o‘qitishda ona tili va chet tilidagi nutq kompetensiyalari o‘zaro bog‘liq bo‘lib, madaniyatlararo muloqot uchun ijtimoiy-madaniy kompetensiyani ham rivojlantirish zarur hisoblanadi. N.V. Popova diskursiv kompetensiyani real muloqot vaziyatida izchil va mantiqiy nutq yaratish qobiliyati sifatida izohlaydi [5]. Shuningdek, Layl Baxman kommunikativ qobiliyat modelida grammatik va matnli kompetensiyalar bilan bir qatorda pragmatik jihatlarni ham muhim deb hisoblaydi [1]. Bu yondashuv o‘quvchining o‘z bilimlarini real og‘zaki va yozma muloqotda samarali qo‘llashiga e’tibor qaratadi.

Tadqiqot metodi. Ushbu tadqiqot sifatli tahlil metodlariga asoslangan bo‘lib, ingliz tilini o‘qitishda diskursiv kompetensiyaning ahamiyati ustida olib borilgan ilmiy ishlarni o‘rganish, mavjud pedagogik yondashuvlarni tahlil qilish va ularning samaradorligini baholashga qaratilgan. Tadqiqot, avvalo, M. Canale va M. Swain va boshqalar tomonidan olib borilgan ishlar natijasida shakllangan bilimlarga asoslanadi, ularning tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, o‘quvchilar tomonidan bajarilgan nutqiy kompetensiyasi topshiriqlar natijasida so‘z boyligi, grammatik aniqlik va talaffuz sezilarli darajada yaxshilanadi.

Diskursiv kompetensiya nafaqat to‘liq va izchil matnlarni yaratish, balki turli turdagi munozaralar va ularni tuzish qoidalarini bilish, ularni kommunikativ vaziyatga muvofiq talqin qilish va muloqot vaziyatining tildan tashqari xususiyatlarini, muloqot ishtirokchilarining rollarini va kommunikatsiya ishtirokchilarining yagona jarayon doirasida muloqot qilish usullarini hisobga olgan holda ushbu munozaralarni yaratish qobiliyatidir.[7].

E.V.Schumannga ko‘ra, diskursiv kompetensiya o‘quvchilarning og‘zaki yoki yozma ravishda taqdim etilgan mantiqiy va izchil nutq bayonotlarini tushunish va yaratish qobiliyatidir. Yetarlicha rivojlangan nutq kompetensiyasiga ega talabalar nutqning pragmatik, grammatik, leksik va fonologik to‘g‘riligi kommunikativ harakat natijasiga qanday ta’sir qilishini bilishadi; ular tilni to‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘llash orqali o‘rganish imkoniyatlaridan va kompensatsion strategiyalar ularga notanish elementlarni o‘z ichiga olgan matnlar bilan qanday kurashishga yordam berishidan xabardor. O‘rganilayotgan chet tili so‘zlashuvchilari bilan bevosita aloqada bo‘lish orqali bunday talabalar o‘z ixtiyoridagi resurslar va strategiyalardan foydalanib, kommunikativ o‘zaro ta’sirga kirishlari mumkin. Shuningdek, quyidagi jadvalda biz talabalarning nutq kompetensiyasini shakllantirish orqali nimani qo‘lga kiritishimiz va yaratishimiz mumkinligini ko‘rishimiz mumkin:

Yuqoridagilar bilan bog‘liq holda:

– chet tilidagi bayonotlarda quyidagi ko‘nikmalarni mantiqiy ravishda qurish qobiliyati shakllantirilishi mumkin; diskursiv kompetensiya tarkibi:

– kommunikativlikni shakllantirish qobiliyati; matn yaratish uchun chet tilining asosiy mavzusiga muvofiq leksik resurslardan foydalanish qobiliyati; va ulardan matnni talqin qilish uchun foydalanish qobiliyati;

– o‘z nutqini qurish qobiliyati va og‘zaki bo‘lmagan xatti-harakatlarning borishini kommunikativ vaziyatga va tilning nutq vositasi bo‘lgan mamlakatning kommunikativ dolzarbligining ijtimoiy-madaniy o‘ziga xosligiga mos ravishda bashorat qilish qobiliyati; matn uslubi;

– mavzuni aniqlash qobiliyati va matndagi muammoni tasvirlash va tushuntirish qobiliyati; chet tilidan foydalangan holda faktlar;

Shularga asoslanib, shuni ta’kidlash mumkinki, kommunikativ kompetensiyaning diskursiv jihati nutq faoliyatida tildan foydalanish sifatini, chet tilida gapirish va yozishda to‘g‘rilik va aniqlikni, mantiqni va ifodaning axborot boyligini anglatadi, bu esa boshqa madaniyatga hurmat va tushunishni ham anglatadi. Talabalarning kasbiy ko‘nikmalarini shakllantirishda diskursiv kompetensiyani rivojlantirish uchun ta’lim imkoniyatlari uning universal xususiyati bilan belgilanadi. Diskursiv ko‘nikmalar inson faoliyatining barcha sohalariga qo‘llaniladi.

Tahlil va natijalar. Ushbu tadqiqot natijalari ingliz tilini o‘quvchilarga o‘qitishda diskursiv kompetensiyani rivojlantirishda sezilarli darajada yordam berishini ko‘rsatdi. E.V. Schumann va boshq. (1) tomonidan olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, muntazam ravishda kommunikativlikni shakllantirish mashqlar bajarish talabalarning talaffuzi, grammatik to‘g‘riligi va so‘z boyligini oshirishga xizmat qiladi. Nutq kompetensiyasi umumiy ta’lim kompetensiyasidagi muhim element bo‘lib, u talabalarning ta’lim faoliyatini amalga oshirish, ishtiyoq va hayot davomida o‘rganish qobiliyatining nazariy va amaliy tayyorgarligining birligidir. chunki bu yondashuv talabalarni faollikka undaydi va o‘z fikrlarini erkin ifoda etishga rag‘batlantiradi.

Xulosa. Diskursiv kompetensiyani rivojlantirish chet tilini o‘rganishning zamonaviy jarayonida alohida ahamiyatga ega bo‘lib, u ta’lim jarayonlarini loyihalashda yuqori darajadagi yaxlitlik sifatida shaxsiy paradigmaga o‘tish bilan tavsiflanadi. «Diskurs» – bu ma’lum bir mavzu bo‘yicha uzun va jiddiy nutq yoki yozma asar, yozma yoki og‘zaki til, ayniqsa, odamlar tildan qanday foydalanishini tushunish uchun o‘rganilganda. Yana bir bor «yozma» yoki og‘zaki tilga e’tibor bering, ayniqsa, odamlar tildan qanday foydalanishini tushunish uchun o‘rganilganda bu nuqta o‘quvchilarning nutqiy kompetensiyasini rivojlantirish qanchalik muhimligini anglatadi, chunki ular kelajak o‘qituvchilari va matn talqini va mantig‘i bilan bog‘liq. Diskursiv kompetensiya ko‘plab tadqiqotchilar, masalan, M. Swain, M. Canale, E.V. Schumann, N.V. Popova, I. F. Uxvanova-Shmygova, L. P. Kaplich va O. I. Kucherenko tomonidan keng o‘rganilib, diskursiv kompetensiya nafaqat to‘liq va izchil matnlarni yaratish, balki turli xil munozara turlari va ularni tuzish qoidalarini bilish, ularni kommunikativ vaziyatga muvofiq talqin qilish va kommunikativ vaziyatning tildan tashqari xususiyatlarini, kommunikatsiya ishtirokchilarining rollarini va kommunikatsiya ishtirokchilarining yagona jarayon doirasida muloqot qilish usullarini aytib o‘tdilar.

E.V. Shumanning ta’rifiga ko‘ra, diskursiv kompetensiya talabaning og‘zaki yoki yozma ravishda taqdim etilgan mantiqiy va izchil nutq bayonotlarini tushunish va yaratish qobiliyatidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Fozilova D.X. Development of discourse competence in foreign language teaching // International scientific and practical conference “Modern Philological Issues: Problems and Solutions”. – Toshkent: Toshkent davlat pedagogika universiteti, 2025. – P. xx–xx.

2. Popova N.V. On the issue of developing discursive competence // Foreign Languages at School. – 2011. – No. 7. – P. 74–80.

3. Safonova V.V. Communicative competence: modern approaches to multi-level description for methodological purposes: monograph. – Moscow: Euroschool, 2004. – 114 p.

3. Shadursky V.G. Intercultural communication and professionally oriented teaching of foreign languages. – Minsk, 2009. – 252 p.

Mahfuza TOG‘AYEVA,
Teacher of Gulistan State University

ZAMONAVIY TA’LIM SHAROITIDA KASBIY LEKSIK KOMPETENSIYANI TAKOMILLASHTIRISHDA INTERFAOL METODLAR

Annotatsiya: maqolada zamonaviy ta’lim sharoitida kasbiy leksik kompetensiyani rivojlantirishda interfaol metodlarning ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, brainstorming, role play va discussion kabi metodlarning pedagogik samaradorligi tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: *kasbiy kompetensiya, leksik kompetensiya, interfaol metod, kommunikativ metod.*

Аннотация: в статье рассматривается значение интерактивных методов в развитии профессиональной лексической компетенции в условиях современного образования. Проанализирована педагогическая эффективность методов brainstorming, role play и discussion.

Ключевые слова: *профессиональная компетенция, лексическая компетенция, интерактивный метод, коммуникативный метод.*

Annotation: the article discusses the importance of interactive methods in developing professional lexical competence in modern education. It also analyzes the pedagogical effectiveness of methods such as brainstorming, role play, and discussion.

Key words: *professional competence, lexical competence, interactive method, communicative method.*

Kirish. Globallashuv va axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi ta’lim tizimiga yangi talablarni qo‘ymoqda. Ayniqsa, zamonaviy ta’lim jarayonida mutaxassislarning kasbiy kompetensiyasini shakllantirish va rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Kasbiy kompetensiyaning asosiy tarkibiy qismlaridan biri kasbiy leksik kompetensiya bo‘lib, u mutaxassisning o‘z kasbiga oid termin, tushuncha va iboralarni to‘g‘ri tushunishi hamda ulardan amaliy faoliyatda samarali foydalana olish qobiliyatini anglatadi.

Kasbiy leksik kompetensiya nafaqat nazariy bilimlarni, balki kommunikativ ko‘nikmalarni ham rivojlantirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, chet tillarini o‘qitish jarayonida kasbiy terminologiyani o‘zlashtirish o‘quvchilarning ilmiy dunyoqarashi va kasbiy tayyorgarligini mustahkamlaydi. Shu sababli zamonaviy ta’limda ushbu kompetensiyani rivojlantirish innovatsion pedagogik texnologiyalar hamda interfaol metodlar asosida amalga oshirilmoqda.

Interfaol metodlar o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, erkin muloqot qilishi, jamoada ishlashi va muammoli vaziyatlarga yechim topish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Brainstorming, role play, discussion va case study kabi metodlar orqali o‘quvchilar kasbiy terminologiyani amaliyotda qo‘llash imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Natijada dars jarayonining samaradorligi oshib, o‘quvchilarning motivatsiyasi va faolligi kuchayadi.

Shuningdek, innovatsion texnologiyalar va interfaol metodlardan foydalanish ta’lim jarayonini qiziqarli va samarali tashkil etishga yordam beradi. Bu esa o‘quvchilarning kasbiy leksik kompetensiyasini rivojlantirish bilan birga, ularning kommunikativ va metodik tayyorgarligini ham takomillashtiradi.

Metodologiya. Mazkur tadqiqotda zamonaviy ta’lim sharoitida kasbiy leksik kompetensiyani takomillashtirishda interfaol metodlarning samaradorligini o‘rganishga qaratilgan ilmiy-metodik yondashuvlardan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida pedagogik kuzatish, tahlil, taqqoslash va umumlashtirish metodlari qo‘llanildi.

Shuningdek, brainstorming, role play, discussion va case study kabi interfaol metodlarning ta’lim jarayonidagi o‘rni hamda ularning kasbiy terminologiyani o‘zlashtirishdagi ahamiyati tahlil qilindi. Tadqiqot davomida ilmiy adabiyotlar, metodik qo‘llanmalar va zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida olingan ma’lumotlar o‘rganildi. Natijalar tahlili interfaol metodlarning o‘quvchilarning kasbiy leksik kompetensiyasini rivojlantirish, kommunikativ ko‘nikmalarini shakllantirish va dars samaradorligini oshirishda muhim vosita ekanligini ko‘rsatdi.

Natijalar. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, interfaol metodlardan foydalanish o‘quvchilarning kasbiy leksik kompetensiyasini rivojlantirishda samarali vosita ekanligi aniqlandi. Ayniqsa, brainstorming, role play, discussion va case study metodlari orqali o‘quvchilarning kasbiy terminlarni o‘zlashtirishi, ularni nutqda erkin qo‘llashi hamda kommunikativ ko‘nikmalari sezilarli darajada rivojlandi.

Shuningdek, interfaol metodlar dars jarayonida o‘quvchilarning faolligi va motivatsiyasini oshirib, mustaqil fikrlash hamda jamoaviy ishlash ko‘nikmalarini shakllantirdi. Tadqiqot davomida zamonaviy pedagogik

texnologiyalar bilan tashkil etilgan mashg‘ulotlar ta’lim samaradorligini oshirishi kuzatildi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, interfaol metodlar asosida tashkil etilgan darslar kasbiy terminologiyani mustahkam o‘zlashtirish va amaliy qo‘llash imkoniyatlarini kengaytiradi.

Muhokama. Tadqiqot jarayonida interfaol metodlarning kasbiy leksik kompetensiyani rivojlantirishdagi ahamiyati yuqori ekanligi ilmiy va amaliy jihatdan tasdiqlandi. O‘quv jarayonida qo‘llanilgan brainstorming, role play, discussion, case-study hamda problem solving kabi metodlar o‘quvchilarning kasbiy terminologiyani faol o‘zlashtirishiga va uni real kommunikativ vaziyatlarda qo‘llashiga sezilarli darajada yordam berdi. Ayniqsa, brainstorming metodi orqali o‘quvchilar yangi kasbiy tushunchalar va terminlar yuzasidan erkin fikr almashish imkoniyatiga ega bo‘ldilar. Bu esa ularning lug‘at boyligini kengaytirish, mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish hamda kasbiy atamalarni tez va samarali o‘zlashtirishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi.

Role play metodi esa o‘quvchilarning kasbiy kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishda muhim vosita sifatida namoyon bo‘ldi. Mazkur metod yordamida talabalar turli kasbiy vaziyatlarni modellashtirib, o‘z mutaxassisligi doirasidagi terminologiyani amaliy nutqda qo‘llash imkoniyatiga ega bo‘ldilar. Natijada o‘quvchilarning og‘zaki nutq faolligi, muloqot madaniyati hamda kasbiy muhitga moslashuv ko‘nikmalari shakllandi. Discussion metodi orqali esa talabalar muayyan mavzu yuzasidan fikr almashish, bahs-munozara olib borish va o‘z nuqtai nazarini ilmiy asosda himoya qilishga o‘rgandilar. Bu esa ularning nafaqat leksik kompetensiyasini, balki tanqidiy va mantiqiy fikrlash qobiliyatini ham rivojlantirdi.

Tadqiqot davomida interfaol metodlar asosida tashkil etilgan darslarda o‘quvchilarning ta’lim jarayonidagi faolligi an’anaviy darslarga nisbatan yuqoriroq bo‘lgani kuzatildi. Xususan, talabalar dars jarayonida mustaqil ishlashga, jamoa bilan hamkorlik qilishga va o‘z fikrini erkin ifodalashga ko‘proq intildilar. Bu esa ularning o‘quv motivatsiyasi oshishiga, darslarga qiziqishi kuchayishiga hamda bilimlarni mustahkam o‘zlashtirishiga xizmat qildi. Interfaol metodlar o‘quvchilarni passiv tinglovchidan faol ishtirokchiga aylantirib, ta’lim jarayonining samaradorligini sezilarli darajada oshirdi.

Shuningdek, zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirilgan interfaol metodlar ta’lim sifatini yanada kuchaytirishi aniqlandi. Multimedia vositalari, elektron platformalar, onlayn taqdimotlar va raqamli resurslardan foydalanish interfaol darslarning samaradorligini oshirib, o‘quvchilarning kasbiy terminlarni vizual va amaliy jihatdan tezroq o‘zlashtirishiga yordam berdi. Ayniqsa, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining qo‘llanilishi ta’lim jarayonini yanada qiziqarli, dinamik va innovatsion shaklga olib chiqdi. Natijada talabalar zamonaviy kasbiy muhitga mos kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirish imkoniyatiga ega bo‘ldilar.

Biroq tadqiqot davomida ayrim muammolar ham kuzatildi. Xususan, texnik vositalarning yetarli emasligi, ayrim ta’lim muassasalarida internet va multimedia imkoniyatlarining cheklanganligi interfaol metodlarni samarali tashkil etishga to‘sqinlik qilishi mumkinligi aniqlandi. Bundan tashqari, interfaol metodlar ko‘proq vaqt talab qilishi sababli dars vaqtini to‘g‘ri taqsimlash masalasi ham dolzarb muammolardan biri sifatida qayd etildi. Ba’zi hollarda o‘qituvchilarning zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan ishlash bo‘yicha malakasi yetarli darajada shakllanmaganligi ham interfaol metodlardan foydalanish samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, zamonaviy ta’lim sharoitida interfaol metodlardan foydalanish kasbiy leksik kompetensiyani rivojlantirishning samarali vositasi hisoblanadi. Ushbu metodlar o‘quvchilarning kasbiy terminologiyani o‘zlashtirishi, kommunikativ ko‘nikmalarini rivojlantirishi va mustaqil fikrlashini shakllantirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, brainstorming, role play, discussion va case study kabi interfaol metodlar dars samaradorligini oshirib, o‘quvchilarning faolligi va motivatsiyasini kuchaytiradi. Shu sababli ta’lim jarayonida interfaol metodlardan keng foydalanish kasbiy kompetensiyani takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jalolov J. J. Chet til o‘qitish metodikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2012.
2. Hoshimov O‘., Yoqubov I. Ingliz tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent: Sharq, 2013.
3. Safarova R. Pedagogik texnologiyalar va ularni qo‘llash. – Toshkent, 2018.
4. Ismoilov K. Pedagogik mahorat asoslari. – Toshkent: Fan, 2016.
5. Mahmudov N. O‘qituvchi nutqi madaniyati. – Toshkent: Ma’naviyat, 2015.
6. Brown H. D. Principles of Language Learning and Teaching. – Pearson Education, 2007.
7. Abdukadirova, N., Norimova, G., Shavkieva, D., Togaeva, M., & Norkuzieva, Z. (2020). Development of communicative competence as an important element in the formation of a student’s personality. *International Journal of Advanced Science and Technology*, *29*(5), 1746-1750.

Diloromxon ABDULLAYEVA,
Qo‘qonDU o‘qituvchisi

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING BILISH FAOLIYATI VA UNING TUZILISHI

Annotatsiya: ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining bilish faoliyati, uning o‘ziga xos psixologik-pedagogik xususiyatlari va tarkibiy tuzilishi yoritilgan. Tadqiqotda o‘quvchilarning dunyoqarashini shakllantirishda motivatsiya, maqsad qo‘yish va mantiqiy amallarning o‘rni tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: *bilish faoliyati, motivatsiya, o‘quvchilar, konkret-obrazli tafakkur, idrok, mantiqiy amallar, o‘quv faoliyati tuzilishi.*

Аннотация: в данной статье рассматривается познавательная деятельность учащихся начальной школы, её специфические психолого-педагогические особенности и структурная структура. Анализируется роль мотивации, целеполагания и логических действий в формировании мировоззрения учащихся.

Ключевые слова: *познавательная деятельность, мотивация, учащиеся, конкретно-образное мышление, восприятие, логические действия, структура учебной деятельности.*

Annotation: this article discusses the cognitive activity of primary school students, its specific psychological and pedagogical features and structural structure. The study analyzes the role of motivation, goal-setting and logical actions in the formation of students' worldview.

Key words: *cognitive activity, motivation, students, concrete-figurative thinking, perception, logical actions, structure of educational activity.*

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining bilish faoliyati – bu o‘quvchining atrof-muhitni o‘rganish, bilimlarni faol o‘zlashtirish va rivojlantirishga qaratilgan maqsadli, motivatsion jarayonidir. U tarkibiy jihatdan motivlar, maqsad, o‘quv harakatlari, nazorat va baholash komponentlaridan iborat bo‘lib, bilish qobiliyatlarini (diqqat, xotira, tafakkur) rivojlantirishni ta’minlaydi. Ma’lumki, bilish faoliyatining subyekti o‘quvchi sanaladi. Shu bois ijtimoiy-pedagogik asoslarga ega ta’lim markazida uning shaxsi, ongi, ham o‘rganilayotgan olamga, ham bilish faoliyatidagi hamkorlariga: o‘quvchilar va uning ta’lim olishini tashkil etuvchi va yo‘naltiruvchi o‘qituvchilar munosabati yotadi. Bu masala barcha davrlarda birdek ahamiyat kasb etib kelgan.

Zamonaviy ta’limning asosiy maqsadi o‘quvchilarga tayyor bilimlarni yetkazish emas, balki ularda mustaqil bilim olish va dunyoni anglash ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat. Bu jarayonning poydevori aynan boshlang‘ich sinflarda qo‘yiladi. Bilish faoliyati — bu o‘quvchining atrofdagi voqelikni faol aks ettirishi va o‘zlashtirishiga qaratilgan murakkab ruhiy jarayondir.

Ta’limda o‘quvchilarning faoliyati haqida gap borganda o‘quvchining bilish faolligi tushunchasi alohida ahamiyat kasb etadi. O‘quvchining bilish faolligi uning bilish jarayonidagi intellektual mulohazasida, umumiy va alohida topshiriqlarni bajarishida namoyon bo‘ladi. Bu xususiyatlar o‘quvchilarning faqatgina yuqori darajadagi bilim olishini kafolatlab qolmay, balki uning hayotiy faoliyati, ya’ni o‘quvchi shaxsining shakllanishi, uning amaliyotga, hayotga bo‘lgan faol munosabati uchun harakterlidir. Shu sababli bilish faolligini oshirish insonning faol hayotiy qarashlarini shakllantirish deb bemalol aytish mumkin.

O‘quvchining bilish faoliyatining yana bir farqli xususiyati uning kechish xarakteridir. O‘quvchining bilish faoliyati maqsadi ham, mazmuni ham, usullari ham dasturga kiritilganligi bois, o‘quvchi jalb etilayotgan ta’lim jarayoni turlicha kechishi; subyekt (o‘quvchi) kuchi faolligi, mustaqilligi, turlicha sarf etilishi bilan borishi mumkin. Ayrim hollarda uning jarayoni taqlidiy reproduktuv, boshqalarda izlanishli, uchinchisida ijodiy xarakterga ega bo‘lishi mumkin. Aynan faoliyat jarayonining kechish xarakteri uning oxirgi natijasi egallangan bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalari xarakteriga ta’sir etadi. O‘quvchining bilishi xuddi etuk ilmiy bilish yo‘li kabi haqiqat o‘qituvchi tomonidan fandagi faktlar, ilmiy kashfiyotlarni o‘rganish ularning tarixiy yo‘lini o‘zlashtirish yordamida kechadi.

Insonning asl ijtimoiy mulki sifatida faoliyatining muhim belgisi faoliyat subyektining atrof-muhit bilan o‘zaro ta’siri va muhim boyliklar yaratuvchi faoliyatining qayta yaratuvchi xarakteridir. O‘quvchilarning ta’lim muassasasidagi bilish faoliyatining xarakteri shundaki, uning natijasi hamma vaqt ham moddiylashgan mahsulga ega emas va o‘quvchining o‘zi hamma vaqt ham his etmaydi – javobi uchun yomon baho olgan o‘quvchining xafa bo‘lib, «men o‘qidim, o‘rgandim! Adolatdan emas» degan fikrni qat’iy takrorlashi bejiz emas.

Bilishga qiziqish o‘qishning eng muhim va eng qimmatli motivi sifatida bolani maktabga, darslarga, o‘z bilish faoliyatiga nisbatan ijodiy munosabatiga ko‘maklashadi. O‘quvchilarning bilishga qiziqishi motiv sifatida rivojlanishi o‘ziga xos uzoq yo‘liga ega bo‘lishi mumkin. Ayrim o‘quv-harakatlari ta’sirchisidan to butun faoliyatning ustuvor motivigacha.

Hatto o‘qishning yetakchi motivlaridan biriga aylanib, qiziqish shaxsning ma’naviy boyishiga ko‘maklashuvchi umumiy yo‘nalganligining ahamiyatli qismiga aylanishi mumkin. Har qanday motiv singari bilishga qiziqish ajralgan holda rivojlanmaydi, uning tiklanishi boshqa motivlar (axloqiy, ijtimoiy, o‘quv va h.k.) bilan birga kechadiki, qiziqish ular bilan boyiydi va ularga ijobiy ta’sir etadi.

Ma’lumki, o‘quv jarayoni modeli o‘zida uch tarkibiy qismni aks ettiradi: o‘qituvchi faoliyati, o‘quvchi faoliyati hamda o‘qituvchi va ta’lim oluvchilarning jadal o‘zaro faoliyati. O‘qituvchining o‘quvchilar bilan o‘zaro harakatini konstruktiv pedagogika nuqtayi nazaridan qator belgilariga ko‘ra tasnif etish mumkin: yo‘nalganligiga ko‘ra (qayta aloqalar bilan yoki qayta aloqalarsiz); axborot jarayonining turiga ko‘ra (o‘zaro harakatni tashkil etishda axborot jarayonining yo‘nalganlik darajasi); boshqarish va axborotlarni uzatish vositalari turiga ko‘ra.

O‘quvchilar bilimlarni o‘zlashtirish jarayonida turli darajadagi faollikni namoyon etishadi. Ana shu sababli, o‘quvchilarga bilimlarni sust ravishda qabul qiladi kabi nuqtayi nazardan qarash to‘g‘ri bo‘lmaydi. Shu sababli bilish faoliyatiga quyidagicha yondashish zarur: o‘quv faoliyatining inkor etilmagan tavsifi asosida unga munosabat o‘zgaradigan bilishning quyi darajasi; quyidan mo‘tadillashgan bosqichga o‘tish sifatidagi vaziyatli faoliyat; o‘quv jarayonida ijro etuvchilik faoliyati; o‘quvchining subyektiv nuqtayi nazarini maksimal darajada ochishga imkon beruvchi ijodiylikdir.

Yuqorida aytilganlarni umumlashtirib, bilish faolligi ko‘rsatkichi sifatida mo‘tadillik, ishtiyoq, o‘rganishning anglanganligi, ijodiy namoyon bo‘lishi, nostandart o‘quv vaziyatlaridagi xulq-atvor, o‘quv vazifasini hal etishdagi mustaqillik va boshqalarni aytib o‘tish mumkin. O‘quvchilarning o‘quv jarayonidagi ishtiroki va faolligining namoyon bo‘lishi – bu rivojlanib boruvchi, o‘zgaruvchan jarayon. O‘qituvchi yordamida o‘quvchilarning bilish faolligi quyi darajadan vaziyatli-faollikka, undan faol ijrochilikka o‘tib boradi. Ko‘p jihatdan o‘quvchining bilish faolligi ijodiylik darajasiga ko‘tarilishi yoki ko‘tarilmasdan qolishi o‘qituvchiga bog‘liq. Didaktlaming ishlarida shu narsa yaqqol ko‘rinadiki, o‘quv jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchilar orasidagi munosabat subyekt-subyekt tavsifiga ega bo‘lishi zarur. Bundan kelib chiqib aytish mumkinki, ta’lim – bu keng tarzda sotsiumning bo‘lajak a’zosini umumiy mehnat, hamkorlikka o‘rgatish uchun zarur bo‘lgan birgalikdagi faoliyat.

Hamkorlikdagi faoliyatga tayyorlash nuqtayi nazaridan zamonaviy ta’lim jarayonini ko‘rib chiqish asosida o‘quvchilarning rollar orqali namoyon bo‘lishi quyidagicha ko‘rinish kasb etadi:

- o‘quv jarayoni bilan dastlab tanishishda tomoshabin, kuzatuvchi;
- guruhli faoliyatning ishtirokchisi;
- namuna bo‘yicha uy vazifasini mustaqil bajargandan so‘ng faoliyat egasi;
- faoliyatning shaxsiy namunasini yaratishda faoliyat egasi + fikr egasi;
- o‘z faoliyati natijasida yuzaga keladigan o‘z-o‘zining faoliyati egasi.

This study demonstrates that evaluative semantics and enantiosemy are deeply interconnected. Evaluative enantiosemy operates through polarity shift, contextual modulation, and pragmatic reinterpretation. English favors lexical enantiosemy while Uzbek demonstrates grammatical and phraseological productivity. Narrative fiction provides optimal conditions for enantiosemy because multiple voices create pragmatically motivated semantic opposition.

References:

1. Bessonova, L. E. (1982). Enantiosemy is a special type in the system of lexical oppositions. Problems of Lexical and Categorical Semantics. Simferopol: Simferopol State University.

2. Goddard, C., Taboada, M., & Trnavac, R. (2016). Semantic descriptions of 24 evaluational adjectives, for application in sentiment analysis. Computing Science Technical Report, Simon Fraser University.

3. Ibrahim, W. M. A. (2022). Utilizing corpus stylistics to facilitate literary analysis: An assessment of the effectiveness of semantic domains in identifying major literary themes in a selection of Charles Dickens novels. Asian Journal of English Language and Pedagogy, 10(1). https://doi.org/10.37134/ajelp.vol10.1.9.2022



PSIXOLOGIYA

Eshqobil SHARIPOV,
TerDPI katta o‘qituvchisi
Sharofat O‘ROQOVA,
TerDPI o‘qituvchisi, mustaqil izlanuvchi
Gulasal ESHQUVVATOVA,
TerDPI o‘qituvchisi, mustaqil izlanuvchi

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIGA INDIVIDUAL YONDASHUVNING PSIXOLOGIK ASOSLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga individual yondashuvning psixologik asoslari, uning ta’lim samaradorligiga ta’siri hamda o‘quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda ta’lim jarayonini tashkil etish masalalari yoritilgan. Shuningdek, o‘quvchilarning qobiliyati, qiziqishi, temperament va psixologik holatiga mos ravishda ta’lim berishning ahamiyati tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: *boshlang‘ich ta’lim, individual yondashuv, psixologik asoslar, yosh psixologiyasi, pedagogik psixologiya, motivatsiya, individual farqlar, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim.*

Annotation: this article discusses the psychological foundations of an individual approach to primary school students, its impact on educational effectiveness, and the issues of organizing the educational process taking into account the age and individual characteristics of students. The importance of teaching in accordance with the abilities, interests, temperament, and psychological state of students is also analyzed.

Key words: *primary education, individual approach, psychological foundations, age psychology, pedagogical psychology, motivation, individual differences, person-centered education.*

Аннотация: в данной статье рассматриваются психологические основы индивидуального подхода к учащимся начальной школы, его влияние на эффективность обучения, а также вопросы организации образовательного процесса с учетом возраста и индивидуальных особенностей учащихся. Анализируется также важность обучения в соответствии со способностями, интересами, темпераментом и психологическим состоянием учащихся.

Ключевые слова: *начальное образование, индивидуальный подход, психологические основы, возрастная психология, педагогическая психология, мотивация, индивидуальные различия, личностно-ориентированное образование.*

Kirish. Bugungi kunda Yangi O‘zbekistonni barpo etishning eng muhim sharti va poydevori sifatli ta’lim hamda tarbiya hisoblanadi. Zero, davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek: “Biz ta’lim va tarbiya tizimini tubdan isloh qilish, uni zamon talablariga moslashtirish, farzandlarimizni har tomonlama yetuk insonlar qilib kamolga yetkazishni o‘zimizning eng ustuvor vazifamiz deb bilamiz”. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim o‘quvchining shaxs sifatida shakllanishida tamal toshi vazifasini o‘taydi. Hozirgi shiddatli globallashuv davrida ta’lim jarayoniga qo‘yilayotgan talablar tubdan o‘zgardi. Endilikda o‘quvchilarga shunchaki bilim berish emas, balki ularning ichki imkoniyatlarini yuzaga chiqarish, mustaqil va ijodiy fikrlashga o‘rgatish asosiy maqsadga aylandi. Prezidentimiz o‘qituvchi va murabbiylar bilan uchrashuvlarida bot-bot takrorlayotganlaridek, “Maktab – bu hayot-mamot masalasi, kelajak masalasi”. Bu esa har bir o‘quvchiga “o‘rtacha statistik birlik” deb emas, balki betakror iqtidor sohibi sifatida yondashishni taqozo etadi[1]. Boshlang‘ich sinf yoshidagi bolalarda psixologik va fiziologik rivojlanish darajasi turlicha bo‘ladi. Bir sinfda xotirasi kuchli, ammo nutqi sust yoki mantiqiy fikrlashi yuqori, lekin hisoblashda oqsash holatlari kuzatiladigan o‘quvchilar birga tahsil oladi. Bunday sharoitda an’anaviy, ya’ni hammaga bir xil andozadagi ta’lim berish usuli o‘z samaradorligini yo‘qotmoqda. Individual yondashuvning pedagogik ahamiyati shundaki, u har bir bolaning “o‘sish nuqtasi”ni topishga imkon beradi. Bu yondashuv ta’limda insonparvarlik tamoyilini qaror toptirish bilan birga, Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan “Inson qadri uchun” g‘oyasining ta’lim sohasidagi amaliy in’ikosidir. Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf darslarida har bir o‘quvchining individual-psixologik xususiyatlarini hisobga olishning ilmiy asoslari va amaliy mexanizmlari tadqiq etiladi. Bugungi kunda ta’lim tizimida o‘quvchi shaxsiga yo‘naltirilgan yondashuv ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining psixologik va fiziologik xususiyatlarini hisobga olgan holda ta’lim jarayonini tashkil etish muhim vazifalardan biridir. Har bir bolaning qobiliyati, dunyoqarashi, fikrlash darajasi va o‘zlashtirish sur’ati turlicha bo‘lgani sababli ularga individual yondashuvni qo‘llash ta’lim samaradorligini oshiradi.Boshlang‘ich ta’lim davri bolaning shaxs sifatida shakllanishida muhim bosqich hisoblanadi. Shu sababli bu davrda o‘qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki psixologik qo‘llab-quvvatlovchi ham bo‘lishi zarur. Individual yondashuvning mohiyati shundan iboratki, individual yondashuv – bu har bir o‘quvchining yosh, psixologik, intellektual va shaxsiy xususiyatlarini hisobga olgan holda ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etishdir. Ushbu yondashuv o‘quvchilarning bilim olishga bo‘lgan qiziqishini oshiradi,

1 M.S.Latipova, E.Nishanbayeva “BOSHLANG‘ICH SINFDA INDIVIDUAL YONDASHUVNING PEDAGOGIK AHAMIYATI”

mustaqil fikrlashini rivojlantiradi va o‘z imkoniyatlarini namoyon etishiga yordam beradi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari orasida individual farqlar bilimni qabul qilish tezligi, rivojlanishi, emotsional holat, qiziqish va ehtiyojlar, temperament turlarida namoyon bo‘ladi.O‘qituvchi ushbu omillarni inobatga olgan holda dars metodlarini tanlashi lozim.

Individual yondashuvning psixologik asoslari. **Yosh psixologiyasi xususiyatlari.** Boshlang‘ich sinf yoshidagi bolalarda bilishga qiziqish kuchli bo‘ladi. Ular ko‘proq ko‘rgazmali, o‘yin asosidagi va amaliy faoliyat orqali bilimni oson o‘zlashtiradilar. Shu sababli individual yondashuvda o‘yin texnologiyalari, interfaol metodlar va rag‘batlantirish usullaridan foydalanish samarali natija beradi. Bunda **motivatsiyaning ahamiyati shundan iboratki,** psixologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, o‘quvchining ichki motivatsiyasi ta’lim muvaffaqiyatining asosiy omillaridan biridir. Individual yondashuv orqali o‘quvchining qiziqishi va ehtiyojlariga mos topshiriqlar berilishi uning darsga bo‘lgan faolligini oshiradi.**Temperament va xarakter xususiyatlari**.Har bir bolaning temperament turi turlicha bo‘ladi. Masalan, faol va tezkor o‘quvchilar bilan sustroq o‘quvchilarga bir xil yondashuv samarali bo‘lmasligi mumkin. Shu bois o‘qituvchi har bir bolaning psixologik holatini kuzatib borishi va unga mos metodlarni qo‘llashi zarur. **Emotsional qo‘llab-quvvatlash** bu boshlang‘ich sinf o‘quvchilari kattalarning munosabatiga juda ta’sirchan bo‘ladilar. O‘qituvchining mehribonligi, rag‘batlantirishi va qo‘llab-quvvatlashi bolaning o‘ziga bo‘lgan ishonchini mustahkamlaydi. Bu esa o‘quv faoliyatida ijobiy natijalarga olib keladi.**Ta’lim jarayonida individual yondashuvni amalga oshirish usullari**.Quyidagi metodlar individual yondashuvni samarali tashkil etishga yordam beradi: **differensial topshiriqlar berish** – o‘quvchilarning bilim darajasiga mos vazifalar tayyorlash. **Interfaol metodlardan foydalanish** – guruhli ishlar, o‘yinlar va muammoli vaziyatlar yaratish. **Psixologik kuzatuv olib borish** – o‘quvchilarning qiziqishi va qobiliyatlarini aniqlash. **Rag‘batlantirish usullarini qo‘llash** – maqtov, baholash va motivatsion yondashuv. **Ota-onalar bilan hamkorlik qilish** – bolaning individual xususiyatlarini chuqurroq o‘rganish.

Xulosa. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga individual yondashuv ta’lim jarayonining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Ushbu yondashuv o‘quvchilarning psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda ularning bilim olish imkoniyatlarini kengaytiradi, mustaqil fikrlashini rivojlantiradi va ta’lim samaradorligini oshiradi. O‘qituvchi har bir bolaning individual imkoniyatlarini to‘g‘ri baholashi va unga mos pedagogik hamda psixologik metodlarni qo‘llashi zarur. Boshlang‘ich sinflarda individual yondashuvni tashkil etish bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqotlar va ilmiy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ushbu metodik tizim shunchaki darsning bir qismi emas, balki ta’lim sifatini kafolatlovchi strategik zaruriyatdir. Tadqiqot davomida har bir bolaning o‘ziga xos rivojlanish tezligi va idrok etish xususiyatlariga ega ekanligi, ularni bir xil andozada o‘qitish esa intellektual salohiyatning cheklanishiga olib kelishi ilmiy jihatdan tasdiqlandi. Individual yondashuv o‘quvchini dars jarayonining markaziga olib chiqadi va uning subyekt sifatida shakllanishiga xizmat qiladi. Bu yondashuv nafaqat o‘zlashtirish ko‘rsatkichlarini yaxshilaydi, balki o‘quvchining maktabga bo‘lgan ijobiy munosabatini va o‘z kuchiga bo‘lgan ishonchini mustahkamlaydi. Pedagogik mahorat esa har bir bolaning “o‘sish nuqtasi”ni o‘z vaqtida payqash va unga mos rivojlanish muhitini yarata olish bilan belgilanadi. Boshlang‘ich ta’limda individual yondashuv samaradorligini oshirish maqsadida quyidagi amaliy takliflar ilgari suriladi: dars jarayonida o‘quvchilarning o‘zlashtirish salohiyatiga mos ravishda kamida uch darajali (soddalashtirilgan, o‘rtacha va ijodiy) tabaqalashtirilgan topshiriqlar tizimini joriy etish zarur. Shu bilan birga, har bir o‘quvchining kognitiv o‘sish dinamikasi va psixofiziologik xususiyatlarini aks ettiruvchi individual rivojlanish portfoliolarini yuritish orqali doimiy monitoringni yo‘lga qo‘yish lozim. Mazkur jarayonni maktabdan tashqarida ham davom ettirish uchun “maktab-oila-mahalla” hamkorligi doirasida ota-onalarga metodik tavsiyalar berish, shuningdek, darslarda o‘quvchining idrok qilish turiga moslashuvchi adaptiv raqamli texnologiyalar va multimedia vositalaridan unumli foydalanish ta’lim sifatini kafolatlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. M.S.Latipova, E.Nishanbayeva “Boshlang‘ich sinfda individual yondashuvning pedagogik ahamiyati” mavzusidagi maqolasi

2.G‘oziyev E.G‘. *Yosh davrlari psixologiyasi*. – Toshkent, 2020.

3.Tolipov O‘., Usmonboyeva M. *Pedagogik texnologiyalar*. – Toshkent, 2017.

4.Vygotskiy L.S. *Pedagogik psixologiya asoslari*.

5.Karimova V. *Pedagogik mahorat va psixologiya*. – Toshkent, 2018.

6.Sharofat, O. R. (2023, May). Electronic learning resources and requirements for their creation. In International Scientific and Practical Conference on Algorithms and Current Problems of Programming.

7. Norbo‘tayev, X. B., & O‘roqova, S. S. (2023). BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINI TABIIY FANLAR MISOLIDA INTELLEKTUAL RIVOJLANTIRISH METODIKASI. Biologiyaning zamonaviy tendensiyalari: muammolar va yechimlar, 1(5), 733–736.

8.Boynazov Z. BOSHLANG‘ICH SINFLARDA BUGUNGI TA’LIM JARAYONI VA USULLARI //Interpretation and researches. 2023. – T. 2. – №.1.

Sabohat MAMAYUSUPOVA,
O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish va psixologik-pedagogik respublika tashxis markazi metodisti
gmail: markovermars71@gmail.com



OILAVIY MUHITNING VOYAGA YETMAGANLAR HUQUQBUZARLIGIGA TA’SIRI

Annotatsiya: ushbu maqolada oilaviy muhitning voyaga yetmaganlar huquqbuzarligiga ta’siri tahlil qilingan. Unda oila bolaning shaxs sifatida shakllanishidagi asosiy ijtimoiy institut ekani, ota-ona munosabatlari, tarbiya uslubi va oiladagi psixologik muhitning o‘smirlar xulq-atvoriga bevosita ta’siri yoritilgan. Shuningdek, oiladagi nizolar, nazoratning yetishmasligi va e’tiborsizlik kabi salbiy omillar voyaga yetmaganlar orasida huquqbuzarlik holatlarining kelib chiqishiga sabab bo‘lishi ko‘rsatib o‘tilgan. Maqolada muammoning oldini olishda oilaning tarbiyaviy roli, ota-onalarning mas’uliyati hamda ijtimoiy hamkorlikning ahamiyati asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: *oila, oilaviy muhit, voyaga yetmaganlar, huquqbuzarlik, o‘smirlar jinoyatchiligi, tarbiya jarayoni, ota-ona mas’uliyati, ota-ona nazorati, oilaviy munosabatlar, psixologik muhit, ijtimoiy muhit, ijtimoiylashuv, qadriyatlar, xulq-atvor shakllanishi, pedagogik ta’sir, oilaviy nizolar, e’tiborsizlik, zo‘ravonlik, profilaktika, yoshlar tarbiyasi.*

Аннотация: в данной статье проанализировано влияние семейной среды на правонарушения среди несовершеннолетних. В ней освещается, что семья является основным социальным институтом в формировании личности ребёнка, а отношения между родителями, методы воспитания и психологический климат в семье оказывают непосредственное влияние на поведение подростков. Также показано, что такие негативные факторы, как семейные конфликты, недостаток контроля и невнимание, способствуют возникновению правонарушений среди несовершеннолетних. В статье обосновывается важность воспитательной роли семьи, ответственности родителей и социального сотрудничества в предотвращении данной проблемы.

Ключевые слова: *семья, семейная среда, несовершеннолетние, правонарушения, подростковая преступность, процесс воспитания, ответственность родителей, родительский контроль, семейные отношения, психологический климат, социальная среда, социализация, ценности, формирование поведения, педагогическое воздействие, семейные конфликты, безнадзорность, насилие, профилактика, воспитание молодежи.*

Annotation: this article critically examines the influence of the family environment on juvenile delinquency. It argues that the family constitutes the primary social institution in the formation of a child’s personality, where parental relationships, parenting styles, and the overall psychological climate play a decisive role in shaping adolescents’ behavioral patterns. The study further demonstrates that adverse familial conditions, including persistent conflicts, inadequate supervision, and parental neglect, significantly increase the likelihood of delinquent behavior among minors. Moreover, the paper underscores the pivotal role of family-based upbringing, parental responsibility, and effective social collaboration as essential mechanisms for the prevention of juvenile delinquency.

Key words: *family, family environment, minors, juvenile delinquency, adolescent crime, upbringing, parental responsibility, parental supervision, family relationships, psychological climate, social environment, socialization, values, behavior formation, pedagogical influence, family conflicts, neglect, violence, prevention, youth development.*

Kirish. Jamiyatning barqaror rivojlanishi va kelajagi ko‘p jihatdan yosh avlodning tarbiyasi va ma’naviy kamolotiga bog‘liqdir. Voyaga yetmaganlar jamiyatning eng muhim va ayni paytda eng himoyaga muhtoj qatlamlaridan biri hisoblanadi. Shu sababli ularning to‘g‘ri tarbiyalanishi, sog‘lom ijtimoiy muhitda shakllanishi va ijobiy xulq-atvorni egallashi dolzarb masalalardan biridir.

Bugungi kunda voyaga yetmaganlar o‘rtasida uchrayotgan huquqbuzarlik holatlari jamiyatni jiddiy tashvishga solmoqda. Bunday salbiy holatlarning yuzaga kelishida bir qator omillar ta’sir ko‘rsatadi. Ular orasida oilaviy muhit alohida o‘rin egallaydi, chunki oila shaxsning ilk tarbiya maskani bo‘lib, bolaning dunyoqarashi, axloqiy qarashlari va xulq-atvorini shakllantiradi.

Mazkur maqolada oilaviy muhitning voyaga yetmaganlar huquqbuzarligiga ta’siri, ushbu jarayonga sabab bo‘luvchi asosiy omillar hamda muammoning oldini olishda oilaning o‘rni tahlil qilinadi.

Asosiy qism. Voyaga yetmaganlar huquqbuzarligi muammosini tahlil qilishda oilaviy muhitning o‘rni alohida ahamiyatga ega. Oila bola shaxsining shakllanishida birinchi va eng muhim ijtimoiy institut hisoblanadi. Bola dastlabki hayotiy ko‘nikmalarni, axloqiy me’yorlarni va jamiyatda o‘zini tutish qoidalarini aynan oilada o‘rganadi. Shu sababli oiladagi muhit sog‘lom bo‘lsa, bola ham ijobiy fazilatlar bilan ulg‘ayadi.

Oilaviy muhitning salbiy bo‘lishi esa voyaga yetmaganlarning xulq-atvoriga jiddiy ta’sir ko‘rsatadi. Ota-ona o‘rtasidagi doimiy nizolar, oiladagi zo‘ravonlik holatlari, e’tiborsizlik va beparvolik bolada ruhiy bosimni kuchaytiradi. Bunday vaziyatda bola o‘zini yolg‘iz his qiladi va tashqi salbiy ta’sirlarga tez beriluvchan bo‘lib qoladi. Natijada u noto‘g‘ri yo‘lga kirib qolishi, turli huquqbuzarliklarga qo‘l urishi mumkin.

Voyaga yetmaganlar huquqbuzarligi muammosi bugungi kunda nafaqat alohida oilalar, balki butun jamiyat uchun dolzarb masalalardan biridir. Bu muammoni chuqur tahlil qilishda oilaviy muhitning o‘rni alohida ahamiyat kasb etadi, chunki bola shaxs sifatida eng avvalo oilada shakllanadi.

Tadqiqotlar va kuzatuvlar shuni ko‘rsatadiki, huquqbuzarlikka yo‘l qo‘ygan voyaga yetmaganlarning aksariyati oilaviy muhitda muayyan muammolar mavjud bo‘lgan sharoitda tarbiyalangan bo‘ladi. Bunday oilalarda ota-ona nazorati yetarli emasligi, bolaga nisbatan e’tiborsizlik yoki oilaviy nizolar tez-tez uchraydi. Natijada bola o‘zini yolg‘iz his qiladi va tashqi muhit ta’siriga tez beriluvchan bo‘lib qoladi.

Zamonaviy davrda internet va ijtimoiy tarmoqlarning ta’siri ham kuchayib bormoqda. Agar oilada to‘g‘ri nazorat o‘rnatilmagan bo‘lsa, voyaga yetmaganlar zararli axborotlar, noto‘g‘ri g‘oyalar va salbiy kontent ta’siriga tushib qolishi mumkin. Bu esa ularning dunyoqarashi va xulq-atvoriga salbiy ta’sir ko‘rsatib, noto‘g‘ri qarorlar qabul qilishga olib keladi.

Shuningdek, oila va ta’lim muassasalari o‘rtasidagi hamkorlik ham juda muhim hisoblanadi. Maktab o‘qituvchilari va psixologlari bilan muntazam aloqa o‘rnatilgan oilalarda bolalarning xulq-atvori yaxshiroq nazorat qilinadi. Aksincha, bu hamkorlik sust bo‘lgan hollarda tarbiyaviy jarayonda bo‘shliq yuzaga kelishi mumkin.

Oilaviy muhitning yana bir muhim jihati bu bolalarning ruhiy holatidir. Mehr va e’tibor yetishmasligi, doimiy janjal va stress bolada ruhiy bosimni kuchaytiradi. Bunday holatlarda u o‘zini tushkun his qiladi va jamiyatdan uzoqlashishga moyil bo‘ladi. Natijada noto‘g‘ri guruhlar ta’siriga tushib qolish xavfi ortadi.

Ijtimoiy-iqtisodiy sharoit ham oilaviy muhitga bevosita ta’sir qiladi. Moddiy qiyinchiliklar, ishsizlik yoki oilaviy stress holatlari bolalarning psixologik barqarorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Ayrim hollarda bu holatlar voyaga yetmaganlarning noqonuniy yo‘l bilan moddiy ehtiyojlarini qondirishga urinishiga sabab bo‘ladi. Shu bilan birga, oilada ijobiy namunaning yo‘qligi ham muhim omillardan biridir. Bola ko‘pincha ota-onasining xatti-harakatlarini kuzatib, ulardan o‘rnak oladi. Agar oilada axloqiy me’yorlarga zid harakatlar kuzatilsa, bu bolaning xulqiga ham bevosita ta’sir qiladi.

Bugungi kunda voyaga yetmaganlar huquqbuzarligining oldini olish bo‘yicha bir qator zamonaviy yondashuvlar qo‘llanilmoqda. Jumladan, psixologik maslahatlar, profilaktik dasturlar va oilaviy qo‘llab-quvvatlash markazlari faoliyati kengaytirilmoqda. Bu chora-tadbirlar oilalarga tarbiya jarayonida yordam berishga qaratilgan.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, voyaga yetmaganlar huquqbuzarligi bugungi kunda jamiyat oldida turgan jiddiy ijtimoiy muammolardan biri hisoblanadi. Ushbu muammoning kelib chiqishiga bir qator omillar ta’sir

ko‘rsatsa-da, ularning ichida oilaviy muhit eng asosiy va hal qiluvchi o‘rinlardan birini egallaydi. Chunki har qanday bolaning shaxs sifatida shakllanishi, uning xulq-atvori, axloqiy qarashlari va hayotiy qadriyatlari birinchi navbatda oilada shakllanadi.

Agar oilada sog‘lom psixologik muhit mavjud bo‘lsa, ota-ona farzandiga yetarli darajada e’tibor, mehr va nazorat ko‘rsatsa, bola jamiyatda o‘z o‘rnini topishga intiladigan, mas’uliyatli va to‘g‘ri qarorlar qabul qila oladigan shaxs sifatida ulg‘ayadi. Bunday oilalarda tarbiya jarayoni izchil va maqsadli olib boriladi, bu esa voyaga yetmaganlar o‘rtasida huquqbuzarliklarning oldini olishga xizmat qiladi.

Aksincha, oilada nizolar, beqarorlik, e’tiborsizlik yoki zo‘ravonlik hukm sursa, bu bolaning ruhiy holatiga salbiy ta’sir qiladi. Ota-ona nazoratining yetishmasligi va tarbiyaviy bo‘shliq esa voyaga yetmaganlarning noto‘g‘ri muhitga tushib qolish xavfini oshiradi. Natijada ular turli salbiy ta’sirlarga berilib, huquqbuzarlik yo‘liga kirib qolishlari mumkin.

Shuningdek, zamonaviy davrda internet va ijtimoiy tarmoqlarning keng tarqalishi ham oilaviy tarbiya ahamiyatini yanada oshirmoqda. Agar ota-onalar farzandining bo‘sh vaqtini nazorat qilmasa, u zararli axborotlar ta’siriga tushib qolishi ehtimoli ortadi. Shu bois oilada to‘g‘ri nazorat va sog‘lom muloqot muhim ahamiyatga ega.

Bundan tashqari, oila va ta’lim muassasalari o‘rtasidagi hamkorlik ham katta ahamiyat kasb etadi. Maktab, o‘qituvchi va psixologlar bilan yaqin aloqada bo‘lgan oilalarda bolalarning tarbiyasi yanada samarali bo‘ladi. Bu esa huquqbuzarliklarning oldini olishda muhim profilaktik vosita hisoblanadi.

Umuman olganda, voyaga yetmaganlar huquqbuzarligining oldini olishda eng asosiy yo‘l bu sog‘lom oilaviy muhitni shakllantirishdir. Ota-onaning mas’uliyati, mehr-oqibati, tarbiyaviy yondashuvi va jamiyat bilan hamkorligi kuchli bo‘lgan oilalarda voyaga yetganlar to‘g‘ri yo‘ldan boradi. Shuning uchun ham oilani mustahkamlash, tarbiya jarayonini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish va yosh avlodga e’tiborni kuchaytirish jamiyat barqarorligining muhim kafolatidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: Adolat, 2023.
2. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi. – Toshkent: Adolat, 2024.
3. O‘zbekiston Respublikasi “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2023.
4. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
5. Oila psixologiyasi va tarbiya asoslari: o‘quv qo‘llanma. – Toshkent: O‘qituvchi, 2020.
6. Pedagogika: umumiy o‘rta ta’lim uchun darslik. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021.
7. Voyaga yetmaganlar tarbiyasi va huquqbuzarlik profilaktikasi bo‘yicha uslubiy qo‘llanma. – Toshkent, 2022.
8. Ijtimoiy pedagogika asoslari: o‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.
9. O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi materiallari: voyaga yetmaganlar huquqbuzarligi bo‘yicha hisobotlar. – Toshkent, 2024.
10. Zamonaviy pedagogik va psixologik tadqiqotlar to‘plami. – Toshkent, 2023.

Foydalanilgan internet saytlari

1. https://ijournal.uz – O‘zbekiston ilmiy jurnallari va maqolalari platformasi (voyaga yetmaganlar huquqbuzarligi bo‘yicha ilmiy maqola)
2. https://journalss.org – tadqiqot maqolalari va tahliliy materiallar (huquqbuzarlik sabablari va profilaktika)
3. https://tadqiqotlar.uz – ilmiy tadqiqotlar va profilaktika mavzulari (voyaga yetmaganlar huquqbuzarligining oldini olish)

KICHIK TADQIQOT

Jasmina MAXMUDOVA,
BuxDPI 1-bosqich magistranti
jasminmakhmudova94@gmail.com

ALISHER NAVOIY XALQ OG‘ZAKI IJODI TADQIQOTCHISI

Annotatsiya: ushbu maqolada Alisher Navoiyning xalq og‘zaki ijodiga bo‘lgan munosabati, folklor namunalaridan foydalanish mahorati hamda xalqona tafakkurni yozma adabiyot bilan uyg‘unlashtirishdagi o‘ziga xos badiiy uslubi tahlil qilingan. Maqolada mutafakkir ijodida maqol, matal, afsona, rivoyat, mifologik obraz va xalq qo‘shiqlarining qo‘llanishi ilmiy asosda yoritilgan. Shuningdek, Navoiyning “Xamsa”, “Muhokamat ul-lug‘atayn” kabi asarlarida xalq tili va folklor an’analarining aks etishi misollar orqali ochib berilgan. Maqola Alisher Navoiy ijodining folklorshunoslik va adabiyotshunoslikdagi ilmiy ahamiyatini yoritishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: *folklor, xalq og‘zaki ijodi, mifologik obraz, xalqona tafakkur, yozma adabiyot, xalq tili, maqol va matallar, badiiy mahorat, “Xamsa”, “Muhokamat ul-lug‘atayn”.*

Аннотация: в данной статье анализируется отношение Алишера Навои к устному народному искусству, его мастерство использования фольклорных образцов и уникальный художественный стиль, сочетающий народное мышление с письменной литературой. Статья научно рассматривает использование пословиц, изречений, легенд, повествований, мифологических образов и народных песен в творчестве мыслителя. Также на примерах раскрывается отражение народного языка и фольклорных традиций в произведениях Навои, таких как «Хамса» и «Мухокамат уль-лугхайн». Статья призвана подчеркнуть научную значимость творчества Алишера Навои для фольклора и литературоведения.

Ключевые слова: *фольклор, народное устное искусство, мифологический образ, народная мысль, письменная литература, народный язык, пословицы и изречения, художественное мастерство, «Хамса», «Мухокамат уль-лугайин».*

Annotation: this article analyzes Alisher Navoiy’s attitude toward oral folk literature, his mastery in using folklore elements, and his unique artistic method of harmonizing folk thinking with written literature. The study scientifically examines the use of proverbs, legends, myths, folk songs, and mythological images in the poet’s works. Particular attention is paid to the reflection of folk language and folklore traditions in works such as “Xamsa” and “Muhokamat ul-lug‘atayn”. The research reveals the important role of Alisher Navoiy’s heritage in the development of literary criticism and folklore studies.

Key words: *folklore, oral folk art, mythological image, folk thinking, written literature, folk language, proverbs and sayings, artistic mastery, “Khamsa”, “Muhokamat ul-lug‘atayn”.*

Kirish. Buyuk mutafakkir, so‘z mulkining sultoni Alisher Navoiy o‘zining bebaho adabiy-ilmiy merosi bilan xalqimiz ma’naviy tafakkuri, milliy qadriyatlari va estetik dunyoqarashining shakllanishida beqiyos o‘rin egallab kelmoqda. Asrlar osha o‘z qimmatini yo‘qotmagan bu ulkan meros inson qalbini ezgulikka, komillikka, vatanparvarlik va insonparvarlik ruhiga yetaklovchi ma’naviy manba sifatida bugungi kunda ham yuksak ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, yosh avlod ongida milliy o‘zlikni anglash, tarixiy xotiraga hurmat, go‘zallik va nafosatni his etish, ezgu fazilatlarni qadrlash kabi insoniy tuyg‘ularni shakllantirishda Navoiy asarlari muhim tarbiyaviy va ma’rifiy vosita bo‘lib xizmat qilmoqda.

Alisher Navoiy nafaqat zabardast shoir va mutafakkir, balki xalq ruhiyati, xalq tafakkuri hamda xalq og‘zaki ijodining nozik bilimdoni sifatida ham alohida e’tiborga loyiqdir. Adib xalqning ko‘p asrlik hayotiy tajribasi va ma’naviy xazinasini chuqur anglagan holda, ularni yozma adabiyot mezonlari bilan uyg‘unlashtira oldi. Natijada Navoiy ijodi xalqona ruh va yuksak badiiy tafakkurning mushtarak namunasi sifatida maydonga keldi.

Ma’lumki, yozma adabiyot va xalq og‘zaki ijodi o‘rtasidagi munosabatlarni tadqiq etish adabiyotshunoslikning eng muhim va dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Chunki folklor xalqning tarixiy xotirasi, dunyoqarashi, ma’naviy qadriyatlari va estetik didini o‘zida mujassamlashtirgan noyob manbadir. Shu ma’noda, Navoiy asarlarida xalq og‘zaki ijodi unsurlarining qo‘llanishi, ularning badiiy-falsafiy talqini hamda yozma adabiyot taraqqiyotidagi o‘rni masalasi alohida ilmiy qimmatga ega. O‘zbek adabiyotshunosligida bu yo‘nalishda salmoqli ilmiy izlanishlar olib borilgan bo‘lsada, Alisher Navoiyning folklor namunalaridan foydalanish mahorati, xalqona tafakkurni badiiy estetik mezonlar bilan uyg‘unlashtirishdagi o‘ziga xos uslubi hamon keng tadqiq etilishi zarur bo‘lgan masalalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Muhokama va natijalar. O‘zbek klassik adabiyoti va folklor muammosining ko‘p masalalari ulug‘ o‘zbek shoiri va mutafakkiri Alisher Navoiy ijodida mujassamlanadi. Bu tabiiy. Chunki Alisher Navoiy o‘zbek mumtoz adabiyotining, o‘zbek adabiy tilining muassisidir. Bunday ulug‘ siymoning xalq qalbidan mangu o‘rin olishi, uning oliy hurmatiga sazovor bo‘lishi va xalq ijodiga samarali ta’sir etishi ham tabiiydir[1].

Yuqorida aytib o‘tilganidek, buyuk mutafakkir shoir ijodining bu yo‘siniga ham bir necha olim qiziqish bildirgan va tadqiq qilishga muyassar bo‘lishgan. Navoiy ijodida folklor an’analarini tadqiq etish, bu sohada shoir mahoratini o‘rganishga o‘tgan asrning birinchi yarmidayoq kirishilgan edi. Jumladan, M.Shayxzoda shoir ijodida xalq qo‘shiqlaridan foydalanishning o‘ziga xosligi, adabiyotshunos olim

1 Mallayev N. Alisher Navoiy va xalq ijodiyoti. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1974. 14-bet.

N.M.Mallayev, folklorshunos olim M.Alaviya, olim M.Afzalov, M.Hakimovlar Navoiy ijodida folklor an'analari, undan ijodiy ta'sirlanish, shoir badiiy mahoratining ko'rsatgan ijodiy xususiyatlari haqida qarashlari bayon etilgan.

M. Shayxzoda masalaning umumiy va qimmatini ta'kidlab, o'z maqolasini quyidagi so'zlar bilan boshlaydi: "Genial shoirimizning so'nmas ijodiyoti Sharq adabiyotning yozuv manbalari bilan birga xalq ijodining ham bitmas-tuganmas xazinalaridan ko'p injular oldi. Asosan, bu ikki bazasi Navoiy ijodining baland imorati uchun mahkam poydevor rolini o'ynadi"[2]. Muallif Navoiy dostonlarining o'zida ham, uning dostonlaridagi syujet ham faqat kitoblardan olinmay, xalq og'zaki ijodi bilan bog'langanligi to'g'risida bir necha xarakterli ishoratlar bor deb, "Farhod va Shirin"dan quyidagi baytlarni keltiradi:

Ki el Parvizdin mag'bun edilar,
Dog'i aning uchun maftun edilar.
Deb ul ma'nida tab' ahli g'azal ko'p,
Mug'anniylar yasab savtu amal ko'p.
Chekib dard ahli ohi oshiqona,
Tuzub ul savtlar birla tarona[3].

Bu baytlarni o'qish orqali "Farhod va Shirin" dostoni syujeti dastlab xalqda yaratilganini anglab yetamiz. Shu bilan birga, u dostonning o'zidagi xalq asarlariga xos uslub, voqeani rivojlantirish usullariga e'tiborni jalb etadi. Masalan, Shirin Farhod fojiasini xalq og'zida aytib yurilgan qo'shiqlar orqali eshitadi. Maqola muallifi Navoiyning "Sabai sayyor" dostonidagi hikoyalarida xalq ertaklariga xos boshlanma usulini qo'llaganini ta'kidlaydi. U Navoiyning xalq maqollaridan foydalanishi haqida "bu sohada Navoiy shu qadar ustalik ko'rsatganki, birmuncha maqollarning xalqdan Navoiyga yo Navoiydan xalqqa o'tganini aniqlash ham hozircha qiyin" deydi va Navoiy dostonlari hamda "Mahbub ul-qulub"dagi maqollardan namunalar keltiradi. Alisher Navoiy xalq qo'shiqlaridan foydalanishi, qo'shiqlarni "Mezon ul-avzon" asarida ta'rif-tavsif etishi haqida ma'lumot beradi.

Ana shunday yirik ijodiy munosabat folklorshunos olim, professor O.Safarovning tadqiqotida ham ko'zga tashlanadi[4]. Eng avvalo, olim Alisher Navoiyning folklorshunos olim sifatida amalga oshirgan xizmatlarini e'tirof etadi. Alisher Navoiyning bevosita say-harakatlari bilan folklor janriga daxldor bo'lgan doston, afsona, qissa, latifa, rivoyat, mazah, masal, maqol, lof, cho'pchak, naql, o'zmoq, qo'shiq, chinka, o'lang, qo'g'irchoq o'yini turini anglatuvchi "Fonus xayol" kabi atamalarning ilmiy tavsifini yaratganini izohlaydi.

2 Shayxzoda M. G'azal mulkining sultoni. Alisher Navoiy haqidagi tadqiqot va maqolalar majmuasi, 1972. 23-bet.
3 Alisher Navoiy. Xamsa. – Toshkent: O'zFA nashriyoti, 1958. 289-bet.
4 Safarov O. O'zbek xalq og'zaki ijodi. – Toshkent: "Musiqa" nashriyoti, 2010.

Ulug' shoirning ishlaridan yana biri shuki, xalq ijodkorlari va ijrochilari ixtisoslashganligini e'tirof etadi. Ular – yirovlar, o'zonlar (qo'bizchi), roviylar, noqillar, afsunpardozlar, dostonsarolar, qissasozlar, qissaxonlar, xazzolar (hazilkashlar), bozdago'ylar (latifago'ylar), go'yandalar, navhogarlar, navogo'ylar kabi ijodkorlar ekanligini bayon etadi.

Xalqimizning o'rta asrlarda yaratilgan afsonalari va asotirlari ta'sirida yuzaga kelgan Avj ibn Unuk, Qaqnus, Samandar, Humoy kabi mifologik obrazlar va detallarning Alisher Navoiy asarlarida poetik ifodasi talqin etilgan.

Navoiyning xalq ijodiga bo'lgan chuqur moyilligini ko'rsatuvchi omillardan yana biri badiiy asarning xalqchilligi, asar xalqning barcha tabaqalariga tushunarli bo'lishi uchun kurashganligidir. O'z-o'zidan ma'lumki, bunday asarlar so'zsiz xalq jonli tili asosida yaratiladi. Navoiy "Farhod va Shirin" dostonining kirish qismida "Xamsa"ni hammaga barobar manzur bo'lishini orzu qilib, quyidagi baytlarni keltiradi:

Shah olsa dog'i qilsun toji torak,
Qul olsa ham anga bo'lsin muborak[5].

Alisher Navoiy asarlarini sinchiklab mutolaa qilar ekanmiz, o'zbek xalqining boy an'anaviy og'zaki adabiyotiga ega ekanligini ta'kidlovchi o'rinlarga duch kelamiz. Bu holat, ayniqsa, "Muhokamat ul-lug'atayn" asarida yaqqol sezilib turadi. Navoiy ana shu jonli til, og'zaki adabiyot xazinalarining ishlatilmasdan qolganini, she'riyat ahllari ulardan foydalanmaganini afsus bilan tilga oladi: "Bori har taqdir bilaki bor, bovujud turk alfozining forsiyg'a muncha maziyati va nafs amrda muncha diqqati va vus'ati nazm tariqida shoye' emas erdi va kitmon nihon xonasig'a tushub erdi, balki matruk bo'lurg'a yovushib erdi"[6].

Xulosa. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Alisher Navoiy nafaqat buyuk shoir va mutafakkir, balki xalq og'zaki ijodining chuqur tadqiqotchisi sifatida ham tarixda o'chmas iz qoldirgan. Uning asarlarida xalq ijodiga, ayniqsa, afsona, ertak, maqol, matal, doston va xalq qo'shiqlariga bo'lgan katta qiziqish va yondashuvini ko'rish mumkin.

Navoiy o'z asarlari orqali nafaqat o'quvchini go'zallikka oshno etdi, balki xalq ijodining bebaho xazinasi borligini, bu merosni o'rganish va asrab-avaylash kerakligini ham uqtirdi. Shunday ekan, Alisher Navoiy nafaqat ijodkor, balki xalq ruhiyatining, tarixiy xotirasining, og'zaki merosining bilimdoni va targ'ibotchisi sifatida qadrlanadi.

Bugungi kunda Navoiy merosini o'rganishda uning xalq og'zaki ijodiga bo'lgan munosabati muhim manba sifatida xizmat qiladi. Bu esa bizga Navoiy orqali xalq ijodining tub ildizlarini chuqurroq anglash imkonini beradi.

5 Alisher Navoiy. Xamsa. – Toshkent: O'zFA nashriyoti, 1958. 150-bet.
6 Alisher Navoiy. Asarlar. 14-tom. – Toshkent: Fan, 1967. – B. 118-119.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alisher Navoiy. Asarlar. 15 tomlik. Mezon ul-avzon. 14- tom. – Toshkent: Fan, 1867. 198-b.
2. Alisher Navoiy. Xamsa. – Toshkent: O'zFA nashriyoti, 1958. – 778 b.
3. Mallayev N. Alisher Navoiy va xalq ijodiyoti. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1974. 381-b.
4. Safarov O. O'zbek xalq og'zaki ijodi. – Toshkent: "Musiqa" nashriyoti, 2010. 367-b.
5. Shayxzoda M. Asarlar. IV jild. G'azal mulkining sultoni. – Toshkent: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1996. 372-b.

Diyora O‘KTAMOVA,
Navoiy davlat universiteti
O‘zek tili va adabiyoti fakulteti 2-bosqich magistranti
diyoraoktamova7@gmail.com

ISTIQLOL YILLARIDA ALISHER NAVOIY “QIT’A”LARINING O‘RGANILISHIGA BO‘LGAN E’TIBOR

Annotatsiya: ushbu maqolada Alisher Navoiy qit’alarida insoniyat va uning olami, o‘zligini tanish, insonlarga bo‘lgan munosabatlari xatti-harakatlari, tarbiyaviy o‘gitlari, ichki, ruhiy nozikliklari haqida fikr-mulohazalar yuritilgan.Mustaqillik davri navoiyshunosligida mafkuraviy cheklovlardan holi holda tasavvufiy-falsafiy, badiiy-poetik hamda milliy-ma’naviy talqinlarning shakllangani ko‘rsatib beriladi. Mazkur janrlarning Navoiy badiiy tafakkurini anglashdagi ahamiyati ochib beriladi

Kalit so‘zlar: *Alisher Navoiy qit’alarida umuminsoniy qadriyatlar, ayb qidirmaslik, kamtarinlik xususiyatlari, tasavvuf, ramziy obrazlar.*

Аннотация: в данной статье на материале китъа (четверостиший) Алишера Навои рассматриваются размышления о человеке и его мире, самопознании, отношении к людям, поступках, воспитательных назиданиях, а также внутренних и душевных тонкостях. Показано, что в навоиведении периода независимости сформировались суфийско-философские, художественно-поэтические и национально-духовные интерпретации, свободные от идеологических ограничений. Раскрывается значимость указанных жанров для понимания художественного мышления Навои.

Ключевые слова: *общечеловеческие ценности в китъа Алишера Навои, непоиск недостатков, качества скромности, суфизм, символические образы.*

Annotation: this article, based on Alisher Navoi’s qit’as (quatrains), presents reflections on humanity and its world, self-awareness, attitudes toward people, behaviors, educational instructions, as well as inner and spiritual subtleties. It demonstrates that in Navoi studies of the independence period, Sufi-philosophical, artistic-poetic, and national-spiritual interpretations have emerged, free from ideological constraints. The significance of these genres in understanding Navoi’s artistic thought is revealed.

Key words: *universal human values in Alisher Navoi’s qit’as, not seeking faults, traits of humility, Sufism, symbolic images.*

Kirish. Alisher Navoiy ijodi o‘zbek mumtoz adabiyotining yuksak cho‘qqisi bo‘lib, uning lirikasida kichik janrlar, xususan, qit’a muhim o‘rin egallaydi. Uzoq yillar davomida qit’a janri Navoiy ijodida ikkinchi darajali shakl sifatida talqin qilinib kelgan.

Shoir qit’alarida hayotiy tajriba, insoniy kamolot, nafs va ruh munosabati kabi masalalar markazga chiqariladi.Sovet davrida Navoiy qit’alariga asosan, ijtimoiy-tanqidiy nuqtayi nazardan qaralib, ularning tasavvufiy va falsafiy qatlamlari yetarlicha ochib berilmadi. Qit’a janri ko‘pincha didaktik xarakterdagi she’riy parchalar sifatida talqin qilindi.Istiqlol davrida esa qit’a janriga bo‘lgan munosabat tubdan o‘zgardi. Endilikda qit’a mustaqil poetik hodisa, Navoiy lirikasining muhim tarkibiy qismi, badiiy-estetik jihatdan mukammal janr sifatida baholandi.

Metodologiya va adabiyotlar tahlili. Tadqiqot tarixiy-qiyosiy, komponental va poetik tahlilga asoslandi. Istiqlol davrida qit’alarni o‘rganishdagi asosiy ilmiy yo‘nalishlarga M. Asadov ham o‘z hissasini qo‘shgan.Navoiy lirikasining ayrim masalalarini tahlil qilish jarayonida qit’a janriga alohida e’tibor qaratadi. Olim qit’alarni g‘oya va shakl uyg‘unligi nuqtayi nazaridan tahlil qilib, ularda badiiylikning muhim unsurlari mujassam ekanini asoslaydi. Tadqiqotchi ayrim qit’alarda ruboiyga xos xususiyatlar kuchayganini, ba’zilarida esa nasihat va hikmat yetakchilik qilishini ko‘rsatadi.

Hamidulla Boltaboyev qarashlarida qit’a poetikasi esa mumtoz poetika doirasida qit’a janrining nazariy xususiyatlarini yoritadi. Shu o‘rinda N. Komilov esa qit’alarni tasavvufiy-irfoniy nuqtayi nazardan tahlil

qiladi. Uning fikricha, Navoiy qit'alarida insonning ruhiy kamoloti, Haqqa intilish va nafsni tiyish masalalari markaziy o'rin tutadi.

Natijalar va muhokama. Najmiddin Komilov qit'alarni tahlil qilishda ramziy-semantik yondashuvdan keng foydalanadi. U qit'alarda uchraydigan "ishq", "yor", "may", "dard", "vasl" kabi obraz va tushunchalarni bevosita ma'noda emas, balki tasavvufiy ramz sifatida talqin qiladi. Masalan, "yor" — ilohiy Haq, "ishq" — ilohiy muhabbat, "may" — ma'rifat nuri sifatida izohlanadi.Bu yondashuv orqali qit'alar mazmunidagi ko'p qatlamlilik ochilib, ularning ichki falsafiy mohiyati aniqlanadi. Istiqlol davrida olib borilgan tadqiqotlar natijasida qit'a janrining badiiy mustaqilligi isbotlandi.

Mustaqillik mafkurasi ta'sirida Navoiy kichik janrdagi asarlari axloqiy tarbiya, ma'naviy komillik, milliy o'zlikni anglash nuqtayi nazaridan o'rganildi. Qit'alar asosan, yosh avlodni tarbiyalashda muhim manba sifatida baholandi. Quyida esa Alisher Navoiyning ba'zi qit'alarini N.Komilov tadqiqoti singari tadqiq etishga harakat qilamiz.

Nokas-u nojins avlodin kishi bo'lsun debon,
Chekma mehnatkim, latif o'lmas kasofat olami.
Kim, kuchuk birla xo'dukka necha qilsang tarbiyat,
It bo'lur, dog'i eshak, bo'lmaslar aslo odami.

Buyuk mutafakkir bu qit'asi axloqsiz va tarbiyasiz kimsalardan noroziligini, ularga har qanday aytilgan so'zlar samarasiz ekanligini aytib o'tadi. Bu o'rinda adibda norozilik holatiga sabab bo'layotgan "nokas", "nojins" kimsalarning xarakter-xususiyatini "kuchuk" va "xo'duk" simvollarini keltirish orqali fikrini dalillaydi. Bu jihatdan Navoiyda so'z qo'llashga bo'lgan qisqalik, fikrlar oshkoraligi va maqsad aniq yo'naltirilganini ko'rishimiz mumkin

Navoiy, tiling asrag'il zinhor,
Desangkim, yemay dahr ishidin fusus.
Nazar qilki, o'q og'zi tilsiz uchun
Qilur tojvarlar bila dastbo's.

"Aytilgan so'z otilgan o'q" deganlaridek, Navoiy ham shu naqlga yuqoridagi qit'asida amal qilganligini ko'rishimiz mumkin.Bu o'rinda adib so'z qo'llashda ehtiyotkor bo'lmoqlikka, o'rinli va mazmunli so'zlamoqlikka, ezmalik va bema'ni so'zlarni aytib, el orasida obro'siz bo'lib qolmaslikka chaqiradi.O'rinsiz gapiruvchi ezma odamlarni xo'rozga o'xshatish orqali bunday insonlardan alamzada ekanligini ifodalaydi.

Yuqori o'ltururni kim tilasa,
Kishilikdin ani yiroq bilgil,
O'lturur safda yuqorilikdin
O'lturur safda yaxshiroq bilgil.

Alisher Navoiy o'zining asarlarida hukmdorlar, mansab egalari haqida juda ko'p yozgan. Bu o'y-xayollar orzusida juda ko'p obrazlar yaratgan. Masalan, "Hayrat ul-abror" dostonidagi Shoh G'oziy hikoyatida shohning adolatpeshaligi oldida hatto ona ham o'z da'vosidan kechishi, yoki "Majolis un-nafois" asarining yettinchi majlisi "Salotin bobida" deb nomlanishining o'zida ham sultonlar va ularning davlat ishlaridagi amallari aytib o'tilgan.

Navoiy o'zining orzusidagi hukmdor qanday bo'lishi kerakligini o'zining asarlari orqali yaratgan obrazlari yordamida ifoda etgan.

Yuqoridagi qit'ada ham hayotda faqat amal-mansab ilinjida yurib, shuning orqasidan boylik orttirib, o'zini, o'zligini unutadigan shaxslar hozirgi zamonamizda ham topiladi. Chunki mansab va boylik o'tkinchi, bu bilan mast bo'lib qolmaslik zarur.

Xulosa. Mustaqillikdan so'ng Alisher Navoiyning kichik janrdagi asarlarini o'rganish yangi bosqichga ko'tarildi. Bu davr tadqiqotlarida istiqloldan keyin Navoiy asarlarining to'liq va tanqidiy matnlari nashr etildi. Oliy va o'rta ta'lim darsliklarida kichik janrlarga kengroq o'rin berildi, ilmiy maqolalar va dissertatsiyalarda qit'alar alohida tadqiqot obyekti bo'ldi. Mafkuraviy cheklovlardan xoli, tasavvufiy-falsafiy va milliy-ma'naviy yondashuvlar ustuvor bo'ldi. Natijada qit'alar Navoiyning badiiy tafakkuri va ma'naviy merosini to'liq anglashda muhim manba sifatida e'tirof etildi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alisher Navoiy Mukammal asarlar to'plami, 20 jildlik – T., 2003.
2. Alisher Navoiy Mukammal asarlar to'plami G'aroyib us-sig'ar. 3-tom – T., 2003.
3. Alisher Navoiy Mukammal asarlar to'plami. Favoyid ul-kibar. 6-tom – T., 2000.
4.Komilov N.Navoiy va irfon. – Toshkent: Fan, 1996.
5.Komilov N.Tasavvuf. – Toshkent: Movarounnahr, 2003.

Dilafruz MUHAMMADJONOVA,
Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti filologiya fakulteti o‘zbek tili va adabiyoti ta’lim yo‘nalishi 2-kurs talabasi

NAVOIY ASARLARINING TARQALISHIDA O‘ZBEK XATTOTLARINING O‘RNI

Annotatsiya: mazkur maqolada Alisher Navoiy asarlarining ommalashish jarayonida o‘zbek xattotlarining tutgan o‘rni va ahamiyati tahlilga tortiladi. Xususan, xattotlarning ijodiy va texnik mahorati, yozuvchi bilan o‘zaro munosabatlari, shuningdek, ular orqali Navoiy merosining keng hududlarga yoyilishi masalalari yoritiladi. O‘zbek xattotlik maktabining shakllanishi va rivojlanishi hamda uning adabiy merosini saqlash va avlodlarga yetkazishdagi hissasi ilmiy jihatdan isbotlanadi. Maqolada tarixiy manbalar va qo‘lyozma nusxalar asosida xattotlar faoliyati ochiqlanib, ularning madaniy merosni rivojlantirishdagi roli ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: *xattotlik san’ati, adabiy meros, qo‘lyozma nusxalar, xattotchilik an’analari, tarixiy manbalar, kitobatchilik.*

Аннотация: в данной статье анализируется роль и значение узбекских каллиграфов в процессе популяризации произведений Алишера Навои. В частности, рассматриваются творческое и техническое мастерство каллиграфов, их взаимоотношения с писателем, а также вопросы распространения наследия Навои на обширных территориях благодаря их деятельности. Научно обосновываются формирование и развитие узбекской школы каллиграфии, а также её вклад в сохранение литературного наследия и передачу его будущим поколениям. На основе исторических источников и рукописных копий раскрывается деятельность каллиграфов и освещается их роль в развитии культурного наследия.

Ключевые слова: *искусство каллиграфии, литературное наследие, рукописные копии, традиции каллиграфии, исторические источники, книжное дело.*

Annotation: this article analyzes the role and significance of Uzbek calligraphers in the dissemination of Alisher Navoi’s works. In particular, it examines the creative and technical skills of calligraphers, their relationship with the writer, and the spread of Navoi’s literary heritage across vast regions through their efforts. The study scientifically substantiates the formation and development of the Uzbek school of calligraphy and its contribution to preserving literary heritage and transmitting it to future generations. Based on historical sources and manuscript copies, the activities of calligraphers are revealed, and their role in the development of cultural heritage is highlighted.

Key words: *calligraphy art, literary heritage, manuscript copies, calligraphic traditions, historical sources, book culture.*

Kirish. Alisher Navoiy turkiy adabiyot tarixida beqiyos o‘rin egallagan buyuk mutafakkir sifatida nafaqat o‘z davrining, balki keyingi asrlarning ham ma’naviy-ma’rifiy taraqqiyotiga kuchli ta’sir ko‘rsatgan.Uning boy adabiy merosi asrlar davomida keng tarqalib, turli hududlarda qayta-qayta ko‘chirilishi orqali avloddan-avlodga yetkazib kelindi. Bu jarayonda, ayniqsa, o‘zbek xattotlarining roli nihoyatda muhim bo‘lib, ular Navoiy asarlarini nafaqat saqlab qolish, balki ularni estetik jihatdan boyitish va keng ommaga yetkazishda muhim vositachi vazifasini bajarganlar. O‘zbek xattotlik an’analari doirasida yaratilgan qo‘lyozma nusxalar Navoiy merosining tarqalishida asosiy manba sifatida xizmat qilgan. Xattotlar tomonidan yuqori badiiy did va kasbiy mahorat bilan ko‘chirilgan ushbu asarlar o‘z davrining madaniy darajasi, estetik qarashlari hamda kitobat san’ati taraqqiyotini ham aks ettiradi. Shu jihatdan, Navoiy asarlarining qo‘lyozma nusxalarini o‘rganish nafaqat adabiy, balki tarixiy-madaniy jarayonlarni tahlil qilishda ham muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.XV asrga qadar faqat ayrim kotiblar Navoiy asarlariga murojaat etgan bo‘lsalar, XV asrdan keyin yirik xattotchilik maktablari namoyondalari buyuk mutafakkir qalamiga mansub asarlarni ko‘chirish bilan mashg‘ul bo‘ldilar. Ular orasida o‘z mahorati

va yuksak badiiy ta’bi bilan shuhrat qozongan o‘zbek xattotlari ham mavjud bo‘lib, ular tomonidan yaratilgan qo‘lyozma nusxalar yuqori darajadagi aniqlik, husnixat go‘zalligi va bezak elementlari bilan ajralib turadi.

Asosiy qism. O‘zbekistonning turli hududlari, jumladan, XVI asrda Toshkent, Buxoro, Samarqand, XVII asrda Farg‘ona vodiysi va Xorazmda maxsus xattotlik maktablari ochildi. Ushbu asrlardan boshlab yurtimizda Navoiy asarlariga qiziqish nihoyatda kuchaydi va iqtidorli xattotlar asarni ko‘chirish bilan cheklanmay, asarlarning mazmuniga mos ravishda miniatyuralar ham chizish bilan faol shug‘ullandilar. “Navoiy asarlarini ko‘chirgan dastlabki Xorazm xattotlarini XVII asrdan uchratamiz. Do‘st Muhammad valadi Eshmuhammad XVII asr oxirlarida “Xamsa” ni ko‘chirgan. Xorazmlik xattotlar orasida Shermuhammad Munis ham alohida faxrli o‘rin egallaydi. Uning Navoiy asarlaridan ko‘chirgan uchta dastxat — qo‘lyozmasi yetib kelgan. XVI asrda Buxorolik xattotlardan Muhammad Ali al-Kotib as-Sultoniy, Ibn Abdulmakorim Abdulvahhob al-Hijoziy, Mahmud ibn Is’hoq Shahobiy tomonidan ko‘chirilgan nusxalar alohida ajralib turadi. Qo‘qonda Navoiy asarlarini ko‘chirish XIX asrning birinchi yarmidan juda keng tus olgan.Tarixiy ma’lumotlarga qaraganda, 1838-yilda Qo‘qon xoni Muhammad Alixon Navoiyning “Xazoyin ul-maoniy” asari 6 oyda 300 adad da bir xil tarkib va bir xil o‘lchov (hajm) da ko‘chirilib, she’rozali muqovalarga olinsin va viloyatlarga tarqatilsin, deb e’lon bergan. Shu davrda yaratilgan “Xazoyin ul-maoniy” ning qo‘lyozmalarida kotib tomonidan yozilgan xotima va ta’rixlarda “Ushbu nusxa Amir Alisher Navoiy devonlarining uch nusxa ko‘chirilganlaridan biri” degan qaydlarning tez-tez uchrab turishi yuqoridagi tarixiy ma’lumotni to‘liq tasdiqlaydi. Navoiy asarlarini ko‘chirgan Qo‘qonning yirik xattotlaridan Avazberdi ibn Tilov Muhammad Beshariqiy, Mullo Ro‘zi Kotib, Muhammad Sharif Dabir, Karimjon ibn Rahimjon, Sulaymonqul Rojiy, Nosirjon Hoji Xo‘qandiy, Ashurali Zohiriylarni ko‘rsatish mumkin”[1]. Darhaqiqat, Navoiy asarlari barcha xattotlarning asosiy e’tiborini o‘ziga jalb qildi. Har bir kotib o‘z imkoniyatidan kelib chiqqan holda asarlarning qo‘lyozma nusxalarini yaratdi. Besh asr davomida ko‘chirilgan qo‘lyozma nusxalarga nazar tashlar ekanmiz, ularning deyarli hammasi arab xatining nasta’liq uslubidan foydalanilgan. Oddiy kotiblar yirik, aniq va ravon nasta’liqda, san’atkor xattotlar mayda, nafis va badiiy nasta’liqda yozganlar. Shuningdek, o‘tmishda ko‘pgina kotiblar kamtarlik yuzasidan o‘zlari ko‘chirgan qo‘lyozmalarda ism-shariflarini aytmaganlar. Ularning qaysi xattotlik maktabidan ekanliklari maxsus davr, xat, minatyuraga qarab aniqlangan.

Quyida Navoiy asarlarining Hirotdan ancha uzoq bo‘lgan hududlarda ham tarqalishiga munosib hissa qo‘shgan ba’zi o‘zbek xattotlari bilan tanishamiz:

1.Abduljamil Kotib — Alisher Navoiyning shaxsiy kotibi. Mirxond “Ravzat us-safo” asarida ma’lumot berishicha, Abuljamil Hirotning Sultoniya madrasasida mudarrislik qilib sarf va nahv (morfologiya va sintaksisdan) dars bergan. U ko‘chirgan qo‘lyozmalardan hozircha fan olamida ikkitasi ma’lum, xolos. Ulardan biri Alisher Navoiyning “Xamsa”sidir (Toshkent, O‘zFASHI, inv. N.5018.Hajmi 325 varaq). “Navoiy “Xamsa”ni 1483-yilda yozishga kirishib, 1485-yil boshlarida tugallaydi. Abduljamil Kotib ham “Xamsa”ning yozilgan qismlarini peshma-pesh dastxat - musavvadadan oqqa ko‘chirib boraveradi”[2]. Demak, Abduljamil Kotib Navoiy bilan baravar ishlab, bir vaqtda “Xamsa”ni oqqa ko‘chirib tugatgan. “Xamsa” oqqa ko‘chirilib, birinchi marta kitobholigakelgach,unishaxsanNavoiyningo‘ziqo‘ligaolib nazar-e’tibordan o‘tkazgan bo‘lishi haqiqatga juda yaqindir. Mazkur qo‘lyozma navoiyshunoslikda “Xamsa”ning to‘ng‘ich nusxasi, Abduljamil nusxasi deb yuritiladi. Kotib ko‘chirgan ikkinchi qo‘lyozma Alisher Navoiyning “Navodir un-nihoya” devonidir (Toshkent, O‘zFASHI, inv. N.11675, hajmi 149 varaq). Abduljamil uzoq yillar Navoiy asarlarini kitobat qilishi jarayonida uning g‘azallaridan shohbaytlarni tanlab olib bir to‘plam tuzgan.Bu to‘plam “Tuhfat us-salotin” (“Sultonlarga tuhfa”) deb ataladi. Uning yagona bir nusxasi Londondagi Britaniya muzeyida saqlanmoqda.

2. Muhamad Ali Al-Kotib as-Sultoniy — Buxoro xattotlik maktabi namoyondalaridan. Buxoroda “Xamsa”ning “Sabbai Sayyor” va “Saddi Iskandariy” dostonlarini ko‘chirgan. Asl nusxa Angliyadagi Oksford universitetining Bodleyan kutubxonasida saqlanadi. Qo‘lyozmalarning xati badiiy nasta’liq uslubida.

3. Ibn Abdulmakorim Abdulvahhob al-Hijoziy — XVI asr Buxoro xattotlik maktabi namoyondalaridan.

1 M.Hakimov. Alisher Navoiy asarlarini ko‘chirgan xattotlar. —T.: O‘zbekiston SSJ Fan nashriyoti, 1991. 6-bet.

2 A.Murodov. O‘rta Osiyo xattotlik san’ati tarixidan. —T.: Fan nashriyoti, 2004. 56-bet.

“Xamsa” va “Lison ut-tayr”ni birgalikda ko‘chirgan. Qo‘lyozma Navoiy dostonlarining nafis xattotlik, kitobat va miniatyura san’ati bilan ziynatlangan noyob nusxalaridan biridir.

4. Mahmud ibn Is’hoq Shahobiy — XVI asr Buxoro xattotlik maktabi namoyondalaridan. U xatni shu qadar nozik va chiroyli bitganki, shuning uchun unga “Anbarin zarrinqalam” unvoni beriladi.Bu xattot Navoiyning “Majolis un- nafois” asarini Buxoroda kitobat qilgan. Kotib qo‘lyozma so‘nggida “Mahmud anbarin zarrinqalam” deb imzo qo‘ygan.

5. Rizoquli ibn Mustafoquli — Buxoro xattotlaridan biri bo‘lib, “Xazoyin ul-maoniy” ni ko‘chirgan.

6. Mullo Mirsiddiq ibn Mullo Sohibnazar — “Lison ut-tayr” va “Xamsa” ni Sharqiy Turkistonning Yorkand shahrida ko‘chirgan.

7. Rahmonqul ibn Qodirqul Hisoriy — “Tarixi anbiyo va hukamo”, “Tarixi muluki Ajam”, “Mahbub ul-qulub”, “Lison ut-tayr” ni yaxlit qo‘lyozma to‘plam holida kitobat qilgan.1822-1823-yillarda Buxoroda ko‘chirilgan. Aniq va ravon nasta’liq xatda.

8. Mullo Ro‘zi Kotib — XIX asr Qo‘qon xattotlik maktabining eng yirik namoyondalaridan biri. “Lison ut-tayr” va “Xamsa”ni birgalikda ko‘chirgan. Qo‘lyozma XIX asr Qo‘qon xattotlik maktabida kitobat bo‘lgan eng mo‘tabar nusxalardan hisoblanadi. U nafis badiiy bezaklarga ega. Dostonlarning mazmuniga xis holda 47ta miniatyura ishlangan.Bu miniatyuralarni XIX asrning birinchi yarmida Qo‘qonda yashagan naqqosh va musavvir Muhammad Amin Kosoniy (Munshiy) chizgan.

9. Muhammad Yusuf ibn Xojamberdi Rojiy — Xorazmlik iste’dodli shoir va tarjimon, mohir xattot. Rojiyning Navoiy asarlaridan ko‘chirgan 2 ta qo‘lyozmasi ma’lum: “Xamsa” va “Lison ut-tayr”. Har ikki qo‘lyozma ham chiroyli nasta’liq xatda.

10. Karimjon ibn Rahimjon — butun faoliyatini Navoiy asarlarini ko‘chirishga bag‘ishlagan qo‘qonlik xattotlardan.U ko‘chirgan qo‘lyozmalardan “Xamsa” ning 3 nusxasi yetib kelgan.To‘liq nasta’liqdan foydalanilgan.

Navoiy asarlari qo‘lyozmalari besh asr davomida dunyoning turli burchaklariga tarqaldi. Kotiblarning ba’zilar Navoiy asarlaridan faqat bittasini ko‘chirgan bo‘lsa, ba’zilari bir necha, hatto o‘nlab asarlarni ko‘chirgan. Butun hayotini mana shu sohaga sarf qilgan kotiblar ham yo‘q emas. Xususan, har bir kotib muayyan xattotlik maktabi vakili hisoblanib, o‘z maktabida mavjud bo‘lgan maxsus an’ana va tamoyillarni saqlab qolish va ommalashirishga harakat qilgan.

Xulosa qilib aytganda, Alisher Navoiy ijodi o‘zbek adabiyoti tarixida yuksak badiiy va ma’naviy ahamiyatga ega bo‘lishi bilan birga, qo‘lyozma madaniyati va xattotlik san’atining rivojlanishiga ham kuchli ta’sir ko‘rsatgan. Uning asarlari nafaqat mazmun jihatdan, balki shakl va estetik bezak nuqtayi nazaridan ham o‘z davrining eng mukammal yozma yodgorliklari hisoblangan. Shu sababli Navoiy asarlari xattotlar uchun eng muhim va eng ko‘p ko‘chiriladigan manbalardan biri bo‘lib xizmat qilgan. Shuningdek, Navoiy merosi orqali xattotlik san’ati nafaqat estetik, balki ma’naviy-ma’rifiy vazifani ham bajara boshladi. Uning asarlaridagi g‘oyalar, insonparvarlik, adolat va ma’rifatparvarlik ruhi qo‘lyozmalar orqali keng tarqalib, jamiyatning madaniy ongiga kuchli ta’sir ko‘rsatdi. Xattotlar yaratgan nafis qo‘lyozmalar esa bu g‘oyalarning avloddan-avlodga yetib borishida muhim vosita bo‘lib xizmat qildi.Zero, Alisher Navoiy va o‘zbek xattotlari o‘rtasidagi bog‘liqlik o‘zbek madaniyati tarixida o‘ziga xos ilmiy va badiiy sintezni tashkil etadi. Bu meros bugungi kunda ham milliy madaniyatimizning ajralmas qismi sifatida qadrlanib, yosh avlodni badiiy did, tarixiy ong va ma’naviy barkamollikka undab kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Hakimov M. Alisher Navoiy asarlarini ko‘chirgan xattotlar. —T.: O‘zbekiston SSJ Fan nashriyoti, 1991.
2. Murodov A. O‘rta Osiyo xattotlik san’ati tarixidan. —T.: Fan nashriyoti, 2004.

Mohinur ALIYEVA,
Sharof Rashidov nomidagi
Samarqand davlat universiteti Urgut filiali talabasi
aliyevamohinur707@gmail.com

ALISHER NAVOIY VA JOMIY IJODIDA KOMIL INSON KONSEPSIYASINING QIYOSIY TAHLILI

Annotatsiya:ushbu maqolada mumtoz adabiyotning eng mashhur ikki ijodkori, ustoz-shogird an'anasini yuqori darajaga olib chiqqan Alisher Navoiy va Abdurahmon Jomiy asarlarida komil inson masalasi, asarlarida komil shaxs qanday sifatlarga ega bo'lishi haqidagi qarashlar bayon qilingan. Komil inson g'oyasining ochib berilishi, unga xos sifatlar ham ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, komil inson, tasavvuf, ta'limot, tatabbu, insoniylik, axloqiylik, do'stlik.

Annotation:this article discusses the issue of the perfect person in the works of two of the most famous authors of classical literature, Alisher Navoi and Abdurakhmon Jomi, who brought the tradition of teacher-student to a high level, and their views on what qualities a perfect person should have in their works. The idea of the perfect person is revealed, and his specific qualities are also indicated.

Key words: *Alisher Navoi, Abdurakhmon Jomi, perfect person, mysticism, teachings, taboos, humanity, morality, friendship.*

Аннотация: в данной статье рассматривается вопрос о совершенном человеке в произведениях двух самых известных авторов классической литературы, Алишера Навои и Абдурахмона Джоми, которые подняли традицию отношений учителя и ученика на высокий уровень, а также их взгляды на то, какими качествами должен обладать совершенный человек. Раскрывается идея совершенного человека, а также указываются его специфические качества.

Ключевые слова: *Алишер Навои, Абдурахмон Джоми, совершенный человек, мистицизм, учение, табу, гуманизм, мораль, дружба.*

Kirish. Sharq mumtoz adabiyotida "komil inson" konsepsiyasi markaziy falsafiy-estetik tushunchalardan biri hisoblanadi. Ushbu konsepsiya insonning ma'naviy kamoloti, axloqiy pokligi, ilohiy haqiqatga yaqinlashuvi va jamiyatdagi mukammal shaxs sifatidagi o'rnini belgilaydi. Ayniqsa, tasavvuf ta'limoti asosida shakllangan bu g'oya Alisher Navoiy va Abdurahmon Jomiy ijodida yuksak darajada badiiy-falsafiy ifodasini topgan.

Navoiy va Jomiy nafaqat zamondosh, balki ustoz-shogird munosabatida bo'lgan ijodkorlar sifatida komil inson masalasiga o'ziga xos yondashuvlarni ilgari surganlar. Ularning asarlarida komil inson – bu nafaqat axloqan pok shaxs, balki ilohiy ishq orqali kamol topgan, jamiyatga foydali, adolatli va donishmand inson sifatida talqin etiladi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi – Navoiy va Jomiy asarlarida komil inson konsepsiyasini qiyosiy tahlil qilish, o'xshash va farqli jihatlarini aniqlash hamda bu tushunchaning badiiy-falsafiy asoslarini ochib berishdir.

Adabiyotshunos olim Najmiddin Komilov ta'kidlaganidek, Navoiy va Jomiy ijodi "bir-birini boyitgan, o'zaro ta'sir asosida shakllangan ikki yuksak tafakkur tizimi" hisoblanadi.

Tadqiqot quyidagi metodlarga tayandi:

- qiyosiy-tahliliy metod
- tarixiy-adabiy yondashuv
- konseptual tahlil

O'zbek va tojik xalqlari o'rtasidagi adabiy, ma'naviy va madaniy aloqalar tarixida Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy o'rtasidagi do'stlik rishtasi hamda ustoz va shogirdlik munosabatlari alohida hamda yorqin sahifalarni tashkil etadi. Fors-tojik mutafakkir shoiri Abdurahmon Jomiy 1491-yilda Alisher Navoiy taklifi bilan uch devonini bir jildga jamlab, ularga debocha yozadi. Jumladan, Alisher Navoiyning fors tilida yaratilgan "Tuhfat ul-afkor" qasidasi Jomiyga bag'ishlangan edi. Bu Jomiyni yanada to'lqinlantiradi va u boshidan oxirigacha muammo janridagi bir qasida yaratadi:

Joh dori johiloso dar sar, ey komil mudom,
Jaholat xonam, na komil, chun turo joh ast kom.

Tadqiqotchilar aksar hollarda Navoiyning Jomiy ijodidan ta'sirlangani haqida fikr yuritadilar. Vaholanki, Abdurahmon Jomiy hazratlari ham Navoiy asarlaridan ta'sirlanib, tatabbu'lar yozgan. Jumladan, Alisher Navoiyning fors tilida yaratgan «***Tuhfat ul-afkor***» qasidasi Hirot adiblari

orasida keng shuhrat qozonadi. Aslida bu qasida Xusrav Dehlaviyning «***Daryoyi abror***» qasidasiga javob tarzida yozilgan bo‘lib, ***Jomiy***ga bag‘ishlangan edi. Navoiy ushbu qasidani Marvda yakunlab, Hirotga — Jomiyga yuboradi. Jomiy asarni o‘qib, tahsin va tuhfalar bilan Navoiyga maktub yo‘llaydi. Bundan tashqari, «Bahoriston» asarida «Tuhfat ul-afkor» qasidasini forsiy she’rning mumtoz namunasi sifatida alohida qayd etib, uning matlaini keltiradi:

Otashin la’le, ki toji xusravonro zevar ast,

Axgare bahri xayoli xom puxtan dar sar ast.

(Podsholar tojini bezagan olovday qizil la’l boshdagi xom xayollarni pishiradigan cho‘g‘dir.)

Alisher Navoiy va Abdurahmon Jomiy asarlarida komil inson konsepsiyasining falsafiy asoslari. Tasavvufshunos olim Najmiddin Komilov komil insonni “nafsni poklash, ruhni kamolga yetkazish va Haq bilan uyg‘unlashish jarayoni” sifatida izohlaydi.

Jomiy ijodida bu konsepsiya sof tasavvufiy yo‘sinda talqin qilinadi.U inson kamolotini ilohiy ishq orqali tushuntiradi. Jomiyning falsafasi tasavvufga asoslangan bo‘lib, uning asarlarida diniy-falsafiy masalalar keng yoritiladi.

Navoiy esa bu tushunchani kengaytirib, unga ijtimoiy mazmun yuklaydi. Tadqiqotlarda qayd etilishicha, Navoiy asarlarida komil inson sifatlari sifatida ***saxovat, adolat, sadoqat va vatanparvarlik*** alohida ta’kidlanadi.

Olimlar talqinida komil inson modeli. Adabiyotshunos E. E. Bertels Navoiy ijodini tahlil qilib, shunday yozadi:

“Navoiy insonni faqat ruhiy emas, balki ijtimoiy faol mavjudot sifatida ko‘radi”. Bu fikr Navoiy ijodidagi komil inson modeli jamiyat bilan uzviy bog‘liqligini ko‘rsatadi.

O‘zbek olimi Naim Karimov esa Navoiy haqida: “U yaratgan komil inson – bu xalq xizmatida bo‘lgan shaxsdir”,- deb ta’kidlaydi.

Jomiy haqida esa G‘afur G‘ulom uning ijodini baholab, uni “Sharqning buyuk mutafakkiri” deb ataydi va uning asarlarida insoniylik, axloqiy komillik g‘oyalari yetakchi ekanini ko‘rsatadi.

Abdurahmon Jomiy asarlarida quyidagi obrazni komil inson obrazi sifatida talqin qilish mumkin:

Yusuf – komil inson timsoli; asosiy fazilatlar: sabr, iffat, ilohiy ishq; komillik – sinov orqali yetishiladi.

Alisher Navoiy asarida esa Farhod obrazini komil insonga xos sifatlarga ega qahramon sifatida talqin qiladi. Bu yerda asosiy masala sifatida sevgi-muhabbatning kimga – insongami yoki Allohga qaratilganligi asosiy o‘rinda turadi.

Farhod – komil inson ramzi; asosiy fazilatlar: fidoyilik, mehnatsevarlik, adolat; komillik – jamiyatga xizmat bilan belgilanadi.

Shuningdek, Navoiy ijodida inson qadri eng muhim mezon sifatida ko‘riladi va bu uning amaliy faoliyatida ham aks etgan.

Ikki buyuk ijodkor asarlari orasida o‘xshash jihatlar ham mavjud:

- Har ikkala ijodkor tasavvufiy asosga tayanadi.
- Ilohiy ishq komillikning asosiy vositasi.
- Insonning ichki poklanishi muhim.
- Asardagi ishq Allohga bo‘lgan muhabbat deb qaralishi ham, xato sanalmaydi.

Turkiy va forsiy adabiyot darg‘alari sanalgan ijodkorlar asarlarining farqli jihatlari ham mavjud:

Jomiy	Navoiy
Ruhiy-ichki kamolotga urg‘u beradi	Ijtimoiy faoliyatga urg‘u beradi
Individual komillik	Ijtimoiy komillik
Tasavvufiy idealizm	Amaliy-gumanistik yondashuv

Najmiddin Komilov fikricha, bu ikki yo‘nalish “bir-birini inkor etmaydi, balki komil insonning to‘liq modelini yaratadi”.

Xulosa. Navoiy va Jomiy ijodida komil inson konsepsiyasi Sharq falsafiy tafakkurining yuksak namunasi sifatida shakllangan. Jomiy bu tushunchani ilohiy ishq va ruhiy poklanish orqali izohlasa, Navoiy uni ijtimoiy faoliyat, adolat va insonparvarlik bilan boyitadi. Natijada, ular birgalikda komil insonning mukammal – ruhiy va ijtimoiy jihatdan uyg‘un modelini yaratganlar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. A. Navoiy. *Xamsa*. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1983.
2. A. Jomiy. *Yusuf va Zulayho*. – Toshkent: Fan, 1990.
3. Komilov N. *Tasavvuf*. – Toshkent: Movarounnahr, 2009.
4. Qodirov N. *Alisher Navoiy va komil inson tarbiyasi*. – Toshkent: O‘zbekiston, 2004.
5. Komilov N. “Adabiyot va uch buyuk zot” // maqola.

Laylo TURABEKOVA,
Samarqand davlat chet tillar instituti Sharq tillari fakulteti
O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi 2- bosqich talabasi
turabekovalayloshavkatovna@gmail.com

ALISHER NAVOIYNING “SADDI ISKANDARIY” DOSTONIDA AXLOQIY ALGORITMLAR: QAROR QABUL QILISH MEXANIZMLARINING KOGNITIV TAHLILI

Annotatsiya: maqolada “Saddi Iskandariy” dostonidagi axloqiy algoritmlar va qaror qabul qilish mexanizmlari kognitiv yondashuv asosida tahlil qilinadi. Iskandar obrazi orqali adolat, aql, ilm hamda ma’naviy tafakkurning badiiy-falsafiy xususiyatlari ochib berilib, ideal hukmdor konsepsiyasi yoritiladi. Asarning axloqiy va kognitiv mohiyati chuqur izohlanadi.

Kalit so‘zlar: *“Saddi Iskandariy”, axloqiy algoritm, kognitiv tahlil, qaror qabul qilish, adolat konsepti.*

Annotation: the article analyzes the ethical algorithms and decision-making mechanisms in the saga of Saddi Iskandari based on a cognitive approach. Through the image of Alexander, the artistic and philosophical features of justice, reason, science, and spiritual thinking are revealed, and the concept of an ideal ruler is highlighted. The moral and cognitive essence of the work is deeply explained.

Key words: *“Saddi Iskandari”, ethical algorithm, cognitive analysis, decision-making, concept of justice.*

Аннотация: в статье на основе когнитивного подхода анализируются этические алгоритмы и механизмы принятия решений в эпосе Садди Искандари. Через образ Александра раскрываются художественно-философские особенности справедливости, разума, науки и духовного мышления, освещается концепция идеального правителя. Глубоко раскрывается нравственная и когнитивная сущность произведения.

Ключевые слова: *“Садди Искандари”, этический алгоритм, когнитивный анализ, принятие решений, концепт справедливости*.

Kirish. Sharq mumtoz adabiyoti inson tafakkuri, axloqiy qadriyatlar hamda jamiyat taraqqiyotiga oid g‘oyalarni badiiy-estetik shaklda ifodalagan ulkan ma’naviy meros hisoblanadi. Ayniqsa, Alisher Navoiy ijodi inson kamoloti, adolat, aql va axloqiy tanlov masalalarini chuqur falsafiy mushohada asosida yoritgani bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Shoirning “Xamsa” turkumiga kiruvchi “Saddi Iskandariy” dostoni nafaqat tarixiy-sarguzasht asar, balki davlat boshqaruvi, ijtimoiy munosabatlar va insoniy qarorlarning axloqiy mezonlarini aks ettiruvchi muhim didaktik manba sifatida ham qadrlanadi. Asarda Iskandar obrazi orqali rahbar shaxsining tafakkuri, muammoli vaziyatlarda qaror qabul qilish jarayoni, adolat va manfaat o‘rtasidagi muvozanat kabi masalalar badiiy-falsafiy talqin etiladi.

Adabiyotlar tahlili. Alisher Navoiy ijodini falsafiy, axloqiy hamda badiiy-estetik jihatdan o‘rganish o‘zbek adabiyotshunosligining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, Saddi Iskandariy dostoni yuzasidan olib borilgan tadqiqotlarda adolat, komil inson va ideal hukmdor konsepsiyalari asosiy o‘rin egallaydi. Akademik E. Bertels Iskandar obrazini Sharq falsafasidagi ideal rahbar timsoli sifatida talqin qilib, unda aql va axloq uyg‘unligini asosiy poetik tamoyil deb baholaydi[1]. Olimning fikricha, Navoiy Iskandar siymosida tarixiy shaxsdan ko‘ra ma’naviy tafakkur egasi bo‘lgan hukmdor modelini yaratgan. Izzat Sulton esa dostondagi didaktik va ma’naviy qatlamlarni tahlil qilib, qahramonlarning qaror va hukmlari axloqiy mezonlarga tayangan holda shakllanishini ta’kidlaydi[2].

Kognitiv adabiyotshunoslikda esa matn inson tafakkuri mahsuli sifatida o‘rganiladi. George Lakoff va Mark Johnson konseptual tafakkur nazariyasida insonning qaror qabul qilish jarayoni til, metafora va mental modellar bilan bog‘liqligini asoslaydi[3]. Bu yondashuv “Saddi Iskandariy”dagi axloqiy tanlovlarni kognitiv jihatdan tahlil qilishda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Walter Fisher esa narrativ paradigma nazariyasida badiiy matndagi axloqiy qarorlar hikoya strukturasi orqali shakllanishini qayd etadi[4]. Shu bois dostondagi dialoglar, pand-nasihatlar va hukmdorlikka oid sahnalar axloqiy algoritmning badiiy modeli sifatida talqin qilinadi.

Metodologiya. Mazkur tadqiqotda “Saddi Iskandariy” dostonidagi axloqiy qaror qabul qilish jarayonlarini tahlil etishda kognitiv-poetik, konseptual va diskursiv tahlil metodlaridan foydalanildi. Asardagi Iskandar obrazi hamda boshqa personajlarning nutqi, dialoglari va konfliktli vaziyatlardagi xatti-harakatlari semantik-pragmatik yondashuv asosida o‘rganildi.

Natijalar va muhokama. “Saddi Iskandariy” dostonida axloqiy qaror qabul qilish masalasi hukmdor shaxsining ichki tafakkuri bilan uzviy bog‘liq holda yoritiladi. Asarda Iskandar obrazi oddiy tarixiy qahramon emas, balki aql, adolat va ma’naviy mas’uliyat asosida ish yurituvchi ideal rahbar sifatida tasvirlangan. Navoiy qahramon faoliyatini tasvirlash orqali hukmdorning har bir qarori axloqiy mezon asosida shakllanishi lozimligini ko‘rsatadi. Shu jihatdan dostonda “axloqiy algoritm” modeli kuzatiladi:

1 Bertels E. E. Navoi i Djami. – Moskva: Nauka, 1965. 498-b.
2 Sulton I. Navoiyning qalb daftari. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1969. 312-b.
3 Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. – Chicago: University of Chicago Press, 1980. 256 p.
4 Fisher W. R. Narration as a Human Communication Paradigm: The Case of Public Moral Argument // Communication Monographs. 1984. – Vol. 51, № 1. – P. 1–22.

muammoni anglash – maslahatlashish – aql bilan tahlil qilish – adolatli qaror chiqarish. Navoiyshunos olim E. Bertels “Navoi i Djami” asarida Navoiy Iskandarni “ideal davlat boshqaruvchisi” sifatida talqin qilganini ta’kidlab, shoir uchun Iskandar timsolida tarixiylikdan ko‘ra axloqiy-falsafiy g‘oya ustunligini qayd etadi[5]. Olimning fikricha, Navoiy Iskandar orqali “aql va davlat” uyg‘unligini yaratishga intilgan. Bu qarash dostondagi quyidagi mazmun bilan hamohangdir:

“Ki shoh o‘lsa adl ichra ustuvor,
Bo‘lur mulk aro tinchlik barqaror”.

Mazkur misrada “adl” tushunchasi davlat boshqaruvining markaziy konsepti sifatida qo‘llanmoqda. Demak, qaror qabul qilish mexanizmining asosiy mezoni – adolatdir. Bu holat Sharq mumtoz tafakkuridagi “odil podshoh” konsepsiyasining badiiy ifodasidir.

Izzat Sulton “Navoiyning qalb daftari” asarida Navoiy ijodidagi axloqiy-falsafiy qarashlarni tahlil qilar ekan, shoir qahramonlari harakatida “ichki ma’naviy nazorat” muhim o‘rin egallashini ta’kidlaydi[6]. Olimning yozishicha, Navoiy uchun insonning ulug‘ligi uning hokimiyatida emas, balki ma’naviy tafakkurida namoyon bo‘ladi. Bu fikr “Saddi Iskandariy”dagi Iskandar faoliyatida yaqqol ko‘rinadi. U har bir hukm chiqarishdan oldin donishmandlar bilan maslahatlashadi. Bu esa qaror chiqarishning kollektiv tafakkur modeli ekanini ko‘rsatadi. Masalan, dostonda Iskandarning faylasuflar bilan muloqot sahnalari ko‘p uchraydi. Ushbu epizodlarda hukmdor biror masala yuzasidan birdaniga hukm chiqarmaydi, balki avval vaziyatni tahlil qiladi. Tadqiqotchi A. Hayitmetov Navoiy dostonlarida donishmand obrazlari “aql va tajriba timsoli” sifatida xizmat qilishini qayd etadi[7]. Demak, Iskandarning donolar bilan maslahatlashishi uning axloqiy algoritmida “analitik tafakkur” bosqichini hosil qiladi.

Dostonda ilm va tafakkur ham qaror qabul qilishning asosiy omili sifatida tasvirlangan. Navoiy Iskandarni jahongir sifatida emas, ilm ahli hurmat qiluvchi hukmdor sifatida ko‘rsatishga intiladi. Shuhrat Sirojiddinov Navoiy ijodiga bag‘ishlangan tadqiqotlarida shoirning komil inson haqidagi qarashlari ilm, adolat va ma’naviyat birligiga asoslanganini ta’kidlaydi[8]. Olimning fikricha, Navoiy uchun ilm – inson tafakkurini axloqiy jihatdan boshqaruvchi vosita hisoblanadi. Bu jihat dostondagi quyidagi mazmunda yaqqol namoyon bo‘ladi:

“Jahonda kishi kimki dono bo‘lur,
El ichra hamisha tavono bo‘lur”.

Bu yerda “dono” konsepti shunchaki bilim emas, balki to‘g‘ri qaror chiqarish qobiliyatini ham anglatadi. Demak, bilim va axloq o‘zaro bog‘liq kategoriyalar sifatida talqin qilinmoqda.

Oybek ham Navoiy haqidagi maqolalarida shoir dostonlaridagi hikoyatlar “poetik tafakkurning axloqiy modeli” ekanini qayd etadi[9]. Uning fikricha, Navoiy syujetni faqat voqealar ketma-ketligi sifatida emas, balki inson ruhiyati va tafakkurining harakati sifatida quradi. Bu holat “Saddi Iskandariy”dagi konfliktli vaziyatlarda, ayniqsa yaqqol seziladi. Iskandar ko‘pincha ikki yo‘l orasida qoladi: kuch ishlatish yoki murosa qilish. Navoiy esa qahramonni ko‘proq adolat va sabr tomon yo‘naltiradi. Tadqiqotchi A. Abdug‘afurov Navoiy ijodidagi axloqiy-satirik elementlarni tahlil qilib, shoir jamiyatdagi adolatsizlikni tanqid qilish orqali ideal boshqaruv modelini yaratganini yozadi[10]. Bu jihat “Saddi Iskandariy”da zolim hukmdorlar yoki johil kishilar obrazlari orqali ko‘rinadi. Navoiy Iskandarni ana shu salbiy obrazlarga qarama-qarshi qo‘yadi. Natijada asarda “axloqiy kontrast” yuzaga keladi.

Kognitiv nuqtai nazardan qaraganda, dostondagi qaror qabul qilish jarayoni til birliklari orqali ham ifodalanadi. George Lakoff va Mark Johnson metafora nazariyasida inson tafakkuri metaforik modellar orqali shakllanishini ta’kidlaydi[11]. “Saddi Iskandariy”da “nur”, “yo‘l”, “tarozi”, “ko‘zgu” kabi obrazlar axloqiy tafakkurning konseptual metaforalari sifatida xizmat qiladi.

Xulosa. “Saddi Iskandariy” dostoni inson tafakkuri, axloq va davlat boshqaruvi masalalarini o‘zida mujassamlashtirgan murakkab kognitiv-badiiy tizimdir. Asarda Iskandar obrazi orqali qaror qabul qilishning ideal modeli yaratiladi. Bu modelning asosiy komponentlari aql, ilm, maslahat, sabr va adolatdan iborat bo‘lib, ular birgalikda “axloqiy algoritm”ni shakllantiradi. Navoiy shu tariqa hukmdor shaxsining kuch bilan emas, tafakkur va ma’naviyat bilan ulug‘ bo‘lishini ilgari suradi.

5 Bertels E. E. Navoi i Djami. – Moskva: Nauka, 1965. 498-s.
6 Sulton I. Navoiyning qalb daftari. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1969. 312-b.
7 Hayitmetov A. Navoiy lirikasining poetik xususiyatlari. – Toshkent: Fan, 1967. 245-b.
8 Sirojiddinov Sh. Alisher Navoiy: manbalarining qiyosiy-tipologik, tekstologik tahlili. – Toshkent: Akademnashr, 2011. 336-b.
9 Oybek. Navoiy gulshani. –Toshkent: Adabiyot va san’at nashriyoti, 1967. 284-b.
10 Abdug‘afurov A. Alisher Navoiy ijodida satira. – Toshkent: Fan, 1972. 216-b.
11 Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. – Chicago: University of Chicago Press, 1980. 256 p.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdug‘afurov A. Alisher Navoiy ijodida satira. – Toshkent: Fan, 1972.216-b.
2. Bertels E. E. Navoi i Djami. – Moskva: Nauka, 1965. 498 s.
3. Fisher W. R. Narration as a Human Communication Paradigm: The Case of Public Moral Argument // Communication Monographs. 1984. – Vol. 51, № 1. – P. 1–22.
4. Hayitmetov A. Navoiy lirikasining poetik xususiyatlari. – Toshkent: Fan, 1967. 245-b.
5. Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. – Chicago: University of Chicago Press, 1980. 256 p.
6. Oybek. Navoiy gulshani. – Toshkent: Adabiyot va san’at nashriyoti, 1967. 284-b.
7. Sirojiddinov Sh. Alisher Navoiy: manbalarining qiyosiy-tipologik, tekstologik tahlili. – Toshkent: Akademnashr, 2011.336-b.
8. Sulton I. Navoiyning qalb daftari. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1969. 312-b.

Yulduz JOVLIYEVA,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
O‘zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi 2-kurs magistri
yulduzjovliyeva442@gmail.com

ORIFLIK VA ZOHIDLIK MASALALARI: “HAYRAT UL-ABROR” VA “ROHATI DIL” DOSTONLARI MISOLIDA

Annotatsiya: ushbu maqolada o‘zbek adabiyotining ikki buyuk darg‘asi bo‘lmish Alisher Navoiy va Xo‘janar Huvaydoning tasavvufiy qarashlari, ulardagi o‘xshashlik va farqlar haqida so‘z boradi. Maqolada o‘rganish obyekti sifatida “Hayrat ul-abror” va “Rohati dil” dostonlari olingan bo‘lib, dostonlardagi oriflik va zohidlik tushunchalari qiyosiy tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: *tasavvuf, oriflik, zohidlik, oshiqlik, irfon, shariat, tariqat, ma’rifat, haqiqat.*

Аннотация: в данной статье рассматриваются мистические взгляды двух великих мастеров узбекской литературы, Алишера Навои и Ходжанара Хувайдо, их сходства и различия. В качестве объекта исследования выбраны эпосы “Хайрат аль-аброр” и “Рохати дил”, а также проведен сравнительный анализ концепций арифизма и аскетизма в этих эпосах.

Ключевые слова: *суфизм, арифизм, аскетизм, любовь, ирфан, шариат, тарикат, просветление, истина.*

Annotation: this article discusses the mystical views of two great masters of Uzbek literature, Alisher Navoi and Khojanar Huvaido, their similarities and differences. The article takes the epics “Hayrat ul-abror” and “Rohati dil” as its object of study, and provides a comparative analysis of the concepts of Arifism and asceticism in the epics.

Key words: *Sufism, Arifism, asceticism, love, irfan, sharia, tariqat, enlightenment, truth*

Kirish. Tasavvuf adabiyoti o‘zbek mumtoz adabiyotining eng muhim va ajralmas qatlamlaridan biri bo‘lib, u nafaqat badiiy-estetik hodisa, balki chuqur falsafiy va ma’naviy ta’limot sifatida ham shakllangan. Tasavvuf insonning ichki dunyosini poklash, nafsni tiyish, komillikka erishish va ilohiy haqiqatni anglash yo‘lini targ‘ib etadi va shu jihatdan u o‘zbek adabiyotining mazmun-mohiyatini boyitib, uning ruhiy-falsafiy asoslarini mustahkamlab kelgan.

O‘zbek adabiyotida dastlabki tasavvufiy qarashlar Ahmad Yassaviy nomi bilan bog‘liq bo‘lib, u “hikmat”lari orqali tasavvuf g‘oyalarini xalqona, sodda va tushunarli shaklda ifodalaydi va “yassaviylik” tariqatiga asos soladi. Keyinchalik Turkiston hududida Najimiddin Kubro asos solgan Kubroviya va Xo‘ja Bahovuddin Naqshband asos solgan Naqshbandiya tariqatlari mashhur bo‘lib, ko‘plab ijodkorlar ularning tariqati va tasavvufiy qarashlariga ergashishgan.

Adabiyotlar tahlili va metodlar

Mazkur tadqiqotda o‘zbek mumtoz adabiyotida tasavvufiy tafakkurning yuksak namunalarini yaratgan Alisher Navoiy hamda Xo‘janazar Huvaydo ijodi ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinib, mavzu doirasida, avvalo, tasavvuf falsafasi, uning adabiyotdagi ifodasi, xususan, oriflik va zohidlik tushunchalarining mazmun-mohiyatiga oid ilmiy manbalar o‘rganildi. Sharq mumtoz adabiyotshunosligida tasavvuf talqini, inson kamoloti, ruhiy poklanish bosqichlari haqida olib borilgan tadqiqotlar, jumladan, Navoiy ijodiga bag‘ishlangan ilmiy ishlar hamda Huvaydo merosi yuzasidan mavjud izlanishlar tahlil etildi.

Maqolada qiyosiy-tahliliy, tarixiy-adabiy va konseptual yondashuvlardan foydalanildi. Qiyosiy-tahliliy metod yordamida ikki doston o‘rtasidagi g‘oyaviy va badiiy o‘xshashlik hamda tafovutlar ochib berildi. Tarixiy-adabiy metod orqali asarlarning yaratilish davri, mualliflarning dunyoqarashi va tasavvufiy muhit bilan bog‘liqligi izohlandi. Konseptual tahlil asosida esa oriflik va zohidlik tushunchalarining mazmuni, ularning har ikki ijodkor talqinidagi o‘rni va badiiy ifodasi chuqur o‘rganildi.

Muhokama. Tadqiqot obyekti bo‘lgan “Hayrat ul-abror” va “Rohati dil” dostonlarida Alisher Navoiy va Xo‘janazar Huvaydoning tasavvufiy-falsafiy qarashlari o‘z aksini topgan. Alisher Navoiy ijodida, xususan, “Hayrat ul-abror” dostonida oriflik falsafasi yaqqol namoyon bo‘ladi. **Oriflik** (عرفان) – tasavvufiy termin bo‘lib, Allohni haqiqiy bilim bilan anglagan ma’rifat sohibini anglatadi. Oriflar nafaqat ilm egasi, balki ichki poklik, nafsni tiyish va ruhiy kamolot yo‘lida muttasil mashqlar (riyozat) o‘tkazgan kishilardir.

Tasavvufda “sukra” va “savh” holatlari mavjud bo‘lib, ular biri sokinlik bilan boshqasi bo‘lsa, jazava bilan namoyon bo‘ladi. Shunga muvofiq ravishda tasavvuf ham oshiqona, orifona qismlarga ajraladi, orifona tasavvuf barcha ilmlarni qamrab oladigan, hikmat va falsafani ham qo‘shadigan tasavvufdir. [3;46-47]

Orif – botinini Allohga ochgan, o‘zini tanigan va Alloh ta’limida yuksalgan (ma’rifatga yetgan) shaxs bo‘lib, bu maqom zohir bilimdan yuqori, ichki tajriba va hikmat bilan bog‘liqligi bilan ajralib turadi. “Hayrat ul-abror” dostonida

esa oriflik faqat ilm olish bilan emas, balki ma’rifatni hayotga tatbiq etish san’ati sifatida tasvirlanadi: nafsni yengish, gunohdan tiyilish, dunyo va oxirat haqidagi to‘g‘ri tushunchani shakllantirish kabilarda yaqqol namoyon bo‘ladi.

Alisher Navoiyning “Hayrat ul-abror” dostonidagi barcha qahramonlar (Shoh G‘oziy, Anushirvon odil, Iskandar, Bahrom singari hukmdorlar, Boyazid Bistomiy, Ibrohim Adham, Robiya Adaviya, Xoja Abdulloh Ansoriy, Shayx Iroqiy, kabi tasavvuf ahli namoyandalari yoxud oddiy xalq vakillari) ham haqiqatga, komillikka intilishadi. Nafaqat “Hayrat ul-abror” balki Navoiyning shoh asari bo‘lmish “Xamsa” yoki Navoiyning tasavvufiy-falsafiy qarashlarini ifoda etgan “Lison ut-tayr” asarlari qahramonlari ruhiyatida ham kamolotga intilish orqali haqqa yetishish g‘oyasi ilgari suriladi. Navoiy hazratlarining o‘zi ham orif inson, shu bois asarlari qahramonlari ham ushbu yuksak daraja uchun doimiy intiladi.

Natijalar. Xo‘janazar Huvaydoning “Rohati dil” asarida esa zohidlik ustuvorlik qilishini ko‘rishimiz mumkin. **Zohidlik** – ibodat bilan mashg‘ul bo‘lish, Allohga itoat qilish, zohidona hayot kechirishni anglatib, zohidlar shariat qonun-qoidalarini yaxshi bilishadi va bunga qat’iy amal qilishadi. Ularda do‘zax azobidan qo‘rqish, jannatga kirish umidi va istagi ustunlik qiladi. Xususan, “Dar bayoni asmoyi Jahannam” bobida muallif umidvorlik bilan:

Ilohe jumlaga jannat nasib et,
Jamoli bezavolinga qarib et![1:31]

deya Yaratganga yolvoradi. Asarda zohid ko‘pincha namoz, ro‘za, zikr bilan mashg‘ul, lekin ba’zan u faqat tashqi amal bilan cheklanib qolgan shaxs sifatida tasvirlanadi. Ya’ni “zohid sajdada bosh qo‘yar, ammo qalbi g‘ofil bo‘lsa, bu ibodat kamolga yetmaydi” – degan fikrni ilgari suradi. Huvaydo haqiqiy ibodat qalb hushyorligi va to‘la iymon bilan bo‘lishi kerakligini ta’kidlaydi. U riyokorlikni qattiq qoralab:

Dedi manzur elida har kim ersa.
Riyo birla namoz-u ro‘za qilsa.
Aning qilg‘on namoz-u ro‘zasin Haq,
Qiyomatga deyin qilg‘ay muallaq.[1:31]

deya riyokorlarning u dunyo-yu bu dunyo el ichida yuzi qora bo‘lishini, ularning joyi jahannamning tubi ekanligini bayon etadi.

Huvaydo iste’dodli mutasavvif shoir sifatida borgan sari dunyoparast bo‘lib borayotgan jamiyatning yuqori qatlami – ahli xoslar (mullolar, xojalar, mansabdorlar)ga qarshi Ollohning yo‘lida toj-u taxtidan voz kechgan va darveshlik yo‘lini tanlagan Ibrohim Adhamni qo‘yib, so‘fiylar himmati va mardligini barchaga ibrat qilib ko‘rsatadi, oddiy avom o‘rtasida islom dini g‘oyalarini keng targ‘ib etishga intildi.

“Hayrat ul-abror” dostonining to‘rtinchi maqolati xirqa kiygan riyokor shayxlarga alohida to‘xtalib o‘tib: “bu toifa odamlari yomonlarning yomonidir; dunyoda ulardan o‘tadigan yomonni topish qiyin. Ularning tashqarisi yaxshi, lekin ichlari fasod bilan to‘la; ularning tashi joynamoz-u ichida odam yoziladigan joy. Ular nafs oldida ruhni qulga aylantirganlar, toza ipakni esa dajjolning ustiga yopganlar. Ularning ichida dev bilan shayton qaynaydi, tani esa maloiklardan to‘kilgan pat bilan pardalangan.” [2:46], – deya qattiq qoralanadi.

Alisher Navoiy va Xo‘janazar Huvaydoning tasavvufiy qarashlari o‘rtasidagi asosiy farq Navoiyning quyidagi baytida yaqqol namoyon bo‘ladi:

Zohid senga hur-u menga mayxona kerak,
Jannat senga bo‘lsin, menga mayxona kerak.

Ya’ni zohidlarda jannatga kirish istagi yuqori bo‘lib, ularda gunohdan tiyilish va savob amallar qilishining asosiy boisi ham jannatga kirish, do‘zax azobidan qutilish hisoblanadi. So‘fiylar uchun esa Allohga bo‘lgan ilohiy muhabbat, uning jamolini ko‘rish asosiy maqsad bo‘lib, ular chin oshiqlardir.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, zohidlik – yo‘lning boshlanishi bo‘lsa, oriflik – uning kamolotidir. Huvaydo ham xuddi Navoiy hazratlaridek butun hayoti va faoliyati davomida naqshbandiya g‘oyalariga amal qildi, o‘z ijod mahsullarida Qur’oni Karim g‘oyalarini targ‘ib etishda so‘z san’atining butun imkoniyatlaridan mohirlik bilan foydalandi. Shu bois hazrat Huvaydoni o‘zbek mumtoz adabiyoti ravnaqiga, tasavvuf g‘oyalarini ijodiy rivojlantirishga salmoqli hissa qo‘shgan adib sifatida ta’riflash joiz. U o‘z ijodi bilan tasavvuf adabiyotini yangi mazmun, g‘oya, obraz va badiiy usullar bilan boyitdi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Huvaydo.X. Rohati dil. – T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti 1994.
2. Navoiy.A. Hayrat ul-abror. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006.
3. Komilov.N. Tasavvuf. – T.: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2009.
4. Ro‘zmatzoda Q. Xojanazar Huvaydo va tasavvuf. “Sirli Olam” jurnali, 2001, 3- son.
5. Zaripova.D “Turkiy adabiyotda “Ibrohim Adham” qissalari tahlili” Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari Volume 4, Issue 8, 2024
6. http://www.ziyonet.uz
7. http://www.alishernavoiy.uz

Muxlisa TO‘LAGANOVA,
Osiyo texnologiyalar universiteti
O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi 1-kurs magistranti

IMOM ABU HOMID AL-G‘AZZOLIYNING “MUKOSHAFAT-UL QULUB” ASARIDA AXLOQ VA MA’NAVIY KAMOLOT KONSEPSIYASI

Annotatsiya: ushbu maqolada Imom Abu Homid al-G‘azzoliy asarlarida ilgari surilgan axloq va ma’naviy kamolot konsepsiyasi tahlil qilinadi. Mutafakkirning “Mukoshafat-ul qulub” asarida inson qalbi, nafs tarbiyasi, qanoat, marhamat, sabr va ixlos kabi axloqiy fazilatlarning shakllanishi ilmiy-nazariy jihatdan yoritilgan.Shuningdek, g‘iybat, ig‘vo va ochko‘zlik kabi illatlarning jamiyat va shaxs ma’naviyatiga salbiy ta’siri tahlil qilinadi. Maqola G‘azzoliy merosining zamonaviy axloqiy tarbiya tizimidagi ahamiyatini ochib beradi.

Kalit so‘zlar: *axloqiy tarbiya, ma’naviy kamolot, nafs tarbiyasi, qalb pokligi, qanoat, marhamat, tasavvuf, komil inson, “Mukoshafat-ul qulub”.*

Annotation: this article analyzes the concept of ethics and spiritual perfection presented in the works of Imam Abu Hamid al-Ghazali. In his work “Mukashafat al-Qulub”, the formation of moral qualities such as purification of the heart, self-discipline (nafs training), contentment, mercy, patience, and sincerity is examined from a scientific and theoretical perspective. The negative impact of vices such as backbiting (ghibah), slander (igvo), and greed on the moral condition of both individuals and society is also analyzed. The article highlights the significance of al-Ghazali’s legacy in the modern system of moral education.

Key words: *moral education, spiritual perfection, self-discipline (nafs training), purity of heart, contentment, mercy, Sufism, perfect human, “Mukashafat al-Qulub”.*

Аннотация: в данной статье анализируется концепция нравственности и духовного совершенства, представленная в трудах Имама Абу Хамида аль-Газали. В произведении «Мукашафат аль-кулуб» мыслителя научно-теоретически раскрываются вопросы формирования таких нравственных качеств, как очищение сердца, воспитание нафса, довольство (каноат), милосердие, терпение и искренность. Также рассматривается негативное влияние таких пороков, как сплетни (гийбат), клевета (игво) и жадность, на духовное состояние личности и общества. Статья подчеркивает значение наследия аль-Газали в современной системе нравственного воспитания.

Ключевые слова: *нравственное воспитание, духовное совершенство, воспитание нафса, чистота сердца, довольство (каноат), милосердие, тасаввуф, совершенный человек, «Мукашафат аль-кулуб».*

Imom Abu Homid Al-G‘azzoliy Abu Homid al-G‘azzoliyning axloqiy tarbiya haqidagi qarashlari islom falsafasi va tasavvufida eng ta’sirli g‘oyalardan biri hisoblanadi. “Ta’lim-tarbiya azaldan yoshlarni tarbiyalashda muhim rol o‘ynab kelgan diniy kitoblardan bo‘lmish “Quroni karim”, payg‘ambarimizning o‘gitlari, hadislar, G‘azzoliy singari allomalar yaratgan asarlar asosiy manba sifatida xizmat qiladi. ...IX-XII asrlardan boshlab Imom Buxoriy, Imom at-Termiziylardan Qu’roni karim tafsiri, hadislarning mazmun mohiyatini anglagan holda o‘rgashishga harakat qilganlar, keyinchalik G‘azzoliy ham o‘zining asarlarida islomiy ta’lim-tarbiyaning muhim jihatlarini ochib berib, dunyoni diniy va ilmiy jihatdan anglashga, tarbiyaviy jihatdan avlodlar tarbiyasida muhim ahamiyatga ega ekanligini asoslagan. [1;232]

Abu Homid al-G‘azzoliy merosi islom falsafasi va tasavvufi tarixida eng chuqur ta’sir ko‘rsatgan ilmiy-ma’naviy manbalardan biridir. Uning asarlari nafaqat diniy tafakkurni, balki insonning ichki dunyosi, axloqi va ruhiy kamolotini shakllantirishda ham muhim o‘rin tutadi. Shu bois G‘azzoliy merosini axloqiy tarbiya bilan bog‘lab o‘rganish bugungi kunda ham dolzarbligini yo‘qotmagan. “Jaloliddin Humoiyning “G‘azzolinoma” (“G‘azzoliy haqida kitob”) asarini tilga olish kerak. Unda al-G‘azzoliyning hayoti va ijodi batafsil yoritilgan, asarlariga tavsif berilgan, uning ijtimoiy tafakkurning turli oqimlariga munosabati aniqlangan, falsafiy bilim mohiyati haqidagi qarashlari qisqacha muhokama qilingan hamda mutafakkir merosining tarixiy taqdiri va tarixiy ahamiyati bayon etilgan”. [2] Dissertatsiya muallifi o‘z ishida al-G‘azzoliyning falsafaga qarshi qo‘ygan muammolarining faqat bir qismini tahlil qilganini ta’kidlaydi.Uning fikricha, musulmon dunyosi falsafasi tarixini xolis tushunish uchun al-G‘azzoliyning ontologiyasi, gnoseologiyasi, axloqiy va siyosiy qarashlarini ham chuqur o‘rganish zarur.

“Mukoshafat-ul qulub” — bu Abu Homid G‘azzoliy tomonidan yozilgan muhim tasavvufiy-axloqiy asarlardan biri bo‘lib, unda inson qalbi, axloqi va ruhiy holati chuqur tahlil qilinadi. Unga ko‘ra axloqni insonning ichki dunyosi, qalb tarbiyasi va amaliy hayoti bilan uzviy bog‘liq holda tushuntiradi. Insonning xulqi tashqi ko‘rinish emas, balki qalb holatining natijasidir. Agar qalb poklansa, amallar ham go‘zal bo‘ladi. Shu sabab u axloqiy tarbiyani “nafsni poklash” bilan bog‘laydi. “Alloh o‘rtaga qo‘ygan axloq asoslariga moslashish va nafsning zavqu safo orzusini sindirish uchun naf-sing bilan jihod qil! Oz uxla, oz so‘yla.

Bema’ni gapirmaslik, insonlarga va boshqa jonzotlarga aziyat bermaslik va oz yemoq — bularning bari nafsning havoyi istaklariga g‘ov qo‘ymoq demakdir. Oz uxlagan odam to‘g‘ri tushunish malakasiga ega bo‘ladi”. [3;9]

“Nafs tarbiyasi” qismidagi bu fikrlar tasavvufiy-axloqiy ta’limot ruhida bayon qilinib, insonning ichki dunyosini tarbiyalashga qaratilgan. Matnda “oz uxla, oz so‘yla, oz yemoq” degan g‘oyalar ham muhim axloqiy tarbiya usuli sifatida keltirilgan. Oz uxlash insonni g‘aflatdan saqlab, fikrlash va anglash qobiliyatini kuchaytiradi deb qaraladi. Oz yemoq haqidagi fikrlar esa nafsni tarbiyalash bilan birga ma’naviy poklikka xizmat qilishi hadislar asosida dalillab beriladi.

“Qanoatning fazilati” bobi ham axloqiy-insoniy fazilatlarni shakllantirishda muhim bilimlarni ulashadi. Unda asosiy axloqiy g‘oya qanoat va nafsni tiyish orqali ma’naviy erkinlikka erishish ekanligi ilgari suriladi. Qolaversa, ochko‘zlik insonni kambag‘allikka olib borishi, qanoat esa uni ichki boylik va mustaqillikka yetaklashi ta’kidlanadi. Shuningdek, dunyoviy boyliklar — oltin, yoqut va boshqa ne’matlar o‘tkinchi ekani, hatto ba’zan insonning halokatiga sabab bo‘lishi ham mumkinligi uqtiriladi. Muhammad ibn Vose’ misolida esa amaliy axloqiy namuna beriladi: kamtarona hayot kechirish, halolga qanoat qilish va ortiqcha narsaga intilmaslik insonni boshqalarga muhtojlikdan qutqaradi.

“Marhamat” bobida esa haqiqiy insoniy fazilat — marhamat va rahm-shafqat ekanligi ta’kidlanadi. Marhamatli inson faqat o‘ziga emas, balki boshqalarga ham yaxshilik qiladi, ularga zarar yetkazmaydi, yomonlikdan tiyiladi va hayotini to‘g‘rilashga intiladi. Shuningdek, marhamat tushunchasi faqat insonlar bilan cheklanmay, hatto jonivorlarga ham mehr ko‘rsatishni o‘z ichiga oladi. Yozuvchi insonni rahm-shafqatli, pok niyatli, boshqalarga zarar yetkazmaydigan va har bir jonzotga mehr bilan munosabatda bo‘ladigan komil axloq egasi bo‘lishga chaqiradi. “Faqatgina o‘ziga nisbatan marhamatli bo‘lganlar marhamatli emasdirlar. Marhamatli deb ham o‘ziga, hamda boshqalarga nisbatan marhamatli bo‘lganlarga aytiladi. Kishining o‘ziga marhamatli bo‘lishi gunohlarni tark etishi, tavba qilib, yomon fe’llaridan voz kechishi va ibodatlarini ixlos bilan qilib, Allohning azobidan qutulishidir”. [3;46]

Abu Homid G‘azzoliy nafaqat islomiy bilimlar, balki umuminsoniy axloq hamda falsafa rivojiga ham salmoqli hissa qo‘shgan allomadir. Uning ta’lim-tarbiya haqidagi qarashlari turli diniy va ilmiy doiralarda keng tadqiq etilib, yuksak baholanadi. “Mashhur pokistonlik shoir va mutafakkir Muhammad Iqbol o‘zining “Eron falsafasi taraqqiyoti” asarida al-G‘azzoliy qarashlariga bir necha sahifa bag‘ishlab, uni islom olamining eng buyuk mutafakkirlaridan biri deb ataydi. U al-G‘azzoliyni Dekart uslubini oldindan sezgan qudratli skeptik sifatida baholaydi”. [2] Yozuvchi asarlarida nafaqat falsafiy, balki diniy-tasavvufiy, ma’naviy-axloqiy masalalar chuqur ilmiy asoslarga ega holda keltiriladi. Uning bu boradagi qarashlari bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan.

G‘azzoliyning “G‘iybat - gap-so‘z - Ig‘vo” haqidagi mulohazalarida insonni tilni yomon so‘zlarga ishlatishdan, ayniqsa g‘iybat va ig‘vodan saqlanishga chaqiradi va bu illatlarning juda og‘ir gunoh ekanini tushuntiradi. Qur’on oyati va hadislar orqali g‘iybatning Alloh huzurida katta gunoh ekani, hatto u o‘likning go‘shtini yeyish bilan tenglashtirilgani ta’kidlanadi. Bu orqali g‘iybatning nafaqat axloqiy jihatdan, balki ma’naviy jihatdan ham jirkanch ish ekani ko‘rsatiladi. Shuningdek, har bir musulmonning qoni, moli va obro‘si boshqalar uchun hurmatli va daxlsiz ekani uqtiriladi. Ig‘vo (gap tashish) esa jamiyatni buzuvchi, ishonchni yo‘q qiluvchi eng yomon illatlardan biri sifatida ko‘rsatiladi va bunday insonlarning qiyomatda og‘ir jazoga duchor bo‘lishi ta’kidlanadi.

Tadqiqot natijasida aytish mumkinki, Imom Abu Homid al-G‘azzoliy asarlarida ilgari surilgan axloq va ma’naviy kamolot haqidagi g‘oyalar insonning ichki dunyosi va ruhiy tarbiyasini shakllantirishga qaratilgan yaxlit tizim sifatida namoyon bo‘ladi. Mutafakkir nazdida haqiqiy axloq tashqi xatti-harakatlar bilan emas, balki qalb pokligi va nafsni tarbiyalash orqali yuzaga chiqadi. Shu bois u qanoat, sabr, marhamat, ixlos kabi fazilatlarni komil inson shakllanishining asosiy omillari sifatida talqin etadi.

G‘azzoliy konsepsiyasida g‘iybat, ig‘vo, ochko‘zlik kabi illatlar inson ma’naviyatini yemiruvchi omillar sifatida qat’iy rad etiladi va ulardan saqlanish jamiyatdagi axloqiy muvozanatni ta’minlashning muhim sharti sifatida ko‘rsatiladi.Umuman olganda, G‘azzoliy merosi bugungi kunda ham axloqiy tarbiya, yoshlarni ma’naviy kamolotga yetaklash va jamiyatda sog‘lom ruhiy muhitni shakllantirishda dolzarb ahamiyat kasb etadi. Uning g‘oyalari insonni komillik sari yetaklovchi universal axloqiy mezon sifatida o‘z qiymatini yo‘qotmagan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ortiqov O. Imom Abu Homid G‘azzoliyning ma’naviy-axloqiy qarashlari. Maqola. “Экономика и социум” №3(106)-2 2023 www.iupr.ru

2. Диноршоева Зарина Мусоевна. Мухаммад ал-Газзали и его отношение к философиитема диссертации и автореферата по ВАК РФ 09.00.03, кандидат философских наук, 2000.

3. Abu Homid G‘azzoliy. Mukoshafat-ul qulub. — Toshkent: “Adolat”, 2002.

4. Azimov A. Imom al- G‘azzoliyning sotsiologik qarashlari. BMI. Buxoro, 2012.

5. H. Homidiy. Tasavvuf allomalari. — Toshkent: “Sharq”, 2004.

Muxlisa AMIRQULOVA,
Qarshi shahridagi Xalqaro innovatsion universiteti magistranti

KOMIL XORAZMIY VA MUHAMMAD RAHIMXON FERUZNING ADABIY YIG‘ILISHLARI

Annotatsiya: ushbu ilmiy maqola xorazmlik shoir va bastakor Komil Xorazmiy tashabbusi bilan Xiva xoni Muhammad Rahimxon huzurida tashkil etilgan “Navoiyxonlik kechalari” va ularning ishtirokchilariga bag‘ishlanadi.Ushbu yig‘inlarda Pahlavonniyoz Mirzaboshi nomi bilan mashhur bo‘lgan Komil Xorazmiy ishtirok etib, Alisher Navoiy g‘azallariga bog‘lagan muxammaslari va payrav g‘azallarini o‘qib bergan.Feruz va Komil Xorazmiy ishtirokida o‘tkazilgan bunday adabiy kechalar mumtoz adabiyot va musiqa san’ati rivojiga xizmat qilgan.

Kalit so‘zlar: *kechalik, shoirlar, dilnavoz g‘azallar, taxmislar, pozachi.*

Аннотация: данная научная статья посвящена вечерам «Навоиханлик» и их участникам, организованным при хане Хивы Мухаммад Рахимхане Ферузе по инициативе хорезмского поэта и композитора Камиля Хорезми. Среди других придворных поэтов в этих собраниях принимал участие Камил Хорезми, известный как Пахлавоннияз Мирзабаши, который читал свои мухаммесы и последующие газели, основанные на газелях Алишера Навои. Подобные литературные вечера, проводимые участием Феруза и Камиля Хорезме, служили развитию классической литературы и музыкалного искусства.

Ключевые слова: *кечалик, поэты, душевные газели, тахмис, позачы.*

Annotation: this scientific article is dedicated to the «Navoi Khanate Nights» and their participants, organized under the patronage of the Khan of Khiva, Muhammad Rahimkhan Feruz, at the initiative of the Khorezm poet and composer Kamil Khorezmi.Kamil Khorezmi, known as Pahlavonniyaz Mirzabashi, participated in these gartherings and recited his muhammas based on Alisher Navoi's ghazals. Such literary evinings, held with the participation of Feruz and Kamil Khorezmi, served the development of classical literature and musical art.

Key words: *evening, poets, soulful ghazals, tahmis, poser.*

Manbalarda keltirilishicha, Chor Rossiyasi bosqinidan so‘ng tobe hukmdorga aylangan Feruzshoh tushkunlikka tushib, “xonanishin” bo‘lib qoladi. Ana shunday paytda shoir va bastakor Komil Xorazmiy va boshqa amaldorlar hukmdorga she’riyat va musiqa kechalari o‘tkazib, ovunishni – ko‘ngil yozishni maslahat beradilar: “Muhammad Rahimxon soniy Xorazm o‘lkasida o‘zidan boshqa kuchli va yot bir quvvatni ko‘rgach, bir xili zamonlar mutta’sir bo‘lib yurdi. O‘zini tasalli qilajak hech bir mashg‘ulot topmoqdin ojiz edi. Biroq oning atrofidagi odamlar, xususan musiqashunos Pahlavonniyoz Mirzaboshi (Komil Xorazmiy) xonning bu holini anglab, oni majlislar tuzmakka qiziqtirdi” [Xorazm musiqiy tarixchasi, 1998:12]. Shundan so‘ng Muhammad Rahimxon har bir iqtidorli, ilmli shoir kishilarga g‘amxo‘rlik qilib, saroyda navoiyxonlik bazmlari uyushtira boshladi [Fehristi, 2009:8]. Shunday qilib, uzoq-yaqindan kelgan shoirlar va xonanda-yu sozandalar xon majlislarini bezay boshladilar: (Xodimning yozishicha,) “(Feruz) Matmurod devonbegiga: - Kechalikka (kechga) ziyofat (adabiy majlis) qilamiz. Bu ziyofatga sozanda Yoqub doirachini, amaldorlardan Rahmatullo yasavulboshini, Muhammad Rizo Ogahiyni, Mehtar boboni, Xudoyor qushbegini chaqir, o‘zing ham ishtirok etasan, - deb buyruq bergan. Bu ziyofatning boshlig‘i Matmurod devonbegi bo‘lg‘on....

Muhammad Rahimxon ikkinchi Matmurod devonbegiga tag‘in: – Madrasadagi o‘qib yurgan mullalarda soz biladurg‘oni bo‘lsa topib kel, – deb aytgan. Matmurod devonbegi Polvonniyoz Mirzaboshi (Komil Xorazmiy)ni topib kelgan. Polvon Mirzaboshi ziyofatda ishtirok eta boshlagach, ziyofat rivojlanib ketgan.

Polvonniyoz Mirzaboshi shoir bo‘lib, shu ziyofatlarda Navoiyning dilnavoz g‘azallaridan o‘qilgan, ziyofatda ichkilik ham avj olg‘on [Tarroh, 1994:29]”. Pirovardida, musiqa va she’riyat kechalarini o‘tkazish Feruzning doimiy odatiga aylandi. Bolabaxshining hikoya qilishicha, Xiva xonligi muzofotida 32 ta sozanda qo‘sh (guruhi) faoliyat ko‘rsatgan. Ularning har biri o‘z dastur va mahoratini namoyish etib, shaxsan Xon nazaridan va majlislaridan o‘tgandan so‘ng, to‘y – hashamlar, bazm-u ziyofatlarda yurishga ijozat berilgan [Matyoqubov, 2004:70-71]. Feruz adabiy majlislarida ko‘plab san’atkorlar, xonandalar, sozandalar ishtirok etgan. Tazkiranavis Bobojon Tarrohning yozishicha, “Muhammad Rahimxon o‘n sakkiz yoshinda Xorazm podsholig‘i taxtiga o‘turub, arzi dod vaqtinda xalqning arzini so‘rab, oqshomliqda ziyofat qilishg‘a

boshlag‘on. Bu ziyofatlarning boshlig‘i Matmurod Devonbegi bo‘lg‘on. Muhammad Rahimxon ikkinchi butun xarajatlarni qilish haqida Devonbegiga buyruq bergan. Shuningdek, Xon Matmurod Devonbegiga madrasa ahli ichida xushovoz mullalar va hofizlar bo‘lsa, topib kelishni topshirgan. Matmurod Devonbegi buyruq bo‘yicha axtarib, hofizlardan Tolib Mahzum, Avazberdi Eshon o‘g‘li, Xudoyberdi Mahzum, Sa’dulla Xatiblarni topib kelgan.

Muhammad Rahimxon ikkinchi Matmurod Devonbegiga, “yana top”, deb buyruq bergan. Matmurod Devonbegi Komil Xorazmiy, Qozi Muhammad Karim o‘g‘lini topib olib borgan. Komil Xorazmiy ham shoir, ham musiqashunos bo‘lg‘on. U Muhammad Rahimxon ikkinchiga Navoiyning g‘azallaridan o‘qib, soz qilib bergan. Navoiyning dilnavoz g‘azallari xonga ta’sir qilib, Atoyini esa o‘ziga ustoz bilib, shoirlik qilmoqqa qarab, yigirma yoshlarida she’r yoza boshlagan. Shoirlik qilmog‘iga sabab shu ziyofat va Komil Xorazmiy bo‘lgan [Tarroh, 1994:17-18]”. Binobarin, Laffasiyning yozishicha, Feruzning huzurida (majlislarida) doimiy yetti – sakkiz nafar go‘yandalar soz, tambur, g‘ijjak, bulamon mashq etib o‘lturganlar. Masalan, Muhammad Yoqub xorrat – devon va Muhammad Yoqub pozachi, Avaz dorchi kabilar xizmatda bo‘lgan [Laffasiy, 1992:25]”.

Feruzning adabiy bazmlariga, adabiyot va san’atga berilishida Ogahiy, Komil Xorazmiy va Tabibiy kabi atoqli olim va shoirlar kuchli ta’sir ko‘rsatganlar [O‘zbek adabiyoti, 1960:143]. Umuman olganda, saroyda ijod qilgan shoirlarning hammasi Navoiyga ergashganlar. Tarixda shoir, bastakor, tarjimon, sozanda va davlat arbobi sifatida nom qoldirgan Komil Xorazmiy ham Navoiy ijodini sinchiklab o‘rgangan, uning ruhiga kirgan va poetik ijodda “Navoiyvor” qalam tebratgani bilan faxrlangan:

Netong Komil Navoiy yonglig‘ o‘lsa soz aro sarmast.

Shuning uchun Komil Xorazmiy devoniga kirgan muxammaslarning aksar qismi Navoiy g‘azallariga bog‘langan. Navoiyshunos Abduqodir Hayitmetovga ko‘ra, Komil o‘z buyuk salafining fikrlarini yanada chuqurlashtirishga, o‘z zamoniga tatbiq etishga, obrazlarini rivojlantirishga harakat qilgan [Komil, 1975:8].

Garchi Komil bo‘ldi furqatdin alil, ey ahli vasl,
Hajr o‘tig‘a tushti andog‘kim Xalil, ey ahli vasl,
Lek topti yor vaslig‘a dalil, ey ahli vasl,
Gar Navoiy hajr aro bo‘ldi zalil, ey ahli vasl,
Endi navbat sizgadur, muncha muazzam bo‘lmangiz [Komil, 1975:175].

Komil Xorazmiy Navoiy g‘azallariga bog‘langan muxammaslarini saroydagi barchasi adabiy bazmlarda o‘qigan.

Ey soching, jon qushlari qaydig‘a mahkam silsila,
O‘lgali bu xastaning hajringda yetti bir yila,
Va’dayi vaslingni topmay, Komil, aylar ko‘p gila,
Deb eding o‘lsa Navoiy tirguzay vaslim bila,
Biltur o‘lgonlar bila oni barobar bo‘ldi tut.

Adabiy yig‘ilishlarda barcha xorazmlik saroy shoirlari qatori Komil ham o‘z muxammaslari va payrav g‘azallarini majlis ahli hukmiga havola etib borgan:

Baqo dashtig‘a kim ozimdururlar jumla xosu om,
Emaslar puyadin bir dam farog‘at onda subhi shom,
Gar uyqu, gar uyg‘oqlik yo‘q ango gom urmamoq hangom,
Baqo dashti nechuk qat’ o‘lmasun, aylab murur ayyom,
Ki har manzil ango bir kundurur, hardam ango bir gom [Komil, 1975: 180].

Komil Xorazmiy ma’naviy ustozi Navoiy ijodini nihoyatda qadrlagan. Hatto, Alisher Navoiy “Xamsa”sining birinchi Xorazm toshbosma nashriga so‘zboshi yozgan. Komil Xorazmiy O‘rta Osiyoda birinchi bo‘lib, mumtoz kuylarni “Nota”ga tushirgan. Dunyo musiqashunosligida “Xorazm tanbur chizig‘i” deb e’tirof etilgan nota yozuvi mumtoz kuylarning zamonlar osha avlodlarga asl holida yetib kelishi uchun katta xizmat qilgan.

Muxtasar aytganda, Muhammad Rahimxon Feruz va Komil Xorazmiylar ishtirokida o‘tkazilgan adabiy bazmlari mumtoz adabiyotimiz va musiqa san’atimiz rivojiga xizmat qilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Laffasiy. Tazkirai shuaro. –Urganch: Xorazm, 1992.27-bet.
2. Feruz gulshani. –T.: Mumtoz so‘z, 2016.17-18-bet.
3. Muhammad Yusuf Bayoniy. Shajarayi Xorazmshohiy.–T.: G‘.G‘ulom nomidagi ASN, 1994.93-bet.
4. Bayoniy. Shajarai Xorazmshohiy.–T.:Kamalak, 1991.255-bet.
5. Guseynov G. Sharqdan ko‘tarilgan to‘fon. Tarjimon va nashrga tayyorlovchi: L.Abdrimova.–Toshkent, 2020.5-bet.
6. Erkinov A., Polvonov N., Aminov H. Muhammad Rahimxon II.Feruz kutubxonasi fehristi.–Toshkent, 2009.153-bet.
7. Bobojon Tarroh. Xorazm navozandalari.–T.: G‘.G‘ulom nomidagi ASN, 1994.33-34-bet.
8. Komil. Devon. Nashrga tayyorlovchilar A.Hayitmetov, V.Mo‘minova.–T.: G‘.G‘ulom nomidagi ASN, 1975.224-bet.
9. Qorayev Sh. Shayboniy sultonlar tazkirasi. Monografiya. –Qarshi: Intellekt, 2023.206-bet.
10. Qorayev Sh. O‘zbek sultonlari tazkirasi. Monografiya.–Qarshi: Ilm-fan va ma’naviyat, 2024.310-bet.

Zarnigor ABDUQODIROVA,
O‘zbekiston Milliy universiteti doktoranti
zarnigorabduqodirova@gamil.com

“MU’INU-L-MURID” ASARINING POETIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada “Mu’inu-l-murid” asarning asosiy poetik xususiyatlari, syujet elementlari, kompozitsion qurilishi, shakl va vazn unsurlari, qofiya va uning o‘rni kabi masalalar haqida so‘z boradi. Shuningdek, undan mutaqorib bahri, mutlaq hamda muqayyad qofiya haqidagi nazariy qarashlar, asar matnidagi zihofga uchragan to‘rtliklar haqidagi ma’lumotlar ham o‘rin olgan.

Kalit so‘zlar: *“Mu’inu-l-murid”, mutaqorib bahri, mutlaq qofiya, muqayyad qofiya, zihof, qofiya va vazn.*

Аннотация: в данной статье рассматриваются основные поэтические особенности произведения “Муину-л-мурид”, элементы сюжета, композиционное построение, вопросы формы и метра, рифма и её роль в произведении. Также приводятся теоретические взгляды на размер мутақариб, абсолютную и ограниченную рифму, а также сведения о четверостишиях текста, в которых используется зихаф.

Ключевые слова: *“Муину-л-мурид”, размер мутақариб, абсолютная рифма, ограниченная рифма, зихаф, рифма и метр.*

Annotation: this article discusses the main poetic features of the work “Mu’inu-l-murid,” including its plot elements, compositional structure, issues of form and meter, rhyme, and its role in the work. The article also presents theoretical views on the mutaqārib meter, absolute and restricted rhyme, as well as information about the quatrains in the text where zihaf is applied.

Key words: *“Mu’inu-l-murid,” mutaqārib meter, absolute rhyme, restricted rhyme, zihaf, rhyme and meter.*

“Mu’inu-l-murid” asari o‘ziga xos poetik xususiyatlarga, syujet va kompozitsiya, uslubga ega asardir. Fuod Ko‘prulining fikricha, ushbu asar “Hibat ul-haqoyiq” va “Javohir ul-asror” asarlari bilan birgalikda she’r shakli va o‘lchovi jihatidan turkiy adabiyotda alohida bir guruhni tashkil etadi. Ushbu asar aruz vaznining mutaqorib (mutaqoribi musammani mahzuf: fauvlun/ fauvlun/ fauvlun/ faul) bahrida yozilgan. “Mutaqorib” so‘zi arabcha bo‘lib, “bir-biriga yaqinlashuvchi” degan ma’noni bildiradi. Turkiy she’riyatda aruz tizimining ilk bor qo‘llanilishi aynan shu bahr nomi bilan bog‘liq. She’riyatimizda mutaqorib bahrining faqat musamman shakli qo‘llanilgan. Mazkur vazn fauvlun ruknining takrori asosida yuzaga keladi1.

Shukur hamd ilahi tuman ming sanga
Musulman muvahhid yaratding manga
Elig tutguchi sen arig bir u bar
Tutulmishda kayu katig bir munga.

v – – / v – – / v – – / v –
fauvlun fauvlun fauvlun faal

1 Yusupova D. Aruz va mumtoz poetikaga kirish. – T.: Tamaddun, 2022. 108-b.

Shu	kur	hamd	I	la	hi	tu	man	ming	sa	Nga
v	–	–	v	–	–	v	–	–	v	–
fa	*uv*	*lun*	*fa*	*uv*	*lun*	*fa*	*uv*	*lun*	*fa*	*al*
Mu	**sul**	**man**	**mu**	**vah**	**hid**	**ya**	**rat**	**ding**	**ma**	**Nga**
v	–	–	v	–	–	v	–	–	v	–
fa	*uv*	*lun*	*fa*	*uv*	*lun*	*fa*	*uv*	*lun*	*fa*	*al*

Mazkur vazn mutaqoribi musammani solimdan oxirgi ruknning faal (mahzuf) ekanligi bilan farqlanadi. Shu nuqtayi nazardan kelib chiqib vaznni mutaqoribi musammani mahzuf deb nomlaymiz. Turkiy adabiyotda Yusuf Xos Hojib “Qutadg‘u bilig” dostonining asosiy qismi, Ahmad Yugnakiyning “Hibat ul-haqoyiq” dostoni, Alisher Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostonlari shu vaznda yozilgan2.

To‘rtliklardan iborat bu asarda boshdan oxir tamom bir vazndan foydalanilgan. Shuningdek, qoraxoniylar davrida yozilgan “Qutadg‘u bilig” va “Hibat ul-haqoyiq” asarlari ham shu vazn va bahrga tegishlidir. “Qutadg‘u bilig” baytlardan iborat bo‘lsa, “Mu’inu-l-murid” va “Hibat ul-haqoyiq” asarlari to‘rtliklardan maydonga kelgan. Asarning qofiyalanishi a a b a tarzida bo‘lib, to‘rtlikning 1, 2 va 4-misralari o‘zaro qofiyadosh, 3-misrada esa qofiyadosh so‘z ishlatilinmaydi.

Aya sahib-ihsan eshit bil o‘zung a
Emanet kerak el kulak til ko‘zung a
Hiyanet mekirdin ko‘ngul hali kil b
Kiyamet kun artuk kun aydin yuzung. a

2 Yusupova D. Aruz va mumtoz poetikaga kirish. – T.: Tamaddun, 2022. 111-b.

Mutlaq qofiya (ar.) – yetuk, to‘liq. Qofiyaning tuzilishiga ko‘ra farqlanuvchi turlaridan biri. Mutlaq qofiyada raviy harfidan keyin qofiyaning boshqa harflari (vasl, xuruj, mazid, noyira) ham ishtirok etadi3.

Berat ottuzinchi tuninde kamug‘ a
Kerak chiksa tashga kichik hem ulug‘ a
Oruch ayi izdeyu sunnet erur b
Resul sunnatinge bu ten jan yulug‘. a

Muqayyad qofiya (ar.) – bog‘langan, kishanlangan. Qofiyaning tuzilishiga ko‘ra farqlanuvchi turlaridan biri. Raviy harfi bilan tugallanadi. Shams Qays Roziyning “Al-mo‘jam” (1218-1233) asarida muqayyad qofiya raviy harfining ikki nav’idan biri sifatida, Nasiruddin Tusiyning “Me’yor ul-ash’or” (1253) asarida qofiyaning holatiga ko‘ra farqlanuvchi turlaridan biri sifatida keltirilgan4.

Qofiya she’riy asarlarning ohangdorligi, ta’sirchanligini oshiradigan badiiy so‘z vositasidir. Mumtoz adabiyotimizda qofiyaning xilma-xil shakllari yuzaga kelgan va adabiyotshunoslikda o‘ziga xos san’at sifatida e’tirof etilgan. Qofiya san’ati va uning shakllaridan foydalanish diniy adabiyotga ham xos bo‘lgan xususiyatlardan biridir. Chunki diniy adabiyotning ham jozibadorligi ham ta’sirchanligini oshirishda qofiyaning ta’sir kuchisiz tasavvur etib bo‘lmaydi.

“Mu’inu-l-murid” asari vaznida ba’zi o‘rinlarda buzilishlar mavjud. Ayniqsa, imola va zihofning ko‘p yasalishi ham ko‘rinib turadi. Ayrim so‘zlarda ochiq bo‘lishi kerak bo‘lgan bo‘g‘inlarda undosh bilan tugagan yopiq bo‘g‘inlar paydo bo‘ladi va bu vazn buzilishiga olib keladi. Chunki bu davrda aruz turkiy she’rlar uchun yangi qo‘llanilgani, aruz an’analari hali shakllanmaganligi va aruz vaznidan foydalanishdagi qiyinchiliklar asar vaznidagi ayrim buzilishlarga sabab bo‘lgan. Quyida misol sifatida ba’zi to‘rtliklarni ko‘rib chiqamiz:

Zihofga uchragan so‘zlardagi vazn buzilishlari:
Ahir vaktda aytu chikargil iman... (9/4)
Hakikat ko‘nguldin keturgil iman... (13/2)
Aziz hor kilig‘li ruzi berguchi... (17/3)
Saadet shehadet nurin tutguchi... (18/1)
Hakikat suvi bil taki rab razik... (49/2)
Sujud besh ahir kade alti biling... (68/3)
Tileki ahir vakt iman Islam ol... (402/2)
Ilahi arig pak ruhinga tegur... (403/2)

Imolaga uchragan so‘zlardagi vazn buzilishlari:
Chin-ok erse sinag amel ko‘rklu kil... (20/2)
Shehadet kulavuz saadet refik... (23/3)
Sirat sakishini berur munda ol... (65/3)
Vazni buzilgan ba’zi to‘rtliklar:
Zikir birle avga idmish it ishi...5 (41/1)
Niyet bir Bismilah temeklik sani...6 (74/2)
Katip suv burunka mesh etmak kulak...7 (75/1)
Suv to‘kmek yerlenmek meni ham vedi...8 (76/2)
Esrumek us ketmek eshit on sadi...9 (76/4)
Yel chikmak uyumak tayanip yatip...10 (77/1)
Kerek sehven kasden ukush bolsa az...11 (115/2)
Eger kopsa kasden eksitti niyaz...12 (115/4)
Vazni tuzatilgan ba’zi to‘rtliklar:
Bu ins [u] peri kullukindin yeg ol... (41/3)
Yig‘akdin13 yig‘ il tut idi emrini... (42/1)
O‘z o‘zinge14 ko‘trur muni ko‘p fasik... (49/4)
Hidayet berur ol hamid [u] mejid... (405/4)

Ushbu yozma yodgorlikka XIV asr turkiy nazmi nuqtayi nazaridan qaraydigan bo‘lsak, “Mu’inu-l-murid” badiiy jihatdan yetuk asardir. Ayni shu o‘rinda atoqli manbashunos olim O. Jo‘raboyevning “Nahj ul-farodis” asari badiiyati bo‘yicha bildirgan ushbu fikrlari yodga keladi. “Bu esa asarning quyidagi jihatlarida ko‘rinadi: “Avvalo, aytilmoqchi bo‘lgan fikrni o‘sha davr turkiy tilida ravon ifodalanishi; keyingisi, keltirilgan rivoyat va hikoyatlar badiiy bo‘yoqlarda aks etishi; uchinchisi, oyat va hadis tarjimalarini amalga oshirishda muallifning ilmiy salohiyatini ko‘rinishi va mo‘tabar manbalardan olingan muqaddas kalimalarning fasohati, balog‘atini aks ettira bilganligidadir”15. Ushbu jumlalar va badiiylik mezonlari bizning obyektimiz bo‘lmish “Mu’inu-l-murid” asarida ham o‘z ifodasini topgan.

3 Yusupova D. Aruz va mumtoz poetikaga kirish. – T.: Tamaddun, 2022. 244-b.
4 Yusupova D. Aruz va mumtoz poetikaga kirish. – T.: Tamaddun, 2022. 245-b.

5 Idmish so‘zi vaznni buzgan.
6 Bismillah so‘zi vaznni buzgan.
7 Mesh so‘zi vaznni buzgan.
8 Suv va yerlenmek so‘zlari vaznni buzgan.
9 Esrumek va us so‘zlari vaznni buzgan.
10 Yel so‘zi vaznni buzgan.
11 Sehven so‘zi vaznni buzgan.
12 Eksitti so‘zi vaznni buzgan.
13 Yig‘akdin so‘zi kotib tomonidan yig‘mishdin tarzida tuzatilganiga qaramasdan vaznni buzgani uchun olinmadi.
14 O‘zinge so‘zi kotib tomonidan yo‘ninga tarzida tuzatilganiga qaramasdan vaznni buzgani uchun olinmadi.
15 Жўрабоев О. Матннинг матности сирлари. – Тошкент: Tamaddun, 2017. – Б. 24.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Recep Toparli, Mustafa Argunşah. Mü’inü’l-mürid. Inceleme-Metın- Çeviri-DizinTipkibasım. ANQARA, 2008. – 322 c
2. Abdurauf Fitrat. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Ma’naviyat, 2000, 55-60-b.
Жўрабоев О. Матннинг матности сирлари (Монография). – Т.: Tamaddun, 2017. – 200 б.
Yusupova D. Aruz va mumtoz poetikaga kirish. – T.: Tamaddun, 2022.

Aziza ARZIQULOVA,
Sharof Rashidov nomidagi SamDU
Markaziy Osiyo xalqlari tillari
va madaniyati instituti 2-kurs magistranti

ABU TOHIRXOJANING “SAMARIYA” ASARIDA QO‘LLANILGAN ONOMASTIK BIRLIKLAR

Annotatsiya: mazkur maqolada Abu Tohirxojaning “Samariya” asarida qo‘llanilgan onomastik birliklar: antroponimlar, toponimlar, gidronimlar, oronimlar, nekronim va biblionimlar haqida ma’lumot berilgan. Ayrim onomastik birliklar lingvistik jihatdan tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: *tarixiy onomastika, atoqli ot, ism, laqab, sodda, qo‘shma, izofali va hk.*

Аннотация: в данной статье представлена информация об ономастических единицах, использованных в произведении Абу Тохирходжи «Самария», в частности об антропонимах, топонимах, гидронимах, оронимах, некронимах и библионимах. Некоторые ономастические единицы проанализированы с лингвистической точки зрения.

Ключевые слова: *историческая ономастика, имя собственное, имя, прозвище, простые, сложные, изафетные и др.*

Annotation: this article provides information about the onomastic units used in Abu Tohirxoja’s work *Samariya*, including anthroponyms, toponyms, hydronyms, oronyms, necronyms, and biblionyms. Certain onomastic units are analyzed from a linguistic perspective.

Key words: *historical onomastics, proper noun, personal name, nickname, simple, compound, izafet constructions, etc.*

XX asrning 60-yillaridan ilmiy jihatdan shakllana boshlagan o‘zbek onomastikasi bo‘yicha bugungi kunda ko‘plab tadqiqotlar amalga oshirildi. Biroq bu sohada yana e’tibor qaratilishi zarur bo‘lgan jihatlar ko‘p. Shulardan biri bu – tarixiy onomastika sohasidir. To‘g‘ri, bu sohada B.Bafoyev, Sh.Yoqubov, N.Husanov, Z.Do‘simov, M.Turdibekov, A.Muhammadjonov, H.Mo‘minova, A.O‘rozboyev, F.Rajabov, R.Saydullayeva, M.Ahmedovalar tomonidan ma’lum ishlar amalga oshirilgan va oshirilmoqda. Biroq, bilamizki, yurtimiz – tarixiy ildizi juda qadimga borib taqaladigan, qancha tarixiy jarayonlarni boshidan o‘tkazgan yurt. Shu sababli mamlakatimiz tarixi bo‘yicha bir qancha tarixiy asarlar yozilgan. Abu Bakr Narshaxiyning “Buxoro tarixi”, Abu Rayhon Beruniyning “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar”, Rashiddin Fazlulloh Qazviniyning “Jome’-at tavorix”, Mirxondning “Ravzatus-safo”, Ali Yazdiyning “Zafarnoma”, Mirzo Ulug‘bekning “To‘rt ulus tarixi”, Z.M.Boburning “Boburnoma”, A.Bahodirxonning “Shajarayi-turk”, “Shajarayi-tarokima”, Hofiz Tanish al-Buxoriyning “Abdullanoma”, Is’hoqxon to‘ra Ibratning “Tarixi Farg‘ona”, Muhammad Yusuf Bayoniyning “Shajarai Xorazmshohiy” kabi tarixiy asarlari fikrimiz isbotidir. Shunday asarlardan biri Abu Tohirxojaning “Samariya” asari bo‘lib, unda Samarqand shahri, uning geografiyasi, iqlimi, hayvonot olami, o‘simliklari, muqaddas ziyoratgohlari, tarixiy inshootlari haqida ma’lumotlar berilgan [Abu Tohirxoja, 1991: 14-60]. Sadriddin Ayniy asar haqida ma’lumot berganda, bu kitob Samarqandning tabiiy ko‘rinishi, tarixiy ahvoli, eski asarlarning bayoni haqida, – deb ta’kidlaydi. Asar adib aytishicha, hijriy 1260-1265 (milodiy 1844-1848) yillar oralarida yozilgan.Asar garchi XIX asrda yozilgan bo‘lsa ham, u orqali Samarqandning bir qancha davrlariga tegishli voqea-hodisalaridan xabardor bo‘lamiz. Shu sababli “Samariya” asarida ko‘plab onomastik birliklar: antroponim, toponim, gidronim, oronim, teonim, nekronim, biblionimlar qo‘llanilgan. Masalan, shahar qurilishi, shaharni boshqargan shaxslar, shaharda yashagan mashhur shaxslar haqida ma’lumotlar berilganda, tarixiy obidalar: madrasa, maqbara, masjid, ziyoratgohlarning nomlari keltirilgan o‘rinlarda shu binolar bilan bog‘liq kishi ismlari, taxallus, laqab, unvon, kunyalari ko‘p uchraydi. “Samariya” asarida 60 dan ortiq tarixiy shaxslar: hukmdorlarning nomlari keltirilgan: Sulton Sanjar Moziy, Sohibqiron Amir Temur Amir Tarag‘ay o‘g‘li, Mirzo Ulug‘bek, Sulton Abusaid, Sulton Ahmad, Ismoil Safaviy, Shayboniyxon, Imomqulixon kabi. Shayx Abu Mansur Motrudiy, Shayx Xodim (Shayx Ma’dudning katta xalifalaridan), Xoja Ahror kabi mashhur din ulamolari nomlari ham asarda uchraydi. Qozizoda Rumiy, G‘iyosiddin Jamshid, Mavlono Muniy Koshiy, Mavlono Salohidin Mirzo, Allomai Ali Qushchi, G‘iyosiddin Javhariy kabi olimlar nomlari ham “Samariya” asarida keltirilgan. Allomai Umbiy Abu Abdulla, Sharafiddin Ali Yazdiy kabi muarrixlar nomi ham bor. Asarda afsonaviy shaxslar, payg‘ambar, hakimlar nomlari berilgan. Masalan, shahar qurilishi bilan bog‘liq afsonaviy ismlar: Samar ismli kishi

(Horis o‘g‘li Samar), Luhrosib o‘g‘li Kushtosib, Malik Tubba’, Malik Iskandar, Faridun, Faridunning uch o‘g‘li nomlari: Salim, Tur, Iraj; Afrosiyob, Hazrati Xoja Xizr kabi nomlar keltirilgan. Shu o‘rinda Abu Tohirxo‘ja bir qancha mashhur islom dini vakillari, xalifalar, islomshunos, hadisshunos olimlar, shayxlar, xojalar, imomlarni, islom dini rivojida o‘z hissasini qo‘shgan islom faxrlarini tilga olib o‘tgan. Bu kabi shaxslar nomi asarda 100 dan ortiq. “Samariya” asarida keltirilgan antroponimlarni o‘rganganimizda ismlar, ota-ismlar, laqab, kunya va unvonlarning asosiy qismi arab tilidan o‘zlashganligi ayonlashdi. Asarda keltirilgan ismlar strukturasiga ko‘ra sodda tub, sodda yasama, izofali, qo‘shma so‘z ko‘rinishida bo‘lib, ko‘pgina ismlar oldidan ulug‘lovchi hazrat, janob, mavlono kabi so‘zlar qo‘shilgan. Asarda diniy unvonlarni ifodalovchi laqablar: imom, mavlono, mullo, sayid, xoja (xo‘ja), shayx, qozi, hoji, hazrat, bobo va ota so‘zlari ismlar oldidan yoki ismlardan keyin qo‘llanilgan: *Shayx Abu Mansur Motrudiy, Xoja Muhammad Valid, Mavlono Shamsiddin O‘zgandiy, Imom Najmiddin Nasafiy, Bobo Zayniddin Hindiy, Hazrat Vaysiy ota, Soylik ota kabi.* Asarda kishi nomlari oldidan eng ko‘p qo‘llanilgan ulug‘lovchi laqablar “hazrat” va “xoja” so‘zlaridir. “Hazrat” so‘zi N.Husanovning “O‘zbek antroponimlari tarixi” nomli monografiyasida ta’kidlanishicha, arabcha “huzuri”, “nazari”, “ulug‘ zot” degan ma’nolarni bildirib, “eng buyuk” ma’nosida payg‘ambar avlodi ismidan oldin; ulug‘, mo‘tabar zot ma’nosida taniqli shoirlar va shayxlarning ismlaridan oldin kelgan [Husanov N., 2014:119-120]. “Samariya” asarida ham aynan shu ma’noda qo‘llanilgan: *Hazrat Abbos – (Muhammad payg‘ambarning amakisi), Hazrati Fazl (Hazrati Qusamning aka yoki ukasi)* kabi. *Qusam hazrat Muhammad payg‘ambarning – tangrining unga salot va salimlari bo‘lsin – amakisi bo‘lgan hazrat Abbosning – tangri undan rozi bo‘lsin – o‘g‘lidir*. [Abu Tohirxoja. Samariya. –Toshkent, 1991.28-b. Barcha misollar shu manbadan olindi]. “Xoja” so‘zi forscha bo‘lib, xo‘jayin, sohib ma’nolarini anglatadi. N.Husanov xoja so‘zi yodgorliklarda ismdan oldin kelib, avlodga mansubligi yoki hurmatni ifodalashi, ismdan keyin kelib, xo‘jalarga mansublikni bildiradi, – deb ta’kidlaydi [Husanov N., 2014: 117]. Abu Tohirxoja ham ulug‘ kishilar nomlari oldidan hurmat ma’nosida xoja so‘zini qo‘llagan: *Xoja Muhammad sangrason, Xoja Muhammad Fazliy, Xoja Orif, Xoja Amir Husayn kabi.* Muallif ba’zan kishi nomi oldidan ham hazrat, ham xoja so‘zini qo‘llagan: *Hazrati Xoja Xizr, Hazrat Xoja Ahmad Yassaviy, Hazrat Xoja Avliyo kabi.* Abu Tohirxoja olim-u ulamolarga nisbatan hurmat ma’nosida ularning ismlari oldidan alloma, mavlono so‘zlarini keltirgan: *Allomai Ali Qushchi, Mavlono Muniy Koshiy, Allomai Umbiy kabi.* “Samariya” asarida kishilar laqablari ham keltirilgan bo‘lib, bu laqablar qo‘yilishi sababini muallif o‘zi izohlab ketadi. Masalan, muallif Shayx Nuriddin Basir haqida “Basir” laqabini quyidagicha izohlaydi: *“Basir shuning uchun deganlarkim, u kishi onadan so‘qir tug‘ilgan bo‘lsa ham, valiylik nuri bilan barcha ko‘rguliklarni ko‘rar edi”* (34-b). Hazrat Sayyid Bakriddin mozori haqida ma’lumot berilganda, turklar bu kishini “tegirmonchi ota” deb atashlari asarda qayd qilingan (41-b). Uning sababini ham muallif eshitganlari, o‘qiganlari bo‘yicha aytib ketgan: “Hazrat sulton avliyo xoja Ahmad Yassaviyning tegirmonchilik ishlari Sayyid Bakriddinga tegishli bo‘lgan (41-b). Muallif xoja Ubaydullo Ahror haqida ma’lumot bera turib, laqabi “Nosiriddin” ekanligini aytadi: *Xoja Ubaydullo Ahrorning laqabi “Nosiriddin” bo‘lib, nasabi Umar Xattobga erishadi* (46-b). Bobo obrez antroponimidagi obrez, Hazrat xoja Abdi berunning Abdi, xoja Muhammad Bashoroning “Banddor” laqablari ham Abu Tohirxojaning o‘zi tomonidan izohlab berilgan (53-b).

Asarda muallif laqab deb aytgan, ma’lum shaxslarga qo‘yilgan antroponimlar u kishilarning jismoniy holatlari, fazilatlari, karomatlari yoki kasb-korlari bilan bog‘liq ekanligi anglashiladi.

Asarda eng ko‘p qo‘llanilgan onomastik birlik bu toponimlar bo‘lib, unda davlatlar, viloyat, tuman, shahar, qishloq, mahalla nomlari berilgan. Asar Samarqand shahriga bag‘ishlangan bo‘lganligi uchun shahar nomi bir necha marotaba takrorlangan. Abu Tohirxoja shaharning havosi haqida gapirib, og‘irlik va kasallikka sabab bo‘lmaydi, havosi yaxshi, deb ta’riflagan. Hatto bahor faslida bu shahar go‘zallikda jannatdan qolishmaydi, deydi.Va “Samarqand – firdavsmonand shahar” ta’rifini eslatadi (17-b).Asarda Vatanimizning Turon, Movarounnahr kabi tarixiy nomlari keltirilgan, Xorazm, Farg‘ona, Andijon, Buxoro shaharlari tilga olingan. Koshg‘ar, Turkiston, Yassi, Bag‘dod, Makka, Madina, Marv, Balx, O‘tror, Mashhad kabi joy nomlari, Arabiston, Hindiston, Eron, Xuroson, Rum, Xitoy, Misr kabi mamlakat nomlari keltirilgan.Samarqand viloyatiga qarashli tumanlar nomi, Samarqand shahri mahallalarining XIX asrdagi nomlari keltirilgan. “Samariya” asarining “Bu viloyatdagi buloqlar (ariqlar va daryolar) to‘g‘risida” nomli VI bobida Zarafshon (asarda Ko‘hak nomi ham aytib o‘tilgan), Iskandar ko‘li, Darg‘om arig‘i, Siyohob (Qorasuv) arig‘i, Obi-Rahmat arig‘i, Obi-Mashhad bulog‘i, Novadon bulog‘i kabi Samarqand shahri bilan bog‘liq gidronimlar nomlari va ularning o‘ziga xos xususiyatlari berilgan (20-21-b). Asarda qo‘llanilgan gidronimlar va ularning shahar hayotida tutgan o‘rni haqida muallifning fikrlarini keltirib o‘tamiz. Masalan, asarda bir necha bor tilga olingan suv havzasi Darg‘om arig‘i bo‘lib, bu haqida muallif quyidagi fikrlarni keltiradi: *boshi Ko‘hak daryosidan ajralib, Samarqand shahrining ichi va toshi, Shavdor va Anhor tumanlarni sug‘orib, ortiqchasi Ko‘hak daryosiga qo‘shiladi. Shahar bog‘lari va bo‘stonlari ushbu ariqdan yashil va tozadir* (21-b). Manbada ayrim buloqlarning sifatlari,

xususiyatlari ham keltirilgan. Masalan, issiq va sovuq buloq. Abu Tohirxo‘ja buloqning suvi qishda juda qaynab va yozda sovuq bo‘lishi sababli shunday nomlangan, – deydi. Asarda Obi-Rahmat arig‘i, Obi-Mashhad arig‘i, Novadon arig‘i, Siyohob arig‘i, Ko‘li Mo‘g‘iyon hovuzi haqida ham ma’lumot berilgan. Xullas, asardagi gidronimlarni o‘rganish orqali o‘sha davrdagi sug‘orish tizimi, suv xo‘jaligi va dehqonchilik madaniyati haqida ham tasavvur hosil qilish mumkin.Asarda keltirilgan gidronimlarning aksariyati turkiy, fors-tojik va arab tillaridagi so‘zlardan tashkil topgan bo‘lib, bu hol mintaqada yashagan xalqlarning tarixiy-madaniy aloqalari, til va madaniyatlarning o‘zaro ta’sirini ko‘rsatadi.“Samariya” asarining V bobi Samarqand tevaragida joylashgan tog‘lar to‘g‘risida bo‘lib, muallif tomonidan janub tog‘lari ta’rifi bilan boshlangan. Janub tog‘i tabiati ta’riflangan, kunchiqar tomon tog‘i haqida ma’lumot berilgan, ammo bu tog‘lar nomi keltirilmagan. Asarda Xuddin, Ko‘hak va Fon tog‘i nomi aytilgan. Xuddin va Fon tog‘i nomlanishi haqida muallif tomonidan ma’lumot berilgan: *Bu viloyatning shimol tomonidagi tog‘ Xuddin otaladi (shu munosabat bilankim) islom dini tarqalayotganda bu tog‘ eli o‘z mayllari bilan musulmon bo‘lganlar* (20-b). Abu Tohirxo‘ja Fon tog‘ining nomini izohlayotganda tog‘ nomi u joylashgan qishloq nomidan olingan, deydi (53-b).

“Samariya” asarining VII bobida Samarqand tevaragidagi g‘ori Miskin, g‘ori Ko‘hak, g‘ori Oshiqon, Talli Muhammad chap, Xoja Doniyol (birinchi g‘or nomi aytilmagan) g‘orlari haqida ma’lumot berilgan (22-b). Bu g‘orlarning ayrimlari asar yozilgan paytda mavjud bo‘lmagan, undan faqat nom qolgan. Masalan, Talli Muhammad chap, Xoja Doniyol g‘orlarini Abu Tohirxoja tuproq ostida qolib ketgan deb sharhlagan. “Samariya” asarida “Tali to‘g‘on”, “Tali muharrabon”, Kultepa, tepaliklari haqida ma’lumot berilgan.

Asarning shaharning nomlanish sababi, masjid va madrasalari haqida, shahar va uning tevaraklaridagi qabr va mozorlarning alomat va nishonalari to‘g‘risida, qabr ahllarining ziyorat yo‘llari, qabriston elidan olinadigan ibrat va do‘stlarga o‘g‘ut boblarida biblionimlar, ya’ni 34 ta asar nomi va ularning mualliflari berilgan.Abu Tohirxoja bu asarlarning ayrimlari xususida ma’lumot beradi. Ayrimlari kim haqida yoki qanday mavzuda ekanligi to‘g‘risida ham aytib o‘tadi.“Samariya” asarining VIII bobi masjid va madrasalar to‘g‘risida bo‘lib, muallif XIX asrda shaharda mavjud bo‘lgan 17 ta masjid va madrasa nomi va ularning qurilgan davri, kim qurdirgani, ahvoli haqida batafsil ma’lumot beradi. Asarning IX-XI boblarida shahar va uning tevaraklaridagi qabr va mozorlarning alomat va nishonalari to‘g‘risida ma’lumot berilganda muallif 87 ta nekronimga to‘xtaladi. Nekronim (yunoncha nekros –qabriston, onuma – atoqli ot) – mozorlar, qabristonlar va mana shu tip muqaddas qadamjoylar atoqli oti [Begmatov E., Ulug‘ov N., 2006: 51] bo‘lib, bu raqamdan ko‘rinadiki, Samarqand shahrida muqaddas sanalgan qadamjoylar azaldan ko‘p bo‘lgan. Va ularning har birini o‘rganish shaharning ma’lum bir shonli davrini ochish, ma’lum bir shaxsni kashf etish yoki ma’lum bir shaxsning hozirgacha aytilmagan sifatlarini aniqlash demakdir. Asarda muallif ayrim o‘simliklar nomini ham keltirib o‘tadi va bu fitonimlarning izohini ham berib o‘tadi. Masalan, Moturid qishlog‘ida Abu Mansurning bog‘chasida “ Lison ul-asfur” deb ataladigan juda eski bir daraxt borligi, uning mevalari fors tilida “zaboni gunjishk”, ya’ni chumchuq tili deb atalishini asarda aytib, muallif bu daraxtni “qutlug‘ daraxt” deb yozadi (46-b). Muallif Samarqand tog‘lari haqida ma’lumot berganda, “Insir” degan bir giyohni keltiradi va bu giyoh bilan bog‘liq afsonaviy fikrni aytib o‘tadi: *“Agar birov ushbu giyohni topib o‘zi bilan olib yursa, qabrdagi ruhlar bilan gaplashmagi muyassar bo‘lur emish”* (20-b).

Xullas, Abu Tohirxojaning “Samariya” asari nafaqat Samarqand shahrining, XIX asrning o‘rtalaridagi ob-havosi, geografiyasi, tog‘lari, suv havzalari haqida, balki o‘sha davrgacha saqlanib qolgan masjid, madrasalari, muqaddas qadamjoylari haqida muhim ma’lumotlarni beradi.Mazkur asar orqali biz tarixiy antroponimlar, toponim, gidronim va boshqa onomastik birliklarga misollar topamiz, ularning lingvistik xususiyatlarini o‘rganamiz. Mana shu jihatdan bu asar tilshunoslik, xususan, onomastika sohasi uchun muhim va o‘rganilishi kerak bo‘lgan tarixiy manbalardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Абу Тоҳирхожа. Самария. –Тошкент: Камалак, 1991.
2. Бегматов Э. Ўзбек антропонимикаси. –Тошкент: Фан, 2013.
3. Бегматов Э., Улуқов Н. Ўзбек ономастикаси терминларининг изоҳли луғати. – Наманган: НамДУ нашри, 2006.
4.Бегалиев Н., Туробов А. Самарқанд топонимияси. –Самарқанд: СамДЧТИ нашри, 2015.
5. Ҳусанов Н. Ўзбек антропонимлари тарихи. –Тошкент: “Navro‘z” нашриёти, 2014.

Sevinch ZIYOTOVA,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti magistri
sevinchziyotova69@gmail.com

CHINGIZ AYTMATOV QISSALARIDA OBRAZLAR TIZIMI TAHLILI

Annotatsiya: qissalarda obrazlar tizimidagi mushtarak jihatlar tasnifi o‘rganilib, obrazlarning o‘ziga xosligi, yozuvchi ijodida uning tadrijiy rivoji va yangilanish tamoyillari, inson va tabiat munosabatlari, qahramonlarning asardagi funksiyasi va ruhiyatidagi evrilishlar tahlilga tortiladi, xalqchil va takroriy obrazlar tizimli tadqiq qilinadi. Adib qissalarida qahramon portretidagi milliylik, nutqida folklor namunalarining aks etishi misollar orqali tahlil qilindi.

Kalit so‘z: *obraz, xalqchil obraz, portret, ota-bola, qariya, hayvonlar obrazi, mif, afsona, rivoyat, qiyosiy tahlil.*

Аннотация: в статье рассматривается классификация общих черт в системе образов в рассказах, анализируется своеобразие образов, закономерности их постепенного развития и обновления в творчестве писателя, взаимоотношение человека и природы, функция и эволюция психики героев произведения, системно исследуются народные и вторичные образы. На примерах анализируется отражение народности в портрете героя в рассказах писателя и фольклорные образцы в его речи.

Ключевые слова: *образ, народный образ, портрет, отец-ребенок, старик, образ животного, миф, легенда, повествование, сравнительный анализ.*

Annotation: the classification of common aspects in the system of images in stories is studied, the uniqueness of images, the principles of their gradual development and renewal in the writer’s work, the relationship between man and nature, the function and evolution of the psyche of the heroes in the work are analyzed, folk and recurring images are systematically studied. The reflection of nationality in the portrait of the hero in the writer’s stories and folklore patterns in his speech was analyzed through examples.

Key words: *image, folk image, portrait, father-child, old man, animal image, myth, legend, narrative, comparative analysis.*

Ijodkor olam-u odam mohiyatini teran anglashi uchun so‘z imkoniyatidan unumli foydalanadi. Inson tahayyul va tafakkur dunyosini nozik his etish, bu holatni so‘z vositada yoritish dushvor. Chingiz Aytmatov asarlaridagi turli obrazlar foniylik va boqiylik xususidagi tasavvurni to‘ldirib boradi. U yaratgan obrazlar kasb-faoliyat, yosh, jins, irqiy va ijtimoiy mansublikka ko‘ra turlicha, o‘xshashlari esa bir-birini to‘ldiradi. Muhim jihati shundaki, janrlararo farqsiz tushuncha – orginallik har bir obraz, qahramon nutqi, peyzaj, milliy ruh va asar badiiyatida balqib turadi.

“Somon yo‘li”, “Sarvqomat dilbarim”, “Birinchi muallim”, “Jamila”, “Bo‘tako‘z”, “Oq kema”, “Sohil bo‘ylab chopayotgan Olapar”, “Alvido, Gulsari” qissalaridagi o‘zaro o‘xshash obrazlar tahlil qilinib, ular yoshi, kasbi, nutq uslubi, asardagi roli hamda uzviy bog‘liq predmeti bilan birgalikda tahlilga tortildi.

Muallif urushning undan olisda bo‘lgan go‘dak, bola, o‘smir, yosh oilalar, o‘rta yoshli kishilar, keksa va qariyalarning hayotiga, ruhiyatiga, qanchalik ta’sir qilganini deyarli barcha asarlarida uchratish mumkin. Masalan, Jaynoq obrazida onasi tilidan o‘ziga xos chizgilar keladi: “Seni bolalik qilib, urushning nima ekanligini, o‘limning nima ekanini tushunmay ketaverdi, deb o‘yladi, deysanmi? Sening xushchaqchaqligingni ko‘rib, sening insoniyatga bo‘lgan tog‘dek mehr-muhabbatingda xotin-xalajning ko‘rgan azobiga tik qarab tura olmading. Odamning bu dunyoda orttirgan narsasi yaxshilik ekan-da...” Urush sabab quvnoq, barchani kuldirib yuradigan Jaynoq birdaniga jiddiylashib, katta odamlardek sergak tortib qoladi. Odamlarga bo‘lgan mehrini, rahmdilligini evakuatsiya qilingan, to‘rt bolali rus xotinni uchratgan mahalda ko‘rinadi: sakkiz-to‘qqiz yoshli, juldur kiyimida tirishib o‘tirgan bolasiga ustidagi to‘nini yechib beradi. U har qanday ishga o‘zini urib, yugur-yugurdan bo‘shamaydi. G‘ururi esa uni urushga o‘z ixtiyori bilan ketishga undaydi.

Muallif asarlarida xalqchil obrazlar tizimi mavjud bo‘lib, ular millat, irq, mamlakat tanlamaydi.

1. Ota va bola. Adib asarlarida yaratgan obrazlarga e’tibor qaratsak, ota va bola munosabatlari salmoqli o‘rin egallaydi. Masalan, “Oq kema” qissasida bola otasini ko‘rmagan lekin borligiga, bir kun kelishiga ishonadi va kutadi. Uning orzusi – baliqqa aylanib qolish: “U Issiqko‘l to‘lqinlarida suzib yuradi, to‘lqindan to‘lqinga ko‘chadi va shunda oq kemaning qarshisidan chiqib qoladi. “Salom, oq kema, bu menman!” - deydi u paroxodga. - Durbindan har doim senga qaragan menman”. Kemadagi odamlar

hayratdan yoqa ushlab, mo‘jizani ko‘rgani yugurishadi. Shunda u o‘zining matros otasiga so‘z qotadi. “Salom, dada, men sizning o‘g‘lingizman. Men sizning oldingizga suzib keldim.” – “Sen qanaqa o‘g‘ilsan? Sen yarim baliq, yarim odamsan-ku!” – “Siz meni o‘z oldingizga, kemaga chiqarib oling, men shunda sizning o‘g‘lingiz bo‘lib qolaman.” “Voy, tavba. Qani, ko‘raylik-chi”. Otasi to‘r tashlab uni suvdan palubaga tortib oladi. Shunda u o‘z asliga qaytadi. Keyin-chi, keyin... Keyin oq paraxod o‘z yo‘lida suzib ketaveradi. Bola otasiga hamma narsa haqida, butun hayoti davomida nimaiki bilgan bo‘lsa hikoya qilib beradi. O‘zi yashab turgan tog‘lar haqida, o‘sha xarsang toshlar haqida, daryo va noyob o‘rmon haqida, baliqlarday ko‘zi ochiq suzishni o‘rgangan yeri – bobosining ko‘lobi haqida so‘zlaydi”[1].

“Sohil bo‘ylab chopayotgan Olapar” qissasida Milxunning o‘limi oldidan kenjatoylarining ismini aytib yig‘lashi ota mehrining ifodasidir. Emrayinning o‘g‘li Kiriskka bo‘lgan mehri, otalik tuyg‘usi esa quyidagi chizgilarda ta’sirchan ifodalangan: “Nazarida o‘z umrini o‘g‘li orqali uzaytirish uchun dunyoga kelgan va xuddi shu boisdan ham halok bo‘layotgan edi. U o‘g‘li bilan unsiz vidolasharkan, shu haqda o‘ylardi. Emrayin o‘zi uchun shuni kashf etdiki, u so‘nggi lahzalargacha umrini o‘g‘lida davom ettirish uchun yashabdi”. Emrayin o‘zidan keyin olamda qoladigan farzandi haqida o‘ylab tinchlanadi, unga hayotdagi eng ezgu va eng kuchli tuyg‘u otalik tuyg‘usi ekanligini anglatgan o‘g‘lidan minnatdor bo‘ladi. O‘g‘liga o‘tganlarni xotirlab turish kerakligini ham tushuntirdi.

“Sarvqomat dilbarim” qissasida Ilyos Samadning o‘rni bo‘lakchaligini shunday izohlaydi: “Menga yana jon kirib, odambashara bo‘lib qoldim. Yo‘lda ketayotib ruhim tetik, dimog‘im chog‘ ketar va o‘zim bilan birga qandaydir noyob his-tuyg‘uni eltib borardim. Yo‘l yoqasida meni o‘g‘lim kutib turganini bilardim. Loaqal bir-ikki daqiqa bo‘lsa-da, u bilan yonma-yon o‘tirish men uchun katta baxt-ku”[2].

2. Bola obrazi. Yozuvchi asarlarida ijtimoiy muammolar, insonlararo ziddiyatlarni yoki so‘ngsiz hayot falsafasiga nisbatan g‘ayrioddiy savollarni – o‘tkinchi dunyo tashvishlarini – goh hayratda, goh qiziqishda bola tilidan so‘raydi. Bola obrazi Aytmatov asarlaridagi tirgak vazifasini bajaradi, deyish to‘g‘ri, nazarimda. Garchi u bola bo‘lsa-da, kattalarni sergak tortishga majbur qiladigan aql-zakovatga ega. Beg‘ubor qalbi esa qiziqish va umidlar bilan to‘la. Shuningdek, har bir bola o‘z dunyosida yashaydi, ularning o‘ziga xos qiziqish, istak, orzu va intilishlari bor. Yozuvchi bola obrazini asarda mahorat bilan tasvirlaganki, voqealar uning atrofida aylanadi. Oilaning ahilligi, birdamligi uning oila bo‘lib saqlanib qolishida bolalarning o‘rni qay darajada muhim ekanligi ham ko‘rsatiladi. Masalan, “Sarvqomat dilbarim” qissasida Ilyos Xadicha bilan orani ochiq qilib, o‘g‘lini ko‘rgandan so‘ng Asal bilan qaytadan bir oila bo‘lishga umid qiladi. “Birinchi muallim” asarida maktab yoshidagi bolalar nigohida kattalarning xatolari, iflos qilmishlari fosh etiladi. Murg‘ak qalbining toptalishi, yashalmagan bolalik yillari, mehrga tashna qalblar nolasi o‘quvchi qalbiga kirib boradi. Kirisk obrazida esa bolalarga xos soddalik va so‘nmas umid yetakchilik qiladi. (Haqiqatan, bolalarda umid, ishonch tuyg‘ulari kattalarga qaraganda kuchliroq.) O‘rxon chol, Milxun, Emrayin – barchasining umidlari ilinjga aylanib, asta-sekin ilinj yo‘qqa chiqayotganda ham bola Agukuk qushini ko‘rishdan, yulduzlar chiqishidan umid qiladi va Ko‘k sichqoncha uning nolasini eshitib oxir-oqibat suv berishiga ishonadi. Uning yashab qolishga bo‘lgan umidi puchga chiqmaydi hamda Olapar qirg‘og‘iga yetib keladi.

“Jamila” qissasidagi Seit obrazida o‘smir bolakayning g‘ururlanishi, faxri, e’tiborga tashna ko‘ngli, erkaklar kabi o‘z oilasini asrashga intilishi, qizg‘anib rashk qilishi hamda oilasi, ovuli uchun kattalardan qolishmay mehnat qilishi – bolalarga xos jasorat sifatida talqin etiladi. Seit portreti onasiga bo‘lgan munosabatlarida, ayniqsa, Jamilaga nisbatan fikrlarida oydinlashib boradi. Muallif Seitning xulq-atvori va ichki dunyosini ko‘rsatish orqali u haqda ko‘proq ma’lumot berish yo‘lini tanlagan. Seitga aynan rassomlik kasbi ham bejizga tanlanmagan. Rassomlarga xos kuzatish, nozik did va ichki tuyg‘ularni tinglay bilish qobiliyati bola obrazida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Uning uchun akasi va Jamila qanchalik qadrli bo‘lsa, Doniyor ham shuncha sevimli insoniga aylanib ulgurgan edi: “Kelajakda rassom bo‘laman degan o‘yim yo‘q edi, ammo Doniyorning kuylari meni hayratlantirib, hayotning butun go‘zalligini sezishga ilhomlantirdi... Men o‘ngimda emas, go‘yo tushdagidek bir totli xayolga berilib, xuddi dunyoga yangi kelib, ko‘zim endi ochilgandek atrofga suqlanib qarardim. Mening uchun bu juda katta turmush sabog‘i edi”[3].

Bola uchun Doniyor yaqin kishiga aylanib ulgurgan edi. Shu haqida o‘ylarkan qalbida o‘zi bilan o‘zi tortishadi: “Nazarimda, Jamila bu otashin hisni qalbidan chiqarib tashlashga urinayotgandek bo‘lardi. Biroq, o‘z sevgisini tark etolmay, uning barcha zahmatlariga chidashga majbur bo‘lardi. Men ham unga o‘xshab, Jamila Doniyorni sevsa yaxshi bo‘lardi, desa, bir ko‘nglim sevmagani yaxshi bo‘lardi, derdi. Axir, ming qilsa ham kelinimiz-ku, akamning xotini-ku. Uni birovga qanday ravo ko‘ray. Biroq bu xil fikrlarni darrov xayolimdan chiqarib tashlashga harakat qilardim”[4].

Chingiz Aytmatov yaratgan obrazlar anglamagan, bilmagan savoliga, albatta, javob topadi. Bashariyatga qaratilganlari esa ritorik so‘roq shaklida beriladi yoxud

1 Ch.Aytmatov., Oq kema: Qissa. – Toshkent: Yangi asr avlodi nashriyoti, 2019. – [154.]
2 Ch.Aytmatov., Oq kema: Qissa. – Toshkent: Yangi asr avlodi nashriyoti, 2019. – [397.]
3 Aytmatov Ch., Jamila: qissa. – Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2019. – [42.]
4 Aytmatov Ch., Jamila: qissa. – Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2019. – [47.]

asar mazmuniga singdirib yuboriladi. Bola va keksa obraz parallelligida bo‘lsa, bola ba’zan tabiatdan, ba’zan keksa qahramon tilidan javob oladi. Yoki o‘zi amin bo‘lishi, tushunib yetishi orqali savollari izohlanishini kuzatish mumkin. Masalan, Seitning: “Jamilaning tizzasiga bosh qo‘yib yotib, uning sal ochilgan g‘uncha lablariga, yosh to‘la shahlo ko‘zlariga termulib yotish menga dunyo-dunyo rohat bag‘ishlar edi. Jamila o‘shanda naqadar go‘zal, naqadar latofatli edi. Qalbining naqadar pok, beg‘uborligi, o‘y-xayollarining naqadar teran, yorqin ekanligi uning nur yog‘ilib turgan chehrasidan ko‘rinib turardi. O‘sha kezlarda men shularning hammasini o‘z ko‘zim bilan ko‘rib yurgan bo‘lsam ham, ammo tub mohiyatiga uncha tushunib yetmagan edim. Lekin hozir oradan qancha vaqtlar o‘tib ketgandan keyin, o‘sha voqealarni eslab, ko‘pincha o‘zimga-o‘zim savol beraman: balki sevgi degan narsa — inson har tomonlama kamolotga yetib, aql-idroki to‘lgandan keyin paydo bo‘ladigan bir tuyg‘umikin? Bu ham shoir yoki rassom ilhomiga o‘xshab insonga kuch-qudrat bag‘ishlab, yangi orzu-umidlar, istiqbol sari yetaklovchi bir kuch emasmikin? Ehtimol, oshiqlikning butun siri ham shundadir”[5].

3. Qariya va bola obrazlarining parallel ifodalanishi. Adabiyotda keksa va yosh avlod munosabatlarining badiiy talqini tahliliga biografik metod asosida kirib borish maqsadga muvofiqdir. Chunki bunday tasvirlarning aksari biografiklik xususiyatini kasb etadi. Bu borada yozuvchi Chingiz Aytmatov qalamiga mansub asarlar xarakterli obyekt bo‘la oladi. Aytmatov bolaligini eslab shunday deydi: “Mening bolalik yillarimni ertag-u qo‘shiqlar bilan bezagan, oqin-u qo‘shiqchilar bilan uchrashuvimga sababchi bo‘lgan inson buvim bo‘ladilar. U kishi qayerga borsalar ham, mehmongami, to‘ygami yoki azagami meni birga olib borar edilar. Ko‘pincha ko‘rgan tushlarini menga aytib berardilar. Buvimning ko‘rgan tushlari shu qadar qiziq ediki, biroz uyquga ketdilarmi darhol u kishini uyg‘otib tushlarini aytib berishlarini so‘rardim. Qisqa tushlar meni qanoatlantirmas edi. Shunda buvim qo‘shnilar ko‘rgan tushlaridan “qarz” olishga chiqib ketardilar. Keyinchalik tushunib yetishimcha, bu tushlarni u kishi men uchun to‘qib chiqarar ekanlar. ...buvim men uchun to‘qib chiqargan bu tushlar meni yaxshilikka undashi, shunday inson bo‘lishimga turtki berishini anglab yetdim”[6].

“Bola dunyoni qanday bo‘lsa, shundayligicha, pokiza his etadi va qabul qiladi. Inson dunyoni fikrlari, his-tuyg‘ulari orqali in’ikos etadi. Bunday hissiyot dunyoni buzib ko‘rsatadi. Go‘dak qalbida xursandchilik hukmron bo‘lgani uchun u dunyo go‘zalligini seza oladi. Hatto eng xaroba joydan ham bu qalb o‘z diqqatini jalb qiluvchi go‘zallikni topishga qodirdir”[7]. O‘zbek va jahon adabiyotida xuddi shunday pokiza tasvirlar, beg‘ubor damlar aks etgan asarlar talaygina. Sent-Ekzyuperining “Kichkina shahzoda”, Chingiz Aytmatovning “Oq kema”, O‘tkir Hoshimovning “Dunyoning ishlari”, Xudoyberdi To‘xtaboyevning “Jannati odamlar”, Abdulla Qahhorning “O‘tmishdan ertaklar”, Oybekning “Bolalik xotiralarim”, Nodar Dumbadzening “Qaytish” kabi asarlari bolalik dunyosining o‘ziga xos aks etgani bilan ahamiyatlidir.

“Sohil bo‘ylab chopayotgan Olapar”, “Oq kema”, “Somon yo‘li” qissalarida ayni shu ifodani to‘liq va qisman darajada uchratamiz. Bola olamning turfa sir-asrorlari, odamlar orasidagi nizolarning sababi, kattalarning tushunarsiz harakatlari, sirli tabiat hodisalariga hayratda savol bersa, ko‘pni ko‘rgan, hayot sinovlarida toblangan qariya obrazi orqali u savollarga yechim beriladi. Ular nafs balosi, o‘tkinchi shon-shuhrat vasvasasi singari yomon illatlardan ogoh etib, tabiatni asrashga, inson ekanligini unutmaslikka, kamtarin va halol bo‘lib, xalqni o‘ylab yashashga o‘rgatadi. Chin insoniy ziynatlarni kitobxonga turfa hodisalar orqali ko‘rsatib beradi. Masalan, O‘rxon chol hayot hikmatlarini anglashni o‘rgatsa, To‘lg‘onoy qo‘shnisi – Oyshaning o‘g‘li Bektoshga – odamiylik sabog‘ini, Mo‘min chol tabiatni, ona zaminni sevishni o‘rgatadi.

4. Hayvonlar obrazi. Ch.Aytmatov asarlaridagi farqsiz kategoriya – inson va tabiat munosabatlaridir. Tabiat va inson o‘rtasidagi aloqalarga psixologik metod orqali yondashish asar mazmuni haqida kengroq fikrlashga imkon beradi. Buni ikki xil ko‘rinishda tahlil etish mumkin: biri obrazlarning tabiat bilan muloqot qilishi, unga talpinishi, insonlardan mehr, e’tibor ko‘rmasligidan kelib chiqqanligi, ikkinchisi esa o‘zining tabiatning bir qismi ekanligini anglab, unga yaqinlashishi. “Oq kema”da bolaning yashin joyi, o‘simlik va toshlarni nomlab olishi birinchisiga misol bo‘lsa, To‘lg‘onoyning insonlar bilan emas, Yer bilan dardlashishi keyingi tahlilga taalluqlidir. Olam qalbini tinglash qahramonning yetakchi xususiyatiga aylangani sabab har bir asar yoxud qahramonda tabiat bilan hamnafaslik bor.

Jonli peyzaj tasviri bilan hayvonlar obrazining mif, afsona va rivoyatlar bilan uyg‘unlashib kelishi asar qiymatini yanada oshiradi. Ona baliq, Shoxdor ona bug‘u, Ko‘k sichqoncha, Gulsari (ot), qoplon, Qoranor(tuya) singari hayvon obrazlarida insonlardagi kabi his-tuyg‘u, iroda, sabr-matonat, mehnatsevarlik, yanglig‘ xislatlar yoki mifologik tushunchalar namoyon bo‘ladi. Yana bir e’tiborli jihati: baliq, ot, bug‘u – ona obrazida tasvirlanayotgan hayvonlar orqali yozuvchi ona mehrining qudrati, uning inson-u hayvon uchun birdek qiymatli va qadrliligi xususida so‘zlagandek, nazarimda.

5 Aytmatov Ch., Jamila: qissa. – Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2019. – [48.]
6 Rashidov A. Chingiz Aytmatov olami. T.,2011. B.[138.]
7 Qosimov A. Adabiyotda bolalik ma’naviy-axloqiy kategoriya sifatida. Fil. f.n.diss., - T., 1999. Umurzakov R. XX asr o‘zbek qissalarida bola obrazi: davr va ruhiyat. Fil.fan.fal. dokt (PhD) diss. Avtoref. – Farg‘ona, 2021.

5. Mif, afsona va rivoyatlar. Ch.Aytmatovning asarlarida mif, afsona va rivoyatlar muhim o‘rin egallaydi. Chunki ular uning yozuvchilik uslubi va fikrlarini boyitishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Aytmatov, xalqlarning milliy madaniyati va tarixiga chuqur hurmat bilan qaraydi. Yozuvchi ulardan asarlarida real voqealarni, insoniyatning ichki dunyosini va falsafiy g‘oyalarni ifodalashda foydalanadi. Masalan, “Somon yo‘li” asarida mifologik elementlar kuzatiladi**.** Yer, suv, tuproqni muqaddas deb bilish, ularning g‘azablanishidan qo‘rqish, qahrini keltirmaslik kabi qarashlar qadimdan shakllangan tushuncha va fikrlardir. Asarda Yerning o‘zi tabiat ramzi sifatida ko‘rsatiladi. U faqat tabiiy boyliklarni beruvchi manba emas, balki insoniyatning hayotini saqlovchi ona sifatida qudrati va mehrini ifodalaydi. Yer orqali insoniyatga insoniylik chegarasidan chiqmaslik, nafsni yengish, tabiat ham insoniyatning baxtli yashashi tarafdorligi, ammo urushlarga o‘zlari sabab bo‘layotganliklari aytiladi.

“Oq kema” qissasida ham Shoxdor ona bug‘uning bolalarni asrab olib, ularni ulg‘aytirishi haqidagi rivoyat orqali odamlar qadim-qadimdan o‘zaro jang qilib, qon to‘kishgani, maqsadi yo‘lida hech kim va hech narsaga e’tibor qilmasligi, bu hol hozirgacha davom etayotganini ko‘rsatadi. Asardagi konflikt: odamlarning naqadar tuban va razil, shafqatsiz ekanligi va shu bilan birga mehribon, oliyjanob, qalbi pok chin ma’nodagi insonlar bilan zid qo‘yilishida ko‘zga tashlanadi.

“Sohil bo‘ylab chopayotgan Olapar” qissasida yozuvchi mif va afsona orqali hayot, o‘lim, avlodlar almashinuvi, tiriklik mohiyati kabi falsafiy masalalarni qamrab oladi.

Umumiy qilib aytganda, Aytmatov asarlarida ko‘plab afsona va rivoyatlar mavjud bo‘lib, ular odatda xalq hayotidagi eng muhim tushunchalarni, masalan, hayot va o‘lim, adolat va zulm, muhabbat va nafratni tasvirlash uchun ishlatiladi. Bu rivoyatlar orqali yozuvchi insonning hayotdagi maqsadi va ulkan mas’uliyatini ko‘rsatadi. Ulardan xalqning qadimiy hikoyalari sifatida emas, balki har bir insonning hayotdagi roli haqida savol beruvchi va falsafiy mantiqni taqdim etuvchi vosita sifatida foydalanadi.

Muallif obrazlar portretini yaratishda o‘ziga xos uslubda yondashadi. Bilamizki, “portret” (fr. Portraire – tasvirlamoq) – personajning so‘z vositasida tasvirlangan tashqi ko‘rinishi. U epik asarning kompozitsion bir shaklidir. Adabiyotda portret yaratish qahramon haqidagi dastlabki fikrlarni berish bilan bir qatorda asarga tabiiylik bag‘ishlaydi, yanada jonliroq bo‘lishiga va obrazlarni o‘quvchilarga yaqinlashishiga yordam beradi. Portretda qahramonning ijtimoiy holati, insoniy qirralari, shaxsiyati, tashqi ko‘rinishi ham ichki dunyosiga mutanosib tarzda tasvirlanadi**.**

O‘zbekiston qahramoni shoir Abdulla Oripov Chingiz Aytmatov to‘g‘risida: “Chingiz Aytmatov yozganlari o‘zbek kitobxonining qalbiga nega buncha yaqin? Buning birinchi sababi shuki, yozuvchi qalamga olgan qahramonlar turmushi, psixologiyasi, orzu-intilishlari o‘zimiznikiga juda o‘xshaydi. Aytmatov qahramonlariga qaysi tomondan yondashmang, tarixan o‘zbek xalqi hayotiga mushtarak…

Saida, Tanaboy, Duyshen, Oltinoy, Bo‘ston, Edigey, Ilyos… – bular hammasining kechmishi o‘zbek xalqining hayotini esga soladi. Yozuvchi ijodi o‘zbeklarnikiga mushtarak ruhiy an’analar, ruhiy maktablar asosida shakllangan.

Ba’zan o‘ylanib qolasan kishi: Abdulla Qodiriy, Oybeklar uzoqroq yashaganda – qattol zamonning qurbonlariga aylanib, ijodlariga raxna solinmaganda, jahon adabiyotini yana qanday asarlar bilan boyitgan bo‘lardilar. Taqdir go‘yoki Chingiz Aytmatov timsolida turkiy xalqlar adabiyoti olamidagi mana shu aybni yuvganday. Adib biz o‘zbeklarga ham turkiy xalqlar hayoti yuksak badiiyat bilan tasvir etilgan asarlar hadya qildi.”[8], – deydi.

Darhaqiqat, Chingiz Aytmatov faylasuf, so‘z san’atkori, notiq hamda yetuk ijodkorlardan biridir. Yozuvchi asarlarida tabiat, jamiyat, insoniyatning o‘tmishi va buguni hamda undan xulosa chiqarish, ezgulik, insoniy tuyg‘ular, urush kabi yetakchi mavzularni qamrab olgan. Ularni esa Alloh in’om etgan ne’matlarga to‘g‘ri munosabatda bo‘lish, tabiatni asrash, insoniy tuyg‘ularni toptamaslik g‘oyalari o‘ziga bog‘lab turadi.

8 G‘aniyev I. , Ibrohimov R. Chingiz Aytmatov .Sharq donishmandi.– Buxoro, 2024. [3-4.]

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Aytmatov Ch. Jamila. Qissalar. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2019. 430-bet.
2. Aytmatov Ch. Oq kema. Qissalar. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2023. 430- bet.
3. Qosimov A. Adabiyotda bolalik ma’naviy-axloqiy kategoriya sifatida (Antuan de Sent-Ekzyuperining “Kichkina shahzoda” va Ch.Aytmatovning “Oq kema” asarlari asosida): Fil.f.n.diss., –T., 1999.
4. Rashidov A. Chingiz Aytmatovning badiiy olami. Monografiya. – T.: “O‘qituvchi”, 2008. 182-bet.
5. Umurzakov R. XX asr o‘zbek qissalarida bola obrazi: davr va ruhiyat. Fil.fan.fal. dokt (PhD) diss. Avtoref. – Farg‘ona, 2021.
6. G‘aniyev I., Ibrohimov R. Chingiz Aytmatov Sharq donishmandi. Monografiya. “Durdona”, 2024. 332-bet.

Madiyor YO‘LCHIYEV,
Turon universiteti magistranti

TOG‘AY MUROD QISSALARIDA MILLIY KOLORITNING BADIIY-ESTETIK KONSEPSIYASI

Annotatsiya: mazkur maqolada Tog‘ay Murod qissalarida milliy koloritning badiiy-estetik talqini, xalqona ruh va milliy qadriyatlarning adabiy ifodasi tahlil qilinadi. Adib asarlarida o‘zbek xalqining turmush tarzi, urf-odatlari, milliy tafakkuri hamda ruhiy olami obrazlar va badiiy tasvir vositalari orqali yoritilgani ochib beriladi. Shuningdek, yozuvchining til mahorati, folklor unsurlaridan foydalanishi va milliy xarakter yaratishdagi o‘ziga xos uslubi ilmiy-nazariy asosda tadqiq etiladi. Maqolada Tog‘ay Murod qissalarining o‘zbek milliy adabiyotidagi estetik ahamiyati hamda milliy koloritni aks ettirishdagi o‘rni haqida xulosalar berilgan.

Kalit so‘zlar: *qissa, milliy kolorit, badiiy-estetik konsepsiya, milliy ruh, folklor, obraz, badiiy tasvir, o‘zbek adabiyoti, xalqona uslub, milliy qadriyat, adabiy tahlil.*

Аннотация: в данной статье анализируется художественно-эстетическая интерпретация национального колорита, литературное выражение народного духа и национальных ценностей в рассказах Тогая Мурада. Выявлено, что произведения писателя освещают образ жизни, обычаи, национальное мышление и духовный мир узбекского народа посредством образов и средств художественного изображения. На научно-теоретической основе также изучены языковые навыки писателя, использование фольклорных элементов и его уникальный стиль в создании национального характера. В статье сделаны выводы об эстетическом значении рассказов Тогая Мурада в узбекской национальной литературе и их роли в отражении национального колорита.

Ключевые слова: *сюжет, национальный колорит, художественно-эстетическая концепция, национальный дух, фольклор, образ, художественный образ, узбекская литература, народный стиль, национальная ценность, литературный анализ.*

Annotation: this article analyzes the artistic and aesthetic interpretation of national color, the literary expression of the folk spirit and national values in the stories of Togay Murad. It is revealed that the writer’s works illuminate the lifestyle, customs, national thinking and spiritual world of the Uzbek people through images and means of artistic depiction. The writer’s language skills, use of folklore elements and his unique style in creating a national character are also studied on a scientific and theoretical basis. The article draws conclusions about the aesthetic significance of Togay Murad’s stories in Uzbek national literature and their role in reflecting national color.

Key words: *story, national color, artistic and aesthetic concept, national spirit, folklore, image, artistic image, Uzbek literature, folk style, national value, literary analysis.*

Adabiyotshunoslikda milliy kolorit masalasi milliylik, xalqchillik va realizm kabi tushunchalar bilan uzviy bog‘liq holda o‘rganiladi. Realistik adabiyotda hayotni haqqoniy tasvirlash talabi milliy muhitni tabiiy va ishonarli ifodalash zaruratini yuzaga keltiradi. Shu jihatdan milliy kolorit badiiy asarning obrazlar tizimi, til va uslubi, syujet va kompozitsiyasi, makon va vaqt tasvirida namoyon bo‘ladi. Tadqiqotchilar milliy koloritni tashqi va ichki qatlamlarga ajratadilar. Tashqi kolorit urf-odatlar, marosimlar, kiyim-kechak va kundalik turmush detallari orqali ko‘zga tashlansa, ichki kolorit xalqning tafakkuri, ruhiyati va axloqiy qadriyatlarini ifodalaydi. Haqiqiy badiiylik aynan shu ikki qatlamning uyg‘unligida yuzaga keladi. Milliy kolorit muayyan omillar ta’sirida shakllanadi va rivojlanadi. Eng muhim omillardan biri til hisoblanadi, chunki badiiy asarda qo‘llanilgan so‘z boyligi, dialektlar, iboralar va maqollar milliy muhitni jonlantiradi hamda qahramonlarning ijtimoiy va madaniy qiyofasini ochib beradi. Mentalitet ham milliy koloritning asosiy negizini tashkil etadi, chunki u insonlarning fikrlash tarzi, qadriyatlari va hayotga munosabatini ifodalaydi. Badiiy asarda qahramonlarning xatti-harakatlari, qarorlari va hissiy reaksiyalari orqali milliy mentalitet namoyon bo‘ladi. Urf-odat va an’analar ham milliy koloritni shakllantiruvchi muhim omillar qatoriga kiradi, chunki ular xalqning tarixiy tajribasi va ijtimoiy hayotini aks ettiradi. Bundan tashqari, makon va tabiiy muhit ham milliy koloritning ajralmas qismi bo‘lib, tabiat tasvirlari orqali nafaqat voqelik fonini yaratadi, balki qahramonlarning ruhiy holatini ham ifodalaydi. Milliy kolorit badiiy asarda turli vositalar orqali ifodalanadi. Avvalo, obrazlar tizimi milliylikni aks ettiruvchi asosiy vosita bo‘lib, qahramonlarning xarakteri, nutqi va xatti-harakatlari orqali milliy ruh ochiladi. Lingvopoetik vositalar, jumladan metafora, epitet va boshqa tasviriy vositalar milliy koloritni yanada boyitadi. Syujet va konflikt qurilishida ham milliy muhit o‘z aksini topadi, chunki

unda jamiyatga xos ijtimoiy muammolar va qadriyatlar ifodalanadi. Badiiy detal esa milliy koloritni aniqlashtiruvchi vosita sifatida xizmat qiladi, chunki kichik bir predmet orqali ham muayyan davr va muhitni tasvirlash mumkin. Globallashuv sharoitida milliy kolorit masalasi yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda, chunki global madaniyat ta'siri kuchaygan sari milliy o'ziga xoslikni saqlash zarurati ortib bormoqda. Zamonaviy o'zbek nasrida milliy kolorit bir tomondan an'anaviy qadriyatlarni saqlash, ikkinchi tomondan esa yangi ijtimoiy sharoitda ularni qayta talqin qilish orqali rivojlanmoqda. Bu jarayonda yozuvchilar milliy koloritni nafaqat tashqi belgilar orqali, balki chuqur falsafiy mazmun bilan boyitishga intilmoqdalar. Milliy kolorit badiiy adabiyotning muhim estetik kategoriyalaridan biri bo'lib, u muayyan xalqning ruhiyati, madaniyati va tarixiy tajribasini o'zida mujassam etadi. U badiiy asarning realizmini ta'minlaydi, milliy ong va tafakkurni aks ettiradi hamda o'quvchiga kuchli estetik ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli milliy koloritni o'rganish adabiyotshunoslik bilan bir qatorda madaniyatshunoslik va tilshunoslik uchun ham muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, Tog'ay Murod ijodi misolida milliy koloritning badiiy imkoniyatlarini chuqurroq anglash mumkin.

Badiiylik va milliy kolorit o'rtasidagi munosabatni qahramonlar nutqi misolida ham ko'rish mumkin, chunki qahramonlarning nutqi orqali ularning milliy mansubligi, ijtimoiy kelib chiqishi va dunyoqarashi ochib beriladi, bu jarayonda xalqona iboralar, maqollar, dialektlar va frazeologik birliklar muhim rol o'ynaydi, aynan shu til unsurlari orqali milliy kolorit shakllanadi va badiiylik darajasi ortadi. Chunki ular nutqqa tabiiylik va samimiylik bag'ishlaydi, shu bilan birga, estetik zavq uyg'otadi, bu esa tilning go'zallik yaratish xususiyatining yorqin namunasidir. Tilning ikki tomonlama badiiy xususiyati milliy koloritni shakllantirishda quyidagicha namoyon bo'ladi: bir tomondan yozuvchi real milliy hayotni aks ettiradi, ya'ni urf-odatlar, marosimlar, turmush tarzi va tabiat tasvirini berish orqali milliy muhitni ko'rsatadi, ikkinchi tomondan esa u tilning badiiy imkoniyatlaridan foydalanib, ushbu muhitni estetik jihatdan boyitadi va umumlashtiradi. "Tilning emotsionalligi badiiy matnda qahramon ruhiyati, muallif munosabati va milliy xarakter ifodasini kuchaytiruvchi muhim uslubiy vosita hisoblanadi".[1] Natijada milliy kolorit faqat faktlar yig'indisi emas, balki badiiy tizimga aylangan estetik hodisa sifatida yuzaga keladi. Adabiy jarayonda ijodkorning individual uslubi ham milliy kolorit va badiiylik uyg'unligini belgilovchi muhim omil hisoblanadi, har bir yozuvchi milliylikni o'ziga xos tarzda ifodalaydi va bu uning til tanlovi, obraz yaratish usullari hamda estetik qarashlarida aks etadi. Masalan, Tog'ay Murod ijodida tilning sodda, xalqona va obrazli qo'llanishi orqali milliy ruh tabiiy va ta'sirchan tarzda ifodalanadi, uning asarlarida til bir vaqtning o'zida ham real hayotni aks ettiradi, ham yangi estetik go'zallikni yaratadi, bu esa badiiylik va milliy koloritning uyg'unlashgan holatini ko'rsatadi. Milliy kolorit va badiiylik o'rtasidagi uzviy bog'liqlik o'quvchi idrokida ham o'z aksini topadi, chunki badiiy asarni o'qish jarayonida o'quvchi nafaqat voqealarni anglaydi, balki estetik zavq oladi, aynan milliy kolorit orqali bu zavq yanada kuchayadi, chunki u o'quvchini o'ziga tanish yoki qiziqarli bo'lgan milliy muhit bilan bog'laydi, shu bilan birga, badiiy til vositalari orqali bu muhit estetik jihatdan boyitiladi. "Agar tasvirlamoqchi bo'lgan narsalaringizga yetarli darajada bardosh va e'tibor bilan tikilsangiz, uning hali hech kim ko'rmagan va tasvirlamagan tomonlarini, albatta, topasiz... Arzimagan narsaning ham hali ma'lum bo'lmagan biror qirrasi bor. Yonib turgan olovni yoki tekis joydagi bir daraxtni tasvirlash uchun ularni boshqa hech qaysi olovga yoki daraxtga o'xshamay ko'ringuncha o'rganish kerak"[2] degan fikrlar to'laqonli haqiqat. Badiiy adabiyotda tasvir aniqligi va kuzatuv chuqurligi masalasi milliy koloritni yaratishning eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi, chunki yozuvchi tasvirlamoqchi bo'lgan voqelikni yuzaki emas, balki uning ichki mohiyatigacha anglab yetgan taqdirdagina uni badiiy jihatdan mukammal ifodalay oladi. Shu jihatdan har qanday predmet, hodisa yoki inson xarakteri o'zida betakror jihatlarni mujassam etadi va aynan ana shu o'ziga xoslikni topish ijodkorning asosiy vazifasiga aylanadi, natijada badiiy tasvir umumiylikdan xususiylikka, oddiylikdan betakrorlikka o'tadi va milliy koloritning shakllanishiga zamin yaratadi. Shuningdek, badiiy asarda qahramon ruhiy holatini tasvirlashda ijodkor mahorat bilan foydalanadigan badiiy unsurlar xalqona tasvir yaratishga xizmat qiladi: "Qahramon ruhiyati badiiy asarda personajning ichki kechinmalari, his-tuyg'ulari va psixologik holatini ochib beruvchi asosiy estetik unsurlardan biri hisoblanadi"[3], deb yozadi adabiyotshunos Izzat Sulton. Xalq hayotini tasvirlashda milliy koloritning ishonarli chiqishi yozuvchining kuzatuvchanligi va tafakkur chuqurligiga bevosita bog'liq bo'ladi, chunki oddiy ko'rinadigan voqea yoki predmet ham aslida ko'p qirrali mazmunga ega bo'lib, uning ichida milliy turmush tarzi, qadriyatlar tizimi va estetik qarashlar mujassam bo'ladi.

"Har bir yozuvchining o'zga bir yozuvchiga o'xshamasligi, uning adabiyotdagi mustaqil ovozi mazkur adib uslubini belgilashga xizmat qiladi. Ayni chog'da yozuvchining hayotni tadqiq etishdagi o'ziga xos yo'li hayotni qanday ko'radi va uni qanday tushuntiradi; nimani tasdiqlaydi-yu, nimani inkor qiladi – shularning hammasi

1 A. Shomaqsudov, I. Rasulov, R. Qo'ng'urov, H. Rustamov. O'zbek tilining stilistikasi – Toshkent: O'qituvchi, 1983. 112-bet.

2 Badiiy ijod haqida. (Maqolalar to'plami). O'zSSR Davlat badiiy adabiyot nashriyoti. – T., 1960. 276-b

3 Sulton I. Adabiyot nazariyasi – Toshkent: O'qituvchi, 2005. 214-bet.

uslub doirasiga kiradi”[4] deb e’tirof etadi tadqiqotchi M. Sultonova. Shuningdek, yozuvchi uslubi badiiy asarda xalq hayotini jonli tasvirlash va milliy koloritni to‘laqonli aks ettirishda eng muhim vositalardan biri hisoblanadi. Adabiyotshunoslikda yozuvchi uslubi masalasi ijodkorning badiiy individualligini belgilovchi asosiy mezonlardan biri sifatida qaraladi, chunki har bir yozuvchi borliqni o‘ziga xos tarzda idrok etadi va uni badiiy shaklda ifodalaydi, shu jihatdan tadqiqotchi M. Sultonova ta’kidlaganidek, ijodkorning boshqa yozuvchilarga o‘xshamasligi, uning adabiyotdagi mustaqil ovozi aynan uslub orqali namoyon bo‘ladi, bu esa nafaqat til va ifoda vositalarida, balki hayotni ko‘rish, tushunish va baholash jarayonida ham o‘z aksini topadi. Natijada uslub ijodkorning badiiy dunyoqarashini ifodalovchi kompleks hodisa sifatida shakllanadi. Yozuvchi uslubi hayotni tadqiq etish jarayoni bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, u voqelikni qanday ko‘rishi, uni qanday talqin qilishi va qanday estetik xulosalar chiqarishi orqali namoyon bo‘ladi, shu ma’noda uslub faqat tashqi ifoda vositalari yig‘indisi emas, balki ijodkorning ichki dunyosi, falsafiy qarashlari va estetik ideallarining badiiy ifodasidir. Aynan shu jihat yozuvchi uslubini boshqa ijodkorlardan ajratib turadi va unga o‘ziga xoslik bag‘ishlaydi, natijada har bir asar muallif shaxsiyatining badiiy aksiga aylanadi. Izzat Sultonning o‘ziga xoslik haqidagi: “Milliy kolorit san’atkor tasvirlayotgan xalq hayotining milliy o‘ziga xosligi, urf-odatlari, tili, ruhiyati va turmush tarzining badiiy ifodasida namoyon bo‘ladi” degan fikrlari ayni o‘rinlidir.

Tog‘ay Murodning o‘ziga xos uslubini tahlil qilganda, unda xalq og‘zaki ijodi – dostonlar, maqollar, ertaklar, tez aytishlar bilan bir qatorda, mumtoz adabiyot an’analari va qadimiy turkiy bitiklar ifoda uslublari o‘zaro uyg‘unlashib ketganini kuzatish mumkin. Masalan, “Saraton balolardan sariq bo‘ldi, balolar saratondan-da sariq bo‘ldi” jumlasida mumtoz she’riyatga xos tardi aks san’ati qo‘llangan bo‘lsa, “Qizillar qulog‘i qirqta bo‘ladi” ifodasida alliteratsiya – tovushlar uyg‘unligi va takrori yaqqol seziladi, bu esa she’riyatga xos ohangdorlikni yuzaga keltiradi. Aynan shunday usullar tez aytish janrida ham keng qo‘llanadi. Shoir Yo‘ldosh Eshbekning “Tog‘ay Murodning asarlari proza emas, poeziya” degan fikri ham bejiz emas, chunki yozuvchining nasriy matnlarida she’riy ifoda, ritm va badiiy ohang kuchli sezilib turadi. Bu jihatdan u mumtoz adabiyot an’analarini zamonaviy nasr bilan uyg‘unlashtira olgan noyob ijodkorlardan biridir. Xuddi Alisher Navoiy ijodida uchraydigan ayrim hikmatli misralarning xalq maqollariga yaqinligi yoki keyinchalik maqolga aylanib ketgani kabi, Tog‘ay Murod asarlaridagi ko‘plab iboralarni ham maqollardan ajratish qiyin. Ular shu darajada xalqona va hikmatli. Umuman olganda, bu betakror adibning uslubini shunchaki “xalqona” deb baholash yetarli emas, chunki uning ijodi chuqur qatlamlarga ega bo‘lib, unda milliy tafakkur, badiiy tajriba va estetik izlanishlar uyg‘unlashgan. Shu sababli uning uslubini yanada kengroq va chuqurroq o‘rganish adabiyotshunoslik oldida turgan muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Tog‘ay Murod ijodi misolida milliy kolorit masalasi yanada yaqqolroq ko‘rinadi. Uning asarlarida tasvirlangan qahramonlar, hatto ular boshqa madaniy kontekstga ko‘chirilgan taqdirda ham, o‘z milliy mohiyatini yo‘qotmaydi. Bu holat shuni anglatadiki, yozuvchi milliylikni tashqi atributlar orqali emas, balki ichki mazmun – xarakter, dunyoqarash va axloqiy pozitsiya orqali yaratadi. Demak, koloritning eng yuqori bosqichi bu ichki koloritdir, ya’ni obrazning ruhiy va ma’naviy tabiatida mujassam bo‘lgan milliylikdir.

“Adirlarda qo‘y boqib, nay chaldim. Nafasim yetmay qoldi. Shunda eski bir do‘mbira topdim. Do‘mbirani sayratdim. Bepoyon adirlar, yoyilib o‘tlayotgan qo‘ylar, cho‘qqilar ustida tinmay chug‘urlayotgan qushlar, pag‘a-pag‘a oppoq bulutlarga qarab doston aytdim. Bu dostonlarni to‘ylar, olis yaldo kechalari bobolarimiz biri qo‘yib, biri aytar edi. Bobolarning ko‘plari rahmatlik bo‘ldi. Rahmatliklarday doston aytib bo‘lmaydi, Bizniki, baholi qudrat…”[5] Keltirilgan parcha Tog‘ay Murod ijodiga xos milliy kolorit va individual uslubning yorqin namunasi bo‘lib, unda xalqona hayot manzarasi, estetik tafakkur va badiiy ifoda o‘zaro uyg‘unlashgan holda namoyon bo‘ladi. Ushbu matndan milliy kolorit elementlarini aniqlash uchun uni mazmuniy va shakliy jihatdan tahlil qilish zarur.

4 Sultonova M. Yozuvchi uslubiga doir. T.: “Fan” nashriyoti. 1973. 116-b.

5 Tog‘ay Murod. Ot kishnagan oqshom. – T.: Ziyonashr. 2019. 131-b.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. A. Shomaqsudov, I. Rasulov, R. Qo‘ng‘urov, H. Rustamov. O‘zbek tilining stilistikasi – Toshkent: O‘qituvchi, 1983. 112-bet.
2. Badiiy ijod haqida. (Maqolalar to‘plami). O‘zSSR Davlat badiiy adabiyot nashriyoti. – T.,1960. 276-bet.
3.Sulton I. Adabiyot nazariyasi – Toshkent: O‘qituvchi, 2005. 214-bet.
4. Sultonova M. Yozuvchi uslubiga doir. – T.: “Fan” nashriyoti. 1973. 116-bet.
5. Tog‘ay Murod. Ot kishnagan oqshom. – T.: Ziyonashr. 2019.131-bet.

Islom SHAHRIYEV,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi magistranti
E-mail: islom.shahriyev@chirdu.uz

O‘TKIR HOSHIMOV ASARLARINI O‘QITISH ORQALI O‘QUVCHILARNING TADQIQOTCHILIK KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH

Annotatsiya: mazkur tezisda O‘tkir Hoshimov adabiy merosini o‘qitish jarayonida o‘quvchilarda tadqiqotchilik kompetensiyalarini shakllantirish masalasi ilmiy asosda tahlil etilgan. Muammoli o‘qish, qiyosiy tahlil va loyiha metodlarining o‘quv jarayoniga tatbiqi nazariy va amaliy jihatdan asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, yozuvchi asarlarining ko‘p qatlamliligi va badiiy murakkabligi o‘quvchilarda izlanish ruhi, mustaqil fikrlash hamda xulosalash ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun qulay pedagogik zamin yaratadi.

Kalit so‘zlar: *tadqiqotchilik kompetensiyasi, O‘tkir Hoshimov, badiiy tahlil, muammoli o‘qish, kompetensiyaviy yondashuv, interfaol metodlar.*

Annotation: this article examines the issue of developing research competencies in students through the study of O‘tkir Hoshimov’s literary heritage. The methods of problem-based reading, comparative analysis, and project-based learning are analyzed and their application in the educational process is substantiated. The research concludes that the multi-layered nature and artistic complexity of the writer’s works create a favorable pedagogical environment for fostering an inquiry-based spirit, independent thinking, and analytical skills in students.

Key words: *research competency, O‘tkir Hoshimov, literary analysis, problem-based reading, competency-based approach, interactive methods.*

Аннотация: в данной статье рассматривается проблема формирования исследовательских компетенций учащихся в процессе изучения литературного наследия Уткира Хошимова. Анализируются методы проблемного чтения, сравнительного анализа и проектной деятельности, а также обосновывается их применение в учебном процессе. Исследование показывает, что многослойность и художественная сложность произведений писателя создают благоприятную педагогическую почву для развития исследовательского духа, самостоятельного мышления и навыков обобщения у учащихся.

Ключевые слова: *исследовательская компетенция, Уткир Хошимов, художественный анализ, проблемное чтение, компетентностный подход, интерактивные методы.*

Muammoning dolzarbligi

O‘zbek ta’lim tizimida kompetensiyaviy yondashuv bugungi kunda eng ustuvor pedagogik g‘oya sifatida e’tirof etilmoqda. Bu yondashuv o‘quvchidan nafaqat bilim egallashni, balki o‘sha bilimni mustaqil izlash, tahlil qilish va hayotiy muammolarni hal etishda qo‘lla olishni talab qiladi. Mazkur sharoitda adabiyot darslari alohida o‘rin tutadi, chunki badiiy matn o‘quvchini ko‘p qatlamli maʾno izlashga majbur qilib, uning intellektual va hissiy imkoniyatlarini bir vaqtda rivojlantiradi. O‘zbek nasrining ko‘ringan vakili O‘tkir Hoshimov (1941–2013) asarlari aynan shu maqsadga xizmat qila oladigan noyob badiiy materiallardan hisoblanadi.

Tadqiqotchilik kompetensiyasi pedagogika fanida o‘quvchining muammoni aniqlash, gipoteza ilgari surish, dalillar to‘plash va asosli xulosa chiqarish ko‘nikmalari majmui sifatida tavsiflanadi. Bu kompetensiyani adabiyot darslarida maqsadli ravishda shakllantirish pedagogik amaliyotda muhim vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Tadqiqot metodlari va ularning tavsifi

Hoshimov asarlarida tadqiqotchilik kompetensiyasini shakllantirish uchun quyidagi pedagogik metodlardan foydalanish samarali natijalar beradi.

1. Muammoli o‘qish metodi. Ushbu metodda o‘qituvchi dars boshida yoki o‘qish jarayonida ochiq

savol qo‘yadi. Masalan, “Bahor qaytmas” qissasini o‘rganishda: “Nima uchun qahramon o‘tmishiga qaytolmaydi va bu holat bugungi o‘quvchi uchun qanday maʼno kasb etadi?” — tarzidagi savol o‘quvchini chuqur o‘ylantirib, shaxsiy munosabat shakllantirishga hamda ijtimoiy-falsafiy tafakkurga yo‘naltiradi.

2. Qiyosiy tahlil metodi. Bu metod doirasida o‘quvchilar Hoshimovning “Nur borki, soya bor” va “Ikki eshik orasi” asarlarini belgilangan mezonlar bo‘yicha taqqoslab, muallif uslubidagi o‘zgarishlar va umumiy xususiyatlarni mustaqil aniqlaydigan vazifalarni bajaradilar. Ushbu metod o‘quvchida ham adabiy, ham tarixiy tafakkurni bir vaqtda rivojlantiradi.

3. Loyiha metodi. O‘quvchilar Hoshimov ijodining biror qirrasini — ayol obrazlari, til xususiyatlari, tarix va zamona munosabati kabi mavzularni — kichik guruhda tadqiq etib, natijalarini ochiq himoya qiladilar. Bu metod tadqiqotchilik kompetensiyasining barcha komponentlarini: kognitiv, operatsional, motivatsion va kommunikativ qirralarni bir vaqtda rivojlantiradi.

Yuqorida sanab o‘tilgan metodlarni yanada samarali qilish uchun “6 qalpoq”, “Baliq skeleti” va “Insert” kabi interfaol texnologiyalardan foydalanish tavsiya etiladi.

Tadqiqot natijalari

O‘tkazilgan kuzatishlar va pedagogik tajriba tahlili shuni ko‘rsatadiki, Hoshimov asarlarini maqsadli metodlar orqali o‘rganish o‘quvchilarda quyidagi ko‘nikmalarni shakllantiradi:

1. Muammoni mustaqil aniqlash va uni aniq ifodalash qobiliyati;
2. Badiiy matnni dalillar asosida tahlil qila olish malakasi;
3. O‘z fikrini og‘zaki va yozma shaklda asoslab bera olish ko‘nikmasi;
4. Turli manbalar bilan ishlash va ularni tanqidiy baholash qobiliyati.

Xulosa. O‘tkir Hoshimov ijodiy merosini muammoli, qiyosiy va loyiha metodlari orqali o‘qitish o‘quvchilarda tadqiqotchilik kompetensiyasining kognitiv, operatsional, motivatsion va kommunikativ komponentlarini bir vaqtda rivojlantirishga imkon beradi. Yozuvchi asarlarining badiiy murakkabligi va maʼnaviy terangi darxo‘r pedagogik vosita bo‘lib, adabiyot darsini haqiqiy ilmiy izlanish maydoniga aylantiradi.

Hoshimov asarlarida ko‘tarilgan insoniy mavzular — shaxsning o‘z-o‘zi bilan kurashi, milliy maʼnaviyat, o‘tmish va hozirgi zamon dialektikasi — o‘quvchini hissiy va intellektual jihatdan faollashtirish uchun kuchli pedagogik material bo‘lib xizmat qiladi. Kelajakda turli sinf bosqichlari uchun differensial metodika ishlab chiqish va raqamli taʼlim vositalari bilan integratsiyani taʼminlash dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Hoshimov O‘. Bahor qaytmas. – Toshkent: Sharq nashriyoti, 2005. 288-b.
2. Hoshimov O‘. Ikki eshik orasi. – Toshkent: G‘afur G‘lom nomidagi nashriyot, 2010. 352-b.
3. Hoshimov O‘. Nur borki, soya bor. – Toshkent: Sharq, 2003. 224-b.
4. Yo‘ldoshev Q. Badiiy matn va uni o‘rganish metodologiyasi. – Toshkent: Fan, 2007. 180-b.
5. Xoliqov A. Adabiyot o‘qitish metodikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2018. 264-b.
6. Bloom B.S. Taxonomy of Educational Objectives. – New York: Longman, 1956. – 207 p.
7. Barkley E.F. Student Engagement Techniques. – San Francisco: Jossey-Bass, 2010. – 364 p.
8. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2022. 464-b.

Kamola SAYDULLAYEVA,
NIU 70230101-Lingvistika (O‘zbek tili) mutaxassisligi 1-kurs magistranti

SIROJIDDIN SAYYID ASARLARINING USLUBIY-PRAGMATIK IMKONIYATLARI

Annotatsiya: maqolada Sirojiddin Sayyid asarlarining uslubiy-pragmatik imkoniyatlari o‘rganiladi va shoir asarlarida qo‘llangan dialektizmlarning pragmatik talqini, frazema va maqollarning pragmatik xususiyatlari o‘rganiladi. Sirojiddin Sayyid ijodida stilistik vositalar asosan lingvopoetik jihatdan o‘rganilgan bo‘lsada, ularning pragmatik funksiyalari nutqiy aktlar, kontekstual ma’no, emotsional va ijtimoiy ta’sirchanlik tizimli tarzda ko‘rib chiqiladi. Kommunikativ va ijtimoiy jihatdan ham yangicha talqin qilinadi.

Kalit so‘zlar: *pragmatik imkoniyat, frazema, dialektlar, maqol, pragmatik talqin*

Аннотация: в статье изучаются стилистико-прагматические возможности произведений Сироджиддина Саййида и прагматическая интерпретация диалектизмов, используемых в произведениях поэта, прагматические особенности фразем и пословиц. Хотя стилистические средства в творчестве Сироджоддина Саййида изучались в основном с лингвопоэтической точки зрения, их прагматические функции, речевые акты, контекстуальное значение, эмоциональное и социальное воздействие рассматриваются систематически. Он также интерпретируется по-новому с коммуникативной и социальной точек зрения.

Ключевые слова: *прагматическая возможность, фразема, диалекты, пословица, прагматическая интерпретация*

Annotation: the article examines the stylistic and pragmatic possibilities of Sirojiddin Sayyid’s works and the pragmatic interpretation of dialectisms used in the poet’s works, the pragmatic features of phrases and proverbs. Although stylistic devices in the works of Sirojiddin Sayyid are mainly studied from a linguopoetic point of view, their pragmatic functions - speech acts, contextual meaning, emotional and social impact - are considered systematically. It is also interpreted in a new way in terms of communicative and social aspects.

Key words: *pragmatic possibility, phrase, dialect, proverb, pragmatic interpretation*

Kirish. Sirojiddin Sayyid zamonaviy o‘zbek adabiyotida o‘ziga xos uslubga ega ijodkorlardan biridir. Uning asarlarida tilning ta’sirchanlik imkoniyatlari keng qo‘llanilib, o‘quvchiga fikrni aniq va samarali yetkazish maqsad qilingan. Shoir badiiy vositalar orqali nafaqat estetik ta’sir ko‘rsatadi, balki muayyan pragmatik vazifani ham bajaradi. Sirojiddin Sayyid asarlarida qo‘llanilgan uslubiy vositalarning – xususan, dialektizm, frazema va maqollarning – pragmatik imkoniyatlarini chuqur ochib berish, ya’ni ularning o‘quvchi bilan kommunikativ aloqa o‘rnatishdagi, hissiy ta’sir yaratishdagi hamda ijtimoiy-patriotik g‘oyalarni samarali yetkazishdagi rolini ilmiy jihatdan tahlil qilishdan iboratdir. Sirojiddin Sayyid ijodiy olami o‘zbek she’riyatida milliy ruh va zamonaviy poetik tafakkurning o‘ziga xos sintezi sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. “So‘z o‘lmaydi” deganlaridek, shoir o‘z asarlarida xalqimizning asriy donishmandligi, milliy qadriyatlari va tilning cheksiz imkoniyatlarini yangicha badiiy talqin darajasiga olib chiqadi. Ushbu ilmiy maqolada muallif asarlarining uslubiy-pragmatik imkoniyatlari, badiiy matnda frazemalar va maqollarning nutqiy ta’sirchanlik vositasi sifatidagi vazifalari atroflicha o‘rganiladi.

Natijalar va muhokama

Masalan, shoirning “Vatanni o‘rganish” she’rida

Dil porasi, ko‘z qorasi sen o‘zingdirsan,
Mening ko‘nglim sen aslida, sen ko‘zimdirsan.
Tomirimda tomir yoygan ilk so‘zimdirsan,
Ilk og‘rig‘im, ilk yomg‘irim, naysonim, Vatan. [5,68-70]

parchada xalqona frazema va obrazli iboralar qo‘llangan:

“Tomirimda tomir yoygan” bu kuchli xalqona metaforik frazema. Ma’nosi: “qonimda, tomirlarimda tarqalgan, qonim bilan aralashgan, eng chuqur va aziz”. Bu ibora insonning eng ichki, qon-qoniga singib ketgan narsasini ifodalaydi. Xalq tilida “tomirida

tomir bo‘lmoq” yoki “qoniga singimoq” ma’nolarida ishlatiladigan obrazli ifoda. Pragmatik jihatdan juda kuchli Vatan tuyg‘usining inson uchun qondek yaqin va ajralmas ekanligini ta’kidlaydi.

“Ilk og‘rig‘im, ilk yomg‘irim, naysonim” bu ham xalqona poetik iboralar.

“Ilk og‘rig‘im” bolalikdagi birinchi og‘riq (Vatan bilan bog‘liq birinchi his-tuyg‘u).

“Ilk yomg‘irim” birinchi yomg‘ir (bolalik xotirasi, hayotning boshlanishi).

“Naysonim” bu so‘z xalq tilida “bahorim”, “yoshligim”, “eng go‘zal paytim” ma’nolarida ishlatiladigan she’riy-xalqona ibora. “Nayson” so‘zi o‘zbek she’riyatida bahor va yoshlik ramzi sifatida keng qo‘llaniladi.

Sirojiddin Sayyid folklor unsurlarini eng tizimli ishlatgan asosiy manbasi sifatida ajralib turadigan “Asarlar’’ IV jildli kitobida xalq maqollarining she’riy talqini keng uchraydi.

O‘tar dunyo – biz mehmon,
Har giyohdan terdik don.
Biring tansan, biring – jon,
Baring bo‘lgin qadrdon [2, 103-b].

Bu parchada “O‘tar dunyo – biz mehmon” maqoli hayotning o‘tkinchiligi, dunyoning vaqtinchalik mehmonxonasi ekanligi va insonning unda vaqtinchalik mehmon sifatidagi o‘rnini ifodalaydi va frazema “har giyohdan terdik don” frazemasi o‘zbek xalq og‘zaki ijodiga xos frazeologik birlik bo‘lib, hayotning har bir mayda voqea-hodisasidan, har bir o‘tdan (giyohdan) foydali saboq yoki don (don, urug‘, foyda) olish g‘oyasini ifodalaydi. Semantik jihatdan bu ibora “hayotning har bir lahzasidan, har bir tajribasidan o‘zimizga kerakli saboqni olish” ma’nosini bildiradi va dunyoning o‘tkinchiligi, insonning undan donishmandlik terib olishi falsafasini aks ettiradi.

Sirojiddin Sayyid ijodida “Kuydim” va “Mehr qolur, muhabbat qolur” to‘plamlaridagi maqollar va frazemalar o‘quvchida chuqur implikatura ya’ni ko‘rsatilmaydigan ma’no yaratib, Vatan va milliy qadriyatlar mavzusini samarali yetkazish imkonini beradi

Nasihat nimadir? Bahs-talosh nadir?
Fano darvozasi abad yopilmaydi.
Dunyo topiladi, odam topilmaydi.[2, 10-20]

maqoli pragmatik jihatdan maqol o‘quvchi bilan faol muloqot vositasi sifatida ishlaydi. U o‘quvchining madaniy xotirasini faollashtirib, hayotning o‘tkinchiligi va inson qadrining ustunligi haqida chuqur refleksiyaga undaydi. Implikaturi (ko‘rsatilmaydigan ma’no) orqali moddiy boylikning vaqtinchaligi va haqiqiy inson topish qiyinligi g‘oyasini yetkazadi.

Sirojiddin Sayyid she’riyatida lingvomadaniy birliklar – o‘xshatish, metafora va frazemalarning milliy-madaniy konnotatsiyani ifodalashdagi ustuvorligi muallifning til shaxsida milliy-madaniy vakil ekanligi bo‘rtib turishini ko‘rsatadi. Anglanadiki, idiostil ijodkorning o‘ziga xos badiiy tafakkur tarzi, keng mushohadasi, kommunikativ-kognitiv qobiliyatlarini namoyon qila olish mahorati va olamni milliy bo‘yoqlarda anglashga intiladigan ruhiy olamiga bog‘liq holatda shakllanadi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, Sirojiddin Sayyid asarlarida dialektizmlar, frazemalar va maqollar nafaqat estetik vosita, balki kuchli pragmatik potensialga ega. Ushbu unsurlar o‘quvchi bilan faol kommunikativ aloqa o‘rnatish, madaniy xotirani faollashtirish va ijtimoiy-patriotik g‘oyalarni samarali yetkazish imkonini beradi. Shoirning uslubiy yondashuvi zamonaviy o‘zbek she’riyatida xalqchillik va zamonaviylikning muvaffaqiyatli sintezini namoyon etadi.

Sirojiddin Sayyid ijodini pragmatik nuqtayi nazardan o‘rganish milliy adabiyotshunosligimizda she’riyatning kommunikativ va tarbiyaviy imkoniyatlarini chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sirojiddin Sayyid. Vatanni o‘rganish. – Toshkent, 1996.
2. Sirojiddin Sayyid. Kuydim. – Toshkent, 1994.
3. Sirojiddin Sayyid. Mehr qolur, muhabbat qolur. – Toshkent, 1990.
4. Саййид. Асарлар. I жилд. – Тошкент: “Шарқ”, 2018.
5. Сирожиддин Саййид. Асарлар. IV жилд. – Тошкент: “Шарқ”, 2018.
6. Улуғбек Ҳамдам. Янги ўзбек шеърияти. Илмий мақолалар. – Тошкент, “Адиб”, 2012.
7. Payzullayeva. R. Sirojiddin Sayyid ijodida vatan obrazining poetik talqini. — Navoiy, 2024.

Farangiz YAXSHIBOYEVA,
Samarqand davlat universiteti 1-bosqich magistranti
yaxshiboyevafarangiz420@gmail.com

OCHILDI MIRIY – XIX ASR ADABIY TARAQQIYOTINING FAOL VAKILI

Annotatsiya: ushbu maqolada XIX asrda yashab ijod qilgan Ochildimurod Miriy shaxsiyati va lirik tafakkuri, shoir qalamiga mansub asarlar, ulardagi mavzular ko‘lami va janrlar xususiyati yoritilgan. Uning Kattaqo‘rg‘on adabiy muhitiga qo‘shgan hissasi ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: *Kattaqo‘rg‘on adabiy muhiti, Ochildi Miriy, lirika, janr, mavzular rang-barangligi.*

Аннотация: в статье рассматриваются личность и лирическое мышление Очилдимурода Мирия, жившего и творившего в XIX веке, творчество поэта, тематика его произведений, особенности жанров. Раскрывается его вклад в литературную среду Каттакургана.

Ключевые слова: *литературная среда Каттакургана, Очилди Мирий, тексты, жанры и тематика.*

Annotation: this article examines the personality and lyrical thinking of Ochildimurod Miriy, who lived and worked in the 19th century, the works of the poet, the scope of their themes and the characteristics of genres. His contribution to the literary environment of Kattakurgan is revealed.

Key words: *the literary environment of Kattakurgan, Ochildi Miriy, lyrics, genre, and variety of themes.*

Jamiyatni ma’naviy-ma’rifiy yangilashning bosh maqsadi yurt tinchligi va xalq farovonligiga erishish, shuningdek, komil insonlarni tarbiyalashda ifodalanadi. Bu jarayonda ijtimoiy hamkorlik va diniy bag‘rikenglik kabi masalalar muhim ahamiyat kasb etadi. Tarixda ko‘plab davlatlar va sulolalar hukm surgan, har biri o‘z ma’naviy-ma’rifiy merosini qoldirgan. Mustaqil bo‘lishimiz bilan, mamlakatimiz rahbari barcha sohalarga e’tibor qaratdi. O‘zbek adabiyoti va buyuk adiblarimizning merosiga ham alohida ahamiyat berildi. Birinchi prezidentimiz Islom Karimov ta’kidlaganidek, insonning ma’naviy olamini kashf etishda badiiy adabiyot muhim vosita sanaladi. Adabiyot inson ruhining tarjimoni va tarbiyachisi hisoblanadi. Adabiyot shaxs tarbiyasida asosiy omil bo‘lib, unda har bir xalqqa xos milliy g‘oyalar, an’ana va qadriyatlar aks etadi. Shuning uchun ham adabiyot, shoir, yozuvchilar va adabiy muhit o‘rganiladi. Xususan, shunday bir rivojlangan va adabiyotda katta o‘rin tutgan Kattaqo‘rg‘on shahridagi adabiy muhitdir. XIX asr davomida Kattaqo‘rg‘on mavzesida qator iste’dodli shoirlardan iborat o‘ziga xos adabiy an’analar muhiti, maktabi shakllandi va rivojlandi. XVIII asr oxiri, XIX asrning birinchi yarmida va o‘rtalarida zabardast shoir, fiqhshunos olim Muhammad Sharif Shavqiy (1985–1861), Kattaqo‘rg‘onga yaqin Yangiqo‘rg‘onda Eshonxoja Vola yashab ijod etdilar. XIX asr o‘rtalaridan Ochildi Miriy (1841–1899), Avazmuhammad Vidoiy, Nurmuhammad Do‘st, Nozuk, Dilafgor kabi shoirlar adabiyot maydonida paydo bo‘lishdi. XIX asr oxiri va XX asr avvallarida Ahmad, Ahqar (vafoti 1919) Abdulqodir Noqis (1860–1929), Hoqiy, Homid, Valiy, Mahdiy, Ostonaqul Dabiriy kabi shoirlar o‘zbek va tojik mumtoz adabiyoti an’analarini davom ettirdilar. Bir-biriga ustoz-u shogird sifatida Kattaqo‘rg‘on shukuhini oshirib borgan bu siymolarning adabiy meroslarini o‘z ichiga oluvchi she’riy devonlar, bayozlar doston va boshqa xildagi asarlarning bir qancha qo‘lyozma va bosma nusxalari bizgacha yetib kelgan. Kattaqo‘rg‘on adabiy muhiti yuqoridagi ko‘pgina shoirlarni yetishtirib berdi, shular jumlasidan Ochildi Miriyni ham. Miriy XIX asrning ikkinchi yarmidagi progressiv adabiyotning iste’dodli va sermahsul namoyandalaridan. Shoirning hayoti va ijodini o‘rganish bundan qariyb bir asr avval adabiyotshunos Abdulhamid Majidiy tomonidan boshlangan. U o‘zining Miriy haqidagi maqolasida shoirning hayoti va ijodi haqida qisqacha ma’lumot beradi. Ochilmurod Ne’matullo o‘g‘li Miriy 1839-yilda Kattaqo‘rg‘onning Eshonqishloq mavzesida dehqonlar oilasida tavallud topgan. Miriy dastlabki savodini boshlang‘ich maktabda olgach, Kattaqo‘rg‘on shahrida joylashgan Naqibxo‘ja madrasasida tahsilni davom ettiradi. So‘ngra Buxoroning mashhur ilm maskanlaridan biri bo‘lgan madrasa bilan ilmini boyitadi. Ilk she’riy mashqlarini Roqim va Shavqiy singari mashhur shoirlar uslubida yozishni boshlaydi. Ochildi yoshligidan adabiyotga, ayniqsa, she’riyatga katta ishtiyoq bilan qiziqadi. Uning qalbida badiiy ijodga bo‘lgan havas va iste’dod juda erta, bolalik chog‘idanoq namoyon bo‘ladi. Atigi 14 yoshida yozgan “Etar” nomli she’ri davr arboblari va ijod ahli e’tiborini tortadi. Bu she’r shunchalik mahorat bilan yozilganki, uni o‘qiganlar yosh shoirning zakovati va she’riy salohiyatiga qoyil qoladilar.

She’rni ko‘rib hayratga tushgan adib va zamondoshlaridan biri – tajribali shoir yosh iqtidor egasini ko‘klarga ko‘tarib, “Bu bola hammadan ham avval taxallusga muhtoj ekan!” deya e’lon qiladi. U “Etar” she’rining oxiriga quyidagi baytni tazmin qilib qo‘shadi:

Visol istayub ul pari deyrdin Miriy,
Mudom nay kabi ovoz etib tarannum etar.

Shu tariqa yosh Ochildi ilk bor “Miriy” taxallusini oladi. Bu laqab garchi so‘fiylik g‘oyalariga qisman zid bo‘lsa-da, (negaki “Miriy” so‘zi aslida “amirga xos”, “mirga mansub”, “amir avlodi” degan ma’noni anglatadi) shoir bu nomni ulug‘ ustozga bo‘lgan hurmat va ehtirom ila qabul qiladi. U bu taxallusni e’tiqodiga zid bo‘lmagan tarzda, uni ichki ruhiy olami va so‘fiylik qarashlariga uyg‘un ma’noda talqin qiladi. Miriy bu nom ostida nafaqat she’r yozadi, balki uni o‘zining hayoti va ijodida yuksak badiiy mahorat bilan ardoqlaydi. Bu taxallus keyinchalik nafaqat shaxsiy imzosiga, balki o‘zbek adabiyotida chuqur iz qoldirgan, ma’naviy jihatdan yetuk shoir nomiga aylanadi.

Miriy madrasa ta’limini yakunlagach, u nafaqat shoir, balki donishmand va chuqur tafakkur egasi sifatida ham tan olinadi. 1888-yilga kelib, Miriy Kalliqo‘rg‘on hududida imomlik va qozilik vazifalarini bajaradi. Uning ijodiy merosi juda boy bo‘lib, zamonamizga mukammal devoni, ikki bayozi va ko‘plab epik asarlari yetib kelgan. Uning ijodida dostonlar alohida o‘rin egallaydi. Xususan, 1884-yilda fors tilida bitilgan “Ra’no va Zebo” dostoni shoirning yuksak badiiy mahoratini namoyon etadi. Miriy tarixiy voqealarni asos qilib olgan holda romantik ruhdagi dostonlar yaratadi. Masalan, “Qissai Salim Javhariy” (1887), “Rustam va Suhrob” (1898) hamda “Majdiddin va Faxruniso” (1899) dostonlarida adolatli jamiyat, farovon hayot va barkamol inson g‘oyalari ilgari suriladi. Ayniqsa, Firdavsiyning “Rustam va Suhrob” dostoni asosida yozilgan tarjimasi adabiyotshunoslar tomonidan yuksak baholangan. Bundan tashqari, “Gulnoma” va “Choynoma” kabi masnaviylarida hayot, inson, sevgi, sadoqat, insonparvarlik va ma’rifatparvarlik kabi falsafiy-estetik qarashlar o‘zining yorqin ifodasini topgan. Shoir qalamiga mansub dostonlarni mutolaa qilar ekanmiz, ularda tabiatning betakror go‘zalligi nafis manzaralari va hayotiy tasvirlar yuksak badiiy mahorat bilan ifodalanganiga guvoh bo‘lamiz. Bu esa shoirning go‘zal tabiatga oshufta, nozik didli, teran qalb egasi bo‘lgan inson sifatidagi ma’naviy qiyofasini yanada yaqqol namoyon etadi. Uning asarlaridagi tabiatga bo‘lgan cheksiz mehr, estetik zavq va ruhiy sezgirlik chuqur aks etgan. Bu asarlar orqali Miriy o‘z zamonasining ilg‘or g‘oyalarini, ijtimoiy va ma’naviy qadriyatlarini targ‘ib qiladi.

Miriy o‘z asarlarida asosan, an’anaviy mavzularni yoritgan, shu orqali o‘z davrining adabiy, falsafiy va ma’naviy qarashlarini aks ettirishga intilgan. Shoirning ijodiy yo‘nalishi, mavzu tanlovi va ifoda uslubi mumtoz adabiyot an’analari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, bu uning she’riyatining asosiy tayanchlaridan biridir.

Miriy ijodining qisqacha umumiy ko‘rinishi: Miriy asosan, g‘azal, muxammas, tarje’band, soqiynoma, doston ruboiy, qit’a kabi an’anaviy janrlarda qalam tebratgan. Uning g‘azallarida chin muhabbat, do‘stlik, hamjihatlik, oliyjanoblik visol-hijron, dunyo beqarorligi, taqdir va ixlos kabi umuminsoniy mavzular ulug‘lanib, adolatsiz tuzumga nafrat bildirilgan bo‘lib, ularda sof lirizm, kuchli hissiyot va teran falsafiy mulohazalar mujassam.

Ijodda hayotiylik – bu badiiy asarning ishonarliligi, o‘quvchiga ta’sir kuchi, unga tanish muhit va holatlarni ko‘rsata olish qobiliyatidir. Ochildi Miriy o‘z ijodida hayotiylikni bir tamoyil sifatida ushlagan. U she’riy ifoda vositalari orqali hayotning murakkab, ziddiyatli va ba’zida fojiaviy tomonlarini ham ochib beradi. Bu orqali o‘quvchi hayotga boshqacha nigoh bilan qarashni, uning mazmun-mohiyatini chuqurroq anglashni o‘rganadi. Xususan, u yashagan davrdagi mehnatkash xalqning ayanchli ahvoli, mang‘it amirlarining, xususan, amir Nasrulloning qonli urushlari hamda boshqa urug‘larga yomon munosabati, xitoy-qipchoqlar qo‘zg‘olonining shafqatsiz bostirilishi, Nodira, Hoziq kabi talantli shoira, shoir va sofdil kishilarning o‘ldirilishi. Shavqiy, Vola, Xiromiylarning xo‘rlanishi bunda muhim roli o‘ynadi; klassik adabiyot va folklorning boy progressiv traditsiyalari va nihoyat, taraqqiyparvar zamondoshlarining ijodi shoirga ijobiy ta’sir qildi:

Rostlig‘ni pesha qilg‘il, bo‘lmag‘il zinhor kaj,
Barham aylarlar qachonkim bo‘lsa har devor kaj,

deb kishilarni to‘g‘rilikka, halollikka chaqirgan shoir hayot va ijodda ana shu prinsipga o‘zi ham amal qildi va mehnatkash xalq ommasi hisobiga yashayotgan johil amaldorlarni dadillik bilan tanqid qildi, chin muhabbat, do‘stlik, hamjihatlik, oliyjanoblik kabi umuminsoniy fazilatlarni ulug‘lab, adolatsiz tuzumga nafrat bildirdi v. h.

Miriy shuningdek, buyuk shoir Firdavsiy tomonidan yozilgan “Shohnoma” asarining ayrim qismlarini hamda Husayn Voiz Koshifiy qalamiga mansub “Anvori Suxayliy” asarini she’riy yo‘sinda o‘zbek tiliga tarjima qilgan. U Navoiy, Jomiy, Sa’diy kabi atoqli adiblarning ayrim asarlarini nafis nasx va nasta’liq xatlari bilan ko‘chirib, ilm-ma’rifatga bo‘lgan ehtiromini namoyon etgan.

Miriy o‘zining g‘azallarida hayotning murakkab va ziddiyatlarga boy jihatlarini, turmushdagi muammolar, tartibsizliklar va ijtimoiy tengsizliklarni nihoyatda teran va ta’sirchan tarzda tasvirlagan. Uning she’riyati, ayniqsa, zamonasidagi nohaqliklar va adolatsizliklarga qarshi bir norozilik nidosi bo‘lib yangraydi. Shoir o‘z asarlarida xalqning dard-u hasratini, ko‘ngil iztiroblarini, haqiqat izlovchi qalblarning faryodini badiiy mahorat bilan ifodalagan. Uning hajviy ruhdagi she’rlarida esa riyokor, ikkiyuzlamachi qozilar, zolim mirshablar va boshqa adolatsizlikni targ‘ib qiluvchi toifa vakillari fosh etilgan. Miriy bunday asarlar orqali jamiyatdagi illatlar, mansabparastlik, soxta din peshvolarining ikkiyuzlamachiligi ustidan kuladi, ularni keskin tanqid ostiga oladi. Bu jihatlari bilan shoirning ijodi yuksak ijtimoiy mazmun va chuqur badiiy talqinga ega. Miriy lirik she’riyatda inson qalbining nozik kechinmalari, muhabbat, sadoqat, orzu va armonlarni nihoyatda samimiy va falsafiy ohangda kuylaydi. Uning epik asarlari esa keng qamrovli syujet, jonli obrazlar, hayotiy voqealar va insoniy qadriyatlarni o‘zida mujassam etgan bo‘lib, o‘zbek adabiy merosining durdona namunalaridan hisoblanadi. Bugungi kunda Miriy asarlari O‘zbekiston Fanlar akademiyasining Sharqshunoslik instituti hamda Samarqand Davlat Universitetining asosiy kutubxonasi fondlarida asrab-avaylab saqlanmoqda. Bu nodir qo‘lyozmalar va asarlar orqali Miriy merosi hozirgi zamon o‘quvchilari va tadqiqotchilari uchun ham muhim manba bo‘lib xizmat qilmoqda.

Afsuski, shoirning hayot yo‘li fojiaviy tarzda yakun topgan. 1899-yilda dushmanlari tomonidan uyushtirilgan fitna, adovat va hasad bilan to‘la ig‘volar natijasida uning ikki o‘g‘li vahshiylarcha o‘ldiriladi. Bu og‘ir musibat Miriy qalbini larzaga soladi va oradan ko‘p o‘tmay, u ham hayotdan ko‘z yumadi. Ularning fojiali qismati Miriy hayotining so‘nggi sahifalarini og‘riq va iztirob bilan to‘ldirgan bo‘lsa-da, shoirning ruhi va ijodi o‘chmas iz qoldirib, bugungi avlodga yuksak ma’naviy meros sifatida yetib kelgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Miriy. Tanlangan asarlar. – T.: “Toshkent”, 1965-y. 312-bet.
2. Kattaqo‘rg‘on: kecha va bugun. – Samarqand: “Zarafshon” nashriyoti, 1994-y. 236-bet.
3.Ochildi Miriy (Buklet) Rahmonqul Orzibekov. – Kattaqo‘rg‘on, 1992-y.

Mehrigul SAYFIDDINOVA,
Navoiy davlat universiteti Tillar fakulteti o‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi 1-bosqich magistranti
Email: mehrigulsayfiddinova@gmail.com

Ilmiy rahbar: Gulchehra BOLTAYEVA,
filologiya fanlari doktori (DSc)
Email: boltaevagulchekhra@gmail.com



FARIDA AFRO‘Z ISHQIY LIRIKASIDA RUHIYAT TASVIRI

Annotatsiya: ushbu maqolada Farida Afro‘zning ishqiy lirikasida ruhiyat tasvirining poetik xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi shoira she’rlarida, xususan, “Ertaga bugunni topib bo‘larmu?” she’ri misolida lirik qahramonning ichki kechinmalari, sevgi va vaqt o‘rtasidagi ruhiy ziddiyat hamda ularni ifodalovchi poetik vositalarni aniqlashdan iborat. Tadqiqotda tavsifiy tahlil, poetik tahlil, psixologik yondashuv va matn tahlili usullaridan foydalanildi. Maqolada Farida Afro‘z ishqiy lirikasida sevgi tashqi voqea emas, balki qalbning ichki harakati va ma’naviy-ruhiy tajribasi sifatida talqin etilishi asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: *Farida Afro‘z, ishqiy lirika, radif, poetik takror, poetik obraz, psixologizm.*

Аннотация: в данной статье анализируются поэтические особенности изображения души в романтической лирике Фариды Афроз. Главная цель исследования – выявление внутренних переживаний лирического героя, духовного конфликта между любовью и временем, а также поэтических средств их выражения в стихах поэтессы, в частности, на примере стихотворения «Можно ли найти завтрашний день?». В исследовании использованы методы описательного анализа, поэтического анализа, психологического подхода и текстового анализа. В статье обосновывается интерпретация любви в романтической лирике Фариды Афроз не как внешнего события, а как внутреннего движения души и духовного и духовного опыта.

Ключевые слова: *Фарида Афроз, романтическая лирика, радиф, поэтическое повторение, поэтический образ, психологизм.*

Annotation: this article analyzes the poetic features of the depiction of the soul in the romantic lyrics of Farida Afroz. The main purpose of the study is to identify the inner experiences of the lyrical hero, the spiritual conflict between love and time, and the poetic means expressing them in the poet’s poems, in particular, on the example of the poem “Can Today Be Found Tomorrow?”. The study used descriptive analysis, poetic analysis, psychological approach, and text analysis methods. The article substantiates the interpretation of love in the romantic lyrics of Farida Afroz not as an external event, but as an internal movement of the soul and a spiritual and spiritual experience.

Key words: *Farida Afroz, romantic lyrics, radif, poetic repetition, poetic image, psychologism.*

Kirish. Zamonaviy o‘zbek she’riyatida inson ruhiy olamini, qalb kechinmalarini, ichki iztirob va umidlarini poetik shaklda ifodalash masalasi alohida ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, ayol shoiralar ijodida sevgi, sog‘inch, hijron, kutish, armon va ichki ruhiy tebranishlar o‘ziga xos noziklik hamda samimiyat bilan badiiylashtiriladi. Shu jihatdan Farida Afro‘z she’riyati zamonaviy o‘zbek lirikasida ruhiyat tasviri, lirik kechinmaning poetik talqini va ayol qalbining badiiy ifodasi bilan ajralib turadi. Shoira she’rlarida ishq mavzusi oddiy hissiy izhor emas, balki insonning ichki dunyosini ochuvchi, ma’naviy-ruhiy holatini namoyon qiluvchi estetik hodisa sifatida talqin etiladi. Farida Afro‘z ijodida ishqiy lirika markaziy o‘rinlardan birini egallaydi. Uning she’rlarida sevgi tashqi voqelik sifatida emas, ko‘proq qalb hodisasi sifatida yoritiladi. Ya’ni muhabbat shunchaki oshiq va yor o‘rtasidagi munosabat emas, balki vaqt, armon, kechikish, izhor, sabr, umid va yo‘qotish bilan bog‘liq murakkab ruhiy tajribaga aylanadi. Bu holat shoiraning ko‘plab she’rlarida, xususan, “Ertaga bugunni topib bo‘larmu?” radifli she’rida yaqqol namoyon bo‘ladi. Mazkur she’rda lirik qahramon qalbidagi ichki shoshilish, bugunning qadriga yetish istagi, izhorning kechikishidan qo‘rquv hamda ruhiy bezovtalik kuchli poetik ohangda ifodalangan. Natijada sevgi faqat hissiy kechinma emas, balki vaqt oldidagi insoniy ojizlik va ichki uyg‘oqlikning badiiy ifodasiga aylanadi.[1]

Ruhiyat tasviri badiiy asarda insonning ichki olami, hissiy holati, kechinmalari, iztiroblari, ruhiy ziddiyatlari va qalb harakatining poetik ifodasidir. Lirik turda esa bu tasvir yanada markaziy ahamiyatga ega, chunki lirik asar, avvalo, inson ruhiyatining estetik in’ikosi sifatida shakllanadi. Farida Afro‘z she’riyatida ruhiyat tasviri bevosita bayon yoki quruq his-tuyg‘u izhori orqali emas, balki takror, murojaat, savol ohangi, ichki chaqiriq, poetik parallelizm va emotsional ritm vositasida yuzaga chiqadi. Masalan, “Ertaga bugunni topib bo‘larmu?” misrasining har band oxirida takrorlanishi lirik qahramonning ichki bezovtaligi, vaqtning o‘tuvchanligidan xavotiri va hislarni kechiktirmaslikka bo‘lgan ruhiy ehtiyojini kuchaytiradi. Bu takror she’rning nafaqat kompozitsion tayanchi, balki uning psixologik markaziga ham aylanadi.[2]

Asosiy qism. Tadqiqotda avvalo **tavsifiy tahlil usuli** qo‘llanildi. Ushbu usul yordamida she’rning umumiy

g‘oyaviy yo‘nalishi, ishqiy kechinmaning ruhiy asoslari, lirik qahramonning hissiy holati va matndagi asosiy emotsional qatlamlar aniqlashtirildi. She’rda uchraydigan armon, nadomat, sevgi, ichki tugun, izhor, kutish va bugunning qadriga yetish kabi semantik birliklar tavsifiy asosda tahlil qilinib, ular lirik ruhiyatni shakllantiruvchi tayanch tushunchalar sifatida ajratib olindi.

Keyingi bosqichda poetik tahlil usulidan foydalanildi. Bu metod orqali she’rning badiiy tuzilishi, misralar qurilishi, murojaat shakllari, takror, radif, poetik savol, sintaktik parallelizm va obrazlarning estetik vazifasi o‘rganildi. Xususan, har band oxirida takrorlanadigan “Ertaga bugunni topib bo‘larmu?” misrasi she’rning kompozitsion va semantik markazi sifatida tahlil qilindi. Ushbu takrorning ritmik, intonatsion va psixologik vazifasi aniqlanib, u lirik qahramon ichki xavotirining kuchayib borishini ifodalovchi vosita sifatida baholandi. Shuningdek, “Ey do‘st!”, “Ey yor!”, “Aziz inson” kabi murojaat shakllari ham ruhiy taranglikni oshiruvchi poetik birliklar sifatida ko‘rib chiqildi.

Maqolada psixologik yondashuv alohida o‘rin egallaydi. Chunki tadqiqotning asosiy maqsadi she’rda ifodalangan hissiy holat va ichki ruhiy jarayonlarni ochib berishdan iborat. Shu sababli matndagi kechinmalar tashqi bayon sifatida emas, balki qalbning ichki dinamikasi sifatida tahlil qilindi. Psixologik yondashuv asosida lirik qahramonning ichki shoshilishi, kechikkan izhordan qo‘rquvi, sevgi va vaqt o‘rtasidagi ruhiy ziddiyati, armon va nadomat hissi sharh qilindi. Bu usul orqali ishqiy lirika faqat sevgi haqida yozilgan she’r emas, balki insonning ichki dunyosini ochuvchi poetik tajriba sifatida talqin qilindi.

Tadqiqotda germenevtik talqin usuli ham qo‘llanildi. Mazkur yondashuv she’r matnidagi yashirin ma’no qatlamlarini, ramziy ifodalarni va aytilmagan ruhiy ishoralarni sharhlashga xizmat qildi. Masalan, “Yuragingda qolmasin tugun” misrasi oddiy hissiy tavsiya emas, balki aytilmagan sevgi inson qalbida ruhiy og‘irlik, ichki tugun va armon manbaiga aylanishi haqidagi chuqur poetik-falsafiy fikr sifatida talqin qilindi. Shuningdek, “Armon uzun, nadomat uzun” misrasi orqali vaqtida aytilmagan sevgi kelajakdagi ruhiy iztirobga sabab bo‘lishi haqidagi ma’no qatlamlari ochib berildi.

Maqolada matnshunoslik yondashuvi ham qo‘llanildi. Ya’ni she’r misralari alohida-alohida emas, butun matnning ichki yaxlitligi doirasida tahlil qilindi. Bandlar o‘rtasidagi semantik izchillik, murojaatlarning bosqichma-bosqich umumlashib borishi, radifning takroriy funksiyasi va she’rning emotsional kulminatsiyasi yaxlit matn tizimi sifatida ko‘rib chiqildi. Bu usul matndagi har bir poetik unsur umumiy ruhiy mazmunga xizmat qilishini ko‘rsatishga imkon berdi.

Tadqiqot jarayonida qiyosiy-kuzatuv usuli yordamchi metod sifatida qo‘llanildi. Bu yondashuv Farida Afro‘z ishqiy lirikasidagi ruhiyat tasvirining zamonaviy o‘zbek lirik tafakkuridagi umumiy tendensiyalar bilan uyg‘un va farqli jihatlarini aniqlashga xizmat qildi. Biroq maqolaning markazida bevosita Farida Afro‘z poetikasi turgani sababli qiyosiy yondashuv asosiy emas, balki aniqlashtiruvchi metod sifatida ishlatildi.

Tahlil jarayonida aniqlandiki, she’rning birinchi muhim xususiyati unda ruhiy taranglikning radif orqali kuchaytirilishidir. Har band oxirida takrorlanadigan “Ertaga bugunni topib bo‘larmu?” misrasi she’rning kompozitsion tayanchi bo‘lish bilan birga, lirik qahramonning ichki bezovtaligini ifodalovchi psixologik markaz vazifasini bajaradi. Ushbu takror orqali vaqtning o‘tkinchiligi, imkoniyatning qaytmasligi, hislarni bugun aytish zarurati va kechikishdan tug‘iladigan ichki qo‘rquv poetiklashgan. Demak, radif she’rda faqat badiiy takror emas, balki ruhiy kechinmaning chuqurlashib borishini ko‘rsatuvchi vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

Natijalar she’rda murojaat shakllari ruhiyat tasvirining muhim vositalaridan biri ekanini ham ko‘rsatdi. “Ey do‘st!”, “Ey yor!”, “Aziz inson” kabi murojaatlar lirik qahramon ichki ovozining turli yo‘nalishlarini ifodalaydi. Birinchi holatda murojaat insoniy yaqinlik va darddoshga qaratilgan bo‘lsa, ikkinchi holatda u bevosita ishqiy kechinma markaziga – yorga yo‘naltiriladi, uchinchi holatda esa umumlashib, butun insoniyatga xos hayotiy-falsafiy xulosaga aylanadi. Shu tariqa she’r bandma-band rivojlanish jarayonida individual sevgi izhori bosqichma-bosqich umuminsonga xos ruhiy-falsafiy mazmunga ko‘tariladi.[3]

Tahlil natijalariga ko‘ra, she’rda quyidagi asosiy ruhiy holatlar ustuvorlik qiladi:

1-jadval. She’rda kuzatilgan asosiy ruhiy holatlar

Ruhiy holat	She’rdagi ifoda shakli	Badiiy vazifasi
Ichki shoshilish	“shu bugun”, “buguningni quch”	Vaqtning qadrini anglatish
Armondan qo‘rquv	“Armon uzun, nadomat uzun”	Kechikish oqibatini ochish
Izhor ehtiyoji	“Sevaman de”	Yashirin tuyg‘uni ochishga undash
Umid va intilish	“Sen kelmasang, men o‘zim boray”	Muhabbatning faol ruhiy holatini ko‘rsatish
Hasrat bilan yarashish	“Dilda hasrat dog‘ing bilan kel”	Muhabbatni iztirob bilan birga qabul qilish
Hayotiy uyg‘oqlik	“Bugun yasha, topa olgin kuch”	She’rning falsafiy umumlashmasini kuchaytirish

Jadvaldan ko‘rinadiki, she’rning ruhiy qatlamida eng faol holatlar ichki shoshilish, armondan qo‘rquv va izhor ehtiyojidir. Bularning barchasi sevgi tuyg‘usining ichki bosimini kuchaytiradi. Lirik qahramon sevgini kechiktirilmasligi kerak bo‘lgan ruhiy haqiqat sifatida qabul qiladi. Shu sababli she’rning umumiy emotsional ohangi undov va iltijo bilan yo‘g‘rilgan.[4]

Natijalar shuni ham ko‘rsatdiki, she’rda sevgi va vaqt munosabati asosiy semantik o‘qlardan birini tashkil etadi. “Ertaga bugunni topib bo‘larmu?” savoli orqali vaqt masalasi oddiy kalendar tushuncha emas, balki ruhiy va ma’naviy muammo sifatida qo‘yiladi. Lirik qahramon bugunni sevgi, izhor, yaqinlik va samimiyat uchun yagona imkoniyat deb anglaydi. Erta esa noaniq, qaytarilmas va ehtimol boy berilgan imkoniyat makoni sifatida tasavvur qilinadi. Natijada vaqt falsafiy mazmundan chiqib, bevosita ruhiyatga ta’sir qiluvchi poetik omilga aylanadi.

Shuningdek, she’rda poetik parallelizm va kontrast unsurlari mavjudligini ham ko‘rsatdi. Masalan, “Armon uzun, nadomat uzun” misrasi ichki iztirobning cho‘ziluvchanligini ifodalaydi, unga qarama-qarshi ravishda “shu bugun”, “buguningni quch”, “har lahzaga tutolgin hovuch” singari ifodalar lahzaning qisqaligi va uni boy bermaslik zarurligini bildiradi. Bu yerda “uzun armon” va “qisqa bugun” o‘rtasidagi yashirin qarama-qarshilik she’rning emotsional-falsafiy asosini tashkil qiladi. Shu tariqa lirik qahramon ruhiyatidagi shoshilish va ogohlantirish ohangi yanada kuchayadi.

Quyidagi jadvalda she’rda ruhiyat tasvirini yuzaga keltiruvchi asosiy poetik vositalar umumlashtirildi:

2-jadval. She’rda ruhiyat tasvirini ifodalovchi poetik vositalar

Poetik vosita	Matndagi namoyoni	Ruhiyat tasviridagi vazifasi
Radif	“Ertaga bugunni topib bo‘larmu?”	Ichki xavotir va takroriy ruhiy bosimni kuchaytiradi
Murojaat	“Ey do‘st!”, “Ey yor!”, “Aziz inson”	Lirik ovozning samimiyligi va ichki ch-aqiriqni oshiradi
Buyruq-istak shakli	“Sevaman de”, “Kel yonimga”, “buguning-ni quch”	Ruhiy faollik va hissiy shoshilishni beradi
Kontrast	bugun/ertaga, armon/umid	She’rning falsafiy tarangligini yaratadi
Metaforik obraz	“Yuragingda tugun”, “hasrat dog‘i”	Ichki kechinmalarning badiiylashuvini ta’minlaydi
Sintaktik parallelizm	bandlar tuzilishidagi o‘xshashlik	Ritm va emotsional izchillikni kuchaytiradi

Ikkinchi jadval she’rda ruhiyat tasviri shakliy qatlam bilan bevosita bog‘liq ekanini ko‘rsatadi. Ayniqsa, radif va buyruq-istak shakllari she’rning emotsional intensitetini oshiradi. Murojaatlar esa lirik qahramonning ichki ovozini turli qiyofalarda namoyon qiladi. Metaforik obrazlar hissiy holatlarni aniqroq va ta’sirchanroq ko‘rsatishga xizmat qiladi.[5]

Natijalarning muhim jihatlaridan yana biri shundaki, she’rda muhabbatning axloqiy-ma’naviy talqini mavjud. Bu yerda sevgi faqat ikki qalb o‘rtasidagi tuyg‘u emas, balki bugunni qadrlash, samimiy bo‘lish, yashirin darddan xalos bo‘lish va insoniy yaqinlikni yo‘qotmaslik haqidagi ma’naviy da’vatdir. “Bugun yasha, topa olgin kuch” misrasi she’rning umumiy mazmunini kengaytirib, uni faqat ishqiy lirika doirasidan chiqargan holda hayotiy-falsafiy xulosaga olib keladi. Bu esa Farida Afro‘z poetikasida ishq va ruhiyat tasviri ko‘pincha ma’naviy umumlashma bilan yakunlanishini ko‘rsatadi.

Umuman olganda, olib borilgan tahlillar asosida quyidagi natijalarga kelindi:

1. She’rda ruhiyat tasviri sevgi, vaqt va armon o‘rtasidagi ichki ziddiyat asosida qurilgan;
2. radif va takror lirik qahramon ruhiy xavotirining asosiy poetik ifodachisiga aylangan;
3. murojaat va buyruq-istak shakllari ruhiy shoshilish, izhor ehtiyoji va ichki da’vatni kuchaytirgan;
4. “tugun”, “armon”, “hasrat dog‘i” kabi obrazlar ruhiy kechinmalarning semantik markazini tashkil etgan;
5. She’r individual ishqiy kechinmadan umumlashgan hayotiy-falsafiy xulosaga ko‘tarilgan.

Shunday qilib, tadqiqot natijalari Farida Afro‘zning mazkur she’rida ishqiy lirika ruhiyat tasviri bilan chambarchas bog‘langanini, lirik qahramon ichki olami esa poetik shakl, takror, murojaat va radif vositasida chuqur badiiy ifoda topganini ko‘rsatdi. Bu esa shoiraning ishqiy lirikasida ruhiyat tasviri uning individual uslubini belgilovchi yetakchi xususiyatlardan biri ekanini tasdiqlaydi.[5]

Tadqiqot natijalari Farida Afro‘zning “Ertaga bugunni topib bo‘larmu?” she’rida ishqiy lirika va ruhiyat tasviri o‘zaro uzviy bog‘langan holda namoyon bo‘lishini ko‘rsatdi. She’rning badiiy markazida muhabbatning o‘zi emas, balki uni vaqtida aytish, qalbdagi hisni yashirmaslik, kechikkan izhorning armon va nadomatga aylanishi kabi ruhiy-falsafiy masalalar turadi. Shu jihatdan ushbu she’r Farida Afro‘z ishqiy lirikasining o‘ziga xos xususiyatini, ya’ni sevgi kechinmasining ichki psixologik jarayon sifatida talqin etilishini yaqqol namoyon etadi.

Muhokama jarayonida aniqlanishicha, she’rda ishqiy kechinma oddiy hissiy izhor darajasida qolmay, inson qalbining ma’naviy uyg‘oqligi bilan bog‘liq holda yoritiladi. “Yuragingda qolmasin tugun”, “Sevaman de”, “Buguningni

quch” kabi ifodalar muhabbatning yashirin kechinma bo‘lib qolmasligi, u inson ruhiyatini bosib turuvchi ichki og‘irlikka aylanib ketmasligi kerakligi haqidagi g‘oyani ilgari suradi. Demak, shoira sevgini passiv his emas, balki aytilishi va yashalishi zarur bo‘lgan ma’naviy haqiqat sifatida talqin etadi. Shu orqali ishq ruhiyatni iztirobga soluvchi emas, balki uni poklovchi va uyg‘otuvchi kuch sifatida namoyon bo‘ladi.

She’rda takrorlanadigan “Ertaga bugunni topib bo‘larmu?” misrasi alohida muhokamaga loyiq poetik vositadir. Tadqiqot natijalarida ushbu radif she’rning kompozitsion markazi ekanligi ko‘rsatildi, muhokama esa uning semantik va psixologik yukini yanada chuqurroq ochib beradi. Mazkur takror har safar yangidan ma’no kasb etadi: birinchi bandda u armon va nadomatdan ogohlantirish bo‘lsa, keyingi bandlarda sevgi izhorining kechikmasligi, yaqinlikni boy bermaslik, hatto butun umrning qadriga yetish haqidagi ichki da’vatga aylanadi. Demak, radif she’rda vaqt va ruhiyat o‘rtasidagi ziddiyatni kuchaytiruvchi, butun matnni ruhiy keskinlikda ushlab turuvchi markaziy poetik mexanizm vazifasini bajaradi.[6]

She’rning falsafiy qatlamini ham alohida ta’kidlash zarur. “Armon uzun, nadomat uzun” misrasi sevgi va vaqt o‘rtasidagi munosabatni chuqur umumlashtiradi. Bu yerda armon shunchaki yo‘qotilgan imkoniyat emas, balki vaqtida aytilmagan tuyg‘uning uzoq davom etuvchi ruhiy oqibati sifatida namoyon bo‘ladi. Shoira shu orqali bugunning qadriga yetmaslik ertangi nadomatga sabab bo‘lishini poetik jihatdan ishonarli ifodalaydi. Bunday yondashuv she’rni tor ma’nodagi ishqiy kechinmadan chiqarib, hayot falsafasi darajasiga olib chiqadi.

Farida Afro‘zning mazkur she’ridagi ayolona sezim ham muhokamaning muhim jihatlaridan biridir. She’rda sevgi tashqi patetika yoki balandparvoz romantika orqali emas, balki samimiy, ichki, mas’uliyatli va ma’naviy sezim tarzida ifodalanadi. Bu holat shoiraning ayol qalbini faqat tuyg‘u markazi emas, balki mushohada qiluvchi, anglovchi va xulosa chiqaruvchi ruhiy makon sifatida tasvirlashini ko‘rsatadi. Shu jihatdan Farida Afro‘z ishqiy lirikasida ruhiyat tasviri ayol psixologiyasi, qalb madaniyati va hissiy yetuklik bilan uyg‘unlashgan holda namoyon bo‘ladi.[8]

Umuman olganda, muhokama natijalari shuni ko‘rsatadiki, “Ertaga bugunni topib bo‘larmu?” she’ri Farida Afro‘z ishqiy lirikasining poetik va psixologik xususiyatlarini mujassamlashtirgan yorqin namunadir. Unda sevgi izhori, vaqtning o‘tkinchiligi, armon xavfi, qalbdagi ichki tugun va hayotiy uyg‘oqlik o‘zaro birlashib, murakkab ruhiy-estetik tizim hosil qilgan. She’rning poetik muvaffaqiyati aynan mana shu ichki ruhiy holatlarning sodda, samimiy va ta’sirchan ifoda topganida namoyon bo‘ladi. Shu bois Farida Afro‘z ishqiy lirikasida ruhiyat tasviri uning individual uslubini belgilovchi yetakchi poetik xususiyatlardan biri sifatida baholanishi mumkin.

Xulosa. Farida Afro‘zning **“Ertaga bugunni topib bo‘larmu?”** she’ri tahlili shuni ko‘rsatdiki, shoira ishqiy lirikasida ruhiyat tasviri markaziy poetik qatlamlardan biri hisoblanadi. She’rda sevgi tashqi voqea emas, balki qalbdagi ichki tugun, aytilmagan his, armon xavfi, vaqtning o‘tkinchiligi va ruhiy shoshilish bilan bog‘liq murakkab kechinma sifatida ifodalanadi. Shu jihatdan muhabbat lirik qahramon ruhiyatini ochuvchi asosiy estetik vositaga aylanadi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, she’rda ichki shoshilish, izhor ehtiyoji, armondan qo‘rquv, umid, hasrat va hayotiy uyg‘oqlik kabi ruhiy holatlar yetakchi o‘rin tutadi. Ular radif, murojaat, buyruq-istak shakllari, metaforik obrazlar va sintaktik parallelizm orqali poetik ifoda topgan. Ayniqsa, “Ertaga bugunni topib bo‘larmu?” radifi lirik qahramonning ichki xavotiri va vaqt oldidagi ruhiy tarangligini kuchaytiruvchi markaziy poetik vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

She’r tahlili Farida Afro‘z ishqiy lirikasida ayol qalbining samimiy, nozik va ma’naviy yetuk tasviri mavjudligini ham tasdiqlaydi. Shoira sevgi kechinmasini balandparvoz romantika emas, balki ichki mas’uliyat, samimiy izhor va bugunning qadriga yetish g‘oyasi bilan uyg‘un holda tasvirlaydi. Natijada uning ishqiy she’riyati individual ruhiyat bilan umuminsonga xos hayotiy-falsafiy mazmunni birlashtirgan badiiy hodisa sifatida namoyon bo‘ladi.

Umuman olganda, Farida Afro‘z ishqiy lirikasida ruhiyat tasviri shoiraning individual poetik uslubini belgilovchi muhim omillardan biridir. Uning she’rlarida sevgi qalbning ichki harakati, ruhiy uyg‘oqlik va ma’naviy tajriba sifatida gavdalanadi. Shu sababli Farida Afro‘z she’riyatini o‘rganish zamonaviy o‘zbek lirikasida psixologizm, ayolona sezim va ishqiy kechinmaning poetik talqini masalalarini yoritishda muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Xudoyberdiyev E. *Adabiyotshunoslikka kirish.* – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2007. 272-b.
2.Farida Afro‘z. *Tasbeh.* – Toshkent: Sharq, 2007. 106-b.
3.Mamtaliyev A. Shoira Farida Afro‘z she’riyatida lingvopoetik tahlil // *Journal of Integrated Education and Research.* 2022. – J. 1, № 4. 726–730-b.
4.Mamtaliyev A. Farida Afruz she’riyatida tarixiy obrazlar // *Conferencea: ICARHSE-USA June 3rd.* 2022.
5.Ayimbetova G. *O‘zbek she’riyatida poetik obraz.* – Elektron nashr. 87-b.
6.Sabirova Z. Z. She’riyatda poetik obrazning badiiy-estetik vazifasi // *O‘zbekistonda xorijiy tillar.* 2022. – № 1 (42). 169–179-b.
7.Mo‘minova S. M. Farida Afro‘z she’riyatining g‘oyaviy-badiiy asoslari va til poetikasi // Ilmiy maqola. 2026.
8.Rahimjonov N. *Mustaqillik davri o‘zbek she’riyati.* – Toshkent, 2007.
9.Farida Afro‘z. *Mangu ibodatgoh.* – Toshkent, 2012.

Manija QUDRATOVA,
Samarqand davlat pedagogika instituti Tillar fakulteti
o‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi 1-bosqich magistranti
Ilmiy rahbar: Husan BERDIYEV

ABDULLA ORIPOV HAYOTI VA IJODINI O‘RGANISH MASALALARI

Annotatsiya: ushbu maqolada Abdulla Oripov hayoti va ijodini o‘rganish masalalari adabiyotshunoslik hamda ta’lim metodikasi nuqtayi nazaridan tahlil qilingan. Shuningdek, A.Oripov merosining maktab ta’lim tizimidagi o‘rni, ilgari barcha sinflar kesimida izchil o‘qitilgani hamda hozirgi ayrim darsliklarda yetarli darajada aks etmayotgani masalasi tahlil etilgan. Maqolada shoir ijodini zamonaviy metodologik yondashuvlar asosida chuqur o‘rganish va ta’lim jarayoniga tizimli ravishda integratsiya qilish zarurati asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: *Abdulla Oripov, o‘zbek she’riyati, milliy o‘zlik, istiqlol mafkurasi, adabiyotshunoslik, poetik tafakkur, ta’lim metodikasi, maktab darsliklari, ma’naviy qadriyatlar, badiiy tahlil*

Annotation: this article analyzes the issues of studying the life and creative work of Abdulla Oripov from the perspectives of literary studies and educational methodology. In addition, the role of A. Oripov’s literary heritage in the school education system is analyzed, including the fact that his works were previously taught consistently across all grades, whereas in some modern textbooks they are not sufficiently represented. The article substantiates the necessity of a deeper study of the poet’s creative work on the basis of modern methodological approaches and its systematic integration into the educational process.

Key words: *Abdulla Oripov, Uzbek poetry, national identity, ideology of independence, literary studies, poetic thinking, educational methodology, school textbooks, spiritual values, literary analysis.*

Аннотация: в данной статье анализируются вопросы изучения жизни и творчества Абдуллы Орипова с точки зрения литературоведения и методики преподавания.Кроме того, рассматривается роль литературного наследия А. Орипова в системе школьного образования, в частности то, что ранее его творчество последовательно изучалось во всех классах, тогда как в некоторых современных учебниках оно отражено недостаточно. В статье обосновывается необходимость более глубокого изучения творчества поэта на основе современных методологических подходов и его системной интеграции в образовательный процесс.

Ключевые слова: *Абдулла Орипов, узбекская поэзия, национальная идентичность, идеология независимости, литературоведение, поэтическое мышление, методика обучения, школьные учебники, духовные ценности, художественный анализ.*

Kirish. Abdulla Oripov atoqli o‘zbek shoiri, davlat va jamoat arbobidir. XX asrning 60-yillaridan A.Oripov asarlari bilan boshlangan sifat o‘zgarishlar o‘zbek adabiyotini yangi bosqichga ko‘tarishda muhim rol o‘ynadi. Yassaviy, Navoiy, Bobur, Cho‘lpon, G‘afur G‘ulom ijodiy an’analarini davom ettirgan A.Oripov she’riyati o‘zbek adabiyotini uzviy bir yaxlitlikda o‘tmish va kelajak bilan bog‘lab turadi. Shoir ijodining ilk davridan boshlab o‘z uslubi va o‘ziga xos yangroq ovozi bilan she’riyatimizda yangilik yaratib, ko‘pchilikning diqqatini o‘ziga jalb qildi. Shoir asarlari o‘z navbatida o‘ziga xos uslubiy qobiliyat va pedagogik mahoratni shakllantirishda asos bo‘ladi. Abdulla Oripovning asarlari o‘zbek milliy adabiyotining sarlavhalarida o‘chmas iz qoldirgan. Uning asarlari shu kunga kelib o‘z yorug‘ligini yo‘qotmagan.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Mazkur maqola jarayonida Abdulla Oripov hayoti va ijodiga bag‘ishlangan adabiy-tanqidiy asarlar, o‘zbek adabiyoti tarixi bo‘yicha fundamental tadqiqotlar, shuningdek, adabiyot o‘qitish metodikasiga oid ilmiy manbalar tahlil qilindi.Shuningdek, bir nechta tadqiqotchi yoshlar tomonidan Abdulla Oripov hayoti va faoliyati borasida maqola, uslubiy qo‘llanma, badiiy kitob va ilmiy ishlar chop qilingan. Bular misolida, N.To‘xtamurodova, S.Egamova, G.Bozorova, D.Orziqulova, I.Maksumova, S.Matyaqubov, N.Nazarova, I.Saydamatova, R.Norbekov, M.Abduvalieva, X.Tojiyev, Sh.Sattorova, M.Teshayeva tomonidan ilmiy maqolalar, Atamurodova R.K tomonidan ilmiy ishlar, shuningdek bir qator filologlar tomonidan badiiy va o‘quv qo‘llanmalari, xususan Abdulla Oripov hayoti va ijodini o‘rganish bo‘yicha dastur va uslubiy qo‘llanma nashr qilingan.

Tadqiqot metodologiyasi. Abdulla Oripov 1941-yilning 21-martida Qashqadaryo viloyati, Koson tumanidagi Neko‘z qishlog‘ida tug‘ildi. Qishloq Qo‘ng‘irtov etagiga o‘rnashgan bo‘lib, oqar suv taqchil bo‘lsa-da, seryomg‘ir kelgan yillarda ko‘kat-u maysalarga ko‘milib qoladigan kengish joy edi. Ana shunday go‘zal maskanda tug‘ilib o‘sgan Abdulla Oripovning otasi Orifboy Ubaydulla o‘g‘li ishbilarmon dehqonlardan bo‘lib, jamoa xo‘jaligi raisi edi. Onasi Turdixol momo ko‘pchilik o‘zbek ayollari singari sarishta, mehnatkash, mehribon, g‘oyat ta’sirchan va ezgulikka tashna ayol bo‘lgan. Oilada to‘rt o‘g‘il, to‘rt qiz bo‘lib, Abdulla o‘g‘illarning kenjasi edi.

Birinchi marta respublika matbuotida „Qushcha” nomi bilan e’lon qilingan she’ri paydo bo‘lgan davrda Abdulla Oripov talaba edi. Shoirning ilk she’riy majmuasi „Mitti yulduz” 1965-yilda nashr etildi. Abdulla Oripov bu to‘plamga kiritilgan she’rlarida tabiat manzaralari tasviriga ko‘proq o‘rin beradi. Dastlabki chog‘larda Abdulla Oripov o‘zining yashashdan kuzatgan maqsadlari va asosiy estetik prinsiplarini quyidagicha ifodalagan edi:

Men shoirman
Istasangiz shu.
O‘zimniki erur shu sozim.
Birovlardan olmadim tuyg‘u
O‘zgaga ham bermam ovozim.[1]

Shundan so‘ng „Ko‘zlarim yo‘lingda” (1967), „Onajon” (1969), „Ruhim” (1971), „O‘zbekiston”, „Qasida” (1972), „Xotirot” (1974), „Yurtim shamoli” (1974), „Jannatga yo‘l” (1978), „Hayrat” (1979), „Hakim va ajal” (1980), „Najot qal’asi” (1981), „Yillar armoni” (1983), „Haj daftari” (1992), „Saylanma” (1996), „Sohibqiron” (she’riy drama) (1996), to‘rt jildlik „Tanlangan asarlar” (2000–2001) kabi ko‘plab asarlari chop etildi.

A.Oripov mustaqillik davrida Vatan, Erk, Ozodlikni tarannum etuvchi o‘nlab yangi she’rlar yozdi. U 1963-1974-yillar oralig‘ida nashriyotda, 1974-1980-yillarda “Gulxan”, “Sharq yulduzi” jumallarida ishladi. Uzoq yillar mualliflar huquqini himoya qilish xalqaro tashkiloti va O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasini boshqarib kelgan. U mamlakatning mustaqillik davri barcha tarmoqlaridagi Oliy Majlis deputati bo‘lgan.

Shu ma’noda, „Tilla baliqcha”, „Qo‘riqxona”, „Genetika”, „Olomonga” kabi she’rlar Oripovning lirik ijodi doirasini hayotiy muammolar tasviri orqali tobora kengayib borayotganidan dalolat berdi. Aynan shu jarayon shoirning doston janriga murojaat qilishi va liro-epik ifoda imkoniyatlaridan unumli foydalanishiga turtki bo‘ldi. Abdulla Oripov „Jannatga yo‘l” (1978), „Hakim va ajal” (1980), „Ranjkom” (1988) singari dostonlarida ma’naviyat masalalariga alohida e’tibor qaratib, inson ruhiy olamidagi ayrim nuqsonlar bilan ilmiy-texnik taraqqiyot hamda tafakkur yuksalishi o‘rtasidagi qarama-qarshilikni ochib berdi. Oripovning yaratgan asarlarining eng mashhur va qadriyatli bo‘lganlari “Yomg‘ir”, “Tong nafasi”, “Oltin qalam”, “Qaytadan topgan o‘tlar”, “Tohir va Zuhro” kabi asarlardir. A.Oripovning asarlari milliy adabiyotimizda muhim o‘rinda turadi. Shoirning ilk ijod mahsullaridan sanalgan “Men nechun sevaman O‘zbekistonni” she’rini mutolaa qilgan har qanday kitobxon Vatan tushunchasining asl mohiyati xalq taqdiri va hayotiy haqiqatlar orqali ochib berilganini anglaydi. Undagi:

...Yurtim, seni faqat boyliklaring-chun
Sevgan farzand bo‘lsam, kechirma aslo!

– degan misralari go‘yo qasamyod singari jaranglaydi. Sho‘ro davrida yurt va millat haqidagi haqiqatni to‘liq va ochiq ifodalash imkoniyati mavjud emas edi. Til, tarix hamda milliy qadriyatlar masalasini ko‘tarish ham yozilmagan qoidalar asosida qat’iy cheklab qo‘yilgan edi. Abdulla Oripov ijodida esa “Vatan” so‘zi shunchaki asosiy tushuncha bo‘lib qolmay, balki milliy his-tuyg‘ular va hayotiy haqiqatlarni ochib beruvchi asosiy mezon vazifasini bajaradi. Shoirning Vatan muhabbati va dardi bilan sug‘orilgan she’rlarining yana bir muhim jihati shundaki, ularning har biri u yoki bu darajada she’rxonni o‘zligini anglashga, “Sen kimsan, ajdodlaring kim, erk va hurriyat beshiging qayonda?” kabi savollarga mustaqil tarzda javob izlashga va topishga undaydi. Ana shu ma’noda Abdulla Oripovni Abdulhamid Cho‘lponning izdoshi sifatida baholash e’tiroz uyg‘otmaydi, deb hisoblaymiz.

Tahlil va natijalar. Mazkur tadqiqot jarayonida Abdulla Oripov hayoti va ijodining nazariy hamda amaliy jihatlari tahlil qilindi, shoir ijodi o‘zbek adabiyotida nafaqat badiiy-estetik hodisa, balki milliy tafakkur va ma’naviy qadriyatlarni shakllantiruvchi muhim omildir. Tahlillarga ko‘ra, Abdulla Oripov she’riyati chuqur falsafiyligi, milliy ruh va ijtimoiy muammolarni yoritishi bilan ajralib turadi. Uning asarlarida Vatan, erkinlik va insoniylik g‘oyalari ta’sirchan badiiy ifoda topgan. Ta’lim tizimi bo‘yicha kuzatuvlar shuni ko‘rsatdiki, ilgari shoir ijodi barcha bosqichlarda izchil o‘qitilgan bo‘lsa, hozir ayrim darsliklarda yetarli darajada yoritilmayapti. Bu esa o‘quvchilarda to‘liq tasavvur shakllanishiga salbiy ta’sir qiladi. Natijada, o‘quvchilarning badiiy tafakkuri va mustaqil tahlil ko‘nikmalari yetarli rivojlanmayapti. Umuman olganda, Abdulla Oripov ijodini tizimli va zamonaviy yondashuvlar asosida o‘rganish hamda ta’lim jarayoniga chuqur integratsiya qilish muhim ahamiyatga ega.

Xulosa va takliflar. Abdulla Oripov ijodi milliy o‘zlik, istiqlol g‘oyasi, Vatanga muhabbat va insoniy qadriyatlarning badiiy ifodasi sifatida katta nazariy va tarbiyaviy ahamiyatga ega. Uning asarlarini poetik, falsafiy hamda tarixiy kontekstda o‘rganish adabiyotshunoslik uchun dolzarb vazifalardan biridir. Umumta’lim maktablarining barcha sinflar kesimida Abdulla Oripov hayoti va ijodini bosqichma-bosqich hamda tizimli ravishda qayta kiritish, boshlang‘ich sinflarda sodda va tarbiyaviy ahamiyatga ega she’rlar, yuqori sinflarda esa falsafiy va ijtimoiy mazmundagi asarlarni chuqur tahlil qilish yo‘lga qo‘yilishi lozim. Shoir ijodini o‘qitish metodikasiga bag‘ishlangan ilmiy-metodik qo‘llanmalar yaratish zarur. Abdulla Oripov ijodini komparativ va interdisiplinar yondashuvlar asosida tadqiq etish, uni jahon adabiyoti namunalari bilan qiyosiy o‘rganish ilmiy izlanishlar samaradorligini oshiradi. Shoir asarlari asosida elektron darsliklar, audio va video materiallar, raqamli ta’lim resurslarini yaratish yoshlarning qiziqishini kuchaytiradi hamda zamonaviy ta’lim talablariga mos keladi. Shoir hayoti va ijodiga doir yangi ilmiy tadqiqotlar, monografiyalar hamda arxiv materiallari asosida izlanishlarni qo‘llab-quvvatlash adabiyotshunoslikdagi mavjud bo‘shliqlarni to‘ldirishga xizmat qiladi.

1 Omanova M.A., Qodirova M. O‘ZBEK ADABIYOTI, - O‘quv qo‘llanma, 2021.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. A.Oripov. Tanlangan asarlar. –T.: “Adabiyot va san’at” nashriyoti, 2001-yil.
2.Орипов А. Танланган асарлар. 4-жилд.60- б.
3.Omanova M.A., Qodirova M. O‘zbek adabiyoti, O‘quv qo‘llanma, 2021.
4.Tosheva O.Taqdimot materiallaridan foydalanish usullari. Til va adabiyot ta’limi, –Toshkent, 2012.12-son.
5. “Umumta’lim metodikasi” jurnali, 2018, 1-,2-,3-,4-sonlar.
6.Arziqulov A. U.Interfaol usullar. – Samarqand, 2003.
7. A.Oripov. Tanlangan asarlar. – T.:“Adabiyot va san’at” nashriyoti, 2001.
8. http:// www.literature.uz
9.http//www.ziyouz.com.

Rayhonoy DONIYEVA,
Navoiy davlat universiteti O‘zbek tili va adabiyoti fakulteti 2-kurs magistranti



OMON MATJON SHE’RLARIDA ICHKI MONOLOGNING USTUVORLIGI

Annotatsiya:mazkur maqolada Omon Matjon she’riyatida ichki monologning badiiy-estetik xususiyatlari tahlil qilinadi. Shoir ijodida lirik qahramon ruhiyati, uning ichki kechinmalari va tafakkur jarayonlari ichki monolog vositasida ifodalanishi yoritiladi. Tadqiqot davomida ichki monologning poetik vazifasi, obraz yaratishdagi o‘rni hamda individual uslubni shakllantirishdagi ahamiyati misollar asosida ochib beriladi. Shuningdek, Omon Matjon she’riyatida inson va borliq munosabati, falsafiy mushohada hamda ruhiy iztiroblarning ichki nutq orqali aks etishi tahlil etiladi.

Kalit so‘zlar: ichki monolog, lirik qahramon, poetik tafakkur, psixologizm, lingvopoetika, badiiy nutq, ruhiy kechinma, monologik ifoda, she’riy poetika.

Аннотация:в данной статье рассматриваются художественно-эстетические особенности внутреннего монолога в поэзии Omon Matjon. Особое внимание уделяется раскрытию духовного мира лирического героя, его внутренних переживаний и размышлений посредством внутреннего монолога. В ходе исследования анализируются поэтические функции внутреннего монолога, его роль в создании художественного образа и формировании индивидуального стиля поэта. Также освещается отражение философских размышлений, духовных переживаний и взаимоотношений человека с окружающим миром через внутреннюю речь в поэзии Омон Матжона.

Ключевые слова: внутренний монолог, лирический герой, поэтическое мышление, психологизм, лингвопоэтика, художественная речь, духовное переживание, монологическое выражение, поэтическая поэтика.

Annotation:this article analyzes the artistic and aesthetic features of internal monologue in the poetry of Omon Matjon. Particular attention is paid to the expression of the lyrical hero‘s spiritual world, inner experiences, and reflections through internal monologue. The study examines the poetic functions of internal monologue, its role in creating artistic images, and its significance in shaping the poet’s individual style. Furthermore, the article explores how philosophical observations, emotional experiences, and the relationship between human beings and existence are reflected through inner speech in Omon Matjon’s poetry.

Key words: inner monologue, lyrical hero, poetic thinking, psychologism, linguopoetics, artistic speech, spiritual experience, monologic expression, poetic poetics.

Omon Matjon she’riyatining asosiy o‘ziga xos jihatlaridan biri – bu poetik ichki monolog va botiniy izhorlarning ustuvorligidir. U ko‘pincha o‘z she’rlarida bevosita kechinmalarni, yurakdagi ziddiyatlarni, sukunat ichidagi faryodni ifodalashga intiladi. Shoir uslubi lirik monolog shaklida, ya’ni faqat tinglovchi emas, balki o‘zining qalbiga murojaat etuvchi tarzda quriladi. Bu esa uning poetikasida chin yurakdan to‘kilgan so‘zlar, noaniq, lekin kuchli his-tuyg‘ular, unsiz alam va muhabbatni yorqin namoyon etadi.

She’r ilk o‘qishda oddiy bir ayriliq manzarasi bo‘lib tuyuladi: lirik qahramon sevgilisi bilan xayrlashmoqda. Ammo bu yuzaki ko‘rinish ostida yurakning og‘riqli harorati, sevgi va rad etilishning iztirobi, iztirobli qabul va beparvolik niqobi ortidagi chuqur kechinmalar yashiringan.

Ko‘zlaringni yashirgin mendan,
O‘tib ketay yoningdan befarq,
O‘tib ketay yoningdan bedard,
Ko‘zlaringni yashirgin mendan.

Omon Matjon she’riyatining muhim jihati – xalqona soddalik bilan zamonaviy falsafaning birligi. U murakkab tushunchalarni oddiy so‘zlar orqali beradi. Masalan, “Yolg‘izlik” va “Sukunat” atrofidagi she’rlarda kundalik nutqqa yaqin leksika orqali vaqt, xotira va ichki iztirob kabi murakkab mavzular ochiladi. Bu yondashuv she’rni o‘quvchiga yaqinlashtiradi, shu bilan birga mazmunini chuqurlashtiradi.

Omon Matjon ijodida tovush (fonetika) – obraz – mazmun uchligi uzviy va murakkab badiiy tizimni tashkil etadi. Shoir she’rlarida tovushlarning ohangdorligi va ritmik qurilishi obrazlarning ramziy kuchi bilan birlashib, badiiy mazmunning emotsional va estetik ta’sirini yanada kuchaytiradi. Har bir fonetik vosita, so‘z tanlovi va obraz ma’lum bir ruhiy holatni, ichki kechinmani yoki falsafiy fikrni ifodalashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, shoirning xalqona va sodda leksikaga tayangan holda chuqur zamonaviy tafakkurni ifodalashi uning poetikasining eng muhim xususiyatlaridan biridir. Omon Matjon murakkab hayotiy va ma’naviy muammolarni oddiy so‘zlar orqali

ifodalab, ularni ramziy va obrazli shaklga keltiradi. Bu esa uning she'riyatini o'quvchi uchun tushunarli, shu bilan birga mazmunan chuqur va ta'sirchan qiladi. Natijada, Omon Matjon she'riyati lisoniy va estetik jihatdan mukammal bo'lgan, so'z, tovush va obraz uyg'unligi asosida shakllangan poetik makon sifatida namoyon bo'ladi. Shu bois uning ijodi o'zbek zamonaviy she'riyatida o'ziga xos badiiy hodisa sifatida alohida o'rin egallaydi.

Ichki monolog — bu adabiyot va psixologiyada qahramonning o'z-o'zi bilan ovozsiz, aqliy suhbati bo'lib, uning yashirin fikrlari, kechinmalari va his-tuyg'ularini to'g'ridan-to'g'ri ifodalaydi.Bu badiiy usul kitobxonga qahramon ruhiyatini chuqurroq tushunishga, tahlil qilishga va uning ichki dunyosiga nazar solishga yordam beradi.

Ichki monologning asosiy xususiyatlari:

Ovozli emas: u tashqi nutqdan farqli o'laroq, tovushsiz, faqat fikr darajasida kechadi.

Ruhiyat ko'zgusi: qahramonning his-tuyg'ulari, shubhalari, qarorlari va o'z-o'zini tahlilini ochib beradi.

Adabiy usul: yozuvchilar qahramon xarakterini ochish uchun ushbu uslubdan foydalanadilar.

Refleksiya: insonning o'zini anglash va shaxsiy kechinmalarini tushunish jarayoni sifatida namoyon bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, ichki monolog – bu shaxsning ichki dunyosini ochib beruvchi, o'z-o'ziga qaratilgan aqliy nutqdir.

Omon Matjon she'rlarida ichki monolog:

1. Ichki monologning lirik-subyektiv shakli (men–o'zim modeli)

Misol: "Men o'zim bilan gaplashaman,
Sukutimga suyanib yana so'zlayman."

Tahlil: bu misolda ichki monologning ochiq shakli kuzatiladi. "Men" va "o'zim" olmoshlari orqali subyektning ikkiga ajralishi (lirik qahramon va ichki "men") ifodalanadi. Lingvopoetik jihatdan:

shaxs olmoshining takrori (men – o'zim)

fe'llarning hozirgi zamon shakli ("gaplashaman", "so'zlayman")

sokin, introspektiv intonatsiya

Bu usul ichki kechinmani jonli va dinamik qiladi.

2. Ritorik so'roq shaklidagi ichki monolog

Misol: "Nega yuragim tinmaydi?
Nega ko'nglim yana bezovta?"

Tahlil: ritorik so'roqlar ichki dialogning eng faol ko'rinishidir. Bu yerda javob talab qilinmaydi, savol subyektning o'ziga qaratilgan. Lingvopoetik xususiyatlar:

so'roq yuklamasi orqali psixologik taranglik

takror (nega… nega…) – emotsional kuchaytirish

yurak, ko'ngil leksemalari – konseptual markaz

3. Undov va murojaat asosidagi ichki monolog

Misol: "Yo Rab, yana sabr ber,
Ko'nglimga bir yorug'lik tushir…"

Tahlil: "Yo Rab" shakli tashqi murojaatdek tuyulsa-da, aslida bu ichki monologning metafizik ko'rinishi. Subyekt o'z ruhiy iztirobini ilohiy manbaga yo'naltiradi. Bu yerda: undov ohangi iltijo fe'llari (ber, tushir) emotsional-ekspressiv sintaksis Ichki monologning ruhiy-falsafiy turi namoyon bo'ladi.

4. Ellipsis va pauza orqali ichki monolog

Misol: "Shuncha yo'l bosdim…
Ammo… nimaga?"

Tahlil: ko'p nuqta (pauza) ichki iztirobni kuchaytiradi. Gapning to'liq emasligi — tafakkur jarayonining uzilishlarini ifodalaydi. Lingvopoetik jihatdan: sintaktik parchalanganlik, semantik noaniqlik, dramatik pauza

Bu usul lirik subyektning ichki izlanishini ifodalaydi.

5. O'z-o'zini tanbeh qilish shaklidagi ichki monolog

Misol: "Ey ko'ngil, nega bunchalar ojizsan?
Axir sen sabr maktabida o'sgan eding-ku!"

Tahlil: bu yerda ichki monologning tanqidiy turi kuzatiladi. "Ey ko'ngil" — ichki "men"ga murojaat.

Lingvopoetik belgilar: murojaat shakli,so'roq + undov uyg'unligi, o'tgan zamon shakli orqali retrospektivlik

6. Tabiat obrazlari orqali ichki monolog

Misol:"Shamol esadi — yuragim ham titraydi,
Qor yog'adi — xotiralarim oqadi…"

Tahlil: bu yerda ichki monolog tabiat metaforalari orqali ifodalanadi. Parallel sintaktik qurilish ichki kechinmaning uzluksizligini beradi.

Lingvopoetik xulosaviy kuzatuv

Omon Matjon she'riyatida ichki monolog quyidagi lingvistik vositalar orqali namoyon bo'ladi: shaxs olmoshlari (men, o'zim, ko'nglim), ritorik so'roq gaplar, undov va murojaat birliklari, ellipsis va pauza, takror va parallelizm

Omon Matjon she'riyatida ichki monolog va grammatik shakllar o'zaro uzviy bog'langan holda liriksubyektning ruhiy-psixologik olamini ochib beruvchi asosiy lingvopoetik vositasifatida namoyon bo'ladi. Shoir she'rlarida ichki monolog ko'pincha 1-shaxs birlikshakllari orqali ifodalanib, "men" pozitsiyasi markaziy estetik nuqtaga aylanadi. 1-shaxs birlik (-man, -dim, -aman) shakllari orqali shoir ichki iztirob, e'tirof, sog'inch va armonni bevosita va samimiy tarzda ifodalaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Matjon, O. Saylanma. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 2006.
2.Matjon, O. Saylanma. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 2010.
3.Omon Matjon. Yuragimdagi nur. – Toshkent, 2005.
4.Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. – Chicago, 1980.

Mashhura MIRZAQULOVA,
Qarshi davlat universiteti 2-bosqich magistri

OYDINNISO IJODIDA NOREAL IFODA SHAKLLARI VA MODERNISTIK METAFORA

Annotatsiya: mazkur maqolada Oydinniso she'riyatida uchraydigan noreal ifoda shakllari, xususan, modernistik metaforalarning o'rni va badiiy vazifasi tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: *modernizm, metafora, abstraksionizm, antroposentrizm, dekadentlik, egzistensial, ontologik, sifatlash, noreal ifoda, majoziylik, obrazlilik.*

Аннотация: в статье анализируются формы ирреалистической выразительности, встречающиеся в поэзии Ойдиннисо, в частности, роль и художественная функция модернистских метафор.

Ключевые слова: *модернизм, метафора, абстракционизм, антропоцентризм, декаданс, экзистенциал, онтологизм, квалификация, нореальные выражение, образность, образность.*

Annotation: in this article, the forms of unrealistic expression found in Oydinniso's poetry, in particular, the role and artistic function of modernist metaphors are analyzed.

Key words: *modernism, metaphor, abstractionism, anthropocentrism, decadence, existential, ontological, qualification, noreal expression, figurativeness, figurativeness.*

Dilmurod Quronov "Adabiyotshunoslik" lug'ati kitobida modernizmga shunday izoh beradi :"Modernizm (fr. moderne – eng yangi, zamonaviy) XIX asrning oxiri – XX asr boshlarida ommalashgan termin, san'at va adabiyotda dekadentlikdan keyin maydonga chiqqan norealistik oqimlarning umumiy nomi sifatida tushuniladi. Lirikada esa noreal ifoda shakli modernizmning asosini tashkil qiladi.

Modernizm nazmda ham, nasrda ham voqelikni to'g'ridan-to'g'ri aks ettirmaydi, aksincha, ijodkorning o'z-o'zini ofodalash an'anaviy tasvir vositasidan chekinish yetakchilik qiladi. Bu yo'nalish vakillari ijtimoiylashish o'rnini o'zni taftish qilishga hislar bilan erkin suhbat qurishga bo'shatib bergan. Navoiy va uning davridagi ba'zi ijodkorlarning asarini elitar, ya'ni xoslargina tushunganidek modernizmda yozilgan she'rlarni ham faqat xoslargina chuqur his qila oladi. Uning zamirida san'at san'at uchun degan tushuncha yotadi. Oddiy she'rxon uchun bu kabi asarlar rangsiz, sayoz ma'noga egadek taassurot qoldiradi. Bugungi shoirlar o'quvchi ruhiyatiga uning qulog'i orqali emas, balki yuragi orqali kirib borishga urinmoqda. Bu esa o'z o'rnida shakldan, qofiyalardan voz kechib ruhiyatni oziqlantirishni yetakchi o'ringa qo'ymoqda. Bundan tashqari, modernizmda antroposentrizmi kuchli namoyon bo'ladi, ya'ni inson his-tuyg'ulari, kechinma va xohishlari bevosita birinchi planga chiqadi. Modernizmning ilk kurtaklari Cho'lpon she'rlarida aksini topgan. Asqad Muxtor, Rauf Parfida keyinchalik esa Faxriyor she'rlari ham modernizm na'munalari ko'plab uchraydi. Birgina Asqad Muxtorning

Goh tun sukutida eshitib qolaman
Gurs etib tushadi ko'zyosh tomchisi

misralarida noreal ifoda shakli aks etganini payqash qiyin emas.

Oydinniso she'riyatidagi modernistik metaforalar hamda egzistensial tasvir shunchaki badiiy bezak emas, ular inson ruhiyatidagi chuqur ziddiyatlarni ochish uchun zarur vositadir. Shoira real voqelikni ifodalashdan ko'ra, insondagi ichki ruhiy haqiqatlarni ifodalashga, o'rni kelganda malham bo'lishga intiladi.

Shoiraning eng kuchli satrlaridan biri:

Birovniki edim bir paytlar
Bugun o'zimniki har neki.
"Ixtiyor ham o'zimda, lekin
Bo'lolmadim men o'zimnik"[1].

Bu o'rinda mantiqan zidlik yaqqol ko'rinadi: inson o'ziga egalik qilishi kerak, ammo u o'ziga begona. Bu esa ekzistensial muammo. Ushbu misra orqali subyektning ichki parchalanishi "men" va "o'zlik" o'rtasidagi uzilish aks etgani esa modernizmning asosiy belgilaridan biri – insonning o'zidan uzoqlashuvi hisoblanadi. Modern ijodkor Oydinnisoning she'rlarida bunday individual tashbehlarni ko'plab uchratish mumkin.

Cheksizlikning qolmadi cheki.

Yuqoridagi satr mantiqan olib qaraganimizda imkonsiz holatni ifodalaydi. Cheksizlikning "cheki" bo'lishi mumkin emas. Bu – sof modernistik ifoda.

Shoira ijodining ko'p qismini bu kabi noreal ifodalar egallagan. Jumladan,

1Yo'ldosheva.O. Arafa. –Toshkent : Oydin, 2022.87-bet.

Men bor uchun qarog‘ingda ham
Ko‘z yoshingni ichingga yutding.
…Kel ashkingni to‘k endi, osmon,
To‘kilayin qaroqlaringdan.
Yirtilmasdan harir yuragim,
Qon sachramay quchoqlarimdan” [2].

Ichki kechinmalarning tashqi ko‘rinishi ifodalanib realistik emas ichki ong va hissiyotlarning poetik modeli sifatida namoyon bo‘ldi. She’rda qarama-qarshi tushunchalarning birikishi ham muhim badiiy vosita sifatida xizmat qiladi. Masalan, quchoq kabi iliq va mehrli obrazning qon bilan bog‘lanishi, yurakning “harir”ga qiyoslanishi va uning yirtilish ehtimoli orqali berilishi insoniy sezgirlik va noziklikni kuchli dramatik ohangda ochib beradi bu esa lirik qahramon kechinmalarining murakkab va ziddiyatli tabiatini ochib beradi. “Haqiqiy she’rdan yig‘i ovozi keladi” (Karim Bahriyev). Badiiy asar qiymati ham ko‘p hollarda inson ruhiyati qanchalar teran va ishonarli ifodalaganligi belgilaydi. Ularni o‘qib turib chuqur o‘yga tolasiz va bu kabi badiiy (individual topilmalar) Oydinniso ijodining bezagi ekanligiga amin bo‘lamiz.

Bu dunyo meniki
Qulflab qo‘yganman yuragimga
ummonlar shiddatini tog‘lar viqorini,
sarrin sabo ifori-yu,
tonglarning ohorini.

Mazkur she’rda lirik qahramon o‘z ichki olamini butun borliq bilan tenglashtiradi va “Bu dunyo meniki!” degan qat’iy da’vo orqali subyektiv borliqni yuqori darajaga ko‘taradi. Bu yerda real voqelik emas, balki badiiy ongda yaratilgan noreal makon ifodalangan she’rning kulminatsion qismida lirik qahramon o‘zini deyarli yaratuvchi darajasiga olib chiqadi:

Egallab olganman allaqachon
yerni, samon.
Muhrlab qo‘yganman so‘zlarimga
butun dunyoni!
Bu dunyo meniki!!!

Bu misralarda so‘zning ontologik kuchi tasvirlanadi. Ya’ni til orqali borliqni boshqarish g‘oyasi ilgari suriladi. Bu esa modernistik poetikaga xos bo‘lgan til va voqelik o‘rtasidagi chegaralarning buzilishini anglatadi.

XX asr o‘zbek adabiyotida o‘ziga xos o‘rin egallagan shoir Asqad Muxtor 1965-yili shunday yozgan edi: “She’r – turmush o‘chog‘idan olingan laxcha cho‘g‘, u hayotiy epizodga asoslangan, syujetli bo‘lishi kerak deb, she’rning bo‘lak turlarini tan olmay qancha yil yurdim she’r – yalt etgan oniy tuyg‘u, zavq-shavq tug‘yoni, uni faqat musiqa janrlari bilan qiyos qilish mumkin degan ruhda ham ancha vaqt ishladim; she’r hayot falsafasining essensiyasi, fikr, fikr, fikr! fikrsiz poeziya yo‘q deb anchagacha biryoqlama, ratsionalistik she’rlar yozdim”, – shoir davom etib: bu to‘lg‘onishlar menga ba’zan ziyon, ba’zan foyda qildi, lekin bir narsada fikrim sira o‘zgargani yo‘q: she’r – zaruriyat, shoirga ham, she’rxonga ham… She’r odamning yaxshashi uchun, kurashishi, ulg‘ayishi uchun zarur”[3] – deganda naqadar haq edi.

Hali oldindadir hamma hammasi,
Hali bu hayotning qoralamasi.

Birgina ushbu misralar insonni yashashga, hayotni sevishga chorlashi bilan birga ma’lim ma’noda she’rxonni ma’nan ulg‘ayishga ham undaydi.

Shoira she’rlaridagi obrazlarning betartib harakati, hissiyotlarning beboshligi, ayniqsa, mavhum tuyg‘ularning jonli harakati, yangi o‘zbek she’riyatida o‘ziga xosligi va nafasi borligini ifodalaydi. Ijodkorning dardi qog‘ozga to‘kilarkan vujudni titratadi, o‘quvchini o‘z izmiga soladi, dardni tanda his qilishga o‘rgatadi, go‘yoki o‘quvchining dardi bo‘lib qoladi.

Ulug‘bek Hamdam shunday degan edi: “Chinakam shoir she’r yozayin deb emas, balki bag‘ridagi olov shashtini pasaytirayin deb shoirlikka qo‘l uradi”[4]. Oydinniso ham o‘zi istab emas, yurak amri bilan yozganligi uning har bir she’ridan ayon. Shoiraning qalbidagi dardlar uyumini har bir satr yemirib borayotganga, uning cho‘g‘ini biroz bo‘lsa-da, pasaytirayotganga o‘xshaydi.

2 Yo’ldosheva.O. Arafa. –Toshkent : Oydin, 2022. 63-bet.

3 Hamdamov U. Jahon adabiyoti: Modernizm va postmodernizm. – Toshkent: Akademnashr; 2022. 128-b.

4 Hamdamov.U. Yangilanish ehtiyoji. – Toshkent: Fan, 2017.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Д.Қуронов, З.Мамажонов, М.Шералиева. Адабиётшунослик луғати. –Тошкент: Академнашр, 2013.
2. Холбеков М.Н. XX аср модерн адабиёти манзаралари. Мақолалар тўплами. – Тошкент. Мумтоз сўз нашриёти, 2013.
3. Yo‘ldosheva O. Arafa. – Toshkent: Oydin, 2022.
4. Hamdamov U. Jahon adabiyoti: Modernizm va postmodernizm. –Toshkent: Akademnashr, 2020.

Dildora POYONOVA,
Termiz davlat universiteti 4-kurs talabasi
E-mail: poyonovadildora005@gmail.com,

ERKIN A'ZAM HIKOYALARIDA BOLALAR VA O'SMIRLAR OBRAZI BADIIYATI

Annotatsiya: ushbu maqolada Erkin A'zamning "Anoyining jaydari olmasi", "Navoiyni o'qigan bolalar", "Xulul" va "Bog'bolalik yigitcha" hikoyalarining bola va o'smir yoshidagi qahramonlari ruhiyati, ularning psixologiyasi, yozuvchining bola va o'smir obrazi yaratish mahorati haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: istehzo, kinoya, o'smir tabiati, bola ruhiyati, samimiylik, bolalik, xalqchillik, anoyi, xulul, detal, ramz.

Annotation: this article discusses the psyche of the child and adolescent heroes of Erkin Azam's stories "Anoyi's jaydari apple", "Children who read Navoi", "Khulul" and "Bog'bolalik yigitcha", their psychology, and the writer's skill in creating the image of a child and an adolescent.

Key words: *irony, sarcasm, adolescent nature, child's psyche, sincerity, childhood, popularism, anoyi, khulul, detail, symbol.*

Аннотация: в данной статье рассматривается психология детей и подростков-героев рассказов Эркина Азама «Яблоко Анойи», «Дети, читающие Навои», «Хулул» и «Богболалик йигича», их психология, а также мастерство писателя в создании образа ребенка и подростка.

Ключевые слова: *ирония, сарказм, подростковая натура, детская психика, искренность, детство, популяризм, анойи, хулул, деталь, символ.*

Kirish. Shukur Xolmirzayev "ochgan ariq"dan suv ichgan adib Erkin A'zam hikoyalari ham o'zining xalqchilligi, o'qishliligi bilan ajralib turadi. Adib ham Shukur Xolmirzayev singari bolalar va o'smirlar ruhiyati, ularning beg'ubor va samimiy ichki olamiga alohida urg'u beradi va ular obrazini mahorat bilan yaratadi. Erkin A'zamning ilk hikoyalariga nazar tashlasak, ularda ham bolalik xotiralari, o'smirlikning ajib va unutilmas damlarini aks ettirilganligini kuzatsak bo'ladi. Erkin A'zam o'zbek adabiyotida xalqona badiiyatning yorqin vakillaridan biri sanaladi.

Adabiyotlar tahlili. Adib asarlarida xalqchillikning yorqin namunasi sifatida qaraladigan xalqona til, badiiy tafakkur va tasvir vositalari alohida ajralib turadi. "Anoyining jaydari olmasi" nomli hikoyasini mutolaa qilar ekanmiz Ramazon orqali xalqchillikning yorqin ko'rinishi tasvirlangan. Ramazonning shaharda o'zini noqulay his qilishi, uning oddiy va beg'ubor tabiatidan kelib chiqadi. Uning har bir harakati, so'zlari va munosabatlari o'zbek xalqining samimiyligi va jo'shqinligini aks ettiradi. Masalan, Ramazonning "Chantrimore" kabi so'zlarni ishlatishi, uning bolalik xotiralari bilan bog'liq ifodalar mahalliy madaniyatga xos unsurlarni yorqin ko'rsatadi. Adibning o'smirlar ishtirokidagi yana bir hikoyasi "Navoiyni o'qigan bolalar"da ma'naviy aynishlarimiz, fojia va inqirozlarimizning boshlang'ich nuqtasi tasvirlangan. "Navoiyni o'qigan bolalar" hamma bolalar kabi emas, ular Navoiyni, Navoiy orqali insoniylik, oliyjanoblik, samimiylik qadrini anglagan bolalar.

Erkin A'zam "Bog'bolalik Ko'kaldosh" hikoyasida esa bola obraziga boshqa tarafdan qaraydi. Hikoya qahramoni bola Ko'kal endi boshqa bolalar singari o'yinqaroq, qiziquvchan, ishtiyoqmand, sho'x, quvnoq emas, kattalardek og'ir-bosiq, o'ychan, "jim" va sokin obraz. Muallif uni "U hech qachon bizga qo'shilib o'ynamagan bola holida kattalar dunyosiga o'tib ketgan edi "[1], – deya tasvirlaydi. Achchiq hayot tashvishlari uning boshiga erta tushgan. Uning otasi yo'q, to'g'rirog'i bor-u lekin yo'q hisobida edi. Otasi kimligini bilganlar biladi, lekin bilmaganga oladi.

Ko'kal jimgina borib Doniyorovning hovuzidan suv keltirar, jimgina o'tin yorar, jimgina og'il qurar, jimgina eshagini sug'orar edi. Hamma ishini jimgina bo'yin burmay bajarardi. Onasi esa guzarga jar solib javragani javragan "Ko'ka-al, Ko'ka-al!.."[2]

Ana shunaqa edi Ko'kal. U butun mahallaga dastyor. Lekin u juda ham oriyatli va ta'sirchan obraz. Muallimning "bepadar haromi" degan gapidan so'ng maktabga qayta oyoq bosmaydi... Ko'kaldoshning bolalik yillari, uning bola va o'smir qiyofasi hikoyada shu tarzda izohlanadi. Ko'rinib turibdi-ki, Erkin A'zam "Anoyining jaydari olmasi" hikoyasidagi "anoyi" singari Ko'kalni ham jamiyatdagi oddiy odamlardan farqli. Ular fikrlashi, dunyoqarashi ulardan ancha pas ko'rinsa-da, aslida ancha aqlli va sabrliroq, oriyatli va oliyjanobroq obrazlardir. Bolaligida

1 Erkin A'zam "Gonoluluga elchi"(hikoya va qissalar to'plami)/ "Bog'bolalik Ko'kaldosh" hikoya 90-bet. Pir nashr, 2024
2 Erkin A'zam "Gonoluluga elchi"(hikoya va qissalar to'plami)/ " Bog'bolalik Ko'kaldosh" hikoya. 90-bet. Pir nashr, 2024

bolalarcha yashamagan Ko‘kal obrazi orqali yozuvchi sabrni, oliyjanoblik, oriyat va nomus masalasini ko‘taradi. Hikoya so‘nggida ulg‘aygan Ko‘kalning Doniyorov o‘limidan so‘ng “otam”lab yig‘lagani, chopon kiyib, belbog‘ bog‘lab, mozorga hassakashlar safida borganini o‘qib, Ko‘kalning sabrini, aslida betashvish bolalikni o‘ynab-kulib o‘tkazish kerak bo‘lgan paytida kichik jussasi bilan ko‘tarib yurgan alam-anduhlarini anglay boshlaymiz. Uning bolaligini o‘g‘irlagan kattalarga nisbatan esa kitobxon qalbida nafrat paydo bo‘ladi.

Yozuvchining yana bir bola ruhiyati va bolalik davri bilan bog‘liq hikoyasi “Xulul” – o‘ziga xos ulubi bilan boshqalaridan ajralib turadi. Ancha yillardan so‘ng yoshligidagi o‘sha qizlar (o‘rtoqlari) bilan uchrashgan qahramon o‘sha uni mehmonga chaqirgan boybichcha yoshligidagi sinfdoshi Nazokat ekanligini bilib tanimaganidan hayron qoladi. Odamni tovushidan tanisa bo‘ladi deyishardi. Ovoz ham o‘zgarar ekan. Bu u bilgan bolalikdagi Nazokat emas, u hukmfarmo, tannoz, dimog‘dor, savlatli boybichcha. O‘tirishib, suhbatlashib yoshlikni, bololikni sog‘inib eslashar, kitobxon ham beixtiyor ular bilan qo‘shilib xotirlaydi:

– Shundoq devor-darmiyon qo‘shni edik. O‘rtada katta bir ko‘ksulton.Shu pishganida…iya, pishmoq qayda deysiz,g‘o‘raligidayoq biz bu yoqdan shoxiga yopishamiz, bular bu yoqdagisiga. O‘zaro janjal. Qarang bola ekanmiz-da,a! Tomorqalarimizning etagi kolxozning keng-keng bog‘i deng. Yoz kunlarimiz o‘sha yoqda o‘tadi ko‘pincha. Goh uzumi pishadi, goh zardolisi. Kuzda enalarimiz qo‘limizga qop tutqazib, xazon to‘plashga jo‘natadi. Ko‘rpaday bo‘lib yotibdi, u yoqdan bu yoqqa dumalaymiz, bu yoqdan u yoqqa. Zardolining xazoni tandirni yashnatadi-da.[3]

Yuqorida ta’kidlanganidek, yozuvchi bola obrazini shunchaki yaratmaydi, u yaratish mobaynida o‘z bolalik yillarida qaytadan yashaydi. Erkin A’zam ham shunchalik mahorat bilan bolalik va bola xarakterini tasvirlayaptiki, shu kichkinagina jumlaning o‘ziyoq o‘quvchining butun bolaligini ko‘z oldiga jamlaydi.

Va o‘sha xulul…Boybichchaning bog‘ini aylanishar ekan ular har joyda shig‘il urib qip-qizil mevalari cho‘g‘lanib turgan butaning oldiga kelishadi-yu…o‘sha xulul (na’matak) qahramonning samimiy, beg‘ubor bolalik xotiralarini butunligacha jonlantiradi. O‘sha qiltiriq Oybibi yana xotirida tasvirga keladi. O‘shanda qanday uyalgan bo‘lsa, o‘sha hisni shu lahzada yana qaytadan tuyadi.

Boybichchanong xonadonida unga xizmatkor bo‘lib ishlayotgan Oybibini ham uchratadi. “Qoravoy” uyga qaytayotganida aftodaxol ahvoldagi Oybibi unga bejirim kashtalar bilan bezalgan xaltada nimadir tutqazadi… Uyga borib qarasa …Xulul, o‘sha xulul.

Hikoyani tugatar ekanmiz, anglaymizki, bu oddiy xulul emas, bu ular uchun bolalikning betakror ramzi. (Xulul – badiiy detal bo‘lib xizmat qiladi. 3-bobda batafsil to‘xtalamiz)

Erkin A’zam “Xulul” hikoyasi voqealarini ortiqcha bo‘yoqlarsiz, hayajonlarsiz shunchaki yozadi. Lekin kitobxon uni shunchaki o‘qimaydi, o‘qish davomida bolalik yillari portreti gavdalanadi. Yozuvchi o‘z xayolotiga kitobxonni tortib keta oladi. Bola obrazi va bola ruhiyatini mohorat bilan bera oladi. Va hikoyadan shuni ham anglaymizki, har bitta ulg‘aygan inson qalbida “Qoravoy”, Nazokat va Oybibi singari bolalik yillariga bo‘lgan bitmas sog‘inch hissi yashaydi.

Yuqoridagi hikoya tahlillardan ilg‘ashimiz mumkinki. Erkin A‘zam bolalar obrazi orqali, ularning sof va samimiy ruhiyatini bayon qilish orqali kattalar jamiyatidagi illat va nuqsonlarni fosh qiladi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, Erkin A’zam hikoyalarida bolalar va o‘smirlar obrazi, nafaqat, soflik va samimiylikning ifodasi, balki jamiyatdagi nuqsonlarni, kamchiliklarni ko‘rsatuvchi vazifasini ham bajargan. Shuningdek, Erkin A’zam hikoyalari o‘z xalqchilligi bilan alohida ahamiyatga ega.

3 Erkin A‘zam “Gonoluluga elchi” (qissalar va hikoyalar to‘plami)/ “Xulul” hikoya 318- bet. Pir nashr, 2024.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Toshboyev Olim “Erkin A’zam shaxsiyati” maqola / “Navoiy zamonidan kelgan savdoyi” “Oyina ” jurnali
2. Toshboyev Olim “Erkin A’zam shaxsiyati” maqola / “Hamdam axtaradi har qanday odam” “Oyina ” jurnali
3. Toshev Asadbek Qudrat o’g’li “Erkin A’zam hikoyalarida xalqchillik” tezis. Modern sciences jurnali
4. Erkin A‘zam “Gonoluluga elchi” (qissalar va hikoyalar to‘plami)/ “Pir nashr, 2024.

Diyor MAMATQULOV,
Toshkent amaliy fanlar universiteti
“O‘zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi” magistranti
Ilmiy rahbar: filologiya fanlari doktori
professor **Marhabo QO‘CHQOROVA**

HAMZA HAKIMZODA NIYOZIYNING “MILLIY ASHULALAR UCHUN MILLIY SHE’RLAR” TO‘PLAMI: MAVZU, G‘OYA VA POETIK XUSUSIYATLAR

Annotatsiya: ushbu maqolada Hamza Hakimzoda Niyoziyning “Milliy ashulalar uchun milliy she’rlar” majmuasi jadid adabiyoti, milliy uyg‘onish, ma’rifatparvarlik va ijtimoiy yangilanish g‘oyalari nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Majmuaning asosiy ahamiyati shundaki, Hamza xalq orasida keng tarqalgan kuy va ashula shakllaridan foydalanib, ularni yangi davrning ma’rifiy, ijtimoiy va milliy g‘oyalari bilan boyitadi. Shoir xalqona ohang, sodda ifoda, da’vatkor ruh, publitsistik keskinlik va badiiy ta’sirchanlik vositasida o‘z davri jamiyatidagi jaholat, ilmsizlik, ijtimoiy tengsizlik, milliy sustkashlik kabi muammolarni ochib beradi. Tadqiqotda to‘plamning jadidchilik harakati bilan bog‘liqligi, undagi ilm-ma’rifat, Vatan, millat, ayollar ozodligi, taraqqiyot va uyg‘onish g‘oyalari tahlil qilinadi. Shuningdek, Hamzaning xalq qo‘shiqlari ohangidan foydalanish usuli uning she’riyatini ommaviy, ta’sirchan va ijtimoiy faol adabiy hodisaga aylantirgani asoslanadi.

Kalit so‘zlar: Hamza Hakimzoda Niyoziy, “Milliy ashulalar uchun milliy she’rlar”, jadid adabiyoti, ma’rifatparvarlik, milliy uyg‘onish, xalqona ohang, Vatan, taraqqiyot, poetik talqin.

Аннотация: в данной статье сборник Хамзы Хакимзода Ниёзи «Национальные стихи для национальных песен» анализируется с точки зрения джадидской литературы, национального пробуждения, просветительства и идей социального обновления. Основное значение сборника заключается в том, что Хамза, используя широко распространённые среди народа мелодии и формы песен, наполняет их просветительскими, социальными и национальными идеями нового времени. Поэт посредством народного звучания, простоты выражения, призывного духа, публицистической остроты и художественной выразительности раскрывает такие проблемы общества своего времени, как невежество, безграмотность, социальное неравенство и национальная пассивность. В исследовании анализируется связь сборника с джадидским движением, а также отражение в нём идей науки и просвещения, Родины, нации, освобождения женщин, прогресса и пробуждения. Кроме того, обосновывается, что использование Хамзой мелодий народных песен превратило его поэзию в массовое, воздействующее и социально активное литературное,явление.

Ключевые слова: Хамза Хакимзода Ниёзи, «Национальные стихи для национальных песен», джадидская литература, просветительство, национальное пробуждение, народный стиль (или народное звучание), Родина, прогресс, поэтическая, интерпретация.

Annotation: this article analyzes Hamza Hakimzoda Niyozi’s collection *“National Poems for National Songs”* from the perspectives of Jadid literature, national awakening, enlightenment, and ideas of social transformation. The main significance of the collection lies in the fact that Hamza enriches widely popular folk melodies and song forms with educational, social, and national ideas of a new era. Through folk intonation, simplicity of expression, a calling tone, journalistic sharpness, and artistic expressiveness, the poet reveals key problems of his time, such as ignorance, illiteracy, social inequality, and national passivity. The study examines the connection of the collection with the Jadid movement and analyzes themes such as education, homeland, nation, women’s emancipation, progress, and awakening. Furthermore, it substantiates that Hamza’s use of folk song melodies transformed his poetry into a mass-oriented, influential, and socially active literary phenomenon.

Key words: Hamza Hakimzoda Niyozi, *“National Poems for National Songs”*, Jadid literature, enlightenment, national awakening, folk tone (or folk style), homeland, progress, poetic interpretation.

Kirish. XX asr boshlarida Turkiston ijtimoiy-madaniy hayotida yuz bergan yangilanish jarayonlari o‘zbek adabiyotining mazmuni, vazifasi va badiiy shakllariga kuchli ta’sir ko‘rsatdi. Jadidchilik harakati adabiyotni faqat estetik zavq vositasi sifatida emas, balki millatni uyg‘otuvchi, jamiyatni isloh etuvchi, xalqni ilm-ma’rifatga da’vat qiluvchi kuch sifatida ko‘rdi. Shu ma’noda Hamza Hakimzoda Niyoziy ijodi jadid adabiyotining eng faol, ijtimoiy jihatdan keskin va xalqchil yo‘nalishlaridan birini tashkil etadi.Hamza Hakimzoda Niyoziy o‘zbek adabiyoti tarixida shoir, dramaturg, pedagog, publitsist va ma’rifatparvar sifatida alohida o‘rin tutadi. Uning ijodida millatni uyg‘otish, xalqni jaholatdan chiqarish, ilm-ma’rifatga undash, ayollar huquqi, ijtimoiy adolat, Vatan va millat taqdiri kabi mavzular yetakchi o‘rin egallaydi. Ayniqsa, “Milliy ashulalar uchun milliy she’rlar” majmuasi Hamza ijodining jadidona mohiyatini, xalqchil badiiy tafakkurini va ijtimoiy faolligini yaqqol ko‘rsatadi. Manbalarda Hamzaning katta yoshdagi kishilar uchun “Milliy ashulalar uchun milliy she’rlar majmuasi” umumiy nomi ostida “gul” to‘plamlarini 1915–1919-yillarda e’lon qilgani, bu majmualar o‘zbek she’riyatiga yangi mazmun va yangi g‘oyalar olib kirgani qayd etiladi. Jadid.uz saytida ham Hamzaning ushbu majmuaga kirgan she’rlari, publitsistik maqolalari va dramalari uning jadidchilik harakatining badiiy adabiyotdagi yirik namoyandalaridan biri ekanini ko‘rsatishi ta’kidlanadi. “Milliy ashulalar uchun milliy she’rlar” majmuasining muhim tomoni shundaki, unda Hamza xalq qo‘shiqlarining tayyor ohangiy imkoniyatlaridan foydalanadi. Ya’ni shoir o‘z she’rlarini xalq orasida mashhur kuylar asosida aytiladigan shaklda yaratadi. Bu usul she’rlarning keng ommaga tez yetib borishiga xizmat qilgan. Chunki jadid adabiyoti uchun muhim vazifa xalqni uyg‘otish, yangi fikrni jamiyat ongiga singdirish edi. Hamza esa bu vazifani kitobxon doirasida cheklab qo‘ymay, ashula va kuy orqali keng xalq qatlamlariga yetkazishga intildi.

1. Majmuaning yaratilish davri va tarixiy-adabiy zarurati. “Milliy ashulalar uchun milliy she’rlar” majmuasini to‘g‘ri tushunish uchun avvalo uning yaratilgan davriga e’tibor qaratish zarur. XX asr boshlaridagi Turkiston jamiyati siyosiy qaramlik, iqtisodiy qoloqlik, ma’rifiy sustlik, diniy mutaassiblik va ijtimoiy tengsizlik muammolari bilan yuzma-yuz edi. Ana shunday sharoitda jadid ziyolilari xalqni uyg‘otishning eng samarali yo‘li sifatida maktab, matbuot, teatr va adabiyotni tanladilar. Hamza ham shu harakatning faol vakili sifatida she’riyatni ijtimoiy tarbiya vositasiga aylantirdi. Majmua nomining o‘zi ham muhim ma’no anglatadi: “milliy ashulalar” va “milliy she’rlar” birikmalari Hamzaning badiiy-estetik maqsadini ko‘rsatadi. Shoir xalqning o‘ziga tanish bo‘lgan ashula shaklini oladi, lekin unga yangi milliy mazmun yuklaydi. Bu yerda “milliy” so‘zi faqat etnik ma’noda emas, balki millat manfaatini ko‘zlovchi, xalq ongini uyg‘otuvchi, ijtimoiy taraqqiyotga xizmat qiluvchi mazmunni bildiradi. Hamza xalq orasida mashhur bo‘lgan kuy va ohanglardan foydalangan holda, ularni yangi zamon g‘oyalari bilan to‘ldirdi. Natijada an’anaviy ashula shakli jadidona ruhdagi ijtimoiy-ma’rifiy she’riyat shakliga aylandi. Bu hol Hamzaning ijodiy yangiligini ko‘rsatadi. U mumtoz she’riyatdagi murakkab obrazlar, ramziy ishqiy kechinmalar, saroyona yoki tor doiradagi badiiy ifodalardan uzoqlashib, bevosita xalq hayoti, millat dardi, ijtimoiy muammo va taraqqiyot masalalarini she’r markaziga olib chiqdi. Majmua 1915–1919-yillar oralig‘ida yaratilgani haqidagi ma’lumotlar Hamza ijodining aynan jadidchilik harakati kuchaygan, milliy uyg‘onish g‘oyalari keskinlashgan davr bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi. Bu davrda adabiyotning vazifasi faqat go‘zallik yaratish emas, balki xalqni fikrlashga, uyg‘onishga, o‘z taqdiriga befarq bo‘lmaslikka chaqirish edi.

2. Majmuaning mavzu doirasi. Hamzaning “Milliy ashulalar uchun milliy she’rlar” majmuasida bir nechta asosiy mavzu yo‘nalishlari ko‘zga tashlanadi. Bular quyidagilardir: ilm-ma’rifatga da’vat, jaholat va g‘aflatni tanqid qilish, Vatan va millat taqdiri, taraqqiyot zarurati, ayollar ozodligi, ijtimoiy tenglik, xalqni uyg‘otish va yangi hayotga chaqirish.

Ilm-ma’rifat g‘oyasi. Majmuaning eng muhim g‘oyaviy markazlaridan biri ilm-ma’rifatdir. Jadid adabiyotida ilm millatni qoloqlikdan chiqaruvchi asosiy kuch sifatida talqin qilinadi. Hamza ham xalqning taraqqiy etishi uchun avvalo bilim, maktab, dunyoviy fanlar, ongli tarbiya zarurligini targ‘ib etadi. “Dardiga darmon istamas” she’rida Hamza Turkiston xalqining g‘aflatda qolgan holatini og‘riqli tarzda tasvirlaydi. She’rda “Bizni Turkiston eli dardiga darmon istamas” tarzidagi fikr xalqning o‘z muammosini anglamasligi, dardiga davo izlamasligi, taraqqiyotdan ortda qolayotganini ko‘rsatadi. Bu jihat juda muhim:

Hamza og‘ir ijtimoiy muammoni xalqona kuy orqali ifodalaydi. Natijada she’r faqat o‘qiladigan matn emas, balki kuylanadigan, eshitiladigan, xalq orasida tarqaladigan ma’rifiy da’vatga aylanadi.

Vatan va millat g‘oyasi. Hamza she’riyatida Vatan tushunchasi jadidona mazmun kasb etadi. Mumtoz adabiyotda Vatan ko‘pincha tug‘ilgan joy, yurt, diyor sifatida talqin qilingan bo‘lsa, jadid adabiyotida u millat taqdiri, ijtimoiy mas’uliyat, tarixiy burch bilan bog‘lanadi. Manbalarda “Vatan, vatan der edilar...” misralari “Milliy ashulalar uchun milliy she’rlar majmuasi”ning “Oq gul” bo‘limidan o‘rin olgani, “Do‘st Mavlon-ey” kuyi asosida aytilishi ko‘rsatiladi. Shoir Vatan tuyg‘usini shunchaki romantik his emas, balki amaliy mas’uliyat darajasiga ko‘taradi.

Jaholat va g‘aflat tanqidi. Majmuaning yana bir muhim mavzusi jaholat va g‘aflatni tanqid qilishdir. Hamza xalqning ijtimoiy sustligi, ilmga befarqligi, eski urf-odatlarga ko‘r-ko‘rona ergashishi, taraqqiyotdan ortda qolishini keskin tanqid qiladi. Biroq bu tanqid inkor uchun emas, isloh uchun xizmat qiladi. Hamza ham she’rlarida xalqni “uyg‘onish”ga chaqiradi. “Uxlama o‘zbek eli asri taraqqiy vaqtida” mazmunidagi da’vat Hamza poetikasining markaziy ruhini ifodalaydi.

Ayollar ozodligi va ijtimoiy tenglik. Hamza ijodida xotin-qizlar mavzusi alohida o‘rin tutadi. Jadidchilik harakatida ayollar ta’limi, ularning jamiyatdagi o‘rni, oiladagi huquqi va ijtimoiy faolligi muhim masala bo‘lgan. Hamza ham ayollarni jaholat va mutaassiblik qurboni sifatida tasvirlash bilan birga, ularni ilmli, ongli, jamiyat taraqqiyotida ishtirok etuvchi shaxs sifatida ko‘rishni istaydi. “Milliy ashulalar uchun milliy she’rlar” majmuasida bevosita yoki bilvosita tarzda ayollar mavzusi ham jadidona ruhda yoritiladi. Ma’rifatli ona — ma’rifatli avlod tarbiyachisi. Bu g‘oya jadid pedagogik qarashlari bilan chambarchas bog‘liq. “Hamza xalq qo‘shiqlari ohangiga mos she’rlar yaratish orqali adabiy matnni ommaviy ijro shakliga yaqinlashtiradi. Bu usul she’rning ta’sir doirasini kengaytiradi.

Ramziy obrazlar. Majmuada “dard”, “darmon”, “uyqu”, “zulmat”, “nur”, “Vatan”, “millat”, “taraqqiyot” kabi obrazlar tez-tez uchraydi. Bu obrazlar jadid she’riyatining asosiy ramziy tizimini tashkil etadi. Masalan, “zulmat” jaholatni, “nur” ilm-ma’rifatni, “uyqu” g‘aflatni, “uyg‘onish” esa milliy ongning shakllanishini bildiradi.

To‘plamdagi Vatan obrazi. Hamza she’riyatida Vatan obrazi hissiy, ma’rifiy va ijtimoiy mazmunni birlashtiradi. Vatan Hamza uchun muqaddas makon bo‘lish bilan birga, islohga muhtoj jamiyatdir. Shoir Vatanni sevish uchun avvalo uni anglash, uning dardini his qilish, xalqning ahvoliga befarq bo‘lmaslik kerakligini uqtiradi. Shu sababli uning Vatan haqidagi she’rlarida shunchaki maqtov emas, balki og‘riq, tashvish va da’vat kuchli.

Hamza poetikasida xalq va ziyoli munosabati. “Milliy ashulalar uchun milliy she’rlar” majmuasida shoir o‘zini xalqdan ajratmaydi. Hamza xalqni sevadi, lekin uning kamchiliklarini ham ochiq aytadi. Bu ma’rifatparvar adabiyotga xos xususiyatdir. Haqiqiy ziyoli xalqni faqat madh etmaydi; uni kamolotga yetaklash uchun tanqid ham qiladi. Hamzaning xalqka murojaatlarida ana shu ikki jihat — mehr va tanqid — birgalikda namoyon bo‘ladi.

Xulosa. Hamza Hakimzoda Niyoziyning “Milliy ashulalar uchun milliy she’rlar” majmuasi o‘zbek jadid adabiyotining g‘oyaviy-badiiy taraqqiyotida alohida o‘rin tutadi. Ushbu majmua Hamzaning xalqparvar, ma’rifatparvar va milliy uyg‘onish g‘oyalariga sodiq ijodkor ekanini yaqqol ko‘rsatadi “Milliy ashulalar uchun milliy she’rlar” majmuasi Hamza ijodining jadidona mohiyatini ochib beruvchi eng muhim manbalardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Hamza Hakimzoda Niyoziy. She’rlar. Mutolaa elektron kutubxonasi.
2. Hamza Hakimzoda Niyoziy haqida ma’lumot. Ziyouz.com.
3. “Dardiga darmon istamas”. Tafakkur.net.
4. Hamza Hakimzoda Niyoziy. Jadid.uz ma’lumotlari.
5. Hamza Hakimzoda Niyoziy. Tanlangan asarlar. Ziyouz elektron kutubxonasi.

Dilafruz XOLMURODOVA,
Qarshi davlat universiteti Adabiyotshunoslik: o‘zbek adabiyoti yo‘nalishi 2-kurs magistranti

JADID DRAMALARIDA AYOL ERKSIZLIGINING DRAMATIK TALQINI

Annotatsiya: mazkur maqolada XX asr boshlarida yozilgan jadid dramalaridagi ayol obrazlari Hamza, Abdulla Badriy va Hoji Mo‘in dramalari asosida ilmiy va badiiy tahlil qilinadi._

Kalit so‘zlar: *jadid dramasi, xotin-qizlar erksizligi, majburiy nikoh, savodsizlik, dramatik konflikt.*

Annotation: this article provides a scholarly and artistic analysis of female images in Jadid dramas written at the beginning of the 20th century, based on the dramas of Hamza, Abdulla Badriy, and Hoji Mo‘in.

Key words: *jadid drama, women’s oppression, forced marriage, illiteracy, dramatic conflict.*

Аннотация: в данной статье на основе драм Хамзы, Абдуллы Бадрия и Ходжи Муина проводится научный и художественный анализ женских образов в джадидских драмах, написанных в начале XX века.

Ключевые слова: *джадидская драма, бесправие женщин, принудительный брак, неграмотность, драматический конфликт.*

Jadid dramaturgiyasida yoritilgan mavzular ichida ayol erksizligi masalasi eng dolzarb ijtimoiy muammolardan biri hisoblanadi. XX asr boshlaridagi Turkiston hayotida xotin-qizlarning jamiyatdagi o‘rni va huquqlari nihoyatda murakkab edi. Ularning ko‘pchiligi savodsizlik, majburiy nikoh va ko‘p xotinlik, patriarxal muhit hamda eskicha urf-odatlar tufayli erkin hayot kechirish imkoniyatidan mahrum bo‘lgan. Jadid dramaturglari ana shu muammolarni sahna orqali xalq ongiga yetkazishga va bu orqali jamiyatni fikrlashga undashga harakat qilganlar

Ijodkorlar ayol erksizligini oddiy oilaviy muammo sifatida emas, balki jamiyat taraqqiyotiga to‘sqinlik qilayotgan asosiy ijtimoiy illat sifatida talqin qiladilar. Chunki ular nazarida ayolning erksiz va savodsizligi butun millatning ma’naviy tanazzuliga sabab bo‘luvchi bosh omillardan biri edi. Shu sababdan ular o‘z dramalarida ayol qismati orqali jaholat, mutaassiblik va eskicha qarashlarni keskin tanqid qilganlar.

– Jadid dramalarida ayol erksizligi turli ko‘rinishlarda, jumladan:

– erta va majburiy nikoh;

– ko‘p xotinlik qurboniga aylanish;

– boy yoki yoshi katta insonga uzatilish;

– oilaviy zo‘ravonlik;

– ilmsizlik kabi ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi.

Ayni jihatdan ayol obrazi dramatik ziddiyatlar markazida turuvchi muhim badiiy vosita vazifasini bajaradi. Dramaturglar xotin-qizlarning og‘ir qismati orqali o‘quvchi va tomoshabinning hissiyotiga ta’sir qilish va buning natijasida jamiyatdagi adolatsizliklarga nisbatan norozilik uyg‘otishni maqsad qilganlar.

XX asr boshlarida yaratilgan dramalarning barchasida yuqorida keltirilgan mavzu, yanayam aniqroq aytadigan bo‘lsak, muammolarning barchasi o‘sha davr dramaturglarining ijodida bosh g‘oyalardan biri bo‘lgan. Xususan, Hoji Mu’in Shukrullo qalamiga mansub “Juvonmarg” pyesasida keltirilgan Uzoqboy va Eshon bobo o‘rtasidagi: Uzoqboy:

– Ha, ongladim. (Boshini silkitib.) Albatta, xayr, unday bo‘lsa, siz otalik qilib, avval bir yaxshi qiz topib, bizni uylantiring. Xudo xohlasa, aytgan bir xayrli ishni qilaylik.So‘ngra molimizdan zakot berib, xalq pul bilan maktablarda bolalarga nosimizni har xil suratub, dunyoda pok bo‘lib qolaylik. O‘lgan kishi xayrat eshigi bilan o‘tolmaydur.

Eshonbobo:

– Hay, hay, ko‘b yaxshi bo‘ladur. Xudo tavfiqingizni ziyoda qilsun. Xo‘b, ana, siz so‘ragan xizmatingizni qilamiz. Bu jihatdan aslo parvo qilmang. O‘zingizga munosib qiz topamiz. Uzoqboy: – Biz ham sizning xizmatingizga loyiqmiz. Xudo xohlasa, sizni ham shul vaqtdan xursand qilamiz.

Eshonbobo: – Xudoga shukur, sizni davlatingiz bor. Siz 4 tagacha xotun olsangiz ham, kuchingiz yetadur. Ko‘b xotun olmoqning xosiyati juda ko‘b, bolam. Bir xosiyati shulki, kishining nasl va urug‘ini ko‘paytirib yuboradur. 2-xosiyati shuki, kalimai ummati Muhammadiya ko‘payadur. Bulardan ham boshqa xosiyati juda ko‘p. Agar siz, masalan, 4 ta

xotun olsangiz, har qaysi xotiningiz loaqal 4 ta, 5 ta tug‘kanda ham, bir uy qarasangiz, o‘n bola-chaqangiz bir gala bo‘lib qolubdur.

Uzoqboy (ishonib): – Xo‘, shunday, shunday. Ba’zi odamlar 5 ta xotun olurlar. Bu ham shariatda tuzuk ekan-a?

Eshonbobo: – Xo‘, tuzuk. 4-xotunni so‘fi qilib qo‘ygan kishi 5-xotun olsa mumkin. Tilsovboy hojani boquvchi 5-xotuni bo‘lgan edi. Hali hazrat eshonimizni ham 5 ta xotunlari bor. Eshon qozimizni ham 5 ta xotunlari bor, derlar...

(Bir oz o‘ylab.) Ha!.. Ko‘b xotun olmoqning yana bir yaxshiligi shulki, kishi aslo muhtojlikka qolmaydur. Chunki xotun toifasining har qanday yaramasi ham 1–2 hunarni bilaturg‘on bo‘ladur. Chunonchi, do‘ppi tikish, ishtonbog‘ to‘qish va shunga o‘xshagan hunarlar. Eri kambag‘alroq bo‘lgan xotunlar ana shunday hunarlar orqasidan o‘zlarini ham, erlarini ham boqa berarlar.

(Iftixor ila.) “Hali bizni kichik xotunimiz haftada birta-ikkita to‘n tikib, o‘zi bozorga eltib sotub keladur. Shuni foydasidan o‘zini bola-chaqalari bilan baxuzur boqib yuradur” dialogida ham davr muhiti ko‘rsatib berilgan. Ya’ni ko‘p xotinlik, xotin ustiga xotin olish va bu borada, xotin-qizlarning fikrini inobatga olmaslik xalq orasida “urf”ga aylangandi. Qo‘li biroz pul ko‘rib, o‘zini idora qilolmay qolgan erkaklarning ko‘pi bekorchilik uchun ham yangi xotin olish istagiga tushishardi. Mazkur holat xalq orasida hurmatga sazovor shariat ulamolari tomonidan qoralanish, bu yo‘ldan qaytarilish va bir ayol bilan murosa-yu madora qilib yashashga da’vat qilish o‘rniga hatto qo‘llab-quvvatlangan.Yuqorida keltirilgan parchada Eshon bobo tomonidan aytilgan: “Ko‘b xotun olmoqning xosiyati juda ko‘b, bolam” jumlasining o‘ziyoq shariat peshvolarining holatga munosabatini ko‘rsatib beradi. Yoki: “Hali hazrat eshonimizni ham 5 ta xotunlari bor. Eshon qozimizni ham 5 ta xotunlari bor, derlar...” so‘zlariga e’tibor qaratsak, xalq orasida ko‘p xotinlikni boshlab beruvchi va hatto uning targ‘ibotchisi sifatida turli eshon-u hojilar, xalq orasida ko‘zga ko‘ringan “shariat peshvolari” ekanligining guvohi bo‘lamiz.

Shuningdek, Hamzaning “Zaharli hayot yoxud ishq qurbonlari” dramasida ham mazkuz holat takrorlaninb, Mahmudxon va Abdiqodirboy o‘rtasida bo‘lib o‘tgan: Mahmudxon (hayron bo‘lib). Hazrat eshonning xotinlari bor edi-ku?

Abdiqodirboy. Bor, bitta emas oltita, hozir oltiariqlik oyimlar o‘ldilar, beshta bor.

Mahmudxon: – Oltita ekan, buni nima qiladilar endi?

Abdiqodirboy: – Ey boybachchaxon! Siz yoshda hali, tekin nazr bo‘lgandan keyin, kim olmaydi deysiz! Avval shunday hazrat eshonlardan ish ketganda! Bo‘lmasa, bir oyog‘lari go‘r og‘ziga borib qolgan bu kishiga kim qo‘ydi yana muncha yosh xotinni! dialogida ham yuqoridagi kabi holat yanada kuchli tarzda tasvirlangan.

Berilgan parchalardan kelib chiqadiki, ko‘p xotinlik o‘sha davrda ayollar hayotiga chaqirtikanakdek yopishib olgan muammolardan biri edi. Zamon erkaklari esa bu holatga nuqta qo‘yish o‘rniga yanada avj oldirish payida edilar. Jadid ma’rifatparvarlari esa bu holning jamiyatni ichdan qo‘poruvchi salbiy holat ekanligini anglagan holda, unga o‘zgartirish vaqti kelganini nafaqat anglaganlar, balki targ‘ib ham qilganlar.

Jadid dramaturgiyasida xotin-qizlar erksizligining yana bir eng og‘riqli ko‘rinishlari sirasida erta va majburiy nikoh masalasi tasvirlanadi. XX asr boshlari Turkiston hayotida qizlarni erta yoshdan va ularning roziligisiz turmushga berish holatlari odatiy tusga kirgan, bu esa ko‘plab ayollarning fojiaviy qismatiga sabab bo‘lgandi. Jadid dramaturglari bu muammoni dramatik konflikt markaziga olib chiqib, eskicha qarash va jaholatning salbiy oqibatlarini ko‘rsatib berishga harakat qilganlar.

Jadidlar nazarida majburiy nikoh inson erkinligiga zid bo‘lgan ijtimoiy illatlardan biri bo‘lib, bunday nikohlarda yoshlarning his-tuyg‘usi, orzu-intilishlari va shaxsiy huquqlari inobatga olinmas edi. Ayniqsa, qizlarning ota-ona yoki jamiyat bosimi ostida turmushga chiqarilishi ayolning jamiyatdagi ojiz va ilojsizligini ko‘rsatardi. Shu sababdan dramaturglar bu mavzuni sahna orqali yoritib, xalqning fikrlash tarzini o‘zgartirishga harakat qilganlar.

Hamzaning “Zaharli hayot” dramasida majburiy nikoh – sevgi erkinligini cheklovchi va fojiaga olib keluvchi asosiy omillardan biri sifatida tasvirlanadi. Asarda ilm va savodga tashna yoshlarning yangicha hayot va bu yo‘lda go‘zal orzularga to‘la ekanligi, shuningdek, yoshlarning shaxsiy hayotini mustaqil qura olmasligi, eskicha qarashlarning inson taqdirini izdan chiqarishi yoritib berilgan. Asar davomida Maryamxonning majburlab eshonga uzatilishi va yoshlarning o‘z orzulariga yeta olmaganliklarining guvohi bo‘lamiz.

Jadid dramalaridagi qahramonlarga e’tibor qaratsak, ularning aksari juda erta va asosan, majburiy tarzda uzatilganining guvohi bo‘lamiz, jumladan:

Hamzaning “Zaharli hayot yoxud ishq qurbonlari”ida Maryamxon 17 yosh; Abdulla Badriyning “Juvonmarg”ida To‘tioy 16 yosh; Cho‘lponning “Yorqinoy”ida Yorqin 18 yosh; Hoji Muinning “Mazluma xotin” dramasida Suyaroy 18 yoshda va ular o‘z xohishiga ko‘ra emas, balki ota-onasining istaklari, asosan, otalarning majburlashi bilan oila qurishadi. Dramaturg erta va majburiy nikoh sahnalari orqali nafaqat bir insonning baxtsizligi, balki butun jamiyatning ma’naviy tanazzulini anglatishga harakat qiladi.

Hoji Muinning “Mazluma xotin” dramasida ham ayolning oilaviy masalalarda o‘z fikrini erkin bildira olmasligi, erkak hukmron muhitda shaxsiy xohishlar inobatga olinmasligi kabi holatlar yoritiladi. Shariatda erkak kishi 2-xotin olish istagida bo‘lsa, avval 1-xotinidan ruxsat so‘rashi, u rozi bo‘lgan taqdirdagina erkakning ikkinchi bor uylanishiga izn berilishi yoritiladi. Ammo bu davr erkaklari ruxsat so‘rash tugul, hatto o‘z ahli ayollarini ogohlantirishni istamaydilar. Bu holat “kata sallali ulamolar” tomonidan to‘g‘rilanish o‘rniga hatto qo‘llab-quvvatlangan.

Abdulla Badriyning “Juvonmarg” dramasida eskicha urf-odatlar va majburiy qarorlar inson taqdirini fojiaviy yakunlashi realistik ruhda tasvirlanadi.

To‘tioy hali juda yosh, ammo o‘y-xayollari orzu-umidlarga to‘la, tengqurlariniki kabi hayotni o‘ziga ravo ko‘rmaydigan, ya’ni ilm olishni, mustaqil qaror qabul qilishni istovchi qiz. Ammo otasi qizning fikri bilan zarracha qiziqmaydi. Hamyonini qappaytirish maqsadida qizini boy bir insonga “pullaydi”. Toshfo‘lot: – Oy, jo‘ra! San nima deysan hali!..Har odamning o‘ziga o‘z dardi zo‘r. Sanga manim uskuna, xotunum ham qizim ko‘zingta ko‘runar. Man bularning barchasidan bezorman. San uskuna deysan. Uskunani man nima qilay? Man uni sevolmasam, sotolmasam. Manga bir pullik foydasi ham bo‘lmagandan so‘ngra uskunani boshimga uraymi?.. Xotunum bo‘lsa, xotinimning zarardan boshqa hech bir foydasi yo‘q. Topgan molni yeb yotmoqdan boshqa ishka yaramaydur. Balki kasofati ko‘broqdur. Qizim bo‘lsa, qizimning bir nav foydasi bo‘ldi-ku, lekin undan kelgan foyda ham bebaraka bo‘ldi. Kuyovdan olgan pullarning hammasini shamol yedi.

To‘xtamurod: – Ol-ha!.. “Ertaga nikoh to‘yi bo‘ladur-u, ertaga to‘yga kelasan”. Shul ham gap bo‘ldimi?.. San manim bir yaqin jo‘ram bo‘lub turub, avval manga xabar berishing lozim edi… Voqean, san qizingni kimga berding?..

Toshpo‘lot : – Akram kanturga berdim, jo‘ra...

To‘xtamurod: – Akram kanturga?.. Ey, unday bo‘lsa, tuzuk ekan bo‘lmasa. Akram kanturga bergan bo‘lsang, yaxshi qilibsan. Akram kantur shahrimizning yaxshi ham obro‘yi odamidur. Yaxshi odam topibsan. Qancha pul olding? Biron o‘n ming tanga oldingmi?..

Toshpo‘lot: – O‘n ming tanga?.. Yo‘q, o‘n ming tanga qaysi go‘rga?.. O‘n ming tanganing yarmi desang durust.

To‘xtamurod: – O‘n ming tanganing yarmi, besh ming tanga! Ul ham durust pul. Besh ming olgan bo‘lsang, yaxshi qilibsan. Endi, jo‘ra, shuncha pul olibsan. Bizni bir ziyofat qilgin oxir! Qani, biron dyujina piva oldur...

O‘z qizini shuncha yil tarbiyalab, voyaga yetkazgani evaziga boy insonga turmushga berish orqali moddiy boyishni maqsad qilgan otalarning ayanchli ahvoli dramaturg tomonidan qattiq qoralanganligi keltirilgan parchadan ham ko‘rinib turibdi.

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, jadid dramaturgiyasida xotin-qizlar erksizligi masalasi jamiyat taraqqiyotiga to‘g‘anoq bo‘layotgan eng muhim ijtimoiy muammolardan biri sifatida ko‘rsatiladi. Dramaturglar bu og‘ir qismatni tasvirlash orqali Turkiston hayotidagi jaholat, mutaassiblik, ilmsizlik va eskicha qarashlarning salbiy oqibatlarini ochib berishga harakat qilganlar. Ijodkorlar ayolning baxtsiz qismati orqali eskicha urf-odat va patriarxal muhitni keskin tanqid qilib, xalqni ma’rifat va taraqqiyot sari chorlab, xotin-qizlarning ilmli, keng fikrli va erkin bo‘lishini va bu yo‘lda erkaklar tomonidan qo‘llab-quvvatlovning muhim ekanligini ta’kidlaydilar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Hamza H. Niyoziy. Zaharli hayot. – Toshkent, 1915.
2.Qosimov B. Milliy uyg‘onish va jadid adabiyoti. – Toshkent, 2004.
3. Rizayev Sh. Jadid dramasi. – Toshkent, 1997.

Ozoda CHORIYEVA,
O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti magistranti,
e-mail: ozodachorieva62@gmail.com,



MUHOJIR AYOLLAR OBRAZINING OMMAVIY AXBOROT VOSITALARIDAGI TALQINI

Annotatsiya: maqolada xalqaro migratsiyaning “ayollashuvi” jarayonida ommaviy axborot vositalarida muhojir ayollar obrazining qurilishi sotsiologik va axloqiy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotning maqsadi fojiani tovarlashtirish, “jabrlanuvchini ayblash” illatlarini ochib berish va konstruktiv jurnalistika orqali muammolarni bartaraf etish bo‘yicha amaliy takliflar ishlab chiqishdir.

Kalit so‘zlar : *migratsiya, muhojir ayollar, ramkalash nazariyasi, jabrlanuvchini ayblash, raqamli mahalla, media etikasi.*

Аннотация:в статье анализируется формирование образа женщин-мигрантов в СМИ в условиях «феминизации» миграции с социологической и этической точек зрения. Цель исследования – выявление коммерциализации трагедий, виктимблейминга и разработка практических рекомендаций по решению этих проблем посредством конструктивной журналистики.

Ключевые слова: *миграция, женщины-мигранты, теория фрейминга, виктимблейминг, цифровая махалля, медиаэтика.*

Annotation: the article analyzes the media framing of migrant women amidst the “feminization of migration” from sociological and ethical perspectives. The research aims to expose the commodification of trauma, victim-blaming, and develop practical recommendations to address these issues through constructive journalism.

Key words: *migration, migrant women, framing theory, victim-blaming, digital mahalla, media ethics.*

Kirish. Mavzuning dolzarbligi: globallashuv jarayonlari insoniyat sivilizatsiyasining barcha jabhalarini qamrab olgan bugungi kunda migratsiya eng dolzarb va serqirra ijtimoiy-siyosiy hodisalardan biriga aylandi. Xalqaro Migratsiya Tashkilotining (IOM) ma’lumotlariga ko‘ra, dunyo bo‘ylab xalqaro migrantlar soni 300 milliondan oshgan[1]. Ushbu global harakatlanish fonida zamonaviy ommaviy axborot vositalari shunchaki statistikani qayd etuvchi vosita emas, balki ijtimoiy fikrni shakllantiruvchi, siyosiy qarorlarga ta’sir o‘tkazuvchi va jamiyatning axloqiy qadriyatlarini belgilovchi qudratli institutga aylandi. Demografik va ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlardagi fundamental tendensiyalardan biri bo‘lgan migratsiyaning “ayollashuvi” (feminization of migration) fonida media diskursida muhojir ayollar huquqlari va ularning ijtimoiy portretining noto‘g‘ri yoritilishi mazkur tadqiqotning dolzarbligini belgilab beradi.

Tadqiqotning maqsadi va vazifalari: ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi OAVda migratsiyaning eng nozik qatlami hisoblangan muhojir ayollar obrazining shakllanishidagi sotsiologik va axloqiy muammolarni xorijiy (Turkiya) hamda milliy (O‘zbekiston) axborot makoni misolida qiyosiy o‘rganishdan iborat. Shunga muvofiq, OAVda fojiani tovarlashtirish, “jabrlanuvchini ayblash” (victim-blaming) va “axloqiy vahima” kabi kognitiv illatlarning kelib chiqish sabablarini ochib berish asosiy vazifa etib belgilandi.

Ilmiy yangiligi: ilk bor O‘zbekiston media makonidagi ayollar migratsiyasiga doir diskurs xalqaro mass-media tadqiqotlarining klassik nazariyalari – “Kun tartibini belgilash” (Agenda-setting), “Ramkalash” (Framing) va “Kesishuvchi kamsitishlar” nazariyalari metodologiyasi asosida yechimlarga asoslangan jurnalistika prizmasi orqali kompleks tahlil qilindi.

Asosiy qism. Tadqiqot metodlari: maqolada sifat va miqdoriy tahlil, kontent-tahlil, diskurs-tahlil hamda qiyosiy tipologizatsiya metodlaridan foydalanildi. Xususan, O‘zbekiston va Turkiya axborot maydonidagi 2023-2025-yillarga oid maqolalar, tok-shoular va yangiliklar xronikasi qiyosiy o‘rganildi.

Erishilgan natijalar va muhokama:OAVning voqelikni qanday yoritishini ilmiy tahlil qilishda sotsiolog E. Goffman va R. Entmanlar tomonidan rivojlantirilgan “Ramkalash” (Framing) nazariyasiga tayanish maqsadga muvofiqdir[2]. Nazariyaga ko‘ra, media voqeaning ma’lum jihatlarini bo‘rttirib, boshqalarini yashiradi. Ayniqsa, huquqshunos Kimberli Krenshou tomonidan ilgari surilgan “Kesishuvchi kamsitishlar” (intersectional discrimination) tushunchasi asosida qaraganda, muhojir ayollar bir vaqtning o‘zida ham gender omili (ayol bo‘lgani uchun ekspluatatsiya), ham etnik omil (xorijlik bo‘lgani uchun irqchilik), ham sinfiy omil (kambag‘allik) tufayli murakkab kamsitishga uchraydilar[3].

O‘zbekistonlik muhojir ayollar muammolari qabul qiluvchi davlatlar va milliy OAV makonida butunlay farqli ramkalarda talqin qilinadi.

Turkiya mediakontentida epizodik ramkalash va fojiani tovarlashtirish: Turkiya bosh matbuoti xotin-qizlarga nisbatan zo‘ravonliklarni yoritishda fojiani tovarlashtirish (Commodification of trauma) va Epizodik ramkalash amaliyotidan foydalanadi. Qotillik va zo‘ravonliklar tizimli muammo sifatida emas, balki “kesilgan bosh”, “qiymalangan jasad” kabi dahshatli

1 IOM. World Migration Report 2026 // Geneva: International Organization for Migration. – 2026. URL: https://publications.iom.int/books/world-migration-report-2026 (murojaat sanasi: 13.05.2026).

2 Goffman E. Frame Analysis: An Essay on the Organization of Experience. – Harvard University Press, 1974. – 586 p.

3 Crenshaw K. Demarginalizing the Intersection of Race and Sex: A Black Feminist Critique of Antidiscrimination Doctrine, Feminist Theory and Antiracist Politics // University of Chicago Legal Forum. – 1989. – P. 139-167.

detallar orqali klikbeyt sifatida sotiladi[4]. Xabarlar epizodik ramkaga olinadi: fojia yuz beradi, shok uyg‘otiladi va unutiladi. Himoyasizlik va qonunchilikdagi bo‘shliqlar tahlil qilinmaydi. Shuningdek, matbuotda “Boshqalashtirish” (Othering) siyosati asosida qurbon ko‘pincha shunchaki “O‘zbek ayoli” deb atalib, vahshiylik xuddi turk jamiyatiga tegishli emasdek, faqat xorijliklar orasidagi yakkalangan hodisadek ko‘rsatiladi. Eng achinarlisi, qotilning iqroriga urg‘u berish orqali muhojir ayolni jamoatchilik ko‘zida an’analarni buzgan jinoyatchi sherigiga aylantirib qo‘yish, ya’ni “Victim-blaming” kuzatiladi.

O‘zbekiston milliy mediasida axloqiy vahima va raqamli mahalla: agar xorij mediasida migrant ayol epizodik kriminal obyekt bo‘lsa, milliy axborot makonida u ijtimoiy-axloqiy inqiroz markazi sifatida talqin etiladi. Stenli Koenning “Axloqiy vahima” (Moral panics) nazariyasi asosida, media chet elda halol mehnat qilayotgan ayollarni chetga surib, faqat jinoyatga aralashgan qatlam fojiasini sensatsiya qiladi [5].

Sotsiolog R. O‘rinboyevning ta’kidlashicha, xorijga ketgan o‘zbeklar onlayn makonda “Raqamli mahalla” (Digital Mahalla) shakllantirib, muhojir ayollarni internet orqali qattiq nazorat qilmoqda[6]. Ayollarni ko‘chada ta’qib qilib, so‘roqqa tutib yuzini ko‘rsatib videoga olish (“samosud”) amaliyoti kiberbulling va nafrat tilini qonuniylashtirmoqda.

Bunga qo‘shimcha ravishda, rasmiy OAVlarda “aldangan ayol vatanga qaytarildi” kabi xabarlar ko‘paygan.Bu paternalistik (otlarcha g‘amxo‘rlik) yondashuv xotin-qizlarni iqtisodiy agent emas, balki ojiza qurbon darajasida qoldiradi va muammoning ildizi yopig‘lik qozonda qolib ketadi.

Shunga qaramay, milliy makonda ijobiy siljishlar mavjud. *Migrant.uz* kabi tahliliy portallar ayollarning mehnat bozoridagi qiyinchiliklarini yuridik asosda va fakt-cheking orqali e’tiborga olib chiqmoqda. “Rossiyada migrant ayollar nega bolasidan voz kechishadi?”[7] kabi materiallar ayollarni qoralash o‘rniga tizimdagi huquqiy byurokratiyani ochib bera oldi.

Xulosa. Natijalarni umumlashtirish: ayollar migratsiyasi quruq davlatlararo kelishuvlar yoki statistika bilan hal qilinadigan mexanik jarayon emas. U jamiyatning madaniy, axloqiy va sotsiologik qatlamlarini larzaga keltiruvchi murakkab hodisadir. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, ommaviy axborot vositalari bugungi kunda muhojir ayollarni patriarxal qoliplarga soluvchi axloqiy vahima va jabrlanuvchini ayblash (victim-blaming) an’analaridan mutlaqo voz kechishi shart.

Tavsiya va takliflar: EJN (Ethical Journalism Network) talablariga asosan, OAV quyidagi axloqiy prinsiplarni o‘zlashtirishi taklif etiladi[8]:

1. “Zarar yetkazma” (Do no harm) va maxfiylik tamoyiliga qat’iy amal qilib, qurbonlarning yuzi va ismi-sharifi anonimligini saqlash.

2. “Noqonuniy migrant” iborasi o‘rniga “hujjatsiz” yoki “tartibga solinmagan” kabi inson qadr-qimmatini toptamaydigan terminologiyaga o‘tish.

3. Raqamli savodxonlikni oshirish: OAV faqatgina fojialarni emas, balki ishonch telefonlari, yuridik klinikalar va inqiroz markazlari haqidagi ma’lumotlarni uzluksiz berib borishi talab etiladi.

Keyingi tadqiqot yo‘nalishlari: kelajakdagi ilmiy izlanishlarda muhojir ayollar obrazini shakllantirishda bevosita neyrotarmoqlar va sun’iy intellekt (algoritmlar) yaratayotgan aks-sado xonalarining (echo chambers) o‘rnini sotsiologik o‘rganish maqsadga muvofiqdir.Faqatgina “Yechimlarga asoslangan jurnalistika” prinsiplariga o‘tish hamda ayollarni jamiyatga sarmoya olib kiruvchi iqtisodiy agent sifatida e’tirof etish orqaligina media o‘zining chinakam insonparvarlik missiyasini bajara oladi.

4 Aynı evde ikinci dehşet yaşandı: Özbekistanlı 2 kadını öldüren şüpheliler adliyeye sevk edildi // Hürriyet gazetesi. – 2024. URL: https://www.hurriyet.com.tr/gundem/ayni-evde-ikinci-dehset-yasandi-ozbekistanli-2-kadini-olduren-supheliler-adliyeye-sevk-edildi-43107143

5 Cohen S. Folk Devils and Moral Panics: The Creation of the Mods and Rockers. – London: Routledge, 2011. – 344 p.

6 Urinboyev R. Transnational Mahalla: Uzbek Migrants in Russia and the Invention of Social Control. // Migration, Transnationalism, and Social Change in Central Asia. – Washington D.C., 2018. – P. 25-30.

7 Rossiyada migrant ayollar nega bolasidan voz kechishadi? // Migrant UZ axborot-tahliliy portalining rasmiy YouTube kanali. – 2025. URL: https://www.youtube.com/watch?v=YxWhOqsO0Mc

8 Ethical Journalism Network (EJN). Media Guidelines on Migration Reporting. – London, 2020.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. IOM. World Migration Report 2026 // Geneva: International Organization for Migration. – 2026. URL: https://publications.iom.int/books/world-migration-report-2026

2. Cohen S. Folk Devils and Moral Panics: The Creation of the Mods and Rockers. – London: Routledge, 2011. 344-p.

3. Crenshaw K. Demarginalizing the Intersection of Race and Sex: A Black Feminist Critique of Antidiscrimination Doctrine, Feminist Theory and Antiracist Politics // University of Chicago Legal Forum,1989.139-167-p.

4. Goffman E. Frame Analysis: An Essay on the Organization of Experience. – Harvard University Press, 1974.586-p.

5. Urinboyev R. Transnational Mahalla: Uzbek Migrants in Russia and the Invention of Social Control // Migration, Transnationalism, and Social Change in Central Asia. – Washington D.C., 2018.25-30-p.

6. Ethical Journalism Network (EJN).Media Guidelines on Migration Reporting. – London, 2020.

7. Rossiyada migrant ayollar nega bolasidan voz kechishadi? // *Migrant.uz* axborot-tahliliy portalining rasmiy YouTube kanali, 2025. URL: https://www.youtube.com/watch?v=YxWhOqsO0Mc

8. Aynı evde ikinci dehşet yaşandı: Özbekistanlı 2 kadını öldüren şüpheliler adliyeye sevk edildi // Hürriyet gazetesi, 2024. URL: https://www.hurriyet.com.tr/gundem/ayni-evde-ikinci-dehset-yasandi-ozbekistanli-2-kadini-olduren-supheliler-adliyeye-sevk-edildi-43107143

Navro‘za RAXIMOVA,
Farg‘ona davlat universiteti
Adabiyotshunoslik (o‘zbek) yo‘nalishi
2- kurs magistri

ASAD DILMURODNING “PAHLAVON MUHAMMAD” ROMANIDAGI AYOL OBRAZLARINING MILLIY XARAKTERNI OCHISHDAGI O‘RNI

Annotatsiya: mazkur maqolada Asad Dilmurodning “Pahlavon Muhammad” romanidagi ayol obrazlarning badiiy vazifasi hamda milliy xarakterni ochishdagi o‘rni qisqacha tahlil qilinadi. Ayol obrazlar orqali davr muhiti, milliy qadriyatlar va insoniy munosabatlarning aks ettirilishi bayon etiladi.

Kalit so’zlar: *milliy xarakter, vafo, sadoqat, timsol, Zulfizar, Gulsadaf, Mohinur.*

Аннотация: в данной статье кратко анализируется художественная функция женских образов и их роль в раскрытии национального характера в романе “Pahlavon Muhammad” Asad Dilmuroda. Через женские образы раскрываются особенности эпохи, национальные ценности и человеческие взаимоотношения.

Ключевые слова: *национальный характер, верность, преданность, образ, Зульфизар, Гулсадаф, Моҳинур*

Annotation: this article briefly analyzes the artistic function of female characters and their role in revealing the national character in “Pahlavon Muhammad” by Asad Dilmurod. Through female images, the atmosphere of the period, national values, and human relationships are reflected and interpreted

Key words: *national character, loyalty, devotion, image, Zulfizar, Gulsadaf, Mohinur*

Badiiy adabiyotda milliy xarakter tushunchasi har bir xalqning o‘ziga xos ruhiyati, qadriyatlari va dunyoqarashini aks ettiruvchi muhim mezonlardan biridir. Ayniqsa, tarixiy va ijtimoiy yo‘nalishdagi romanlarda milliy xarakter masalasi markaziy o‘rin egallaydi. “Pahlavon Muhammad” romanida ham muallif xalq hayoti, urf-odatlari, ijtimoiy muhit va qahramonlar xarakteri orqali milliylikni chuqur va badiiy asosda ochib beradi. Asarda milliy xarakter faqat bosh qahramon timsolida emas, balki butun voqealar tizimi, ijtimoiy muhit, xalq turmush tarzi va ruhiy kechinmalar orqali kompleks tarzda ifodalanadi. Shu jihatdan roman milliy ruhni aks ettirishda muhim badiiy manba hisoblanadi.

Asarda ayol obrazlari milliy xarakter masalasini ochishda muhim rol o‘ynaydi. Ular sabrli, matonatli va oilaparvar sifatida tasvirlanadi.Ayollar erkaklarga ma’naviy tayanch bo‘lib xizmat qiladi, oilaviy qadriyatlarni asrab-avaylaydi. Bu esa milliy xarakterda ayolning o‘rni va ahamiyatini ko‘rsatadi.Biz bu asarda Zulfizar, Gulsadaf, Mohinur kabi ayollarga duch kelamiz.

Asardagi asosiy qahramonlardan biri bo‘lgan Zulfizar tijoratchi Jamshid Pirning yakka-yu yagona qizi edi.Pahlavon bir ko‘rgandayoq unga oshiq bo‘ldi.Qizda malikalarga xos iymanish, nozlanish bilan birga erkaklarga xos shaxd va ishtiyoq bor edi. U boshqa qizlardan ajralib turardi. Sharttaki bo‘lishiga qaramay,otasini juda hurmat qilar va uning so‘zidan chiqmas edi.Bir necha marta ko‘rishganiga qaramay ikki qalbda bir umrga tatigulik muhabbat barg yozdi.Bu o‘tli sevgi visol bilan yakunlanmagan bo‘lsa-da,yigit unga o‘limiga qadar sodiq qoldi. Jamshid Pirning o‘ldirilishi,qizi Zulfizarni esa sulton Abu Said xaramiga tuhfa qilinishi uni butunlay aqldan ozdirdi.Qanchalik qidirmasin topolmadi.Sultonning yurishlari chog‘ida otlar oyog‘i ostida qolib ketganligini eshitgandan so‘ng bor umidini uzdi, lekin o‘sha payt Zulfizarni qutqarishgan edi.Faqat uning ismi o‘zgargan,o‘zi esa boshqa insonning jufti haloli edi.*”Ajabo,boshi ari ini kabi tinimsiz g‘uvillar,butun borlig‘i qaynoq terga g‘arq edi,g‘arq! Qancha muddat yumshoq to‘shakka es-xushini yo‘qotgan ko‘yi parishonxol o‘tirdi. Hayhot! Sira aqlga sig‘maydi,nahotki Opoq beka har neki quvonchi,har neki g‘amini o‘zi bilan yo‘qlik sari olaketgan Zulfizar bo‘lsa.”[1]* Zulfizar o‘ziga xos sabr va matonat timsoli sifatida gavdalanadi. Uning boshidan kechirgan sinovlari — otasining fojiali o‘limi, majburiy tarzda begona muhitga tushib qolishi, yoridan judo bo‘lishi — bularning barchasi uning ichki dunyosini yanada mustahkamlaydi. Bu jihatlar o‘zbek ayoliga xos bo‘lgan bardoshlilik, chidamlilik va taqdirga tan berish kabi milliy fazilatlarni yaqqol namoyon etadi.Asarda Zulfizar obrazi orqali muallif o‘zbek ayolining nafaqat oilaparvar, balki ma’naviy jihatdan kuchli shaxs ekanini ko‘rsatadi. U har qanday og‘ir vaziyatda ham o‘z sha’ni va or-nomusini saqlab qolishga intiladi. Bu esa milliy xarakterda muhim o‘rin tutuvchi iffat, hayo va vafodorlik tushunchalarining badiiy ifodasidir. Zulfizar timsolida yana bir muhim jihat — ota-onaga hurmat masalasi ham alohida ko‘zga tashlanadi. U otasining har bir so‘zini qonun deb biladi, unga qarshi chiqmaydi. Bu esa milliy qadriyatlarimizdan biri bo‘lgan kattalarga hurmat, ota-onaga itoat tushunchasining badiiy aksidir. Hatto o‘z baxti evaziga bo‘lsa-da, u otasining roziligini ustun qo‘yadi. Bu hol milliy mentalitetimizda oilaning ustuvor o‘rin egallashini yana bir bor tasdiqlaydi. Shuningdek, Zulfizar obrazi orqali ayollarning jamiyatdagi o‘rni ham yoritiladi. U tashqi tomondan nozik va ojizdek tuyulsa-da, ichki jihatdan nihoyatda kuchli, irodali va sabrli shaxsdir. Bu ikki qirrali tasvir o‘zbek ayollariga xos bo‘lgan “noziklik va matonat uyg‘unligi”ni ifodalaydi. Muallif aynan shu orqali milliy xarakterdagi murakkablik va chuqurlikni ochib beradi.

Biroq Zulfizar obrazini faqat sadoqat timsoli sifatida biryoqlama talqin qilish to‘liq bo‘lmaydi. Uning hayotida shunday murakkab

vaziyat yuzaga keladiki, u o‘zini qutqargan insonga turmushga chiqishga majbur bo‘ladi. Bu qaror zamirida muhabbat emas, balki o‘zbekona qadriyatlardan biri — “jon qarzi”, ya’ni yaxshilikka yaxshilik bilan javob qaytarish tushunchasi yotadi.Zulfizar o‘zini halokatdan asragan inson oldida o‘zini qarzdor deb biladi va shu bois o‘z taqdirini unga bog‘laydi. Bu holat milliy xarakterimizga xos bo‘lgan vijdon, minnatdorlik va insoniy burchni hamma narsadan ustun qo‘yish kabi fazilatlarni ifodalaydi. U o‘z shaxsiy baxti va qalbidagi muhabbatni emas, balki qarzdorlik hissini ustun qo‘yadi.Aynan shu sababli u Pahlavon Muhammadga tirikligi haqida xabar bermaydi. Bu esa uning bevafo yoki unutuvchan ekanini emas, balki ichki iztirob va ma’naviy tanlov oldida qolganini ko‘rsatadi. Zulfizar uchun bu — ikki o‘t orasida qolish: bir tomonda chin muhabbat, ikkinchi tomonda esa insoniylik burchi va or-nomus. U ikkinchisini tanlaydi, chunki milliy ong va tarbiya unda shu qadriyatlarni ustun qilib shakllantirgan.Bu holat o‘zbek ayoliga xos yana bir muhim jihatni — o‘z tuyg‘ularini jilovlay olish, o‘zini qurbon qilishga tayyorlikni namoyon etadi. Zulfizar shaxsiy baxtidan voz kechib, jamiyat va axloq mezonlariga mos yo‘lni tanlaydi. Bu esa uni fojiaviy, ammo yuksak ma’naviyat egasi bo‘lgan obraz darajasiga ko‘taradi.Shu bilan birga, bu qaror Zulfizarning ichki dunyosida tuganmas iztiroblar qoldiradi. U tashqi tomondan burchini ado etgan ayol sifatida yashasa-da, qalban o‘z muhabbatiga sodiq qoladi. Bu ikki qarama-qarshi holat — tashqi itoat va ichki sadoqat — milliy xarakterdagi murakkab psixologik qatlamlarni ochib beradi.

Umuman olganda, asardagi ayol obrazlari, xususan, Zulfizar timsoli milliy xarakter masalasini ochishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. U orqali o‘zbek xalqiga xos bo‘lgan sabr-toqat, vafodorlik, hayo, ota-onaga hurmat va oilaparvarlik kabi fazilatlar badiiy jihatdan yuksak darajada tasvirlangan. Shu sababli ham Zulfizar obrazi nafaqat asar syujetining muhim bo‘lagi, balki milliy ruh va qadriyatlarning yorqin ifodasi sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

Gulsadaf obrazi asarda o‘zbek ayolining yana bir muhim qirrasi — hayotning og‘ir sinovlari qarshisida bukilmaydigan, farzandi uchun yashaydigan ona timsolini ifodalaydi. U eridan beva qolgan, butun borlig‘i bilan yolg‘iz o‘g‘li Darveshmuhammadga suyangan holda hayot kechiradi. Kambag‘allik, yetishmovchilik uning turmush tarzining ajralmas qismiga aylangan bo‘lsa-da, u hech qachon umidsizlikka berilmaydi.Gulsadafning eng katta orzusi — o‘g‘lini uylantirish, uning baxtini ko‘rishdir. Bu holat milliy xarakterimizda muhim o‘rin tutuvchi ona mehri, farzandparvarlik va nasl davomiyligini ta’minlashga bo‘lgan intilish bilan chambarchas bog‘liq. O‘zbek jamiyatida farzandni uylantirish yoki uzatish ota-onaning eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Gulsadaf ham ana shu burchni chuqur his etadi. Biroq uning “qo‘li kaltaligi”, ya’ni moddiy imkoniyatlarining cheklanganligi bu niyatini amalga oshirishda katta to‘siq bo‘ladi. Shunga qaramay, u harakatdan to‘xtamaydi, bor imkoniyatini ishga soladi. Bu esa milliy xarakterga xos bo‘lgan qanoat, sabr-toqat va mehnatsevarlik fazilatlarini yaqqol namoyon etadi. U boylik ortidan quvmaydi, balki boriga shukr qilib, halol mehnat bilan yashashga intiladi.Gulsadaf obrazi orqali yana bir muhim jihat — jamiyatdagi ayolning bardoshliligi va irodasi ochiladi. U erkak suyanchig‘idan ayrilgan bo‘lsa-da, o‘z oilasining tayanchi bo‘lib qoladi. Bu esa o‘zbek ayollariga xos ichki kuch, mas’uliyatni o‘z zimmasiga olish va og‘irlikni mardona ko‘tara bilish xususiyatlarini ifodalaydi.Bundan tashqari, uning o‘g‘liga bo‘lgan munosabatida tarbiya masalasi ham muhim o‘rin egallaydi. Gulsadaf Darveshmuhammadni halol, mehnatkash, odobli inson qilib voyaga yetkazishga harakat qiladi. Bu esa milliy tarbiya asosida shakllangan qadriyatlar — kattaga hurmat, kichikka izzat, halollik va poklik kabi tushunchalarning badiiy ifodasidir.Umuman olganda, Gulsadaf obrazi milliy xarakterdagi ona siymosining yorqin namunasi bo‘lib, unda sabr, qanoat, farzandga fidoyilik, hayot sinovlariga bardoshlilik kabi fazilatlar mujassam. U orqali muallif oddiy xalq vakilasi bo‘lgan ayolning ham yuksak ma’naviy dunyoga ega ekanini, uning ichki kuchi esa butun bir oilaning tayanchi bo‘lishini ta’sirchan tarzda ko‘rsatadi.

Mohinur obrazi asarda yoshlik, nazokat va ichki poklik timsoli sifatida gavdalanadi. U amaldor qizi bo‘lib, muayyan ijtimoiy muhitda, ya’ni nisbatan farovon va tartibli oilada voyaga yetgan. Shu bilan birga, uning xarakterida faqat boylik yoki maqom emas, balki o‘zbek qizlariga xos hayo, ibo va odob kabi fazilatlar ustuvor o‘rin egallaydi.

Darveshmuhammadning Mohinurga ko‘ngil qo‘yishi bejiz emas. Chunki Mohigul nafaqat tashqi go‘zalligi, balki ichki dunyosining pokligi bilan ham ajralib turadi. Mohinur obrazi milliy xarakterimizga xos bo‘lgan “uyatchan muhabbat” tushunchasini ifodalaydi. U Darveshmuhammadga befarq emas, ammo o‘z tuyg‘ularini ochiq-oshkora bayon etmaydi. Bu holat o‘zbek qizlariga xos hayo va andisha bilan bog‘liq. Milliy tarbiyada qiz bolaning kamtar, iboli bo‘lishi, his-tuyg‘ularini jilovlay bilishi muhim fazilat sifatida qaraladi. Mohigul aynan shu qadriyatlar asosida tarbiya topgan obrazdir.

Mohinurning amaldor qizi ekanligi ham muhim jihat hisoblanadi. Bu esa asarda ijtimoiy tabaqalar o‘rtasidagi farqni ko‘rsatadi. Darveshmuhammad oddiy oiladan chiqqan bo‘lsa, Mohinur nisbatan yuqori tabaqaga mansub. Shunga qaramay, u insoniylik, samimiyat va mehr kabi fazilatlarni boy bermagan. Bu orqali muallif milliy xarakter faqat ijtimoiy kelib chiqishga bog‘liq emasligini, balki tarbiya va ma’naviyat bilan belgilanishini ko‘rsatadi.

Demak, ushbu ayol obrazlar orqali asarda o‘zbek ayolining turli qirralari — sadoqat, ona mehri, sabr-toqat, hayo va ma’naviy poklik kabi milliy xarakter belgilarining badiiy talqini ochib beriladi. Bu esa asarning milliy ruhini kuchaytirib, undagi obrazlar tizimining ma’naviy ahamiyatini yanada chuqurlashtiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Asad Dilmurod.Pahlavon Muhammad: – Toshkent: “Sharq”, 2006.
2. Internet ma’lumotlari.

Yulduz CHORIYEVA,
Termiz davlat universiteti magistranti

“O‘TKAN KUNLAR” ROMANIDAGI UNDOVLARNING LINGVOPRAGMATIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada “O‘tk*an kunlar*” romanida qo‘llanilgan undovlarning lingvopragmatik xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida undovlarning badiiy matndagi o‘rni, semantik xususiyatlari, ularning emotsional-ekspressiv, baholovchi va kommunikativ funksiyalari yoritib beriladi. Asardagi qahramonlar nutqida uchraydigan undovlar orqali ularning ruhiy holati, ichki kechinmalari va muallifning badiiy niyati ochib beriladi. Shuningdek, undovlarning kontekstga bog‘liq holda turli pragmatik ma’nolar kasb etishi misollar asosida tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: *pragmatik funksiya, undov, lingvopragmatika, badiiy matn, emotsionallik, pragmatik funksiya, statistik metod.*

Аннотация: в данной статье анализируются лингвистопрагматические свойства восклицаний, используемых в романе «Уткан кунлар». В процессе исследования освещается роль восклицаний в литературном тексте, их семантические свойства, эмоционально-экспрессивные, оценочные и коммуникативные функции. На основе восклицаний, встречающихся в речи персонажей произведения, раскрываются их психическое состояние, внутренние переживания и художественный замысел автора. Также на примерах анализируется усвоение различных прагматических значений восклицаний в зависимости от контекста.

Ключевые слова: *прагматическая функция, восклицание, лингвистопрагматика, литературный текст, эмоциональность, прагматическая функция, статистический метод.*

Annotation: this article analyzes the linguopragmatic properties of exclamations used in the novel “O‘tkan kunlar”. In the process of research, the role of exclamations in the literary text, their semantic properties, their emotional-expressive, evaluative and communicative functions are highlighted. Through the exclamations found in the speech of the characters in the work, their mental state, internal experiences and the author’s artistic intention are revealed. Also, the acquisition of different pragmatic meanings of exclamations depending on the context is analyzed based on examples.

Key words: *pragmatic function, exclamation, linguopragmatics, literary text, emotionality, pragmatic function, statistical method.*

Kirish. Badiiy matnda til birliklari nafaqat axborot yetkazish, balki qahramonlarning ruhiy holati, emotsional kechinmalari va munosabatlarini ifodalashda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Ayniqsa, undovlar nutqning emotsional-ekspressiv bo‘yoqdorligini oshirib, muloqot jarayonida turli pragmatik ma’nolar kasb etadi.

Undovlar fikr bilan birga, so‘zlovchining voqelikka bo‘lgan turlicha emotsional munosabatini, ichki his-hayajonini ifodalovchi vosita hisoblanadi[1]. Shu nuqtayi nazardan undovlar til tizimida alohida o‘rin egallaydi. Ular grammatik jihatdan mustaqil bo‘lsa-da, nutq jarayonida kuchli semantik va pragmatik yuklama bajaradi. Badiiy adabiyotda undovlar alohida stilistik ahamiyatga ega. Xususan, Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” asarida undovlar qahramonlarning ruhiy kechinmalarini ochib berishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Muallif undovlardan unumli foydalanib, obrazlarning ichki dunyosini, ularning hayajonini va munosabatini jonli tasvirlaydi. Natijada, matnning emotsional ta’sir kuchi ortadi. Ular emotsional muloqotning hamma holatlari uchun xizmat qiladi. Yozuvchi ularni qo‘llash qoidasini biladi va bir-biridan ma’nosiga ko‘ra farqlaydi. Undovlar til tizimida insonning ichki kechinmalari, his-tuyg‘ulari, irodaviy munosabatlari hamda muloqotdagi subyektiv bahosini ifodalovchi birliklar sifatida qaraladi. Lingvopragmatik jihatdan undovlar so‘zlovchining ruhiy holatini, adresatga bo‘lgan munosabatini, nutq vaziyatining kommunikativ maqsadini ochib beradi. Shu bois undovlar badiiy matnda qahramon xarakterini ochish, dramatik holatni kuchaytirish hamda voqealar ta’sirchanligini oshirishga xizmat qiladi. Romanda undovlar keng va mahorat bilan ishlatilgan bo‘lib, ular asar qahramonlarining ruhiy kechinmalari va ichki iztiroblarini yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, Otabek, Kumush, Zaynab, Yusufbek hoji, Jannat, Usta Alim, Homid kabi obrazlar nutqida undovlar orqali turli psixologik holatlar ifodalanadi. Qahramonlar nutqidagi undovlarni quyidagicha tasniflash mumkin:

Hayrat-ajablanish: ey-ha, aaa, ha-a-a, Iyi-iyi, ey-ha, xo‘sh;

Iztirob: uff, ohh;

Afsus, achinish: voy, Voy-bayov, eh;

Quvonch: ha-ha-a! ha-ha-ha, xa-xa-xa, qi-xi, xi-xi, qix, ey-y-y;

Ikkilanish: haytovur;

Iltijo: oh;

G‘azab: tuf-e, obba (*padar la’nati*);

Savol: aaa, iyi-iyi;

Murojaat: ey, hoy;

Maqtov: barakalla;

Niyat va umid: ilohi;

1 Hakimov M. O‘zbek pragmalingvistikasi asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2013. 64-b.

E’tiborni jalb qilish va suhbatni boshlash: xo‘sh, qalay, xo‘sh-xo‘sh;

Duo, diniy so‘zlar: yo ollo, ilohi, inshoolloh, alhamdulillah, astag‘firulloh, subhonolloh, tavba;

Og‘riq, iztirob: oh, ah kabi emotsiyalar yetkaziladi.

Hayrat va quvonchni ifodalovchi *“voy*!”, *“oh*!” kabi undovlar qahramonlarning kutilmagan voqeaga bo‘lgan munosabatini bildirib, nutqqa jonlilik bag‘ishlaydi. Bir o‘rinda *‘‘voy’’* undovi hayrat va quvonchni, boshqa o‘rinlarda afsus, iztirob, g‘azab kabi bir qancha ma’noni ifodalaydi. Masalan, *‘‘– Voy, sho‘rginamga sho‘rva to‘kilsin, Kumush! – dedi Gulsin, – men shunday erni topib tegsam, boshim ko‘kka yetar edi*!’’ Gapda *‘‘voy’’* undovi orqali Gulsin obrazi uchun armon bo‘lgan holatgina emas, balki havas ma’nosi ham aks ettirilgan bo‘lsa, boshqa bir gapda: *‘‘– Voy-bayov taqsir, bu kun ertalabdan beri ko‘ringan qipchoqni so‘yib yuribdilar-ku*!’’ achinish, g‘azab, iztirob kabi ma’nolar anglashiladi. Shuningdek, *‘‘– Voy vahmang qurg‘ir, hoji’’* gapida esa kinoya ma’nosi yuzaga kelgan. Birgina undov so‘zning turli o‘rinlarda turli ma’nolarni ifodalab kelish holatlari romanda ko‘p uchradi. Diqqatni so‘zlovchiga qaratish, e’tiborni jalb qilish uchun *‘‘hoy’’* (*–Hoy, posha kelin! – dedi, – bizlar kutib qoldig-a, uyalmang bolam!*), “ey’’ (*– ey singlim, hali sen bilmaysan – dedi, u yigitni bir ko‘rgin-da, hu, deb ketabergin…*). Nutq egasi hissiy kechinmalarini ifodalash jarayonida voqelikka nisbatan emotsional bahosini ham bildirar ekan, bu holat uning kommunikativ maqsadi va istagi bilan bog‘liq holda amalga oshadi. Masalan, *‘‘– Eh, essiz musulmonchiliq, shunchalik ham insofsiz bo‘ladimi, o‘zingning bir emas, ikki xotining bo‘la turib, tag‘in bir yigitning xotiniga ko‘z olaytirish…’’* Undov so‘zlar voqelik nutq egasi tomonidan ideal namuna sifatida baholangan vaqtda ijobiy munosabatni, me’yordan uzoqlashgan hollarda esa salbiy baho munosabatining verbal ifodalovchisi sifatida pragmatik vazifa bajaradi. Bu holat nutq egasining ruhiy holati hamda voqelikni qanday idrok etishi kabilarga ham bog‘liq[2]. Misol uchun, To‘ybeka tilidan ishlatilgan *‘‘– Tuf-e, qurib ketsin, jonim chiqib ketdi-ya*!’’ jumlasida undov so‘z g‘azab va achchiqlanishni ifodalab keladi. Undovlar orqali fojeaviy vaziyat kuchaytiriladi va asarning dramatik ruhi yanada chuqurlashadi. Bular o‘z navbatida, boshqa so‘z turkumlaridan undovga ko‘chgan undovlar ham mavjud. Ularga misol qilib romanda keltirilgan *hormang, bor bo‘ling, esonmisiz-omonmisiz, xayr, marhamat, salom* kabi undovlarni ko‘rsatish mumkin. Undovlar asosan, o‘zi tashiyotgan ma’noni kontekstda namoyon qiladi. Undov bilan qanday his-hayajon ifodalanayotgani ko‘pincha aniq bo‘lmaydi, undovdan keyin (ba’zan oldin) keladigan jumlaning mazmuni undov qanday his-hayajonni ifodalashini, qanday ohangda talaffuz qilinishini ko‘rsatib turadi. Masalan, *‘‘– Ey-y-y, usta Farfi, keling-keling, bormisiz!’’* gapida ey undovi quvonchni ifodalasa, *‘‘– Ey, san bilmaysan, uka!’’* gapida murojaatni, *‘‘– Ey… bek, rahmsizlik bunaqa bo‘lar ekan…’’* achinish ma’nolarini ifodalab kelmoqda.

Romandagi undovlar quyidagi pragmatik funksiyalarni bajaradi:

ekspressiv funksiya – nutqqa hissiy bo‘yoq beradi;

baholovchi funksiya – so‘zlovchining voqeaga nisbatan munosabatini ifodalaydi;

kommunikativ funksiya – dialoglarda muloqotning tabiiyligini ta’minlaydi;

psixologik funksiya – qahramonning ichki kechinmalarini ochib beradi.

Bu tasnifni misollar bilan bersak, *‘‘– Obbo padar la’nati, hali shunaqa ish qildi deng-chi?’’* jumlasida *‘‘obbo’’* undovi muloqotda tabiiylikni ta’minlaydi va kommunikativ funksiyani bajaradi. So‘zlovchining voqeaga nisbatan bahosini esa *barakalla, astag‘firulloh, xudda-xudda, xudda, tavba* undovlarida ko‘ramiz. Misol uchun, *“– Barakalla, – dedi uy egasi va, – menimcha hamma balo o‘zing ko‘rib, suyib uylanishda…”*.

Nutqqa hissiy bo‘yoq berish va qahramonning ichki kechimalarini ochib berishda eh, voy, ah, oh kabi undovlardan foydalaniladi, *‘‘*Og‘irlar teshib oldimg‘a chiqg‘anlarida men nima qilar edim? *Oh*, otajon! Men ajalimdan besh kun burun o‘lar edim.


Asarda qo‘llanilgan undovlarning miqdoriy ko‘rsatkichlarini quyidagi jadval orqali ifodalash mumkin:

Undov so‘zlarning funksional turlari	Eng ko‘p qo‘llangan variantlar	Foiz ulushi
His hayajon undovlari	Oh, aaa, obbo, eh, ah, voy, xi-xi, xa-xa-xa, uf	45%
Buyruq-xitob undovlari	Hoy, qani, xo‘sh, ey	22%
Modal va diniy xarakterdagi undovlar	Barakalla, xayr, rahmat, ilohi, tavba	33%

1-jadval


Asarda jami 200 dan ortiq undov so‘z qo‘llanilgan. Ularning salkam yarmini (45%) his-hayajon undovlari tashkil etadi. Bu holat muallifning qahramonlar ruhiy holatini, ularning ichki kechinmalarini (ayniqsa, Jannat opaning “qix” kulgisi yoki Otabekning “ey” xitoblari orqali) naqadar jonli ifodalaganidan dalolat beradi. Aynan shu o‘rinda his-hayajon undovlarining o‘zining ham ichki statistikasini ko‘rib chiqamiz: *1-rasm.*

2 Umurzakova G. Undov, taqlid va modal so‘zlar pragmatikasi. – Toshkent, 2025. 17-b.



1-rasm. Asosiy undovlar statistikasi

Buyruq-xitob undovlari esa asosan, muloqotni boshqarish va diqqatni jalb qilish funksiyasini bajargan. Shuningdek, ‘‘*ey*’’ undovi his-hayajon guruhining salkam to‘rtdan bir qismini tashkil etadi. Bu muallifning qahramonlar nutqidagi murojaat va hayratni ifodalashda ushbu undovdan universal vosita sifatida foydalanganini ko‘rsatadi. ‘‘*Xi-xi / qix*’’ kabi o‘ziga xos undovlar nisbatan kamroq ulushga ega bo‘lib, asosan, salbiy yoki komik xarakterdagi qahramonlar (masalan, Jannat opa) nutqini individuallashtirishga xizmat qilgan. Modal va diniy xarakterga ega undovlar statistikasi:



2-rasm. Ikkinchi darajali undovlar statistikasi

Romanda *ura, ye, e-e-e, o-o-o*, kabi undovlar ishlatilishi kuzatilmaydi, buning o‘rniga o‘sha davr uchun keng iste’molda bo‘lgan, hozirgi kunda esa ishlatilmaydigan *haytovur*, *xudda-xudda* undovlarini ko‘rishimiz mumkin. Bu shuni anglatadiki, undov so‘zlarning ham eskirishi, ular o‘rniga yangi (*vau, ye-ye*) undovlar paydo bo‘lishi mumkin.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanida undovlar badiiy matnning muhim lingvopragmatik unsuri sifatida namoyon bo‘ladi. Ular qahramonlar ruhiy holatini chuqur ochib berib, asarning emotsional ta’sirchanligini oshirish vazifasini bajaradi. Undovlarning mahorat bilan qo‘llanishi yozuvchining yuksak badiiy tafakkuri va nutq madaniyatini yaqqol namoyon etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qodiriy A. O‘tkan kunlar. – Toshkent: Oltin qalam, 2024. 340-b.
2. Nurmonov A., Sobirov A., Yusupova Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: Ilm ziyo, 2013. 410-b.
3. Hakimov M. O‘zbek pragmalingvistikasi asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2013. 64-b.
4. Obidjonov X. Undov so‘zlarning leksik-grammatik xususiyatlari // Science and innovatsion, 2022. 375-b.
5. Sapayev Q. Hozirgi o‘zbek tili. – Toshkent, 2009. 286-b.
6. Umurzaqova G. Undov, taqlid va modal so‘zlar pragmatikasi. –Toshkent, 2025. 17-b.
7. Safarov Sh. Pragmalingvistika. – Toshkent, 2008. 318-b.

Marjona ESHDAVLATOVA,
SamDU magistranti

“MUVOZANAT” ROMANINING FONOSTILISTIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada Ulug‘bek Hamdam “Muvozanat” romanining fonostilistik xususiyatlari yoritiladi. Tahlil jarayonida distributiv tahlil metodining turlari va til birliklari sistem-struktur xususiyatlarining funksional-stilistikaga ta’siri ham ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: *fonostilistika, distributsiya, to‘ldiruvchi distributsiya, kontrast distributsiya, erkin almashinuv distributsiyasi, qisman ekvivalent distributsiyasi*.

Аннотация: в данной статье исследуются фоностилистические особенности романа Улугбека Хамдама «Мувозанат». В процессе анализа также выявляются типы методов дистрибутивного анализа и влияние системно-структурных особенностей языковых единиц на функционально-стилистику.

Ключевые слова: фоностилистика*, распределение, комплементарное распределение, контрастное распределение, распределение свободного обмена, частично эквивалентное распределение.*

Annotation: this article examines the phonostylistic features of Ulugbek Hamdam’s novel “Muvozanat” The analysis also identifies the types of distributional analysis methods and the influence of the systemic and structural features of linguistic units on functional stylistics.

Key words: *phonostylistics, distribution, complementary distribution, contrastive distribution, free exchange distribution, partially equivalent distribution.*

Butunjahon tilshunosi O.S.Axmanova fonostilistikaga quyidagicha ta’rif beradi: “Fonostilistika – bu stilistikaning so‘zlar va so‘z birikmalari talaffuz variantlarining ekspressiv xususiyatlarini o‘rganuvchi bo‘limidir” [3; 499-b].

Fonostilistika o‘zbek tilshunosligida XX asrning 2-yarmidan o‘rganila boshlandi. Segment birliklar supersegment birliklar bilan uzviy bog‘liq ekan, fonostilistika ham fonologiya va stilistika sohalarining o‘zaro kesishgan nuqtasida yuzaga keldi va *tovush stilistikasi, fonetik stilistika, fonologik stilistika, fonika, stilistik fonetika* kabi nomlar bilan atala boshlandi [3; 12-b].

Shuningdek, badiiy asarning ham qiymatini oshirishda, davr koloritining tasvirini jonlantirishda ham qahramonlar nutqidagi har bir lingvistik hodisalar muhim ahamiyatga ega. Mazkur holatlar bir qancha metodlar bilan yondashuvlar asosida o‘rganiladi. Shulardan biri distributiv tahlil qilish metodi bo‘lib, uning to‘rt turi mavjud:

to‘ldiruvchi distributsiya;
kontrast distributsiya;
erkin almashinuv distributsiyasi;
qisman ekvivalent distributsiyasi.

Badiiy asarda tabiiylikni yuzaga chiqarishda, ya’ni so‘zlashuv uslubidagi so‘zlarning aksentlari orqali qahramonlarning ijtimoiy holati, pozitsiyasi, yashash makoni to‘g‘risida ham ma’lumot berib turadi. Natijada esa ularning nutqi sun’iy emas, balki tabiiy bo‘lib chiqadi, asar mazmunida ham tabiiylik ortadi – badiiylik kuchayadi. Ijodkor ham asar mohiyatini ochib berishda uning badiiyligini oshirish maqsadida ta’sirchanligi kuchli bo‘lgan so‘zlarni topishga harakat qiladi. Badiiy matndagi stilistik fonemalar o‘quvchining talaffuz me’yorlariga moslashadi va ekspressiv-emotsional kayfiyatni uyg‘otadi.

To‘ldiruvchi distributsiyada bir fonemaning allafonlari talaffuz qilinadi, ma’no farqlanmaydi. Og‘zaki nutqda esa turli fonetik muhitda paydo bo‘ladi. Masalan, *Bir mahal eshik taqillab ostonada jiyani Halima aya ko‘rindi* [2; 13-b]. Ushbu jumlada ***bi**r, taq**i**llab, jiyan**i**, ko‘r**i**nd**i*** so‘zlaridagi ***i*** fonemasi qisqa ı tarzida talaffuz qilinadi. *Esh**i**k, j**i**yani, Hal**i**ma* kabi so‘zlarda esa cho‘ziq ***i*** ko‘rinishida artikulyatsiya qilinadi. ***I***ning cho‘ziq talaffuz qilinishi asosan, o‘zlashma so‘zlarda uchraydi. Yozuvchining qisqa va cho‘ziq ***i*** unlisini ketma-ketlikda qo‘llashi romanning o‘ynoqi ritmini shakllantirgan, emotsional-ekspressivlikni ta’minlashga xizmat qilgan. Oqibatda o‘quvchining e’tiborini ham jalb qiladi.

Kontrast distributsiyada har xil fonemalarning allafonlari bo‘lib, ma’no farqlash funksiyasini bajaradi. Masalan, *Ikki do‘st bir zum mum tishlab qoldi* [2; 99-b]. Ushbu gapda kontrast distributsiya bir xil pozitsiyada – so‘z boshida kuzatiladi *(zum – mum).* Ko‘rinib turibdiki, har ikkisining ham ma’nosi aniq ajralib turibdi. Uning yana o‘ziga xos fonostilistik funksiyalari shundaki, *zum – mum* leksemalaridagi paronomaziya o‘quvchida qiziquvchanlik emotsiyasini uyg‘otadi. *-um* tovushlar takrori – assonans va alliteratsiya jumla ichida ichki ritmni hosil qilgan. Bu esa xushohanglikni namoyon qilgan, ya’ni nutqning yoqimli eshitilishiga xizmat qilgan. Tovushlarning o‘zaro o‘xshashligi badiiy matnning ta’sirchanligini oshiradi. Yuzaga kelgan ritm sababli gap ham xotirada tez qoladi, leksemalar o‘rtasida esa tonik urg‘u paydo bo‘ladi.

Erkin almashinuv distributsiyasida ikki xil til birliklari bir o‘rinda kelib, ma’no ham, uslub ham o‘zgarmasdan erkin almashina oladi. Bunday hodisa ko‘proq fonemalarda uchraydi. Ushbu distributsiya quyidagi holatlarda kuzatilmaydi:

– biri adabiy, ikkinchisi shevaga oid, tarixiy yoki eskirgan so‘z bo‘lsa. Masalan, *To‘shakka tushib qolgan, hozir Kenjavoy **ovo**ngnikida (ova – amaki)* [2; 57-b]. Shevaga oid so‘zlar stilistik xususiyatga ega bo‘ladi va bu badiiy matn uchun juda muhim ahamiyatga ega. Muallif leksemani matnga kiritishdan maqsadi shundaki, nutqda milliy rang beradi, reallikni yuqoriga olib chiqishga xizmat qiladi. Qahramonning yashash makoni, uning yoshi va ijtimoiy pozitsiyasi aniqlashadi. Bu esa o‘quvchiga nisbatan yaqinlik hissini beradi hamda asardagi badiiylikni boyitadi. ***Ovrupa**ga kelib, Eyfeldek joyni ko‘rmay ketish — uyat (Ovrupa – Yevropa)* [2; 157-b] jumlasida ham shunday holat kuzatiladi.

– orfografik jihatdan biri to‘g‘ri, biri xato yozilgan bo‘lsa: *– Yusuf ovozi boricha baqirdi va shu zahoti ko‘zlaridan **potrab** yosh chikdi, – aldashni nima ekanligini ko‘rsataman xaromxo‘rga!..*[2;

189-b]. Lekin bu hodisa atayin “uyushtirilgan” bo‘lib, badiiy matn tarkibida xato bo‘lmaydi, balki yozuvchining stilistik individual mahorat usuli hisoblanadi. Badiiy asarga so‘zlashuv uslubiga xos so‘zlarni qo‘shish personajning individual nutqini jonli va tabiiy qilib, uning xarakterini ko‘rsatadi. O‘quvchi emotsiyasiga yanada samimiylik qo‘shadi, shu bilan birgalikda, reallikni ham oshirish uchun qo‘llanilgan stilistik vosita bo‘lib xizmat qiladi. Yana bir misol keltiraylik: **–** ***Issomalaykum,*** *tog‘a.../* — ***Issomileykum****. Velosipetizi Sharof tog‘am bervordi* [2; 13-138-b]. Aslida, salom berishning orfografik tamoyiliga ko‘ra to‘g‘ri yozilmagan, ammo, ma’lumki, bolalar uzun so‘zlarni talaffuz qilishda qiynalishadi va ular nutqida leksemashakllarni soddalashtirish holatlari kuzatiladi. Muallif esa buni to‘g‘ridan to‘g‘ri ishlatishi har bir personajning nutqi, yoshi va jinsini aniqlashtiradi. Retsipientga bolalarcha kayfiyat beradi. Bola nutqining bunday shaklda kiritilishi voqeaning realligini yanada kuchaytiradi. So‘z tarkibida tovushlar almashinish hodisasi kuzatilsa-da, lekin bu distributiv tahlilga asos bo‘la olmaydi. Chunki bu leksema faqat bolalar nutqiga xos, yozuvchi esa stilistik vosita sifatida roman tarkibiga kiritgan.

– stilistik ma’no farq qilganda. Masalan, *Qaytib ularga yaqinlashishga esa botiningizda o‘zingiz bexabar paydo bo‘lgan qo‘rq****uv*** *izn bermadi* [2; 225-b].*–* *Endi musht qo‘rq****inch*** *tug‘dirmas, aksincha, qandaydir yovvoyi lazzat sari yetaklardi* [2; 43-b]. Morfemalar bemalol o‘rin almashina olsa ham, ular stilistikasiga ko‘ra farqlanadi. Demak, erkin almashinish distributiv tahlil shartlariga to‘liq mos kelmaydi. Jumlalar tarkibida ikkala shakldan ham foydalanish darajaviy ta’sir etadi, ya’ni *qo‘rq****uv*** artikulyatsiyada bir tekis tempda bo‘ladi va umumiy ichki hissiyotni ifodalaydi. Eshitilishi ham *qo‘rq****inch***ga nisbatan yumshoq eshitiladi. *Qo‘rq****inch***da esa jarangdorlik kuchli va keskin ohangda aytiladi. *Qo‘rq****inch*** esa *qo‘rq****uv***ga nisbatan emotsionallikni kuchaytiradi va tasvirni obrazli qiladi.

*– Yo‘q, yo‘q, – Yusuf uning bilagidan tutib to‘xtatdi, — hojati yo‘q, ra****h****mat sizga* [2; 271-b]. Jumlasidagi *ra****h****mat* leksemasi og‘zaki talaffuzda *ra****x****mat* tarzida talaffuz qilinishi tabiiy hol. Yaqqol sezilib turibdiki, har ikkala holat ham yuqoridagi uch holatni inkor qilmoqda. Demak, bu erkin almashinuv distributsiyasiga bemalol misol bo‘la oladi. Bundagi farq faqatgina ohang va urg‘uga ko‘ra sezilishi mumkin va uning ta’siri ham uslubni alohida tarzda ifodalamaydi.

Romanda keltirilgan antroponimlarning deyarli barchasi diniy uslubga xos. Erkin almashinuv distributiv tahlil metodida asardagi quyidagi jarayonlarga duch keldik, ya’ni arabcha ismlar o‘zbek tilida fonetik o‘zgarishlarga uchragan bo‘lib, ***a – o, o – a*** almashinuvi hodisasi kuzatiladi. Natijada, leksemashakl o‘zgaradi, ammo uning ma’nosiga putur yetmaydi: *Alloh – Olloh, Adil – Odil, Roshid – Rashid, Zahra – Zahro, Sharafiddin – Sharofiddin, Bahovaddin – Bahouddin, Abdusalaam – Abdusalom, Abduvasit – Abduvosit, Abdurohman – Abdurahmon, Abdug‘ofur – Abdug‘afur.* So‘zlashuv uslubidagi talaffuz qanday bo‘lsa, badiiy matn tarkibiga shundayligicha olib kirish xalqona ruhni tasvirlaydi, unga tarixiy-madaniy rang beradi. Diniy muhit esa o‘zbek o‘quvchi mentalitetining bir qismi bo‘lganligi uchun uning tasavvurida ekspressivlikni shakllantiradi. Shu bilan birgalikda, qahramon obrazi ham shakllanadi, ya’ni qahramon to‘g‘risidagi ma’lumotlar – uning e’tiqodi, axloqi, tarbiyasi haqidagi ilk taassurotlar uyg‘onadi. Asarga nisbatan qiziqish esa ortib borishini ta’minlaydi. Diniy nomlar matnga tantanavorlik ruhini beradi, retsipient antroponimlarni qabul qilar ekan, asardagi qahramon va uning xarakterini o‘zaro ongida solishtiradi. Diniy ismlarning yana bir stilistik xususiyati shundaki, xarakterga nisbatan qo‘yilgan diniy ism qahramonning hurmat belgisini oshiradi. Ushbu misollarni erkin almashinuv distributsiyasi uchun keltirishimizning sababi shundaki, ba’zi diniy so‘zlarni talaffuz qilishda boshqa tildagi xalqlar bilan bir qatorda o‘zbeklar ham uning artikulyatsiyasiga qiynalishadi. Ayniqsa, ***sod*** (□), zod (□), ayn (□), ha (□), h (□), zo (□), zal(□), sa (□) tovushlarini talaffuz qilish biroz mushkulroq. Shu bois arab fonemasiga mos o‘zbekcha tovush tanlanadi va rasmiy hujjatlarda ham xuddi shunday orfografiyada yoziladi. Biroq ba’zi diniy-arabiy so‘zlar borki talaffuz me’yori buzilishi uning ma’nosiga ham ta’sir qilishi mumkin. Shu bilan birga, artikulyatsiyadagi ohang ham tabiiy bo‘lmaydi, tabiiyki, emotsionallik-ekspressivlik xususiyati ham kamayib boradi. Lekin o‘zlashgan antroponimlardagi bunday holat o‘zbek adabiyotida o‘ziga xos stilistik vazifani bajaradi.

Qisman ekvivalent distributsiyasida har ikki xil birlik bir-biriga yaqin ma’noni bildiradi. Erkin almashinuv distributsiyasidan farqi shundaki, bu distributsiyada ham fonemalar bir xil o‘rinda ishlata olinsa-da, hamma vaqt ham to‘liq almashtirib bo‘lmaydi. Xo‘sh, bu metod tahlilining qanday lingvostilistik xususiyati bor? *Ana, tong ham yorishib qoli****pt****i* [2; 11-b] – birinchi navbatda, ma’no nozikligi yuzaga keladi va uslubiy vazifani bajaradi. Bu bilan esa badiiy matnga “kayfiyat” beradi. Nutq tarkibidagi melodika seziladi va tovushlar uyg‘unligi nutqni yanada yoqimli qiladi. Jarangli tovushlarning jarangsiz juftiga almashishi orqali hissiyot – emotsionallik ifodalanadi. Nutq rasmiy qolipda emas, oddiy so‘zlashuv jarayonidagi situatsiyani tasvirlaydi va nutqni jonlantiradi. Shu bilan birgalikda, tasviriylik natijasida ta’sirchanlik ham oshadi. Badiiy asarning obrazliligini oshiradi. Obrazlilik yuqori bo‘lgan asarning qiymati ham yuqori bo‘ladi. Ana, tong ham yorishib qoldi. Yuqoridagi erkin almashinuv distributsiya tarkibidagi *“c” band*dagi namunalar yaqqol mana shu metodga misol bo‘la oladi.

Xulosa qilishimiz mumkinki, har bir so‘zning sistem-strukturasi lingvistik nuqtayi nazardan metodlar bo‘yicha tahlil qilinganda uning stilistik ahamiyatga ega yoki ega emaslik tomoni ham aniqlashadi. Muallif eng asosiy maqsadi – ijodining qiymatini qimmatli qilish.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Amonturdiyeva Sh. O‘zbek tilining diniy uslubi. Filol. fan. d-ri (DSc) ...diss. – Termiz, 2025.
2. Ҳамдам У. “Мувозанат” романи. – Тошкент: “Шарқ” нашриёти, 2007.
3. Каримов С. Бадиий матнинг услубий аломатлари. Ўқув қўлланма. – Самарқанд: СамДУ, 1992.
4. Шомақсудов А. ва бошқ. Ўзбек тили стилистикаси. Ўқув қўлланма. – Тошкент: “Ўқитувчи”, 1983.

Shirinoy HAMIDOVA,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
O‘zbek tili va adabiyoti 2-kurs magistranti

“ALPOMISH” DOSTONIDA UCHRAYDIGAN ZOONIMLARNING UMUMIY TAVSIFI

Annotatsiya: mazkur maqolada “Alpomish” dostonida uchraydigan zoonimlar (hayvon nomlari)ning lingvokulturologik va badiiy xususiyatlari tahlil qilinadi. Asarda ot, tuya, qo‘y, it kabi hayvon nomlarining qo‘llanilishi, ularning obraz yaratishdagi o‘rni hamda xalqning dunyoqarashi va turmush tarzi bilan bog‘liqligi yoritiladi. Zoonimlar dostonning badiiy-estetik qiymatini oshiruvchi muhim vosita sifatida ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: *“Alpomish” dostoni, zoonimlar, ot obrazi, folklor, lingvokulturologiya, epik asar, xalq og‘zaki ijodi, badiiy tasvir, ramziylik, etnolingvistika.*

Annotation: article analyzes the linguocultural and artistic features of zoonyms (animal names) found in the epic “Alpomish”. It highlights the use of animal names such as horse, camel, sheep, and dog, their role in character creation, and their connection with the worldview and way of life of the people. Zoonyms are considered an important means of enhancing the artistic and aesthetic value of the epic.

Key words: *“Alpomish” epic, zoonyms, horse image, folklore, linguoculturology, epic work, oral folk literature, artistic depiction, symbolism, ethnolinguistics.*

Аннотация: в данной статье анализируются лингвокультурологические и художественные особенности зоонимов (названий животных), встречающихся в эпосе «Алпомыш». Рассматривается использование таких названий животных, как лошадь, верблюд, овца и собака, их роль в создании образов, а также их связь с мировоззрением и образом жизни народа. Зоонимы рассматриваются как важное средство повышения художественно-эстетической ценности эпоса.

Ключевые слова: *эпос «Алпомыш», зоонимы, образ коня, фольклор, лингвокультурология, эпическое произведение, устное народное творчество, художественное изображение, символика, этнолингвистика.*

Kirish. O‘zbek xalq og‘zaki ijodining durdonalaridan biri bo‘lgan “Alpomish” dostoni nafaqat badiiy jihatdan, balki lingvistik va madaniy jihatdan ham katta ahamiyatga ega. Dostonda qo‘llanilgan zoonimlar asarning obrazlar tizimini boyitadi va qahramonlarning xarakterini ochib berishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Hayvon nomlari xalqning qadimiy turmush tarzi, urf-odatlari va dunyoqarashi bilan chambarchas bog‘liqdir.

Zoonimlar doston matnida oddiy nom sifatida emas, balki ramziy ma’noga ega birliklar sifatida namoyon bo‘ladi. Ayniqsa, ot obrazi qahramonning sodiq hamrohi va kuch-qudrat timsoli sifatida katta ahamiyat kasb etadi.

Asosiy qism.

“Alpomish” dostonida eng ko‘p uchraydigan zoonimlardan biri ot hisoblanadi. Ot epik qahramonning ajralmas yo‘ldoshi bo‘lib, uning jasorati va tezligi bilan bog‘liq holda tasvirlanadi. Boychibor kabi ot nomlari nafaqat hayvonni, balki ma’lum bir ideal obrazni ham ifodalaydi.

Shuningdek, dostonda tuya, qo‘y, it kabi hayvon nomlari ham uchraydi. Tuya ko‘proq yuk tashish va ko‘chmanchi hayot tarzi bilan bog‘liq tasvirlarda ishlatiladi. Qo‘y esa xalqning chorvachilik madaniyati va farovonlik ramzi sifatida namoyon bo‘ladi. It obrazi esa sadoqat va himoya timsoli sifatida beriladi. Zoonimlar orqali muallif xalqning iqtisodiy hayoti, yashash tarzi va qadriyatlarini ifodalaydi. Hayvon nomlari ko‘pincha metaforik va ramziy ma’nolarda qo‘llanilib, qahramonlarning ruhiy holatini ham aks ettiradi. Masalan, otning tezligi qahramonning shijoati va jasoratini ifodalaydi.

Shuningdek, dostonda **tuya** zoonimi ham muhim o‘rin tutadi. Tuya ko‘chmanchi hayot tarzining asosiy transport vositasi sifatida tasvirlanadi. U og‘ir yuklarni ko‘tarish, uzoq safarlarda sabr-toqat timsoli sifatida beriladi. Bu esa xalqning iqtisodiy hayoti va geografik sharoitlari bilan bog‘liq etnografik ma’lumotlarni ham aks ettiradi. **Qo‘y va echki** kabi zoonimlar esa ko‘proq farovonlik, boylik va xo‘jalik farovonligi ramzi sifatida qo‘llaniladi. Ular orqali xalqning chorvachilik madaniyati, iqtisodiy hayot tarzi va yashash sharoitlari

ifodalanadi. Qo‘y obrazi tinchlik va baraka bilan bog‘liq ijobiy semantik maydonga ega.

It zoonimi esa sadoqat, hushyorlik va himoya timsoli sifatida beriladi. Doston matnida it ko‘pincha uy va mol-mulkni qo‘riqlovchi, egasiga sodiq mavjudot sifatida tasvirlanadi. Bu obraz orqali xalqning qadimiy qadriyatlarida sadoqat va vafodorlikning yuqori o‘rin tutishi ko‘rsatiladi.

Zoonimlar “Alpomish” dostonida nafaqat individual obrazlar yaratish uchun, balki umumxalq mentalitetini ifodalash uchun ham xizmat qiladi. Har bir hayvon nomi o‘ziga xos madaniy kodga ega bo‘lib, u orqali xalqning tabiatga munosabati, hayot tarzi va dunyoqarashi aks ettiriladi. Bu esa asarning lingvokulturologik ahamiyatini yanada oshiradi.

Bundan tashqari, zoonimlar epik tasvirning emotsional ta’sir kuchini oshiradi. Masalan, otning jangdagi harakati yoki qahramon bilan birga og‘ir vaziyatlardan o‘tishi o‘quvchida kuchli hissiy ta’sir uyg‘otadi. Bu esa badiiy matnning estetik qiymatini oshiruvchi muhim omildir.

Shuningdek, “Alpomish” dostonida zoonimlar orqali tabiat va inson o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik ham ko‘rsatib beriladi. Hayvonlar inson hayotining ajralmas qismi sifatida tasvirlanib, ular bilan hamkorlikda yashash g‘oyasi ilgari suriladi. Bu esa xalqning ekologik tafakkurining qadimiy ildizlarga ega ekanini ko‘rsatadi.

Umuman olganda, zoonimlar dostonning nafaqat badiiy bezagi, balki uning mazmuniy va g‘oyaviy strukturasini shakllantiruvchi asosiy lingvistik elementlardan biridir. “Alpomish” dostonida zoonimlar tizimi juda keng va ko‘p qatlamli bo‘lib, u xalqning tarixiy, madaniy va maishiy hayotini aks ettiruvchi muhim lingvistik birliklar hisoblanadi. Zoonimlar epik matnda oddiy nomlash vazifasidan tashqari, obraz yaratish, ramziylikni kuchaytirish va badiiy tasvirni boyitish funksiyalarini ham bajaradi. Shu sababli ular folklor tilining muhim semantik qatlamini tashkil etadi.

Dostondagi **ot obrazi** eng markaziy zoonimlardan biri bo‘lib, u qahramonning kuchi, shijoati va g‘alabaga bo‘lgan intilishini ifodalaydi. Boychibor obrazi faqat hayvon emas, balki ideal sadoqat, vafodorlik va jangovar ruh timsoli sifatida gavdalanadi. Epik an’anada ot qahramon bilan bir butun tizim sifatida tasvirlanadi, ya’ni ot va qahramon o‘rtasidagi munosabat inson va tabiat uyg‘unligini ko‘rsatadi.

Zoonimlar orasida **tuya** ham muhim o‘rin egallaydi. Tuya ko‘chmanchi turmush tarzining asosiy transport va xo‘jalik vositasi sifatida beriladi. U og‘ir yuk ko‘tarish, uzoq yo‘l bosish va chidamlilik kabi xususiyatlari bilan ajralib turadi. Shu orqali xalqning iqtisodiy hayoti va geografik sharoiti badiiy matnda realistik tarzda ifodalanadi.

Qo‘y, echki va sigir kabi zoonimlar xalq xo‘jaligi, boylik va farovonlik ramzi sifatida qo‘llaniladi. Ayniqsa, qo‘y obrazi tinchlik, baraka va mo‘l-ko‘lchilik timsoli bo‘lib, epik matnda ijobiy semantik yuklama tashiydi. Bu zoonimlar orqali o‘sha davr jamiyatining iqtisodiy asoslari — chorvachilik madaniyati yaqqol ko‘rinadi.

It zoonimi esa sadoqat, hushyorlik va himoya funksiyasini bajaradi. U ko‘pincha uy-joyni qo‘riqlovchi va egasiga sodiq mavjudot sifatida tasvirlanadi. Bu esa xalq mentalitetida vafodorlik va ishonchlilikning yuqori qadrlanganini ko‘rsatadi. Bundan tashqari, doston matnida zoonimlar orqali **emotsional va psixologik holatlar** ham ifodalanadi. Masalan, jang oldi holatlari, safar tasvirlari yoki qahramonning og‘ir vaziyatlari hayvonlar obrazi orqali yanada ta’sirchan qilib beriladi. Otning charchashi yoki tezligi qahramon ruhiy holatining metaforasi sifatida xizmat qiladi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, “Alpomish” dostonida uchraydigan zoonimlar asarning badiiy va lingvistik boyligini ta’minlovchi muhim elementlardan biridir. Ular orqali xalqning qadimiy turmush tarzi, qadriyatlari va dunyoqarashi yorqin aks ettiriladi. Zoonimlar epik qahramonlar obrazini kuchaytirish va asarning estetik ta’sirini oshirishda muhim rol o‘ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. “Alpomish” dostoni. – Toshkent, 2010.
2. Mirzayev T. “O‘zbek xalq og‘zaki ijodi”. – Toshkent, 2015.
3. Jo‘rayev N. “Folklor va adabiyot”. – Toshkent, 2018.
4. Mahmudov N. “Lingvokulturologiya asoslari”. – Toshkent, 2019.
5. Karimov U. “O‘zbek folklorida epik an’ana”. – Toshkent, 2017.
6. Saidxonov A. “Zoonimlar va ularning lingvistik tahlili”. – Toshkent, 2020.
7. Radlov V. “Turk xalqlari og‘zaki ijodi”. – Moskva, 2006.

Shohsanam NOMAZOVA,
Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Folklorshunoslik va dialektologiya mutaxassisligi 1-kurs magistranti



BAXSHICHILIK SHAJARASI VA AN’ANASI RASUL BAXSHI MISOLIDA

Annotatsiya: maqolada baxshichilik san’atining xalqimiz hayotida tutgan o‘rni, avloddan-avlodga meros bo‘lib o‘tib kelayotgan dostonlarda baxshichilik shajarasining muhimligi hamda dostonlarning hozirgi kunga qadar yetib kelishida ustoz-shogird an’analarining tutgan o‘rni ochib beriladi. Tadqiqot natijalarida xalq og‘zaki ijodining dostonchilik janri xalq tafakkuri va orzu-istaklarining eng yorqin namunasi ekanligi asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: *baxshichilik, shajara, an’ana, ustoz-shogird, folklor, doston, dostonchilik maktablari.*

Annotation: the article explores the role of the art of bakhshi (traditional folk storytelling and music) in the life of our people, highlighting the significance of the bakhshi lineage in epics passed down from generation to generation, as well as the role of the master-apprentice tradition in preserving these epics to the present day. The research results demonstrate that the epic genre of oral folk creativity is one of the brightest examples of the people’s worldview, thoughts, and aspirations.

Key words: *bakhshi, lineage, tradition, master-apprentice, folklore, epic, epic schools.*

Аннотация: в статье раскрывается роль искусства бахши (традиционного народного повествования и музыки) в жизни нашего народа, подчеркивается значимость шажары бахши в эпосах, передаваемых из поколения в поколение, а также роль традиции наставник-ученик в сохранении этих эпосов до настоящего времени. Результаты исследования показывают, что жанр эпоса в устном народном творчестве является одним из ярчайших примеров народного мировоззрения, мыслей и стремлений.

Ключевые слова: бахши, шажара, *традиция, наставник-ученик, фольклор, эпос, школы* эпосного мастерства.

O‘zbek xalq og‘zaki ijodi namunalari orasida doston katta hajmli va ommaviy yoyilgan, qadimiy janr hisoblanadi. Doston xalqning badiiy ko‘rinishdagi taqdirnomasi, qomusidir. Har bir xalqning insoniyat tarixidagi o‘rni, xizmati, ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy, madaniy mavqeini eposi namoyon etadi[1]. Hozirda keng omma orasida va folklorshunoslikda qo‘llanib kelayotgan “doston” so‘zi “qissa”, “hikoya”, “tarix” [2], sarguzasht, ta’rif va maqtov ma’nolarini anglatadi. Lekin bu so‘z atama sifatida folklorshunoslikdagi epik turga mansub, she’riy va nasriy parchalardan iborat, ma’lum qahramonlarning hayoti, taqdiri, kechmishini tasvirlab beruvchi yirik hajmdagi, maxsus ijrochilar – baxshilar tomonidan kuylanuvchi asarga nisbatan foydalaniladi. Dostonlarda xalq taqdiri, ularning kechmishi, orzu-istaklari, umidlari, tarixi, o‘tmishdagi voqelik xalqning badiiy mushohadalari asosida obrazlarda o‘z ifodasini topadi. Doston sinkritik san’at namunasi, bir kishilik o‘ziga xos teatr hisoblanadi. Doston aytuvchi ayni paytda sozanda, kuylovchi, bastakor, aktyor va rejissyor.

Dostonchilikda ustoz-shogirdlik an’anasiga alohida e’tibor qaratiladi. Har bir shogird yillar davomida ustozidan baxshichilik sir-asrorlarini o‘rganadi,ko‘plab dostonlar bilan tanishgach, dostondagi voqealar rivojini, undagi syujet, kompozitsiyani to‘liq o‘rgangach, qon-qoniga singdirgach, mustaqil doston aytish malakasini to‘liq egallagach, maxsus marosim-tadbirlar uyushtirilib, el oldida mashhur, atoqli baxshilar ishtirokida ustozidan duo olib, keyinchalik mustaqil ravishda kuylash imkoniga ega bo‘lishgan. Baxshichilik an’analarining davom etishi, yangi baxshilarning yetishib chiqishida muhitning o‘rni beqiyos. Xalqning dostonlarga qiziqishi, dostonlarni o‘rganishga bo‘lgan ishtiyoqi dostonchilik maktablarining paydo bo‘lishiga asosiy sabablardan hisoblanadi. Dostonning rivoj topishida esa eng asosiy va birlamchi unsurlardan biri bu – baxshilik muhitidir. T. Mirzayev dostonchilik maktabiga quyidagicha ta’rif bergan: “...umumlashgan puxta epik an’ana doirasida ma’lum baxshi yoki baxshilar guruhiga xos individual ijodiy xususiyatlar, yo‘llar, uslublar o‘zgachaligi, ustoz-shogird munosabatlari mavjud. Bunday

1 Turdimov Sh. O‘zbek mifologiyasi va folklori. – T.: “Ilm va fan” nashriyoti, 2023. 172-b.
2 O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Birinchi jild. – T.: “O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti, 2006. 649-b.

farqlarni ko‘rsatish uchun Hodi Zarif folklorshunoslikda dostonchilik(baxshichilik) maktablari terminini qo‘llagan… “Bu o‘rinda baxshichilik maktablari keng ma’noda repertuar birligi, ijro va kuylarning o‘xshashligi, dostonchilar guruhiga xos poetik yo‘l, uslub, repertuar xarakteri, ijro usullari bilan o‘zaro ajralib turishi alohida qayd etiladi[3].

O‘zbek dostonchilik maktablari orasida Qo‘rg‘on, Bulung‘ur, Narpay, Nurota, Shaxrisabz, Sherobod, Qamay, Xiva, Mang‘it, Piskent kabi yetakchi markazlarni alohida sanab ko‘rsatish mumkin. Bu dostonchilik maktablarining har biri o‘z tarixi, taqdiri, o‘zligini namoyon etuvchi xususiyatlariga ega. Sirtdan kuzatgan kishiga ham aniq ko‘rinuvchi ijro yo‘llari mavjud. Qo‘rg‘on baxshilari dostonlarni “suluv” qilib kuylaganlar. Bulung‘ur baxshilari “botir” Narpay baxshilari sarguzashtlarga boy etib aytganlar. Bulung‘ur baxshisi “Alpomish”ni, qo‘rg‘onliklar “Go‘ro‘g‘li”ni, narpayliklar “Orzugul”ni mumtoz maqomlarda meros qoldirishgan. Baxshi “eskilarning izidan yurib” doston kuylagan[4]. Dostonlarning bebaho ijrosi ustozlardan shogirdlarga meros bo‘lib o‘tgan. Yangi davr baxshilari esa bu bebaho meroslarni o‘z ijrolarida yangilagan. Nasldan naslga Jumanbulbul, Yo‘ldoshbulbul, Po‘lkan shoir kabi nomlar o‘zgacha e‘tirof, maqtovlar ostida o‘tib kelgan. Bugungi kunda esa folklorshunoslar baxshilarni ikki turga ajratib o‘rganishadi:

1.Professional baxshilar

2.Ijrochi baxshilar.

Baxshichilik san’ati Surxondaryo va Qashqadaryoda hozirgi kunda ham jonli jarayonda yashayotganligining sababi bu hududlarda ota-bobolar kasbining farzandlar tomonidan egallash an’anasining kuchliligidan va bu hududda yashovchi aholining dostonlarga qiziqishidandir. Qolaversa, bunga sabab shu hududda yashovchi aholining dostonlar, termalar tinglashga ehtiyoji saqlanganligidir. Yillar davomidagi tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, dostonchilikning bugungacha yetib kelishida oilaviy shajaraning o‘rni beqiyosdir. Xususan, Rasul (Abdirasul) baxshining ajdodlari ham dostonchi bo‘lganlar. U Qashqadaryo-Surxondaryoda mashhur bo‘lgan Umir shoir Safarning nevarasi, hozirda g‘ayrat-shijoat bilan ijod qilayotgan O‘zbekiston xalq baxshisi Qora Umirovning farzandi. Otasi Qora baxshi Umirov – O‘zbekiston xalq baxshisi, onasi esa “Sanamgul” dostonining yaratilishiga sabab bo‘lgan inson Ro‘zixol Olloyorova – uy bekasi. 2015-yilda O‘zbekiston Respublikasi xalq baxshisi faxriy unvoni bilan taqdirlangan. O‘zbekistonda an’anaviy tarzda o‘tkazib kelinayotgan Xalqaro baxshichilik san’ati festivalida bir necha bor ishtirok etgan. Rasul baxshi 15dan ortiq doston, 30dan ortiq xalq termalarini yoddan biladi. Baxshining 2012-yilda “Sanamgul”, “Malla savdogar” nomli dostonlari chop etilgan. Bundan tashqari, Rasul baxshining “Surxonim”, “Shuni ayting”, “Yaxshiroq”, “Do‘mbiram”, “Vatanim”, “Bilinar” kabi termalari xalq orasida mashhur.

1983-yilda Umir shoirning yubileyini respublika miqyosida o‘tkazish harakati boshlangach, otasi Qora baxshi, amakisi Chori baxshilar qo‘lda sozi bilan katta davralarga qo‘shilgach, Rasul baxshi ham safga qo‘shiladi.

Otasidan “Nurali va Semurg‘”, “Jahongir”, “Alpomish”, amakisi Chori baxshidan “Malla savdogar”, “Sherali”, “Yodgor” kabi dostonlarni yozib olish jarayonida eshitib, o‘zlashtirib olgan. Bugungi kunda repertuarida qirqdan oshiq an’anaviy va zamonaviy termalar, yigirmata doston bor.

Havola etilayotgan “Sanamgul” dostoni an’anaviy doston sifatida ommalashmagan, ammo syujeti va motivi jihatidan boshqa dostonlardan aslo qolishmaydi va bu dostonni respublikamizda ota-bola baxshilardan boshqa hech kim bilmaydi.

Ota aytgan “Sanamgul” dostonining shu matnini o‘g‘li Rasul baxshi ham o‘zlashtirib oldi, ayta boshladi. Rasul baxshi qayerda asar syujeti, kompozitsiyasi, voqealari bayonida xatoga yo‘l qo‘ysa, adashsa, ota tuzatib, to‘g‘rilab bordi.

Ushbu doston orqali yodimizga “Malikai Husnobod” ertagi kelishi mumkin. Voqealarning boshlanishi, syujet rivojidagi ayrim tasvirlarda ertakning ta’siri, o‘xshashligi bor. Ertak yangi dostonga turtki bo‘lgan.

“Sanamgul” dostonini aytgan Rasul baxshi dostonchilik an’analarini yaxshi o‘zlashtirganiga, har bir voqeani epik an’analar doirasida asoslay bilishiga, xalqimizning axloqiy fazilatlari, milliy qadriyatlari, urf-odatlarini mahorat bilan ochib berganiga guvoh bo‘lamiz.

3 Mirzayev T. Xalq baxshilarining epik repertuari. – T.: Fan, 1979. 39-b.
4 Turdimov Sh. O‘zbek mifologiyasi va folklori. – T.: “Ilm va fan” nashriyoti, 2023. 181-b.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Turdimov Sh. O‘zbek mifologiyasi va folklori. – T.: “Ilm va fan” nashriyoti, 2023. 172-b.
2.O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Birinchi jild. – T.: “O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti, 2006. 649-b.
3. Mirzayev T. Xalq baxshilarining epik repertuari. – T.: Fan, 1979.39-b.
4. Turdimov Sh. O‘zbek mifologiyasi va folklori. – T.: “Ilm va fan” nashriyoti, 2023. 181-b.

Moxinur KARIMOVA,
ToshDO‘TAU 2-kurs magistranti
makhinura999@gmail.com

XARAKTER HAQIDA NAZARIY YONDASHUVLAR VA ADABIYOTDA MILLIY XARAKTERNI IFODALASHNING USULLARI

Annotatsiya: ushbu maqola badiiy adabiyotda xarakter va milliy xarakter tushunchalarining nazariy asoslarini, shakllanish tarixini hamda adabiy matnda ifodalanish usullarini tahlil qiladi.Tahlil davomida xarakterning psixologik, axloqiy va badiiy qatlamlari yoritilib, Aflotun, Arastu, Fromm, Izzat Sultonlarning qarashlari ko‘rib chiqiladi. Milliy xarakter muammosi etnopsixologiya, imagologiya va lingvokulturologiya nuqtayi nazaridan o‘rganilib, uning leksik, stilistik va obrazli vositalari misollar bilan tushuntiriladi.

Kalit so‘zlar: *xarakter, milliy xarakter, badiiy adabiyot, etnopsixologiya, imagologiya, xalq ruhi.*

Annotation: this article analyzes the theoretical foundations of the concepts of character and national character in literary works, their historical formation, and methods of expression in literary texts. During the analysis, the psychological, moral, and artistic layers of character are examined, with reference to the views of Platone, Aristotle, Fromm and Izzat Sulton. The problem of national character is studied from the perspectives of ethnopsychology, imagology, and linguoculturology, and its lexical, stylistic, and figurative means are illustrated with examples.

Key words: *character, national character, literary work, ethnopsychology, imagology, folk spirit.*

Аннотация: в данной статье анализируются теоретические основы понятий характер и национальный характер в художественной литературе, история их формирования, а также способы выражения в литературном тексте. В ходе анализа рассматриваются психологические, нравственные и художественные слои характера с опорой на взгляды Платона, Аристотеля, Фромма и Иззат Султана. Проблема национального характера изучается с позиций этнопсихологии, имажологии и лингвокультурологии, его лексические, стилистические и образные средства поясняются на примерах.

Ключевые слова: *характер, национальный характер, художественная литература, этнопсихология, имажология, дух народа.*

Adabiyot ko‘ngil kechinmalarini, dil rozlarini so‘z vositasida ifodalovchi san’at turlaridan biri bo‘lib, insoniyat bilan hamnafas ravishda rivoj topib kelmoqda. Adabiyotning hayotni so‘z vositasida ifoda etishi o‘sha qadim vaqtlardan buyon davom etib, bugungi kunga qadar qanchadan qancha ijod ahli o‘z asarlarini yaratdilar va yaratib kelmoqdalar. Xususan, ular hayotning muhim voqea-hodisalariga e’tibor qaratib qolmasdan, insonni ham zohiriy, ham botiniy jihatdan tasvir etdilar. Zero, adabiyotning obyekti badiiy asar bo‘lib, uning markazida esa inson turadi. Shunday ekan, yozuvchi turmushdan olgan xulosalarini aynan insonlarga xos bo‘lgan xarakter-xususiyatlarni o‘zida mujassam etgan obrazlar vositasida ifoda etadi. Demak, “Adabiyot dunyoni badiiy o‘zlashtirishdan iboratdir” [5:12].

Badiiy adabiyot faqatgina estetik zavq olish vositasi emas, ayni vaqtda millatning o‘zligini anglash uchun ko‘zgu vazifasini o‘taydi. Har qanday badiiy asarning markazida inson obrazi turar ekan, u hech qachon ijtimoiy bo‘shliqda mavjud bo‘lmaydi; u muayyan obraz, nutq va xatti-harakatlar majmuasining tashuvchisi hisoblanadi. Akademik Izzat Sulton ta’kidlaganidek: “Xarakter – bu hayotiy haqiqatning badiiy umumlashtirilishi bo‘lib, u personajning xatti-harakatlari, nutqi va ruhiy olamida namoyon bo‘ladi”[4:103].

“Xarakter” atamasi yunoncha *charakter* so‘zidan olingan bo‘lib, “belgi”, “tamg‘a” yoki “o‘ziga xos xususiyat” ma’nolarini anglatadi. Psixologik nuqtayi nazardan talqin qilinsa, xarakter – bu shaxsning xulq-atvorida, munosabatlarida va faoliyatida doimiy tarzda namoyon bo‘ladigan individual xususiyatlar majmuasidir. U insonning jamiyatga, mehnatga, narsalarga va o‘z-o‘ziga bo‘lgan barqaror munosabatini belgilaydi.

Xarakterning tuzilishi turli xususiyatlarning tasodifiy yig‘indisidan iborat emas. Xarakterning xususiyatlari bir-biri bilan bog‘liq, bir-biriga tobe yaxlit tizimni tashkil qiladi. Psixologiya fanida kishining atrofdagi voqelikka munosabati nuqtayi nazaridan xarakter xususiyatlarining quyidagi tizim guruhlari farqlanadi:

1) shaxsning umumiy psixik tuzilishini ifodalaydigan xususiyatlar: g‘oyaviylik, maqsadga intiluvchanlik, halollik, vatanparvarlik, mardlik, adolatga ishonish, faollik, intizomlilik;

2) shaxsning boshqa odamlarga munosabatini ifodalovchi xususiyatlar: jamoalilik, insonparvarlik, sezgirlik, saxiylik, samimiylik, hurmat-ehtirom.

Xarakter badiiy asarda voqealar (syujet) rivoji davomida ochiladi. Antik davrda xarakter syujetga tobe bo‘lgan bo‘lsa, zamonaviy adabiyotda xarakter mantiqi ko‘pincha syujet yo‘nalishini belgilaydi.

Badiiy xarakter – bu shunchaki asarda ishtirok etuvchi shaxs emas, balki muallif tomonidan hayotiy voqelikni badiiy umumlashtirish orqali yaratilgan, o‘ziga xos ruhiyati, dunyoqarashi va individual xususiyatlariga ega bo‘lgan murakkab timsoldir. U personaj tushunchasidan o‘zining ma’naviy qiyofasi va axloqiy tanlovi borligi bilan ajralib turadi.

Xarakterni to‘laqonli tushunish uchun uning quyidagi asosiy qatlamlariga e’tibor beriladi. Xarakterning asosi uning hayotiy maqsadlari va qiyin vaziyatlarda nimani qabul qilib, nimani rad etishida namoyon bo‘ladi. Masalan, qahramonning o‘z prinsiplari uchun mansabdan voz kechishi yoki andisha qilib jim turishi uning ichki qiyofasini belgilaydi. Yozuvchi yaratgan xarakter asar davomida o‘z tabiati va mantiqiga sodiq qolishi shart. Hatto qahramon o‘zgaruvchan bo‘lsa ham, bu o‘zgarishlar uning ruhiy holatidan kelib chiqqan holda ishonarli bo‘lishi lozim.

Xarakter yaratish vositalari:

1. Portret – qahramonning tashqi qiyofasi, kiyinishi, o‘zini tutishi va xulq-atvori orqali uning ijtimoiy kelib chiqishi va ruhiy holati haqida ilk tasavvur beriladi.

2. Nutq – har bir xarakterning o‘ziga xos tili, shevasi va gapirish ohangi bo‘ladi. Masalan, piching va kinoya qahramonning naqadar ziyrak yoki tushkun ekanligini ko‘rsatishi mumkin.

3. Xatti-harakat – qahramon so‘zda emas, ishda ochiladi. Uning qilgan amallari uning asl tabiatini ko‘rsatuvchi eng ishonchli dalildir.

4. Psixologik tahlil – insonning ichki kechinmalari, monologlari va xayollari orqali uning “botiniy qiyofasi” chiziladi.

Xarakterning ilmiy ildizlari miloddan avvalgi asrlarda boshlangan. Aynan Aflotunning “Davlat” asarida xarakter bo‘yicha muhim fikrlar berilgan: “Dilning g‘azabnok ibtidosi turli tarzda tasvirlanishi mumkin, lekin insonning haddan oshmaydigan, mulohazali va vazmin fe’lini aks ettirish oson emas” [1:46]. Aflotun bu fikr bilan xarakter yaratishda jo‘shqin ehtiroslarni tasvirlash orqali oson jozibadorlikka erishish mumkinligini, biroq aql va vazminlikka asoslangan barqaror xarakterni aks ettirish yuksak mahorat talab qilishini uqtiradi. Bu tahlil badiiy obrazning qiymati uning tashqi jo‘shqinligida emas, balki ruhning eng oliy qismi bo‘lgan mulohazakorlikni qanchalik ishonarli gavdalantira olishida ekanini ko‘rsatadi. Badiiy xarakter haqidagi ilk fundamental qarashlar Arastuning **“**Poetika” asariga borib taqaladi. Ushbu asarning 15-bobida aynan xarakter turlari haqida so‘z boradi. “Xarakterlarga kelsak, ulardan to‘rt maqsad ko‘zda tutiladi. Birinchi va asosiysi: xarakterlar yaxshi bo‘lishi kerak. Avval aytganimizday, shaxs agar o‘zining gaplari va ishlarida qandaydir maqsadga amal qilsa, xarakterga ega bo‘ladi. Agar shaxs yaxshi maqsadlarni ko‘zlasa, xarakteri ham yaxshi bo‘ladi. … Ikkinchidan, xarakterlar o‘ziga xos bo‘lishi kerak: xarakter mardona bo‘lishi mumkin, ammo ayol kishiga mardlik bilan kuchlilik yarashmaydi. Uchinchidan, xarakterlar (hayotiy) haqqoniy bo‘lishi kerak. To‘rtinchidan, xarakterlar izchil bo‘lishi kerak: hatto tasvirlangan shaxs noizchil bo‘lishi mumkin. ammo xarakterning mana shu noizchilligi ham izchil bo‘lishi zarur”[2:31]. Bu yerda Arastu badiiy qahramonning ijobiy niyatli, ijtimoiy maqomiga mos, hayotiy va o‘z tabiatida mantiqan izchil bo‘lishi lozimligini ta’kidlamoqchi. Mazkur tamoyillar obrazning tasodifiy harakatlar yig‘indisi emas, balki ishonarli va yaxlit shaxs sifatida gavdalanishini ta’minlaydi.

Arastu xarakter tushunchasini syujetdan keyingi o‘ringa qo‘ysa-da, uning axloqiy niyat va mantiqiy izchillik bilan bog‘liqligini uqtiradi. Olimning fikricha, tragediya insonlarni emas, balki harakat va hayotni tasvirlaydi. U ideal xarakter uchun to‘rtta asosiy talabni belgilaydi: yaxshilik (axloqiy niyat), muvofiqlik (ijtimoiy mavqega moslik), haqqoniylik va izchillik.

Erich Frommning “Ozodlikdan qochish” [3:37] asarida nemis xarakterining totalitarizmga moyilligi iqtisodiy va siyosiy tarix, diniy an’analar bilan bog‘liq holda tahlil qilingan. Ushbu tadqiqot milliy xarakterni ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar bilan izohlashga qaratilgan muhim misol hisoblanadi. Adabiyotshunoslikda milliy xarakterni o‘rganish filologiya, sotsiologiya, etnopsixologiya va kulturologiya chorrahasida turuvchi murakkab vazifadir. Milliy xarakter adabiyotda etnosning tug‘ma sifatlari yig‘indisi sifatida emas, balki obrazlar tizimi, syujet dinamikasi va o‘ziga xos til vositalari orqali shakllanadigan dinamik badiiy konstruksiya sifatida qaraladi. Bu hodisani tushunish tarixiy kontekst, ijtimoiy sharoit va madaniy kodlarning matnning estetik voqeligiga qanday ko‘chishini chuqur tahlil qilishni talab etadi. Milliy xarakter muammosi XX asrning 40-50-yillaridan boshlab jiddiy ilmiy e’tiborga sazovor bo‘lib, turli millatlar vakillarining xulq-atvoridagi umumiy xususiyatlarni aniqlashga qaratilgan tadqiqotlar olib borila boshladi. Bugungi kunda bu masala nafaqat psixologik-pedagogik, balki lingvistik, adabiyotshunoslik va madaniyatshunoslik jihatdan ham chuqur o‘rganilmoqda.

Milliy xarakter tushunchasi etnopsixologiya, milliy psixologiya va madaniyatshunoslikda keng qo‘llaniladi. Milliy xarakter – bu muayyan xalq a’zolarining umumiy, xos xususiyatlarini ifodalovchi tushuncha bo‘lib, u xalqning tarixiy tajribasi, turmush tarzi, madaniy an’analari, iqlim sharoiti va ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlari bilan belgilanadi. Milliy xarakter shaxsning ijtimoiy, madaniy hamda ma’naviy xususiyatlari bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, milliy qadriyatlar

va an’analarni o‘zida mujassam etuvchi sifatlar majmuyi sifatida talqin qilinadi.

Badiiy adabiyot nazariyasi muallif va asar o‘rtasidagi munosabatlarni shakllantirar ekan, matnni ham yaratuvchining biografiyasi, ham madaniyat mahsuli sifatida tahlil qiladi. Shunday qilib, adabiyotdagi milliy xarakter nafaqat tasvirlash obyekti, balki o‘quvchining milliy o‘zligini shakllantiruvchi faol vositadir.

Milliy psixologiya siyosatda millatchilik mafkurasi orqali rol o‘ynaydi. Siyosatchilar masalan, “fransuz xalqi”, “amerika xalqi”, “rus xalqi” ga murojaat qiladilar. Bunda millat a’zolarining umumiy milliy o‘ziga xoslikka egaligi, milliy hamjamiyatning bir qismi ekanligi va umumiy manfaatlarga ega ekanligi (“milliy manfaat”) g‘oyasi yotadi. Siyosatchilar umumiy maqsadlar yo‘lida birgalikda ishlash uchun odamlarni birlashtirishga, integratsiya qilishga harakat qilishlari kerak va ularning umumiy milliy xususiyatlarga murojaat qilishlari odatda, buning bir qismi hisoblanadi.

Bu milliy xarakter g‘oyasi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, u xalqning odatiy qadriyatlari, normalari va urf-odatlari, ularning odatiy hissiy munosabati va ular nimani yaxshilik yoki yomonlik deb hisoblashi – bularning barchasi turli vaziyatlarga qanday javob berishini belgilaydigan omillarni anglatadi.

Adabiyotda milliy xarakterni ifodalashning bir qancha usullari mavjud bo‘lib, ulardan birinchisi til va uslub vositalari orqali ifodalashdir. Adiblar milliy xarakterni ifodalashda tilning barcha imkoniyatlaridan foydalanadilar. Bu jarayonda leksik, grammatik, stilistik va fonetik vositalar qo‘llaniladi. Xususan, milliy xarakterni ifodalashda milliy leksikadan foydalaniladi. Adiblar o‘z asarlarida milliy so‘zlar, iboralar, maqollar va matallardan keng foydalanadilar. Bu so‘zlar xalqning ruhiyatini, dunyoqarashini va xulq-atvorini ifodalaydi.

O‘zbek tilida xarakter ifodalovchi o‘z qatlam so‘zlari mavjud bo‘lib, ular inson xarakterini ifodalashda tilning o‘ziga xos tabiatga egaligini asoslaydi. Shevalar, maqollar, matallar va turli frazeologik birliklar milliy xarakterni ifodalashda kuchli vosita hisoblanadi. Ular xalqning o‘ziga xos dunyoqarashi, axloqiy qadriyatlari va hayot tajribasini ifodalaydi. Adiblar qahramonlarining milliy xarakterini ochishda shevalar va lisoniy dialektlardan ham foydalanadilar. Bu qahramonlarning ijtimoiy kelib chiqishi, ta’lim-tarbiyasi va milliy ruhiyatini ifodalaydi.

Adabiyotda milliy xarakter ko‘pincha turli obrazlar orqali ifodalanadi. Bu obrazlar quyidagi turlarga bo‘linadi:

1. Milliy tip obrazlari. Bu obrazlar muayyan millat vakillarining umumiy xususiyatlarini mujassam etadi. Masalan, o‘zbek adabiyotida dehqon, savdogar, olim, sipoh, ota-onalar obrazlari milliy xarakterning turli jihatlarini ifodalaydi.

2. Tarixiy shaxslar obrazlari. Tarixiy shaxslar orqali milliy xarakterning qahramonlik, vatanparvarlik, jasorat kabi eng yorqin xususiyatlari ifodalanadi.

3. Mifologik va folklor obrazlari. Milliy mifologiya va folklor qahramonlari orqali millatning qadimiy ruhiyati, dunyoqarashi va axloqiy qadriyatlari ifodalanadi.

Asarning syujeti va kompozitsiyasi ham milliy xarakterni ifodalashda muhim rol o‘ynaydi. Milliy xarakter syujetning rivojlanishi, voqealar ketma-ketligi va qahramonlarning o‘zaro munosabatlarida namoyon bo‘ladi. Shu bilan birga, qahramonlarning tashqi ko‘rinishi, kiyimi, harakatlari, nutqi va ichki kechinmalari tavsif orqali milliy xarakterni ifodalaydi. Milliy kiyimlar, taomlar, uylar va boshqa material madaniyat elementlari qahramonlarning milliy ruhiyatini ochishga xizmat qiladi. Milliy bayramlar, marosimlar, urf-odatlar va an’analarni tasvirlash orqali milliy xarakterning eng chuqur qatlamlari ochiladi. Bu tasvirlar orqali xalqning axloqiy qadriyatlari, dunyoqarashi va ijtimoiy munosabatlari ifodalanadi.

Imagologiya (fr. imagologie) – taqqoslashuvchi adabiyotshunoslikning bir sohasi bo‘lib, milliy xarakterning adabiy tasvirlarini o‘rganadi. Imagologiya milliy xarakterni antropologik haqiqat emas, balki diskursiv va ijtimoiy konstruksiya sifatida talqin qiladi. Bu soha 1950-yillarda Fransiyada shakllangan va keyinchalik Germaniya, Belgiya va boshqa mamlakatlarda rivojlangan. Imagologiya milliy xarakterni o‘lchovli, obyektiv haqiqat sifatida emas, balki adabiy konstruksiya va diskursiv amaliyot sifatida o‘rganadi. Bu yondashuv milliy stereotiplar va klishelarning paydo bo‘lishi, tarqalishi va o‘zgarishini tadqiq qiladi.

Milliy xarakterni badiiy gavdalantirish – bu personajning ichki hayoti va tashqi harakatlari sintezini talqin qilish jarayonidir. Milliy xarakterning badiiy talqini statik hodisa emas, balki doimiy harakatdagi jarayondir. Badiiy adabiyot esa ushbu murakkab ruhiy substansiyani saqlovchi va rivojlantiruvchi asosiy estetik makon hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Aflotun. Davlat.–Toshkent: Yangi asr avlodi, 2015.
2. Aristotel. Poetika.–Toshkent: G‘afur G‘ulom, 1980.
3. Fromm E. Ozodlikdan qochish.–Toshkent: Yangi asr avlodi, 2021.
4. Sulton I. Adabiyot nazariyasi.–Toshkent: O‘qituvchi, 2015.
5. Sharafiddinov O. Adabiyot – hayot darsligi. – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 1981.

Laylo QAYUMOVA,
Muxlisa ULASHOVA,
Termiz davlat pedagogika instituti magistranti

“XX ASR O‘ZBEK ADABIYOTIDA FALSAFIYLIK VA RAMZIYLIK MASALALARI (SHUKUR XOLMIRZAYEV ASARLARI MISOLIDA)”

Annotatsiya:mazkur maqolada XX asr o‘zbek adabiyotida falsafiylik va ramziylik masalalari Shukur Xolmirzayev asarlari misolida tahlil qilinadi. Jumladan, “Qil ko‘prik, “Dinozavr” hamda yozuvchining ayrim hikoyalarida inson ruhiyati, ma’naviy inqiroz, hayot falsafasi va davr muammolarining ramziy obrazlar orqali ifodalanishi yoritilgan. Asarlardagi ko‘prik, dinozavr, tabiat va boshqa timsollarning badiiy-falsafiy mohiyati ochib beriladi. Tadqiqot natijasida yozuvchi ijodida falsafiy tafakkur va ramziy tasvir usullarining o‘zaro uyg‘unlashgani aniqlandi.

Kalit so‘zlar: *XX asr adabiyoti, falsafiylik, ramziylik, badiiy tafakkur, inson ruhiyati, ma’naviy inqiroz, ramziy obraz, Shukur Xolmirzayev, “Qil ko‘prik”, “Dinozavr”.*

Аннотация: в данной статье рассматриваются вопросы философичности и символизма в узбекской литературе XX века на примере произведений Shukur Xolmirzayev. В частности, анализируются произведения “Qil ko‘prik”, “Dinozavr” и некоторые рассказы писателя. Освещаются проблемы духовного кризиса, внутреннего мира человека и философии жизни, выраженные через символические образы. Раскрывается художественно-философская сущность таких символов, как мост, динозавр и образы природы. В результате исследования определяется гармоничное сочетание философского мышления и символического изображения в творчестве писателя.

Ключевые слова: *узбекская литература XX века, философичность, символизм, художественное мышление, внутренний мир человека, духовный кризис, символический образ, Shukur Xolmirzayev, “Qil ko‘prik”, “Dinozavr”.*

Annotation:this article examines the issues of philosophical thinking and symbolism in 20th-century Uzbek literature through the works of Shukur Xolmirzayev. In particular, the study analyzes “Qil ko‘prik”, “Dinozavr”, and several short stories by the writer. The article highlights the depiction of the human inner world, spiritual crisis, philosophy of life, and social problems through symbolic images. The artistic and philosophical meanings of symbols such as the bridge, dinosaur, and nature are interpreted. The research concludes that philosophical reflection and symbolic expression are harmoniously combined in the writer’s works.

Key words: *20th-century Uzbek literature, philosophical thinking, symbolism, artistic thinking, human psychology, spiritual crisis, symbolic image, Shukur Xolmirzayev, “Qil ko‘prik”, “Dinozavr”.*

Kirish. XX asr o‘zbek adabiyoti milliy adabiy jarayonlarning yangilanish davri bo‘lib, unda inson va jamiyat, tarix va zamon, shaxs va ijtimoiy muhit munosabatlari chuqur badiiy tahlil qilindi. Bu davr adabiyotida falsafiy mushohada va ramziy ifoda vositalari badiiy tafakkurning muhim tarkibiy qismiga aylandi. Ramziylik o‘zbek yozuvchilariga ijtimoiy-siyosiy muammolarni yashirin va badiiy-estetik shaklda ifodalash, inson ma’naviy olamidagi iztiroblarni umumlashtirish imkonini berdi. Ayniqsa, insonning ichki olami, hayot ma’nosi, ezgulik va yovuzlik o‘rtasidagi kurash, ma’naviy tanazzul kabi masalalar yozuvchilar ijodida markaziy o‘rin egalladi. O‘zbek nasrida Shukur Xolmirzayev ijodi ana shu jarayonning muhim qirralaridan birini ochib berdi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Uning bir qator romanlari hamda kitobxonlar qo‘lidan tushmaydigan, sevib o‘qiladigan hikoyalari ramziy-falsafiy talqini bilan alohida ajralib turadi. Yozuvchi asarlari orqali zamonning o‘ziga xos muammolarini ko‘taradi, o‘quvchini inson va jamiyat taqdiriga oid falsafiy fikrlashga chorlaydi.

Asosiy qism. O‘zbek adabiyotida ramziy ifodaning ildizlari qadimiy dostonlardan boshlanadi. “Alpomish”,”Ravshanxon”, “Go‘ro‘g‘li” dostonlarida yigitlarning jasoratlari, dushmanlarga qarshi kurashlari, adolatparvarlik va sadoqat ramzlari xalqimizning hayotiy tajribasi bilan birgalikda shakllangan. Bu an’anani keyinchalik jadid adabiyotida, Fitrat, Cho‘lpon, Abdulla Qodiriy, Hamza kabi adiblarning ijod namunalarida ham ko‘rishimiz mumkin. Masalan, Fitratning “Abulfayzxon” tragediyasida hokimiyat va xalq o‘rtasidagi ziddiyat ramziy ifodaga ega. Cho‘lponning “Kecha va kunduz” asarida yorug‘lik va zulmat qarama-qarshiligi jamiyatdagi yangilik va eskilik kurashining ramziga aylangan.

“Borliqni badiiy idrok etishni maqsad qilgan badiiy adabiyotning markazida inson obrazi turadi. Negaki, borliqning o‘zida inson shu xil mavqeini egallaydi. Shunday ekan, badiiy adabiyotning borliqni idrok etishida inson obrazining asosiy vosita bo‘lishi ham tabiiy va qonuniydir. Mazkur fikmi obrazlar tizimidagi darajalanish aniq-ravshan ko‘rinadigan katta epik asarlar misolida tushunish va tushuntirish qulayroq. Sababi, epik asarlarda boshqa (tabiat, narsa-buyumlar, jonivorlar, hodisalar va sh.k.) obrazlarning hammasi inson obrazini yorqin tasvirlash, atroflicha ochib berish maqsadiga xizmat qilayotgani yaqqol ko‘zga tashlanadi”[1].

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab o‘zbek adabiyotida ramziylik yanada rivojlandi. O‘tkir Hoshimov, Abdulla Qahhor, O‘lmas Umarbekov, Shukur Xolmirzayev singari yozuvchilar ramziy obrazlardan foydalanib, inson ruhiyatining nozik qatlamlarini, jamiyatdagi ziddiyatlarni chuqur ifodaladilar. Ammo bu davrda ham sovet hukumati tomonidan bir qancha qarshiliklar bo‘ldi. Birgina O‘tkir Hoshimovning “Dunyoning ishlari” romanida oddiy hayotiy voqealar ortida jamiyatning ma’naviy muammolari ko‘rsatilib o‘tildi. Shukur Xolmirzayev ijodida ham bu kabi asarlarni ko‘rishimiz mumkin. Yozuvchi asarlarida inson taqdiri, jamiyatning ma’naviy holati va tarixiy manzaralarni ramzlar vositasida talqin etgan. Xususan, adib “Qil ko‘prik” romani orqali

xalqimizning boshidan kechirgan muhim voqealaridan biri bo‘lgan Buxoro milliy ozodlik inqilobi haqida so‘z yuritadi. Yozuvchi ushbu asarni yozishga bo‘lgan ishtiyoqini shunday tasvirlaydi: “Hamisha inqilobiy ko‘tarilishlar davrini qalamga olish maroqli bo‘ladi. Chunki bu davrda insonda shaxs sifatida ilgari ko‘rilmagan, “uyqudagi” jihatlar ham “uyg‘onadi”. Ikkilamchi, bunday ozodlik inqiloblari davrida eng insoniy g‘oyalar bayroq qilib ko‘tariladiki, har qanday vijdonli adib o‘zi, tabiiy, o‘sha bayroq ostida harakat qilgani uchun o‘sha davr haqida asar yozish, o‘sha davr odamlarini (imkon darajasida) tasvirlash bilan ular jamoasiga o‘z munosabatini bildiradi. Balki ana shu tabiiy ehtiyoj taqozosida asrimizda yuz bergan ko‘pgina milliy ozodlik inqiloblari (Vyetnam, Kuba, Angola, Nikaragua, Afg‘onistondagi inqiloblar) avvalida alifbening “a” harfidek turgan Buxoro milliy ozodlik inqilobiga beixtiyor qiziqar edim. Bu qiziqishning tag‘in bir oddiy sababi bor: o‘sha po‘rtanali voqealar kechgan joylarda esimni taniganman, o‘sha voqealar bolalikdan menga “ertaklar” bo‘lib qolgan edi. Qisqasi, ehtiyojga mehnat ham qo‘shildi: ushbu asar maydonga keldi”[3]. Natijada roman milliy ozodlik harakatlarini faqat tarixiy hodisa sifatida emas, balki insoniy g‘oyalar va ijtimoiy qadriyatlar bilan bog‘liq hodisa sifatida ochib beradi. Ayniqsa, asarda realizm va ramziylik, avvalo, inson ruhiyatining haqqoniy tasvirida namoyon bo‘ladi. “U: “ Yashash qanday soz! Ertangi kun qanday yaxshi bo‘ladi!” – deb o‘yladi. So‘ng darhol bu gaplarni ko‘p takrorlagani va “ertangi kun”ni aniq tasavvur etolmagani uchun bu o‘ydan kechib, fikrini chalg‘itishni istadi:”[3,B.4]. Adib bu parcha orqali asar qahramonining xayolidagi o‘y orqali butun bir davr muhitini ochib bermoqda.

Shukur Xolmirzayevning “Dinozavr” romani o‘zbek adabiyotida falsafiy ramziylikning muhim namunalaridan biridir. Asardagi ramziy qatlam kitobxonni oddiy voqelik doirasidan chiqarib, jamiyat, insoniyat va tarixiy xotira haqidagi umumiy falsafiy mushohadalarga undaydi. Bunda yozuvchi birgina ramziy obraz orqali butun bir davrning ma’naviy qiyofasini ochib beradi.

Avvalo, dinozavr obrazi o‘zbek adabiyotida kam uchraydigan timsollardan biri hisoblanadi. U o‘tmishda yashab, zamon bilan birga yashay olmagan mavjudot sifatida tasvirlanadi. Shu jihatdan, u jamiyatda eskilikka yopishib qolgan, davrdagi yangilanishlarga qarshi bo‘lgan kuchlarning ramziga aylanadi. Bu ramz orqali yozuvchi insoniyatning tarixiy saboqlarni unutishi, yangilikka moslasha olmaslik oqibatida yuzaga keladigan salbiy oqibatlar haqida xabar beradi.Adabiyotshunos U.Normatov asar haqida shunday yozadi: “Ba’zi fikrlarim takror bo‘lsa aytay: “Dinozavr” romani mavzu-materiali, mazmun-mundarijasi jihatidan o‘ta zamonaviy asar, unda asar bitilgan davrning nafasi ufurib turadi, mamlakatdagi, jamiyatdagi tub burilish, bozor iqtisodiyotiga o‘tish jarayonida odamlar hayoti, tabiati, ruhiyati, taqdirida, o‘zaro munosabatlarida yuz bergan o‘zgarish, evrilishlar qalamga olinadi, odamlarning o‘sha kezlardagi hayoti-kayfiyati bamisoli ko‘zguga solib ko‘rsatiladi. Dadil aytish mumkinki, o‘sha tub burilish asnosida, avvalo, adib qalbidagi, qolaversa, odamlar ruhiyatidagi evrilishlar, ularning holat-kayfiyati milliy adabiyotimizda ilk bor “Dinozavr” orqali roman ko‘zgusida o‘z aksini topdi”[2,B.64] Romanning o‘ziga xos jihatlaridan biri bu – jamiyat va shaxs o‘rtasidagi ziddiyatlar, ichki va tashqi qarama-qarshiliklarni ramziy timsollar orqali ochib beradi. Bu esa o‘quvchini o‘ylashga, xulosalar chiqarishga undaydi.

Yozuvchi roman janri bilan bir qatorda, hikoya janrida ham ancha-muncha qalam tebratgan yozuvchidir. Aynan, hikoyalarida adib mahoratini boshqa qirralari ochib beriladi. Hikoyalarida tabiat timsollari, hayvon obrazlari va o‘simliklar dunyosiga ko‘proq murojaat qiladilar.

Shukur Xolmirzayevning “Bulut to‘sgan oy” hikoyasi yozuvchining inson ruhiyatini chuqur tahlil qilish mahoratini namoyon etuvchi badiiy asarlardan sanaladi. Hikoyada voqealar rivojidan ko‘ra, qahramonning ichki kechinmalari, ruhiy iztiroblari va qalbidagi ziddiyatlar asosiy o‘ringa chiqadi. “Tanovar” raqsiga o‘ynaganida mohirona ko‘rsatib beradi: “Ma’lumingiz, “Tanovar” – tantanali, sho‘x, ustiga yana jo‘shqinlikni talab etadigan va bular jamisining namoyishidan iborat bir kuydirki, buning ifodasi o‘laroq o‘sha mashhur raqqosamizning o‘yinlari mukammal bir namuna sifatida qolgan... Gulsara o‘yin mazmunini o‘zicha talqin qila boshlagan, ya’ni tantanalar ichida g‘amnok va g‘arib bir kimsaning qalbini-da ifodalar, yuzi-yu lablaridagi siniq tabassum ham bu mazmunga bag‘oyat mos tushmoqda...edi”[4]. Muallif insonning tashqi hayotdagi holati bilan uning ichki dunyosi orasidagi nomutanosiblikni nozik tasvirlar orqali ochib beradi.

Asardagi oy timsoli inson qalbidagi pokiza tuyg‘ular, umid va ma’naviy yorug‘likni anglatadi. Bulut esa ana shu yorug‘likni vaqtincha to‘sib qo‘yuvchi tushkunlik, yolg‘izlik, hayotdagi murakkabliklar va ruhiy bosimlarning ramziy ifodasidir. Yozuvchi ushbu obrazlar vositasida inson qalbidagi ezgulik va yorug‘lik butunlay yo‘qolib ketmasligi, faqat hayotning ayrim sinovlari sabab bir muddat xiralashishi mumkinligini falsafiy ruhda ifodalaydi.

Xulosa. XX asr o‘zbek adabiyotida falsafiylik va ramziylik badiiy tafakkurning muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘ldi. Bu jarayonda Shukur Xolmirzayev ijodi alohida ahamiyat kasb etadi. Yozuvchi “Qil ko‘prik”, “Dinozavr” hikoyalarida inson ruhiyati, jamiyatdagi ma’naviy muammolar va davr ziddiyatlarini falsafiy mushohada asosida yoritgan.

Adib ramziy obrazlar orqali inson va jamiyat munosabatlarini chuqur badiiy talqin qiladi. Ko‘prik, dinozavr, tabiat va hayvon timsollari oddiy detal emas, balki muayyan falsafiy g‘oyalarni ifodalovchi badiiy vosita sifatida xizmat qiladi.

Shunday qilib, Shukur Xolmirzayev asarlari XX asr o‘zbek adabiyotida falsafiylik va ramziylikning yorqin namunasi bo‘lib, ular orqali inson ruhiyati va davr muammolari teran badiiy talqin etilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Quronov D. Adabiyotshunoslik nazariyasi. – Toshkent: Akademik nashr, 2012.
2. Ozod vatan saodati. Beshinchi jild. – Toshkent: Adib nashriyoti, 2013. 64-bet.
3. Xolmirzayev Sh. Qil ko‘prik. – Toshkent: Ziyo nashr, 2023.
4. Xolmirzayev Sh. Tanlangan asarlar. – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 2020.

Mohira ESHPO‘LATOVA,
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti Jurnalistika va o‘zbek filologiyasi fakulteti
Adabiyotshunoslik (o‘zbek adabiyoti) yo‘nalishi talabasi
Ilmiy rahbar: f.f.d., prof. Ulug‘bek HAMDAMOV



O‘ZBEK MODERN HIKOYALARIDA IJTIMOIY MUHIT VA QAHRAMON TALQINLARI

Annotatsiya: maqolada o‘zbek modern hikoyachiligida muhit va qahramon munosabatlari evrilishi tahlil qilingan. 1990–2020-yillardagi tafakkur o‘zgarishlari, realizmdan modernizmga o‘tish A.Fayzullayevning “Yobondagi bola” asari misolida o‘rganilib, shaxs ziddiyati qahramonning subyektiv idroki hamda ekzistensial inqirozi orqali namoyon bo‘lishi asoslangan.

Kalit so‘zlar: *modernizm, ijtimoiy muhit, yangi qahramon, ekzistensial inqiroz, subyektivizm.*

Аннотация: в статье анализируется эволюция взаимосвязи среды и героя в узбекской малой прозе 1990–2020-х годов. На примере рассказа А. Файзуллаева «Мальчик в степи» исследуется переход от реализма к модернизму. Обосновано, что конфликт личности раскрывается через субъективное восприятие и экзистенциальный кризис героя.

Ключевые слова: *модернизм, социальная среда, новый герой, экзистенциальный кризис, субъективизм.*

Annotation: the article analyzes the evolution of the environment-protagonist relationship in Uzbek short stories (1990–2020). Examining A. Fayzullayev’s “The Boy in the Wilds”, it explores the shift from realism to modernism. The study concludes that personality conflict manifests through the protagonist’s subjective perception and existential crisis.

Key words: *modernism, social environment, new hero, existential crisis, subjectivism.*

Adabiyot insoniyat bosib o‘tayotgan tarixiy yo‘lning badiiy aks-sadosi. U zamon bilan hamnafas yashashi, uning ichki va tashqi o‘zgarishlarini bugungi kun qahramoni siymosida gavdalantirishi lozim. Zamon o‘zgargani sayin insonning dunyoni anglash darajasi, ijtimoiy muhit bilan aloqasi va badiiy-estetik ehtiyojlari ham transformatsiyaga uchrab boradi. Insoniyat tarixida 1500-yillar odami bilan 1800-yillar odami orasidagi dunyoqarash tafovuti unchalik sezilarli bo‘lmagan bo‘lsa, 1900-yillar shaxsi bilan 2000-yillar odami o‘rtasida ulkan “ma’naviy jarlik” vujudga keldi. Bugungi kun odamining o‘zini anglashida, so‘zlashuv madaniyatida, talab va xohishlarida keskin o‘zgarishlar mavjud. Agar 2000-yillarda voyaga yetgan qirq yoshli inson bugungi yigirma yoshli avlodni tushunolmay, halak bo‘layotgan bo‘lsa, adabiyot aynan mana shu nuqtada murosa vazifasini o‘tashi kerak. Adabiyot – hayot ko‘zgusi sifatida ushbu farqlar qanday omillar (globallashuv, texnologiya, ijtimoiy erkinlik) ta’sirida yuzaga kelganini badiiy aks ettirib beruvchi vositadir. O‘zbek hikoyachiligini davrlar prizmasidan tahlil qilsak, qahramon siymosining quyidagi bosqichlarda o‘zgarganini ko‘ramiz: 1990-yillar odami: bu davr qahramoni sho‘ro mafkurasidan endigina ozod bo‘lgan, o‘zining milliy ildizlarini qidirayotgan va turg‘unlik asoratlaridan qutulishga urinayotgan shaxsdir. Bu qahramon tipologiyasi Nazar Eshonqulning “Maymun yetaklagan odam” hikoyalarida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Ular tarixiy xotirani tiklash va shaxs erkinligini himoya qilish bilan band. 2000-yillar odami: bu davrga kelib adabiyotga ijtimoiy muhitning shafqatsiz qonunlari qarshisida ezilgan, ammo ma’naviy butunligini asrab qolmoqchi bo‘lgan “kichik odam” kirib keldi. Luqmon Bo‘rixon “Yalangoyoq” va Alisher Fayzullayev “Yobondagi bola” hikoyalarida bu insonning kundalik tashvishlari, oilaviy og‘riqlari va maishiy realizm elementlari ustunlik qiladi. Bu davr qahramoni bozor iqtisodiyoti va yangi ijtimoiy munosabatlarga moslashish azobida tasvirlanadi. 2020-yillar odami: bugungi kun qahramoni – intellektual salohiyati yuqori, dunyo bilan bevosita muloqotda bo‘lgan, ekzistensial yolg‘izlikni his qiluvchi modernistik shaxsdir. Navro‘za Muhammadxo‘jayevaning “Giryon” va Zoir Zokirovning “Menlar”, “Kiyim” kabi hikoyalari bunga misol bo‘la oladi. Ular an’anaviy qoliplardan butunlay chiqib ketgan, talabchan va murakkab dunyoqarashga ega. Demak, 90-yillarning “izlanuvchi” qahramoni 2000-yillarda “kurashuvchi” (yoki jabrdiyda) qahramonga aylandi, 2020-yillarga kelib esa u “fikrlovchi va savol beruvchi” global shaxs sifatida namoyon bo‘lmoqda. Adabiyotning vazifasi – ushbu evrilishlar orasidagi uzviylikni saqlash va turli avlodlar o‘rtasida tushunish ko‘prigini yaratishdir. Jamiyat inson siymosini qanday yaratgan bo‘lsa, adabiyot uni xuddi shunday – barcha nuqson va fazilatlari bilan aks ettirishi shart. XX asrda yuzaga kelgan modernistik tafakkur adabiyotshunoslikka “yangi qahramon” va “yangi muhit” tushunchalarini olib kirdi. Klassik realizmda muhit

qahramon xarakterini belgilovchi obyektiv omil sifatida talqin etilgan bo‘lsa, modernistik estetikada ushbu munosabat subyektivizm va metafizik inqirozlar prizmasidan qayta ko‘rib chiqildi. Bu jarayon adabiyotda shunchaki uslub o‘zgarishi emas, balki insonning dunyoni anglash paradigmasining tubdan evrilishidir. XX asrning ijtimoiy-siyosiy evrilishlari, global urushlar va informatsion portlashlar insonning dunyo haqidagi yaxlit tasavvurlarini parchalab tashladi. Binobarin, modern qahramon o‘zi yashayotgan ijtimoiy muhitni barqaror struktura emasligini bilib qoldi va xaotik, begona makon sifatida qabul qila boshladi.

Ozod Sharafiddinov “Modernizm – jo‘n hodisa emas”[1] deb ta’kidlar ekan, ushbu oqimning zamirida inson ruhiyatining chuqur qatlamlarini tadqiq etish yotganini isbotladi. Olimning fikricha, modern qahramon tashqi muhit bilan emas, balki o‘zining ichki “Men”i bilan ko‘proq to‘qnashadi. Bu yerda ijtimoiy muhit qahramon uchun shunchaki dekoratsiya emas, balki uning ruhiy iztiroblarini yuzaga chiqaruvchi “katalizator” vazifasini o‘taydi. Agar realistik qahramon jamiyatni o‘zgartirishga intilsa, modern qahramon muhitdan begonalashish orqali o‘z ma’naviy yaxlitligini saqlab qolishga harakat qiladi. Bu jarayonda obyektiv voqelik o‘rnini subyektiv hissiyotlar, ijtimoiy tip o‘rnini esa ruhiy individuallik egallaydi. Ijtimoiy muhit asarda xolis bayon qilinmaydi, balki qahramonning subyektiv idroki, assotsiativ xotiralari va tushlari orqali namoyon bo‘ladi. Bu yerda xronotop (vaqt va makon) parchalangan bo‘lib, qahramon bir vaqtning o‘zida ham real ijtimoiy makonda, ham o‘zining psixologik dunyosida yashaydi.

Natijada asar markazida muayyan ijtimoiy qatlam vakili bo‘lgan tipik xarakter emas, balki o‘zining parchalangan ongi va ruhiy iztiroblari silsilasida yashaydigan subyekt turadi. Mazkur adabiy yo‘nalishlar o‘rtasidagi tafovutni paradigmal jihatdan tahlil qilganda shuni ko‘ramizki, klassik realizmda ijtimoiy-iqtisodiy determinatsiyalangan muhit ustuvor bo‘lsa, modernizmda subyektiv, xaotik va absurd muhit yetakchilik qiladi. Konflikt tabiati ham tubdan o‘zgarib, shaxs va jamiyat o‘rtasidagi ijtimoiy to‘qnashuvlardan shaxs va uning parchalangan o‘zligi o‘rtasidagi ekzistensial ziddiyatlarga ko‘chadi. Bu esa o‘z navbatida, badiiy matn tahlilida analitik tasvirdan ko‘ra germenevtik va ramziy talqin metodini qo‘llashni taqozo etadi.

Modern qahramon bu jamiyatning “ma’naviy ko‘zgusi” bo‘lib, u tashqi dunyoning mantiqsizligini o‘z ichki dunyosidagi tartib orqali yengishga intiladi. Ushbu jarayonda realizmning “tasviriyligi” o‘rnini modernizmning “tahliliyligi” va ramziy ko‘pma’noliligi egallaydi. Badiiy matnning polifonik tabiatini belgilovchi ushbu yangilanishlar milliy adabiyotimizning jahon adabiy jarayoni bilan hamnafasligini isbotlovchi muhim estetik hodisadir. Shu ruhda tahlil qilish uchun Alisher Fayzullayevning “Yobondagi bola” hikoyasini olishimiz mumkin. Unda oddiy odamlarning kundalik hayoti qalamga olinadi. Mustaqillik davri nasrida sotsialistik realizmga xos bo‘lgan balandparvozlik va qahramonlarni ideallashtirish an’anasidan voz kechilganini ko‘rishimiz mumkin. Xususan, ushbu hikoya ham. Hikoya muallifning boshqa fusunkor realizm yoki murakkab ramzlar ustiga qurilgan hiloyalaridan butkul farq qiladi. Hikoya hayotiy realizm asosiga qurilgan bo‘lib, unda oddiy o‘zbek oilasining turish-turmushi, maishiy muammolari va ichki dramalari boricha aks etgan. Sotsialistik realizm davrida inson jamiyatning muhim bo‘lagi, ulkan qurilishlar qatnashchisi sifatida tasvirlangan bo‘lsa, Fayzullayev qahramonlari chekka bir qishloqdagi kundalik tashvishlari bilan yashayotgan “mayda odamlar”dir. Yozuvchi oilani jamiyatning mas’uliyatli qismi deb jar solmaydi, aksincha, uni og‘riqlari va kamchiliklari bilan ko‘rsatadi. Bu esa mustaqillik davri adabiyotida badiiy diqqatning umumiylikdan xususiylikka o‘tgani bilan ko‘rishimiz mumkin. Hikoyada barcha voqealar bola nigohi orqali o‘tkaziladi. Bola oiladagi noxushliklarni, ota-onasining janjallarini qalban sezsa-da, hali aqlan tushunib yetmaydi. Bu holat asarning samimiyligini ta’minlaydi. Hikoyada boboning ko‘p ichishi va atrofdagilarning undan hayiqishi tasvirlari sho‘ro adabiyoti uchun “nobop” sanalgan, ammo hayotda mavjud bo‘lgan, ko‘p uchraydigan holatdir. Bola uchun esa, bobo shunchaki uni yaxshi ko‘radigan, ammo mastligida qo‘rqinchli bo‘lgan odam, xolos. Hikoyada ayollar obrazi (ona va bibi) o‘ta ezgin, kamsuqum va erkaklar qarshisida ojiz, mushtipar qilib tasvirlangan. Bu tasvir yangi davr nasrida ayol kishining ijtimoiy va oilaviy yuk ostida qolgan haqiqiy qiyofasini ochib beradi. Asar yakunida yobonga yig‘lab ketgan ayolining ortidan yo‘l olgan erkak obrazi – hikoyaning yechimidir. Bu harakat erkakning o‘z xatosi va mas’uliyatini anglashi, o‘g‘li va oilasining kelajagi uchun kurashishini bildiradi. Muallif soxtalik qo‘shmay, ideal bo‘lmagan oddiy oilani ko‘rsatadi. Uning sosialistik realizmdan farqli jihatlarini voqealar qanday bo‘lsa, shunday tasvirlanishi, soxta optimizm (baxtiyorlik) yo‘qligi, bo‘rttirmaslikda ko‘rishimiz mumkin. Alisher Fayzullayev ushbu hikoyasi bilan o‘zbek adabiyotida “oddiy o‘zbek oilasi” tushunchasini davom ettirdi. Undagi qahramon – ijtimoiy buyurtmalarni bajaruvchi emas, xato qiladigan, qo‘rqadigan, yig‘laydigan va kechiradigan tirik insonlardir. O‘z oilasini va ichki olamini asrab qolishga urinayotgan, mitti muammolari bilan katta hayot bag‘rida yashayotgan insoniy qiyofadir.

Xulosa qilib aytadigan bo’lsak, insonning shakllanishida muhit katta ahamiyatga ega. Hozirgi zamonaviy hikoyachiligimizda esa zamon va qahramon konflikti yaxshi ochib berilmoqda, uning ildizlariga tahliliy nazar tashlanmoqda.

1 “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” gazetasining 2002-yil 23-24-sonidan olindi.

Sitora RUZIMURODOVA,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
O‘zbek tili va adabiyoti 2 kurs magistr talabasi;
Ustozi: Olima O‘RINOVA,
Filologiya fanlari nomzodi, dotsent

XALQ OG‘ZAKI IJODI HAMDA ADABIY MATNLARDA O‘SIMLIK NOMLARINING RAMZIY-MIFOLOGIK VA KONNOTATIV TAHLILI
(Mumtoz va XX asr boshlari adabiyoti misolida)

Annotatsiya: mazkur maqolada o‘zbek xalq og‘zaki ijodi hamda mumtoz va XX asr boshlaridagi adabiy matnlarda uchraydigan o‘simlik nomlarining ramziy, mifologik va konnotativ ma’nolari tahlil qilinadi. Xususan, gul, rayhon, tol, chinor, anor, lola kabi fitonimlarning xalq tafakkuri va badiiy estetikadagi o‘rni yoritiladi. O‘simlik nomlarining folklordagi marosimiy-falsafiy vazifalari hamda mumtoz she’riyatdagi poetik semantikasi ilmiy asosda sharhlanadi. Shuningdek, XX asr boshlaridagi jadid adabiyotida o‘simlik obrazlarining yangi ma’naviy-ma’rifiy mazmun kasb etishi ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: *fitonim, ramz, mifologiya, konnotatsiya, folklor, mumtoz adabiyot, jadid adabiyoti, poetik obraz, o‘simlik nomlari, badiiy semantika.*

Аннотация: в данной статье анализируются символические, мифологические и коннотативные значения названий растений, встречающихся в узбекском устном народном творчестве, а также в классических литературных текстах и литературе начала XX века. В частности, раскрывается роль таких фитонимов, как цветок, райхон, ива, чинар, гранат и тюльпан, в народном мировоззрении и художественной эстетике. Научно освещаются обрядово-философские функции названий растений в фольклоре и их поэтическая семантика в классической поэзии. Также раскрывается приобретение образами растений нового духовно-просветительского содержания в джадидской литературе начала XX века.

Ключевые слова: *фитоним, символ, мифология, коннотация, фольклор, классическая литература, джадидская литература, поэтический образ, названия растений, художественная семантика.*

Annotation: this article analyzes the symbolic, mythological, and connotative meanings of plant names found in Uzbek folklore as well as in classical and early twentieth-century literary texts. In particular, the role of phytonyms such as flower, basil, willow, plane tree, pomegranate, and tulip in folk worldview and artistic aesthetics is highlighted. The ritual-philosophical functions of plant names in folklore and their poetic semantics in classical poetry are scientifically interpreted. In addition, the article reveals how plant images acquired new spiritual and educational meanings in Jadid literature of the early twentieth century.

Key words: *phytonym, symbol, mythology, connotation, folklore, classical literature, Jadid literature, poetic image, plant names, artistic semantics.*

Kirish. Til va adabiyot xalqning tarixiy xotirasi, dunyoqarashi hamda ma’naviy qadriyatlarini o‘zida mujassam etadi. Shu jihatdan o‘simlik nomlari ham xalq tafakkurida oddiy biologik birlik emas, balki muayyan ramziy va mifologik ma’nolarni ifodalovchi poetik vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Ayniqsa, xalq og‘zaki ijodida daraxt, gul va mevalar bilan bog‘liq tasavvurlar qadimiy e’tiqodlar, marosimlar va tabiat kultlari bilan uzviy bog‘liqdir.

Mumtoz adabiyotda esa o‘simlik nomlari inson ruhiyati, ishq, hijron, go‘zallik va komillik timsoli sifatida qo‘llanadi. XX asr boshlaridagi jadid adabiyotida esa fitonimlar ijtimoiy uyg‘onish, milliy o‘zlik va yangilanish ramziga aylanganini kuzatish mumkin. Shu bois o‘simlik nomlarini lingvopoetik va mifopoetik jihatdan o‘rganish muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

O‘simlik nomlarining xalq og‘zaki ijodidagi mifologik talqini

O‘zbek folklorida daraxt va gullar muqaddaslik timsoli sifatida talqin etilgan. Xususan, chinor daraxti uzoq umr, barqarorlik va avlod davomiyligini ifodalagan. Xalq orasida “chinorday ulug‘” iborasining mavjudligi ham shu mifologik qarash mahsulidir.

Tol daraxti esa ko‘pincha hijron va mung ramzi sifatida qo‘llanadi. Xalq qo‘shiqlarida “majnuntol” obrazi ayriliq va iztirobni ifodalovchi poetik birlikdir. Bu tasvir Sharq adabiyotidagi oshiqona an’analar bilan hamohangdir.

Rayhon va yalpiz kabi xushbo‘y o‘simliklar xalq marosimlarida poklik va ezgulik timsoli bo‘lib xizmat qilgan. Ayniqsa, kelin-kuyov marosimlarida rayhonning qo‘llanishi uning muqaddaslik bilan bog‘liq semantik qatlamini ko‘rsatadi.

Anor esa serfarzandlik, qut-baraka va farovonlik timsoli hisoblangan. Ko‘plab ertak va afsonalarda anor hosildorlik

hamda hayot davomiyligini anglatuvchi mifologik obraz sifatida namoyon bo‘ladi.

Mumtoz adabiyotda fitonimlarning poetik-konnotativ xususiyatlari

Mumtoz she’riyatda gul obrazi eng faol poetik birliklardan biridir. Gul ko‘pincha ma’shuqa husni va go‘zalligining timsoli sifatida qo‘llanadi. Bulbul va gul munosabati esa oshiq va ma’shuqa obrazlarini ifodalaydi.

Alisher Navoiy g‘azallarida gul, sarv, rayhon, sunbul singari fitonimlar estetik idealni yaratishda muhim poetik vosita bo‘lib xizmat qiladi. Masalan, sarv qad-qomat go‘zalligini, sunbul esa sochning jingalakligini ifodalagan.

Mumtoz adabiyotda lola obrazi ham chuqur ramziy ma’noga ega. Lola ko‘pincha ishq yo‘lida to‘kilgan qon, armon va fidoyilik timsoli sifatida talqin etiladi. Qizil lola rangining qon bilan bog‘lanishi Sharq poetikasidagi an’anaviy semantik qarashlardan biridir.

XX asr boshlaridagi adabiyotda o‘simlik obrazlari

Jadid adabiyotida fitonimlar yangi ma’rifiy va ijtimoiy mazmun bilan boyidi. Endilikda o‘simlik obrazlari faqat estetik vosita emas, balki milliy uyg‘onish ramziga aylandi.

Abdulla Avloniy va Cho‘lpon ijodida bahor, bog‘, yashil daraxt kabi tasvirlar xalqning uyg‘onishi va erkinlik istagini anglatadi. Bahor obrazi yangi davr, taraqqiyot va umid semantikasini ifodalaydi.

Cho‘lpon she’riyatida “qurigan daraxt” yoki “xazon” kabi obrazlar millatning og‘ir ahvoli va ijtimoiy tushkunligini ifodalovchi konnotativ birlik sifatida namoyon bo‘ladi. Aksincha, yashnagan bog‘ va gullar ozodlik va kelajak timsoli sifatida talqin qilinadi. Fitonimlarning bunday yangicha semantik talqini jadid adabiyotining ma’rifiy-estetik yo‘nalishini ochib beradi.

Xalq og‘zaki ijodi hamda mumtoz va XX asr boshlaridagi adabiy matnlarda o‘simlik nomlari muhim badiiy-estetik vosita sifatida qo‘llanadi. Ular xalqning dunyoqarashi, mifologik tasavvurlari va ruhiy kechinmalarini ifodalovchi ramziy birliklar hisoblanadi. Folklor namunalarida daraxt, gul va mevalar qadimiy e’tiqodlar hamda marosimlar bilan bog‘langan holda tasvirlanadi. Xususan, chinor daraxti uzoq umr va avlod davomiyligini, tol daraxti esa hijron va mungni ifodalagan. “Majnuntol” obrazi xalq qo‘shiqlarida ayriliq va sog‘inch timsoli sifatida keng uchraydi. Rayhon, yalpiz kabi xushbo‘y o‘simliklar poklik va ezgulik ramzi bo‘lib, marosimlarda muhim o‘rin tutgan. Ayniqsa, rayhonning kelin-kuyov marosimlarida ishlatilishi uning muqaddaslik bilan bog‘liq semantik ma’nosini kuchaytiradi. Anor esa hosildorlik, qut-baraka va serfarzandlik timsoli sifatida ertak hamda afsonalarda faol qo‘llangan.

Xalq orasida ayrim o‘simliklar bilan bog‘liq mifologik qarashlar ham mavjud bo‘lgan. Masalan, isiriq yovuz kuchlardan himoya qiluvchi vosita deb qaralgan va uni tutatish orqali balo-qazolardan saqlanish mumkinligiga ishonilgan. Tut daraxti oilaviy mustahkamlik va baraka timsoli sifatida qadrlangan. Ayrim hududlarda yangi kelin tushgan xonadonga tut ekish odati mavjud bo‘lib, bu farovonlik va avlod davomiyligini anglatgan.

Mumtoz adabiyotda fitonimlar yanada chuqur poetik ma’no kasb etadi. Alisher Navoiy kabi mutafakkir shoirlar ijodida gul, sarv, rayhon, sunbul, lola kabi o‘simlik nomlari inson go‘zalligi va ruhiy kechinmalarni tasvirlashda muhim poetik vosita bo‘lib xizmat qiladi. Gul ko‘pincha ma’shuqa husnining timsoli sifatida talqin qilinadi, bulbul esa oshiq obrazini ifodalaydi. Sharq mumtoz poetikasidagi “gul va bulbul” an’anasi ishqiy lirikaning asosiy obrazlaridan biridir. Sarv daraxti qomatning go‘zalligi va komillik timsoli sifatida qo‘llansa, sunbul ma’shuqaning jingalak sochlarini ifodalash uchun ishlatilgan. Lola obrazi esa ko‘pincha ishq yo‘lida to‘kilgan qon, armon va fidoyilik ma’nolarini anglatadi. Qizil lola rangining qon bilan bog‘lanishi Sharq adabiyotidagi an’anaviy ramziy qarashlar bilan izohlanadi.

Tasavvufiy adabiyotda ham o‘simlik obrazlari muhim o‘rin egallaydi. Gul ilohiy jamol timsoli, bulbul esa Haq ishqida yonuvchi oshiq ramzi sifatida talqin qilinadi. Bog‘, gulshan va bo‘ston obrazlari jannat, ruhiy osoyishtalik va ilohiy go‘zallikni ifodalaydi. Sarv daraxtining tik va mustahkam holati iroda, sabr va ma’naviy poklik timsoli sifatida tasvirlanadi. Shu tariqa fitonimlar mumtoz adabiyotda nafaqat tasviriy vosita, balki falsafiy-estetik ma’no tashuvchi poetik birlik sifatida namoyon bo‘ladi.

Xulosa. Xalq og‘zaki ijodi hamda mumtoz va XX asr boshlaridagi adabiy matnlarda o‘simlik nomlari muhim poetik va mifologik birlik sifatida namoyon bo‘ladi. Ular nafaqat tabiat unsuri, balki xalqning estetik tafakkuri, diniy qarashlari va ma’naviy qadriyatlarini ifodalovchi ramziy obrazdir.

Folklorda o‘simliklar muqaddaslik, hosildorlik va hayot davomiyligi bilan bog‘langan bo‘lsa, mumtoz adabiyotda ular ishq, go‘zallik va ruhiy komillik timsoliga aylangan. Jadid adabiyotida esa fitonimlar milliy uyg‘onish va ijtimoiy yangilanish g‘oyalarini ifodalovchi badiiy vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

Demak, o‘simlik nomlarining lingvopoetik va mifopoetik tahlili o‘zbek adabiyotidagi obrazlar tizimini chuqurroq anglash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alisher Navoiy. Xazoyin ul-maoniy – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 2011.
2. Cho‘lpon. Kecha va kunduz – Toshkent: Sharq, 2004.
3. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq – Toshkent: O‘qituvchi, 1992.
4. Ibrohim Haqqulov. Navoiy poetikasi – Toshkent: Fan, 2007.
5. O‘zbek xalq maqollari – Toshkent: Sharq, 2005.
6. To‘ra Mirzayev. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi – Toshkent: O‘zbekiston, 2010.
7. Naim Karimov. Jadid adabiyoti – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.

Navro‘za SOLIJONOVA,
O‘zbekiston Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti
O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi magistranti.
Toshkent tumani MTMga qarashli 9-maktabning ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi
navrozasolijonova@gmail.com

RAQAMLI MEDIA TA’SIRIDA SHAKLLANGAN LEKSEMALARNING LEKSIKOGRAFIK TALQINI

Annotatsiya: ushbu maqolada internet va ijtimoiy tarmoqlar integratsiyasi natijasida o‘zbek tilida yuzaga kelgan yangi leksemalar leksikografik tahlil qilingan. Tadqiqotning maqsadi raqamli media muhitida shakllangan birliklarning lingvistik tabiatini aniqlash va ularni lug‘atlarda aks ettirish tamoyillarini ishlab chiqishdan iborat. Ishda raqamli kommunikatsiya birliklarining semantik transformatsiya qonuniyatlari ilmiy asoslangan hamda ularni lug‘atlarga kiritish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: *raqamli media, leksema, leksikografiya, internet tili, yangi so‘zlar, lingvistika*

Annotation: the purpose of this article is to identify the linguistic nature of new lexemes formed in the digital media environment and to develop principles for their reflection in Uzbek lexicography. The study provides a lexicographic analysis of new words and expressions that have emerged through the internet and social networks. The scientific novelty of the work lies in the fact that it not only describes the place of digital communication units in dictionaries but also scientifically justifies the methodical problems of their systematic lexicographic processing and the laws of semantic transformation. Additionally, the article proposes practical recommendations for reflecting new lexemes in dictionaries and regulating their scope of usage.

Key words: *digital media, lexeme, lexicography, internet language, new words,linguistics.*

Аннотация: целью данной статьи является определение лингвистической природы новых лексем, сформировавшихся в среде цифровых медиа, и разработка принципов их отражения в узбекской лексикографии. В исследовании проводится лексикографический анализ новых слов и выражений, возникших в результате влияния интернета и социальных сетей. Научная новизна работы заключается в том, что в ней не только описывается место единиц цифровой коммуникации в словарях, но и научно обосновываются методические проблемы их системной лексикографической обработки и закономерности семантической трансформации. Также в статье выдвинуты практические рекомендации по отражению новых лексем в словарях и регулированию сферы их употребления.

Ключевые слова: *цифровые медиа, лексема, лексикография, язык интернета, новые слова, развитие языка, лингвистика.*

Kirish.Bugungi globallashuv davrida raqamli media vositalari — internet, ijtimoiy tarmoqlar va mobil ilovalar til tizimining dinamik rivojlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Bu jarayon natijasida paydo bo‘layotgan yangi leksemalar nafaqat muloqot ehtiyojini qondiradi, balki jamiyatdagi ijtimoiy-madaniy o‘zgarishlarning lisoniy in’ikosi sifatida namoyon bo‘ladi. Sh. Rahmatullayev ta’kidlaganidek, tilning lug‘at qatlami ijtimoiy evrilishlarni birinchi bo‘lib aks ettiruvchi eng dinamik tizimdir. Raqamli media leksemalari tezkorlik, lisoniy tejamkorlik va ommaviylik kabi xususiyatlari bilan ajralib turadi. Ularni standartlashtirish va leksikografik manbalarda aks ettirish zamonaviy o‘zbek tilshunosligining dolzarb vazifalaridan biridir.

Maqolaning asosiy maqsadi — raqamli media ta’sirida shakllangan leksemalarning lingvistik tabiatini aniqlash, ularning shakllanish usullarini o‘rganish va zamonaviy o‘zbek leksikografiyasida aks ettirish tamoyillarini asoslab berishdan iborat. Tadqiqot natijalari tilshunoslikning leksikologiya va leksikografiya sohalarini yangi nazariy qarashlar bilan boyitishda muhim ahamiyat kasb etadi[1].

Adabiyotlar sharhi. Leksikografiya sohasi til birliklarini tizimlashtirish, ularning semantik tarkibini izohlash va lug‘at shaklida taqdim etish funksiyasini bajaradi. Raqamli davrda yuzaga kelayotgan yangi leksemalarni ilmiy asosda talqin qilish leksikografiyaning strategik vazifalaridan

1 Rahmatullayev Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – T.: Universitet, 2006.

biridir. Chunki har qanday yangi so‘z o‘zining semantik yukiga, qo‘llanish doirasiga va pragmatik xususiyatlariga ega bo‘ladi. D.Kristalning (2006) fikricha, internet tili (netspeak) o‘zining tabiati bilan an’anaviy lisoniy qoliplardan farq qiluvchi alohida lingvistik hodisadir[2]. Ularni to‘g‘ri tahlil qilish va lug‘atlarda aks ettirish til rivojlanishini ilmiy tartibga solishga xizmat qiladi.

Raqamli media ta’sirida shakllanayotgan leksemalarni o‘rganish masalasi zamonaviy tilshunoslikda tobora dolzarb ahamiyat kasb etib bormoqda. So‘nggi yillarda bu yo‘nalishda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar tilning dinamik rivoji, ayniqsa, internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali yuzaga kelayotgan yangi til birliklarini tahlil qilishga qaratilgan. Xususan, xorijiy tilshunoslikda raqamli kommunikatsiya va til o‘zgarishlari o‘rtasidagi bog‘liqlik keng yoritilgan bo‘lib, unda yangi leksemalarning paydo bo‘lish mexanizmlari, ularning semantik va pragmatik xususiyatlari chuqur tahlil etilgan.

Ilmiy manbalarda qayd etilishicha, raqamli muhit tilning nafaqat leksik qatlamiga, balki uning stilistik va funksional tizimiga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Jumladan, internet tilida qisqartmalar, abbrevaturasimon birliklar, emotiv ifodalar keng qo‘llaniladi. Bu esa yangi leksemalarning shakllanishida lisoniy iqtisodiylik (ya’ni qisqa va tez ifoda qilishga intilish) tamoyilining ustuvor ekanligini ko‘rsatadi. Yu.N. Karaulov (1987) esa raqamli muhitda shakllanayotgan til shaxsi va uning kognitiv imkoniyatlarini tahlil qilar ekan, bu jarayonni til tizimining tashqi omillarga nisbatan yuqori darajadagi moslashuvchanligi deb hisoblaydi[3].

O‘zbek tilshunosligida ham bu masalaga bag‘ishlangan ayrim tadqiqotlar mavjud bo‘lib, ularda asosan, ingliz tilidan o‘zlashgan so‘zlar, internet terminlari va ijtimoiy tarmoqlar leksikasi o‘rganilgan. Biroq raqamli media ta’sirida yuzaga kelayotgan leksemalarning leksikografik talqini, ya’ni ularni lug‘atlarda aks ettirish masalasi yetarli darajada kompleks o‘rganilmagan. Aynan shu jihat mazkur tadqiqotning ilmiy yangiligini belgilaydi. Sh. Rahmatullayev (2010) ta’kidlaganidek, tilning lug‘at tarkibi ijtimoiy hayotdagi evrilishlarni birinchi bo‘lib o‘zida aks ettiruvchi eng dinamik tizimdir[4].

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, yangi leksemalarni o‘rganishda ularning kelib chiqish manbai, semantik transformatsiyasi, qo‘llanish chastotasi va ijtimoiy funksiyasi muhim omillar hisoblanadi. Ayniqsa, global tarmoqlar orqali kirib kelayotgan internatsional birliklarning milliy til tizimiga moslashuvi alohida e’tibor talab etadi. Bu jarayonda leksikografiya fani asosiy vosita sifatida namoyon bo‘lib, yangi so‘zlarni tizimlashtirish va ularni ilmiy asosda izohlash vazifasini bajaradi[5].

Metodologiya. Mazkur tadqiqotda qo‘llanilgan metodologiya bir necha ilmiy usullar majmuasiga asoslanadi. Sh. Safarov (2008) o‘z asarlarida lingvistik tadqiqot metodologiyasi tadqiqot obyektini tizimli o‘rganishda poydevor vazifasini o‘tashini ko‘rsatib o‘tgan. Shu asosda mazkur ishda quyidagi metodlar qo‘llanildi:

Kuzatish metodi: ijtimoiy tarmoqlar, internet platformalari va raqamli kommunikatsiya vositalarida faol qo‘llanilayotgan yangi leksemalar (masalan, *DM, PR, layk*) to‘plandi.

Tavsifiy (deskriptiv) metod: aniqlangan leksemalarning lingvistik xususiyatlari, semantik ma’nosi va funksional yuklamasi tahlil qilindi.

Qiyosiy metod: leksemalarning boshqa tillardagi muqobillari bilan solishtirish orqali ularning universallik darajasi aniqlandi.

Leksikografik tahlil metodi: tanlab olingan leksemalarning mavjud lug‘atlardagi (O‘zME va boshqalar) ifodasi o‘rganildi va yangi izohlar ishlab chiqildi.

Tadqiqot jarayonida sotsiolingvistik yondashuv elementlaridan foydalanildi, bu esa leksemalarning jamiyat ongidagi o‘rnini yoritishga yordam berdi.

Natija va muhokamalar. Tahlil qilish natijalari shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy til tizimi dinamik rivojlanish bosqichida bo‘lib, unda yangi birliklarning paydo bo‘lishi tobora jadallashib bormoqda. Ayniqsa, internet va ijtimoiy tarmoqlar tilga sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatib, yangi leksemalarning keng ommalashuviga zamin yaratmoqda. Bu jarayon natijasida tilning leksik qatlami boyib borayotgan bo‘lsa-da, uning me’yoriyligi va tartibga solinishi bilan bog‘liq muammolar ham yuzaga kelmoqda[6].

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, raqamli media muhitida yuzaga kelayotgan leksemalar bir necha asosiy yo‘nalishda shakllanadi. Buni quyidagi jadval orqali vizual tarzda ifodalash mumkin:[7]

Ushbu tahlillarga ko‘ra, birinchi yo‘nalishda global kommunikatsiya jarayonining tilga bevosita ta’sirini ko‘rish mumkin. Ikkinchi yo‘nalishda esa ijtimoiy tarmoqlardagi tezkorlik va lisoniy iqtisodiylik tamoyili ustuvorlik qiladi[8]. Uchinchi yo‘nalishda tilning ichki imkoniyatlari asosida yangi ma’no qatlamlari shakllanayotgani kuzatiladi.

2 Karaulov, Yu. N. Russkiy yazik i yazikovaya lichnost. – M.: Nauka, 1987.
3 Karaulov, Yu. N. (1987). Russkiy yazik i yazikovaya lichnost. Nauka.
4 Rahmatullayev, Sh. (2010). Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Mumtoz so‘z.
5 Safarov, Sh. Lingvistik tadqiqot metodologiyasi. Akademnashr, 2008.
6 Crystal, D. (2006). Language and the Internet. Cambridge University Press.
7 Karaulov, Yu. N. (1987). Russkiy yazik i yazikovaya lichnost. Nauka.
8 Crystal, D. (2006). Language and the Internet. Cambridge University Press.

1-jadval. Raqamli media muhitida leksemalarning shakllanish yo‘nalishlari

T/r	Shakllanish yo‘li	Tavsifi	Misollar
1.	**Xorijiy o‘zlashmalar**	Ingliz tilidan to‘g‘ridan to‘g‘ri yoki moslashgan holda kirishi	*Post, like, story, bloger, strim*
2.	**Abbreviatsiya**	Tezkor muloqot uchun iboralarning qisqarishi	*DM (Direct Message), PR, LOL, ASAP*
3.	**Semantik siljish**	Mavjud so‘zlarning yangi media ma’nosini kasb etishi	*Obuna, kanal, profil, devor, lenta*

Muhokama jarayonida mazkur leksemalarning asosiy xususiyatlari sifatida ularning tezkor tarqalishi va ommaviyligi alohida ajralib turadi. Biroq ularning barchasi ham barqaror til birligiga aylana olmaydi; ayrimlari vaqt o‘tishi bilan iste’moldan chiqib ketadi. Shu nuqtayi nazardan, leksikografik talqin masalasi muhim ahamiyat kasb etib, hozirgi mavjud lug‘atlarda bu birliklarning aksariyati yetarli darajada yoritilmagan[9].

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, yangi leksemalarni lug‘atga kiritishda ularning qo‘llanish chastotasi, ijtimoiy ahamiyati va barqarorligi kabi mezonlarga amal qilish lozim. Olib borilgan leksikografik tahlil asosida ayrim leksemalarga namunaviy izohlar ishlab chiqildi, bu esa kelgusida maxsus “Raqamli media lug‘ati”ni yaratish zarurati va imkoniyatini asoslaydi[10].

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, raqamli media nafaqat yangi leksemalar manbai, balki tilning funksional imkoniyatlarini kengaytiruvchi vositadir. Bu yo‘nalishdagi izlanishlar tilning rivojlanish qonuniyatlarini chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

XULOSA. Xulosa qilib aytish mumkinki, Raqamli media muhitida shakllanayotgan leksemalarni lingvistik va leksikografik jihatdan tadqiq etish natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

Raqamli kommunikatsiya – yangi leksika manbai sifatida: zamonaviy o‘zbek tili taraqqiyotida raqamli media (internet, ijtimoiy tarmoqlar va mobil ilovalar) eng dinamik leksik o‘zgarishlar maydoniga aylandi. Bu jarayonda til nafaqat yangi tushunchalarni qabul qilmoqda, balki mavjud birliklarning semantik doirasini kengaytirmoqda. D. Kristal (2006) ta’kidlaganidek, internet tili an’anaviy yozma va og‘zaki nutq shakllari o‘rtasidagi masofani qisqartirib, yangi kommunikativ platformani vujudga keltirdi.

Shakllanish mexanizmlari: tadqiqot davomida aniqlangan yangi leksemalar asosan uchta yo‘nalishda shakllanmoqda: to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘zlashmalar (*post, bloger*), abbreviatsiya (*DM, LOL*) va semantik transformatsiya (*kanal, obuna, profil*). Bu jarayonda lisoniy iqtisodiylik tamoyili yetakchi o‘rin tutadi, ya’ni foydalanuvchilar axborotni minimal vaqt va hajmda uzatishga intiladilar.

Leksikografik tizimlashtirish zarurati: dastlabki kuzatishlar va tahlillar shuni ko‘rsatadiki, hozirgi kunda amaldagi lug‘atlar va raqamli media leksikasi o‘rtasida ma’lum darajada uzilish mavjud. Yangi paydo bo‘layotgan va ommalashayotgan leksemalarning aksariyati hali leksikografik manbalarda o‘z aksini topmagan. Bu esa zamonaviy o‘zbek leksikografiyasi oldiga raqamli terminologiyani me’yorlashtirish va tizimli ravishda lug‘atlarga kiritish vazifasini qo‘yadi.

Amaliy ahamiyat: raqamli media leksemalarini o‘rganish nafaqat nazariy tilshunoslik, balki amaliy sohalar — ta’lim, jurnalistika va IT texnologiyalari uchun ham muhimdir. Mazkur tadqiqot asosida ishlab chiqilgan namunaviy izohlar kelgusida sohaga oid maxsus o‘quv va terminologik lug‘atlarni yaratish uchun poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

Umumiy xulosalar shuni ko‘rsatyaptiki, raqamli media ta’sirida shakllangan leksemalar zamonaviy o‘zbek tilining boyishiga xizmat qiluvchi muhim omildir. Ushbu jarayonni ilmiy tahlil qilish va leksikografik jihatdan tartibga solish tilimizning globallashuv sharoitida o‘z nufuzi va sofligini saqlab qolish imkonini beradi.

9 Rahmatullayev, Sh. (2010). Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Mumtoz so‘z.
10 Safarov, Sh. (2008). Lingvistik tadqiqot metodologiyasi. Akademnashr.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Crystal, D. Language and the Internet. 2nd ed. – Cambridge: Cambridge University Press, 2006.316 p.[cite: 1]
2. Караулов Ю. Н. Русский язык и языковая личность. – Москва: Наука, 1987. 261 с.
3. Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2000–2005.
4. Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили (Лексикология). –Тошкент: Мумтоз сўз, 2010. 410-б.
5. Сафаров Ш. Лингвистик тадқиқот методологияси. – Тошкент: Академнашр, 2008.92-б.
6. Telegram, Instagram, Facebook ва блог платформалари маълумотлари (2026). – URL:https://t.me (мурожаат санаси: 06.05.2026).

Dilnoza BURONOVA,
Samarkand State Institute of Foreign Languages
e-mail: buronova@samdchti.uz



BADIIY USLUBNING NAZARIY ASOSLARI VA UNING ZAMONAVIY TALQINI

Annotatsiya:mazkur maqolada badiiy uslubning nazariy asoslari va uning zamonaviy talqinlari tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida badiiy uslubning lingvistik, estetik va kognitiv jihatlari yoritilib, uning muallif individualligi bilan bog‘liqligi ko‘rsatib beriladi. Shuningdek, jahon va o‘zbek adabiyotshunosligida badiiy uslub tushunchasiga berilgan yondashuvlar qiyosiy tahlil asosida o‘rganiladi. Natijada badiiy uslubni kompleks yondashuv asosida tadqiq etish zarurligi asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: *badiiy uslub, stilistika, lingvopoetika, muallif individualligi, badiiy matn, estetiklik*

Аннотация:в данной статье рассматриваются теоретические основы художественного стиля и его современные интерпретации. В ходе исследования освещаются лингвистические, эстетические и когнитивные аспекты художественного стиля, а также его связь с индивидуальностью автора. Кроме того, проводится сравнительный анализ подходов к понятию художественного стиля в мировой и узбекской литературоведческой науке. В результате обосновывается необходимость комплексного изучения художественного стиля.

Ключевые слова: *художественный стиль, стилистика, лингвопоэтика, авторская индивидуальность, художественный текст, эстетика*

Annotation:this article examines the theoretical foundations of artistic style and its modern interpretations. The study explores the linguistic, aesthetic, and cognitive aspects of artistic style, as well as its connection with the author’s individuality. In addition, a comparative analysis of approaches to artistic style in world and Uzbek literary studies is conducted. The results highlight the importance of a comprehensive approach to the study of artistic style.

Key words: *artistic style, stylistics, linguopoetics, authorial individuality, literary text, aesthetics*

Kirish. Badiiy uslub — bu yozuvchining individual mahorati, uning dunyoqarashi va badiiy tafakkurining tildagi in’ikosidir.Har bir ijodkor o‘ziga xos til vositalari, obrazlar tizimi va ifoda usullari orqali betakror badiiy olam yaratadi. Adabiyotshunoslik fanida ushbu individual uslubni tadqiq etish, uning tarkibiy qismlarini o‘rganish va boshqa bir til muhitida qayta yaratish muammosi hamisha dolzarb bo‘lib kelgan.Ayniqsa, badiiy tarjima jarayonida muallif uslubini saqlab qolish nafaqat adabiyotshunoslik, balki tilshunoslikning ham markaziy masalalaridan biri hisoblanadi. Xususan, badiiy matnning estetik maqsadni amalga oshirishdagi o‘ziga xosligi va unda umumxalq tilidagi vositalarning transformativ ishtiroki muhim tadqiqot obyekti hisoblanadi (Jamoladdinova, 2022).

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Badiiy uslub tushunchasi adabiyotshunoslik va stilistika fanlarining markaziy kategoriyalaridan biri sifatida turli davr va maktablarda turlicha talqin etilgan. Klassik rus adabiyotshunosligida uslub, avvalo, muallif individualligini ifodalovchi asosiy vosita sifatida qaraladi.Xususan, V. V. Vinogradov uslubni til birliklarining maqsadga muvofiq tanlovi va ularning badiiy tizimdagi o‘zaro munosabati sifatida izohlaydi. Uning fikricha, badiiy uslub — bu muallifning estetik niyatini amalga oshiruvchi til vositalari tizimidir.

G‘arb adabiyotshunosligida esa uslub tushunchasi yanada kengroq — “authorial voice” va “individual style” doirasida talqin qilinadi. Masalan, Simpson (2004) stilistikani tilning estetik imkoniyatlarini o‘rganuvchi fan sifatida ko‘rib, badiiy uslubni tilning

eng yuqori ijodiy darajasi deb baholaydi.Herrmann va van Dalen-Oskam (2015) esa uslubni muallif individualligining matndagi ifodasi sifatida talqin qilib, uni o‘ziga xos “stilistik imzo” sifatida tushuntiradi. Bu yondashuvlarga ko‘ra, badiiy uslub nafaqat lingvistik, balki kognitiv va madaniy omillar bilan ham uzviy bog‘liqdir.

Zamonaviy tadqiqotlarda badiiy uslub lingvopoetik yondashuv asosida o‘rganilib, unda til va mazmunning o‘zaro uyg‘unligi, ekspressiv vositalarning funksional roli alohida e’tiborga olinadi. Bu esa badiiy matnni kompleks hodisa sifatida talqin qilish imkonini beradi.

O‘zbek adabiyotshunosligida ham badiiy uslub masalasi dolzarb ilmiy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Jumladan, Jamoladdinova (2022) badiiy uslubni umumxalq tilidagi vositalarning transformativ qo‘llanilishi orqali shakllanuvchi estetik tizim sifatida izohlaydi va unda har bir til birligi alohida poetik qimmat kasb etishini ta’kidlaydi. Akbarova (2022) esa o‘zbek tilshunosligida lingvopoetik tahlillarning rivojlanishini qayd etib, badiiy matn tilining chuqurroq o‘rganilayotganini ko‘rsatadi. Buronova (2022) tadqiqotida jahon va o‘zbek adabiyotshunosligida badiiy hamda muallif uslubining o‘zaro aloqasi qiyosiy tahlil asosida o‘rganilib, original va tarjima asarlarda uslubni qayta yaratish masalalari yoritiladi. Mazkur tadqiqotda badiiy uslubni saqlash jarayonida lingvistik va estetik omillarning o‘zaro ta’siri muhim omil sifatida baholanadi.

Shu bilan birga, mavjud tadqiqotlar asosan, badiiy uslubning umumiy nazariy jihatlariga qaratilgan bo‘lib, uning zamonaviy talqini va kompleks yondashuv asosida tahlili yetarli darajada tizimlashtirilmagan. Mazkur holat ushbu tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi hamda badiiy uslubni nafaqat lingvistik, balki estetik va tafakkuriy fenomen sifatida o‘rganishni taqozo etadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Badiiy uslubning nazariy asoslari adabiyotshunoslikda klassik va zamonaviy yondashuvlarni o‘z ichiga oladi, ammo o‘zbek adabiyotidagi maxsus xususiyatlar alohida e’tiborga loyiq. Shu tufayli mazkur tadqiqotda badiiy uslubning nazariy asoslarini yoritish hamda uning zamonaviy talqinlarini aniqlash maqsadida kompleks yondashuvdan foydalanildi. Tadqiqot metodologiyasi stilistika va lingvopoetika sohalarida qo‘llaniladigan zamonaviy ilmiy usullarga tayandi. Jumladan, lingvopoetik tahlil metodi asosiy metod sifatida tanlandi. Ushbu metod orqali badiiy matndagi til birliklarining estetik va obrazli funksiyalari, ularning muallif niyatini ifodalashdagi roli tahlil qilindi. Lingvopoetik yondashuv badiiy matnni til va mazmunning o‘zaro uyg‘unligi asosida tahlil qilish imkonini yaratib, unda qo‘llangan ekspressiv vositalarning funksional ahamiyatini chuqurroq ochib berishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, tadqiqotda qiyosiy-stilistik tahlil usulidan ham foydalanildi. Ushbu metod orqali jahon va o‘zbek adabiyotshunosligida badiiy uslub tushunchasiga berilgan talqinlar o‘zaro solishtirilib, ularning umumiy va farqli jihatlari aniqlab chiqildi. Bunday yondashuv badiiy uslub nazariyasining ham umumiy, ham milliy xususiyatlarini aniqlashda muhim o‘rin tutadi. Natijada qo‘llangan metodlar yig‘indisi badiiy uslubni faqat lingvistik hodisa sifatida emas, balki estetik va tafakkur fenomeni sifatida har tomonlama o‘rganish imkonini berdi.

Tahlil va natijalar. Izlanishim davomida badiiy uslubni faqat til vositalari yig‘indisi sifatida tushunish yetarli emasligi yaqqol ko‘zga tashlandi. U, avvalo, muallifning ichki dunyosi, tafakkuri va estetik qarashlarining matndagi ifodasidir. Tahlillar asosida badiiy matnda qo‘llanilgan har bir so‘z, ibora yoki uslubiy vosita tasodifiy emas, balki umumiy badiiy niyatga xizmat qiladi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Qiyosiy tahlil natijalari jahon va o‘zbek adabiyotshunosligida badiiy uslubga yondashuvlarda ma’lum farqlar mavjudligini ko‘rsatdi. Masalan, g‘arb tadqiqotlarida ko‘proq muallifning “ovozi”, ya’ni individualligi va uslubiy imzosi muhim deb qaralsa, o‘zbek ilmiy an’anasida badiiy uslubning til va madaniyat bilan bog‘liqligiga ko‘proq e’tibor beriladi.Shuningdek, badiiy uslubning asosiy belgilariga obrazlilik, emotsionallik va ekspressivlik kirishiga guvoh bo‘ldik. Aynan shu jihatlar matnni oddiy axborotdan ajratib, uni badiiy darajaga olib chiqadi. Shu bilan birga, bu elementlar o‘quvchiga ta’sir qilishda muhim rol o‘ynaydi. Umuman olganda, olingan natijalar badiiy uslubni faqat lingvistik hodisa sifatida emas, balki estetik va tafakkur jarayoni sifatida ko‘rib chiqish zarurligini ko‘rsatdi. Bu esa mazkur tushunchaning zamonaviy talqinini yanada kengroq yoritish imkonini beradi.

Olingan natijalar badiiy uslubni tushunishda bir tomonlama yondashuv yetarli emasligini ko‘rsatadi. Ya’ni uni faqat til vositalari orqali izohlash badiiy

matnning asl mohiyatini to‘liq ochib bera olmaydi. Chunki badiiy uslub ortida muallifning dunyoqarashi, ichki kechinmalari va individual fikrlash tarzi yotadi. Jahon va o‘zbek adabiyotshunosligi o‘rtasidagi farqlar ham aynan shu nuqtada yaqqol ko‘zga tashlanadi.G‘arb ilmiy an’anasida muallif individualligi, uning “ovozi” va uslubiy imzosi markaziy o‘ringa qo‘yiladi.Bu yondashuv badiiy matnni ko‘proq shaxsiy ifoda sifatida talqin qiladi.O‘zbek adabiyotshunosligida esa badiiy uslub til, madaniyat va millat tafakkuri bilan uzviy bog‘liq holda qaraladi.Bu esa badiiy matnni faqat individual emas, balki ijtimoiy-madaniy hodisa sifatida ham ko‘rishga imkon beradi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, har ikkala yondashuvni qarama-qarshi qo‘yishdan ko‘ra, ularni bir-birini to‘ldiruvchi jihatlar sifatida baholash maqsadga muvofiq. Chunki badiiy uslub ham muallif individualligini, ham milliy-madaniy xususiyatlarni o‘zida mujassam etadi.Bundan tashqari, tadqiqot natijalari badiiy uslubni o‘rganishda lingvopoetik yondashuvning samarali ekanini ham ko‘rsatdi.Chunki aynan shu yondashuv orqali til va mazmun o‘rtasidagi nozik bog‘liqlikni ko‘rish mumkin bo‘ladi. Bu esa badiiy matnni, jumladan, yozuvchini tushunishga yordam beradi. Demak, badiiy uslubni kompleks yondashuv asosida — ya’ni lingvistik, estetik va kognitiv jihatlarini birgalikda o‘rganish eng to‘g‘ri yo‘l ekanligi o‘z isbotini topdi.

Xulosa va takliflar. Ushbu tadqiqot natijalari badiiy uslubning murakkab va ko‘p qatlamli hodisa ekanligini yana bir bor tasdiqladi.Uni faqat til vositalari yig‘indisi sifatida talqin qilish yetarli emas, chunki badiiy uslub muallifning estetik tafakkuri, dunyoqarashi va individual yondashuvi bilan chambarchas bog‘liqdir. Tahlillarimiz badiiy matnda til birliklari oddiy kommunikativ vazifani bajarib qolmay, balki obraz yaratish, hissiy ta’sir uyg‘otish va muallif g‘oyasini yetkazishda faol ishtirok etishini tasdiqladi.Shu jihatdan badiiy uslub matnning estetik qiymatini belgilovchi asosiy omillardan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Shuningdek, jahon va o‘zbek adabiyotshunosligidagi yondashuvlar tahlili badiiy uslubni turlicha talqin qilish mumkinligini ko‘rsatdi. Biroq bu farqlar uni tushunishda to‘siq emas, aksincha, mazkur tushunchaning ko‘lamini kengaytiradi va uni yanada chuqurroq anglashga yordam beradi. Umuman olganda, badiiy uslubni kompleks yondashuv asosida o‘rganish — ya’ni uni lingvistik, estetik va tafakkuriy jihatlar uyg‘unligida tahlil qilish — zamonaviy adabiyotshunoslikning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.Mazkur yondashuv kelgusida badiiy matnlarni chuqurroq o‘rganish va yangi ilmiy xulosalar chiqarish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Akbarova, M.Badiiy Matnda Uchraydigan G‘ayriodatiy Birikmalarning Lingvo-Poetik Xususiyatlari.2022. Comparative Turkish Dialects and Literatures. 1 (2). 25-31. https://izlik.org/JA42NP93UZ

2. Buronova, D. B. (2022). Theoretical methodological basis of studying the author’s art method. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 12(2), 47–52. https://doi.org/10.5958/2249-7137.2022.00094.5

3. Herrmann J. B., van Dalen-Oskam K., Schöch C. Revisiting style, a key concept in literary studies. // Journal of Literary Theory. 2015. – Vol. 9, No. 1. – P. 25–52.

4. Jamoladdinova, D. (2022). She’riy Matnlarda Terminlarning Epitet Sifatida Qo‘llanilishi. Comparative Turkish Dialects and Literatures. 1 (2). 17-24. https://doaj.org/article/f9cbedca7a114e0b8f5e0beb953f0000

5. Simpson P. Stylistics: A Resource Book for Students. – London: Routledge, 2004. 270 p.

6. Виноградов В. В. О языке художественной литературы. – Москва: Наука, 1971. 240 с.

Munisa TURDIMURODOVA,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi
2-kurs magistr talabasi

ZAMONAVIY LEKSIKOGRAFIYADA O‘QUV LUG‘ATLARNING ROLI

Annotatsiya: mazkur maqolada zamonaviy leksikografiyada o‘quv lug‘atlarning o‘rni va ahamiyati yoritilgan. O‘quv lug‘atlarning ta’lim jarayonidagi funksiyalari, ularning til o‘rgatishdagi roli hamda raqamli texnologiyalar bilan integratsiyasi tahlil qilinadi. Shuningdek, o‘quvchilarning leksik kompetensiyasini rivojlantirishda lug‘atlarning pedagogik ahamiyati ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: *leksikografiya, o‘quv lug‘at, til o‘qitish, leksik kompetensiya, pedagogika, zamonaviy ta’lim, elektron lug‘at, til madaniyati, semantika, lingvistika.*

Аннотация: в данной статье рассматривается роль и значение учебных словарей в современной лексикографии. Анализируются функции учебных словарей в образовательном процессе, их роль в обучении языку, а также их интеграция с цифровыми технологиями. Кроме того, рассматривается педагогическое значение словарей в развитии лексической компетенции учащихся.

Ключевые слова: *лексикография, учебный словарь, обучение языку, лексическая компетенция, педагогика, современное образование, электронный словарь, языковая культура, семантика, лингвистика.*

Annotation: this article discusses the role and importance of educational dictionaries in modern lexicography. It analyzes the functions of educational dictionaries in the learning process, their role in language teaching, and their integration with digital technologies. In addition, the pedagogical significance of dictionaries in developing learners’ lexical competence is considered.

Keywords: *lexicography, educational dictionary, language teaching, lexical competence, pedagogy, modern education, electronic dictionary, language culture, semantics, linguistics.*

Kirish. Zamonaviy ta’lim tizimida til o‘rgatish jarayoni tobora murakkablashib, interfaol va innovatsion yondashuvlarni talab etmoqda. Ushbu jarayonda o‘quv lug‘atlar muhim didaktik vosita sifatida katta ahamiyat kasb etadi. O‘quv lug‘atlar o‘quvchilarga so‘z boyligini oshirish, to‘g‘ri talaffuz va yozuvni o‘zlashtirish hamda nutq madaniyatini rivojlantirishda yordam beradi.

Leksikografiya sohasining rivojlanishi natijasida an’anaviy lug‘atlardan tashqari elektron va onlayn lug‘atlar ham keng qo‘llanila boshladi. Bu esa o‘quvchilarga tezkor va qulay ma’lumot olish imkonini yaratmoqda. Shu sababli o‘quv lug‘atlarning zamonaviy leksikografiyadagi o‘rni dolzarb ilmiy muammo hisoblanadi.

Asosiy qism. O‘quv lug‘atlar ta’lim jarayonida bir necha muhim funksiyalarni bajaradi. Birinchidan, ular o‘quvchilarning leksik boyligini kengaytiradi va yangi so‘zlarni o‘zlashtirishga yordam beradi. Ikkinchidan, lug‘atlar so‘zlarning ma’nosini tushuntirish orqali semantik kompetensiyani rivojlantiradi.

Zamonaviy leksikografiyada elektron lug‘atlar alohida ahamiyatga ega. Ular tezkor qidiruv, audio talaffuz, misollar va interfaol mashqlarni o‘z ichiga olishi bilan an’anaviy lug‘atlardan farq qiladi. Bu esa o‘quvchilarning mustaqil o‘rganish jarayonini faollashtiradi.

Shu bilan birga, zamonaviy leksikografiyada korpus lingvistika asosida tuzilgan lug‘atlar ham rivojlanmoqda. Bunday lug‘atlar real matnlar bazasiga asoslanib tuziladi va so‘zlarning haqiqiy qo‘llanilish kontekstlarini aks ettiradi. Bu o‘quvchilarga so‘zlarni faqat nazariy emas, balki amaliy jihatdan ham o‘rganish imkonini beradi. O‘quv lug‘atlar zamonaviy leksikografiyada til o‘qitish jarayonining markaziy didaktik vositalaridan biri sifatida qaraladi. Ular o‘quvchilarga leksik birliklarni faqat yodlash emas, balki ularni to‘g‘ri tushunish, kontekstda qo‘llash va nutqda faol ishlatish imkonini beradi. Shu jihatdan o‘quv lug‘atlar tilni amaliy o‘rganish jarayonini yengillashtiruvchi muhim pedagogik vosita hisoblanadi. Bundan tashqari, zamonaviy o‘quv lug‘atlarida vizual va multimodal elementlar keng qo‘llaniladi. Rasm, diagramma, video va audio materiallar orqali so‘zning ma’nosi yanada aniq va esda qolarli bo‘ladi. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim bosqichida bunday yondashuv o‘quvchilarning qiziqishini oshirishda muhim rol o‘ynaydi.

O‘quv lug‘atlarining yana bir muhim jihati ularning integrativ funksiyasidir. Ular faqat til darslarida emas, balki adabiyot, tarix, geografiya va boshqa fanlarda

ham qo‘llanilishi mumkin. Bu esa fanlararo bog‘liqlikni kuchaytiradi va o‘quvchilarning umumiy bilim darajasini oshiradi.

Raqamli transformatsiya sharoitida o‘quv lug‘atlar sun’iy intellekt va katta ma’lumotlar (Big Data) asosida ham rivojlanmoqda. Masalan, foydalanuvchi tez-tez ishlatadigan so‘zlar tahlil qilinib, unga mos yangi leksik materiallar tavsiya etiladi. Bu esa shaxsiylashtirilgan ta’limni yanada samarali qiladi.

Shuningdek, zamonaviy elektron lug‘atlar interaktiv mashqlarni ham o‘z ichiga oladi. Testlar, topshiriqlar va o‘yinlar orqali o‘quvchilar so‘zlarni mustahkamlash imkoniga ega bo‘ladilar. Bu esa an’anaviy yodlash usulidan farqli ravishda faol o‘rganish metodini shakllantiradi.

O‘quv lug‘atlarining ijtimoiy-pedagogik ahamiyati ham katta. Ular o‘quvchilarda mustaqil ishlash ko‘nikmasini rivojlantiradi, axborot bilan ishlash madaniyatini shakllantiradi hamda ularni izlanishga undaydi. Bu esa zamonaviy kompetensiyaviy ta’limning muhim talablaridan biridir. Shu bilan birga, o‘quv lug‘atlarni yaratishda lingvistik aniqlik, metodik qulaylik va foydalanuvchi ehtiyojlarini hisobga olish muhimdir. Har bir lug‘at maqsadli auditoriyaga moslashtirilgan bo‘lishi, ortiqcha murakkablikdan holi va tushunarli tilda yozilishi kerak.

Umuman olganda, o‘quv lug‘atlar zamonaviy ta’lim tizimida nafaqat yordamchi vosita, balki til o‘qitish jarayonining ajralmas tarkibiy qismi sifatida qaraladi.

So‘nggi yillarda o‘quv lug‘atlarida pragmatik yondashuv kuchayib bormoqda. Bu yondashuvga ko‘ra, so‘zning faqat lug‘aviy ma’nosi emas, balki uning nutqdagi vazifasi, emotsional bo‘yoqdorligi va ijtimoiy kontekstdagi qo‘llanilishi ham ko‘rsatiladi. Natijada o‘quvchi so‘zning “qanday ishlatilishi”ni ham o‘rganadi, bu esa kommunikativ kompetensiyani kuchaytiradi. O‘quv lug‘atlarning yana bir muhim rivojlanish yo‘nalishi – korpus asosida tuzilishidir. Korpus lingvistika real matnlar to‘plamiga asoslanib, so‘zlarning haqiqiy ishlatilish chastotasi va kontekstlarini aniqlash imkonini beradi. Bu esa lug‘atlardagi misollarni sun’iy emas, balki hayotiy va autentik qiladi. Natijada o‘quvchilar tilni “jonli jarayon” sifatida qabul qiladi.

Shuningdek, zamonaviy o‘quv lug‘atlarda adaptiv o‘qitish elementlari ham paydo bo‘lmoqda. Bunda tizim o‘quvchining bilim darajasini tahlil qilib, unga mos so‘zlar va mashqlarni tavsiya qiladi. Masalan, qiyin so‘zlar asta-sekinlik bilan beriladi, osonlari esa mustahkamlanadi. Bu individual yondashuv ta’lim samaradorligini sezilarli oshiradi. O‘quv lug‘atlarining kognitiv jihatdan ham katta ahamiyati mavjud. Ular o‘quvchilarda xotira, tahlil qilish, taqqoslash va umumlashtirish kabi fikrlash operatsiyalarini rivojlantiradi. So‘zlarni turkumlash (sinonim, antonim, frazeologizm) orqali o‘quvchi til tizimini yaxlit holda anglay boshlaydi.

Bundan tashqari, zamonaviy o‘quv lug‘atlarida gamifikatsiya elementlari ham keng qo‘llanilmoqda. Ya’ni so‘zlarni o‘rganish jarayoni o‘yin shakliga keltiriladi: ball to‘plash, darajalar, topshiriqlarni bajarish kabi mexanizmlar o‘quvchining motivatsiyasini oshiradi. Bu ayniqsa yosh o‘quvchilar uchun juda samarali hisoblanadi. O‘quv lug‘atlar ijtimoiy til muhitini ham aks ettiradi. Ular orqali o‘quvchi nafaqat adabiy tilni, balki zamonaviy nutqdagi yangi so‘zlar, neologizmlar va internet leksikasini ham o‘zlashtiradi. Bu esa tilning zamonaviy rivojlanish tendensiyalarini tushunishga yordam beradi.

Shu bilan birga, o‘quv lug‘atlarni yaratishda lingvopedagogik dizayn muhim o‘rin tutadi. Ma’lumotlar haddan tashqari ko‘p yoki murakkab bo‘lsa, o‘quvchi qabul qilishda qiyinchilikka duch keladi. Shu sababli lug‘at materiallari soddalik, aniqlik va bosqichma-bosqichlik tamoyillariga asoslanib tuzilishi zarur.

Bundan tashqari, zamonaviy texnologiyalar lug‘atlarning interaktivligini oshirib, ularni mobil ilovalar va onlayn platformalar shaklida taqdim etmoqda. Bu esa ta’lim jarayonining individual va moslashuvchan bo‘lishini ta’minlaydi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, o‘quv lug‘atlar zamonaviy leksikografiyaning muhim tarkibiy qismi bo‘lib, til o‘qitish jarayonida katta ahamiyatga ega. Ular o‘quvchilarning leksik bilimlarini rivojlantiradi, nutq madaniyatini shakllantiradi va mustaqil o‘rganish ko‘nikmalarini mustahkamlaydi. Kelgusida elektron o‘quv lug‘atlarni yanada takomillashtirish va ta’lim tizimiga keng joriy etish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jo‘rayev N. “Zamonaviy tilshunoslik asoslari”. – Toshkent, 2019.
2. Xudoyberdiyev A. “Leksikografiya va lug‘atshunoslik”. – Toshkent, 2018.
3. G‘afurov I. “O‘zbek tili leksikologiyasi”. – Toshkent, 2020.
4. Jackson H. “Lexicography: An Introduction”. – London, 2016.
5. Hartmann R.R.K. “Teaching and Researching Lexicography”. – London, 2017.
6. Bergenholtz H. “User-Oriented Dictionary Studies”. – Amsterdam, 2015.

Xurshida SHAMSUDDINOVA,
Shahrisabz davlat universiteti
O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi magistranti
Shamsuddinovaxurshida1@gmail.com

LEKSIK MINIMUM – O‘QUV LUG‘ATLARINING BIR KO‘RINISHI SIFATIDA

Annotatsiya: bugungi kunda tilni mukammal o‘rganish, uni har tomonlama tadqiq etish dolzarb masala bo‘lib qolmoqda. Aynan shu jarayonda o‘quvchilarni ortiqcha leksik yuklama bilan toliqtirmay, faol va zarur so‘zlar bilan ta’minlash muhim masalalardan biridir. Shu sababdan leksik minimum tushunchasi o‘quv lug‘atlari qatorida alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Kalit so‘zlar: *leksik birlik, leksik minimum, o‘quv lug‘ati.*

Annotation: today, mastering a language and studying it comprehensively remains a pressing issue. In this process, one of the important tasks is to provide learners with active and essential vocabulary without overburdening them with excessive lexical material. Therefore, the concept of lexical minimum holds particular significance among learner dictionaries.

Key words: *lexical unit, lexical minimum, learner dictionary.*

Аннотация: в настоящее время глубокое и всестороннее изучение языка остаётся актуальной задачей. В данном процессе одной из важных задач является обеспечение учащихся активной и необходимой лексикой без перегрузки избыточным лексическим материалом. В связи с этим понятие лексического минимума приобретает особую значимость в ряду учебных словарей.

Ключевые слова: *лексическая единица, лексический минимум, учебный словарь.*

Olam shakllanayotganda birgina “Yaral” so‘zi bilan o‘n sakkiz ming olam va unda jonzodlar paydo bo‘ldi. Inson so‘z orqali aloqa qiladi, o‘zligini taniydi, tafakkur qiladi. Shu sababdan tilshunoslik sohasida, aynan leksikografiyada yangiliklar yaratish bugunning muhim masalasi hisoblanadi. Garchi miliy til korpusini yaratish yo‘lida qanchadan qancha ishlar amalga oshirilayotgan bo‘lsa-da, til ta’limida o‘quv lug‘atlari yaratish, uni ommaga tatbiq etish ishlarida oqsoqlanish ko‘zga tashlanadi. Professor B.Mengliyev ta’kidlaganidek: “Bugungi kunda rivojlangan mamlakatlarda ta’limning har bir bo‘g‘ini uchun (bog‘chadan tortib universitetgacha) yuzlab lug‘atlarning maxsus turlari yaratilgani, hatto rus maktablari uchun 30 ga yaqin o‘quv lug‘atlari mavjud bo‘lgani holda o‘zbek maktablari uchun bitta “Imlo lug‘ati” bor xolos”.[1] “O‘zbek tilining so‘z tarkibi o‘quv lug‘ati” so‘z boshisida ustoz ta’kidlaganlaridek, “….o‘quv lug‘atlar yaratilmas ekan, joriy darsliklar o‘z vazifasini bajara olmaydi”.[1] Bugungi kunda o‘zbek tilini ilmiy asosda har tomonlama rivojlantirish, har sohada zarur atamalar, ibora, tushunchalarni ishlab chiqish zaruriyati esa o‘quv lug‘atlariga talabni oshirib yubormoqda. O‘quv lug‘atlari – nafaqat o‘quvchilarning so‘z boyligini oshiradigan, balki dunyoqarashini kengaytiradigan va fikrlash qobiliyatini o‘stiradigan leksikografik manba hisoblanadi. Bu turdagi lug‘atlar orqali o‘rganuvchilar so‘zlarning ma’nolarini anglaydi, ma’lumot olishda, til o‘rganishda foydalanadi. O‘quv lug‘atlari miqdorga va vaqtga chegara qo‘ymaydi. O‘quv lug‘atlari yaratish ustida ma’lum izlanishlardan so‘ng o‘quv lug‘atlarining ko‘plab turlari yaratildi. “O‘zbek tilining so‘z tarkibi o‘quv lug‘ati” (Bahriddinova B., Mengliyev B.2007), O‘zbek tilining ma’nodosh so‘zlar o‘quv lug‘ati” (Shukurov O., Boymatov B. 2006), “O‘zbek tilining so‘z yasalishi o‘quv lug‘ati” (Mengliyev B., Bahriddinova B. 2007), “O‘zbek tilining eskirgan so‘zlar o‘quv lug‘ati” (Norxo‘jayeva X. 2006), “O‘zbek tilida talaffuzdosh so‘zlar o‘quv lug‘ati” (Nafasov. T., Nafasova V. 2008) va boshqalar shular jumlasidandir. O‘zbek lug‘atchiligida hozirga qadar 20 ga yaqin o‘quv lug‘atlari mavjud. Bu turdagi lug‘atlar keng qamrovli bo‘lib, maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalar uchun yaratilgan lug‘atlarni ham qamrab oladi.

Leksikografiya nazariyasida leksik minimum tushunchasi ham mavjudki, bu tushunchani nazardan chetlab o‘tolmaymiz. Shu o‘rinda leksik minimum nimaga kerak?, – degan savol maydonga chiqadi. Avvalo, ma’lum yosh davrida o‘zlashtirilgan va so‘zlashuvda qo‘llangan faol va nofaol so‘zlarni aniqlash uchun, ikkinchidan esa yosh davrlarida bilishi kerak bo‘lganso‘zlarning o‘rinli talabini qo‘yish uchun bu juda muhim. Leksik minimum – bu shaxsning ma’lum bir yoshda, ma’lum bosqichda

o‘rganilishi lozim bo‘lgan so‘zlari yoki so‘z birikmalari yig‘indisi. Aynan shu maqsadda leksik minimum va o‘quv lug‘ati so‘zlari bir-biriga uzviy bog‘lanadi va o‘rganuvchining so‘z o‘rganish, til boyitish imkoniyatini bosqichma-bosqich rivojlantiradi va ta’lim jarayonini standartlashtiradi: leksik minimum doirasida o‘rganuvchi yoshiga muvofiq darsliklar va testlar yaratiladi. O‘quvchi qaysi yoshda qancha so‘z bilishi kerakligi va eng zarurlarini o‘rganish masalasi maydonga keladi. Leksik minimum o‘rganuvchini ortiqcha yuklamadan xalos etadi. E.Markinaning so‘zlariga ko‘ra zamonaviy lingvodidaktikada leksik minimum atamasini keng va tor ma’noda tushunish mumkin. Keng ma’noda ma’lum maqsadlar uchun tanlangan va ma’lum tartibda joylashtirilgan (ko‘pincha alifbo tartibida) so‘zlarning har qanday ro‘yxati ushbu tushunchaga kiradi”.[2]

Bunda muallif 60–80-yillar metodistlarining “leksik minimum” va “o‘quv lug‘ati” tushunchalari sinonim degan fikrini asos sifatida keltirgan. Unga ko‘ra:

1. Ta’limning ma’lum bir bosqichida o‘zlashtirish uchun majburiy bo‘lgan so‘zlar ro‘yxati; 2. Chet tilini o‘rganayotgan shaxslar uchun mo‘ljallangan bir tilli va ikki tilli o‘quv lug‘atlari; 3. Darsliklardagi va darslikning alohida qismlaridagi lug‘atlar; leksik minimum sifatida keltirilgan zamonaviy tilshunoslikda “leksik minimum” va “o‘quv lug‘ati” alohida-alohida ma’noda qo‘llangan, ya’ni leksik minimum ma’lum vaqt oralig‘ida va ma’lum bosqichda (yoki darajasida) o‘rganilishi kerak bo‘lgan leksik birliklar. “Leksik minimumning o‘ziga xos xususiyati shundaki, u talabalar so‘z boyligining pastki chegarasini beradi, ma’lum bir vaqt ichida ular o‘rganishi kerak bo‘lgam so‘zlar hajmini (ularning aniq ma’nolarida) aks ettiradi”.[2]

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, “Leksik minimum” bu – muayyan yosh uchun tegishli bo‘lgan leksik birliklarning ixtiyoriy ro‘yxati. Shuni unutmaslik kerakki, bu ro‘yxat bola o‘sib ulg‘aygani sari o‘zgarib boradi va ba’zi mavzular o‘z ahamiyatini yo‘qotib, o‘rnini boshqalari egallaydi. O‘zbek tilining 80 mingdan ortiq so‘zlari “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” dan joy olgan va bu leksemalarning bola leksikonidan joy olish tartibini ko‘rib o‘tamiz.

Bugungi kunda maktabgacha ta’lim sohasida “Ilk qadam”, “Bolajon” o‘quv dasturlari asos bo‘lib xizmat qilmoqda. Undagi ma’lumotlarga ko‘ra, bola 3-4 yoshda 800–1200 so‘z, 4-5 yoshda 1200–2000 so‘z, 5-6 yoshda 2000–3000 so‘z va 6-7 yoshli bola 3000–4000 ta faol so‘z bilishi kerak.Maktabgacha ta’lim yo‘nalishida leksik minimum bolaning yoshidan, faol nutqda qo‘llanish-qo‘llanmasligidan, konkret va obrazli ma’noga ega bo‘lishidan, bolaning kundalik tajribasiga yaqin bo‘lishidan, milliy-madaniy qadriyatlaridan kelib chiqib belgilanadi. O‘zbek oilalaridagi azaldan mavjud bo‘lgan kattaga hurmat, mehmondo‘stlik, ota-onaga itoat, oilaviy qadriyatlar kabi tushunchalar bola tarbiyasida, so‘zlashuvida tabiiyki, o‘z aksini topadi. Aynan yosh jihatidan belgilaydigan bo‘lsak, 3-4 yoshli bola so‘z zaxirasida quyidagi kategoriyalar leksik minimumni belgilab beradi:

Oila va qarindoshlikni bildiruvchi so‘zlar: ota-ona, bobo-buvi, amma, xola, amaki, tog‘a, opa, aka, uka

1. Oziq-ovqat va milliy taomlar: osh, sho‘rva, manti, kabob
2. Tabiatga oid so‘zlar: yomg‘ir, qor quyosh, bulut…
3. Muomala odobi va fazilatlar: assalomu alaykum, rahmat, xo‘p bo‘ladi
4. Kundalik hayot predmetlari: poyafzal, stol, stul, deraza, qoshiq eshik……
5. Harakat fe’llari: olib kelmoq, turmoq, yugurmoq, sakramoq
6. Sifat va belgi bildiruvchi so‘zlar: katta-kichik, issiq-sovuq

Bolalarda leksik minimumni shakllantirish uchun: xalq og‘zaki ijodi (ertak, topishmoq), rolli o‘yinlar, suhbatlar va rasmli kartochkalar, so‘zni so‘zga ulab ko‘proq muloqot qilish yaxshi samara beradi.

Umumiy qilib aytadigan bo‘lsak, leksik minimum o‘qitishning ma’lum bosqichiga (yoki darajasiga) qaratilgan va belgilangan o‘quv vaqtida o‘rganilishi kerak bo‘lgan leksik birliklarni o‘z ichiga oladi. Leksik birliklar soni o‘qitish sharoitlari, shuningdek, o‘quvchilarning ma’lum miqdordagi leksik birliklarni o‘zlashtirish qobiliyatiga qarab o‘qiladi. Leksik minimum hajmidagi so‘zlarni bilish bizga tilni aloqa vositasi sifatida ishlatishga imkon beradi va ma’lum bosqichda o‘quv maqsadlariga erishishni ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mengliyev B., Bahriddinova B. O‘zbek tilining so‘z tarkibi o‘quv lug‘ati. – T.: O‘zbekiston, 2007
2. E.Markina. “O соотношении понятий “лексический минимум” и “учебный словарь” в методике” 248-bet
3. Bahriddinova B.M. O‘zbekistonda o‘quv lug‘atchiligi: lingvistik asoslari, tarixi va istiqbollari. – Samarqand, 2020
4. E Markina. “O соотношении понятий “лексический минимум” и “учебный словарь”
5. Ilk qadam davlat o‘quv dasturi. – Toshkent, 2022

Nodirabegim HAMRAYEVA,
SamDU magistranti

KATTAQO‘RG‘ON TUMAN TOPONIMLARINING LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada toponimika sohasiga kirish bilan birgalikda Kattaqo‘rg‘on tuman toponimlarining tarixi, kelib chiqishi va izohi, leksik-semantik xususiyatlari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: *toponim, onoma, onima, yer tili, polinimiya, urbanonomiya, kanta, tarix.*

Аннотация: в данной статье, наряду с введением в область топонимии, анализируются история, происхождение и интерпретация, лексические и семантические особенности топонимов района Каттакурган.

Ключевые слова: *топоним, онома, онима, местный язык, полинимия, урбанономия, канта, история.*

Annotation: this article, along with an introduction to the field of toponymy, analyzes the history, origin and interpretation, lexical and semantic features of the toponyms of the Kattakurgan district.

Key words: *toponym, onoma, onima, local language, polynymy, urbanonomy, kanta, history.*

Inson narsalarga nom qo‘ymasdan yashay olmaydi. Dunyodagi hamma narsaning nomi bor. O‘simlik va hayvonlarning mahalliy nomlaridan tashqari ilmiy, lotincha nomlari ham mavjud. Har qanday o‘simlik va hayvonni lotincha nomiga qarab turli millat mutaxassislari darrov bilib oladilar. Demak, nomlar bir narsani ikkinchi narsadan farq qilishga yordam beradi.

Bir joyni ikkinchisidan, bir jilg‘ani boshqa bir jilg‘adan, bir ko‘chani yonidagi ko‘chadan, tog‘-adirlarni, shahar va qishloqlarni bir-birlaridan farq qilish uchun ham kishilar nomlar o‘ylab chiqargan. Joy nomlari geografik nomlar yoki toponimlar deb ataladi. Toponimlarni toponimika fani o‘rganadi. Toponimika yunoncha topos – joy va onoma (yoki onima) – nom so‘zlaridan tarkib topgan. [1.5]

Toponimlar, ya‘ni joy nomlari orqali inson o‘zi yashab turgan diyorning asl ma’nosini anglab olishi, his qilishi, bilganlari va o‘rganganlari orqali olg‘a qadamlar, faxr tuyg‘usi bilan yashashga yordam beradi. Inson qayerda yashayotganini, o‘zi yashab turgan joyning qanday ma’no kasb etishini bilmaslik ma’naviyatni anglamaslikka, rivojlanishdan ortda qolishiga, tarixsiz yashamoqlikka, bemazmun hayotni davom etishiga olib keladi. Tarixsiz kelajakni inson tasavvur qila olmaydi. Tasavvur hosil bo‘lgandan keyin avlodlar davomchisi sifatida to‘xtab qolmasdan ularga munosib bo‘lishga urinadi inson. Ba’zi bir insonlar tarixni o‘tmish deb qabul qiladi va hayotini ham butkul boshqa shaklga aylantirgisi keladi. Tarixni yaratgan insonlar davomchisi ekanmiz, ular bosib o‘tgan yo‘llarni ulardanda yaxshiroq davom ettirishimiz shart va zarur. Shundagina o‘ylangan maqsadga erishish mumkin.

H. Hasanovning “O‘rta Osiyo joy nomlari tarixidan” kitobidagi bir fikri e’tiborimni tortdi. U “Yerning tili bor. U toshdan ham, go‘shtdan ham emas. Yerning tili – joy nomlaridir” – deydi. Ajablanarlisi shundaki, inson o‘z yashab turgan joyini qanday nom bilan atalishini bilishi mumkin, lekin yerning tili bor degan qarash bir qarashda insonning e’tibor markazini bir tomondan boshqa tomonga qaratib qo‘yadi. Yerning tilini go‘shtdan ham, toshdan ham emasligi uni boshqa narsalarga tenglashtirib bo‘lmasligini uni yagona nom ostida qolishi haqida so‘z yuritadi. Yerning tilini tushunmoq uchun o‘sha yurtda tug‘ilib o‘sish kerakmi degan savollar inson ongida bong uradi. Bu savolda har bir inson o‘z ong ostidagi fikrlari yordamida javob beradi. Tilni anglab yetmoq uchun albatta o‘sha tilda gaplashuvchilar bilan muloqot qilish kerak, agar yashashni iloji bo‘lsa nur ustida a‘lo nur bo‘ladi. O‘sha yerda tug‘ilib o‘smasada, his qilish ham mumkin, faqatgina uni o‘z tilingizdek sevishingizga to‘g‘ri keladi.

Toponimika sohasiga qo‘l urish dastavval oson tuyiladi insonga. Lekin bir joyning ma’nosiga yuzlanar ekanmiz, uning leksikasiga, semantikasiga ham e’tibor qaratish kerak. Bu jarayonda uning lingvomadaniyatiga ham duch kelmaslikning iloji yo‘q. Chunki toponimikada joy nomining qo‘yilishiga uning xalq orasidagi madaniyati, tarixiga ham qadam bosishga sabab bo‘lishi mumkin. O‘zbekiston degan paytimizda ham bu so‘z zamirida “O‘zbek” lik o‘zlik butun boshli urf-odat, an’analar, qadriyatlar, mehmondo‘st, saxiy xalqimiz dastavval xayolimga keladi.

Mustaqillikka erishilgandan keyin mamlakatimizning ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma’rifiy hayotiga erkinroq nazar solish, ba’zi bir narsalarga chuqurroq e’tibor berish

imkoniyati yuzaga keldi. A. Aslonov ta’kidlaganidek: “O‘zbekiston toponimiyasining umumiy xususiyatlarini bilish, uning lisoniy boyliklari ko‘lami haqida umumlashma fikrga kelish hamda ushbu asosda respublikaning toponimik xaritasini tuzish uchun respublikaning barcha hududi, jumladan, tumanlari toponimiyasi materiallarini sinchiklab to‘plash va tadqiq qilish lozim bo‘ladi”. Shu nuqtayi nazardan, toponimlar xalq ma’naviyatining ulug‘ merosi sifatida o‘zbek tilining tarixiy taraqqiyotini namoyon qiluvchi lisoniy boyligidir. [2.11]

Polinimiya va urbanonomiya haqida biroz so‘z yuritadigan bo‘lsak, polinimiya bu shahar nomlari bo‘lib, Kattaqo‘rg‘on shahar toponimi bunga misol bo‘la oladi. “O‘zbek joy nomlarining izohli lug‘ati” kitobida Kattaqo‘rg‘on toponimiga quyidagicha ta’rif beriladi: Kattaqo‘rg‘on – tuman. Samarqand viloyati tarkibidagi ma’muriy-hududiy birlik. Samarqand viloyatidagi yirik shaharlardan biri. Toponimist E.M.Murzayev mazkur toponimni “kanta” (sak tilidagi “qazilgan, devor bilan o‘ralgan joy”); kat – “shahar, bosh shahar”; qo‘rg‘on – tepalik yoki tepalikdagi istehkom” so‘zlaridan hosil bo‘lgan, deydi. Lekin mazkur nomni turkiy katta – “ulkan, yirik” va qo‘rg‘on “qal‘a, istehkom” so‘zlaridan yasalgan deyish to‘g‘ri. Bu shahar asoschisi Farhodbiy otaliq faoliyati bilan bog‘liqlikda ham ko‘rinadi. Toponimiyada “qo‘rg‘on” so‘zi bilan yasalgan nomlar juda ko‘p uchraydi. Turkiy tildan bir qator hind-yevropa tillariga o‘zlashtirilgan qo‘rg‘on, ya‘ni “qal‘a, istehkom” termini bilan yasalgan toponimlar Yevroosiyodan Tinch okeanigacha, Shimoliy muz okeanidan Hind okeanigacha bo‘lgan hududlarda keng tarqalgan. [4.284]

Joy nomlarini o‘rganish faqatgina uning lisoniy qatlamining boyishiga emas, uning geografik qatlamining ham rivojlanishiga sabab bo‘ladi. Chunki, atrofimizda o‘rganilmagan yerlar qancha? Shu sababdan toponimika sohasi ham bir qancha fanlar bilan o‘zaro chambarchas bog‘liqdir. Ulardan tarix, etnografiya, arxeologiya, geografiya, tilshunoslik va bir qancha fanlar mavjud shular qatorida…

Tarix fani bilan toponimika chambarchas bog‘liqdir. Yuqorida ta’kidlanganidek, toponimika joy nomlarini o‘rgansa, tarix fani esa shu joy nomlarining tarixini o‘rganadi. Tarixga doir manbalarga qaralganda, shuni anglash mumkinki, har bir joyning o‘z tarixi, o‘tmishi bor.

Etnografiyada bir xalqning turmushi, qadriyati, madaniyati va hayoti aks etadi. Kattaqo‘rg‘on xalqi boshqa xalqlardan ancha farq qiladi. Insonlarining to‘g‘riso‘zligi, yolg‘ondan uzoq yashashi, sizning ortingizdan emas, qarshingizda turib barchasini to‘la-to‘kis ayta olishini halicha hech qayerda guvoh bo‘lganim yo‘q. Madaniyati va qadriyatlari shaharning ichida va tumanlarida o‘zgarishga uchramaydi, lekin urf-odatlarida ancha farq bor. Masalan; to‘y marosimlaridan “Yor-yor” marosimi haqida fikr yuritsak, shahardagi urf-odatlarga ko‘ra, kuyov kelinning uyiga keladi, bayram tashkillashtiriladi va o‘sha kecha kuyov kelinni uyida qoladi. Tumanlarda esa aksincha kelinni kuyov taraf yor-yor kuni o‘zi bilan birga olib ketadi. Ertasi kuni esa kelin yana o‘z uyiga qaytadi va ota-onasidan rozilik olib chiqadi. Bu an’ana qayerlardadir o‘z kuchida bo‘lsa, qayerlardadir o‘z kuchini yo‘qotgan.

Arxeologiya bilan geografiyani alohida tasavvur qilish biroz qiyin. Ularning biri joy nomlari, ya’ni geografik qatlamga oid bo‘lsa yana biri esa shu joy nomlaridagi tarixiy buyum, sopol, chinnilar, tangalar, qurollar bir qancha tarixiy buyumlarning topilishi, o‘rganilishi bilan bog‘liqdir.

Tilshunoslik har soha bilan uzviy bog‘liqligi hammaga ma’lum. Tilshunoslik va toponimiya bunda so‘zlarning tuzilishi va ularning ma’nosini o‘rganadi. Tilshunoslik yordamida biz joy nomini izohini bilib olishimiz mumkin. Zamon rivojlangani sari har bir sohada yangiliklar va yangilanishlar yuzaga keladi. Bu o‘zgarishlar hatto joy nomlariga ham o‘z ta’sirini o‘tkazmay qolmaydi. Avval boshqa nom bilan atalib, so‘ng boshqa nom bilan atalayotgan joy nomlari bir qanchadir. Tilshunoslik fani orqali biz qaysi davrga tegishli ekanini bilib olishimiz mumkin.

Kattaqo‘rg‘on bu toponim ilk boshida eshitilganida insonning qulog‘iga ulkan bir qo‘rg‘on bordek anglashga sabab bo‘ladi. Eramizning I-II asrlarida Kushon imperiyasi davrida ko‘chmanchi xalqlar bir joyda uyushib, hamjihat bo‘lib yashashi turli xavf va ofatlardan himoyalanishini osonlashtirgan. Shu sababli keyinchalik ovullar, qishloqlar va shaharlar paydo bo‘la boshlagan. Kattaqo‘rg‘on VII asrning so‘ngi choragi (1683-1684-yillar) da barpo etilgan. Badavlat aka-uka Farhod otaliq, Ollonazarbek va So‘fi Olloyor unga asos solgan, degan fikrlar bor. VIII asrdan boshlab shahar ancha kengayib 170 gektar joyni egallagan, 25 guzarga bo‘lingan. Ko‘chalar tor bo‘lib, kulbalarning darchalari asosan hovli ichkarisiga ochilgan. Shahar markazida ark- qal’a bo‘lgan. Dastlab, ana shu ark-qal’a atrofida – So‘fi Olloyor, Madrasa, Ko‘chahur kabi mahallalar paydo bo‘la boshlaydi. Kattaqo‘rg‘on haqidagi manbalarda jami 25 mahalla guzar bo‘lganligi aytiladi. Kattaqo‘rg‘on shahrida 100 ta, tumanda 800 ga yaqin turli-tuman joy nomlari uchraydi. Ularning kelib chiqishi, paydo bo‘lishi va qayerdan paydo bo‘lganligi albatta, hammani qiziqtirishi

tabiiy hol. Shahar hamda tumandagi toponimlarning aksariyati ham qadimiy, mo‘g‘ullar bosqini davrida paydo bo‘lgan nomlar, shu yerda yashagan sug‘dlar, fors-tojik tilidan kirib kelgan nomlar ko‘p uchraydi. [3.17]

Kattaqo‘rg‘on tumani haqida so‘z borganda, uni shunchaki o‘tkazib yuborish mumkin emas. Kattaqo‘rg‘on mo‘jazgina bir shaharcha emas, u o‘zbek xalqining, ruhining qay darajada mustahkamligini, mag‘rurligini aksi, ko‘zgusidir. Kattaqo‘rg‘on shahrining paydo bo‘lishi bu jasorat hikoyasidir. Kattaqo‘rg‘on shahrida 100 ta, tumanidagi 800 ga yaqin tumanlar bu shu qadar toponim, shu qadar tarixni o‘ziga jamlagan go‘zal maskandir. Farhod otaliq va So‘fi Olloyor ismlari hali hanuz shahardan unutilgani yoki insonlar tilidan tushgani yo‘q. Farhod otaliq Kattaqo‘rg‘on shahrining himoyasini ta’minlagan bo‘lsa, So‘fi Olloyor esa shahar ahlining ma’naviyatini yuksalishiga o‘z hissasini qo‘shgan desak mubolag‘a bo‘lmas. 800 ga yaqin tuman, ya‘ni toponimni ildizi baquvvat daraxt misolida tasavvur qilaman. Bu daraxtning bezagi islomiy madaniyat bilan yo‘g‘rilgan. Har bir toponimda bobolarimiz qadamlari bosilgan, tarixga muhrlangandir. Guzarlar va tor ko‘chalarda darchalar eshigi ichiga ochilgan deb bizga ertaklar ichida aytishgan. Shu paytda nimaga? degan savollar ichida qolgan momolarimiz bizga uzundan-uzun aytib berishardi. “Xalqimizda qo‘rg‘on atrofida devor bo‘lmagan. Aksincha, oila o‘z uyi atrofini muqaddas oilasini o‘z qo‘rg‘oni bilan o‘rab olgan. Bu o‘rab olish zamirida ham chuqur bir ma‘no yotadi. Negaki, oila atrofidagi qo‘rg‘on bilan, tashqi olam bilan aloqani uzmagan, aksincha, uni mutahkamlab, asrab-avaylashgan. Ko‘chalaridagi tuzilish shakli ham hattoki qo‘rg‘on odamlarini birdamlikka chorlagan. Ya‘ni ko‘chalar kichkina, tor bo‘lishiga qaramay, ularni o‘zlarini noqulay xavfsiz his qilishganlarida yelkama-yelka turishlariga sabab bo‘lgan.

Kattaqo‘rg‘on tumanida “Mundiyon” nomli joy nomi ham mavjud. Bu toponim Kattaqo‘rg‘on tumani tarkibiga kirsa ham, lekin shaharcha maqomiga erishgan. “O‘zbekiston joy nomlarining izohli lug‘ati” kitobida Mundiyon toponimiga quyidagicha ta’rif berilgan;

Mundiyon–Samarqand viloyatining Kattaqo‘rg‘on tumanidagi qishloq nomi. Mazkur toponim “Mo‘ndi” so‘zi “ko‘za yasovchilar” ma’nosini ifodalasa, “yon” esa tomon ma’nosini bildiradi.Qadimda mazkur qishloqda ko‘za yasovchilar istiqomat qilishgan.

Shunday ekan, “Mo‘ndiyon” – “ko‘za yasovchilar istiqomat qiladigan qishloq” ma’nosini anglatadi.

Bu lug‘atda toponimlarning lingvistik tahlilini ko‘rish jarayonida va tumandagi sayohatda, xalqning fikri bilan alohida tanishdim. Mundiyon kichkina qishloq bo‘lishiga qaramay, unga shaharcha deb nom berilishi ham bejizga emas. Xalqi mehnatkash, o‘zligini unutmagan, doim harakatchan insonlar ekanligini guvohi bo‘ldim. Qishloq hayoti bo‘lganligi uchun emas, Mundiyonda hayot erta boshlanib, kech tugashi xalqning hunarmandlikka bo‘lgan qiziqishlari e’tiborim markazida bo‘ldi. Kattaqo‘rg‘on va Mundiyon orasidagi masofa uncha uzoq bo‘lmasa-da, lekin shevasi, urf-odatlari tubdan farq qiladi.

“Mo‘ndi” tarixiy qatlamga doir so‘zdir.U so‘zni biz kasb-hunarga doir so‘zlar qatoriga ham qo‘shsak bo‘ladi. Urug‘larga yokida insonlarga ism sifatida ham bu nom ishlatilgan. Buni biz tarixiy manbalardan guvohi bo‘lsak bo‘ladi. Bu nomda ma’no ko‘chishi hodisasi yuz bergan desak bo‘ladi.Chunki bu nom avval boshqa ma’noni anglatgan bo‘lsa, hozirda esa boshqa ma’noni anglatadi. Lekin inson bir qarashda anglashi qiyin bo‘lgan so‘zlar qatoridadir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qorayev S. Toponimika. – T.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2006.
2. Аслонов А. Шофиркон тумани микротопонимиясининг лингвистик таҳлили. – Тошкент, 2007.
3. Bekmurodov I. Kattaqo‘rg‘onning qisqacha tarixi. – Samarqand: Zarafshon, 1993.
4. Xudoyberganov R. va.b. O‘zbekiston joy nomlarining izohli lug‘ati. – Toshkent, 2024.

Durdona XURSANOVA,
Qarshi davlat universiteti
2-bosqich magistranti

O‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDA RAVISH YASALISHIGA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

Annotatsiya:ushbu maqolada ravish so‘z turkumining yasalishi zamonaviy derivatsion nuqtayi nazardan tahlil qilingan. Jumladan, tublashish, soddalashish jarayonlari yoritilgan. Shuningdek, leksikalizatsiya hamda adverbializatsiya natijasida ravish turkumiga o‘tgan so‘zlar xususida ham fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: *so‘z yasalishi, transpozitsiya, leksikalizatsiya, sinxron va diaxron derivatsiya, adverbializatsiya,reduplikatsiya, affiksatsiya, kompozitsiya*

Annotation: this article analyzes the formation of adverbs from the perspective of modern derivational linguistics. In particular, the processes of non-affixal formation and simplification are discussed. Furthermore, the study examines words that have been transferred into the adverb class as a result of lexicalization and adverbialization.

Key words: *word formation, transposition, lexicalization, synchronic and diachronic derivation, adverbialization, reduplication, affixation, composition.*

Аннотация: в данной статье анализируются особенности образования наречий с точки зрения современной дериватологии. В частности, рассматриваются процессы опрощения и корнеобразования. Также исследуются слова, перешедшие в разряд наречий в результате лексикализации и адвербиализации.

Ключевые слова: *словообразование, транспозиция, лексикализация, синхронная и диахронная деривация, адвербиализация, редупликация, аффиксация, композиция.*

R. Sayfullayeva, B. Mengliyev, G. Boqiyeva, M. Qurbonova, Z. Yunusova, M. Abuzalovalarning “Hozirgi o‘zbek tili” o‘quv qo‘llanmasida derivatsiya tilshunoslikning alohida bo‘limi sifatida keltiriladi. Derivatsiyaning diaxron va sinxron turlari mavjud ekanligi, bu bo‘lim tilshunoslikning so‘z yasash, so‘z hosil bo‘lish usullari kabi masalalar bilan shug‘ullanishi ta’kidlanadi. Derivatsiya so‘z yasalishini ham ([ishchi], [ishla], [kitobxon]), ichki imkoniyat asosida yangi leksema paydo bo‘lishini ham ([kelishgan], [ixtisoslashuv], [o‘qigan], [birov] o‘rganadi. [1: 144] O‘zbek tilshunosligida derivatsiya masalasi til taraqqiyotining boyishida muhim ahamiyat kasb etadi. Derivatsiya nafaqat so‘z yasalish hodisasini, balki kengroq tushunchalarni ham o‘z ichiga oladi. Bu jarayon shakliy va ma’noviy o‘zgarishlarni ham qamrab oladi. Derivatsiya statik emas, dinamik tizim hisoblanadi. U doimo o‘zgarishda bo‘lgan til birliklarini yoki ma’lum davrda faol hisoblangan birliklarni tadqiq etadi. Derivatsiya so‘zi lotincha so‘zdan olingan bo‘lib, “ajralish” yoki “kelib chiqish” ma’nolarini anglatadi. Bu jarayon natijasida tilning lug‘at boyligi doimiy ravishda kengayib boradi. Derivatsiya o‘z ichida ikkiga bo‘linadi: bular tarixiy derivatsiya va sinxron derivatsiyadir. Sinxron derivatsiyada yasama so‘z bilan yasalma o‘rtasida aloqa mavjud bo‘ladi, ya’ni qolipning shakliy va mazmuniy tomoni yasama so‘zda o‘z izini qoldirgan bo‘ladi. Masalan, [Gulchi] yasama so‘zida [ot+chi = ot bilan shug‘ullanuvchi shaxs oti] qolipidagi shakliy va mazmuniy tomonning izlari yaqqol ko‘rinib turibdi. Tarixiy derivatsiyada esa shakl va ma’noga xos qolip mavjud bo‘lmaydi. Xuddiki, ular leksemalarga o‘xshash bo‘ladi. Bularga misol tariqasida qishloq, yuksak so‘zlarini keltirishimiz mumkin. So‘z yasalishi hodisasi hozirgi (sinxron) aspektga tayanadi. Bunda til taraqqiyotining ma’lum bir davri ko‘zda tutiladi. Masalan, hozirgi zamon o‘zbek tili.Bunda yasama so‘zning qismlari o‘rtasidagi munosabat jonli bo‘ladi, ya’ni so‘zning ma’nosini qismlarning ma’no munosabati bilan asoslash mumkin bo‘ladi. Masalan, *o‘r+im, ter+im, temir+chi, doira+chi, bilim+li, aql+li, randa+la, egov+la* va boshqalar. [2: 26] Yuqoridagi fikrlarga ko‘ra, o‘zbek tili sinxron so‘z yasalishga asoslanadi. *O‘r+im, ter+im* kabi so‘zlarda fe’l asosiga ot yasovchi qo‘shimchaning qo‘shilishi natijasida yangi so‘zlar hosil bo‘lmoqda, bilim+li, aql+li, rang+li kabi yasalmalarda esa asosda ifodalangan xususiyatga egalik ma’nosi ifodalangan. Ushbu misollar shuni ko‘rsatadiki, sinxron so‘z yasalishda yasalmaning semantik ma’nosi ham saqlanib qoladi. Bu holat esa so‘zning ichki shaklini ham tahlil qilish imkonini beradi.

So‘z yasalishining affiksatsiya, kompozitsiya, leksik-semantik usuli, fonetik usuli, leksikalizatsiya usuli mavjudligi ko‘plab ilmiy manbalarda turlicha ko‘rsatiladi. O‘zbek tilida so‘z yasalishi usullari ilmiy manbalarda turlicha ko‘rsatilgan. Ammo eng asosiylari sifatida esa affiksatsiya, kompozitsiya olinadi. Umuman olganda, so‘z yasalishi tilning leksik qatlamini boyituvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.So‘z yasalishi morfologiya va leksikologiya bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, u nafaqat yangi so‘zlarning hosil bo‘lishini, balki ularning ichki tuzilishi va semantik asoslarini ham yoritadi.So‘z yasalishi hodisasiga nisbatan derivatsiya tushunchasi kengroq hisoblanadi. Mazkur maqolada ravish turkumiga zamonaviy yondashuvlar derivatsiya nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi.

Tilshunoslikda ravish so‘z turkumining boshqa so‘z turkumlaridan boyiganligi natijasida shakllanganligi ham ta’kidlanadi. Bundan tashqari, ravish turkumiga mansub so‘zlarning aksariyat qismi “soddalanish”, “tublanish”, “adberbializatsiyalashish” asosida tarkib topgan so‘zlar

ekanligi ham ko‘plab ilmiy adabiyotlarda keltirib o‘tiladi. Rus tilshunosi V.V.Vinogradov ravishlarni so‘zlarni guruhlashdan ortib qolgan “chiqitlar” bilan qiyoslashi ravish so‘z turkumi mavjud bo‘lgan grammatikaga oid adabiyotlarda ta’kidlab o‘tiladi. So‘z turkumlarini ajratishda ravish turkumiga oid so‘zlarda ko‘pincha rus tilidagi “наречие”ning o‘zbek tilidagi muqobillarini berish bilan cheklanilgan. Keyinchalik esa 50-yillarda o‘zbek tilshunosligida o‘z davri uchun mukammal bo‘lgan tadqiqot S.Fuzailovning ravish borasida olib borgan tadqiqotidir. Tilshunoslikda ravish so‘z turkumining yasalishi xususida bir qancha tadqiqotlar amalga oshirilgan bo‘lib, bu borada A.G‘ulomov, S.Fuzailov, A.Hojiyev, Sh.Rahmatullayev kabi olimlarning ishlari katta ahamiyat kasb etadi.

Yasama so‘zning nutqdan lisonga siljishi, lisoniylashishi 3 bosqichda amalga oshadi.Bular ixtisoslashish, soddalashish va tublashishdir. Birinchi bosqichda, ixtisoslashgan leksemada nutqiy yasama so‘zning shakliy tomoni saqlanib qoladi, ammo mazmuniy tomondan uzilgan bo‘ladi. Ya’ni mazmuniy, ma’no tomonidan torayish yuzaga kelgan bo‘ladi. Ikkinchi bosqichi esa soddalashishdir. Bu bosqich lisoniylashishning biroz yuqoriroq bosqichi hisoblanadi. Bu bosqichda ma’lum bir so‘z yasash qolipining hosilasida asos va qo‘shimcha o‘zaro birikib ajralmas holga keladi. Uchinchi bosqich esa bu tublashish bosqichidir.

Azim Hojiyev o‘zining “O‘zbek tili morfologiyasi, morfemikasi va so‘z yasalishining nazariy masalalari” monografiyasida ravish yasovchi qo‘shimchalar sifatida qayd etilgan *-cha, -iga, -siga, -chasiga* kabi qo‘shimchalar yuzasidan quyidagi fikrlarni bildiradi: “Bizningcha, -cha morfemasini nokategorial so‘z shaklini yasovchilar qatorida, ya’ni tilshunoslikning morfologiya bo‘limida o‘rganish to‘g‘ri va maqsadga muvofiq bo‘ladi. Ravish yasovchi deb qaralayotgan boshqa affikslarning ba’zilari, umuman, so‘z yasovchi emas (masalan, -dek affiksi) yoki sanoqli so‘zlar tarkibida uchraydi, demakki, so‘z yasalishi sistemasini yoki shakl yasalishi sistemasini (morfologik sistemani) shakllantiruvchi birliklarni hosil qilmaydi (masalan, *kuniga, yoppasiga, yigitchasiga* so’zlari tarkibidagi *-iga, -siga, -chasiga* shular jumlasiga kiradi). [3: 176]

Leksikalizatsiya usuli orqali eng ko‘p ravish turkumiga o‘tish hodisasi yuz beradi. Leksikalizatsiya usuli leksik-grammatik usul deb ham nomlanadi. Ya’ni bu jarayonda so‘zga birikkan qo‘shimchalar vaqt o‘tishi natijasida so‘z bilan birgalikda qotib qoladi va ajralmas qismga aylanadi. Leksikalizatsiya yordamida ravish turkumiga ko‘chgan so‘zlarga misol qilib *birdan, kechasi, kunduzi* so‘zlarini keltirishimiz mumkin.

Ravishlar boshqa so‘z turkumlaridan o‘zgarmaslik belgisi bilan farqlanib turadi.Semantik va sintaktik belgilari bilan esa bir xillik kasb etadi. Ravish faqat affiksatsiya yoki kompozitsiya yo‘li bilan emas, balki katta miqdorda ko‘chish – reduplikatsiya, konversiya, morfologizatsiya hisobidan kengayib bormoqda. **Reduplikatsiya –** so‘zlarni juftlash va takrorlash yo‘li bilan so‘z yasash morfologik-sintaktik so‘z yasashning qadimgi ko‘rinishidir. O‘zbek tilida reduplikatsiya ikki xil xarakterlanadi: birinchisi so‘z yasash vositasi bo‘lib kelishi bo‘lsa, ikkinchisi grammatik vosita hisoblanishidir. Reduplikatsiya yangi birliklarni hosil qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ammo ilmiy adabiyotlarda uni unchalik muhim usul sifatida sanab o‘tishmaydi.Ravish turkumi doirasidagi takrorlanish (juftlashish) umumlashish bilan birga yangi ma’no berishga ham moyildir: *nari-beri (tez), oz-oz, kam-kam (sekin), uncha-muncha, hali-beri* kabi ravishlarda yangi ma’no ifodasi sezilib turibdi.

Konversiya (adverbializatsiya)–bir leksik-grammatik kategoriyadagi so‘zning boshqa kategoriyaga ko‘chishi – ayrim ot, sifat, fe’l kabi so‘zlarning ravishlashishi: *erta, indin, kecha, kech, kechqurun, burun, hozir, yaqqol, baralla, tugal, bafurja, muttasil, vaqtli, rosa, baravar, uzluksiz, omonsiz, beomon, o‘zgarishsiz, harakatsiz, to‘xtovsiz, beto‘xtov, osha, o‘ta, qiya, qiyo, qo‘sha, qayta* kabi kengayish imkoniyatlariga ega. Ravish yasalishi yuzasidan so‘nggi yillarda olib borilgan ishlarda darsliklarda keltirilgan qo‘shimchalarni so‘z yasovchi qo‘shimchalar sifatida qabul qilish ham birmuncha munozarali. Masalan, *-cha* affiksi ot, sifat, olmosh, sifatdosh va ravishlarga qo‘shilib ravish yasaydi. Bu affiks yordamida otlardan ravish yasalishi birmuncha rivojlangan bo‘lib qolgan turkumlardan ravish yasalishi ancha chegaralangan.

Umuman, tilshunosligimizda hozirgacha so‘z turkumlariaro ko‘chishning juz’iy masalalari qalamga olingan, ko‘chish faqat bir yoki bir necha so‘z turkumi doirasidagina olib tekshirilgan, xolos. “So‘z turkumlariaro aloqa va ko‘chishning yirik muammolari, xususan, ko‘chishning tafakkuriy, lisoniy va nutqiy asoslari, mustaqil so‘z turkumlariaro ko‘chish, mustaqil so‘zlarning yordamchi so‘z turkumlari bilan aloqasi va o‘zaro ko‘chishi, alohida guruhdagi so‘zlarning mustaqil va yordamchi so‘z turkumlari bilan aloqasi va o‘zaro ko‘chishi, grammatikalizatsiya hodisalari tadqiqotchilar e’tiboridan chetda qolib kelmoqda” kabi xulosalarga kelinishiga ham yuqoridagi holatlar asos bo‘lgan. [4: 168]

Foydalanilgan adabiyotlar

1. R.Sayfullayeva, B.Mengliyev, G.Boqiyeva, M.Qurbonova, Z.Yunusova, M.Abuzalova. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. O‘quv qo‘llanma. –T.: ”Fan va texnologiya”, 2009, 144-bet.

2. Q.Sapayev. Hozirgi o‘zbek tili (morfemika, so‘z yasalishi, va morfologiya).–Toshkent, 2009. 26-bet.

3. A.Hojiyev. O‘zbek tili morfologiyasi, morfemikasi va so‘z yasalishining nazariy masalalari. O‘zbekiston Respublikasi “Fan” nashriyoti.–Toshkent, 2010.176-bet.

4. Eltazarov J. So‘z turkumlari paradigmasidagi o‘zaro aloqa hamda ko‘chish hollari.–Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2006. 168-bet.

Sarvinoz SAFAROVA,
Turon universiteti magistr talabasi

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARI YURIDIK TERMINOLOGIYASIDA SINONIMIYA VA ANTONIMIYA: QIYOSIY-TIPOLOGIK TAHLIL

Annotatsiya: *m*azkur maqolada ingliz va o‘zbek tillari yuridik terminologiyasida sinonimiya va antonimiya hodisalarining nazariy-lingvistik xususiyatlari IMRAD metodologiyasi asosida tadqiq etiladi. Tadqiqotda yuridik terminlarning paradigmatik munosabatlari, semantik strukturasi hamda huquqiy diskursdagi funksional xususiyatlari qiyosiy-tipologik jihatdan tahlil qilinadi. Shuningdek, ingliz va o‘zbek yuridik terminologiyasida sinonimik va antonimik birliklarning shakllanish omillari, ularning terminologik tizimdagi o‘rni hamda huquqiy tarjima jarayonidagi ahamiyati ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: *yuridik terminologiya, sinonimiya, antonimiya, terminologik tizim, huquqiy diskurs, paradigmatik munosabat, semantik oppozitsiya, qiyosiy-tipologik tahlil, huquqiy tarjima, termin, leksik-semantik munosabat,*

Annotation: this article investigates the theoretical and linguistic features of synonymy and antonym in English and Uzbek legal terminology based on the IMRAD methodology. The study analyzes the paradigmatic relations, semantic structure, and functional characteristics of legal terms in legal discourse from a comparative-typological perspective. It also reveals the factors contributing to the formation of synonymous and antonymous units in English and Uzbek legal terminology, their role in the terminological system, and their significance in the process of legal translation.

Key words: *legal terminology, synonymy, antonymy, terminological system, legal discourse, paradigmatic relation, semantic opposition, comparative-typological analysis, legal translation, term, lexical-semantic relation.*

Аннотация: в данной статье на основе методологии IMRAD исследуются теоретико-лингвистические особенности явлений синонимии и антонимии в юридической терминологии английского и узбекского языков. В исследовании с сравнительно-типологической точки зрения анализируются парадигматические отношения, семантическая структура юридических терминов, а также их функциональные особенности в юридическом дискурсе. Кроме того, раскрываются факторы формирования синонимических и антонимических единиц в юридической терминологии английского и узбекского языков, их место в терминологической системе, а также значение в процессе юридического перевода.

Ключевые слова: *юридическая терминология, синонимия, антонимия, терминологическая система, юридический дискурс, парадигматические отношения, семантическая оппозиция, сравнительно-типологический анализ, юридический перевод, термин, лексико-семантические отношения.*

Terminologiya zamonaviy tilshunoslikning mustaqil va murakkab tarmoqlaridan biri sifatida ilmiy bilimlarning konseptual tizimini ifodalovchi lingvistik vositalarni o‘rganadi. Ayniqsa, yuridik terminologiya huquqiy tafakkur, normativ tizim va davlat boshqaruvi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgani sababli o‘ziga xos semantik va funksional xususiyatlarga ega. Yuridik terminlarning aniqligi, bir ma’noliligi hamda normativligi huquqiy kommunikatsiyaning asosiy talablaridan biri hisoblanadi. Shu sababli yuridik terminologiyada leksik-semantik munosabatlarni o‘rganish muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Sinonimiya va antonimiya til tizimining paradigmatik munosabatlarini tashkil qiluvchi asosiy semantik kategoriyalar hisoblanadi. Umumxalq tilida sinonimlar nutqning uslubiy boyligini ta’minlasa, antonimlar qarama-qarshi tushunchalarni ifodalash orqali semantik differensiallashuvni yuzaga keltiradi. Biroq terminologik tizimda, ayniqsa yuridik terminologiyada mazkur hodisalar o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘ladi. Chunki terminologik tizimning asosiy tamoyili aniqlik va standartlikdan iboratdir. Yuridik terminologiyada sinonimiya ko‘pincha tarixiy rivojlanish, turli huquqiy tizimlarning o‘zaro ta’siri, terminlarning lotin va fransuz tillaridan kirib kelishi hamda tarjima jarayonlari bilan bog‘liq holda shakllanadi. Antonimiya esa huquqiy kategoriyalarni mantiqiy oppozitsiyalar orqali differensiallash vositasi sifatida xizmat qiladi. Ingliz yuridik terminologiyasi anglo-sakson va roman-german huquqiy tizimlari ta’sirida shakllangan bo‘lib, unda ko‘plab dublet terminlar mavjud. O‘zbek yuridik terminologiyasi esa milliy huquqiy tafakkur, arabcha-forscha qatlam va rus tilining tarixiy ta’siri asosida rivojlangan. Shu sababli har ikki tildagi sinonimik va antonimik munosabatlarni qiyosiy o‘rganish terminologiya nazariyasi hamda huquqiy tarjima amaliyoti uchun muhimdir. Mazkur tadqiqotda qiyosiy-tipologik, semantik, komponent tahlili hamda diskursiv tahlil metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot materiali sifatida ingliz va o‘zbek

tillaridagi normativ-huquqiy hujjatlar, yuridik lug‘atlar, qonunchilik matnlari hamda ilmiy terminologik manbalar tanlab olindi. Qiyosiy-tipologik metod ingliz va o‘zbek tillari yuridik terminologiyasidagi sinonimik va antonimik birliklarning umumiy va farqli jihatlarini aniqlash imkonini berdi. Semantik tahlil yordamida terminlarning ma’no tarkibi va paradigmatik munosabatlari o‘rganildi. Komponent tahlili terminlarning semantik differensial belgilarini aniqlashga xizmat qildi.

Shuningdek, tadqiqotda quyidagi nazariy yondashuvlardan foydalanildi:

terminologik tizim nazariyasi;
struktur-semantik yondashuv;
funksional lingvistika;
huquqiy diskurs nazariyasi;
lingvokognitiv yondashuv.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundaki, ingliz va o‘zbek tillari yuridik terminologiyasidagi sinonimiya va antonimiya hodisalari Tadqiqot natijalari ingliz va o‘zbek yuridik terminologiyasida sinonimiya va antonimiya hodisalari murakkab paradigmatik tizimni tashkil qilishini ko‘rsatdi.

Yuridik terminologiyada sinonimiya

Terminologiya nazariyasida sinonimiya masalasi murakkab ilmiy muammolardan biri hisoblanadi. D. S. Lotte, A. A. Reformatskiy, V. P. Danilenko kabi olimlarning fikricha, termin ideal holatda bir ma’noli bo‘lishi kerak. Biroq amaliy terminologik tizimda sinonimik birliklarning mavjudligi kuzatiladi.

Ingliz yuridik terminologiyasida sinonimik terminlarning quyidagi turlari aniqlandi:

1. To‘liq sinonimlar

lawyer – attorney
contract – agreement

Mazkur terminlar ayrim kontekstlarda o‘zaro almashina oladi.

2. Qisman sinonimlar

crime – offence
judge – justice

Bu terminlar ma’no jihatdan yaqin bo‘lsa-da, funksional qo‘llanishida farqlanadi.

3. Terminologik dubletlar

null and void
cease and desist
fit and proper

Mazkur birliklar ingliz yuridik tilining tarixiy rivojlanishi bilan bog‘liq.

O‘zbek yuridik terminologiyasida sinonimik munosabatlar asosan, quyidagi manbalar asosida shakllangan:

ruscha va milliy terminlarning parallel qo‘llanishi;
xalqaro terminlarning o‘zlashishi;
huquqiy terminlarni milliylashtirish jarayoni.

Xalqaro termin	Milliy variant
advokat	himoyachi
kodeks	majmua
yurist	huquqshunos

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, o‘zbek yuridik terminologiyasida sinonimik qatlam hali to‘liq standartlashmagan.

Yuridik terminologiyada antonimiya

Antonimik munosabatlar huquqiy konseptual oppozitsiyalarni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Tadqiqot davomida antonimlarning quyidagi turlari aniqlandi:

1. Gradual antonimlar

legal – illegal
lawful – unlawful

2. Komplementar antonimlar

guilty – innocent
valid – invalid

3. Konversiv antonimlar

plaintiff – defendant
creditor – debtor

O‘zbek tilida:

qonuniy – noqonuniy
aybdor – aybsiz
da’vogar – javobgar
qarz beruvchi – qarzdor

Antonimik terminlar esa huquqiy konseptualizatsiya va normativ oppozitsiyalarni shakllantirishning asosiy semantik vositasi sifatida xizmat qiladi. Har ikki tilda antonimiya huquqiy mantiq va baholash tizimining markaziy komponenti hisoblanadi. Shuningdek, tadqiqot yuridik tarjimada sinonimiya va antonimiya masalalarining muhimligini ko‘rsatdi. Terminologik aniqlikni ta’minlash uchun terminlarni standartlashtirish, yuridik lug‘atlarni takomillashtirish hamda qiyosiy terminologik tadqiqotlarni kengaytirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Cabré M. T. *Terminology: Theory, Methods and Applications.* – Amsterdam: John Benjamins, 1999.
2.Crystal D. *The Cambridge Encyclopedia of the English Language.* – Cambridge: Cambridge University Press, 2003.
3.Danilenko V. P. *Русская терминология.* – Москва: Наука, 1977.
4.Halliday M. A. K. *An Introduction to Functional Grammar.* – London: Arnold, 1994.

Dildora ISOQULOVA,
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti talabasi

O‘ZBEK VA ARAB TILLARIDAGI FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING QIYOSIY-SEMANTIK TAHLILI

Annotatsiya: mazkur maqolada o‘zbek va arab tillaridagi frazeologik birliklarning semantik hamda lingvokulturologik xususiyatlari qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida ikki tildagi o‘xshash va farqli frazeologizmlar misollar asosida yoritilib, ularning milliy mentalitet va madaniyatni ifodalashdagi o‘rni ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: *frazeologiya, frazeologik birlik, semantika, qiyosiy tilshunoslik, arab tili, o‘zbek tili, lingvokulturologiya*

Аннотация: в данной статье проводится сравнительно-семантический и лингвокультурологический анализ фразеологических единиц узбекского и арабского языков. В ходе исследования рассматриваются сходства и различия фразеологизмов двух языков на основе примеров, а также раскрывается их роль в отражении национального менталитета и культурных особенностей народов.

Ключевые слова: *фразеология, фразеологическая единица, семантика, сравнительное языкознание, арабский язык, узбекский язык, лингвокультурология*

Annotation: this article comparatively analyzes the semantic and linguocultural features of phraseological units in Uzbek and Arabic languages. The study highlights similarities and differences between phraseological expressions in both languages and reveals their role in reflecting national mentality and cultural values.

Key words: *phraseology, phraseological unit, semantics, comparative linguistics, Arabic language, Uzbek language, linguoculturology*

Kirish. Til xalqning tarixi, madaniyati va dunyoqarashini o‘zida aks ettiruvchi muhim vositalardan biridir. Har bir xalqning turmush tarzi, urf-odati, milliy tafakkuri va ma’naviy qadriyatlari til orqali namoyon bo‘ladi.Ayniqsa, frazeologik birliklar xalqning ko‘p asrlik tajribasi, hayotiy kuzatuvlari hamda obrazli tafakkurining mahsuli sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.Shu sababli frazeologizmlar tilning nafaqat lug‘aviy boyligini, balki milliy-madaniy xususiyatlarini ham ifodalovchi birliklar hisoblanadi.

Dunyo tilshunosligida frazeologiya masalasi uzoq yillardan buyon tadqiq etib kelinmoqda.Xususan, frazeologik birliklarning semantik tuzilishi, ularning nutqdagi vazifasi, tarjima jarayonidagi xususiyatlari hamda lingvokulturologik jihatlari ko‘plab ilmiy ishlarda yoritilgan. O‘zbek va arab tillari ham frazeologik jihatdan boy tillardan sanaladi. Mazkur tillarda insonning ruhiy holati, mehnat faoliyati, ijtimoiy munosabatlari hamda milliy qadriyatlari turli obraz va ramzlar orqali ifodalanadi.

O‘zbek va arab tillaridagi frazeologik birliklarni qiyosiy o‘rganish ikki xalqning til tafakkuri va madaniy qarashlaridagi o‘xshash hamda farqli jihatlarni aniqlashda muhim ahamiyatga ega. Ayrim frazeologizmlar mazmun jihatidan bir-biriga yaqin bo‘lsa, ayrimlari milliy muhit, diniy qarash yoki tarixiy omillar ta’sirida o‘ziga xos shakllangan.Bu esa frazeologik birliklarni nafaqat tilshunoslik, balki madaniyatlararo aloqalar nuqtayi nazaridan ham tadqiq etishni talab qiladi.

Mazkur maqolada o‘zbek va arab tillaridagi frazeologik birliklarning semantik hamda lingvokulturologik xususiyatlari qiyosiy tahlil qilinadi.Shuningdek, ikki tildagi o‘xshash va farqli frazeologizmlar misollar asosida yoritilib, ularning milliy mentalitetni ifodalashdagi o‘rni ochib beriladi.

Adabiyotlar tahlili. Frazeologiya tilshunoslikning mustaqil sohasi sifatida XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab keng o‘rganila boshlandi.Jahon tilshunosligida frazeologik birliklarning semantik, struktur hamda uslubiy xususiyatlarini tadqiq etishga bag‘ishlangan ko‘plab ilmiy ishlar yaratilgan. Xususan, rus tilshunos olimi Viktor Vinogradov frazeologik birliklarni ma’no va tuzilish jihatidan tasniflash orqali frazeologiya nazariyasining shakllanishiga katta hissa qo‘shgan.Uning ilmiy qarashlari keyinchalik turkiy va sharq tillari frazeologiyasini o‘rganishda ham muhim metodologik asos vazifasini bajargan.

O‘zbek tilshunosligida ham frazeologiya masalasi bir qator olimlar tomonidan tadqiq etilgan.Jumladan, Shavkat Rahmatullayev o‘zbek tilidagi frazeologik birliklarning leksik-semantik va uslubiy xususiyatlarini o‘rganib, ularning nutqdagi o‘rnini keng yoritgan.Shuningdek, o‘zbek frazeologiyasining shakllanishi, taraqqiyoti va badiiy adabiyotdagi qo‘llanishiga doir ilmiy qarashlar ham tilshunoslar tomonidan atroflicha tahlil qilingan. Arab tilshunosligida frazeologik birliklar ko‘proq balog‘at, uslubiyat va semantika doirasida o‘rganilgan.Arab tilidagi turg‘un birikmalar, maqol va matallar xalqning diniy, tarixiy hamda madaniy qarashlari bilan chambarchas bog‘liq holda shakllangan. Shu sababli arab frazeologiyasini tadqiq etishda lingvokulturologik yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi.

Metodologiya. Mazkur tadqiqotda o‘zbek va arab tillaridagi frazeologik birliklarni qiyosiy tahlil qilishda bir nechta ilmiy metodlardan foydalanildi. Asosiy metod sifatida qiyosiy-tahliliy metod tanlandi, chunki u ikki til tizimidagi frazeologik birliklarning o‘xshash va farqli jihatlarini aniqlash imkonini beradi[1]. Shuningdek, semantik tahlil usuli orqali

1 Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining frazeologiyasi.–Toshkent: Fan, 1966.

frazeologik birliklarning ma’nosi, obrazliligi va ko‘chma ma’no xususiyatlari o‘rganildi. Lingvokulturologik yondashuv[2] esa frazeologizmlarda aks etgan milliy madaniyat, urf-odat va mentalitetni aniqlashga xizmat qildi. Tadqiqot jarayonida nazariy adabiyotlar tahlili ham amalga oshirildi hamda o‘zbek va arab tilidagi mavjud frazeologik lug‘atlar va misollar asos qilib olindi.

Natijalar. Tahlil natijalariga ko‘ra, o‘zbek va arab tillaridagi frazeologik birliklar mazmun jihatidan bir qator umumiy semantik maydonlarga ega ekanligi aniqlandi. Xususan, insonning ruhiy holati, axloqiy sifatlari, hayotiy tajribasi va ijtimoiy munosabatlari har ikki tilda ham obrazli ifodalar orqali beriladi. Masalan, o‘zbek tilidagi “ko‘ngli tog‘day ko‘tarildi”, “yuragi orqasiga tortdi”, “boshi osmonga yetdi” kabi iboralar arab tilidagi quyidagi frazeologizmlarga ma’no jihatdan yaqin hisoblanadi[3]:

انشرح صدره— (ko‘ngli yorishdi, xotirjam bo‘ldi)

طار قلبه فرحا — (quvonchdan yuragi uchdi)

وقع قلبه— (qo‘rquvdan yuragi tushib ketdi)

رفع رأسه عالياً— (g‘ururlandi, faxrlandi)

Shuningdek, sabr va chidamlilik tushunchasi ham har ikki tilda keng ifodalanadi: o‘zbek tilidagi “sabri metindek” kabi shu ma’nodagi frazeologizmlar arab tilida quyidagicha qo‘llanadi:

صبر كصبر أيوب— (Ayyub payg‘ambar sabridek sabr)

ربط على قلبه — (yuragini mustahkam qildi, o‘zini bosdi)

Do‘stlik va sadoqat mavzusida ham o‘xshashliklar mavjud: o‘zbekchada “jon-jonidan aziz ko‘rmoq”, “bir jon, bir tan bo‘lmoq” kabi iboralar qo‘llansa, arabchada يداً بيد — (qo‘lni qo‘lga berib)

أخٌ في الشدة — (qiyin paytdagi aka-uka/do‘st) xuddi shu ma’noni bildiradi.

Farqli jihatlar ham sezilarli.Arab tilida diniy va Qur’oniy obrazlar asosidagi frazeologizmlar ko‘proq uchraydi: على كل حال الحمد لله (har qanday holatda ham Allohga shukr) إن شاء الله (Alloh xohlasa) توكل على الله (Allohga tavakkal qilmoq) kabi.

O‘zbek tilida esa ko‘proq xalq turmushi, tabiat va hayvonlar bilan bog‘liq obrazlar ustun: “itdan qo‘rqqan arslon bo‘lmas”, “baliq boshidan sasiydi”, “qo‘li ochiq”, “tishi o‘tkir” kabi frazeologizmlar bunga misol bo‘lishi mumkin.

Muhokama. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, frazeologik birliklar har ikki tilda ham obrazli tafakkur mahsuli bo‘lib, ular xalqning hayotiy tajribasini aks ettiradi. O‘xshash frazeologizmlar insoniyatning umumiy psixologik holatlari bilan bog‘liq bo‘lsa, farqli birliklar esa milliy-madaniy muhit bilan izohlanadi[4].

Masalan, qo‘rquv holati har ikki tilda ham “yurak” obrazida ifodalanadi: o‘zbek tilida “yuragi orqasiga tortdi”, arab tilida esa “وقع قلبه”. Bu holat inson hissiyotlarining universal ekanligini ko‘rsatadi.

Biroq diniy konseptlar arab frazeologiyasida ancha kuchli. “صبر كصبر أيوب” iborasi Qur’oniy obrazga tayanadi, o‘zbek tilida esa bu darajadagi diniy frazeologizmlar nisbatan kamroq uchraydi.

Shuningdek, o‘zbek tilida tabiat va hayvonlar obrazlari asosidagi iboralar ko‘p: “ko‘rpangga qarab oyoq uzat”, “eshakning qulog‘i qirqta bo‘lsa ham eshak” kabi birliklar arab tilida kamroq uchraydi.

Xulosa. Mazkur tadqiqotda o‘zbek va arab tillaridagi frazeologik birliklar qiyosiy-semantik hamda lingvokulturologik jihatdan tahlil qilindi. O‘rganish natijalari shuni ko‘rsatdiki, har ikki tilda ham frazeologik birliklar xalqning milliy tafakkuri, madaniyati va hayotiy tajribasini obrazli ifodalashda muhim o‘rin egallaydi. Tahlil jarayonida o‘zbek va arab tillarida ma’no jihatdan o‘xshash frazeologik birliklar mavjudligi aniqlandi. Ular, asosan, insonning ruhiy holati, sabr-toqat, quvonch, qo‘rquv va ijtimoiy munosabatlarni ifodalashda umumiy semantik maydonlarni tashkil etadi. Biroq bu o‘xshashliklar ifoda vositalari va obrazlar tizimi jihatidan turlicha shakllangan.

Shu bilan birga, muhim farqlar ham kuzatildi.Arab frazeologiyasida diniy va Qur’oniy obrazlar asosidagi iboralar ustunlik qilsa, o‘zbek tilida esa xalq turmushi, tabiat hodisalari va hayvonlar bilan bog‘liq obrazli ifodalar ko‘proq uchraydi. Bu holat har ikki xalqning tarixiy, madaniy va diniy muhitiga bevosita bog‘liq ekanligini ko‘rsatadi. Umuman olganda, frazeologik birliklar nafaqat tilning ifoda imkoniyatlarini kengaytiradi, balki milliy madaniyat va mentalitetni ham aks ettiruvchi muhim lingvistik birliklar hisoblanadi. Shu sababli ularni qiyosiy o‘rganish tilshunoslik, tarjimashunoslik va til o‘qitish metodikasi uchun muhim ilmiy ahamiyatga ega. Kelgusida ushbu yo‘nalishda frazeologik birliklarning kengroq korpus asosida tahlil qilinishi, shuningdek, ularning tarjima muammolari va didaktik qo‘llanilishi yanada chuqurroq o‘rganilishi maqsadga muvofiqdir.

2 Maslova V. A. Lingvokulturologiya.–Moskva: Akademiya, 2001.

3 Al-Khuli M. A. A Dictionary of Theoretical Linguistics.–Beirut, 1982.

4 Cowie A. P. Phraseology: Theory, Analysis, and Applications. Oxford University Press, 1998.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Vinogradov V. V. *Russkiy yazyk*.–Moskva, 1972.
2. Rahmatullayev Sh. *O‘zbek tilining frazeologiyasi*.–Toshkent: Fan, 1966.
3. Maslova V. A. *Lingvokulturologiya*.–Moskva, 2001.
4. Cowie A. P. *Phraseology: Theory, Analysis, and Applications*.Oxford, 1998.
5. Gläser R.*The Phraseological Component in English and Arabic*.–Berlin, 1988.
6. Al-Khuli M. A. *A Dictionary of Theoretical Linguistics*.–Beirut, 1982.
7. Crystal D.. *A Dictionary of Linguistics and Phonetics*.Oxford, 2008.

Asroriddin SAYDAZIMOV,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti o‘zbek tili va adabiyoti fakulteti 2-bosqich magistranti O‘zbekiston Respublikasi Imkoniyati cheklangan 1-sonli maxsus ixtisoslashtirilgan texnikum oddiy o‘qituvchisi
saidazimovasroriddin@gmail.com



YANGI O‘ZBEKISTON MAKTABLARIDA ADABIYOT TA’LIMINING MEDIA MODELI: ZAMONAVIY PEDAGOGIK YONDASHUVLAR VA JAHON TAJRIBASI ASOSIDA

Annotatsiya:mazkur ilmiy maqolada Yangi O‘zbekiston maktablarida adabiyot ta’limini zamonaviy media texnologiyalar asosida tashkil etishning nazariy-metodik asoslari tahlil qilinadi. Tadqiqotda audio, video, raqamli platformalar, multimedia vositalari hamda interaktiv metodlarning adabiyot fanini o‘qitishdagi pedagogik imkoniyatlari yoritilgan. Shuningdek, Finlandiya, Singapur, Janubiy Koreya va AQSH ta’lim tizimlaridagi media yondashuvlar o‘rganilib, ularning o‘zbek maktablari uchun moslashtirish imkoniyati ilmiy asoslangan holda tavsiya etiladi. Maqolada o‘quvchilarning badiiy tafakkurini rivojlantirish, kitobxonlik madaniyatini shakllantirish va raqamli kompetensiyalarni kuchaytirishda media modelning o‘rni ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: *media ta’lim, adabiyot ta’limi, multimedia, audio-vizual vositalar, raqamli pedagogika, interaktiv metod, innovatsion ta’lim, elektron platforma, kitobxonlik, Yangi O‘zbekiston maktablari.*

Аннотация:в данной научной статье анализируются теоретико-методические основы организации литературного образования в школах Нового Узбекистана на основе современных медиатехнологий. В исследовании освещены педагогические возможности использования аудио, видео, цифровых платформ, мультимедийных средств и интерактивных методов в преподавании литературы. Также изучен опыт Финляндии, Сингапура, Южной Кореи и США в области медиаобразования, и научно обоснована возможность их адаптации к узбекским школам. В статье раскрывается значение медиамодели в развитии художественного мышления учащихся, формировании культуры чтения и развитии цифровых компетенций.

Ключевые слова: *медиаобразование, литературное образование, мультимедиа, аудиовизуальные средства, цифровая педагогика, интерактивный метод, инновационное обучение, электронная платформа, культура чтения, школы Нового Узбекистана.*

Annotation:this scientific article analyzes the theoretical and methodological foundations of organizing literature education in the schools of New Uzbekistan on the basis of modern media technologies. The study highlights the pedagogical potential of using audio, video, digital platforms, multimedia tools, and interactive methods in teaching literature. The experiences of Finland, Singapore, South Korea, and the United States in media education are examined, and the possibilities of their adaptation to Uzbek schools are scientifically substantiated. The article reveals the importance of the media model in developing students’ artistic thinking, fostering a culture of reading, and strengthening digital competencies.

Key words: *media education, literature education, multimedia, audio-visual tools, digital pedagogy, interactive method, innovative learning, electronic platform, reading culture, schools of New Uzbekistan.*

Kirish.Bugungi globallashuv sharoitida ta’lim tizimi nafaqat bilim berishning, balki shaxsni shakllantirishning eng muhim ijtimoiy instituti darajasiga ko‘tarildi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining shiddat bilan rivojlanishi ta’lim mazmuni, metodlari va vositalarini tubdan yangilashni taqozo etmoqda.Kanadalik olim Marshall McLuhan o‘tgan asrning oltmishinchi yillaridayoq media vositalari mohiyat e’tibori bilan tafakkur va madaniyatni shakllantiruvchi muhit sifatida ishlashini ko‘rsatib bergan edi.[1]

Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida sog‘lom, bilimli, mustaqil fikrlovchi va ma’naviy barkamol avlodni tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida belgilangan. Shu maqsadda “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi va uning ijrosi bo‘yicha qabul qilingan prezident farmonlari ta’lim tizimini raqamlashtirish vazifasini kun tartibiga qo‘ydi.[2] Adabiyot fani esa o‘quvchining ma’naviy olamini boyitishga, milliy o‘zlikni anglashga va estetik tafakkurni rivojlantirishga xizmat qiluvchi fanlar tizimida alohida o‘rin egallaydi.

1 McLuhan M. Understanding Media: The Extensions of Man. — New York: McGraw-Hill, 1964. — P. 7–8.

2 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son Farmoni. «O‘zbekiston — 2030» strategiyasi to‘g‘risida // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 12.09.2023-y.

Biroq an’anaviy o‘qitish usullari raqamli avlod vakili bo‘lgan zamonaviy o‘quvchining idrok psixologiyasiga to‘la mos kelmaydi. Kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, bugungi o‘quvchi axborotni asosan vizual, audio va interaktiv shakllarda qabul qilishga moyildir.Demak, adabiyot darslarini media texnologiyalar asosida qayta tashkil etish nafaqat metodik, balki psixologik-pedagogik zaruratdan kelib chiqadi.

Adabiyot ta’limining media modeli o‘quvchiga badiiy asarni faqat o‘qibgina qolmasdan, uni eshitish, ko‘rish, virtual muhitda tahlil qilish hamda boshqalar bilan birgalikda muhokama qilish imkonini beradi. Bu, o‘z navbatida, asarning mazmuniga chuqurroq kirib borish, obrazlar olamini his etish va estetik ta’sirchanlikni mustahkamlashga zamin yaratadi. Amerikalik olim Mayerning kognitiv ko‘p kanalli o‘qish nazariyasiga binoan inson axborotni vizual va eshituv kanallari orqali bir vaqtda qabul qilganda, o‘rganish samaradorligi sezilarli darajada oshadi.[3]

Mazkur tadqiqotning maqsadi Yangi O‘zbekiston maktablarida adabiyot ta’limining media modelini ishlab chiqish, uning nazariy asoslarini yoritish hamda xorijiy tajribadan kelib chiqib samarali metodik tavsiyalar tayyorlashdan iborat. Vazifalari quyidagilarga yo‘naltirilgan: media ta’limning nazariy-falsafiy negizini ochib berish; rivojlangan davlatlar tajribasini tahlil qilish; adabiyot darslarida audio-vizual vositalardan foydalanishning pedagogik samaradorligini aniqlash; milliy kontekstga mos innovatsion model taklif etish.

Adabiyotlar tahlili. Media ta’lim va multimedia pedagogikasi masalalari so‘nggi yarim asr mobaynida ko‘plab xorijiy hamda mahalliy olimlar tomonidan tadqiq etib kelinmoqda. Kanadalik olim Marshall McLuhan “Understanding Media: The Extensions of Man” (1964) asarida media vositalarini insonning his-tuyg‘ulari va idrok organlarining tabiiy davomi sifatida talqin qilib, ularning insoniy ong va madaniyatga ta’sirini fundamental darajada o‘rgangan. Olimning fikricha, har bir media vositasi shaxs va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlarni o‘ziga xos tarzda qayta shakllantiradi.[4]

Amerika Qo‘shma Shtatlari olimi Neil Postman esa ommaviy axborot vositalari, ayniqsa televideniyaning ta’lim va madaniyatga ta’sirini tanqidiy tahlildan o‘tkazgan. U media muhitida shakllanayotgan avlodning mutolaa madaniyati va matniy tafakkuriga oid ogohlantiruvchi qarashlarni ilgari surgan.[5] Bu qarashlar bugungi raqamli muhitda adabiyot ta’limini tashkil etishda ham e’tiborga olinishi lozim, zero kitobxonlik madaniyatini saqlab qolish va rivojlantirish ayni paytda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Amerika olimi Richard Mayer multimedia orqali o‘qitishning kognitiv nazariyasini ishlab chiqib, uchta asosiy faraz — ikki kanalli idrok, har bir kanalning cheklangan sig‘imi va faol qayta ishlash — asosida inson axborotni qanday qabul qilishini ilmiy izohlab bergan. Mayerning “Multimedia Learning” asarida bayon etilgan o‘n ikkita tamoyil bugungi kunda dunyoning yetakchi oliy ta’lim va maktab muassasalarida amaliy yo‘riqnoma sifatida qo‘llaniladi. Mayer hamda Moreno tomonidan keyingi tadqiqotlarda kognitiv yukni kamaytirishning to‘qqizta usuli ishlab chiqilgan bo‘lib, ular media materiallarini didaktik jihatdan ratsional tashkil etishga xizmat qiladi.[6]

Rossiya olimi Lev Vigotskiyning ijtimoiy-madaniy nazariyasi va undagi “proksimal rivojlanish zonasi” tushunchasi media ta’lim metodologiyasining shakllanishida muhim o‘rin tutadi. Uning fikricha, bilim ijtimoiy o‘zaro ta’sir jarayonida shakllanadi.[7] Amerika Qo‘shma Shtatlari olimi John Dewey esa ta’limni real hayotiy tajriba bilan bog‘lash, o‘quvchini faol ishtirokchiga aylantirish g‘oyasini ilgari surdi,[8] Amerika Qo‘shma Shtatlari olimi Jerome Bruner esa kashfiyot orqali o‘qishning kognitiv asoslarini yoritib, har qanday murakkab tushunchani o‘quvchining yosh darajasiga moslashtirish mumkinligini ta’kidlagan.[9]

O‘zbek olimlaridan professor Q. Yo‘ldoshev adabiyot ta’limida o‘quvchining hissiy-estetik qabul qilish jarayoniga alohida e’tibor qaratgan bo‘lib, badiiy asarni chuqur anglash uchun o‘quvchi obrazlar olamiga to‘la kirishi lozimligini qayd etadi.[10] Professor Akademik B. To‘xliyev adabiyot darslarida interaktiv metodlardan foydalanish o‘quvchining mustaqil fikrlash ko‘nikmasini rivojlantirishini ko‘rsatib o‘tgan.[11] O’zbekiston san’at arbobi M. Mahmudovning pedagogik mahorat va tarbiyaviy ishlarga doir ma’lumotlarni ko‘rishimiz mumkin. [12] XXI asrning raqamli texnologiya davrida ko’plab yoshlar audio va video, multmidiaga doir izlanishlar olib bormoqda.

Jumladan, jahon standartlariga javob beradigan adabiyot o‘qitishda metodikasini yangi pedagogik texnologiyalar bilan boyitish ko’zda tutilgan, badiiy matnni multimodal tahlil qilish ishlari o‘rganilmoqda. Shu bilan birga, Renee Hobbs hamda Henry Jenkins kabi g‘arb tadqiqotchilarining raqamli savodxonlik va konvergent

3 Mayer R.E. Multimedia Learning. Second Edition. — New York: Cambridge University Press, 2009. — P. 31–48.

5 Postman N. Amusing Ourselves to Death: Public Discourse in the Age of Show Business. — New York: Penguin Books, 1985. — P. 84–87.

6 Mayer R.E., Moreno R. Nine Ways to Reduce Cognitive Load in Multimedia Learning // Educational Psychologist. — 2003. — Vol. 38, No. 1. — P. 43–52.

7 Vygotsky L.S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. — Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978. — P. 79–91.

8 Dewey J. Democracy and Education: An Introduction to the Philosophy of Education. — New York: Macmillan, 1916. — P. 152–158.

9 Bruner J. The Process of Education. — Cambridge, MA: Harvard University Press, 1960. — P. 17–22.

10 Yo‘ldoshev Q. Adabiyot o‘qitishning ilmiy-nazariy asoslari. — Toshkent: O‘qituvchi, 2006. — B. 64–71.

11 To‘xliyev B. Adabiyot o‘qitish metodikasi. — Toshkent: Yangiyo‘l Poligraf Servis, 2010. — B. 112–118.

12 Mahmudov M. Tarbiyaviy ishlar metodikasi va pedagogik mahorat. — Toshkent: TDPU nashriyoti, 2012. — B. 88–94.

media madaniyati bo‘yicha asarlari adabiyot pedagogikasi uchun ham qimmatli nazariy zamin yaratadi.[13]

Tadqiqot metodologiyasi.Tadqiqotda nazariy va empirik metodlar majmuyi qo‘llanildi. Nazariy darajada tahlil-sintez, qiyosiy tahlil, modellashtirish va tarixiy-pedagogik tahlil yetakchi o‘rin tutdi. Empirik darajada esa pedagogik kuzatish, anketa so‘rov, ekspert intervyu va pedagogik tajriba-sinov o‘tkazildi. Tajriba va nazorat sinflari maxsus tanlandi: tajriba sinflarida adabiyot darslari media model asosida, nazorat sinflarida esa an’anaviy uslubda olib borildi. Sinov natijalari o‘quvchilarning matnni tushunish darajasi, ijodiy fikrlash ko‘nikmasi, kitobxonlik qiziqishi va mustaqil tahlil mahoratiga oid mezonlar bo‘yicha qiyoslandi.

Media ta’limning nazariy-falsafiy negizi.Media ta’lim tushunchasi keng ma’noda axborot vositalari orqali bilim, ko‘nikma va qadriyatlarni shakllantirish jarayonini anglatadi. Bunda media vositasi nafaqat oddiy vosita, balki muloqot va tafakkur muhitining o‘zi sifatida qaraladi. McLuhanning “vosita — bu xabarning o‘zi” qoidasi ushbu yondashuvning falsafiy asosini tashkil etadi.[14] David Bucking ham media ta’limning to‘rt jihatini ajratib ko‘rsatadi: ishlab chiqarish, til, vakillik va auditoriya. Bu jihatlarni adabiyot darsiga qo‘llaganda o‘quvchi badiiy asarning shakllanish jarayonini, uning tili va uslubini, undagi voqelik tasvirini hamda kitobxon-auditoriya bilan o‘zaro munosabatini chuqur tahlil qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi.[15]

Konstruktivistik yondashuv nuqtayi nazaridan o‘quvchi bilimini passiv qabul qiluvchi emas, balki uni faol qurib boruvchi subyektdir. Henry Jenkinsning konvergent madaniyat nazariyasi raqamli muhitda turli media formalari (matn, audio, video, o‘yin, interaktiv platforma) bir-biri bilan uzviy bog‘lanishini ko‘rsatadi. Adabiyot ta’limida bu hodisaning ahamiyati shundaki, klassik asarning kitob, kinofilm, podkast yoki interaktiv loyiha shaklidagi turli variantlari o‘quvchining to‘liq idrokini ta’minlashga xizmat qilishi mumkin.[16]

Jahon tajribasi: yondashuvlar va modellar

Finlandiya tajribasi.Finlandiya ta’lim tizimi dunyoning yetakchi tizimlaridan biri sifatida e’tirof etiladi. 2014-yilda qabul qilinib, 2016-yildan amalda joriy etilgan yangi Milliy o‘quv dasturi hodisa-asosida o‘qish (phenomenon-based learning) yondashuvini fanlararo integratsiyaning markaziy elementi sifatida belgiladi.[17] Bu yondashuvga ko‘ra, o‘quvchi yiliga kamida bitta ko‘pqirrali tematik modulda — masalan, “Migratsiya”, “Iqlim” yoki “Insoniylik tushunchasi” kabi hodisalarni o‘rganishda ishtirok etadi va bu modul doirasida adabiyot, tarix, san’at, geografiya hamda media bir-biri bilan bog‘liq holda yoritiladi.[18] Adabiyot darslarida o‘quvchilar badiiy asarlarni audio kitoblar, film adaptatsiyalari va interaktiv platformalar orqali o‘rganadilar. Masalan, Aleksis Kivining “Yetti aka-uka” romanini o‘rganishda matn, audio yozuv, teatr lavhasi va zamonaviy talqindagi mini-spektakl ko‘rinishlari birgalikda tahlil qilinadi. Yondashuvning falsafiy asosi fenomenologik pedagogikadan oziqlanadi: hodisa-asosida o‘qish o‘quvchini matn dunyosiga to‘la sho‘ng‘ishga, real hayot bilan bog‘lanishni mustaqil qurishga undaydi.[19] Pasi Sahlberg ta’kidlaganidek, Finlandiya tizimining muvaffaqiyatida o‘qituvchi professionalligiga ishonch, sinov-imtihon yukining yengilligi va maktab muhitining ijodiy yo‘nalishi muhim o‘rin tutadi.[20]

Singapur tajribasi. Singapur Ta’lim vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan “EdTech Masterplan 2030” dasturi raqamli texnologiyalarni maktab ta’limining barcha sohalariga, jumladan adabiyot va til fanlariga ham keng joriy etishni nazarda tutadi.[21] Bu dasturning markazida pedagogik samaradorlik turadi: texnologiya o‘z-o‘zicha emas, balki o‘rganish maqsadlariga xizmat qiluvchi vosita sifatida qaraladi. Singapur maktablarida Student Learning Space (SLS) elektron platformasi faoliyat ko‘rsatib, unda o‘quvchilar adabiyot matnlarini onlayn tahlil qilishlari, sun’iy intellekt yordamida shaxslashtirilgan mashqlarni bajarishlari, o‘qituvchi va sinfdoshlari bilan virtual muhokamada qatnashishlari mumkin. “Find, Think, Apply, Create” (Top, Fikrla, Qo‘lla, Yarat) tamoyilli Milliy Raqamli Savodxonlik Dasturi har bir o‘quvchining to‘rt asosiy raqamli kompetensiyani egallashini ta’minlaydi.[22] Adabiyot darsida bu tamoyillar o‘quvchining videoesse yaratish, podkast tayyorlash, badiiy obrazni virtual tarzda qayta talqin qilish kabi loyihalarida amaliy ifoda topadi.

Janubiy Koreya tajribasi.Janubiy Koreyada Ta’lim va tadqiqot axborotini boshqarish xizmati (KERIS) tomonidan amalga oshirilayotgan “Smart Classroom” va raqamli darslik tashabbusi maktablarda axborot texnologiyalarini integratsiyalashtirishning eng tizimli namunalaridan biridir.[23] Bu yerda interaktiv doskalar, elektron kutubxonalar va sun’iy intellekt asosidagi

13 Hobbs R. Digital and Media Literacy: A Plan of Action. — Washington, D.C.: The Aspen Institute, 2010. — P. 17–25.

15 Buckingham D. Media Education: Literacy, Learning and Contemporary Culture. — Cambridge: Polity Press, 2003. — P. 36–41.

17 Finnish National Board of Education. National Core Curriculum for Basic Education 2014. — Helsinki: FNBE, 2016. — P. 31–34.

18 Halinen I. The New Educational Curriculum in Finland // Improving the Quality of Childhood in Europe. — 2018. — Vol. 7. — P. 75–89.

19 Symeonidis V., Schwarz J.F. Phenomenon-Based Teaching and Learning through the Pedagogical Lenses of Phenomenology: The Recent Curriculum Reform in Finland // Forum Oświatowe. — 2016. — Vol. 28, No. 2. — P. 31–47.

20 Sahlberg P. Finnish Lessons 2.0: What Can the World Learn from Educational Change in Finland? — New York: Teachers College Press, 2015. — P. 128–134.

21 Singapore Ministry of Education. Transforming Education through Technology: EdTech Masterplan 2030. — Singapore: MOE, 2024. — P. 5–9.

22 Singapore Ministry of Education. National Digital Literacy Programme Framework: Find, Think, Apply, Create. — Singapore: MOE, 2020. — P. 3–7.

23 Korea Education and Research Information Service (KERIS). Digital Textbook and Smart Classroom Initiative: Annual Report 2022. — Seoul: KERIS, 2022. — P. 14–22.

o‘quv platformalari faol qo‘llaniladi. Adabiyot darslarida o‘quvchilar asar qahramonlarini virtual rekonstruksiya qilish, sahna ko‘rinishlari yaratish va audio spektakllar tayyorlash orqali ijodiy faoliyat yuritadilar.

AQSH tajribasi. Amerika Qo‘shma Shtatlarida media savodxonlik (media literacy) alohida pedagogik yo‘nalish sifatida shakllangan. NAMLE (Milliy media ta’lim assotsiatsiyasi) tomonidan ishlab chiqilgan media ta’limning oltita asosiy tamoyili — faol so‘roq berish, ko‘pqirrali tahlil, axloqiy javobgarlik, o‘rganishga ishtirokchilik, ifoda erkinligi va ijtimoiy adolat — adabiyot darslarini media muhit sharoitida tashkil etish uchun universal yo‘riqnoma vazifasini bajaradi.[24] Renee Hobbs raqamli va media savodxonligini fuqarolik javobgarligi nuqtayi nazaridan baholaydi: o‘quvchi nafaqat axborotni tushunishi, balki uni tanqidiy baholash va mustaqil ravishda media mahsulot yarata olish ko‘nikmasiga ega bo‘lishi lozim. Amerikaning ko‘pchilik maktablarida adabiyot darslarida podkast, videoblog, raqamli loyiha va onlayn munozara klublari muntazam qo‘llanadi.

Yangi O‘zbekiston sharoitida media ta’limning ahamiyati

O‘zbekistonda ta’lim sohasini raqamlashtirish jarayoni “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasi doirasida tizimli ravishda amalga oshirilmoqda. Strategiya mamlakat hayotining barcha sohalarini, jumladan, ta’lim tizimini raqamli texnologiyalar asosida qayta shakllantirishni nazarda tutadi.[25] “O‘zbekiston — 2030” strategiyasida esa raqamli hukumat tizimiga o‘tish hamda yoshlar uchun sifatli, zamonaviy ta’lim muhitini yaratish ustuvor vazifa sifatida belgilangan.

Mamlakatda elektron kundalik tizimi, masofaviy ta’lim platformalari, multimedia darsliklari, raqamli kutubxonalar joriy etilmoqda. Maktablarda axborot texnologiyalari kabinetlari, interaktiv doskalar va kompyuter sinflari soni izchil ortib bormoqda. Bu jarayonlar adabiyot ta’limining media modelini joriy etish uchun zaruriy infratuzilmaviy zamin yaratmoqda.

Media ta’limning o‘zbek adabiyoti darslariga joriy etilishi quyidagi pedagogik imkoniyatlarni keltirib chiqaradi: o‘quvchilarning kitobxonlik qiziqishini oshirish; klassik va zamonaviy adabiyot namunalarini multimodal tahlil qilish; badiiy tafakkurni rivojlantirish; mustaqil va tanqidiy fikrlashni kuchaytirish; raqamli kompetensiyalarni shakllantirish; ijodiy faoliyat uchun yangi maydon yaratish. Media model asosida tashkil etilgan adabiyot darslari o‘quvchini passiv tinglovchidan faol ishtirokchiga, hatto ijodkorga aylantiradi.

Adabiyot darslarida audio-vizual vositalardan foydalanish

Audio-vizual vositalar adabiyot darsining hissiy ta’sirchanligini va kognitiv samaradorligini bir vaqtning o‘zida oshiradigan didaktik resurslardir. Ularning asosiy turlari quyidagilar:

– professional aktyorlar tomonidan o‘qilgan audio kitoblar va radioinssenirovkalar;
– klassik asarlarning teatr va kino adaptatsiyalari;
– animatsion lavhalar va vizual-grafik talqinlar;
– elektron taqdimotlar va interaktiv slaydlar;
– virtual ekskursiyalar (yozuvchining muzey-uyiga, asar voqea joyiga);
– multimedia testlar va interaktiv mashqlar;
– o‘quvchilar tomonidan yaratiladigan podkastlar va videoesselar;
– badiiy asar voqea joylarini ko‘rsatuvchi interaktiv xaritalar.

Misol uchun, Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanini o‘rganishda film lavhalari, XIX asr Turkiston shaharlarining tarixiy suratlari, davr libos va anjomlari aks etgan vizual materiallar hamda professional aktyor ijrosidagi audio matnlardan birgalikda foydalanish o‘quvchining asarni chuqurroq tushunishiga, undagi tarixiy va madaniy fonni jonli his qilishiga yordam beradi. Cho‘lpon she’riyatini audio shaklda tinglash esa poetik ohang va hissiy ta’sirni butkul ochib beradi. Bunda Mayerning multimedia tamoyillari — ko‘pkanalli idrok, ortiqcha materialdan tozalanganlik, signal berish, fazo-vaqt yaqinligi — amaliy ifoda topadi.[26]

Audio-vizual vositalardan foydalanishda pedagog uchta muhim tamoyilga rioya etishi lozim. Birinchidan, vositaning darsning didaktik maqsadiga to‘la mos kelishi ta’minlanishi kerak: tasodifiy yoki maqsadsiz multimedia material o‘quvchining diqqatini parchalashi mumkin. Ikkinchidan, audio-vizual material badiiy matnning o‘rniga emas, balki uni boyitish vositasi sifatida xizmat qilishi shart. Uchinchidan, o‘quvchi nafaqat passiv tomoshabin, balki tahlilchi va talqinchi sifatida ishtirok etishi ta’minlanishi lozim.

Adabiyot ta’limining media modeli tuzilishi

Mualliflik tomonidan taklif etilayotgan media modeli oltita asosiy tarkibiy komponentdan tashkil topadi. Har bir komponent o‘ziga xos pedagogik vazifani bajaradi va boshqalari bilan tizimli aloqada bo‘ladi.

Birinchi komponent — raqamli platforma. Adabiyot fani uchun maxsus yaratilgan o‘quv platformasi badiiy matnlar, ularning audio variantlari, video tahlillari, o‘qituvchi ko‘rsatmalari va o‘quvchi loyihalari uchun yagona muhit vazifasini bajaradi. Bunday platforma sun’iy intellekt asosidagi shaxslashtirish funksiyalari bilan boyitilishi maqsadga muvofiq.

Ikkinchi komponent — multimedia kutubxona. Bu yerda o‘zbek va jahon adabiyotining audio kitoblari, film adaptatsiyalari, mualliflik chiqishlari, sahna asarlari

24 National Association for Media Literacy Education (NAMLE). Core Principles of Media Literacy Education in the United States. — NAMLE, 2007. — P. 1–4.

25 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrdagi PF-6079-son Farmoni. «Raqamli O‘zbekiston — 2030» strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 06.10.2020-y.

26 Mayer R.E. The Past, Present, and Future of the Cognitive Theory of Multimedia Learning // Educational Psychology Review. — 2024. — Vol. 36, Issue 1. — P. 8.

videoyozuvi, yozuvchilar va shoirlar haqidagi hujjatli filmlar joylashtiriladi. Kutubxona ochiq tizimda bo‘lishi va doimiy yangilanishi lozim.

Uchinchi komponent — interaktiv metodlar tizimi. Modelga “Klaster”, “Insert”, “Aqliy hujum”, “Roleplay”, “Munozara klublari”, “Adabiy sud” kabi an’anaviy interaktiv metodlar bilan birga zamonaviy raqamli usullar — virtual qahramonlar bilan suhbat, sun’iy intellekt asosidagi adabiy bahs, jamoaviy onlayn talqin va boshqalar kiritiladi.

To‘rtinchi komponent — virtual muhokama muhiti. Bu komponent o‘quvchilar o‘rtasida darsdan tashqari ham adabiy munozara olib borish, o‘z fikrlarini ifoda etish va boshqalarning qarashlari bilan tanishish imkonini beradi. Munozara muhiti o‘qituvchi tomonidan moderatsiya qilinadi va etik me’yorlar asosida boshqariladi.

Beshinchi komponent — elektron baholash tizimi. O‘quvchining bilimi, ko‘nikmasi va ijodiy mahorati turli ko‘rinishdagi raqamli vositalar — testlar, portfolio, loyiha taqdimoti, ovozli sharh, videoesse — orqali kompleks baholanadi. Bu tizim formativ va summativ baholashning uyg‘unligini ta’minlaydi.

Oltinchi komponent — kreativ media loyihalar. O‘quvchilar o‘rganilayotgan asar yuzasidan videoesse, audio hikoyat, virtual sahna ko‘rinishi, raqamli illyustratsiyalar, interaktiv kitob, podkast yoki blog tayyorlaydilar. Bu loyihalar yarim yillik yoki yillik baholashning muhim qismi sifatida hisobga olinadi.

Model Finlandiya tajribasidagi hodisa-asosida o‘qish g‘oyasini, Singapurning pedagogika ustuvorligi tamoyilini va Amerikaning media savodxonlik yondashuvini o‘zbek pedagogik an’anasi bilan uyg‘unlashtirgan holda qurilgan. Mahalliy kontekstga moslashtirish jarayonida Q. Yo‘ldoshev, B. To‘xliyev, M. Mahmudov kabi olimlarning ilmiy merosi va metodologik tavsiyalari asos qilib olindi.

Tajriba-sinov natijalari va muhokama

Tadqiqot davomida o‘tkazilgan tajriba-sinov ishlari Toshkent shahridagi 328-umumta’lim maktabining 8–10-sinflari ishtirokida olib borildi. Tajriba guruhida adabiyot darslari media model asosida, nazorat guruhida esa an’anaviy uslubda tashkil etildi. Boshlang‘ich va yakuniy diagnostik kesimlar natijalari quyidagicha taqsimlandi: badiiy matnni tushunish ko‘rsatkichi tajriba guruhida 18 foizga, nazorat guruhida esa 7 foizga oshdi; ijodiy fikrlash mezoni bo‘yicha tajriba guruhi 22 foiz, nazorat guruhi 9 foiz o‘sishni qayd etdi; kitobxonlik qiziqishi tajriba guruhida 31 foizga ko‘tarildi, nazorat guruhida bu ko‘rsatkich 12 foizdan oshmadi; mustaqil tahlil mahorati esa mos ravishda 25 va 10 foiz o‘sishni ko‘rsatdi.

Sifatiy tahlil shuni ko‘rsatdiki, media model qo‘llangan sinflarda o‘quvchilarning darsga qiziqishi sezilarli oshgan, ular o‘rganilayotgan asar haqida darsdan tashqari ham mustaqil ravishda izlanish olib borgan, o‘zlarining ijodiy mahsulotlarini yaratishga intilgan. Ayni paytda media materialga to‘g‘ri tayyorgarlik ko‘rish, dars sahnalashtirilishi va texnik xavfsizlikning ta’minlanishi muhim ahamiyat kasb etishi ma’lum bo‘ldi.

Mavjud muammolar va yechim yo‘llari

Media modelni keng joriy etish jarayonida bir qator obyektiv va subyektiv muammolar yuzaga keladi. Eng asosiylari quyidagilar: maktablardagi axborot-texnik vositalarning yetarli emasligi (ayniqsa, qishloq joylarda); internet ulanishi tezligining notekisligi; pedagoglarning media kompetensiyasi va metodik tayyorgarligining yetishmasligi; o‘zbek adabiyotiga oid sifatli multimedia resurslarining hozircha kamligi; mualliflik huquqi va litsenziya masalalarining yetarlicha tartibga solinmaganligi. Ushbu muammolarni hal etish uchun o‘qituvchilar uchun media pedagogika yo‘nalishi bo‘yicha tizimli malaka oshirish kurslarini tashkil etish, UNESCO tomonidan tavsiya etilgan media va axborot savodxonligi standartlarini mahalliy sharoitga moslashtirib joriy etish,[27] o‘zbek tilidagi raqamli adabiy resurslarni yaratish bo‘yicha milliy dasturni amalga oshirish hamda maktablarni zamonaviy texnik vositalar bilan ta’minlash zarurdir.

Taklif va tavsiyalar.Tadqiqot natijalari va xorijiy tajribani umumlashtirgan holda quyidagi taklif va tavsiyalar shakllantirildi:

1. Adabiyot fanining o‘quv dasturlariga media pedagogika modullarini va raqamli savodxonlik komponentlarini izchil joriy etish;

2. O‘zbek va jahon adabiyoti namunalari bo‘yicha milliy elektron audio kitob bazasini yaratish va uni maktablarga bepul taqdim etish;

3. Klassik asarlarning animatsion, multimedia va video talqinlarini ishlab chiqish bo‘yicha milliy ijodiy dasturni amalga oshirish;

4.Sun’iy intellekt asosidagi adabiyot o‘qitish platformalarini, jumladan o‘zbek tilidagi raqamli asboblar tizimini ishlab chiqish;

5. Pedagogik universitetlarda bo‘lajak adabiyot o‘qituvchilari uchun “Media pedagogika” va “Raqamli didaktika” kabi maxsus kurslarni joriy etish hamda faoliyatdagi o‘qituvchilar uchun har yili kamida 36 soat hajmida malaka oshirish kurslarini tashkil etish;

6. Maktab kutubxonalarini elektron resurslar bilan boyitish, raqamli adabiy laboratoriyalar yaratish;

7.O‘quvchilar o‘rtasida media-adabiy loyihalar bo‘yicha milliy va xalqaro tanlovlar o‘tkazish.

Xulosa.Yangi O‘zbekiston maktablarida adabiyot ta’limining media modeli zamonaviy pedagogikaning ilg‘or yo‘nalishlaridan biri sifatida nazariy hamda amaliy ahamiyatga ega. Media texnologiyalar asosida qurilgan darslar o‘quvchining badiiy tafakkuri, estetik dunyoqarashi va kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishda samarali natijalar berishi tajriba-sinov ishlari orqali tasdiqlandi.

Jahon tajribasi — Finlandiyaning hodisa-asosida o‘qish modeli, Singapurning pedagogika ustuvorligi prinsipi, Janubiy Koreyaning raqamli darslik tashabbusi va AQSHning media savodxonlik tizimi — multimedia hamda interaktiv metodlar qo‘llangan ta’lim yondashuvlari yuqori

27 UNESCO. Reimagining our Futures Together: A New Social Contract for Education. — Paris: UNESCO Publishing, 2021. — P. 64–72.

samaradorlikka ega ekanligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, har bir milliy ta’lim tizimi xorijiy tajribani to‘g‘ridan to‘g‘ri ko‘chirib emas, balki o‘z madaniy va pedagogik an’analarini saqlagan holda moslashtirib qabul qilishi maqsadga muvofiqdir.[28]

Mualliflik tomonidan ishlab chiqilgan media model o‘zbek adabiyot ta’limining oltita asosiy komponentini uyg‘un tarzda birlashtiradi. Bu model adabiyot ta’limi sifatini oshirish, o‘quvchilarning kreativ va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish hamda milliy ta’lim tizimini xalqaro standartlarga yaqinlashtirishga xizmat qiladi. Kelajakda mazkur yo‘nalishda olib boriladigan tadqiqotlar adabiyot ta’limida sun’iy intellektning o‘rnini chuqurroq o‘rganish, o‘zbek tili sharoiti uchun maxsus media-adabiy resurslar yaratish hamda model samaradorligini uzoq muddatli o‘lchashga qaratilishi lozim.

28 Lähdemäki J. Case Study: The Finnish National Curriculum 2016 — A Co-created National Education Policy // Sustainability, Human Well-being, and the Future of Education. — Cham: Palgrave Macmillan, 2018. — P. 397–422.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-Yil 5-Oktiyabr PF-6079-son Farmoni. «Raqamli O‘zbekiston — 2030» strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 06.10.2020-y.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son Farmoni. «O‘zbekiston — 2030» strategiyasi to‘g‘risida // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 12.09.2023-y.

3. Yo‘ldoshev Q. Adabiyot o‘qitishning ilmiy-nazariy asoslari. — Toshkent: O‘qituvchi, 2006. 280-b.

4. To‘xliyev B. Adabiyot o‘qitish metodikasi. — Toshkent: Yangiyo‘l Poligraf Servis, 2010. 312-b.

5. Mahmudov M. Tarbiyaviy ishlar metodikasi va pedagogik mahorat. — Toshkent: TDPU nashriyoti, 2012. 248-b.

6. Yo‘ldoshev N. Adabiy ta’limda yangi pedagogik texnologiyalar. — Toshkent: Fan, 2014. 196-b.

7. McLuhan M. Understanding Media: The Extensions of Man. — New York: McGraw-Hill, 1964. 359 p.

8. Mayer R.E. Multimedia Learning. Second Edition. — New York: Cambridge University Press, 2009. 304 p.

9. Mayer R.E., Moreno R. Nine Ways to Reduce Cognitive Load in Multimedia Learning // Educational Psychologist. — 2003. — Vol. 38, No. 1. — P. 43–52.

10.Postman N. Amusing Ourselves to Death: Public Discourse in the Age of Show Business. — New York: Penguin Books, 1985. — 184 p.

11.Vygotsky L.S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. — Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978. — 159 p.

12.Dewey J. Democracy and Education: An Introduction to the Philosophy of Education. — New York: Macmillan, 1916. — 434 p.

13.Bruner J. The Process of Education. — Cambridge, MA: Harvard University Press, 1960. — 97 p.

14.Buckingham D. Media Education: Literacy, Learning and Contemporary Culture. — Cambridge: Polity Press, 2003. — 219 p.

15. Jenkins H. Convergence Culture: Where Old and New Media Collide. — New York: New York University Press, 2006. — 308 p.

16. Hobbs R. Digital and Media Literacy: A Plan of Action. — Washington, D.C.: The Aspen Institute, 2010. — 65 p.

17.Finnish National Board of Education. National Core Curriculum for Basic Education 2014. — Helsinki: FNBE, 2016. — 472 p.

18. Symeonidis V., Schwarz J.F. Phenomenon-Based Teaching and Learning through the Pedagogical Lenses of Phenomenology: The Recent Curriculum Reform in Finland // Forum Oświatowe. — 2016. — Vol. 28, No. 2. — P. 31–47.

19.Halinen I. The New Educational Curriculum in Finland // Improving the Quality of Childhood in Europe. — 2018. — Vol. 7. — P. 75–89.

20.Sahlberg P. Finnish Lessons 2.0: What Can the World Learn from Educational Change in Finland? — New York: Teachers College Press, 2015. — 264 p.

21.Singapore Ministry of Education. Transforming Education through Technology: EdTech Masterplan 2030. — Singapore: MOE, 2024.

Korea Education and Research Information Service (KERIS). Digital Textbook and Smart Classroom Initiative: Annual Report 2022. — Seoul: KERIS, 2022.

22.NAMLE. Core Principles of Media Literacy Education in the United States. — National Association for Media Literacy Education, 2007.

23.UNESCO. Reimagining our Futures Together: A New Social Contract for Education. — Paris: UNESCO Publishing, 2021. — 186 p.

Matluba XUDOYQULOVA,
Termiz davlat pedagogika instituti
Ta'lim tarbiya nazariyasi va metodikasi
2-bosqich magistranti
Ilmiy rahbar: p.f.f.d. Firuza XAYITOVA



BUYUK AJDODLARIMIZ ILMIY MEROSIDA BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA AXLOQIY FAZILATLARNI SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOIY-PEDAGOGIK AHAMIYATI

Annotatsiya: ushbu maqolada buyuk ajdodlarimizning ilmiy va ma'naviy merosi asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarida axloqiy fazilatlarni shakllantirishning ijtimoiy-pedagogik ahamiyati yoritiladi. Maqolada Sharq mutafakkirlarining ta'lim-tarbiyaga oid qarashlari, ularning yosh avlodni ma'naviy barkamol etib tarbiyalashdagi o'rni tahlil qilinadi. Shuningdek, boshlang'ich ta'lim jarayonida buyuk allomalar merosidan foydalanish orqali o'quvchilarda halollik, mehr-oqibat, hurmat, vatanparvarlik kabi fazilatlarni rivojlantirish yo'llari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: ma'naviy tarbiya, axloqiy fazilatlar, buyuk ajdodlar merosi, boshlang'ich ta'lim, pedagogik meros, komil inson, tarbiya, milliy qadriyatlar, ijtimoiy-pedagogik ahamiyat.

Аннотация: в данной статье освещается социально-педагогическое значение формирования нравственных качеств у учащихся начальных классов на основе научного и духовного наследия наших великих предков. В статье анализируются взгляды восточных мыслителей на образование и воспитание, а также их роль в формировании духовно развитого молодого поколения. Кроме того, рассматриваются пути развития таких качеств, как честность, доброта, уважение и патриотизм у учащихся посредством использования наследия великих ученых в процессе начального образования.

Ключевые слова: духовное воспитание, нравственные качества, наследие великих предков, начальное образование, педагогическое наследие, гармонично развитая личность, воспитание, национальные ценности, социально-педагогическое значение.

Annotation: this article highlights the socio-pedagogical significance of developing moral qualities in primary school students based on the scientific and spiritual heritage of our great ancestors. The paper analyzes the educational views of Eastern thinkers and their role in nurturing a spiritually mature younger generation. It also examines ways to develop such qualities as honesty, kindness, respect, and patriotism in students through the use of the legacy of great scholars in the primary education process.

Key words: moral education, ethical qualities, heritage of great ancestors, primary education, pedagogical heritage, well-rounded individual, upbringing, national values, socio-pedagogical significance.

Kirish. Bugungi globallashuv jarayonlari jadallashib borayotgan bir davrda ta'lim tizimi oldiga qo'yilayotgan talablar ham tobora ortib bormoqda. Endilikda ta'lim faqatgina bilim berish bilan cheklanib qolmasdan, balki har tomonlama barkamol, mustaqil fikrlay oladigan, yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega shaxsni shakllantirishni ham o'z ichiga oladi. Shu nuqtayi nazardan, o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy kamolotini ta'minlash ta'lim jarayonining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda.

Ayniqsa, boshlang'ich sinf bosqichi bolaning shaxs sifatida shakllanishida eng muhim davr hisoblanadi. Bu davrda o'quvchilarda nafaqat bilim olishga bo'lgan qiziqish, balki ularning axloqiy qarashlari, xulq-atvori, ijtimoiy munosabatlarga kirishish ko'nikmalari va dunyoqarashi ham shakllana boshlaydi. Boshlang'ich ta'lim jarayonida berilgan tarbiya va singdirilgan qadriyatlar bolaning keyingi hayotida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli mazkur bosqichda olib boriladigan

tarbiyaviy ishlar puxta o‘ylangan, tizimli va maqsadga yo‘naltirilgan bo‘lishi zarur.

O‘zbek xalqining ko‘p asrlik boy ilmiy va ma’naviy merosi yosh avlodni komil inson etib tarbiyalashda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan bebaho asarlarda insonparvarlik, halollik, mehnatsevarlik, ilmga intilish, vatanparvarlik kabi yuksak axloqiy fazilatlar keng targ‘ib etilgan. Xususan, Abu Nasr Forobiy o‘z asarlarida komil jamiyat va komil inson g‘oyalarini ilgari surgan bo‘lsa, Abu Rayhon Beruniy ilmiy tafakkur va bilishga bo‘lgan intilishni yuqori baholagan. Ibn Sino esa tarbiya va sog‘lom turmush tarzining inson kamolotidagi o‘rnini alohida ta’kidlagan. Alisher Navoiy esa o‘zining badiiy va falsafiy merosida insoniylik, mehr-oqibat, adolat va ezgulik g‘oyalarini chuqur yoritgan.

Mazkur mutafakkirlarning ta’lim-tarbiyaga oid qarashlari bugungi zamonaviy pedagogika uchun ham muhim nazariy va amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi. Ularning ilgari surgan g‘oyalari yosh avlodni ma’naviy jihatdan barkamol etib tarbiyalashda samarali vosita sifatida qo‘llanilishi mumkin. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim jarayonida bu merosdan oqilona va tizimli foydalanish o‘quvchilarda ijobiy xulq-atvorni shakllantirish, milliy qadriyatlarga hurmat ruhini singdirish va ularni komil inson sifatida voyaga yetkazishda muhim omil hisoblanadi.

Shuningdek, buyuk ajdodlarimiz merosidan foydalanish orqali o‘quvchilarda milliy o‘zlikni anglash, tarixiy xotiraga hurmat, madaniy merosga ehtirom kabi fazilatlarni rivojlantirish imkoniyati kengayadi. Bu esa o‘z navbatida, yosh avlodni globallashuv sharoitida o‘z milliy qadriyatlariga sodiq qolgan holda zamonaviy bilim va ko‘nikmalarga ega shaxs sifatida tarbiyalashga xizmat qiladi.

Shu bois, boshlang‘ich ta’lim jarayonida buyuk ajdodlarimizning ilmiy va ma’naviy merosidan samarali foydalanish, uni zamonaviy pedagogik yondashuvlar bilan uyg‘unlashtirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Mazkur maqolada aynan ushbu masalaning ijtimoiy-pedagogik ahamiyati tahlil qilinadi hamda o‘quvchilarda axloqiy fazilatlarni shakllantirish yo‘llari ilmiy asosda yoritiladi.

Asosiy qism. Buyuk ajdodlarimizning ilmiy va ma’naviy merosi yosh avlodni tarbiyalashda muhim pedagogik manba hisoblanadi. Ularning asarlarida inson kamoloti, axloqiy poklik, halollik, mehr-oqibat va jamiyat oldidagi mas’uliyat kabi masalalar alohida o‘rin egallaydi. Sharq mutafakkirlari ta’lim va tarbiyani bir-biridan ajralmas jarayon deb hisoblaganlar. Ularning fikricha, inson faqat bilimli bo‘lish bilan emas, balki yuksak axloqiy fazilatlarga ega bo‘lish orqali komil shaxs sifatida shakllanadi.

Boshlang‘ich ta’lim jarayonida o‘quvchilarning shaxsiyati endigina shakllanayotganligi sababli, bu davrda beriladigan tarbiya ularning kelajakdagi hayotiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Buyuk allomalarimizning hayoti va faoliyati haqida beriladigan ma’lumotlar o‘quvchilarda nafaqat bilimga qiziqish uyg‘otadi, balki ularda ijobiy fazilatlarni ham rivojlantiradi. Masalan, Abu Rayhon Beruniy ilm olish jarayonida sabr-toqat, izlanish va halollik muhim ekanligini ta’kidlagan. Uning ilmga bo‘lgan cheksiz qiziqishi va mehnatsevarligi yosh avlod uchun ibrat bo‘lib xizmat qiladi.

Ibn Sino esa inson kamolotini ta’minlashda to‘g‘ri tarbiya muhim ahamiyatga ega ekanligini ta’kidlagan. U bolalarni jamoada tarbiyalash, ularda o‘zaro hurmat va hamkorlik tuyg‘ularini shakllantirish zarurligini qayd etgan. Bu fikrlar bugungi zamonaviy pedagogika talablariga ham to‘liq mos keladi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga allomalar hayoti bilan bog‘liq qiziqarli voqealar va hikoyalar orqali tarbiya berish o‘quvchilarda axloqiy fazilatlarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Alisher Navoiy ham o‘z asarlarida insoniylik, adolat va saxiylik g‘oyalarini keng targ‘ib qilgan. Uning asarlari yosh avlodni ezgulikka undovchi boy ma’naviy manba hisoblanadi. Navoiy inson kamolotining asosini odob va axloq tashkil etishini alohida ta’kidlagan. *“Odamiy ersang demagil odami,*

Onikim yo‘q xalq g‘amidin g‘ami.” — Alisher Navoiy

Ushbu hikmatli so‘zlar insonning haqiqiy komilligi boshqalarga mehr ko‘rsatish, jamiyat manfaatini o‘ylash bilan belgilanadi degan g‘oyani ifodalaydi. Bu fikr boshlang‘ich ta’lim jarayonida o‘quvchilarga insonparvarlik va mehr-oqibat tuyg‘ularini singdirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ajdodlarimiz merosidan foydalanish o‘quvchilarning ma’naviy tafakkurini rivojlantirish bilan bir qatorda, ularning milliy o‘zligini anglashiga ham yordam beradi. O‘qituvchi dars jarayonida mutafakkirlar hayoti va faoliyati haqida ma’lumot berish, hikmatli so‘zlar va rivoyatlardan foydalanish orqali o‘quvchilarning qiziqishini oshirishi mumkin. Bunday yondashuv o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, ijobiy xulq-atvor va ijtimoiy mas’uliyatni rivojlantiradi.

Boshlang‘ich ta’lim jarayonida buyuk ajdodlarimiz merosidan foydalanish o‘quvchilarda quyidagi axloqiy fazilatlarni shakllantirishga yordam beradi.

Ajdodlar merosi	Shakllanadigan axloqiy fazilat	Ta’lim jarayonidagi ahamiyati
Alisher Navoiy hikmatlari	Mehr-oqibat, insonparvarlik	O‘quvchilarda boshqalarga yordam berish hissini rivojlantiradi
Ibn Sino pedagogik qarashlari	Do‘stlik, hamkorlik	Jamoa bo‘lib ishlash ko‘nikmasini shakllantiradi
Beruniy ilmiy faoliyati	Izlanish, sabr-toqat	O‘quvchilarda ilmga qiziqishni oshiradi
Forobiy falsafiy qarashlari	Adolat, mas’uliyat	To‘g‘ri xulq-atvorni shakllantirishga yordam beradi

Shunday qilib, buyuk ajdodlarimiz merosi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida axloqiy fazilatlarni shakllantirishda samarali pedagogik vosita hisoblanadi. Bu meros yosh avlodni ma’naviy barkamol, bilimli va jamiyat uchun foydali shaxs sifatida tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, buyuk ajdodlarimizning ilmiy va ma’naviy merosi yosh avlodni har tomonlama barkamol inson sifatida shakllantirishda beqiyos ahamiyatga ega bo‘lgan pedagogik manba hisoblanadi. Ularning asarlarida ilgari surilgan axloqiy, ma’rifiy va tarbiyaviy g‘oyalar bugungi ta’lim tizimi uchun ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan. Ayniqsa, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida axloqiy fazilatlarni shakllantirish jarayonida ushbu merosdan foydalanish o‘quvchilarning ma’naviy dunyosini boyitish, ularning ijtimoiy ongini rivojlantirish va milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Boshlang‘ich ta’lim bosqichida beriladigan tarbiya bolaning keyingi hayot yo‘lini belgilab beruvchi muhim poydevor hisoblanadi. Shu bois, aynan ushbu davrda o‘quvchilarga buyuk mutafakkirlarning hikmatli fikrlari, ibratli hayot yo‘llari va ilmiy merosini yetkazish orqali ularda ijobiy xulq-atvorni shakllantirish, mustaqil fikrlashga undash va ezgu fazilatlarni rivojlantirish mumkin. Bu esa o‘quvchilarning nafaqat bilim darajasini, balki ularning shaxs sifatidagi kamolotini ham ta’minlaydi.

Ta’lim jarayonida ajdodlarimiz merosidan samarali foydalanish o‘quvchilarda halollik, vatanparvarlik, mehr-oqibat, sabr-toqat, mehnatsevarlik va mas’uliyat kabi insoniy fazilatlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, bu jarayon o‘quvchilarda milliy o‘zlikni anglash, tarixiy merosga hurmat bilan qarash hamda o‘z xalqining madaniy qadriyatlariga sodiqlik tuyg‘ularini mustahkamlaydi. Natijada, ular jamiyatda faol, ongli va mas’uliyatli shaxslar sifatida shakllanadi.

Shuningdek, buyuk ajdodlarimiz merosini zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirish ta’lim samaradorligini yanada oshirishga imkon beradi. Interfaol metodlar, muammoli vaziyatlar, hayotiy misollar va ijodiy topshiriqlar orqali ushbu merosni o‘quvchilarga yetkazish ularning qiziqishini oshiradi va o‘zlashtirish jarayonini samarali tashkil etishga xizmat qiladi.

Shu sababli, pedagoglar boshlang‘ich ta’lim jarayonida buyuk ajdodlarimizning ilmiy va ma’naviy merosidan keng va maqsadli foydalanishlari, uni o‘quvchilarning yosh xususiyatlariga mos holda taqdim etishlari zarur. Bu esa kelajak avlodni yuksak ma’naviyatli, bilimli va ijtimoiy faol shaxslar etib tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: O‘qituvchi, 2018. 15–22-betlar.
2.Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008. 45–52-betlar.
3.Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021. 134–140-betlar.
4.Xoliqov A. Pedagogika tarixi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2019. 84–92-betlar.
5.Yo‘ldoshev J., Usmonov S. Pedagogika nazariyasi va tarixi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2017. 96–103-betlar.

Anora ERGASHOVA,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universiteti
O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi 1 kurs magistranti



ADABIYOT DARSLARIDA O‘QUVCHILARNING ASAR QAHRAMONLARINI BAHOLASH KO‘NIKMASINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY- NAZARIY ASOSLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada adabiyot darslarida o‘quvchilarning asar qahramonlarini baholash ko‘nikmasini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari tahlil qilinadi. Maqola adabiy ta’lim jarayonida baholash ko‘nikmasining o‘rni, uning psixologik va pedagogik negizlari, shuningdek, o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash va empatiya kabi shaxsiy sifatlarni shakllantirishdagi roli haqida so‘z yuritadi. Shuningdek, maqolada mazkur ko‘nikmalarni shakllantirish uchun samarali pedagogik yondashuvlar va metodlar, jumladan interfaol va muammoli ta’lim texnologiyalari, baholash vositalari hamda o‘qituvchining roli ta’kidlanadi. Tadqiqotda o‘quvchilarning badiiy matnlarni chuqur anglashlari va qahramonlarning xarakterini tahlil qilishlari natijasida, ularning intellektual va ma’naviy rivojlanishiga erishish mumkinligi ko‘rsatib o‘tiladi. Maqola ta’lim jarayonida baholash ko‘nikmalarini yanada rivojlantirish uchun innovatsion pedagogik usullarni joriy etish zarurligini ta’kidlaydi.

Kalit so‘zlar: *adabiyot, qissa, baholash, tanqid, tafakkur, badiiy asar qahramoni, qobiliyat.*

Аннотация: в данной статье анализируются научно-теоретические основы развития у учащихся навыков оценки литературных героев на уроках литературы. В статье рассматривается место навыка оценки в процессе литературного образования, его психологические и педагогические основы, а также роль в формировании у школьников таких личностных качеств, как критическое мышление и эмпатия. Кроме того, в статье выделяются эффективные педагогические подходы и методы формирования данных навыков, включая интерактивные и проблемные образовательные технологии, оценочные инструменты и роль учителя. В исследовании показывается, что глубокое понимание учащимися художественных текстов и анализ характера героев способствует их интеллектуальному и духовному развитию. В статье подчеркивается необходимость внедрения инновационных педагогических методов для дальнейшего развития навыков оценки в образовательном процессе.

Ключевые слова: *литература, повесть, оценка, критика, размышления, герой художественного произведения, способность.*

Annotation: this article analyzes the scientific and theoretical foundations for developing students’ skills in evaluating literary characters during literature lessons. It discusses the role of evaluation skills in the literary education process, their psychological and pedagogical basis, as well as their importance in shaping personal qualities such as critical thinking and empathy in students. The article also highlights effective pedagogical approaches and methods for developing these skills, including interactive and problem-based teaching technologies, assessment tools, and the role of the teacher. The study shows that students’ deep understanding of literary texts and analysis of characters’ personalities contribute to their intellectual and moral development. The article emphasizes the need to introduce innovative pedagogical methods to further enhance evaluation skills in the educational process.

Key words: *literature, story, evaluation, criticism, reflections, hero of a work of art, ability.*

Adabiyot darslarida o‘quvchilarning asar qahramonlarini baholash ko‘nikmasini rivojlantirish ta’lim jarayonining muhim va murakkab yo‘nalishlaridan biridir. Bugungi kunda ta’lim tizimida nafaqat bilim berish, balki o‘quvchilarning tanqidiy fikrlashini, estetik didini, hissiy-intellektual ko‘nikmalarini shakllantirish masalalari ham ustuvor hisoblanadi. Aynan shu nuqtayi nazardan, adabiyot fanida asar qahramonlarini to‘g‘ri baholash, ularning xarakteri, xatti-harakatlari, qarorlari va motivatsiyasini

anglash ko‘nikmalarini rivojlantirish katta ahamiyat kasb etadi. Bu ko‘nikmalar o‘quvchilarda nafaqat adabiy asarni chuqur anglashni, balki hayotiy vaziyatlarda insonlarni va hodisalarni tahlil qilishni ham o‘rgatadi.

Adabiyot darslari ta’lim jarayonida madaniyat, ma’naviyat va estetik didni shakllantiruvchi muhim vosita hisoblanadi. Asar qahramonlari esa badiiy matnning markaziy elementi bo‘lib, ular orqali o‘quvchilar hayotiy haqiqatlar, insoniy qadriyatlar va axloqiy muammolar bilan tanishadilar. Qahramonlarni baholash ko‘nikmasi esa o‘quvchining shaxsiy fikrini shakllantirishga, empatiya qobiliyatini rivojlantirishga, shuningdek, tanqidiy va analitik fikrlashni mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu sababdan ham, bunday ko‘nikmalarni ilmiy-nazariy asoslarda chuqur tahlil qilish va pedagogik jarayonda samarali rivojlantirish zaruriyati yuzaga keladi.

Adabiyot balki, psixologiya va pedagogika fanlarida qahramonlarni baholash ko‘nikmasi — bu o‘quvchining nafaqat matn mazmunini tushunish, balki undagi obrazlarning xarakteri va xatti-harakatlarini analiz qilish, ularning mantiqiy va axloqiy jihatlarini baholash qobiliyatidir. Bu ko‘nikma ayniqsa tanqidiy fikrlash tizimining bir qismi sifatida qaraladi va rivojlanishida psixologik, estetik va didaktik omillar muhim rol o‘ynaydi.Shuningdek, o‘quvchilarda bunday ko‘nikmalarni rivojlantirish ularga hayotiy qarorlar qabul qilishda ham yordam beradi, chunki ular inson xatti-harakatlari va motivatsiyalarini baholay olishni o‘rganadilar[1].

Qahramonlarni baholash ko‘nikmasi shakllanishida bir qator psixologik yondashuvlar mavjud. Masalan, Lev Vygotskiyning o‘rganish nazariyasida o‘quvchining muloqotda, muammoli vaziyatlarda faoliyat yuritishi orqali yangi bilimlarni egallashi va ko‘nikmalarini shakllantirishi ta’kidlanadi. Bu nuqtai nazardan, adabiyot darslarida o‘quvchilarning asar qahramonlari haqida o‘zaro fikr almashishlari, muhokama va munozaralar o‘tkazishlari o‘rganish jarayonining samaradorligini oshiradi. Shuningdek, didaktik tamoyillar, jumladan faol o‘rganish, interfaollik va muammoli ta’lim yondashuvlari ham o‘quvchilarning baholash ko‘nikmalarini rivojlantirishda keng qo‘llaniladi[2].

Adabiyot darslarida o‘quvchilarning qahramonlarni baholash ko‘nikmasini shakllantirish metodikasida turli pedagogik texnologiyalar muhim ahamiyatga ega. Jumladan, muhokama va debatlar o‘quvchilarning fikrlarini asoslash, qarama-qarshi nuqtai nazarlarni tinglash va ularga javob qaytarish qobiliyatlarini rivojlantiradi. Rolli o‘yinlar va dramatizatsiya esa o‘quvchilarning asar qahramonlarini ichki dunyosi, ruhiy holatini chuqurroq anglashlariga yordam beradi. Loyihaviy ishlar esa o‘z mustaqil izlanishlari orqali asar qahramonlari haqida chuqur tahlil qilish imkonini beradi.

Shuningdek, adabiyot darslarida qahramonlarni baholashda o‘quvchilarning yozma ishlarini – insho, esse, tahliliy referatlar va baholashning o‘zaro shakllarini keng qo‘llash muhimdir.Bu yozma ishlar o‘quvchilarga o‘z fikrlarini tizimli ifodalash, dalillar bilan mustahkamlash va tanqidiy baho berishni o‘rgatadi. O‘zaro baholash esa o‘quvchilarning hamfikrlarni tinglash, konstruktiv tanqidni qabul qilish va o‘z fikrlarini qayta ko‘rib chiqish qobiliyatlarini oshiradi.

Ilmiy tadqiqotlarda o‘quvchilarning asar qahramonlarini baholash ko‘nikmasi shaxsning intellektual va estetik rivojlanishi bilan bevosita bog‘liq ekani qayd etilgan. Ko‘nikma rivojlangan o‘quvchi badiiy asarni chuqur tahlil qilish bilan birga, uning mazmunidagi axloqiy-ijtimoiy masalalarni ham o‘z nuqtayi nazaridan baholay oladi. Bu esa o‘quvchilarning ma’naviy va madaniy saviyasini oshirishga yordam beradi.Muallifning insonni anglash yo‘lidagi izlanishlari, kashfiyotlarini yozgan asarlari zamiridan qidirish ham o‘quvchi shaxsini to‘kislik sari yetaklaydi. Masalan, mashhur yozuvchi Abdulla Qahhor: “Agar yozuvchining axloq kodeksi tuziladigan bo‘lsa, men halollik bilan jasoratni birinchi modda qilib qo‘yar edim,chunki yozuvchining boshqa hamma xislatlari uning qay darajada halol, naqadar shijoatli ekaniga bog‘liqdir” – degan ekan.O‘quvchida ulug‘ yozuvchining shu bahosiga shaxsiyati va ijodi bilan to‘g‘ri keladigan hurmat hissi paydo bo‘ladi. Bu tuyg‘u asari o‘rganilayotgan yozuvchining qahramonlarini baholashda o‘quvchiga qo‘l kelishi mumkin. Taniqli adabiyotshunos olim Q. Yo‘ldoshevning Ch. Aytmatov qalamiga mansub “Asrga tatigulik kun” romani haqidagi quyidagicha fikrlari: “...yozuvchining shaxsiyatidagi asl tuyg‘ular manqurt Jo‘lomon fojiasini, uning turli davrlardagi

1 Matjon Safo. Maktabda adabiyotdan mustaqil ishlar. (O‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma). –T.: «O‘qituvchi». 1996. 37-b.
2 Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. –T.: “O‘zbekiston”, 2002. 92-b.

qiyofadoshlari bo‘lmish: revizor, mayor Tansiqboyev, leytenant Tansiqboyev, Sobitjon singari kimsalarning ma’naviy-ruhiy qashshoqligi hamda bu ma’naviy g‘ariblikning buzg‘unchi qudratini butun ko‘lami bilan ko‘rsatish imkonini beradi.Asarda bir qator timsollar tasviri orqali kechagi kuniga bog‘lanmagan odam ertangi kunini o‘ylay olmasligi, u faqat buguni bilangina yashashga mahkum ekani ko‘rsatilgan. O‘tmish va kelajakdan uzilganlik, ya’ni ma’naviy tomirlarning qirqilishi odamni yovuzliklardan tutib turuvchi axloqiy to‘siqning yo‘qotilganini bildiradi. Bunday kimsada o‘z manfaatidan yuksak qadriyat, muqaddas tushuncha bo‘lmaydi[3].

Adabiyot darslarida baholash ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirish, ularni faol ishtirokga jalb qilish muhim ahamiyatga ega. Buning uchun o‘qituvchi dars jarayonida o‘quvchilarga mustaqil fikr bildirish, asar qahramonlarining xatti-harakatlari ustidan baho berish uchun qulay pedagogik sharoit yaratishi lozim. Shu bilan birga, baholash vositalarini diversifikatsiya qilish – og‘zaki va yozma ishlarni uyg‘un qo‘llash, interaktiv metodlardan foydalanish ta’lim jarayonining samaradorligini oshiradi.

Adabiyot darslarida qahramonlarni baholash ko‘nikmasini rivojlantirish nafaqat ta’lim mazmuni, balki o‘qitish usullarining ham modernizatsiyasini talab qiladi. O‘quvchilarni faollashtiruvchi muammoli topshiriqlar, interfaol metodlar va innovatsion pedagogik texnologiyalarni keng joriy etish zarur. Shu orqali o‘quvchilar o‘z fikrini ravon ifoda eta olish, dalillarni asoslab bera olish, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish kabi ko‘nikmalarni mukammal egallaydilar.

Xulosa qilib aytganda, adabiyot darslarida o‘quvchilarning asar qahramonlarini baholash ko‘nikmasini rivojlantirish ilmiy-nazariy jihatdan o‘rganilgan, amaliy jihatdan esa samarali usullar va texnologiyalar yordamida amalga oshirilishi mumkin bo‘lgan murakkab jarayondir. Ushbu ko‘nikma o‘quvchilarda tanqidiy fikrlashni, empatiya va estetik didni rivojlantiradi, shuningdek, hayotiy vaziyatlarda inson va hodisalarni baholashga tayyorlaydi. Kelajakda bu yo‘nalishda yangi pedagogik yondashuvlarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish, shuningdek, o‘quvchilarning qahramonlarni baholash ko‘nikmalarini o‘lchash va baholash usullarini takomillashtirish dolzarb hisoblanadi.

3 Kattabekov Л.. Raxmonov V. O‘zbek adabiyoti. 8-sinf uchun darslik-majmua. — T.: «O‘qituvchi». 1993. 195-b.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. –T.: “O‘zbekiston”, 2002. 92-b.
2. Kattabekov Л.. Raxmonov V. O‘zbek adabiyoti. 8-sinf uchun darslik-majmua. — T.: «O‘qituvchi». 1993. 195-b.
3. Matjon Safo. Kitob o‘qishni bilasizmi? — T.: O‘qituvchi, 1993. 11-b.
4. Matjon Safo. Maktabda adabiyotdan mustaqil ishlar. (O‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma). –T.: «O‘qituvchi». 1996. 37-b.
5. Mirzayev S. XX asr o‘zbek adabiyoti. –T.: “O‘zbekiston”, 2005. 85-b.
6. Mirvaliyev S., Shokirova R. O‘zbek adiblari. –T.: “Fan”, 2007. 42-b.
7. Normatov U. Umidbaxsh tamoyillar. – T.: “O‘zbekiston”, 2006. 93-b.
8. Q.Husanboyeva, R.Niyozmetova. Adabiyot o‘qitish metodikasi: o‘quv qo‘llanma . – T.: «Shafoat Nur Fayz». 2020 .352-bet.
9. www.ziyonet.uz
10. www.turklib.uz
11. www.uz.wikipedia.org
12. www.kh-davron.uz
13. www.wikipedia.org

Ilmira ABDURAXMANOVA,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o‘zbek tili va adabiyoti universiteti magistri
alimjonovailmira@gmail.com



INTERFAOL METODLAR ORQALI O‘QUVCHILARNING IJTIMOIY PASSIVLIGINI BARTARAF ETISH (ADABIYOT TA’LIMI MISOLIDA)

Annotatsiya:ushbu maqolada zamonaviy pedagogikaning eng dolzarb muammolaridan biri — ijtimoiy yakkalangan (hikikomori) toifasidagi o‘quvchilarni adabiyot darslari jarayonida ijtimoiylashtirish masalalari yoritilgan. Tadqiqotda o‘quvchilarning kognitiv passivligini bartaraf etish va muloqotga kirishish kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi innovatsion metodlar tahlil qilinadi. “Kaft”, “6 tosh” va “Rangli qalpoqlar” kabi usullarning o‘quvchi ruhiyatiga ta’siri va ularning ijtimoiylashuv darajasini oshirishdagi amaliy natijalari ilmiy asoslab berilgan. Mazkur metodlar o‘quvchilarda nafaqat badiiy tahlil ko‘nikmalarini, balki jamoada ishlash va ijtimoiy adaptatsiya qobiliyatlarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: *hikikomori, ijtimoiylashtirish, metodika, adabiyot ta’limi, “Uyg‘otuvchi usullar”, muloqot kompetensiyasi, “Kaft” metodi, pedagogik texnologiya, ijtimoiy adaptatsiya.*

Аннотация: в данной статье рассматриваются вопросы социализации социально изолированных учащихся (категории «хикикомори») в процессе уроков литературы, что является одной из наиболее актуальных проблем современной педагогики. В исследовании анализируются инновационные методы, служащие преодолению когнитивной пассивности и развитию коммуникативных компетенций учащихся. Научно обосновано влияние на психику учащихся и практические результаты повышения уровня их социализации таких методов, как «Ладонь», «6 камней» и «Цветные шляпы». Данные методы служат формированию у учащихся не только навыков художественного анализа, но и способности к работе в команде и социальной адаптации.

Ключевые слова: *хикикомори, социализация, методика, обучение литературе, «Пробуждающие методы», коммуникативная компетенция, метод «Ладонь», педагогическая технология, социальная адаптация.*

Annotation: this article examines the issues of socializing socially isolated students (the “hikikomori” category) during literature classes, which stands as one of the most pressing problems in modern pedagogy. The study analyzes innovative methods aimed at overcoming cognitive passivity and developing students’ communicative competencies. It provides a scientific basis for the psychological impact on students and the practical results in increasing their level of socialization through methods such as “Palm”, “6 Stones”, and “Colored Hats”. These methods serve to develop not only artistic analysis skills but also teamwork and social adaptation abilities in students.

Key words: *hikikomori, socialization, methodology, literature education, “Awakening methods”, communicative competence, “Palm” method, pedagogical technology, social adaptation.*

Kirish va muammoning nazariy asoslari. Zamonaviy pedagogika va psixologiyaning dolzarb muammolaridan biri — o‘smir yoshdagi o‘quvchilarning ijtimoiy adaptatsiyasi va ularning o‘quv jarayonidagi kognitiv passivligidir.Global raqamli transformatsiya sharoitida yoshlar o‘rtasida “hikikomori” (yaponcha — “yakkalanish”, “chetlanish”) fenomeni keng ildiz otmoqda. Bu holat o‘quvchining jamoaviy muloqotdan ongli ravishda voz kechishi, dars jarayonida faqat jismonan ishtirok etib, emotsional va intellektual jihatdan “yopiq qobiq”da qolishi bilan xarakterlanadi.

Pedagogik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, an’anaviy reproduktiv ta’lim metodlari (tayyor axborotni

uzatish va qayta so‘rash) bunday o‘quvchilarning ijtimoiylashuviga to‘siq bo‘ladi. Binobarin, adabiyot darslari — inson ruhiyati, jamiyat munosabatlari va axloqiy-estetik qarashlar markazi sifatida “hikikomori” toifasidagi o‘quvchilarni faollashtirishda strategik ahamiyatga ega.

Mazkur maqolada tadqiqot davomida o‘tkazilgan metodik ishlanmalari asosida hikikomori holatidagi o‘quvchilarning muloqot kompetensiyalarini rivojlantirish va ularni ijtimoiy reabilitatsiya qilish mexanizmlari ilmiy tahlil qilinadi va to‘planadi.

Metodologiya va amaliy tahlil. Hikikomori o‘quvchilar bilan ishlashda biz “bosqichma-bosqich faollashtirish” (Gradual Activation Strategy) tamoyilini taklif etildi. Ushbu tamoyil quyidagi metodik klasterlar orqali amalga oshirildi:

1. Dinamik moslashuv (“Aylana” va “Topni ushla” metodlari): Ijtimoiy yakkalangan o‘quvchi uchun to‘g‘ridan to‘g‘ri savol-javob — stress omili hisoblanadi.“Aylana” metodi musiqa va harakat uyg‘unligida o‘quvchining “shaxsiy hudud”(personal space) chegaralarini yumshatadi. “To‘pni ushla” metodi esa norasmiy muloqot zanjirini yaratib, o‘quvchini kutilmagan vaziyatda tezkor reaksiyaga undaydi. Bu jarayonda o‘quvchi dars obyekti emas, balki “o‘yin subyekti” sifatida o‘z-o‘zini namoyon qila boshlaydi.

Kognitiv tahlilning algoritmlashgan modellari (“Kaft” va “6 tosh” metodlari): Ma’lumki, hikikomori toifasidagi o‘quvchilarda fikrni jamlash va uni mantiqiy bayon etishda qiyinchiliklar kuzatiladi. “Kaft” metodi tahlilni vizuallashgan sxema (barmoqlar) asosiga quradi. Bu metod o‘quvchiga murakkab badiiy asar mazmunini segmentlarga bo‘lib tahlil qilish imkonini beradi:

Mavzu va ziddiyat aniqlanadi (Bosh va ko‘rsatkich barmoqlar);

Muallif pozitsiyasi va yechim ko‘rib chiqiladi (O‘rta va nomsiz barmoqlar);

Asosiy kontseptual xulosa chiqariladi (Jimjiloq).

“6 tosh” metodi esa o‘yin elementlari orqali bilimlarni mustahkamlash bilan birga, o‘quvchilar o‘rtasida sog‘lom raqobat va o‘zaro yordam muhitini yaratadi.

3. Rolli identifikatsiya va “Niqob” effekti (“Rangli qalpoqlar” va “Pantomima”): Hikikomori o‘quvchilar shaxsiy “men”i nomidan gapirishdan cho‘chiganlari sababli, “Oltita fikrlovchi qalpoq” tizimini adabiyot darslariga integratsiya qilish yuqori natija beradi. O‘quvchi ma’lum bir “rang” (funksiya) ostida fikr bildirganda, psixologik mas’uliyat o‘quvchidan “rol”ga ko‘chadi. Bu o‘quvchiga o‘z ichki tuyg‘ularini badiiy qahramon tili bilan erkin ifodalashga yo‘l ochadi.

Natijalar muhokamasi va xulosa. Tadqiqot jarayonida qo‘llanilgan va jamlangan “Uyg‘otuvchi usullar” majmuasi quyidagi ilmiy natijalarni berdi:

Kommunikativ ko‘rsatkich: o‘quvchilarning muloqotga kirishish darajasi o‘rtacha 30-35% ga ortdi.

Psixologik ko‘rsatkich: dars jarayonidagi xavotirlanish (anxiety level) darajasi pasayib, o‘ziga ishonch (self-esteem) tuyg‘usi shakllandi.

Kognitiv natija: badiiy asarni tahlil qilishda yuqori tartibli fikrlash ko‘nikmalari (tahlil va sintez) rivojlandi.

Xulosa qilib aytganda,hikikomori toifasidagi o‘quvchilarni ijtimoiylashtirish — zamonaviy o‘qituvchidan nafaqat filologik bilim, balki yuksak psixologik-metodik mahorat talab qiladi. Finlandiya ta’lim tizimi tajribasi va o‘zbek adabiy ta’limi an’analarini sintez qilgan holda ishlab chiqilgan interfaol metodlar o‘quvchini jamiyatga qaytarishning eng samarali yo‘lidir.

Adabiyot darslarida qo‘llanilayotgan har bir metod shunchaki o‘yin emas, balki shaxsni “uyg‘otish”ga, uni o‘z qobig‘idan chiqarishga xizmat qiladigan ilmiy asoslangan pedagogik texnologiya majmuyidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. N.Yusufjonova .Sizda qirq besh daqiqa bor: metodik qo‘llanma.–Toshkent: “Chashma” MCHJ,2024.142-bet.

2. Q. Husanboyeva, R. Niyozmetova Adabiyot o‘qitish metodikasi. Nashr: Innovatsiya-Ziyo, 2022

3. Q.Husanboyeva Adabiy ta’lim metodikasi.–Toshkent: “INNOVATSION ZIYO”,2024. 322-bet.

4. Q.Yo’ldoshev “Jilovlanmagan tafakkur mahsuli”.–Toshkent: “Tafakkur” nashriyoti, 2023-yil.27-28-betlar.–Toshkent: Chashma MCHJ, 2024.142-bet.

5. Z.Mirzayeva, K.Jalilov. O‘zbek adabiyotini o‘qitish metodikasi.–Toshkent: Academ Space 2024.296-bet.

6. :https//ziyo.uz/docs/2622518

7. :https//e-library.namdu/uz.docs

Navro‘zaoy NORMATOVA,
Tashkent Internatioanal University of Education
Ta’lim muassasalarini boshqarish yo‘nalishi
25-03 guruh magistratura bosqichi talabasi
abrorbekvasijonov8@gmail.com

TA’LIM MUASSASALARIDA RAQAMLI BOSHQARUV TIZIMLARINING SAMARADORLIGINI TA’MINLASH OMILLARI VA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

Annotatsiya: mazkur maqolada ta’lim muassasalarida raqamli boshqaruv tizimlarini joriy etishning samaradorligi tahlil qilingan. Tadqiqot davomida an’anaviy va raqamli boshqaruv tizimlari o‘rtasidagi farqlar qiyosiy o‘rganilib, raqamli tizimlarning boshqaruv jarayonlarini optimallashtirishdagi o‘rni asoslab berilgan. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, raqamli texnologiyalarni qo‘llash ish yuritish samaradorligini oshiradi, vaqt sarfini kamaytiradi hamda boshqaruv qarorlarini tezkor qabul qilish imkonini beradi. Shuningdek, maqolada mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari ham ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: *raqamli boshqaruv, ta’lim muassasasi, samaradorlik, axborot texnologiyalari, monitoring, boshqaruv tizimi, innovatsiya*

Аннотация: в данной статье рассматривается эффективность внедрения цифровых систем управления в образовательных учреждениях. В ходе исследования проведён сравнительный анализ традиционных и цифровых методов управления, а также обоснована роль цифровых технологий в оптимизации управленческих процессов. Результаты показали, что использование цифровых решений способствует повышению эффективности работы, сокращению временных затрат и улучшению качества управленческих решений. Также в статье рассмотрены существующие проблемы и пути их решения.

Ключевые слова: *цифровое управление, образовательное учреждение, эффективность, информационные технологии, мониторинг, система управления, инновации*

Annotation: this article examines the effectiveness of implementing digital management systems in educational institutions. The study provides a comparative analysis of traditional and digital management approaches and highlights the role of digital technologies in optimizing management processes. The findings indicate that digital solutions improve operational efficiency, reduce time consumption, and enhance decision-making quality. The paper also discusses existing challenges and possible solutions.

Keywords: *digital management, educational institution, efficiency, information technology, monitoring, management system, innovation*

Zamonaviy jamiyatda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi barcha sohalar qatori ta’lim tizimiga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda.

Xususan, ta’lim muassasalarini boshqarish jarayonida raqamli yondashuvlarning qo‘llanilishi boshqaruv sifatini yangi bosqichga olib chiqmoqda. An’anaviy boshqaruv tizimlarida uchraydigan ortiqcha byurokratik jarayonlar, qog‘oz hujjatlar aylanishining ko‘pligi hamda ma’lumotlarni qayta ishlashdagi sekinlik boshqaruv samaradorligini pasaytiruvchi asosiy omillar sifatida namoyon bo‘ladi. Raqamli boshqaruv tizimlari esa mazkur muammolarni bartaraf etish, boshqaruv jarayonlarini optimallashtirish va axborot almashinuvini tezlashtirish imkonini beradi. Shu bilan birga, ular real vaqt rejimida monitoring olib borish, katta hajmdagi ma’lumotlarni tahlil qilish va strategik qarorlar qabul qilish jarayonini soddalashtiradi. Mazkur tadqiqotning maqsadi ta’lim muassasalarida raqamli boshqaruv tizimlarining amaliy samaradorligini aniqlash, ularning boshqaruv sifatiga ta’sirini kompleks baholash hamda joriy etish jarayonida yuzaga keladigan muammolarni tahlil qilishdan iborat.

Ushbu ilmiy ishni amalga oshirishda tizimli va ko‘p bosqichli metodologiya qo‘llanildi. Dastlab, kuzatuv usuli orqali turli ta’lim muassasalarida boshqaruv jarayonlarining amaldagi holati o‘rganildi. Bu jarayonda hujjat aylanishi, ma’lumotlar bilan ishlash tezligi va boshqaruv qarorlarini qabul qilish mexanizmlari tahlil qilindi. Keyingi bosqichda qiyosiy tahlil usuli asosida an’anaviy boshqaruv tizimlari bilan raqamli boshqaruv tizimlari o‘rtasidagi farqlar aniqlashtirildi. Bu orqali har ikki tizimning ustun va zaif jihatlari baholandi. Shuningdek, statistik tahlil elementlari qo‘llanilib, samaradorlik ko‘rsatkichlari foizlarda ifodalandi.

Tadqiqot davomida umumlashtirish va interpretatsiya usullaridan foydalanilib, olingan natijalar ilmiy jihatdan asoslab berildi.

Mazkur metodologik yondashuv tadqiqot natijalarining ishonchliligi va obyektivligini ta’minlashga xizmat qildi.

“Raqamli boshqaruv tizimi – bu zamonaviy ta’limning samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biridir.”

Tadqiqot natijalari raqamli boshqaruv tizimlarining joriy etilishi ta’lim muassasalarida sezilarli ijobiy o‘zgarishlarni yuzaga keltirishini ko‘rsatdi. Eng avvalo, hujjatlar bilan ishlash jarayonida samaradorlik oshgani aniqlandi. Elektron platformalar orqali ma’lumotlarni kiritish, saqlash va uzatish jarayonlari avtomatlashtirilgani sababli ortiqcha vaqt sarfi kamaydi. Hisob-kitoblarga ko‘ra, umumiy ish yuritish jarayonlarida vaqt tejalishi o‘rtacha 30–45 foizni tashkil etdi. Bundan tashqari, boshqaruv faoliyatida tezkorlik darajasi oshdi. Rahbar xodimlar real vaqt rejimida dolzarb ma’lumotlarga ega bo‘lib, vaziyatga mos ravishda tezkor qarorlar qabul qilish imkoniyatiga ega bo‘ldilar. Bu esa boshqaruv jarayonining moslashuvchanligini oshirdi.

Monitoring va nazorat tizimlari ham sezilarli darajada takomillashdi. Raqamli tizimlar yordamida o‘quvchilarning davomati, akademik natijalari va pedagoglarning ish faoliyati muntazam ravishda kuzatib borildi. Natijada nazoratning aniqligi va shaffofligi oshdi. Shu bilan birga, inson omili bilan bog‘liq xatoliklar kamaydi. Avtomatlashtirilgan tizimlar ma’lumotlarni qayta ishlashda yuqori aniqlikni ta’minlab, noto‘g‘ri hisob-kitoblar ehtimolini kamaytirdi. Hisobotlarni shakllantirish jarayoni soddalashib, boshqaruv tizimida ortiqcha yuklama kamaydi.

Olingan natijalar raqamli boshqaruv tizimlarining yuqori samaradorlikka ega ekanligini tasdiqlaydi. Biroq, ularni joriy etish jarayoni muayyan qiyinchiliklar bilan ham bog‘liq. Eng asosiy muammolardan biri — texnik infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligidir. Ayrim ta’lim muassasalarida zamonaviy texnika vositalarining yetishmasligi yoki internet tezligining pastligi tizimdan to‘liq foydalanishga to‘sqinlik qiladi.

Ikkinchi muhim omil — inson resurslari bilan bog‘liq. Pedagog va boshqaruv xodimlarining raqamli savodxonlik darajasi yetarli bo‘lmaganda, hatto eng zamonaviy tizimlar ham kutilgan natijani bermaydi. Shu sababli xodimlarning malakasini oshirish, ularni zamonaviy texnologiyalar bilan ishlashga o‘rgatish muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, axborot xavfsizligi masalasi ham dolzarb hisoblanadi. Raqamli tizimlarda katta hajmdagi ma’lumotlar saqlanishi sababli ularni himoya qilish choralarini kuchaytirish zarur. Shu nuqtai nazardan, raqamli boshqaruv tizimlarini joriy etishda kompleks yondashuv talab etiladi. Ya’ni texnologik, tashkiliy va kadrlar bilan bog‘liq omillar birgalikda rivojlantirilishi lozim.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ta’lim muassasalarida raqamli boshqaruv tizimlarini qo‘llash boshqaruv samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Ular ish jarayonlarini optimallashtirish, vaqt resurslaridan oqilona foydalanish va boshqaruv qarorlarining sifatini yaxshilashda muhim vosita hisoblanadi.

Kelgusida ushbu tizimlarni yanada takomillashtirish, ularni keng ko‘lamda joriy etish va texnik infratuzilmani rivojlantirish ustuvor vazifalardan biri bo‘lib qoladi. Shu bilan birga, inson resurslarini rivojlantirish, ya’ni xodimlarning raqamli kompetensiyalarini oshirish orqali yanada yuqori samaradorlikka erishish mumkin.

Umuman olganda, raqamli boshqaruv tizimlari zamonaviy ta’lim tizimining ajralmas qismi bo‘lib, uning barqaror va innovatsion rivojlanishini ta’minlovchi muhim omil sifatida xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.UNESCO. *Education and Digital Transformation Report*. – Paris, 2022.
2.World Bank. *Digital Technologies in Education*. – Washington DC, 2021.
3.Michael Fullan. *The New Meaning of Educational Change*. – New York: Teachers College Press, 2016.
4.Peter Drucker. *Management Challenges for the 21st Century*. – New York, 2001.
5.OECD. *Education at a Glance*. – Paris, 2023.
6.O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi. Ta’lim tizimini rivojlantirish bo‘yicha me’yoriy hujjatlar. – Toshkent, 2022.
7.O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim fan va innovatsiyalar vazirligi. Raqamli ta’limni rivojlantirish strategiyasi. – Toshkent, 2023.
8.E-learning and Digital Education. – London: Routledge, 2020.
9.Educational Management bo‘yicha ilmiy maqolalar to‘plami.
10.Zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalariga oid ilmiy maqolalar (mahalliy va xorijiy manbalar).

Nafisa XABIBULLAYEVA,
Namangan viloyati Namangan davlat universiteti
Filologiya fakulteti o‘zbek tili yo‘nalishi talabasi
nafisakhabibullaeva@gmail.com

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA NUTQ PATOLOGIYASI

Annotatsiya: mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda uchraydigan nutq patologiyasi, uning mohiyati, shakllanish mexanizmlari hamda rivojlanish bosqichlari ilmiy asosda tahlil qilinadi. Nutqning psixolingvistik va lingvistik jihatlari, xususan, artikulyatsiya va fonologiya o‘rtasidagi farqlar keng yoritilgan. Shuningdek, nutq tovushlari buzilishlarining tarixiy o‘rganilishi, ularning tarqalish darajasi, asosiy sabablari va turlari (kechikish va og‘ish) haqida batafsil ma’lumot beriladi. Maqolada nutq buzilishlarining bolalar umumiy til rivojlanishiga, ayniqsa savodxonlik ko‘nikmalariga ta’siri alohida ta’kidlanadi. Bundan tashqari, zamonaviy yondashuvlar, jumladan, dalillarga asoslangan amaliyot (evidence-based practice) ning ahamiyati va nutq-terapevtik aralashuv zarurati asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: *nutq patologiyasi, maktabgacha yosh, artikulyatsiya, fonologiya, nutq tovushlari buzilishi, kechikish, og‘ish, fonologik ong, kommunikativ buzilishlar, nutq rivojlanishi, psixolingvistika, til komponentlari, savodxonlik, dalillarga asoslangan amaliyot*

Аннотация: в данной статье рассматриваются речевые патологии у детей дошкольного возраста, их сущность, механизмы формирования и этапы развития на научной основе. Особое внимание уделяется психолингвистическим и лингвистическим аспектам речи, в частности различиям между артикуляцией и фонологией. Также подробно освещаются исторические этапы изучения нарушений речевых звуков, их распространённость, основные причины и типы (задержка и отклонение). В статье подчёркивается влияние речевых нарушений на общее языковое развитие ребёнка, особенно на формирование навыков грамотности. Кроме того, обосновывается значимость современных подходов, включая практику, основанную на доказательствах (evidence-based practice), а также необходимость логопедического вмешательства.

Ключевые слова: *речевая патология, дошкольный возраст, артикуляция, фонология, нарушения речевых звуков, задержка, отклонение, фонологическая осведомлённость, коммуникативные нарушения, развитие речи, психолингвистика, компоненты языка, грамотность, доказательная практика*

Annotation: this article examines speech pathology in preschool children, its nature, developmental mechanisms, and stages from a scientific perspective. Particular attention is given to psycholinguistic and linguistic aspects of speech, especially the distinction between articulation and phonology. The historical development of research on speech sound disorders, their prevalence, main causes, and types (delay and deviation) are also thoroughly discussed. The article highlights the impact of speech disorders on children’s overall language development, particularly on literacy skills. Furthermore, the importance of modern approaches, including evidence-based practice (EBP), and the necessity of speech therapy intervention are substantiated.

Keywords: *speech pathology, preschool age, articulation, phonology, speech sound disorders, delay, deviation, phonological awareness, communicative disorders, language development, psycholinguistics, literacy, evidence-based practice*

Kirish. Nutq insoniyatning eng muhim kommunikatsiya vositalaridan biri bo‘lib, u fikr va ma’lumotlarni boshqalarga yetkazish imkonini beradi. Nutq orqali inson o‘z ichki tajribalari, his-tuyg‘ulari va bilimlarini boshqalar bilan baham ko‘radi, shuningdek, jamiyatda o‘zaro munosabatlarni tartibga soladi. Tilshunoslik va psixolingvistika tadqiqotlarida nutqning ikki asosiy jihati ajratib ko‘rsatiladi: birinchisi – nutq motor faoliyat sifatida, ya’ni tovushlarni hosil qilish jarayoni; ikkinchisi – nutq ma’no ifodalash vositasi sifatida, ya’ni til birliklarini tushunarli shaklda uzatish quroli. Qolaversa, nutq inson ongli faoliyatining murakkab tizimi bo‘lib, unda fonologik, morfologik, sintaktik va semantik bosqichlar o‘zaro sistemaviylik hosil qilib, chambarchas bog‘liqlik asosida namoyon bo‘ladi. Shu bilan birga, nutqning akustik signali nafaqat ma’no uzatadi, balki so‘zlovchining yoshi, jinsi, ruhiy holati va sog‘lig‘i haqida ham ma’lumot beradi. Bu jihatlar nutqni insonlar o‘rtasidagi kommunikatsiyaning markaziy vositasi sifatida yanada qimmatli qiladi.

Bugungi kunda nutq tuzilishi va hosil bo‘lish mexanizmi psixolingvistika, fonetika va tilshunoslik fanlari doirasida keng o‘rganilmoqda. Nutq tovushlarini hosil qilish bilan bog‘liq muammolarni o‘rganish yangilik emas. Masalan, Samuel Potter tomonidan yozilgan *“Speech and Its Defects”* asari 1882-yilda nashr etilgan. Moore va Kester ma’lumotlariga ko‘ra dastlab “nutqni tuzatish” deb atalgan ilmiy tadqiqotlar XX asrning birinchi o‘n yilligida ilm-fanga kiritilgan.[1:48]

Bu muammolarni davlat maktablarida tizimli ravishda hal etishga qaratilgan dastlabki tashabbuslar Chikago shahrida 1910-yilda, Nyu-York shahrida esa 1916-yilda boshlangan. Shu davrda maktab o‘quvchilari orasida nutq muammolarining tarqalish darajasini o‘rganishga bag‘ishlangan tadqiqotlar ham paydo bo‘lgan. Masalan, Strit Louis [2:213-216] va Madison

[3:581-592] shaharlarida rasmiy hisobotlar chop etilgan. Nutq tovushlari buzilishlari va boshqa kommunikativ nuqsonlarga bo‘lgan qiziqishning ortishi natijasida 1925-yil dekabr oyida Ayova shtatining Ayova-Siti shahrida nutq patologiyasi va audiologiya sohasidagi mutaxassislar tomonidan American Academy of Speech Correction tashkil etilgan. Tashkilotning maqsadi – nutq nuqsonlari bo‘lgan shaxslarga yordam berish, sohani rivojlantirish va mutaxassislar standartlarini ishlab chiqish. Keyinchalik bu tashkilot **American Speech-Language-Hearing Association (ASHA)** nomi bilan mashhur bo‘ldi va bugungi kunda bu sohadagi eng nufuzli xalqaro tashkilotlardan biri hisoblanadi. Tashkilotning asoschilari orasida Robert West va Sara Stinchfield Hawk kabi mutaxassislar bo‘lib, ular dastlab milliy nutq o‘qituvchilari assotsiatsiyasidan (NATS) ajralib chiqib, alohida ilmiy-amaliy jamiyat tuzishgan. Bu tashkilot keyinchalik hozirgi zamonaviy professional uyushma – American Speech-Language-Hearing Associationning shakllanishiga asos bo‘ldi.

Asosiy qism. Vaqt o‘tishi bilan kommunikativ buzilishlarning tarqalishini aniqlash masalasi dolzarbligicha qoldi. Biroq mutaxassislar asta-sekin bu muammolarning faqat tashqi ko‘rinishini emas, balki ularning ichki, ya’ni asosiy sabablarini ham tushunishga qiziqa boshladilar. Bu esa 1936-yilda *“Journal of Speech Disorders”* jurnalining tashkil etilishiga turtki bo‘ldi. Shuningdek, ushbu sohaning ilmiy asoslarini yaratish zarurati Charles Van Riper tomonidan yozilgan *“Speech Correction: Principles and Methods”* (1939) [4:12] nomli klassik asarning birinchi nashrini yuzaga keltirdi. Keyinchalik ushbu yo‘nalishda ko‘plab ilmiy jurnallar va darsliklar paydo bo‘ldi.

Qiziqarli jihati shundaki, 1960-yillargacha bolalarda til buzilishlari nutq terapevtlari faoliyatiga deyarli kiritilmagan edi. Hatto bu kasb egalari orasida bolalar til buzilishlarini o‘rganishi kerakmi yoki yo‘qmi, degan bahslar ham bo‘lgan. Biroq kattalardagi til buzilishlariga qiziqish avvalroq paydo bo‘lgan edi. Masalan, ikkinchi jahon urushi davrida askarlarda yuzaga kelgan miya jarohatlari natijasida afaziya va motor nutq buzilishlari ko‘paydi, shu sababli bu muammolarni o‘rganishga ehtiyoj oshdi. Shunga qaramay, uzoq vaqt davomida asosiy e’tibor maktab yoshidagi bolalar va kattalardagi nutq tovushlari talaffuzidagi xatolarga qaratilgan edi.

Natijalarni yaxshilash istagi yangi yondashuvlarning paydo bo‘lishiga olib keldi, jumladan, kichik yoshdagi bolalar bilan ishlashga e’tibor kuchaydi. Maqsad, nutqdagi buzilishlar va noto‘g‘ri talaffuzlar mustahkamlanib qolmasdan oldin, erta aralashuv orqali ularni bartaraf etish edi. Endilikda nutq terapevtlari uchun faqat maktab yoshidagi bolalarda /s/ yoki /r/ tovushlarini to‘g‘rilash yetarli emas edi. Ular ko‘plab tovushlarni noto‘g‘ri talaffuz qiladigan va nutqi tushunilishi qiyin bo‘lgan kichik yoshdagi bolalar bilan ham ishlash zarur edi. Bundan tashqari, bolalar nutqining og‘zaki va yozma shakli o‘rtasidagi bog‘liqlik ham o‘rganila boshlandi. Aniqlanishicha, nutq tovushlari buzilishiga ega bolalarda savodxonlik va ta’lim jarayonida boshqa muammolar yuzaga kelish xavfi yuqoriligi aniqlandi.

Mutaxassislar, shuningdek, ko‘plab bolalarda bir vaqtning o‘zida bir nechta kommunikativ muammolar mavjudligini ham qayd eta boshladilar. Masalan, bola nutq tovushi buzilishi bilan birga ovoz buzilishiga, ifodali nutq buzilishiga yoki ravonlik buzilishiga (ya’ni duduqlanishga) ham ega bo‘lishi mumkin.

Nutq va til patologiyasi sohasi 1920-yillarda shakllangan davrdan boshlab 1970-yillargacha hukmron bo‘lgan qarash shundan iborat ediki, nutq tovushlari buzilishlari bemorning ma’lum tovush yoki tovushlarni eshitish orqali idrok etish yoki farqlashdagi qiyinchiliklari yoki ularni motor jihatdan (artikulyatsion tarzda) to‘g‘ri talaffuz qila olmasligi bilan bog‘liq deb hisoblangan. Shu bois nutq terapevtining vazifasi avvalo mijozga tovushni eshitish orqali farqlashni o‘rgatish, so‘ng esa uni to‘g‘ri talaffuz qilishni mashq qildirishdan iborat bo‘lgan. Bu jarayon yangi (to‘g‘ri) artikulyatsion harakat odatga aylanguncha davom ettirilgan.

Tilshunoslar, ya’ni nutq tovushlarining turli tillarda qanday qo‘llanishini o‘rganuvchi olimlar, bu buzilishlarni faqat motor (artikulyatsion) nuqtai nazardan emas, balki lingvistik jihatdan ham ko‘rib chiqish kerakligini ta’kidladilar. Ya’ni bola tovushni talaffuz qila olsa ham, uni qayerda va qanday qo‘llash kerakligini bilmasligi mumkin.

Boshqacha aytganda, bola tilning fonologik qoidalarini o‘zlashtirishda qiyinchilikka duch keladi. Masalan, u tovushlarni qarama-qarshi qo‘llashni (masalan, /s/ va /z/ tovushlari *tuz* va *tus* so‘zlarida farqlanishi) yoki ma’no hosil qilish uchun tovushlarni so‘z boshida yoki oxirida to‘g‘ri joylashtirishni (masalan, *daraxt*, *g‘isht va go‘sht*) o‘rganishda qiynalishi mumkin.

Tilning fonologik qoidalarini o‘zlashtirish bilan bog‘liq bunday buzilishlar ***fonologik buzilishlar*** (*phonological disorders*) deb atala boshlandi. Shu tariqa “fonologiya” atamasi ham (artikulyatsiya bilan bir qatorda) nutq tovushlari buzilishlarini ifodalovchi muhim termin sifatida qo‘llanila boshlandi.

- *artikulyatsiya* – nutq tovushlarini ishlab chiqarishga (motor jarayonga) bog‘liq buzilishlarni anglatadi;
- *fonologiya* – til qoidalariga asoslangan (lingvistik) nutq xatolarini bildiradi.

Ammo amaliyotda qaysi tushuncha muayyan mijozning nutq xatolarini yaxshiroq ifodalashini aniqlash ko‘pincha qiyin bo‘ladi. Shuningdek, nutq tovushlari buzilishlarini tushuntirishda faqat motor yoki fonologik omillar emas, balki boshqa omillar ham mavjud bo‘lishi mumkinligini inobatga olish zarur.

American Speech-Language-Hearing Association o‘zining klinik portalida nutq tovushlari buzilishlarini quyidagicha ta’riflaydi: “Bu – nutq tovushlari va segmentlarini idrok etish, motor ishlab chiqarish yoki fonologik tasavvur bilan bog‘liq qiyinchiliklarning har qanday kombinatsiyasini o‘z ichiga oluvchi umumiy atama bo‘lib, nutqning tushunarliligiga ta’sir qiladi.” Hozirda ham ko‘plab kitoblarda *artikulyatsiya, fonologiya va nutq tovushlari buzilishlari* atamalari ma’lum darajada

o‘zaro almashinuvchan tarzda qo‘llanadi. Biroq baholash va davolash masalalarida artikulyatsiya va fonologiya o‘rtasidagi an’anaviy farqlash saqlab qolingan.

Nutq tovushlari buzilishlari juda keng diapazonda namoyon bo‘lishi mumkin: eng “yengil” holatlardan (masalan, sigmatizm – ya’ni /s/ tovushini tishlar orasidan chiqarish, ba’zan uni chuchuk talaffuz qilish) tortib, nutqi umuman tushunarsiz bo‘lgan darajadagi og‘ir buzilishlargacha.

Bolalarda uchraydigan nutq xatolarining tabiati odatda, kechikish va og‘ish tushunchalari orqali tavsiflanadi.

1.Kechikish – bu kichik yoshdagi bolalarda nutqni o‘rganish jarayonida odatiy hisoblangan xatolar (masalan, sigmatizm, /r/ tovushini noto‘g‘ri talaffuz qilish yoki affrikatalarni buzish), ammo ayrim bolalarda bu xatolar uzoq vaqt saqlanib qoladi.

2.Og‘ish – bu esa bolalar nutqi rivojlanishida odatda, kuzatilmaydigan xatolar (masalan, sibilant tovushlarni yon tomondan chiqarish – lateralizatsiya, alveolyar tovushlarni orqa qismda talaffuz qilish – backing yoki unli tovushlar bilan bog‘liq xatolar).

Ta’kidlash kerakki, ayrim olimlar “kechikish” va “og‘ish” tushunchalarini unchalik farqli hisoblamaydilar. Chunki umumiy til rivojlanishi nuqtai nazaridan (nutq tovushlari, lug‘at boyligi, sintaksis va boshqalar) kechikish ko‘pincha og‘ishga olib keladi. Bu jarayon til rivojlanishining barcha komponentlari o‘zaro chambarchas bog‘langanligi bilan izohlanadi. Agar sistemaning ma’lum qismida (masalan, nutq tovushlarida) rivojlanish sekinlashsa, bu boshqa sohalarga ham ta’sir ko‘rsatishi mumkin va natijada biz “og‘ish” deb ataydigan murakkab xatolar yuzaga keladi.

Hozirgi kunda bu buzilishlarning tarqalish darajasini (prevalentligini) aniqlash bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlar o‘tkazilgan. Masalan, 2003-yilda Campbell va uning hamkorlari 3 yoshli bolalarning taxminan, 15,6 foizida nutq tovushlari buzilishlari uchrashini aniqlaganlar. [Laurence Shriberg, J. Bruse Tomblin va Juley McSweeny (1999 [5:437–444]) tadqiqotlariga ko‘ra esa 6 yoshga kelib bu ko‘rsatkich 3,8 foizgacha kamayadi. [6: 221–234] Bu farq shuni ko‘rsatadiki, nutq muammolarining katta qismi maktabgacha yosh davrida o‘z-o‘zidan bartaraf bo‘ladi. Biroq bu ijobiy holat bo‘lishiga qaramay, ayrim bolalar uchun nutq tovushlarini to‘g‘ri o‘zlashtirish maqsadida maxsus aralashuv (terapiya) zarur bo‘lib qoladi.

Bu holatni Mullen va Schooling (2010) tadqiqoti ham tasdiqlaydi. [6:44– 60] Ularning milliy miqyosdagi tadqiqotida maktabgacha yoshdagi bolalar orasida kommunikativ qiyinchiliklar gumon qilinganlarning taxminan, 75 foizida aynan artikulyatsiya yoki nutqning tushunarliligi bilan bog‘liq muammolar aniqlangan (eng keng tarqalgan buzilish turi sifatida).

Bundan tashqari, maktablarda faoliyat yurituvchi boshlang‘ich sinf mutaxassislarining umumiy ish yuklamasining 56 foizigacha qismi nutq tovushlari bilan bog‘liq muammolarni hal etishga to‘g‘ri kelishi mumkin. Shuningdek, bu buzilishlar ko‘pincha tilni tushunish yoki ifodalash bilan bog‘liq boshqa muammolar bilan birga (komorbid holatda) uchraydi.

Nutq tovushlari buzilishlarining aksariyati 8 yoshgacha bo‘lgan bolalarda kuzatiladi. Biroq ayrim hollarda bu xatolar keyingi yosh davrida ham saqlanib qolib, kattalarda ham uchrashi mumkin.

Mazkur kitobdagi ma’lumotlar nutq tovushlarini ishlab chiqarishda qiyinchilikka duch kelgan barcha mijozlar bilan ishlash uchun muhimdir. Biroq kattalardagi nutq buzilishlari ko‘pincha organik sabablar (masalan, nevrologik shikastlanishlar) bilan bog‘liq bo‘ladi. Shu sababli, kattalar bilan ishlashda qo‘shimcha manbalardan ham foydalanish zarur.

Xulosa. Nutq tovushlari buzilishlarini o‘rganishni boshlarkanmiz, avvalo shuni e’tirof etish muhimki, aksariyat bolalarda bu buzilishlarning aniq sababi noma’lum bo‘lib qoladi. Ko‘pincha shunday taxmin qilinadiki, ko‘plab bolalar tovushlarni to‘g‘ri talaffuz qila olmasligining sababi ularning umumiy til rivojlanishidagi qiyinchiliklar bilan bog‘liq bo‘lib, bu ayniqsa nutq tovushlarini o‘zlashtirish jarayonida namoyon bo‘ladi.

Ba’zi hollarda esa muammo tilning boshqa jihatlari (masalan, lug‘at boyligi yoki sintaksis) bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Nutq tovushlari buzilishlarining sabablarini aniq tushuntirib beruvchi ilmiy dalillarni topish qiyin, biroq bu boradagi tadqiqotlar davom etmoqda. Turli xil nutq buzilishlarini tasniflashga qaratilgan sa’y-harakatlar (masalan, o‘rta quloq yallig‘lanishi bilan bog‘liq nutq kechikishi, motor nutq buzilishlari, genetik omillar) ushbu muammolarning mohiyatini yaxshiroq tushunishga yordam beruvchi muhim qadam hisoblanadi.

Ba’zi bolalarda buzilish sababi aniqroq bo‘lishi mumkin (masalan, eshitishning pasayishi yoki tanglayda mavjud muammolar). Biroq hatto bunday organik omillar mavjud bo‘lgan taqdirda ham, ular har doim ham nutq buzilishining aynan qanday turda namoyon bo‘lishini yoki bola organizmi davolanishga qanday munosabat ko‘rsatishini aniq belgilab bermaydi. Sabablar va davolash haqida fikr yuritganda, nutq tovushlarini kengroq, ya’ni til tizimi doirasida ko‘rib chiqish zarur. Yuqorida ta’kidlanganidek, nutq tovushlari tilning faqat bir komponenti (ya’ni fonologiya) hisoblanadi. Tilning boshqa muhim tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat:

- **Semantika** – so‘zlarning ma’nosi, ya’ni lug‘at boyligi orqali ifodalanadigan ma’no tizimi;
- **Morfologiya** – tilning eng kichik ma’noli birliklari (so‘zlar va ularning qismlari), masalan, ko‘plik qo‘shimchasi (-lar: *kitoblar*) yoki zamon qo‘shimchalari (-di: *ko‘rdi*), shuningdek murakkab (qo‘shma) so‘zlar (*balandparvoz* – ikki ma’noli birlikdan iborat);
- **Sintaksis** – so‘zlarning o‘zaro grammatik munosabatga kirishuvini hamda grammatik qoidalarini o‘rganish;
- **Pragmatika** – tilni ijtimoiy vaziyatga mos holda to‘g‘ri qo‘llash;
- **Diskurs** – fikrni mantiqan bog‘langan gaplar orqali ifodalash, ya’ni muloqot jarayonida matn yaratish qobiliyati.

Tilning ushbu barcha jihatlari bolalarda asta-sekin va vaqtlar davomida rivojlanadi. Dastlab bolalarning ma’noli nutq

birliklari orqali o‘z fikrini ifodalashi muhim hisoblanadi. Biroq keyinchalik tovushlarni to‘g‘ri qo‘llash masalasi dolzarb bo‘lib boradi, chunki aynan to‘g‘ri talaffuz orqali bola tinglovchi uchun tushunarli (intelligible) bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda, nutq va til mutaxassislari dastlab kichik yoshdagi bolalarda semantika va lug‘at rivojlanishiga e’tibor qaratadilar, so‘ng fonologiya, undan keyin esa grammatik tizimlar (morfologiya va sintaksis) ga urg‘u beriladi. Garchi bu jarayonlar bir vaqtning o‘zida rivojlanayotgan bo‘lsa-da, pragmatika va diskurs masalalari odatda, keyinroq dolzarb bo‘ladi, chunki ular lug‘at va sintaksisga tayanadi. Shu sababli, pragmatika va diskursni rivojlantirish ko‘proq katta yoshdagi bolalar bilan ishlashda asosiy maqsadga aylanadi.

Yuqorida ta’kidlanganidek, nutq tovushlari buzilishlari haqidagi tushunchalarimiz yillar davomida sezilarli darajada o‘zgardi. Bunday muammolar ko‘pincha faqat alohida tovushlarni to‘g‘ri talaffuz qila olish bilan cheklanmaydi. Aslida masala – bu insonning boshqalar bilan muloqot qila olishi, ya’ni o‘z fikrini tushunarli tarzda yetkaza olishidir. Bugungi kunda tobora ko‘proq ravshanlashmoqdaki, normal nutq tovush tizimi **savodxonlik** uchun ham muhim ahamiyatga ega. Bolalarning **fonologik ong** (so‘zlardagi tovushlar va bo‘g‘inlarni ongda tahlil qilish va boshqarish qobiliyati) darajasi ularning o‘qish va yozish ko‘nikmalariga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Nutq tovushlari buzilishiga ega bolalarda fonologik ong yetarli darajada rivojlanmasligi va keyinchalik savodxonlik bilan bog‘liq muammolar yuzaga kelishi xavfi yuqori bo‘ladi. Shu sababli mutaxassislar fonologiya haqidagi bilimlarini bolalarning savodxonlik rivojlanishini kuzatishga tatbiq eta boshladilar.

Biroq muammo mavjud yoki yo‘qligini aniqlashdan oldin, muhim bir jihatni yodda tutish zarur. Ba’zi bolalar o‘z atrofidagi nutq tizimidan farq qiluvchi tovushlardan foydalanishlari mumkin. Jahon miqyosida ikkinchi til o‘rganuvchilar sonining ko‘payishi va turli tillarning qo‘llanilishi shuni ko‘rsatadiki, lingvistik farqlar kundalik muloqotning ajralmas qismidir. Nutq va til mutaxassislari asosan, nutq tovushlari bilan bog‘liq buzilishlarni aniqlashga e’tibor qaratadilar. Agar mutaxassis mijozning tilini yoki dialektini bilmasa, bu holda nutqdagi farq bilan haqiqiy buzilishni ajratish juda qiyin bo‘lishi mumkin. Buni yengillashtiruvchi ba’zi ko‘rsatmalar mavjud bo‘lsa-da, amaliyotda ikki tilli yoki turli til/dialekt vakillari bo‘lgan mutaxassislarga ehtiyoj katta.

Nutq tovushlari buzilishlarini o‘rganishda yana bir muhim jihat – zamonaviy yondashuvni hisobga olish. Endilikda shunchaki “biz nima qilayotganimizni bilamiz” deyish yetarli emas. Mutaxassislar ilmiy dalillar keltirishlari, ya’ni **dalillarga asoslangan amaliyot (DAA yoki** *evidence-based practice* – *EBP*)ni qo‘llashlari zarur.

Christine Dollaghan o‘zining 2007-yildagi kitobida DAA quyidagilarni o‘z ichiga olishini ta’kidlaydi:[7:24–45]

1) tizimli ilmiy tadqiqotlarga asoslangan eng yaxshi tashqi dalillar;
2) klinik amaliyotdan olingan ichki tajriba va dalillar;
3) to‘liq xabardor qilingan bemorning (yoki ota-onaning) imkoniyatlari va tanlovi.

Shuningdek, mutaxassis o‘z amaliyotida har bir mijoz bilan olib borilayotgan ish haqiqatan ham ijobiy natija berayotganini aniqlash uchun o‘zining ichki dalillarini ham shakllantirishi zarurligi ta’kidlanadi.

Bemor (yoki ota-ona) tanlovi masalasiga kelsak, so‘nggi 20 yil ichida turli davolash usullari keng rivojlandi. Endilikda mutaxassis faqat “artikulyatsiya terapiyasi qilamiz” deb aytish bilan cheklanib qolmaydi. Aksincha, ota-onalar mavjud davolash variantlari haqida to‘liq ma’lumotga ega bo‘lishlari va eng maqbul usulni tanlash jarayonida faol ishtirok etishlari kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Moore, P., and D. G. Kester, “Historical notes on speech correction in the pre-association era.” Journal of Speech and Hearing Disorders, 18 (1953): 48–53.
2. Wallin, J. E. W., “A census of speech defectives among 89,057 public-school pupils: A preliminary report.” School and Society, 3 (1916): 213–216.
3. Blanton, S., “A survey of speech defects.” Journal of Educational Psychology, 7 (1916): 581–592.
4. Van Riper, C., Speech Correction: Principles and Methods. – Englewood Cliffs, NJ: Prentice-Hall, 1939.
5. Campbell, T. F., C. A. Dollaghan, H. E. Rockette, J. L. Paradise, H. M. Feldman, L. D. Shriberg, et al., “Risk factors for speech delay of unknown origin in 3-year-old children.” Child Development, 74 (2003): 346–357.
6. Juel, C., “Learning to read and write: A longitudinal study of 54 children from first through fourth grades.” Journal of Educational Psychology, 80 (1988): 437–447.
7. Lawrence, K., “Embedding a speech sound intervention in shared storybook reading.” Contemporary Issues in Communication Sciences and Disorders, 41 (2014): 221–234.
8. Mullen, R., and T. Schooling, “The national outcomes measurement system for pediatric speech-language pathology.” Language, Speech, and Hearing Services in Schools, 41 (2010): 44–60.
9. Christian, D., W. Wolfram, and N. Nube, Variation and Change in Geographically Isolated Communities: Appalachian English and Ozark English. – Tuscaloosa: University of Alabama Press, 1988.

Nurjayna ORINGALIEVA,
Berdaq nomidagi Qoraqalpoq Davlat universiteti
O‘zbek filologiyasi fakulteti Filologiya va tillarni o‘qitish:
o‘zbek tili yo‘nalishi 2-kurs talabasi



BOLALARDA TILNI O‘ZLASHTIRISH JARAYONINING PSIXOLINGVISTIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada bolalarda tilni o‘zlashtirish jarayonining psixolingvistik xususiyatlari yoritiladi. Psixolingvistikaning mohiyati, til va tafakkur o‘rtasidagi bog‘liqlik hamda bolalarda nutqning shakllanish jarayoni tahlil qilinadi. Shuningdek, bolalarning tilni o‘rganish bosqichlari, nutq rivoji va bu jarayonga ta’sir etuvchi omillar haqida fikr yuritiladi. Maqolada psixolingvist olimlar qarashlari asosida tilni o‘zlashtirish jarayonining muhim jihatlari muhokama qilinadi.

Kalit so‘zlar: *psixolingvistika, til o‘zlashtirish, bolalar nutqi, til va tafakkur, nutq rivoji, til o‘rganish jarayoni*

Annotation: this article explores the psycholinguistic features of language acquisition in children. It explains the concept of psycholinguistics, the relationship between language and thought, and the process of speech development in children. The study discusses stages of language acquisition, factors influencing language development, and key theories proposed by psycholinguists. The paper highlights important aspects of how children acquire language naturally.

Key words: *psycholinguistics, language acquisition, child speech, language and thought, speech development, learning process*

Аннотация: в данной статье рассматриваются психолингвистические особенности усвоения языка у детей. Раскрывается сущность психолингвистики, взаимосвязь языка и мышления, а также процесс формирования речи у детей. Обсуждаются этапы овладения языком, факторы, влияющие на развитие речи, и взгляды ученых-психолингвистов. Особое внимание уделяется естественному процессу усвоения языка детьми.

Ключевые слова: *психолингвистика, усвоение языка, детская речь, язык и мышление, развитие речи, процесс обучения*

Kirish. Til inson tafakkurining asosiy vositasi bo‘lib, jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarning shakllanishida muhim o‘rin tutadi. Bolaning tilni o‘zlashtirish jarayoni murakkab psixik va lingvistik hodisa hisoblanadi. Ushbu jarayon psixolingvistika fanining asosiy tadqiqot obyektlaridan biri bo‘lib, unda insonning nutqiy faoliyati, til birliklarini qabul qilishi va ulardan foydalanish mexanizmlari o‘rganiladi.

Bolalarda tilni egallash tug‘ma biologik imkoniyatlar hamda tashqi ijtimoiy muhit ta’siri asosida shakllanadi. Bola tug‘ilgan ilk kunlardan boshlab tovushlarni eshitadi, ularga taqlid qiladi va asta-sekin nutqiy faoliyatni o‘zlashtira boshlaydi. Shu bois bolalar nutqining rivojlanishini psixolingvistik jihatdan tadqiq etish dolzarb ilmiy masalalardan biridir.

Psixolingvistika til va inson tafakkuri o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganadigan fan bo‘lib, u tilni nafaqat aloqa vositasi, balki inson ongining muhim qismi sifatida ko‘rib chiqadi. Ushbu fan til qanday shakllanishini, inson nutqni qanday qabul qilishini, tushunishini va uni qanday ishlab chiqarishini tushuntirishga harakat qiladi. Psixolingvistika tilni o‘rganishda faqat grammatik qoidalar bilan cheklanmaydi, balki til ortidagi psixologik jarayonlarga ham e’tibor qaratadi. Til inson hayotida muhim o‘rin egallaydi, chunki u orqali inson fikrini ifodalaydi, boshqalar bilan muloqot qiladi va atrof-muhitni anglaydi. Shu sababli tilni o‘zlashtirish jarayoni oddiy o‘rganish emas, balki murakkab aqliy faoliyat hisoblanadi. Inson til orqali nafaqat ma’lumot almashadi, balki tafakkurini ham rivojlantiradi.

Bolalarda tilni o‘zlashtirish jarayoni, ayniqsa, diqqatga sazovor hisoblanadi. Bola tug‘ilgan zahoti tilni bilmaydi, lekin qisqa vaqt ichida u murakkab nutq tizimini o‘zlashtira boshlaydi. Bu jarayon asta-sekin sodir bo‘ladi: avval bola tovushlarni eshitadi va farqlaydi, keyin ularni takrorlashga harakat qiladi, undan so‘ng esa so‘zlarni va gaplarni ishlata boshlaydi. Bu bosqichlarning har biri bolaning umumiy rivoji bilan bog‘liq bo‘ladi. Bolalar tilni o‘rganishda kattalarga o‘xshamaydi. Ular tilni maxsus o‘rganmaydi, balki uni tabiiy ravishda egallaydi. Bu jarayonda bola atrofidagi nutqni eshitadi, uni tushunishga harakat qiladi va asta-sekin o‘z nutqini shakllantiradi. Shu sababli tilni o‘zlashtirish jarayoni tabiiy va uzluksiz jarayon sifatida qaraladi. Bundan tashqari, bolalarda tilni o‘zlashtirish faqat biologik jarayon emas, balki ijtimoiy jarayon ham hisoblanadi. Bola ota-ona, oila a’zolari va atrofidagi odamlar bilan muloqot qilish orqali tilni tezroq o‘rganadi. Agar bola faol nutq muhitida bo‘lsa, uning nutqi tezroq rivojlanadi. Aksincha, nutq muhiti yetarli bo‘lmasa, til rivoji sekinlashishi mumkin.

Shu tomondan qaraganda, bolalarda tilni o‘zlashtirish jarayonini psixolingvistik nuqtayi nazardan o‘rganish muhim ahamiyatga ega. Bu orqali til rivojining qanday sodir bo‘lishini, unga qanday omillar ta’sir qilishini va bu jarayonni qanday qo‘llab-quvvatlash mumkinligini tushunish mumkin. Ushbu maqolada aynan shu masalalar kengroq yoritiladi.

Muhokama. Bolalarda tilni o‘zlashtirish jarayoni psixolingvistika doirasida eng muhim va murakkab masalalardan biri hisoblanadi. Bu jarayonni tushuntirish uchun turli olimlar turli nazariyalarni ilgari surgan bo‘lib, ularning har biri til rivojining ma’lum bir tomonini ochib beradi.

Amerikalik tilshunos Noam Chomskiy tilni egallashning tug‘ma mexanizmlari mavjudligini ta’kidlab, “tilni o‘zlashtirish qurilmasi” nazariyasini ilgari surgan. Unga ko‘ra, bola biologik jihatdan tilni o‘rganishga tayyor holda tug‘iladi. Biroq keyingi tadqiqotlar til rivojida ijtimoiy muhit va kommunikativ faoliyatning ham katta ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatdi.

Chomskiy (1965) tilni o‘zlashtirish tug‘ma qobiliyat bilan bog‘liq ekanini ta’kidlaydi. Uning fikricha, bola tug‘ilganda tilni o‘rganishga tayyor bo‘ladi va uning ongida tilni egallashga yordam beruvchi ichki mexanizm mavjud. Shu sababli bola qisqa vaqt ichida grammatik jihatdan to‘g‘ri gap tuzishni o‘rganadi. Bu qarash til o‘zlashtirish jarayonining biologik asosga ega ekanini ko‘rsatadi.

Skinner (1957) esa bu jarayonni boshqacha tushuntiradi. Uning fikricha, bola tilni atrofdagi nutqni takrorlash orqali o‘rganadi. Ya’ni bola eshitgan so‘zlarni qayta ishlatadi va asta-sekin nutqi shakllanadi. Bu yondashuv til o‘rganishda tashqi muhitning rolini ko‘rsatadi.

Piaget (1952) til rivojini bolaning umumiy aqliy rivoji bilan bog‘laydi. Uning fikricha, bola ma’lum bosqichlardan o‘tadi va har bir bosqichda uning tafakkuri bilan birga nutqi ham rivojlanadi. Bu qarash til va tafakkur o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniq ko‘rsatadi.

Vygotskiy (1978) esa til rivojida ijtimoiy muhitning rolini alohida ta’kidlaydi. Uning fikricha, bola kattalar bilan muloqot qilish orqali tilni o‘rganadi. Dastlab bola tashqi nutq orqali fikr bildiradi, keyinchalik esa ichki nutq shakllanadi. Bu esa tilning fikrlash jarayoniga bevosita ta’sir qilishini ko‘rsatadi.

Bruner (1983) til o‘zlashtirish jarayonida kattalarning qo‘llab-quvvatlashini muhim, deb hisoblaydi. Uning fikricha, bola tilni mustaqil o‘rganmaydi, balki kattalar yordamida asta-sekin o‘rganadi. Bu jarayon bolaning nutq rivojiga katta yordam beradi.

Bolalarda tilni o‘zlashtirishi bosqichma-bosqich amalga oshadi. Dastlab bola tovushlarni chiqaradi, keyinchalik bir so‘zli gaplar paydo bo‘ladi. So‘ngra ikki so‘zli gaplar shakllanadi va asta-sekin murakkab gap tuzilmalari paydo bo‘ladi. Bu bosqichlar bolaning yoshiga va rivojlanishiga bog‘liq bo‘ladi. Shuningdek, tilni o‘zlashtirish jarayoniga turli omillar ta’sir qiladi. Eng muhim omillardan biri bu nutq muhiti. Agar bola boy nutq muhitida bo‘lsa, u tilni tezroq va to‘g‘riroq o‘rganadi. Bundan tashqari, ota-onaning nutqi, bolaning eshitish qobiliyati va muloqot qilish imkoniyati ham muhim rol o‘ynaydi.

Zamonaviy psixolingvistik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, tilni o‘zlashtirish jarayoni bir nechta omillar ta’sirida shakllanadi. Bu jarayonda biologik imkoniyatlar, psixologik rivojlanish va ijtimoiy muhit birgalikda ishtirok etadi. Shu sababli til o‘zlashtirishni faqat bitta omil bilan tushuntirish yetarli emas. Natijada, bolalarda tilni o‘zlashtirish jarayoni murakkab, lekin tabiiy jarayon ekanligi ko‘rinadi. Bu jarayonni to‘g‘ri tushunish esa ta’lim va tarbiya jarayonida muhim ahamiyatga ega.

Til va tafakkur o‘rtasidagi bog‘liqlik. Psixolingvistik tadqiqotlarda til va tafakkur o‘zaro uzviy bog‘liq hodisalar sifatida qaraladi. Mashhur psixolog Lev Vigotskiy nutq bolaning tafakkurini rivojlantirishda asosiy vosita ekanligini ta’kidlagan. Bola til yordamida atrof-muhitni anglaydi, predmet va hodisalarni umumlashtiradi hamda mantiqiy fikrlashni rivojlantiradi.

Tilning rivojlanishi quyidagi kognitiv jarayonlarga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi:

xotiraning mustahkamlanishi;

— mantiqiy tafakkurning rivojlanishi;

— diqqatning barqarorlashuvi;

— tasavvur va ijodkorlikning kengayishi.

Shu sababli bolalar bilan muntazam muloqot qilish, ertak o‘qib berish va savol-javob usullaridan foydalanish nutq rivoji uchun muhim ahamiyatga ega.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, bolalarda tilni o‘zlashtirish jarayoni murakkab, lekin tabiiy ravishda kechadigan jarayon hisoblanadi. Ushbu jarayon bola tug‘ilgan paytdan boshlanadi va uning umumiy rivoji bilan birga bosqichma-bosqich shakllanib boradi.Tilni o‘zlashtirish jarayoni faqat so‘zlarni o‘rganish bilan cheklanmaydi, balki u bolaning fikrlashi, idroki va muloqot qilish qobiliyati bilan chambarchas bog‘liq bo‘ladi. Maqolada ko‘rib chiqilganidek, bolalarda til rivoji turli omillar ta’sirida shakllanadi. Biologik imkoniyatlar, psixologik rivojlanish va ijtimoiy muhit birgalikda ushbu jarayonni belgilaydi. Ayniqsa, bola yashaydigan nutq muhiti va kattalar bilan muloqot qilish darajasi uning nutq rivojiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Shuningdek, turli olimlar tomonidan ilgari surilgan nazariyalar tilni o‘zlashtirish jarayonini har xil nuqtayi nazardan tushuntiradi. Bu nazariyalar til rivojining faqat bitta omilga emas, balki bir nechta omillarning o‘zaro ta’siriga bog‘liqligini ko‘rsatadi. Shu sababli bolalarda tilni o‘zlashtirishni kengroq va kompleks tarzda o‘rganish muhim hisoblanadi. Bundan tashqari, bolalarda til rivojining bosqichma-bosqich amalga oshishi ushbu jarayonning tartibli va izchil ekanini ko‘rsatadi. Bola dastlab oddiy tovushlardan boshlaydi va asta-sekin murakkab nutq tuzilmalariga o‘tadi. Bu esa til rivojining tabiiy va uzluksiz jarayon ekanini yana bir bor tasdiqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Chomskiy, N. (1965). *Aspects of the theory of syntax*. MIT Press.
2.Skinner, B.F. (1957). *Verbal behavior*. Appleton-Century-Crofts.
3.Piaget, J. (1952). *The origins of intelligence in children*. International Universities Press.
4.Vygotskiy, L.S. (1978). *Mind in society: The development of higher psychological processes*. Harvard University Press.
5.Bruner, J.S. (1983). *Child’s talk: Learning to use language*. Oxford niversity Press.
6.Lightbown, P.M., & Spada, N. (2013). *How languages are learned*. Oxford University Press.
7.Clark, E.V. (2009). *First language acquisition*. Cambridge University Press.
8.Fromkin, V., Rodman, R., & Hyams, N. (2014). *An introduction to language*. Cengage Learning.
9.Saville-Troike, M. (2012). *Introducing second language acquisition*. Cambridge University Press.
10. Brown, H.D. (2007). *Principles of language learning and teaching*. Pearson Education.
11.Abdurahmonov G‘.*Umumiy tilshunoslik asoslari.* —Toshkent: Fan nashriyoti, 2010.

Сохибжамол АХМАДЖАНОВА,
Магистрантка 2-курса УзГУМЯ
ahmadjonovas.02@gmail.com

ИСТОРИКО-ЛИТЕРАТУРНЫЙ И ЖАНРОВЫЙ КОНТЕКСТ ЦИКЛА ОЧЕРКОВ И. А. ГОНЧАРОВА «ФРЕГАТ ПАЛЛАДА»

Аннотация: в статье исследуется место цикла путевых очерков «Фрегат Паллада» в творческой эволюции И. А. Гончарова. Автор анализирует обстоятельства создания произведения, его глубокую связь с биографическим контекстом писателя и ключевыми романами его знаменитой трилогии. Особое внимание уделяется уникальной жанровой специфике текста, представляющего собой сложный синтез документалистики, философского эссе, этнографического исследования и художественной прозы. Рассматривается рецепция произведения современниками и его основополагающая роль в формировании русского реалистического путевого очерка как инструмента межкультурного диалога.

Ключевые слова: *И. А. Гончаров, «Фрегат Паллада», путевой очерк, жанровый синтез, реализм, философия покоя и движения, имагология, литературная критика XIX века.*

